A. V. Vaxabov D. A. Tadjibayeva Sh. X. Xajibakiyev

JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR



BAKTRIA PRESS

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ABDURAXIM VASIKOVICH VAXABOV

DILDORA ASAMUTDINOVNA TADJIBAYEVA

SHUXRAT XUJAYOROVICH XAJIBAKIYEV

JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR

DARSLIK

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 5230100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) yo‘nalishining talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT — 2015

UO'K: 339.13(075.8)
338(075.8)
KBK 65.5
V-30 224

Vahabov A.V.
Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik /A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev. — Toshkent: Baktria press, 2015. — 584 b.

Darslikda «Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar» fanining muhim masalalari, o'qitishning interfaol va zamonaviy pedagogik uslublariga asoslangan holda qisqa va tushunarli tilda bayon etilgan. Darslikda jahon iqtisodiyotining negizi hisoblangan xalqaro mehnat taqsimoti, jahon xo'jalik tizimining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari, iqtisodiy qonuniyatlari, iqtisodiy markazlari, makroiqtisodiy rivojlanish modellari tahlil qilingan. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar asoslari, xalqaro savdo, ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati, xalqaro valyuta-kredit va moliya munosabatlari va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning nazariy va amaliy masalalarining mohiyati ochib berilgan. Ushbu darslik oliy o'quv yurtlarining iqtisodiyot yo'nalishida o'qiyotgan bakalavr, magistrantlariga, katta ilmiy xodim, mustaqil tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar va jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.

KBK 65.5

Taqrizchilar:

A. U. Burxonov — TDTU «Menejment» kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor,

X. P. Abulqosimov — O'zMU «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrasi professori, iqtisod fanlari doktori.

Darslik JICA bitiruvchilari assotsiatsiyasi moliyaviy ko'magida nashr etilgan. Bu yerda bildirilgan fikr, mulohaza, xulosa va tavsiyalar mualliflarga tegishli bo'lib, Yaponiya hukumatining rasmiy nuqtayi nazarini aks ettirmaydi.

Ushbu loyiha O'zbekistondagi Amerika Qo'shma Shtatlari Elchixonasi moliyaviy ko'magi bilan amalga oshirilgan. Bu yerda bildirilgan fikr, mulohaza, xulosa yoki tavsiyalar mualliflarga tegishli bo'lib, AQSH hukumatining rasmiy nuqtai nazarini aks ettirmaydi.

JICA Alumni.UZ
O'ZBEKISTONDA JICA DASTURLARI BITIRUVCHILARINING ASSOTSIATSIYASI

ISBN 978-9943-4414-8-4

© O'zbekiston Milliy Universiteti, 2015
© A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev, 2015
© Baktria press, 2015

MUNDARIJA

KIRISH 11

I QISM. JAHON IQTISODIYOTI

I BO'LIM.
JAHON XO'JALIGI TIZIMI

1-BOB. JAHON XO'JALIGINING MOHIYATI, VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 15
1.1. Jahon xo'jaligining mohiyati 15
1.2. Jahon iqtisodiyotining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari 17
1.3. Jahon xo'jaligining rivojlanishi to'g'risidagi ilmiy konsepsiyalar 21
1.4. Jahon xo'jaligining globallashuvi 23

2-BOB. JAHON IQTISODIYOTINING MARKAZLARI. DUNYO MAMLAKATLARINING IQTISODIY RIVOJLANISH JIHATDAN GURUHLANISHI 26
2.1. Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish jihatdan guruhlanish asoslari 26
2.2. Xalqaro moliya institutlari tomonidan guruhlanishi 28
2.3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) yondashuvi 34

3-BOB. JAHON IQTISODIYOTIDA IQTISODIY O'SISH VA UNING SIKLIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI 38
3.1. Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish muammosi 38
3.2. Jahon konyunkturasining zamonaviy holati va iqtisodiy o'sish omillari . . . 43
3.3. Iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanish 48
3.4. Inson taraqqiyoti indeksi va turmush sifati 49
Asosiy tushunchalar 54
Nazorat savollari 54

4-BOB. MAKROIQTISODIY RIVOJLANISHNING ASOSIY MODELLARI VA JAHON IQTISODIYOTIDA MAMLAKATLAR RAQOBATBARDOSHLIGI 55
4.1. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy modellari 55
4.2. Neoliberal iqtisodiy rivojlanish modeli 59
4.3. Iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy bozor xo'jaligi modeli 60
4.4. Iqtisodiy rivojlanishning Sharqiy Osiyo modeli 61
4.5. Iqtisodiyotning ochiqligi va raqobatbardoshligi 62

Asosiy tushunchalar 69
Nazorat savollari 70

II BO'LIM.
JAHON XO'JALIGIDA SANOAT JIHATDAN TARAQQIY ETGAN MAMLAKATLAR

5-BOB.
JAHON IQTISODIYOTIDA SANOAT JIHATDAN TARAQQIY ETGAN MAMLAKATLAR 71
5.1. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning tavsifi, belgilari, guruhlanishi va rivojlanish modellari 71
5.2. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari 75
5.3. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining tarkibi 77
5.4. Rivojlangan mamlakatlarda «yangi iqtisodiyot»ning shakllanishi 81
5.5. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida davlatning roli 85
Asosiy tushunchalar 87
Nazorat savollari 88

6-BOB. AQSh IQTISODIYOTI 88
6.1. AQShda bozor iqtisodiyotining rivojlanish omillari va xususiyatlari .. 88
6.2. AQSh iqtisodiyotining tarkibi va rivojlanish dinamikasi 91
6.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining AQSh iqtisodiyotiga ta'siri. ... 95
6.4. O'zbekiston va AQSh tashqi iqtisodiy aloqalari 100
Asosiy tushunchalar 102
Nazorat savollari 102

7-BOB. G'ARBIY YEVROPA IQTISODIYOTI TARKIBI VA INTEGRATSIYA JARAYONLARINING CHUQURLASHUVI 103
7.1. G'arbiy Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha guruhlanishi va integratsiya jarayonlari 103
7.2. Yevropa Ittifoqi iqtisodiyotining tarkibi va rivojlanish tendensiyalari 105
7.3. Yevropa Ittifoqi iqtisodiyotiga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'siri va undan chiqish yo'llari 109
7.4. Yevro hududining rivojlanish istiqbollari 111
7.5. O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi tashqi iqtisodiy aloqalari 117
Asosiy tushunchalar 119
Nazorat savollari 119

8-BOB. YAPONIYA IQTISODIYOTI 119
8.1. Yaponiya makroiqtisodiy rivojlanish modelining bosqichlari, omillari va xususiyatlari 119
8.2. Yaponiya iqtisodiyotining tarkibi va rivojlanish dinamikasi 122
8.3. Yaponiya iqtisodiyotiga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'siri va undan chiqish yo'llari 126
8.4. O'zbekiston va Yaponiya iqtisodiy hamkorligi 130
Asosiy tushunchalar 132
Nazorat savollari 132

III BO‘LIM.
JAHON XO‘JALIGIDA RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI

9-BOB. RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTINING HOLATI, TARKIBI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 133
9.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning belgilari va guruhlanishi 133
9.2. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatlashtirish modellari 136
9.3. Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi mavqeyining ortib borishi 139
9.4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag‘allik muammosi 144
Asosiy tushunchalar 145
Nazorat savollari.....146

10-BOB. JAHON XO‘JALIGIDA YANGI INDUSTRIAL MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI.....146
10.1. Yangi industrial mamlakatlarning umumiy tavsifi va guruhlanishi 146
10.2. Janubi-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlari 149
10.3. Lotin Amerikasi yangi industrial mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari.....153
Asosiy tushunchalar 157
Nazorat savollari.....157
11-BOB. BRICS MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI 158
11.1. BRICS mamlakatlarining jahon iqtisodiyotidagi mavqeyining ortib borishi 158
11.2. BRICS mamlakatlari iqtisodiyotining tarkibi va rivojlanish tendensiyalari 161
11.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining BRICS mamlakatlari iqtisodiyotiga ta’siri va rivojlanish istiqbollari.....165
Asosiy tushunchalar 169
Nazorat savollari.....169

12-BOB. XITOY IQTISODIYOTI 170
12.1. Xitoy iqtisodiy islohotlarining mohiyati, bosqichlari va omillari 170
12.2. Xitoy iqtisodiyotining tarkibi va rivojlanish dinamikasi.....175
12.3. Xitoyning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni.....180
12.4. Xitoy iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari 188
12.5. O‘zbekiston va Xitoy iqtisodiy aloqalarining ustuvor yo‘nalishlari ..192
Asosiy tushunchalar 195
Nazorat savollari.....195

IV BO‘LIM.
JAHON XO‘JALIGIDA O‘TISH IQTISODIYOTI MAMLAKATLARI

13-BOB. O‘TICH IQTISODIYOTI MAMLAKATLARINING XUSUSIYATLARI VA IQTISODIY ISLOHOTLAR YO‘NALISHLARI 197
13.1. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish zaruriyati, maqsadi va prinsiplari.....197
13.2. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar modellari va ularning natijalari..... 200
13.3. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari iqtisodiyoti. . .203

13.4. O‘zbekiston va o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik aloqalari 207
Asosiy tushunchalar 208
Nazorat savollari 208

14-BOB. ROSSIYA IQTISODIYOTI 209
14.1. Rossiyaning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari 209
14.2. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Rossiya iqtisodiyotiga ta’siri va inqirozga qarshi choralar dasturi 212
14.3. Rossiya iqtisodiyotining xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rni va rivojlanish istiqbollari 219
14.4. O‘zbekiston va Rossiya iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi 225
Asosiy tushunchalar 226
Nazorat savollari 227

15-BOB. O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING JAHON XO‘JALIGIDAGI O‘RNI. O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLARNING CHUQURLASHUVI
15.1. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning «o‘zbek modeli»: mohiyati, prinsiplari va bosqichlari 227
15.2. O‘zbekiston iqtisodiyotining tarkibi va jahon iqtisodiyotidagi o‘rni 230
15.3. O‘zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarining tarkibi va rivojlanish dinamikasi 231
15.4. O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari 236
Asosiy tushunchalar 240
Nazorat savollari 240

II QISM.
XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR

V BO‘LIM.
XALQARO SAVDO

16-BOB. XALQARO MEHNAT TAQSIMOTI 245
16.1. Xalqaro mehnat taqsimotining mohiyati 245
16.2. Mamlakatlarning XMTda qatnashishlariga ta’sir qiluvchi omillar va uning rivojlanish ko‘rsatkichlari 247
16.3. Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi 248
16.4. XMT ning zamonaviy G‘arb nazariyalari 250
Asosiy tushunchalar 252
Nazorat savollari 252

17-BOB. XALQARO SAVDO NAZARIYALARI 253
17.1. Merkantilizm va erkin savdo g‘oyasi 253
17.2. Mutlaq va nisbiy afzallik nazariyalari 254
17.3. Xeksher-Olin nazariyasi. V. Leontyev paradoksi 256
17.4. Xalqaro savdoning yangi va o‘ta yangi nazariyalari 259
Asosiy tushunchalar 269
Nazorat savollari 270

18-BOB. XALQARO SAVDO: TARKIBI
VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 270
18.1. Xalqaro savdoning rivojlanish bosqichlari va xususiyatlari 270
18.2. Jahon savdosining tarkibi va uning o'zgarish tendensiyalari 273
18.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining xalqaro savdoga ta'siri 277
18.4. O'zbekiston tashqi savdosining tarkibi va rivojlanish omillari 280
Asosiy tushunchalar 284
Nazorat savollari 284

19-BOB. JAHON SAVDO TACHKILOTI (JST) VA XALQARO SAVDO 285
19.1. Tarif va savdo bo'yicha bosh kelishuv (GATT): tashkil topishi
va faoliyat ko'rsatish prinsiplari 285
19.2. GATT/JST doirasida amalga oshirilgan muzokaralar evolyutsiyasi 285
19.3. JST ga a'zo bo'lish bosqichlari 289
19.4. O'zbekiston va JST munosabatlari 291
19.5. O'zbekiston tashqi savdosini erkinlashtirish yo'llari 293
Asosiy tushunchalar 294
Nazorat savollari 294

20-BOB. TACHQI SAVDONI TARTIBGA SOLISHNING TARIF
METODLARI 295
20.1. Tashqi savdoni tartibga solish zarurati va tashqi savdo siyosati 295
20.2. Bojxona tarifining turlari va hisoblash usullari 297
20.3. Bojxona tariflarini qo'llashning jahon tajribasi 300
20.4. Tarifli boshqaruvning afzalligi va kamchiliklari 308
Asosiy tushunchalar 310
Nazorat savollari 310

21-BOB. TACHQI SAVDONI TARTIBGA SOLISHNING
NOTARIF METODLARI 311
21.1. Notarif metodlarning guruhlanishi 311
21.2. Miqdoriy cheklovlar 312
21.3. Savdo siyosatining moliyaviy metodlari 314
21.4. Savdo siyosatining yashirin metodlari 318
21.5. Tartibga solishning noiqtisodiy metodlari 321
Asosiy tushunchalar 322
Nazorat savollari 323

VI BO'LIM.
XALQARO TOVARLAR, XIZMATLAR
VA INTELLEKTUAL MULK SAVDOSI

22-BOB. JAHON TAYYOR MAHSULOTLAR BOZORI 325
22.1. Jahon bozori konyunkturasi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar 325
22.2. Tayyor mahsulotlar bozorida narxlarning shakllanish xususiyatlari 327
22.3. Jahon qayta ishlash sanoati mahsulotlari bozorining rivojlanish
tendensiyalari 330
Asosiy tushunchalar 333
Nazorat savollari 334

23-BOB. JAHON XOMASHYO VA OZIQ-OVQATLAR BOZORI 334
23.1. Jahon xomashyo bozorlarining rivojlanish xususiyatlari.....334
23.2. Jahon oziq-ovqat bozorining tarkibi va rivojlanish xususiyatlari 338
23.3. Jahon oziq-ovqat inqirozi va uni hal etish yo'llari.....343
23.4. O'zbekistonda oziq-ovqat ishlab chiqarishning rivojlanish tendensiyalari 346
Asosiy tushunchalar 349
Nazorat uchun savollar.....350

24-BOB. XALQARO XIZMATLAR SAVDOSI.....350
24.1. Xalqaro xizmatlar: mohiyati, turlari va guruhlanishi 350
24.2. Xalqaro xizmatlar bozori: tarkibi, omillari va rivojlanish tamoyillari 356
24.3. Xalqaro transport va turizm xizmatlari.....363
24.4. Xalqaro xizmatlar savdosini tartibga solish usullari va yo'llari 367
24.5. O'zbekistonda turizmning rivojlanish istiqbollari.....368
Asosiy tushunchalar 371
Nazorat savollari.....372

25-BOB. INTELLEKTUAL MULK SAVDOSI 372
25.1. Intellektual mulk tushunchasi 372
25.2. Intellektual mulk savdosining tartibga solinishi.....374
25.3. Jahonda intellektual mulk savdosining rivojlanish tendensiyalari ...377
25.4. O'zbekistonda intellektual mulk savdosi huquqiy-institutsional asoslarining takomillashtirish 381
Asosiy tushunchalar 385
Nazorat savollari.....386

VII BO'LIM.
ISHLAB CHIQARISH OMILLARINING XALQARO HARAKATI

26-BOB. XALQARO KAPITAL MIGRATSIYASI 387
26.1. Xalqaro kapital migratsiyasi: sabablari, omillari va ko'rsatkichlari 387
26.2. Xalqaro kapital migratsiyasining shakllari va ularning guruhlanishi ...390
26.3. Xalqaro kapital migratsiyasining tarkibi va rivojlanish tendensiyalari...393
26.4. Xalqaro kapital migratsiyasini tartibga solish usullari 398
26.5 O'zbekiston xalqaro kapitallar migratsiyasi jarayonida 402
Asosiy tushunchalar 408
Nazorat savollari..... 409

27-BOB. XALQARO KORPORATSIYALAR XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR SUBYEKTI SIFATIDA 410
27.1. Xalqaro korporatsiyalarning vujudga kelish sabablari, funksiyalari va guruhlanishi.....410
27.2. Transmilliy korporatsiyalarning rivojlanish ko'rsatkichlari 414
27.3. Transmilliy banklar faoliyatining rivojlanish yo'nalishlari.....421
27.4. O'zbekistonda transmilliy korporatsiyalar faoliyati 425
Asosiy tushunchalar 428
Nazorat savollari.....428

28-BOB. XALQARO ISHCHI KUCHI MIGRATSIYASI 429
28.1. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining nazariy asoslari 429
28.2. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining mohiyati, omillari, sabablari va turlari 431
28.3. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining tarkibi va dinamikasi.....437
28.4. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi va pul o'tkazmalari..... 442
28.5. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solish usullari 445
28.6. O'zbekiston xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi jarayonida 452
Asosiy tushunchalar 454
Nazorat savollari.....454

29-BOB. TEXNOLOGIYALARNI XALQARO UZATISH.....455
29.1. Texnik taraqqiyotning xalqaro savdoga ta'siri nazariyalari.....455
29.2. Texnologiyalarni xalqaro uzatish shakllari va mexanizmlari 458
29.3. Xalqaro texnologiyalar bozorining rivojlanish tamoyillari 462
29.4. Xalqaro texnologiyalar savdosini tartibga solish usullari 467
Asosiy tushunchalar 470
Nazorat savollari.....471

VIII BO'LIM.
OCHIQ IQTISODIYOT

30-BOB. TO'LOV BALANSI, TASHQI QARZ VA OLTIN-VALYUTA ZAXIRALARI 473
30.1. To'lov balansi 473
30.2. Tashqi qarz.....478
30.3. Oltin-valyuta zaxiralari 484
30.4. To'lov balansi va iqtisodiy siyosat 487
Asosiy tushunchalar 493
Nazorat savollari.....494

31-BOB. XALQARO VALYUTA MUNOSABATLARI.....494
31.1. Valyuta munosabatlari tushunchasi va valyuta tizimi 494
31.2. Jahon valyuta tizimi va uning asosiy elementlari 496
31.3. Valyuta operatsiyalari va ularning asosiy turlari..... 500
31.4. O'zbekistonda valyuta munosabatlari 503
Asosiy tushunchalar 505
Nazorat savollari.....505

32-BOB. XALQARO VALYUTA-KREDIT VA MOLIYA BOZORLARI 506
32.1. Jahon moliya bozorining mohiyati va funksiyalari 506
32.2. Jahon moliya bozorining tarkibi va rivojlanish xususiyatlari 509
32.3. Jahon moliyaviy inqirozining vujudga kelish sabablari va undan chiqish yo'llari.....515
32.4. O'zbekistonning xalqaro moliya munosabatlarga integratsiyalashuvi ... 519
Asosiy tushunchalar 521
Nazorat savollari.....522

33-BOB. XALQARO IQTISODIY TASHKILOTLAR 523
33.1. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar: mohiyati, zaruriyati, funksiyalari va guruhlanishi 523
33.2. BMT ning ixtisoslashgan iqtisodiy va moliya tashkilotlari 526
33.3. Xalqaro mintaqaviy moliya tashkilotlari 536
33.4. O'zbekiston va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar 540
Asosiy tushunchalar 543
Nazorat savollari 544

34-BOB. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA 544
34.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya: zarurati, mazmuni va rivojlanish omillari 544
34.2. Iqtisodiy integratsiya shakllanishi shart-sharoitlari va rivojlanish bosqichlari 546
34.3. G'arbiy Yevropada integratsiya jarayonlarining rivojlanishi 551
34.4. Amerika qit'asida integratsiya jarayonlarining rivojlanish xususiyatlari 555
34.5. Osiyo–Tinch okeani mintaqasida integratsion jarayonlarning xususiyatlari 558
34.6. O'zbekistonning integratsion tashkilotlardagi ishtiroki 561
Asosiy tushunchalar 565
Nazorat savollari 565

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR 567

I. Rasmiy hujjatlar 567
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari 567
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari va farmonlari 567
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari 568

II. Maxsus adabiyotlar 569

III. Xalqaro moliya institutlarining hisobotlari, statistik to'plamlar 579

IV. Internet resurslari 582

KIRISH

Mazkur darslik jahon iqtisodiyoti ixtisosligidan tashqari jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yagona fan sifatida o'rganuvchi talabalarga mo'ljallangan. Mualliflar jamoasi o'z oldiga jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar, uning amal qilish mexanizmi va rivojlanish qonuniyatlari, O'zbekiston iqtisodiyotining jahon xo'jaligida tutgan o'rni va integratsiyalashuv yo'nalishlari to'g'risida to'liq tasavvur shakllantirish uchun zarur bo'lgan barcha masalalarni ixcham hajmda fanning mazmuniga ta'sir etmagan holda ko'rib chiqish vazifasini qo'ygan. Shu maqsadda jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar muammolari O'zbekiston iqtisodiyoti bilan bevosita bog'liqlikda tahlil qilingan.

Darslik tarkibi mantiqan uning maqsadidan kelib chiqqan holda «Jahon iqtisodiyoti» va «Xalqaro iqtisodiy munosabatlar» fanlari predmetining asoslarini, nazariy va amaliy jihatlarini uzviy bog'liq holda yoritishga qaratilgan.

Darslik ikki — «Jahon iqtisodiyoti» va «Xalqaro iqtisodiy munosabatlar» qismlaridan iborat.

Darslikning birinchi qismi, I bo'limida jahon xo'jaligining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari va qonuniyatlari, mohiyati ochib berilgan. Jahon xo'jaligining tarkibi, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish jihatdan guruhlanishi, makroiqtisodiy rivojlanish modellari va raqobatbardoshligini oshirish yo'llari tahlil qilingan. Ushbu qismda taraqqiy etgan, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari iqtisodiyotining jahon xo'jaligida tutgan o'rni, rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlari o'rganilgan. II bo'limda jahon xo'jaligida taraqqiy etgan mamlakatlarning tutgan o'rni baholangan, AQSh, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi kabi jahon xo'jaligi markazlari iqtisodiyotining tarkibi, rivojlanish tendensiyalari va O'zbekiston bilan olib borayotgan iqtisodiy aloqalari o'rganilgan. Darslikning III bo'limida rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish holati va xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni baholangan, rivojlanish tendensiyalari aniqlangan, guruhlangan, rivojlanish modellari tahlil qilingan. IV bo'limda esa bozor munosabatlarini shakllantirish yo'lidan borayotgan o'tish iqtisodiyoti mamlakatlaridagi iqtisodiy islohotlarning mazmuni, amalga oshirish bosqichlari aniqlangan. O'zbekiston iqtisodiyotining jahon xo'jaligi tizimida tutgan o'rni baholangan, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning bosqichlari, jumladan, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonlari tavsiflangan va mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jaligiga integratsiyalashuv yo'nalishlari bayon qilingan.

Darslikning ikkinchi qismi, V bo'limida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asoslari hisoblangan xalqaro mehnat taqsimoti yoritilgan, xalqaro savdo nazariyalarining kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari, xalqaro savdoning tarkibi, tashqi savdoni tartibga solish usullari va erkinlashtirish yo'nalishlari bayon etilgan. Darslikning VI bo'limida tovarlar, xizmatlar va intellektual mulk savdosining holati, tarkibi, rivojlanish tendensiyalari, mazmuni yoritib berilgan. Darslikning VII bo'limida

iqtisodiy omillar hisoblangan xalqaro kapitallar migratsiyasi va unda transmilliy korporatsiyalarning o'rni, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi va yuqori texnologiyalarni xalqaro uzatishning nazariy asoslari va amal qilish mexanizmi yoritilgan. Darslikning VIII bo'limida xalqaro valyuta munosabatlari, xalqaro valyuta-kredit va moliya bozorlari, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining vujudga kelish sabablari va inqirozdan chiqish dastaklari o'rganilgan. Jahon iqtisodiyotining globallashuvini eltuvchi xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning kelib chiqish zaruriyati, guruhlanishi, faoliyati va O'zbekiston bilan munosabatlari tahlil qilingan. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning holati baholangan, rivojlanish tendensiyalari aniqlangan va O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlaridagi faoliyati yo'nalishlari yoritilgan.

Mualliflar materialni aniq, mantiqan bog'langan holda bayon etishga harakat qilishgan. Darslik boblarining so'ngida asosiy tushunchalar va nazorat savollari keltirilgan. Darslikni tayyorlash jarayonida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va moliya institutlarining hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi materiallari, xorij va mamlakatimizda nashr etilgan ilmiy monografiyalar, ilmiy jurnallardagi maqolalardan unumli foydalanildi.

Ushbu darslik O'zbekiston Milliy universiteti iqtisodiyot fakulteti «Makroiqtisodiyot» kafedrasi professori, i. f. d. A. V. Vaxabov, i. f. n., dots. D. A. Tadjibayeva, katta o'qituvchi Sh. X. Xajibakiyevlar tarkibidagi mualliflar guruhi tomonidan tayyorlangan.

I QISM

JAHON IQTISODIYOTI

I BO‘LIM.
JAHON XO‘JALIGI TIZIMI

1-BOB. JAHON XO‘JALIGINING MOHIYATI, VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

1.1. Jahon xo‘jaligining mohiyati

Jahon iqtisodiyotiga keng va tor ma’nolarda ta’rif berish mumkin[1]. Keng ma’noda jahon iqtisodiyoti — bu milliy iqtisodiyotlar yig‘indisi sifatidagi tizim hisoblansa, tor ma’noda — bu milliy iqtisodiyotning tashqi dunyoga tovarlar, xizmatlar va iqtisodiy resurslar yetkazib beruvchi qismlarinigina qamrab oluvchi tizimdir. Jahon iqtisodiyotiga berilgan tor ma’nodagi ta’rif iqtisodiy nazariyadagi sotiladigan mahsulotlar va omillar tushunchasiga mos keladi. Amaliyotda keng ma’nodagi ta’rif ko‘proq qo‘llanilganligi bois ham keyingi matnlarda ushbu tushunchadan foydalanamiz. Shu bilan birga sotiladigan mahsulotlar va omillarga asoslangan xo‘jalik aloqalari yuzlab milliy xo‘jaliklarni «jahon iqtisodiyoti» deb ataladigan bir tizimga birlashtirishini e’tiborga olish lozim. Shu sababdan ham jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar o‘zaro bog‘liqdir (1.1.1-rasm).

1.1.1-rasm
Jahon iqtisodiyotining mohiyati va tarkibi



«Jahon iqtisodiyoti» tushunchasidan «xalqaro iqtisodiyot» tushunchasini farqlash lozim. Xalqaro iqtisodiyot deganda jahon iqtisodiyoti emas, balki xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyasi tushuniladi.

1 Jahon xo‘jaligi, umumjahon xo‘jaligi sinonimlar sifatida ishlatiladi.

Jahon iqtisodiyotining subyektlari. Jahon xo'jaligi tizimini sodda holda uning tarkibiy qismlari yoki asosiy qatnashchilari — subyektlaridan iborat mexanizm ko'rinishida ifodalash mumkin. Ushbu subyektlarning asosiylari milliy iqtisodiyotlar, transmilliy korporatsiyalar (TMK), integratsion birlashmalar, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotlar jahon iqtisodiyotining asosiy subyekti sanaladi. Milliy iqtisodiyotlarga xos asosiy xususiyat shundaki, dunyoning aksariyat mamlakatlari iqtisodiy suverenitetni saqlab kelishmoqda. Globallashuv jarayoni tufayli tashqi bosimning kuchayishiga qaramasdan mamlakatlarda eng muhim iqtisodiy qarorlar tashqaridan emas, balki milliy hukumatlar tomonidan qabul qilinmoqda. Shuning uchun ham jahon iqtisodiyotini tahlil etishda sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda mavjud iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga tayanish lozim. Shunga qaramasdan milliy iqtisodiyotlarning jahon iqtisodiyotidagi mavqeyi pasayib bormoqda. Ba'zi integratsion birlashmalarda iqtisodiy suverenitet qarorlar qabul qilishning umumiy mexanizmi bilan uyg'unlashib ketayotir. Milliy iqtisodiyot doirasida (jumladan, kichik mamlakatlarda) iqtisodiy qarorlar qabul qilishda hukumat o'z kompaniya va fuqarolari talablaridan emas, balki aksariyat hollarda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va xorijiy TMKlar talablaridan, manfaatlaridan kelib chiqishmoqda.

Avvallari u yoki bu mamlakatda tashqi iqtisodiy faoliyat bilan milliy firmalar shug'ullanishgan va ular uchun mamlakat ichki bozori asosiy bozor hisoblangan. Ammo oxirgi o'n yillikda ularning ko'pchiligi TMKlar darajasiga ko'tarilishdi va butun dunyo ularning faoliyat (savdo, sanoat, moliya) yuritish maydoniga aylandi. Natijada TMKlar jahon iqtisodiyotining muhim mustaqil tarkibiy qismiga aylanishdi va ular hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 1/5–1/4 qismi to'g'ri kelmoqda. TMKlarning aksariyat qismi o'z mamlakatlari ichki bozori uchun ishlashlariga qaramasdan globallashuv jarayonining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanishadi. Globallashuv jahonni yagona bozorga aylantirish vositasi sifatida TMKlar uchun manfaatli hisoblanadi, chunki ular ushbu bozorda eng kuchli xo'jalik subyektlari sanalishadi. Shu bilan birga TMKlarning manfaatlari doimo milliy iqtisodiyot manfaatlari bilan mos kelavermaydi. Shunga qaramasdan globallashuv jarayonining chuqurlashuvi natijasida TMKlarning jahon iqtisodiyotidagi o'rni va jahon xo'jaligining boshqa subyektlariga ta'siri ortib bormoqda.

TMKlar faoliyati natijasida aksariyat mamlakatlar iqtisodiyoti o'zaro birlashib, xalqaro hududiy iqtisodiy birlashmalarni tashkil etmoqda. Ushbu birlashmalar jahon xo'jaligining muhim mexanizmiga aylandi, ba'zilari, jumladan Yevropa Ittifoqi (YeI) tashqi dunyoda o'z a'zolari nomidan faoliyat olib bormoqda. Ammo ko'pchilik mintaqaviy integratsion birlashmalar (YeI va Shimoliy Amerika erkin savdo assotsiatsiyasidan (NAFTA) tashqari) o'z a'zolari milliy iqtisodiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatmaydi. Hozircha xalqaro iqtisodiy integratsiya jahonning nisbatan rivojlangan hududlarida muvaffaqiyatli amalga oshmoqda, boshqa hududlarda esa ushbu jarayon ularning rivojlanish darajasining ortishi bilan chuqurlashib boradi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning soni va ahamiyati tubdan oshdi. Ushbu tashkilotlarda jahon iqtisodiyotidagi ulushi katta mamlakatlar hal qiluvchi rolga ega. Boshqa mamlakatlar tovarlar, xizmatlar, kapital va texnologiya jihatdan qayd etib o'tilgan mamlakatlarga bog'liqligi sababli xalqaro tashkilotlarda ularning fikrini qabul qilishga majbur. Shu bilan bir vaqtda globallashuv jarayoni milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu sababli milliy iqtisodiyotlarning xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishga intilishi kuchayib bormoqda va ushbu tashkilotlarga a'zolik ko'plab iqtisodiy muammolarni ko'ptomonlama kelishuvlar asosida hal etish imkonini

beradi. Natijada xalqaro tashkilotlar jahon iqtisodiyotining (avvalo, rivojlanayotgan kichik va o'rta mamlakatlarga nisbatan) kuchli subyektlariga aylanib borishmoqda.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning muhim vazifalaridan biri — jahon iqtisodiyotining rivojlanishi to'g'risida statistik tahlillar, hisobotlar tayyorlashdan iborat. Amaliyotda Xalqaro valyuta fondi (XVF) (World Economic Outlook), Umumjahon banki guruhi (World Development Report), YuNKTAD (World Investment Report), Umumjahon savdo tashkiloti (UJST) (World Trade Report) va boshqa tashkilotlarning nashrlari keng foydalaniladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mohiyati va shakllari. Jahon iqtisodiyotining tizim sifatidagi faoliyati tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining harakati bilan bog'liq. Ushbu bog'liqlik asosida xalqaro iqtisodiy munosabatlar yuzaga keladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar — bu rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi xo'jalik munosabatlaridan iborat. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni shakllari bo'yicha guruhlash mumkin.

An'anaviy tarzda xalqaro tovarlar, xizmatlar va intellektual mulk savdosi alohida shakl sifatida ajratiladi. Ishlab chiqarish omillarining harakati xalqaro iqtisodiy munosabatlarning xalqaro kapital harakati, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi, texnologiyalarni xalqaro uzatish kabi shakllari asosida yotadi.

Kapital, mehnat va texnologiyadan tashqari boshqa iqtisodiy resurslardan biri hisoblangan tabiiy resurslar harakatchan emasligi bois, jahon xo'jalik aloqalarida qazib chiqarilgan va ular asosida tayyorlangan mahsulotlarning xalqaro savdosi orqali qatnashadi. Tadbirkorlik qobiliyati omili odatda, kapital, ishchi kuchi va texnologiyalar bilan birgalikda harakatlanadi, shu sababli xalqaro iqtisodiy munosabatlarning alohida shakli sifatida qatnashmaydi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning keyingi shakli xalqaro valyuta-kredit va moliya munosabatlari xalqaro savdo, ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati hosilasi hisoblansa-da, jahon xo'jaligida alohida ahamiyatga ega mustaqil iqtisodiy munosabatlar sifatida tan olingan.

1.2. Jahon iqtisodiyotining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari

Jahon xo'jaligining rivojlanish jarayoni xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish evolyutsiyasi bilan uzviy bog'liq. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar jahon xo'jaligining shakllanishi jarayonida alohida o'rin tutadi.

Milliy iqtisodiyotning baynalminallashuvida xalqaro savdo tarixiy ahamiyat kasb etadi. Savdo aloqalari quldorlik tuzumida ham olib borilgan. Misol tariqasida Rim imperiyasi davridayoq yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan xalqaro savdo-sotiqlarning o'tkazilganligini keltirish mumkin. Bu turdagi savdo-sotiqlar feodalizm tuzumida ham mavjud bo'lgan. Biroq mazkur ijtimoiy-iqtisodiy tizimlardagi natural xo'jalik yuritishga xos xususiyatlar tufayli xalqaro ayirboshlashga ishlab chiqarilgan tovarlarning juda oz qismi (qimmatbaho gazlamalar, javohirlar, ziravorlar, mineral xomashyolarning ba'zi bir turlari, shirinliklar va h. k.) kelib tushgan. Natural xo'jalik yuritishdan tovar ishlab chiqarishga o'tish asosida kapitalistik munosabatlarning yuzaga kelishi xalqaro savdo va jahon xo'jalik aloqalarining rivojlanishiga katta turtki bo'ldi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar asta-sekin jahon xo'jaligining tarkibiy elementiga aylana bordi. Hozirgi vaqtda xalqaro iqtisodiy munosabatlarni jahon xo'jaligining rivojlanishi natijasida shakllangan mustaqil iqtisodiy tizim sifatida baholash mumkin. Bu kabi tasdiqlar jahon xo'jaligining rivojlanish jarayoni va uning bosqichlarida ham o'z aksini topgan (1.2.1-rasm).

ORQOT RESURS MARKAZI

1.2.1-rasm
Jahon iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari

Bosqichlari		Xususiyatlari
I	XV–XVI asrlar	Buyuk geografik kashfiyotlar. Jahon mustamlaka tizimining shakllanishi. Jahon kapitalistik bozorining paydo bo'lishi. Manufaktura
II	XVII asrning birinchi yarmi – XIX asr	Jahon kapitalistik bozorining shakllanishi. Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi (sanoat to'ntarishi, burjuaziya inqilobi, manufakturadan fabrikali ishlab chiqarish tizimiga o'tish). Jahon savdosining xalqaro iqtisodiy munosabatlar shakli sifatida rivojlanishi
III	I va II jahon urushlari davri	Xalqaro moliya tizimining beqarorligi, sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlardan uzoq muddatli kapitallarning chiqib ketishi
IV	XX asrning 50–90-yillari	Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni qaytadan yo'lga qo'yish yoki yangi jahon iqtisodiy tartibini ishlab chiqish davri
V	XX asrning 90-yillaridan hozirga qadar	Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, TMK va TMB rolining kuchayishi. Jahon bozorlarining globallashuvi

Jahon xo'jaligining vujudga kelishidagi **birinchi bosqich XV–XVI asrlarni** o'z ichiga oladi. Ushbu bosqich buyuk geografik kashfiyotlar, jahon mustamlaka tizimining shakllanishi, jahon kapitalistik bozorining paydo bo'lishi va manufaktura davri hisoblanadi. Bu davr mustamlaka mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlar savdosining jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Jahon xo'jaligi bu bosqichda mamlakatlarning (birinchi navbatda, mustamlaka egalari va mustamlakalar) tashqi savdo sohasidagi o'zaro munosabatlarining yig'indisi sifatida talqin etiladi va ustun darajada savdo kapitalini sarflanish sohasi hisoblanadi.

Jahon xo'jaligining **rivojlanishidagi ikkinchi bosqich XVII asrning birinchi yarmi — XIX asrni** qamrab oladi. Ushbu bosqich jahon kapitalistik bozorining shakllanishi, xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi (sanoat to'ntarishi, burjuaziya inqilobi, manufakturadan fabrikali ishlab chiqarish tizimiga o'tish), jahon savdosining xalqaro iqtisodiy munosabatlar shakli sifatida rivojlanishi, milliy tovarlar eksportining ko'payishi bilan tavsiflanadi. Mamlakatlar o'rtasidagi savdo integratsiyasining zaiflashuvi xo'jalik hayotining baynalminallashuvi bilan bog'liq quyidagi tamoyillar hisobiga rivojlangan:

- xalqaro mehnat bozorida baynalminallashuv jarayonining chuqurlashuvi — 1870–1913-yillar davomida Yevropani 36 mln. kishi tark etdi va ularning 2/3 qismi AQSh ga ko'chib o'tdi. Osiyo hududida esa xitoy va hind emigrantlarining soni Yevropa emigrantlaridan ham oshib ketdi;
- xalqaro kapitallar oqimining ko'payishi — 1914-yilga kelib uzoq muddatli xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 44 mlrd. dollarga yetdi va [illegible]hbu jarayonda Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya faol ishtirok etdi. X[illegible]qaro kapitallar harakatida umuman rasmiy cheklovlar bo'lmaganligi tufayli [illegible]huningdek, qimmatbaho qog'ozlar bozorining baynalminallashuvi ham yuqo[illegible]arajaga yetdi. 1913-yilda London fond bozorlarida sotilayotgan qimmatbah[illegible]og'ozlarda xorijiy qimmatbaho qog'ozlar ulushi 59 %ni, Fransiyada esa ushb[illegible]ko'rsatkich 1908-yildayoq 53 %ni tashkil etdi;

- to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar ta'sirida xalqaro ishlab chiqarishning o'sishi tufayli — 1914-yilga kelib to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar xalqaro kapital harakatining asosini tashkil qildi. Bu davrda Buyuk Britaniya to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning asosiy eksportyori hisoblangan. Jami to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 45 % Buyuk Britaniya hissasiga, 20 % esa AQSh hissasiga to'g'ri kelgan. Asosiy importyorlar AQSh, Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlari, Xitoy va Yevropaning rivojlangan mamlakatlari hisoblandi. 1914-yilga kelib to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning asosiy oqimi rivojlangan mamlakatlarga yo'naltirilgan edi. Jahon xo'jaligining bu davri kapital ishlab chiqarish sohasida sanoati rivojlangan mamlakatlarning o'zaro aloqalari va mustamlakalari bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlari xalqaro iqtisodiy munosabatlar majmuasini tashkil eta boshladi.

Jahon xo'jaligining rivojlanishidagi **uchinchi bosqich I va II jahon urushlari davrini** o'z ichiga oladi. Ushbu davr jahon mamlakatlari iqtisodiyotining 1920-yildan keyingi jadal rivojlanishiga qaramay xalqaro moliya tizimining yuqori darajada beqarorligi, industrial mamlakatlardan uzoq muddatli kapitallarning chiqib ketishi bilan ajralib turadi.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanishidagi **to'rtinchi bosqich II jahon urushining oxirlaridan boshlanib, 90-yillarning birinchi yarmiga qadar** davom etdi. Ushbu davr xalqaro iqtisodiy munosabatlarni qaytadan yo'lga qo'yish yoki yangi xalqaro iqtisodiy tartibni shakllantirish davri sifatida tavsiflanadi. Bu davrda jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi: barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari; dunyo mamlakatlarining iqtisodiy hamkorlik va mehnat unumdorligini oshirish sohasida birlashish tamoyillarining kuchayishi; tashqi savdo siyosatini erkinlashtirish; ilmiy-texnik taraqqiyotning jadal rivojlanishi; mustamlakachilik tizimining parchalanishi.

Bundan tashqari, bu davrda jahon xo'jaligi tizimiga rivojlanayotgan mamlakatlarning faol jalb etilishi, jahonning kapitalistik va sobiq sotsialistik xo'jaliklari o'rtasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning faollashuvi ro'y berdi. Milliy xo'jaliklarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish jarayoni faollashib, ular o'rtasida o'zaro bog'liqlik sezilarli darajada kuchaydi. Jahon xo'jalik aloqalarini tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlar tizimi yaratildi va xalqaro korporatsiyalar faoliyatining faollashuvi kuzatildi.

Jahon xo'jaligining **beshinchi — zamonaviy rivojlanish bosqichi 90-yillarning boshlaridan** boshlandi. O'zaro iqtisodiy yordam kengashi (O'IYoK) va sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi, Sharqiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarining bozor iqtisodiyotiga o'tishi, xalqaro integratsiya jarayonlarining kuchayishi va xalqaro korporatsiyalarning jahon xo'jaligi subyekti sifatidagi rolining ortib borishi jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichidagi asosiy omillar hisoblanadi.

Jahon xo'jaligi XX asr va XXI asr bo'sag'asida global miqyosga ega ekanligi, bozor iqtisodiyoti prinsiplariga asoslanishi, xalqaro mehnat taqsimotining obyektiv qonuniyatlari asosida faoliyat yuritishi va ishlab chiqarishning baynalminallashuvi bilan ajralib turadi. Zamonaviy jahon iqtisodiyoti uch elementni — milliy iqtisodiyotlar, ularni bog'lab turuvchi xalqaro iqtisodiy munosabatlar va xalqaro korporatsiyalar tomonidan yaratilgan xalqaro iqtisodiyotni o'z ichiga oladi.

Demak, zamonaviy jahon xo'jaligi — bu bozor iqtisodiyotining obyektiv qonunlariga bo'ysunuvchi xalqaro iqtisodiy munosabatlar orqali o'zaro bog'liq milliy xo'jaliklar yig'indisi sifatidagi global iqtisodiy organizmdir.

Jahon xo'jaligining amal qilish jarayoni XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib zamonaviy jahon iqtisodiyotiga xos qator rivojlanish tamoyillari va qonuniyatlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

1. Dunyo mamlakatlari xo'jalik hayotining baynalminallashish jarayonining chuqurlashuvi. Jahon xo'jaligi rivojlanishining dastlabki bosqichlarida tovar ishlab chiqarish ustuvorlik qilgan bo'lsa, hozirgi davrda jahon xo'jalik aloqalariga bir milliy ishlab chiqarish natijalarigina jalb etilmasdan, ishlab chiqarish omillari ham jalb etilmoqda. Zamonaviy jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvini intensiv rivojlantirish, texnologiyalarni xalqaro ayirboshlash, xalqaro kapital va ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlari takomillashmoqda.

2. Tashqi iqtisodiy aloqalarning erkinlashuvi. Ushbu holat milliy iqtisodiyotning tashqi dunyo uchun ochiqligini bildiradi. Xalqaro tovarlar savdosida bojxona bojlarini pasaytirish, xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun qulay investitsiya muhitini yaratish, davlat tashqi migratsiya siyosatini yanada erkinlashtirish kabi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilmoqda.

3. Hududiy iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi — milliy xo'jaliklarning xalqaro mehnat taqsimotiga asoslangan holda iqtisodiy jihatdan birlashish jarayonidir. Shuni ta'kidlash kerakki, jahon iqtisodiyotidagi hududiy integratsiya jarayonlarining xalqaro iqtisodiy munosabatlarga ta'siri ziddiyatlidir. Ushbu jarayon, bir tomondan, hududiy integratsiya birlashmalari faoliyatiga ijobiy ta'sir etsa, ikkinchi tomondan, uchinchi dunyo mamlakatlari bilan bo'ladigan iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Natijada jahon xo'jaligida regionlashish, ya'ni mintaqalashish jarayoni vujudga keldi.

4. Ishlab chiqarish va kapitalning transmilliylashishi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga kelgan transmilliylashish jarayoni alohida mamlakatlarga yoki bir necha mamlakatlarga tegishli xalqaro kompaniyalar faoliyati bilan bog'liq xalqaro ishlab chiqarishni yuzaga keltirdi.

5. Jahon xo'jalik aloqalarini davlatlararo tartibga solish tizimining shakllanishi va iqtisodiy qoidalarning birxillashuvi. Zamonaviy jahon iqtisodiyotidagi tartib-qoidalar xalqaro valyuta-kredit, savdo, hisob-kitob munosabatlarinigina qamrab olmay, balki xalqaro ayirboshlashda asosiy bitim bo'lib xizmat qiladi. Dunyo miqyosida XVF, Umumjahon banki guruhi, JST ning mavqeyi juda katta.

6. Jahon xo'jaligining globallashuvi. Ushbu jarayon, bir tomondan, jahon xo'jaligining yuqorida qayd etib o'tilgan rivojlanish tamoyillarini miqdoriy jihatdan mujassamlashtirsa, ikkinchi tomondan, jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan zamonaviy rivojlanish tamoyillarini aks ettiradi:

- dunyodagi barcha mamlakatlarni jahon xo'jalik jarayonlariga jalb etish;
- ishchi kuchi, texnologiya, kapital, tovarlar va xizmatlarning global bozorlarini barpo etish;
- jahon xo'jalik aloqalarining (transport, axborot, bank, aloqa va boshqalar) global infratuzilmasini yaratish;
- mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida yalpi ichki talablarga qaraganda tashqi talablarning ustunligi;
- milliy hukumat iqtisodiy funksiyalarining ko'proq xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga vakilligini topshirish;
- mamlakatlarning tan olishicha, iqtisodiy rivojlanishning eng maqbul shakli bozor xo'jaligi prinsiplaridir;
- xalqaro iqtisodiy aloqalar bilan xo'jalik hayotining qoidalarini universallashtirishni mukammallashtirish;
- xalqaro raqobat va xalqaro hamkorlikning global xususiyatga ega ekanligi;
- juda katta ishlab chiqarish kuchlariga asoslangan xalqaro ishlab chiqarishni yuzaga keltirish.

1.3. Jahon xo'jaligining rivojlanishi to'g'risidagi ilmiy konsepsiyalar

To'lig'icha jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga bag'ishlangan ilmiy nazariyalar mavjud emas. Ammo jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan ko'psonli iqtisodiy, sotsiologik va ijtimoiy-madaniy nazariyalar mavjud. Ushbu nazariyalarga quyidagi rivojlanish nazariyalarini kiritish mumkin:

- Iqtisodiy rivojlanish bosqichlari nazariyalari.
- Yagona industrial va yangi industrial jamiyat nazariyasi.
- Postindustrial jamiyat nazariyalari.
- Yagona sivilizatsiya nazariyasi.
- Sivilizatsiyalar to'qnashuvi nazariyasi.

Iqtisodiy rivojlanish bosqichlari nazariyalari. Amerikalik iqtisodchi, sotsiolog va tarixchi Uilyam Rostou 1960-yilda «Iqtisodiy o'sish bosqichlari: nokommunistik manifest» deb nomlangan kitobida iqtisodiy o'sish bosqichlari nazariyasini yaratdi. Unda iqtisodiy o'sishning quyidagi besh bosqichi ajratib ko'rsatiladi:

- an'anaviy jamiyat;
- o'sish uchun shart-sharoitlarni yaratish bosqichi;
- o'sish (siljish, ko'tarilish);
- yetuklikka intilish bosqichi;
- yuqori ommaviy iste'mol davri.

Iqtisodiy o'sish bosqichlarini ajratishda, quyidagi mezonlardan foydalanildi: texnikaning rivojlanish darajasi, iqtisodiyotning tarmoq tarkibi, jamg'armaning milliy daromaddagi ulushi, iste'mol tarkibi va h. k.

An'anaviy jamiyatda (feodalizm davrigacha) aholining 75 %dan ortig'i oziq-ovqat ishlab chiqarish bilan band bo'ladi. Ikkinchi bosqich ko'tarilish davriga o'tish bosqichi hisoblanadi: qishloq xo'jaligi, transport va tashqi savdo kabi sanoat tarmog'i hisoblanmagan sohalarda sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. Uchinchi bosqich — ko'tarilish bosqichi hisoblanib, ikki yildan bir necha o'n yilliklarni o'z ichiga oladi (sanoat to'ntarishi). Ushbu davrda investitsiyalar hajmi oshadi, mahsulot ishlab chiqarish hajmining aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi miqdori ortadi va yangi texnika, texnologiyalarni ishlab chiqarishga tezda joriy etish boshlanadi.

U. Rostou yetuklikka qarab harakatlanish davrini (industrial jamiyat) texnik taraqqiyotning uzoq davom etadigan bosqichi sifatida tavsiflaydi: urbanizatsiya jarayoni chuqurlashadi, malakali mehnat ulushi oshadi, sanoatdagi rahbarlik malakali boshqaruvchi menejerlar qo'lida to'planadi. Beshinchi bosqichda (yuqori ommaviy iste'mol) taklifdan talabga, ishlab chiqarishdan tovar va xizmatlarni ommaviy iste'mol etishga qarab siljish ro'y beradi. U. Rostou «Siyosat va o'sish bosqichlari» (1971) asarida iqtisodiy o'sishning oltinchi bosqichini ham ko'rsatadi. Unga muvofiq insonning ma'naviy rivojlanishi birinchi o'ringa qo'yiladi va ushbu bosqich hayot sifatiga erishish bosqichi, deb ataladi.

Yagona industrial va yangi industrial jamiyat nazariyalari. Yagona industrial jamiyat nazariyasi fransuz sotsiologi R. Aron nomi bilan bog'liq bo'lib, turli mamlakatlarda industriallashish jarayoni ular uchun yagona industrial jamiyatning shakllanishiga olib keladi, degan fikrga asoslanadi. Ushbu nazariyaga muvofiq texnik taraqqiyot nafaqat iqtisodiy qonunlarning amalda qo'llanilishini, balki qonunlarning mohiyatini ham modifikatsiyalaydi: mulkchilikning yetakchilik roli bekor qilinadi, iqtisodiy hokimiyat yirik korporatsiyalar qo'liga o'tadi, davlatning yordami bilan boylik va kambag'allik o'rtasidagi farq yo'qotiladi.

Yangi industrial jamiyat nazariyasi amerikalik iqtisodchi Dj. Gelbreyt tomonidan yaratilgan. U murakkab va takomillashgan texnikani amaliyotda qo'llash kapitalizmning qayta ichki rivojlanishiga, ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirish, yaxshi tashkil etilgan xizmatlar tizimiga erishish va avvalgi ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatish imkonini beradi, degan g'oyani isbotlashga hararakat qiladi. Uning fikricha, hozirgi kapitalizm iqtisodiy tizimi turlicha ikki sektor — «rejali tizim» va «bozor tizimi»ning majmuasidan iborat.

Postindustrial jamiyat nazariyasi. Amerikalik sotsiolog Daniyel Bell fikriga ko'ra, postindustrial jamiyat quyidagi beshta belgi orqali tavsiflanadi:

- tovarlar ishlab chiqarish tarmoqlaridan xizmatlar ko'rsatishga o'tish;
- bandlar tarkibida malakali mutaxassislar ulushining ortib borishi;
- nazariy bilimlarning yetakchiligi;
- texnik-iqtisodiy muhitning texnologiyalar ustidan nazorat o'rnatishga yo'naltirilishi;
- yangi «intellektual texnologiyalar» bilan bog'liq qarorlar qabul qilish jarayonining ta'minlanishi.

D. Bell «industrializm» inqirozidan chiqish yo'lini «postindustrial tendensiyalarni» rivojlantirishga madaniyat va din o'rtasidagi uzilgan aloqalarni tiklash orqali erishish mumkin, deb hisoblaydi.

Postindustrial jamiyat haqidagi g'oyalarning boshqa variantini amerikalik sotsiolog va futurolog A. Tofflerning superindustrializm nazariyasida ko'rish mumkin. U zamonaviy jamiyatda yuz berayotgan, murakkab va turli xil o'zgarishlar jarayonlarini industrializmning falokati va «yangi sivilizatsiya»ning dunyoga kelishi bilan bog'liq, deb hisoblaydi. Bunday «o'tish davrini» u tarixiy rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan «o'zgarishlar to'lqini» nazariyasi bilan tushuntiradi.

Yagona sivilizatsiya haqidagi ijtimoiy-madaniy nazariyaning asosida barcha mamlakatlarning yagona siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tizim, ya'ni liberal demokratiyaga qarab asta-sekinlik bilan harakatlanish g'oyasi yotadi. Ushbu nazariyaning zamonaviy tarafdorlari bunday tizimga liberallashuv natijasida G'arb erishgan, boshqa mamlakatlar ham bunga erishadi va butun dunyo yagona jamiyatga aylanadi, deb ta'kidlashadi.

Yagona sivilizatsiya nazariyasi. Yagona sivilizatsiya nazariyasi jahon mamlakatlarini yagona jamiyatga birlashtiruvchi, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytirib, chegaralarni yo'qotuvchi, tobora kuchayib borayotgan kuchga e'tibor qaratadi. Ushbu kuch iqtisodiyotlarni baynalminallash bo'lib, globallashuvga aylanadi va uning transmillaylashuvi hamda integratsiyalashuvi orqali namoyon bo'ladi. Bu modernizatsiyalashuv tufayli G'arbda dastlab vujudga kelgan hozirgi zamon industrial va postindustrial jamiyatlar uchun xos belgilar jahonning boshqa mamlakatlari uchun ham xos bo'ladi.

Sivilizatsiyalar to'qnashuvi nazariyasi amerikalik professor S. Xattingtonga tegishli bo'lib, unga muvofiq siyosiy va madaniy dunyo qiyofasi «sovuq urushdan» keyin yanada ko'p qutbli bo'ladi va quyidagi sakkiz sivilizatsiyalardan tashkil topadi: G'arb, Islom, Induizm, Xitoy, Yapon, Pravoslav, Afrika va Lotin amerikasi. Ushbu nazariyaga ko'ra oxirgi vaqtlarda jahon iqtisodiyotida G'arbning roli pasayib, Osiyo sivilizatsiyalarining o'rni esa sezilarli darajada ortib boradi. Sivilizatsiyalar o'rtasida sivilizatsiyalar tarkibidagi aloqalar sivilizatsiya markazi hisoblangan mamlakatlarga tomon tortilib, kuchayib boradi. Natijada istiqbolda dunyo yagona sivilizatsiyadan emas, balki turli sivilizatsiyalar yig'indisidan iborat bo'lib, ular o'rtasida o'xshash va farqli jihatlar mavjud bo'ladi.

1.4. Jahon xo'jaligining globallashuvi

Globallashuv jarayoni zamonaviy jahon iqtisodiyotining muhim tendensiyalaridan hisoblanadi. Chunki ushbu jarayon jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan boshqa tendensiyalar kuchsiz namoyon bo'layotgan mamlakatlar iqtisodiyotida ham kuzatilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyat qismi transmilliylashish, integratsiyalashish va industriallashish jarayonlariga kam jalb etilgan. Shu bilan bir vaqtda ushbu mamlakatlar jahon tovarlar, xizmatlar, kapital (asosan iqtisodiy yordam ko'rinishida), ishchi kuchi (eksportyorlar sifatida) va texnologiyalar bozorining faol ishtirokchilari sanaladi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi — bu jahon iqtisodiyotining tovarlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi va texnologiyalarning yagona bozoriga aylanish jarayonidir. Ushbu jarayon jahon iqtisodiyoti shakllana boshlagan davrdan boshlangan.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha rivojlanadi (1.4.1-rasm):

- tovarlar, xizmatlar, texnologiyalar, intellektual mulk obyektlari xalqaro savdosi;
- ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati;
- xalqaro moliyaviy operatsiyalar.

1.4.1-rasm
Jahon iqtisodiyotining globallashuvi



Qayd etib o'tilgan yo'nalishlar o'rtasidagi nisbat oxirgi yillarda sezilarli darajada o'zgarib bormoqda.

Jahon iqtisodiyotining globallashuv darajasini quyidagi ko'rsatkichlar yordamida ifodalash mumkin:

- xalqaro tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, uning o'sish sur'atlari;
- to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi va dinamikasi;
- kapitalning xalqaro markazlashuv hajmi va dinamikasi;
- yirik, murakkab kompleks xalqaro investitsiya loyihalarining shu turdagi loyihalarning umumiy miqyosiga nisbatan hajmi va dinamikasining o'zgarishi;
- patentlar, litsenziyalar, nou-xau bilan bog'liq xalqaro operatsiyalar miqyosi;
- bank va boshqa kredit muassasalari xalqaro operatsiyalarining hajmi, dinamikasi;
- xalqaro fond bozorlari hajmi va dinamikasi;
- valyuta bozorlari hajmi va dinamikasi.

1.4.2-rasm
Jahon iqtisodiyotining globallashuv bosqichlari

Bosqichlari		Xususiyatlari
I	1890–1920-yy.	**Xomashyo manbalarini bosib olish.** Maqsad kapital, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni eksport qiluvchi mamlakatlar nazorati ostida bo'lgan hududlarda tabiiy resurslarni ekspluatatsiya qilishdan iborat
II	1920–1970-yy.	**Bozorlarni egallash.** To'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni eksport qilish kapital eksport qiluvchi sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda jadal iqtisodiy o'sish bosqichini tugatish imkonini beruvchi tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning boshqa mamlakatlarga ko'chirib o'tkazishga yo'naltirilganligi
III	1970-yildan hozirga qadar	Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar tabiiy resurslar yoki bozorlarga ega bo'lishdan tashqari jadal sur'atlarda o'sib borayotgan bozorlarda global raqobat afzalliklarini samarali ta'minlash, saqlab qolish va oshirishga harakat qilishadi: • investitsiyalar tarkibini takomillashtirish; • global yoki hududiy xalqaro integratsiya afzalliklaridan foydalanish; • qo'shimcha texnologik, tashkiliy yoki bozor imkoniyatlariga ega bo'lish

Jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayoni quyidagi omillar ta'sirida rivojlanadi (1.4.3-rasm):

- iqtisodiy — xalqaro ishlab chiqarish va jahon savdosining globallashuvi;
- ijtimoiy — dunyo mamlakatlarida odatlarning birxillashishi, milliy an'analarning kuchsizlanishi;
- siyosiy — davlat chegaralarining «shaffofligi», bir qutbli dunyoning shakllanishi;
- texnologik — transport va axborot uzatish vositalarining rivojlanishi;
- xalqaro — xalqaro iqtisodiy tashkilotlar rolining kuchayishi, xalqaro standartlarning joriy etilishi.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayoni unga teskari jarayon — iqtisodiy faoliyatning hududiy integratsiyalashuv jarayoni bilan birga kechmoqda. Ushbu jarayon cheklangan miqyosda, tovarlar va ishlab chiqarish omillarining erkin harakatiga asoslangan mamlakatlar guruhini qamrab oladi.

Hududiy integratsiyalashuv, bir tomondan, turli mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan birlashish jarayonini rag'batlantirsa, ikkinchi tomondan, alohida iqtisodiy guruhlar o'rtasida qarama-qarshilik va raqobatni kuchaytirish orqali jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayonini sekinlashtiradi.

Globallashuv jarayoni iqtisodiy faoliyatning liberallashuvini — xalqaro savdo, xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya operatsiyalariga qo'yiladigan cheklovlarni qisqartirish yoki bartaraf etishni taqozo etadi. Shu bilan bog'liq holda globallashuv va liberallashuv bitta jarayonning ikki tomoni hisoblanadi, ular o'rtasidagi qarama-qarshilik ushbu jarayon ichidagi qarama-qarshilikni aks ettiradi. Globallashuv jarayoni ichida turli iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy kuchlar, turli xo'jalik sohalari, sanoat va moliya guruhlari, tarmoqlar va mamlakatlarning manfaatlari to'qnash keladi.

Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyoti uchun quyidagi salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin:

1.4.3-rasm.
Jahon iqtisodiyotining globallashuv omillari



- globalllashuv milliy va jahon iqtisodiy rivojlanishining beqarorligi va notekisligini kuchaytiradi. Ushbu holat milliy xo'jalik majmualarining global bozor sharoitlarida samarali faoliyat yurita olmaydigan eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish bo'g'inlariga bo'linishi bilan bog'liq;
- globallashuv davlatning makroiqtisodiy darajada tartibga solish rolini sezilarli darajada cheklaydi va davlatning ichki, tashqi iqtisodiy aloqalarga ta'sir ko'rsatishning an'anaviy dastaklarini o'zgartirib yuboradi;
- globalashuv ishlab chiqarish va iste'molda salbiy tashqi omillarning ommaviy tarqalishiga olib keladi. TMKlarning global jahon bozorlariga chiqishi va globallashuv jarayonidan foyda olishga intilishi borasidagi kuchli raqobat ularning atrof-muhitni ifloslantiruvchi ishlab chiqarish yoki sog'liq uchun zararli transgen mahsulotlarni yaratish kabi jamiyat uchun zararli faoliyat bilan shug'ullanishlariga olib keladi.

Demak, globallashuv — bu obyektiv, murakkab va ziddiyatli jarayon bo'lib, uning asosini jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv, transmilliylashuv va baynanmilallashuv jarayonlari tashkil etadi.

Asosiy tushunchalar

Jahon iqtisodiyoti — xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi orqali o'zaro aloqada bo'lgan milliy iqtisodiyotlar yig'indisi.

Jahon xo'jaligi — bir-biri bilan harakatchan ishlab chiqarish omillari orqali bog'liq milliy iqtisodiyotlar yig'indisi.

Jahon bozori — xalqaro mehnat taqsimoti va boshqa ishlab chiqarishga asoslangan barqaror tovar-pul munosabatlari sohasi.

Eksport — tovarlarni xorijga olib chiqib ketishni ko'zda tutuvchi tovarlar savdosi.

Import — tovarlarni xorijdan olib kirishni ko'zda tutuvchi tovarlar savdosi.

Xalqaro iqtisodiyot — turli mamlakatlarga tegishli xo'jalik subyektlari o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqalar bilan bog'liq qonuniyatlarni o'rganuvchi bozor iqtisodiyoti nazariyasi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar — rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi xo'jalik munosabatlari.

Globallashuv — jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv, transmilliylashuv va baynanmilallashuv jarayonlari.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi — jahon iqtisodiyotining tovarlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi va texnologiyalarning yagona bozoriga aylanish jarayoni.

Nazorat savollari

1. Jahon iqtisodiyotining tor va keng ma'nolaridagi tavsifi nima bilan farqlanadi?
2. Jahon iqtisodiyoti tizim sifatida nimani ifoda etadi?
3. Jahon iqtisodiyotining subyektlariga nimalar kiradi?
4. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning qanday shakllari mavjud?
5. Jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichi qanday xususiyatlarga ega?
6. Jahon iqtisodiyotining rivojlanish darajasi qaysi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi?
7. Jahon xo'jaligining rivojlanishi to'g'risidagi qaysi ilmiy konsepsiyalar mavjud?
8. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi nima va uning qanday belgilari mavjud?
9. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi qanday bosqichlarga bo'linadi?

2-BOB. JAHON IQTISODIYOTINING MARKAZLARI. DUNYO MAMLAKATLARINING IQTISODIY RIVOJLANISH JIHATDAN GURUHLANISHI

2.1. Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish jihatdan guruhlanish asoslari

Jahonda 193 ta mustaqil davlat, 61 ta qaram hudud va 6 ta nizoli hudud mavjud. Xalqaro statistikada «davlat» tushunchasi emas, balki «mamlakat» tushunchasi qo'llaniladi. Chunki mamlakat albatta siyosiy mustaqillikka ega bo'lishi majburiy emas. Siyosiy-geografik ma'noda mamlakat — bu muayyan chegaralarga ega, davlat suverenitetidan foydalanuvchi hududdir. Jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlarni miqdoriy jihatdan aks ettiruvchi xalqaro statistika nuqtayi nazaridan esa «mamlakat» tushunchasi iqtisodiy ma'noda qo'llanilishi va «iqtisodiyot» tushunchasi bilan mos keladi. Ushbu tushuncha davlatning muayyan hududini, masalan, Xitoy tarkibiga kiruvchi Tayvan va Gonkongni alohida iqtisodiy hudud sifatida ifoda etishi mumkin.

Tayvan Xitoyning boshqa subyektlari singari uning ma'muriy okrugi hisoblanadi. Gonkong Syangan hududining inglizcha nomi bo'lib, Buyuk Britaniya tomonidan 1898-yilda Xitoydan ijaraga olingan. 1984-yil sentyabr oyidagi Xitoy-ingliz deklaratsiyasidan so'ng 1997-yilning iyul oyida Gonkong ustidan Xitoy suvereniteti o'rnatildi. Hozirgi kunda Gonkong Xitoy hududlaridan biri hisoblanadi va yarim avtonom subyekt sanaladi. Gonkong xalqaro kelishuvga muvofiq Xitoy Xalq Respublikasidan alohida o'z mustaqil hukumatiga ega. Tayvan va Gonkong Xitoyning siyosiy-ma'muriy hududlari hisoblanishiga qaramasdan xalqaro statistikada ular alohida mamlakatlar sifatida hisobga olinadi.

Dunyo mamlakatlari, bir tomondan, biri-biridan iqtisodiyotining hajmi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, institutsional va madaniy xususiyatlari bilan farq qilsa, ikkinchi tomondan, ular muayyan o'xshashliklarga ham ega. Ushbu holat

dunyo mamlakatlarini tahliliy va statistik maqsadlarda guruhlarga ajratish, jahon iqtisodiyotining tarkibi va rivojlanish tendensiyalarini o'rganish maqsadida muayyan mezonlar bo'yicha tasniflash imkonini beradi.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kompleks va umumlashtiruvchi ko'rsatkich hisoblanadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM/YaMM;
- iqtisodiyotning tarmoq tarkibi;
- aholi jon boshiga mahsulotlarning asosiy turlarini ishlab chiqarish (alohida tarmoqlarning rivojlanish darajasi);
- aholi turmush darajasi va sifati;
- iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi.

Iqtisodiy adabiyotda, ommaviy axborot vositalarida mamlakatlarni guruhlashning «standart tasnifi» nomini olgan yondashuv keng tarqalgan. Yaqin vaqtlarga qadar ushbu yondashuv Xalqaro valyuta fondi (XVF) tomonidan «Jahon iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari» (World Economic Outlook) deb nomlanuvchi yillik hisobotlarida qo'llanilgan.

Standart klassifikatsiyada mamlakatlar uch guruhga ajratiladi: rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari. Ular jahon iqtisodiyotining tarkibini tashkil etadi va jahon aholisi, yalpi ichki mahsuloti va jahon savdosidagi ulushini tavsiflaydi.

Standart tasnifi biron-bir qat'iy miqdoriy mezonga ega emas. U mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy jihatlari, xo'jalik faoliyatining tashkiliy tamoyillari, institutsional va madaniy xususiyatlari hamda joriy iqtisodiy muammolarini hisobga oladi.

Ushbu tasnifda rivojlangan mamlakatlarga 29 ta xususiy mulkchilikka va rivojlangan industrial sektorga asoslangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar kiradi. Jumladan, 2002-yilda rivojlangan mamlakatlarda dunyo aholisining 15,4 %, ya'ni «oltin milliard» deb ataluvchi 1 mlrd. kishi yashagan va ular hissasiga jahon yalpi mahsulotining 55,7 % hamda jahon tovarlar va xizmatlar eksportining 74,8 % to'g'ri kelgan (2.1.1-diagramma).

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari 28 ta davlatni o'z ichiga oladi. Ushbu mamlakatlar rivojlangan industrial bazaga ega va rejali ma'muriy iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq holda iqtisodiy islohotlarni boshidan kechirayotgan mamlakatlardir. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

2.1.1-diagramma

Jahon iqtisodiyotining tarkibi, 2002-yil (jamiga nisbatan foiz hisobida)



	Jahon aholisi tarkibidagi ulushi	Jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi	Jahon tovarlar va xizmatlar eksportidagi ulushi
O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari	6,4	6,3	4,8
Rivojlanayotgan mamlakatlar	78,2	38,1	20,3
Rivojlangan mamlakatlar	15,4	55,7	74,8

Manba: World Economic Outlook: September 2003. IMF, 2003. P. 164.

- Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari (15);
- Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) va Mongoliya (13).

Rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi eng ko'psonli hisoblanadi va ushbu guruhga 125 ta mamlakat kiradi. Ushbu guruhga kiruvchi mamlakatlarni iqtisodiyoti qishloq xo'jalik va qazib chiqarish sanoatiga asoslanganligi birlashtiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qayta ishlash sanoati sust rivojlangan va og'ir mashinasozlikka asoslangan mustaqil industrial baza aksariyat mamlakatlarda mavjud emas. Ushbu mamlakatlarda fond bilan qurollanganlik darajasining pastligi oqibatida mehnat unumdorligi yuqori emas. Bu borada shuni ta'kidlab o'tish lozimki, rivojlanayotgan mamlakatlar guruhida Vyetnam, Kambodja va qator Afrika davlatlari o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari singari bozor islohotlarini amalga oshirishmoqda. Ammo ular hozirgacha o'z mustaqil industrial bazasini shakllantirganlaricha yo'q. Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti chuqur diversifikatsiyalashmagan va tor sohaga ixtisoslashgan. Ushbu ixtisoslashuv biron-bir mahsulotni ishlab chiqarishga va uni eksport qilishga bog'liq.

2.2. Xalqaro moliya institutlari tomonidan guruhlanishi

Xalqaro valyuta fondi (XVF) metodikasi. XVF 2004-yildan boshlab dunyo mamlakatlarini tasniflashdagi yondashuviga o'zgartirish kiritdi. Endilikda dunyo mamlakatlari ikki guruhga — «Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar» (advanced economics) va «Boshqa bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar»ga (other emerging market and developing countries) bo'linadi.

2.2.1-jadval

Rivojlangan mamlakatlarning dunyo yalpi ichki mahsuloti, tovarlar va xizmatlar eksporti hamda aholi sonidagi ulushi, 2013-yil (jamiga nisbatan foiz hisobida)

	Mamlakatlar soni	YalM		Tovarlar va xizmatlar eksporti		Aholi	
		Rivojlangan mamlakatlar	Dunyo	Rivojlangan mamlakatlar	Dunyo	Rivojlangan mamlakatlar	Dunyo
Rivojlangan mamlakatlar	36	100,0	43,6	100,0	61,2	100,0	14,7
AQSh		37,7	16,4	16,1	9,9	30,5	4,5
Yevro zonasi	18	28,2	12,3	40,4	24,8	32,0	4,7
Germaniya		7,9	3,4	12,0	7,4	7,8	1,2
Fransiya		5,7	2,5	5,7	3,5	6,1	0,9
Italiya		4,6	2,0	4,5	2,7	5,8	0,8
Ispaniya		3,3	1,5	3,3	2,0	4,5	0,7
Yaponiya		10,5	4,6	5,9	3,6	12,3	1,8
Buyuk Britaniya		5,2	2,3	5,6	3,4	6,2	0,9
Kanada		3,4	1,5	3,9	2,4	3,4	0,5
Boshqa rivojlangan mamlakatlar	14	15,0	6,5	28,1	17,2	15,6	2,3
«Katta yettilik»	7	75,0	32,7	53,6	32,9	72,1	10,6

Manba: World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. October 2014. IMF, 2014. P. 163.

2.2.2-jadval

Rivojlangan mamlakatlarning guruhlanishi

Asosiy valyutalar zonasi	Yevro zonasi		Osiyoning yangi industrial mamlakatlari	«Katta yettilik» mamlakatlari	Boshqa rivojlangan mamlakatlar	
AQSh	Avstriya	Luksemburg	Gonkong	Germaniya	Avstraliya	Singapur
Yevro zonasi	Belgiya	Malta	Koreya	Italiya	Gonkong	Tayvan
Yaponiya	Germaniya	Niderlandiya	Singapur	Kanada	Daniya	Chexiya
	Gretsiya	Portugaliya	Tayvan	Buyuk Britaniya	Isroil	Shvetsiya
	Irlandiya	Slovakiya		AQSh	Islandiya	Shveysariya
	Ispaniya	Sloveniya		Fransiya	Yangi Zelandiya	Koreya Respublikasi
	Italiya	Finlandiya		Yaponiya	Norvegiya	San Marino
	Kipr	Fransiya			Latviya	
	Estoniya					

Manba: World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. October 2014. IMF, 2014. P. 163.

2.2.3-jadval

Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarning dunyo yalpi ichki mahsuloti, tovarlar va xizmatlar eksporti hamda aholi sonidagi ulushi, 2013-yil (jamiga nisbatan foiz hisobida)

	Mamlakatlar soni	YalM		Tovarlar va xizmatlar eksporti		Aholi	
		Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar	Dunyo	Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar	Dunyo	Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar	Dunyo
Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar	153	100,0	56,4	100,0	38,8	100,0	85,3
Markaziy va Sharqiy Yevropa	13	6,0	3,4	8,9	3,5	3,0	2,5
MDH	12	8,6	4,9	10,1	3,9	4,8	4,1
Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari	29	50,9	28,7	43,5	16,9	57,3	48,8
Lotin Amerikasi va Karib havzasi	32	15,5	8,7	13,9	5,4	10,0	8,5
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika	22	13,7	7,7	18,3	7,1	10,4	8,9
Afrikaning Sahroyi Kabirdan janubdagi mamlakatlar	45	5,3	3,0	5,3	2,0	14,6	12,5

Manba: World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. October 2014. IMF, 2014. P. 159.

Ushbu tasnif biron-bir qat'iy iqtisodiy mezonlarni talab etmaydi va XVF yordamida tarixiy shakllangan yondashuvlar asosida tahlillarni yengillashtirishni ko'zda tutadi.

XVF tasnifiga faqat ushbu tashkilotga a'zo mamlakatlarnigina kiritiladi. Misol uchun, Kuba va Koreya Xalq Demokratik Respublikasi ushbu tasnifga kiritilmaydi va ushbu mamlakatlar iqtisodiyoti XVF tomonidan monitoring qilinmaydi. San-Marino bo'yicha ma'lumotlar bazasi to'liq ishlab chiqilmaganligi bois ushbu mamlakat rivojlangan mamlakatlar guruhiga kiritilmaydi. Xuddi shu sabablarga ko'ra Marshall Orollari, Mikroneziya Federativ Shtatlari, Palau, Somali va Tuvalu bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiritilmaydi.

XVF tasnifiga muvofiq 2013-yilda rivojlangan mamlakatlar guruhiga 36 ta mamlakat kiritilgan. Ushbu mamlakatlarda dunyo aholisining 14,7 % yashaydi, jahon yalpi ichki mahsulotining 43,6 % ishlab chiqariladi, jahon tovarlar va xizmatlar eksportining 61,2 % ular hissasiga to'g'ri keladi. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya va Kanada «Katta yettilik» — asosiy rivojlangan mamlakatlar guruhini tashkil etishadi va ushbu guruh hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 32,7 %, jahon tovarlar va xizmatlar eksportining 32,9 % to'g'ri keladi (2.2.1-jadval).

Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar guruhi ichida Yevro zonasi va Osiyoning yangi industrial mamlakatlari, boshqa rivojlangan mamlakatlar guruhlari ham ajratiladi. 2013-yildan boshlab ushbu guruhga Latviya qo'shilgan (2.2.2-jadval).

2.2.4-jadval

Tahliliy guruhlarning dunyo yalpi ichki mahsuloti, tovarlar va xizmatlar eksporti hamda aholi sonidagi ulushi, 2013-yil (jamiga nisbatan foiz hisobida)

	Mamlakatlar soni	YaIM		Tovarlar va xizmatlar eksporti		Aholi	
		Rivojlangan mamlakatlar	Dunyo	Rivojlangan mamlakatlar	Dunyo	Rivojlangan mamlakatlar	Dunyo
Eksport daromadlarining manbalari bo'yicha							
Yoqilg'i	29	21,4	12,0	29,4	11,4	12,2	10,4
Tovarlar (yoqilg'idan tashqari)	124	78,6	44,3	40,6	27,4	87,8	74,8
Shu jumladan birlamchi mahsulotlar	29	3,4	1,9	3,6	1,4	7,2	6,1
Tashqi moliyalashtirish manbalari bo'yicha							
Sof debitor mamlakatlar	123	48,4	27,3	39,6	15,3	62,7	53,5
Shu jumladan rasmiy moliyalashtirish	26	3,1	1,8	1,8	0,7	8,5	7,2
Qarzga xizmat ko'rsatish holati bo'yicha sof debitor mamlakatlar							
Muddati o'tib ketgan qarzdorlikka ega mamlakatlar yoki qarzlari 2009-yildan 2013-yilgacha qayta rasmiylashtirilgan mamlakatlar	29	5,1	2,9		1,2	7,5	6,4
Boshqa sof debitor mamlakatlar	94	43,3	24,4	36,5	14,2	55,2	47,1
Boshqa guruhlar							
Yuqori qarzdorlikka ega kambag'al mamlakatlar	38	2,3	1,3	1,9	0,7	11,0	9,4

Manba: World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. October 2014. IMF, 2014. P. 167.

«Boshqa bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar»ga rivojlangan mamlakatlardan tashqari barcha mamlakatlar kiradi. Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar geografik jihatdan Markaziy va Sharqiy Yevropa, MDH, Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari, Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari va Afrikaning Sahroyi Kabirdan janubda joylashgan mamlakatlariga bo'linadi. Ushbu guruh hissasiga dunyo aholisining 85,3 %, jahon yalpi ichki mahsulotining 56,4 %, jahon tovarlar va xizmatlar eksportining 38,8 % to'g'ri keladi (2.2.3-jadval).

Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar tahliliy mezonlar bo'yicha ham guruhlarga ajratiladi. Tahliliy mezonlar — mamlakatning eksport daromadlari tarkibi va boshqa tashqi daromadlarni ifoda etadi. Mamlakatlar o'rtasidagi farq sof kreditor va sof debitor mamlakatlar sifatida ham tahlil etiladi. Bundan tashqari sof debitor mamlakatlar tashqi moliyalashtirish manbayi va qarzlarga xizmat ko'rsatish holati kabi moliyaviy mezonlar bilan ham o'rganiladi (2.2.4-jadval).

Eksport daromadlarining manbalari bo'yicha mezoni «Yoqilg'i» (Xalqaro standart savdo tasnifi (XSST 3) va «Tovarlar» (yoqilg'idan tashqari) kategoriyalariga bo'linadi. «Tovarlar» (yoqilg'idan tashqari) kategoriyasida «Birlamchi mahsulotlar» (yoqilg'idan tashqari) guruhi ham ajratiladi (XSST 0,1, 2,4 va 68). Ushbu guruhga eksport daromadlarining asosiy manbayi hisoblangan tovarlar 2009–2013-yillarda jami eksportining 50 %dan oshgan mamlakatlar kiradi (2.2.5-jadval).

Ushbu tasnifda moliyaviy mezonlar bo'yicha sof kreditor, sof debitor va yuqori darajada qarzdorlikka ega kambag'al mamlakatlar ajratiladi. Sof debitor mamlakatlarga 1972-yildan 2013-yilgacha joriy operatsiyalar bo'yicha salbiy qoldiqqa ega mamlakatlar kiradi. Sof debitor mamlakatlar «rasmiy tashqi moliyalashtirish» va «qarzlarga xizmat ko'rsatish holati» mezonlari bo'yicha guruhlarga ajratiladi. Tashqi moliyalashtirish kategoriyasiga 2009–2013-yillarda umumiy qarzlarining 65 % va undan ortiq qismi rasmiy kreditorlar tomonidan moliyalashtirilayotgan mamlakatlar kiradi. 2009–2013-yillarda 29 ta mamlakat tashqi majburiyatlar

2.2.5-jadval

Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar eksport daromadlarining asosiy manbalari bo'yicha guruhlanishi

Mamlakatlar guruhi	Yoqilg'i	Birlamchi mahsulotlar (yoqilg'idan tashqari)
MDH	Ozarbayjon, Qozog'iston, Rossiya, Turkmaniston	O'zbekiston
Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari	Bruney-Darussalam, Timor-Leshte	Mongoliya, Papua-Yangi Gvineya, Solomon Orollari, Tuvalu
Lotin Amerikasi va Karib havzasi	Venesuela, Trinidad va Tobago, Ekvador, Boliviya, Kolumbiya	Gayana, Surinam, Chili, Paragvay, Urugvay,
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika	Jazoir, Baxrayn, Iroq, Eron, Yaman, Qatar, Quvayt, Liviya, BAA, Oman, Saudiya Arabistoni, Yaman	Afg'oniston, Mavritaniya, Sudan
Afrikaning Sahroyi Kabirdan janubda joylashgan mamlakatlari	Angola, Gabon, Nigeriya, Kongo Respublikasi, Chad, Ekvatorial Gvineya, Janubiy Sudan	Burkina-Faso, Burundi, Eriteriya, Janubiy Afrika, Gvineya, Gvineya-Bisau, Kot-d'Ivuár, Kongo Demokratik Respublikasi, Malavi, Mali, Liberiya, Niger, Serra-Leone, Zambiya, Zimbabve

Manba: World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. October 2014. IMF, 2014. P. 165.

bo'yicha muddati o'tib ketgan qarzdorlikka ega bo'lgan yoki qarzlarni rasmiy kreditorlar yoki tijorat banklari bilan qayta rasmiylashtirgan. Ushbu mamlakatlar muddati o'tib ketgan qarzdorlikka ega yoki qarzlari 2009-yildan 2013-yilgacha qayta rasmiylashtirilgan mamlakatlar guruhiga kiradi.

XVF va Jahon banki baholariga ko'ra yuqori darajada qarzdorlikka ega kambag'al mamlakatlar guruhiga tashqi qarz hajmini qisqa muddat ichida «iqtisodiy maqbul» darajaga yetkazish majburiyatini olgan mamlakatlar kiradi. Ko'pchilik mamlakatlar qarz yukini yengillashtirish imkoniyatidan foydalanishdi va ushbu qarzdorlar ro'yxatidan chiqib ketishdi.

Jahon banki metodikasi. Jahon banki operatsion va tahliliy maqsadlar uchun dunyo mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra turli guruhlarga ajratadi. Ushbu tasnif asosida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad ko'rsatkichi yotadi va mamlakatlar quyidagi uch guruhga ajratiladi:

- past daromadli mamlakatlar (low-income countries);
- o'rta daromadli mamlakatlar (middle-income countries);
- yuqori daromadli mamlakatlar (high-income countries).

Bundan tashqari, o'rta daromadli mamlakatlar guruhida yana o'rta quyi (lower-middle-income countries) va o'rta yuqori daromadli (upper-middle-income countries) mamlakatlar guruhlari ajratiladi.

Jahon banki tasnifida asosiy tahliliy kategoriyalarga past, o'rta va yuqori daromadlar taalluqlidir. Ular Jahon bankining kredit operatsiyalari uchun mezon sifatida qo'llaniladi. Ushbu operatsion mezonlar bundan 30-yil oldin kambag'al mamlakatlarga nisbatan manfaatli kreditlash shartlarini belgilash uchun ishlab chiqilgan. Bunda asosiy mezon — aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi milliy daromad hajmi xizmat qiladi. Chunki ushbu ko'rsatkich mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini boshqa ko'rsatkichlarga nisbatan yaxshiroq tavsiflaydi. Shu bilan birga ushbu ko'rsatkichning minimal darajasini belgilashda aholi turmush farovonligining kambag'allik darajasi, bolalar o'limi kabi ko'rsatkichlari bilan Atlas usuliga ko'ra hisoblangan iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro barqaror bog'liqlik ham e'tiborga olinadi. Jahon banki qayd etib o'tilgan o'zaro bog'liqlikni va bank resurslarini hisobga olgan holda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromadning chegara ko'rsatkichlarini belgilaydi. Har yili ushbu ko'rsatkichlar xalqaro inflyatsiyaning ta'sirini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqiladi, ammo chegaraviy ko'rsatkichlarning real ahamiyati o'zgarmasdan qoladi. Tahlillar ko'rsatishicha, 2004–2012-yillarda past daromadli mamlakatlar guruhiga kiruvchi mamlakatlar soni 59 tadan 32 tagacha qisqargani holda, yuqori daromadli mamlakatlar soni esa 56 tadan 70 tagacha oshgan (2.2.6-jadval).

Jahon banki tasnifi 214 mamlakatni qamrab oladi. Ularning 186 tasi Jahon bankiga a'zo mamlakatlar va boshqalari 30 mingdan ortiq aholiga ega mamlakatlardir. Daromadlar darajasiga ko'ra guruhlash mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra o'xshash jihatlarini taqozo etmaydi. Past va o'rta daromadli mamlakatlar ba'zan rivojlanayotgan mamlakatlar sifatida, yuqori daromadli mamlakatlar esa rivojlangan mamlakatlar sifatida qaraladi. Jahon banki tasnifida yuqori daromadli mamlakatlar guruhida neft eksport qiluvchi — Qatar, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Bruney, Quvayt kabi XVF tasnifi bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiruvchi mamlakatlar ham uchraydi.

Jahon banki mamlakatlarni tashqi qarz holati bo'yicha ham guruhlarga ajratadi: tashqi qarzi yuqori kambag'al mamlakatlar; tashqi qarzi normal darajadagi mamlakatlar; tashqi qarzi katta bo'lmagan mamlakatlar; tashqi qarzi bo'yicha guruhlanmagan mamlakatlar.

2.2.6-jadval

Dunyo mamlakatlarining aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad ulushi bo'yicha guruhlanishi

Guruhlar		2004-y.		2012-y.	
		Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad, dollar	Guruhdagi mamlakatlar soni	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad, dollar	Guruhdagi mamlakatlar soni
Past daromadli mamlakatlar		825 gacha	59	1035 gacha	32
O'rta daromadli mamlakatlar	O'rta quyi daromadli mamlakatlar	826–3255	55	1036–4085	36
	O'rta yuqori daromadli mamlakatlar	3256–10065	40	4086–12615	41
Yuqori daromadli mamlakatlar		10066 dan yuqori	56	12616 dan yuqori	70

Manba: World Development Report 2006. World Bank. P. 291.; World Development Report. Risk and Opportunity Managing Risk for Development. 2014. World Bank. 2014. P. 293–298.

Tashqi qarz darajasini aniqlash uchun Jahon banki hisobot tizimi bo'yicha muntazam makroiqtisodiy ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni berib boruvchi mamlakatlarga nisbatan turli usullar qo'llaniladi. Ushbu tizimga muvofiq tashqi qarzi yuqori mamlakatlarga tashqi qarzga xizmat ko'rsatishning joriy qiymati yalpi milliy daromadning 89 % yoki eksportning 220 %dan oshadigan mamlakatlar kiradi. Tashqi qarzi normal darajadagi mamlakatlarga esa ushbu ko'rsatkich 60 %dan oshmaydigan, ammo kritik darajaga yetmagan mamlakatlar kiritiladi.

Jahon bankiga hisobot bermaydigan mamlakatlarga nisbatan quyidagi chegaraviy mezonlar belgilangan:

- tashqi qarzning yalpi milliy daromadga nisbati — 50 %;
- tashqi qarzning eksportga nisbati — 275 %;
- tashqi qarzga xizmat ko'rsatishning eksportga nisbati — 30 %;
- qarz bo'yicha foizning eksportga nisbati — 20 %.

Bundan tashqari, Jahon banki ham boshqa xalqaro tashkilotlar singari rivojlanayotgan mamlakatlarni geografik mezon bo'yicha guruhlashtiradi va ushbu guruhga past, o'rtadan quyi va o'rtadan yuqori daromadli mamlakatlar kiradi[1]:

- Sharqiy Osiyo va Tinch okeani hududi mamlakatlari — 24;
- Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari — 22;
- Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari — 30;
- Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari — 13;
- Janubiy Afrika mamlakatlari — 8;
- Afrikaning Sahroyi Kabirdan janubda joylashgan mamlakatlari — 47.

Yuqori daromadli mamlakatlar esa IHTTga a'zo (30 ta mamlakat) va IHTTga a'zo bo'lmagan (40 ta mamlakat) mamlakatlarga bo'linadi.

1 World Development Report 2011. World Bank. P. 305.

2.3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) yondashuvi

BMT ga 191 ta mamlakat a'zo. BMT o'z hujjatlari va nashrlarida Jahon banki hamda boshqa turli mezonlarga asoslanadigan tasniflardan keng foydalanadi.

BMT dunyo mamlakatlarini uch guruhga — rivojlangan (more developed regions), rivojlanayotgan (less developed regions) va qoloq (least developed countries) mamlakatlarga ajratadi. Birinchi guruhga Yevropaning barcha mamlakatlari, Shimoliy Amerika, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Yaponiya kiradi, ikkinchi guruhga Afrika, Osiyoning (Yaponiyadan tashqari) barcha mamlakatlari, Lotin Amerikasi va Karib havzasi hududi mamlakatlari hamda Melaneziya, Mikroneziya va Polineziya kiradi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi ichida qoloq mamlakatlar guruhi alohida ajratib ko'rsatiladi.

Dunyo mamlakatlarining inson taraqqiyoti darajasi bo'yicha guruhlanishi. BMT Taraqqiyot Dasturi har yili Inson taraqqiyoti to'g'risida ma'ruza nashr etadi va unda dunyo mamlakatlari YuNESKOning Statistika instituti tomonidan maxsus ishlab chiqilgan Inson taraqqiyoti indeksi asosida guruhlarga ajratiladi. Ushbu tasnifga muvofiq mamlakatlar inson salohiyatining rivojlanish darajasiga ko'ra juda yuqori (49 ta mamlakat), yuqori (53 ta mamlakat), o'rta (42 ta mamlakat) va past (33 ta mamlakat) ko'rsatkichga ega mamlakatlarga bo'linadi[1].

2.3.1-jadval

Dunyo mamlakatlarining inson taraqqiyoti indeksi ko'rsatkichi bo'yicha guruhlanishi

Mamlakatlar guruhi	Inson taraqqiyoti indeksi, 2013-y.	Kutiliayotgan umr davomiyligi, yillarda, 2013-y.	Ta'limning o'rtacha davomiyligi, yillarda, 2012-y.	Kutiliayotgan ta'lim davomiyligi, yillarda, 2013-y.	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi milliy daromad ulushi, HQP bo'yicha, dollar, 2011-y.
Inson salohiyatining rivojlanish darajasi juda yuqori mamlakatlar	0,890	80,2	11,7	16,3	40 046
Inson salohiyatining rivojlanish darajasi yuqori mamlakatlar	0,735	74,5	8,1	13,4	13 231
Inson salohiyatining rivojlanish darajasi o'rta mamlakatlar	0,614	67,9	5,5	11,7	5 960
Inson salohiyatining rivojlanish darajasi past mamlakatlar	0,493	59,4	4,2	9,0	2 904
O'zbekiston	0,661	68,2	10,0	11,5	5 227
Dunyo bo'yicha o'rtacha	0,702	70,8	7,7	12,2	13 723

Manba: Human Development Report 2014. Sustaining Human Progress: Reducing Vulnerabilities and Building Resilince. UNDP. New York, 2014. P. 163.

XXI asrda jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlar mavqeyining ortib borishi sog'liqni saqlash, ta'lim, transport, aloqa sohalaridagi taraqqiyot va fuqarolarning davlat boshqaruvidagi faolligi bilan kuzatilmoqda.

1 Human Development Report 2014. Sustaining Human Progress: Reducing Vulnerabilities and Building Resilince. UNDP. New York, 2014. P. 163.

BMT ning Inson taraqqiyoti to'g'risidagi ma'ruzasida mamlakatlar asosiy agregat ko'rsatkichlar va geografik joylashuvi bo'yicha quyidagi uch guruhga ajratiladi[1]:

- rivojlangan mamlakatlar, shu jumladan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlar (IHTT) (28) va IHTTga a'zo bo'lmagan mamlakatlar (16);
- rivojlanayotgan mamlakatlar, shu jumladan Arab davlatlari (16), Sharqiy Osiyo va Tinch Okeani hududi mamlakatlari (24), Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari (23), Lotin Amerikasi va Karib havzasi (32), Janubiy Osiyo mamlakatlari (8), Afrikaning Sahroyi Kabirdan janubda joylashgan mamlakatlari (45);
- qoloq mamlakatlar (23).

IHTT 1961-yilda AQSh va Kanadadan Marshall rejasi (1947) doirasida Yevropa iqtisodiyotini tiklash uchun ajratilayotgan boshqarish va tiklash dasturlarini muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etilgan Yevropa iqtisodiy kooperatsiyasi tashkiloti asosida shakllantirilgan. Hozirgi vaqtda IHTTga a'zo mamlakatlarda iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni muhokama etish, rivojlantirish ichki va tashqi siyosatni muvofiqlashtirish forumi hisoblanadi. Natijada a'zo mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda bajarilishi majburiy bo'lgan huquqiy hujjatlar va bajarilishi ixtiyoriy bo'lgan «yumshoq qonunlar» yuzaga keladi.

Qoloq mamlakatlar. BMT 1971-yildan boshlab rasmiy jihatdan qoloq mamlakatlar guruhini ajratadi. Ushbu guruhga dastlab 24 ta mamlakat kirgan bo'lsa, hozirda ularning soni 39 tani tashkil etadi va mamlakatlar ro'yxati har uch yilda BMT ning Iqtisodiy va ijtimoiy Kengashi EKOSOS tomonidan qayta ko'rib chiqiladi[2]. Qoloq mamlakatlarni aniqlashda quyidagi uchta mezondan foydalaniladi:

- daromadlarning past darajasi — aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot hajmining uch yildagi o'rtacha darajasi sifatida baholanadi (750 dollargacha ro'yxatga kiritish uchun, 900 dollardan yuqori ro'yxatdan chiqarish uchun);
- inson resurslarining holati — ovqatlanish, sog'liq, ta'lim va katta yoshdagi aholining savodxonligini hisobga oluvchi inson aktivlari indeksi (composite human index — HAI) asosida aniqlanadi;
- iqtisodiy bog'liqlik — (composite economic vulnerability index — EVI) asosida hisoblanadi va quyidagi ko'rsatkichlardan tashkil topadi:

a) qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining beqarorligi;
b) tovarlar va xizmatlar eksportining beqarorligi;
c) noan'anaviy faoliyat turlarining iqtisodiy ahamiyati (yalpi ichki mahsulotda qayta ishlash va zamonaviy xizmatlar ulushi);
d) tovarlar eksportining konsentratsiyalashuvi;
e) tabiiy ofatlar natijasida ko'chirilgan iqtisodiy bazaning torligi va aholi ulushining salbiy ta'siri.

Qoloq mamlakatlar guruhi ro'yhatiga kiritilgan mamlakatlar yuqori kambag'allik darajasiga, iqtisodiy rivojlanishda katta to'siqlarga ega ekanligi, kambag'allik va iqtisodiy rivojlanish muammosini hal etishda jahon hamjamiyatining yordamiga muhtojligi bilan ajralib turadi. BMT majlislarida muntazam ravishda qoloq mamlakatlarning muammolarini muhokama qilish uchun olib chiqadi va ularga iqtisodiy yordam ko'rsatish zarurligini ta'kidlab boradi. Qoloq mamlakat maqomi ushbu mamlakatlar guruhiga muayyan afzalliklar beradi:

- ikki tomonlama, hududiy va ko'p tomonlama kelishuvlar hamda xalqaro moliya institutlaridan rivojlanish uchun imtiyozli moliyaviy mablag'lar olish imkoniyati;

1 Доклад о развитии человека 2013. Возвышение Юга: человеческий прогресс в многообразном мире / Пер. с Англ.; ПРООН. — М., Издательство «Весь Мир», 2013. С. 227–228.

2 UNCTAD Handbook of Statistics 2014. P. 10.

2.3.2-jadval
Dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar

Ozarbayjon	Butan	Makedoniya	Paragvay	Chad
Afg'oniston	Zambiya	Malavi	Ruanda	Efiopiya
Armaniston	Zimbabve	Mali	Svazilend	Turkmaniston
Boliviya	Qozog'iston	Moldaviya	Tojikiston	Janubiy Sudan
Botsvana	Qirg'iziston	Mongoliya	O'zbekiston	
Burkina-Faso	Laos	Nepal	Uganda	
Burundi	Lesoto	Niger	Markaziy Afrika Respublikasi	

- JST ning muayyan kelishuvlariga muvofiq maxsus konsessiyalar shaklida xalqaro savdo tizimida imtiyozlarga ega bo'lish va ba'zi savdo hamkorlar bo'yicha bozorlarga imtiyozli kirish huquqi;
- BMT ning maqsadli dasturlari, ikki va ko'p tomonlama hamkorlikdagi rivojlanish dasturlari bo'yicha texnik ko'mak olish imkoniyati.

Dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar. Hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyotida 32 ta rivojlanayotgan mamlakat dengizga chiqish yo'liga ega emas.

BMT ning Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasiga muvofiq ushbu mamlakatlar dengiz qirg'og'iga ega bo'lmagan mamlakatlar sanaladi. Ularning 15 tasi Afrikada, 12 tasi Osiyoda, 2 tasi Lotin Amerikasida, 2 tasi Yevropada joylashgan va 16 tasi kam taraqqiy etgan mamlakatlar guruhiga kiradi. Osiyodagi 4 ta mamlakat eng yaqin dengiz portidan 3,5 ming km. uzoqlikda joylashgan. Ushbu mamlakatlarning 7 tasidan dengiz portlarigacha 1,5 ming km., 11 tasida esa 1 ming km. masofa mavjud.

Ushbu omil qayd etib o'tilgan mamlakatlarning tovar tarkibida ham o'z ifodasini topgan. Ularning eksportida og'ir va arzon tovarlar ustuvorlik qiladi. Transport va sug'urta xarajatlari ushbu mamlakatlar iqtisodiyotiga og'ir yuk bo'lib tushadi hamda eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy o'sishni ta'minlashda jiddiy to'siq bo'lmoqda. Tahlillar ko'rsatishicha, 2002-yilda jahon xo'jaligida transport va sug'urta xarajatlari o'rtacha eksportga chiqarilayotgan tovar qiymatining 3,3 %ni tashkil etgani holda, ushbu ko'rsatkich dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlarda 8,6 %ga teng bo'lgan[1].

Ushbu mamlakatlar iqtisodiyotiga import qiymatining yuqoriligi ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunga qaramasdan mamlakatlarning tranzit muammolarini hal etish uchun milliy transport va samarali tranzit tizimini rivojlantirish, hududiy savdo va iqtisodiy integratsiyani kengaytirish, uzoq masofa tufayli transport xarajatlari oshib ketmaydigan mahsulotlar ishlab chiqariladigan tarmoqlarni rivojlantirish zarur.

BMT ning Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi (YuNKTAD) tasnifi. YuNKTAD dunyo mamlakatlarini BMT ning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti mezonlariga muvofiq rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari guruhlariga bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlar geografik joylashuviga ko'ra Amerika (5), Osiyo (2), Yevropa (36) va Okeaniya (2) hududlariga ajratiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar esa Afrika (56), Amerika (41), Osiyo (40) va Okeaniya (21) hududlariga bo'linadi.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari guruhiga Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlari kiritiladi.

1 Гурова И. П. Мировая экономика. Учебник. — М.: Омега-Л., 2007. С. 116.

YuNKTAD rivojlanayotgan mamlakatlarni quyidagi mezonlar bo'yicha guruhlaydi:
eksportning ixtisoslashuvi:

- neft eksport qiluvchi mamlakatlar — 22 ta mamlakat;
- sanoat mahsulotlarini eksport qiluvchi mamlakatlar — 12 ta mamlakat;
- rivojlanayotgan mamlakatlar — 10 ta mamlakat;
- yangi industrial mamlakatlar — 8 ta mamlakat.

Iqtisodiy rivojlanish darajasi (aholi jon boshiga nominal YaIM ishlab chiqarish hajmi, 2004–2006-yy.)[1]:

- yuqori — 4500 dollardan yuqori (57 ta mamlakat);
- o'rta — 1000 dollardan 4500 dollargacha (47 ta mamlakat);
- past — 1000 dollargacha (55 ta mamlakat).

Asosiy tushunchalar

Mamlakat — muayyan chegaralarga ega, davlat suverenitetidan foydalanuvchi hudud.

Standart tasnif — biron-bir qat'iy miqdoriy mezonga ega bo'lmagan, mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy jihatlari, xo'jalik faoliyatining tashkiliy tamoyillari, institutsional va madaniy xususiyatlari hamda joriy iqtisodiy muammolarini hisobga oluvchi tasnif.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) metodikasi — ushbu tasnif biron-bir qat'iy iqtisodiy mezonlarni talab etmaydi va XVF yordamida tarixiy shakllangan yondashuvlar asosida tahlillarni yengillashtirishni ko'zda tutadi.

Tahliliy mezonlar — mamlakatning eksport daromadlari tarkibi va boshqa tashqi daromadlarni ifoda etuvchi mezonlar.

Yuqori darajada qarzdorlikka ega kambag'al mamlakatlar — ushbu guruhga tashqi qarz hajmini qisqa muddat ichida «iqtisodiy maqbul» darajaga yetkazish majburiyatini olgan mamlakatlar kiradi.

Jahon banki metodikasi — dunyo mamlakatlari operatsion va tahliliy maqsadlar uchun iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra turli guruhlarga ajratiladi va ushbu tasnif asosida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad ko'rsatkichi yotadi.

Nazorat savollari

1. Nima uchun jahon iqtisodiyotida «davlat» tushunchasi emas, «mamlakat» tushunchasidan foydalaniladi?
2. Dunyo mamlakatlari qaysi mezonlar bo'yicha guruhlarga ajratiladi?
3. Standart tasnifga muvofiq mamlakatlar nechta guruhga ajratiladi?
4. XVF metodikasining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Jahon banki metodikasining asosiy mezonlari nimalardan iborat?
6. BMT yondashuvi uchun qanday xususiyatlar xos?
7. Dunyo mamlakatlari inson taraqqiyoti darajasi bo'yicha qaysi mezonlar asosida guruhlanadi?
8. Qoloq mamlakatlar guruhi uchun qanday xususiyatlar xos?
9. Dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlarga qaysi mamlakatlar kiradi?
10. BMT ning Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi (YuNKTAD) tasnifi qanday mezonlarga asoslanadi?

1 UNCTAD Handbook of Statistics 2014. P. 16.

3-BOB. JAHON IQTISODIYOTIDA IQTISODIY O'SISH VA UNING SIKLIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

3.1. Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish muammosi

Insoniyat o'z tarixi mobaynida farovon turmush tarzini ta'minlash bilan bog'liq asosiy vazifa — ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muammosini hal etishga harakat qilmoqda. Yer shari aholisi sonining ortib, ehtiyojlarning o'sib borishi va resurslarning cheklanganligi ushbu muammoni yanada murakkablashtirmoqda.

Har qanday milliy iqtisodiyot siklik rivojlanadi va siklning barcha fazalarini bosib o'tadi. Jahon iqtisodiyoti ham dinamik rivojlanayotgan tizim sifatida siklik tebranishlarga ega.

Milliy iqtisodiyotlarning siklik rivojlanishi tahlili jahon iqtisodiyotining umumiy rivojlanish tendensiyasini ko'rsatdi. Birinchidan, jahon iqtisodiyoti va uning alohida sohalari siklik tebranishlarga ega, ikkinchidan, jahon iqtisodiyotidagi siklik tebranishlar qisqa, o'rta va uzoq muddatli bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy rivojlanishdagi uzoq muddatli tebranishlar XX asrning 20-yillarida ushbu holatning mavjudligini asoslab bergan iqtisodchi olim N. Kondratyev nomi bilan «Kondratyevning uzun to'lqinlari» deb ataladi.

Nikolay Kondratyev barcha mamlakatlar va jahon iqtisodiyoti o'z rivojlanishida bosqichma-bosqich, taxminan 40–60-yildan iborat pasayuvchi va ko'tariluvchi siklik davrlarni bosib o'tadi, degan xulosaga kelgan. O'z navbatida, dunyo mamlakatlari va jahon iqtisodiyoti «uzun to'lqinlar» doirasida o'rta muddatli tebranishlarga duch keladi. Ushbu tebranishlar o'rtacha 5–7-yilda takrorlanishi va uzoq sikl ichida bir necha marta ro'y berishi mumkin.

Iqtisodchilarning fikricha, jahon iqtisodiyotining rivojlanishidagi bu turdagi siklik tebranishlarning paydo bo'lishi kapitalizmning jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan belgilanib, sikllarning almashinishidagi asosiy omil ishlab chiqarishning ilmiy-texnik taraqqiyot ta'sirida ishlab chiqarish kuchlarining yangilanishi hisoblanadi.

XVIII asr oxirlaridan boshlab jahon iqtisodiyotining rivojlanishida to'rtta yirik siklik konyunktura kuzatilgan (3.1.1-rasm).

Birinchi to'lqin — to'qimachilik sanoati va cho'yan ishlab chiqarish.

Ikkinchi to'lqin — dengiz va temiryo'l transportining rivojlanishi.

Uchinchi to'lqin — elektrotexnika va aloqa vositalari.

To'rtinchi to'lqin — kimyo va kompyuter sanoati.

3.1.1-rasm.
Jahon iqtisodiyotidagi siklik tebranishlar



Mutaxassislarning fikricha, beshinchi to'lqinning paydo bo'lishida informatika, biotexnologiya, gen injeneriyasi, tibbiyot, energiyaning yangi turlari, fazoni o'zlashtirish sohalaridagi yangiliklar hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin.

Shunday qilib, ko'tariluvchi to'lqinlarning shart-sharoitlari fan va texnika sohasidagi yangiliklar hisoblanadi. Ushbu yangiliklar jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish, tarkibiy siljishlar va yangi tarmoqlarning rivojlanishini ta'minladi.

Jahon iqtisodiyotida sodir bo'lgan barcha iqtisodiy va moliyaviy inqirozlar esa bir-biridan chuqurlashuvi, davomiyligi hamda sifat jihatdan xalqaro va milliy doirada sodir bo'lishi bilan farqlanadi.

Tahlillar ko'rsatishicha, 1960–2007-yillarda 21 ta rivojlangan mamlakatda o'rtacha 122 ta retsessiya yuz bergan. Ushbu retsessiyalarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan bo'lsa-da, ularga xos bo'lgan quyidagi umumiy belgilarni ajratib ko'rsatish mumkin (3.1.1-diagramma):

- odatda, retsessiya bir yil davom etadi va ishlab chiqarish hajmi sezilarli qisqaradi. Xususan, retsessiya YaIM hajmining 2 %ga qisqarishi orqali namoyon bo'ladi. Og'ir kechadigan retsessiya holatida esa ushbu ko'rsatkich 5 %gacha yetishi mumkin;
- iste'mol hajmining qisqarishi sezilarli bo'lmasa-da, sanoat ishlab chiqarishi va investitsiyalar hajmining qisqarishi YaIM hajmining qisqarishiga nisbatan yuqori bo'ladi;
- odatda, retsessiya xalqaro savdo va eksportning pasayishi bilan mos keladi, retsessiyaning pasayishi davrida esa importning keskin qisqarishi yuz beradi;
- retsessiya davrida ishsizlik darajasi keskin oshadi, inflyatsiya esa tovar va xizmatlarga bo'lgan jami talabning qisqarishi tufayli pasayadi. Uy-joy va aksioner kapitali qiymatining pasayishi kabi, retsessiya ham moliyaviy bozorlardagi beqarorlikka bog'liq holda ro'y beradi.

AQSh da ro'y bergan 2008–2009-yillardagi retsessiya 1960-yildan keyingi sakkizinchi retsessiya hisoblanadi. Ushbu davrda ro'y bergan retsessiyalarning davomiyligi o'rtacha 11 oyni tashkil etgani holda, eng uzoq davom etgani (1973- va 1981-yillar) 16 oy, eng qisqa vaqt davom etgani (1980-yil) 8 oyga teng bo'lgan. Mamlakatda ishlab chiqarish hajmining qisqarishi o'rtacha 1,7 %ni, eng yuqori ko'rsatkichi esa 3,0 %ni tashkil etgan.

Tahlillar ko'rsatishicha, jahon iqtisodiyotida Ikkinchi jahon urushidan keyin 1975, 1982, 1991 va 2009-yillarda to'rtta global pasayish kuzatilgan bo'lsa shundan eng chuqur global pasayish 2009-yildagi pasayish hisoblanadi. Ushbu inqirozlarning har birining sabablarini tahlil qilish bugungi kunda katta ahamiyat kasb etadi.

1975-yildagi pasayish neft narxining keskin oshib ketishi tufayli yuz bergan. 1973-yilda arab mamlakatlari tomonidan neftga embargo joriy etilishi natijasida neft

3.1.1-diagramma
Retsessiyaning asosiy belgilari



Manba: Классенс С., Коуз М. Э. Что такое рецессия?//Финансы & развитие, № 3, 2009. С. 53.

3.1.1-jadval
Jahon iqtisodiyotidagi global pasayishlar

Ko'rsatkichlar	1975-y.	1982-y.	1991-y.	2009-y.	1975, 1982 va 1991-yillarda o'rtacha o'zgarish
Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YalM, VXQP bo'yicha	-0,13	-0,89	-0,18	-2,5	-0,4
Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YalM, bozor baholarida	-0,33	-1,08	-1,45	-3,68	-0,95
Sanoat ishlab chiqarish	-1,6	-4,33	-0,09	-6,23	-2,01
Xalqaro savdo	-1,87	-0,69	4,01	-11,75	0,48
Neft iste'moli	-0,9	-2,87	0,01	-1,5	-1,25
Ishsizlik darajasi, foiz hisobida (rivojlangan mamlakatlar)	1,19	1,61	0,72	2,56	1,18
Kapital oqimi, YalM ga nisbatan foiz hisobida (har ikki yil uchun o'rtacha)	0,56	-0,76	-2,07	-6,18	-0,76
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol hajmi	0,41	-0,18	0,62	-1,11	0,28
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiya hajmi	-2,04	-4,72	-0,15	-8,74	-2,3

Manba: Козе М. А., Лунгани П., Терронес Е. М. За границами стадиона //Финансы & развитие, №6, 2009. С. 27.

narxi qisqa muddat ichida to'rt baravarga oshib ketgan. Ushbu pasayish AQSh da uzoq muddatli stagflyatsiya (iqtisodiy o'sishning past sur'atlari va inflyatsiyaning yuqori darajasi)ni boshlab berdi.

1982-yildagi pasayish qator rivojlangan mamlakatlarda qattiq pul-kredit siyosatining olib borilishi, neft narxining oshib ketishi va Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi qarzdorlik muammosi bilan bog'liqdir.

1991-yildagi pasayish esa dunyoning turli hududlarida ro'y bergan quyidagi muammolar bilan bog'liq holda ro'y bergan: AQSh da ssuda-jamg'arish tarmoqlaridagi qiyinchiliklar, Skandinaviya mamlakatlaridagi bank inqirozi, Sharqiy

3.1.2-jadval
XX asrning 70–80-yillaridagi iqtisodiy sikl dinamikasi, foiz hisobida

Yillar	Neft bahosining o'zgarishi	Inflyatsiya sur'atlari	Ishsizlik darajasi
1973	11,0	6,2	4,9
1974	68,0	11,0	5,6
1975	16,0	9,1	8,5
1976	3,0	5,8	7,7
1977	8,1	6,5	7,1
1978	9,4	7,7	6,1
1979	25,4	11,3	5,8
1980	47,8	13,5	7,0
1981	44,4	10,3	7,5
1982	-8,7	6,1	9,5

Manba: Грегори Н. Мэнкью. Макроэкономика. — М.: МГУ, 1994. С. 358–359.

Yevropaning o'tish iqtisodiyoti mamlakatlaridagi valyuta inqirozi, Fors ko'rfazidagi urush oqibatida neft narxining oshib ketishi.

2008-yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi AQSh ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglikdan boshlangan va likvidlik inqiroziga aylanish orqali jahon iqtisodiyotini tushkunlik holatiga olib kelgan. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yuqorida ko'rib chiqilgan inqirozlardan o'zining keskinligi va ko'lami bilan farq qiladi. Joriy global iqtisodiy tushkunlik global sanoat ishlab chiqarishning keskin qisqarishiga va jahon iqtisodiyotida ishsizlik darajasining tez sur'atlar bilan o'sishiga sabab bo'ldi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining boshqa global retsessiyalaridan farqi — bu inqirozda mamlakatlarning iqtisodiy sikl fazalari uyg'unlashishni boshladi. Ya'ni 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'siri ostida rivojlangan mamlakatlarning hammasida va rivojlanayotgan mamlakatlarning yarmidan ko'prog'ida iqtisodiy retsessiya boshlandi. 1975, 1982 va 1991-yillarda ro'y bergan iqtisodiy tushkunliklar qamrov jihatidan zamonaviy inqirozdan ortda qoldi. Shu sababli oldingi inqirozlar davrida qo'llanilgan bir mamlakatdagi iqtisodiy retsessiyani boshqa mamlakat iqtisodiy o'sishi hisobiga qisqartirish strategiyasining zamonaviy shart-sharoitda qo'llanilmasligiga olib keldi.

Bugungi kunda iqtisodchi olimlar oldida turgan asosiy masala global retsessiyalarni oldindan aniqlash va uning oldini olishning samarali strategiyasini ishlab chiqishdan iborat. Umuman olganda, iqtisodiyotning siklik rivojlanishi kabi masalalarni tahlil qilish uchun ko'plab rivojlangan mamlakatlarda maxsus institutlar tashkil qilingan. Xususan, AQSh da 1978-yilda Iqtisodiy Tadqiqotlar Milliy Byurosi (ITMB), Yevro zonada esa, 2002-yilda Iqtisodiy Siyosat Tadqiqot Markazi (ISTM) tashkil qilingan. Bu tashkilotlar iqtisodiy retsessiyalarni tahlil qilishda o'ziga xos usul qo'llashdi va 1975, 1982, 1991-yillarda bo'lib o'tgan iqtisodiy retsessiyalar bo'yicha quyidagi xulosalarni olishdi:

- sanoat ishlab chiqarish va neft iste'moli inqirozdan ikki yil oldin qisqarishni boshlagan;
- xalqaro savdo va xalqaro kapital migratsiyasi inqirozdan bir yil oldin qisqarishni boshlagan;
- global ishsizlik ko'rsatkichi inqiroz yillarida o'zining maksimal cho'qqisiga erishgan.

Zamonaviy jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga ham shu kabi xususiyatlar xosdir. Bu xususiyatlardan kelib chiqqan holda global inqirozlarni oldindan aniqlash mumkin, ammo inqirozlarning ko'lami makroiqtisodiy agentlarning o'zini tutish xususiyatlariga bog'liq. 2006-yildan boshlab jahonning bir qator yetakchi tadqiqot institutlari AQSh da qaytarilmagan ipoteka kreditlarining qiymati keskin o'sib borayotganini ta'kidlashgan. Ammo yuqori spekulyativ daromad olish maqsadida moliyaviy institutlar o'z faoliyatlarini kengaytirishga harakat qilishdi. Bu holat jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining chuqurlashuviga sabab bo'ldi.

Zamonaviy jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi kurash dunyo mamlakatlari olib borayotgan iqtisodiy siyosatni ko'p tomonlama muvofiqlashtirishni talab etadi. Bu borada jahon iqtisodiyotini xalqaro darajada samarali tartibga solishda «20 guruhi» alohida rol o'ynaydi. Ushbu guruh tomonidan 2008–2014-yillarda Vashington, London, Pitsburg, Toronto, Seul, Parij sammitlari o'tkazildi.

Vashington sammiti. 2008-yil 15-noyabrda Vashington shahrida bo'lib o'tgan katta yigirmatalik davlatlari (G20)[1] majlisida moliyaviy amaliyotlarni nazorat

1 G20 — rivojlangan va rivojlanayotgan yirik mamlakatlar hukumatlari va markaziy banklari forumi. Avstraliya, Argentina, AQSh, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya, JAR, Hindiston, Indoneziya, Italiya, Kanada, Meksika, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Fransiya, Xitoy, Yaponiya va Yevropa Ittifoqidan iborat.

qilishni takomillashtirish uchun milliy tizimlar ustidan qo'shimcha xalqaro hay'atlar tashkil etish g'oyasi muhokama etildi. Aksariyat siyosatchilar xalqaro nazoratni kuchaytirish inqirozning to'xtashi uchun samarali vosita bo'lishiga ishonch bildirdilar. Shu bilan birga mazkur taklifga mutlaqo qarshi bo'lgan guruhlar ham mavjud. Ular moliyaviy tizimni nazorat qilishga urinish asrlar davomida shakllangan erkin iqtisodiy munosabatlarga zid, degan fikrdalar.

London sammiti. Ushbu sammitda «20 guruhi» mamlakatlari barqaror iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi barcha bozor tamoyillari va qadriyatlari masalalari bo'yicha yangi global konsensusga erishish istagini bildirishdi. 2009-yil 2-aprelda London shahrida 20 mamlakat rahbarlari sammitida qabul qilingan qarorlar:

- jahon moliya bozori qatnashchilari (davlatlar, tijorat banklari, reyting kompaniyalari, auditor kompaniyalari, investitsion, xedj fondlari) ustidan nazoratni kuchaytirish va yangi xalqaro moliya bozori ustidan nazorat qiluvchi organ tuzish;
- rivojlanayotgan mamlakatlarga krizisga qarshi chora-tadbirlar uchun 2012-yil oxiriga qadar 1,1 trln. dollardan iborat mablag' jamlanadi va ular Xalqaro valyuta fondi va Jahon banki orqali taqsimlanadi;
- hammasi bo'lib sammit qatnashchilari 2010-yil oxiriga qadar qo'shimcha krizisga qarshi chora-tadbirlar uchun 5 trln. dollar mablag' sarflash va ushbu pullarni taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlarning bank tizimini tiklash, kambag'al mamlakatlarga moliyaviy yordam berish uchun yo'naltirish (100 mlrd. dollar);
- xalqaro valyuta fondi faoliyatini isloh qilish va ustav kapitalini 250 mlrd. dollardan 750 mlrd. dollarga yetkazish. Xalqaro valyuta fondini turli shaklda moliyalashtirishda yigirmatalik davlatlarining qatnashuvi.
- xalqaro moliya institutlarini isloh etish (XVF) va moliyaviy barqarorlik forumi mavqeyini kuchaytirish.
- ofshor zona va sakkiz jahon moliyaviy markazlariga nisbatan kuchli sanksiyalarni qo'llash to'g'risida kelishib olindi.

Pitsburg sammiti (2009-yil 24–25-sentyabr). Pitsburg sammitida ishonchli, barqaror va muvozanatlashgan o'sishni (A Framework for Strong, Sustabainable and Balanced) ta'minlashga qaratilgan hamkorlikdagi chora-tadbirlarni belgilab beruvchi Cheklangan kelishuvlar qabul qilindi. Cheklangan kelishuvlarni amalga oshirish mexanizmi o'zida a'zo mamlakatlar tomonidan iqtisodiy siyosat masalalarini o'zaro baholashni bildiradi.

Toronto sammiti (2009-yil 26–27-iyun). Ushbu sammitda keng miqyosda islohotlarni amalga oshirish muvofiqlashtirilgan iqtisodiy siyosat yuritishni talab etishi va o'rta muddatli istiqbolda quyidagilarga erishish mumkinligi ta'kidlab o'tildi[1]:

- jahon ishlab chiqarish hajmining yillik o'sishini 4 trln. AQSh dollariga yetkazish;
- 52 mln. ishchi o'rnini yaratish;
- 90 mln. kishini kambag'allik holatidan olib chiqish;
- joriy operatsiyalar schyotidagi global manfiy muvozanatni qisqartirish.

«20 guruhi»ning rivojlangan mamlakatlari 2013-yilga borib davlat byudjeti kamomadini ikki baravarga qisqartirish va 2016-yilgacha davlat qarzining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini barqarorlashtirish majburiyatini olishdi.

Seul sammiti (2010-yil 10–12-noyabr). Seul sammitida makroiqtisodiy va valyuta siyosatini birgalikda olib borish zarurligi ta'kidlandi. Chunki moliyaviy

1 Смыслов Д. В. Глобальные дисбалансы и согласование национальных макроэкономических политик в рамках «Группы 20». //Деньги и кредит, №8, 2011. С. 7, 10, 11.

inqirozning chuqurlashuvi valyuta-moliya sohasida qarama-qarshiliklarni keltirib chiqardi. Jumladan, AQSh Xitoyni yuan kursini sun'iy ravishda pasaytirishda ayblasa, Xitoy va Yevropa Ittifoqining ba'zi mamlakatlari AQSh ning iqtisodiyotga qo'shimcha 600 mlrd. dollar mablag' sarflaganini tashqi savdodagi hamkor mamlakatlarning valyutalariga nisbatan dollar kursini pasaytirishga yo'naltirishda aybladi.

«20 guruhi» mamlakatlari Seul sammitida bozor orqali belgilanadigan valyuta kurslari tizimini o'rnatish yordamida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, moliya bozorlari barqarorligini mutsahkamlashga qaratilgan makroiqtisodiy siyosat yuritish majburiyatini olishdi.

Parij sammiti. Ushbu sammitda barqaror global tengsizliklarni bartaraf etish maqsadida quyidagi ko'rsatkichlarni tanlab olishga kelishildi:

- ichki makroiqtisodiy siyosat ko'rsatkichlari — byudjet kamomadi, davlat qarzining hajmi, xususiy jamg'armalar darajasi, xususiy qarz miqdori;
- tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlar — savdo balansining holati, investitsiyalardan keladigan daromadlarning sof oqimi, bir tomonlama o'tkazmalar.

Qayd etib o'tilgan ko'rsatkichlar dinamikasi soliq, byudjet, pul-kredit, valyuta kursi siyosatini baholashda asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari Parij sammiti qatnashchilari xalqaro valyuta tizimini mustahkamlashga qaratilgan ishchi dasturni qabul qilishdi.

Kanna sammiti. Ushbu sammit 2011-yil 3–4-noyabr kunlari Kanna (Fransiya) shahrida o'tkazildi. Unda banklar faoliyatini nazorat qilish va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi choralar tizimini ijrosi muhokama etildi.

Meksika sammiti. 2012-yilning 18–19-iyun kunlari o'tkazilingan ushbu sammitda asosiy e'tibor Yevropa «suveren qarzlar inqirozi» muammosiga qaratildi va ushbu muammoni hal etish mas'uliyati Yevropa Ittifoqi zimmasiga yuklatildi.

Sankt-Peterburg sammiti (2013-yil 5–6-sentyabr). Ushbu sammit jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, ish o'rinlarini yaratish va ishsizlikka qarshi kurash, investitsiyalarni rag'batlantirish, xalqaro savdoni mustahkamlash va xalqaro rivojlanishga ko'maklashish masalalariga bag'ishlandi.

Avstraliya sammiti (2014-yil 15–16-noyabr). Sammit doirasida 2015–2016-yillarda iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlari shaffofligini oshirish, xalqaro infratuzilma markazini yaratish zaruriyati va XVFni isloh etishdagi to'siqlarni bartaraf etish masalalari ko'rib chiqildi.

Demak, jahon iqtisodiyotining globallashuvi iqtisodiy inqirozlarni ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishiga olib kelmoqda. Bunday shart-sharoitda har qanday mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda ushbu inqirozlarni oldindan aniqlash va ularga qarshi samarali chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etib qoladi.

3.2. Jahon konyunkturasining zamonaviy holati va iqtisodiy o'sish omillari

Iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish omillarini oqilona qo'llash natijasi hisoblanadi. Har qanday xo'jalik tizimining samarali amal qilishiga resurslarning mavjudligi va ularni optimal iste'mol qilish usullari ta'sir qiladi. Barcha tarkibiy komponentlar o'zaro bog'liq va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish omillarining nisbatidagi uzoq muddatli o'zgarish iqtisodiy rivojlanishning asosiy shartlarini belgilab beradi va pirovard natijada iqtisodiy o'sish sur'atlari hamda ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir o'tkazadi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab jahon iqtisodiyotida tarkibiy qayta qurishlar tendensiyasi kuchayib bormoqda.

Investitsiyalar tarkibi, ilmiy-texnik taraqqiyot, mehnat resurslari (inson kapitali), xalqaro iqtisodiy munosabatlar dinamikasi va o'zgarishi jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi omillar hisoblanadi.

Aholi turmush darajasining oshishini ta'minlab beruvchi iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi elementi asosiy kapitalga sarflanayotgan investitsiyalardir.

1970–1990-yillarda rivojlangan mamlakatlarda kapital qo'yilmalar hajmi o'rtacha 1,5 baravarga ortdi va ularning rivojlanish dinamikasi jahon konyunkturasidagi siklik tebranishlarga bog'liq. Keng miqyosli investitsiyalashga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- kutilayotgan foyda;
- kredit bozorlaridagi stavkalar darajasi;
- fond bozorlaridagi kotirovkalar;
- jamg'armalar darajasi;
- iqtisodiy siyosat.

O'tgan asrning 70–80-yillaridagi tarkibiy inqirozlar kapital qo'yilmalarning texnologik tarkibini o'zgartirib yubordi. Jahondagi jami talabning tayyor mahsulot tomon o'zgarishi asosiy kapitalning faol qismiga mablag'lar sarflash chog'idagi ustuvorliklarning ham o'zgarishiga olib keldi. Iqtisodiyotning asosiy sohasi hisoblangan qayta ishlash sanoatida amalga oshirilayotgan investitsiyalarning faol qismi 80-yillarda 77–85 %gacha yetdi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, **iqtisodiy o'sish va jamg'armalar** o'rtasida kuchli korrelyatsion bog'lanish mavjud. Rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM ishlab chiqarish barqaror o'sishining 2 %ga oshishiga, YaIM dagi jamg'armalar ulushining 1 %ga ko'payishiga olib keladi. XVF mutaxassislarining tadqiqotlariga ko'ra, ushbu nisbat rivojlanayotgan mamlakatlarda 0,5 %ni tashkil etadi.

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, yuqori jamg'arish normasiga ega bo'lgan mamlakatlar, boshqa shart-sharoitlar o'zgarmagan holda, odatda, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga ega bo'lishadi. Masalan, 2003–2008-yillar mobaynida 164 ta mamlakatdan 79 tasi o'rtacha jahon ko'rsatkichidan (22,3 %) yuqori jamg'arish normasiga ega bo'lgan va ushbu mamlakatlarda YaIM ning o'rtacha yillik qo'shimcha o'sish sur'atlari 3,6 %ni tashkil etgan. Ushbu mamlakatlarning 47 tasida jamg'arish normasi 25 %dan, 17 tasida esa 30 %dan yuqori bo'lgan va ushbu guruh mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari mutanosib ravishda 3,8 va 3,9 %ga teng bo'lgan. Qolgan 21 ta mamlakatda jamg'arish normasi 15 %dan past bo'lgan va YaIM ning qo'shimcha o'sish sur'atlari 1,8 %ni tashkil etgan. Ammo tadqiq etilgan mamlakatlar ichida kichik yoki kam rivojlangan mamlakatlar ulushi yuqori. Ushbu guruhga Afrikaning aksariyat mamlakatlari va kichik orol mamlakatlari kiradi. Bu guruhga kiruvchi mamlakatlarning makroiqtisodiy rivojlanish indikatorlariga tashqi omillar (alohida guruh tovarlar narxining konyunkturasi, turistik biznesning rivojlanish tendensiyasi, tabiiy-iqlim sharoitlar va h. k.) jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ushbu omillar ta'sirini yo'qotish maqsadida iqtisodiyoti va tashqi savdosi tarkibiy jihatdan diversifikatsiyalashgan rivojlangan mamlakatlar alohida tahlil etilgan bo'lib, ularning soni 81 tani tashkil etadi.

Tahlillar ko'rsatishicha, 2003–2008-yillarda rivojlangan mamlakatlarda YaIM ning o'rtacha o'sish sur'atlari 3,4 %ni, jamg'arish normasi esa 22,5 %ni tashkil etgan. Jamg'arish normasining o'sishi bilan YaIM ning qo'shimcha o'sish sur'ati ham ortib boradi. Jumladan, jamg'arish normasi 25 %dan ortiq mamlakatlarda

3.2.1-jadval

Jahon yalpi ichki mahsuloti va kapital qo'yilmalarda mamlakatlar va mamlakatlar guruhining ulushi, 1990–2010-yy.

	YaIM			Asosiy kapitalga qo'yilmalar			Jamg'arish normasi, YaIM ga nisbatan, % da, 2010-y.
	1990-y.	2008-y.	2010-y.	1990-y.	2008-y.	2010-y.	
Jami, trln. doll.	22,2	61,5	63,5	5,0	14,1	13,7	22,6
Shu jumladan (%):							
AQSh	26,2	23,4	16,1	21,1	18,7	16,3	14,7
Xitoy	1,8	7,4	14,5	2,0	13,1	17,6	46,1
Rivojlangan mamlakatlar (AQSh dan tashqari)	53,3	45,1	42,3	59,7	43,4	39,1	19,9
Rivojlanayotgan mamlakatlar (Xitoydan tashqari)	18,7	24,1	25,2	17,2	24,7	27,1	23,2

Manba: Григорьев Л., Иващенко А. Мировые дисбалансы сбережений и инвестиций.//Вопросы экономики, № 6, 2011. С. 12.

3.2.2-jadval

Jahon mamlakatlari va hududlarida yalpi jamg'arish normasi, YaIMga nisbatan % da

	1989–1996-yy. o'rtacha	1997–2004-yy. o'rtacha	2005-y.	2010-y.	2012-y.	2013–2016-yy. o'rtacha
Rivojlangan mamlakatlar	22,5	21,2	21,2	18,6	19,6	20,5
shu jumladan:						
Osiyoning yangi industrial mamlakatlari	32,5	27,3	26,1	26,2	26,8	26,7
Rivojlanayotgan mamlakatlar	25,9	25,0	26,8	31,3	31,9	32,5
shu jumladan:						
Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari	22,4	21,3	21,4	21,0	22,4	22,8
MDH mamlakatlari	–	20,3	21,2	21,7	25,9	26,9
Lotin Amerikasi mamlakatlari	20,1	20,7	20,5	21,8	22,9	23,5

Manba: Булатов А. Россия в международном движении капитала: сравнительный анализ // Вопросы экономики, №8, 2011. С. 71.

YaIM ning qo'shimcha o'sish sur'ati 4,8 %ga teng bo'lgani holda, jamg'arish normasi 30 %dan ortiq mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich o'rtacha 8,7 %ni tashkil etgan[1].

1990–2010-yillarda jahonda asosiy kapitalga qo'yilmalar va jahon yalpi ichki mahsulotining hajmi deyarli uch baravarga oshgan. Bu davrda rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 18,7 %dan 34,6 %gacha, jamg'arishdagi ulushi esa 17,2 %dan 44,7 %gacha ortishi ushbu mamlakatlarda jamg'arish normasining o'sib borayotganidan dalolat beradi. Jumladan, 2010-yilda ushbu ko'rsatkich rivojlanayotgan mamlakatlarda 23,2 %ni, Xitoyda esa 40,4 %ni tashkil etdi (3.2.1-jadval).

1 Новиков М. М. Необходимые объемы инвестиций и фондовый рынок как потенциальный источник финансирования будущего роста. // Международная экономика, №11, 2009. С. 53.

Mutaxassislarning prognozlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda yalpi jamg'arish normasi 2012-yilda 19,6 %ni, 2013–2016-yillarda 20,5 %ni, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu davrda 26,8 va 26, %ni, jumladan, Osiyoning yangi industrial mamlakatlarida 31,9 va 32,5 %ni tashkil etishi kutilmoqda (3.2.2-jadval).

Hozirda iqtisodiy o'sishga nisbatan ijtimoiy mezonlar va talablar ham ortib bormoqda. Yirik hajmli investitsiyalar ekologik xavfsizlikni ta'minlash muammolarini hal etish, «ifloslantiruvchi» tarmoqlarni rekonstruksiya qilish, tozalash inshootlariga mablag' sarflash, yangi ekologik xavfsiz va resurs tejovchi texnologiyalarni yaratishga yo'naltirilmoqda.

Xitoy oxirgi uch o'n yillikda yiliga o'rtacha 8 %li iqtisodiy o'sishga erishdi va mamlakatda kambag'allik ko'rsatkichi 1981–2005-yillar mobaynida 80 %ga qisqardi. Shunga qaramasdan, Xitoyda iqtisodiy o'sish inson taraqqiyoti ko'rsatkichlarining yaxshilanishi bilan birga amalga oshmadi. Tahlillar ko'rsatishicha, Xitoy 1970-yildan boshlab iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha birinchi o'rinni, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi ko'rsatkichlarning yaxshilanishi bo'yicha esa 135 mamlakat orasida 79-o'rinni egallaydi[1]. Ushu sohadagi muammolar aholidan undiriladigan to'lovlar hajmining ortishi yoki umummilliy miqyosda aholiga ko'rsatiladigan bazaviy xizmatlarni moliyalashtirishning nomarkazlashtirilishi bilan bog'liq. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan maqsadli xarajatlar odamlarning yashash manbayi hisoblangan hududlar, suv va havo tizimining ifloslanishi, ba'zida esa global salbiy ekologik oqibatlarga olib keldi. Ushbu holat esa aholi daromadlari o'rtasidagi tengsizlikning chuqurlashuviga sabab bo'ldi. Jumladan, 2008-yilda Guandun viloyati uy xo'jaliklaridagi aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi iste'mol hajmi Tibetga nisbatan to'rt baravar yuqori bo'lgan. Xitoy hukumatining keyingi besh yillik rejalaridagi asosiy ustuvorlik mamlakatdagi ijtimoiy disbalansni yo'qotishga qaratilgan.

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim manbalaridan biri **texnologik taraqqiyot** hisoblanadi.

Texnologik taraqqiyot keng qamrovli tushuncha bo'lib, innovatsion jarayonlar, texnik bilimlar, boshqaruv jarayonlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Texnologik taraqqiyot ishlab chiqarish omillaridan oqilona foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi mahsulotlarning paydo bo'lishi va mavjudlarining sifatini oshirish, tovarlarni bozorlarda samarali sotishga olib keladi. Fan va texnika sohasidagi yangiliklar, texnologik jarayonlarni amaliyotga joriy etish ishchi kuchini sifat jihatdan takomillashtirishni talab etadi. Shu tariqa texnologik taraqqiyot ilmiy-texnik, ta'lim va kasbiy salohiyatning oshishiga ko'maklashadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot ta'sirida mehnat predmetlari va mehnat vositalarida sezilarli o'zgarish yuz beradi, iqtisodiy rivojlanishda tabiiy materiallarga bo'lgan bog'liqlik pasayadi. Jumladan, elektronika sohasidagi yutuqlarning asbob-uskunalar va robotlar bilan birgalikda qo'llanilishi egiluvchan ishlab chiqarish tizimlarining yaratilishiga olib keldi.

XXI asrda jahon iqtisodiyotida texnologik rivojlanish darajasi va dinamikasi barqaror iqtisodiy o'sish asosini ta'minlaydigan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi chegaralarni belgilab beradigan asosiy omilga aylandi.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanishidagi yana bir muhim omil — bu mehnat resurslari, inson kapitaliga yo'naltirilgan xarajatlar hisoblanadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot ta'sirida iqtisodiyot tarkibining o'zgarishi mehnat resurslari tarkibining ham o'zgarishiga olib keladi, ya'ni yangi kasblar paydo bo'ladi, ishchi malakasiga, kadrlarni qayta tayyorlashga bo'lgan talab ortadi. Texnologik taraqqiyot ishchilarni muntazam o'qitish, malakasini oshirishni talab etadi.

1 Доклад о развитии человека 2010. Реальное богатство народов: пути к развитию человека / Пер. с англ.; ПРООН. — М., Издательство «Весь Мир», 2010. С. 105.

3.2.1-diagramma
Jahonda ishsizlik darajasining o'zgarishi, 2000–2013-yy.



	2000	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Ishsizlar soni, mln. kishi	176,7	186	179,8	170	177	197,9	195,2	193,9	169,9	201,8
-- Jahon real YaIM ning o'sish sura'ti, %	4,8	4,6	5,2	5,3	2,7	−0,4	5,2	3,9	3,2	2,9
— Ishsizlik darajasi, %	6,3	6,2	5,9	5,5	5,6	6,2	6,1	6	6	6

Manba: Global Employment Trends 2014: Risk of a jobless recovery?/ILO Office –Geneva: ILO, 2014. p. 89–91.

Mehnat resurslaridan samarali foydalanish bilan bir vaqtda iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ishsizlik muammosi ham mavjud. Ishsizlik va real yalpi ichki mahsulot hajmi o'rtasida Ouken qonuni deb nom olgan bog'liqlikni kuzatish mumkin: ishsizlik darajasining bir foizga ortishi real yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atining ikki foizga qisqarishiga olib keladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siri oqibatida jahonda ishsizlar soni 2009-yilda 205,2 mln. kishini tashkil etib 2008-yilga nisbatan 12 %ga yoki 22,8 mln. kishiga ko'paygan. Davom etayotgan inqirozning salbiy ta'siri oqibatida jahonda ishsizlar soni 2007–2013-yillarda 170 mln. kishidan 201,8 mln. kishiga qadar oshgan.

Ishsizlik darajasi va iqtisodiy o'sish o'rtasida korrelyatsion bog'liqlik mavjud. Jumladan, jahon yalpi ichki mahsulotining o'rtacha o'sish sur'atlari 5 %ni tashkil etgan vaqtda ishsizlik darajasi o'rtacha 6 %ga teng bo'lgan. 2008–2009-yillarda jahon moliyaviy inqirozining ta'sirida jahon yalpi ichki mahsuloti hajmining 2,7 %dan 0,6 %gacha qisqarishi, ishsizlik darajasining 5,7 %dan 6,3 %gacha ortishiga olib kelgan (3.2.1-diagramma).

Jahon mehnat bozoridagi salbiy holatlardan yana biri — yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasining yuqoriligidir. Xususan, 2007–2013-yillarda yoshlar o'rtasida ishsizlar darajasi 12–13 %ni tashkil etadi. 2013-yilda taxminan 75 mln. yosh o'z ish o'rinlarini topa olmagan. Ushbu ko'rsatkich rivojlanayotgan mamlakatlarda jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammo hisoblanadi.

Tahlillar ko'rsatishicha, rivojlangan mamlakatlarda mehnat bozorining rivojlanish istiqbollari quyidagi omillar bilan belgilanadi (3.2.3-jadval):

- mehnatga layoqatli aholi o'sish sur'atlarining sekinlashuvi;
- iqtisodiy faol aholi tarkibida mehnatga layoqatli yoshdan katta aholi ulushining ortib borishi;
- xizmatlar sohasida aholi bandligining yuqori sur'atlarda rivojlanish tendensiyasining saqlanib qolishi;
- ko'p sonli past malakali ishchi o'rinlarini saqlab qolgan holda malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabning ortishi.

3.2.3-jadval
Rivojlangan mamlakatlarda 2015-yilgacha ishchi kuchiga bo'lgan talab istiqbollari (o'rtacha yillik o'sish sur'atlari, foiz hisobida)

	IHTT	AQSh	G'arbiy Yevropa
Mehnatga layoqatli aholi	0,3	0,6	0
Bog'liqlik ko'rsatkichi:			
2010-yil	15,4	13,6	16,4
2015-yil	17,1	14,9	18,9
Bandlik	0,7	1,1	0,4
Ishsizlik	6,3	4,7	7,9

Manba:Вишневская Н. Проблемы и перспективы рынка рабочей силы. // Мировая экономика и международные отношения,, 2000. С. 46.

Shunday qilib, yuqori, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning asosini iqtisodiy rivojlanish omillarini to'g'ri qo'llash va iqtisodiy siyosatda hisobga olish tashkil etadi.

3.3. Iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanish

Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning ko'rsatkichlari alohida mamlakatlar, hududlar, jahon bo'yicha iqtisodiy rivojlanish dinamikasi va tendensiyalarini tavsiflab beradi. Iqtisodchilar iqtisodiy o'sishni miqdoriy jihatdan tavsiflash uchun, odatda, yalpi mahsulot va aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad ko'rsatkichlaridan foydalanishadi.

Ushbu ko'rsatkichlar XX asrning 60–70-yillarigacha amal qilgan. Ammo iqtisodiyotning sifat ko'rsatkichlari bilan bog'liq iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush darajasi har doim ham iqtisodiy o'sish tushunchasi bilan mos kelavermaydi. Tahlillar ko'rsatishicha, dunyo mamlakatlari amaliyotida iqtisodiy o'sish va aholi turmush darajasi o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud emas.

Iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish tushunchalari o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. XX asrning 60-yillaridan boshlab iqtisodiy rivojlanish jarayonlari ijtimoiy rivojlanish bilan bevosita bog'lana boshlandi va ijtimoiy ko'rsatkichlar birinchi o'ringa chiqdi.

Ushbu muammo turli xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tadqiqot obyektiga aylandi. Natijada ijtimoiy rivojlanishning yagona kompleks ko'rsatkichlari va iqtisodiy rivojlanishga baho berish mezonlarini ishlab chiqish maqsadida xalqaro darajada tadqiqot ishlarini olib borish boshlandi. Jumladan, 1970-yili Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) «bazaviy ehtiyojlar» konsepsiyasini ilgari surdi. Endilikda iqtisodiy o'sish, birinchi navbatda, ishsizlik, kambag'allik, alohida mamlakatlar va jahon miqyosida ijtimoiy tengsizlikning o'sib borishi kabi ijtimoiy muammolarni hal etish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqila boshlandi.

BMT qoshidagi Ijtimoiy rivojlanish tadqiqot instituti 7 ta iqtisodiy va 9 ta ijtimoiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy rivojlanishning kompleks indeksini taklif etdi:

- mahsulotlarning asosiy turlarini iste'mol qilishning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi miqdori;
- qayta ishlash sanoatining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi;
- tashqi savdo aylanmasining aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi miqdori, doll.;

- elektr energiyasi, gaz, toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan iqtisodiy faol aholi ulushi;
- kutilayotgan umr uzunligi;
- 20 mingdan ortiq aholi yashaydigan shaharlar ulushi;
- oqsillarni kundalik iste'mol qilish;
- boshlang'ich va o'rta ma'lumotga ega aholi ulushi;
- ixtisosligi bo'yicha band aholi darajasi.

Mamlakatlarning rivojlanish darajasini tahlil etish uchun aholining asosiy ehtiyojlarini qondirish yoki turmush sifati ko'rsatkichi ham taklif etildi. Ushbu ko'rsatkich Jismoniy turmush sifati indeksi nomini oldi va quyidagi uchta ko'rsatkichni qamrab oladi:

- bir yoshdan keyin kutilayotgan umr uzunligi;
- bolalar o'limi darajasi;
- katta yoshdagi aholining savodxonlik darajasi.

1987-yilda esa Aholini joylashtirish inqirozi muammolari Vashington qo'mitasi mamlakatlar o'rtasida aholi turmush darajasi sohasida farqlar mavjudligini ko'rsatishga harakat qildi. Ushbu maqsadda qo'mita tomonidan Xalqaro farovon emaslik indeksi ishlab chiqildi. Indeks sog'liq, demografik holat, moddiy ta'minot va jamiyat holatiga bog'liq holda aholi turmush darajasini tavsiflab beruvchi 10 ko'rsatkichni qamrab olgan.

BMT dasturlari doirasida 1990-yilda yangi inson taraqqiyoti konsepsiyasi yaratildi. Unda sog'liq va kutilayotgan umr uzunligi insonning rivojlanishida eng muhim mezon sifatida belgilandi.

Insonning rivojlanishi tanlash imkoniyatlarining kengayishi jarayonidir. Inson rivojlanishining har bir bosqichida eng muhimi — bu uzoq sog'lom hayot kechirish, bilim olish va farovon yashashi uchun zarur resurslarga ega bo'lish hisoblanadi. Ularsiz ko'plab imkoniyatlar amalga oshmasdan qoladi. Ammo bu bilan insonning rivojlanishi chegaralanib qolmaydi. Bundan tashqari, yuqori qiymatga ega siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy erkinlikdan boshlab ijod qilish va yaratish, kafolatlangan inson huquqlari uchun qulay sharoitlargacha bo'lgan imkoniyatlar ham mavjud. Ushbu konsepsiyaga muvofiq insonning rivojlanishida daromad muhim hisoblanadi, ammo daromad insonning rivojlanishidagi yagona yo'nalish emas. Demak, rivojlanish faqat daromad va farovonlik bilan cheklanib qolmasligi va uning markazida «inson» turishi lozim.

Demak, iqtisodiy rivojlanish tushunchasining mohiyati iqtisodiy o'sish tushunchasidan tinchlik, xavfsizlik, ekologiya va ijtimoiy adolatni o'z ichiga oluvchi murakkab keng qamrovli tushunchaga qadar rivojlanib borgan.

3.4. Inson taraqqiyoti indeksi va turmush sifati

Inson taraqqiyoti indeksi. Yuqorida qayd etilgan konsepsiyaga muvofiq BMT Taraqqiyot Dasturi Inson rivojlanishi salohiyati indeksini (IRSI) ishlab chiqdi va ushbu indeks quyidagi ko'rsatkichlardan tashkil topgan integral ko'rsatkich hisoblanadi:

- tug'ilishda kutilayotgan umr uzunligi;
- ta'lim darajasi (o'rta ta'limning va ta'limning davomiyligi);
- aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad.

IRSI har bir ko'rsatkichi bo'yicha erishilgan natijalarni aks ettiruvchi o'rta geometrik indeksdan iborat. Indekslarni hisoblashda 0 dan 1 ga qadar o'zgarib turuvchi minimal va maksimal ko'rsatkichlar belgilangan. Natijada minimal

chegara ko'rsatkichga nisbatan qanchalik rivojlanishga erishilganligini kuzatish mumkin.

Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha 2013-yilda quyidagi minimal va maksimal chegaralar belgilangan (3.4.1-jadval).

3.4.1-jadval
IRSI uchun maqsadli ko'rsatkichlar

Soha	Ko'rsatkichlar	Minimal qiymat	Maksimal qiymat
Sog'liq	Tug'ilishda kutilayotgan umr uzunligi	20	85
Ta'lim	O'rta ta'limning davomiyligi	0	18
	Ta'limning davomiyligi	0	15
Standard daromad	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM (xarid qobiliyati pariteti bo'yicha, 2011-y.)	100	75000

Manba: Human Development Report 2014. Sustaining Human Progress: Reducing Vulnerabilities and Building Resilince. Technical notes. UNDP. New York, 2014. P. 2.

Tahlillar ko'rsatishicha, IRSI ko'rsatkichlari bo'yicha Yaponiya, AQSh, Germaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Bruney yetakchilik qilishadi (3.4.2-jadval).

3.4.2-jadval
IRSI ko'rsatkichlari bo'yicha maksimal qiymatga ega mamlakatlar

Ko'rsatkich	Maksimal qiymat	Minimal qiymat
Tug'ilishda kutilayotgan umr uzunligi	83,6 (Yaponiya, 2013-y.)	20
O'rta ta'limning davomiyligi	12,9 (AQSh, Germaniya 2013-y.)	0
Ta'limning davomiyligi	19,9 (Avstraliya, 2013-y.)	0
Ta'limning o'rtacha indeksi	0,951 (Yangi Zelandiya, 2010-y.)	0
Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad miqdori (xarid qobiliyati pariteti bo'yicha, AQSh doll.)	119029 (Bruney, 2013-y.)	100

Manba: Доклад о развитии человека 2013. Возвышение Юга: человеческий прогресс в многообразном мире / Пер. с Англ.; ПРООН. - М., Издательство «Весь Мир», 2013. С. 148-151.; Human Development Report 2014. Sustaining Human Progress: Reducing Vulnerabilities and Building Resilince. UNDP. New York, 2014. P. 34.

Inson salohiyatining rivojlanishi sohasidagi ijobiy natijalar buning isbotidir. Tahlillar ko'rsatishicha, 1980–2013-yillarda inson taraqqiyoti indeksining o'rtacha ko'rsatkichi dunyo bo'yicha 0,561 dan 0,702 gacha ortgan. Jumladan, qashshoqlikda yashayotgan kishilar ulushi 1981–2008-yillarda 52,2 %dan 22,4 %ga qadar qisqardi (3.4.3-jadval).

3.4.3-jadval
Inson taraqqiyoti indeksi ko'rsatkichi dinamikasi, 1980–2013-yy.

Mamlakatlar guruhi	1980-y.	1990-y.	2000-y.	2012-y.	2013-y.
Inson salohiyatining rivojlanish darajasi juda yuqori mamlakatlar	0,773	0,817	0,867	0,905	0,890
Inson salohiyatining rivojlanish darajasi yuqori mamlakatlar	0,605	0,656	0,695	0,758	0,735
Inson salohiyatining rivojlanish darajasi o'rta mamlakatlar	0,419	0,481	0,549	0,640	0,614
Inson salohiyatining rivojlanish darajasi past mamlakatlar	0,315	0,3150	0,385	0,466	0,493
Dunyo bo'yicha o'rtacha	0,561	0,600	0,639	0,694	0,702

Manba: Доклад о развитии человека 2013. Возвышение Юга: человеческий прогресс в многообразном мире / Пер. с Англ.; ПРООН. - М., Издательство «Весь Мир», 2013. С. 148-151.; Human Development Report 2014. Sustaining Human Progress: Reducing Vulnerabilities and Building Resilince. UNDP. New York, 2014. P. 34.

O'zbekiston inson salohiyatining rivojlanish darajasiga ko'ra o'rtacha ko'rsatkichga ega mamlakatlar guruhiga kiradi. Mamlakatimizda 2005–2013-yillarda inson salohiyatining rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan muvaffaqqiyatli islohotlar tufayli inson taraqqiyoti indeksi ko'rsatkichi O'zbekistonda 0,617 ko'rsatkichdan 0,661 ko'rsatkichga qadar ortdi.

Global ko'rsatkichlar Xitoy va Hindiston kabi aholisi soni ko'p mamlakatlar ta'sirida bo'ladi. Shunga qaramasdan IRSI dunyoning barcha hududlari va mamlakatlarida oshgan. Nisbatan yuqori o'sish sur'ati Sharqiy Osiyo va Tinch okeani hamda Sahroyi Kabirdan janubdagi Afrika mamlakatlari hududida kuzatildi (3.4.4-jadval).

3.4.4-jadval
Inson rivojlanishi salohiyati indeksining o'zgarishi

Mamlakatlar guruhi	1980-y.	1990-y.	2000-y.	2010-y.	2013-y.
Arab mamlakatlari	0,396	0,470	0,525	0,588	0,682
Sharqiy Osiyo va Tinch okeani hududi mamlakatlari	0,383	0,466	0,559	0,643	0,703
Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari	0,503	0,660	0,648	0,702	0,738
Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari	0,573	0,614	0,660	0,704	0,740
Janubiy Osiyo mamlakatlari	0,315	0,387	0,440	0,516	0,588
Sahroyi Kabirdan janubdagi Afrika mamlakatlari	0,293	0,354	0,315	0,389	0,502
Kam taraqqiy etgan mamlakatlar	0,251	0,292	0,325	0,386	0,493
Dunyo bo'yicha	0,455	0,526	0,570	0,624	0,702

Manba: Доклад о развитии человека 2013. Возвышение Юга: человеческий прогресс в многообразном мире / Пер. с Англ.; ПРООН. - М., Издательство «Весь Мир», 2013. С. 148-151.; Human Development Report 2014. Sustaining Human Progress: Reducing Vulnerabilities and Building Resilince. UNDP. New York, 2014. P. 34.

Tahlillar ko'rsatishicha, ba'zi mamlakatlar IRSI bo'yicha sezilarli taraqqiyotga erishishlari uchun uzoq vaqt talab etiladi. Jumladan, Filippin uchun Ispaniya darajasiga erishishda 70-yil, Nigeriyaning Madagaskar, Kamerunning Botsvana ko'rsatkichlariga erishishlari uchun esa 25-yil yoki bitta avlod zarur bo'ladi. Daromadlar bo'yicha Osiyo mamlakatlari, jumladan, Xitoy va Hindiston rivojlangan mamlakatlarga yaqinlashib borsa, Lotin Amerikasi va Karib havzasi, Afrikaning Sahroyi Kabirdan janubda joylashgan mamlakatlari ortda qolmoqda.

Tahlillar inson taraqqiyoti ko'rsatkichlarini baholashning asosiy modellari va rivojlanish tendensiyalari bo'yicha quyidagi xulosalarni olish imkonini beradi:

- oxirgi o'n yillikda dunyoning aksariyat mamlakatlari sog'liqni saqlash va ta'lim sohasida barqaror, uzoq muddatli taraqqiyotga erishdilar;
- Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari, Hindistonda kuzatilgan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga qaramasdan daromadlar borasida o'zaro farqning qisqarishi kuzatilmayapti;
- oxirgi 40-yil mobaynida daromadlarning o'zgarishi, sog'liqni saqlash va ta'lim darajasining o'zgarishi o'rtasidagi korrelyatsiya juda sustligicha qolmoqda;
- global bilim va texnologiyalar inson rivojlanish salohiyatini oshirishning xarajatlarini pasaytirish va samaradorligini oshirishda yangi imkoniyatlarni vujudga keltirmoqda.

2010-yildan boshlab BMT mutaxassislari Inson taraqqiyoti to'g'risidagi ma'ruzada keltiriladigan IRSI ga quyidagi uchta ko'rsatkichni qo'shish taklifi bilan chiqishdi[1]:

1. **Tengsizlikni hisobga olgan holda tuzatish kiritilgan inson salohiyati rivojlanishi indeksi.** Ushbu indeks 139 mamlakat uchun hisoblangan inson salohiyatining rivojlanishida sog'liqni saqlash, ta'lim va daromadlar sohasidagi tabaqalanish sababli ro'y bergan yo'qotishlarni aks ettiradi. Qayd etib o'tilgan uchta ko'rsatkich bo'yicha tebranish ta'lim sohasidagi 1 %dan (Chexiya Respublikasi) daromadlar bo'yicha 16 %gacha (Namibiya) tashkil etadi.

2. **Gender sohasidagi tengsizlik indeksi.** Ushbu indeks 138 mamlakat bo'yicha hisoblangan bo'lib, reproduktiv sog'liq, inson huquqlarini kengaytirish va ishchi kuchi bozorida teng qatnashish imkoniyatlarini qamrab oladi. Qayd etib o'tilgan ko'rsatkichlar bo'yicha mamlakatlar o'rtasidagi farqlar 17 %dan 85 %gacha tebranib turadi. Asosiy jiddiy farq Arab mamlakatlari va Janubiy Osiyo hududida kuzatiladi.

3. Keng qamrovli kambag'allik indeksi. Ushbu ko'rsatkich kambag'allik darajasini kunlik xarajatlar orqali hisoblashga asoslangan ko'rsatkichdan farqli o'laroq, aholining turmush darajasi, ta'lim va sog'liqni saqlash bilan bog'liq o'nta ko'rsatkichdan iborat. Ularga aholining suv, elektr energiya, yoqilg'i bilan ta'minlanganligi, yashash sharoiti, bolalarning ta'lim bilan qamrab olinganligi, ta'lim davomiyligi, bolalar o'limi, ovqatlanish darajasi kabi ko'rsatkichlar kiradi. Tahlillar ko'rsatishicha, 104 ta rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining uchdan bir qismi yoki 1,75 mlrd. kishi keng qamrovli kambag'allik darajasida yashaydi. Aksariyat mamlakatlarda kunlik xarajatlari 1,25 dollardan oshmaydigan aholi soni bilan keng qamrovli kambag'allik indeksi orqali aniqlangan aholi soni o'rtasida sezilarli farq yuzaga keladi. Jumladan, O'zbekiston, Tanzaniya,

1 Иванов Н., Гоффе Н., Монусова Г. Глобализация и бедность. //Мировая экономика и международны отношения, №9, 2010. С. 86.

Shri-Lankada mos ravishda 46 %, 2 %, 14 % va 5 %, 89 %, 65 %ga teng. Ushbu farqlarning yuzaga kelishining sababi aholi keng qamrovli kambag'allik indeksi yordamida aniqlanadigan resurslardan tekinga yoki past narxlarda foydalanish hisoblanadi.

Ushbu ko'rsatkichlar IRSI ni yanada batafsilroq, to'liqroq aks ettirish imkonini beradi.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan IRSI past mamlakatlarga nisbatan savdo imtiyozlari joriy qilish, tashqi qarzlardan voz kechish kabi ko'rinishlarda iqtisodiy yordam ko'rsatiladi. Shunga qaramasdan ushbu mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishlari ustun darajada mamlakatdagi ichki holat va hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosatga bog'liqdir.

Turmush sifati. Insonning rivojlanishidagi muhim muammolardan biri — aholi daromadlari o'rtasidagi farq hisoblanadi. Past daromadli aholi guruhlarining o'zgarmas yoki pasayib boruvchi ulushi ba'zan daromadlarning mutlaq ko'rsatkichlar bo'yicha qisqarishi bilan birgalikda sodir bo'ladi. Dunyo mamlakatlari, mamlakatlar guruhlari o'rtasida daromadlarning qayta taqsimlanish muammosi zamonaviy jahon iqtisodiyotining dolzarb muammolaridan sanaladi.

Rivojlangan mamlakatlarda daromadlar o'rtasidagi farq ikki qutbli xarakterga ega. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ushbu muammo ko'pqirrali va murakkab bo'lib, turli jihatlarga ega:

- shahar va qishloq;
- an'anaviy va yangi ishlab chiqarish sektorlari;
- etnik guruhlar;
- mintaqaviy farq va h. k.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda daromadlarning past darajasi deyarli o'zgarmaydi va kambag'allik doimiy holat hisoblanadi.

Mamlakatlarning turli guruhlarida daromadlarni taqsimlashda har xil tendensiyalar kuzatiladi. Agar rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish daromadlar o'rtasidagi farqlarning qisqarishiga olib kelsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa aksincha iqtisodiy o'sish milliy boylikni taqsimlashda tabaqalanishning kuchayishiga olib keladi.

Daromadlardagi farq va kambag'allik tushunchalari bir-biridan farq qiladi. Jamiyatda tabaqalashuv aholi turmush darajasining nisbiy standartlariga asoslansa, kambag'allik ko'rsatkichi mutlaq ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi.

Inson farovonligini baholash uchun uning ehtiyojlarini qondirishning iqtisodiy va noiqtisodiy jihatlarini e'tiborga olish zarur. Ushbu ko'rsatkichlar yig'indisi inson turmushi sifatini tashkil etadi.

Turmush sifati ko'rsatkichlarini obyektiv va subyektiv ko'rsatkichlarga bo'lish mumkin. Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad, aholi migratsiyasi, inson hayoti davomiyligi, o'lim, daromadlarni taqsimlashdagi tenglik, ta'lim tizimi, jinoyatchilik darajasi kabi ko'rsatkichlar obyektiv ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Turmush sifatining subyektiv ko'rsatkichlari esa aholi o'rtasida turli muammolar va jamoatchilik fikrini o'rganishda qo'llaniladigan sotsiologik so'rovnomalarda aks ettiriladi.

Turmush sifati hayot singari ko'pqirrali tushuncha bo'lib, uni yagona ko'rsatkich orqali ifodalab bo'lmaydi.

Demak, iqtisodiy o'sishni maqsad sifatida emas, balki aholining turmush darajasi va turmush sifatini oshirish vositasi sifatida ko'rib chiqish zarur. Iqtisodiy o'sish ijtimoiy xizmatlar va qadriyatlarga putur yetkazmasdan amalga oshirilishi hamda ijtimoiy adolatni qo'llab-quvvatlashga ko'maklashishi lozim.

Asosiy tushunchalar

Iqtisodiy sikllik — iqtisodiyotning sikllik rivojlanishi va siklning barcha fazalarini bosib o'tishi.

Iqtisodiy inqiroz (retsessiya) — iqtisodiyotning shunday holatiki, mamlakatning yalpi ichki mahsulotining absolyut hajmi kamida ikki kvartal mobaynida ketma-ket qisqaradi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi — moliyaviy va iqtisodiy tushkunlik holatining dunyo mamlakatlarini qamrab olishi.

Asosiy kapitalga qo'yilmalar — asosiy fondlarni qayta tiklash, rivojlantirish va yangilashga yo'naltirilgan moddiy xarajatlar.

Jamg'arish normasi — sarflanayotgan kapital qiymatining yalpi ichki mahsulotga nisbati.

Investitsiya normasi — investitsiyalar hajmining yalpi ichki mahsulotga bo'lgan nisbati.

Texnologik taraqqiyot — innovatsion jarayonlar, texnik bilimlar, boshqaruv jarayonlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ouken qonuni — ishsizlik darajasining bir foizga ortishi real yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atining ikki foizga qisqarishiga olib keladi.

Inson taraqqiyoti salohiyati indeksi (ITSI) — tug'ilishda kutilayotgan umr uzunligi, ta'lim darajasi (o'rta ta'lim va ta'limning davomiyligi) va aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad ko'rsatkichlardan tashkil topgan integral ko'rsatkich.

Turmush sifati indeksi — inson ehtiyojlarini qondirishning iqtisodiy va noiqtisodiy jihatlari, farovonligini baholash uchun qo'llaniladigan ko'rsatkichlar yig'indisi.

Nazorat savollari

1. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi sikllar turlarini sanab o'ting.
2. XX asrning 70, 80, 90-yillaridagi jahon iqtisodiy inqirozlarining xususiyatlarini aniqlang.
3. Iqtisodiy retsessiya nima va u qanday belgilarga ega?
4. Iqtisodiy o'sishga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
5. Iqtisodiy o'sish va jamg'armalar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
6. Nima uchun ta'lim va fan iqtisodiy o'sishning muhim omillari hisoblanadi?
7. Iqtisodiy o'sish va hayot sifati o'rtasidagi nisbat qanday?
8. Qaysi ko'rsatkichlar orqali inson taraqqiyotini aniqlash mumkin?
9. Inson salohiyatining taraqqiyoti indeksi qaysi ko'rsatkichlar majmuyidan iborat?
10. Iqtisodiy o'sish va kambag'allik muammosi o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?

4-BOB. MAKROIQTISODIY RIVOJLANISHNING ASOSIY MODELLARI VA JAHON IQTISODIYOTIDA MAMLAKATLAR RAQOBATBARDOSHLIGI

4.1. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy modellari

Jahon xo'jaligining zamonaviy global tizimida makroiqtisodiy rivojlanishning bir necha turi shakllangan. Tabiiyki, har bir milliy iqtisodiyot makroiqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlariga ega. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish modeli tushunchasining yagona ta'rifi yo'q. Iqtisodchilar uning turli xil ta'riflaridan foydalanishadi, masalan, mamlakat modeli, milliy model, iqtisodiy model va h. k. Mamlakatning iqtisodiy modeli tushunchasi iqtisodiy o'sishning muhim, barqaror makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bilan bog'liq. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini aks ettiruvchi murakkab ko'rsatkichlar tizimi va ular o'rtasidagi bog'liqlik milliy xo'jalikning bir butunligini ifoda etib, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish modelini tashkil etadi.

Mamlakatlarning tegishli iqtisodiy rivojlanish modelini tanlashlari quyidagi omillarga bog'liq:

1. Mamlakatning geografik o'rni. Aksariyat mamlakatlar geografik joylashuviga qarab iqtisodiy rivojlanish yo'lini belgilab olishgan. Masalan, Yaponiya iqtisodiyotining eksportga yo'naltirilganligi mamlakatning qulay geografik joylashuvi bilan izohlanadi. Shu bilan bir qatorda mamlakatda boy tabiiy resurs zaxiralarining mavjud emasligi tufayli asosiy e'tibor ichki iqtisodiy salohiyatni oshirishga qaratilgan. Yaponiya qatoriga Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan, Vyetnam kabi mamlakatlarni kiritish mumkin.

2. Milliy madaniyat, an'analar, din, hayot tarzi bilan bog'liq xususiyatlar. Odatda, G'arb bilan Sharq qarashlari, fikrlari bir-biriga zid yoki qisman to'g'ri kelmasligi mumkin. Aslida bu ko'rinmas holat bo'lib ko'rinsa-da, ba'zi mamlakatlar uchun milliy madaniyat va an'analar iqtisodiy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Tarixiy omillar. Jahonning aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlari 1960-yillarda mustamlaka tizimidan xolos bo'lib, mustaqil iqtisodiy rivojlanish yo'liga o't-dilar. Sobiq mustamlaka mamlakatlar va mustamlakachi mamlakatlar o'rtasidagi tarixiy shakllangan iqtisodiy bog'liqlik bu mamlakatlarning tegishli iqtisodiy rivojlanish modelini tanlashlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

4. Milliy mentalitet. Har bir millatga xos milliy mentalitetning shakllanganligi dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish modellari xususiyatlarini belgilab beradi.

5. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar va h. k.

Yuqorida keltirilgan omillarni har bir mamlakat o'z imkoniyat va xohishlari asosida tanlaydi. Iqtisodiy modellarning maqsadi mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'lib, bir modelni ikkinchi modeldan farqlantiruvchi elementlar va bog'liqliklar mavjud. Bu farq va bog'liqliklar quyidagilardan iborat.

Mulk shakllarining nisbati. Mamlakatda davlat yoki xususiy mulk o'rtasidagi nisbat alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, AQSh da xususiy mulk davlat mulkiga nisbatan ustunlik qilsa, Germaniyada aksincha, xususiy mulk davlat mulkiga nisbatan past ko'rsatkichga ega.

Davlatning roli. Bunga ham biz AQSh va Germaniyani misol qilib o'tishimiz mumkin. Germaniyada davlat sektorining miqyosi, davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi, davlat xarajatlarining YaIM dagi ulushi AQSh ga nisbatan yuqori hisoblanadi.

Iqtisodiyotning ochiqlik darajasi. Shunday mamlakatlar borki, ularning iqtisodiyoti tashqi iqtisodiy aloqalarga, ya'ni eksportga bog'liq bo'ladi. Ushbu mamlakatlar iqtisodiyotining ochiqlik darajasi yuqori bo'ladi. Ba'zi mamlakatlarda esa proteksionizm kuchli bo'lib, ularda iqtisodiyotning ochiqlik darajasi past bo'ladi. Iqtisodiyotning ochiqlik darajasiga qarab ham modellar farqlanadi.

Iqtisodiyotni moliyalashtirish manbalari va miqyosi, xorijiy kapitalning iqtisodiyotdagi ulushi. Mamlakat moliyalashtirish manbalari qanchalik xorijiy kapitallarga bog'liq bo'lsa, bu mamlakat iqtisodiyoti shunchalik tashqi iqtisodiy omillarga bog'liq bo'lib qoladi. Bu esa, o'z navbatida, salbiy holatlarga olib kelishi mumkin.

Mehnat bozori. Odatda, rivojlanayotgan mamlakatlarda malakasiz ishchi kuchi ko'pligi sababli arzon ishchi kuchini yaratadi, rivojlangan davlatlarda esa, bu holat farqli ravishda, ishchi kuchi malakali, ammo qimmat bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarning xarakteri, savdo siyosati. Bu omil yuqoridagi iqtisodiyotning ochiqlik darajasiga o'xshash bo'lib, mamlakat qanchalik tashqi iqtisodiy aloqalarni jadal ravishda rivojlantirsa, tashqi savdoga keng yo'l ochib berish siyosatini yuritsa, mamlakat iqtisodiyoti shunchalik barqarorlashadi.

Milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv darajasi. Bir mamlakat boshqa mamlakatlar bilan aloqa qilmasdan, yakka, alohida holda rivojlana olmaydi. Shuning uchun mamlakatlar birlashgan holda o'z iqtisodiyotini yuritadi. Mamlakatlar maqsadlari va imkoniyatlari bir-biri bilan kesishsa, ular bir-birlari bilan hamkorlik qilib ish olib borishadi va bunda ancha qulayliklarga erishiladi. Bunga YeI dagi yagona valyutaning kiritilishini misol qilishimiz mumkin.

Bir modelning ikkinchi modeldan farqini keltirib chiqaruvchi elementlar va bog'liqliklar:

- mulk shakllarining nisbati;
- davlatning roli, davlat sektorining miqyosi, davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi; davlat xarajatlari va ularning YaIM dagi ulushi;
- iqtisodiyotning ochiqlik darajasi;
- iqtisodiyotni moliyalashtirish manbalari va miqyosi, xorijiy kapitalning iqtisodiyotdagi ulushi;
- mehnat bozori;
- tashqi iqtisodiy aloqalarning xarakteri, savdo siyosati;
- milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv darajasi va h. k.

Iqtisodiy model samaradorligi quyidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda aks etadi:

- YaIM hajmi va tarkibi;
- YaIM dinamikasi;
- YaIM ning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi miqdori;
- iste'mol narxlari indeksi;
- bandlik darajasi;
- mehnat unumdorligi va b.

Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining rivojlanish evolyutsiyasi tahlili makroiqtisodiy rivojlanishning quyidagi uch modelini ajratish imkonini beradi.

Birinchisi — o'z-o'zidan rivojlanuvchi bozor tizimi bo'lib, u ilgari erkin raqobat kapitalizmi, deb atalardi. Ushbu tizim asoslari A. Smit asarlarida ta'riflab berilgan bo'lib, keyinchalik klassik liberal yo'nalish vakillari tomonidan yanada rivojlantirildi.

Bozor iqtisodiyotining klassik modeli xususiyatlari:

- tadbirkorlik erkinligi;

- xususiy tashabbus erkinligi;
- savdo erkinligi;
- davlat rolining cheklanganligi.

Ushbu model XIX asrning ikkinchi yarmigacha keng qo'llanilgan. Kapitalning markazlashuvi erkin tadbirkorlik modelini davlat-monopolistik kapitalizmi modeliga aylantirdi.

Ikkinchisi — ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiy tizim.

XX asrning boshlarida bo'lib o'tgan sotsialistik revolyutsiya Rossiyada yangi iqtisodiy modelni shakllantirdi. Ushbu totalitar modelga quyidagi xususiyatlar xos:

- iqtisodiyotni o'ta yuqori darajada g'oyalashtirilganligi;
- boshqaruvning ma'muriy mexanizmlari;
- davlat tomonidan barcha sohalarning nazoratga olinganligi;
- iqtisodiyotda yirik industriallashtirishni amalga oshirish;
- xususiy mulkning inkor etilishi.

Ushbu tizimning nazariy asoslari marksizm va sotsialistik iqtisodiy fan vakillari tomonidan ishlab chiqilgan. Bu tizim samaradorligi past bo'lganligi, jumladan, ijtimoiy masalalarda samarasiz bo'lganligi uchun hozirgi davrda jahon ilmiy jamoatchiligida unga nisbatan salbiy munosabat shakllangan.

Uchinchisi — aralash iqtisodiyot. XX asrning 20–30-yillarida bo'lib o'tgan «Buyuk depressiya» davlatning iqtisodiyotga keng aralashuviga asoslangan yangi modelni shakllantirdi. Ushbu model J. M. Keyns tomonidan ishlab chiqilgan va u davlatning quyidagi yangi funksiyalariga asoslangan:

- davlat mulkining ko'payishi va davlatning tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishi;
- bir qator tarmoqlarning davlat nazoratiga olinishi;
- davlat tomonidan narxlarning shakllanish mexanizmini nazorat qilinishi;
- davlat tomonidan mehnat bozorining tartibga solib turilishi;
- tabiiy monopoliya va davlat tomonidan iqtisodiyot infratuzilmasining nazorat qilinishi.

Ushbu tizimda xususiy mulk ustuvor bo'lgan bozor asoslari davlatning iqtisodiyotni tartibga solish dastagi bilan to'ldiriladi. Taniqli venger iqtisodchisi K. Poloni ta'biri bilan aytganda, unda «bozor erkinligi bozordan himoyalash bilan qo'shilib ketadi».

Qayd etib o'tilgan xo'jalik yuritishning dastlabki ikki modeli faoliyati tarixiy jihatdan hozirgi vaqtga kelib tugallandi. Aralash iqtisodiyot mazmuni uni mamlakatlarda ro'yobga chiqarish uchun turli konkret shakllarni taqozo etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ko'p variantlarda sodir bo'lishining aniq imkoniyatlarini va uning obyektiv zarurligini aynan aralash iqtisodiyot yuzaga keltiradi.

Jahon tajribasi kapitalistik iqtisodiyot mulkchilik shaklining xilma-xilligiga asoslangan o'ziga xos rivojlanish modellarini ajratish imkonini beradi.

Rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda iqtisodiy rivojlanish modelining bir nechta turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- **liberal model, anglosakson mamlakatlarining neoliberal modeli, xususiy-korporativ model.** Iqtisodiyotning o'z-o'zini boshqarishning bozor mexanizmi asosida qurilgan, davlat mulkchiligining oz ulushi, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayoniga davlatning sezilarsiz to'g'ridan to'g'ri aralashuvi bilan tavsiflanadi. AQSh, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya mamlakatlarida amal qiladi;
- **ijtimoiy bozor xo'jaligi modeli.** Ikkinchi jahon urushidan keyin Germaniya, Shvetsiya va Fransiyada shakllangan, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti

nomini oldi. Ushbu model milliy bozor xo'jaligining faoliyatiga davlatning faol ta'siri; davlat mavqeyining yuqoriligi, davlat mulkining katta ulushga egaligi, kuchli ijtimoiy ta'minot tizimi; davlat xarajatlarining yuqori darajasi; aholining keng miqyosda ijtimoiy kafolatlar bilan ta'minlanganligi; bandlikning tartibga solinishi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy bozor xo'jaligi modeli Germaniya, Kanada, Isroil va boshqa mamlakatlarda qo'llanilmoqda;

- **Sharqiy Osiyo modeli.** Ushbu model Yaponiya va Janubi-Sharqiy Osiyoning bir qator mamlakatlarida (Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur) qo'llaniladi. Modelning xususiyatlari milliy mentalitet, sharqona an'analar va hayot tarzi, madaniyat ta'sirida shakllangan bo'lib, modelda xalq birligi, davlatga sadoqatlilik, aholi milliy ruhi aks ettirilgan. Sharqiy Osiyo modeli asosida Yapon modeli shakllantirilgan. Ana shu model orqali Yaponiya jahon xo'jaligida yetakchi o'rinlarga erishdi. Modelning asosida iqtisodiyotni rivojlantirish va raqobatni kuchaytirish turadi.

Rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlaktlari uchun xos bo'lgan xususiyatlarni hisobga olgan holda rivojlanayotgan mamlakatlarning Lotin Amerikasi, Afrika, Xitoy va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari modellarini ajratish mumkin.

Lotin Amerikasi modeliga xos xususiyatlar:

- davlatning iqtisodiyotga kuchli va muntazam aralashuvi;
- korrupsiya va jamiyatning kriminalizatsiyalashuvi;
- ishlab chiqarishning yuqorida sanab o'tilgan bozor iqtisodiyotining uch modelidan foydalanuvchi yetakchi kapitalistik mamlakatlar talabini qondirish, tabiiy resurslar va arzon ishchi kuchidan foydalanish uchun yo'naltirilishi.

Afrika modeli — ushbu model mulkchilikning turli shakllariga va bozor munosabatlariga asoslanadi. Bu modeldan foydalanuvchi Afrika mamlakatlarida, avvalambor, aholi o'rtasida savodxonlik darajasining pastligi, davlatni boshqarish, hatto xo'jalik jarayonlarini korxonalar va firmalar darajasida tartibga solish, boshqarishda ojizligi kuzatiladi. Umuman, rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy yordamisiz afrikaliklar zamonaviy bozor iqtisodiyotini tashkil etishlari dargumon.

Afrika iqtisodiyotiga quyidagilar xosdir:

- malakasiz mehnatning shafqatsiz ekspluatatsiya qilinishi;
- ishlab chiqarishga «yuqori»dan to'g'ridan to'g'ri aralashuvda ma'muriy kuch ishlatish uslublarining keng qo'llanilishi;
- samaradorlikning past darajasi.

Iqtisodiy rivojlanishning **xitoy modeli** bozor tamoyillari va kommunistik g'oyalarning uyg'unligini taqozo etishi bilan boshqa modellardan ajralib turadi. Ushbu modelga xos bo'lgan asosiy xususiyat uning eklektikligi bilan bog'liq.

Xitoy iqtisodiyotida davlat mavqeyi saqlanib qolmoqda, olib borilayotgan islohotlar shakllangan iqtisodiy tizimning davlat va kooperativ maqomini o'zgartirmaydi, iqtisodiyotda xorijiy kapitalning roli katta va aholining ijtimoiy huquqlarini kafolatlashga yo'naltirilgan ijtimoiy dasturlar yaxshi rivojlanmagan.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari modeli — bu bozor va ma'muriy-buyruqbozlik modellari o'rtasidagi oraliq modeldir. Ushbu modelga Markaziy va Sharqiy Yevropaning sobiq sotsialistik mamlakatlari, MDH mamlakatlari va qator Osiyo mamlakatlarini kiritish mumkin. Ushbu mamlakatlarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlardan ko'zlangan maqsad bozor tamoyillariga asoslangan demokratik jamiyat qurishdir.

Iqtisodiy rivojlanish modellari o'rtasida jiddiy farqlar mavjudligiga qaramasdan ushbu modellar o'xshash jihatlarga ega va ularning barchasini bozor iqtisodiyoti modellariga kiritish mumkin.

Shuningdek, barcha iqtisodiy rivojlanish modellari aralash iqtisodiyot hisoblanadi. Chunki dunyo amaliyotida sof bozor yoki sof rejali iqtisodiyot mavjud emas, ularning barchasi bozor va rejali iqtisodiyot mexanizmlarini aralash uyg'unlashtirgan holda qo'llaydi.

4.2. Neoliberal iqtisodiy rivojlanish modeli

Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish modellarining evolyutsiyasi tahlili ko'rsatishicha, ushbu modellarning shakllanishi erkin raqobat davridagi klassik kapitalizm bilan bog'liq. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibining o'zgarishi, iqtisodiy rivojlanishdagi ustuvor yo'nalishlarning almashinishi rivojlanish modellarining transformatsiyalashuvi, rivojlanishning bir shaklidan ikkinchi shakliga o'tishga olib kelgan.

Iqtisodiy rivojlanishning liberal modeliga xos xususiyatlar:

- davlat mulki ulushining past darajada ekanligi;
- xususiy mulkning yetakchi mavqega egaligi, ushbu mamlakatlarda xususiy mulkning muqaddas deb e'lon qilinganligi;
- tadbirkorlik erkinligi;
- davlat rolining cheklanganligi: uning bosh vazifasi makroiqtisodiy siyosat yuritish hisoblanadi;
- davlat byudjeti va davlat xarajatlarining YaIM dagi ulushining pastligi, kuchsiz ijtimoiy kafolatlarning mavjudligi;
- aholining daromadlar bo'yicha tabaqalashuv darajasining yuqoriligi.

Mazkur model AQSh va Buyuk Britaniya, Irlandiya, Yangi Zelandiya va Chilida amal qiladi. Yevropa qit'asi mamlakatlari iqtisodiy modeli (Germaniyadan tashqari) liberal-reformistik model, deb yuritiladi.

Aksariyat mutaxassislar aralash iqtisodiyot modellarini mamlakatlarga xos tafovutlar bo'yicha amerikacha, inglizcha, shvedcha, yaponcha va hokazo, deb ajratib ko'rsatishadi.

Bunda klassik ko'rinishdagi amerikacha model XX asr boshidan 20-yillar oxirigacha, ya'ni 1929–1933-yillardagi «buyuk depressiya» (turg'unlik)gacha mavjud bo'lgan, deb hisoblanadi. So'ng AQSh prezidenti F. Ruzveltning «yangi yo'li» siyosatini amalga oshirish va boshqaruvning keynscha usulining kengroq qo'llanishi jarayonida ancha takomillashgan.

Amerikacha modelning o'ziga xos xususiyatlari tarkibida u tadbirkorlar faoliyatini butun choralar bilan rag'batlantirishga va aholining eng faol qismini boyitishga yo'naltirilganligi bilan ajratib ko'rsatiladi. Kam ta'minlangan guruhlar uchun qisman imtiyoz va nafaqalar hisobidan birmuncha maqbul turmush darajasi yaratib beriladi.

Davlat boshqaruvi va ijtimoiy siyosatga nisbatan qoldiq prinsipi amalga oshiriladi. Ya'ni erkin raqobat asosida samarali ish olib borishga qodir bo'lmagan sektorlar va sohalar boshqariladi. Ijtimoiy siyosat zimmasiga esa eng muhim ehtiyojlarni qondirish uchun bozor va oila amalga oshira olmaydigan ishlarni bajarish vazifasi yuklatilgan.

Amerikacha soliq siyosati narx-navo darajasi, taklif va talab tarkibiga ta'sir ko'rsatish uchun amalga oshiriladi. Undan tashqari, amerikacha modelda davlatning sikllilikka va inflyatsiyaga qarshi iqtisodiy siyosati aniq ko'rinib turadi.

AQSh da qo'llaniladigan model iqtisodiyotni o'z-o'zini boshqarishning bozor mexanizmi asosida qurilgan, davlat mulkchiligining oz ulushi va tovar va xizmatlar

ishlab chiqarish jarayonida davlatning jiddiy bo'lmagan to'g'ridan to'g'ri aralashuvi bilan tavsiflanadi. Ushbu modelning afzalligi quyidagilardan iborat:

- o'zgarib turadigan bozor konyunkturasiga tez moslashadigan iqtisodiy mexanizmning mavjudligi;
- tadbirkorlik faolligining yuqori darajadaligi va kapitalni foydali qo'llashning yanada keng imkoniyatlariga asoslangan yangiliklarga yo'naltirilganligi.

Ushbu model ishlab chiqarish kuchlarining yuqori darajada rivojlanganligi, katta hajmdagi ichki va tashqi bozorlar hamda aholining yuqori turmush darajasiga egaligi sharoitlarida samaralidir.

XXI asrning dastlabki 10-yilligida AQSh dunyoning eng yetakchi iqtisodiy mamlakati bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qaramay tez rivojlanayotgan Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarining (Xitoy, Hindiston, Braziliya) barqaror sur'atlarda iqtisodiy rivojlanishiga qaramay, AQSh dunyoda sifat, jahon xo'jalik aloqalaridagi yetakchi o'rni va ta'sir darajasi kabi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha yetakchilikni saqlab kelmoqda.

AQSh, odatda, kapitalistik deb ta'riflanuvchi iqtisodiy tizimga ega, biroq kapitalizm — Karl Marks tomonidan yaratilgan ibora bo'lib, iqtisodiyotning eng muhim sohalari ustidan nazorat kapitalistlarning kichik guruhi qo'lida markazlashuvini anglatgan. Bundan farqli o'laroq, aksariyat amerikaliklar kapitalizmni bir to'da shaxslar emas, balki millionlab insonlarga foyda keltiruvchi «erkin ishbilarmonlik tashabbusi» tizimi ma'nosida tushunishadi.

4.3. Iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy bozor xo'jaligi modeli

Ijtimoiy bozor xo'jaligi modeliga xos xususiyatlar:

- davlat rolining yuqoriligi, davlat mulkining katta ulushga egaligi;
- davlat xarajatlarining yuqori darajasi;
- aholining keng miqyosda ijtimoiy kafolatlar bilan ta'minlanganligi;
- bandlikning tartibga solinishi.

Ijtimoiy bozor xo'jaligi modeliga asoslangan iqtisodiyotga xos muammolar:

- davlat byudjeti kamomadi;
- ishsizlik;
- davlatning samarasiz tadbirkorlik faoliyati.

Ijtimoiy bozor xo'jaligi modelini Germaniya, Kanada, Isroil va boshqa mamlakatlar qo'llaydi.

Sotsial-demokratik model — bu korporativ tipdagi model hisoblanadi. Mazkur model Shved modeli deb ataladigan Skandinaviya mamlakatlari misolida ko'rib chiqiladi. O'z mazmuniga ko'ra ushbu model ijtimoiy bozor xo'jaligiga yaqin turadi va ularni quyidagi xususiyatlar bog'lab turadi:

- davlat sektorining mavqeyi kattaligi;
- davlatning yetakchi roli, davlat byudjetining YaIM dagi ulushining 50 %dan yuqoriligi;
- demokratiyaning rivojlangan tizimi;
- mehnat munosabatlarini tartibga solish, kasaba uyushmalarining roli;
- davlat tomonidan kuchli bandlik siyosatining amalga oshirilishi;
- aholining daromadlar darajasi bo'yicha tabaqalashuvini pasaytirishga yo'naltirilgan fiskal siyosat.

Ushbu modelda qator muammolar mavjud. Ijtimoiy bozor xo'jaligi modeliga asoslangan iqtisodiyotga xos muammolar:

- davlat byudjeti kamomadi — davlat milliy iqtisodiyotga faol aralashayotganligi, aholini ijtimoiy himoya qilishga sarflanayotgan xarajatlarning yuqoriligi davlat xarajatlarini oshirib, byudjet kamomadiga olib keladi;
- ishsizlik — davlat mulkining xususiy mulkga nisbatan ko'pligi va kichik, o'rta tadbirkorlar faoliyatining yaxshi rivojlanmaganligi ishsizlik muammosining kelib chiqishiga sabab bo'ladi;
- davlatning samarasiz tadbirkorlik faoliyati.

Ushbu model mehnat va kapital manfaatlari o'rtasida muvozanatni qat'iy ushlab turgandagina pirovard yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi. Model amerika modeliga nisbatan birmuncha kamroq moslashuvchan bo'lib, iqtisodiy konyunktura o'zgarishlari kuchsiz ta'sir ko'rsatadi.

4.4. Iqtisodiy rivojlanishning Sharqiy Osiyo modeli

Sharqiy Osiyo modeli. Ushbu model Yaponiya, Janubi-Sharqiy Osiyoning bir qator mamlakatlarida (Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur) qo'llaniladi. Modelning xususiyatlari milliy tarixiy mentalitet, sharqona an'analar va madaniyat ta'sirida shakllangan:

- qarindosh-urug'chilik;
- davlat va tadbirkorlar manfaatlarining uzviy bog'liqligi;
- iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilganligi;
- bir umrlik yollanib ishlash tizimining mehnat faoliyatini rag'batlantirish asosi ekanligi.

«Yaponiya modeli» deyarli 150-yil davomida o'z rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lgan. Yaponiya modelining Yevropa mamlakatlari, AQSh modellaridan farqi — jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida davlat rolining yuqoriligi bilan ajralib turishidir.

Yapon modeli — vatanparvarlik tuyg'usi asosida yaratilib, sanoat mahsulotlarini eksport qilish evaziga xorijiy valyutaga ega bo'lish va tushgan valyuta evaziga yetakchi xorijiy mamlakatlardan zamonaviy, ilg'or, yuqori texnologiyalarni sotib olish, yuqori mehnat unumdorligiga erishish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabilarni o'z ichiga oladi.

«Yaponiya modeli»ning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, mamlakatda bir xil sohada faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqaruvchi korxona va kompaniyalarning birlashuvi («keyretsu») asosida moliya-sanoat guruhlarining tashkil qilinishi. Lekin ko'plab «keyretsu»lar urushdan oldingi monopol kompaniyalar — «dzaybatsu»lardan kelib chiqqan. Bu moliya-sanoat guruhlari yirik banklar, savdo va sanoat kompaniyalar tomonidan boshqariladi.

Ikkinchidan, mamlakatda mehnat munosabatlari tizimining shakllanuvi, ya'ni:

- yapon milliy urf-odatdaridan kelib chiqqan holda ish beruvchi ishxona rahbariyati tomonidan ishchilarning doimiy mehnat faoliyatini kafolatlash;
- fuqarolarni butun umrga ish bilan ta'minlash;
- ishchi o'rinlarga yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash;
- ishchilarning doimiy ravishda ish faoliyatlarini almashtirib turishlari;
- kompaniya va firmalar rahbarlari tomonidan ishchi-xizmatchilarni muntazam ravishda iqtisodiy rag'batlantirib turish;
- ishchilarning «korxona — bu bizning uyimiz» shiori ostida faoliyat ko'rsatishi;
- korxonalarda ishchilarning mehnat intizomiga qattiq rioya qilishi.

Uchinchidan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida hukumatning yuqori mavqeyi va uning kuchli nazorati. Hukumat mamlakatdagi barcha iqtisodiy muammolarni «Moliya-sanoat guruhlari» rahbarlari bilan hamkorlikda hal qiladi.

Hukumat markazlashgan umumdavlat rivojlanish rejalarini quyidagi yo'nalishlarda ishlab chiqadi: iqtisodiy taraqqiyot; ijtimoiy-ta'minot; yer va yerosti manbalaridan unumli foydalanish; sanoat tarmoqlarini rivojlantirish rejalarini ishlab chiqish.

To'rtinchidan, hukumat tomonidan mamlakatda har qanday biznesga qarshi qattiq kurash olib borish va nazorat o'rnatish.

Beshinchidan, milliy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ya'ni talabalarni xorijiy mamlakatlardagi eng nufuzli oliy o'quv yurtlariga va ishchi-xizmatchilarni esa xorijga malaka oshirish uchun yuborish.

4.5. Iqtisodiyotning ochiqligi va raqobatbardoshligi

Dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishning qaysi modelini tanlamasin milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligidagi mavqeyi uning raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. Xalqaro raqobat texnik taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi va uning ta'sirida ishlab chiqarish, boshqaruv texnologiyalarining doimiy yangilanib borish jarayoni davom etadi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlari yangilanadi va sifati oshib boradi. Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanish sur'atlarini ta'minlash va xalqaro raqobatni vujudga keltirishning shart-sharoitlari mamlakatlar iqtisodiyotining ochiqligi bilan belgilanadi.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, tashqi dunyoga nisbatan yopiqlik siyosatini olib borish albatta inqirozga olib keladi. Mamlakat iqtisodiyotining xalqaro mehnat taqsimotiga integratsiyalashish darajasi — bu iqtisodiyotning ochiqlik ko'rsatkichi bilan belgilanadi.

Milliy iqtisodiyot uchun jahon bozoriga jalb etilganlik muhim ahamiyat kasb etadi. «Ochiqlikning» ratsional darajasi va tavsifini tanlash milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlab berishning muhim shartidir.

Ochiq iqtisodiyot — bu tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlangan, milliy iqtisodiyotning nisbiy ustunliklariga tayanib, jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashib boruvchi iqtisodiyotdir. Jahon iqtisodiyotida ochiq iqtisodiyot tushunchasi milliy iqtisodiyotga nisbatan qo'llaniladi.

Jahon amaliyotida iqtisodiyotning ochiqlik darajasi quyidagi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi:

- eksport kvotasi;
- import kvotasi;
- tashqi savdo kvotasi;
- import elastikligi koeffitsiyenti;
- eksport elastikligi koeffitsiyenti;
- eksport va import tarkibi;
- iqtisodiyotga sarflanayotgan investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiyalar va chetga chiqarilgan kapitalning jami kapital hajmidagi ulushlari. Agar ichki investitsiyalarda xorijdan jalb qilingan kapital ulushi qancha katta bo'lsa va kapital mamlakat tashqarisiga qancha ko'p chiqsa, iqtisodiyot shunchalik ochiq bo'ladi;
- mehnat resurslari tarkibida xorijdan kelgan va xorijga chiqib ketgan ishchi kuchi hissasi. Ushbu ko'rsatkich qancha katta bo'lsa, iqtisodiyot shunchalik ochiq bo'ladi.

Iqtisodiyotning ochiqlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasining yuqoriligi;
- iqtisodiyot tarkibida qayta ishlash va yuqori texnologiyali tarmoqlarning ulushi;
- mamlakat iqtisodiy salohiyatining hajmi;
- mamlakatning tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi.

O'zbekiston iqtisodiyoti erkinlashib, ochiqlik darajasi ortib, jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi kuchayib bormoqda. 2013-yilda O'zbekistonda eksport kvotasi 26,7 %ga, import kvotasi 24,3 %ga va tashqi savdo kvotasi 51,0 %ga teng bo'ldi[1].

Ba'zi iqtisodchilarning fikricha, iqtisodiyotning ochiqlik darjasi milliy ishlab chiqarishning tarmoq tarkibiga bog'liqdir. Ishlab chiqarish hajmining umumiy tarkibida bazaviy tarmoqlar ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, iqtisodiyotning ochiqlik darajasi shunchalik past bo'ladi. Ushbu holat bazaviy tarmoqlarning xalqaro ixtisoslashuv jarayoniga kam darajada jalb etilganligi va asosan ichki bozorga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi.

Ichki talab va tahlil muvozanatining makroiqtisodiy tahlillari ko'rsatishicha, odatda, ushbu muvozanat real amaliyotda o'z tasdig'ini topmaydi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ushbu ko'rsatkichdan chetlanish shunchalik yuqori bo'ladi. Mamlakatning texnologik-iqtisodiy rivojlanish darajasining yuqoriligi tovarlar va xizmatlar taklifining ko'payishiga va tashqi iqtisodiy faoliyatning rag'batlantirilishiga olib keladi. Bu esa iqtisodiyotning ochiqligini aniqlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi yuqori, texnologik jihatdan chuqur mehnat taqsimotiga asoslangan diversifikatsiyalangan tarmoq tarkibiga ega mamlakatlarda iqtisodiyotning ochiqlik darajasi ham yuqori bo'ladi. Mutlaq ko'rsatkichlar bo'yicha iqtisodiy salohiyati past, tabiiy resurslar bilan kam ta'minlangan mamlakatlar iqtisodiyotining ochiqlik darajasi esa past bo'ladi.

Qayd etib o'tilganidek, iqtisodiyotning ochiqligi xalqaro raqobatning muhim sharti hisoblanadi. Mamlakatlarning raqobatbardoshligi qanday aniqlanadi va u nimalarga bog'liq? Nima sababdan ba'zi mamlakatlar raqobatbardoshlik jihatdan boshqa mamlakatlarga nisbatan ilgarilab ketgan?

Raqobatbardoshlik tushunchasiga iqtisodiy adabiyotda «firmalarning mavjud sharoitda raqobatchilariga nisbatan baho va bahosiz tavsifiga ko'ra tovarlarni loyihalashtirish, tayyorlash va sotish borasidagi real va potensial imkoniyatlaridir», deya ta'rif beriladi.

XX asrning 90-yillarida amerikalik iqtisodchi Garvard universiteti Biznes maktabi professori Maykl Porter «Mamlakatlarning raqobat afzalliklari» nomli kitobida xalqaro raqobatning zamonaviy muammolarini tahlil etdi.

M. Porter fikricha, mamlakatning raqobatbardoshligini uning milliy kompaniyalari ta'minlab beradi, shuning uchun dastlab mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini emas, balki milliy kompaniyalar raqobatbardoshligini tahlil etish lozim. U mamlakat kompaniyalarining muvaffaqiyatini ta'minlab beradigan qulay muhitni yaratish quyidagi to'rtta muhim ko'rsatkichga bog'liqligini ta'kidlaydi:

- ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik;
- talab ko'rsatkichlari;
- yaqin va xizmat ko'rsatuvchi (yordam beruvchi) tarmoqlar;
- raqobat muhiti va firma strategiyasi.

1 Trade Profiles 2014. World Trade Organization. Geneva 2014. p. 195.

Ushbu muhit doirasidagi milliy kompaniyalarning samarali faoliyati mamlakatning raqobatbardoshlik reytingini belgilab beradi.

Mutaxassislar mamlakatning raqobatbardoshligini aniqlash uchun 340 dan ortiq ko'rsatkichlar va 100 dan ortiq usullardan foydalanishadi. Mamlakatning raqobatbardoshligini aniqlashda quyidagilar omillar sifatida xizmat qiladi:

- iqtisodiy salohiyat va iqtisodiyotning o'sish sur'atlari;
- sanoat ishlab chiqarishning samaradorligi;
- ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanish darajasi va uni o'zlashtirish sur'atlari;
- xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish;
- ichki bozor hajmi va dinamikasi;
- iqtisodiyotda davlatning roli;
- moliya tizimining egiluvchanligi;
- mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik va malaka darajasi;
- ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy holat;
- iqtisodiyotning jahon talabiga moslashish darajasi va qobiliyati.

Shveysariyaning Lozanna shahrida joylashgan Menejmentni rivojlantirish xalqaro instituti (International Institute of Management Development, IMD) har yili dunyoning yetakchi 47 mamlakatiga raqobatbardoshlik nuqtayi nazaridan baho beradi. Tahlillar 287 mezon bo'yicha guruhlangan 8 ta omil bo'yicha amalga oshiriladi:

- milliy iqtisodiyot tavsifi — YaIM hajmi, investitsiyalar va jamg'armalar hajmi, pirovard iste'mol darajasi, aholi turmush darajasi, iqtisodiyotning samaradorligi darajasi;
- iqtisodiyotning baynalmilallashuv darajasi;
- siyosiy tizimning barqarorligi;
- moliya tizimi;
- infratuzilma holati;
- boshqaruvning samaradorligi;
- fan va texnologiyalarning rivojlanish darajasi;
- mehnat resurslarining tavsifi.

Mamlakatlar raqobatbardoshligini tahlil etuvchi xalqaro tadqiqot usullaridan biri — Jahon iqtisodiy forumining **(World Economic Forum, WEF)** metodikasi hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida mamlakatning iqtisodiy o'sishini baholashda o'rta va uzoq muddatli rivojlanish dinamikasini tavsiflovchi muhim makro va mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida raqobatbardoshlikning agregat indekslari hisoblanadi. Ushbu metodika 30-yildan buyon qo'llaniladi va uning natijalari Jahon iqtisodiy forumining Global raqobatbardoshlik to'g'risidagi **(The Global Competitiveness Report)** ma'ruzasida chop etiladi.

Mamlakatning raqobatbardoshligini baholash ko'psonli ma'lumotlarni yig'ish asosida raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini asosiy omillar bo'yicha hisoblashni ko'zda tutadi. Keyin barcha omillarning raqobatbardoshlik ko'rsatkichiga qo'shgan hissasini aks ettiruvchi agregat indeks va subindekslar hisoblanadi. Zamonaviy raqobatbardoshlik metodikasida 12 ta asosiy omil ajratiladi (4.5.1-rasm).

4.5.1-rasm.
Raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarining guruhlanishi[1]



Qayd etilgan omillar uch guruhga ajratiladi. Birinchi guruh bazaviy talablarni o'z ichiga oladi, ikkinchi guruh biznes muhit samaradorligini oshiruvchi omillarni qamrab oladi, uchinchi guruh esa biznesni takomillashtirish omillarini birlashtiradi. Har bir guruh muayyan subindekslar bilan tavsiflanadi. Subindekslarni hisoblash jarayonida har bir guruhning ulushi quyidagicha belgilanadi: birinchi guruh — 25 %, ikkinchi guruh — 17 %, uchinchi guruh — 50 % (4.5.1-jadval).

1 The Global Competitiveness Report 2009–2010World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2009. p. 8.

4.5.1-jadval
Rivojlanishning har bir bosqichida asosiy uch guruh ko'rsatkichlarining ulushi, foiz hisobida

Subindekslar	Resurslarga yo'naltirilgan bosqich	Samaradorlikka yo'naltirilgan bosqich	Innovatsiyaga yo'naltirilgan bosqich
Bazaviy talablar	60	40	20
Samaradorlik ko'rsatkichlari	35	50	50
Innovatsion salohiyat va rivojlanish omillari	5	10	30

Manba: The Global Competitiveness Report 2009–2010World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2009. P. 8.

Bunda har bir subindeksning aniq mamlakat uchun hisoblangan natijaviy Global raqobatbardoshlik indeksiga (GCI) qo'shgan hissasidan kelib chiqib, ushbu mamlakatning iqtisodiy rivojlanishning qaysi bosqichida ekanligini aniqlash mumkin bo'ladi. Ushbu yondashuv iqtisodiy rivojlanish jihatdan turli darajadagi mamlakatlarning raqobatbardoshligini qiyosiy taqqoslash imkonini beradi. Misol uchun, Angola va AQSh. Agar Angola uchun eng muhim vazifa bazaviy talablarga (ishlab chiqarishni mavjud resurslarni maksimal jalb etgan holda rivojlantirish) erishish bo'lsa, AQSh da esa allaqachon innovatsion omillarga e'tibor qaratilgan.

Mamlakatlar rivojlanish bosqichlariga ko'ra quyidagi ikki mezon bo'yicha guruhlanadi:

- aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YalM miqdori (bozor baholarida) (4.5.2-jadval);
- mamlakatning omillarga bog'liqlik darajasi. Ushbu ko'rsatkich xomashyo eksportining umumiy eksportdagi ulushi orqali aniqlanadi. Eksportning 70 %dan ortig'i xomashyodan iborat mamlakatlar resurslariga bog'liq bo'ladi.

4.5.2-jadval
Iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlarini aniqlashda qo'llaniladigan daromadlar chegarasi

Rivojlanish bosqichlari	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YalM hajmi, AQSh doll.
Birinchi bosqich: resurslarga yo'naltirilgan	<2,000
Birinchi bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish	*2,000–3,000*
Ikkinchi bosqich: samaradorlikka yo'naltirilgan	3,000–9,000
Ikkinchi bosqichdan uchinchi bosqichga o'tish	*9,000–17,000*
Uchinchi bosqich: innovatsiyaga yo'naltirilgan	>17,000

Manba: The Global Competitiveness Report 2009–2010World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2009. P. 11.

Uch bosqichdan ikkalasining o'rtasida joylashgan mamlakatlar «o'tish bosqichidagi» mamlakatlar hisoblanadi (4.5.3-javdal).

4.5.3-jadval
Mamlakatlarning rivojlanish bosqichlariga ko'ra guruhlanishi

Bosqichlar	Taqqoslanayotgan mamlakatlar	Raqobatbardoshlikning muhim sohalari
Birinchi bosqich (omillarga yo'naltirilgan) (37 ta mamlakat)	Bangladesh, Burkino Faso, Burundi, Kambodja, Kamerun, Chad, Kot d'Ivuar, Efiopiya, Gambiya, Gana, Gvineya, Gaiti, Hindiston, Keniya, Qirg'iziston, Laos, Lesoto, Madagaskar, Malavi, Mali, Mavritaniya, Mozambik, Myanma, Nepal, Nikaragua, Nigeriya, Pokiston, Ruanda, Senegal, Serra Leone, Tojikiston, Tanzaniya, Uganda, Vyetnam, Yaman, Zambiya, Zimbabve	Bazaviy talablar (zarur) va samaradorlik ko'rsatkichlari (juda muhim)
Birinchi bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish (16 ta mamlakat)	Angola, Misr, Ozarbayjon, Butan, Boliviya, Botsvana, Gabon, Gonduras, Eron, Quvayt, Liviya, Moldova, Mongoliya, Filippin, Saudiya Arabistoni, Venesuela	Bazaviy talablar (zarur) va samaradorlik ko'rsatkichlari (ahamiyati ortib boradi)
Ikkinchi bosqich (samaradorlikka yo'naltirilgan) (30 ta mamlakat)	Albaniya, Armaniston, Bolgariya, Dominikan Respublikasi, Kape Verde, Xitoy, Kolumbiya, Misr, Meksika, Salvador, Gruziya, Gvatemala, Gayana, Indoneziya, Yamayka, Iordaniya, Makedoniya, Montenergo, Marokash, Namibiya, Paragvay, Peru, Ruminiya, Serbiya, Janubiy Afrika Respublikasi, Shri Lanka, Svazilend, Tailand, Timor, Ukraina, Tunis	Bazaviy talablar (juda muhim) va samaradorlik ko'rsatkichlari (zarur)
Ikkinchi bosqichdan uchinchi bosqichga o'tish (24 ta mamlakat)	Argentina, Baxrayn, Barbados, Braziliya, Chili, Kosta Rika, Xorvatiya, Qozog'iston, Livan, Litva, Malayziya, Mavritaniya, Meksika, Oman, Panama, Polsha, Turkiya, Rossiya, Seyshel orollari, Surinam, BAA, Urugvay Vengriya, Latviya	Barchasi yuqoridagidek muhim, ammo innovatsion omillarning ahamiyati ortib boradi
Uchinchi bosqich (innovatsiyaga yo'naltirilgan) (37 ta mamlakat)	Avstraliya, Avstriya, AQSh, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gonkong, Gretsiya, Daniya, Irlandiya, Islandiya, Ispaniya, Isroil, Italiya, Kanada, Koreya Respublikasi, Kipr, Lyuksemburg, Yaponiya, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Malta, Niderlandiya, Portugaliya, Puerto Riko, Singapur, Slovakiya, Sloveniya, Tayvan, Trinidad va Tobago, Fransiya, Finlyandiya, Shvetsiya, Shveysariya, Chexiya, Estoniya, Qatar	Uchta soha ham muhim: bazaviy talablar, samaradorlik ko'rsatkichlari va innovatsion omillar

Manba: The Global Competitiveness Report 2014–2015. World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2014. P. 11.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi mamlakatlarning raqobatbardoshlik ko'rsatkichlariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, global raqobatbardoshlik indeksida birinchi o'nlikka kiruvchi mamlakatlardan Finlyandiya, Germaniya, va Shvetsiya kabi mamlakatlar 2013–2014-yildagi ro'yxatdan pastga tushirilgan. Global raqobatbardoshlik indeksida rivojlanayotgan mamlakatlar reytingining ko'tarilib borayotganligini kuzatish mumkin. Ro'yxatning birinchi yigirmataligida Gonkong, Tayvan, Qatar, Malayziya kabi rivojlanayotgan mamlakatlarni ko'rish mumkin. Ushbu ro'yxatda eng oxirgi o'rinlarni asosan Afrikaning kam taraqqiy etgan mamlakatlari egallaydi (4.5.4-jadval).

4.5.4-jadval

2014–2015-yillar uchun global raqobatbardoshlik indeksi bo'yicha birinchi va oxirgi o'nlikka kiruvchi mamlakatlar

Mamlakatlar	2014–2015-yy.*		2013–2014-yy.**	Mamlakatlar	2014–2015-yy.*		2013–2014-yy.**
	O'rni	Ball	O'rni		O'rni	Ball	O'rni
Shveysariya	1	5,70	1	Burkina Faso	135	3,21	140
Singapur	2	5,65	2	Timor	136	3,17	138
AQSh	3	5,54	5	Gaiti	137	3,14	143
Finlandiya	4	5,50	3	Serra-Lione	138	3,10	144
Germaniya	5	5,49	4	Burundi	139	3,09	146
Yaponiya	6	5,47	9	Angola	140	3,04	142
Gonkong	7	5,46	7	Mavritaniya	141	3,00	141
Niderlandiya	8	5,45	8	Yaman	142	2,96	145
Buyuk Britaniya	9	5,41	10	Chad	143	2,85	148
Shvetsiya	10	5,41	6	Gvineya	144	2,79	147

*144 ta mamlakat qatnashgan. ** 148 ta mamlakat qatnashgan.

Manba: The Global Competitiveness Report 2014–2015. World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2014. P. 13.

Raqobatbardoshlik muammosi bilan bog'liq muhim masala — bu iqtisodiy xavfsizlik masalasidir.

Milliy iqtisodiyot va kompaniyalarning jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligi bilan bog'liq mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi turli pozitsiyalari mamlakatning ichki va tashqi holati, iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy ta'sir etishi mumkin.

Mamlakatlarning notekis rivojlanishi o'zaro munosabatlarda teng bo'lmagan sharoitlarni yaratadi. Tabiiyki, rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan iqtisodiy tazyiq o'tkazishlari mumkin. Shu bilan bog'liq holda iqtisodiy xavfsizlik to'g'risidagi masala rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan ko'tarilgan. Natijada 1974-yilda Kollektiv iqtisodiy xavfsizlikning Braziliya konsepsiyasi qabul qilingan.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik — bu mamlakatlarning iqtisodiy manfaatlariga zarar keltiruvchi xavflar va ularning iqtisodiyotini izdan chiqarishga bo'lgan urinishlarni bartaraf etishning kafolatlangan mexanizmini yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar yig'indisidir. Ushbu ekspansiya quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

- savdo sharoitining o'zgarishi;
- embargoning qo'llanilishi;

- yuqori tarif cheklovlari;
- savdoda miqdoriy cheklovlar;
- demping;
- texnologiyalar harakatidagi to'siqlar;
- ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarining tarqalishidagi to'siqlar;

Pul-kredit siyosati va valyuta rejimi sohasida:

- valyuta kursini o'zgartirish;
- xorijiy banklarda mamlakat jamg'armalarini muzlatish;
- kredit cheklovlarini joriy etish;
- «kapitalning chiqib ketishi» va h. k.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy oqibatlar:

- «aqllarning oqib ketishi»ni tashkil etish;
- transport aloqalarining buzilishini koordinatsiya qilish;
- ekologik xavfsizlik;
- narkotiklar kontrabandasi, qurol-yarog', xavfli viruslarni tarqatish va h. k.

Ushbu siyosatga qarama-qarshi vosita sifatida jarima, ta'sir o'tkazish bosimi, kredit berish imkoniyatini to'xtatish, xalqaro tashkilotlar a'zoligidan chiqarish kabi ta'sir etishning amaliy vositalari xizmat qilishi mumkin.

Milliy iqtisodiy xavfsizlik — bu mamlakat takror ishlab chiqarish jarayoniga xavf soluvchi, aholi turmush darajasining pasayishi hamda ijtimoiy keskinliklarning vujudga kelishiga olib keluvchi ichki va tashqi salbiy oqibatlardan milliy iqtisodiyotning himoyalanganlik darajasidir.

Milliy iqtisodiy xavfsizlik mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, iqtisodiy salohiyati, milliy boylik hajmi, resurslar bilan ta'minlanganligiga bog'liq.

Jahon iqtisodiyoti amaliyotida iqtisodiy xavfsizlikning nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Masalan, agar oziq-ovqat va boshqa tovarlar importi jami importning 20 %dan oshib ketsa, ushbu holat milliy iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi va uning miqdori, tarkibini o'zgartirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim bo'ladi.

Demak, xo'jalik hayotining baynalminallashuv jarayoni xalqaro va milliy iqtisodiy xavfsizlikni saqlash, qo'llab-quvvatlash jarayonidagina rivojlanishi mumkin.

Asosiy tushunchalar

Iqtisodiy rivojlanish modeli — mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini aks ettiruvchi murakkab ko'rsatkichlar tizimi va ular o'rtasidagi bog'liqlik, milliy xo'jalikning bir butunligi.

Iqtisodiyotning ochiqliligi — mamlakat iqtisodiyotining xalqaro mehnat taqsimotiga integratsiyalashish darajasidir.

Ochiq iqtisodiyot — tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlangan, milliy iqtisodiyotning nisbiy afzalliklariga asoslanib, jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashib boruvchi iqtisodiyot.

Liberal model — iqtisodiyotning o'z-o'zini boshqarishning bozor mexanizmi asosida qurilgan, davlat mulkchiligining oz ulushi, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida davlatning sezilarsiz to'g'ridan to'g'ri aralashuvi bilan tavsiflanuvchi model.

Ijtimoiy bozor xo'jaligi modeli — milliy bozor xo'jaligi faoliyatiga davlatning faol ta'siri, davlat rolining yuqoriligi, davlat mulkining katta ulushga egaligi, kuchli ijtimoiy ta'minot tizimi, davlat xarajatlarining yuqori darajasi, aholining ijtimoiy

huquqlarini kafolatlar bilan ta'minlanganligi, bandlikning tartibga solinishi kabi xususiyatlarga ega bo'lgan model.

Sharqiy Osiyo modeli — milliy mentalitet, sharqona an'analar va hayot tarzi, madaniyat ta'sirida shakllangan, iqtisodiyotni rivojlantirish va raqobatni kuchaytirishga asoslangan model.

Afrika modeli — ushbu model mulkchilikning turli shakllari va bozor munosabatlariga asoslanadi.

Milliy iqtisodiy xavfsizlik — mamlakat takror ishlab chiqarish jarayoniga xavf soluvchi, aholi turmush darajasining pasayishi hamda ijtimoiy keskinliklarning vujudga kelishiga olib keluvchi ichki va tashqi salbiy oqibatlardan milliy iqtisodiyotning himoyalanganlik darajasi.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik — mamlakatlarning iqtisodiy manfaatlariga zarar keltiruvchi xavflar va ularning milliy iqtisodiyotni izdan chiqarishga bo'lgan urinishlarni bartaraf etishning kafolatlangan mexanizmini yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar yig'indisi.

Nazorat savollari

1. Davlatning iqtisodiy rivojlanishga samarali ta'sir ko'rsatishi nima bilan belgilanadi?
2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning qanday usullari va dastaklari mavjud?
3. Davlat tomonidan iqtisodiyotni ma'muriy usullar orqali tartibga solishning cheklanganligi nimadan iborat?
4. Iqtisodiyotni tartibga solishning qanday bozor usullari mavjud?
5. Jahon iqtisodiyotida makroiqtisodiy rivojlanishning qanday modellari mavjud?
6. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarga xos rivojlanish modellarining turlarini sanab o'ting.
7. Neoliberal va statistik rivojlanish modellari qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
8. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish mohiyatini ochib bering.
9. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini qaysi ko'rsatkichlar orqali aniqlash mumkin?
10. Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi deganda nimani tushunasiz va u qaysi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi?

II BO‘LIM.
JAHON XO‘JALIGIDA SANOAT JIHATDAN TARAQQIY ETGAN MAMLAKATLAR

5-BOB.
JAHON IQTISODIYOTIDA SANOAT JIHATDAN TARAQQIY ETGAN MAMLAKATLAR

5.1. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning tavsifi, belgilari, guruhlanishi va rivojlanish modellari

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar — jahon iqtisodiyotining asosiy subyektlaridan biri hisoblanadi. Ushbu guruhga 30 dan ortiq mamlakat kiradi va ba’zan ushbu mamlakatlar «rivojlangan» yoki «sanoat jihatdan taraqqiy etgan» mamlakatlar, deb ataladi.

Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlardan biri — daromadlarning aholi qatlamlari o‘rtasida nisbatan tekis taqsimlanishi va mamlakat hududining bir tekis o‘zlashtirilishi hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu mamlakatlar iqtisodiyoti ijtimoiy yo‘naltirilganligi, xususan, aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, ilm-fanni rivojlantirishga katta miqdorda mablag‘ sarflash (YaIM ga nisbatan 2–3 %) va uning yutuqlarining ishlab chiqarishga joriy etilishi, tibbiyot, ta’lim, madaniyat sohalariga sarflanayotgan xarajatlarning yuqoriligi va atrof-muhit muhofazasiga ajratilayotgan sarf-xarajatlarning (YaIM ga nisbatan 3–4 %) yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Rivojlangan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni quyidagi miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi (5.1.1-rasm):

5.1.1-rasm.
Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarining rivojlanish ko‘rsatkichlari



a) miqdoriy ko'rsatkichlar:
- jahon sanoat ishlab chiqarishining 57 % ;
- jahon qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining 40 % ushbu mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi;

b) sifat ko'rsatkichlar:
- iqtisodiyotning ko'p tarmoqli tarkibga egaligi. Xizmatlar sohasi ushbu mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining 60 %dan ortig'ini tashkil etadi;
- jahon tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishdagi ulushining yuqoriligi. Ushbu mamlakatlar hissasiga tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishning 80 %ga yaqini to'g'ri keladi;
- jahon ilmiy-tadqiqot ishlanmalari va yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishdagi ulushining yuqoriligi. Ular hissasiga ushbu mahsulotlarning 90 %ga yaqini to'g'ri keladi;
- aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM hajmining jahondagi o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan 3,8 martaga (2012-yil) yuqoriligi (1962-yilda — 3,6 marta). Ushbu ko'rsatkich 12390 ming dollardan (Vengriya) 98860 ming dollargacha (Norvegiya) tebranib turadi;
- jamiyatning ijtimoiy tarkibida tabaqalashuv darajasining pastligi va yuqori turmush darajasi standartlariga ega o'rta sinf mavjudligi.

XXI asrning boshida rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar guruhi G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo, Avstraliya va Okeaniyada joylashgan qirqqa yaqin mamlakatlarni o'z ichiga oladi. Ularning 34 tasi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)[1] a'zosi hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarni jahon iqtisodiyotida tutgan o'rniga qarab uch guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhni «Katta yettilik» mamlakatlari tashkil etadi: AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada va Italiya. Katta yettilik mamlakatlari jahon xo'jaligi tizimining rivojlanish yo'nalishlarini va barcha davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalarini belgilab beradi. Bu yetakchilik mamlakatlar hududining hajmi va aholisining soni bilan emas, balki jahon iqtisodiyotidagi o'rni, yuqori mehnat unumdorligi, fan va texnika sohasidagi ulkan yutuqlari bilan belgilanadi.

Ikkinchi guruhni hududiy jihatdan nisbatan katta bo'lmagan, yuqori ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ega (Avstriya, Belgiya, Daniya, Niderlandiya, Shvetsiya va b.) mamlakatlar tashkil etadi. Ushbu mamlakatlarning ba'zilari jahon tovarlar va xizmatlar savdosida yetakchi o'ringa ega.

Uchinchi guruhga «ko'chirib o'tkazilgan kapitalizm» mamlakatlari (Avstraliya, JAR, Isroil) kiradi.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) mutaxassislari rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar guruhiga Yevropa Ittifoqining 15 mamlakatini, Janubiy-Sharqi Osiyoning to'rtta yangi industrial mamlakatlari (Koreya Respublikasi, Singapur, Tayvan, Gonkong) hamda AQSh, Yaponiya, Kanada, Meksika, Avstraliya, Islandiya, Isroil, Yangi Zelandiya, Norvegiya va Shveysariyani kiritishadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, xalqaro maqomiga muvofiq Tayvan Xitoy viloyati, Gonkong esa 1997-yil 1-iyuldan boshlab Xitoyning maxsus ma'muriy hududi sifatida qaraladi.

Jahon savdo tashkiloti rivojlangan mamlakatlar guruhiga 36 ta mamlakatni kiritadi[2].

1 Avstraliya (1971), Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Vengriya (1996), Germaniya, Gretsiya, Daniya, Isroil (2010), Irlandiya, Islandiya, Ispaniya, Italiya, Kanada, Lyuksemburg, Meksika (1994), Niderlandiya, Yangi Zelandiya (1973), Norvegiya, Polsha (1996), Portugaliya, Slovakiya (2000), Sloveniya (2010), AQSh, Turkiya, Finlyandiya (1969), Fransiya, Chexiya (1995), Chili (2010), Shveysariya, Shvetsiya, Estoniya (2010), Janubiy Koreya (1996), Yaponiya (1964). A'zolik muddati ko'rsatilmagan mamlakatlar IHRTga 1961-yilda a'zo bo'lishgan.

2 Shimoliy Amerika (Meksikadan tashqari), Yel-28, Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya, Shveysariya), Avstraliya, Yaponiya va Yangi Zelandiya.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar jahonning uch iqtisodiy va siyosiy markazini («triada») tashkil etishadi (5.1.2-rasm).

5.1.2-rasm
Jahon iqtisodiyotining markazlari



Tahlillar ko'rsatishicha, 2013-yilda rivojlangan mamlakatlar hissasiga jahon yalpi milliy mahsulotining (YaMM) 43,6 %, tovarlar va xizmatlar eksportining 61,2 %, jahon aholisining 14,7 % to'g'ri kelgan (5.1.1-jadval).

5.1.1-jadval
Rivojlangan mamlakatlarning dunyo yalpi ichki mahsuloti, tovarlar va xizmatlar eksporti hamda aholi sonidagi ulushining o'zgarishi (jamiga nisbatan foiz hisobida)

Mamlakatlar va mamlakatlar guruhi	Soni		YaMM		Tovarlar va xizmatlar eksporti		Aholi	
	2001-y.	2013-y.	2001-y.	2013-y.	2001-y.	2013-y.	2001-y.	2013-y.
Rivojlangan mamlakatlar	24	36	77,1	43,6	64,3	61,2	14,5	14,7
AQSh			29,9	16,4	9,6	9,9	4,6	4,5
Yevro zonasi	12	18	16,0	12,3	28,7	24,8	5,0	4,7
Germaniya			6,6	3,4	10,0	7,4	1,3	1,2
Fransiya			4,8	2,5	5,1	3,5	1,0	0,9
Italiya			4,0	2,0	3,9	2,7	0,9	0,8
Yaponiya			11,8	4,6	6,3	3,6	2,0	1,8

Mamlakatlar va mamlakatlar guruhi	Soni		YaMM		Tovarlar va xizmatlar eksporti		Aholi	
	2001-y.	2013-y.	2001-y.	2013-y.	2001-y.	2013-y.	2001-y.	2013-y.
Buyuk Britaniya			4,9	2,3	4,0	3,4	1,0	0,9
Kanada			2,2	1,5	3,6	2,4	0,5	0,5
Boshqa rivojlangan mamlakatlar	8	13	12,9	6,5	21,8	17,2	4,0	2,3
Ma'lumot uchun:								
«Katta yettilik»	7	7	64,2	32,7	42,5	32,9	11,2	10,6

Manba: World Economic Outlook: October 2001. IMF, 2001. P. 185.; World Economic Outlook: October 2014. IMF, 2014. P. 159 ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shunga qaramasdan 2001–2013-yillarda rivojlangan mamlakatlarning jahon YaMMdagi ulushi 77,1 %dan 43,6 %gacha, tovarlar va xizmatlar eksportidagi ulushi esa 64,3 %dan 61,2 %gacha qisqargan. Xususan, «Katta yettilik» va AQSh ning jahon YaMM hamda tovarlar va xizmatlar eksportidagi ulushi sezilarli qisqargan (mos ravishda 64,2 %dan 32,7 %gacha va 29,9 %dan 16,4 %gacha). Ushbu holat jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlar mavqeyining ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Xo'jalik mexanizmidagi davlat sektori va bozor elementlarining o'zaro nisbatiga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda «aralash iqtisodiyot»ning bir nechta modellarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Liberal (amerikacha) model — ushbu modelga xususiy mulkchilik, ishlab chiqarish, savdo, investitsiya, ishchi kuchidan foydalanish sohalarida bozor-raqobat mexanizmining ustuvorligi va ijtimoiy tabaqalanishning yuqori darajasi xosdir. Hukumat iqtisodiyotni makro va mikro darajada qonunlar chiqarish orqali soliq hamda pul-kredit siyosatini olib borish, raqobatni rivojlantirish, monopoliyalar hukmronligini cheklash, aholining ayrim ijtimoiy guruhlari manfaatlarini himoya qilish kabi maqsadlarda tartibga soladi. Ushbu model AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya uchun xos bo'lib, hozirda Irlandiyaning iqtisodiy tizimi ma'lum darajada liberal modelga yaqinlashmoqda.

Ijtimoiy-bozor xo'jaligi modeli (Germaniya) — ushbu model raqobatga asoslangan bozor mexanizmi rivojlangan ijtimoiy infratuzilmaga ega ijtimoiy bozor xo'jaligini o'zida aks ettiradi. Bu model tartibga solinmaydigan kapitalizm sharoitida jamiyatdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini (kam ta'minlanganlar, ishsizlar, yoshlar, kichik va o'rta firmalar) muntazam qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutadi. Davlat yetarli daromad darajasini mustaqil ta'minlay olmaydigan ijtimoiy toifalarning iqtisodiy farovonligini ta'minlashda keng qamrovli majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

Shved modeli — ushbu modelda ijtimoiy konsensusga erishish maqsadida daromadlarni keng ko'lamda qayta taqsimlash asosida ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashga erishiladi. Bu maqsadga erishishda umumjamiyat manfaatlari va xususiy sektor manfaatlarini muvofiqlashtirishga yordam beradigan kasaba uyushmalari va turli xil «erkin uyushmalar» muhim o'rin tutadi. Bu jarayon tadbirkorlar va kasaba uyushmalarining kelishuvlari hamda siyosiy kuchlarning muzokaralari vositasida amalga

oshiriladi. Bundan tashqari, ushbu model iqtisodiy qarorlarning turli guruhlar qarama-qarshiligi va maqsadlarini davlatning faol ishtirokida muvofiqlashtirilishi orqali amalga oshirilishi tufayli «korporativ model» ham deb nomlanadi.

Yapon modeli — iqtisodiy rivojlanishning yapon modelini shved modelining yana bir ko'rinishi sifatida keltirish mumkin. Yapon modeli tartibga solinuvchi «korporativ kapitalizm» modeli hisoblanadi. Bunda xususiy kapitalni jamg'arish imkoniyatlari davlatning iqtisodiy rivojlanishini dasturlash, tarkibiy, investitsiya, tashqi iqtisodiy va ijtimoiy siyosat sohalaridagi faol roli bilan uyg'unlashib ketadi. Tadbirkorlik sektorida davlatning ulushi yuqori bo'lmaydi. Davlat asosiy e'tiborni uzluksiz kasbiy tayyorgarlik orqali ishchi kuchining malakasini oshirishga qaratadi. Shuningdek, yapon modeliga mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishning ilg'or shakllarini milliy an'analar bilan uyg'unlashtirish xususiyati ham xos. Shuning uchun iqtisodiy rivojlanishning yapon modelini iyerarxik korporativizm, deb ham atashadi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti oxirgi yuz yilliklar davomida boshqa iqtisodiy tizimlar oldida ishlab chiqarish kuchlarining o'zgarishlariga moslashuvchanligi va egiluvchanligi, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini o'zlashtirish layoqatining yuqoriligi, iste'mol talablarining o'zgarishiga tezda javob bera olishi kabi afzalliklarini namoyish eta oldi.

5.2. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari

Sanoati jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiyotini ayirboshlanishi mumkin bo'lgan barcha ne'matlarni takror ishlab chiqarish va ishlab chiqarish hajmini xohlagan nisbatda oshirishi mumkin bo'lgan iqtisodiyot sifatida ta'riflash mumkin.

Bu mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalaridan biri — iqtisodiyotning **sikllik rivojlanishga** egaligidir. Iqtisodiyot nazariyasida investitsion faollik, pul massasining hajmi, yalpi xarajatlar, asosiy kapitalning ommaviy tarzda yangilanishi, ishlab chiqarishning texnologik asoslarining almashinuvi kabilar sikllik rivojlanish sabablari sifatida keltiriladi.

XX asrning oxirgi choragida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti quyidagi siklik pasayishlarni boshidan kechirdi: 1974–1977, 1980–1982, 1990–1993, 1997–1998 va 2000–2001-yillar. XX asrning 70-yillaridan farqli ravishda 80–90-yillardagi sikl muayyan darajada sinxron bo'lmagan tarzda yuz berganligi bilan tavsiflanadi. AQSh va Kanada iqtisodiy o'sishning eng yuqori nuqtasiga 1982–1993-yillarda erishgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichga Yaponiya 1984-yilda, Buyuk Britaniya, Fransiya va Italiya — 1988-yilda, Germaniya 1990-yilda erishgan. Bu davrda AQSh, Buyuk Britaniya va Kanadada yangi pasayish namoyon bo'la boshladi. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida 2007–2008-yillardagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'sirida yangi siklik pasayish yuz berdi. Tahlillar ko'rsatishicha, 2009-yilda 2008-yilga nisbatan ushbu mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot 3,4 %ga, asosiy kapitalni yalpi jamg'arish 11,6 %ga, ichki talab 2,6 %ga, eksport va import mos ravishda 11,6 va 12,2 %ga qisqardi (5.2.1-jadval).

Rivojlangan mamlakatlar **ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi** bo'yicha bir xil emasligi bozor iqtisodiyoti rivojlanishining davriyligi bilan bevosita bog'liq. Ushbu holat ijtimoiy ishlab chiqarishning turli bosqichlari, mehnat unumdorligi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlardagi tafovutlarda namoyon bo'ladi. XIX asr boshlarida jahon iqtisodiyotida Buyuk Britaniya yetakchilik qilgan bo'lsa, XIX asr oxiriga kelib yetakchilik AQSh qo'liga o'tdi. XX asr boshlariga kelib, Germaniya va Fransiya jahon iqtisodiyotidagi o'z mavqelarini tezda mustahkamlab oldilar.

5.2.1-jadval

Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi

	1996–2005-yy.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.
Real YalM	2,8	3,1	2,8	0,1	-3,4	3,1	1,7	1,2	1,4
Xususiy iste'-mol xarajatlari	3,0	2,6	2,4	0,1	-1,1	2,0	1,5	1,0	1,5
Davlat iste'moli	2,6	1,7	1,9	2,3	3,0	0,9	-0,6	0,2	0,1
Asosiy kapi-talni yalpi jam-g'arish	3,5	3,9	2,5	-2,9	-11,6	1,9	2,6	1,8	0,8
Ichki talab	2,9	2,7	2,3	-0,2	-2,6	1,8	1,3	1,0	1,1
Inflyatsiya	2,0	2,4	2,2	3,4	0,1	1,5	2,7	2,0	1,4
Eksport	6,0	8,9	7,1	2,2	-11,6	12,2	6,2	2,0	2,4
Import	6,6	7,9	5,5	0,6	-12,2	11,7	5,3	1,2	1,4

Manba: World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. October 2014. IMF, 2014. P. 184–197 ma'-lumotlari asosida tuzilgan.

Iqtisodiy taraqqiyotdagi keskin o'zgarishlar jahon urushlari bilan bog'liq bo'lib, urushlar alohida mamlakatlar yoki mamlakatlar guruhining jahon xo'jaligidagi o'r-nining o'zgarishiga olib keldi. Misol uchun, Birinchi jahon urushi Germaniyaning mag'lubiyati va AQSh, Angliya, Fransiyaning jahon xo'jaligidagi o'rnining kucha-yishiga olib kelgan bo'lsa, Ikkinchi jahon urushi esa AQSh ning so'zsiz rivojlangan mamlakatlar yetakchisiga aylanishiga olib keldi.

XX asrning ikkinchi yarmida fan-texnika yutuqlari ta'sirida rivojlangan mamla-katlarda mehnat unumdorligi darajasi orasidagi farqning qisqarish jarayoni kuchay-di. AQSh ning jahon yalpi ichki mahsuloti, jahon savdosi va kapitallar migratsiyasi-dagi ulushi qisqardi. G'arbiy Yevropa, xususan, Germaniya va Yaponiyaning jahon xo'jaligidagi mavqeyi kuchaydi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib jahon xo'jaligi-da uchta iqtisodiy markaz (AQSh, G'arbiy Yevropa va Yaponiya) shakllandi.

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida **globallashuv** jarayoni yetakchi tendensiya hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarning eksport kvotasi, kapi-tal qo'yilmalar tarkibida to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar ulushi, ishchilar tarki-bida xorijlik ishchilar ulushi, intellektual mulk savdosining hajmi ortib bormoq-da. Bu jarayon avvalo rivojlangan mamlakatlar tarkibida sodir bo'lmoqda. AQSh va Yaponiya eksportining geografik tarkibida rivojlangan mamlakatlar ulushi taxminan 50 %ni tashkil etadi. Shunga qaramasdan rivojlangan mamlakatlar-ning tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasida rivojlanayotgan va o'tish iqtiso-diyoti mamlakatlarining ulushi ortib bormoqda. Jumladan, 2000–2013-yillarda AQSh, Yevropa (YeI-28) va Yaponiya tovarlar eksportining tarkibida Xitoyning ulushi mos ravishda 2,1; 1,7; 8,9 %dan 7,7; 8,5; 18,1 %gacha ortgan[1]. Globalla-shuv jarayoni chuqurlashuvi natijasida rivojlangan mamlakatlarning o'zaro bir-biri bilan iqtisodiy bog'liqligidan tashqari ularning boshqa mamlakatlarga ham bog'liqligi ortib bormoqda.

1 International Statistics 2011. WTO. P. 232, 234, 234.; Trade Profiles 2014. WTO. P. 193,66, 96.

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishidagi yana bir muhim tendensiya **integratsiya** hisoblanadi. Jahonning yetakchi uch markazi o'rtasida iqtisodiy munosabatlar faol rivojlanayotgan bo'lsa-da, integratsiya jarayonlari uchlikning asosini tashkil etuvchi integratsion guruhlar va ularning a'zolari o'rtasida yanada jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Misol uchun, NAFTA doirasidagi savdo hajmi ushbu guruhning jami tashqi savdosida 1970-yilda 36 %ni, 1990-yilda 41 %ni, 2013-yilda esa 49,2 %ni tashkil etdi. NAFTAning boshqa mamlakatlar bilan savdosida Yevropa mamlakatlarining ulushi yuqori va ushbu ko'rsatkich 2013-yilda 15,2 %ga teng bo'ldi[1].

Integratsion birlashmalar a'zolari o'rtasidagi savdo jarayonlari YeI da ham faollashib bormoqda. YeI ichidagi savdo hajmi 1970-yildayoq 60 %ni tashkil etgani holda hozirga qadar 55 %dan 67 %ga qadar o'zgarib turadi. Jumladan, ushbu ko'rsatkich YeI-28 da 2013-yilda 62,0 %ni tashkil etdi. Shu bilan bir vaqtda Yevropaning boshqa hududlar eksportidagi ulushi ham ortib bormoqda[2].

Yaponiyaning asosiy tashqi savdo hamkorlari Sharqiy, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari hisoblanib, ularning mamlakat tashqi savdosidagi ulushi 40 %dan yuqoridir. Yaponiyadan ushbu mamlakatlarga yo'naltirilgan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar hajmi esa jami investitsiyalarning 25 %ni tashkil etadi.

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishidagi muhim jihatlardan biri iqtisodiyotga davlat aralashuvining kamayishi, iqtisodiyotning **erkinlashish** jarayonidir. Birinchi jahon urushidan XX asrning 80-yillariga qadar rivojlangan mamlakatlarda davlat tomonidan iqtisodiyotga aralashish darajasi davlat xarajatlari va iqtisodiyotda davlat sektori ulushining o'sishi shaklida jadal sur'atlarda ortib bordi. Jahon iqtisodiyotida globallashuv va integratsiya jarayonlarining chuqurlashishi natijasida aksariyat rivojlangan mamlakatlarda davlat xarajatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi qisqarib bordi. Bundan tashqari, xususiylashtirish, transport va aloqa, energetika, kommunal xo'jalik kabi tarmoqlarda davlat mulkini xususiy kompaniyalarning boshqaruv ixtiyoriga topshirish boshlandi.

Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni erkinlashtirish iqtisodiy siyosatda keynschilikdan neoklassiklar, neoliberalizmdan institutsionalizm tomon chekinish bilan birga olib borildi. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy siyosat maktablarida to'plangan boy tajriba, g'oya va dastaklarni mavjud iqtisodiy holat va iqtisodiy rivojlanish modeli xususiyatlariga mos ravishda iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda samarali qo'llashga harakat qilishadi.

5.3. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining tarkibi

XXI asrning boshlariga kelib rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining tarkibi postindustrial tarkibga ega bo'la boshladi. Tahlillar ko'rsatishicha, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining tarkibida 1980-yilda birlamchi (qishloq xo'jaligi, qazib chiqarish, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi) tarmoqlarning ulushi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3,5 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2009-yilda 2 %gacha qisqargan. Ushbu vaqt ichida ikkilamchi tarmoqlar (sanoat va qurilish) ulushi 33,5 %dan 26 %gacha qisqargani holda, uchlamchi tarmoqlar (xizmatlar sohasi) ulushi 63 %dan 73 %gacha oshgan[3].

1 International Trade Statistics 2011. WTO. P. 21. International Trade Statistics 2014. WTO. p. 38.

2 International Trade Statistics 2011. WTO. P. 21.: International Trade Statistics 2014. WTO. p. 32.

3 Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник. /под ред. Проф. А. С. Булатова, проф. Н. Н. Ливенцева. — М.: Магистр, 2010. С. 253, 254; World Development Report 2011. World Bank. P. 313.

XX asrning 60-yillaridan boshlab rivojlangan mamlakatlarda, xususan, AQSh da qishloq xo'jaligi va tog'-kon sanoati samaradorligining o'sishi natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida birlamchi tarmoqlar ulushining keskin pasayishi va milliy xo'jaliklar tarkibida qayta ishlash sanoati ulushining saqlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi barqaror ortib borishi kuzatildi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarning ro'y berishida xizmatlar sohasi va samarasiz ishlab chiqarishlarning qisqarishi, 1973–1975-yillardagi energetika va xomashyo inqirozi katta turtki bo'ldi.

Rivojlangan mamlakatlarning qishloq xo'jaligi 1900, 1950 va 1970-yillarda dunyo qishloq xo'jaligi mahsulotlarining uchdan bir qismini ishlab chiqargan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich XXI asrning boshlariga kelib 25 %ga tushib ketdi. Bu holat agrosanoat majmuasining qisqarishi evaziga emas, balki rivojlangan mamlakatlar aholisi sonining sekin ko'payishi va aksariyat oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning to'yinishi bilan bog'liq. Rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligi o'z aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlashdan (G'arbiy Yevropa XX asrning o'rtalariga qadar o'zini oziq-ovqat bilan ta'minlay olmagan) tashqari milliardlab boshqa mamlakatlar aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlay boshladi. Ushbu holatning asosiy sababi rivojlangan mamlakatlarning barchasida qishloq xo'jaligi davlat tomonidan faol qo'llab-quvvatlanadi va agrosanoat majmuasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yildan-yilga qisqarib borish tendensiyasiga ega. Sanoat ulushining qisqarishi rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari tomonidan kuchli raqobat natijasida yengil sanoat, metallurgiya majmuasi kabi tarmoqlarning tugatilishi yoki ba'zi tarmoqlarda o'sishning sekinlashuvi (kimyo, o'rmon majmuasi), rivojlangan mamlakatlarda aksariyat sanoat tarmoqlari mahsulotlariga bo'lgan talabning qisqarishi bilan izohlanadi. Shu bir vaqtda sanoatning ba'zi tarmoqlari (yoqilg'i-energetika majmuasi) barqaror sur'atlarda rivojlanmoqda, jumladan, mashinasozlik majmuasining dunyodagi mavqeyi yanada kuchaymoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda yoqilg'i-energetika majmuasi quyidagi omillar ta'sirida rivojlanmoqda:

- energiya tejovchi texnologiyalarning o'zlashtirilishi natijasida ishlab chiqarishda energiya sig'imining kamayishi. Misol uchun, 1973–1985-yillarda IHTTga a'zo mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot 32 %ga o'sgani holda energiya iste'moli 5 %ga oshdi. Bundan tashqari rivojlangan mamlakatlarda yangi texnologiyalar va ustun darajada xizmatlar sohasining rivojlanishi ta'sirida yalpi ichki mahsulotning energiya sig'imkorligi pasayib bormoqda. Misol uchun, 1970–2000-yillarda AQSh yalpi ichki mahsulotining energiya sig'imkorligi[1] 0,713 dan 0,417 gacha pasaydi;
- rivojlangan mamlakatlarning yoqilg'i importiga bog'liqligi;
- yoqilg'iga bo'lgan talabning qisqarishi bilan bir vaqtda elektroenergiyaga bo'lgan talabning o'sishi.

Ushbu omillar o'rtasidagi bog'liqlikdan kelib chiqqan holda rivojlangan mamlakatlarda birlamchi energiya resurslariga bo'lgan talab va elektroenergiya ishlab chiqarish barqaror sur'atlarda o'sib borgani holda ushbu mamlakatlarning neft va gaz importiga kuchli bog'liqligi saqlanib qoladi.

1 Ming dollarlik yalpi ichki mahsulot (doimiy narxlarda) ishlab chiqarish uchun sarflanadigan shartli yoqilg'i, tonna.

Mashinasozlik majmuasi rivojlangan mamlakatlar sanoatining asosini tashkil etadi va sanoat ishlab chiqarishining 30–45 % ushbu majmua hissasiga to'g'ri keladi. Rivojlangan mamlakatlar mashinasozlik mahsulotlarining aksariyat qismini ishlab chiqarishadi. Ular mashinasozlik sohasining murakkab bo'lmagan (arzon avtomobillar) yoki oraliq mahsulotlarini (kompyuterlarning ehtiyot qismlari) rivojlanayotgan mamlakatlarda TMK filiallari orqali ishlab chiqarishni rag'batlantirib, nisbatan murakkab mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda elektronika mashinasozlikning yetakchi tarmog'iga aylanib bormoqda. Misol uchun, 2013-yilda YeI-28, Yaponiya va AQSh ning avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari jahon eksportining tarkibidagi ulushi mos ravishda 48,7 %, 11,3 % va 10,0 %ni tashkil etdi[1].

Xizmatlar sohasi trasnport, savdo, maishiy xizmat va ta'limning hisobiga XX asrning birinchi yarmidayoq rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining asosiy tarmog'iga aylanib ulgurdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin xizmatlar ijtimoiy soha — ta'lim, fan, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, madaniyat va san'at, uy-joy kommunal xo'jaligi, ijtimoiy ta'minot, keyinchalik esa moliya xizmatlari va axborot-kommunikatsiya xizmatlari hisobiga jadal sur'atlarda rivojlandi. Jumladan, 2013-yilda jahon transport va turizm xizmatlari eksportida YeI-28 va AQSh ning ulushi mos ravishda 43,4 %, 9,5 % va 34,1 %, 14,6 %ni tashkil etdi[2].

Rivojlangan mamlakatlarda **moliya sektori** iqtisodiyot holatini ifoda etuvchi asosiy indikatorga aylanib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda davlat xarajatlarining ortishi byudjet taqchilligi va davlat qarzlarining vujudga kelishiga olib keldi. Ushbu mamlakatlar uchun muntazam byudjet taqchilligi xos bo'lib, 2008-yildan boshlab bironta mamlakatda konsolidatsiyalashgan byudjet profitsitga ega bo'lmagan. Xususan, 2013-yilda ushbu ko'rsatkich yalpi ichki mahsulotga nisbatan Yaponiyada 8,4 %ga, Irlandiyada 7,4 %ga, AQSh da 7,3 %ga, Ispaniyada 7,2 %ga, Buyuk Britaniyada 5,8 %ga, Portugaliyada 4,9 %ga, Fransiyada 4,2 %ga teng bo'ldi[3].

Rivojlangan mamlakatlarda davlat byudjeti taqchilligining sabablari XX asrda davlat xarajatlarining keskin oshib ketishi bilan bog'liq. Yirik mamlakatlarda ushbu xarajatlarni davlat qimmatbaho qog'ozlarini chiqarish hisobidan qoplash imkoni mavjud. Bu mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot, ko'proq ichki bozor va ichki talab uchun mo'ljallangan. O'rta va kichik mamlakatlarda bunday imkoniyat mavjud bo'lmagani sababli ular davlat byudjetini muvozanatlashga e'tibor berishga majbur bo'lishadi.

Byudjet taqchilligi davlat qarzining o'sishiga olib keladi. Yevropa mamlakatlarining aksariyatida davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 50 %dan oshadi. 2013-yilda esa ushbu ko'rsatkich Gretsiya (173,8 %), Italiya (132,5 %), Portugaliya (128,8 %) Islandiya (122,8 %), Kiprda (112,0 %) 100 %lik ko'rsatkichdan oshib ketdi. Jahonning muhim iqtisodiy markazlari AQSh va Yaponiyada davlat qarzi 2013-yilda mos ravishda 104,5 va 243,2 %ga teng bo'ldi[4]. Davlat qarzi Moliya vazirligi tomonidan byudjet taqchilligini qoplash maqsadida chiqariladigan qimmatbaho qog'ozlardan iborat bo'ladi.

Byudjet taqchilligi inflyatsiyani keltirib chiqish sabablaridan biri hisoblanadi. Ushbu holat urush davrlarigagina xos bo'lgan bo'lsa, hozirda zamonaviy

1 International Trade Statistics 2014. WTO. P. 102.
2 O'sha manba. P. 123, 125.
3 The Global Competitiveness Report 2014–2015. World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2014. P. 438.
4 The Global Competitiveness Report 2014–2015. World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2014. P. 441.

iqtisodiyotning asosiy xususiyatiga aylanib qoldi. G'arbiy Yevropada inflyatsiyaning o'rtacha yillik sur'atlari 1820–1900-yillarda 0,1 %ga, 1990–1998-yillarda 3,6 %ga teng bo'lgan. XX asrning 70–80-yillaridan boshlab rivojlangan mamlakatlarda inflyatsiya sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda. Shunga qaramasdan inflyatsiya sur'atlari ushbu mamlakatlarda yuqoriligicha qolmoqda: 1988–1997-yillarda o'rtacha 3,4 %, 1998–2007-yillarda 2,0 %, 2008–2013-yillarda 2,2 %. Rivojlangan mamlakatlarda inflyatsiya darajasi 2013-yilda — 0,9 %dan (Gretsiya) 3,9 %gacha (Islandiya) o'zgarib turdi[1].

Ijtimoiy soha. XX asrda aksariyat rivojlangan mamlakatlarda aholining daromadlar bo'yicha tabaqalashuvidagi farqning qisqarishi kuzatildi. Aholi daromadlarining o'sishi bilan bir vaqtda boy va kambag'al qatlamlar daromadlaridagi farqlar qisqardi. Misol uchun, Jini koeffitsiyenti Buyuk Britaniyada soliqlar to'lagunga qadar 1938-yilda 0,43 ga, urushdan keyingi davrda esa 0,3–0,36 oralig'ida, AQSh da 1929-yilda 0,51 ga teng bo'lgani holda urushdan keyingi davrda 0,38–0,44 oralig'ida o'zgarib turdi.

Rivojlangan mamlakatlarda aholi daromadlarining keskin oshishi natijasida o'rta sinfning shakllanishi ijtimoiy tabaqalashuvning qisqarish sabablaridan biri hisoblanadi. XIX asrda olib borilgan liberal iqtisodiy siyosatning ijtimoiy sohaga nisbatan e'tiborsizligi XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida ijtimoiy qaramaqarshiliklarga olib keldi. Natijada rivojlangan mamlakatlarda XX asrda davlatning ijtimoiy siyosati o'zgardi, davlat byudjetining katta qismi ijtimoiy sohaga ajratila boshlandi, siyosiy hayotning demokratlashuvi aholi o'rtasida ijtimoiy to'siqlarning qisqarishiga olib keldi.

Rivojlangan mamlakatlarda turli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modellari doirasida ish vaqti davomiyligi va ishsizlik darajasi o'rtasida farq kuzatiladi. Aholi turmush darajasining yuqoriligiga qaramasdan AQSh va Yaponiya rivojlangan mamlakatlar o'rtasida bir ishchiga hisoblangan rasmiy ish soatlari (1800 soat atrofida) bo'yicha yetakchilik qilishadi. Bu ko'rsatkich 2003-yilda Buyuk Britaniyada — 1700, Italiyada — 1600, Germaniya va Fransiyada — 1500, Niderlandiya va Norvegiyada — 1400 soat atrofida bo'lgan.

Ishsizlik darajasi ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modellari doirasida farq qiladi.

G'arbiy Yevropada ishsizlik darajasi 1913-yilda 1,5 %ni, 1950–1973-yillarda o'rtacha 2,9 %, 1973–1998-yillarda 7,1 %, 1998–2007-yillarda 8,5 %ni tashkil etgani holda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida 2013-yilda 11,0 %ga teng bo'ldi. G'arbiy Yevropada ishsizlik darajasi iqtisodiy o'sishning past sur'atlari sababli tarixiy o'sib borish tendensiyasiga ega. Jumladan, 2013-yilda ishsizlikning eng yuqori darajasi Ispaniya (25 %), Gretsiya (24,2 %), Portugaliya (15,7 %), Islandiya (14,7 %) qayd etildi[2].

AQSh da ishsizlik darajasi 1913-yilda 4,3 %ni, 1950–1973-yillarda o'rtacha 4,6 %ni, 1973–1998-yillarda 6,6 %ni, 1999–2007-yillarda 4,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz tufayli 2013-yilda 7,4 %ga qadar oshdi. Umuman, AQSh da ishsizlik darajasi G'arbiy Yevropaga nisbatan inqiroz ta'sirini hisobga olmaganda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari tufayli kamroq o'zgarishga ega.

Yaponiyada ishsizlik darajasi 1950–1973-yillarda o'rtacha 1,6 %ni, 1973–1998-yillarda 2,5 %ni, 1998–2007-yillarda 4,6 %ni tashkil etgan. Jahon

1 World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. October 2014. IMF, 2014. P. 192.

2 Human Development Report 2014. Sustaining Human Progress: Reducing Vulnerabilities and Building Resilince. UNDP. New York, 2014. P. 200

moliyaviy-iqtisodiy inqirozning mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'siri oqibatida ishsizlik darajasi ortib, 2013-yilda 4,3 %ga tenglashdi.

Tahlillar ishsizlik darajasi va iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda. Shunga qaramasdan Yaponiyaning iqtisodiy rivojlanish modeli 1998–2007, 2008–2013-yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlarining pastligiga qaramasdan ishsizlik darajasining pastligini namoyish etmoqda. Buning sababi yapon modeliga xos bo'lgan kommunalizm bilan bog'liq bo'lib, yapon firmalari o'z ishchilarini kamdan-kam hollarda ishdan bo'shatishadi.

Rivojlangan mamlakatlarda, xususan, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy yo'naltirilganlikning kuchayishi demografik jarayonlar bilan bog'liq. Gap umumiy aholi sonida keksa yoshdagilar (65 yoshdan oshgan) ulushining oshishi bilan izohlanadigan demografik vaziyat — *aholining qarishi* muammosi haqida bormoqda. Agar keksalar sonining umumiy aholi sonidagi ulushi 12 %dan oshsa, ushbu mamlakatlar aholisi qariyotgan hisoblanadi. BMT Taraqqiyot Dasturi ma'lumotlariga ko'ra 2013-yilda keksalar sonining ulushi inson salohiyatining rivojlanish darajasiga ko'ra juda yuqori mamlakatlarda — 16,3 %, AQSh da — 14 %, Yaponiyada — 25 %, Germaniyada 21 %ni tashkil etgan[1]. Aholining qarishi pensiya to'lovlari, keksalarni parvarishlashni tashkil etish va ularga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun qo'shimcha mablag'larni talab etadi. Aholining qarishi mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiga jiddiy ta'sir o'tkazadi.

Aksariyat G'arb iqtisodchilari aholining qarishi muammosini iqtisodiy salohiyatning pasayishi bilan bog'laydilar. Ular pensiya jamg'armalariga to'lanadigan badallarning oshirilishi ishlovchilarning «keksalik»ka olib qo'yadigan jamg'armalarining kamayishiga olib keladi, deb hisoblaydilar. Natijada investitsion resurslar kamayadi va mehnat unumdorligining o'sishi susayadi. Boshqa tahlilchilarning fikricha, tug'ilishning pasayishi sababli bolalar va o'smirlar ta'minotiga ketadigan xarajatlar qisqaradi va ishlovchilarga tushadigan iqtisodiy yuk yengillashadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasi. Rivojlangan mamlakatlar jahon savdosida yetakchilik qilishsa-da, oxirgi o'n yillikda ularning ulushi qisqarish tendensiyasiga ega. 1980-yilda jahon tovar eksportida rivojlangan mamlakatlar ulushi 66,2 % tashkil etgani holda, ushbu ko'rsatkich 2013-yilda 50,9 %ga teng bo'ldi. Ushbu holat asosan AQSh, Yaponiya va Buyuk Britaniya ulushining qisqarishi bilan bog'liq bo'lib, ularning jahon tovar eksportidagi ulushi 1980–2013-yillarda mos ravishda 11,0 %, 6,4 %, 5,4 %gacha va 8,4 %, 3,8 %, 2,9 %gacha pasaygan[2].

Rivojlangan mamlakatlarning to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar harakatidagi ulushi ham qisqarib borish tendensiyasiga ega. Misol uchun, ushbu mamlakatlarning to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etishdagi ulushi 1980-yilda 80,1 %ga teng bo'lgani holda ushbu ko'rsatkich 2013-yilda 39,0 %ni tashkil etdi. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni chetga chiqarishda esa ularning ulushi ushbu davrda mutanosib ravishda 94,4 %dan 60,8 %ga qadar qisqardi[3].

5.4. Rivojlangan mamlakatlarda «yangi iqtisodiyot»ning shakllanishi

Rivojlangan mamlakatlarda «yangi iqtisodiyotning» shakllanishi XX asr oxiri XXI asr boshlarida jahon iqtisodiyotidagi eng muhim yo'nalishlardan biridir.

1 Human Development Report 2014. Sustaining Human Progress: Reducing Vulnerabilities and Building Resilince. UNDP. New York, 2014. P. 216, 219 ma'lumotlari asosida hisoblanagn.
2 UNCTAD Handbook of Statistics 2014. New York and Geneva, 2014. P. 16.
3 UNCTAD HANDBOOK OF STATISTICS 2014. New York and Geneva, 2014. P. 300, 301.

Ushbu hodisaning asosi global bozor iqtisodiyoti hisoblanadi. Biroq, bunday iqtisodiy hodisaning muhim jihatini axborot texnologiyalari ifodalaydi. Yangi iqtisodiyot bu — inson kapitalining moddiy-ashyoviy resurslar — yer va kapitalga nisbatan katta ulushga ega bo'lganligi bilan tavsiflanadigan sohalar majmuyidir.

Yangi iqtisodiyot quyidagi sohalarni o'z ichiga oladi:

- ta'lim;
- axborot-kommunikatsiya bozorlari;
- innovatsiyalarni ishlab chiqish;
- yuqori texnologiyalar;
- intellektual xizmatlar.

Yangi iqtisodiyot ba'zida mahsulotni yaratish jarayonida axborotlar va bilimlarning yetakchi o'rin tutishini e'tiborga olgan holda «axborotlashgan iqtisodiyot», «bilimlar iqtisodiyoti» yoki «intensiv iqtisodiyot», deb ham ataladi.

Yangi iqtisodiyot insoniyat tarixidagi iqtisodiy inqiloblardan (birinchisi — agrar, ikkinchisi — sanoat, uchinchisi — axborot) keyin vujudga kelgan. Mutaxassislar ushbu inqilobning rivojlangan mamlakatlarda boshlanish sababini investitsiyalarning umumiy hajmida inson kapitaliga sarflangan investitsiyalar ulushining ortib borishi bilan bog'laydilar. Tahlillar ko'rsatishicha, bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 1950–2000-yillarda 47–48 %dan 70 %gacha o'sgan. Rivojlangan mamlakatlarda XX asr boshida moddiy-ashyoviy kapital inson kapitaliga sarflangan investitsiyalardan qiymati bo'yicha ikki barobar oshgan bo'lsa, XXI asr boshida bu kapital inson kapitalidan o'rtacha 1,5 barobarga kamaydi. AQSh da bu ko'rsatkich 2,4–2,6 barobarga kamaygan. Inson kapitali iqtisodiyot tarkibida tub o'zgarishlar va yangi sohalarning rivojlanishiga yordam beradi.

XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan mamlakatlarda katta yoshdagi aholining ta'lim olish davomiyligi sezilarli darajada uzaydi. Misol uchun, Italiyada 5,5-yildan 13,3–13,5-yilgacha, Yaponiyada 9–9,2-yildan 15,9–16,1-yilgacha, Fransiyada 9–9,4-yildan 17–17,2-yilgacha, AQSh da esa 11,3-yildan 19,6–20-yilgacha. AQSh da bu ko'rsatkich G'arbiy Yevropaning yetakchi mamlakatlari va Yaponiyaga nisbatan ikki barobar — 2,1-yildan 4,3-yilgacha oshdi.

Rivojlangan mamlakatlar jahon texnologik rivojlanishidagi yetakchi mavqeyini faol innovatsion faoliyat olib borish orqali ta'minlashadi. Ushbu maqsadga erishish uchun rivojlangan mamlakatlar ITTKI ga katta miqdorda mablag' sarflashadi. Misol uchun, 2010-yilda birgina AQSh 395,8 mlrd. dollar hajmida ITTKIni rivojlantirish uchun mablag' sarflagan (5.4.1-jadval).

Misol uchun, 2009-yilda AQSh federal byudjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratayotgan mablag'lar miqdori (inqirozga qarshi rag'batlantirish mablag'laridan tashqari) 165 mlrd. dollarni tashkil etdi va shundan 41,3 mlrd. dollari fundamental tadqiqotlar uchun, 30,7 mlrd. dollari amaliy tadqiqotlar uchun, 85,3 mlrd. dollari tajriba-loyiha ishlariga sarflangan[1].

Yel mamlakatlari ilm-fanni rivojlantirishga sarflanayogan mablag'lar miqdorini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 %ga yetkazishni reja qilgan.

1 Расулев А. Ф., Тростянский Д. В. Развитие инновационной деятельности национальной экономики в посткризисный период. // Экономика и финансы, № 1.2011. С. 10.

5.4.1-jadval

Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda ITTKI xarajatlari, 2010-y.

	ITTKI xarajatlari		
	mlrd dollar	YalM dagi ulushi, %	Jahon ITTKI xarajatlaridagi ulushi, %
AQSh	395,8	2,8	34,4
Yaponiya	142,0	3,3	12,3
Germaniya	68,2	2,4	5,9
Janubiy Koreya	42,9	3,0	3,7
Fransiya	41,5	1,9	3,6
Buyuk Britaniya	37,6	1,7	3,3
Kanada	23,7	1,8	2,1
Italiya	18,7	1,1	1,6
Tayvan	18,2	2,3	1,6
Ispaniya	17,2	1,3	1,5
Avstraliya	15,3	1,8	1,3
Shvetsiya	11,6	3,3	1,0
Niderlandiya	10,6	1,6	0,9
Isroil	9,1	4,2	0,8
Avstriya	8,2	2,5	0,7

Manba:R&D Magazin. 2011 Global R&D Funding Forecast. P. 5.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, faol innovatsion faoliyat davlatning fan-texnika taraqqiyoti sohasidagi yetakchi roli orqali belgilanadi. Davlat ushbu sohadagi milliy ustuvorliklarni aniqlaydi, innovatsion rivojlanishga moliyalashtirish va iqtisodiy rag'batlantirish tizimi orqali faol ta'sir o'tkazadi. Bundan tashqari davlat tomonidan innovatsion faoliyatda tadbirkorlik sektorining qatnashishini rag'batlantirib borishi natijasida ilmiy tadqiqotlar va ishlanmlarga sarflanayotgan ichki xarajatlarning katta qismi biznes tomonidan ta'minlanmoqda. Misol uchun, ushbu ko'rsatkich YeI da 56 %ga, AQSh da 63 %ga, Yaponiyada esa 74 %ga teng. IHTT mamlakatlarida korporatsiyalarning umummilliy tadqiqotlar va ishlanmalarga sarflanayotgan xarajatlar tarkibidagi ulushi o'rtacha 70 %ga yaqinlashmoqda[1].

Rivojlangan mamlakatlarda inson kapitaliga sarflanayotgan investitsiyalar hajmining oshib borishi bilan bir qatorda asosiy kapitalning faol elementi hisoblangan axborot texnologiyalariga sarflanayotgan investitsiyalar ham jadal sur'atlarda o'sayotganligini kuzatish mumkin. Rivojlangan mamlakatlar o'rtasida ushbu ko'rsatkich bo'yicha AQSh yetakchi mavqega ega va 1970–80-yillarda axborot texnologiyalarini rivojlantirishga sarflanayotgan xarajatlar yiliga o'rtacha 20–25 %ga, 1990-yillarda esa 30–35 %ga o'sib borgan.

ITTKI ga katta miqdorda mablag' sarflaydigan va yirik intellektual kapitalga ega kompaniyalarga xos belgisi bu kompaniyalar aksiyalarining yuqori darajada kotirovka qilinishidir. Transmilliy kompaniyalarning ushbu belgisi va ulardagi ishlovchilar soniga qarab «eski» va «yangi» iqtisodiyot kompaniyalariga ajratish mumkin.

1 Федяшева Г. Развитие инновационного потенциала Узбекистана в условиях модернизации экономики// Рынок, деньги, кредит, № 08(171), 2011. С. 49.

Tahlillar ko'rsatishicha, jahonda ishlab chiqariladigan avtomobillarning yarmini ishlab chiqaradigan, 707,0 ming kishini ish bilan ta'minlaydigan, dunyo bo'ylab zavod va fabrikalariga ega AQSh avtomobil sanoatining «katta uchligi» moliya bozorida mol-mulki kompyuterlar va bir nechta ofislardan iborat, mahsulotini esa global internet tarmog'iga kirish huquqisiz ko'rib bo'lmaydigan yosh Internet-kompaniyalar uchligiga qaraganda uch barobar past baholanadi (5.4.2-jadval).

5.4.2-jadval

Rivojlangan mamlakatlarning «eski» va «yangi» iqtisodiyot vakili sifatidagi kompaniyalarining taqqoslama ko'rsatkichlari, 2013-y.

Kompaniya	Kapitallashish darajasi, mlrd. doll.	Xodimlar soni, ming kishi.	Kompa-niya	Kapitallashish darajasi, mlrd. doll.	Xodimlar soni, ming kishi.
General Electric	259,6	307,0	Apple	478,8	80,3
Ford Motor	60,6	181,0	Microsoft	340,2	99,0
General Motors	54,7	219,0	Google	313,0	47,8
Jami	374,9	707	Jami	1132,0	227,1

Manba: www.ft.com

Axborot texnologiyalarini o'zlashtirishda rivojlangan mamlakatlar o'rtasida tabaqalashuv mavjud bo'lib, AQSh ushbu sohada yetakchi mavqega ega. Tahlillar ko'rsatishicha, AQSh da har ming kishiga to'g'ri keluvchi kompyuterlar soni 1990-yilda 190–210 tani, 2000-yilda 500 tani tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2008-yilda 787 taga yetdi. Internetdan foydalanuvchilar soni 1995-yilda — 32,8 %, 2000-yilda — 50 %, 2013-yilda esa 84,7 %ga yetdi. Umuman, XXI asr boshida AQSh da jahon kompyuter imkoniyatining taxminan 40 % tasarruf etilgan.

Axborot texnologiyalari iqtisodiy va ijtimoiy hayotni tubdan o'zgartirib boradi. Rivojlangan mamlakatlar o'rtasida Internetdan yanada samaraliroq foydalanish bo'yicha raqobat kuchaymoqda. Masalan, 2013-yilda Islandiyada Internetdan foydalanuvchilar ulushi 96,5 %ni, Norvegiyada 95,1 %ni Shvetsiyada 94,8 %ni tashkil etdi[1].

Axborot texnologiyalari ta'sirida bozor mexanizmi, biznes va milliy xo'jalik tarkibi, jahon iqtisodiyotining infratuzilmasida yangi jarayonlar boshlandi. Boshqacha aytganda, bozor munosabatlarining o'ziga xos yangi rivojlanish bosqichi boshlandi.

Internet biznesning quyidagi ikki tarmoqdan iborat yangi sohasini vujudga keltirdi;

- internetni texnik, texnologik va dasturiy ta'minlash;
- internet tizimida bevosita tadbirkorlik bilan shug'ullanish yoki internet-biznes.

Tahlillar ko'rsatishicha, Internet orqali elektron savdo bilan shug'ullanish jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ushbu savdo hajmi har 2–2,5-yilda ikki baravarga oshmoqda va uning salohiyati rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining 30 %ga teng, deb baholanmoqda. Jahon elektron savdosining hajmi 1990-yillarning o'rtalarida 5–10 mlrd. dollarni tashkil etgan bo'lsa, XXI asr boshida 100–150 mlrd. dollarga yetdi va yaqin istiqbolda 2 trln. dollardan oshib ketishi kutilmoqda.

Demak, istiqbolda iqtisodiyotning sanoat jihatdan taraqqiy etishi axborotlashish jarayonining intellektual tarkibi bilan bevosita bog'liq.

1 The Global Competitiveness Report 2014–2015. World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2014. P. 507.

5.5. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida davlatning roli

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida davlatning aralashuvi 1929–1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida inqirozga qarshi chora-tadbirlarni boshqarish bilan asos solingan. Keyns nazariyasiga muvofiq, soliq, kredit, narx siyosati, davlat xarajatlarini boshqarish, harbiy talabni rag'batlantirish va cheklash kabi chora-tadbirlar inqirozga qarshi siyosatning asosiy vositalari bo'ldi. Davlat inqiroz davrida yalpi talabni davlat xarajatlarini oshirish, biznesga solinadigan soliqlarni pasaytirish, kredit olish huquqini kengaytirish, yumshoq pul-kredit siyosatini olib borish orqali rag'batlantirdi. Iqtisodiy o'sish davrida esa davlat o'z xarajatlarini qisqartirgan, qattiq pul-kredit siyosati yuritib, soliqlarni oshirgan va kredit olish huquqini cheklagan.

Urushdan keyingi yillarda ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish siyosati, deb nom olgan iqtisodiyotni uzoq muddatli tartibga solishning turli shakllari yuzaga kela boshladi. Tartibga solishning shunday shakllaridan biri iqtisodiy dasturlash va bashoratlash yoki indikativ rejalashtirishdir. Indikativ rejalashtirish 1947-yilda Fransiyada vujudga keldi, keyinchalik Benilyuks mamlakatlarida, 1950–60-yillardan boshlab Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Germaniya, Ispaniya, Finlyandiya va Yaponiyada qo'llanila boshlandi.

Indikativ rejalashtirish quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi:

- makroiqtisodiy va ijtimoiy siyosatning ustuvor maqsadlarini asoslash;
- o'zaro bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar majmuyi va ularga erishish muddatlarini belgilash;
- rejalashtirilgan davrda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tartibga soluvchi iqtisodiy me'yorlarni belgilash;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish;
- davlat va nodavlat boshqaruv organlari tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish.

Indikativ rejalashtirish dasturlari 3–5-yilga tuziladi. Shu bilan bir vaqtda ular qisqa muddatli (uch yildan kam) va uzoq muddatli (10–15-yil) bo'lishi ham mumkin.

Davlat xaridlari, buyurtmalari, davlat boshqaruv organlari, hududiy hokimiyatlar, tadbirkorlar uyushmalari, kasaba uyushmalari, korxonalar o'rtasidagi muddatli shartnoma shaklidagi shartnoma-rejalar indikativ rejalashtirish vositalari hisoblanadi. Hozirgi vaqtda indikativ rejalashtirishning maqsadi mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidan qat'i nazar, davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirishdan iborat.

Indikativ rejalashtirish davlat sektori uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni o'z ichiga oladi, xususiy korxonalar uchun bu majburiy bo'lmasa-da, ushbu rejaga mos ish tutadilar. Misol uchun, Yaponiyada ishlab chiqiladigan «umumdavlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalari» rasman qonun hisoblanmasa-da, iqtisodiy subyektlarni shu dasturlar umummilliy manfaatlar yo'lida bajarishga yo'naltiradigan va safarbar etadigan davlat dasturlarini ifoda etadi. Yaponiya chorak asrdan ko'proq vaqtdan beri indikativ rejalashtirish asosida aniq maqsadga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Hozirgi sharoitda indikativ rejalashtirishning asosiy maqsadi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning davlat hal qiluvchi rol o'ynashi lozim bo'lgan eng muhim ustuvor yo'nalishlarini tanlash bo'lgan — strategik shakli keng tarqalmoqda. Misol uchun, Fransiyaning o'ninchi indikativ rejasida 1989–1992-yillarda iqtisodiyotni rivojlantirishning quyidagi oltita ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan: bandlikni ta'minlash, ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, aholini ijtimoiy himoya qilish, hududlarni obodonlashtirish, davlat xizmatlarini yangilash. Ular davlatning maqsadli grantlari sifatida rasmiylashtirilgan va moliyaviy imtiyozlar tizimi bilan ta'minlangan.

AQSh da strategik rejalashtirish muvaffaqiyatli raqobatga erishishning yangi yo'llarini izlash, ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, shtatlar va mahalliy hokimiyatlarga to'liq ishonch hamda moliyaviy madad berishga asoslangan samarali iqtisodiy siyosat uchun ko'mak berishga yo'natirilgandir.

Rivojlangan mamlakatlarda byudjetli rejalashtirish keng qo'llanilmoqda. Ushbu mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotga ta'sir etish vositalaridan biri pul-kredit siyosatidir. Pul-kredit siyosati davlatlarning markaziy banklari olib boradilar va ular: diskont siyosati yordamida foiz stavkalarini o'zgartiradilar; xususiy banklarning markaziy banklarning maxsus hisoblarida saqlanadigan majburiy eng kam zaxiralari me'yorlarini belgilaydilar; ochiq bozorda davlatning qimmatli qog'ozlari va nodavlat kompaniyalar, banklarning qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalarni amalga oshiradi.

Pul-kredit siyosati iqtisodiyotni rivojlantirishda davriy tebranishlarni kamaytirish va inflyatsion jarayonlar bilan kurashishda ishlatiladi. Ishlab chiqarish va ishchanlik faoliyatini rag'batlantirish uchun markaziy bank majburiy eng kam zaxiralar me'yorlarining hisob stavkasini pasaytiradi, banklarning kredit imkoniyatlarini kengaytirish va xususiy biznes uchun kreditni yanada manfaatli qilish uchun ochiq bozorda qimmatli qog'ozlarni faol sotib ola boshlaydi.

Soliq siyosati tadbirkorlik sektori ishchanligini faollashtirishni, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va ishlab chiqarishning hududiy joylashtirilishini rag'batlantiruvchi dastak bo'lib xizmat qiladi. Soliq siyosatining o'ziga xos turi jadallashtirilgan amortizatsiya hisoblanadi. Firma, korxonalar foydasini jihozlardan uch-to'rt yil foydalanilishi davomida amortizatsiya fondiga o'tkazishga ruxsat beriladi. Bu esa kapitalning jamg'arilishi, uni texnik yangilash va iqtisodiy o'sishni tezlashtirishga yordam beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotga aralashuv darajasi ushbu mamlakatlarda amal qiladigan iqtisodiy rivojlanish modellariga mos ravishda farqlanadi. Jumladan, davlat xarajatlarining YaIM ga nisbatan ulushi G'arbiy Yevropa modelida nisbatan yuqori (50 % atrofida), amerika (33 % atrofida) va yapon modelida nisbatan pastroq (25 %). Misol uchun, 2013-yilda davlat xarajatlarining YaIM dagi ulushi Avstriya (51,2 %), Belgiya (54,5 %), Daniya (56,9 %), Italiya (54,5 %), Fransiya (57,2 %), Shvetsiyada (53,0 %) dan yuqori bo'lgani holda, ushbu ko'rsatkich AQSh da 36,6 %ga, Yaponiyada esa 40,0 %ga teng bo'ldi (5.5.1-jadval).

5.5.1-jadval

Davlat xarajatlari YaIM ga nisbatan, %da

Mamlakat	2009-y.	2013-y.	Mamlakat	2009-y.	2013-y.
Avstriya	52,3	51,2	Niderlandiya	50,0	46,7
Belgiya	54,0	54,5	Norvegiya	46,1	44,2
Buyuk Britaniya	47,2	43,8	Portugaliya	48,0	48,7
Germaniya	47,6	44,5	Rossiya	40,5	-
Daniya	58,4	56,9	Slovakiya	40,8	38,7
Isroil	42,4	40,5	Sloveniya	46,8	54,5

Mamlakat	2009-y.	2013-y.	Mamlakat	2009-y.	2013-y.
Irlandiya	49,0	40,4	AQSh	43,3	36,6
Islandiya	52,1	46,3	Finlyandiya	49,4	56,1
Ispaniya	45,8	44,9	Fransiya	56,0	57,2
Italiya	51,9	54,5	Shveysariya	36,7	32,9
Kanada	43,8	44,5	Shvetsiya	52,7	53,0
Kipr	46,4	46,4	Chexiya	46,1	42,3
Lyuksemburg	42,5	43,5	Yaponiya	39,7	40,0

Manba: World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. October 2014. IMF, 2014. P. 70 ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida davlat maqveyini, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda yanada oshirdi.

Umuman, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar jahonning uch iqtisodiy va siyosiy markazini («triada») tashkil etishadi. Ushbu uchlik ichida iqtisodiy kuchlar nisbati o'zgarib turadi, iqtisodiy aloqalar integratsion birlashmalar — Yel va NAFTA ichida jadal sur'atlarda rivojlanmoqda.

Asosiy tushunchalar

«Katta yettilik» mamlakatlari — jahon xo'jaligi tizimining rivojlanish yo'nalishlarini va barcha davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalarini belgilab beruvchi mamlakatlar guruhi (AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada va Italiya).

Liberal (amerikacha) model — xususiy mulkchilik, ishlab chiqarish, savdo, investitsiya, ishchi kuchidan foydalanish sohalarida bozor-raqobat mexanizmining ustuvorligi va ijtimoiy tabaqalanishning yuqori darajasi xos bo'lgan model.

Shved modeli — ijtimoiy konsensusga erishish maqsadida daromadlarni keng ko'lamda qayta taqsimlash asosida ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash ustuvorlik qiluvchi model.

Yapon modeli — xususiy kapitalni jamg'arish imkoniyatlari davlatning iqtisodiy rivojlanishini dasturlash, tarkibiy, investitsiya, tashqi iqtisodiy va ijtimoiy siyosat sohalaridagi faol roli bilan uyg'unlashib ketuvchi tartibga solinuvchi korporativ kapitalizm model.

Yangi iqtisodiyot — inson kapitalining moddiy-ashyoviy resurslar — yer va kapitalga nisbatan katta ulushga ega bo'lganligi bilan tavsiflanadigan sohalar majmuyi.

Yangi iqtisodiyot — mahsulotni yaratish jarayonida axborotlar va bilimlarning yetakchi o'rin tutishini e'tiborga olgan holda «axborotlashgan iqtisodiyot», «bilimlar iqtisodiyoti» yoki «intensiv iqtisodiyot», deb ham ataladi.

Indikativ rejalashtirish — iqtisodiyotni uzoq muddatli tartibga solish turi bo'lib, iqtisodiy dasturlash va bashoratlashga asoslanadi.

Nazorat savollari

1. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarga xos bo'lgan belgilarni sanab o'ting.
2. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning muhim iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga qaysi ko'rsatkichlar kiradi?
3. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning qanday rivojlanish modellari mavjud?
4. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi mavqeyi va tutgan o'rni qanday?
5. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar uchun qanday ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari xos?
6. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti qanday tarkibiy tuzilishga ega?
7. «Katta yettilik»ning rivojlangan mamlakatlar guruhi tarkibida tutgan o'rni qanday?
8. «Yangi iqtisodiyot» nima va uning qanday rivojlanish omillarini bilasiz?
9. Jahonda qaysi mamlakatlar ITTKI xarajatlari bo'yicha yetakchi hisoblanadilar?
10. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida davlat qanday mavqega ega?

6-BOB. AQSh IQTISODIYOTI

6.1. AQShda bozor iqtisodiyotining rivojlanish omillari va xususiyatlari

AQSh iqtisodiy salohiyati va rivojlanish darajasi bo'yicha dunyoning eng yirik mamlakati hisoblanadi. AQSh iqtisodiyotining holati va rivojlanish dinamikasi umumjahon iqtisodiy rivojlanishining tendensiyalarini belgilab beradi.

Mamlakat hududi 9,7 mln. kv. km. ni, aholisining soni 316,4 mln. kishini (2013-y.) tashkil etadi. AQSh da 100 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi va aholi tarkibini kelib chiqishiga ko'ra yevropaliklar 80 %ni, qora tanli amerikaliklar 12 %ni, ispan tilida so'zlashuvchi amerikaliklar 5 %ni, kelib chiqishi bo'yicha osiyoliklar 2 %dan ko'proqni, 1 %ga yaqini esa hindular tashkil etadi.

AQSh YaIM hajmi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni (2013-yilda 16,8 trln. doll.), aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM hajmi bo'yicha 9-o'rinni (53101 doll.) egallaydi va AQSh hissasiga jahon YaIM ning 19,3 % to'g'ri keladi.[1] Jahon valyuta zaxiralarining 61,4 %, SDR valyuta savatida dollarning ulushi 41,9 %ni tashkil etdi[2].

AQSh federativ respublika hisoblanib, ma'muriy jihatdan 50 ta shtat va federal Kolumbiya okrugiga bo'linadi. Hozirda AQSh quyidagi to'rtta iqtisodiy hududga ajratiladi: Shimoli-Sharq, O'rta G'arb, Janub va G'arb.

Shimoli-Sharqiy iqtisodiy hududi maydoni jihatdan katta bo'lmasa-da, unda mamlakatning rasmiy poytaxti — Vashington va «iqtisodiy poytaxti» — Nyu-York joylashgan. Nyu-York mamlakat yalpi ichki mahsulotining 10 %ni ishlab chiqaradi.

O'rta G'arb Chikago — Detroyt, Klivlend kabi hududlar mamlakat maydonining 20 %ni egallaydigan sanoat markazlarini o'z ichiga oladi.

AQSh ning janubi mamlakatda neft, gaz, ko'mir, fosforitlarni qazib chiqarish bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Bu hudud hissasiga matolar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning 9/10 qismi to'g'ri keladi.

1 The Global Competitiveness Report 2014–2015. World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2014. P. 378.
2 Красавина Л. Н. Тенденции развития международных валютных отношений в условиях глобализации мировой экономики. //Деньги и кредит, №11, 2011. С. 15.

G'arb AQSh ning eng taraqqiy etgan hududi hisoblanib, Kaliforniya, Vashington shtatlari, Los-Anjeles shahri kinosanoat, harbiy sanoat majmuasi, aviatsiya, kosmos va elektron sanoatining rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

AQSh da qo'llaniladigan makroiqtisodiy rivojlanish modeli iqtisodiyotni o'z-o'zini boshqarishning bozor mexanizmi asosida qurilgan, davlat mulkchiligining kichik ulushi va ishlab chiqarish jarayonida davlatning sezilarli bo'lmagan to'g'ridan to'g'ri tartibga solishi bilan tavsiflanadi.

AQSh iqtisodiyoti quyidagi afzallik va omillar asosida rivojlangan:

- yirik ishlab chiqarish salohiyatining mavjudligi;
- boy tabiiy xomashyo zaxiralari, yuqori demografik salohiyat, ilmiy texnik va texnologik ustunlikka egaligi;
- mamlakatning qulay geopolitik joylashuvi va qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlarning mavjudligi;
- mamlakat hududida 150-yildan ortiq vaqt mobaynida urushlar bo'lmaganligi;
- ichki bozor miqyosi va hajmining kattaligi;
- postindustrial iqtisodiy tarkibga ega yangi ishlab chiqarish sohalarining rivojlanganligi;
- rivojlangan xizmatlar sohasi va bozor infratuzilmasining mavjudligi;
- davlat tomonidan iqtisodiy faoliyat erkinligining erkin raqobatni himoyalash, tadbirkorlikni rag'batlantirish, monopoliyaga qarshi chora-tadbirlar yordamida qo'llab-quvvatlanishi.

XXI asr boshida AQSh iqtisodiyoti rivojlanish jihatdan yangi texnologik bosqichga o'tdi. Bu bosqich mikroprotsessorlar, mikroelektronika, bioinjeneriya sohasida yangi avlod texnika, yuqori texnologiyalarini joriy etish orqali tabaqalashgan va mayda seriyali ishlab chiqarishni shakllantirish bosqichi hisoblanadi.

Zamonaviy AQSh iqtisodiyoti iqtisodiyotning fan sig'imkorligi darajasining ortishi, «bilimlar iqtisodiyotining» shakllanishi bilan ajralib turadi. 2010-yilda AQSh ITTKIni rivojlantirish xarajatlari uchun 395,8 mlrd. dollar sarfladi. Ushbu ko'rsatkich mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan 2,8 %ni, jahon ITTKI xarajatlarining 34,4 %ni tashkil etdi[1].

AQSh iqtisodiyotiga xos xususiyatlardan biri mamlakatda keng qamrovli axborot infratuzilmasining shakllanganligidir. AQSh hissasiga jahonda ishlab chiqarilayotgan kompyuterlarning 40 % to'g'ri keladi, iqtisodiyotda Internet orqali amalga oshirilayotgan savdo bitimlarining o'zi 2000-yillarda 1,3 trln. dollardan oshib ketdi.

AQSh iqtisodiyotining rivojlanishidagi muhim xususiyati dunyoning boshqa mamlakatlarida takrorlanmaydigan xizmatlar sohasi ulushining yuqoriligidir. Iqtisodiyotda band bo'lganlar va mamlakat YalM ning 80 % xizmat sohasi hissasiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga qayta ishlash sanoati jahon iqtisodiyotida eng yirik tarmoqligicha qolmoqda va tarkibiy jihatdan fan sig'imkorligi yuqori tarmoqqa aylanmoqda.

Zamonaviy AQSh iqtisodiyotini tavsiflovchi jiddiy o'zgarishlar mulkchilik munosabatlarida o'z aksini topmoqda. Jumladan, agar 1970-yilda daromadlarining 70 % korporativ sektorda yaratilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich XXI asr boshlarida 90 %ni tashkil etdi. Iqtisodiyotda turli mulk shakliga ega kompaniyalar — investorlar (aksioner kapitalining 80 %dan ortig'i), ishchi-xodimlar (8 %), iste'molchilar va notijorat tashkilotlar (aksioner kapitalining 12 %) keng rivojlandi va o'z o'rniga ega bo'ldi.

AQSh tovarlar bozorining amal qilishi va iqtisodiy rivojlanish sikllarida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi material

1 R&D Magazin. 2011 Global R&D Funding Forecast. P. 5.

zaxiralarni boshqarish tizimini takomillashtirib, ularning ortiqcha to'planib qolishining oldini olish va shu orqali ishlab chiqarish kapitalini jamg'arishning moddiy asosini qisqartirish imkonini berdi. Natijada oxirgi o'n yilliklarda ishlab chiqarish sikli bilan bog'liq iqtisodiy pasayishlar qisqara bordi, ko'tarilish bosqichlari esa barqaror va uzoq muddatli bo'lib bordi. Jumladan, oxirgi 8 ta pasayishga nisabatan 1900–1953-yillarda sodir bo'lgan 14 ta pasayishlarda YaIM dagi yo'qotishlar uch baravar yuqori bo'lgan. Iqtisodiy ko'tarilishlarning o'rtacha muddati 1990–1953-yillarda 2,5-yilni tashkil etgan bo'lsa, XX asr ikkinchi yarmida 5-yilga teng bo'ldi. Shu bilan bir vaqtda ishlab chiqarishning pasayish bosqichi 17 oydan 11 oygacha qisqardi. Ammo jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ushbu tendensiyalarga jiddiy o'zgarishlar kiritdi.

AQSh iqtisodiy rivojlanishidagi muhim omillardan biri — davlat tomonidan tartibga solish hisoblanadi. XX asrning 80-yillariga qadar iqtisodiyotda davlatning YaIM dagi ulushi, federal byudjet orqali qayta taqsimlash, shtatlar va mahalliy byudjetlarda (70-yillar oxirida 34 %) muntazam ortib bordi. 80-yillardan boshlab davlat tomonidan tartibga solish Keyns tamoyillaridan chekina boshladi. XXI asr boshida mamlakat YaIM da federal byudjet ulushi daromadlar bo'yicha 18–19 %dan, YaIM ni yaratishdagi davlat ulushi 12 %dan oshmaydi.

AQSh iqtisodiyotida yuqorida qayd etib o'tilgan ijobiy tendensiyalar bir qatorda jiddiy muammolar ham mavjud. Jumladan, AQSh iqtisodiyoti siklik tebranishlarga moyil. 2008-yilda boshlangan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz hozirga qadar mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir etmoqda.

Davlat byudjeti, savdo va to'lov balansi taqchilligi mamlakat iqtisodiyoti uchun jiddiy muammo hisoblanadi. AQSh davlat qarzi muntazam o'sib borish tendensiyasiga ega va 2010-yilda YaIM ga nisabatan 94,4 %ni tashkil etdi. XVF mutaxassislarining prognozlariga ko'ra 2016-yilgacha ushbu ko'rsatkich 115,4 %gacha o'sishi mumkin (6.1.1-jadval).

6.1.1-jadval

AQSh davlat byudjeti kamomadi va davlat qarzi dinamikasi, YaIM ga nisbatan, %da

	1995–2004-yy.	2005-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2016-y.
Sof kreditlash/sof qarz	–	–3,2	–10,3	–9,6	–7,9	–6,0
Joriy operatsiyalar saldosi	–	–5,4	–3,2	–3,1	–2,1	–2,7
To'lov balansi saldosi	–	–2,7	–7,0	–6,4	–5,0	–4,9
Sof qarz	43,2	42,7	68,3	72,6	78,4	88,7
Yalpi qarz	62,3	61,7	94,4	100,0	105,0	115,4

Manba: Перспективы развития мировой экономики. Замедление роста, увеличение рисков. Обзор. Сентябрь 2011. МВФ. Вашингтон, 2011. С. 207, 211.

AQSh da aholining qarishi muammosi dolzarb muammoga aylanib bormoqda. 65 yoshdan katta aholi ulushi 2030-yilga borib 20 %ni tashkil etishi bashorat qilinmoqda. Bu o'z navbatida ijtimoiy sug'urta va pensiya ta'minoti tizimida jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

6.2. AQSh iqtisodiyotining tarkibi va rivojlanish dinamikasi

AQSh iqtisodiyotining tarmoq tarkibi postindustrial ko'rinishga egaligi bilan ajralib turadi. Mamlakatda 26,5 mln. ga yaqin firmalar, jumladan, 5,3 mln. korporatsiyalar, 2,3 mln. hamkorlik tashkilotlari va 18,9 mln. xususiy (individual) tadbirkorlar mavjud. Mahsulotlar sotish hajmi (jami sotish hajmining 80 %) bo'yicha korporatsiyalar yetakchi mavqega ega. Jami sotish hajmining 41 % kichik va o'rta biznes hissasiga (500 mln. kishi band), 59 % esa yirik biznes hissasiga to'g'ri keladi. Kichik va o'rta biznes sohasida ishchi kuchining 52 % band bo'lsa, yirik biznesda ushbu ko'rsatkich 48 %ga teng. [1]

Mamlakat YaIM ning 77 % xizmatlar, 22 % sanoat va 1 % qishloq xo'jaligi sohasiga to'g'ri keldi. 1980–2010-yillarda yalpi ichki mahsulotning tarmoq tarkibida qishloq xo'jaligining ulushi 3 %dan 1 %gacha, sanoatning ulushi 34 %dan 21 %ga qisqargani holda, xizmatlar sohasining ulushi mutanosib ravishda 63 %dan 77 %gacha ortdi (6.2.1-jadval).

6.2.1-jadval
AQSh iqtisodiyotining tarmoq tarkibi, jamiga nisbatan, foiz hisobida

	1980-y.	1990-y.	2010-y.
Sanoat	34	28	22
Qishloq xo'jaligi	3	2	1
Xizmatlar sohasi	63	70	77

Manba: World Development Report 2012. World Bank. P. 396.

Postindustrial iqtisodiyot tarkibiga ega sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar ichida AQSh ning raqobatchisi yo'q. Xalqaro mehnat taqsimotida xizmatlar sohasiga ixtisoslashishi bo'yicha raqobat afzalligiga ega Fransiya (78 %), Belgiya (76 %) va Gonkong (92 %) kabi mamlakatlar iqtisodiyotining hajmi kichik bo'lganligi sababli AQSh ga raqobatchi bo'la olmaydilar.

AQSh sanoatida qayta ishlash sanoati yetakchi mavqega ega. Ushbu tarmoqda mamlakat YaIM ning taxminan 13 % yaratiladi va ishchi kuchining 15 % band. AQSh dunyoda qayta ishlash sanoati mahsulotlari hajmi (jahon ishlab chiqarish hajmining 30 %) bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi va uning hissasiga jahon mashinasozlik eksportining 14,0 %, kimyo sanoati mahsulotlarining 14,5 % to'g'ri keladi. AQSh qayta ishlash sanoatida bazaviy (kapital, material, energiya sig'imkorligi yuqori) tarmoqlardan fan sig'imkorligi yuqori tarmoqlarni rivojlantirish yo'liga o'tish jarayoni jadal sur'atlarda rivojlanmoqda.

AQSh qayta ishlash sanoatidagi tarkibiy o'zgarishlarning muhim xususiyati fan sig'imkorligi yuqori (kompyuterlar ishlab chiqarish, asbobsozlik, aviakosmos sanoati, kimyo mahsulotlari va yangi materiallar ishlab chiqarish) tarmoqlarni kompleks rivojlantirish hisoblanadi. AQSh da qabul qilingan tasnifga muvofiq fan sig'imkorligi yuqori tarmoqlarga ITTKI xarajatlari sotish hajmiga nisbatan 3,5 %dan kam bo'lmagan, ITTKI sohasida har ming kishiga 25 va undan ortiq tadqiqotchi to'g'ri keladigan tarmoqlar kiradi. Fan sig'imkorligi yuqori mahsulotlar quyidagi to'rt

1 Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник. /под ред. Проф. А. С. Булатова, проф. Н. Н. Ливенцева. — М.: Магистр, 2010. С. 263.

guruhga ajratiladi: kimyo, mashina va asbob-uskunalar, avikosmos sanoati mahsulotlari, maxsus ilmiy asboblar va instrumentlar.

AQSh da fan sig'imkorligi yuqori tarmoqlarning ustun darajada rivojlanishi quyidagi omillar bilan izohlanadi[1]:

- an'anaviy tarmoqlarga nisbatan yuqori jamg'arish normasiga egaligi. Misol uchun, 2007-yilda kompyuterlar va elektron mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida sof foydaning aksioner kapitalga nisbati 10,2 %ni, elektr asbob-uskunalarda 18,3 %ni tashkil etdi;
- milliy va xorijiy investorlar uchun jozibadorligi;
- Amerika korporatsiyalari tomonidan ITTKI ga sarflanayotgan moliyaviy resurslarning 80 %ga yaqini va ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etilayotgan kadrlarning 80 % ining fan sig'imkorligi yuqori tarmoqlarda konsentratsiyalashuvi;
- ushbu sohada mehnat unumdorligining o'rtacha yillik qo'shimcha o'sish sur'atlari 4 %ni tashkil etadi va bu ko'rsatkich boshqa tarmoqlarda 1–1,5 %ga teng;
- ishlab chiqarishda kompyuterlar va dasturiy ta'minotni yangilashning boshqa tarmoqlarga nisbatan jadalroq amalga oshirilishi;
- nisbatan katta bo'lmagan kapital qo'yilmalar yordamida ilmiy-texnik ishlanmalarning yuqori samaradorligini ta'minlovchi va ommaviy ishlab chiqarishda yangiliklarni joriy etishni jadallashtiruvchi venchur korxonalarning keng miqyosli tarmog'ini yaratish. Tahlillar ko'rsatishicha, Amerika iqtisodiyotining fan sig'imkorligi yuqori tarmoqlarida bu korxonalarning 20 %dan ortig'i faoliyat yuritadi.

AQSh qazib chiqarish sanoati mamlakat YaIM ning 1,3 %ni yaratsa-da, bu tarmoqning iqtisodiyotdagi mavqeyi katta. AQSh qazib chiqarish sanoatida neft va gaz qazib chiqarish yetakchi mavqega ega. AQSh neft qazib chiqarish bo'yicha dunyoda 2–3-o'rinlarni (jahon ishlab chiqarish hajmining 9 %), tabiiy gaz (23 %) va ko'mir (22 %) qazib chiqarishda 2-o'rinni egallaydi. Shu bilan bir vaqtda mineral resurslarga bo'lgan ichki iste'molning katta qismi import hisobidan qoplanadi: neft — 59 %, temir rudasi — 17 %, tabiiy gaz — 15 %, nikel — 63 %, boksit — 100 %, marganes — 100 %.

AQSh mehnat unumdorligi yuqori, rivojlangan qishloq xo'jaligiga ega mamlakat hisoblanadi. Ushbu tarmoqda mamlakat YaIM ning 1 % yaratiladi, 3,3 mln. kishi ishlaydi (jami ishchi kuchining 2,6 %). AQSh da 2,3 mln. fermer xo'jaliklari mavjud bo'lib, yillik mahsulot sotish hajmi 100 ming dollardan (fermerlarning 46,6 %) oshadigan fermerlar hissasiga qishloq xo'jalik mahsulotlarining 98 % to'g'ri keladi. Sotish hajmi 1 mln. dollardan oshadigan fermerlar (fermerlarning 1,4 %) hissasiga esa jami qishloq xo'jalik mahsulotlarining 41,7 % to'g'ri keladi. Ma'lumotlar ko'rsatishicha, AQSh da qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi yirik fermer xo'jaliklarida konsentratsiyalashgan. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotda sezilarli ulushga ega agrosanoat majmuasining tarkibiy qismi hisoblanadi va AQSh agrasanoat majmuasi mamlakat YaIM ning 15 %ni ishlab chiqaradi.

AQSh pul-kredit tizimida Federal zaxira tizimi (FZT) alohida o'rin tutadi. FZT Boshqaruvchilar kengashi — 12 ta federal zaxira banki va 6 mingga yaqin xususiy banklardan tashkil topgan. FZT Yevropa Markaziy bankidan farqli pul-kredit tizimidan tashqari makroiqtisodiy tartibga solishni ham amalga oshiradi. AQSh da 76 mingdan ortiq tijorat banklari (filiallari bilan birgalikda), 13 mingdan ortiq jamg'arma banklar, 53 mingta moliyaviy ipoteka institutlari, 28 mingga yaqin sug'urta

1 Давыдов А. Структурные изменение в американской экономике. //Мировая экономика и международные отношения, 2009, №11. С. 40–41.

kompaniyalari, 10 mingdan ortiq kredit ittifoqlari mavjud. Bundan tashqari, Yevropadan farqli AQSh da investitsiyalar va kapital oqib o'tish manbayi fond birjalari hisoblanadi. AQSh hissasiga jahon fond bozorining 40 % to'g'ri keladi[1].

AQSh tashqi iqtisodiy aloqalari. 2013-yilda AQSh tashqi tovarlar savdosining umumiy hajmi 3 trln. 909 mlrd. dollarni, eksport hajmi 1 trln. 579 mlrd. dollarni, importi esa 2 trln. 329 mln. dollarni tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasining YaIM dagi ulushi 30,1 %ga teng bo'ldi[2].

AQSh tashqi tovarlar savdosi balansining kamomadi 2013-yili 749,5 mlrd. dollarni tashkil etdi. Yirik joriy to'lov balansi qoldig'i AQSh ning xalqaro mehnat taqsimotidagi afzalliklaridan o'z manfaatlari yo'lida samarali foydalanishni aks ettiradi. AQSh xorijiy mamlakatlar, shu jumladan o'z TMK filiallaridan ishlab chiqarish xarajatlari past bo'lgan mahsulotlarni import qiladi. Bir tomondan, bu holat inflyatsiyaning o'sishini cheklasa, boshqa tomondan, AQSh kompaniyalariga murakkab, fan sig'imkorligi yuqori tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuviga imkon yaratadi.

AQSh jahon tovarlar eksportida 2013-yilda 2-o'rinni, importida 1-o'rinni, jahon xizmatlar eksporti va importida 1-o'rinlarni egalladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi AQSh tashqi savdosiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Misol uchun, 2009-yilda tovarlar eksporti va importi 2008-yilga nisbatan mos ravishda 18 va 26 %ga pasaydi (6.2.2-jadval).

6.2.2-jadval

AQSh tashqi savdosining hajmi va o'zgarishi, mlrd. doll.

	2013-y.	O'tgan yilga nisbatan o'zgarish, %				
		2005–2013-yillarda o'rtacha	2009-y.	2010-y.	2012-y.	2013-y.
Tovarlar eksporti	1579,6	7	-18	21	4	2
Tovarlar importi	2329,1	4	-26	23	3	0
Xizmatlar eksporti	662,0	8	-7	9	5	5
Xizmatlar importi	431,5	6	-8	7	4	4

Manba: Trade Profiles 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 193.

AQSh tashqi savdosining tovar tarkibida sanoat mahsulotlari yetakchi mavqega ega bo'lib, 2013-yilda sanoat mahsulotlarining tovarlar eksportidagi ulushi 71,2 %ni, tovarlar importida esa 70,9 %ni tashkil etdi (8.2.3-jadval).

AQSh tashqi savdosida raqobatbardosh sohalaridan biri xizmatlar sohasidir. AQSh xizmatlar savdosida barqaror ijobiy qoldiqqa ega bo'lib, 2013-yilda bu ko'rsatkich 230,5 mlrd. dollarni tashkil etdi. Xizmatlar savdosi hajmi turizm, transport, moliya, savdo litsenziyasi va royalti, telekommunikatsiya, ilmiy-texnik va boshqa xizmatlar hisobiga o'smoqda. Jumladan, 2013-yilda AQSh ning jahon xizmatlar eksportidagi ulushi 14,3 %ni tashkil etdi. [3]

1 Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник. /под ред. Проф. А. С. Булатова, проф. Н. Н. Ливенцева. — М.: Магистр, 2010. С. 266.

2 Trade Profiles 2011. WTO. Geneva, 2011. P. 92.; Trade Profiles 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 193.

3 Trade Profiles 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 193.

6.2.3-jadval
AQSh tashqi savdosining tovar tarkibi, %

Yillar	Oziq-ovqat mahsulotlari	Qishloq xo'jalik mahsulotlari	Yoqilg'i mahsulotlari	Qazib chiqarish sanoati mahsulotlari	Sanoat mahsulotlari	Shu jumladan:		
						Kimyo sanoati mahsulotlari	Mashinasozlik va transport mahsulotlari	Boshqa sanoat mahsulotlari
Eksport								
1995	10,1	3,7	1,8	3,8	77,5	10,6	48,3	18,7
2005	6,8	2,3	2,9	4,3	80,4	13,3	48,0	19,1
2013	9,0	2,1	9,4	6,4	63,6	13,2	33,8	16,6
Import								
1995	4,8	2,1	8,2	3,8	78,1	5,5	46,4	26,2
2005	4,2	1,3	17,2	3,4	70,6	7,6	38,3	24,7
2013	5,3	1,0	16,7	3,9	70,0	8,6	38,8	22,7

Manba: UNCTAD Handbook of Statistics 2014. New York and Geneva, 2014. P. 54,66.

AQSh tovarlar eksportida qayta ishlash sanoatining ulushi yetakchi maqega ega. Jumladan, 2013-yilda AQSh ning jahon avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari savdosidagi ulushi 8,4 %ni, ofis va telekommunikatsiya jihozlari savdosida 7,5 %ni, kimyo sanoati mahsulotlari savdosida 11,1 %ni tashkil etdi.

AQSh ning asosiy tashqi savdo hamkorlari rivojlangan mamlakatlar hisoblanadi. Tahlillar, AQSh tashqi savdo aylanmasining geografik tarkibida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'layotganini ko'rsatmoqda. Jumladan, 1995–2013-yillarda AQSh tovarlar eksporti va importi tarkibida rivojlangan mamlakatlar ulushi mos ravishda 59,0 % va 56,8 %dan 45,0 va 40,6 %ga qadar qisqarib, rivojlanayotgan mamlakatlar ulushi tegishlicha 40,4 % va 42,5 %dan 54,0 % va 58,0 %ga qadar oshgan. Mamlakat eksporti tarkibida rivojlangan mamlakatlar hissasining qisqarishi Yaponiya ulushining 11,0 %dan 4,1 %ga qadar qisqarishi, import tarkibida esa rivojlanayotgan mamlakatlar hissasining ortishi, jumladan Xitoy ulushining (2005-yilda 15,0 %) 19,8 %ga qadar o'sishi bilan izohlanadi (6.2.4-javdal).

6.2.4-jadval
AQSh tashqi tovar aylanmasining geografik tarkibi, jamiga nisbatan, %da

Yillar	Jami	Rivojlangan mamlakatlar				Rivojlanayotgan mamlakatlar	O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari
		Jami	Yel-28	Yaponiya	Boshqalar		
eksport							
1995	100	59,0	21,8	11,0	26,2	40,4	0,6
2005	100	54,9	20,7	6,1	28,1	44,4	0,7
2013	100	45,0	16,7	4,1	24,2	54,0	1,0
import							
1995	100	56,8	18,1	16,5	20,7	42,5	0,7
2005	100	46,4	18,5	8,2	18,5	52,5	1,2
2013	100	40,6	17,0	6,1	16,0	58,0	1,4

Manba: UNCTAD Handbook of Statistics 2014. New York and Geneva, 2014. P. 122, 134.

AQSh xalqaro kapitallar migratsiyasining faol ishtirokchisi va dunyodagi eng yirik xalqaro investori hisoblanadi. Misol uchun, 2013-yilda AQSh da chetga eksport qilingan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 188 mlrd. dollarni, jalb etilgan investitsiyalar hajmi esa 338 mlrd. dollarni tashkil etdi. 2013-yilda jahondagi chetga eksport qilingan va jalb etilgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar tarkibida AQSh ning ulushi mos ravishda 24,0 va 12,9 %ga teng bo'ldi[1]. Chetga kapital chiqarish asosan TMK tomonidan amalga oshiriladi va 2013-yilda dunyodagi birinchi 500 ta TMK ning 202 tasi AQSh ga tegishli bo'ldi[2]. 1990–2013-yillarda AQSh iqtisodiyotiga chetga chiqarilgan va chetdan jalb etilgan TTXI ning jamg'arilgan qiymati mos ravishda 731,8 va 539,6 mlrd. dollardan 6,4 va 4,9 trln. dollarga qadar oshgan.

6.2.1-diagramma

AQSh iqtisodiyotida chetga chiqarilgan va chetdan jalb etilgan TTXI ning jamg'arilgan qiymati, mlrd. doll.



	1990-y.		2000-y.		2013-y.	
Chetga chiqarilgan TTXI oqimi	731,8		2694		6349,5	
Chetdan jalb etilgan TTXI oqimi		539,6		2783,2		4935,2

Manba: World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. New York and Geneva, 2014. P. 209.

AQSh jahondagi ishchi kuchini jalb etuvchi yirik markazlardan biri hisoblanadi. Jumladan, 1991–2004-yillarda 12,4 mln. kishi AQSh da yashash uchun ruxsat olgan va bu ko'rsatkich 1970-yillarga nisbatan 70 marta ko'p. Bundan tashqari, AQSh ga har yili 200–300 ming norasmiy migrant, asosan, Lotin Amerikasidan kirib keladi. Immigrantlar AQSh iqtisodiyotiga, jumladan, malakali kadrlar sifatida ilmiy-texnik sohasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, kompyuter, muhandislik, matematika, biologiya sohalarida yuqori malakali mutaxassislar migrantlarning umumiy hajmida 30 %dan 50 %gacha qismini tashkil etadi.

6.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining AQSh iqtisodiyotiga ta'siri

Hozirgi global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning kelib chiqish sabablari borasida iqtisodchi olimlar, amaliyotchilar qarashlarida turlicha yondashuvlar mavjud. Ayrimlar bu inqiroz AQSh iqtisodiyotida ro'y bergan iqtisodiy tanglik holatidan

1 World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. New York and Geneva, 2014. P. 205.
2 www.vedomosti.ru

boshlanganligini ta'kidlashsa, boshqalari oltin stantartidan voz kechish va bozor iqtisodiyoti tizimining kamchiligi bilan bog'liq deyishmoqda. Shu bilan birga hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi asosida fundamental, xususan, makroiqtisodiy, mikroiqtisodiy va institutsional omillar yotganini qayd etish lozim.

Tahlillar AQSh iqtisodiyotida ro'y bergan retsessiya sabablarini quyidagicha tasniflash imkonini beradi.

Uy-joy bozorida kapitalning ortiqcha to'planishi. 2000-yilda fond bozoridagi pasayishlar tufayli aholi jamg'armalari, asosan, uy-joy qurilishi sektoriga yo'naltirildi. Ushbu holat uy-joy narxlarining keskin oshishiga olib keldi. Xususan, 1997–2006-yillarda tipik Amerika uylarining narxi o'rtacha 124 %ga qimmatlashdi. 1990-yillarda uylarning o'rtacha narxi oilalarning 2,9–3,1-yillik daromadi miqdorida tebranib turgan bo'lsa, 2004-yilga kelib ushbu ko'rsatkich oilalarning yillik daromadidan 4 martaga, 2006-yilda esa 4,6 martaga oshib ketdi[1]. Uy-joy bozorida boshqa sohalarga nisbatan kapitalning ortiqcha to'planishi moliyaviy-iqtisodiy inqirozning asosiy katalizatoriga aylandi.

Jadal sur'atlarda kengayayotgan ipoteka bozori bilan bog'liq holda chiqarilgan derivativlarning ortiqcha ishlab chiqarilishi. Ipoteka bozoriga quyidagi ikki yo'nalishga oid omillar ta'sir etgan. Birinchidan, Federal zaxira tizimi (FZT) qayta hisobga olish stavkasining pastligi (2004-yilda 1 %) va xorijdan arzon moliyaviy resurslarning jalb etilishi tufayli kredit resurslar qiymatining arzonlashuvi. Bu holat ipoteka bozorida keng miqyosli qarz olish, shu jumladan, «ishonchsiz qarz oluvchilar» tomonidan qarz olishga olib keldi. 2007-yilning martida «ishonchsiz qarz oluvchilar» soni 7,5 mln. kishiga va ular olgan kreditlar miqdori esa 1,3 trln. dollarga yetdi. Ushbu turdagi kreditlarning jami kreditlar hajmidagi ulushi 2004-yilda 10 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2006-yilga kelib 20 %ga yetdi. Ikkinchidan, ipoteka kreditlari va uy-joyga bo'lgan talabning ortishi sekyuritizatsiya mexanizmining tarqalishiga olib keldi. Bu mexanizm ipoteka bozorida kreditorlar riskini qarz oluvchilarning qarz majburiyati asosida obligatsiyalar chiqarish va davlat kafolatlarini berish yo'li bilan minimallashtirishni nazarda tutadi. Bunda obligatsiyalar ochiq bozorlarda oldi-sotdi qilinadi va kreditorlar riski ularning egalariga o'tib qoladi.

FZT amalga oshirgan pul-kredit siyosatining o'zgarishi natijasida bu tizim jiddiy inqirozga yuz tutdi. 2004–2006-yillarda FZT foiz stavkalarni 5,25 %gacha ko'tarishi natijasida 2007-yil boshida AQSh da aholining ipoteka kreditlarini qaytarishi bilan bog'liq muammo kuchaydi. Qarzdorlarning ko'chmas mulk garovi bilan olingan kreditlarni qaytarishdan ko'ra to'lovlarni to'lashdan bosh tortish holati ko'lami kengaydi va kuchaydi. Banklarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan mijozlarning ko'chmas mulklarini qayta sotuvga qo'yishi natijasida ipoteka bozoridagi taklif ko'payib, bozordagi narxlarning keskin pasayishiga olib keldi. 2007-yilda kreditorlar 1,3 mln. ta uy-joyni qarzdorlardan tortib olishni boshlashdi va bu ko'rsatkich 2006-yilga nisbatan 73 %ga ko'paydi. 2008-yilda bu ko'rsatkich 2,3 mln. ta uy-joyga tegishli bo'lib, 2009-yilning sentyabriga kelib AQSh dagi jami uy-joy egalari 14,4 %ga yetdi[2].

Amerika ipoteka inqirozining tahlili yana shuni ko'rsatadiki, ipoteka kreditlari uy-joy narxining 120–130 foizi miqdorida berilgan. Ya'ni, 100 ming dollarga narxlangan uy uchun 120–130 ming dollar kredit ajratilgan. Bu hol, tabiiyki, qarz

1 Супян В. Б. США: уроки кризиса. //США и Канада, №7, 2010. С. 6.

2 U. S. Economic Forecasts. P. 99. http://www.e-forecasting.com/US Economic Forecasts.htm.

oluvchiga kredit qaytarishda qo'shimcha og'irlik yuki tushirgan. Shundan so'ng banklar kreditni qaytara olmagan karzdorlardan olib qo'yilgan uy-joylarni sota boshlagan.

Qarz oluvchilarning keng miqyosda kreditlarni qaytarmasligi qarz oluvchilarning qarz majburiyati ostida chiqarilgan obligatsiyalarning qadrsizlanishi, ipoteka banklari va boshqa ipoteka derivativlariga ega moliyaviy institutlarda likvidlik inqirozini keltirib chiqardi. Bu esa, o'z navbatida, uy-joy narxining keskin tushib ketishi va uy-joy qurilishi bilan bog'liq tarmoqlarda talabning qisqarishiga olib keldi. 2008-yilning sentyabriga kelib uy-joylar narxi 2006-yilga nisbatan o'rtacha 20 %ga tushib ketdi[1].

Bank va boshqa moliya institutlarida iqtisodiyotni kreditlash uchun resurslarning yetishmasligi. 2008-yilda AQSh iqtisodiyotining aksariyat tarmoqlarida investitsion faollik keskin pasayib, deyarli to'xtab qoldi.

Xomashyo va neft narxining jadal sur'atlarda oshishi. Bir barrel neft narxining 150 dollargacha oshib ketishi AQSh da benzin narxining ikki baravar oshishiga olib keldi. Natijada iste'mol va ishlab chiqarish talabining qisqarishi yuz berdi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish dastaklarining samarasiz ekanligi. Davlatning derivativlarni moliyaviy institutlar tomonidan mustaqil boshqarishga ruxsat berishi natijasida 2008-yilda jami derivativlar hajmi 683 trln. dollarni tashkil etdi. Xususan, kreditli, defoltli svoplar hajmi 1988–2008-yillarda 100 baravarga oshgan[2].

Amerika aholisi va davlat qarzining yuqoriligi. Amerika aholisining ipoteka bo'yicha qarzi 1990-yillarda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 46 %ni tashkil etgani holda bu ko'rsatkich 2008-yilga kelib 78 %ga teng bo'ldi va 10,5 trln. dollarni tashkil etdi. Xususiy qarzlar ulushi iste'mol kreditlari bilan birgalikda 1981-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 123 %ga teng bo'lgan holda, bu ko'rsatkich 2008-yilda 209 %ni tashkil etdi va deyarli 21 trln. dollarga tenglashdi. Bu davrda banklarning qarzi keskin oshib ketdi. Jumladan, yirik beshta investitsion banklarning («Leman Brazers» — keyinchalik bankrot bo'ldi, «Bear Sterns» va «Meril Linch» — sotildi, «Goldman Saks» va «Morgan Stenli» — tijorat banklariga aylantirildi) qarzi 2004–2007-yillarda 4,1 trln. dollarga yetdi[3].

Davlatning tashqi qarzi 2006-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 63,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2010-yilga kelib 93,2 %ga teng bo'ldi[4]. AQSh aholisi va davlat qarzi turli ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Chunki AQSh g'aznachiligining davlat obligatsiyalari ko'rinishidagi davlat qarzi hech qachon bir vaqtning o'zida qaytarilmaydi. Qisqa muddatli iste'mol kreditlari olti oydan bir yil muddatgacha qaytarilishi tufayli jiddiy xavf tug'dirmaydi. Moliyaviy inqirozning tahlili ko'rsatishicha, ipoteka bo'yicha qarzlar esa ularga xizmat ko'rsatish imkoniyati bo'lmagan hollarda iqtisodiyotda jiddiy muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

Tabiiy ofatlar va suv toshqinlari. Ushbu tabiiy ofatlar mamlakat iqtisodiyotiga yuz millionlab dollarlik iqtisodiy zarar keltirdi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan sabablar oqibatida AQSh iqtisodiyotida retsessiya holati boshlandi va yalpi ichki mahsulot 2008-yilda 2007-yilga nisbatan — 0,3 %ga, 2009-yilda 2008-yilga nisbatan — 2,8 %ga pasaydi (6.3.1-jadval).

1 Супян В. Б. США: уроки кризиса. //США и Канада, №7, 2010. С. 5.
2 Economic Report of the President. Washington. 2010. P. 99.
3 Супян В. Б. США: уроки кризиса. //США и Канада, №7, 2010. С. 7.
4 Оверченко М. Три угрозы мировой экономике. /Ведомости, 14.03.2011.

6.3.1-jadval
AQSh dagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi

	1995–2005-yy.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.
YalM	3,4	2,7	1,8	-0,3	-2,8	2,5	1,6	2,3	2,2
Xususiy iste'mol xarajatlari	3,9	3,0	2,2	-0,3	-1,6	1,9	2,3	1,8	2,4
Davlat iste'moli	2,0	1,1	1,4	2,5	3,7	0,1	-2,7	-0,6	-1,3
Yalpi jamg'arish	5,1	2,2	-1,2	-4,8	-13,1	1,1	3,7	5,3	2,7
Ichki talab	3,9	2,6	1,4	-0,9	-3,1	1,5	1,7	2,1	1,9
Inflyatsiya	2,5	3,2	2,9	3,8	-0,3	1,6	3,1	2,1	1,5

Manba: World Economic Outlook: October 2001. IMF, 2001. P. 185.; World Economic Outlook: October 2014. IMF, 2014. P. 159.

2008-yilning 11-oyida bandlik darajasining oyiga o'rtacha 137 ming kishiga pasayib borishi 2008–2009-yillarda ishsizlik darajasining 5 %dan 10 %gacha ortishiga olib keldi[1].

AQSh ning inqirozga qarshi chora-tadbirlari. AQSh hukumati 2008-yildan boshlab qarz oluvchilarga moliyaviy yordam ko'rsatish va moliya institutlariga davlat investitsiyalarini kiritishni ko'zda tutuvchi qator qonun va dasturlar ishlab chiqdi. AQSh da davlat tomonidan shu maqsadda «Iqtisodiy barqarorlik to'g'risida»gi favqulodda, «Iqtisodiyotni rag'batlantirish to'g'risida»gi va «Amerikani tiklash va reinvestitsiyalash to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi.

AQSh hukumatining inqirozga qarshi amalga oshirilgan birinchi dasturi. AQSh kongressi tomonidan 2008-yil oktyabr oyida «Iqtisodiy barqarorlik to'g'risida»gi favqulodda qonun qabul qildi. Ushbu dasturga muvofiq, 700 mlrd. dollarga teng mablag' inqirozga uchrayotgan bank va moliya tashkilotlari zararlarini qoplash, shu orqali muammoning chuqurlashib ketishi oldini olish uchun sarflandi. Bu tadbir mamlakatning sobiq moliya vaziri nomi bilan «Polson rejasi» deb ataladi va quyidagi chora-tadbirlarni qamrab oldi:

- AQSh moliya vazirligi bank va moliya kompaniyalarining muammoli ipoteka qimmatbaho qog'ozlarini 700 mlrd. dollar hajmda 2009-yil 31-dekabrga qadar sotib olish huquqiga ega bo'ldi;
- AQSh moliya vazirligi tarkibida maxsus bo'linma tuzilib, u federal rezerv tizimi, uy-joy qurilish va shaharni rivojlantirish vazirligi, qimmatli qog'ozlar va birjalar komissiyasi bilan hamkorlikda bank va kompaniyalardan muammoli aktivlarni baholash metodikasi va sotib olish mexanizmini ishlab chiqishi kerak;
- banklar yuqori riskli ipoteka qimmatli qog'ozlar bozorini sug'urtalash tizimining qatnashchisi bo'lishi kerak;
- Moliya vazirligi moliya kompaniyalari va banklardan sotib olingan muammoli ipoteka qimmatli qog'ozlarini keyinchalik bozorda sotishi yoki so'ndirilish muddatiga qadar saqlashi mumkin;
- dasturning eng yirik qatnashchilari davlatga aksiya yoki qarz dastaklarini sotib olish huquqini berish orqali ularning kapitallashuvi o'sib borishi orqali byudjetga daromad kelib tushishi ta'minlanadi;

1 Economic Report of the President. Washington. 2010. P. 75.

- fuqaro va yuridik shaxslarning bankdagi omonatlarini majburiy sug'urtalash hajmi 100 mingdan 250 ming dollargacha yetkazilishi kerak. 2009-yil 31-dekabriga qadar muddatda davlat tomonidan qo'yilgan omonatlar 100 foiz kafolatlanadi;
- qimmatbaho qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiya dastur doirasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda amal qilayotgan buxgalteriya hisobi qoidalarini qayta ko'rib chiqishi mumkin (hamma aktivlar joriy baholarda baholanadi);
- Moliya vazirligi buziladigan ipoteka shartnomalari sonini minimallashtirish maqsadida ularni restrukturizatsiya qilish choralarini ishlab chiqishi zarur;
- xonadon xo'jaligi va korxonalarga 150,5 mlrd. dollar miqdorida soliq imtiyozlari beriladi;
- AQSh davlat qarzining chegaraviy hajmi 10 mlrd. dan 11,3 mlrd. dollargacha ko'paytirilishi kerak.

AQSh iqtisodiyotini tiklash, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga qaratilgan choralar dasturi. 2009-yilning yanvarida AQSh hukumati iqtisodiyotni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida navbatdagi «Amerikani tiklash va reinvestitsiyalash to'g'risida»gi qonunni qabul qildi va bu qonunga muvofiq soliq imtiyozlari, ijtimoiy dasturlar, turli investitsiya loyihalari uchun 787 mlrd. dollar mablag' sarflanishi rejalashtirilgan. Ushbu qonun doirasida «Amerikani tiklash va reinvestitsiyalash rejasi» ishlab chiqildi va u ikki qismdan iborat. Birinchi qism rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlaridan, ikkinchi qismi esa infratuzilma, investitsiya, fan, ta'lim va ijtimoiy dasturlarni qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutadi (6.3.2-jadval).

6.3.2-jadval

AQSh ning inqirozga qarshi kurash dasturining tarkibiy yo'nalishlari (American Recovery and Reinvestment Act)

Yo'nalishlar	Mlrd. doll.	Ulushi, %
Soliq yukini kamaytirish	288	36,6
Shtatlarni va mahalliy hokimiyat organlarini soliqlardan ozod qilish	144	18,3
Infratuzilma va fan	111	14,4
Ijtimoiy himoya	81	10,3
Sog'liqni saqlash	59	7,5
Maorif	53	6,7
Energetika	43	5,5
Boshqalar	8	1,0
Jami	787	100

Manba: www.recovery.gov

Rejada ko'zda tutilgan chora-tadbirlar quyidagi vazifalarni hal etish imkonini beradi:

- uch mln. ishchi o'rnini yaratish va saqlab qolish;
- sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiyalash;
- muqobil manbalar hisobidan energiya ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va uning hajmini har uch yilda ikki baraborga oshirish;
- federal mulk hisobida turuvchi binolarning 75 %ni qayta ta'mirlash (jumladan, maktablar va bir millionga yaqin xususiy uylar);
- 7 mln. talaba uchun grant tizimida o'qishni moliyalashtirishni amalga oshirish, o'qish uchun to'lovlar bo'yicha soliqlarni pasaytirish;

- infratuzilmani rivojlantirish uchun keng miqyosli investitsiyalarni amalga oshirish, jumladan, yo'llar, ko'priklar, dambalar, jamoat transporti tizimi, temiryo'llar, aeroportlar qurish va ta'mirlash;
- 129 mln. ish bilan band uy xo'jaliklarining har biriga 800 dollar miqdorida soliqdan ozod qilish maqsadida mablag' ajratish.

AQSh ning moliyaviy tartibga solish tizimini isloh qilishga qaratilgan rejasi: (B. Obama rejasi, 2009-yil iyun).

- moliya kompaniyalari ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida ularga kapital bilan ta'minlanish darajasini oshirish hamda xedj fondlariga esa qimmatbaho qog'ozlar va birja komissiyasidan ro'yxatdan o'tish yuklatildi;
- bankrot yoqasiga kelib qolgan kompaniyalarning boshqaruvini davlat o'z qo'liga olishi mumkin;
- bozorlarda, shu jumladan derivativlar savdosining shaffoflik darajasini oshirish maqsadida yangi qoidalar kiritiladi va reyting agentliklari faoliyati ustidan kuchli nazorat o'rnatiladi. Qarzdorlik dastaklarini chiqaruvchi banklar o'z zimmasiga kredit riskining 5 foizni olishga majbur.
- moliya xizmatlari iste'molchilarini himoya qilishga qaratilgan yangi agentlik shu maqsadda tuzildiki, iste'molchilar sotib olayotgan xizmat xavfsizligiga ishonishlari kerak (ipoteka krediti yoki kredit kartalari);
- turli mamlakatlarda faoliyat ko'rsatayotgan yirik moliyaviy institutlar faoliyatini tartibga solish koordinatsiyalashuvini kuchaytirish.

AQSh hukumatining 2009–2010-yillardagi rag'batlantirish dasturlarining o'zigina yalpi ichki mahsulotga nisbatan mos ravishda 2 va 2,3 %ni tashkil etdi. Qayd etib o'tilgan uchta qonun davlatning inqirozga qarshi moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralarini o'z ichiga oladi va umumiy miqdori 1,6 trln. doll. yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 11,5 %ni tashkil etdi.

6.4. O'zbekiston va AQSh tashqi iqtisodiy aloqalari

AQSh va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning kelib chiqish tarixi, rivojlanish dinamikasi, shart-sharoitlari va omillariga e'tibor beradigan bo'lsak, bu hamkorlik bosqichma-bosqich rivojlanib kelganligi va jadal sur'atlarda rivojlanayotganligini kuzatish mumkin. AQSh va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni uch bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich mustaqillikning dastlabki uch yilini o'z ichiga oladi. AQSh 1991-yilning 25-dekabrida O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini tan oldi va 1992-yilning 19-fevralida ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

1993-yildan boshlab AQSh va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarning ikkinchi bosqichi boshlandi. Jahonning yetakchi davlati hisoblangan, ulkan siyosiy, iqtisodiy, harbiy-texnik va intellektual salohiyatga ega bo'lgan davlat AQSh bilan hamkorlik 90-yillarning o'rtalariga kelib ko'p tomonlama va o'zaro foydali ahamiyat kasb etdi. O'zaro hamkorlik munosabatlarining ikkinchi bosqichi 2001-yil 11-sentyabr voqealariga qadar davom etdi. Bu davrda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida iqtisodiyotning o'sishiga erishildi. Jahon hamjamoatchiligida, xususan AQSh nigohida O'zbekiston O'rta Osiyo mintaqasi xavfsizligini ta'minlash, xalqaro terrorizmga qarshi kurashda yetakchi kuch sifatida qarala boshlandi. Natijada AQSh tomonidan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik va iqtisodiy islohotlarning o'ziga xosligi tan olinib, bu yo'nalishda hamkorlik rivojlana boshlandi.

Hamkorlikning yangi sifatidagi strategik sheriklikka asoslangan uchinchi bosqichi 11-sentyabr voqealaridan keyin boshlandi. O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi

xalqaro terrorizmga, narkobiznesga qarshi kurash, mintaqada barqarorlikni ta'minlash bo'yicha manfaatlarning mushtarakligi natijasida uzoq yillar davomida Afg'onistonga o'rnashib olgan terrorizm markazini yo'qotish imkoniyati paydo bo'ldi. Ushbu manfaatlarning mos kelishi ikkala mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni strategik sheriklik darajasiga olib chiqdi.

O'zbekiston bilan AQSh ning o'zaro manfaatli savdo munosabatlarini yo'lga qo'yish va rivojlantirishga qaratilgan faol sa'y-harakatlari o'zining ijobiy samarasini berdi.

AQSh O'zbekistonning yirik savdo-iqtisodiy hamkori hisoblanadi va ikkala mamlakat o'rtasidagi savdo aylanmasi 2013-yilda 443,1 mln. dollarni tashkil etdi va 2000-yilga nisbatan 2,2 martaga oshdi (6.4.1-jadval).

O'tgan davr mobaynida ikki tomonlama savdo munosabatlarini yo'lga qo'yish negizida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor sohalari ham belgilanib bordi. Shunga ko'ra, Amerika kompaniyalari tog'-kon va neft-gaz mazmunda qator ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirishda, agrosanoat majmuyi, oziq-ovqat sanoati va transport infratuzilmasining texnologik bazasini rivojlantirishda ishtirok etmoqda.

6.4.1-jadval

O'zbekiston va AQSh tashqi savdo aylanmasi, mln. doll.

	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.
Tashqi savdo aylanmasi	199,0	262,1	183,2	366,6	443,1
Eksport	158,0	110,1	51,1	72,2	49,6
Import	41,0	152,0	132,1	294,4	393,5
Saldo	117	-41,9	-81,0	-222,2	-343,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi ma'lumotlari.

O'zbekiston AQSh ning savdo va rivojlanish agentligi, Xorijdagi xususiy investitsiyalar korporatsiyasi bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. Misol uchun, AQSh ning savdo va rivojlanish agentligi tomonidan oltin qazib olish, uyali va kabel televideniyasi tizimlarini rivojlantirish bo'yicha umumiy qiymati 224,1 mln. dollarlik uchta loyiha sug'urta qilingan. Bundan tashqari, xorijdagi xususiy investitsiyalar korporatsiyasi O'zbekistonda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida investitsiya loyihalarini amalga oshirish, sug'urta kafolati vositasida AQSh kompaniyalarini davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish jarayonlariga jalb etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi loyihalarga xususiy investitsiyalarni jalb etish borasida muntazam hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Respublikada AQSh investorlari ishtirokida tashkil etilgan 300 dan ortiq korxona, jumladan, 200 dan ortiq qo'shma korxonalar va 100 ga yaqin to'liq AQSh sarmoyasiga asoslangan korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur korxonalar faoliyati sanoatning tog'-kon, kimyo, yengil sanoat, oziq-ovqat va mashinasozlik kabi sohalarini qamrab oladi. Misol tariqasida «Jeneral Motors», «Keyz korporeyshn», «Koka-Kola», «Teksako», «Beyker Xyuz», «Dyunevent», «Prokter end Gembl», «Ey-Ay-Dji» kabi yirik kompaniyalarni keltirish mumkin. Xususan, 2011-yilda «Jeneral Motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda avtomobillarning kuchlanish agregatlarini

ishlab chiqaradigan korxonaning foydalanishga topshirilishi mamlakat ichki ehtiyojlarini to'liq ta'minlash yoki mahalliy avtomobillarni mahalliylashtirish darajasini oshirish bilan birgalikda avtomobil dvigatellarini tashqi bozorlarga eksport qilish imkonini ham yaratadi.

O'zbekiston va AQSh o'rtasida tog'-kon, samolyotsozlik, mashinasozlik va transport infratuzilmasi, iqtisodiyotning texnologik bazasini rivojlantirish, AQSh kompaniyalarining axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar sohasidagi tajribasidan foydalanish, marketing, injiniring, lizing va invesitsiya xizmatlari, logistika, xalqaro yuk tashish sohasi, iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun menejer va mutaxassislar tayyorlash, malakasini oshirish bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirishda iqtisodiy hamkorlik katta istiqbollarga ega.

Asosiy tushunchalar

Bazaviy tarmoqlar — kapital, material, energiya sig'imkorligi yuqori tarmoqlar.

Fan sig'imkorligi yuqori tarmoqlar — ITTKI xarajatlari sotish hajmiga nisbatan 3,5 %dan kam bo'lmagan, ITTKI sohasida har ming kishiga 25 va undan ortiq tadqiqotchi to'g'ri keladigan tarmoqlar.

Federal zaxira tizimi (FZT) — AQSh da markaziy bank vazifasini bajaruvchi, pul-kredit tizimi bilan birgalikda makroiqtisodiy tartibga solishni ham amalga oshiruvchi tizim.

Davlat byudjeti — davlat daromadlari va xarajatlarining pul bilan ifodalanadigan yillik majmuyi.

Davlat qarzi — davlatning fuqarolar, banklar, korxona va tashkilotlar, xorij mamlakatlaridan qarzi bo'lib, manbayiga ko'ra ichki va tashqi qarzga bo'linadi.

«Ishonchsiz qarz oluvchilar» — to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan holda kredit olgan va kreditlarni qaytara olmagan qarz oluvchilar.

Ipoteka inqirozi — ipoteka bozori bilan bog'liq holda chiqarilgan derivativlarning ortiqcha ishlab chiqarilishi natijasida yuzaga kelgan inqiroz.

«Polson rejasi» — 700 mlrd. dollarga teng mablag'ning AQSh da inqirozga uchrayotgan bank va moliya tashkilotlari zararlarini qoplash yomon aktivlarni sotib olish va shu orqali muammoning chuqurlashib ketishi oldini olish uchun sarflanishi.

Nazorat savollari

1. AQSh iqtisodiyotining rivojlanish omillari nimalardan iborat?
2. AQSh iqtisodiyotining zamonaviy xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
3. AQSh iqtisodiyotida davlatning o'rni qanday?
4. AQSh iqtisodiyoti qanday tarkibga ega?
5. AQSh tashqi iqtisodiy aloqalarining tarkibini baholang va diversifikatsiyalash yo'nalishlarini aniqlang.
6. AQSh iqtisodiyotida ro'y bergan retsessiya sabablari nimalardan iborat?
7. AQSh hukumatining jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi kurash dasturlarining xususiyatlari va yo'nalishlari nimalardan iborat?
8. O'zbekiston va AQSh iqtisodiy hamkorligi holatini baholang va rivojlanish istiqbollarini aniqlang.

7-BOB. G'ARBIY YEVROPA IQTISODIYOTI TARKIBI VA INTEGRATSIYA JARAYONLARINING CHUQURLASHUVI

7.1. G'arbiy Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha guruhlanishi va integratsiya jarayonlari

Jahon iqtisodiyotida XX asr o'rtalariga qadar Yevropa yetakchilik mavqeyini egallab kelgan bo'lsa, Ikkinchi jahon urushining salbiy oqibatlari tufayli iqtisodiy salohiyat jihatdan AQSh dan ancha ortda qola boshladi. Yevropaning qayta tiklanishi va rivojlanishining asosiy kuchi sifatida bozor, xususiy tadbirkorlik, raqobat, davlat boshqaruvi asosidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni kuzatish mumkin.

G'arbiy Yevropa 24 ta mamlakatni qamrab oladi va ushbu mamlakatlarni hududining kattaligi jihatdan quyidagi to'rt guruhga ajratish mumkin:

- yirik mamlakatlar — Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Shvetsiya, Finlandiya, Norvegiya;
- o'rta mamlakatlar — Islandiya, Gretsiya, Portugaliya, Irlandiya, Avstriya;
- kichik mamlakatlar — Daniya, Belgiya, Niderlandiya, Shveysariya;
- juda kichik — «qo'g'irchoq» mamlakatlar — Lyuksemburg, Lixtenshteyn, Malta, Andorra, San-Marino, Monako, Vatikan.

G'arbiy Yevropa yagona iqtisodiy hudud sifatida jahon xo'jaligida sanoat va qishloq xo'jaligi, tovarlar va xizmatlar eksporti, oltin-valyuta zaxirasi va xalqaro turizmning rivojlanganlik darajasi bo'yicha yetakchi o'rinda turadi. G'arbiy Yevropa xalqaro mehnat taqsimotida sanoati (mashinasozlik, kimyo, elektrotexnika) rivojlangan hudud sifatida tan olingan. XX asr boshiga kelib G'arbiy Yevropa xalqaro mehnat taqsimotida ofis jihozlari, aniq mexanika, optika, telekommunikatsiya, aloqa vositalari kabi tarmoqlar bo'yicha mustahkam o'rin egalladi.

Yevropa iqtisodiyotining global raqobatbardoshligini ta'minlab beruvchi tarmoqlar quyidagilar hisoblanadi:

a) an'anaviy tamroqlar:
- avtomobilsozlik — Germaniya, Fransiya;
- aviatsiya sanoati — Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya;
- to'qimachilik sanoati — Italiya, Fransiya.

b) yangi tarmoqlar:
- dasturiy ta'minot — Germaniya, Belgiya, Gollandiya;
- raqamli televideniye — Fransiya, Germaniya;
- mobil aloqa — Shvetsiya, Finlandiya, Buyuk Britaniya.

G'arbiy Yevropa yuqori darajada integratsiyalashganligi bilan ajralib turadi. G'arbiy Yevropa integratsiyasiga a'zo mamlakatlar iqtisodiy siyosatini o'zaro muvofiqlashtirish, iqtisodiy va siyosiy hamkorlik afzalliklaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

G'arbiy Yevropada integratsion jarayonlar 1950-yilda (1952-yildan Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi) Fransiya, GFR, Italiya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg tomonidan erkin savdo hududini tashkil etishdan boshlandi. Ushbu mamlakatlar 1957-yilda Rim iqtisodiy hamkorlik shartnomasini imzolashdi. 1958-yili G'arbiy Yevropada «Yevrotom» birlashmasi tashkil qilindi. Rim shartnomasini imzolagan mamlakatlar Yevropa hamkorligi yoki umumiy bozor mamlakatlari, deb atala boshlandi.

1993-yili Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi Yevropa Ittifoqi (YeI) sifatida qayta tashkil qilindi. YeI ga a'zo bo'lishda demokratiya tamoyillariga rioya etish, inson huquqlari va erkinligini hurmat qilish, raqobatbardosh bozor iqtisodiyotiga ega bo'lish, YeI ning umumiy qoida va standartlarini tan olish kabi Kopengagen mezonlariga rioya qilish talab etiladi.

7.1.1-jadval
Yevropa Ittifoqi integratsiyasining bosqichlari

Sanasi	Huquqiy asosi	Maqsadi	A'zolari
25.03.1957-y.	Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini tashkil etish to'g'risidagi Rim kelishuvining imzolanishi	Bojxona ittifoqi va yagona ichki bozorni shakllantirish	Germaniya, Fransiya, Belgiya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya
08.04.1965-y.	Yel Kengashi va Komissiyasini ta'sis etish		Germaniya, Fransiya, Belgiya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya
01.07.1968-y.	Bojxona ittifoqi shakllanishining tugashi		Germaniya, Fransiya, Belgiya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya
29.06.1985-y.	Oq kitobning nashr etilishi (279 ta chora-tadbirlardan iborat yagona ichki bozorning shakllanishini tugatish rejasi)	Yagona ichki bozorga o'tish muddatlarining belgilanishi — 1992-yil dekabr	Germaniya, Fransiya, Belgiya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya, Gretsiya, Ispaniya, Portugaliya
17.02.1986-y.	«Yagona Yevropa Akti»ning imzolanishi		
06.02.1992-y.	Yel to'g'risidagi Maastrixt shartnomasining imzolanishi	Iqtisodiy va valyuta ittifoqining tuzilishi	Germaniya, Fransiya, Belgiya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya, Gretsiya, Ispaniya, Portugaliya, Avstriya, Finlyandiya, Shvetsiya
1.01.2002-y.	Iqtisodiy va valyuta ittifoqining shakllanishi	Muomalaga yagona valyuta — yevroning kiritilishi	Germaniya, Fransiya, Belgiya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya, Gretsiya, Ispaniya, Portugaliya, Avstriya, Finlyandiya, Shvetsiya

YeI rivojlanish jarayonida miqyosi jihatidan olti marta kengaydi va hozirgi vaqtda 28 ta mamlakatni o'zida birlashtiradi (7.1.2-jadval).

7.1.2-jadval
Yel ning kengayish bosqichlari

Sanasi	Mamlakatlar	Soni
1957-yil 25-mart	Belgiya, Germaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Fransiya	6
1973-yil 1-yanvar	Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya	9
1981-yil 1-yanvar	Gretsiya	10
1986-yil 1-yanvar	Ispaniya, Portugaliya	12
1995-yil 1-yanvar	Avstriya, Finlyandiya, Shvetsiya	15
2004-yil 1-may	Vengriya, Kipr, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya, Estoniya	25
2007-yil 1-yanvar	Bolgariya, Ruminiya	27
2013-yil	Xorvatiya	28

Valyuta Ittifoqini shakllantirish 1999-yilda tashkil qilingan Yevropa valyuta tizimiga (YeVT) asoslanadi. YeVT ga a'zo bo'lish uchun da'vogar mamlakatlar iqtisodiyoti quyidagi Maastrixt shartnomasi mezonlariga javob berishi zarur bo'ladi:

- davlat byudjeti kamomadi YaIM ga nisbatan 3 %dan oshmasligi;
- davlat tashqi qarzi YaIM ga nisbatan 60 %dan oshmasligi;
- kamida ikki yil valyuta kurslari mexanizmida qatnashishi va milliy valyuta kursini shu chegarada ushlab turish;
- inflyatsiya darajasi birinchi uchta mamlakatdagi o'rtacha darajadan 1,5 %ga oshmasligi lozim;
- davlat obligatsiyalari bo'yicha uzoq muddatli foiz stavkalarining inflyatsiya darajasi eng past mamlakatlardagi tegishli stavkalardan 2 %ga oshmasligi zarur.

Valyuta ittifoqini tartibga solish tamoyillari Rim kelishuvida ishlab chiqilgan. 1993-yilda Maastrixt shartnomasi imzolangandan keyin ittifoq mamlakatlari 1999-yil 1-yanvardan valyuta ittifoqini tashkil etish majburiyatini olishdi. Shu kundan boshlab yevro jahon moliya bozorlariga o'sha vaqtdagi YeI ning 15 ta mamlakatidan 11 tasining hisob-kitob valyutasi sifatida taqdim etildi, 2002-yil 1-yanvardan boshlab esa yevro hududidga kiruvchi 12 ta mamlakat pul birligi sifatida muomalaga kiritildi. Yevro YeVT da 1979–1998-yillarda foydalanilgan Yevropa valyuta birligi — EKYu ning o'rniga joriy etildi va hozirda YeI ning 18 ta mamlakati yevro hududiga kiradi.

7.2. Yevropa Ittifoqi iqtisodiyotining tarkibi va rivojlanish tendensiyalari

YeI doirasida birlashgan Yevropa dunyoning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mintaqalaridan biri hisoblanadi. YeI ning jahon YaIM dagi ulushi 21 %ni, jahon tovarlar eksportidagi ulushi 15,3 %ni, jahon xizmatlar eksportidagi ulushi 25,2 %ni tashkil etadi[1]. YeI hududi mintaqalari notekis iqtisodiy rivojlanish darajasiga ega bo'lib, iqtisodiy ittifoqning asosini yevro hududiga kiruvchi mamlakatlar tashkil etadi. YeI ni tashkil etgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlarining yangi a'zo makmlakatlarga nisbatan pastligi YeI ga xos xususiyatlardan biri hisoblanadi. Misol uchun, 2013-yilda yevro hududida iqtisodiy o'sish — 0,4 %ni tashkil etgan holda, ushbu ko'rsatkich Litvada — 3,3 %ni, Ruminiyada — 3,5 %ni tashkil etdi[2].

YeI iqtisodiy taraqqiyotidagi muhim vazifalardan biri-barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashdan iborat. Shu maqsadda 2000-yilda Lissabon strategiyasi qabul qilingan va 2005-yilda yangilangan. Lissabon strategiyasiga muvofiq YeI da quyidagi sohalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan:

- innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni rivojlantirish;
- kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash;
- yoshlar o'rtasida bandlikni oshirish.

Innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun sarflanayotgan investitsiyalar hajmini YeI da YaIM ga nisbatan 3 %ga yetkazish rejalashtirilgan bo'lib, ilm-fan sohasiga sarflanayotgan xarajatlar miqdori yiliga o'rtacha 100 mlrd. yevrodan kam bo'lmasligi lozim.

1 The Global Competitiveness Report 2014–2015. World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2014. P. 66.
2 World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. New York and Geneva, 2014. P. 184, 188.

Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashning axborot tizimini yaratish vazifasi qo'yilgan.

Yoshlar o'rtasida maksimal bandlik darajasini ta'minlash ularning savodxonlik darajasini oshirish, jumladan, 25 yoshgacha bo'lganlarning 85 % umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lishi zarurligi belgilab qo'yilgan.

YeI iqtisodiyotining tarmoq tarkibida xizmatlar ulushi 63–65 %ni, sanoat 25–30 %ni, qishloq xo'jaligi 2–5 %ni tashkil etadi. Yevropa sanoat jihatdan yuqori darajada taraqqiy etgan mintaqa hisoblanib, YeI ning hissasiga jahon sanoat mahsulotlarining 1/3 qismi to'g'ri keladi. YeI ning xalqaro darajadagi tarmoq ixtisoslashuvi atom energetikasi, neft-gaz majmuasi, avtomobilsozlik, aviakosmos, elektrotexnika, elektronika, yuqori texnologiyali mashinasozlik (stanoksozlik, kompyuterlar va elektronika mahsulotlarini ishlab chiqarish), kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati, biotexnolgiyalar, yangi konstruksiyali materiallar ishlab chiqarish tarmoqlari bilan bog'liq. Shu bilan birga oxirgi o'n yillikda qora metallurgiya, tekstil sanoati kabi an'anaviy sanoat tarmoqlarida eskirish va inqiroz holatlari kuzatilmoqda.

Yevropa hajmi jihatdan AQSh dan keyingi o'rinda turuvchi agrasonat majmuyiga ega. Mintaqa qishloq xo'jaligi turli-tumanligi va yuqori samaradorlikka egaligi bilan ajralib turadi. Ammo qishloq xo'jaligining samaradorligi YeI doirasida amalga oshiriladigan agrar siyosat bilan bog'liq bo'lib, bu siyosat asosida intervensiya, davlat xaridlari, milliy fermer xo'jaliklarini subsidiyalash kabi dastaklar tashkil etadi.

YeI iqtisodiyotining eng yirik sektori xizmatlar sohasidir. G'arbiy Yevropa mamlakatlari postindustrial iqtisodiyotdan yangi texnologiyalar va bilimlarga asoslangan iqtisodiy rivojlanish modeliga o'tishmoqda. Bu sohada kompyuter texnologiyalari, elektron savdo, transport, turizm kabi sohalar barqaror sur'atlarda rivojlanmoqda.

YeI iqtisodiyoti milliy va umumiy darajada tartibga solinadi. Hozirgi vaqtda YeI faoliyatining muhim yo'nalishlarini qamrab oluvchi umumiy darajada tartibga solish ustuvorlik kasb etmoqda. Shu bilan birga milliy darajada tartibga solish yetakchi mavqega ega. Umumiy darajada tartibga solish esa yevro hududida yagona pul-kredit siyosatini olib borishda muhim rol o'ynaydi.

Yevro hududida pul-kredit siyosati Yevropa Markaziy banklari tizimi va Milliy Markaziy banklar orqali amalga oshiriladi. Ushbu tizimning asosiy vazifasi inflyatsiyaning yiliga o'rtacha 2 % atrofida bo'lishini ta'minlashdan iborat. Bundan tashqari, unga pul-kredit va valyuta siyosatini amalga oshirish, a'zo mamlakatlar valyuta zaxiralarini saqlash, boshqarish, to'lov tizimining barqarorligini ta'minlash ham kiradi.

YeI soliq-byudjet sohasida soliq siyosati muhim dastak hisoblanadi. Har bir mamlakat o'z milliy soliq tizimiga ega bo'lib, yig'ilgan soliqlarning katta qismi milliy byudjetga kelib tushadi. YeI ning byudjeti o'z mablag'lari, a'zo mamlakatlar yalpi milliy daromadidan ajratmalar (mamlakat iqtisodiy salohiyatiga bog'liq holda 1 % atrofida), uchinchi mamlakatlardan import qilinayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlariga soliqlar, bojxona bojlari, qo'shilgan qiymat solig'idan ajratmalardan shakllanadi. YeI byudjetining xarajatlari quyidagilardan iborat:

- yagona qishloq xo'jalik siyosati;
- mintaqaviy va ijtimoiy siyosat;
- yagona tashqi va xavfsizlik siyosati;
- «Erazmus» dasturlari (talabalarni ayirboshlash);

- ta'limni rivojlantirish;
- kichik va o'rta biznesni rivojlantirish;
- transyevropa infratuzilmasini rivojlantirish.

Misol uchun, YeI ning 2007–2013-yillar uchun mo'ljallangan byudjeti miqdori 864,5 mlrd. yevrodan iborat bo'lib, shundan 293 mlrd. yevro yagona qishloq xo'jalik siyosatini amalga oshirishga, 157 mlrd. yevro yangi a'zo mamlakatlar iqtisodiyotining G'arbiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti darajasiga yetkazish uchun sarflandi. Jumladan, Polsha iqtisodiyotini rivojlantirish uchun 60 mlrd. yevro ajratilgan bo'lib, bu ko'rsatkich jami mablag'ning 38 %ni tashkil etdi[1].

YeI mamlakatlari tashqi iqtisodiy faoliyati, jumladan tashqi savdo sohasida kelishilgan holda yagona siyosat olib boriladi. Jahonda YeI nomidan alohida mamlakatlar emas, balki Yevropa Komissiyasi faoliyat yuritadi. YeI tashqi iqtisodiy strategiyasini amalga oshirishda yagona tashqi tarif, demping va subsidiyalarga qarshi kurash choralari, Yevropa eksportyorlarini qo'llab-quvvatlash, preferensial kelishuvlar kabi dastaklardan foydalanadi.

YeI jahon tovarlar va xizmatlar savdosining yirik qatnashchilaridan hisoblanadi. Jumladan, 2013-yilda YeI hissasiga jahon tovarlar eksportining 15,3 %, imporotining 14,8 %, xizmatlar eksportining 25,2 %, importining 19,7 % to'g'ri keldi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi YeI tashqi savdosiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Misol uchun, 2009-yilda tovarlar eksporti va importi 2008-yilga nisbatan mos ravishda 21 va 26 %ga pasaygan bo'lsa, «suveren qarzlar inqirozi» ta'sirida ushbu tendensiya 2012–2013-yillarda yana davom etdi (7.2.1-jadval).

7.2.1-jadval

YeI tashqi savdosining hajmi va o'zgarishi, mlrd. doll.

	2013-y.	O'tgan yilga nisbatan o'zgarish, %				
		2005–2013-yillarda o'rtacha	2009-y.	2010-y.	2012-y.	2013-y.
Tovarlar eksporti	2307,0	7	-21	17	0	7
Tovarlar importi	2234,6	5	-27	18	-4	-3
Xizmatlar eksporti	890,8	...	-14	5	0	6
Xizmatlar importi	668,5	...	-13	4	-2	4

Manba: Trade Profiles 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 66.

YeI tashqi savdosining tovar tarkibida sanoat mahsulotlari yetakchi mavqega ega. 2013-yilda sanoat mahsulotlarining tovarlar eksportidagi ulushi 76,7 %ni, tovarlar importida esa 55,5 %ni tashkil etdi. YeI tashqi savdosida xizmatlar eksporti va importi tarkibida yetakchi o'rinni transport mutanosib ravishda 21,0 va 23,2 % hamda turizm 15,1 va 17,4 % egallaydi (7.2.2-jadval).

1 Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник. /под ред. Проф. А. С. Булатова, проф. Н. Н. Ливенцева. — М.: Магистр, 2010. С. 276.

7.2.2-jadval
Yel tashqi savdosining tovar tarkibi, 2013-y.

	Tovarlar			Xizmatlar	
	Eksport	Import		Eksport	Import
Qishloq xo'jalik mahsulotlari	7,6	8,0	Transport	21,0	23,2
Yoqilg'i va qazib chiqarish sanoati mahsulotlari	9,2	33,8	Turizm	15,1	17,4
Sanoat mahsulotlari	76,7	55,5	Boshqa tijorat xizmatlari	63,8	55,4
Jahondagi ulushi	15,3	14,8	Jahondagi ulushi	25,2	19,7

Manba: Manba: Trade Profiles 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 66.

Tahlillar, 2013-yilda YeI tovar eksportining 62,0 % o'zaro ichki savdoga, 16,4 % AQSh, 9,7 % Shveysariya, 8,5 % Xitoy, 6,8 % Rosiyaga hissasiga, tovar importining to'g'ri kelganini ko'rsatmoqda.

YeI xalqaro kapitallar migratsiyasining faol ishtirokchisi va dunyodagi eng yirik xalqaro investori hisoblanadi. 1990–2013-yillarda AQSh iqtisodiyotiga chetga chiqarilgan va chetdan jalb etilgan TTXI ning jamg'arilgan qiymati mos ravishda 808,7 va 761,8 mlrd. dollardan 10,2 va 8,5 trln. dollarga qadar oshgan.

7.2.1-diagramma
Yel iqtisodiyotiga chetga chiqarilgan va chetdan jalb etilgan TTXI ning jamg'arilgan qiymati, mlrd. doll.



Manba: World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. New York and Geneva, 2014. P. 209.

Misol uchun, 2013-yilda YeI da chetga eksport qilingan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 250,5 mlrd. dollarni, jalb etilgan investitsiyalar hajmi esa 246,2 mlrd. dollarni tashkil etdi. 2013-yilda jahon chetga eksport qilingan va jalb etilgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar tarkibida YeI ning ulushi mos ravishda 17,8 va 17,0 %ga teng bo'ldi[1].

1 World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. New York and Geneva, 2014. P. 205.

7.3. Yevropa Ittifoqi iqtisodiyotiga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'siri va undan chiqish yo'llari

Global moliyaviy inqiroz jahonda 1930-yillardagi Buyuk depressiyadan keyingi eng chuqur inqiroz deb tan olindi va bu inqiroz Yel iqtisodiyotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, bu inqiroz Yel ning moliyaviy xizmatlar ulushi yuqori bo'lmagan (Buyuk Britaniya) va iqtisodiyoti tashqi iqtisodiy aloqalarga bevosita bog'liq mamlakatlar (Germaniya) iqtisodiyotida jiddiy iz qoldirdi.

Yevropa Komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra Yel ning real YaIM hajmi 2009-yilda 4,2 %ga, investitsiyalar hajmi 12 %ga qisqardi, byudjet kamomadining 3 %li mezoniy ko'rsatkichi esa 2008-yilning oxirida bekor qilindi va 2010-yilga kelib 6,4 %ga yetdi. Yel da 2010-yilda ishsizlik darajasi o'rtacha 9,6 %ni, inflyatsiya darajasi 2,1 %ni, davlat qarzining YaIM ga nisbatan ulushi esa 80,2 %ni tashkil etdi (7.3.1-jadval).

Yel da moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qarshi kurash rejasi 2008-yilning kuzidan amalga oshirila boshladi va u «Barqarorlik va o'sish» dasturi, deb ataldi. Ushbu dastur 2009–2010-yillarga mo'ljallangan bo'lib, umumiy miqdori 200 mlrd. yevro yoki Yel YaIM ning 1,5 %ni tashkil etdi. Shuningdek, Yel ga a'zo bo'lgan mamlakatlar iqtisodiyotini yuksaltirish uchun yana a'zo mamlakatlar hisobidan 170 mlrd. yevro, Yevropa investitsiya banki hisobidan 30 mlrd. yevro ajratish mo'ljallandi va quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga oldi:

7.3.1-jadval

Yel makroiqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari dinamikasi

	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.
YaIM	3,0	0,5	–4,2	1,9
Xususiy iste'mol	2,1	0,7	–1,7	0,8
Davlat iste'moli	1,9	2,3	2,2	0,7
Investitsiyalar	5,8	–0,8	–12,0	–0,7
Bandlik	1,7	0,9	–1,9	–0,5
Ishsizlik darajasi	7,2	7,1	9,0	9,6
Inflyatsiya	2,4	3,7	1,0	2,1
Davlat byudjeti taqchilligi, YaIM ga nisbatan, %da	–0,9	–2,4	–6,8	–6,4
Davlat tashqi qarzi, YaIM ga nisbatan, %da	59,0	62,3	74,4	80,2

Manba: Бардацци Р., Грассини М. Европейский Союз в кризисе: что дальше? //ЭКО, №12, 2011. С. 63–81.

- bandlikni qo'llab-quvvatlash — mehnat bozorini iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlariga moslashtirish va aholining ijtimoiy jihatdan kam himoyalangan qatlamlariga yordam berish;

- tadbirkorlarning ijtimoiy xarajatlarini kamaytirish, ish beruvchilarning past ish haqi uchun to'laydigan ijtimoiy badallarini kamaytirish va malakasiz ishchi kuchi bandligini oshirishni qo'llab-quvvatlash;
- kichik va o'rta korxonalarni (250 kishigacha band bo'lgan korxonalar) moliyalashtirish manbalarini yaxshilash. YeI mamlakatlarida kichik va o'rta korxonalar hamma korxonalarning 90 %ni tashkil etib, ularda 23 mln. ortiq kishi band;
- korxonalarni tashkil etish sohasidagi ma'muriy to'siqlarni kamaytirish. 2012-yilga qadar kichik va o'rta korxonalarni tashkil etishdagi rasmiyatchilik 25 %ga kamayishi, korxona 3 kun ichida tuzilishi va uni ochish to'g'risidagi litsenziyani olish muddati 1 oydan ortmasligi lozim;
- investitsiyalar infratuzilmani rivojlantirish uchun yo'naltirilishi va shu maqsadda qo'shimcha 5 mlrd. yevro ajratishi ko'zda tutilgan;
- uy-joy sektorida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirish;
- «yashil» mahsulotlarni jadal rivojlantirishni rag'batlantirish;
- tadqiqotlar va ilmiy ishlarni investitsiyalashni rag'batlantirish;
- avtomobilsozlik va qurilishda yangi texnologiyalarni rivojlantirish, «yashil» avtomobilni yaratish uchun 5 mlrd. yevro ajratiladi;
- hamma uchun yuqori tezlikdagi internetga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.

YeI a'zo bo'lgan mamlakatlarga quyidagilarni tavsiya etadi:

- vaqtinchalik ishsizlik bo'yicha nafaqani ko'paytirish;
- kam daromadli oilalarga soliqni kamaytirish va ish beruvchilar uchun oz ish haqidan to'lanadigan ijtimoiy to'lovlarni kamaytirish;
- iste'molni rag'batlantirish maqsadida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini pasaytirish;
- YeI Yevropa markaziy bankiga qayta moliyalash stavkasini pasaytirish va Yevropa fondlariga esa transport infrastrukturasiga ajratiladigan va Internetga kirish imkoniyatini ta'minlaydigan tadbirlarga mablag' ajratish.
- YeI ning eng kambag'al mintaqalarini rivojlantirishga mo'ljallangan fondlar ochildi va Yevropa fondini aholini ijtimoiy nochor qatlamlariga yordam ko'rsatish dasturlarini jadallashtirish (2007–2013-yillarda shu maqsadlar uchun 75 mlrd. yevro ajratiladi).

Shunday qilib, YeI mamlakatlarida iqtisodiyot va banklarni qo'llab-quvvatlashga ajratilgan mablag'lar hajmi 2 trln. yevrodan ortdi. Shu bilan bir qatorda YeI ning har bir a'zosi o'zining mablag'lari hisobidan ham inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish uchun alohida mablag'lar ajratdi.

Tahlillar YeI da inqirozga qarshi chora-tadbirlarning a'zo mamlakatlar iqtisodiy o'sishiga turlicha ta'sir qilganligi ko'rsatdi, jumladan, 2009-yilda o'rtacha 0,5–1,0 %, 2010-yilda esa 0,3–0,6 %ga teng bo'ldi[1].

YeI da inqirozga qarshi amalga oshirilayotgan fiskal chora-tadbirlar a'zo mamlakatlar iqtisodiyotiga og'ir yuk bo'lib tushdi. Yevropa Komiyassiyasining prognozlariga muvofiq yevro hududida davlat qarzi 2014-yilga borib 100 %dan ortib ketishi mumkin. YeI byudjetidan sanatsiya uchun ajratilgan mablag'larning umumiy miqdori 2009–2010-yillarda 400 mlrd. yevro, milliy hukumatlar tomonidan bank tizimiga ajratilgan mablag'lar miqdori esa 1,2 trln. yevrodan ortib ketdi[2].

YeI ning inqirozga qarshi siyosatida anglosakson va kontinental modellari farqlanadi. Birinchi modelda davlat tomonidan moliyaviy xizmatlarga ta'sir o'tkazishdan milliylashtirishgacha bo'lgan choralar qo'llanildi. Ikkinchi model ichida qayta

1 Сидорова Е. А. Антикризисные программы в Германии и Великобритании. //Международная экономика, №4, 2010. С. 30.

2 O'sha manba.

ishlash sanoatining yetakchi kompaniyalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini o'z ichiga oluvchi fransuz va davlat aralashuvi nisbatan kam, asosan, kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratilayotgan nemis modellarini ajratish mumkin.

YeI da inqirozdan keyingi iqtisodiy tiklanishning uchta modelini ajratish mumkin.

1. Ishlab chiqarishning keskin pasayishi sodir bo'lgan, ammo uning o'sish sur'atlarini tezda tiklagan mamlakatlar. Ushbu mamlakatlarga iqtisodiy o'sish inqirozgacha bo'lgan davrga nisbatan barqarorlashgan mamlakatlar kiradi va Yevro hududida bu modelga Germaniya misol bo'la oladi.
2. Retsessiyadan keyin iqtisodiy o'sish sur'atlari avvalgi darajaga yetgan, ammo ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar qayta tiklanmagan mamlakatlar. Ushbu guruhga yevro hududining ko'pchilik mamlakatlari kiradi.
3. Ishlab chiqarish hajmining pasayishi chuqur bo'lmagan, ammo uzoq davom etgan mamlakatlar. Bu mamlakatlarda iqtisodiy o'sish qisqa muddatda, tez sur'atlarda tiklanmadi va aholi daromadlari inqirozgacha bo'lgan davrga nisbatan pastligicha qoldi. Bu guruhga YeI ning Janubiy Yevropa mamlakatlari kiradi va ularda 2010-yildan boshlab qarz muammosi paydo bo'ldi.

YeI mamlakatlarida davlat moliyasi sektori inqirozdan jiddiy zarar ko'rdi. 2008-yilgacha davlatning tashqi qarzi yevro hududida Fransiya, Germaniya, Portugaliya, Gretsiyadan tashqari barcha mamlakatlarda YaIM ga nisbatan pasaygan bo'lishiga qaramasdan, aksariyat mamlakatlarda bu ko'rsatkich yuqorligicha qoldi. Tahlillar Yevropa barqarorlik va o'sish paktida belgilangan davlat qarzining YaIM ga nisbatan 60 %li ko'rsatkichi 2010-yilda Estoniya, Lyuksemburg, Polsha, Finlyandiya, Slovakiya va Sloveniyadagina bajarilganligini ko'rsatmoqda. YeI da 2008–2010-yillarda iqtisodiy pasayishlarning oldini olish, barqarorlashtirish dasturlarining ishga tushirilishi sababli davlat xarajatlarining ortishi davlat qarzining o'rtacha 23,3 %ga o'sishiga olib keldi.

YeI mamlakatlarida davlat byudjeti kamomadining o'sishi quyidagi sabablarga ko'ra chuqurlashdi: qo'shimcha davlat xarajatlarining yuzaga kelishi, yalpi daromadlarning qisqarishi va YaIM o'sish sur'atlarining pasayishi. Misol uchun, Italiyada suveren qarzlar ortib, 2004–2006-yillarda davlat xarajatlari ikki baravarga o'sdi.

7.4. Yevro hududining rivojlanish istiqbollari

Yagona Yevropa valyutasi yevrodan foydalanuvchi Yevropa iqtisodiy va valyuta ittifoqi (YeIVI) 1991-yil 1-yanvardan boshlab faoliyat yurita boshladi va unga 11 ta mamlakat kirdi. 2015-yildan boshlab esa uning tarkibida 19 mamlakat faoliyat olib boradi: Avstriya, Belgiya, Germaniya, Gretsiya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Kipr, Lyuksemburg, Malta, Niderlandiya, Portugaliya, Slovakiya, Sloveniya, Finlyandiya, Fransiya, Estoniya, Litva va Latviya. YeI ning yevro hududiga kirmagan 10 ta mamlakatdan Buyuk Britaniya va Daniya YeVI tashkil etilayotgan vaqtdayoq maxsus protokollarda ushbu hududda qatnashmasliklarini e'lon qilishgan. Boshqa mamlakatlar YeI faoliyati to'g'risidagi shartnomaga[1] muvofiq yagona Yevropa valyutasiga o'tish majburiyatini olishgan. Ushbu qoida 2011-yil iyul holati bo'yicha Bolgariya, Vengriya, Latviya, Litva, Polsha, Ruminiya, Chexiya, Shvetsiyaga joriy etilgan. Bu mamlakatlar YeI hujjatlarida «shartnoma shartlari qisman qo'llanilmaydigan

1 Yevropa Ittifoqi faoliyati to'g'risidagi shartnoma Yevropa hamjamiyatini tuzish to'g'risidagi shartnomaning yangi tahriri hisoblanadi, 2007-yil 13-dekabrda Lissabon shartnomasi bilan tasdiqlangan va 2009-yil 1-dekabrdan kuchga kirgan.

mamlakatlar» sifatida keltiriladi. Shvetsiya yevro hududida qatnashmaslikka qaror qildi va YeI tavsiyalari bo'yicha o'z milliy qonunchiligiga o'zgartirishlar kiritmadi.

Tahlillar ko'rsatishicha, YeIVI nafaqat a'zo mamlakatlar o'rtasida savdo hajmining ortishiga, balki bu mamlakatlar va valyuta ittifoqiga a'zo bo'lmagan mamlakatlar o'rtasida ham tashqi savdoning kengayishiga olib keldi. Ushbu samara ishlab chiqarish hajmi ortib borishi bilan rivojlanayotgan mashinasozlik, kimyo sanoati kabi tarmoqlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Yevro hududiga a'zo bo'lishga da'vogar mamlakatlar iqtisodiyoti quyidagi konvergensiya ko'rsatkichlari bo'yicha tahlil qilinadi:

- narxlarning barqarorligi — inflyatsiyaning o'rtacha darajasi yil davomida yevro hududiga kirgan, inflyatsiya darajasi past uchta mamlakatdagi o'rtacha inflyatsiya darajasidan 1,5 punktdan yuqori bo'lmasligi lozim;
- davlat moliyasining barqarorligi — Maastrixt shartnomasi bo'yicha konsolidatsiyalashgan byudjet kamomadi YaIM ga nisbatan 3 %dan, jami davlat qarzi esa YaIM ga nisbatan 60 %dan oshmasligi lozim;
- kamida ikki yil valyuta kurslari mexanizmida (Exchane Rate Mechanism II (ERM II) qatnashishi;
- konvergensiyaning nominal uzoq muddatli foiz stavkalarida aks etishi — yevro hududiga kirgan, inflyatsiya darajasi past uchta mamlakatdagi o'rtacha nominal foiz stavkalardan 2 punktga oshmasligi lozim.

ERM II mexanizmi milliy valyutaning yevroga nisbatan asosiy paritetini tartibga solish mexanizmini o'rnatishni taqozo etadi. Valyutalar kursi paritetdan 15 %gacha farqlanishi mumkin. Mamlakatning yevro hududiga kirishiga qadar ikki yilgacha valyutalarning yevroga nisbatan devalvatsiya qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Hozirgi vaqtda Latviya, Litva va Daniya ERM II mexanizmi qatnashchilari hisoblaniladi. 2011-yil 1-yanvarga qadar Estoniya ham ERM II mexanizmi qatnashchisi hisoblangan. ERM II mexanizmi qatnashchilari uchun valyuta kurslarining tebranishida amaldagi shartnomalarda ko'zda tutilgan qoidalarga nisbatan torroq yo'lak belgilangan (7.4.1-jadval).

2010-yil may oyida e'lon qilingan konvergensiya ko'rsatkichlari tahlili ko'rsatishicha, Latviya, Chexiya va Estoniya inflyatsiya bo'yicha, Chexiya va Shvetsiya uzoq muddatli foiz stavkalari bo'yicha, Bolgariya, Litva, Latviya, Polsha, Ruminiya, Chexiya, Shvetsiya va Estoniya davlat tashqi qarzi bo'yicha me'yoriy talablarni bajargan (7.4.2-jadval).

7.4.1-jadval

Valyuta ittifoqiga a'zolikka da'vogar va ERM II a'zolari hisoblangan mamlakatlarning valyuta rejimlari

Mamlakat	Valyuta	ERM II mexanizmiga qo'shilish muddati	Valyutlarning markaziy kursi (1 yevroga nisbatan)	Kurslarning tebranish chegaralari (markaziy kursdan farq qilishi, ± %)	Yevroning joriy etilish muddati
Bolgariya	Lev	Yevroni joriy etishga qadar kamida 2-yil	1,95583	0,5	aniq emas
Vengriya	Forint	Yevroni joriy etishga qadar kamida 2-yil	275,4119*	suzib yuruvchi	aniq emas
Daniya	Daniya kronasi	01.01.1999	7,46038	2,25	–

Mamlakat	Valyuta	ERM II mexanizmiga qo'shilish muddati	Valyutlarning markaziy kursi (1 yevroga nisbatan)	Kurslarning tebranish chegaralari (markaziy kursdan farq qilishi, ± %)	Yevroning joriy etilish muddati
Latviya	Lat	02.05.2005-y.	0,702804	1	01.01.2014-y.
Litva	Lit	28.06.2004-y.	3,4528	qayd etilgan	aniq emas
Polsha	Zlotiy	Yevroni joriy etishga qadar kamida 2-yil	3,9946*	suzib yuruvchi	aniq emas
Ruminiya	Ley	Yevroni joriy etishga qadar kamida 2-yil	4,2099*	suzib yuruvchi	01.01.2015-y.
Chexiya	Chex kronasi	Yevroni joriy etishga qadar kamida 2-yil	25,290*	suzib yuruvchi	aniq emas
Estoniya	Eston kronasi	28.06.2004-y.	15,6466	qayd etilgan	01.01.2011-y.

* 2010-yilda o'rtacha kurs.
Manba: European Commission (http://ec.europa.eu/economy Jinance/euro/index_en.htm).

7.4.2-jadval
Yevro hududiga kirmagan Yel a'zolarining konvergensiya ko'rsatkichlari

Mamlakat	Inflyatsiya (iste'mol narxlari, o'rtacha yillik, %)			Uzoq muddatli foiz stavkalari			Byudjet kamomadi (YalM ga nisbatan foiz hisobida)			Yalpi qarz (YalM ga nisbatan foiz hisobida)		
	2008-y.	2009-y.	2010-y.*	2008-y.	2009-y.	2010-y.*	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.
Bolgariya	12,0	2,5	1,7	5,4	7,2	6,9	1,8	-3,9	-2,8	14,1	14,8	17,4
Chexiya	6,3	0,6	0,3	4,6	4,8	4,7	-2,7	-5,9	-5,7	30,0	35,4	39,8
Estoniya	10,6	0,2	-0,7	-	-	_	-2,7	-1,7	-2,4	4,6	7,2	9,6
Latviya	15,3	3,3	0,1	6,4	12,4	12,7	-4,1	-9,0	-8,6	19,5	36,1	48,5
Litva	11,1	4,2	2,0	5,6	14,0	12,1	-3,3	-8,9	-8,4	15,6	29,3	38,6
Vengriya	6,0	4,0	4,8	8,2	9,1	8,4	-3,8	-4,0	-4,1	72,9	78,3	78,9
Polsha	4,2	4,0	3,9	6,1	6,1	6,1	-3,7	-7,1	-7,3	47,2	51,0	53,9
Ruminiya	7,9	5,6	5,0	7,7	9,7	9,4	-5,4	-8,3	-8,0	13,3	23,7	30,5
Shvetsiya	3,3	1,9	2,1	3,9	3,3	3,3	2,5	-0,5	-2,1	38,3	42,3	42,6
Ko'rsatkichlarning me'yoriy ahamiyati			1,0			6,0		-3,0			60,0	

* 2009-yil apreldan 2010-yil martgacha.
Manba: ECB Convergence Report. May 2010.

Valyuta integratsiyasidan ko'zlangan strategik maqsad mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini yaqinlashtirishga xizmat qiluvchi real konvergensiyani ta'minlash hisoblanadi. Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YalM ko'rsatkichi real

konvergensiyaning asosiy ko'rsatkichi sanaladi. Yevro hududi tashkil etilgandan keyin yevro hududiga a'zolikka da'vogar mamlakatlar va yevro hududi ko'rsatkichi o'rtasida farq sezilarli ravishda qisqardi. 2000-yilda yevro hududiga kirishga da'vogar mamlakatlardan yettitasida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YalM hajmi yevro hududi darajasining yarmini tashkil etgan bo'lsa, 2007–2008-yillarda bu ko'rsatkichga ega mamlakatlardan ikkitasi — Bolgariya va Ruminiya qoldi (7.4.3-jadval).

7.4.3-jadval

Yevro hududiga a'zolikka da'vogar mamlakatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YalM dinamikasi (yevro hududi = 100)*

Mamlakat	2000-y.	2005-y.	2006-y.	2007-y.	2008-y.
Bolgariya	24,8	31,7	33,4	34,5	38,2
Chexiya	60,9	69,3	70,4	73,4	14,0
Estoniya	40,0	56,2	59,6	63,0	62,1
Latviya	32,6	44,3	47,2	51,0	52,8
Litva	34,9	48,3	50,6	54,3	57,1
Vengriya	49,2	57,7	57,8	57,3	59,4
Polsha	42,9	46,9	47,5	49,8	52,0
Ruminiya	23,2	31,9	35,1	38,1	-
Shvetsiya	112,6	109,8	110,8	112,5	110,7
YalM ning o'rtacha darajasi (Shvetsiyadan tashqari)	38,6	48,3	50,2	52,7	56,5

* Xarid qobiliyati pariteti bo'yicha hisoblangan.

Manba: ECB Convergence Report. May 2010.

Tahlillar yevro hududi va da'vogar mamlakatlarda narxlar darajasining barqarorlashib borayotganligini ko'rsatmoqda. Misol uchun, 2000-yilda qiyosiy taqqoslangan narxlar da'vogar mamlakatlardan to'rttasida yevro hududi darajasidan ikki baravar past bo'lgan bo'lsa, 2008-yilda faqat Bolgariyadagina bu ko'rsatkich saqlanib qoldi.

2000–2008-yillarda ushbu mamlakatlarda inflyatsiya sur'ati o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. Inflyatsiyaning oshishi jadal iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiy nisbatlarning buzilishi va xomashyo narxining oshishi bilan bog'liq. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi tashqi talabning qisqarishi, tashqi moliyalashtirish shartlarining yomonlashuvi va eksportning qisqarishiga olib keldi. Jumladan, 2010-yilda iste'mol narxlar indeksi da'vogar mamlakatlar — Bolgariya (3,0 %), Vengriya (4,9 %), Ruminiya (6,1 %) va Polshada (2,6 %) yevro zonasiga (1,6 %) nisbatan yuqori bo'ldi[1].

2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi asta-sekin «suveren qarz inqirozi»ga aylanib bordi. Ushbu inqirozning markazida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari joylashgan bo'lib, yaqin yillarda quyidagi ikki muhim vazifani hal etishi

1 Перспективы развития мировой экономики. Замедление роста, увеличение рисков. Обзор. Сентябрь 2011. МВФ. Вашингтон, 2011. С. 202.

lozim: «Suveren qarz inqirozi»dan chiqish va yevropa banklari bankrotlashuvining oldini olish. Aksariyat ekspert va mutaxassislar fikricha, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun qat'iy tejash va o'z-o'zini tiyish rejimi zarur, davlat xarajatlarini qisqartirish lozim, chunki mamlakatda defolt holati sodir bo'lmasligi va davlat bankrot holatiga tushmasligi uchun davlat qarzlarini qaytarishga xizmat qila va to'lay olmay qolishi kerak emas. O'z-o'zini tiyishning oqibatlaridan biri retsessiya hisoblanadi. Ko'psonli Yevropa Ittifoqi, jumladan yevrohudud mamlakatlari iqtisodiyoti miqyosi qisqarmoqda. Chunki qat'iy tejamkorlik rejimi tovar va xizmatlarga bo'lgan yalpi ichki talabni qisqartirmoqda (7.4.4-jadval).

7.4.4-jadval
Yevro hududining makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi

	1996–2005-yy.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.
YalM	2,1	3,3	3,0	0,4	-4,5	1,9	1,6	-0,7	-0,4
Xususiy iste'mol xarajatlari	2,0	2,1	1,7	0,4	-1,0	1,0	0,3	-1,3	-0,7
Davlat iste'moli	1,8	2,1	2,2	2,3	2,6	0,6	-0,1	-0,6	0,1
Yalpi jamg'arish	3,5	3,9	2,5	-2,9	-11,6	1,9	2,6	1,8	0,8
Ichki talab	2,1	2,9	2,5	0,4	-2,8	0,6	0,5	-1,7	-0,9
Inflyatsiya	1,9	3,2	2,2	3,3	0,3	1,6	2,7	2,5	1,3

Manba: World Economic Outlook: October 2001. IMF, 2001. P. 185.; World Economic Outlook: October 2014. IMF, 2014. P. 159.

«Dunyoning ko'plab yetakchi mamlakatlarida davlat qarzi va milliy byudjetlar taqchilligi muammosi deyarli hal etilmasdan qolmoqda, real iqtisodiyotda ishlab chiqarish pasayib bormoqda, jahon bozorida xarid talabining kamayishi davom etmoqda, ishsizlik darajasi yuqoriligicha qolmoqda, ijtimoiy keskinlik kuchaymoqda»[1].

7.4.5-jadval
Yevropa mamlakatlarida iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash dasturlarining hajmi

Mamlakatlar	Milliy banklarni qo'llab-quvvatlash dasturlarining hajmi, mlrd. doll.	Iqtisodiy rag'batlantirish paketlarining hajmi	
		mlrd. doll.	YalM ga nisbatan, %da
Buyuk Britaniya	1093,7	39,7	1,5
Germaniya	775,9	94,9	2,6
Daniya	755,9	7,5	2,2
Fransiya	490,1	27,9	1,0

1 Karimov I. A. Bosh maqsadimiz — keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. — Toshkent: O'zbekiston, 2013. B. 19.

Mamlakatlar	Milliy banklarni qo'llab-quvvatlash dasturlarining hajmi, mlrd. doll.	Iqtisodiy rag'batlantirish paketlarining hajmi	
		mlrd. doll.	YalM ga nisbatan, %da
Belgiya	370,3	4,5	0,9
Niderlandiya	344,5	8,5	1,0
Avstriya	231,0	9,8	2,4
Shvetsiya	198,8	11,0	2,4
Ispaniya	182,0	72,0	4,6

Tahlillar ko'rsatishicha, 2011–2012-yillarda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat markazida Gretsiya, Italiya, Ispaniya, Irlandiya, Portugaliya byudjet kamomadi va davlat qarzi hajmining ortishi bilan bog'liq muammolar o'rin oldi. S&P mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra ko'ra Yevropa korporatsiyalari 2015-yilga qadar 4 trln. dollar miqdorida qarzlarni qaytarishlari lozim, Portugaliya, Irlandiya, Gretsiya va Ispaniya 2015-yilga qadar 439 mlrd. doll., Italiya esa 779 mlrd. dollar miqdorida suveren qarzlarni so'ndirishi zarur[1].

1-jadval ma'lumotlari tahlili ko'rsatishicha, yevrohududga kirmagan Buyuk Britaniya, Daniya, Shvetsiya mamlakatlarining markaziy banklari arzon kreditlar berish siyosatini amalga oshirib milliy banklarining yomon va noprofil aktivlarini sotib olib, ularni qo'llab-quvvatlamoqdalar. Yevrohududdagi Germaniya, Fransiya, Belgiya, Niderlandiya kabi mamlakatlarning banklari esa Yevropa markaziy banki tomonidan 2012-yilda ko'rsatilgan 1 trln. yevro miqdoridagi iqtisodiy yordamdan samarali foydalandilar. Biroq, yevrohududga kirgan mamlakatlar o'rtasida tuzilgan byudjet va soliq ittifoqi to'g'risidagi shartnomaning yo'qligi Yevropa Markaziy banki tomonidan tijorat banklarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ta'sirchan chora-tadbirlarni amalga oshirish siyosatini cheklab, samaradorligini nisbatan pasaytirmoqda.

7.4.1-diagramma

Yevrohudud mamlakatlarida inqirozga qarshi choralar dasturi uchun berilgan kreditlarning yalpi ichki mahsulotga nisbati, mlrd. yevro.



Manba: БИКИ 7. V. 2013.

1 www.vedomosti.ru/finance/news/1483073/prizrak_velikoj_depressii

Tahlillar ko'rsatishicha, mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan qiyosiy taqqoslanganda Gretsiya va Kiprning inqirozga qarshi kurash uchun olgan kreditlarining yalpi ichki mahsulotga bo'lgan ulushi sezilarli hisoblanadi. Ushbu mamlakatlar ichida Irlandiya «uchlik» tomonidan berilgan kreditlardan samarali foydalanib o'zining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini asta-sekin yaxshilay boshladi. Jumladan, davlat byudjeti taqchilligi qisqardi, inflyatsiya darajasi susaydi va iqtisodiyotda jonlanish jarayonlari boshlandi.

7.5. O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi tashqi iqtisodiy aloqalari

O'zbekiston Respublikasi va YeI o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalarining rivojlanishida 1992-yilda «O'zaro hamkorlik» to'g'risidagi Memorandumning imzolanishi muhim ahamiyatga ega. 1994-yilda O'zbekiston va Yevropa davlatlari o'rtasida o'zaro diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Shu yili YeI Komissiyasining (O'zbyuroKYeS) «Texnik hamkorlikni muvofiqlashtirish byurosini tashkil etish» to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. 1995-yilda Bryussel shahrida YeI Komissiyasi tarkibida respublikaning diplomatik missiyasi o'z ishini boshladi.

1996-yilda O'zbekiston Respublikasi va YeI o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlantirishga bag'ishlangan «O'zbekiston — YeI va ularga a'zo davlatlar o'rtasida hamkorlik munosabatlarini o'rnatish» to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Shu tariqa sobiq-ittifoq O'zbekiston respublikalari taribida Rossiyadan keyin ikkinchi bo'lib YeI bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatdi.

YeI mamlakatlari O'zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim investorlar hisoblanadi. Respublikamiz hududida YeI mamlakatlarining 480 dan ortiq firma va kompaniyalari faoliyat olib boradi va ularning 100 dan ortig'i to'liq Yevropa kapitaliga asoslangandir.

YeI ning O'zbekiston bilan hamkorligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- O'zbekistonning geosiyosiy va strategik joylashuvi;
- O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy salohiyati.

O'zbekiston va YeI o'rtasidagi savdo aloqalariga 1993-yil 8 iyunda Bryusselda tekstil mahsulotlari sohasida tuzilgan shartnoma asos hisoblanadi. Ushbu shartnomada O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlari uchun belgilangan kvotaning har yili 1,2 %ga ortib borishi ko'zda tutilgan bo'lib 2004-yildan boshlab tomonlar O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlariga nisbatan kvotani bekor qilishga kelishildi.

O'zbekiston va YeI o'rtasida savdo aloqalari barqaror sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Jumladan, 2000–2013-yillarda O'zbekiston va YeI o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 133,8 %ga o'sib, 2013-yilda 1 mlrd. 655 mln. yevroni tashkil etdi (7.5.1-jadval).

7.5.1-jadval

YeI va O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining o'zgarishi, mln. yevro

	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2013-y.
Tashqi savdo aylanmasi	1237	1119	1658	1655
Eksport	653	529	415	1408
Import	584	590	1243	247
Saldo	69	-61	-828	-1161

Manba: http://www.cisstat.com/rus/Evrostatbooklet.pdf

O'zbekiston YeI ga noorganik kimyo mahsulotlari, mashina va asbob-uskunalar, gaz, to'qimachilik mahsulotlari, o'g'itlar, metall rudalar va metallom eksport qiladi. YeI dan O'zbekistonga transport vositalari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun mo'ljallangan maxsus mashinalar, tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari, avtomobillar import qilinadi (7.5.2-jadval).

7.5.2-jadval
YeI va O'zbekiston tashqi savdosining tovar tarkibi, 2013-y.

	Eksport		Import	
	Qiymati, mln. yevro	Ulushi, %	Qiymati, mln. yevro	Ulushi, %
Qishloq xo'jalik mahsulotlari	152	26,6	26	12,0
Shundan				
oziq-ovqat mahsulotlari	132	9,4	15	6,0
Yoqilg'i va qazib chiqarish	16	1,2	40	16,1
Shundan				
Yoqilg'i	12	0,9	28	11,3
Sanoat mahsulotlari	1198	72,4	179	85,1
Shundan				
Kimyo sanoati mahsulotlari	343	24,3	129	52,4
Mashina va asbob-uskunalar	613	43,6	7	2,9
To'qimachilik sanoati mahsulotlari	4	0,3	35	14,3
Boshqa mahsulotlar	2	1,0	26	2,9

Manba: http://www.cisstat.com/rus/Evrostatbooklet.pdf

O'zbekiston va YeI o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning istiqboli ko'p jihatdan transport muammolari bilan bog'liq. Bu sohada YeI ning TRASEKA dasturi alohida e'tiborga loyiq. O'zbekiston va YeI hamkorligining istiqbolli sohalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- YeI ning yirik kompaniyalarini O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlaridagi investitsiya loyihalariga jalb etish, xususiylashtirish jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash;
- xususiylashtirish, standartlashtirish sohalarida milliy qonunchilikni YeI va JST me'yorlariga muvofiqlashtirish bo'yicha texnik hamkorlikni rivojlantirish;
- kichik va xususiy tadbirkorlikka ko'maklashish sohasida hamkorlikni rivojlantirish va bu sohada loyihalarni YeI tomonidan moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kreditlar olish;
- TASIS dasturlari doirasida ta'lim dasturlaridan samarali foydalanish;
- TRASEKA vap INOGEYT loyihalari bo'yicha O'zbekistonning tranzit imkoniyatlaridan keng foydalanish va rivojlantirish.

Asosiy tushunchalar

«Yevrotom» — YeI a'zolari tomonidan 1957-yilda Rim shartnomasiga muvofiq tuzilgan Yevropa atom energiyasi bo'yicha hamjamiyati tashkiloti.

Rim shartnomasi — 1957-yilda Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg tomonidan imzolangan, insonlar, tovarlar, xizmatlar hamda kapital harakati yo'lidagi to'siqlarni bekor qilish to'g'risidagi xalqaro shartnoma.

Maastrixt shartnomasi — 1992-yilda Maastrixt (Niderlandiya) shahrida Yevropa Ittifoqini tuzishning asosini tashkil etuvchi shartnoma.

Yevropa Ittifoqi — Yevropaning 27 ta mamlakatini birlashtiruvchi iqtisodiy va siyosiy guruh.

Lissabon shartnomasi — 2007-yil 13-dekabrda Lissabonda 27 mamlakatdan iborat YeI ning amal qilishini yaxshilash va uning jahon xo'jaligidagi o'rnini mustahkamlash maqsadida imzolangan xalqaro shartnoma.

Yevropa valyuta tizimi (YeVT) — YeI a'zolarining hududiy valyuta guruhi.

Yevro — Yevropa valyuta ittifoqiga a'zo mamlakatlarda muomalada bo'lgan valyuta.

Yevro hududi — YeI ga a'zo, yagona valyuta — yevro muomalada bo'lgan mamlakatlar hududi.

Valyuta kurslari mexanizmi — milliy valyutaning yevroga nisbatan asosiy paritetini tartibga solish mexanizmi bo'lib, valyutalar kursi paritetdan 15 %gacha farqlanishi mumkin.

Nazorat savollari

1. G'arbiy Yevropaning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini baholang.
2. G'arbiy Yevropaning raqobatbardosh tarmoqlariga qaysi tarmoqlar kiradi?
3. Yevropa Ittifoqining rivojlanishi qanday bosqichlardan iborat?
4. Yevropa Ittifoqining rivojlanish bosqichlarini tahlil qiling va unga qaysi mamlakatlar kirgan?
5. YeI iqtisodiyotining tarkibi qanday ko'rinishga ega?
6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining YeI iqtisodiyotiga ta'siri va undan chiqish yo'llariga baho bering.
7. YeI inqirozga qarshi dasturlarining ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?
8. Yevro hududiga kirish mezonlari nimalarga asoslanadi?
9. Yevro hududining rivojlanish istiqbollarini aniqlang.
10. O'zbekiston va YeI iqtisodiy aloqalarining rivojlanish istiqbollari va ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?

8-BOB. YAPONIYA IQTISODIYOTI

8.1. Yaponiya makroiqtisodiy rivojlanish modelining bosqichlari, omillari va xususiyatlari

Yaponiya[1] jahon xo'jaligida alohida mavqega ega mamlakat bo'lib, Meydzi (1868) inqilobidan keyingi yuz yil ichida feodal davlatdan rivojlangan bozor iqtisodiyo-

1 Yaponiya Tinch okeanining Sharqiy Osiyo sohillariga yaqin 6800 ta orollardan iborat bo'lib, umumiy maydoni 378 ming km^2 ni tashkil etadi. Yaponiya hududining 99 % to'rtta yirik orol — Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku va Kyusyuga to'g'ri keladi.

ti mamlakatiga aylandi. Bu davrda Yaponiya iqtisodiyotini tiklabgina qolmasdan sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin oldi.

Yaponiyaning bu davrdagi iqtisodiy rivojlanishini olti bosqichga bo'lib o'rganish mumkin.

Birinchi bosqich 1896-yildan Ikkinchi jahon urushining oxirigacha bo'lgan davrni qamrab oladi va Yaponiyada harbiylashgan iqtisodiy tizimni shakllantirish bosqichi hisoblanadi. «Yangi iqtisodiy tizim» xususiy firmalar mavqeyini faqat mahsulot ishlab chiqarish uchungina mas'ullik darajasigacha pasaytirib qo'ydi.

Ikkinchi bosqich 1945-yildan 1958-yilgacha davom etdi. Ushbu bosqich 7-yillik Amerika hukmronligi hamda qator institutsional va iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi bilan ajralib turadi. Ular tarkibida 1946–1950-yillardagi agrar, Dzaybatsularni[1] tarqatib yuborish bilan bog'liq islohotlarni va amerikalik iqtisodchilar Dodj va Shouplar tomonidan inflyatsiyaga qarshi kurashga qaratilgan, «falajli davolash» nomini olgan islohotlar alohida ahamiyatga ega. Bu davr Yaponiya iqtisodiyotining urushdan keyingi qayta tiklanish davri hisoblanadi.

Uchinchi bosqich 1958–1973-yillarni o'z ichiga oladi va barqaror yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari tufayli yapon iqtisodiy mo'jizasi nomiga ega bo'ldi. O'n besh yil ichida mamlakat yalpi milliy mahsuloti 6,5 martaga, sanoat ishlab chiqarish hajmi esa 10 martaga oshdi. Ushbu davrda yapon iqtisodiyotining o'sish sur'atlari yiliga o'rtacha 11 %ni tashkil etgani holda rivojlangan mamlakatlar tarkibida eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etdi.

To'rtinchi bosqich 1973-yildan boshlanadi va mamlakat iqtisodiyotiga 1970-yillardagi jahon yoqilg'i inqirozlarining ta'siri tufayli o'rtacha o'sish sur'atlari va tarkibiy o'zgarishlar (1973–1980) davri nomini oldi. Yaponiyada inqiroz 1976-yilda bartaraf etildi, ammo mamlakat iqtisodiy jonlanish bosqichiga «tarkibiy kasal tarmoqlar» — energiya va material sig'imkorligi yuqori tarmoqlar, yengil sanoatning mehnat sig'imkorligi yuqori tarmoqlari va kemasozlik tarmog'idagi muammolar bilan kirib keldi.

Beshinchi bosqich «sovun ko'pigi» iqtisodiyotining shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, bu davr Yaponiyada yo'qotilgan o'n yillik nomini oldi. 1990-yilning 1-oktyabri aksiyalar kursining pasayishi bilan boshlandi va Nikkey indeksi[2] 20 ming iyenagacha pasaydi, ya'ni 1989-yilning dekabriga nisbatan 49 %ga qisqardi. Keyinchalik 1-oktyabr qora dushanba deb ataladigan bo'ldi. «Sovun ko'pigi» iqtisodiyoti inqirozi bilan bog'liq salbiy oqibatlarning real sektorga ta'siri natijasida Yaponiya iqtisodiyoti chuqur va davomli depressiya holatiga tushib qoldi. Ushbu holat 2004–2010-yillardagi biroz jonlanishni hisobga olmaganda 2011-yilgacha davom etdi.

Fikrimizcha, 2011-yil 11-martdagi yer qimirlashi bilan bog'liq voqeadan so'ng Yaponiya iqtisodiyotining rivojlanishidagi **oltinchi bosqich** boshlandi.

Yaponiyaning iqtisodiy rivojlanish modeliga xos quyidagi belgilarni ajratish mumkin:

- davlatning tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish, savdo va investitsiyalar sohasidagi ulushining pastligi;
- davlatning tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishdagi faol ishtiroki;

1 Yaponiyadagi yirik moliya-sanoat guruhlari.

2 Tokio fond birjasining birinchi seksiyasida savdoda faol qatnashadigan 225 ta kompaniya aksiyalari bahosining o'rtacha arifmetik oddiy usulda hisoblanadigan Yaponiya fond indeksi.

- mehnat bozorida firmalar darajasida bir marotabalik mehnat shartnomalarining qo'llanilishi. Mehnat munosabatlari «firma paternalizmi»ni (bir umr yollanib ishlash tizimi, firma — bizning uyimiz) ifoda etadi;
- firmalar va davlatning ishchi kuchi malakasini oshirish, ishchilarni ishlab chiqarishni boshqarishga jalb etishga alohida e'tibor qaratishi;
- moliya-sanoat guruhlarining keyretsularga asoslanishi. Ular kompaniyani tashkil etishning tarmoqli tizimiga egaligi, firmalar o'rtasidagi aloqalarni amalga oshirish, mijozlar va yetkazib beruvchilarning o'zaro ishonch munosabatlariga asoslanishi, mijozlar ehtiyojiga tezda moslashishi, sanoat birlashmalarining vertikal integratsiyalashish prinsipi bo'yicha tuzilganligi, kompaniya asosini bank tashkil etishi kabi xususiyatlarga ega. Yaponiya sanoat majmuasi «Mitsubisi», «Mitsui», «Sumitomo», «Daichi Kangin», «Fuye», «Sanva» kabi moliya-sanoat guruhlaridan tashkil topgan va ularning hissasiga mamlakat yalpi ichki mahsulotining 14–15 % to'g'ri keladi.

Yaponiya XX asrning ikkinchi yarmida barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga ega bo'ldi va ushbu ko'rsatkich 1951–1960-yillarda o'rtacha — 8,1 %, 1961–1970-yillarda — 10,7 %, 1971–1980-yillarda — 4,6 %, 1981–1990-yillarda 4,0 %ni tashkil etdi[1].

Fikrimizcha, Yaponiyaning «iqtisodiy mo'jizaga» erishish omillari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- yalpi jamg'arish normasining yuqoriligi — ushbu ko'rsatkich 1990-yillarning o'rtalarigacha 30 %dan yuqori bo'ldi;
- harbiy xarajatlarning pastligi — davlat byudjetidan harbiy mudofaa uchun sarflanayotgan xarajatlar miqdori 1930–1940-yillarda yalpi ichki mahsulotning 9–10 %ni tashkil etgani holda, ushbu ko'rsatkich 1947–1980-yillarda 1 %dan oshmadi. Yaponiya konstitutsiyasiga muvofiq harbiy maqsadlar uchun sarflanadigan davlat byudjeti xarajatlari mamlakat YaIM ning 1 %dan oshiq bo'lishi mumkin emas;
- AQSh va G'arbiy Yevropaga nisbatan yapon ishchi kuchining arzonligi, yuqori malakaga egaligi va mehnatsevarligi;
- xorijiy ilmiy-texnik bilimlardan va yuqori texnologiyadan samarali foydalanishi;
- iqtisodiyotda faol tarkibiy qayta o'zgarishlarning amalga oshirilishi;
- eksportni rivojlantirishga yo'naltirilgan faol siyosatning olib borilganligi. Hukumatning urushdan keyingi iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasiga muvofiq tabiiy resurslarga boy bo'lmagan mamlakat faqat eksportbop tayyor mahsulotlar ishlab chiqaribgina «omon» qolishi mumkin edi. Bundan tashqari, yapon eksporti iyenaning past kursi yordamida muntazam rag'batlantirib borildi;
- urushdan keyingi iqtisodiy islohotlar — urushgacha bo'lgan monopoliyalarni yiriklashtirdi va agrar islohotlar amalga oshirildi;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan samarali tartibga solish — umummilliy iqtisodiy dasturlar, ustuvor tarmoqlarga soliq imtiyozlarini joriy etish, ichki bozorga raqobatchilarni kiritmaslik, inflyatsiyaning past darajasini ta'minlash;
- mamlakat hududining qulay iqtisodiy-geografik joylashganligi. Mamlakat Tinch okeani havzasi mintaqasining markazida joylashganligi sababli, aksariyat xalqaro dengiz va havo yo'llari bu hududni kesib o'tadi.

1 Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник. /под ред. Проф. А. С. Булатова, проф. Н. Н. Ливенцева. — М.: Магистр, 2010. С. 281.

8.2. Yaponiya iqtisodiyotining tarkibi va rivojlanish dinamikasi

Yaponiya dunyoning yetakchi iqtisodiy markazlaridan biri hisoblanadi. 2013-yilda Yaponiyaning nominal YaIM ning hajmi 4,9 trln. dollarga (aholi jon boshiga 38491 dollar) teng bo'lib, ushbu ko'rsatkich bo'yicha AQSh va Xitoydan keyin uchinchi o'rinni egallaydi. Shunga qaramasdan oxirgi yillarda Xitoy, Hindiston, Braziliya kabi yirik rivojlanayotgan mamlakatlarning barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishishlari tufayli Yaponiyaning global iqtisodiy tizimdagi o'rni biroz sustlashdi. Misol uchun, Yaponiyaning dunyo YaIM dagi hissasi 1990-yilda 14,3 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 5,4 %ga teng bo'ldi[1]. YaIM ning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan hajmi bo'yicha Yaponiya 2000-yilda dunyoda 3-o'rinni egallagan bo'lsa, 2013-yilda 23-o'rinni, Menejmentni rivojlantirish xalqaro institutining xalqaro raqobatbardoshlik reytingida mamlakat 1990-yilda 1-o'rinni egallagani holda 2010-yilda 6-o'ringa tushib qoldi[2].

Yaponiya iqtisodiyotining tarmoq tarkibi ham rivojlangan mamlakatlar kabi postindustrial ko'rinishga ega. 2010-yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining 71 % xizmatlar, 29 % sanoat, 1 % qishloq xo'jaligi sohasiga to'g'ri keldi. 1980–2010-yillarda yalpi ichki mahsulotning tarmoq tarkibida qishloq xo'jaligining ulushi 4 %dan 1 %gacha, sanoatning ulushi 42 %dan 28 %gacha qisqargani holda, xizmatlar sohasining ulushi 24 %dan 71 %gacha ortdi (8.2.1-jadval).

8.2.1-jadval

Yaponiya iqtisodiyotining tarmoq tarkibi, jamiga nisbatan foiz hisobida

	1980-y.	2000-y.	2010-y.
Sanoat	42	36	28
Qishloq xo'jaligi	4	2	1
Xizmatlar sohasi	54	62	71

Manba: World Development Report 2012. World Bank. P. 396.

Real sektor. Yaponiya qishloq xo'jaligi mehnat unumdorligi bo'yicha boshqa tarmoqlardan ortda qoldi. Oxirgi yillarda mamlakatning o'zini o'zi oziq-ovqat bilan ta'minlash koeffitsiyenti (40 %dan past) pasayib, oziq-ovqat importining ulushi ortib bormoqda. Yapon hukumati qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish va o'zini o'zi oziq-ovqat bilan ta'minlashni yaqin istiqbolda 45 %ga oshirish chora-tadbirlaridan iborat maxsus dasturlar ishlab chiqdi.

Yaponiyaning hududiy joylashuvi dengiz bilan bog'liq tarmoqlarning rivojlanishi va aholining oziq-ovqat iste'molida dengiz mahsulotlarining yetakchi mavqega egaligini ta'minlagan. Yaponiya dengiz mahsulotlarini iste'mol qilish bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinni egallaydi.

1 World Development Report 2012. World Bank. P. 392, 393.; The Global Competitiveness Report 2014–2015. World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2014. P. 400, 402, 403.

2 O'sha manba. R. 226.

Yaponiya sanoati dunyo sanoat mahsulotlarining taxminan 12 %ni beradi va asosan qayta ishlash sanoati mahsulotlaridan iborat. Mamlakat qayta ishlash sanoatida material va energiya sig'imkorligi yuqori tarmoqlardan ilm-fan sig'imkorligi yuqori tarmoqlarga o'tish jarayoni ro'y bermoqda. Yaponiya hozirga qadar katta miqdorda po'lat va prokat, kemalar, matolar ishlab chiqarsa-da, elektronika, sanoat, avtomobilsozlik, sanoat asbob-uskunalarini ishlab chiqarish, kimyo sanoati tarmoqlari yuqori raqobatbardoshlikka ega.

Yaponiya rivojlangan transport tizimiga ega va u muntazam ilmiy-texnik yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi. Avtomobil transporti yo'lovchi va yuk tashishda yetakchilik qiladi. Misol uchun, 2003-yilda mamlakatda 77,6 mln. avtotransport vositalari ro'yxatga olingan va uning 69 % yengil avtomobillarga to'g'ri keladi.

Yaponiyaning **pul-kredit tizimi** Yaponiya Banki (mamlakatning markaziy banki), shahar (3 mingta) va hududiy (12 mingta) filiallarga ega o'ndan ortiq banklardan — tijorat banklari, trast-banklar, uzoq muddatli kreditlar beruvchi banklar (0,5 mingta filial) va 25 mingta pochta-jamg'arma kassalaridan iborat.

Soliq va byudjet sohasi. Yaponiyada yig'iladigan soliqlar tarkibi jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i (byudjetga tushadigan soliqlarning 40 %), korporativ soliq (30 %) va aksizlar ustuvorlik qiladi. Mamlakatda soliq yuki davlat byudjeti hajmining YaIM ga nisbatan ulushining kichikligi sababli Yevropa mamlakatlariga qaraganda past hisoblanadi.

1995–2010-yillarda davlat byudjeti kamomadi YaIM ga nisbatan o'rtacha 5–8 %ni tashkil etdi. Bu Yaponiya hukumatining iqtisodiyotni retsessiya holatidan (1990-yillar, 2008–2010-yillar) olib chiqish uchun inqiroz holatidagi yapon kompaniyalari va banklarining aksiyalarini chegaralangan muddatga sotib olish shaklidagi yordami oqibatidir.

Davlat byudjeti kamomadi davlat obligatsiyalarini chiqarish yo'li bilan qoplanadi, bu esa katta miqdordagi davlat qarzlarini yuzaga keltiradi (8.2.2-jadval).

8.2.2-jadval

Yaponiya davlat byudjeti kamomadi va davlat qarzi dinamikasi

	1995–2004-y.	2005-y.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.
Sof kreditlash/sof qarz	–6,3	–4,8	–4,0	–2,4	–4,2	–10,3	–9,2
To'lov balansi saldosi	–5,9	–4,6	–3,9	–2,6	–3,7	–7,1	–7,4
Sof qarz	54,6	84,6	84,3	81,5	96,5	110,0	117,2
Yalpi qarz	135,4	191,6	191,3	187,7	195,0	216,3	220,0

Manba: Перспективы развития мировой экономики. Замедление роста, увеличение рисков. Обзор. Сентябрь 2011. МВФ. Вашингтон, 2011. С. 207.

Ijtimoiy soha. Yaponiyaning ijtimoiy sohasidagi erishgan yutuqlarining muhim jihatlari quyidagilardan iborat:

- mehnat bozoridagi yangiliklar — mehnat bozorida bir umr yollab ishlatish va ish haqini yoshga qarab to'lash tizimidan bosqichma-bosqich G'arb mehnat tizimiga o'tish amalga oshirildi;
- ta'lim tizimini yangilash — o'quvchilarda mustaqil fikrlash va individuallikni tarbiyalash tizimiga o'tish boshlandi, umumta'lim maktablariga nisbatan tenglashtirish yondashuvi tugatilib, xususiy maktablarni yaratish rag'batlantirilmoqda;
- iste'mol talabi tarkibini o'zgartirish — jamg'armalar hajmi qisqarib, oila byudjetida shaxsiy iste'mol muhim o'ringa ega bo'lmoqda. Yaponiyada yuqori sifatli

tovarlar va xizmatlar iste'moli ortib bormoqda, uy egalarining soni, xonadon xo'jaliklarida sog'liqni saqlash, ta'lim, dam olish xarajatlari ortib bormoqda;

- pensiya tizimida islohotlar — mamlakat keyingi vaqtlarda pensiya tizimida muammolarga duch keldi. Buning asosiy sabablaridan biri pensiya tizimidagi katta miqdordagi moliyaviy kamomad hisoblanadi. Yaponiya hukumati pensiya tizimini isloh etishning 10–15-yilga mo'ljallangan dasturini ishlab chiqdi. Unda fuqarolarning badallarini bosqichma-bosqich ko'paytirib borish va bazaviy pensiyani subsidiyalashda davlat ulushini oshirib borish ko'zda tutilgan.

Yaponiya uchun **aholining qarishi** muammosi eng jiddiy ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Yaponiya dunyoda aholining kutilayotgan umri uzunligi bo'yicha birinchi o'rinda turadi va bu ko'rsatkich 2013-yilda o'rtacha 83,6 yoshni tashkil etdi. Yaponiya aholisining tarkibida 65 va undan katta yoshdagi aholi ulushi 25,1 %ga teng[1]. Aholining qarishi jarayoni bilan bog'liq quyidagi salbiy oqibatlar kelib chiqishi mumkin.

Birinchidan, aholi tarkibida yoshlar ulushi qisqarib boradi. Yapon kompaniyalari hozirdanoq noan'anaviy dunyoqarashga ega harakatchan yosh ishchi kuchining yetishmasligini sezishmoqda. Yaponiyadagi yirik kompaniyalarning yuqori boshqaruv personalining o'rtacha yoshi 60 yoshga teng.

Ikkinchidan, aholi tarkibida qariyalar ulushining ortib borishi pensiya ta'minoti va sog'liqni saqlash xarajatlarining ko'payishiga olib keladi. Mamlakatda ijtimoiy sohada yuzaga kelayotgan murakkab vaziyatni yumshatish maqsadida pensiyaga chiqish yoshini 60 yoshdan 65 yoshgacha uzaytirildi. Yuqoridagi sabablarga ko'ra ijtimoiy xarajatlarning oshib ketishi davlat byudjeti kamomadi va davlat qarzining o'sib ketishiga olib kelmoqda.

Tashqi iqtisodiy strategiyasi. Yaponiya «iqtisodiy mo'jizasi»ning sabablaridan biri — ichki bozorni himoyalash va mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishni har tomonlama samarali qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan tashqi iqtisodiy strategiyaning tanlanganligidir. Yaponiya uchun to'lov balansining joriy operatsiyalar schyoti bo'yicha katta miqdordagi ijobiy qoldiq xos bo'lib, 2005–2013-yillarda ushbu ko'rsatkich 212,19 mlrd. dollardan 33,6 mlrd. dollargacha yoki YaIM ga nisbatan 4,9 %dan 0,7 %gachani tashkil etdgan (8.2.3-jadval).

8.2.3-jadval

Yaponiya to'lov balansining joriy operatsiyalar bo'yicha qoldig'i dinamikasi

	2005-y.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.
Joriy operatsiyalar qoldig'i, mlrd. doll.	165,7	174,5	212,1	142,6	145,3	217,6	126,5	58,7	33,6
Joriy operatsiyalar qoldig'i, YaIM ga nisbatan, %da	3,6	4,0	4,9	2,9	2,9	4,0	2,1	1,0	0,7
Joriy operatsiyalar qoldig'i, eksportga nisbatan, %da	...	24,0	26,4	16,0	21,7	25,1	13,6	6,4	4,1

Manba: World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. October 2014. IMF, 2014. P. 199, 200, 201.

XXI asr boshlarida JST tomonidan yaqingacha ustun darajada notarif to'siqlar yordamida yopiq bo'lgan Yaponiya ichki bozorini erkinlashtirish borasidagi talablar kuchayib bormoqda.

1 Human Development Report 2014. Sustaining Human Progress: Reducing Vulnerabilities and Building Resilince. UNDP. New York, 2014. P. 160,216.

Yaponiya jahon tovarlar eksporti va importida 2013-yilda 4-o'rinni, jahon xizmatlar eksporti va importida 8 va 6-o'rinlarni egalladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Yaponiya tashqi savdosiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Misol uchun, 2009-yilda tovarlar eksporti va importi 2008-yilga nisbatan mos ravishda 26 va 28 %ga pasaydi. Yaponiya iqtisodiyotidagi davom etayotgan inqiroz ta'sirida tashqi savdo pasayish sur'atlariga ega bo'lmoqda (8.2.4-jadval).

8.2.4-jadval
Yaponiya tashqi savdosining hajmi va o'zgarishi, mlrd. doll.

	2013-y.	O'tgan yilga nisbatan o'zgarish, %				
		2005–2013-yillarda o'rtacha	2009-y.	2010-y.	2012-y.	2013-y.
Tovarlar eksporti	715,1	2	–26	33	–3	–10
Tovarlar importi	883,2	6	–28	26	4	–6
Xizmatlar eksporti	145,3	...	–14	10	0	2
Xizmatlar importi	162,3	...	–12	6	6	–7

Manba: Trade Profiles 2011. WTO. Geneva, 2011. P. 92.; Trade Profiles 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 96.

Yaponiya tashqi savdosining tovar tarkibida sanoat mahsulotlari yetakchi mavqega ega. 2013-yilda sanoat mahsulotlarining tovarlar eksportidagi ulushi 87,6 %ni, tovarlar importida esa 47,9 %ni tashkil etdi (8.2.5-jadval).

8.2.5-jadval
Yaponiya tashqi savdosining tovar tarkibi, %

Yillar	Oziq-ovqat mahsulotlari	Qishloq xo'jalik mahsulotlari	Yoqilg'i mahsulotlari	Qazib chiqarish sanoati mahsulotlari	Sanoat mahsulotlari	Shu jumladan:		
						Kimyo sanoati mahsulotlari	Mashinasozlik va transport mahsulotlari	Boshqa sanoat mahsulotlari
Eksport								
1995	0,5	0,6	0,6	1,2	95,1	6,8	70,3	18,0
2005	0,5	0,5	0,7	2,1	91,8	8,8	64,1	18,9
2013	0,6	0,9	2,3	3,6	87,6	10,6	57,9	19,0
Import								
1995	16,1	6,2	16,0	8,5	52,0	7,1	22,6	22,3
2005	10,4	2,4	25,8	6,6	53,3	7,3	25,7	20,3
2013	8,6	1,7	33,8	6,8	47,9	7,9	22,7	17,3

Manba: UNCTAD Handbook of Statistics 2014. New York and Geneva, 2014. P. 115,128.

Yaponiya tashqi savdosining geografik tarkibida rivojlangan mamlakatlar yetakchi ulushga ega bo'lsa-da, oxirgi yillarda jiddiy o'zgarishlarga uchramoqda. Jumladan, 1995–2013-yillarda mamlakat tovar eksporti va importida AQSh va YeI-27 mamlakatlarining ulushi mos ravishda 27,5 %, 16,2 % va 22,6 %, 14,7 %, dan 18,0 %, 10,0 % va 8,6 %, 9,4 %ga qadar qisqargan (8.2.6-jadval).

8.2.6-jadval

Yaponiya tashqi tovar aylanmasining geografik tarkibi, jamiga nisbatan %da

	Jami	Rivojlangan mamlakatlar				Rivojlanayotgan mamlakatlar	O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari
		Jami	Yel-28	AQSh	Boshqalar		
eksport							
1995	100	48,2	16,2	27,5	4,5	51,4	0,3
2005	100	42,4	14,8	22,9	4,7	56,7	0,9
2013	100	33,5	10,0	18,8	4,7	64,6	1,8
import							
1995	100	47,6	14,7	22,6	10,3	50,9	1,5
2005	100	32,5	11,4	12,7	8,4	66,2	1,3
2013	100	27,3	9,4	8,6	9,3	69,7	3,0

Manba: UNCTAD Handbook of Statistics 2014. New York and Geneva, 2014. P. 49, 61.

Yaponiya tovar importi tarkibida asosiy iste'mol tovarlari va xomashyo yetkazib beruvchi Xitoy va Yaqin Sharq mamlakatlari ulushi mos ravishda 11,4, 6,9 %dan 21,7, 19,3 %gacha ortgan[1].

Yaponiya iqtisodiyotining asosini mahsulotlar va xizmatlar eksporti tashkil etadi. Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdosining barqaror sur'atlarda rivojlanishi va yapon kompaniyalarining ushbu hududga investitsiya kiritishi istiqbolli hisoblanadi. Birinchidan, Sharqiy Osiyo bozorlari jadal va barqaror sur'atlarda kengayib bormoqda, iqtisodiy va siyosiy jihatdan hudud ichidagi iqtisodiy hamkorlik uchun ochiqdir. Ikkinchidan, Sharqiy Osiyoda JST, Ikki tomonlama iqtisodiy shartnomalar bo'yicha hamkorlik, Erkin savdo to'g'risidagi kelishuv, Osiyo — Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi kabi kelishuvlar doirasida savdo munosabatlarini rag'batlantirish dastaklari mavjud va amal qilmoqda.

8.3. Yaponiya iqtisodiyotiga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'siri va undan chiqish yo'llari

Rivojlangan mamlakatlar ichida Yaponiya jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan jiddiy zarar ko'rgan mamlakat hisoblanadi. Yaponiya hukumati iqtisodiyotda retsessiya holatining boshlanganligini 2008-yil noyabrining oxirida rasmiy e'lon qildi. 2008-yilda Yaponiya iqtisodiyoti xomashyo narxlarining o'sib ketishi va jahon moliyaviy bozorlarida boshlangan tushkunlik ta'sirini boshidan kechirdi. Bu holat pul resurslarining moliyaviy bozorlardan tovarlar bozoriga oqib o'tishi va dollar kursining pasayishi bilan bog'liq. 2008-yilda Yaponiya tashqi savdo balansi 1960-yillardan keyin birinchi marta kamomad bilan (172,8 mlrd. iyen yoki 1,74 mlrd. doll.) yopildi[2].

Jahon moliya bozorlarida boshlangan inqiroz iyenaning revalvatsiyalashuvini tezlashtirdi. Yaponiyada inflyatsiya darajasi dunyodagi eng past ko'rsatkichga teng bo'lganligi bois yapon iyenasi jahon valyuta bozorida arzon likvidlik manbayiga aylandi. Iena kursi 2007-yilning oxirida 1 dollar 113 iyenadan 2009-yilning sentyabrida 1 dollar 90–92 iyenagacha, yevroga nisbatan esa 1 yevro 160 iyenadan 130–132 iyenaga oshdi.

1 International Trade Statistics 2014. WTO. P. 33.

2 Мировой кризис и Япония / Рук. проекта Э. В. Молодякова. — М.: «АИРО-XXI», 2009. С. 59.

Ienaning revalvatsiyaga uchrashi yoqilg'i, xomashyo va oziq-ovqat narxining o'sishini qoplagan bo'lsa-da, xorijiy bozorlarda talabning pasayishi tufayli mamlakat eksportining qisqarishiga olib keldi. 2009-yilda aynan asosiy eksport bozorlaridagi yapon mahsulotlariga bo'lgan talabning qisqarishi Yaponiya iqtisodiyotining pasayishida hal qiluvchi rol o'ynadi. Buning sababi Yaponiya eksport kvotasi XXI asr boshida 11–12 %dan 15–17 %ga qadar oshdi. Mamlakat eksportining 2/3 qismi mashinasozlik mahsulotlaridan iborat. Iqtisodiy inqirozgacha bo'lgan vaqtda mashina va asbob-uskunalarning 28 %, jumladan, transport mahsulotlarining 28 % va elektrotexnika mashinasozligi mahsulotlarining 30 % tashqi bozorlarga chiqarilgan. Jahon retsessiyasi ushbu bozorlarda avtomobillar, uzoq muddat xizmat qiluvchi iste'mol tovarlari va investitsiya tovarlariga bo'lgan talabning keskin qisqarishiga olib keldi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Yaponiya sanoati mahsulotlari xorijiy bozorlarda «ortiqchalik» qilib qoldi va eksport hajmi keskin qisqardi. Sanoat ishlab chiqarish indeksi 2009-yilning fevralida 2005-yilga nisbatan 69,5 %ga teng bo'ldi va pasayish 36,9 %ni tashkil etdi.

Mamlakat YaIM 2008-yilda 1,2 %, 2009-yilda esa 6,3 %ga pasaydi va ushbu pasayishning 70 % yapon tovarlariga bo'lgan tashqi talabning, qolgan 30 % ichki bozordagi talabning qisqarishi bilan bog'liq (8.3.1-jadval).

8.3.1-jadval

Yaponiyaning makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi, o'tgan yilga nisbatan %da

	1993–2002-yy.	2003-y.	2004-y.	2005-y.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.
Real YaIM	0,8	1,4	2,7	1,9	2,0	2,4	–1,2	–6,3	4,0
Xususiy iste'mol xarajatlari	1,2	0,4	1,6	1,3	1,5	1,6	–0,7	–1,9	1,8
Davlat iste'moli	2,9	2,3	1,9	1,6	0,4	1,5	0,5	3,0	2,2
Asosiy kapitalni yalpi jamg'arish	–1,2	–0,5	1,4	3,1	0,5	–1,2	–3,6	–11,7	–0,2
Ichki talab	0,8	0,5	1,6	1,9	1,1	1,0	–1,1	–3,4	1,5
Inflyatsiya	2,1	2,1	2,2	2,2	2,2	2,1	3,3	0,3	1,6

Manba: Перспективы развития мировой экономики. Замедление роста, увеличение рисков. Обзор. Сентябрь 2011. МВФ. Вашингтон, 2011. С. 195, 196, 207.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yirik yapon kompaniyalari faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, elektrotexnika va elektronika sanoati («Xitati», «Panasonik», «NEC», «Tosiba» va «Soni») va avtomobilsozlik sanoati («Toyota», «Nissan» va «Xonda») kompaniyalari katta zarar ko'rishdi. Misol uchun, «Toyota» kompaniyasining sotish hajmi Shimoliy Amerika, Yevropa, Osiyo va Yaponiyaning o'zida 22 %ga qisqardi va 461 mlrd. iyen (4,85 mlrd. doll.) miqdorida zarar ko'rdi[1].

Yaponiyada ishsizlik darajasi jahon moliyaviy inqirozi ta'sirida 2009-yilda 5,7 %ga yetdi, bu ko'rsatkich xalqaro darajadan past bo'lsa-da, Yaponiya uchun juda yuqori hisoblanadi. Ishdan, asosan, mehnat shartnomalari tugayotgan, vaqtinchalik

1 Мировой кризис и Япония / Рук. проекта Э. В. Молодякова. — М.: «АИРО-XXI», 2009. С. 61.

va to'liqsiz ish kunida ishlayotganlar bo'shatildi. Keng miqyosda ishdan bo'shatishlar esa zavod va fabrikalar yopilgan vaqtda yuz berdi, ammo kompaniyalar davlatning bandlikni saqlab qolish uchun ajratgan maqsadli subsidiyalaridan foydalangan holda doimiy ishchilarini ishdan bo'shatmaslikka harakat qilishmoqda.

Yaponiya jahon moliya inqirozining markazi bo'lmagan bo'lsa-da, yapon kompaniyalarining aksiyalari Yevropa va AQSh kompaniyalari aksiyalariga qaraganda ko'proq qadrsizlandi. Nikkey 225 birja indeksi 2008-yil may oyidagi 14400 punktdan 2009-yil aprel oyidagi 7560 punktgacha pasaydi. Fond bozoridagi ilk pasayish eksportyor kompaniyalar foydasining pasayishi va xorijiy filiallaridagi aktivlarining qadrsizlanishi tufayli ro'y berdi. Tokio fond birjasi ma'lumotlariga ko'ra 2009-yilning boshida listingdagi 30 %gacha aksiyalar xorijliklarga tegishli bo'lgan va ularning umumiy birja aylanmasidagi ulushi 60 %ni tashkil etgan. Inqiroz boshlanishi bilan xorijiy investorlar o'z aksiyalarini sota boshlashdi. Tahlillar ko'rsatishicha, xorijiy investorlar 2003–2007-yillarda sotib olgan aksiyalarining 39 %ni 16 %li kurs qiymati bo'yicha sotishgan[1].

Yaponiya hukumati 2008-yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish, iqtisodiyotni rag'batlantirish maqsadida umumiy qiymati 75 trln. iyenaga teng uchta (2008-yil 28-avgust, 30-oktyabr, 12-dekabr) inqirozga qarshi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqdi va ushbu tadbirlarga mablag'larning 12 trln. iyenasini bevosita byudjet mablag'lari (YaIM ga nisbatan 2 %) tashkil etdi[2]. Inqirozga qarshi qabul qilingan chora-tadbirlar dasturlari quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oldi:

- moliya tizimini qo'llab-quvvatlash — fond bozorini barqarorlashtirish, ichki kreditlash shartlarining yomonlashuvini bartaraf etish, moliyaviy institutlarga davlat tomonidan yordam ko'rsatish, xususiy banklarga kichik va o'rta korxonalarga kredit ajratishlari uchun hukumat kafolatlari tizimini kengaytirish ko'zda tutildi;
- aholini ijtimoiy himoyalash — aholiga bevosita pulli to'lovlar taqdim etish, tibbiy va maktab muassasalariga moliyaviy yordam berish, ayrim import qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari narxi ustidan davlat nazoratini o'rnatish, tezyurar avtomobil yo'llaridan foydalanganlik uchun to'lovlarni pasaytirish, tibbiy xarajatlarni qisman qoplash kabi chora-tadbirlarni qamrab oldi;
- bandlikni qo'llab-quvvatlash — hukumat tomonidan bandlik darajasini saqlab qolayotgan, ishga nogironlarni qabul qilayotgan shtatdan tashqari ishlayotganlarni shtatga qabul qilayotgan kompaniyalarni moliyaviy rag'batlantirish tizimining joriy qilinishi, qisqartirishga tushib qolgan ishchilarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish, uy-joy ijarasi va yangi ish o'rnini qidirish xarajatlari uchun kreditlar berish kabi chora-tadbirlardan iborat;
- hududlarga yordam berish — jamoat ishlarini moliyalashtirishni ko'paytirish, qishloq xo'jaligi, ta'lim va tibbiy xizmat sohalarida hududiy loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari.

2009-yil 10-aprelda yangi inqirozga qarshi iqtisodiyotni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi. Bu rejada umumiy xarajatlar 56,8 trln. iyenani (570 mlrd. doll.), bevosita byudjet xarajatlari esa 15,4 trln. iyenani (YaIM ga nisbatan 3 %) tashkil etdi[3].

1 Мировой кризис и Япония / Рук. проекта Э. В. Молодякова. –М.: "АИРО-XXI", 2009. С. 64.
2 Деловая Япония, тома XIV–XV. Экономика и связи с Россией в 2007–09 гг. — М.: «ПОЛПРЕД Справочники», 2009. С. 5.
3 O'sha manba. C. 6.

Birinchi va ikkinchi chora-tadbirlar dasturida asosiy e'tibor kichik va o'rta korxonalarni bank kreditlari ko'rinishida qo'llab-quvvatlashga qaratildi. Ushbu korxonalarda iqtisodiyotda yollanib ishlayotganlarning 70 % band bo'lgani bois qabul qilingan chora-tadbirlar muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Ikkinchi dasturda aholiga 2 trln. iyena (20 mlrd. doll.), aholi jon boshiga 12 ming iyenadan (120 doll.) «jonli» pullar tarqatish ko'zda tutildi. 18 yoshdan kichik va 65 yoshdan katta yaponiyaliklar qo'shimcha 8 ming iyenadan olishdi. Bu dastur 2009-yilning bahorida amalga oshirildi va YaIM ga nisbatan 0,15 %ni tashkil etdi.

Uchinchi dastur ichki bozorni qo'llab-quvvatlash choralarini o'z ichiga oldi. Chakana savdo shoxobchalari energiyani tejovchi muzlatkich, sovitkich, televizorlarni sotishni rag'batlantiruvchi dasturlar doirasida xaridorlarga ballar qo'yib borishdi. Ushbu ballar Suica kartochkalari bo'yicha pullarga almashtirilib, jamoat transportida yo'l haqi sifatida foydalanildi. Ikkilamchi bozorda sotib olingan uy-joylar, «gibrid» avtomobillar va elektromobillarni sotib olish bo'yicha sug'urta imtiyozlari joriy etildi. 13-yildan ortiq xizmat muddatiga ega avtomobil egalari (10 mln.) yangi mashina sotib olish vaqtida 250 ming iyena (2600 doll.) miqdorida davlat subsidiyasini olishdi.

To'rtinchi dasturda infratuzilma obyektlarini qurish (shosse, ko'priklar va yo'l o'tkazgichlar, maktab binolari) xarajatlari o'rin oldi. 2009-moliya yilida ish o'rinlarini jadal sur'atlarda yaratish va tovarlar, xizmatlarga bo'lgan talabni oshirish maqsadida jamoat ishlariga jalb etish bo'yicha tuzilgan shartnomalar 20 %ga oshdi.

Yaponiya hukumati tomonidan amalga oshirilgan inqirozga qarshi choralar dasturlari natijasida 2009–2010-yillarda mamlakat iqtisodiyotida kuzatilayotgan ijobiy tendensiyalar 2011-yil 11-martdagi yer qimirlashi oqibatida to'xtab qoldi.

2011-yil 11-martdagi yer qimirlashi Xonsyu orolida joylashgan Ivate, Miyagi va Fukusima prefekturalarida yuz berdi. Zilzila oqibatida Fukusima atom elektr stansiyasining ishdan chiqishi natijasida zarar ko'rgan prefekturalar qatoriga Xokkaydo, Aomori, Ibaraki va Chibalarni ham kiritish mumkin. Zarar ko'rgan hududlar hissasiga jami aholining 17 %, (22 mln. kishi), mamlakat YaIM ning 15 % (74 trln. iyena), asosiy kapitalning 20 % (133 trln. iyena) to'g'ri keldi[1].

Ushbu zilzila va sunami Yaponiya tarixidagi eng kuchlisi bo'lib, katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib keldi. Dastlabki ma'lumotlarga qaraganda, uy xo'jaligi, ijtimoiy infratuzilma va xususiy firmalarga yetkazilgan zarar miqdori mamlakat YaIM ning 3,3–5,2 %ni tashkil qilgan. Bundan tashqari tashqi savdo hajmi, valyuta qiymati, iste'mol buyumlari narxiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi va Yaponiyaning istiqboldagi iqtisodiy rivojlanishi haqida noaniqliklar keltirib chiqardi (elektr tarmoqlaridagi uzilishlar, Fukusimadagi atom stansiyasidagi muammolar, davlatning rekonstruksiya xarajatlari). Zilzila natijasida Tokio viloyatidagi fabrikalarga yetkazilgan zarar sanoat mahsulotlari, xususan, avtomobil sanoati mahsulotlariga bo'lgan talabga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Yaponiya Banki ma'lumotlariga ko'ra mamlakatdagi to'qqizta iqtisodiy hududning yettitasida mahsulotlar ishlab chiqarishda iqtisodiy pasayish yuz berdi.

Yaponiya hukumati zilzila oqibatlarini bartaraf etish uchun dastlabki 15 oyda 3,2 trln. iyena (YaIM ga nisbatan 0,7 %) va keyingi 6-yil muddat ichida 5 trln. iyena sarflashni belgilagan. 2011-yil 11 martdagi zilzilada ko'rilgan zarar 16 trln. iyenadan 25 trln. iyenagacha baholanmoqda va zilzila oqibatlarini qayta tiklash xarajatlari 2012-yil oxirigacha 5,6 trln. iyena (YaIM ga nisbatan 1,1 %)ni tashkil etishi kutilmoqda[2].

1 Шейхова У. Д. Экономика Японии: современное состояние и тенденции развития.//Международная экономика, №11, 2011. С. 33.

2 http://www.oecd.org/document/25/0,3746,en_2649_37443_47675097_1_1_1_37443,00.html.

Mutaxassislarning fikricha, 2011-yil 11-martda yuz bergan tabiiy ofat keltirgan jiddiy zararga qaramasdan Yaponiya iqtisodiyotining qayta tiklanishini ta'minlab beruvchi asosiy shart-sharoitlar o'zgarmagan. Birinchidan, Yaponiya eksporti va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarining aksariyat qismi Xitoy, Yevropa Ittifoqi va AQSh hissasiga to'g'ri keladi. Jumladan, Yaponiya iqtisodiyotiga jalb etilayotgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarining 33,6 % Shimoliy Amerika, 26,6 % Yevropa Ittifoqi, 20 % Sharqiy Osiyo hissasiga to'g'ri keladi[1]. Ikkinchidan, tabiiy ofatning iqtisodiy samarasi ijobiy tomonga o'zgarishi mumkin. Chunki tabiiy ofat keltirgan zararni bartaraf etish uchun qo'shimcha investitsiyalarning jalb etilishi, asosiy fondlarning yangilanishi uzoq muddatli istiqbolda mamlakatni iqtisodiy jonlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jahon iqtisodiyoti markazlaridan biri sifatida Yaponiya AQSh va G'arbiy Yevropa o'rtasida balanslovchi vazifasini o'ynamoqda. Shunga qaramasdan mamlakatdagi shu vaqtgacha samarali hisoblangan, tashqi o'zgarishlarga tez moslasha oladigan byurokratik tizim, makroiqtisodiy siyosatdagi ichki yopiqlik va konservatizm Yaponiyaning jahon iqtisodiy markazi sifatidagi mavqeyining pasayishiga olib kelmoqda.

8.4. O'zbekiston va Yaponiya iqtisodiy hamkorligi

Yaponiya O'zbekiston Respublikasining muhim savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. 1992-yildan O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida iqtisodiy hamkorlikning barcha yo'nalishlari bo'yicha faol aloqalar o'rnatilgan. Ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik aloqalari oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish, tarkibiy qayta qurishlarni amalga oshirish, gumanitar va rasmiy yordam shaklidagi kreditlar, qaytarilmaydigan ssudalar ko'rsatishdan boshlangan.

1994-yilda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat vazirligi va «Mitsubisi Korporeyshn», «Mitsui va Ko» LTD, «Sumitomo Korporeyshn», «Nishe Ivai Korporeyshn» kompaniyalari, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki va Yaponiyaning «Bank of Tokio» va «Sakura-bankom» banklari o'rtasida hamkorlik kelishuvlari imzolandi. O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini ta'mirlash, Shahrisabz va Chinoz tumanlarida tekstil mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar bunyod etish, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida aeroportlarni xalqaro talablar darajasida ta'mirlash to'g'risidagi hujjatlar imzolandi, Rishton va Komatsu shaharlari birodar shaharlar maqomini olishdi.

Yaponiya O'zbekistonning yirik investorlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi investitsion hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari sifatida tog'-kon sanoati, neft va gaz sohasi, agrosanoat majmuasi, aloqa sektori belgilangan.

Yaponiya O'zbekistonning eng yirik investorlaridan biri hisoblanadi. Yaponiya investitsiyalari iqtisodiyotimizning neft-gaz tarmoqlari, transport sektori, telekommunikatsiya, sog'liqni saqlash, ta'lim, qishloq xo'jaligi tarmoqlariga sarflanmoqda. 2010-yilga kelib O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan yapon investitsiyalarining umumiy hajmi 2,3 mlrd. dollardan ortdi. Davlat imtiyozli iyena kreditlari yo'nalishi bo'yicha 1,2 mlrd. dollarni, beg'araz yordam yo'nalishi bo'yicha 280 mln. dollarni, texnikaviy ko'mak yo'nalishi bo'yicha 110 mln. dollarni, tijorat kreditlari yo'nalishi bo'yicha esa 720 mln. dollarni tashkil etdi[2]. Misol uchun,

1 *Шейхова У. Д.* Экономика Японии: современное состояние и тенденции развития. //Международная экономика, №11, 2011. С. 31.

2 Ўзбекистон — Япония: самарали хамкорликнинг 20 йили /Халқ сўзи. 26.01.12.

«Rivojlanishga rasmiy yordam» dasturi doirasida Yaponiya hukumati tomonidan Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on temiryo'l qurish loyihasi uchun 150 mln. AQSh dollari atrofida imtiyozli kredit ajratildi.

O'zbekistonda o'nga yaqin o'zbek-yapon qo'shma korxonasi, uchta yuz foizli yapon kapitaliga asoslangan korxona faoliyat yuritmoqda. 1999–2001-yillarda Toshkent shahrida Yaponiya tashqi savdo tashkiloti (JETRO), Yapon xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) va O'zbek-yapon Markazi o'z mintaqaviy vakolatxonlarini ochgan va beg'araz texnik yordam, ikki mamlakat ishbilarmon doiralari o'rtasida aloqalar o'rnatish hamda gumanitar sohadagi hamkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashadi. Bundan tashqari, O'zbekistonda «Mitsui va Ko LTD», «Chori», «Tomen korporeyshn», «Ay-Ti-Es Djapan LTD», «Mitsubisi Korporeyshn», «Toyota Suse Korporeyshn», «Marubeni Korporeyshn», «Sumitomo Korporeyshn» kabi kompaniyalarning vakolatxonalari ochilgan, «Soni», «Xitachi», «Panasonik» firmalarining savdo shoxobchalari mavjud.

O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi savdo munosabatlari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. O'zbekistonning eksport-import tarkibida Yaponiyaning ulushi 2000-yilda tegishlicha 0,4 va 1,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilga kelib bu ko'rsatkich 0,1 va 1,3 %ga teng bo'ldi. 2000–2012-yillarda O'zbekiston va Yaponiya tashqi savdo aylanmasi 3,4 martaga oshdi (8.4.1-jadval).

8.4.1-jadval

O'zbekiston va Yaponiya tashqi savdo aylanmasi, mln. doll.

	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.
Tashqi savdo aylanmasi	68,6	85,7	119,0	163,2	217,2
Eksport	13,7	31,7	13,0	15,7	11,5
Umumiy eksportdagi ulushi, %	0,4	0,6	0,1	0,1	0,1
Import	54,9	45,2	106,0	147,5	205,7
Umumiy importdagi ulushi, %	1,9	1,3	1,2	1,3	1,6
Saldo	-41,2	-13,5	-93,9	-131,8	-194,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi ma'lumotlari.

O'zbekistonning Yaponiyaga eksport qilayotgan mahsulotlarining tovar tarkibi quyidagicha: noorganik kimyo mahsulotlari; ipak; paxta; kalava; paxtali matolar; gilamlar; tekstil mahsulotlari; kiyim-kechak; sopol buyumlar; rangli metallar; mexanik asbob-uskunalar.

Yaponiya esa O'zbekistonga, o'z navbatida, quyidagi mahuslotlarni yetkazib beradi: organik kimyoviy birikmalar; bo'yoqlar; foto va kino mahsulotlari; kauchuk va rezina mahsulotlari; poligrafiya sanoati mahsulotlari; kimyoviy tola; oyna va oyna mahsulotlari; qora metall; mexanik asbob-uskunalar; elektr asbob-uskunalar, audio va videotexnika; transport vositalari va ehtiyot qismlar; optika, foto va tibbiyot mahsulotlari; soatlar va ehtiyot qismlar; musiqa asboblari va ehtiyot qismlar; mebel, yoritish asboblari.

Asosiy tushunchalar

Nikkey indeksi — Tokio fond birjasining birinchi seksiyasida savdoda faol qatnashadigan 225 ta kompaniya aksiyalari bahosining o'rtacha arifmetik oddiy usulda hisoblanadigan Yaponiya fond indeksi.

Dzaybatsu — XIX asrdan XX asrning birinchi yarmiga qadar Yaponiyada bank va sanoat birlashmalarini nazorat qiluvchi yirik oilalar.

Keyretsu — bitta kompaniyaga tegishli yoki uning bir qismi sanaluvchi firmalar, filiallar va yetkazib beruvchilarning korporativ ittifoqi.

«Firma paternalizmi» — bir umr yollanib ishlash tizimi, «firma — bizning uyimiz» shioriga asoslangan mehnat munosabatlari.

«Sovun ko'pigi» iqtisodiyoti — Yaponiyada 1980-yillarning ikkinchi yarmida pul mablag'larining chayqovchilik foydasini olish maqsadida moliyaviy aktivlarga joylashtirish natijasidagi bozor qiymatining jadal sur'atlarda o'sib ketishi.

JETRO — Yaponiya tashqi savdo tashkiloti.

JICA — Yapon xalqaro hamkorlik agentligi.

Nazorat savollari

1. Yaponiya makroiqtisodiy rivojlanish modelining omillari nimalardan iborat?
2. Yaponiya «iqtisodiy mo'jizasi»ning sabablari va xususiyatlarini sanab bering.
3. Yaponiya iqtisodiyotining tarkibi va xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rniga baho bering.
4. Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalarining tovar va geografik tarkibi qanday?
5. Yaponiya iqtisodiyotiga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi qanday ta'sir ko'rsatdi?
6. Yaponiya hukumatining jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi kurash dasturlarining tarkibiy qismi nimalardan iborat?
7. Yaponiyada 2011-yil 11-martda sodir bo'lgan zilzila oqibatlarining mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini baholang.
8. O'zbekiston va Yaponiya iqtisodiy hamkorligining ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?

III BO'LIM. JAHON XO'JALIGIDA RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI

9-BOB. RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTINING HOLATI, TARKIBI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

9.1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning belgilari va guruhlanishi

«Rivojlanayotgan mamlakatlar» atamasi ikkinchi jahon urushidan keyin mustamlaka tizimining parchalanishi va sobiq mustamlakalarning mustaqillikka erishishlari natijasida paydo bo'lgan.

Mazkur mamlakatlar guruhiga jahon xo'jaligi mamlakatlarining 80 % kiradi, dunyo aholisining 85,3 % ushbu mamlakatlarda istiqomat qiladi. Ushbu guruhga tarkibiga Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va Isroildan tashqari Osiyoning boshqa mamlakatlari, Afrika qit'asida esa Janubiy Afrika Respublikasidan tashqari barcha mamlakatlar, shuningdek Lotin Amerikasi mamlakatlari kiradi.

Ingliz tilidagi adabiyotlarda rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari «emerging markets» atamasi bilan nomlanadi. Iqtisodiy adabiyotda esa «shakllanayotgan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar» yoki oddiygina «bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar», deb tarjima qilinadi. Bu kategoriyaga bozor islohotlarini amalga oshirishda jiddiy muvaffaqiyatlarga erishgan, milliy bank-moliya tizimini mustahkamlash va jahon xo'jaligiga integratsiyalashishiga erishgan yetakchi rivojlanayotgan hamda sobiq sotsialistik mamlakatlar kiradi. Bu guruhga kiruvchi mamlakatlar iqtisodiyoti xalqaro kapital bozorlarida investitsiya resurslari eksportyori va importyori sifatidagi rolining keskin oshib borayotganligi bilan ajralib turadilar.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun quyidagi umumiy xususiyatlar xos.

Iqtisodiyotining ko'pukladliligi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda modernizatsiya jarayonlari natijasida iqtisodiyotning zamonaviy va an'anaviy sektorlari yonma-yon shakllanmoqda. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishi darajasining ortishi bilan birinchi sektor ulushi ikkinchi sektor hisobiga ko'payib boradi. Natijada qator rivojlanayotgan mamlakatlarda kapitalistik xo'jalik ukladi bilan bir qatorda qarindosh, urug'-aymoqchilik va patriarxal ishlab chiqarish munosabatlari shakllanadi. Iqtisodiyotda yirik va bir-biridan farq qiluvchi, har biri yana mayda sektorlardan iborat tarkibning mavjudligi ko'pukladlilik deb ataladi.

Iqtisodiyotda davlatning roli. XX asr mobaynida rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida davlatning roli salmoqli bo'ldi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, past daromadli mamlakatlarda davlat xarajatlarining ulushi 1990-yilda YaIM ga nisbatan 17,1 %ni, 2001-yilda esa 20,1 %ni tashkil etdi. Bu mamlakatlarda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari davlat ixtiyorida bo'lishining sababi — davlat ularni o'zi tashkil etganligi bilan bog'liq. Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat xarajatlari miqdorining rivojlangan mamlakatlarga nisbatan pastligi ijtimoiy sohaga sarflanayotgan xarajatlar

o'rtasidagi farq bilan belgilanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat xarajatlarining aksariyat qismi investitsiyalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida davlat sektori ulushining yuqoriligi quvib yetadigan iqtisodiy rivojlanish modeli bilan bevosita bog'liq bo'lib, iqtisodiyotni sanoatlashtirish davlatning faol ishtirokisiz amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, xo'jalik subyektlarining iqtisodiy faoliyati huquqiy-institutsional asoslarini yaratishda davlatning faol aralashuvi talab etildi. Shu bilan birga rivojlanayotgan mamlakatlarda davlatning iqtisodiy «o'yin qoidalari»ga rioya qilishdagi roli rivojlangan mamlakatlarga nisbatan samarasiz hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad yuqori mamlakatlarda tadbirkorlar uchun hamkor tomonidan shartnoma buzilgan taqdirda uni bartaraf etish uchun o'rtacha 267 kun (19 ta chora) ketadi va xarajatlar YaIM ga nisbatan 8 %ni tashkil etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ushbu jarayon 304 kunni (28 ta chora) va xarajatlar YaIM ga nisbatan 62 %ga teng bo'ladi. Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun yuqori daromadli mamlakatlarda o'rtacha 30 kun (7 ta chora) va xarajatlar YaIM ga nisabatan 9 %ni tashkil etgani holda, ushbu ko'rsatkich past daromadli mamlakatlarda 74 kun (11 ta chora) va xarajatlar YaIM ga nisbatan 213 %ni tashkil etadi. [1]

Sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlarga iqtisodiy va siyosiy hayotda bog'liqligi. Rivojlangan mamlakatlarga nisbatan iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha katta farqning mavjudligi rivojlanayotgan mamlakatlarni quvib yetadigan rivojlanish yo'liga undaydi. Quvib yetadigan iqtisodiy rivojlanish sharoitida iqtisodiyotni modernizatsiyalash ichki va tashqi omillar ta'sirida amalga oshiriladi. Ushbu mamlakatlarga rivojlangan mamlakatlardan katta miqdorda kapital, texnologiyalar va tadbirkorlik tajribasining kirib kelishi natijasida iqtisodiy rivojlanishda bog'liqlik fenomeni yuzaga keladi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish bir nechta yoki bitta xorijiy mamlakatdagi iqtisodiy holatga bog'liq bo'lib qoladi. Ushbu fenomen sobiq mustamlakalarda yaqqol namoyon bo'ladi, ularning aksariyat qismi sobiq mustamlakachilar yoki boshqa rivojlangan mamlakatlar ta'siri doirasiga tushib qolgan.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibi. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi jamiyatning ijtimoiy tuzilishi rivojlangan mamlakatlardan keskin farq qiladi. Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar jiddiy ijtimoiy muammolarga duch kelmoqda. Bu mamlakatlarda demografik portlash muammosi bilan birgalikda aholi daromadlari borasida kuchli ijtimoiy tabaqalashuv, rivojlanmagan ijtimoiy infratuzilma, ishsizlikning yuqori darajasi va yashirin iqtisodiyotning salmoqli ulushi mavjud.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida ijtimoiy infratuzilma — ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy kommunal xo'jaligi rivojlanmagan. Natijada, bu mamlakatlarda savodsizlik darajasi juda yuqori (Braziliyada — 11 %, Nigeriyada — 31 %, Hindistonda — 39 %, Misrda — 29 %), aholining kutilayotgan umri davomiyligi qisqa (Afrikaning Sahroyi Kabiridan janubda joylashgan mamlakatlarda 50 yosh), aholining juda oz qismi kanalizatsiya, toza ichimlik suvi quvurlari bilan ta'minlangan (Afrikaning Sahroyi Kabiridan janubda joylashgan mamlakatlarda 40 %dan past)[2]. Yuqori darajadagi qashshoqlikka qarshi kurashmasdan turib iqtisodiy o'sishni ta'minlashga intilish rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida ijtimoiy vaziyatning keskinlashuviga olib kelmoqda.

Ishlab chiqarish kuchlarining past darajada rivojlanganligi. Sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy infratuzilmaning texnik jihatdan ta'minlanish borasida qoloqlik

1 Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник. /под ред. Проф. А. С. Булатова, проф. Н. Н. Ливенцева. — М.: Магистр, 2010. С. 294–295.

2 O'sha manba. C. 195.

mavjud. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti ijtimoiy va texnologik jihatdan turli tarkibga ega. Shu bilan bog'liq holda rivojlanayotgan mamlakatlar xalqaro mehnat taqsimotida turli darajadagi faollik bilan qatnashadi:

- iqtisodiyotning xorijliklar qo'lidagi sohalari jahon bozorlariga chuqur kirib borgan;
- yirik va o'rta milliy kompaniyalar iqtisodiy rivojlanish darajasi ortgan sari jahon mahsulotlar bozoriga mahsulot olib chiqishni kengaytirishadi;
- ijtimoiy-iqtisodiy tarkibining turlichaligi rivojlanayotgan mamlakatlar tashqi iqtisodiy aloqalari miqyosining rivojlangan mamlakatlarga nisbatan kam bo'lishiga olib keladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida xorijiy kapital va TMKlar mavqeyining yuqoriligi. 1950-yillarda bu mamlakatlarda AQSh, Buyuk Britaniya va Fransiya kompaniyalari neft, tabiiy gaz, mineral resurslarni qazib chiqarish sohasining 70–100 %ni nazorat qilgan. Rivojlangan mamlakatlarning kompaniyalari Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida qishloq xo'jalik yerlarining katta qismiga egalik qilishgan. 1960-yillarning oxirida xorijiy kapitalga tegishli korxonalarda rivojlanayotgan mamlakatlar yalpi mahsulotining 25 % ishlab chiqarilgan. 1990-yillarga kelib xorijiy korporatsiyalarning filiallari rivojlanayotgan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining 7 %ni ishlab chiqargani holda, sanoat eksportining 30 % TMK kanallari bo'yicha amalga oshirilgan. 1990-yillarda bu mamlakatlarning bevosita xorijiy kapital ta'sirida iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtacha 4 %ni tashkil etdi.

Yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishiga qaramasdan xorijiy kapitalni faol jalb etish rivojlanayotgan mamlakatlar oldida turgan quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish imkonini bermadi:

- rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasi jihatdan tabaqalashuv jarayoni chuqurlashdi. Buning asosiy sababi aksariyat investitsiyalar ustun darajada yuqori foyda keltiradigan mamlakatlar iqtisodiyotiga joylashtirildi (Xitoy, Braziliya, Meksika);
- ular o'rtasida xorijiy kapitalni jalb etish bo'yicha raqobat kuchaydi;
- xorijiy kapital uchun yaratilayotgan imtiyozlar aksariyat hollarda mahalliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlariga zid holda amalga oshirildi. Spekulyativ kapitalga asoslangan portfel investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish qator rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror iqtisodiy rivojlanishni izdan chiqaruvchi elementga aylandi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarni strategik rivojlanishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy qoloqlikni bartaraf etish;
- iqtisodiyotni erkinlashtirish;
- rivojlangan mamlakatlar bozoriga kirib borish uchun kurash.

1960-yillarning o'rtalarida rivojlanayotgan mamlakatlar BMT da «77» guruhini tuzishdi va hozirgi vaqtda unga 150 ta mamlakat a'zo. «77» guruhi rivojlangan mamlakatlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga har yili o'z yalpi ichki mahsulotlarining 1 %ni, shu jumladan 0,7 %ni iqtisodiy yordam sifatida o'tkazishlarini talab etdi. Rivojlangan mamlakatlar bu talabni qabul qilmagan bo'lsalarda, ushbu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltirilgan resurslarni miqdoriy o'lchov birligiga aylandi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning tavsiflanishi. Rivojlanayotgan mamlakatlarni tavsiflashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanilmoqda:

- geografik joylashishi;
- sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning rivojlanganligi;
- sanoat mahsulotlarining eksportdagi ulushi;

- iqtisodiy rivojlanish darajasi.

Jahon banki yondashuviga muvofiq rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha quyidagi uch guruhga bo'linadi[1]:

1. Yuqori daromadli mamlakatlar. Bu mamlakatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi milliy daromadi 12616 dollardan oshadi, ularga Saudiya Arabistoni (18030 doll.), BAA (35040 doll.), Quvayt (44730 doll.), Qatar (78720 doll.) kabi mamlakatlar kiradi.
2. O'rta daromadli mamlakatlar. Bu guruhga aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi milliy daromadi 1036–12615 dollarga teng bo'lgan mamlakatlar kiradi.
3. Past daromadli mamlakatlar. Bu guruhga aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi milliy daromadi 1035 dollargacha bo'lgan mamlakatlar kiradi. Past daromadli mamlakatlar guruhiga Afrikaning Sahroyi Kabir janubidagi mamlakatlarning deyarli barchasi, Osiyodan — Afg'oniston (570 doll.), Nepal (700 doll.), Bangladesh (840 doll.), Tojikiston (850 doll.), Qirg'iziston (990 doll.) Lotin Amerikasidan — Gayyana (460 doll.) kabi mamlakatlar kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha bir-biridan farqlanuvchi uch turdagi mamlakatlar guruhidan iborat:

- yangi industrial mamlakatlar;
- o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari;
- qoloq mamlakatlar.

Ushbu guruhlar o'rtasida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi milliy mahsulot miqdoridagi farq rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi keskin farqdan yuqori hisoblanadi. Misol uchun, Lotin Amerikasi mamlakatlarida ushbu farq 27,4 martaga teng. Shu sababli rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti bir-biridan ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi va iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra farqlanadi.

9.2. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatlashtirish modellari

Rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish darajasi o'rtasidagi farqni bartaraf etishning strategik vositasi — bu sanoatlashtirish siyosatidir. Ushbu siyosatning asosini qayta ishlash sanoati tashkil qiladi. Dunyo amaliyotida sanoatlashtirishning quyidagi nazariyalari mavjud:

- endogen rivojlanish;
- «yangi iqtisodiy tartib»;
- «o'z kuchiga tayanish».

Rivojlanayotgan mamalakatlar amaliyotida quyidagi sanoatlashtirish dasturlari qo'llanilmoqda:

1. Sanoatning asos (bazis) tarmoqlarini rivojlantirish negizida iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish (Jazoir, Efiopiya, Misr, Vyetnam).
2. Importning o'rnini qoplash siyosati — og'ir sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va xorijiy kapitalni cheklash orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirish (Lotin Amerikasi mamlakatlari).
3. Eksportga yo'naltirilgan siyosat — ayrim tovarlarni tashqi bozorga chiqarish uchun ushbu tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashish (Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari).

1 World development report 2014. Risk and Opportunity Managing Risk for Development. The World Bank. Washington. 2014. P. 296, 297, 298.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatlashish davrini to'rt bosqichga bo'lish mumkin. Bu bosqichlar Janubi-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi yangi industrial mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajasi o'rtasidagi farqni ko'rsatib beradi:

- import o'rnini qoplovchi tarmoqlarni rivojlantirish;
- eksport salohiyatini va bazaviy tarmoqlarni shakllantirish;
- fan sig'imkorligi yuqori tarmoqlarni rivojlantirish;
- yangi industrial mamlakatlarning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi.

Birinchi bosqich 1950-yillarni o'z ichiga oladi va unda import qilinayotgan tovarlarni mahalliy mahsulotlar bilan almashtirish vazifasi qo'yildi. Bu esa erkin konvertatsiyalashgan valyuta mablag'larini tejash va ichki bozorni asosiy iste'mol tovarlari bilan to'ldirish imkonini berdi. Lotin Amerikasi yangi industrial mamlakatlari ushbu bosqichni Osiyo mamlakatlariga qaraganda oldinroq boshlashlariga qaramasdan, ichki bozorlari hajmining kattaligi sababli bu bosqich nisbatan uzoq muddat davom etdi. Osiyoning yangi industrial mamlakatlari 1960-yillardayoq import o'rnini qoplash bosqichidan sanoatlashish bosqichiga, eksport salohiyatini yaratishni ustun darajada rivojlantirish siyosatini amalga oshirishga o'tishdi. Bu davrda Lotin Amerikasi va Osiyo yangi industrial mamlakatlari o'rtasida sezilarli farq kuzatilmadi.

Ikkinchi bosqich 1960-yillarni qamrab oladi va ushbu davrda eksportga yo'naltirilgan siyosat borasida Lotin Amerikasi va Osiyo yangi industrial mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy rivojlanish jihatdan keskin tafovut yuzaga keldi. Osiyo mamlakatlarida ommaviy iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mehnat sig'imkorligi yuqori korxonalar barpo etildi. Lotin Amerikasi mamlakatlarida esa asosiy e'tibor qayta ishlash va qazib chiqarish sanoatining kapital sig'imkorligi yuqori texnologik tarmoqlarini rivojlantirishga qaratildi. Osiyoning yangi industrial mamlakatlarida eksportga yo'naltirilgan rivojlanish modeli iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish nuqtayi nazaridan samaraliroq bo'lib chiqdi.

Uchinchi — fan sig'imkorligi yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirish, mustaqil ilmiy tadqiqot bazasini yaratish bosqichi 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarning boshlariga to'g'ri keladi. Bu bosqich davlat va xususiy sektor tomonidan ilmiy-tadqiqot va tajriba-loyiha ishlariga sarflanayotgan mablag'larning oshirilib borishi bilan ajralib turadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda maxsus erkin iqtisodiy hududlar — ilmiy parklar shakllana boshladi. Ushbu bosqichda yangi industrial mamlakatlarda iqtisodiyotni muvaffaqiyatli modernizatsiyalash jarayoni amalga oshirildi va modernizatsiyalash muddati 10–25-yilni tashkil etdi. Bu o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston uchun juda muhim hisoblanadi. (9.2.1-jadval).

9.2.1-jadval

Yangi industrial mamlakatlarda iqtisodiyotni muvaffaqiyatli modernizatsiyalashning jahon tajribasi

Mamlakat	Boshlanishi	«Barqaror rivojlanish»ga o'tish	Jadal iqtisodiy o'sish davrining davomiyligi
Tayvan	1970-yillarning boshi	1990-yillarning oxiri	25-yil
Malayziya	1980-yillar	2000-yillarning boshi	20-yil
Koreya Respublikasi	1980-yillar	2000-yillarning boshi	20-yil
Singapur	1980-yillar	1990-yillarning boshi	10–15-yil
Chili	1960-yillarning oxiri	1980-yillarning oxiri	20-yil

Manba: Хейфец Б. А. Мировой опыт успешных модернизаций. //Международная экономика, №8. 2011. С. 23.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotni modernizatsiyalash dasturlarini amalga oshirish aholi daromadlari darajasining rivojlangan mamlakatlarga nisbatan tafovutni qisqartirishi lozim edi. Barcha mamlakatlarda modernizatsiya jarayonlari turli iqtisodiy rivojlanish darajalarida boshlanib, turli pirovard natijalarga erishdilar. Jumladan, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YalM miqdori 1,8 martadan (Chili) 3,8 martagacha (Tayvan), mehnat unumdorligi esa 1,3 martadan (Chili) 2,4 martaga (Tayvan) qadar oshdi (9.2.2-jadval).

9.2.2-jadval

Yangi industrial mamlakatlarda iqtisodiyotni modernizatsiyalash natijalari

Mamlakat	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YalM miqdori*		Mehnat unumdorligi (1 ishchiga to'g'ri keluvchi YalM miqdori, ming doll.)	
	«Boshlanish»da ming doll.	«Tugallanish»da ming doll.	«Boshlanish»da	«Tugallanish»da
Tayvan	4	15	11	26
Malayziya	3	8	10	20
Janubiy Koreya	4	13	14	30
Singapur	7	15	...	30
Chili	4	7	14	18

* YalM 1990-yil narxlarida hisoblangan.

Manba: Хейфец Б.А. Мировой опыт успешных модернизаций. //Международная экономика, №6, 2011. С. 24.

Yangi industrial mamlakatlarning rivojlanishidagi to'rtinchi bosqich — bu jahon xo'jaligiga integratsiyalashuv bosqichi hisoblanadi. Yangi industrial mamlakatlarda xorijiy kapital qatnashmagan bironta tarmoq yo'q. Bu sohada ilgari Lotin Amerikasi mamlakatlarida AQSh kompaniyalari, Janubi-Sharqiy Osiyoda Yaponiya kompaniyalari yetakchilik qilishgan bo'lsa, hozirda esa teskari jarayonlar kuzatilmoqda.

Yangi industrial mamlakatlarning sanoatlashish darajasi ko'rinish jarayonini quyidagi ikki bosqichlarga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich — iqtisodiy o'sishda yetakchi tarmoq sifatida qayta ishlash sanoatini rivojlantirish bosqichi. Bu tarmoqda ishlab chiqarish hajmi 1960–1995-yillar mobaynida 6 baravarga oshgan. Mazkur tarmoqning rivojlanish jarayoni texnologik jihatdan oddiy va ko'p kapital talab qilmaydigan matolar, kiyim-kechak, poyabzal, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishdan boshlangan.

Ikkinchi bosqich — sanoat ishlab chiqarishining rivojlanish bosqichi. Bu bosqichda rivojlanish ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan mahsulotlarga bo'lgan talabning ortishi bilan bog'liq bo'lgani sababli kapital ham tegishli tarmoqlarga oqib o't-gan. Natijada qayta ishlash sanoati mahsulotlarining umumiy hajmida ishlab chiqarish vositalari ulushining ortishi kuzatildi.

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, Osiyo mamlakatlarida kemasozlik, avtomobilsozlik, keyingi bosqichlarda audio va videotexnikalar ishlab chiqarish, kompyuter va axborotlar industriyasi tarmoqlari iqtisodiyotni modernizatsiyalashning harakatlantiruvchi tarmoqlari sifatida rivojlantirilgan. Ushbu tarmoqlarning rivojlanishi G'arbda erishilgan ilg'or, yuqori texnologiyalarni o'zlashtirishni talab etadi. Masalan, Yaponiyada 1960–1970-yillarda texnologiyalar importi ularning eksportidan sakkiz baravar ko'p bo'lgan. Bu tarmoqlar qisqa muddatda ommaviy tovarlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish imkonini bergan. Jumladan, Koreya Respublikasida 2000-yilda umumiy tonnaji 12,2 mln. tonnaga

teng (jahon tonnajining 54 %) savdo kemalarini ishlab chiqargan. 1990-yillarning oxirida jahonda mobil telefonlar ishlab chiqarishning 34 % Malayziya hissasiga to'g'ri kelgan. 2000-yilda jahon kompyuterlar ishlab chiqarish hajmining 39 %, televizorlarning 42 %, orgtexnika va ofis uskunalarining 50 %dan ortig'i Xitoyda ishlab chiqarilgan. U tarmoqlar «miqyos ta'siri» natijasidagi afzalliklar tufayli ichki bozorga yo'naltirilmagan. Masalan, Koreya Respublikasida 1967-yili mamlakatda 165000 ta avtomobil mavjud bo'lgani holda, 300000 ta avtomobil ishlab chiqarishga mo'ljallangan zavod qurilgan. Iqtisodiy o'sishning yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarida xomashyo va energiya sarfi tayyor mahsulot qiymatining 10–12 %dan (elektronika) 22–25 %gachasini (kemasozlik) tashkil etgan[1]. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash tufayli yaratilgan yangi tarmoqlarda modernizatsiya jarayonini davom ettirishdan manfaatdor ommaviy ishchi sinfi paydo bo'ldi. Masalan, 1990-yillarning oxirida Malayziyada ishchilarning 14 % elektronika sanoatida, Koreyada ishchilarning 11 % kemasozlik va avtomobilsozlik sanoatida, Xitoyda ishchilarning 10 % orgtexnika ishlab chiqarishda band bo'lgan. Oxirgi 25–30-yil ichida Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotini «modernizatsiyalash lokomotivlari» jahon iqtisodiyotida real voqelikka aylandi. [2]

Oxirgi 10-yillikda Osiyo va Lotin Amerikasidagi qator mamlakatlar modernizatsiyalash jarayonlari tufayli yuqori texnologiyani mujassamlashtirgan mahsulotlarni eksport qiluvchi hududlarga aylandi. Yuqori texnologiyali mahsulot qiymati ishlab chiqarish hajmi, miqyosi kengayib borgan sari arzonlashdi va ular sanoat mahsulotlarini eksport qilishga nisbatan samarali bo'lib qoldi. Natijada rivojlangan mamlakatlarda o'ta murakkab va kapital sig'imkorligi yuqori texnologiyali mikrochip va farmatsevtika mahsulotlari ham modernizatsiyalashni harakatlantiruvchi tarmoqlarga aylandi.

9.3. Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi mavqeyining ortib borishi

Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon xo'jaligidagi o'rni ularning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga 2013-yilda jahon yalpi milliy mahsulotining 48,0 %, jahon eksportining 38,8 % to'g'ri keldi[3].

XXI asr boshiga kelib jahon xo'jaligining taraqqiyotidagi muhim xususiyat rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining barqaror sur'atlarda rivojlanishi hisoblanadi. XVF ma'lumotlariga ko'ra, agar 1990-yillarda bu mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining o'rtacha yillik qo'shimcha o'sish sur'atlari 3,2 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2000–2002-yillarda Lotin Amerikasining yirik mamlakatlari, Turkiyada ro'y bergan moliyaviy, siyosiy qiyinchiliklarga qaramasdan ushbu ko'rsatkich o'rtacha 4,8 %ga teng bo'ldi. 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qadar ushbu mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari 7,4 %ga yetdi va rivojlangan mamlakatlarga nisbatan deyarli uch baravarga oshdi[4].

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi kurash dasturlari, chora-tadbirlarining samarasi o'laroq, 2010-yilda rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsuloti o'rtacha 3,1 %ga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 7,5 %ga o'sdi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ikkinchi to'lqini «suveren qarzlar krizisi» ta'sirida ushbu

1 Иноземцев В. Локомотивы роста. //Ведомости, 20.04.2009.

2 Вахабов А. В., Хажибакиев Ш. Х., Муминов Н. Г. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. — Т.: «Молия», 2010.245-б.

3 World Economic Outlook 2014: Legacies, Clouds, Uncertainties. Washington 2014. P. 163.

4 Минь Чжу. Появление новых задач. //Финансы и развитие, Июнь 2011. С. 48.

mamlakatlar guruhida iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashuvi kuzatilmoqda. Jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda 2010–2013-yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtacha 7,5 %dan 4,7 %ga qadar pasaygan (9.3.1-jadval).

9.3.1-jadval

Rivojlanayotgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan foiz hisobida

	1996–2005-yy.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.
Rivojlanayotgan mamlakatlar	5,2	8,2	8,6	5,8	3,1	7,5	6,2	5,1	4,7
shu jumladan:									
Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari	4,0	6,4	5,3	3,2	-3,6	4,7	5,5	1,4	2,8
MDH mamlakatlari	4,2	8,9	9,0	5,4	-6,2	5,0	4,8	3,4	2,2
Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari	6,9	10,1	11,2	7,1	7,5	9,5	7,7	6,7	6,6
Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari	2,9	5,7	5,8	3,9	-1,3	6,0	4,5	2,9	2,7
Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Afg'oniston va Pokiston mamlakatlari	5,0	6,8	5,8	5,3	2,4	5,5	4,5	4,8	2,3
Afrikaning Sahroyi Kabirdan janubdagi mamlakatlar	5,4	7,0	7,9	6,3	4,1	6,9	5,1	4,4	5,1
Ma'lumot uchun:									
Rivojlangan mamlakatlar	2,8	3,1	2,8	0,1	-3,4	3,1	1,7	1,2	1,4

Manba: World Economic Outlook 2014: Legacies, Clouds, Uncertainties. Washington 2014. P. 184.

XVF mutaxassislarining prognozlariga ko'ra, ushbu mamlakatlar guruhida iqtisodiy o'sish sur'atlaridagi tafovutlar saqlanib qoladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlanayotganligi sababli ushbu mamlakatlarning jahon xo'jaligidagi mavqeyi ortib bormoqda, jumladan, 1960-yillarda rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining uchdan bir qismi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2009–2013-yillar ushbu ko'rsatkich uchdan ikki qismni tashkil etdi. Umuman, rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon savdosi

va to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar harakatidagi ulushi barqaror o‘sib borish tendensiyasiga ega.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon xo‘jaligidagi rolining ortib borishi uzoq muddatli tendensiyaga ega. Oxirgi ellik yilda rivojlanayotgan mamlakatlar rivojlangan mamlakatlarga nisbatan yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ega bo‘lishgan va 2013-yilda bu mamlakatlarning jahon ishlab chiqarish hajmidagi ulushi xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha 56,4 %ni tashkil etdi (9.3.2-jadval).

9.3.2-jadval

Rivojlanayotgan mamlakatlarning guruhlanishi va jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi, 2013-y. (tegishli guruhlar yoki jahon bo‘yicha jamiga nisbatan foiz hisobida)

	Soni	Xalqaro taqqoslashlar Dasturi, VHQP bo‘yicha, 2011-y.		Joriy narxlarda, doll.
		Rivojlanayotgan mamlakatlar	Jahon	Jahon
Rivojlanayotgan mamlakatlar	153	100,0	56,4	39,2
MDH	12	8,6	4,9	3,7
Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari	29	50,8	28,7	18,4
Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari	13	6,0	3,4	2,6
Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari	32	15,5	8,7	7,9
Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Afg‘oniston va Pokiston mamlakatlari	22	13,8	7,8	4,5
Afrika Sahroyi Kabiridan janubdagi mamlakatlar	45	5,3	3,0	2,1
Ma’lumot uchun:				
Braziliya		5,2	3,0	3,0
Xitoy		28,1	15,9	12,7
Hindiston		11,8	6,7	2,5
Rossiya		6,1	3,4	2,8
Janubiy Afrika Respublikasi		1,2	0,7	0,5

Manba: www. imf. org. Перспективы мировой экономики. Бюллетень основных прогнозов ПРМЭ.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror iqtisodiy rivojlanish tendensiyasining istiqbolda saqlanib qolishi quyidagi sabablar bilan belgilanadi:

- byudjet taqchilligining yuqori emasligi;
- boshqariladigan davlat qarzi;
- barqaror bank tizimi;

- past siklik ishsizlik darajasi;
- barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari.

Rivojlangan mamlakatlar esa aksincha, byudjet taqchilligining yuqoriligi, davlat qarzining kattaligi, bank tizimidagi muammolar, yuqori ishsizlik darajasi va past iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishlari zarur. Tahlillar ko'rsatishicha, keyingi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy o'sishni ta'minlashning quyidagi uch omillariga jiddiy e'tibor bermoqdalar:

- aholi urbanizatsiyasining chuqurlashuvi jarayonida barqaror sur'atlarda ish o'rinlarini yaratishni ta'minlash;
- keng miqyosli xorijiy kapitallar yordamida investitsiyalar hajmining o'sib borishi;
- yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish orqali mehnat unumdorligining ortishi.

XVF mutaxassislari agar ushbu tendensiya saqlanib qolsa, yana yigirma yildan so'ng jahon ishlab chiqarish hajmi ikki baravardan ko'proqqa — 78 trln. dollardan 176 trln. dollargacha ko'payishini, qo'shimcha o'sishning 61 trln. dollari rivojlanayotgan mamlakatlar ulushiga, 37 trln. dollari esa rivojlangan mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelishini bashorat qilmoqdalar.

Jahon xo'jaligidagi asosiy o'zgarishlar. Jahon yalpi talabi va yalpi taklifida aholi soni rivojlangan mamlakatlarga nisbatan rivojlanayotgan mamlakatlarda jadal sur'atlarda o'smoqda, jumladan, faqat BRICS mamlakatlarida (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Janubiy Afrika Respublikasi) 3 mlrd. kishi yashaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda jahon aholisining 85,3 % yashaydi va ularda aholi daromadlarining yuqori sur'atlarda o'sib borishi jahon iqtisodiyotidagi quyidagi yo'nalishlarda tarkibiy o'zgarishlarni tezlashtiradi:

- oziq-ovqat iste'moli — oziq-ovqatga bo'lgan jahon talabi aholi daromadlarining o'sib borishi bilan ortib boradi. Yalpi talab asosiy oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi yuqori qo'shilgan qiymatga ega oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan ham ortib boradi;
- nooziq-ovqat (birja) tovarlar iste'moli — uy-joy, transport va energiyaga bo'lgan talabning o'sib borishi neft va metall kabi tiklanmaydigan resurslarga bo'lgan talabning jadal sur'atlarda ortib ketishiga olib keladi. Tahlillar, jahonda umuman oxirgi o'n yil ichida neftga bo'lgan talab 13,5 %ga oshgani holda, ushbu ko'rsatkich rivojlanayotgan mamlakatlarda 39,0 %ga teng bo'lgani va ularning jahon neft iste'molidagi ulushi 30,0 %dan 50,0 %ga qadar ortganini ko'rsatmoqda[1];
- xalqaro kapitallar oqimida rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga jahon yalpi milliy mahsulotining 50,0 % va jahon moliyaviy aktivlarining bor-yo'g'i 19,0 % to'g'ri kelmoqda. Pul qayerda iqtisodiy o'sish va daromad olish imkoniyati mavjud bo'lsa, o'sha hududlarga oqib o'tadi. Jahon moliyaviy resurslari va kapital oqimi rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlar tomon harakatlanib o'tmoqda. Moliyaviy aktivlarning bir foizini rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga oqib o'tishi 2010-yilda rivojlangan mamlakatlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltirilgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmiga teng bo'ladi. AQSh dan rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltirilgan o'rtacha yillik kapital oqimi 2006–2007-yillarda 300 mlrd. dollarga teng bo'lgan holda, ushbu ko'rsatkich 2010-yilda 550 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bu davrda rivojlangan mamlakatlarga

1 Минь Чжу. Появление новых задач. //Финансы и развитие, Июнь 2011. С. 49.

yo'naltirilgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 900 mlrd. dollardan 600 mlrd. dollargacha qisqardi[1];

- jahon ishlab chiqarish tarkibi — jahon qayta ishlash sanoati tarkibi o'zgarib bormoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning yuqori texnologik mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarishdagi ulushi ortib, past texnologiyali mahsulot ishlab chiqarish kam daromadli mamlakatlarga ko'chirilmoqda;
- tashqi savdo — jahon tovar va xizmatlar savdosining tarkibida rivojlanayotgan mamlakatlar ulushi ortib borish tendensiyasiga ega. Ushbu mamlakatlarda ishlab chiqarish va iste'molning jadal sur'atlarda o'sib borishi rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro tashqi savdoning kengayishiga olib keladi;
- atrof-muhit — atrof-muhitga nisbatan bosim kuchayib, havo va suvning ifloslanishi ortib bormoqda. Agar insoniyat tabiatni zaharli chiqindilar, uglerod bilan ifloslantirishni kamaytirmasa, uning salbiy oqibatlari juda yomon bo'lishi mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlar o'z oldilarida turgan uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni iqtisodiy rivojlanish modeli, aholi turmush tarzi va iqtisodiy siyosatida chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish orqaligina hal etishlari mumkin. Rivojlangan mamlakatlar talabi bilan bog'liq iqtisodiy o'sish modeli aksariyat hollarda rivojlanayotgan mamlakatlar ehtiyojlariga javob bermayapti. Fikrimizcha, bu mamlakatlarda tashqi talabga asoslangan iqtisodiy o'sishdan kuchli taklif va o'sib borayotgan ichki talabga asoslangan iqtisodiy o'sish modeliga o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Iqtisodiy siyosat yalpi taklifga ham yo'naltirilishi lozim. Rivojlanayotgan mamlakatlar ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal etishlari zarur bo'ladi:

- oziq-ovqatga bo'lgan, o'sib borayotgan talabni qondirish uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish. Bu, o'z navbatida, qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni ko'paytirish, ushbu sohaga yuqori texnologiyalarni, ixtirolarni joriy etish, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni rag'batlantirish, mehnat unumdorligini oshirishni talab etadi;
- xizmatlar sohasini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim, chunki ushbu soha doimiy ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi. Iqtisodiy siyosat raqobat uchun bozorlarni yopish emas, balki ochish uchun yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Xususan, davlat kichik korxonalarni iste'molchilar hisobidan himoya qilmasligi, monopoliyalarga chek qo'yishi zarur bo'ladi;
- infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish. Bu — transport va energetika sohalariga investitsiyalar sarflash, investitsiyalardan samarali foydalanish va uy xo'jaliklarining daromadlarini ko'paytirish uchun ishchilar malakasini oshirishni taqozo etadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda makroiqtisodiy barqarorlik iqtisodiy siyosat samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. XVF mutaxassislarining fikricha, ushbu mamlakatlarda quyidagi ikki soha istiqbolda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin:

- ishonchli sog'liqni saqlash va pensiya tizimlarini yaratish;
- moliyaviy tizimni isloh etish.

Aholi sonining ortib borishi rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida pensiya tizimi kelajak avlodga og'ir yuk bo'lishi yoki pensiya to'lovlarining qisqarishi ko'pchilik aholi qatlamlarining kambag'allik chegarasidan pastga tushib qolishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, yuqori sifatli sog'liqni saqlash tizimini shakllantirish maqsadida ushbu sohada tub islohotlarni amalga oshirish zarur.

1 Минь Чжу. Появление новых задач. //Финансы и развитие, Июнь 2011. С. 48.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosi hisoblangan iqtisodiy faollik va jamg'armalarni investitsiyalarga yo'naltiruvchi moliya tizimini isloh etish lozim. Xalqaro moliya tashkilotlari xorijdan jalb etilayotgan kapitalni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqdalar. Rivojlanayotgan mamlakatlarda o'rta muddatli istiqbolda xorijiy kapital iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omiliga aylanadi.

9.4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'allik muammosi

Jahon iqtisodiyotidagi dolzarb muammolardan biri — bu rivojlanayotgan mamlakatlardagi kambag'allik muammosidir.

Jahon banki kambag'allikni aniqlash uchun uy xo'jaliklarida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromadlar va xarajatlar ko'rsatkichidan foydalanadi. Aholi xarajatlarida:

- insonning oziq-ovqatga bo'lgan minimal ehtiyojlari;
- yashash minimumiga mos keluvchi tovarlar va xizmatlar uchun xarajatlar.

Jahon iqtisodiyoti amaliyotida, kambag'allikni aniqlashning mutlaq, nisbiy va subyektiv usullari mavjud. Mutlaq kambag'allik darajasiga muayyan mutlaq minimumdan past daromadga ega uy xo'jaliklari va individlar kiritiladi. Nisbiy kambag'allikka esa daromadi jamiyatda shakllangan standart iste'molga yetmaydigan uy xo'jaliklari va individlar kiritiladi. Subyektiv kambag'allik esa aholining o'z moddiy holatini baholashlari natijasida aniqlanadi.

Mutlaq ko'rsatkich kambag'allikni aniqlashning iqtisodiy, qolganlari esa kompleks yondashuviga taalluqlidir.

Mutlaq kambag'allikni aniqlashda Jahon banki tomonidan taklif qilingan qator mezonlardan foydalaniladi. Jahon amaliyotida keng tarqalgan ko'rsatkichlardan biri — bu kishi boshiga bir kunlik daromad yoki xarajat 1,25 dollardan (xarid qobiliyati pariteti bo'yicha) oshmaydigan mutlaq kambag'allik tushunchasidir (2008-yilgacha 1,0 doll.). Mazkur ko'rsatkich mutlaq kambag'allik darajasining chegarasi hisoblanadi va hozirda dunyoda 1,4 mlrd. kishi ushbu chegarada yashamoqda[1]. Tahlillar ko'rsatishicha, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining 31 % kambag'allik darajasidan past darajada yashaydi. Ushbu ko'rsatkich Afrikaning ba'zi mamlakatlarida 80,0 %dan past emas (Kongo Demokratik Respublikasi (87,7), Liberiya (83,8), Madagaskar (81,3), Burundi (81,2))[2].

Shuningdek, ijtimoiy statistikada kunlik daromadi 2,5 va 10,0 dollargacha bo'lgan ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi.

Kambag'allik chegarasidan past darajada yashaydigan aholi ulushi oxirgi o'n yilliklarda qisqarib borish tendensiyasiga ega. Jahonda tahlillar ko'rsatishicha 1 dollardan kam daromadga yashayotgan aholining umumiy aholi sonidagi ulushi qat'iy pasayish tendensiyasiga ega. Shuningdek, 1991–2005-yillarda Sharqiy Osiyoda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot miqdori iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlarining jadal rivojlanishi ta'sirida 4,7 martaga oshgan. Bu esa kunlik daromadi 1,25 dollargacha bo'lgan aholi ulushining 77,7 %dan 10,8 %ga qadar pasayishiga, ya'ni 1071 mln. kishidan 316 mln. kishigacha qisqarishiga olib keldi. Kunlik daromadi 2,15 dollardan kam aholi ulushi esa 94 %dan 42 %gacha pasaydi, ularning soni 1293 mln. kishidan 796 mln. kishigacha qisqardi[3].

1 Иванов Н., Гоффе Н., Монусова Г. Глобализация и бедность. //Мировая экономика и международные отношения, №9, 2010. С. 31.

2 Human Development Report 2014. Sustaining Human Progress: Reducing Vulnerabilities and Building Resilince. UNDP. New York, 2014. P. 180, 181.

3 Иванов Н., Гоффе Н., Монусова Г. Глобализация и бедность. //Мировая экономика и международные отношения, №9, 2010. С. 31.

Jahon banki mutaxassislarining bashoratlariga ko'ra, 2015-yilga borib jahon aholisining tarkibida 1 dollardan kam daromadga yashayotgan aholining jahon aholisi tarkibidagi ulushi 10,2 %ga qadar pasayishi kutilmoqda (9.4.1-jadval).

9.4.1-jadval

Jahon banki prognozlari bo'yicha bir kunda 1 dollardan kam daromadga yashayotgan aholi soni va uning jahon aholisi tarkibidagi ulushi

«Global iqtisodiyot istiqbollari» dokladlari	Aholi soni, mln. kishi		Jahon aholisi tarkibidagi ulushi, %	
	1990-y.	2015-y.	1990-y.	2015-y.
2002-y.	1276	753	29,0	12,3
2003-y.	1292	809	29,6	13,3
2004-y.	1237	734	28,3	12,5
2005-y.	1218	622	27,9	10,2

Manba: Шишков Ю. Уровень бедности в современном мире: методологические споры. // Мировая экономика и международные отношения, №1, 2006. С. 14.

Jahon hamjamiyati kambag'al Afrika mamlakatlariga iqtisodiy yordam berishga harakat qilmoqda. Ularga nisbatan savdo imtiyozlari joriy qilinmoqda, tashqi qarzlardan voz kechib yuborilib, texnik yordam berilmoqda. IRSI past mamlakatlarning 2007-yilda rasmiy yordam va boshqa hukumat kanallari bo'yicha olgan yordamlari hajmi yalpi milliy daromadlarining 15 %ni tashkil etdi. Afrikaning Sahroyi Kabiridan janubda joylashgan mamlakatlarida esa bu yordam hajmi davlat byudjetining o'rtacha 44 %ga, Laosda 89 %ga va Efiopiyada 81 %ga teng.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'allikni kamaytirish yo'llari quyidagilardan iborat:

- barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
- ishlab chiqarish hajmining ortishi va ish haqining o'sishi;
- yangi ish joylarini ochish va bandlikning o'sishi;
- aholi daromadlari taqsimlanishi tafovutlarining kamayishi;
- ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining rivojlanishi;
- inflyatsiyaning barqarorlashuvi.

Shunday qilib, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etish istiqbollari har bir mamlakatdagi ichki holat va hukumatlarning olib borayotgan iqtisodiy siyosatlari samaradorligiga bog'liq.

Asosiy tushunchalar

«Rivojlanayotgan mamlakatlar» — Ikkinchi jahon urushidan keyin mustamlaka tizimining parchalanishi va sobiq mustamlakalarning mustaqillikka erishishlari natijasida paydo bo'lgan mamlakatlar.

Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlar — bozor islohotlarini amalga oshirishda jiddiy muvaffaqiyatlarga erishgan, milliy bank-moliya tizimini mustahkamlash va jahon xo'jaligiga integratsiyalashishga erishgan yetakchi rivojlanayotgan hamda sobiq sotsialistik mamlakatlar guruhi.

Iqtisodiyotning ko'pukladliligi — iqtisodiyotda yirik va bir-biridan farqlanuvchi, har biri mayda sektorlardan iborat tarkibning mavjudligi.

Yuqori daromadli mamlakatlar — aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi milliy daromadi 12616 dollardan oshadigan mamlakatlar.

O'rta daromadli mamlakatlar — aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi milliy daromadi 1036 dollardan 12615 dollargacha bo'lgan mamlakatlar.

Past daromadli mamlakatlar — aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi milliy daromadi 1035 dollargacha bo'lgan mamlakatlar.

Importning o'rnini qoplash siyosati — og'ir sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va xorijiy kapitalni cheklash orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirish (Lotin Amerikasi mamlakatlari).

Eksportga yo'naltirilgan siyosat — ayrim tovarlarni tashqi bozorga olib chiqish uchun ushbu tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashish (Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari).

Mutlaq kambag'allik darajasi — kishi boshiga bir kunlik daromad yoki xarajat 1,25 dollardan (xarid qobiliyati pariteti bo'yicha) oshmaydigan minimum.

Nisbiy kambag'allik darajasi — daromad jamiyatda shakllangan standart iste'molga yetmaydigan minimum.

Subyektiv kambag'allik — aholining o'z moddiy holatini baholashlari natijasi.

Nazorat savollari

1. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining ko'pukladliligi nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Nima uchun milliy iqtisodiyotning an'anaviy tarmoqlari ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi?
3. Rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy qoloqligi nimalarda aks etadi?
4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlatning roli qanday?
5. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining ijtimoiy tarkibi qanday xususiyatlarga ega?
6. Iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlar nechta guruhga bo'linadi?
7. Rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoatlashtirish modellari nechi turga bo'linadi va qanday xususiyatlarga ega?
8. Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi mavqeyining ortib borishi nimalarda namoyon bo'lmoqda?
9. Kambag'allik muammosi nima va qaysi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi?
10. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'allik muammosini hal etish yo'llari nimalardan iborat?

10-BOB. JAHON XO'JALIGIDA YANGI INDUSTRIAL MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI

10.1. Yangi industrial mamlakatlarning umumiy tavsifi va guruhlanishi

XX asrning 60–80-yillarida rivojlanayotgan mamlakatlar tarkibidan yangi industrial mamlakatlar guruhi ajralib chiqdi. Yangi industrial mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlardan ajralib turadi va «yangi industrial rivojlanish modeli»ning paydo bo'lishi to'g'risida fikr yuritish imkonini beradi. Mazkur guruh mamlakatlarining rivojlanish xususiyatlarini Janubi-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi yangi industrial mamlakatlari misolida ko'rib o'tish mumkin.

Yangi industrial mamlakatlar — sanoatlashtirish, ilmiy ishlab chiqarishning alohida turlarini yaratishda muvaffaqiyatlarga erishgan, xalqaro mehnat taqsimoti

va xalqaro savdoda faol qatnashuvchi, sanoat tarmoqlari va xizmatlar sohasi eksportga yo'naltirilgan rivojlanayotgan mamlakatlar guruhidir. Ba'zi yangi industrial mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoning yetakchi rivojlangan mamlakatlari darajasiga yaqinlashib qoldilar.

Yangi industrial mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardan tubdan farq qiladi. Jumladan, Tayvanda YalM hajmi 1952–1993-yillarda 170 martaga, tashqi savdo aylanmasi hajmi esa 534,6 martaga ortgan. Mamlakatda iqtisodiy o'sishning o'rtacha yillik sur'atlari 8,7 %ni tashkil etgan.

Hisob-kitoblarga ko'ra 30-yil mobaynida (1960–1990) Osiyo hududi iqtisodiyotining o'sish sur'atlari yiliga 5 %ni tashkil etgani holda Yevropa mamlakatlarida bu ko'rsatkich 2 %ga teng bo'lgan. Tayvandan tashqari 1990-yillarda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari Janubiy Koreyada — 8 %, Singapurda — 8 % atrofida, Malayziyada — 9 %ga teng bo'ldi.

Yangi industrial mamlakatlarning yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan aholi turmush darajasining oshishi sur'atlari o'rtasida mutanosiblik kuzatiladi. Jumladan, 1960-yillarning o'rtalari 1990-yillarning boshlarida bu mamlakatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad miqdori to'rt baravar oshgan. XVF mutaxassislari prognozlari bo'yicha Sharqiy Osiyo mamlakatlarining yalpi ichki mahsuloti hajmi 2015-yilga borib G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan, 2020-yilga borib esa Shimoliy Amerika mamlakatlaridan oshib ketishi mumkin.

Yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyoti o'ziga xos xususiyatlarga ega. Yangi industrial mamlakatlarni rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi mamlakatlar guruhiga kiritish mumkin. Bu holat jahon xo'jaligi tizimining yaxlitligini ta'minlash imkonini beradi.

Odatda, yangi industrial mamlakatlar qatoriga Osiyoning «kichik ajdarholari» — Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur va Lotin Amerikasi yangi industrial mamlakatlari — Argentina, Braziliya, Meksikani kiritishadi. Sanab o'tilgan mamlakatlar yangi industrial mamlakatlarning birinchi to'lqini yoki birinchi avlodi hisoblanishadi.

Ulardan keyin yangi industrial mamlakatlarning ikkinchi avlodi — Malayziya, Tailand, Hindiston, Chili; uchinchi avlodi — Kipr, Tunis, Turkiya, Indoneziya; to'rtinchi avlodi — Filippin, Xitoyning janubidagi erkin iqtisodiy hududlari kiradi. Natijada yangi industrial mamlakatlarning «yangi industriallashish» hududi yuzaga keladi.

BMT uslubiyatiga muvofiq mamlakatlarni yangi industrial mamlakatlar qatoriga kiritish mezonlari quyidagilardan iborat:

- YalM ning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi miqdori;
- YalM ning o'rtacha yillik qo'shimcha o'sish sur'atlari;
- YalM da qayta ishlash sanoatining ulushi, mazkur ulush 20 %dan kam bo'lishi kerak emas;
- sanoat mahsulotlari eksportining hajmi va uning umumiy eksportdagi ulushi;
- to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi.

IHTT tomonidan 1995-yilda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan birinchi bo'lib Singapurga «industrial jihatdan rivojlangan» mamlakat maqomi berildi va 1996-yilning 1-yanvaridan kuchga kirdi. 30-yil davomidagi barqaror iqtisodiy o'sish ushbu mamlakatning kichik port shahridan dunyoning eng boy mamlakatlari qatoriga kirish imkonini berdi.

Siyosiy barqarorlik sharoitida mamlakat sanoati doimiy ravishda yiliga o'rtacha 8,4 % sur'atda rivojlanib bordi va mazkur mamlakatda istiqomat qiluvchi har

bir odamning turmush darajasi o'rtacha 7 martaga ortdi. Singapurda yashovchi o'rta statistik odamning yillik daromadi 1995-yilda 22,3 ming dollarni tashkil etdi, bu esa o'sha davrda sobiq metropoliya davlati bo'lgan Buyuk Britaniyadan ancha yuqoridir. Buyuk Britaniyaning sobiq mustamlakasi Gonkong ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy jihatlariga ko'ra o'z metropoliya davlatidan o'tib ketdi. 1990-yillarning oxirlaridan boshlab Gonkong (Syangan) aholi jon boshiga daromad darajasi bo'yicha dunyoda 4- va 5-o'rinni egallab kelmoqda.

Yangi industrial mamlakatlar hududiy jihatdan ikki guruhga bo'linadi:

- Osiyo (Koreya, Tayvan, Singapur, Gonkong, Filippin, Hindiston, Tailand).
- Lotin Amerika (Braziliya, Argentina, Meksika, Chili).

Lotin Amerikasi yangi industrial mamlakatlari Osiyo mamlakatlaridan qator jihatlari bilan farq qiladi (10.1.1-jadval).

10.1.1-jadval

Osiyo va Lotin Amerikasi yangi industrial mamlakatlari o'rtasidagi farqli jihatlar

Osiyoning yangi industrial mamlakatlari	Lotin Amerikasining yangi industrial mamlakatlari
import o'rnini qoplash va eksportga yo'naltirilgan siyosatning birgalikda olib borilishi	proteksionizm siyosatining ustuvorligi
ba'zi mamlakatlar iqtisodiyoti uchun tashqi bozorga yo'naltirilganlikning ustuvorligi va to'liq eksportga yo'naltirilgan siyosatning olib borilishi (Gonkong, Singapur)	xorijiy kompaniyalar tomonidan raqobatning yo'qligi
tadbirkorlik kapitalining qayta ishlash sanoati va xomashyo tarmoqlariga yo'naltirilganligi;	arzon kreditlarning mavjudligi
iqtisodiy rivojlanishning keng tarmoqli manbalarining shakllanganligi	tadbirkorlik kapitalining savdo, xizmatlar sohasi, qayta ishlash sanoatiga yo'naltirilganligi
ommaviy iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha mehnat — sig'imkorligi yuqori korxonalarning barpo etilganligi	Janubiy-Sharqiy Osiyo yangi industrial mamlakatlariga nisbatan yuqori iqtisodiy salohiyatga egaligi
	Ustuvorlik material va kapital sig'imkorligi yuqori tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilganligi
	import o'rnini qoplash siyosatining mamlakatlarning jahon xo'jaligidagi o'rnining tubdan o'zgarishiga olib kelmasligi

Tahlillar Osiyoning yangi industrial mamlakatlari tashqi bozorga yo'naltirilgan rivojlanish yo'lidan borgani holda Lotin Amerikasining yangi industrial mamlakatlari asosan, ichki manbalarga tayangan rivojlanish yo'lidan borayotganligini ko'rsatadi. Bu holat Lotin Amerikasi yangi industrial mamlakatlarining tabiiy resurslar bilan yuqori darajada ta'minlanganligi, aholisining ko'pligi bilan izohlanadi.

Yangi industrial mamlakatlarning rivojlanish modellari. Yuqorida qayd etib o'tilgan omillar yangi industrial mamlakatlarning Osiyo va Lotin Amerikasi modellarining shakllanishiga muayyan darajada ta'sir qilgan.

Birinchi model — milliy iqtisodiyotning ustun darajada tashqi bozorga, iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Ikkinchi model — milliy iqtisodiyot tarmoqlarini ichki resurslarga tayangan holda rivojlantirish, import o'rnini qoplashga yo'naltirilgani iqtisodiyotni shakllantirishga asoslangan.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, import o'rnini qoplovchi ishlab chiqarishning rivojlanish strategiyasi qator rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. Mazkur strategiya rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarning sodir bo'lishiga va yangi, fan sig'imkorligi yuqori muhim tarmoqlarning yaratilishiga olib keldi.

Shunga qaramasdan import o'rnini qoplash siyosati uzoq muddatli istiqbol uchun samarali hisoblanmaydi. Barcha import o'rnini qoplash siyosatini olib borayotgan mamlakatlarda tabiiy inqiroz yuz beradi. Proteksionizm va xorijiy kompaniyalar tomonidan raqobatning yo'qligi, arzon kreditlar sharoitida milliy iqtisodiyotning «issiqxona» rejimida faoliyat yuritishi samarali va egiluvchan iqtisodiy tizimning yaratilishiga to'sqinlik qiladi.

Umuman, import o'rnini qoplash siyosati rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon xo'jaligidagi mavqeyini tubdan o'zgarishiga olib kelmaydi. Import o'rnini qoplash ko'pincha tashqi omillarga bog'liqlikni kamaytirish o'rniga ko'paytirishi mumkin. Import o'rnini qoplash bosqichini hamma rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, yangi industrial mamlakatlar bosib o'tgan.

10.2. Janubi-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlari

Janubi-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlarida iqtisodiy rivojlanish muvaffaqiyatlari quyidagi omillar va shart-sharoitlar bilan belgilanadi:

- ushbu mamlakatlarda sanoatlashish iqtisodiy muvaffaqiyatlarning yaqqol namunasi sifatida namoyon bo'lishi;
- Osiyo iqtisodiy rivojlanish modelining «namoyish samarasi» rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida rag'batlantiruvchi omilga aylanishi;
- mintaqa mamlakatlarining tarixi, madaniyati, iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarining o'xshashligi.

Ushbu mamlakatlar o'z iqtisodiy resurslari bilan ta'minlanish jihatdan Yaponiyaga yaqin turishadi va o'xshash iqtisodiy salohiyatdan foydalangan holda uzoq vaqt mintaqada yetakchi mamlakat ortidan rivojlanib boradilar. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiyotni modernizatsiyalash tajribasi «quvib yetadigan» iqtisodiy rivojlanishning klassik namunasi hisoblanadi.

Tahlillar Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining makroiqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, xususan, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM miqdori o'rtasidagi farqqa ko'ra, ikki guruhga ajratish imkonini beradi:

a) Gonkong, Singapur va Tayvan. Bu mamlakatlarda sanoatlashtirish jarayonlari XX asrning 40-yillarida boshlangan va ular aholining turmush darajasi bo'yicha rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirdilar. Shuni alohida qayd etish lozimki, ushbu mamlakatlarning barchasi aholi soni unchalik ko'p bo'lmagan orol mamlakatlar hisoblanadi. Bundan tashqari, Gonkong va Tayvan uzoq muddat mobaynida kommunistik Xitoyga qarshi qo'yilgan va xorijdan katta miqdorda iqtisodiy yordam olib turgan;
b) Janubiy Koreya, Tailand, Malayziya, Indoneziya, Filippin, Vyetnam va Laos. Bu mamlakatlarni Osiyo «yo'lbarslari» deb atashadi va ularda sanoatlashtirish jarayonlari turli davrlarda boshlangan.

Janubi-Sharqiy Osiyo yangi industrial mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishining tahlili ularga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni ajratish imkonini beradi:

- Yaponiyadan farqli ravishda bu mamlakatlar Ikkinchi jahon urushiga qadar dunyoda yetakchi emas edi va sanoatlashtirish tajribasiga ega bo'lmagan. Ular sanoatlashtirish siyosatini deyarli yo'q joydan boshlashgan;

- ularning aksariyatida iqtisodiyotda davlat sektori yetakchilik qilgan;
- ushbu mamlakatlar uchinchi dunyo mamlakatlaridan rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishni maqsad qilib qo'yishgan;
- biron-bir hududda sanoatlashtirish jarayonlari Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari kabi katta miqdordagi xorijiy investitsiyalar bilan qo'llab-quvvatlanmagan;
- bu mamlakatlarning barchasi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan katta zarar ko'rishdi. Misol uchun, XVF ma'lumotlariga ko'ra Singapurda YaIM ning o'sish sur'ati 2007-yilda 9,1 %ni tashkil etgani holda, 2008-yilda — 0,6 %ga qisqardi, 2010-yilda 15,2 %ni, 2013-yilda esa 3,9 %ni tashkil etdi[1].

Janubi-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlari Ikkinchi jahon urushidan keyin qoloq, sholi va ayrim foydali qazilmalardan boshqa deyarli hech narsa ishlab chiqarmaydigan mustamlaka agrar mamlakatlar edi. Hozirga kelib ushbu mamlakatlar AQSh, Yaponiya, G'arbiy Yevropa mamlakatlarini kiyim-kechak, poyabzal, elektron maishiy xizmat tovarlari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlayotgan, jadal sur'atlarda rivojlanayotgan mamlakatlarga aylanishdi. Bu mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar jahon andozalariga javob berishi, yuqori texnologiyalarni mujassamlashtirganligi, ishlab chiqarish va tovarlarning ekologik talablarga javob berish darajasi ortib borayotganligi bilan ajralib turishadi.

Osiyo «ajdarholari» jahonning yirik moliya markazlari va dunyoning yetakchi kapital eksportyorlariga aylanishdi. Bu mamlakatlarda osmono'par binolar, zamonaviy aeroportlar qurilmoqda, kosmosga sun'iy yo'ldoshlar uchirilmoqda. O'xshash muvaffaqiyatlarga biroz kechikish bilan Osiyo «yo'lbarslari» erishmoqda.

Osiyoning yangi industrial mamlakatlari sanoatlashtirish jarayonini turli vaqtda va sharoitda boshlashdi. Singapur, Tayvan va Malayziyada bu jarayonlar XX asrning 40-yillari oxirida boshlangan bo'lsa, Janubiy Koreya va Indoneziyada 60-yillar boshi, Tailandda 60-yillar oxiri, Vyetnam va Laosda 90-yillar boshida boshlandi. Sanoatlashtirish jarayonlari boshlangan davrda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM Malayziyada 300 doll., Janubiy Koreyada 100 doll., Tayvanda 160 doll., Vyetnamda 220 dollarga teng bo'lgan.

XX asrning 70-yillarida YaIM ning o'rtacha yillik o'sish sur'ati Tailand va Indoneziyada 7–8 %, Malayziyada — 8,1 %, Gonkong, Janubiy Koreya va Singapurda — 9,5 %, Tayvanda — 10 %dan yuqori bo'ldi. 80-yillarda aksariyat mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich yiliga 7 %dan past bo'lmadi. 1950–2000-yillarda ushbu mintaqada rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining umumiy o'sishiga katta hissa qo'shdi. Misol uchun, ular hissasiga 1950–1970-yillarda umumiy iqtisodiy o'sishning 73 % i, 80-yillarda 64 %, 90-yillar boshida esa 60 % to'g'ri keldi.

Janubi-Sharqiy Osiyo yangi industrial mamlakatlarining rivojlanishida ushbu mamlakatlarga xos milliy urf-odatlar muhim ahamiyat kasb etgan va ularga xos quyidagi jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, Janubi-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlari tarixiy (sivilizatsiya) resurslardan samarali foydalanishdi. Aholining hukumatni hurmat qilishi va so'zsiz itoat etishi, mehnatsevarlik, jamoa bo'lib ishlash, yaqin qarindosh-urug'chilik aloqalari mamlakatning sanoatlashtirish jarayonida muhim va iqtisodiy samarali bo'lib chiqdi.

Ikkinchidan, Janubi-Sharqiy Osiyo iqtisodiy modeli uchun davlat va biznes hamkorligi xosdir. Davlat kreditlar va tashqi iqtisodiy imtiyozlar tizimidan foydalanib iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi, bu bosqichda ustuvor

1 Стеркин Ф. Проще меняться, когда ты маленький. //Ведомости, 9.11.2011.; World Economic Outlook 2014: Legacies, Clouds, Uncertainties. Washington 2014. P. 185.

tarmoqlarni qo'llab-quvvatladi. Tanlab olingan ustuvor yo'nalishlar tarkibi o'zgarib turdi va bosqichlarga bog'liq holda quyidagi ustuvor tarmoqlar rivojlandi:

- 50-yillar — to'qimachilik va shisha sanoati;
- 60-yillar — kimyo sanoati va metallurgiya;
- 70-yillar — mashinasozlik, kemasozlik, avtomobilsozlik;
- 80-yillar — elektrotexnika sanoati va elektronika;
- 90-yillar — informatika, yangi materiallar ishlab chiqarish, aerokosmos sanoati.

Misol uchun, Singapurda 1960-yillar o'rtasidan — 1970-yillar o'rtasigacha bo'lgan davrda TMK ni jalb etish orqali mehnat sig'imkorligi yuqori tarmoqlar rivojlantirildi. 1970-yillar o'rtasidan 1980-yillarning oxiriga qadar esa xorijiy korporatsiyalarga xizmat ko'rsatuvchi mahalliy tarmoqlar rivojlantirildi. 1990-yillardan 2000-yillarning oxiriga qadar ITTKI xarajatlarini oshirish va davlat tadqiqot institutlarini faol yaratishga e'tibor berildi. Hozirgi davr esa mahalliy ITTKI bazasida milliy yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish bosqichi hisoblanadi[1].

Uchinchidan, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari davlatning iqtisodiyotdagi rolini bosqichma-bosqich kamaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish, jamiyatni demokratlashtirish orqali iqtisodiy rivojlanish siyosatini o'zgartirib borishdi.

To'rtinchidan, Janubi-Sharqiy Osiyo iqtisodiy rivojlanish modeli eksportga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. 2013-yilda eksportning YaIM dagi ulushi Gonkongda — 270,8 %, Singapurda — 178,7 %, Malayziyada — 85,8 %, Tailandda — 74,1 %, Janubiy Koreyada — 51,5 %ni tashkil etdi[2].

Beshinchidan, Yaponiya kabi mamlakatlarda jamg'armalar normasining yuqoriligi. Janubi-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlarida 1991-yilda jamg'arma normasi 30 %dan past bo'lmagan, Singapurda esa ushbu ko'rsatkich 47 %ga, 2005-yilda esa 53,2 %ga, 2013-yilda esa 44,6 %ga teng bo'ldi. 2013-yilda ushbu ko'rsatkich Osiyoning Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong kabi yangi industrial mamlakatlarida mos ravishda 32,1 %, 30,9 % va 26,7 %ni tashkil etdi[3].

Oltinchidan, tashqi omillarning roli. Janubi-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlarida iqtisodiyotni modernizatsiyalashda xorijiy investitsiyalarni jalb etish, texnologiyalarni import qilish, xorijiy mutaxassislardan foydalanish, xalqaro kreditlarni jalb etish va eksport qilish muhim ahamiyat kasb etdi (10.2.1-jadval).

10.2.1-jadval

Janubi-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlarida iqtisodiyotni modernizatsiyalashda tashqi omillarning o'rni

	Xorijiy investitsiyalar	Yuqori texnologiyalar importi	Xorijiy mutaxassislar	Eksport	Xalqaro kreditlar
Tayvan	+	+	–	+	+
Malayziya	+	+	–	+	+
Janubiy Koreya	+	+	–	+	+
Singapur	+	+	–	+	+

Manba: Хейфец Б. А. Мировой опыт успешных модернизаций. //Международная экономика, №6, 2011. С. 6.

1 Медовников Д. Одного азарта мало. //Эксперт, №46, 2011. С. 61.

2 Trade Profiles 2011. WTO. Geneva, 2011. P. 85, 96, 109, 136,153, 169.

3 Перспективы развития мировой экономики. Замедление роста, увеличение рисков. Обзор. Сентябрь 2011. МВФ. Вашингтон, 2011. С. 222.; The Global Competitiveness Report 2014–2015. World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2014. P. 439.

Ushbu mamlakatlarning ba'zilarida (Tayvan, Malayziya, Singapur, Xitoy) yangi iqtisodiyotning shakllanishi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay shart-sharoit yaratishdan boshlandi. Xorijiy ilg'or, yuqori texnologiyalarni import qilish, o'zlashtirish va keyinchalik ko'paytirish Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlar iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda muhim rol o'ynadi. Janubi-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi yangi industrial mamlakatlarida sanoatlashtirish jarayonining boshlanishidayoq mustaqil, xorijiy texnologiyalarsiz bu vazifani hal etish mumkin emasligi ma'lum edi. Yangi industrial mamlakatlarning rivojlanishi ularni G'arbning «yig'uv sexlari»ga aylantirish yo'nalishi bo'yicha amalga oshdi. Misol uchun, 1980-yillarda Janubiy Koreyada ishlab chiqarilgan kompyuterlar soni 20 martaga oshdi, ularning 95,0 %litsenziyalar bo'yicha ishlab chiqarilgan bo'lib, mahalliy ehtiyot qismlar qiymati 15,0 %dan oshmagan, ularda o'rnatilgan dasturlar xorijdan import qilingan[1].

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida Yaponiya, Koreya Respublikasi va Tayvan milliy kapitalning rivojlanishida xorijiy kapitalni jalb etishga nisbatan ustuvorlik berdilar. Bu mamlakatlarda davlat mablag'lari hisobiga korxonalar qurildi va ular xususiy kompaniyalarga berildi. Koreya Respublikasida markazlashuv darajasi yuqori bo'lib, 1961-yilda bank tizimi natsionalizatsiya qilindi, Yaponiyadan farqli o'laroq, ustuvor tarmoqlar belgilab olindi va ularga davlat yordam ko'rsatdi.

Janubiy Koreya iqtisodiyotini modernizatsiyalashda ishlab chiqarilgan mahsulot milliy ichki bozor katta bo'lmagani uchun eksportga yo'naltirildi. Davlat tomonidan mahsulot eksporti soliq imtiyozlari, subsidiyalash, imtiyozli kreditlar berish dastaklari orqali qo'llab-quvvatlandi. Yaponiya urushdan keyin kichik va o'rta korxonalarni modernizatsiyalashga ustuvorlik bergan bo'lsa, Koreya mamlakat resurslari oz bo'lganligi uchun yirik kompaniyalar va moliya guruhlarini (chebollar) qo'llab-quvvatlashga asosiy urg'u berdi.

Janubi-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlarida (Gonkongdan tashqari) zamonaviy ishlab chiqarish tarkibini shakllantirishning ilk bosqichida import o'rnini qoplash siyosati amalga oshirildi (10.2.2-jadval).

Import o'rnini qoplash siyosatining davomiyligi o'rtacha 12-yilni tashkil etadi. Bu mamlakatlarda import o'rnini qoplash siyosati natijasida vujudga kelgan quyidagi salbiy sabablarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- ishchilar malakasining past darajasi;
- eski texnika va texnologiyalarning qo'llanilishi;

10.2.2-jadval

Janubi-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish modellarining bosqichlari

Mamlakat	Davr	Strategiya
Gonkong	1953-yildan hozirgi davrga qadar	Eksportga yo'naltirilgan siyosat
Koreya Respublikasi	1953–1960-yy.	Import o'rnini qoplash siyosati
Tayvan	1953–1963-yy.	Import o'rnini qoplash siyosati
Singapur	1959–1965-yy.	Import o'rnini qoplash siyosati
Filippin	1949–1968-yy.	Import o'rnini qoplash siyosati
Indoneziya	1961–1978-yy.	Import o'rnini qoplash siyosati
Tailand	1961–1971-yy.	Import o'rnini qoplash siyosati
Malayziya	1957–1968-yy.	Import o'rnini qoplash siyosati

1 Модернизация России: условия, предпосылки, шансы. /Под редакцией В. Л. Иноземцева. Вып. 1. Стратегические проблемы модернизации. — М.: Центр исследований постиндустриального общества, 2009. С. 29.

- korxonalarda ishni tashkil etishning bo'shligi;
- ichki bozor hajmining kichikligi — ichki bozor hajmining kichikligi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish va yangi sanoat ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatlarini pasaytirdi.

Janubi-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlarida eksportga yo'naltirilgan strategiyaga o'tish XX asrning 60–70-yillarida boshlandi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning dastlabki bosqichida import o'rnini qoplash siyosati muhim rol o'ynadi:

- yuqori bojxona bojlari mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy raqobatdan himoya qildi;
- arzon mahalliy tovarlar ichki bozorni tezda to'ldirdi;
- eksportdan tushgan xorijiy valyuta tushumi iste'molga mo'ljallangan tovarlarni import qilishga emas, balki zamonaviy texnologiyalar, asbob-uskunalar sotib olishga sarflandi. Bu, o'z navbatida, sanoatlashtirish jarayonini jadallashtirdi.

Ushbu mamlakatlarda davlat sanoatlashtirish strategiyasini aniqlash, milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini tanlash, eksportni rag'batlantirish usullari va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy raqobatdan himoya qilishni belgilab berdi.

Yuqoridagi sabablarga ko'ra Janubi-Sharqiy Osiyo yangi industrial mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish modeli qator kamchiliklarga ega bo'ldi:

- davlat va biznesning hamkorligi aksariyat mamlakatlarda davlat bilan iqtisodiyotning birlashib ketishiga olib keldi. Bu jarayon markazlashgan holda tartibga solish (Malayziya), davlat tomonidan yirik kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash (Janubiy Koreya), yarim davlat kompaniyalari tizimini yaratish (Indoneziya) kabi shakllarda amalga oshirildi. Korrupsiya ko'pchilik mamlakatlarda jiddiy iqtisodiy muammoga aylandi;
- iqtisodiy o'sish sur'atlariga mutanosib ravishda ish haqi va aholi daromadlarining o'sishi sodir bo'lmadi. 1980-yillarda Tailand, Malayziya va Indoneziyada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichi yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga qaramasdan «katta yettilik» mamlakatlari ko'rsatkichlariga nisbatan mutanosib ravishda 7,2 va 34 %ga qisqardi. Bu yangi industrial mamlakatlarning o'z ichki bozorlariga tayanish imkonini bermadi va eksportga yo'naltirilganlikning mezoniy darajasini saqlab qolishga majbur qildi;
- Janubi-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlarida aholining savodxonlik darajasi rivojlangan mamlakatlarga nisbatan pastligicha qolmoqda. Janubiy Koreyada yoshlarning hammasini maktablarga borgani holda Tailandda yoshlarning 40 %, Indoneziyada 45 % maktabga borish imkoniyatiga ega. Agar AQSh da kollej bitiruvchilarining 65 % oliy o'quv yurtlariga kirsa, Malayziyada ushbu ko'rsatkich 12 %ni tashkil etadi;
- ushbu mamlakatlarda fond bozorlarining kapitallashish darajasi juda yuqori. Misol uchun, 1990-yillarda rivojlangan mamlakatlarda fond bozorlarining kapitallashish darajasi 100 %ni tashkil etgani holda, ushbu ko'rsatkich Singapur, Malayziya, Gonkongda mos ravishda 259, 452 va 631 %ga teng bo'lgan.

10.3. Lotin Amerikasi yangi industrial mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari

Lotin Amerikasi Janubiy va Markaziy Amerikaning katta hududini egallaydi. Lotin Amerikasining barcha mamlakatlari Ispaniya va Portugaliyaning (Braziliya) sobiq

mustamlakalari hisoblanadi. Lotin Amerikasining ayniqsa mamlakatlari XIX asr boshidayoq shaklanishiga qaramasdan sobiq mustamlaka egalarining ushbu mamlakatlar iqtisodiyoti va madaniyatiga ta'siri saqlanib qolgan.

Lotin Amerikasi mintaqasini shartli ravishda quyidagi uch qismga ajratish mumkin:

- Meksikadan Boliviya va Paragvaygacha bo'lgan hududlar. Mazkur hududda joylashgan mamlakatlarning ijtimoiy tarkibi hindular, metislar va kreollardan iborat bo'lib, yevropaliklar tomonidan hozirga qadar mavjud ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishgan.
- Ikkinchi hudud Meksikaning janubidan Braziliyaning shimoligacha bo'lgan Karib-Atlantika qirg'oqbo'yi hududlarini o'z ichiga oladi. Bu hududlarda tropik, yarim tropik dehqonchilik jadal sur'atlarda rivojlantirilgan bo'lib, afrikaliklar, mulatlar va oq tanlilardan iborat etnik tarkib shakllangan.
- Uchinchi hudud Lotin Amerikasi «konusi»ning janubida joylashgan mamlakatlardan iborat. Ushbu hududda ishlab chiqarishning asosini rivojlangan dehqonchilik tashkil etadi.

Lotin Amerikasi mamlakatlari yer va tabiiy resurslarga boy bo'lib, bu xususiyati bilan Janubi-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlaridan keskin farq qiladi. Lotin Amerikasi mamlakatlari temir rudalari, rangli metallar (mis, qo'rg'oshin, qalay, rux), uran, boksit, ko'mir, neft, tabiiy gaz, oltin, olmos kabi foydali qazilmalar zaxirasiga ega. Bundan tashqari, o'rmon resurslari (Braziliyada) va qishloq xo'jaligini rivojlantirishga yaroqli katta maydonlar mavjud. Hudud mamlakatlarining azaldan qishloq xo'jaligi, xomashyo eksporti va qazib chiqarish sanoatini rivojlantirishga ixtisoslashganligi bejiz emas. Masalan, yaqingacha Chili va Venesuela eksportining 80 %dan ortig'ini mos ravishda mis va neft tashkil etar edi.

Lotin Amerikasi hududi o'ziga xos siyosiy xususiyatlarga ega. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga nisbatan siyosiy hukumatning tez-tez almashib turishi, siyosiy-ijtimoiy vaziyatning beqarorligi, mamlakatlar o'rtasida yuzaga keladigan harbiy nizolar (masalan, Ekvador va Peru o'rtasidagi harbiy nizo) shular jumlasidandir. 1930–1980-yillarda Lotin Amerikasining aksariyat mamlakatlarida harbiy xuntalar hokimiyat tepasida edi.

Lotin Amerikasida 1980-yillargacha «ichkariga» yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish modeli amal qildi. Lotin Amerikasi mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishini hokimiyat tepasida turgan hukumatlar yetarli darajada keskinlikda ushlab turishdi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarida «import o'rnini bosuvchi sanoatlashish» iqtisodiy siyosati uchun quyidagi belgilar xos edi:

- og'ir sanoat sohalarini rivojlantirish;
- xomashyo eksportini ko'paytirish;
- mahsulot ishlab chiqarishni himoya qilish maqsadida proteksionizm siyosatini amalga oshirish.

Mazkur rivojlanish strategiyasi 1950–1970-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlarida yiliga o'rtacha 5–6 % iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash imkonini berdi. Shunga qaramay 1960-yillarning oxiriga kelib iqtisodiy rivojlanishning bu modeli quyidagi kamchiliklarga ega ekanligini ko'rsatdi:

- sanoat tovarlarini mahalliy ishlab chiqarishning mavjud emasligi;
- ishsizlik muammosining hal etilmaganligi;
- ishchi kuchi malakasining oshmaganligi.

1970-yillarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun Lotin Amerikasi ommaviy tartibda uning ichki bozorlarida yetishmayotgan tovarlarni import qila boshladi, qazib chiqarish sanoati sohalarini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etishni davom

ettirdi. Tashqi qarzlar neftedollarlar moliyalashtirish manbayi bo'lib xizmat qildi. Biroq, neft inqirozi natijasida mintaqa mamlakatlarining tashqi qarzi 1975-yildan 1982-yilgacha 42,5 mlrd. dollardan 176,4 mlrd. dollargacha oshib ketdi.

1980-yillar boshidagi jahon iqtisodiy inqirozi va 1979-yildagi ikkinchi neft inqirozi oqibatlari Lotin Amerikasi mamlakatlari xomashyosiga bo'lgan talabning keskin pasayishi, neft narxining oshib ketishi esa inflyatsiya darajasining ko'tarilishiga olib keldi. Inflyatsiyaga qarshi kurash foiz stavkalari darajasini orttirish orqali olib borildi, bu esa Lotin Amerikasi mamlakatlari moliyaviy holatini yanada og'irlashtirib yubordi. Lotin Amerikasi mamlakatlarida defolt holatining sodir bo'lishini oldindan sezgan investorlar Lotin Amerikasidan o'z kapitallarini investitsiya muhiti qulay mamlakatlarga ommaviy olib chiqib keta boshladilar.

Lotin Amerikasi hukumati bunga javoban proteksionizmga talabchanlikni oshirib yubordilar. Bojxona tariflarini 200 %gacha oshirish orqali importni qisqartirishga, kapitalning chiqib ketishini esa milliy foiz stavkalari darajasini oshirish orqali to'xtatishga harakat qildilar. Biroq, Lotin Amerikasi mamlakatlarining moliyaviy tizimiga tashqi qarzdorlik tashvishi katta bosim o'tkazdi, foiz stavkasini oshirish esa inflyatsiyaning jadal sur'atlarda oshib ketishini tezlashtirib yubordi. Mintaqa iqtisodiy stagnatsiyaga tushib qoldi, aholining to'lov qobiliyati keskin darajada pasaydi.

1980-yillarning ikkinchi yarmida Lotin Amerikasi davlatlari rivojlanishning dastlabki modelining chorasizligini anglab, inqirozdan chiqib ketishga sharoit yaratgan iqtisodiy o'sishning yangi modelini tanladilar. Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining yangi modeli negizida Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari tajribasiga ko'ra, rivojlanishning tashqi omillari, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotning tiklanishi yotar edi. Rivojlanishning mazkur modeli «kreol neoliberalizmi» sifatida mashhur.

Iqtisodiyotga neoliberalizmni joriy etishda Chili yetakchi mamlakat hisoblanadi. Keyinchalik Chili tajribasi Argentina, Braziliya va Meksikada amaliyotga joriy etildi. Bundan tashqari, Chili amaliyotida birinchi marta R. Reygan va M. Tetcherlarning «neokonservativ inqilob» nazariyasi general A. Pinochet rahbarligida sinab ko'rildi. Chili iqtisodiyotini erkinlashtirish narxlar, foiz stavkalari, tashqi savdo siyosati, kapitallar harakati, mehnat bozori, soliq sohalariga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Chili «kreol liberalizmi» tavsifi. Chili iqtisodiyotining rivojlanish muvaffaqiyatlari aynan A. Pinochet nomi bilan bog'liq, chunki Pinochet davrida Chili iqtisodiyotini erkinlashtirish va yirik masshtabli neokonservativ islohotlar boshlandi. Chili islohotlari, qisqa muddatda mamlakatning qiyin iqtisodiy inqirozdan chiqib ketishiga imkon yaratdi va u XX asrda amalga oshirilgan oqilona iqtisodiy siyosatning eng yaxshi namunalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda erkin iqtisodiyotni shakllanishga olib kelgan Chili islohotlari majmuyiy va davriy bo'lgan. Ularning asosiy tarkibiy qismini quyidagilar tashkil etgan:

- **inflyatsiyaga qarshi siyosati.** XVF va «Chikago maktabi» usullari bo'yicha pul emissiyasi to'xtatildi, xususiylashtirish va soliq tushumlari hisobiga davlat xarajatlarini tartibga solish, daromadlarni oshirish orqali byudjet taqchilligi bartaraf etildi;
- proteksionistik choralar yordamida **tashqi savdodagi nomutanosiblikni bartaraf etish.** Eksport, xususan, noan'anaviy eksportni rag'batlantirish va importni cheklash siyosati olib borildi (mahalliy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun dastlab import o'rnini qoplash siyosati amalga oshirildi);
- **soliq islohotlari.** Soliq bazasini kengaytirish, soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq stavkalarini yagonalashtirish; soliq imtiyozlarini bekor qilish, soliqlar to'lashdan bosh tortishga qarshi kurash. Chilida 1975-yildan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i joriy etildi;

- **tashqi savdoni erkinlashtirish.** Milliy valyuta (peso) kursining oshib ketishi, devalvatsiyasiga yo'l qo'ymaslik. Xorijiy kapitalni jalb etish, valyuta cheklashlari va xorijiy qarzlarga bo'lgan cheklashlarni bekor qilish. Keyinchalik mamlakat iqtisodiyoti uchun tashqi savdodagi erkin va davlat tartibga solish elementlarini birlashtirish xos bo'lib, peso kursining chet el valyutalari qatoriga kiritilishi esa tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishining barqarorligini ta'minladi va inflyatsiyaga qarshi kurashga yordam berdi;
- **moliya tizimini erkinlashtirish.** Foiz stavkalari darajasi nazoratining bekor qilinishi, kapitalning kirib kelishi — chiqib ketishining liberal rejimi. Biroq, Chilida milliy valyuta kursini keskin pasaytirish, kapitalning xorijga ommaviy chiqib ketishi defoltga olib kelishi muqarrarligini bilib, mamlakatga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya ko'rinishidagi uzoq muddatli kapitallarni jalb qilishni afzal deb bildilar;
- **xususiylashtirish.** O'z vaqtida S. Alende xukumati tomonidan milliylashtirilgan qishloq xo'jalik va sanoat korxonalariga mulkchilik huquqlari qayta tiklandi. Pinochet davrida Chilida «ultraliberallashtirish» siyosati o'tkazildi. 1986-yilda infratuzilma, transport, telekommunikatsiya sohalari xususiylashtirildi;
- **pensiya tizimidagi islohotlar.** Chilida pensiya islohotlari 1981-yilda o'tkazildi va bu hozirga qadar aksariyat mamlakatlar uchun namuna bo'la oladi. Nodavlat pensiya fondlari yaratilib, ular o'rtasida omonatchilar mablag'larini jalb qilish huquqi bo'yicha jiddiy raqobat muhiti shakllantirildi. Har bir chililik yiliga ikki marta pensiya fondini o'zgartirish huquqiga ega bo'ldi. Davlat zarar keltirayotgan va yuqori riskdagi xususiy fondlar litsenziyalarini bekor qilib, aholi mablag'larining himoyalanganligini kafolatladi. Pensiya islohotlari mehnatkashlar jamg'armalarining investitsiyaga aylanishiga imkon yaratdi, bu esa iqtisodiy o'sishning yirik ichki manbayi bo'lib xizmat qildi;
- **ishchi kuchi bozoridagi islohotlar.** Mehnat unumdorligi, ishchi kuchi malakasi va haq to'lash darajasini oshirish.

Chili islohotlarining asosiy natijalari quyidagicha[1]:

- Chili Lotin Amerikasida iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha yetakchi mamlakatga aylandi (YaIM o'sish sur'ati 1980–1990-yillarda yiliga o'rtacha 7 %ni, 1996–2005-yillarda 4,3 %ni, 2013-yilda esa 4,2 %ni tashkil etdi);
- mamlakatda ishsizlik darajasi pasaydi, iqtisodiyotning xususiy sektorida yangi ish o'rinlari yaratildi;
- mamlakat tashqi qarzining YaIM ga nisbatan ulushi 1985–1995-yillarda 128 %dan 32 %gacha qisqardi, mamlakatning kredit reytingi sezilarli darajada oshdi;
- Chili iqtisodiyotida 1970-yillarda mis eksportiga to'liq bog'liq bo'lgan bo'lsa (mamlakat umumiy eksportining 80 %), 2013-yilga kelib eksportdagi mis ulushi 31,5 %ni tashkil etdi, sanoat eksporti esa 69,5 %ga ortdi;
- mamlakat iqtisodiyotining ochiqligi kuchaydi, jumladan, 2013-yilda tovarlar va xizmatlar eksportining YaIM dagi ulushi 32,2 %ni tashkil etdi;
- mamlakatdagi inflyatsiya darajasi Lotin Amerikasidagi eng past ko'rsatkich hisoblanadi (1990-yillarning o'rtalaridan yiliga 8 %ga yaqin bo'lgan bo'lsa, 2013-yilga kelib 1,8 %ga teng bo'ldi);
- mamlakat davlat byudjetining barqaror ijobiy profitsiti (YaIM ga nisbatan 2 %) va savdo balansining ijobiy qoldig'iga ega;

1 World Economic Outlook 2014: Legacies, Clouds, Uncertainties. Washington 2014. P. 189, 194.; UNCTAD Handbook of STATISTICS 2014. United Nations New York and Geneva 2014. p. 112.; TRADE Profiles 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 42.

- ijtimoiy soha rivojlandi — mamlakatda ijtimoiy tengsizlik qisqardi, aholining kasbiy malakasi va ta'lim darajasi oshdi;
- milliy iqtisodiyotda yetakchi rol davlatdan xususiy sektorga o'tdi, Chilidagi resurslar bozor mexanizmi dastaklari orqali taqsimlana boshladi.

XX asr oxirida neokonservativ islohotlar kashfiyotchisi hisoblangan Chili Lotin Amerikasi mintaqasiga namuna bo'ldi. Argentina, Braziliya va Meksika qisqa muddat ichida Chiliga o'xshash iqtisodiy islohotlarni amalga oshirdilar. Inflyatsiya darajasi va tashqi qarzlar miqdorining keskin qisqarishi iqtisodiy islohotlarning samarali natijalaridan hisoblanadi. Jumladan, Braziliyada 1993-yilda inflyatsiya darajasi 2541 %ni tashkil etgani holda, 1995-yilga kelib uni 35 %gacha qisqartirishga erishildi, 2013-yilda esa 6,2 %ga teng bo'ldi.

Lotin Amerikasining yangi industrial mamlakatlari barqaror iqtisodiy rivojlanish yo'liga o'tdi, deb hisoblash mumkin va buni Chili tajribasi tasdiqlaydi. Shunga qaramasdan, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash ustun darajada «kreol neoliberalizmi» modeliga amal qilish imkoniyatlariga bog'liq hisoblanadi.

Asosiy tushunchalar

Yangi industrial mamlakatlar — sanoatlashtirish, ilmiy ishlab chiqarishning alohida turlarini yaratishda muvaffaqiyatlarga erishgan, xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro savdoda faol qatnashuvchi, sanoat tarmoqlari va xizmatlar sohasi eksportga yo'naltirilgan rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi.

Eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish modeli — milliy iqtisodiyotning ustun darajada tashqi bozorga, iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilganligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy rivojlanish modeli.

Import o'rnini qoplash modeli — milliy iqtisodiyot tarmoqlarini ichki resurslarga tayangan holda rivojlantirish, import o'rnini qoplashga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish modeli.

Quvib yetadigan modernizatsiyalash — iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlari ustun darajada yuqori jamg'arish normasi, ya'ni YaIM da yuqori investitsiyalar ulushi iqtisodiyotga davlatning aralashuvi hisobiga erishilishi.

Sanoat siyosati — ishlab chiqarishning o'sishiga, fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqish va joriy etishga, iqtisodiyotning tarmoq tarkibini yaxshilashga va tayyor mahsulot eksportini rivojlantirishga qaratilgan davlatning uzoq muddatli chora-tadbirlar majmuyi.

Sanoat siyosatining «Sharqiy Osiyo» modeli — yuqori texnologiyali tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lib, iqtisodiy o'sishning, birinchi navbatda, fan-texnika yutuqlari va yuqori texnologiyalarni o'zlashtirishga (innovatsiyalarga) bog'liqligiga asoslanadi.

«Kreol neoliberalizmi» — Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining yangi modeli hisoblanib, uning negizida Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari tajribasiga ko'ra, rivojlanishning tashqi omillari, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotning tiklanishi yotadi.

«Chikago maktabi» usullari — pul emissiyasi to'xtatilishi, xususiylashtirish va soliq tushumlari hisobiga davlat xarajatlarini tartibga solish, daromadlarni oshirish orqali byudjet taqchilligini bartaraf etish usullari.

Nazorat savollari

1. Yangi industrial mamlakatlar tarkibiga qaysi mamlakatlar kiradi?
2. Yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi uchun qanday xususiyatlar xos?

3. Yangi industrial mamlakatlarni qaysi mezonlar bo'yicha guruhlash mumkin?
4. Eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosat uchun qanday xususiyatlar xos?
5. Import o'rnini qoplash siyosatining mazmuni nimalardan iborat?
6. Janubi-Sharqiy Osiyo yangi industrial mamlakatlariga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
7. Janubi-Sharqiy Osiyo yangi industrial mamlakatlarida iqtisodiy rivojlanish muvaffaqiyatlari qaysi omillar va shart-sharoitlarga asoslangan holda erishildi?
8. Lotin Amerikasi yangi industrial mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish modeli qaysi omillarga bog'liq?
9. Chili «kreol neoliberalizmi» islohotlarining qanday belgilari mavjud?
10. Osiyo va Lotin Amerikasi yangi industrial mamlakatlari o'rtasidagi farqli jihatlar nimalardan iborat?

11-BOB. BRICS MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI

11.1. BRICS mamlakatlarining jahon iqtisodiyotidagi mavqeining ortib borishi

XXI asrning boshiga kelib iqtisodiy adabiyotda rivojlanayotgan mamlakatlar guruhida barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga, jahon iqtisodiyoti va savdosida katta ulushga ega Braziliya, Rossiya, Hindiston va Xitoyning inglizcha talaffuzdagi (Brazil, Russia, India, China) nomlarining bosh harflaridan tashkil topgan BRIC mamlakatlari guruhi paydo bo'ldi. BRIC atamasini 2001-yilda «Goldman Sachs» iqtisodchisi Djim O'Nil muomalaga kiritgan. 2011-yil yanvardan bu mamlakatlar guruhiga Janubiy Afrika Respublikasi (South Africa) ham kiritilganligi tufayli endilikda BRICS deb atalmoqda.

«Goldman Sachs» tadqiqotlari BRIC mamlakatlari bo'yicha quyidagi iqtisodiy prognozlarga asoslangan (11.1.1-rasm).

Iqtisodiyotining hajmi. BRIC mamlakatlari keyingi 40-yil ichida yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha «Katta yettilik» mamlakatlarini, Xitoy esa ushbu ko'rsatkich bo'yicha 2014-yilda Germaniyani, 2015-yilda Yaponiyani, 2040-yilga borib AQSh ni ortda qoldirishi mumkin.

Iqtisodiy o'sish sur'atlari. BRIC mamlakatlari yuqori, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga ega. Goldman Sachs prognozlariga ko'ra, Hindiston keyingi 30–40-yil ichida aholi sonining o'sishi, infratuzilmani yaxshilash hisobiga barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishishi mumkin.

Daromadar va demografiya. BRIC mamlakatlarida aholi daromadlari barqaror sur'atlarda o'sishiga qaramasdan 2050-yilga borib ham «Katta yettilik» mamlakatlariga nisbatan orqada qoladi. Jumladan, Rossiya 2050-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad ko'rsatkichi bo'yicha «Katta yettilik»ning eng kambag'al mamlakatlari qatoriga kirishi, Xitoyda esa ushbu ko'rsatkich Janubiy Koreyaning hozirgi vaqtdagi darajasi 30 ming dollarga yetishi mumkin.

Jahon bozoridagi talab. 2025-yilga borib BRIC mamlakatlarida yillik xarajatlar hajmi «Katta yettilik» mamlakatlari ko'rsatkichidan ikki baravarga oshib ketishi, 2050-yilga borib esa to'rt baravarga ortishi mumkin.

Valyuta kurslarining tebranishi. BRIC mamlakatlarida keyingi 40-yil ichida real valyuta kursi 300 %ga o'sishi mumkin.

BRICS mamlakatlarining jahon iqtisodiyotidagi mavqeyining ortib borishi quyidagi omillarga asoslanadi.

BRIC mamlakatlarining jahon iqtisodiyotidagi mavqeyi

11.1.1-rasm.



Manba: БРИК — политическая реальность посткризисного мира? Новые возможности для России. Аналитические доклады. Выпуск 1. (24) декабрь 2010. — М.: МГИМО-Университет, 2010. С. 54.

Birinchidan, BRICS mamlakatlari barqaror, yuqori o'sish sur'atlariga egaligi bilan ajralib turadi. Rossiya juda katta miqdordagi tabiiy qazilma boyliklariga, Braziliya rivojlangan qishloq xo'jalik bazasiga, Hindiston nisbatan arzon, jahon iqtisodiyoti miqyosida raqobatbardosh intellektual resuslar bozoriga, Xitoy esa arzon ishchi kuchiga ega. Shu tariqa BRICS mamlakatlari jahon iqtisodiyotida bir-birini to'ldirib turadi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra BRICS mamlakatlari 2050-yilga borib jahon yalpi milliy mahsulotining 40–45 %ni ishlab chiqaradi.

Ikkinchidan, BRICS mamlakatlarida oxirgi o'n yillikda erishilgan barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari bu mamlakatlarga katta miqdorda xorijiy investitsiyalar kirib

kelishini ta'minladi. 2006-yildan boshlab «BRIC-50» birja indeksi qabul qilindi. Ushbu indeks BRIC mamlakatlarida ishbilarmonlik faolligini aks ettirib, Braziliya, Xitoy, Hindiston va Rossiyaning 20 ta jahon birjalarida yuqori likvidlilikka ega kompaniyalari aksiyalari kursiga asoslanadi. Tahlillar ko'rsatishicha, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham BRIC mamlakatlarida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi o'sgan. Jumladan, 2011-yilda BRICS mamlakatlari iqtisodiyotiga 5 trln. dollardan ortiq xorijiy investitsiyalar jalb etilgan[1].

Uchinchidan, BRICS jahonning yirik iqtisodiy markaziga aylanishi mumkin. BRICS mamlakatlari bir vaqtning o'zida ta'lim, tadbirkorlik, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, ichki iste'molni rag'batlantirish sohalarida faollikni oshirdilar. Tahlillar BRICS mamlakatlari o'rtasida 2000-yildan boshlab o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarning jadal sur'atlarda rivojlanayotganligini ko'rsatmoqda. Misol uchun, 2013-yilda Xitoyning Braziliya, Hindiston, Rossiya va Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) tovar eksporti va importidagi ulushi mos ravishda 19,0; 4,9; 6,8; 12,7 va 15,6; 11,1; 16,9; 15,5 %ga teng bo'ldi[2].

BRICS global iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yaqin istiqbolda ushbu mamlakatlar AQSh bilan birgalikda birinchi beshlikka kirishi kutilmoqda. Tahlillar ko'rsatishicha, BRIC mamlakatlarining jahon YalM ga qo'shgan hissasi 1990–2010-yillarda 11 %dan, 25 %gacha, global iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi esa 23 %dan 50 %gacha oshdi. Ushbu mamlakatlarda YalM ning o'sish sur'atlari 2000–2009-yillarda o'rtacha 7,9 %ni tashkil etdi. BRIC mamlakatlarining jahon savdosidagi ulushi 15 %ni tashkil etadi va ularda jahon tabiiy resurslarining uchdan bir qismi to'plangan[3].

Tahlillarga ko'ra, 1990–2013-yillarda birgina Xitoyning jahon yalpi milliy mahsulotidagi ulushi 1,8 %dan 15,4 %gacha, asosiy kapitalga qo'yilmalar tarkibidagi ulushi 2,0 %dan 17,6 %gacha ortgan. 2013-yilda BRICS mamlakatlari yalpi ichki mahsuloti jahon YalM ning 27,6 %ni tashkil etgani holda shundan 15,4 % Xitoy hissasiga to'g'ri kelgan. Xitoy barcha ko'rsatkichlar guruhda yetakchi mavqega ega va BRICS yalpi ichki mahsulotining 58,2 % Xitoy hissasiga to'g'ri kelmoqda (11.1.1-jadval).

11.1.1-jadval

BRICS mamlakatlari makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, 2013-y.

Mamlakatlar	Aholi soni, mln. kishi	YalM miqdori, mlrd. doll.	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YalM miqdori, doll.	Jahon YalM dagi ulushi, %	BRICS YalM dagi ulushi, %	Yalpi milliy jamg'armalar, YalM ga nisbatan, %	Jahon tovarlar eksportidagi ulushi, %
Braziliya	198,3	2242,9	11311	2,8	14,2	14,7	1,3
Rossiya	142,9	2118,0	14819	2,9	13,4	25,3	2,8
Xindiston	1243,3	1870,7	1505	5,8	11,9	32,7	1,7
Xitoy	1360,8	9181,4	6747	15,4	58,2	50,0	11,7
JAR	53,0	350,0	6621	0,7	2,2	13,5	0,5

Manba: The Global Competitiveness Report 2014–2015. World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2014 ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1 www.imf.org

2 Trade Profiles 2014. World Trade Organization. Switzerland, 2014. p. 31,88,151,168.

3 Лютова М., Трифанов А. Конец истории успеха. //Ведомости. 29.12.2011.

Iqtisodchi mutaxassislar tomonidan keyingi o'n yillikdan boshlab BRIC mamlakatlarining global iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasining pasayishi, 2040-yilga borib esa 40 % kam bo'lishi bashorat qilinmoqda. Global iqtisodiy o'sishda Hindistonning ulushi ikki baravarga ortishi, boshqa mamlakatlar ulushi o'zgarmasdan qolishi va Xitoyning ulushi keyingi 20-yil ichida 30 % atrofida saqlanib qolib, pasayish tendensiyasiga ega bo'lishi kutilmoqda.

11.2. BRICS mamlakatlari iqtisodiyotining tarkibi va rivojlanish tendensiyalari

XXI asrda rivojlanayotgan mamlakatlar quvib yetadigan industriallashishni quvib yetadigan postindustriallashish bilan hamohang ravishda olib borishlari lozim bo'ladi. Ushbu jarayon murakkab bo'lsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlarda uni amalga oshirish imkoniyati mavjud. Jahon, jumladan, Hindiston amaliyoti agrar mamlakatlarda ham oqilona iqtisodiy siyosat natijasida bosqichma-bosqich birinchi holatdan ikkinchisiga o'tish mumkinligini ko'rsatmoqda.

BRICS mamlakatlari iqtisodiyotining tarkibi 1980–2010-yillarda jiddiy o'zgarishlarga uchradi. Jumladan, 1980-yilda BRICS mamlakatlari iqtisodiyotining tarkibida qishloq xo'jaligining ulushi 9 %dan 38 %gacha ortgan bo'lsa, 2010-yilda bu ko'rsatkich 5 %dan 17 %gacha pasaygan. Bunday jiddiy o'zgarish, asosan, Xitoy va Hindistonda sodir bo'lgan bo'lib, 1980–2010-yillarda qishloq xo'jaligining ulushi mutanosib ravishda 30 va 38 %dan 10 va 17 %ga qadar qisqardi (11.2.1-jadval).

11.2.1-jadval
BRICS mamlakatlari iqtisodiyotining tarkibi

Mamlakatlar	YalM tarkibi, jamiga nisbatan, %da					
	Qishloq xo'jaligi		Sanoat		Xizmatlar	
	1980-y.	2010-y.	1980-y.	2010-y.	1980-y.	2010-y.
Braziliya	11	7	44	27	45	66
Xitoy	30	10	49	46	21	44
Hindiston	38	17	26	28	36	55
Rossiya	9	5	54	37	37	58
JAR	7	3	50	31	43	66

Manba: От плана к рынку. Отчет о мировом развитии – 1996. МБРР/Всемирный банк, 1996. С. 274, 275; World Development Report 2012. World Bank. P. 396, 399.

BRICS mamlakatlari jahon savdosida salmoqli ulushga ega bo'lib, 2013-yilda ushbu mamlakatlarning jahon tovarlar eksporti va importidagi ulushi mutanosib ravishda o'rtacha 15,8 va 3,3 %ni, jahon xizmatlar eksporti va importida esa 2,0 va 3,1 %ni tashkil etdi. BRICS mamlakatlari eksportining tovar tarkibida 2013-yilda sanoat mahsulotlari o'rtacha 50,0 %ni, importida esa 61,5 %ni, xizmatlar eksporti va importi tarkibida esa boshqa tijorat xizmatlari yetakchi mavqega ega bo'lgani holda mutanosib ravishda 54,6 va 40,3 %ni tashkil etdi (11.2.2-jadval).

11.2.2-jadval
BRICS mamlakatlari tashqi savdosining tovar tarkibi, 2013-y.

	Tovarlar			Xizmatlar	
	Eks-port	Import		Eks-port	Import
Qishloq xo'jalik mahsulotlari	14,6	8,0	Transport	17,7	31,0
Yoqilg'i va qazib chiqarish sanoati mahsulotlari	32,4	24,3	Turizm	28,2	28,7
Sanoat mahsulotlari	50,0	61,5	Boshqa tijorat xizmatlari	54,6	40,3
Jahondagi ulushi	15,8	3,3	Jahondagi ulushi	2,0	3,1

Manba: Trade Profiles 2014. World Trade Organization. Switzerland, 2014-yil ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Tahlillar ko'rsatishicha, BRICS mamlakatlari tashqi savdosiga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatgan, jumladan, 2009-yilda tovarlar eksporti 2008-yilga nisbatan — 22,5 %, xizmatlar eksporti esa 13,3 %ga qisqardi. Ushbu mamlakatlar guruhida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi qo'llanilgan chora-tadbirlar dasturi natijasida 2010-yilda tashqi savdo yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lgan bo'lsa-da, inqirozning keyingi to'lqini tashqi savdo sur'atlarining keskin pasayishiga olib keldi (11.2.2-jadval).

11.2.3-jadval
BRICS mamlakatlari tashqi savdosining hajmi va o'zgarishi, mlrd. doll.

	2013-y.	O'tgan yilga nisbatan o'zgarish, %				
		2005–2013-yillarda o'rtacha	2009-y.	2010-y.	2012-y.	2013-y.
Tovarlar eksporti	3383,7	14,0	–22,5	32	1,2	1,8
Tovarlar importi	3135,8	13,8	–23	34,8	2,4	2,0
Xizmatlar eksporti	471,6	11,2	–13,3	21,8	5,4	2,8
Xizmatlar importi	676,3	14,0	–7,5	30,5	7,2	6,6

Manba: Trade Profiles 2011. World Trade Organization. Switzerland, 2011; Trade Profiles 2014. World Trade Organization. Switzerland, 2014-yil ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Ushbu holat Braziliya eksportidagi muammolar milliy valyuta real kursining dollarga nisbatan ko'tarilishi, qayta ishlash sanoatining arzonligi Xitoy va boshqa Osiyo mamlakatlari importi bilan qiyin raqobat, Xitoy iqtisodiyotida Braziliya xomashyosi eksportiga bo'lgan talabning pasayishi bilan bog'liq bo'lsa, Rossiyada mamlakat eksporti hajmining qisqarishi yoqilg'i va qazib chiqarish sanoati mahsulotlariga jahon narxining pasayib ketishi, Xitoy va Hindistonda esa sanoat mahsulotlariga bo'lgan tashqi talabning qisqarishi bilan bog'liqdir.

Tahlillar BRICS mamlakatlari tashqi savdosining tovar tarkibi bir-biridan jiddiy farq qilishini ko'rsatmoqda. Jumladan, 2013-yilda BRICS mamlakatlari tovar eksporti tarkibining 50,0 %ni sanoat mahsulotlari, 32,4 %ni yoqilg'i va qazib chiqarish sanoati mahsulotlari, 14,6 %ni qishloq xo'jalik mahsulotlari tashkil etgan bo'lsa-da, Xitoy va Hindiston tovarlar eksportining tarkibida sanoat mahsulotlari (mutanosib ravishda 94,0 va 59,4 %) yetakchi mavqega ega bo'lib, Rossiya eksportida yoqilg'i va qazib chiqarish sanoati mahsulotlari (71,4 %), Braziliyada esa qishloq xo'jalik mahsulotlari (37,4 %) ustuvorlik qilganligini kuzatish mumkin (11.2.4-jadval).

11.2.4-jadval
BRICS mamlakatlari tovar eksportining tarkibi, 2013-y.

	Brazi-liya	Ros-siya	Hindis-ton	Xitoy	JAR
Qishloq xo'jalik mahsulotlari	37,4	5,7	15,0	3,2	11,6
Yoqilg'i va qazib chiqarish sanoati mahsulotlari	24,2	71,4	25,5	2,7	38,1
Sanoat mahsulotlari	35,1	19,3	59,4	94,0	42,0
Boshqa mahsulotlar	3,3	3,6	0,1	0,1	8,3
Jahondagi ulushi	1,3	2,8	1,7	11,7	0,5

Manba: Trade Profiles 2014. World Trade Organization. Switzerland, 2014-yil ma'lumotlari asosida hisoblangan.

BRICS mamlakatlari iqtisodiyotiga xos xususiyatlardan biri ichki talabning yuqoriligidir. BRICS mamlakatlarida yalpi ichki mahsulotning qo'shimcha o'sishi, avvalambor, ichki talabning — aholi, korxonalar va davlat boshqaruv organlarining iste'mol va investitsion xarajatlarining jadal sur'atlarda kengayishi bilan bog'liq. Misol uchun, Xitoyda oxirgi o'n yillikda milliy eksport hajmining bir necha martaga ortishi bilan bir vaqtda 2000–2007-yillarda mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida investitsiyalar (asosiy kapitalni yalpi jamg'arish) ulushi sof eksportga qaraganda jadal sur'atlarda o'sgan. Ushbu ko'rsatkichlar bu davrda mos ravishda 6,5 va 7 punktga o'sgan. Hindistonda esa investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi, tashqi savdo balansi salbiy qoldiqqa ega bir vaqtda, 8,9 punktga oshgan (11.2.5-jadval).

11.2.5-jadval
Xitoy, Hindiston va Braziliyada yalpi ichki mahsulotdan foydalanish tarkibi, foizda

	Xitoy		Hindiston		Braziliya	
	2000-y.	2007-y.	2000-y.	2007-y.	2000-y.	2007-y.
Pirovard iste'mol xarajatlari	62,3	34,8	76,3	66,9	76,3	64,9
Yalpi jamg'arish	35,3	42,3	24,3	35,8	24,3	35,8
Asosiy kapitalni yalpi jamg'arish	34,3	45,0	22,7	31,6	22,7	17,6
Sof eksport	2,4	5,9	–1,0	–4,4	–1,0	–4,4

Manba: Петров М., Плисецкий Д. Трансформация глобальных финансов. //Мировая экономика и международные отношения, №7, 2010. С. 5.

BRIC mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishidagi keyingi xususiyat ichki hududiy tabaqalashuvning chuqurligi bilan bog'liq. BRIC mamlakatlari ichki hududiy rivojlanish jihatdan chuqur tabaqalashuvga ega bo'lib, barchasida hududlar hajmi va aholi soni bo'yicha bir-biridan tubdan farq qiladi. Misol uchun, hududlarning aholi soni bo'yicha tabaqalashuv darajasi Hindistonda eng yuqori — 3 ming marta (variatsiya koeffitsiyenti 126,1 %), Xitoyda esa eng past — 34 martaga (variatsiya koeffitsiyenti 63,4 %) teng. BRICS mamlakatlarida yalpi mintaqaviy mahsulotning mutlaq hajmi bo'yicha tabaqalashuv darajasi yanada yuqori hisoblanadi (11.2.6-jadval).

11.2.6-jadval

BRICS mamlakatlarida mintaqaviy tabaqalashuv ko'rsatkichlari

	Braziliya	Rossiya	Hindiston	Xitoy
Aholi soni				
Aholisi ko'psonli hududlarning kamsonli hududlarga nisbati, marta	101,8	248,6	2998,6	33,6
Variatsiya koeffitsiyenti, %	118,9	92,2	126,1	63,4
Jini koeffitsiyenti	0,4403	0,4040	0,5574	0,3341
Yalpi mintaqaviy mahsulot hajmi				
Mahsulot hajmi yuqori hududlarning mahsulot hajmi kam hududlarga nisbati, marta	199,4	582,3	2298,2	90,0
Variatsiya koeffitsiyenti, %	172,9	222,0	120,1	84,8
Jini koeffitsiyenti	0,5581	0,5763	0,5416	0,4101

Manba: Зайцева Ю. Межрегиональная дифференциация в странах БРИК: возможности оценки. //Мировая экономика и международные отношения, №5, 2010. С. 50.

Braziliya va Hindistonda iqtisodiy mintaqalar o'rtasidagi katta farq kichik miqdordagi yalpi mahsulotga ega ko'psonli mintaqalarning mavjudligi bilan izohlanadi (mintaqalarning 50 %da yalpi mahsulotning bor-yo'g'i 10 %ga yaqini ishlab chiqariladi). Rossiya uchun esa yalpi mahsulot hajmi katta bo'lgan mintaqalar sonining ko'pligi xos bo'lib, mintaqalarning 10 % yalpi mahsulotning deyarli 50 %ni ishlab chiqaradi. Xitoyda mintaqalar o'rtasidagi farq boshqa BRIC mamlakatlariga nisbatan past hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarda (Hindistondan tashqari) aholi mintaqalar bo'yicha yalpi mintaqaviy mahsulotga nisbatan tekis taqsimlangan.

Hindistonda ishlab chiqarilgan yalpi mintaqaviy mahsulot hajmi va aholi soni o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lib, yalpi mintaqaviy mahsulotning aksariyat qismi aholi zich joylashgan markaziy va janubiy shtatlarda (Maxarashtra, Uttar-Pradesh, Andxra-Pradesh, Tamil-Nadu, G'arbiy Bengaliya va Gujarat) ishlab chiqariladi.

Braziliyada yalpi mintaqaviy mahsulotning asosiy qismi janubi-sharqiy mintaqalar — San-Paulu (33 %), Rio-de-Janeyro (11,5 %), Minas-Jerays (10 %) hissasiga to'g'ri keladi. Braziliyada ham Hindiston singari yalpi mintaqaviy mahsulot hajmi va aholi soni o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud.

Xitoyda yalpi mintaqaviy mahsulotning yarmidan ortig'ini janubi-sharqiy qirg'oq bo'yi mintaqalari ishlab chiqaradi. Mamlakatning shimoli-g'arbiy mintaqalari maydoni jihatdan katta bo'lsa-da, mintaqaviy mahsulotning 10 %ga yaqin qismi ishlab chiqariladi.

Rossiyada yalpi mintaqaviy mahsulotning aksariyat qismi poytaxt mintaqalari — Moskva (23,4 %), Moskva viloyati (4,2 %), Sankt-Peterburg (3,7 %), neft va gaz qazib chiqaruvchi mintaqalar (Xanti-Mansiysk avtonom okrugi — 7,1 %, Tatarston Respublikasi — 2,7 %, Krasnoyarsk o'lkasi — 2,6 %, Yamal-Nenetsk avtonom okrugi — 2,4 %, Boshqirdiston Respublikasi — 2,3 %, Sverdlovsk viloyati — 2,9 %)ga to'g'ri keladi. Rossiya yalpi mintaqaviy mahsulot hajmi va aholi soni o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud emasligi bilan ajralib turadi. Bu holat boshqa BRIC mamlakatlariga qaraganda arzon ishchi kuchi resurslarining mavjudligi hisobidan emas, balki katta hajmdagi neft, gaz kabi foydali qazilma boyliklari bilan bog'liq. Bundan tashqari, Rossiya aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi mintaqaviy mahsulot hajmi bo'yicha chuqur tabaqalashuvga ega yagona mamlakat hisoblanadi. Misol uchun, Rossiyada bu ko'rsatkich o'rtacha darajaning 25 %dan

kam bo'lgan va o'rtacha darajadan 350 % yuqori bo'lgan mintaqalar (Nenetsk, Xanti-Mansiysk va Yamal-Nenetsk) mavjud[1].

11.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining BRICS mamlakatlari iqtisodiyotiga ta'siri va rivojlanish istiqbollari

Rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan rivojlangan mamlakatlarga nisbatan kam zarar ko'rishdi. Tahlillar ko'rsatishicha, 2008-yilda rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot 2007-yilga nisbatan 0,2 %ga o'sgani holda, bu ko'rsatkich rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida 6,0 %ga teng bo'ldi. 2009-yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'sirida jahon yalpi ichki mahsuloti 0,5 %ga pasaydi, bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 3,4 %ni, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa milliy kapital bozorlarining beqarorligi, real sektorni moliyalashtirish va tashqi konyunkturaning yomonlashuvi sababli 2,7 %ni tashkil etdi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi BRICS mamlakatlari iqtisodiyotiga turlicha ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, Braziliya sezilarli darajada AQSh iqtisodiyotiga, Rossiya esa asosiy eksport tovarlari bo'yicha tashqi bozor konyunkturasiga bog'liqligi sababli iqtisodiy o'sish sur'atlari ushbu mamlakatlarda 2009-yilda mos ravishda 0,6 va 7,8 %ga pasaydi. Xitoy va Hindiston esa barqaror sur'atlarda o'sib borayotgan ichki talab ta'sirida 2009-yilda mos ravishda 9,2 va 6,8 %li iqtisodiy o'sishga erishdi. Ushbu mamlakatlar 2013-yilda 7,7 va 5,0 %li iqtisodiy o'sishni namoyish etishdi (11.3.1-jadval).

11.3.1-jadval

Jahon va milliy yalpi ichki mahsulot dinamikasi, 2005–2013-yy., foiz hisobida

	2005-y.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.
Jahon	**4,6**	**5,3**	**5,4**	**2,8**	**-0,7**	**5,1**	**4,1**	**3,4**	**3,3**
Rivojlangan mamlakatlar	**2,7**	**3,1**	**2,8**	**0,1**	**-3,7**	**3,1**	**1,7**	**1,2**	**1,4**
AQSh	3,1	2,7	1,9	-0,3	-3,5	3,0	1,6	2,3	2,2
Yevrozona	1,7	3,2	3,0	0,4	-4,3	1,8	1,6	-0,7	-0,4
Yaponiya	1,9	2,0	2,4	-1,2	-6,3	4,0	-0,5	1,5	1,5
Buyuk Britaniya	2,2	2,8	2,7	-0,1	-4,9	1,4	1,1	0,3	1,7
Kanada	3,0	2,8	2,2	0,7	-2,8	3,2	2,5	1,7	2,0
BRIC mamlakatlari	**6,6**	**8,0**	**8,9**	**6,0**	**1,3**	**7,0**	**5,3**	**3,4**	**3,7**
Xitoy	11,3	12,7	14,2	9,6	9,2	10,3	9,3	7,7	7,7
Hindiston	9,0	9,5	10,0	6,2	6,8	10,1	6,6	4,7	5,0
Braziliya	3,2	4,0	6,1	5,2	-0,5	7,5	2,7	1,0	2,5
Rossiya	6,4	8,2	8,5	5,2	-7,5	4,0	4,3	3,4	1,3
JAR	3,3	5,6	5,5	3,6	-1,5	3,1	3,6	2,5	1,9

Manba: World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. October 2014. IMF, 2014-yil ma'lumotlari asosida hisoblngan.

XVF prognozlariga ko'ra, 2019-yilga qadar BRICS mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtacha 4,0 %ni tashkil etishi kutilmoqda.

1 Зайцева Ю. Межрегиональная дифференциация в странах БРИК: возможности оценки. //Мировая экономика и международные отношения, №5, 2010. С. 51.

Boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan ish haqining oshishi, foiz stavkalarining yuqoriligi, milliy valyuta kurslarining tebranishi tufayli BRICS mamlakatlari kompaniyalarining foydasi kamayib bormoqda.

BRICS mamlakatlaridan kapitalning chiqib ketishi jiddiy muammoga aylanib bormoqda. Misol uchun, 2010-yilda BRICS mamlakatlaridan 15 mlrd. dollar miqdorida kapital chiqib ketgan va bu oxirgi o'n yilda jalb etilgan kapital qo'yilmalarning 22 %ni tashkil etadi. 2010-yilda MSCI BRIC indeksi — 24 %ga, Xitoyning Shanghai Composite indeksi — 23 %ga, Hindistonning BSE India Sensitive byltrcb — 23 %ga, Braziliyaning Bovespa indeksi — 16 %ga, Rossiyaning MMVB indeksi esa 18 %ga pasaydi. Shunga qaramasdan, BRICS mamlakatlarida ichki iste'molning o'sishi va infratuzilmaning rivojlanishi borasida katta salohiyat mavjud.

Jahon moliyaviy inqirozining BRICS mamlakatlar iqtisodiyotiga ko'rsatgan salbiy ta'siri bu mamlakatlarda moliyaviy aktivlar va jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmining keskin qisqarishiga olib keldi.

11.3.2-jadval

BRICS mamlakatlarida moliyaviy aktivlar va xorijiy investitsiyalar hajmining qisqarishi, 2008-y.

	Braziliya	Hindiston	Xitoy	Rossiya
Aktivlar hajmining qisqarishi, trln. doll.	–0,2	–0,6	–2,4	–0,8
Xorijiy investitsiyalar hajmining qisqarishi, jumladan:				
trln. doll.	–32	–28	–159	–0,7
YalM ga nisbatan, %da	–2,0	–2,3	–3,7	–4,1

Manba: Фролова Е. В. Мировой финансовый рынок: до и после кризиса. //ЭКО, №6, 2010. С. 169.

1990-yillarda BRICS mamlakatlarining barchasida Meksika (1990-yillarning boshi) va Janubiy Sharqiy Osiyo (1990-yillarning oxiri) moliya inqirozlari ta'sirida iqtisodiy o'sishning pasayishiga qaramasdan, bu mamlakatlarda 2000-yillarning boshida to'lov balansining joriy operatsiyalar schyoti bo'yicha ijobiy o'sish kuzatildi. Ushbu ijobiy tendensiya 2008-yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qadar faqat Xitoy va Rossiyada saqlanib qoldi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qadar, 2000–2007-yillarda BRICS mamlakatlarining barchasida to'lov balansi barqaror o'sish sur'ati va ijobiy qoldiqqa ega bo'ldi:

- Braziliya to'lov balansi qoldig'i 39 martaga — 2 mlrd. dollardan 87 mlrd. dollargacha;
- Rossiyada 9 martaga — 16 mlrd. dollardan 150 mlrd. dollargacha;
- Hindistonda 15 martaga — 6 mlrd. dollardan 87 mlrd. dollargacha;
- Xitoyda 43 martaga — 11 mlrd. dollardan 461 mlrd. dollargacha o'sdi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida 2008-yilda 2007-yilga nisbatan BRICS mamlakatlarining barchasida (Xitoydan tashqari) to'lov balansining umumiy qoldig'i sezilarli darajada pasaydi. Misol uchun, bu ko'rsatkich Braziliyada 96,6 %ga, Hindistonda 94,3 %ga, Rossiyada esa 1,2 martaga qisqardi. Bu davrda kapitalning chiqib ketishi Braziliya va Hindistonda 60 %dan yuqori, Xitoya 50 %ga, Rossiyada 3 martaga teng bo'ldi. Rossiya va Hindistonning xalqaro oltin-valyuta zaxiralari inqirozgacha bo'lgan davrga nisbatan taxminan 10 %ga qisqardi. Shunga qaramasdan BRICS mamlakatlari iqtisodiyoti jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida yetakchi rivojlangan mamlakatlar, jumladan, AQSh va YeI iqtisodiyotiga nisbatan barqaror ekanligini ko'rsatmoqda (11.3.3-jadval).

11.3.3-jadval
Jahonning yetakchi mamlakatlarida xalqaro zaxiralar, YaIM ga nisbatan foiz hisobida.

	2005–2007-yy.	2010–2012-yy.
Braziliya	9,1	14,7
Xitoy	40,3	44,7
Hindiston	19,2	16,1
Rossiya	30,5	27,3
JAR	9,9	11,9
AQSh	1,7	2,6
Fransiya	4,1	4,9
Germaniya	3,9	5,0

Manba: World Development Report 2014: Risk and Opportunity — Managing Risk for Development. Washington 2014. p. 312,313

BRICS mamlakatlari inqirozga qarshi siyosati ustun darajada barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi, salbiy tendensiyalarni bartaraf etishga qaratilgan dastaklarga asoslandi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida BRICS mamlakatlari yirik moliyaviy mablag'larni muammoli sektorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun safarbar etishdi (13.3.2-jadval).

11.3.2-diagramma
Jahonning yetakchi mamlakatlarida inqirozga qarshi choralar dasturlari hajmining nisbati



Manba: Петрикова Е.М. Платежный баланс стран БРИКС //Вопросы статистики, №1, 2012. С.79.

XVF mutaxassislarining prognozlariga ko'ra, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari inqiroz oqibatlarini rivojlangan mamlakatlarga nisbatan tezroq bartaraf etishadi va 2015-yildan boshlab o'rtacha 5,0 %li iqtisodiy o'sishga erishadilar hamda ichki ishlab chiqarish hajmini 5,2 gacha, ya'ni rivojlangan mamlakatlarning nisbatan o'rtacha 2,2 barobarga oshiradilar. Bu esa rivojlanayotgan mamlakatlar 2015–2019-yillarda jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 50 %dan oshirish imkonini beradi.

Tahlillar ko'rsatishicha, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida BRICS mamlakatlarining Hindistondan tashqari barchasi global raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini yaxshilashga erishgan. Jumladan, Braziliya 2014–2015-yilda Global

raqobatbardoshlik indeksi (GRI) ro'yxatida 57-o'rinni egallab, 2008–2009-yilgi ro'yxatga nisbatan yetti pog'ona yuqori ko'tarilishga erishgan. Ushbu ko'rsatkich Xitoy va Rossiya bo'yicha +2 o'ringa teng bo'lgan bo'lsa, Hindiston bu ro'yxatda 71-o'rinni egallab, o'z ko'rsatkchini 21 pog'onaga pasaytirgan (11.3.4-jadval).

11.3.4-jadval

BRICS mamlakatlarining global raqobatbardoshlik indeksi ro'yxatidagi o'rnining o'zgarishi

Mamlakatlar	GRI 2008–2009-yy.	GRI 2014–2015-yy.	O'zgarish
Braziliya	64	57	+7
Xitoy	30	28	+2
Xindiston	50	71	-21
Rossiya	51	53	+2
JAR	50*	56	-6

* GRI 2011–2012-yy. ma'lumoti

Manba: The Global Competitiveness Report 2009–2010 World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2009; The Global Competitiveness Report 2014–2015. World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2014 ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Nobel mukofoti lauriati P. Krugman fikricha, Rossiya o'z katta iqtisodiy salohiyatiga qaramasdan bor-yo'g'i xomashyoga ixtisoslashgan, diversifikatsiyalashmagan iqtisodiyotga ega mamlakat hisobalanadi. Investorlar BRIC ning boshqa mamlakatlariga nisbatan Rossiya istiqboliga shubha bilan qarab, investitsiyalarini Braziliya yoki Xitoy iqtisodiyotiga kiritishni afzal biladilar[1].

Shu bilan birga BRICS mamlakatlari past daromadli mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. BRICS va past daromadli mamlakatlar o'rtasida savdo, investitsiya va moliyalashtirish sohalarida o'zaro hamkorlik jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyin BRICS mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashuvi past daromadli mamlakatlar eksport mahsulotlariga bo'lgan talab hajmining ortishiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda, BRICS mamlakatlari va past daromadli mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin:

- BRICS mamlakatlari va past daromadli mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi past daromadli mamlakatlarda xomashyo resurslariga bog'liqlikning ortishiga olib keladi. Ammo past daromadli mamlakatlar muvaffaqiyatli rivojlanish tendensiyalariga ega BRICS mamlakatlari tajribasidan unumli foydalanishlari mumkin. Qayta ishlash sanoatida Hindiston va Xitoy raqobatbardoshligi hamda tabiiy resurslarga bo'lgan talabining ortishi past daromadli mamlakatlarda birja tovarlarlari narxining o'sishiga va qayta ishlash sanoatiga ixtisoslashuvning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan bir vaqtda Braziliya va Rossiya (ayrim rivojlangan mamlakatlar — Avstraliya va Kanada) tabiiy resurslardan iqtisodiy o'sish bazasi sifatida unumli foydalangan;
- qayta ishlash sanoati rivojlanishining faollashuvi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning asosiy omiliga aylanishi, BRICS mamlakatlari tomonidan texnologiyalarni uzatish va ishchilar malakasini oshirishni moliyalashtirish past daromadli mamlakatlarda qayta ishlash sanoatining rivojlantirishini rag'batlantirishi mumkin;

1 http://top.rbc.ru/economics/14/02/2012/637788.shtml

- imtiyozli, jumladan, tijorat shartlari asosida moliyalashtirish qayta ishlash sanoatining jadal sur'atlarda rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Xitoy tajribasining ko'rsatishicha, tijorat asosida moliyalashtirish bu sohada raqobatni rag'batlantiradi va zanjirli reaksiya samarasini keltirib chiqaradi;
- past daromadli mamlakatlar BRICS mamlakatlari boy tajribasidan yuqorida qayd etilgan vazifalarni hal etishda foydalanishlari mumkin. Bu mamlakatlardan iqtisodiy o'sish imkoniyatlaridan maksimal foydalanish imkonini beruvchi infratuzilmani bosqichma-bosqich rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish talab etiladi. Xitoy iqtisodiy infratuzilmasidagi mavjud muammolar va resurslardan foydalanish yo'nalishlarini muntazam ravishda qayta ko'rib chiqish natijasida investitsiyalarni rejalashtirish borasida jiddiy muvaffaqiyatlarga erishdi;
- BRICS va past daromadli mamlakatlar o'rtasida xalqaro tashkilotlar hamda donorlar past daromadli mamlakatlar ko'proq miqdorda resurslarni o'zlashtirishlari uchun makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsiya muhitini yaxshilash orqali bog'lovchi vazifasini o'tashlari mumkin.

Asosiy tushunchalar

«Goldman Sachs» — jahonning yirik tijorat banklaridan biri (2008-yilga qadar investitsiya banki), moliyachilar o'rtasida «The Firm» sifatida mashhur.

BRIC — barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga, jahon iqtisodiyoti va savdosida katta ulushga ega Braziliya, Rossiya, Hindiston va Xitoydan iborat mamlakatlar guruhi.

BRICS — barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga, jahon iqtisodiyoti va savdosida katta ulushga ega Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrika Respublikasidan iborat mamlakatlar guruhi.

Yalpi mintaqaviy mahsulot — mintaqa darajasida yalpi mahsulot hajmidan oraliq iste'molni ayirib tashlash orqali hisoblanadigan yalpi qo'shilgan qiymat ko'rsatkichi.

Mintaqaviy tabaqalashuv — mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush darajasining bir xil emasligi.

Mintaqa ichki siyosati — davlat tomonidan mintaqa resurslaridan oqilona foydalanish, aholi turmush darajasini oshirish, mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyi.

Nazorat savollari

1. BRICS mamlakatlariga qaysi mamlakatlar kiradi va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli qanday?
2. BRICS mamlakatlarining jahon iqtisodiyotidagi mavqeyining ortib borishi qaysi omillarga asoslanadi?
3. BRICS mamlakatlari iqtisodiyoti qanday tarkibga ega va rivojlanish omillari nimalardan iborat?
4. BRICS mamlakatlari mintaqaviy rivojlanishidagi tafovutlar qaysi sabab va omillar ta'sirida vujudga kelmoqda?
5. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi BRIC mamlakatlari iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi BRIC mamlakatlari to'lov balansiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
7. BRICS mamlakatlari va past daromadli mamlakatlar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
8. BRICS mamlakatlarining o'rta va uzoq muddatli rivojlanish istiqbollariga baho bering.

12-BOB. XITOY IQTISODIYOTI

12.1. Xitoy iqtisodiy islohotlarining mohiyati, bosqichlari va omillari

Xitoy Osiyo qit'asining sharqiy qismida joylashgan bo'lib, Tinch okeanining g'arbiy dengizlari bilan o'rab olingan. Xitoyning quruqlikdagi hududi 9,6 mln. kv. km. bo'lib, qirg'oq bo'ylab 18 ming kilometrlik chegaraga ega. Hududiy suvining umumiy maydoni esa 4,7 mln. km^2 ni tashkil etadi. Xitoy tabiiy boyliklarga juda boy mamlakat. Xitoy quruqlik orqali 14 ta va qirg'oqdan dengizlar bilan ajralib turadigan 6 ta malakat bilan chegaradosh. Xitoy ko'pmillatli mamlakat hisoblanib, uning hududida 56 millat istiqomat qiladi. Xitoyning ichki hududlarida sotsialistik tizim hukmronlik qiladi. Xitoy kommunistik partiyasi (XKP) yagona boshqaruv partiyasi hisoblanadi va XKP rahnamoligida mamlakatni boshqarishda ko'ppartiyaviylik hamkorligiga asoslangan siyosat olib boriladi.

Hozirgi vaqtda Xitoy 4 ta markaziy boshqaruvidagi shaharlar, 23 ta viloyat, 5 ta avtonom rayon, 2 ta alohida ma'muriy rayon hamda poytaxt — Pekinga bo'lingan. Xitoy dunyo mamlakatlari bilan mustaqil tashqi iqtisodiy aloqalar olib boradi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Xitoy iqtisodiy rivojlanishini ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr (1949–1978) — mamlakatning davlat sektori (davlat va jamoaviy korxonalari) ustun turuvchi markazlashgan rejali iqtisodiyot sharoitida rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Ikkinchi davr (1978-yil oxiridan hozirga qadar) esa iqtisodiy erkinlashuv, xo'jalikni boshqarishda bozor tamoyillariga bosqichma-bosqich o'tishga yo'naltirilgan.

1950-yillar boshlariga kelib urushlar sababli iqtisodiy jihatdan zaif agrar mamlakatga aylangan Xitoy hukumatiga Xitoy kommunistik partiyasining (XKP) kelishi va Xitoy Xalq Respublikasining (XXR) e'lon qilinishidan so'ng rivojlanishning sotsialistik yo'liga qadam qo'yildi, juda qisqa muddatda sanoatlashtirish amalga oshirildi. Sobiq SSSR yordamida 300 dan ortiq yirik zamonaviy sanoat obyektlari qurildi, qishloq joylarda kollektivlashtirish o'tkazildi va kommunalar tizimi tashkil etildi. 1950–1970-yillarda Xitoyning iqtisodiy rivojlanishiga mamlakatda ro'y bergan «katta sakrashlar» (1958–1960) va «madaniy inqilob» (1966–1976) kabi jiddiy siyosiy o'zgarishlar salbiy ta'sir ko'rsatdi. Madaniy inqilob xalq xo'jaligini boshqarish tizimining izdan chiqishi va iqtisodiy taraqqiyotning orqada qolishiga sabab bo'ldi. Jumladan, 1977-yilda ishchi va xizmatchilarning ish haqi 1957-yilga nisbatan 28 %ga pasaydi[1].

«Katta sakrashlar» siyosatidan so'ng Xitoyning sobiq SSSR va ittifoq mamlakatlarining deyarli barchasi bilan iqtisodiy munosabatlari yomonlashdi. 1960-yillarda G'arb mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalar yangi yo'nalishda olib borildi. Xitoyning AQSh va qator G'arb mamlakatlari bilan rasmiy munosabatlarining yo'qligi sharoitida mamlakat uchun G'arb yuqori texnologiyasi, zamonaviy asbob-uskunalarini jalb qilish va Xitoy mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqishning muhim yo'li hisoblangan Gonkong bilan savdo munosabatlari jadal rivojlantirildi.

1970-yillarning oxirida Xitoyda iqtisodiy islohotlar yo'nalishi («islohotlar va ochiqlik siyosati») belgilanib olindi. Xitoydagi islohotlarning asosiy mazmuni rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o'tish edi. Ammo islohotlarning aniq ravshan konsepsiyasi, yakuniy maqsadi belgilanmaganligi sababli tub o'zgarishlarning rasmiy modeli bir necha marta o'zgartirildi.

1 ВТО: механизм взаимодействия национальных экономик. Угрозы и возможности в условиях выхода на международный рынок. /под ред. С. Ф. Сутырина. — М.: Эксмо, 2008. С. 244.

1984–1991-yillarda maxsus o'zgarishlar kiritilgandan so'ng iqtisodiy islohotlar aniq maqsadli sotsialistik rejali tovar xo'jaligi tizimini joriy qilish modeliga ega bo'ldi.

Xitoydagi iqtisodiy islohotlarning o'ziga xos jihati o'zgarishlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishidir. Bunda mamlakatning demografik, iqtisodiy rivojlanish, daromadlar, xo'jalik yuritishdagi keskin hududiy tafovutlar inobatga olindi. Mamlakat «katta sakrashlar»dan charchadi, jadal sur'atlardagi iqtisodiy o'zgarishlar esa xalq noroziligiga sabab bo'lishi mumkin edi.

1978-yilda boshlangan bozor islohotlari kutilganidan ortiq yuqori natijalar berdi va iqtisodiy tizimning o'zgarishiga olib keldi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida uch bosqichli uzoq muddatli reja belgilab olindi:

- qishloq xo'jaligida islohotlar o'tkazish va tashqi iqtisodiy ochiqlik siyosatini joriy etish (1970-yillarning oxiridan 1984-yilgacha);
- sanoatda davlat sektorini isloh qilish (1984–1988-yillar);
- Xitoyning GATT/JST tizimiga kirishi (1992-yildan keyin) bilan bog'liq iqtisodiy islohotlar kompleksi.

Xitoyda iqtisodiy islohotlar strategiyasining muhim vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

- moddiy resurslarni direktiv rejalashtirish va markazlashgan taqsimot ta'sirini kamaytirish orqali narxlarni sekin-asta erkinlashtirish;
- davlat va korxonalar o'rtasida mulkka egalik qilish va xo'jalik yuritish huquqini bir-biridan ajratish, davlat sektorining ulushini saqlab qolgan holda, iqtisodiyotning nodavlat sektorini rivojlantirish;
- hududiy va mahalliy ma'muriyat moliyaviy bazasining xo'jalik huquqlarini kengaytirish.
- qirg'oqbo'yi viloyatlarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash — xitoy diasporasi yashaydigan Gonkong, Tayvan kabi mamlakatlardan kapital jalb qilish;
- yuqori jamg'arish normasi hisobiga iqtisodiy o'sishni moliyalashtirish (1980-yillarda 30 %dan ziyod, 1990-yillardan va hozirgacha 40 %dan yuqori);
- moliya sohasida davlat nazoratini saqlab qolish.

Oilaviy pudrat tajriba sifatida dastlab kambag'al hududlarda 1978-yildan boshlab esa butun Xitoy bo'yicha joriy qilindi. 1983-yilga kelib xitoy dehqonlari «xalq kommunalari» tizimidan oilaviy pudrat tizimiga o'tishdi. Yer dehqonlarga uzoq muddatli ijaraga berildi (avvaliga 15-yilga, keyinchalik ijara muddati 30-yilgacha uzaytirildi), qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarida bozor narxlarida mahsulotning ma'lum qismini sotish imkoniyati paydo bo'ldi. Bir vaqtning o'zida davlatning xarid narxlari ham oshirildi. Davlatning g'allaga bo'lgan monopoliyasi 1985-yilgacha saqlanib turdi. 1980-yillarning ikkinchi yarmiga kelib bozor narxidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining taxminan 60 % sotildi (1978-yilda — faqat 8 %). Bu ko'rsatkich 1990-yilga kelib 80 %gacha ko'tarildi, 2005-yilda esa qariyb 100 %ni tashkil qildi[1].

1970-yilning oxirida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va savdo munosabatlarini kengaytirishga qaratilgan tashqi iqtisodiy ochiqlik siyosati e'lon qilindi. Shu maqsadda dengiz bo'yidagi viloyatlarda turli xil maxsus erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilindi. Ularning eng mashhurlari Shenchjen, Chjuxay, Shantou (Guandun viloyati) va Syamenlardir (Futszyan viloyati).

Xitoyda tashqi iqtisodiy sohaning erkinlashuvi bosqichma-bosqich amalga oshirildi — dastlab, Tashqi Iqtisodiy Aloqalar vazirligining eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish monopoliyasi tugatildi, keyinchalik esa hududiy birliklar

1 ВТО: механизм взаимодействия национальных экономик. Угрозы и возможности в условиях выхода на международный рынок. /под ред. С.Ф.Сутырина. –М.: Эксмо, 2008. С. 246.

tarmoq va mahalliy tashqi savdo kompaniyalariga bo'lib berildi. Davlatning eksportni xarid qilish tizimi korxonalararo iqtisodiy shartnomalar tizimi bilan almashtirildi, eksportyorlar uchun valyuta ajratmalari tizimi joriy etildi.

1984-yilda davlat korxonalarida shartnoma tizimi kiritildi. Davlat zimmasiga soliq ajratmalarning belgilangan miqdori biriktirib qo'yildi, korxonaning kengayishi natijasida shakllangan daromad korxona ixtiyoriga qarab ishlatilishi mumkin edi. Agrar islohotlarga qadar davlat korxonalari o'z mahsulotlarini faqat davlat narxlarida sotgan bo'lsalar, islohotdan so'ng ular o'z mahsulotlarining ma'lum miqdorini bozor narxlarida sotish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Sanoat sektoridagi islohotlar qishloq xo'jaligi islohotlariga qaraganda ancha mushkul kechdi. Mazkur islohotlar to'la muvaffaqiyat qozonmadi va davlat sektori muammosi hal etilmadi. Hukumat davlat korxonalari faoliyatini muvofiqlashtirish, mulkchilik huquqlarini nazorat qilish, subsidiyalarni taqdim etishni davom ettirdi.

1980-yillar boshidan qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligining oshishi natijasida qishloq xo'jaligi korxonalarining mavqeyi oshdi (1978–1988-yillarda o'sishning o'rtacha yillik darajasi 28 %ni tashkil qildi). Qishloq joylardan shaharlarga ko'chib boruvchi ish kuchi oqimini ushlab turish sharoitida bu korxonalar ortiqcha ish kuchining asosiy qabul qiluvchilariga aylandilar. Qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiyotning davlat sektoriga tegishli bo'lib, oziq-ovqat va iste'mol tovarlari, qurilish materiallari va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan shug'ullandi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarining katta qismi eksportga chiqdi.

1980-yillar o'rtalariga kelib Xitoyda ikki sektorli iqtisodiyot shakllandi: bozor sharoitida majburan faoliyat ko'rsatayotgan, markazlashgan rejalashtirish hamda ta'minotga asoslangan davlat korxonalari va o'sib boruvchi ishlab chiqarish bloki. Bu tizim o'z xarajatlariga ega bo'lib, xususan, davlatning arzon narxlaridagi resurslar xaridi va mahsulotlarni bozor narxlarida sotish amaliyotidan foydalana boshladi.

1990-yillarda bank, soliq va valyuta boshqaruvi tizimlari isloh qilindi. Davlat mulki sohasida esa jiddiy va bosqichma-bosqich isloh qilish tadbirlari amalga oshirila boshlandi. 1994-yilda sodir bo'lgan bank islohoti maxsus banklarni (Xitoy Banki, Xitoy qishloq xo'jaligi banki, Xitoy qurilish banki, Xitoy savdo-sanoat banki) tijorat banklariga o'zgartirish, yangi tijorat banklarining rivojlanishi va notijorat kreditlash uchun belgilangan uchta banklarni tuzishga qaratilgan edi. Pul-kredit operatsiyalarining yangi turlari qisqa muddatli va filiallararo kreditlash, trast operatsiyalari, kredit kartochkalarini hisob-kitobda ishlatish, qimmatbaho qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar rivojlandi.

Soliq islohotining mazmuni (1994-yil) — Xitoy korxonalarida mulkchilikning barcha shakllari uchun daromad solig'i bir xil belgilandi, soliq tushumlaridan markazlashgan byudjet ulushi ortdi. Soliq islohotlarigacha bo'lgan davrda uzoq muddatli bitimlarda belgilangan me'yorlar asosida daromadning ma'lum qismi markazga yuborilib, mahalliy byudjetlarda to'planardi. Bugungi kunda QQSning 75 % va qator boshqa soliqlar bevosita markaziy byudjetga kelib tushadi.

Valyuta islohoti natijasida 1994-yilning 1 yanvaridan banklararo valyuta birjasida har kunlik savdo-sotiq natijalari asosida yuanning Xitoy Markaziy Banki tomonidan belgilangan yagona bozor kursi kiritildi (1994-yilga qadar baravariga ikkita valyuta kursi amal qilgan: rasmiy va bozor kursi, 1993-yilga kelib bozor kursida valyutaning 80 % sotib olinardi va sotilardi). Umuman, valyuta islohoti Xitoyning JST ga kirish arafasida o'tkazildi va yuanni konvertatsiyalash yo'lidagi ilk bosqich hisoblandi[1].

1 Александр С. Деньги от председателя, или финансовая стабилизация в Китае. //Центразия, 07.04.2003, http://www.centrasia.ru/newsA.php?st=1049697540

1990-yillarni ikkinchi yarmidan boshlab davlat korxonalarini aksionerlik jamiyatlariga aylantirish jarayoni boshlandi. Mudofaaning zamonaviy texnologiyalar sanoati, noyob metallar qazib chiqarish va monopoliyasi doirasida amal qiladigan sohalarini xususiylashtirish mumkin bo'lmagan. Davlat energetika va transport korxonalarini xususiylashtirish jarayonini nazorat paketini o'z qo'lida saqlab qolgan holda amalga oshirgan. Xususiylashtirishning jadallashuvi bilan davlat mulkining klassik tushunchasi o'zgarib boradi. Uning tarkibiga davlat korxonasi bilan birgalikda aksiyadorlik va aralash kompaniyalardagi nazorat paketi yoki oddiy ulushli paylar ham kiradi.

Muvaffaqiyatli iqtisodiy islohotlar Xitoyni iqtisodiy o'sish darajasi bo'yicha jahondagi peshqadam mamlakatlardan biriga aylantirdi. Tahlillar ko'rsatishicha, Xitoyda iqtisodiy o'sishning o'rtacha yillik sur'atlari 1978–2013-yillarda 9,0 %dan yuqori bo'ldi. YuNKTAD ma'lumotlariga ko'ra 1980–2013-yillarda Xitoy YaIM joriy narxlarda 30,4 martaga, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM miqdori esa 19,4 martaga o'sgan (12.1.1-diagramma).

12.1.1-diagramma
Xitoy YaIM va aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM miqdorining o'sishi



	1980-y.		1990-y.		2000-y.		2010-y.		2013-y.	
YaIM, mlrd. doll.	306,5		404,5		1192,8		5950		9319	
Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM miqdori, doll.		311		347		932		4375		6726

Manba: UNCTAD Handbook of Statistics 2014. p. 330, 331.

J. Stiglits hisob-kitoblariga qaraganda Xitoy iqtisodiyoti oxirgi 20-yil davomida jami rivojlanayotgan mamlakatlarning qariyb yarim yalpi iqtisodiy o'sishini ta'minlab berdi[1]. 2008-yilda Xitoy iqtisodiyoti nominal qiymat bo'yicha Germaniyani va 2010-yilga kelib Yaponiyani quvib o'tdi, 2040-yilda esa AQSh ni orqada qoldirib, jahondagi yirik iqtisodiyotga aylanishi kutilmoqda.

Xitoy iqtisodiy islohotlarining jiddiy yutuqlariga qaramay iqtisodiy o'zgarishlar eski muammolarni keltirib chiqardi:

- aholining o'ta zichligi va ishchi kuchining ortiqchaligi — qishloq joylarda aholining 53 %dan ziyodi yashaydi, qishloq xo'jaligida esa aholining 49 % band;

1 Стиглиц Дж. Сравнение китайской и зарубежной экономических систем // Цзинцзисюэ дунтай, №5, 2001. С. 4.

- atrof-muhitning buzilishi, yer fondining kamayib borishi, suv resurslarining ifloslanishi (daryolarning 80 % zararlangan) — rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, ekologik zarar mamlakat YalM ning 10 %ga teng[1];
- hududlar bo'yicha iqtisodiy o'sish darajasining notekis rivojlanishi. Xitoyda aslida bir nechta hududiy iqtisodiyot mavjud. Xitoy hududini shartli ravishda uch iqtisodiy mintaqalarga bo'lish mumkin: 1) Sharqiy dengizbo'yi mintaqasi (Pekin, Tyanszin, Shanxay, Guandun, Xaynan); 2) Markaziy; 3) G'arbiy. Iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan mintaqa mamlakat sharqida joylashgan dengiz bo'yi hududi hisoblanadi. Ushu mintaqa Xitoy umumiy maydonining 11 %ni, jami aholining qariyb 40 % mana shu hudud aholisini tashkil qiladi. Sharqiy mintaqalarda davlat korxonalari ulushi va sanoatning xomashyo tarmoqlari korxonalari nisbatan ancha kam joylashgan (Guandun, Szyansu viloyatlari). Rivojlanish darajasi va sur'ati bo'yicha Markaziy rayon ikkinchi o'rinda turadi. G'arbiy hududlar esa umumiy maydonning 18 %ni va jami aholining 20 %ni tashkil qiladi. 2012-yilda Xitoy yalpi ichki mahsulotining 48,7 % Sharqiy, 31,0 % Markaziy va 20,3 %g'arbiy mintaqa hissasiga to'g'ri kelgan;
- daromadlarda tabaqalashuv darajasining o'sishi. Xitoyda iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarga egaligi bilan bir qatorda ijtimoiy tabaqalashuv darajasi ham keskinlashib bormoqda. Bir tomondan, qishloq va shahar aholisi o'rtasida, ikkinchi tomondan esa, mamlakat dengiz bo'yi viloyatlari va kambag'al ichki hududlari o'rtasida farq yiriklashib bormoqda. Misol uchun, Xitoyda 2008–2010-yillarda Djini indeksi o'rtacha 0,42 ga teng bo'ldi;
- mamlakatda 10 % yuqori daromad oluvchilarning miqdoriga umumiy daromadlarning 45 % to'g'ri keladi, 10 % kambag'al yashovchilar esa, faqat 1,4 %ni tashkil qiladi. Hozirgacha Xitoyda mamlakat aholisining ijtimoiy kafolatlarini ta'minlaydigan mukammal tizimi hali ham ishlab chiqilmagan. Xususan, 1993-yilda shaharlarda yashovchilarning 71 % tibbiyot sug'urtasiga ega bo'lgani holda bu ko'rsatkich 2003-yilda 43 %ga, qishloq aholisida esa atigi 3 %ga teng bo'ldi;
- shahar va qishloq aholisini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash miqyoslari tafovutini hisobga olgan holda, qo'shimcha soliqlarni olib tashlagandan keyingi daromadlar o'rtasidagi tafovut ehtimoli 5:1–6:1 ga yetishi mumkin, bu esa dunyo bo'yicha ijtimoiy tabaqalashuvning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Mamlakatning sharqiy, markaziy va g'arbiy viloyatlari o'rtasidagi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad ko'rsatkichining hududiy tabaqalanish darajasi 1980-yildagi 1,53 dan 1,89 marta, 2002-yilda 2,03 dan 2,57 martagacha oshdi;
- kambag'allik miqyosi haligacha ahamiyatli hisoblanadi. Mamlakatda kambag'allik darajasini pasaytirish borasida samarali chora-tadbirlar amalga oshirilshi natijasida absolyut qashshoqlik darajasida yashovchilar 1978-yilda 250 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2006-yilda 21,5 mln. kishigacha qisqardi. Shunga qaramasdan Xitoyda kunlik xarajati 1,25 dollarga teng bo'lganlar ulushi 15,9 %ni tashkil etadi;
- resurslarning samarasiz ishlatilishi. Xitoyda bir dona mahsulot ishlab chiqarishga rivojlangan mamlakatlarga nisbatan 30 % ko'p eletrenergiya sarflanadi. Sanoatda mehnat unumdorligi darajasi AQSh ga nisbatan 5 %ni tashkil etadi.

1 Раковский С. Н. Китай в современном мире. //География, №18, 2007. http://geo.1september.ru/article.php?IDк200701906

12.2. Xitoy iqtisodiyotining tarkibi va rivojlanish dinamikasi

Xitoy erishgan iqtisodiy muvaffaqiyatlar, yigirma yildan ortiq vaqt davomida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasidir. Bu muvaffaqiyatlar natijasida Xitoy jahon xo'jaligining ajralmas bir qismi sifatida xalqaro mehnat taqsimotida o'zining alohida o'rniga ega.

Xitoy yirik agrar-industrial mamlakat bo'lgani bois, iqtisodiy taraqqiyotining maqsadi sanoat ishlab chiqarish darajasi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarni egallash hisoblanadi. Shu bilan birga iqtisodiy qoloqlikni bartaraf etish, yalpi ichki mahsulot hajmi va uning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdorini oshirish maqsadida iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab turishi lozim.

Xitoydagi iqtisodiy o'sishni ta'minlab beruvchi asosiy kuch ichki iste'mol, ichki talab va mamlakat aholisining yuqori sur'atlar bilan ko'payishidir. Xitoyda iqtisodiy o'sishni ta'minlab beruvchi asosiy manbalar quyidagilar hisoblanadi:

- mehnat resurslari;
- tabiiy resurslar;
- barqaror jamg'arish-investitsion mexanizmining shakllanishi.

Xitoy iqtisodiyotining yuqori, barqaror sur'atlar bilan o'sishi quyidagi qayta o'zgarishlar jarayoni bilan bir vaqtda ro'y bermoqda:

- ijtimoiy mulkning yetakchi mavqeyining saqlanib qolishi sharoitida ko'p ukladli iqtisodiyotga o'tish;
- natural va yarim natural iqtisodiyotning tovar-pul munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga aylanishi;
- tovar-pul munosabatlari, erkin narxlarning shakllanishi va bank tizimining isloh etilishi.

Xitoy iqtisodiyotining o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi muhim omil sanoat islohotlari hisoblanadi. Tahlillar ko'rsatishicha, iqtisodiy islohotlargacha bo'lgan davrda iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtacha 5,3 %ni tashkil etgan bo'lsa, sanoat islohotlari davrida ushbu ko'rsatkich o'rtacha 10,5 %ni tashkil etgan (12.2.1-diagramma).

12.2.1-diagramma
Xitoy yalpi ichki mahsulotining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari



1960–1978-yy	1979–2009-yy.	1996–2005-yy.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.	2014-y.	2015-y.*	2019-y.*
105,3	109,3	109,2	112,7	114,2	109,6	109,2	110,4	109,3	107,7	107,7	107,4	107,1	106,3

*prognoz

Manba: World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. October 2014. IMF, 2014. p. 188.

Fikrimizcha, Xitoyda amalga oshirilgan sanoat islohotlarining muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillari quyidagilardan iborat.

Birinchidan, davlatning iqtisodiyotdagi mavqeyi. Davlat asosiy fondlarga sarflanayotgan mablag'larning asosiy investori hisoblanadi. Xususan, 2007-yilda byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan ajratilgan mablag'lar hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 23,8 %ni tashkil etdi.

Ikkinchidan, yuqori jamg'arish normasining mavjudligi. Xalqaro amaliyotning ko'rsatishicha, iqtisodiyotda modernizatsiyalash va chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish orqali raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratgan mamlakatlar uzoq davr mobaynida yuqori investitsion faollikni namoyish etishgan. Xitoyda jamg'arish normasi sanoat islohotlarining hamma davrida yuqoriligicha saqlanib qolgan. 1978–2010-yillarda jamg'arish normasi mamlakat YaIM ga nisbatan 38,0 %dan past bo'lmagan, jumladan, bu ko'rsatkich 2010-yilda joriy narxlarda 53,7 %ni tashkil etdi (12.2.1-jadval)[1].

12.2.1-jadval

Xitoyda jamg'arish normasi, YaIM ga nisbatan foiz hisobida (joriy narxlarda)

Yil	Kapitalni jamg'arish, jami	Yalpi investitsiyalar, jami	Shu jumladan:		Tovarlar va xizmatlarning sof eksporti
			Asosiy kapital	Zaxiralarning qo'shimcha o'sishi	
2000	37,7	35,3	34,3	1,0	2,4
2005	47,1	41,6	39,7	1,9	5,5
2006	49,3	41,8	39,6	2,2	7,5
2007	50,5	41,7	39,1	2,6	8,8
2008	51,6	43,9	40,7	3,2	7,7
2009	52,1	47,7	45,5	2,2	4,4
2010	53,7	...	...	...	7,9

Manba: Гельбрас В. Россия и Китай в условиях глобального кризиса. //Мировая экономика и международные отношения. №11, 2011. С. 64.

Uchinchidan, eksport hududlarining barpo etilishi. Mamlakatda eksport hududlarini tashkil etish 1979-yildan boshlangan bo'lib, dunyo mamlakatlari bilan ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish, sanoatning yangi tarmoqlarini shakllantirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga asoslangan ochiq tashqi iqtisodiy siyosat olib borish ko'zda tutilgan. Iqtisodiy ochiqlik dengiz sohili, mamlaktning ichki va chegaraga tutash hududlari, Yanszi daryosi havzasi orqali amalga oshirildi.

Xitoyda erkin iqtisodiy hududlarini yaratishda katta hajmdagi kapital qo'yilmalar talab etilgan va bu qo'yilmalar bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. 1995-yildayoq ushbu hududlarga asosiy kapitalga sarflangan kapital qo'yilmalarning 56,3 % yo'naltirilgan. Agar Xitoyda investitsiyalar YaIM ga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, u holda eksportga yo'naltirilgan strategiyaning naqadar maqsadli amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. XX asr 90-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab eksport ishlab chiqarish hududlariga yo'naltirilgan davlat va xususiy investitsiyalar ulushi jami investitsiyalar hajmining yarmidan oshib ketgan. Uzoq yillar mobaynida jami xorijiy investitsiyalarning 70 %dan ortiq qismi ushbu hududlarga yo'naltirilgan. 2007-yilga

1 Мозаис П. Китай в период мирового кризиса: бенефициар, жертва или виновник? //Вопросы экономики, №9, 2010. С. 97

kelib eksport hududlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 59,5 %ni, bu hududlardagi korxonalarning mamlakatdagi jami korxonalar sonidagi ulushi esa sanoatda 62,5 %ni tashkil etgan[1].

To'rtinchidan, xususiy sektorning rivojlanishi. Islohotlar davrida ko'pukladli bozor xo'jaligiga asos solindi. Mamlakat JST ga a'zo bo'lganidan so'ng xususiy sektor uchun ilgari yopiq hisoblangan iqtisodiyotning elektroenergetika, kommunal xizmat, neft, temiryo'l, fuqaro aviatsiyasi kabi sohalarida xususiy kompaniyalar faoliyati uchun imkoniyatlar birmuncha kengaytirildi.

Xitoyda davlat korxonalarining ulushi 1997-yilda 262 mingtani tashkil etgan bo'lsa, ularning soni 2008-yilda 110 mingtagacha qisqargan va mamlakat YaIM ning 20 %dan kamroq qismi bu sektorda yaratildi. Shunga qaramasdan asosiy iqtisodiy resurslar — kredit va yer davlat ixtiyorida qolgan. Davlat ixtiyoridagi yirik iqtisodiy nochor korxonalar subsidiyalar, imtiyozli kreditlar yordamida qo'llab-quvvatlanadi va 2009-yilda ularning soni 183 tani tashkil etgan[2].

Beshinchidan, Xitoy ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarining (ITTKI) zamonaviy bazasini shakllantirish siyosatini bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, Xitoy rivojlanayotgan mamlakatlar ichida kengaytirilgan ilmiy tadqiqot bazasiga ega bo'lgan birdan-bir mamlakat hisoblanadi. ITTKI ga xarajatlar 1990-yillarning o'rtalarida YaIM ga nisbatan 0,61 %ga teng bo'lgani holda, ushbu ko'rsatkich 2006-yilda 1,3 %ga teng bo'lgan. 2020-yilga kelib bu ko'rsatkichning 2,5 %gacha oshirish va o'rtacha yiliga 370 mlrd. dollarga yetkazish rejalashtirilgan[3].

Oltinchidan, mamlakatda amalga oshirilayotgan sanoat siyosatining asosiy omili iqtisodiyotga sarflanayotgan investitsiyalar hisoblanadi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Xitoy iqtisodiyotga investitsiyalarni joylashtirishda yetakchilikni saqlab qolmoqda va investitsiyalar iqtisodiy o'sishning yetakchi omili hisoblanadi. Masalan, 2009-yilning birinchi yarmida Xitoyda investitsiyalar, iste'mol va eksport iqtisodiy o'sishga turlicha ta'sir ko'rsatgan. Bu davrda YaIM investitsiyalar ta'sirida 6,2 %ga va iste'mol ta'sirida esa 3,8 %ga qo'shimcha o'sgani holda, eksportning qisqarishi tufayli 2,9 %ga pasayganligini kuzatish mumkin[4].

Xitoy dunyoning boshqa mamlakatlari singari XX asrning ikkinchi yarmida miqdoriy va sifat o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Mamlakat aholisi 2,4 baravarga (1952-yilgi 576 mln. kishidan 2013-yilda 1 mlrd. 357 mln. kishiga) ko'paydi.

XX asrning ikkinchi yarmidan XXI asrning boshlariga qadar ish bilan band aholi ulushi 36 %dan 56 %ga qadar oshdi. Aholining 77 %ga yaqinini 16 yoshdan kattalar tashkil etadi. XXI asrning boshiga kelib ishlovchilar soni 711,5 mln. kishiga yetdi, shundan 212,7 mln. kishi shaharlarda ishlaydi. Shu yillar mobaynida bandlik tarkibi tubdan o'zgarib, shaharlarda ishlovchilar soni deyarli 8,5 baravarga, qishloqlarda esa ularning ulushi 2,7 baravarga oshdi[5]. Shaharlarda ishlovchilar sonining ortishi asosan davlat sektorining kengayishi natijasida yuz berdi. Shuningdek, bandlikning hududiy va tarmoq tarkibi ham sezilarli darajada o'zgardi.

1 Гельбрас В. Тридцатилетие эпохи «реформ и открытости» в Китае. //Мировая экономика и международные отношения, №6, 2009. С. 78

2 Мозаис П. Китай в период мирового кризиса: бенефициар, жертва или виновник? //Вопросы экономики, №9, 2010. с. 96

3 Яков Б. Инновационные перспективы Китая. //Отечественные записки, №3 (42), 2008.; Кокшаров А. Внутреннее развитие через глобальную экспансию. //Эксперт, №46 (540). 11.12.2006.

4 Ни Сяолинь. Расширять внутреннее потребление! //Китай, №9 (47), 2009. С. 32

5 Михеев В. Китай: новые компоненты стратегии развития. // Мировая экономика и международные отношения,, №7, 2004. С. 48.

12.2.2-jadval
Xitoyning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rnining o'zgarishi

Ko'rsatkichlar	1900-y.	1950-y.	1960-y.	1970-y.	1980-y.	1990-y.	2000-y.	2010-y.	2013-y.
Aholi, mln. kishi	400	580	700	830	980	1155	1260	1338	1357
Aholi sonining o'sishi, marta, 1900–1		1,5	1,8	2,1	2,5	2,9	3,2	3,4	3,4
Jahon YalM dagi ulushi, %	8,1	3,7	3,8	2,6	2,5	5,4	10,1	9,4	15,4
Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YalM hajmi (VXQP, ming doll.)	0,5	0,5	0,7	0,6	0,7	1,7	3,9	7,5	11,9
Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YalM ning o'sishi, marta, 1900–1		0,9	1,3	1,1	1,3	3,2	7,4	12,9	19,4
Jahon eksportidagi ulushi, %	3,1	1,8	2,5	2,0	2,2	4,5	7,7	10,4	11,7

Qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan faoliyatning ko'plab turlari qishloqlarga ham yoyildi. Bu davrdagi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar agrar mamlakatni agrar-industrial mamlakatga aylantirdi. Natijada mamlakat o'z iqtisodiy va harbiy salohiyati bilan kelajakda dunyoga bevosita ta'sir qila olish imkoniyatlariga ega bo'ldi.

XXI asrning boshlariga kelib Xitoy iqtisodiyoti tarkibi industrial-agrar tarkibga ega bo'ldi. Islohotlar davrida YalM tizimida qishloq xo'jaligining ulushi 28,0 %dan 2010-yilga kelib 10,0 %gacha qisqardi, sanoat, qurilish va xizmatlar ulushi esa 62 %dan 90,0 %gacha oshdi (12.2.3-jadval).

12.2.3-jadval
Xitoy yalpi ichki mahsulotining tarmoq tarkibini o'zgarishi, (%da)

Yillar	Qishloq xo'jaligi	Sanoat	Xizmatlar
1978	28,0	48,0	24,0
1995	19,9	47,2	32,9
2000	15,1	45,9	39,0
2005	12,2	47,7	40,1
2007	11,1	48,5	40,4
2008	11,3	48,6	40,1
2010	10,0	46,8	43,2

Manba: XXRning statistik yillik to'plami, turli yillarda.

2010-yilda Xitoy YalM ning 46,8 % sanoat va qurilish hissasiga to'g'ri keldi. Tahlillar ko'rsatishicha, 2010-yilda Xitoy jahon qayta ishlash sanoati mahsulotlarining 19,8 %ni ishlab chiqargan.

Xitoy XXI asrning boshlariga kelib qator tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarga ega bo'ldi. Xususan, po'lat eritish, ko'mir, oltin qazib chiqarish, sement, kimyoviy o'g'itlar, televizorlar ishlab chiqarish, boshoqli ekinlar, paxta va mevalar yetishtirish bo'yicha jahonda birinchi o'rinni, elektroenergiya, kimyoviy tola, paxta mahsulotlari, go'sht, choy ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi o'rinni egallab turibdi.

Xitoy iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlarini energetika, transport, metallurgiya, kimyo sanoati va og'ir sanoat tashkil etadi. Uning tayanch tarmoqlari esa mashinasozlik, avtomabilsozlik, elektronika, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatidan iborat. Elektronika, aerokosmik sanoat, yangi texnologiyalar kabi tarmoqlar iqtisodiy rivojlanishda alohida ahamiyatga ega. Iqtisodiyotdagi tarkibiy siyosatdagi o'zgarishlar investitsiyalash sohasidagi xalq xo'jaligining ustuvor tarmoqlarini ajratib ko'rsatishni taqozo etadi.

Xitoyning dunyodagi raqobatbardosh mahsulotlari to'qimachilik va kiyim-kechaklar hisoblanadi. Xitoy to'qimachilik sanoati bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Shu sababdan ham bu sohada mamlakat eksporti dunyoning barcha mamlakatlari va qit'alariga kirib borgan.

Zamonaviy Xitoy to'qimachilik sanoatining xususiyatli jihati shundaki, bu soha hunarmandchilik darajasidan yirik miqyosdagi ishlab chiqarishga qadar rivojlanib borgan. To'qimachilik sanoati bilan bir qatorda tikuvchilik uskunalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tarmoqlar ham jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Shuningdek, Xitoy poyabzallar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi.

Hozirgi vaqtda mashinasozlik va elektronika sanoatida ham sezilarli rivojlanish kuzatilmoqda. Ishlab chiqarishga xorijiy texnologiyalar bosqichma-bosqich qo'llanib borilmoqda. Iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini rivojlantirish ustuvor sohalar sifatida belgilab qo'yilishi natijasida Xitoy elektr jihozlarini ishlab chiqarish bo'yicha ham dunyoda yetakchi o'rinda turibdi. Xususan, mamlakat televizorlar ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi. Xorijiy mutaxassislarning fikricha, Xitoy televizorlarining o'rtacha xizmat muddati 40 ming soatgacha yetadi. Bu esa jahon standartlaridan yuqori hisoblanadi.

Xitoy televizorlardan tashqari jahon bozoriga stereo va videokassetalar, kompyuterlar yetkazib beradi. Shu bilan birga Xitoy elektronika bozorining ba'zi sohalarida, jumladan, o'tkazgichlar ishlab chiqarish sohasida bir muncha orqada qolmoqda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Xitoy iqtisodiyotining o'sish sur'atlarini pasaytirish bilan birga Xitoy hukumati inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida iqtisodiyotni rag'batlantirish bo'yicha pul va fiskal siyosati bilan bog'liq turli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitiga Xitoy markazlashgan hukumat tizimi rivojlangan demokratik mamlakatlarga qaraganda tezroq moslasha oladi, chunki rivojlangan mamlakatlarda bir qarorga kelish uchun ko'p vaqt talab etiladi. 2008-yil 29-sentyabrda Vakillar Palatasi (AQSh Kongressining quyi palatasi) moliyaviy muassasalarning zarar ko'rgan aktivlarni olish uchun umumiy fonddan 700 mlrd. dollardan foydalanish yo'li bilan iqtisodiyotni barqarorlashtirish to'g'risida qonunni rad qilgandan so'ng, dunyo moliyaviy bozorlarida inqiroz boshlandi, ammo Xitoyni bu kabi vaziyat izdan chiqarishini tassavur qilish qiyin.

Xitoy hukumatining inqirozga qarshi dasturi o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. 2009-yilda Xitoy iqtisodiy o'sish sur'ati 8,7 %ni tashkil etdi. Shu davr ichida 2,6 mln. yangi ishchi o'rinlari yaratildi, shahar va qishloq aholisining daromadlari mos ravishda 11,2 va 6,8 %ga oshdi.

12.2.4-jadval
Xitoy hukumatining inqirozga qarshi kurash dasturining xarajatlar tarkibi

	Jami moliyaviy mablag', 2008–2010-yy., mlrd. yuan
Jami	4000
Uy-joy qurilishi	400
Qishloq infratuzilmasi (suv bilan ta'minlash, elektroenergiya, mahalliy yo'llar)	370
Transport (temiryo'llar, aeroportlar, avtomagistrallar)	1500
Sog'liqni saqlash va ta'lim (maktablar va kasalxonalar qurish)	150
Energetika va atrof-muhit himoyasi	210
Innovatsiyalar	370
Sichuan provinsiyasida yer qimirlashi tufayli zarar ko'rgan hududlarni ta'mirlash, 2008-y.	1000

Manba: http://mirec.ru/index.php?option=com_content&task=view&id=101

Xitoy hukumati 2008-yilda moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun 585 mlrd. doll. sarfladi. Mazkur mablag'lar Xitoy iqtisodiyotining yengil sanoat, mashinasozlik, kemasozlik, avtomobilsozlik, po'lat eritish, informatsion texnologiyalarni rivojlantirish, neft-kimyo, logistika, rangli metallurgiya kabi tarmoqlariga yo'naltirildi. Xitoy ASEAN davlatlari bilan birgalikda investitsiya hamkorligi bo'yicha 10 mlrd. dollarga teng miqdorda Fond tashkil etishni rejalashtirgan. Fond mablag'lari Xitoy-ASEAN erkin savdo zonasini tashkil etishning birinchi qadami hisoblanadi.

Xitoy hukumatining chora-tadbirlari, inqiroz oqibatlarini kamaytirish bo'yicha choralar davlat xarajatlarini ko'paytirishni o'z ichiga oladi. Xitoy hukumati tomonidan olib borilayotgan inqirozga qarshi choralar xitoy iqtisodiy siyosatining inqiroz boshlanmasdan e'lon qilingan uzoq muddatli maqsadlariga mos keladi.

12.3. Xitoyning jahon iqtisodiyotidagi o'rni

Zamonaviy Xitoy iqtisodiyoti uchun xos bo'lgan muhim xususiyat — bu mamlakat iqtisodiyotining tashqi bozorlarga bog'liqligidir. Xitoy eksport hajmi bo'yicha dunyoda 1-o'rinni egallaydi va eksport mamlakat valyuta tushumlarining 80 %ni beradi. 2013-yilda tashqi savdo kvotasi YaIM ga nisbatan 51,9 %ni tashkil etdi. Iqtisodiyotning eksport tarmoqlarida 20 millionga yaqin kishi ishlaydi. Tashqi bozorlarga sanoat va qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 20 % chiqariladi. Mamlakat eksportining tovar tarkibi 50 mingdan ortiq turdagi mahsulotlardan iborat. Poyabzal, kiyim-kechak va o'yinchoqlar dunyo bozorlarida eng raqobatbardosh mahsulotlar sanaladi. Shu bilan bir qatorda elektronika, velosiped, mototsikllar, aviatexnika, transport va qurilish mashinasozligi eksporti ham jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Xitoy to'qimachilik sanoati dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi.

Xitoy tashqi savdo aylanmasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Xitoyda 2000–2013-yillarda tashqi savdo aylanmasi 8,8 martaga, ya'ni 474,2 mlrd. dollardan 4 trln. 159 mlrd. dollargacha ortdi (12.3.1-diagramma).

12.3.1-rasm.
Xitoy tashqi savdo aylanmasi dinamikasi, 2000–2013-yy.



	2000-y.			2010-y.			2013-y.		
Eksport	249,2			1577,8			2209		
Import		225			1396,2			1950	
Tashqi savdo aylanmasi			474,2			2974			4159

Manba: Гельбрас В. Россия и Китай в условиях глобального кризиса. //Мировая экономика и международные отношения, №11, 2011. С. 66.; Trade Profiles 2014. WTO. P.43.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida Xitoy tashqi savdosining ko'rsatkichlari birinchi marta 2001-yilga nisbatan pasaydi. Moliyaviy inqirozning chuqurlashuvi va Xitoy tovarlariga tashqi talabning qisqarishi mamlakat eksporti hajmining pasayishiga olib kelishi mumkin. Mamlakat iqtisodiyotining yuqori darajada eksportga yo'naltirilganligi sharoitida Xitoy iqtisodiyotining jahon bozoridagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy holatga bevosita bog'liqligi kuchayib bormoqda.

Mamlakat tashqi savdosi saldosining o'zgarishi ko'plab vaqtinchalik va doimiy omillar orqali izohlanishi mumkin. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'sirida mamlakat eksportining qisqarishi va valyuta tushumlarining kamayishiga qaramasdan, Xitoy tashqi savdoni rag'batlantirishga harakat qilmoqda. Tahlillar ko'rsatishicha, Xitoyning eksport mahsulotlari xalqaro bozorlarda yuqori raqobatbardoshlikka ega va bu mahsulotlarga bo'lgan talab muayyan vaqtga qadar saqlanib qolishi mumkin.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Xitoy tashqi savdosiga 2008-yilning ikkinchi yarmidan salbiy ta'sir o'tkaza boshladi. Tashqi talabning pasayishi natijasida Xitoy tashqi savdosi 2009-yilda 2,2 trln. dollarni tashkil etdi va ushbu ko'rsatkich 2008-yilga nisbatan 13,9 %ga qisqardi. Xitoy hukumati tashqi savdoni rag'batlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqdi: birinchidan, tashqi savdo tashkilotlari oldiga yangi bozorlarni izlash va o'zlashtirish vazifasi qo'yildi, ikkinchidan, eksport bojlarining hajmi qayta ko'rib chiqildi, uchinchidan, 2008-yilning dekabrida 3770 mingta eksport tovarlari bo'yicha QQSni qaytarish stavkalari pasaytirildi. Bu mahsulotlar Xitoy eksporti hajmining 28 %ni tashkil etadi[1].

Xitoy hukumati tomonidan tashqi savdoni inqirozdan keyingi davrda rivojlantirish maqsadida «yo'l xaritasi» e'lon qilindi. Ushbu ma'ruzaga muvofiq 2020-yilga borib mamlakat tashqi savdo aylanmasi 5,3 trln. dollarga, jumladan,

1 www.economist.com

tovarlar savdosi 4,3 trln. dollarga, xizmatlar savdosi esa 1 trln. dollarga o'sishi bashorat qilinmoqda[1].

Fikrimizcha, Xitoy eksportining pasayish sur'atlari vaqtinchalik holat hisoblanadi. Chunki, bir tomondan, xitoy eksporti past tannarxi tufayli raqobatbardosh hisoblansa, ikkinchi tomondan, Xitoy aksariyat mahsulotlar bo'yicha jahon bozorida monopol mavqega ega. Misol uchun, 2008-yilda 10 mlrd. juft poyabzal (jahon ishlab chiqarish hajmining ½ qismi), jahon o'yinchoqlar ishlab chiqarish hajmining 75 %, jahon guruch yetishtirish hajmining 35 %, energiya tejovchi lampalarning 85 %dan foydalangan, cho'chqa go'shtining 50 %, o'rdak va g'oz go'shtlarining 75 %, o'g'itlarning 30 %, stanoklarning 50 %, musiqa asboblarining 81 %, yangi yil sovg'alarining 70 %, rangli televizorlarning 98 % Xitoyda ishlab chiqarilgan[2].

Zamonaviylashib borayotgan Xitoy eksportining tovar tarkibida ham ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lgan. Tahlillar ko'rsatishicha, 1980-yillarning birinchi yarmida eksportda birlamchi mahsulotlar (qishloq xo'jaligi mahsulotlari, neft, minerallar) ustun turgan bo'lsa, bu tovarlarni sotish uchun jahon bozorida alohida marketing xizmati kerak bo'lmagan. 1980-yillar o'rtasidan boshlab Xitoy eksportida bu guruh tovarlar ulushi pasayib, tayyor mahsulotlar ulushi ortdi. Misol uchun, 2013-yilda tayyor sanoat mahsulotining solishtirma ulushi Xitoy eksportida 94,0 %ni tashkil etdi (12.3.1-jadval).

12.3.1-jadval

Xitoy eksporti tovar tarkibining o'zgarishi, (jamiga nisabatan foiz hisobida)

	1985-y.	1991-y.	1995-y.	2005-y.	2010-y.	2013-y.
Birlamchi qayta ishlash mahsulotlari, yoqilg'i va xomashyo	50,6	22,5	14,4	6,0	6,4	6,0
Sanoat mahsulotlari	49,4	77,5	85,6	94,0	93,6	94,0

Manba: http://www.chinawindow.ru/?/ru/news/kitaj_i_wto

Mashina-texnika mahsulotlari, plastmassa, tibbiyot va optika asbob-uskunasi, temir va po'lat — Xitoy eksportining asosiy tovar mahsulotlari hisoblanadi. Importda esa mashinalar, asbob-uskuna, transport vositalari, fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan mahsulotlar, neft va boshqa birlamchi mahsulotlar yetakchi o'rin egallaydi. Xususan, 2013-yilda Xitoy importining 36,4 % birlamchi mahsulotlardan iborat bo'lgan.

Xitoy eksport mahsulotlarning sifatiga keladigan bo'lsak, Shimoliy Amerika, Yevropa Ittifoqi va Yaponiyaga eksport qilinayotgan mahsulotlar yuqori sifat standartlariga ega. Bu mahsulotlar, asosan, Xitoyning dengizbo'yi viloyatlarida joylashgan erkin iqtisodiy hududlarida ishlab chiqariladi. Shu bilan birga Xitoyning ichki va shimoliy hududlarida joylashgan korxonalar eski, mehnat unumdorligi past texnologiyalar bilan jihozlanganligi tufayli, bu korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar ko'pincha dunyoning mashhur firmalari mahsulotlariga o'xshash qilib (kopirayt) ishlab chiqariladi va arzonligi tufayli past daromadli aholi o'rtasida yuqori talabga ega bo'ladi (masalan, MDH mamlakatlari).

Xitoy dunyoning 182 ta mamlakati bilan savdo-iqtisodiy aloqalari olib boradi. 80 ta mamlakat bilan hukumatlararo savdo shartnomalari imzolangan. Xitoyning

1 http://russian.people.com.cn/31518/6955908.html
2 www.economist.com

asosiy savdo hamkorlari Yaponiya, AQSh, YeI mamlakatlari hisoblanadi. Misol uchun, 2013-yilda Xitoy tovarlar eksportining 45,4 % ushbu mamlakatlar hissasiga to'g'ri keldi (12.3.2-jadval).

12.3.2-jadval
Xitoyning asosiy savdo hamkorlari, 2013-y. (jamiga nisbatan foiz hisobida)

Tovar eksporti	Ulushi	Tovar importi	Ulushi
Gonkong	17,4	YeI-28	11,3
AQSh	16,7	Koreya Respublikasi	9,4
YeI-28	15,4	Yaponiya	8,3
Yaponiya	6,8	Gonkong	8,1
Koreya Respublikasi	4,1	Tayvan	8,0
Boshqa mamlakatlar	39,6	Boshqa mamlakatlar	54,9

Manba: Trade Profiles 2014. WTO. P. 43.

Xitoy 15-yillik muzokaralardan so'ng 2001-yilning 11-dekabrida JST ga a'zo bo'ldi. Xitoy iqtisodiyotining ochiqligi qator rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga qisqa muddatli istiqbolda salbiy ta'sir etishi, uzoq muddatli istiqbolda esa, bu holat Xitoyning tashqi savdo hamkorlari uchun ijobiy oqibatlarga olib keladi.

Xitoy uchun JST ga a'zo bo'lishdagi rag'batlantiruvchi omillar iqtisodiy islohotlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi ichki to'siqlar va mamlakat iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini barqaror ushlab turishni ta'minlovchi savdo manfaatlarini himoya qilish bilan bevosita bog'liq. Shunga qaramasdan ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlar Xitoyning JST ga a'zo bo'lishi ularning dunyo bozoridagi eksport imkoniyatlarining qisqarishi, xorijiy investitsiyalar oqimining pasayishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlashmoqda.

Xitoy va GATT/JST o'rtasidagi kelishuv jarayonlarini quyidagi uch bosqichga ajratish mumkin: 1) 1986–1989-yillar; 2) 1990–1995-yillar; 3) 1995–2001-yillar.

Xitoy 1994-yilgacha GATT ga kirish maqsadida oldiga qo'yilgan quyidagi shartlarning barchasini bajardi: tashqi savdoni direktiv rejalashtirishni kamaytirish, litsenziyaga ega va kvotalangan tovarlar sonini qisqartirish, to'g'ri eksport subsidiyalarini bekor qilish, yagona soliq tizimi, milliy valyuta suzib yuruvchi boshqaruv kursini joriy qilish va boshqalar.

1995-yildan keyin Xitoyning JST bilan muzokaralari, birinchidan, AQSh va Xitoy o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashuvi, ikkinchidan, 1995-yilda GATT ning JST ga almashtirilishi oqibatida murakkablashib bordi.

Kelishuvlarning oxirgi bosqichida Xitoy oldiga quyidagi masalalar qo'yildi: eksport-import rejalarni hisobga olgan holda direktiv rejalashtirish tizimini bekor qilish; narx belgilashni bozor tamoyillari asosida amalga oshirish (bu savollarni o'rganish dempingga qarshi tadqiqotlar jarayonlari bilan bog'liq); tashqi savdo rejimi, litsenziyalash va kvotalash tizimi, davlat xaridlari bozorining ochiqligi; eksportni subsidiyalashni yo'q qilish, davlat korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jaligini proteksionistik himoya qilishdan voz kechish.

JST ga kirishda Xitoy ko'pchilik hollarda rivojlanayotgan mamlakat maqomini olish va o'zi uchun quyidagi vakolatlarni ta'minlashga muvaffaq bo'ldi:

- tashqi savdoni bosqichma-bosqich erkinlashtirish, import bojlarini kamaytirish, JST qoidalariga muvofiq keluvchi milliy qonunchilikni shakllantirish uchun o'rtacha 3–5-yilga teng o'tish davri huquqiga ega bo'lish;

- rivojlanayotgan mamlakat sifatida qishloq xo'jaligini mahsulotlar narxining 8,5 % miqdorida subsidiyalash; [1]
- eksportga yo'naltirilmagan ichki ishlab chiqarishni subsidiyalash huquqi (JST bilan kelishuvga muvofiq);
- mahsulotlarning asosiy turlariga davlat tomonidan narx o'rnatish va tartibga solish huquqini hisobga olgan holda davlat savdo tizimini saqlash huquqi;
- xorij kapitali uchun xizmatlar sohasini ochishda cheklovlarni saqlash huquqi.

JST oldida Xitoy tomonidan qabul qilingan umumiy majburiyatlar quyidagilardan iborat:

- bozor iqtisodiyoti mamlakatlari xalqaro qoidalariga muvofiq keluvchi milliy qonunchilikni tartibga solish;
- eksport va ichki bozorga mo'ljallangan tovarlar savdosi rejimidagi farqlarni bartaraf qilish;
- iqtisodiy siyosatning ochiqligini ta'minlash;
- hamma kompaniyalarga uch yil davomida mustaqil tashqi savdo faoliyati olib borish huquqini berish;
- o'tish davrida tashqi savdoni tartibga solish notarif choralaridan voz kechish;
- qishloq xo'jaligi eksportyorlarini hisobga olgan holda eksportga subsidiyalarni berishni yo'q qilish.

Xitoyda muhim strategik tovarlarni sotish va sotib olish, birlamchi tovar va xizmatlarga narx belgilashda davlat monopoliyasi saqlanib qoldi. Shubhasiz, davlat qo'lida tashqi iqtisodiy siyosatning amaliy dastaklarini saqlab qolishi savdo sheriklariga bosim ishlatish hamda ichki bozor himoyasi va Xitoy eksportyorlarining huquqlari buzilganda unga javoban choralarni qo'llashni yengillashtirib beradi.

Xitoyning JST oldidagi majburiyatlarini bir necha yo'nalishlar bo'yicha ko'rib chiqish mumkin. Jumladan, Xitoy qishloq xo'jalik sohasida tariflarni oshirmaslik va ularning o'rtacha darajasini 31,5 %dan 17,4 %gacha tushirish majburiyatini olgan. Xitoy yaqin yillar ichida eksport subsidiyalarini bekor qilib, importning ko'plab moddalari bo'yicha tarif kvotalarini oshiradi. Tarif stavkalari kvotalar doirasida minimal darajada (1–3 %), kvotalardan tashqarida strategik mahsulotlar (asosan donli mahsulotlar) bo'yicha 80 %dan 65 %gacha pasaytiriladi.

Sanoat mahsulotlari bo'yicha esa Xitoy miqdoriy cheklovlarni bosqichma-bosqich bekor qilish, ularning tarif stavkalarini 2005-yildan 24,6 %dan 9,4 %gacha pasaytirish va informatsion texnologiyalar to'g'risidagi kelishuvni ratifikatsiya qilish majburiyatini olgan. Informatsion texnologiyalar to'g'risidagi kelishuvning ratifikatsiya qilinishi telekommunikatsion asbob-uskunalar, yarimo'tkazgichlar, kompyuter va kompyuter asbob-uskunalari hamda informatsion texnologiyalar tarmog'ining boshqa mahsulotlari bo'yicha barcha tariflarning bekor qilinishiga olib keladi.

Majburiyatlar borasidagi eng istiqbolli soha raqobat uchun yopiq hisoblangan xizmatlar sohasidir. Litsenziyalash, kapitalda qatnashish, geografik joylashuv biznesni tashkil etish va tashqi iqtisodiy aloqalar bilan operatsiyalarni amalga oshirish kabilarga qo'yilgan to'siqlar bosqichma-bosqich bekor qilinadi yoki nisbatan yumshatiladi. Xitoy telekommunikatsiya, moliya xizmatlari, taqsimot va shunga o'xshash tarmoqlarni xorijiy xizmat ko'rsatuvchilar uchun ochishni va'da bermoqda.

Xitoy o'z bozorlarini ochish bilan birga savdo va investitsiya rejimini erkinlashtirish majburiyatini olmoqda. Xitoy mamlakat miqyosida yagona savdo siyosatini

1 Потапов М. Вступление КНР в ВТО: условия присоединения и последствия для китайской экономики// Внешнеэкономическая модель развития стран Восточной Азии. — М.: Международные отношения, 2004. С. 88.

yuritish va faqat e'lon qilib bo'lingan qonunlar, me'yoriy chora-tadbirlar bo'yicha sanksiyalarni ta'minlashni, barcha ta'qiqlangan subsidiyalarni (davlat korxonalariga ajratiladigan subsidiyalar bilan birgalikda) bekor qilish, tashqi savdo bilan shug'ullanish huquqini erkinlashtirish va davlat savdo kompaniyalariga ham o'z operatsiyalarini tijorat asosida amalga oshirish kabi majburiyatlarni olgan.

Xitoyning JST ga a'zo bo'lishi bilan bog'liq holda AQSh Xitoyga doimiy eng qulaylik tug'dirish rejimini joriy etdi. Bunga qadar Xitoyga nisbatan qo'llaniladigan eng qulaylik tug'dirish rejimi maqomining muddati har yili AQSh Kongressi tomonidan uzaytirib turilgan. Xitoyning ba'zi savdo hamkorlari qator tovarlar bo'yicha miqdoriy cheklovlarni bekor qilishlariga to'g'ri keladi. To'qimachilik va kiyim-kechak mahsulotlari bo'yicha kvotalar to'qimachilik hamda kiyim-kechak bo'yicha kelishuvga muvofiq bosqichma-bosqich bekor qilinadi. Xitoy JST doirasida savdo kelishmovchiliklarini bartaraf etish, savdo qoidalari va savdoni erkinlashtirish to'g'risidagi ko'ptomonlama kelishuvlarda qatnashish huquqini qo'lga kiritdi.

Xitoy uchun jahon bozorlariga kirib borishdagi qiyinchiliklar quyidagi uchta diskriminatsion holatlar bilan bog'liqdir.

Birinchidan, 12 yil davomida aniq turdagi tovarlar bo'yicha qo'llaniladigan vaqtinchalik himoya mexanizmi doirasida Xitoyning savdo hamkorlari bu mamlakatdan kirib kelayotgan importga nisbatan «bozorlar faoliyatini ishdan chiqarish yoki ishdan chiqarishga xavf tug'dirishi» mumkin degan sababga ko'ra cheklovlar joriy etishlari mumkin. JST ning odatdagi standart qoidalari bo'yicha importga nisbatan cheklovlar faqat «jiddiy ziyon yetkazish yoki yetkazish xavfi» tug'ilsagina qo'llanilishi lozim. Bundan tashqari, bironta mamlakat himoya mexanizmini qo'llasa, qolgan mamlakatlarga ziyon yetkazish xavfini isbotlamasdan ushbu mexanizmni qo'llashi mumkin.

Ikkinchidan, 2005-yilning 1-yanvaridan Xitoydan import qilinayotgan to'qimachilik va kiyim-kechaklarga nisbatan barcha kvotalar bekor qilinishi lozim bo'lsa-da, maxsus himoya mexanizmi 2008-yilning oxiriga qadar amal qildi. Mazkur mexanizm importer mamlakatlarga Xitoydan kirib kelayotgan importni bu import ichki bozorga ziyon yetkazish xavfini tug'dirgan hollarda cheklash imkonini berdi.

Uchinchidan, Xitoy eksportyorlari demping baholaridan foydalanganlikda ayblanishlari mumkin. Importyor mamlakatlar o'xshash tovarlar bo'yicha uchinchi mamlakatlar baholaridan Xitoy firmalari demping baholarini qo'llagan yoki qo'llanmaganliklarini aniqlash maqsadida foydalanishlari mumkin.

Xitoy yuqorida qayd etib o'tilgan yutuqlarga erishishi uchun iqtisodiyotda qo'shimcha tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishi lozim. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, Xitoyning mehnat sig'imkorligi yuqori tarmoqlarida (to'qimachilik va kiyim-kechak sanoati) ishlab chiqarish hajmi ortib boradi, yuqori proteksionistik to'siqlar bilan himoya qilinadigan tarmoqlarda (avtomobil va neft-kimyo sanoati) esa qisqarib boradi. Shuningdek, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmi yer sig'imkorligi yuqori donli ekinlar hisobiga qisqarishi kutilmoqda. Moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi samarasiz davlat sektori ichki bozorga xorijiy firmalarning kirib kelishi munosabati bilan kuchli raqobatga uchraydi.

Iqtisodiyotning yanada erkinlashtirilishi oqibatida iqtisodiyot miqyosida raqobat kuchayadi, mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari jadallashadi.

Ko'plab tadqiqotlarning ko'rsatishicha, sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar Xitoyning JST ga a'zo ekanligidan manfaatdor bo'lishlari mumkinligini ko'rsatmoqda. Qator sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar, jumladan, AQSh va Avstraliya Xitoyning qishloq xo'jalik bozorlariga kirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Mazkur mamlakatlarning kapital va texnologik sig'imkorligi yuqori tovarlarining Xitoy qayta ishlash sanoatiga eksporti ham ortib boradi.

12.3.3-jadval
Xitoyning JST ga a'zo bo'lishi bilan bog'liq iqtisodiy samaralar

Tadqiqot	Xitoy uchun kutilayotgan iqtisodiy samara	Global samara
Uolmsli va Xertel (2000-y.)[1]	Farovonlikning ortishi: 23,7–25,6 mlrd. doll.	Farovonlikning ortishi: 35,7–38,2 mlrd. doll.
	YaIM ning qo'shimcha o'sishi: 8,7–10,8 %	
Van (1997-y.)[2]	Farovonlikning ortishi: 12,4–30,3 mlrd. doll.	Farovonlikning ortishi: 25,3–56,7 mlrd. doll.
Chjay va Li (2002-y.)	Farovonlikning ortishi: YaIM ning 1,2 % miqdorida	
	YaIM ning qo'shimcha o'sishi: 1,5 %	
Uolmsli va b. (2001-y.)[2, 3]	Farovonlikning ortishi: 3,9–10,5 mlrd. doll.	Farovonlikning ortishi: 20,5–25,7 mlrd. doll.
Yanchochivina va Martin (2001-y.)	Farovonlikning ortishi: 28,6 mlrd. doll.	Farovonlikning ortishi: 56,1 mlrd. doll.
	YaIM ning qo'shimcha o'sishi: 2,2 %	YaIM ning qo'shimcha o'sishi: 0,2 %

[1] *Natijalar tovarlar savdosini erkinlashtirishning o'rta yoki uzoq muddatli samaralariga tegishli.*
[2] *Tayvanning JST ga a'zo bo'lishlik samarasini ham o'z ichiga oladi.*
[3] *Quyi ko'rsatkichlar bojlardan ozod qilinish va bojlarni qaytarishni hisobga olgan holda hisoblangan.*

Manba: Берг Э., Кригер Э. Что будет означать вступление в члены ВТО для Китая и его торговых партнеров? //Финансы и развитие, №3, выпуск 39, 2002. С. 10.

Xitoy va jahon iqtisodiyoti uchun JST ga a'zo bo'lish oqibatlari qanday bo'ldi? JST ga a'zo bo'lganidan keyingi yillar davomida iqtisodiy o'sishning jadal sur'atlari (yiliga 8–10 %) natijasida Xitoy YaIM miqyosi bo'yicha (joriy valyuta kursi hisobida) Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiyani ortda qoldirib dunyoda 2-o'ringa chiqdi. 2001-yilda mamlakat tashqi savdo aylanmasi JST ga a'zolikni qo'lga kiritgan vaqtda 509,6 mlrd. dollarni[1] tashkil qilgani holda, ushbu ko'rsatkich 2013-yilda 4 trln. 159 mlrd. dollarga teng bo'ldi[2]. JST ma'lumotlariga ko'ra 2013-yilda Xitoyning jahon savdosidagi ulushi taxminan 11,0 %ni tashkil etdi va tashqi savdo aylanmasi miqdori bo'yicha dunyoda birinchi mamlakatga aylandi.

JST ga kirish oqibatida Xitoy eksportining eng raqobatbardosh tovarlari — to'qimachilik, kiyim-kechak, o'yinchoqlar, elektronika, keramika va plastmassa buyumlari, kimyo va farmatsevtika sanoati mahsulotlarining jahon bozoriga kirib borishiga keng yo'l ochib berildi. Bundan tashqari, JST ga a'zolik Xitoy mehnat resurslari eksportini yanada rag'batlantirdi.

Xitoyning jahon xo'jaligidagi ulushining ortib borishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri — mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar hisoblanadi. Jalb etilayotgan xorijiy kapitalning asosiy qismi xorijda yashovchi Xitoy diasporasiga tegishli «xuatsyao» kapitalidir. Singapur, Gonkong va Tayvandan Xitoyga yo'naltirilgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jami investitsiyalarning yarmini tashkil etadi.

Xitoy iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda maxsus erkin iqtisodiy hududlar alohida o'ringa ega. Mamlakatda EIZ ni tashkil etish tashabbusi 1979-yilda XKP MK tomonidan ilgari surilgan va dunyo mamlakatlari bilan ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga asoslangan ochiq tashqi iqtisodiy siyosat olib borish

1 UNCTAD Handbook of Statistics 2014. p. 4–5.
2 http://www.russian.xinhuanet.com/russian/2009–01/15/content_800925.htm

ko'zda tutilgan. Iqtisodiy ochiqlik dengiz sohili, mamlakatning ichki qit'a va chegaraga tutash rayonlari, Yanszi daryosi havzasi orqali amalga oshirildi. Xorijiy investitsiyalar, asosan, maxsus tashkil etilgan kompleks erkin iqtisodiy hududlar orqali kirib keladi.

Xitoy erkin iqtisodiy zonalarini yaratishda katta hajmdagi kapital qo'yilmalar talab etilgan va bu qo'yilmalar bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Uzoq yillar mobaynida jami xorijiy investitsiyalarning 70 %dan ortiq qismi bu hududlarga yo'naltirilgan. Misol uchun, 2007-yilga kelib EIZ ning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 59,5 %ni tashkil etdi (12.3.4-jadval).

12.3.4-jadval
Eksport ishlab chiqarish hududlarining YalM dagi ulushi, %

Hududlar	2003-y.	2004-y.	2005-y.	2006-y.	2007-y.
Chjutszyan daryosi deltasi (Guandun)	11,7	11,8	12,2	12,3	12,5
Futszyan	3,7	3,6	3,6	3,6	3,7
Chanszyan daryosi deltasi (Shanxay, Szyansu, Chjetszyan)	21,2	21,7	22,3	22,5	22,7
Boxay qo'ltig'i zonasi (Pekin, Tyansin, Lyaonin)	10,0	9,9	10,0	10,1	10,2
Shandun	8,9	9,4	10,1	10,4	10,4
Beshta hudud bo'yicha jami	55,5	56,4	58,2	58,9	59,5

Manba: Гельбрас В. Тридцатилетие эпохи «Реформ и открытости» в Китае. //Мировая экономика и международные отношения, №6, 2007. С. 79.

Eksport ishlab chiqarish hududlarida korxonalarning tarmoq tarkibi tahlili ko'rsatishicha, 2007-yilda ushbu hududlardagi korxonalarning mamlakatdagi jami korxonalar sonidagi ulushi sanoatda 62,5 %ni tashkil etgan (12.3.5-jadval).

12.3.5-jadval
Xitoy eksport ishlab chiqarish hududlarida korxonalarning tarmoq tarkibi, 2007-y. (jamiga nisbatan foiz hisobida)

Hududlar	Qishloq xo'jaligi	Sanoat va qurilish	Xizmatlar sohasi
Chjutszyan daryosi deltasi (Guandun)	0,7	35,5	63,8
Futszyan	1,8	34,6	63,6
Chanszyan daryosi deltasi (Shanxay, Szyansu, Chjetszyan)	0,8	42,8	56,4
Boxay qo'ltig'i zonasi (Pekin, Tyansin, Lyaonin)	1,1	25,0	73,9
Shandun	1,0	37,1	61,9
Ma'lumot uchun:			
Eksport ishlab chiqarish hududlarining mamlakat korxonalari umumiy sonidagi ulushi, %da	38,6	62,5	37,1

Manba: O'sha manba.

Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar, individual va xususiy korxonalar iqtisodiyotning boshqa sektorini tashkil etadi, mulkchilikning davlat shakliga esa davlat va jamoaviy korxonalar kiradi. 2008-yil ma'lumotlariga ko'ra, Xitoyda

28,2 mln. individual sanoat-savdo xo'jaliklari[1] va 6,6 mln. xususiy firmalar[2] mavjud edi. Bu mulkchilik shakli korxonalarining oxirgi yillarda tez sur'atda o'sishi, birinchi navbatda, davlat sektori ulushining qisqarishi hisobiga ro'y bergan va 1999–2004-yillarda xususiy tadbirkorlikning to'la legallashuvi orqali ta'minlandi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida TTXI uchun qulay investitsiya muhitini yaratgan mamlakat Xitoy hisoblanadi. Masalan, 2005-yilda mamlakat hissasiga jami jahon TTXI ning 8 % (72,4 mlrd. doll.), 2006-yilda 5 % (69,5 mlrd. doll), 2008-yilda esa 10,1 % to'g'ri kelgan. Xitoy iqtisodiyotiga TTXI XX asrning 80-yillaridan yuqori sur'atlarda kirib kela boshlagan. 1980-yilda Xitoy iqtisodiyotida jamg'arilgan TTXI 1 mlrd. dollarni, 10-yildan keyin 21 mlrd. dollarni, yana 10-yildan keyin esa 193 mlrd. dollarni tashkil etgan. Oxirgi yillarda bu ko'rsatkich 1,5 martaga ortgan va hozirda 293 mlrd. dollarga teng deb, baholanmoqda[3].

12.4. Xitoy iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari

Xitoy iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarga tuzatishlar kiritildi. Bu o'zgarishlar Xitoy YaIM ning o'sish sur'ati eksportga emas, balki ichki omillarga bog'liq bo'la boshlagan davrdan (2005) boshlandi. Mamlakatda o'rta sinf vakillarining jadal sur'atlarda ko'payishi (yiliga 10–15 mln. kishi) va urbanizatsiya jarayonining chuqurlashuvi (20–30 mln.) ichki iste'molning yuqori sur'atlarda o'sishiga turtki bo'lmoqda. Tahlillar ko'rsatishicha, yangi Xitoy iste'molchilar avlodining aksariyat qismi 2000-yillarda hayotlarida birinchi marta muzlatkich, televizor, kompyuter, uyali aloqa, avtomobil, uy-joy, mamlakat va xorij bo'ylab sayohat qilish kabi tovarlar va xizmatlarga ega bo'lish imkoniyatiga erishdilar.

Investitsion talabning o'sishi davlat tomonidan mamlakat bo'ylab zamonaviy ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini yaratishga qaratilgan faol siyosat olib borishini rag'batlantirdi. Aynan ichki iste'mol Xitoyning 2008–2009-yillarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'siridan katta yo'qotishlarsiz chiqib ketishiga imkon yaratdi.

Yangi Xitoy iqtisodiy rivojlanish modelining yana bir tarkibiy elementi iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlari (innovatsiyalar, hayot sifati, atrof-muhit muhofazasi)ga erishish hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning XII besh yillik rejasi (2011–2015) iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga jiddiy o'zgartirishlar kiritishi kutilmoqda.

Birinchidan, bu davrda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlash emas, balki barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish vazifasi qo'yilgan. YaIM ning o'rtacha yillik o'sish sur'atlarini 7 % (XI besh yillikda — 11,2 %) atrofida ta'minlash rejalashtirilgan.

Ikkinchidan, aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasini oshirishga erishish. Shahar va qishloq aholisi daromadlarini oshirish dinamikasini iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan tenglashtirish, ish haqini mehnat unumdorligini yaxshilash evaziga oshirish ko'zda tutilmoqda. Shahar va qishloq aholisining jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlarini yiliga 8 %ga oshirish rejalashtirilgan.

Xitoyda ishsizlik darajasini pasaytirish uchun XII besh yillikda xususiy tadbirkorlik, ishchilarni kasbiy jihatdan qayta tayyorlash dasturlarini amalga oshirish,

1 http://russian.sme.gov.cn/huanjing/gaikuang/20081105/033829.html

2 http://russian.china.org.cn/business/txt/2009–05/12/content_17765725.htm

3 Швандар К. В. Прямые иностранные инвестиции в странах BRIC. //Банковское дело, №2, 2008. С. 46,47.

oliy ta'lim maktabi bitiruvchilari va qishloq joylardan kelayotgan ishchilarni ishga joylashtirish davlat dasturlarini amalga oshirishni rag'batlantirish rejalashtirilgan. Misol uchun, 2009-yilda armiyada xizmat qilishdan 130 mingta bitiruvchi ishga qabul qilingan. Umuman, XII besh yillikda shahar aholisi uchun 45 mln., qishloq aholisi uchun esa 40 mln. ishchi o'rni yaratish ko'zda tutilgan bo'lib, 2011–2015-yillarda ishsizlik darajasini 5 % atrofida saqlab turish rejalashtirilgan.

Inflyatsiyaga qarshi kurash tadbirlari aholi turmush darajasini oshirish va o'rta sinfni yanada kengaytirish bilan bog'liq. 2008–2011-yillarda Xitoy hukumati narxlarning o'sish sur'atlarini o'rtacha 4–5 % atrofida saqlab qolishga erishdi.

Shunga qaramasdan mamlakatda quyidagi sabablarga ko'ra inflyatsiya darajasining o'sib ketish xavfi saqlanib qolmoqda:

- jahonda tovarlar narxining o'sishi;
- mamlakat ichida pul massasining yuqoriligi;
- energiya resurslari, xomashyo, yer, ishchi kuchi va boshqa ishlab chiqarish omillari tannarxining ortishi;
- ish haqi, aholiga ijtimoiy va tibbiy xizmat ko'rsatish xarajatlarining ko'payishi.

Xitoy iqtisodiyotining texnologik tarkibini o'zgartirish. Mamlakatda innovatsion kurs milliy innovatsiya strategiyasi sifatida talqin etilmoqda. 2020-yilga borib Xitoy innovatsion davlatga, 2050-yilda esa fan va texnika sohasida jahondagi yetakchi mamlakatga aylanishi zarur. Xitoyda davlat tomonidan maksimal darajada qo'llab-quvvatlanishi lozim bo'lgan yuqori texnologik tarmoqlar belgilab olingan:

- uyali aloqa;
- raqamli televideniye;
- keng miqyosli Internetga kirish;
- yangi avlod displeylari;
- biofarmatsevtika;
- yangi materiallar;
- energiyaning yangi manbalari;
- axborotlashtirish.

XII besh yillikda Xitoy iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar tarkibini optimallashtirish rejalashtirilgan. Iqtisodiyotga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar tarkibi mintaqaviy soliq va ruxsat berish tizimini qo'llash orqali o'zgartiriladi. Yuqori texnologik tarmoqlarga (fan sig'imkorligi yuqori ishlab chiqarish, zamonaviy noishlab chiqarish xizmatlari, yangi energetika, ekologiya) yo'naltiriladigan investitsiyalar imtiyozlarga ega bo'ladi. Energiya sig'imkorligi yuqori va atrof-muhitni ifloslantiruvchi ishlab chiqarishga investitsiyalar sarflash qat'iy cheklanadi.

Xorijiy investitsiyalar oqimining aksariyat qismi G'arbiy va Markaziy Xitoy mintaqalariga yo'naltiriladi. Bunda xorijiy investorlar uchun joy tayyorlash maqsadida mintaqaviy soliq imtiyozlari va infratuzilmani rivojlantirishga davlat investitsiyalaridan foydalaniladi.

Xitoyda ijtimoiy sohada beqarorlik ortib bormoqda. Ijtimoiy muammolardan biri kambag'allarga yordam berish siyosatining jamiyatda chuqur tabaqalashuv ortib borayotgan vaqtda amalga oshirilishidir. Xitoyda yuz minglab millionerlar, o'nlab milliarderlar jamiyatda yangi hayot tarzini shakllantirmoqda. Hozirgi vaqtda Xitoyda shakllangan o'rta sinf yuqori sifatli tovarlar va xizmatlarni talab qilmoqda.

Xitoy iqtisodiyoti keng miqyosda sifatli tovarlar va xizmatlar taklifini ta'minlab bera olmadi. Aksariyat iste'molchilar sifat, dizayn sababli G'arb brendlarini ma'qul ko'rishmoqda va ushbu tovarlar uchun Xitoyda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan ko'proq pul to'lashga tayyordirlar. Natijada xitoyliklar tomonidan xorijiy lyuks tovarlarga, xususan, obro'li kiyim-kechaklarga sarflanayotgan xarajatlar

ortib bormoqda. 2020-yilga borib Xitoyning jahonda modaga aylangan kiyim-kechaklar sotib olish bo'yicha ikkinchi yirik bozorga aylanishi bashorat qilinmoqda. Bu bozorning hajmi 60 mlrd. dollardan 200 mlrd. dollargacha ortadi. Hozirda xitoy iste'molchilari o'z daromadlarining 40 %ni modaga aylangan kiyim-kechaklar va aksessuarlar sotib olishga sarflamoqda.

Xitoy jahonda millionerlar uchun yuqori klassdagi tovarlar sotish hajmi bo'yicha AQSh dan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Misol uchun, 2011-yil yanvardan aprelgacha sotilgan Bentli avtomobilining har to'rtinchisi Xitoyda sotilgan. Umuman, Xitoyda Bentli avtomobillarini sotish hajmi 66 %ga o'sgan. Bundan tashqari, Xitoy biznes-klass samolyotlarini sotish hajmi bo'yicha ham dunyoda ikkinchi mamlakatga aylanishi mumkin. Jumladan, 2010-yilda Xitoy hissasiga Boeing samolyotlarini sotishning 30 % va Airbus samolyotlarini sotish hajmining 25 % to'g'ri keldi[1].

Xitoyda o'rta sinfning o'sib borayotgan iste'molini qondirishning yana bir misoli 2015-yilga borib «bir oila — bir farzand» siyosatining bekor qilinishidir. Hozirda ikkinchi farzand birinchisi tug'ilgandan to'rt yildan keyin va onasining yoshi 28 yoshgacha bo'lsagina jarima belgilanadi.

Mamlakatda demografik siyosatning o'zgarishiga iqtisodiy sabablar ham ta'sir ko'rsatmoqda. Birinchidan, Xitoy aholisi sekin-asta qarib bormoqda, jumladan, 2000-yilda 65 va undan yuqori yoshdagilar jami aholining 7 %ni tashkil etgani holda, bu ko'rsatkich 2009-yilda 8,5 %ga teng bo'ldi. 0 dan 14 yoshgacha bo'lganlar ulushi esa 2000–2009-yillarda 22 %dan 18,5 %ga qadar qisqardi. 2020-yilga borib 65 va undan yuqori yoshdagilar soni 250 mln. kishigacha, 2050-yilda esa 440 mln. kishigacha ko'payishi kutilmoqda. Bunda bitta pensiya yoshidagi kishiga 1,7 ta ishlovchi to'g'ri keladi[2]. Ikkinchidan, Xitoyda tug'ilish darajasi pasayib borish tendensiyasiga ega. Bu o'z navbatida ishchi kuchi qiymatining oshishiga olib keladi.

Aholining qarib borishi va o'sish sur'atlarining pasayishi Xitoyda arzon ishchi kuchining yetishmasliliga sabab bo'ladi. Xitoyning 17 ta viloyatidagi 3 mingta qishloqlarida olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, 74 % qishloqlarda bironta ishchi qolmagan. Janubiy va Sharqiy Xitoyda 90 %dan ortiq korxonalarda 10 %dan 30 %gacha ishchi kuchi yetishmaydi.

Xitoy jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan jahon iqtisodiyoti va moliyasidagi o'z pozitsiyalarini mustahkamlash yo'lida samarali foydalandi. 2011-yil iyul holatiga ko'ra Xitoy oltin-valyuta zaxiralari hajmi (3,2 trln. doll.) bo'yicha jahonda birinchi o'rinni egalladi. XVF ni isloh etishning tadbirlari (2013–2014) tasdiqlangandan so'ng Xitoy uning uchinchi yirik a'zosiga aylanadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining boshida (2008) Xitoy Qozog'iston, Mongoliya, Yangi Zelandiya, O'zbekiston, Singapur, Islandiya, Argentina, Indoneziya, Belarussiya, Malayziya, Gonkong va Janubiy Koreya bilan SVOP kelishuvlar imzoladi. Xitoyda 15 ta 93,8 mlrd. dollar hajmida 15 ta SVOP kelishuvlar mavjud. Boshqa mamlakatlar bilan yuanda to'lovlarni amalga oshirish hajmi 56 mlrd. dollargacha o'sdi[3].

Xitoy kompaniyalarining xorijiy investitsiyalari hajmi 2010-yilda 59 mlrd. dollarni tashkil etdi. Moliyaviy resurslar 129 ta mamlakatda joylashgan 3125 ta xorijiy kompaniyalarga sarflangan. Xitoy xorijiy kapital qo'yilmalarini amalga oshirishda birlashish va qo'shib olishlar ulushi keskin oshdi. Misol uchun, 2010-yilda bu turdagi investitsiyalash hajmi 23 mlrd. dollarni yoki xorijiy investitsiyalar hajmining 40 %ni tashkil qildi.

1 O'sha manba. C. 73.
2 O'sha manba. C. 75.
3 O'sha manba. C. 76.

Xitoy hukumati iqtisodiy islohotlar yillarida erishilgan muavafaqqiyatlarga qaramasdan iqtisodiy rivojlanishning yangi strategiyasini ishlab chiqishga kirishdi. Hozirda Xitoyda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini 8 %darajasida saqlab qolish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Ushbu vazifani hal etishda Xitoyning yangi iqtisodiy strategiyasi muhim ahamiyat kasb etadi va u quyidagi tarkibiy yo'nalishlarga ega[1]:

- yuqori o'sish sur'atlarini saqlab turish strategiyasidan voz kechish;
- iqtisodiy o'sish sifatiga urg'u berish;
- innovatsion rivojlanish strategiyasi;
- «yashil iqtisodiyot» asosida o'sish strategiyasi.

Qayd etib o'tilganidek, Xitoyda ichki iste'mol talabi va innovatsiyalarga ustuvorlik berilgan yangi iqtisodiy rivojlanish modelining shakllanish jarayoni boshlandi. Yangi hukumat iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini saqlab qolish, inflyatsiya va ishsizlik o'rtasida strategik balansni o'rnatishga harakat qilmoqda. Bunda 2008–2009-yillarda umummilliy miqyosda qabul qilingan investitsion dasturlarga asosiy e'tibor qaratish ko'zda tutilmaydi. Asosiy e'tibor iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etishga va istiqbolda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun liberal islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishga qaratiladi. Quyidagilar ushbu iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan:

- iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish (samarasiz davlat korxonalarini xususiylashtirish, kredit bozorida arzon va yuqori likvidli kreditlarni cheklash, urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun investitsiyalar sarflash);
- iqtisodiyotni boshqarishda byurokratiyani kamaytirish (Xitoy tovarlarining tannarxini pasaytirish va korrupsiya darajasini kamaytirishga yo'naltirilgan ruxsat beruvchi choralarni soddalashtirish yoki to'liq bekor qilish);
- ichki talabni kengaytirish (aholi daromadlarini oshirish).

Xitoy jahonda tovarlar ishlab chiqarish fabrikasidan tovarlar brendini ishlab chiqarish va «jahon miqyosida to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan talab bozoriga» aylanmoqda. Jumladan, 2013-yilning birinchi yarmida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,7 %ga o'sdi. Xarajatlarning ortishi, asosan, sifatli oziq-ovqat, avtomobillar, uy-ro'zg'or buyumlari, dam olish va kiyim-kechak sotib olish hisobiga yuz bergan. Masalan, ushbu davrda avtomobillar sotish hajmi 17 %ga o'sgan. Xitoyda 2013-yilning birinchi choragida 320 tonna oltin sotilgan va uning 95 % i taqinchoqlar, quymalar va tangalar hissasiga to'g'ri kelgan. Quymalar va tangalar sotish hajmi 2012-yilning birinchi choragiga nisbatan 137 %ga o'sgan. Umumjahon turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra 2012-yilda Xitoylik turistlar xalqaro turizm uchun 102 mlrd. dollar sarflashgan va ushbu ko'rsatkich 2011-yilga nisbatan 40 %ga oshgan[2].

Xitoyda iste'mol tovarlarini sotish hajmi Xitoyning istiqboldagi rivojlanish strategiyasi uzoq muddat xizmat qiluvchi va yuqori sifatli tovarlarga bo'lgan talabning innovatsiyalar, yuqori malakali ishchi kuchi, robotlashgan texnikalar talabiga aylanishiga asoslanadi. Xitoy omili jahon va mintaqa darajasida xalqaro mehnat taqsimotining o'zgarishiga olib keladi.

1 Михеев В. Дальше — без заветов-2 (Китай: смена модели модернизации) //Мировая экономика и международные отношения, №6, 2013. С. 57–65.

2 Михеев В. Дальше — без заветов-3 («Китайская мечта», Ликономика, амбиции лидерства) //Мировая экономика и международные отношения, №2, 2014. С. 16.

Yuqori mehnat sig'imkorligiga ega va ekologik jihatdan zararli ishlab chiqarishni Xitoydan Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo, Afrikaning kam taraqqiy etgan mamlakatlariga ko'chirib o'tkazish boshlanadi. Afrikada Xitoy investitsiyalarining yo'nalishi resurslar va infratuzilma sohasidan yuqori mehnat sig'imkorligiga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish tomon o'zgaradi.

Xitoy keyingi o'n yil ichida yuanning xalqaro valyutaga aylanishi va Xitoy moliya bozorlarining erkinlashishi natijasida jahon moliya markaziga aylanishi kutilmoqda. O'rta muddatli istiqbolda Xitoy jahonda kapital eksport qiluvchi va jahonning yetakchi mamlakatlari hukumatlari qimmatbaho qog'ozlarining asosiy egasiga aylanishi mumkin.

Ushbu strategiyaning qator kamchiliklari mavjud:

- tabiiy — resusrlar yetishmasligi, ekologik muammolar;
- tarixiy — o'z fundamental tadqiqotlar bazasining rivojlanmaganligi, moliya bozorlari yopiqligining saqlanib qolishi va boshqalar;
- tarkibiy — mamlakat aholisining 50 foizi qoloq, rivojlanmagan qishloqlarda yashaydi, aholining 15 foizi ichki migrantlardan iborat ekanligi.

Qishloq aholisi iqtisodiy o'sishni ta'minlash va o'rta sinfni to'ldirish zaxirasi rolini o'ynasa-da, ushbu zaxiradan foydalanish eski ekstensiv usullarni talab etadi. Infratuzilmani rivojlantirish, mamlakatning urbanizatsiya darajasini oshirish, qishloq joylarda ta'lim va sog'liqni saqlash tizimiga investitsiyalar sarflash, bandlikni ta'minlovchi mehnat sig'imkorligi yuqori ishlab chiqarishni rivojlantirish shular jumlasidandir.

Ishlab chiqarishni robotlashtirish va mehnat sig'imkorligi yuqori ishlab chiqarishni xorijga chiqarish mehnat unumdorligini oshirsa-da, past va o'rta malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabning qisqarishi, ushbu holat o'z navbatida salbiy ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ishlab chiqarishni xorijga chiqarishning yangi va istiqbolli tendensiyalari, innovatsion strategiyalar, ishlab chiqarishni robotlashtirish Xitoy iqtisodiyotining «qoloq segmenti»da inqirozning kelib chiqishiga olib kelishi mumkin. Xitoy iqtisodiyotining «rivojlangan» va «qoloq» segmentlarga bo'linishi davlat va xususiy investitsiyalarning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashni, bir vaqtning o'zida innovatsiyalarga asoslangan, resurslarni tejovchi va «yashil» texnologiyalar bilan bog'liq tarkibiy islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Mutaxassislar fikricha, Xitoyda iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi davlat investitsiyalarining harbiy sohani modernizatsiya qilishga ustun darajada yo'naltirilishi oqibatida yuz berishi mumkin. Harbiy xarajatlar mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlariga nisbatan yuqori sur'atlarda ortib bormoqda. Masalan, 2013-yilda harbiy xarajatlar 120 mlrd. dollarni tashkil etib 2012-yilga nisbatan 11 %ga o'sgan va yalpi ichki mahsulotning 1,3–1,4 % iga yetgan.

Urbanizatsiya jarayonlarining sekinlashuvi va o'rta sinf vakillari sonining o'sishi, harbiy xarajatlarining ortib borishi umumiy iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dinamikasiga salbiy ta'sir etadi.

Iqtisodiyot va harbiy modernizatsiya o'rtasida yangi balansni o'rnatish Xitoy hukumati oldida o'rta istiqbolda hal etilishi lozim bo'lgan vazifa hisoblanadi.

12.5. O'zbekiston va Xitoy iqtisodiy aloqalarining ustuvor yo'nalishlari

Xitoyda amalga oshirilayotgan muvaffaqiyatli iqtisodiy islohotlar, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari va doimiy ravishda ortib borayotgan iqtisodiy salohiyat O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Xitoyni O'zbekistonning eng muhim va istiqbolli hamkorlaridan biri sifatida e'tirof etish mumkin.

O‘zbekistonda 380 dan ortiq qo‘shma korxona, 58 ta yuz foizli Xitoy kapitaliga asoslangan korxonalar faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari, mamlakatimizda 65 ta yirik Xitoy kompaniyalarining vakolatxonalari ochilgan bo‘lib, ular ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqdalar.

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida 1994-yilda qabul qilingan eng qulaylik yaratish rejimi amal qiladi.

2012-yilda O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi tovar aylanmasi respublika tashqi savdo aylanmasiga nisbatan 12,7 %ni tashkil etgan. Ikkala mamlakat o‘rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 2000–2012-yillarda 35,2 martaga oshgan (12.5.1-jadval).

12.5.1-jadval
O‘zbekiston va Xitoy tashqi savdo aylanmasi, mln. doll.

	2000-y.	2010-y.	2012-y.
Tashqi savdo aylanmasi	95,5	2088,1	3357,9
Eksport	22,5	900,1	1463,1
Umumiy eksportdagi ulushi, %	0,7	6,9	10,8
Import	73,0	1188,0	1894,8
Umumiy importdagi ulushi, %	2,5	13,5	14,8
Saldo	-50,5	-287,9	-431,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

O‘zbekiston eksportining tarkibi quyidagicha: paxta tolasi, voylok, ipak, to‘qimachilik mahsulotlarini tayyorlash uchun zarur erituvchi materiallar, xizmatlar, paxta tolasi, mexanik asbob-uskunalar, mebel, kimyoviy tolalar, gazlama, paxta ip-kalava va boshqalar.

Xitoydan import qilinadigan mahsulotlar tarkibi esa quyidagicha: qora metallar va undan tayyorlangan mahsulotlar, kofe, choy va shirinliklar, mexanik asbob-uskunalar va elektr, poyabzal, kiyim-kechak, to‘qimachilik va trikotaj, trikotaj polotnosi, ruda, organik kimyoviy birikmalar, kimyoviy tolalar, plastmassa va plastmassa mahsulotlari, xizmatlar, noorganik kimyoviy mahsulotlar, boshqa metallardan yasalgan mahsulotlar, turli tayyor mahsulotlar va boshqalar.

12.5.2-jadval
O‘zbekiston neft-gaz kompaniyasining xitoylik hamkorlar bilan olib borayotgan loyihalari

Investor	Konlar	Kapital qo‘yilmalar, mln. doll.	Faoliyat turi	Qo‘shma korxona
XMNGK (CNPC)	Ustyurt va Buxoro-Xiva hududlari	600,0	Geologiya qidiruv ishlari	«UzXMNGK»
	Arniyaz, Sardob, Umid, Ustyurt	47,3		
«Dungshen» (Dong Sheng)	Farg‘ona vodiysi	113,0	Geologiya qidiruv ishlari	«UzDungshen»

O'zbekistonda Xitoy hukumatining foizsiz va uzoq muddatli kreditlari, Xitoy Eksimbanki kreditlari hisobidan ijtimoiy soha va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Xitoy investorlari O'zbekistonda neft-gaz sohasida faol faoliyat yuritmoqdalar. Jumladan, Xitoy milliy neft-gaz korporatsiyasi (CNPC) Orol dengizi akvatoriyasi, Ustyurt, Buxoro, Xiva va Farg'ona hududlarida geologiya qidiruv ishlarini olib bormoqda (12.5.2-jadval).

Bundan tashqari, O'zbekiston va Xitoy iqtisodiy hamkorlik aloqalarida 2009-yilda Transosiyo gaz quvurining ishga tushirilishi muhim hodisa bo'ldi. 7000 kilometr uzunlikdagi Turkmaniston–O'zbekiston–Qozog'iston–Xitoy gaz quvuri bu mamlakatlar o'rtasidagi uzoq muddatli, teng huquqli va o'zaro manfaatlar tamoyiliga asoslangan an'anaviy hamkorlik ramziga aylandi.

Transport va turizm sohasidagi hamkorlik ham istiqbolli loyihalar tarkibiga kiradi. Buning uchun O'zbekiston o'z hududida zamonaviy transport infratuzilmasini shakllantirmog'i, kelajakda Xitoyni Yevropa bilan tutashtiruvchi temiryo'l yo'laklarining ishga tushirilishida nisbiy afzallikka ega bo'lgan munosib tranzit hudud vazifasini o'tamog'i lozim bo'ladi. Zero, yangi transport yo'laklarining barpo etilishi nafaqat Xitoyning Yevropa, Yaqin Sharq, Rossiyaning g'arbiy hududlariga chiqishini, balki Markaziy Osiyo mamlakatlarining ham ushbu mintaqalar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini mustahkamlashiga asos bo'la oladi. Bundan tashqari, Xitoy va boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikda muayyan mahsulot ishlab chiqarish borasida xalqaro mehnat taqsimoti munosabatlarini tashkil etish va ularda munosib ishtirok etish ham mamlakatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

O'zbekiston va Xitoy yaqin istiqbolda sanoatning tog'-kon, avtomobil va neft-gaz tarmoqlarida yirik loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Jumladan, «O'zkimyosanoat» DAK Xitoyning «CITIC Ltd.» Kompaniyasi bilan 2012–2015-yillarda Qo'ng'irot soda zavodining ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish bo'yicha Memorandum imzoladi. Ushbu loyiha zavodning ishlab chiqarish quvvatini 1,5 marta — yiliga 150 ming tonnagacha orttirish imkonini beradi.

«O'zbekneftegaz» Xitoyning CNPC korporatsiyasi bilan birgalikda butadiyen kauchuklarini ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma korxona tashkil etishni rejalashtirgan. Mazkur loyiha doirasida yiliga 60 tonna butadiyen kauchigi olish mumkinligi va uning qiymati 400 mln. dollarni tashkil etishi kutilmoqda. Butadiyen kauchigi «O'zkimyosanoat» DAK va Xitoyning «CITIC Ltd.» kompaniyasi bilan birgalikda 2012–2016-yillarda tashkil etilishi rejalashtirilayotgan shina zavodi uchun xomashyo vazifasini o'taydi. Loyiha qiymati 155 mln. dollarni tashkil etib, yiliga 1,5 mln. avtoshinalar, 200 ming qishloq xo'jalik mashinalari shinalari va 100 ming pogona metr konveyer lentasi ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ladi[1].

Bundan tashqari, «O'zbekneftegaz» mamlakatning janubi-g'arbida joylashgan Gazli hududida gaz konlarini o'zlashtirish uchun Xitoy Eksimbankidan 158,5 mln. dollar miqdorida kredit jalb etishni rejalashtirgan. Ushbu mablag'lar gazni magistral tarmog'iga tashish uchun quvurlar o'tkazish va infratuzilmani rivojlantirish uchun sarflanadi. Shuningdek, 2011–2020-yillarda umumiy qiymati 1 mlrd. dollarga teng «Qulbeshkak», «Xojiqazgan», «Doyaxotin», «Suzma», «Qumli», «Chegaraqum» kabi konlarini o'zlashtirish loyihalari ishlab chiqilmoqda. Bu loyihalarning amalga oshirilishi 2021-yilga borib yiliga 5 mlrd. kub metr gaz qazib chiqarish imkonini beradi.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning hozirgi kundagi darajasi, bir tomondan, har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlantirish xususiyatlariga

1 http://www.uzinform.com/ru/news/20110929/09167.html

bevosita bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, mazkur hamkorlik ikki mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlariga to'liq mos kelmaydi.

Fikrimizcha, Xitoy iqtisodiyoti mehnat sig'imkorligi yuqori mahsulotlarni ishlab chiqarishda qiyosiy afzallikka, boy tajribaga ega ekanini nazarda tutilsa, O'zbekiston uchun ushbu tarmoqlarda mazkur mamlakat bilan kooperatsion aloqalarni jadallashtirish lozimligi foydali bo'ladi. Xitoyning salohiyati va boy tajribasidan kelib chiqib, oziq-ovqat, to'qimachilik, mashinasozlik, kimyo, yuqori texnologiyalar sohasida qo'shma investitsion loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Asosiy tushunchalar

«Katta sakrashlar» — 1958–1960-yillarda amalga oshirilgan, Xitoy aholisi uchun salbiy oqibatlar keltirgan, mamlakatning sanoat bazasini mustahkamlash, iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy va siyosiy kompaniya.

«Madaniy inqilob» — 1966–1976-yillarda amalga oshirilgan, eski an'analarni (traditsionalizm) yo'qotish va avlodlar o'rtasida nizo keltirib chiqarish, shahar hayotining barcha sohalarini siyosiylashtirish harakati.

«Ochiq eshiklar siyosati» — 1970-yillarning oxirida Xitoyda rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o'tishi bilan bog'liq iqtisodiy islohotlar yo'nalishi.

Maxsus erkin iqtisodiy hududlar — noan'anaviy tarmoqlarni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida tashkil etilgan mamlakatning maxsus iqtisodiy imtiyozlar joriy etilgan alohida hududi.

Xuatsyao kapitali — boshqa mamlakatlarda vaqtinchalik yashayotgan va xitoylik emigrantlarning avlodlariga tegishli kapital.

Nazorat savollari

1. Xitoy iqtisodiy islohotlariga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
2. Xitoy iqtisodiy islohotlar strategiyasining vazifalari nimalardan iborat?
3. Xitoy sanoat islohotlariga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan?
4. Xitoyning jahon iqtisodiyotidagi o'rniga baho bering.
5. Xitoy tashqi savdosining rivojlanish omillari nimalardan iborat?
6. Xitoyning JST ga a'zo bo'lishidagi muzokaralar va ularning natijalarini baholang.
7. Xitoy iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning o'rnini qiyosiy baholang.
8. Xitoy iqtisodiyotiga xorijiy kapitalni jalb etishda maxsus erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o'rni qanday bo'ldi?
9. Xitoyda xorijiy investitsiyani jalb etish uchun shakllantirilgan investitsion muhit va imtiyozlarni qiyosiy tahlil qiling va baholang.
10. Xitoy iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollarini belgilashda besh yillik rejalarning o'rni qanday?
11. O'zbekiston va Xitoy iqtisodiy aloqalarining ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?

IV BO‘LIM. JAHON XO‘JALIGIDA O‘TISH IQTISODIYOTI MAMLAKATLARI

13-BOB. O‘TISH IQTISODIYOTI MAMLAKATLARINING XUSUSIYATLARI VA IQTISODIY ISLOHOTLAR YO‘NALISHLARI

13.1. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish zaruriyati, maqsadi va prinsiplari

O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari sobiq sotsialistik tizimga mansub 28 ta mamlakatni o‘z ichiga oladi. Ular rivojlangan industrial bazaga ega va rejali ma’muriy iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan bog‘liq holda chuqur iqtisodiy islohotlarni amalga oshirayotgan mamlakatlardir. Iqtisodiy adabiyotda o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari quyidagi ikki guruhga ajratiladi[1]:

- Markaziy va Sharqiy Yevropa (MShYe) mamlakatlari (15);
- Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) va Mongoliya (13).

XX asrning 80-yillarida sobiq sotsialistik mamlakatlar iqtisodiyotida quyidagi krizis holatlari kuzatila boshlandi:

- MShYe ning barcha mamlakatlari bo‘yicha iste’mol va investitsiyalar hajmi pasaya boshladi, tashqi qarz esa 85 mlrd. dollargacha o‘sdi (1972-yilda — 8 mlrd. dol.), 2005-yilda MShYe mamlakatlarining tashqi qarzi 293,4 mlrd. dollarga yetdi;
- ishlab chiqarishda uzoq muddatli pasayish kuzatildi, iqtisodiyotning noratsional tarkibi shakllandi va raqobatbardoshligi pasaydi. Natijada Sharqiy Yevropa mamlakatlarining jahon savdo aylanmasidagi ulushi qisqardi. 1990-yilda bu mamlakatlarda jami band aholining 21 %ga yaqini o‘rmon va qishloq xo‘jaligida band edi (Yevropa Ittifoqida 6,1 %). Bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xomashyo va energiya sarfi rivojlangan mamlakatlar darajasiga nisbatan 20–40 %, ba’zida esa 100 %dan oshib ketdi. Xizmatlar sohasida rivojlanish sur’atlarining pastligi;
- Sharqiy Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishi ekstensiv omillarga tayangan va asosan miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan ifodalangan;
- samarasiz ishlab chiqarish fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishdagi sustkashlik bilan bevosita bog‘liq edi;
- inflyatsiya jarayonlarining kuchayishi. Agar 1987-yilda inflyatsiya sur’atlari oyiga 3–4 %ni, 1992-yilda bu ko‘rsatkich oyiga 21 %ni tashkil etgan bo‘lsa, Polsha va Yugoslaviyada esa inflyatsiya giperinflyatsiyaga aylandi;
- ishsizlik yashirin xarakterga ega bo‘ldi.

---

1 YuNKTAD hisobotlarida quyidagi mamlakatlar o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari sifatida ajratiladi: Yel ga a’zo bo‘lmagan MShE mamlakatlari (Albaniya, Bosniya va Gersegovina, Makedoniya, Serbiya, Montenergo) va MDH mamlakatlari (Armaniston, Ozarbayjon, Belarus, Gruziya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina, O‘zbekiston).

13.1.1-rasm.
O'tish davrining maqsadi, tamoyillari va shartlari

Iqtisodiy islohotlarning klassik tamoyillari

1. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash.
2. Narxlarni erkinlashtirish.
3. Xususiy mulkni shakllantirish.
4. Davlat mulkini xususiylashtirish.
5. Ochiq iqtisodiyotni shakllantirish.
6. Davlatning iqtisodiyotga bevosita aralashuvini cheklash.

O'tish davrining maqsadi

Tovar va xizmatlar bozorini rivojlantirish, erkin narxlarni shakllantirish, moliya bozorini shakllantirish, mehnat bozorini yaratish va tartibga solish, samarali bandlikni ta'minlash.

Bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun zaruriy shartlar

- barqaror siyosiy rejimni o'rnatish;
- xo'jalik yuritishning bozor mexanizmini rivojlantirish va takomillashtirish;
- qulay investitsiya muhitini yaratish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish;
- faol tashqi savdo siyosatini olib borish;
- iqtisodiy rivojlanishning innovatsion yo'lini rag'batlantirish.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda davlatning vazifalari

1. Mulk huquqi va tuzilayotgan xo'jalik shartnomalarini amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlash va himoyalash.
2. Monopoliyaga qarshi qonunchilik orqali bozorlarda raqobatga ko'maklashish.
3. Oqilona soliq va pul-kredit siyosatini yuritish.
4. Aholi ijtimoiy himoya tizimini rivojdantirish.
5. Infratuzilma tarmoqlarining rivojlanishiga yordam berish.

MShYe mamlakatlaridagi iqtisodiy holat siklik yoki qisqa muddatli pasayish bo'lmasdan, uzoq muddatli chuqur inqiroz natijasi edi. Rejali iqtisodiyotga asoslangan mamlakatlarda iqtisodiy inqiroz texnologik taraqqiyot, iqtisodiy samaradorlik, ekologiya, aholining turmush darajasiga jiddiy ta'sir o'tkazdi va salbiy oqibatlarga olib keldi.

1980–1990-yillarda Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi siyosiy voqealar va SSSR, Chexoslovakiya, Yugoslaviyaning parchalanib ketishidan keyin Varshava harbiy shartnomasi barbod bo'ldi. O'zaro iqtisodiy yordam kengashi o'z faoliyatini to'xtatdi. Yevropaning markazi va sharqida joylashgan mamlakatlar erkin bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirishga kirishdilar.

Jahon iqtisodiyotida o'tish davri iqtisodiyoti bir xo'jalik yuritish tizimining boshqasi bilan almashish holatini ifoda etadi. Bu jarayon nisbatan uzoq davrni o'z ichiga oladi. O'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlarida davlat barqarorlashtirish jarayonlarini kuchaytirishga, milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirishga, yangi xo'jalik yuritishning bozor tizimini amalga oshirishni yengillashtirishga harakat qiladi. Sharqiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti tashqi bozorga bevosita bog'liq bo'lganligi sababli o'z mahsulotlarini jahon bozorida

sotishda qator muammolarga duch kelishdi. Eksport imkoniyatlarining yetarli, yuqori darajada emasligi esa valyuta mablag'larini jamlashda qiyinchiliklarni tug'dirdi. Bu esa, o'z navbatida, bu mamlakatlarda aholining turmush darajasini oshirishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan import tovarlarni yetarli darajada sotib olish imkoniyatini bermadi.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida ishlab chiqarish samaradorligiga bo'lgan talablarga nisbatan yondashuvlar bir xil emas. Agar Sharqiy Yevropa mamlakatlarida xo'jalik boshqaruv mexanizmining inqirozga uchraganligi jahon bozori talablaridan orqada qolganligi bilan baholansa, sobiq Ittifoqda esa rejali iqtisodiyotning aholining o'sib va o'zgarib boradigan ehtiyojlarini to'la qondira olmasligi tanqid ostiga olindi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida davlat va kooperativ mulk mayda xususiy mulkni (xizmatlar, chakana va ulgurji savdo ishlari) siqib chiqarmagan edi. Bu holat ayniqsa Polshaga xos bo'lib, mamlakat qishloq xo'jaligida kooperatsiyalashtirish jarayonlari amalga oshirilmagan edi. Shunday qilib, Sharqiy Yevropada bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan xususiy xo'jalik alohida iqtisodiy uklad sifatida saqlanib qolgan bo'lib, u bozor islohotlarini amaliyotda amalga oshirishni yengillashtirgan edi.

Bu mamlakatlarda o'tish davrining maqsadi tovar va xizmatlar bozorini rivojlantirish, erkin narxlarni shakllantirish, moliya bozorini vujudga keltirish, mehnat bozorini yaratish va tartibga solish, samarali bandlikni ta'minlashdan iborat bo'ldi.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan o'tish davrida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda quyidagi klassik tamoyillarni ta'minlash tavsiya etiladi:

- makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash;
- narxlarni erkinlashtirish;
- xususiy mulkni shakllantirish;
- davlat mulkini xususiylashtirish;
- ochiq iqtisodiyotni shakllantirish;
- davlatning iqtisodiyotga bevosita aralashuvini cheklash.

Ushbu mamlakatlarda bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun quyidagi zaruriy shart-sharoitlarni ta'minlash talab etiladi:

- barqaror siyosiy rejimni o'rnatish;
- xo'jalik yuritishning bozor mexanizmini rivojlantirish va takomillashtirish;
- qulay investitsiya muhitini shakllantirish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish;
- faol tashqi savdo siyosatini olib borish;
- iqtisodiy rivojlanishning innovatsion yo'lini rag'batlantirish

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda davlat alohida rol o'ynaydi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

- mulk huquqi va tuzilayotgan xo'jalik shartnomalarining amalga oshirilishini ta'minlash va himoyalash;
- monopoliyaga qarshi qonunchilik orqali bozorlarda raqobatga ko'maklashish;
- oqilona soliq va pul siyosatini yuritish;
- aholining ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish;
- infratuzilma tarmoqlarining rivojlanishiga yordam berish.

Shunday qilib, bozor munosabatlariga o'tishda mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olish bilan birga transformatsiya modellarini aniq va rasmiy belgilabgina qolmay, balki iqtisodiyotni isloh qilishning boy, ilg'or xorij tajribasidan, o'zgarishlarning barcha foydali iqtisodiy vositalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

13.2. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar modellari va ularning natijalari

MShYe mamlakatlari tarkibiga Yevropa Ittifoqiga a'zo 10 ta — Markaziy Yevropa (Vengriya, Polsha, Chexiya, Slovakiya) va Janubi-Sharqiy Yevropa (Sloveniya, Bolgariya, Ruminiya), Boltiq bo'yi (Latviya, Litva, Estoniya) hamda Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lmagan Janubi-Sharqiy Yevropaning oltita (Albaniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina, Makedoniya, Serbiya va Chernogoriya) mamlakatlari kiritiladi. Ushbu mamlakatlar guruhida 124 mln. kishi istiqomat qiladi va taxminan jahon yalpi ichki mahsulotining 2,6 % ishlab chiqariladi[1].

MShYe mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Misol uchun, 2006-yilda sobiq Yugoslaviya respublikalarida valyutaning xarid qobiliyati bo'yicha hisoblangan aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad ko'rsatkichi 4 ming dollardan (Chernigoriya) 24 ming dollargacha (Sloveniya) o'zgarib turgan. Bu holat MShYe mamlakatlarida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda alohida yondashuvni talab etdi. Natijada bu mamlakatlarda qisqa muddatda «falajli davolash»[2] usuli yordamida liberal iqtisodiyotni shakllantirishga yo'naltirilgan radikal chora-tadbirlarni amalga oshirish (Polsha) va nisbatan yumshoq usullar yordamida bosqichma-bosqich, keyinchalik radikal chora-tadbirlarga asoslangan jadal iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi (Bolgariya, Ruminiya).

MShYe mamlakatlaridagi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

- islohotlarni amalga oshirishning ratsionalligi va ketma-ketligi;
- iqtisodiyot tarkibining shartlari va xarakteriga mosligi;
- rivojlangan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy texnik yordami;
- xorijiy kapitalning roli.

MShYe mamlakatlari ushbu omillar ta'siriga bog'liq holda iqtisodiy jihatdan turli natijalarga erishishdi. Vengriya, Polsha, Chexiya va Slovakiya intensiv isloh etishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida Bolgariya, sobiq Yugoslaviya respublikalari va Ruminiyaga nisbatan yuqori iqtisodiy o'sishga erishdi.

MShYe mamlakatlari XVF tomonidan taklif etilgan quyidagi tuzilmaviy elementlarga ega islohotlar modeliga amal qilishmoqda:

1. *Makroiqtisodiy barqarorlik va nazorat. Barqarorlashtirish dasturlarini amalga oshirish:*

- qattiq soliq siyosati;
- qattiq kredit siyosati;
- inflyatsiyaga qarshi siyosat;
- tashqi hisob-kitoblarni tartibga solishga qaratilgan xarajatlarni qayta ko'rib chiqish.

2. *Bozor va narx islohoti:*

- ichki narxlarni isloh qilish;
- tashqi savdoni erkinlashtirish;
- ish haqi va ishchi kuchi bozorini erkinlashtirish;
- bank tizimini isloh qilish.

---

1 Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник. /под ред. Проф. А. С. Булатова, проф. Н. Н. Ливенцева. — М.: Магистр, 2010. С. 364.

2 «Falajli davolash» deganda qisqa muddatda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotning xo'jalik faoliyati markazlashuvini bartaraf etish, narxlar va tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlar yordamida isloh etish tushuniladi.

3. *Xususiy sektorni rivojlantirish, xususiylashtirish, milliy ishlab chiqarish tarkibini isloh qilish:*
- korxonalarni ochish va yopish, xususiy mulk huquqini rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish;
- tarmoq va ishlab chiqarish islohotlari, monopoliyalarni bekor qilish.

4. *Davlatning quyidagi sohalaridagi rolini qayta ko'rib chiqish:*
- huquqiy islohotlar (konstitutsion, mulk, shartnoma, bank, raqobat);
- axborot tarkibini isloh qilish (hisobga olish, nazorat);
- iqtisodiyotni bilvosita boshqarishning institutsional tizimi (soliq tizimi, byudjetning shakllanishini nazorat qilish);
- ijtimoiy soha (ishsizlikdan sug'urtalash, pensiya ta'minoti, mehnatga layoqatsizlik, ijtimoiy xizmatlar: sog'liqni saqlash, ta'lim).

MShYe mamlakatlarida iqtisodiy islohotlar jadal sur'atlarda markazlashgan rejali, samarasiz iqtisodiy tizimdan turli mulk shakllariga, tadbirkorlik tashabbuskorligiga, erkin bozor va demokratik institutlarga asoslangan samarali bozor tizimiga o'tish maqsadida amalga oshirildi.

MShYe mamlakatlarining Yevropa Ittifoqiga kirishi. 2004-yilda YeI ga MShYe mamlakatlaridan sakkiztasi, 2007-yilda esa yana ikkitasining a'zo bo'lishi ushbu mamlakatlarning qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish imkonini berdi.

Birinchidan, G'arbiy Yevropa bozorlarining ochilishi bu mamlakatlar YaIM ning barqaror sur'atlarda o'sishini ta'minladi. YeI ga a'zo bo'lishga tayyorgarlik davri va undan keyingi davrlarda MShYe mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari YeI-15 mamlakatlari ko'rsatkichlaridan 1,7 marta yuqori bo'ldi.

Ikkinchidan, YeI ga a'zolik MShYe mamlakatlarida ishsizlik darajasining pasayishiga olib keldi, jumladan, ishsizlik darajasi 2003–2007-yillarda 11,3 %dan 7,8 %gacha pasaydi. Ushbu holatning asosiy sababi MShYe mamlakatlaridan G'arbiy Yevropa mamlakatlariga ishchi kuchining oqib o'tishi (3 mln. kishi) hisoblanadi. MShYe ning ba'zi mkamlakatlarida migrantlar tomonidan jo'natiladigan pul o'tkazmalari tashqi moliyalashtirishning xorijiy investitsiyalardan keyingi salmoqli manbasiga aylandi. Misol uchun, 2010-yilda Polshaga 9,1 mlrd. dollar, Serbiyaga 5,5 mlrd. dollar, Ruminiyaga 4,5 mlrd. dollar miqdorida pul o'tkazmalari kirib kelgan. [1] Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bu mamlakatlarda ishsizlik darajasining oshishiga olib keldi. Misol uchun, ishsizlik darajasi 2010-yilda Serbiyada 19,6 %ni, Slovakiyada 14,4 %ni, Vengriyada 11,2 %ni, Bolgariyada 10,3 %ni tashkil etdi. [2]

Uchinchidan, ushbu hududga G'arbiy Yevropa kapitalining kirib kelishi rag'batlantirildi va MShYe mamlakatlarida investitsiyalarning jamg'armalardan sezilarli darajada ortib ketishi jarayoni yuz berdi.

To'rtinchidan, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti bilan birlashish bu mamlakatlarda mehnat unumdorligining jadal sur'atlarda o'sishiga olib keldi. MShYe mamlakatlarida ushbu ko'rsatkichning yillik o'sishi o'rtacha 2–3 %ni tashkil etgani holda, YeI-15 mamlakatlarida bor-yo'g'i 0,75 %ga teng bo'ldi.

YeI ga barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga ega, raqobatbardosh bo'lmagan, to'ldiruvchi xarakteridagi iqtisodiyotga ega mamlakatlarning a'zo bo'lishi YeI-15 mamlakatlari iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu holat G'arbiy Yevropaga mahsulotlar, xizmatlar, yuqori texnologiyalarni sotish uchun yangi bozorlarning vujudga kelishi, arzon ishchi kuchidan foydalanish imkonini yaratdi.

1 Migration and Remittances Factbook 2011. Second edition. The World Bank — Washington, 2011. P. 13.

2 Перспективы развития мировой экономики. Замедление роста, увеличение рисков. Обзор. Сентябрь 2011. МВФ. Вашингтон, 2011. С. 82.

XX asrning 80-yillari oxiri va 90-yillarning boshlaridagi «falajli davolash» oqibatida MShYe ning barcha mamlakatlarida iqtisodiy rivojlanishning transformatsion pasayishi yuz berdi. Jumladan, YaIM miqyosining pasayishi Chexiyada 13 %ni, Bolgariyada 36 %ni, sobiq Yugoslaviyaning ba'zi respublikalarida 50 %ni tashkil etdi. Bu mamlakatlarda iqtisodiy o'sish 1992-yilda Polshada, 1993-yilda Chexiya va Vengriyada, 1994-yilda Slovakiyada boshlandi va 90-yillarning oxiriga kelib YaIM hajmi islohotlargacha bo'lgan davr darajasiga yetdi. 2000-yillardan boshlab Boltiqbo'yi va Janubi-Sharqiy Yevropa mamlakatlarida iqtisodiy o'sish boshlandi.

Hozirda MShYe dunyoning jadal sur'atlarda rivojlanayotgan mintaqalaridan hisoblanadi. Misol uchun, 1993–2002-yillarda ushbu makmlakatlarda YaIM ning o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 3,2 %ni, 2003–2008-yillarda 5,5 %ni tashkil etdi. MShYe mamlakatlarida 2009-yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'sirida iqtisodiy o'sish 3,6 %ga pasaydi, bu mamlakatlarda amalga oshirilgan inqirozga qarshi choralar tufayli iqtisodiy o'sish 2010-yilda qayta tiklandi va 4,5 %ga teng bo'ldi. [1]

Iqtisodiy o'sish omillari tarkibida ichki iste'molning kengayishi, jumladan, sanoatda investitsiyalarga bo'lgan talabning ortishini alohida qayd etish mumkin. Sanoatning jadal sur'atlarda o'sishi milliy valyutalarning yevroga nisbatan past kursi bilan qo'llab-quvvatlanayotgan eksport hajmining ortishiga olib keldi.

MShYe mamlakatlari iqtisodiyotining tarkibi asta-sekin postindustrial tarkibga ega bo'lib bormoqda. Jumladan, xizmatlarning ulushi YaIM ga nisbatan 52–58 %dan (Albaniya, Ruminiya, Makedoniya) 75 %gacha (Latviya) tashkil etgani holda, «eski Yevropa» mamlakatlariga nisbatan past hisoblanadi (YeI-15 mamlakatlarida o'rtacha 70 %).

MShYe mamlakatlari YeI-15 mamlakatlaridan qishloq va o'rmon xo'jaligining YaIM dagi ulushi bo'yicha ham ortda qolmoqda. Ushbu ko'rsatkich Markaziy Yevropa mamlakatlarida 3–5 %ni, Ruminiya, Bolgariya, Makedoniya, Serbiyada 9–13 %ni, Albaniyada 25 %ni tashkil etadi. Hududning nisbatan kam taraqqiy etgan mamlakatlarida iqtisodiy holat mehnat unumdorligining pastligi bilan yanada murakkablashadi. Natijada bu tarmoqda iqtisodiy faol aholining katta qismi band (Ruminiyada 1/3, Polshada 1/5).

MShYe mamlakatlari YaIM da sanoat va qurilishning ulushi hozirgi davrda past (Janubi-Sharqiy Yevropa mamlakatlarida 20–30 %) yoki juda yuqoriligi (Markaziy Yevropa mamlakatlarida 30–40 %) bilan ajralib turadi. Bu holat ayrim mamlakatlarda sanoatlashish jarayonining tugamaganligi yoki ayrimlarida esa industrial tarkibdan postindustrial tarkibga o'tilganligidan dalolat beradi. Sanoat tarkibida an'anaviy tarmoqlar (yengil, oziq-ovqat, yoqilg'i) ulushi qisqarib, elektrotexnika, avtomobilsozlik, yuqori texnologik tarmoqlar jadal rivojlanib, hissasi ortib bormoqda.

YeI ga a'zo bo'lishdagi ijobiy omillardan biri MShYe mamlakatlari bank va kredit tizimiga xorijiy kapitalni jalb etish sur'atlarining keskin ortishi hisoblanadi. Misol uchun, ushbu ko'rsatkichning 1990-yillar o'rtalarida 20 %dan 2000-yillar o'rtalarigacha 66,7 %ga qadar ortishi natijasida Chexiyada bank aktivlarining 92 %, Polshada 86 %, Vengriyada 70 % xorijiy kapital (asosan nemis kapitali) nazoratiga o'tib ketdi.

MShYe mamlakatlari moliya tizimi davlat xarajatlarining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Davlat xarajatlarining ulushi YaIM ga nisbatan Ruminiya va Estoniyada

1 Перспективы развития мировой экономики. Замедление роста, увеличение рисков. Обзор. Сентябрь 2011. МВФ. Вашингтон, 2011. С. 197.

taxminan 26 %ni, Bolgariya, Chexiya, Slovakiya, Polshada 35–40 %ni tashkil etsa, Vengriya, Sloveniya va Xorvatiyada 40 %dan oshadi. Shu bilan bir vaqtda byudjet taqchilligi muammosi murakkab bo'lib, chuqurligicha qolmoqda. Misol uchun, bu ko'rsatkich 2004–2007-yillarda Chexiya va Slovakiyada YaIM ga nisbatan 3 %ni, Polshada 5 %ni, Vengriyada 6,5–10,8 %ga teng bo'lgan. Natijada MShYe ning aksariyat mamlakatlarida davlat qarzi G'arbiy Yevropa mamlakatlariga nisbatan yuqori darajada saqlanib qolmoqda, jumladan, Vengriyada bu ko'rsatkich 2006-yilda 70 %ni tashkil etdi.

YeI ning MShYe mamlakatlari hisobiga kengayishi eski va yangi a'zo mamlakatlar soliq stavkalari (korxon foydasi va QQS) o'rtasidagi farqlar tufayli qator muammolar keltirib chiqardi. Yangi a'zo mamlakatlarda korxona foydasiga solinadigan soliq stavkasi eski mamlakatlar stavkasiga nisbatan o'rtacha ikki baravarga past hisoblanadi. Bundan tashqari, Slovakiya, Chexiya, Bolgariya kabi mamlakatlarda soliq imtiyozlarining mavjudligi malakali, kam haq oladigan ishchi kuchi va erkin ma'muriy choralar mintaqaga qo'shimcha xorijiy kapital kirib kelishini ta'minladi.

13.3. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari iqtisodiyoti

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining ikkinchi yirik guruhi MDH mamlakatlari hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarning ba'zilari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlarning yuqori guruhiga kirgan bo'lsa, ba'zilari rivojlangan mamlakatlarning quyi guruhiga kiradi. Sobiq Ittifoq iqtisodiyoti ustun darajada ichki iqtisodiy aloqalarga asoslangan yagona majmua sifatida uzoq vaqt inqirozni o'z boshidan kechirdi.

1991-yilda sobiq Ittifoq respublikalaridan iborat MDH tashkil etildi (Rossiya Federatsiyasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Gruziya, Moldaviya Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Ukraina, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi). Boltiqbo'yi respublikalari MDH ga kirishdan bosh tortdi. Gruziya 2009-yilda MDH tarkibidan chiqib ketdi.

MDH mamlakatlarini amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning sur'atlari va chuqurligiga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:

- iqtisodiy islohotlarni amalga oshirining «radikal» yo'lini tanlagan mamlakatlar (Rossiya, Qirg'iziston va Qozog'iston);
- iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich yo'lidan borayotgan mamlakatlar (O'zbekiston, Turkmaniston, Belarus);
- «oraliq guruh» mamlakatlari (MDH ning boshqa barcha mamlakatlari).

«Radikallar» guruhiga iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning «falajli davolash» usulini qo'llagan mamlakatlar kiradi. «Oraliq guruh» mamlakatlariga iqtisodiy islohotlarni «radikal» islohotlarga nisbatan sekinroq, «bosqichma-bosqich» islohotlarga nisbatan jadalroq amalga oshirayotgan mamlakatlar guruhi kirdi. Ushbu guruhlash shartlidir. Misol uchun, Belarusda boshqa MDH mamlakatlariga nisbatan o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy model shakllandi. Korxonalarning aksariyat qismi, jumladan, yirik korxonalar davlat ixtiyorida bo'lib, ular mamlakat YaIM ning taxminan 75 %ni ishlab chiqaradi. Shu bilan bir vaqtda xo'jalik yuritish mexanizmi bozor mezonlari bo'yicha amal qiladi: direktiv rejalashtirish cheklangan, davlat korxonalarining o'zi hamkorlarni qidirib topadi, hamkorlik shartlari, mahsulot narxi bo'yicha kelishadi, ishlab chiqarish va ishchilar tarkibini belgilaydi. Mamlakatda keng qamrovli ijtimoiy kafolatlar saqlanib qolgan.

MDH ning barcha mamlakatlari iqtisodiyotida XX asr 90-yillarida bozor munosabatlarining asoslari shakllandi:

- aksariyat mamlakatlarda xususiy mulk yetakchi mavqega ega bo'ldi va 90-yillarning oxiriga kelib YaIM ning 50 %dan 75 %gacha bo'lgan qismi xususiy korxonalar hissasiga to'g'ri keldi. Tadbirkorlar sinfi ushbu mamlakatlarda yetakchi ijtimoiy kuchga aylandi;
- narxlarning shakllanishi erkinlashtirildi;
- tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida bozor islohotlari amalga oshirildi va tashqi bozorlarning ochiqligi ta'minlandi;
- aholi mentalitetini bozor munosabatlari qoidalariga moslashishga yo'naltirilgan qayta o'zgarishlarni amalga oshirish boshlandi.

MDH mamlakatlarining 1991–2010-yillardagi iqtisodiy rivojlanishini quyidagi uch bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqichda (1991–1995) sobiq Ittifoq respublikalarida siyosiy mustaqillikning huquqiy asoslari yaratildi, xalqaro iqtisodiy, moliya tashkilotlariga a'zo bo'lishdi, o'zaro shartnomalar imzolandi, mustaqil davlat uchun xos moliyaviy-iqtisodiy, byudjet-soliq, bojxona va boshqa iqtisodiy institutlar shakllantirildi.

Shu bilan birga bu davrda yagona valyutaga asoslangan yagona iqtisodiy iqtisodiy makon barham topdi, respublikalar o'rtasidagi kooperatsiya aloqalari buzildi, uchinchi mamlakatlar bozoriga qayta ixtisoslashish boshlandi va milliy iqtisodiyotlarda inqiroz holatlari kuchayib bordi. Deyarli barcha respublikalarda YaIM ning keskin qisqarib, eng chuqur pasayish mamlakatlarda turli yillarda ro'y berdi. Jumladan, ushbu ko'rsatkich 1990-yil darajasiga nisbatan 1995-yilda Ozarbayjonda 42,1 %ni, Armanistonda 59,8 %ni, Belarusda 66,1 %ni, Gruziyada 35,8 %ni, Qozog'istonda 69,0 %ni, Qirg'izistonda 55,0 %ni, Moldaviyada 48,0 %ni, Rossiyada 65,4 %ni, Tojikistonda 34 %ni, Turkmanistonda 61,0 %ni, O'zbekistonda 81,6 %ni, Ukrainada 47,1 %ni tashkil etdi. [1]

Ikkinchi bosqich (1996–2000) yangi mustaqil mamlakatlarda siyosiy suverinitetning mustahkamlanishi, mustaqil faoliyat olib boruvchi moliyaviy-iqtisodiy tizimning yaratilishi, uzoq xorij mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarning o'rnatilishi va rivojlanishi bilan izohlanadi.

Bu bosqichda MDH mamlakatlari iqtisodiyoti barqarorlashdi, inflyatsiya darajasi pasaydi. Jumladan, 2000-yilda ushbu mamlakatlarda YaIM hajmi 1991-yilga nisbatan Ozarbayjonda 59,3 %ni, Armanistonda 76,9 %ni, Belarusda 89,7 %ni, Gruziyada 47,5 %ni, Qozog'istonda 77,9 %ni, Qirg'izistonda 72,0 %ni, Moldaviyada 44,0 %ni, Rossiyada 69,1 %ni, Tojikistonda 41,0 %ni, Turkmanistonda 77,0 %ni, O'zbekistonda 99,0 %ni, Ukrainada 47,3 %ni tashkil etdi. MDH mamlakatlaridan YaIM hajmi bo'yicha 1991-yil darajasiga faqat O'zbekiston erishdi.

Uchinchi bosqichda (2001–2013) MDH ning barcha mamlakatlarida iqtisodiyotning mustahkamlanishi sodir bo'ldi, iqtisodiy salohiyatni oshirish uchun mavjud resurslardan to'liq foydalanildi, iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish bilan bog'liq islohotlar amalga oshirildi, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish jarayoni faollashdi. 2010-yilda Ozarbayjon, Belarus, Qozog'iston, Turkmanistonda YaIM hajmi 1991-yil darajasidan oshdi.

Tahlillar MDH mamlakatlarida 2000–2013-yillarda YaIM hajmi 1,9 martaga, sanoat ishlab chiqarish 1,7 martaga, asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori esa 3,2 martaga oshganligini ko'rsatmoqda (13.3.1-jadval).

1 Вашанов В. Распад СССР и его последствия для постсоветских республик. //Экономист, №11, 2011. С. 80.

13.3.1-jadval
MDH mamlakatlarida asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, 2001-yilga nisbatan %da

	2001-y.	2005-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.
YalM	106	139	169	177	184	187
Sanoat	105	137	154	162	166	167
Asosiy kapitalga investitsiyalar	114	185	270	296	317	321

Manba: www.cisstat.org

MDH mamlakatlarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning salbiy oqibatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- islohotlarning ijtimoiy yo'qotishlar bilan birga sodir bo'lishi. MDH mamlakatlarida ishlab chiqarishning pasayishi natijasida aholi turmush darajasining pasayishi, ishsizlik darajasining ortishi, ijtimoiy xizmatlar hajmining qisqarishi ro'y berdi;
- jamiyatning ijtimoiy jihatdan tabaqalashuv darajasining chuqurlashishi. Bozor iqtisodiyoti jamiyatda moddiy ta'minlanish bo'yicha tabaqalashuvning kuchayishiga olib keldi va bu ko'rsatkich MDH mamlakatlarining ayrimlarida juda yuqori darajaga yetdi;
- MDH mamlakatlarining aksariyatida ilmiy-texnik taraqqiyotning orqada qolishi, mehnat unumdorligining past darajada ekanligi;
- yashirin iqtisodiyotning mavjudligi;
- MDH mamlakatlarining xalqaro mehnat taqsimotida xomashyo va yoqilg'i yetkazib beruvchilar sifatida ixtisoslashib qolishi.

MDH mamlakatlarida iqtisodiy pasayish darajasi MShYe mamlakatlariga nisbatan chuqur bo'lib, Xitoy va Vyetnam singari iqtisodiy islohotlar boshlanishidan keyin pasayishlar sodir bo'lmagan (2008–2009-yillardagi inqirozni hisobga olmaganda). Shunga qaramasdan MDH mamlakatlarida sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarishning keskin pasayishi sodir bo'ldi. Bu holat ushbu tarmoqlarning harbiy mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liqligi bilan izohlanadi.

Sanoatning yengil sanoat va uzoq muddatli iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlari sifatli hamda keng assortimentga ega import bilan raqobat qila olmaganligi sababli MDH ning ayrim mamlakatlarida muzlatkichlar, videomagnitofonlar, kompyuterlar ishlab chiqarish to'xtab qoldi. MDH mamlakatlarida xomashyo, yoqilg'i ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda ishlab chiqarishning pasayishi sodir bo'lmadi hamda bu mahsulotlar eksporti xorijiy valyuta tushumlarining asosiy manbayi va iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash vositasiga aylandi.

Tahlillar ko'rsatishicha, 1990-yillarda O'zbekiston, Belarus, Qozog'istondan tashqari boshqa mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi va ishchi kuchi malakasining keskin pasayishi sodir bo'lganligi kuzatildi. Gruziya, Moldaviya, Tojikiston va Qirg'izistonda esa sanoat ishlab chiqarishning pasayishi bilan bir vaqtda bandlikning agrarlashuvi yuz berdi. Misol uchun, 1990-yilda bu mamlakatlarda qishloq xo'jaligida aholining 25 % band bo'lgani holda, hozirda ushbu ko'rsatkich taxminan 50 %ni tashkil etmoqda.

MDH mamlakatlari tashqi savdo aylanmasining asosini o'zaro savdo tashkil etadi. Tahlillar, MDH mamlakatlari o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasida o'zaro savdo ulushining qisqarib borayotganligini ko'rsatmoqda. Jumladan, bu ko'rsatkich 2000-yilda 27,7 %ni tashkil etgani holda, 2013-yilda 20,4 %ga teng bo'ldi.

MDH mamlakatlarining boshqa mamlakatlarga eksporti miqdori 2000–2013-yillarda 53,3 %ga oshgan (13.3.2-jadval).

13.3.2-jadval
MDH mamlakatlari tashqi savdo aylanmasi, mlrd. doll.

	2000-y.			2013-y.			2013-yilda 2000-yilga nisbatan o'zgarish, marta		
	Jami	Shu jumladan		Jami	Shu jumladan		Jami	Shu jumladan	
		O'zaro savdo	Boshqa mamlakatlar bilan savdo		O'zaro savdo	Boshqa mamlakatlar bilan savdo		O'zaro savdo	Boshqa mamlakatlar bilan savdo
Tashqi savdo aylanmasi	203,3	56,4	46,9	1268,0	258,8	999,2	6,2	4,5	21,3
Eksport	137,7	26,3	11,4	753,5	133,9	609,6	5,5	5,1	53,5
Import	65,6	30,1	35,5	514,5	124,9	389,6	7,8	4,2	11,0
Tashqi savdo balansi	72,1	-3,8	75,9	229,0	9,0	220,0	-	-	-

Manba: www.cisstat.org

MDH mamlakatlarida iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishga qaratilgan qonunlar qabul qilinmoqda. Xorijiy kompaniyalarning aksariyati tabiiy resurslarga boy mamlakatlarga qiziqish bildirmoqda. YuNKTAD ma'lumotlariga ko'ra, MDH mamlakatlari iqtisodiyotiga jalb etilgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2000–2013-yillarda 6,0 mlrd. dollardan 108 mlrd. dollargacha, ya'ni 19,4 martaga oshgan (13.3.1-diagramma).

13.3.1-diagramma
O'tish iqtisodiyoti va MDH mamlakatlariga jalb etilgan TTXI investitsiyalar, mlrd. doll.



Manba: UNCTAD Handbook of Statistics 2014. p. 204.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etish natijasida Qozog'iston, Ozarbayjon, Gruziya, Moldaviya va Qirg'izistonda sanoatning katta qismi

xorijiy investorlar nazoratida bo'lib, kapital qo'yilmalarning 15–30 % tashqi manbalardan moliyalashtiriladi. Markaziy Osiyo va Kavkaz respublikalarida AQSh, G'arbiy Yevropa va Yaponiya kabi an'anaviy kapital eksportyorlaridan tashqari Janubiy Koreya, Xitoy, Turkiya kompaniyalari investitsion loyihalarni amalga oshirishda faol qatnashmoqda.

MDH mamlakatlari xalqaro moliya institutlari bilan faol hamkorlik aloqalari olib borishmoqda. Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ukraina, Gruziya, Armaniston kabi mamlakatlar xorijdan katta miqdorda xalqaro kreditlar olishganligi sababli ularning ayrimlarida davlatning tashqi qarziga xizmat ko'rsatish muammosi yuzaga keldi.

13.4. O'zbekiston va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik aloqalari

O'zbekiston va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun O'zbekiston Markaziy Osiyoda mahsulotlarni sotishning istiqbolli, yirik ichki bozorga, qulay investitsiya muhitiga, boy xomashyo, inson va ilmiy-texnik salohiyatga ega muhim hamkori hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston MShYe mamlakatlari bilan diplomatik aloqalarni o'rnatdi va iqtisodiy hamkorlikning barcha sohalaridagi munosabatlar muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. O'zbekiston Polsha, Chexiya, Slovakiya, Bolgariya, Ruminiya bilan «Savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi» kelishuvlarga ega. Mazkur kelishuvlar doirasida bu mamlakatlar bilan mumkin qadar qulaylik yaratish rejimi asosida ikki tomonlama savdo aloqalari o'rnatilgan.

O'zbekistondan MShYe mamlakatlariga paxta tolasi, matolar, rangli metallar, noorganik kimyo mahsulotlari, turli xil xizmatlar, qishloq xo'jalik mahsulotlari (tomat pastasi, meva va sabzovatlar, sharbatlar), avtomobilsozlik sanoati mahsulotlari, kabel eksport qilinadi. O'zbekistonga ushbu mintaqadan un, tayyor matolar va kiyim-kechak, keramika mahsulotlari, mexanika va elektr asbob-uskunalari, oziq-ovaqt mahsulotlari, qurilish materiallari, farmatsevtika mahsulotlari, mebel, transport vositalari olib kiriladi.

O'zbekistonda 150 dan ortiq MShYe mamlakatlari kapitali qatnashgan qo'shma va 40 dan ortiq to'liq xorijiy kapitalga asoslangan korxonalar faoliyat yuritadi. Ushbu korxonalar oziq-ovqat, spirtli ichimliklar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, mashinasozlik, savdo, transport xizmatlari, to'qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechak, kimyo, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi.

O'zbekiston uchun Ruminiya va Bolgariyaning Qora dengizdagi portlari orqali yuklar tashish sohasida hamkorlik imkoniyatlarini rivojlantirish istiqbollari muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston mahsulotlarini Ruminiyaning Konstansa porti, Qora dengizni Dunay–Reyn daryo transporti tizimi bilan bog'lovchi Sulin kanali orqali Yevropa markaziga tashib keltirish, keyin mintaqaning Shimoliy dengiz portlariga olib chiqish mumkin bo'ladi.

MDH mamlakatlari O'zbekistonning asosiy savdo-iqtisodiy hamkorlari hisoblanadi. Shunga qaramasdan, mamlakat tashqi savdo aylanmasida bu mamlakatlarga nisbatan uzoq xorij mamlakatlarining ulushi orta boshladi. Misol uchun, 1990–2012-yillarda MDH mamlakatlarining O'zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 60,1 %dan 48,2 %gacha, eksport va importi tarkibidagi ulushi esa mutanosib ravishda 62,3 va 56,6 %dan 45,2 va 19,2 %ga qadar qisqardi (13.4.1-jadval).

13.4.1-jadval
Tashqi savdo aylanmasining geografik tarkibi (foiz)

	1990-y.	2010-y.	2012-y.
Tashqi savdo aylanmasi	100	100	100
Uzoq xorij mamlakatlari	39,9	56,9	51,8
MDH mamlakatlari	60,1	43,1	48,2
Eksport	100	100	100
Uzoq xorij mamlakatlari	37,7	54,8	43,3
MDH mamlakatlari	62,3	45,2	56,6
Import	100	100	100
Uzoq xorij mamlakatlari	42,6	59,9	60,8
MDH mamlakatlari	57,4	40,1	39,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Shunday qilib, O'zbekiston va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning faollashishi ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi hamda global jahon bozoriga integratsiyalashishdan o'zaro manfaatlidir.

Asosiy tushunchalar

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari — sobiq sotsialistik tizimga mansub, rivojlangan industrial bazaga ega, rejali ma'muriy iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq holda chuqur iqtisodiy inqirozni boshidan kechirayotgan mamlakatlar.

MDH mamlakatlari — 1991-yilda sobiq Ittifoq respublikalaridan iborat mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari.

«Radikallar» guruhi — iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning «falajli davolash» usulini qo'llagan mamlakatlar guruhi.

«Oraliq guruh» mamlakatlari — iqtisodiy islohotlarni «radikal» islohotlarga nisbatan sekinroq, «bosqichma-bosqich» islohotlarga nisbatan jadalroq amalga oshirayotgan mamlakatlar guruhi.

«Falajli davolash» — qisqa muddatda ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotni xo'jalik faoliyatining markazlashuvini bartaraf etish, narxlar va tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlar yordamida isloh qilish.

Bosqichma-bosqich — ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotni xo'jalik faoliyatining markazlashuvini bartaraf etish, narxlar va tashqi iqtisodiy aloqalarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlar yordamida isloh qilish.

Nazorat savollari

1. Sotsialistik xo'jalik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotining afzalligini tavsiflab bering.
2. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlariga qaysi mamlakatlar kiradi?
3. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida bozor iqtisodiyotiga o'tishning necha xil modeli shakllangan?

4. Ma'muriy buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich va radikal konsepsiyalari o'rtasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?
5. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
6. MShYe mamlakatlarining YeI ga a'zo bo'lishining ijobiy va salbiy oqibatlariga baho bering.
7. MDH mamlakatlari iqtisodiyotiga qanday xususiyatlar xos?
8. MDH mamlakatlari iqtisodiyotida bozor munosabatlarini shakllanish bosqichlariga baho bering.
9. O'zbekiston va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik aloqalarining ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?

14-BOB. ROSSIYA IQTISODIYOTI

14.1. Rossiyaning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari

Rossiyada 1992-yildan boshlab bozor iqtisodiyotiga o'tishning neoliberal siyosati — «falajli davolash» shakli qo'llanildi. Bunda aksariyat tovarlar va xizmatlar narxini erkinlashtirish, davlat mulkini tasarrufdan chiqarish va xususiylashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi davlat monopoliyasini bekor qilish kabi choratadbirlar amalga oshirildi.

XX asrning 90-yillarida Rossiya iqtisodiyoti uchun yalpi ichki mahsulot hajmi va ishlab chiqarish imkoniyatlarining qisqarishi kabi xususiyatlar xos bo'ldi. Bu davrda Rossiya YaIM 1,4 baravarga qisqardi va 1991-yilga nisbatan 62,5 %ni tashkil etdi[1]. Milliy iqtisodiyotdagi eng keskin pasayish qayta ishlash sanoati tarmoqlarida sodir bo'ldi va ishlab chiqarish hajmi ikki baravarga qisqardi. Ishlab chiqarish hajmining qisqarishi talabga salbiy ta'sir ko'rsatdi, ayniqsa, yarimfabrikat mahsulotlarga bo'lgan talab keskin pasaydi. 1990–1998-yillarda kapital qo'yilmalar qiymati 4 baravar qisqardi.

Ishlab chiqarishga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar tarkibida qishloq xo'jaligining ulushi keskin pasayib, pirovard mahsulotlar (mashinasozlik, yengil sanoat) ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda kapital qo'yilmalar hajmi qisqardi. Investitsiya jarayonlari, asosan, aholining boy qatlamiga mo'ljallangan uylar qurish sohasida faol olib borildi. Rossiyada kapital qo'yilmalarning YaIM dagi ulushi 1990-yilga nisbatan 2 baravar qisqarib, 15 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarishga yo'naltirilgan jamg'armalar esa YaIM ga nisbatan 10 %ga ham yetmadi. Rossiyada bu davrda korxonalarning faqat yarmi o'z daromadlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirdi. Jamg'arish me'yori esa jahon me'yorlariga nisbatan pasayib ketdi.

1997-yildan boshlab asosiy fondlarni yangilash koeffitsenti ularning eskirish koeffitsentidan ortda qola boshladi. Natijada asosiy fondlarning yemirilishi va eskirishi jarayoni avj oldi. Texnik darajaning degradatsiyasi yangi asbob-uskunalarning jami fonddagi ulushining qisqarishida namoyon bo'ladi. Yangi asbob-uskunalar deganda 5-yildan kam muddat davomida foydalanilgan uskunalar tushuniladi. Sanoat uskunalarining o'rtacha yoshi 10,8-yildan 16-yilgacha o'sdi. Sanoat tarmoqlarida asosiy fondlarning eskirish ko'rsatkichi 46,4 %dan 52 %gacha oshdi. Korxonalarda ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalarning yarmidan ortig'i qayta ta'mirlash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirildi. Ammo

1 Ломакин В. К. Мировая экономика: учебник. /М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. С. 642.

bu mablag'lar ishlab chiqarish quvvatlarini ommaviy yangilashga yetarli bo'lmay, investitsiyalarning umumiy qiymati keskin qisqargan edi.

Iqtisodiyotning real tarmoqlarining inqirozi ishlab chiqarishning samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Fondlardan foydalanish samaradorligi butun iqtisodiyot miqyosida qisqardi.

Ishlab chiqarishda talabning keskin qisqarishi sharoitida jami talab tarkibida yetakchi o'rinni uy xo'jaliklari egalladi va ularning iste'moli 49 %dan (1991) 65 %ga (1999) yetdi. Ishlab chiqarishning qisqarishi sharoitida yalpi talabni yuqori darajada ushlab turish daromadlarni ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga qayta taqsimlash orqaligina mumkin edi. Bu holatga davlat va korxonalar xarajatlarining xususiylashtirilishi orqali va ularning aholi boy qatlami («yangi ruslar») qo'lida mujassamlashishi orqali erishish mumkin bo'ldi. Ammo uy xo'jaliklarining iste'moli mutlaq qiymatda o'lchaganda qisqardi. Natijada ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi muvozanat buzildi.

Aholi iste'moli 1/5 ga qisqardi. Iste'molning asosini oziq-ovqat mahsulotlari tashkil eta boshladi. Bu turdagi mahsulotlarning jami iste'moldagi ulushi 52 %ga yetdi, shundan 9 %non mahsulotlari hissasiga to'g'ri kelardi. Shu bilan birga aholi tomonidan sifatli oziq-ovqat mahsulotlarining iste'moli 40–50 %ga qisqardi. Aholining yarmida oqsil va vitaminlar iste'moli ilmiy asoslangan me'yordan past darajaga tushib ketdi. Bunday holat oziq-ovqat mahsulotlari quvvatliligi darajasida ham kuzatildi. Jon boshiga asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli darajasi bo'yicha Rossiya jahonda 1990-yillardagi 6–7-o'rindan 45-o'ringa tushib qoldi. Iste'mol darajasidagi bunday keskin salbiy o'zgarishlar aholining asosiy qismining daromadlari kamayib ketishi bilan bog'liq.

Rossiya korxonalarida ishlab chiqarish va to'lov qobiliyatining pasayishi natijasida ilmiy-texnik tadqiqotlarga bo'lgan talab ham qisqardi. Bu esa ilmiy-texnik tadqiqotlarni moliyalashtirishning qisqarishiga olib keldi. Davlat byudjeti hisobidan ilm-fanni moliyalashtirish 10 baravar qisqardi. NIOKR ni moliyalashtirish qiymatining YaIM dagi ulushi 1992-yildagi 0,9 %dan 0,2 %gacha pasaydi. Ilmiy-texnik majmua alohida qismlarga bo'lindi.

XX asrning 90-yillarida Rossiya iqtisodiyoti uchun xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri «aqlning oqishi» jarayonining keskin, yuqori sur'atlarda rivojlanishidan iborat. Bu davrda Rossiyadan ko'plab olimlar, ilmiy xodimlar emigratsiya qilishdi. Natijada qator ilmiy maktablar faoliyati to'xtab qoldi va fundamental fanlarning salohiyati pasaydi. Bu esa ilmiy tadqiqotlar samaradorligining pasayishiga olib keldi. Agar 1980-yillarda fundamental va amaliy tadqiqotlarning 70 % jahon talablari darajasida bajarilgan bo'lsa, 90-yillarning o'rtalariga kelib, bu ko'rsatkich 25 %ni tashkil eta boshladi.

Ishlab chiqarishning qisqarishi va talab tarkibidagi o'zgarishlar Rossiya iqtisodiyoti tarkibining o'zgarishiga olib keldi. Bu davrda YaIM da moddiy ishlab chiqarishning ulushi 65 %dan 41 %gacha qisqardi. Xizmat ko'rsatish sohasining ulushi esa mutanosib ravishda o'sdi. Bu jarayonni chuqur tahlilsiz ijobiy natija deb baholash mumkin. Ammo iqtisodiy tarkib jihatidan xizmatlar o'zining asosiy maqsadiga mos kelmas edi. Xizmatlar tarkibida yetakchi o'rinni moliyaviy xizmatlar egalladi. Rossiyada bu davrdagi moliya xizmatlariga xos muhim xususiyat — xizmatlarning, asosan, chayqovchilik xarakteriga egaligidan iborat. Bu holat mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi keskin o'zgarib, uning tarkibida elektroenergetika, yoqilg'i qazib chiqarish, qora va rangli metallurgiyaning ulushi o'sib, mashinasozlik va yengil sanoat ulushi esa aksincha keskin pasaydi.

Sanoat tarmoqlaridagi tarkibiy o'zgarishlarga talab tarkibidagi keskin o'zgarishlar ta'sir ko'rsatgan. Ichki talabga ixtisoslashgan quyidagi tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmi keskin pasaydi: mashinasozlik, yengil sanoat, qurilish materiallari. Ichki iqtisodiy inqiroz sharoitida xomashyo tarmoqlari va birlamchi qayta ishlash tarmoqlari taraqqiy etgan mamlakatlarning ichki bozorlariga ixtisoslashdi. Eng og'ir iqtisodiy vaziyat fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan tarmoqlarda va ular bilan bog'liq bo'lgan harbiy sanoat majmuasida kuzatilgan. Bir qator ishlab chiqarishlar to'liq to'xtab qoldi. Jahon amaliyotida ilm sig'imkorligi yuqori tovarlarning qayta ishlash sanoatidagi ulushi, odatda, 6 %dan past bo'lmasligi chegaraviy me'yor sifatida qabul qilingan bo'lsa, Rossiyada bu ko'rsatkich 2–2,5 %dan oshmadi.

XX asrning 90-yillarida Rossiyaning markazlashgan rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishi mintaqalardagi muammolarning keskinlashuviga olib keldi va iqtisodiy qoloq mintaqalarning ro'yxati kengaydi. Iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha ham mintaqalar ichki bozordan deintegratsiyalashib, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorliklarini rivojlantirdilar.

Moskva va Sankt-Peterburg kabi yirik shaharlarda ishlab chiqarish omillarining haddan ziyod markazlashuvi ro'y berdi. Rossiya subyektlari o'rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farq bir necha yuz baravarni tashkil qildi.

Iqtisodiy rivojlanishga inflyatsiya darajasi ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1992–1996-yillarda iste'mol narxlari indeksi 2,2 ming baravar oshdi. 90-yillarning oxiriga kelib inflyatsiya sur'atlari birmuncha pasaydi va-yiliga 30–86 %ni tashkil qildi.

Shuningdek, 90-yillarda Rossiya iqtisodiyotida dollarizatsiya jarayoni ham avj oldi. Aholi qo'lidagi dollarlar qiymati naqd pul massassi qiymatiga deyarli tenglashib qoldi. Xorijiy valyuta jamg'arish vositasi vazifasi bilan birgalikda to'lov vositasi vazifasini ham bajardi. Bu esa milliy pul birligini barqarorlashtirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

1990-yillarning oxiriga kelib iqtisodiy vaziyat o'zgara boshladi. Siyosiy holatning barqarorlashuvi iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratdi. Misol uchun, 1990–2000-yillarda Rossiyada YaIM hajmi yiliga o'rtacha 4,8 %ga pasaygan bo'lsa, 2000–2004-yillarda o'rtacha 6,1 %ga o'sdi.

Iqtisodiyotning tiklanishi davrida, ya'ni 2000–2004-yillarda ichki talabning YaIM dinamikasiga ta'siri kuchayib bordi. Ishlab chiqarishda talabning o'sishi jami talab tarkibida uy xo'jaliklari ulushining pasayishiga olib keldi. Uy xo'jaliklarining iste'moli 1999-yildagi 65 %dan 50 %gacha qisqardi. Ammo uy xo'jaligi iste'molining tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining yetakchi o'rni saqlanib qoldi. Aholi iste'moli miqdori va tarkibiga o'rtacha daromadning past darajasi salbiy ta'sir ko'rsatdi. Aholining real daromadi 2004-yilda 1990-yilga nisbatan 66 %ga, daromad miqdori yashash minimumidan past bo'lgan aholining ulushi 18,0 %ga yetdi. Bu davrda aholi daromadlarining detsil koeffitsiyenti bo'yicha farqlanishi 15 baravarni tashkil qildi.

2000-yilda Rossiyaning iqtisodiy rivojlanishiga davlat moliyasining mustahkamlanib borishi xos bo'lgan. Davlat byudjeti ijobiy saldoga ega bo'lib, turli yillarda YaIM ning 0,3 %dan 7 %gacha qismini tashkil qildi. Ammo iqtisodiyotda inflyatsiya darajasining yuqori sur'atlari saqlanib qoldi. Rossiyada 2000–2005-yillarda inflyatsiyaning o'rtacha yillik darajasi 17 %ni tashkil qildi.

Shuningdek, 2000-yillarda Rossiya milliy valyutasi — rublning ayirboshlov kursi mustahkamlanib bordi. Bu ko'rsatkich birinchi o'rinda jahon bozorida mineral resurslar narxlarining keskin o'sib borishiga ta'sir ko'rsatdi. Natijada Rossiyaning valyuta zaxirasi keskin o'sib, davlatning tashqi qarzi esa qisqarib bordi.

2004-yilga kelib sanoat tarkibida yoqilg'i energetikasi tarmog'ining ulushi 21,4 %ni tashkil qildi va yetakchi o'rinni egalladi. Mashinasozlik tarmog'i ikkinchi

o'ringa tushib qoldi. 1990-yilda bu tarmoqning ulushi 30,3 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2004-yilga kelib bu ko'rsatkich 18,6 %gacha tushdi. Oziq-ovqat sanoatining ulushida ham qisqarish kuzatildi va 2004-yilga kelib, bu tarmoqning jami sanoat mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushi 13,2 %ni tashkil etdi.

Rossiya iqtisodiyotidagi bunday ijobiy tarkibiy o'zgarishlar 2008-yilga qadar davom etdi. 2008-yilning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya iqtisodiyotiga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Tashqi va ichki omillar ta'siri ostida Rossiya iqtisodiyotida ishlab chiqarishning keskin pasayishi kuzatildi.

14.1.1-jadvalda Rossiya iqtisodiyotining 1993–2013-yillardagi rivojlanish dinamikasi keltirilgan.

14.1.1-jadval

Rossiya makroiqtisodiy rivojlanishining ko'rsatkichlari dinamikasi (1990-yilga nisbatan %da)

	1993-y.	1995-y.	1998-y.	2000-y.	2005-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2013-y.
Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish	64,9	49,7	46,2	54,2	71,2	82,1	73,2	78,8	89,1
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish	82,7	67,0	56,0	62,8	73,1	86,7	87,7	78,9	92,3
Asosiy kapitalga investitsiyalar	44,9	30,7	21,0	25,9	41,5	65,3	54,7	56,1	68,6
Aholi ixtiyoridagi daromad	51,1	40,0	32,8	36,7	63,3	82,9	84,3	89,0	99,5

Manba: Нешитой А. С. Императив смены экономического курса. //Бизнес и банки, №08 (1037) март 2011. С. 1.

14.4.1-jadval ma'lumotlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarni olish mumkin:

- sanoat va qishloq xo'jaligida 1990-yildagi ishlab chiqarish hajmi darajasi hali tiklanmagan. Yalpi ishlab chiqarish 2009-yilda sanoatda 73,2 %ga tiklangan bo'lsa, qishloq xo'jaligida 87,7 %ga tiklangan;
- jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Rossiya iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu inqiroz ta'sirida Rossiya sanoatida 1990-yilga nisbatan tiklanish jarayoni to'xtab qolgan bo'lsa, qishloq xo'jaligida tiklanish sur'atlari pasaydi;
- asosiy kapitalga sarflanayotgan investitsiyalarda keskin o'zgarishlar kuzatildi. Misol uchun, 2000-yilga qadar bu ko'rsatkich qisqarib borgan bo'lsa, 2000-yildan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qadar o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. 2009-yilda inqiroz ta'siri ostida Rossiya iqtisodiyotida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi keskin qisqardi;
- hozirda Rossiya iqtisodiyotida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning o'sib borishi kutilmoqda;
- aholi ixtiyoridagi daromad ko'rsatkichi 1998-yildan boshlab o'sib bordi va bu ko'rsatkich 2013-yilda 1990-yilga nisbatan deyarli tenglashdi.

14.2. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Rossiya iqtisodiyotiga ta'siri va inqirozga qarshi choralar dasturi

Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz Rossiyaning makroiqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 2008–2009-yillarda bu inqiroz ishlab chiqarish miqyosi va aholi

turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu davrda Rossiyaning qiyin iqtisodiy va ijtimoiy holatga tushib qolishiga tashqi omillar sabab bo'ldi. Ammo mamlakat ichki iqtisodiyotidagi kamchiliklar ham inqirozning salbiy ta'sirining yanada kuchayishiga olib keldi.

Fikrimizcha, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Rossiya iqtisodiyotiga ta'siri quyidagi tashqi omillar bilan izohlanadi.

Birinchidan, Rossiyaning eksport tovarlariga jahon bozoridagi talabning keskin qisqarishi. Rossiya eksportida neft mahsulotlari, metallar va boshqa xomashyo resurslari yetakchi mavqega ega. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi dunyo bozorida ushbu tovarlarga bo'lgan talabning keskin qisqarishi va jahon xomashyo bozorlaridagi narxlarning pasayishiga olib keldi. Tashqi savdodan keladigan valyuta tushumlarining qisqarishi mamlakat to'lov balansida salbiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi, davlat byudjeti daromad qismi tushumlarini keskin kamaytirdi. Bularning barchasi rubl ayirboshlov kursining devalvatsiyasini keltirib chiqardi. Jumladan, Rossiyada bir AQSh dollari kursi 2008-yil 16-iyulda 23,12 rublga teng bo'lgan bo'lsa, 2009-yil 19-fevralda 36,42 rublga tenglashdi, ya'ni yetti oy ichida rubl kursi 57,5 %ga devalvatsiya bo'ldi. Yevroning bu davrdagi kursi 34,08 rubldan 46,84 rublgacha oshdi — devalvatsiya darajasi 37,4 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, jahon bozori konyunkturasidagi keskin vaziyat Rossiyaning asosiy eksportyor korxonalari va tarmoqlarining rivojlanish dinamikasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Tovar eksport qiluvchi korxonalar daromadlarining keskin qisqarishi ularni investitsiya dasturlarini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. Bu, o'z navbatida, mazkur dasturlarni amalga oshirishga ko'maklashuvchi tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib keldi.

Ikkinchidan, jahon moliya bozorlaridagi pasayish va likvidlik bilan bog'liq muammolar. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida likvid vositalar taklifining keskin qisqarishi Rossiya korxonalarida pul bozori dastaklaridan foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo'ydi. Bu holat Rossiya ichki bozorida kredit olish imkoniyatlarining kamayishi va kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining o'sishiga olib keldi.

Inqirozga qadar Rossiya korxonalari qayta kreditlash[1] strategiyasidan keng foydalanishgan. Inqiroz sharoitida bu strategiyani qo'llash imkoniyati keskin cheklandi. Shu sababli likvidlik inqirozining ta'siri natijasida Rossiyaning aksariyat yirik korxonalari va banklari og'ir moliyaviy holatga tushib qoldi.

Uchinchidan, Rossiya iqtisodiyotidan xorijiy kapitalning chiqib ketishi. Hozirgi inqiroz sharoitida 1997-yilda ro'y bergan Janubi-Sharqiy Osiyodagi moliyaviy inqirozdagi kabi xorijiy kapital rivojlanayotgan bozorlarni jadal sur'atlar bilan tark eta boshladi.

Rossiyadagi makroiqtisodiy holatning yomonlashuvi xorijiy investorlarga kapitalning mamlakat iqtisodiyotidan chiqishiga unday boshladi. Natijada Rossiya fond bozorining hajmi 4,5 baravarga qisqardi. Misol uchun, RTS indeksi 2008-yilda erishgan maksimal qiymatdan (2450) minimal qiymatgacha (550) pasaydi. Fond bozoridagi inqiroz Rossiyaning yirik korxonalari kapitallashish darajasining pasayishi va xorijiy kapitaldan foydalanish imkoniyatlarining keskin cheklanishiga olib keldi.

Rossiya iqtisodiyotiga yuqorida keltirilgan tashqi omillardan tashqari mamlakatda mavjud ichki nomutanosibliklar va omillar sabab bo'lgan. Bu omillarga quyidagilarni kiritish mumkin.

1 Qayta kreditlash deganda eski kreditlar bo'yicha qarzlarni qaytarish uchun yangi kreditlardan foydalanish tushuniladi.

1. «Uzoq muddatli» pullardan kam miqdorda foydalanish. Rossiyada jamg'ariladigan pensiya tizimi rivojlanmagan va zamonaviy sug'urta tizimi ham mavjud emas. Payli fondlar nisbatan kech shakllanganligi sababli ushbu fondlar inqirozga qadar yetarlicha moliyaviy resurslarni yig'ib olishga ulgurmagan. Yuqorida qayd etilganlarning barchasi Rossiyada qisqa muddatli pullardan keng foydalanishga, likvid vositalar taqchilligiga, moliya tizimi va real sektorning beqarorlashuviga olib keldi.

2. Rossiya fond bozorida xorijiy kapitalning yetakchi mavqega egaligi. Rossiyada moliyaviy inqirozning boshlanishi 2008-yilning avgust oyida xorijiy investorlarning chayqovchilik kapitalini ommaviy olib chiqib ketishlari bilan bog'liq. Janubiy Osetiya va Abxaziyadagi keskin, urush vaziyati sharoitida mamlakatdan 35 mlrd. dollar chiqib ketdi va bu Rossiya fond bozorlari ko'rgan eng katta talafot bo'ldi. 2008-yilda Rossiyadan chiqib ketgan kapitalning umumiy qiymati 130 mlrd. dollarni tashkil etdi.

3. Xususiy sektor tashqi qarzining iqtisodiy xavfsizlik me'yorlaridan yuqori bo'lishi. Xorijdan katta hajmdagi kapitalning korporativ sektorga kirib kelishi natijasida bu sektorning tashqi qarzi jadal sur'atlar bilan o'sib bordi. Oxirgi uch yil ichida Rossiyada davlatning tashqi qarzi keskin qisqargani holda, ushbu davrda korporativ sektorning tashqi qarzi o'sib bordi. Inqiroz boshida korporativ sektorning tashqi qarzi 5055 mlrd. dollarni tashkil etdi va u Rossiya YaIM ning 34 %ga teng bo'ldi. Bundan tashqari, korporatsiyalar o'z qarzlarini qaytarish maqsadida yangi kreditlar olishdi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida likvid vositalarning kamayishi kuzatiladi. Shu sababli Rossiya korporatsiyalari yangi kreditlar ola olmadi va eski kreditlarni qaytarishda qator qiyinchiliklarga duch kelishdi. Natijada, xususiy sektorning tashqi qarzi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Rossiya iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishida asosiy katalizatorga aylandi. 2009-yilning oxirigacha Rossiya korporatsiyalarining xorijga qaytarishi kerak bo'lgan qarzi 160 mlrd. dollardan oshib ketdi.

4. Iqtisodiyotning real sektoridagi tarkibiy nomutanosibliklar. Sanoat tarmoqlarining tarkibiy tahlili natijalariga binoan xomashyo tarmoqlari, shu jumladan dastlabki ishlov berish bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarning hissasiga yalpi ishlab chiqarishning 60 % to'g'ri keladi. Sanoat tarmoqlarining ulushi esa 20 %ni tashkil qiladi. Umuman olganda, jahon bozorida Rossiya qator xomashyo tovarlari eksporti bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallaydi. Misol uchun, tabiiy gaz va neft qazib chiqarish bo'yicha birinchi, polimateriallar ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi, ishlov berilgan cho'yan bo'yicha uchinchi, po'lat ishlab chiqarish, qora metall tayyor prokati, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish bo'yicha to'rtinchi, temir rudasini qazib chiqarish bo'yicha beshinchi o'rinlarni egallaydi.

Rossiya sanoatining tarkibiy tuzilishi — bu mamlakatning tashqi savdosi tarkibida o'z aksini topgan. Milliy eksportning 2/3 qismidan ko'prog'i mineral xomashyo va yarimfabrikatlar eksportiga to'g'ri keladi. Ayniqsa, energoresurslarning, qora va rangli metallarning, o'g'it va o'rmon xo'jaligi mahsulotlarining Rossiya eksportidagi ulushi yuqori. Tabiiy gaz, olmos, alyuminiy, nikel, azotli o'g'itlar eksporti bo'yicha Rossiya jahon iqtisodiyotida birinchi o'rinni egallasa, neft va neft mahsulotlari, elektroenergiya va qora metall prokatining eksporti bo'yicha uchinchi-to'rtinchi o'rinlarni egallaydi.

5. Inflyatsiyaning yuqori sur'atlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qadar Rossiyada inflyatsiya darajasi 13 %ga yetgan edi. Inflyatsiya sur'atlarini pasaytirishga qaratilgan monetar siyosat, xomashyo eksportidan olingan valyuta sterilizatsiyasi samara bermadi.

6. Byudjet xarajatlarining yuqori sur'atlar bilan o'sishi. Oxigi yillarda Rossiyada byudjet xarajatlarining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 35 %ni tashkil etdi. Bu holat 2003–2007-yillar va 2008-yilning birinchi yarmida katta miqdorda xorijiy valyutaning oqib kelishi bilan bog'liq bo'lsa, boshqa yillarda davlatning yuqori darajadagi ijtimoiy va iqtisodiy majburiyatlari bilan bog'liq bo'lgan. 2008-yilda Rossiya Federal byudjet xarajatlari YaIM ning 2,2 % miqdorida o'sdi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Rossiya boshqa mamlakatlar kabi keng miqyosli byudjet ekspansiyasini qo'llashga majbur bo'lishi byudjet xarajatlarining yanada oshib borishiga olib keldi.

7. Monetar siyosat. Rublning defitsiti Rossiyadagi inqirozning asosiy sababi va muammosidir. Rossiya iqtisodiyotining monetizatsiya darajasi yuqori emas va bu ko'rsatkich 2009-yilda 40 %ni tashkil qilgan. Rossiyaning ayrim hududlarida banklar aktiv faoliyat ko'rsatmaydi.

Rossiya iqtisodiyotida monetizatsiya darajasining past bo'lishi ko'p jihatdan mamlakatning Markaziy bank siyosati bilan bog'liq. Rossiya Markaziy banki inflyatsiyaga qarshi kurash maqsadida pul massasini qisqartirishga harakat qiladi. Shu bilan birga Rossiya bank tizimi boshqa mamlakatlarga nisbatan kichik. Misol uchun, sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda bank tizimi aktivlarining YaIM ga nisbati 100 %ni tashkil qilsa, Rossiyada bu ko'rsatkich taxminan 61 %ga teng.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida boshqa mamlakatlarning Markaziy banklari pul emissiyasini oshirish hisobiga makroiqtisodiy subyektlarning iqtisodiy faolligini oshirishga harakat qilishadi. Rossiya Markaziy banki esa XVF tavsiyalariga rioya qilib, pul massasini qisqartirish va cheklovchi pul-kredit siyosatini qo'llash orqali inflyatsiyaga qarshi kurashadi. Monetar siyosatdagi o'zgarishlar mamlakat banklari va tashkilotlari likvidligining minimal darajagacha pasayishiga olib keldi. Bu esa moliyaviy beqarorlik, talabning qisqarishiga shart-sharoit yaratdi va inflyatsiya sur'atlarining o'sib borishiga sabab bo'ldi.

8. Iqtisodiyotning «qizib ketganligi». Iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash natijasida Rossiya iqtisodiyotining qizib ketishi quyidagilarda namoyon bo'la boshladi:

- davlat xarajatlarining ratsional chegaradan o'tib ketishi;
- iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan birga inflyatsiya darajasi sur'atlarining ham o'sib borishi;
- xorijiy kapitalni jalb etish sur'atlarining keskin o'sishi;
- importning jadal sur'atlar bilan o'sishi. 2007-yilda ichki iste'molning yarmidan ortig'i import hisobiga qondirildi;
- ish haqi o'sish sur'atlarining mehnat unumdorligi o'sish sur'atlariga nisbatan yuqori bo'lishi;
- malakali ishchilar yetishmasligining ortib borishi;
- sanoat mahsulotlari narxlarining keskin o'sishi. 2007-yilda sanoat mahsulotlari narxlarining o'sish sur'atlari iste'mol tovarlari narxlarining o'rtacha o'sish sur'atlaridan 2 baravar yuqori bo'ldi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Rossiyaning iqtisodiy rivojlanish istiqbollari ko'p jihatdan amalga oshirilayotgan inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturining samaradorligiga bog'liq. Ushbu dasturning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- inqirozga qarshi chora-tadbirlar, asosan, byudjet siyosati dastaklaridan iborat. Byudjet xarajatlarining ortib ketishi byudjet kamomadining oshishiga olib keladi va shu orqali mamlakatni moliyaviy beqarorlik holatiga olib kelishi mumkin;
- real ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash maqsadida Rossiya hukumati tomonidan keng miqyosli soliq imtiyozlari joriy qilindi. Qabul qilingan soliq imtiyozlari,

asosan, bevosita soliqlarga tegishlidir. Bilvosita soliqlarning kamaytirilmaganligi iste'molchilar xarid qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Chunki bevosita soliqlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'lansa, bilvosita soliqlar iste'molchilar tomonidan to'lanadi. Bu esa yalpi talabning kamayishiga olib kelishi mumkin;

- kredit tizimini qo'llab-quvvatlash maqsadida hukumat tomonidan tijorat banklariga katta miqdordagi moliyaviy resurslar ajratildi. Ammo bu resurslardan foydalanish qattiq nazoratga olinmaganligi uchun banklarning kredit berish faoliyatida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmadi. Rossiya tijorat banklari davlat tomonidan ajratilgan resurslarni, asosan, qat'iy valyuta xarid qilishga sarflashdi;
- Rossiyada davlat va banklar tomonidan yirik korxonalarga bevosita moliyaviy yordam ko'rsatildi. Ammo bu yordamning samaradorligi past darajada deb baholanmoqda. Chunki ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy muammosi moliyaviy resurslar yetishmasligida emas, balki iqtisodiy mexanizmlarning amal qilish tamoyillari buzilganligidan iborat. Bundan tashqari, bir qator korxonalarning samaradorligi inqirozdan oldin ham past darajada bo'lgan. Bunga Rossiya avtomobilsozligi yorqin misol bo'la oladi. Bunday sharoitda qo'shimcha moliyaviy yordamsiz korxonalarning samaradorligini oshirib bo'lmaydi;
- milliy valyutani bosqichma-bosqich devalvatsiya qilish. Bu siyosat aholiga valyuta risklaridan sug'urtalanish imkoniyatini berdi va rublning devalvatsiyasi orqali Rossiya hukumati importni cheklash va eksportni qo'llab-quvvatlashga harakat qildi. Boshqa tarafdan, devalvatsiyaning sekinlik bilan amalga oshirilishi moliya bozoridagi vaziyatni murakkablashtirdi va mamlakatning oltin-valyuta zaxiralarining keskin kamayishiga olib keldi. Misol uchun, Rossiyaning oltin-valyuta zaxiralari 2008-yil 1-avgustdan 2009-yil 1-martgacha 35,7 %ga kamaydi, ya'ni 7 oy davomida valyuta kursini barqarorlashtish uchun 212,8 mlrd. dollar sarflandi. 2009-yilda esa Rossiya milliy valyutasi qadrining o'sishi kuzatildi va 2009-yil 19-fevraldan 2009-yil 19-noyabrgacha rubl kursi bir AQSh dollariga nisbatan 36,42 rubldan 28,71 rublgacha pasaydi.

Rossiyaning moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan chiqishi va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash ustun darajada hozirda amalga oshirilayotgan modernizatsiya siyosatining samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

Rossiya iqtisodiyotini modernizatsiyalash ikki muhim komponentni o'z ichiga oladi: a) mamlakat ichida innovatsion va texnologik kashfiyotlar, yangiliklarni yaratish; b) iqtisodiyotning real sektorida foydalanish uchun yuqori texnologiya va uskunalarni samarali import qilish. Mamlakatda innovatsion faoliyat rivojlana borgan sari innovatsiyani import qilishdan ichki ishlab chiqarishga o'tish kerak. Texnologiyaning yirik iste'molchisidan, texnologiya sotiladigan bozordan jahon bozoriga global yuqori texnologiya yetkazib beruvchi mamlakatga aylanish zarur.

Rossiya hukumatining fikricha, iqtisodiyotni modernizatsiyalash g'oyasi quyidagi besh ustuvor yo'nalishlarga qaratilgan:

- samarali yoqilg'i va yangi turdagi yoqilg'ini ishlab chiqarish;
- tibbiyot texnologiyalari va farmatsevtika;
- yadro energetikasi;
- informatsion texnologiya;
- kosmos va telekommunikatsiya.

Modernizatsiyalash dasturining pirovard samarasi ustun darajada jamiyat elitasining innovatsion o'zgarishlar jarayoniga real jalb etilishiga bog'liq. Ushbu siyosatning muvaffaqiyati davlatning biznes va jamiyat bilan hamkorligi darajasiga bog'liq.

Rossiyadagi modernizatsiyalashning maqsadi aholining ijodiy va tadbirkorlik qobiliyatini to'liq namoyon etuvchi, hamma uchun baravar imkoniyat yaratuvchi iqtisodiy muhitni, raqobatbardosh, diversifikatsiyalashgan iqtisodiyotni yaratishdir.

Rossiyani modernizatsiyalash — bu mamlakatni yangi industrlashtirishdan iborat bo'lib, asosiy fondlarni tubdan yangilash, xarajatlarni optimallashtirish, zamonaviy texnologiya va boshqaruvni faol joriy etish asosida uni dunyodagi eng yirik sanoat mahsulotini eksport qiluvchi 10 ta mamlakat qatoriga qo'shishni ta'minlashdan iborat. Modernizatsiyalash muvaffaqiyatini belgilab beruvchi ko'rsatkich sifatida mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshlik darajasi xizmat qilishi lozim. Shunday qilib, mamlakatning istiqboldagi rivojlanish strategiyasi innovatsion rivojlanish va modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari bo'lib qoladi.

Rossiyada yangi industrializatsiya strategiyasi mamlakatda sanoatning yangi bazasini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar, qarorlar, shart-sharoitlar va institutlar tizimini yaratishga qaratilgan. Yangi industrializatsiya dasturlari doirasida reindustrializatsiya bosqichini alohida ajratish lozim. Ushbu bosqich hozirga qadar davom etayotgan deindustrializatsiya jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqishda bog'lovchi bosqich bo'lishi, shuning uchun yangi industrializatsiyani reindustrializatsiya bilan qarama-qarshi qo'yish kerak emasligi ta'kidlanmoqda. Ushbu jarayonlar mazmunan bir xil bo'lib, biri-birini to'ldiruvchi o'zaro bog'liq bosqichlar hisoblanadi.

Rossiyada 1990-yillardayoq iqtisodiyot tarkibini qayta o'zgartirish taklifi kiritilgan bo'lsa-da, oxirgi yigirma yil ichida iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish tarkibini yaxshilash bo'yicha jiddiy islohotlar o'tkazilmagan. Shu sababli iqtisodiyot tarkibini qayta o'zgartirish yoki iqtisodiyotni modernizatsiyalash emas, balki mamlakatda sanoatni qaytadan tiklash yoki reindustrializatsiya jarayonini amalga oshirish zarur.

1990-yillarda Rossiyada sanoatning asosiy fondlari bazasi jismoniy va a'naviy jihatdan eskirib, ishlab chiqarishni kompyuterlashtirish, robotlashtirish va avtomatlashtirish talablariga javob bermay qoldi. Misol uchun, mashinasozlik sanoatida asosiy fondlarning eskirish darajasi 50 %ga, ishlab chiqarishning boshqa sohalarida esa 70 %ga yetdi.

Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish mehnat unumdorligini oshirishning asosiy mezonlaridan hisoblanadi. Bu borada asosiy kapitalning aktiv qismini tashkil etuvchi mashina va asbob-uskunalarning o'rtacha yoshi muhim ko'rsatkich hisoblanadi va quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil etiladi:

a) asosiy kapitalning aktiv qismidagi mashina va asbob-uskunalarning o'rtacha yoshi;
b) ularning muayyan yosh guruhlaridagi ulushi.

Ushbu ko'rsatkichlar asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish tiplarini tavsiflashda qo'llaniladi va ularga ishlab chiqarish, mashina va asbob-uskunalarni sotib olishning yillik dinamikasi o'zgarishlari jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Asosiy kapitalning aktiv qismini takror ishlab chiqarishning ijobiy (pozitiv), mo'tadil (normal) va salbiy (negativ) tiplari ajratiladi. Ijobiy tipdagi innovatsiyalarga asoslangan investitsiyalar ulushi yuqori darajada rivojlangan iqtisodiyotlarga xos bo'lib, mashina va asbob-uskunalar o'rtacha yoshining (6–8-yil) pastligi va 10-yilgacha xizmat qilgan uskunalar ulushining yuqoriligi (55–85 %) bilan tavsiflanadi. Vaholanki, innovatsion iqtisodiyot uchun mashina va asbob-uskunalarning o'rtacha yoshi 8–10-yildan oshmasligi lozim. Mo'tadil tip iqtisodiyotda jiddiy tizimli muammolar bo'lmagan, rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo'lib, ishlab chiqarish texnikasining o'rtacha yoshi 9–11-yilga teng va 10-yilgacha xizmat qilgan asbob-uskunalarning asosiy kapitalning aktiv

qismidagi ulushi 40–60 % atrofida bo'ladi. Salbiy tip esa iqtisodiyoti past sur'atlarda rivojlanayotgan, investitsiya faoliyatida muammolar mavjud mamlakatlar uchun xos bo'lib, 12–15-yil va undan ortiq muddat xizmat qilgan mashina va asbob-uskunalarning asosiy kapitaldagi ulushining yuqoriligi va 10-yilgacha xizmat qilgan mashina-uskunalar ulushining pastligi (30–40 %) bilan tavsiflanadi[1].

Tahlillar ko'rsatishicha, Rossiya sanoatida asosiy kapitalning aktiv qismini takror ishlab chiqarish salbiy tip bo'yicha rivojlanmoqda. Misol uchun, 2000-yilda asosiy kapitalning faoliyat turlari bo'yicha hisoblangan o'rtacha yoshi 15,7-yilni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich 2005–2006-yillarda 14,4-yilgacha qisqargan. Rossiya sanoatida qo'llanilayotgan mashina va asbob-uskunalar yoshining qisqarishi 6–10 yoshdagi texnika ulushining 4 pp., 11–15 yoshdagilarning ulushi 10 pp., 16–20 yoshdagilarning 1 pp. ga o'sishi va 20 yoshdan yuqoridagilar ulushining 15 pp. ga qisqarishi bilan izohlanadi. Ammo 5-yilgacha xizmat qilgan mashina va asbob-uskunalar ulushi bu davrda o'zgarmasdan qolgan.

Rossiya sanoati tarkibida mashinasozlik sanoati ulushining qisqarishi texnologik qoloqlikni keltirib chiqardi. Texnologik qoloq asosiy kapital asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar tabiiy ravishda o'zining sifati, material, kapital, energiya sig'imkorligi, ishlab chiqarish xarajatlari bahosi innovatsiyani o'zida mujassamlashtirish nuqtayi nazaridan raqobatbardosh bo'la olmaydi. Misol uchun, 1990–2009-yillarda Rossiya sanoatida band bo'lganlarning o'rtacha yillik soni 9,5 mln., shu jumladan mashinasozlik sanoatida 7 mln. kishiga qisqargan. Rossiyaning 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga muvofiq mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirish rejalashtirilgan.

Rossiyada quyidagilar uzoq muddatli iqtisodiy siyosatning asosiy vazifalari sifatida belgilangan[2]:

- texnologik modernizatsiya — 2020-yilgacha 25 millionta yuqori mehnat unumdorligiga ega ishchi o'rinlarini yaratish. Ushbu vazifa Rossiya mintaqalari faoliyatini baholashda asosiy mezon sifatida qabul qilingan mavjud ishchi o'rinlarini saqlab qolish va ishsizlikning past darajasini ta'minlash kursiga mos kelmaydi;
- iqtisodiy modernizatsiya — iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, Rossiya iqtisodiyotini jahon energetika bozorlari narx konyunkturasi o'zgarishlariga bog'liqligini susaytirish. Ushbu vazifa neftgaz taqchilligini pasaytirish va tadbirkorlik muhitini sifat jihatdan yaxshilashni taqozo etadi;
- ijtimoiy modernizatsiya — Rossiyada o'rta sinfni yetakchi tabaqaga aylantirish, sog'liqni saqlash va pensiya tizimining samaradorligi va adolatliligini keskin oshirish;
- harbiy-sanoat sohasini modernizatsiyalash;
- siyosiy modernizatsiya — xalqaro standartlarga mos keluvchi siyosiy va iqtisodiy erkinlikni ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning innovatsion yo'li bo'yicha harakatlanishni ta'minlab beruvchi yangi sanoatlashish siyosati. Investitsiyalar hajmini 2015-yilgacha yalpi ichki mahsulotga nisbatan 25 %ga, 2018-yilga borib esa 27 %ga yetkazish. 2015-yilga qadar kapital qo'yilmalar hajmini 2011–2012-yillardagi

1 Корнев А. Об обновлении активной части основного капитала производственной сферы. //Экономист, №1, 2013. С. 50.

2 Амосов А. Новая индустриализация: связь политики и идеологии. //Экономист, №8, 2013. С. 33; Мау В. Между модернизацией и застоем: экономическая политика 2012 года. //Вопросы экономики, №2, 2013. С. 19..

kapital qo'yilmalarning haqiqiy hajmidan 2 baravarga oshirish zarur. Bundan tashqari kapital qo'yilmalar tarkibini ham o'zgartirish lozim. Ushbu holat jami investitsiyalar fondida sanoat va iqtisodiyotning real sektori bilan bog'liq bo'lmagan tarmoqlar ulushining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Rossiya iqtisodiyotini modernizatsiyalash amaliyoti ko'rsatishicha, modernizatsiya jarayonlariga to'sqinlik qiluvchi qator muammolar mavjud. Ushbu muammolar tizimli xarakterga ega va ularni bartaraf etish bo'yicha maxsus chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi. Birinchidan, modernizatsiyaga talabning yo'qligi. Rossiyada ijtimoiy guruhlarning aksariyat qismi modernizatsiya jarayonlarini to'liq qo'llab-quvvatlamayotir. Modernizatsiyaning assoiy tashabbuskori sifatida davlat davlat korporatsiyalari va boshqa davlat institutlari yordamida modernizatsion va innovatsion faollikni rag'batlantirishga harakat qilmoqda. Ammo modernizatsiya jarayonlariga nisbatan iqtisodiy agentlarning real talabi shakllanmas ekan modernizatsiyani amalga oshirish mumkin emas. Ikkinchidan, Rossiyada «raqobatbardoshlik tuzog'i» yaqqol ko'zga tashlanadi, ya'ni mehnat qiymatining qimmatligi investitsion faollikni ta'minlab beruvchi institutlar faoliyatining samarasizligi bilan mos kelmaydi. Ushbu tuzoqdan chiqib ketish uchun investitsion faollikni ta'minlab beruvchi institutlar faoliyatini ishchi kuchi darajasiga yetkazish yoki ishchi kuchi mazkur institutlar darajasiga mos keltirilishi zarur.

14.3. Rossiya iqtisodiyotining xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni va rivojlanish istiqbollari

Rossiya iqtisodiyoti xalqaro mehnat taqsimotida o'ziga xos o'rin egallashiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- korporativ strategiya va amaliyot sohasi — investitsiya salohiyati, tovar dizayni, yuqori qo'shilgan qiymat zanjirining mavjudligi;
- tadbirkorlik muhiti — sifatli ilmiy tadqiqotlar, rivojlangan temiryo'l infratuzilmasi, yuqori malakali ilmiy va muhandis xodimlarlarning mavjudligi.

Shu bilan birga yuqorida keltirilgan omillarning jahon iqtisodiyotining o'sishiga ta'siri neytral yoki salbiy bo'lgan. Mutaxassislar fikricha, Rossiya iqtisodiyoti uchun energetika, transport, agrar tarmoqlar, texnologiyalar kabi sohalar ustuvor hisoblanadi. Rossiya aviasozlik, kemasozlik, energomashinasozlik va axborot texnologiyalari kabi tarmoqlarda texnologik ustunlikka ega. Rossiya innovatsiya tizimi aviatsiya, raketa-kosmos, elektronika, aloqa vositalari sanoati, radio sanoat, qurol-yarog' ishlab chiqarish, atom kemasozligi, atom energetika majmualari, kimyo va farmatsevtika tarmoqlarini o'z ichiga oladi.

Rossiya xalqaro savdoda faol ishtirok etadi. Uning tashqi savdo kvotasi 50 %dan oshadi. Bu holat Rossiya iqtisodiyotining rivojlanishida tashqi iqtisodiy aloqalar muhim o'rin egallashidan dalolatdir.

2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Rossiya tashqi savdosiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Agar inqirozga qadar jahon savdo aylanmasining 2,0 % Rossiya hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, inqiroz sharoitida uning ulushi 1,4 %gacha pasaydi. Inqiroz ta'sirida mamlakat tashqi savdo aylanmasi 36,2 %ga qisqardi. Rossiyada amalga oshirilgan inqirozga qarshi chora-tadbirlar natijasida 2010-yilda tashqi savdo aylanmasining hajmi tiklanishni boshladi va 2013-yilda yil 867,6, 4 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Rossiyaning oltin-valyuta zaxirasi hajmi tashqi savdoning ijobiy saldosi hisobidan ortib borayotganligini kuzatish mumkin. 2009-yilda Rossiya tashqi savdo saldosi 2008-yilga nisbatan 37,0 %ga qisqargan bo'lsa, 2013-yilda bu ko'rsatkich

179,0 mlrd. dollarni tashkil etdi. O'z navbatida, eksport hajmi 2009-yilda 2008-yilga nisabatan 35,5 %ga pasaygani holda, 2013-yilda 2012-yilga nisbatan 103,0 %ga o'sdi. Bunday holat va o'sish dinamikasi Rossiya importida ham kuzatiladi. Jumladan, Rossiya importi 2009-yilda 35,6 %ga qisqargan bo'lsa, 2013-yilda 2012-yilga nisbatan 100,2 %ga o'sib, 344,3 mlrd. dollarga teng bo'ldi (14.3.1-jadval).

14.3.1.-jadval
Rossiyaning tashqi savdosi aylanmasi dinamikasi, 1995–2013-yy. (mlrd. doll.)

	1995-y.	2000-y.	2005-y.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2013-y.
Tashqi savdo aylanmasi	145	149,9	369,2	468,6	578,2	763,5	495,2	625,4	867,6
Eksport	78,2	103,1	241,5	301,2	351,9	467,6	301,7	396,4	523,3
Import	66,8	46,8	127,7	167,4	226,3	295,9	193,5	229	344,3
Savdo balansi saldosi	11,4	56,3	113,8	133,8	125,6	171,7	108,2	167,4	179,0

Manba: Линецкий А. Ф. Внешнеэкономическая деятельность регионов России в постцентрализованной экономике // Международная экономика №11, 2011. С. 78.; Россия в цифрах 2014. — М., 2014. С. 517.

Rossiyaning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni yoqilg'i-energetika majmuasi bilan belgilanadi. Bu holat uning tashqi savdosida ham o'z aksini topgan. Rossiya eksportida mineral xomashyolar yetakchi mavqega va o'sib borish tendensiyasiga ega. Tahlillar ko'rsatishicha, 1995-yilda Rossiya eksportining tarkibida mineral xomashyolar ulushi 42,5 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda ushbu ko'rsatkich 71,6 %ga teng bo'ldi. Agar jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida xomashyo resurslarining narxi keskin pasaymaganida Rossiya eksporti tarkibida mineral resurslar ulushi yanada yuqori bo'lardi. Rossiya eksporti tarkibida mashinosozlik, asbob-uskunalar va transport vositalarining ulushi kamayib bormoqda. Agar bu turdagi mahsulotlarning Rossiya eksportidagi ulushi 1995-yilda deyarli 10,2 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2013-yilda qator salbiy omillar ta'siri ushbu ko'rsatkich 5,4 %gacha kamaydi (14.3.2-jadval).

14.3.2.-jadval
Rossiya tashqi savdosining tovar tarkibi, jamiga nisbatan foiz hisobida

	Eksport			Import		
	1995-y.	2000-y.	2013-y.	1995-y.	2000-y.	2013-y.
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va qishloq xo'jalik xomashyosi	1,8	1,6	3,1	28,1	21,8	13,6
Mineral xomashyolar	42,5	53,8	71,6	6,4	6,3	2,
Kimyo sanoati mahsulotlari, kauchuk	10,0	7,2	5,8	10,9	18,0	15,8
Yog'och va sellyuloza-qog'oz mahsulotlari	5,6	4,3	2,1	2,4	3,8	2,1
To'qimachilik, to'qimachilik mahsulotlari va poyafzal	1,5	0,8	0,3	5,7	5,9	6,4
Metallar, qimmatbaho toshlar va ulardan yasalgan buyumlar	26,7	21,7	10,5	8,5	8,3	7,1
Mashinalar, asbob-uskunalar va transport vositalari	10,2	8,8	5,4	33,6	31,4	48,6
Boshqa tovarlar	1,7	1,8	1,3	4,4	4,5	4,2

Manba: Россия в цифрах. 2014: Крат. Стат. Сб. /Росстат. — М., 2014. С. 520.

Rossiyaning mashinasozlik, asbob-uskunalar va transport vositalarining jahon bozoridagi ulushi 0,4 %ni tashkil qiladi. Ammo Rossiyaning bu turdagi mahsulotlar eksportining 40 %ni harbiy texnika mahsulotlari tashkil qiladi. Jumladan, 2009-yilda harbiy texnika mahsulotlarining jami mashinosozlik, asbob-uskunalar va transport vositalari eksportidagi ulushi 61,2 %ni tashkil qildi. Rossiyaning harbiy texnika mahsulotlari eksportida aviatsion harbiy texnikaning ulushi yuqori. Bu ko'rsatkich turli yillarda 50 %dan 60 %gacha o'zgarib turadi. Harbiy suv transport vositalarining harbiy texnika eksportidagi ulushi esa 19 %ni tashkil qiladi[1].

Shuni ta'kidlash joizki, harbiy texnika ishlab chiqarish va uni eksport qilish bo'yicha Rossiya jahon bozorida yuqori darajada raqobatbardosh deb hisoblanadi. Uzoq davr mobaynida Rossiya jahon bozorida bu turdagi mahsulotlarning alohida o'rnini saqlab qolmoqda. Uning bu bozordagi asosiy raqobatchilari qatoriga AQSh, Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniyani kiritish mumkin. 2009-yilda jahon bozorida Rossiya harbiy texnika bo'yicha AQSh dan keyingi ikkinchi o'rinni egalladi. Jahon eksportida harbiy texnika bo'yicha AQSh ning ulushi 38 %ni tashkil qilsa, Rossiyaning ulushi 14 %ga teng bo'ldi.

Ammo Rossiya eksportida birlamchi qayta ishlash mahsulotlarining katta ulushi va bunday mahsulotlarning jahon bozori konyunkturasida narxlarning keskin tebranishi Rossiya iqtisodiyotining raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga Rossiyaning bir qator tarmoqlarining va ichki iste'molchilarining importga bog'liqligini kuzatish mumkin. Bu holat ayniqsa mashinasozlik va texnika mahsulotlarining importida keng rivojlangan. Mashinasozlik va texnika mahsulotlarining Rossiya importidagi ulushi 2008-yilda deyarli 53 %ga yetgan. Jahon bozorida narxlarning pasayishi sababli 2013-yilda mashinasozlik va texnika mahsulotlarining Rossiya importidagi ulushi 48,6 %gacha pasaydi. Shuningdek, Rossiya importida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi nisbatan yuqori bo'lib, 2013-yilda oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi 2013-yilda 13,6 %ni tashkil qildi.

Bundan tashqari, fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan tovar va xizmatlar bozorida Rossiyaning ulushi juda ham kam. Rossiyada fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan mahsulotlar eksportining qiymati 2000–2006-yillarda 2 baravar oshganiga qaramasdan, bu turdagi tovar va texnologiyalarning mamlakat eksportidagi ulushi 2,7 %ni tashki qiladi. Bu turdagi mahsulotlarning jahon bozoridagi AQSh ulushi 24,9 %ni, Yevropa Ittifoqining ulushi 15 %ni va Yaponiyaning ulushi esa 13 %ni tashkil qilsa, Rossiyaning ulushi 0,3–0,4 %ga teng. 2009-yilda innovatsion mahsulotlar va texnologiyalarni jahon bozoriga olib chiqish bo'yicha Rossiya 160 ta mamlakat orasida 80-o'rinni egaladi.

Fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan jahon xizmatlar bozorida Rossiyaning ulushi katta emas. Bu ko'rsatkich 1 %dan ham kam. Kompyuter va axborot xizmatlari eksporti hajmi bo'yicha Rossiya Hindistondan 38 baravar, AQSh dan 20 baravar va Xitoydan 4,5 baravar ortda qolmoqda. Ta'lim xizmatlari jahon bozorida esa Rossiyaning ulushi 0,25 ga yetmaydi. «The Economist Intelligence Unite» xulosasiga binoan Rossiya internet ta'limi bo'yicha 55-o'rinni egalladi. Shu sababli eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va uni texnologik yangilash muammosi Rossiya uchun eng dolzarb muammolardan biridir. Ushbu muammoni hal etmasdan Rossiya iqtisodiyotining jahon bozoridagi raqobatbardoshliligini oshirib bo'lmaydi.

Mamlakatning xalqaro kapital migratsiyasidagi o'rnini tahlil qilish uchun bu mamlakatda amalga oshirilgan kapital eksporti va importini ichki investitsiyalari

1 Райская Н., Рощина Л., Сергиенко Я., Френкель А., Мальцева И., Баранов Э. Экономика в 2009–2011 гг. //Экономист, №8, 2010. С. 42.

bilan taqqoslash zarur. 2010-yilda Rossiyada xorijiy investitsiyalar (54 mlrd. doll.) asosiy kapitalga yo'naltirilgan jami investitsiyalarning 12,9 %ni tashkil qildi. Odatda, milliy iqtisodiyoti Rossiya bilan taqqoslanadigan BRIKS ning boshqa mamlakatlarida bu ko'rsatkich kichikroq qiymatni tashkil qilgan. Misol uchun, bu ko'rsatkich Xitoyda 8 %ni, Hindistonda 7 %ni, Braziliyada 15 %ni tashkil qilgan. Jamg'arilgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar qiymati bo'yicha ham Rossiya iqtisodiyoti Xitoy va Braziliya iqtisodiyotlari bilan bir xil darajada turadi. YuNKTAD ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyada bu ko'rsatkich 324 mlrd. doll. ga yetgan bo'lsa, Xitoy va Braziliyada 328 mlrd. dollarni tashkil qildi. Rossiya Banki ma'lumotlariga banoan Rossiyada jamg'arilgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning qiymati 491 mlrd. dollarni tashkil etdi. Rosstat ma'lumotlariga ko'ra, bu investitsiyalarning 75 % Kipr, Lyuksemburg, Antil va Virginiya orollari kabi ofshor markazlar hissasiga to'g'ri keladi (14.3.3-jadval).

14.3.3-jadval

Rossiya iqtisodiyotiga jalb etilgan va chetga chiqarilgan xorijiy investitsiyalar tarkibi, 2010-y.

	Rossiyadan chetga chiqarilgan, jamg'arilgan investitsiyalar, jamiga nisbatan, %da				Rossiya iqtisodiyotiga jalb etilgan, jamg'arilgan xorijiy investitsiyalar, jamiga nisbatan, %da			
	Jami	To'g'ridan to'g'ri	Portfel	Boshqa	Jami	To'g'ridan to'g'ri	Portfel	Boshqa
Jami	100	100	100	100	100	100	100	100
Ofshor mamlakatlar va hududlar	–	–	–	–	–	–	–	–
shu jumladan:								
Kipr	20,7	38,5	19,4	8,9	23,9	26,4	22,7	17,5
Lyuksemburg	11,7	0,6	2,3	19,6	1,6	0,8	0	4,0
Shveysariya	–	–	–	–	9,5	4,4	0,4	25,1
Virgin orollari	2,5	3,5	12,3	1,3	6,8	3,2	28,1	12,4
Xorijiy ofshor tarmog'iga ega mamlakatlar	–	–	–	–	–	–	–	–
shu jumladan:								
Niderlandiya	13,5	1,9	0	10,3	24,8	34,3	1,4	4,1
Buyuk Britaniya	7,2	3,0	50,2	7,8	3,9	4,1	0	4,1

Manba: Булатов А. Россия в международном движении капитала: сравнительный анализ // Вопросы экономики, №8, 2011. С. 70.

Rossiyadagi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning aksariyat qismi yoqilg'i-energetika, oziq-ovqat va savdo tarmoqlarida konsentratsiyalashgan. Shuningdek, kredit-moliya sohasida ham portfel xorijiy investitsiyalar ko'p jamg'arilgan. Albatta, bu ko'rsatkichlar 2009-yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'siri ostida keskin o'zgargan.

Rossiyaning yetakchi TMKlari o'z investitsiyalarini, asosan, Yevropa Ittifoqiga, AQSh ga, MDH mamlakatlariga va ofshor hududlarga yo'naltirishadi. Tarmoq

tarkibi bo'yicha Rossiya TMK lari o'z investitsiyalarini, asosan, yoqilg'i-energetika, metallurgiya, kimyo majmualariga va o'rmon xo'jaligiga yo'naltirishadi. Rossiya TMKlari filiallari uchun bunday ixtisoslashuvning xosligi, ularning bosh korxonalari ham aynan shu tarmoqlarda yetakchilik qilishlari bilan bog'liq.

Har qanday mamlkatning tashqi majburiyatlarining muhim qismini tashqi qarzlar tashkil qiladi. 2008-yilning o'rtalarida bu ko'rsatkich Rossiyada 527 mlrd. dollarni, ya'ni YaIM ning 49 %ni tashkil qilgan. Ammo tashqi qarzlarda davlatning ulushi juda past ko'rsatkichdan iborat bo'lgan. Bu davrda davlatning tashqi qarzi 39 mlrd. dollarga teng bo'lgani holda, Rossiya banklari va korxonalarining tashqi qarzlari 488 mlrd. doll. ga yetgan.

2013-yilda Rossiya iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning hajmi 170,2 mlrd. dollarni tashkil etib, uning 14,4 % Shveysariya, 13,3 % Kipr, 11,1 % Buyuk Britaniya, 10,0 %lyuksemburg hissasiga to'g'ri kelgan.

Shuningdek, Rossiya xalqaro ishchi kuchi migratsiyasida ham o'ziga xos o'rin egallaydi. Mamlakat asosan ishchi kuchini import qiladi. Migrantlar soni bo'yicha Rossiya jahon xo'jaligida AQSh dan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi. Jumladan, 2013-yilda Rossiyada 11,1 mln. immigrant istiqomat qilgan[1]. Rossiya, asosan, ishchi kuchini Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqalaridan jalb qiladi. Mamlakatda ishlayotgan xorijlik ishchilar ulushi qazib chiqarish va qayta ishlash sanoati tarmoqlarida 15,5 %ni, qishloq xo'jaligida 9,1 %ni, transport va aloqa tarmog'ida 4,3 %ni tashkil etdi[2].

Bundan tashqari, Rossiya mehnat resurslarini ham eksport qiladi. Bunda immigrantlarning katta qismi Kipr, AQSh, Malta, Liberiya va Germaniyaga migratsiya qilgan. Mehnat shartnomasi bo'yicha emigratsiya qilgan rossiyaliklarning yarmidan ko'prog'i «qulay bayroqqa» ega dengiz kemalarida ishlash uchun mamlakatni tark etgan.

Rossiya va JST. Rossiyaning JST ga qo'shilishi bo'yicha ishchi guruh hisoboti 2011-yil 16-dekabrda JST vazirlar konferensiyasi tomonidan ma'qullandi. Bu Rossiya va JST o'rtasida 18-yil davomida olib borilgan muzokaralarning yakunlanganligini bildiradi.

JST ga a'zo bo'lish uchun Rossiya hukumati o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oldi:

- hukumat xususiylashtirish dasturining transporantligini ta'minlash majburiyati — hukumat Rossiyadagi xususiylashtirish jarayoni holati to'g'risida har yili JST ga hisobot berishi lozim bo'ladi;
- Rossiyaning tabiiy gaz distribyutorligi bilan bog'liq faoliyati faqat tijorat xarakteriga ega bo'lishi zarur;
- Rossiya «Aeroflot»ga eksport va importning hajmi va yo'nalishiga ta'sir ko'rsatadigan maxsus huquqlarni taqdim etishdan voz kechdi;
- Rossiya shakar bilan savdo qilishni erkinlashtirish maqsadida bu tovarga tegishli tarif rejimini 2012-yilda isloh qilishi kerak;
- mamlakatda tovarlar eksporti va importidan undiriladigan soliq va yig'imlarga qo'shimcha sifatida qo'llaniluvchi va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatini aks ettiruvchi to'lovlar qiymati cheklanishi kerak. Rossiyada bojxona rasmiylashtiruvi uchun to'lovlar 30000 rubl miqdorida cheklab qo'yilishi kutilmoqda;

1 Migration and Development Brief. October 2, 2013. p. 12.

2 Щербакова Е. В 2010 году в России легально трудилось 1641 тысяча иностранных работников. // Демоскоп Weekly, №315–3161.20.12.2008.

- «tovarlarni geografik identifikatsiyalash» rejimini isloh qilish maqsadida Fuqarolik kodeksining 1516-bandiga o'zgartirish kiritilishi zarur. Mutaxassislar fikricha, bu o'zgarish Rossiyada shampan vinosini ishlab chiqarishning to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin;
- Rossiya hukumati 2002-yilda qabul qilingan va hozirda aviatexnika importida qo'llaniluvchi imtiyozli lizing dasturini boshqa tovarlar importida ham qo'llashga ruxsat berishi kerak.

Muzokaralar davomida Rossiyaning boshqa integratsion bloklardagi faoliyati ham har tomonlama o'rganib chiqildi. Rossiyaning yopiq integratsion bloklar qatoriga kiruvchi Bojxona Ittifoqi va Yevroosiyo iqtisodiy hududi kabi tashkilotlarga a'zoligi JST ga kirish jarayonining qiyin kechishi sabablaridan biriga aylandi. 2010-yilda Rossiya hukumati JST ga Bojxona Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamalkatlarning hammasi birgalikda kirishini e'lon qildi. Keyinchalik Rossiya boshqa yo'ldan borishga majbur bo'ldi va hozirda bu sohada quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan:

- Bojxona ittifoqi doirasida Rossiya JST me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan majburiyatlarni o'z zimmasiga olmaydi;
- Bojxona ittifoqida Rossiya deyarli JST agenti vazifasini o'taydi. Chunki Bojxona ittifoqidagi muhokamalarda Rossiya JST a'zolarining takliflarini taqdim etishi kerak bo'ladi.

Rossiya uzoq davom etgan muzokaralarda bojxona bojlarini bosqichma-bosqich isloh etish huquqiga ega bo'ldi. 14.3.3-jadvalda Rossiyaning keyingi 8-yilda bojxona bojlari bo'yicha amalga oshirishi kerak bo'lgan o'zgartirishlari keltirilgan.

14.3.3-jadval

Rossiya importidagi savdo to'siqlarini kamaytirish rejasi

Yil	Oziq-ovqat tovarlari	Stavkalar		Yil	Sanoat tovarlari	Stavkalar	
		Joriy	Yangi			Joriy	Yangi
2012	Mol go'shti	15	0	2013	Dizelli dvigatel	5–10	2–9
2013	Gullar	15	5	2014	Ruda va o'g'it	10	3–6,5
2014	Mevalar	5–10	0–5	2015	Metall prokati va kompyuterlar	10–20	1,5–10
	Sabzavotlar	15–18	10–15	2016	Profyum va bug'li qozonlar	15	7,5
2015	Sut	20–25	10–15	2017	Muzlatkichlar va mototsikllar	20	10–15
	Sharbatlar	15	10	2018	Etilenglikol, portlovchi moddalar	10–20	5,5–6,5
2016	Spirtli ichimliklar	20	12,5	2019	Eski va yangi avtomobillar (5–7-yil xizmat qilgan avtomobillar)	25	20
2017	Pishloq	15–25	0				
2018	Pivo	0,06 yevro	0,018 yevro				
2020	Cho'chqa go'shti	65	25				

Manba: Бутрин Д., Нетреба П., Сапожков О. Обязательства длительного срока хранения. // Коммерсант, №238, 20.12.2011. С. 6.

Demak, Rossiya tashqi savdo siyosatini JST me'yorlariga to'liq o'tkazish uchun 8-yil talab qilinadi. Bu davrda oziq-ovqat mahsulotlarida import bojining keskin pasayishi go'sht va go'sht mahsulotlariga taalluqlidir. Agar 2012-yilda mol go'shti

importidan undiriladigan boj 15 %dan 0 %gacha tushirilsa, 2020-yilga kelib cho'chqa go'shti importidan undiriladigan boj 65 %dan 25 %gacha tushiriladi. Sanoat mahsulotlari importida bojxona bojlari o'rtacha deyarli ikki baravar pasaytiriladi. Bunday o'zgarishlarda Rossiyaning ichki ishlab chiqaruvchilari inqirozga uchramasliklari uchun o'z faoliyatlari samaradorligini oshirishlari kerak bo'ladi. Bu islohotlarning natijasida Rossiyaning jahon bozoridagi o'rni qator tovarlar bo'yicha o'zgarishi mumkin.

Shuningdek, Rossiya JST ga a'zo bo'lish jarayonida bir qator majburiyatlarning shartli ko'rinishiga ega bo'lishga erisha oldi. Misol uchun, qora va rangli metallomlar va mis katodlari bo'yicha muzokaralar boshi berk ko'chaga kirib qolgandi. Shu sababli Rossiyaning JST ga a'zo bo'lishida bu turdagi tovarlar bo'yicha Rossiyaning majburiyati shartli ko'rinishga ega. Aktga binoan, Rossiya JST ga a'zo bo'lgandan keyin yuqorida aytib o'tilgan tovarlar bo'yicha eksport bojlarini oshiradigan bo'lsa, boshqa a'zo mamlakatlar ikki tomonlama va ko'p tomonlama majburiyatlarining bir qismidan voz kechishlari mumkin bo'ladi.

Demak, Rossiya JST ga a'zo bo'lish jarayonida o'z zimmasiga katta majburiyatlarni oldi va shu sababli mamlaktning JST ga a'zo bo'lishi uning keyingi makroiqtisodiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini baholash muammoli masaladir.

14.4. O'zbekiston va Rossiya iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi

O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik aloqalari ikkala mamlakat o'rtasida 1992-yil 20-martda o'rnatilgan diplomatik munosabatlardan keyin boshlandi. O'zbekiston va Rossiya o'rtasida iqtisodiy munosabatlar uzoq muddatli strategik ahamiyatga ega. 1991-yildan hozirga qadar O'zbekiston va Rossiya o'rtasida 160 dan ortiq xalqaro shartnoma va 40 dan ortiq boshqa hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston va Rossiya iqtisodiy aloqalari ikki va ko'ptomonlama kelishuvlar asosida amalga oshiriladi. Ikki tomonlama kelishuvlarning asosini 1992-yil 13-noyabrda qabul qilingan «Savdo munosabatlari to'g'risidagi» kelishuv tashkil etadi.

Rossiya O'zbekistonning strategik savdo hamkorlaridan hisoblanadi. Ikki mamlakat o'rtasida savdo munosabatlari jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. 2000-yildan boshlab o'zaro yillik savdo aylanmasi 1 mlrd. dollardan oshib ketdi. Jumladan, 2000–2013-yillarda O'zbekiston va Rossiya tashqi savdo aylanmasi 7,8 martaga oshdi. O'zbekiston eksportyorlari uchun Rossiya ichki bozori katta ahamiyat kasb etadi. 2013-yilda ikki mamlakat o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 7,840 mlrd. dollarni tashkil etib, O'zbekiston eksportida Rossiyaning ulushi 37,8 %ni, importda esa 21,0 %ni tashkil etdi (14.4.1-jadval).

14.4.1-jadval

O'zbekiston va Rossiya tashqi savdo aylanmasi, mln. doll.

	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2012-y.
Tashqi savdo aylanmasi	1010,3	2062,8	6371,0	7840,0
Eksport	545,5	1027,7	4435,1	5144,7
Import	464,8	1035,1	1935,9	2695,3
Tashqi savdo qoldig'i	80,7	-7,4	2499,2	2449,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi ma'lumotlari.

O'zbekiston Rossiyaga oziq-ovqat mahsulotlari, avtomashinalar, kimyo sanoati mahsulotlari va plastmassa, rangli va qora metallar (qo'rg'oshin, mis, volfram, molibden), kabel, ishlab chiqarishda qo'llaniladigan turli xil texnik vositalar, xizmatlar, paxta tolasi, tabiiy yoqilg'i, neft mahsulotlari, sabzavotlar, gazlama, paxta kalavasi, jun, meva va sabzavotdan qayta ishlangan mahsulotlarni eksport qiladi. Oxirgi yillarda O'zbekiston eksportining tarkibida yengil avtomobillar (1,5–2 marta), meva va poliz ekinlari (5), polietilen (2), tayyor tekstil mahsulotlari (1,4–1,5), transformatorlar (2), past voltli apparatlar (1,5), quvur (1,5), havo transporti (1,7), turizm (1,4) ulushi ortib bormoqda. Misol uchun, 2010-yilda Rossiyaga 74419 ta yengil avtomobil eksport qilingan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2011-yilda 25 % ortib 92778 tani tashkil etdi[1].

O'zbekiston Rossiyadan mexanik uskunalar, xizmatlar, elektr asbob-uskunalar, transport vositalari, yog'och va yog'och mahsulotlari, kauchuk va rezina mahsulotlari, optik asbob-uskunalar, farmatsevtika mahsulotlarini import qiladi.

O'zbekistonda Rossiyaning kapitali ishtirokida 300 dan ortiq ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston va Rossiya o'rtasida ko'plab investitsion loyihalar bo'yicha kelishuvlar imzolangan va amal qilmoqda. Quyidagilar shular jumlasidandir: Ustyurtda geologiya qidiruv ishlarini olib borish loyihasi — 105 mln. doll. («Gazprom» OAJ), Xauzakda Qandim konini o'zlashtirish — 100 mln. doll. («Lukoyl»), «Uzdunrobita» kompaniyasida uyali aloqa tizimini kengaytirish — 98 mln. doll. (MTS).

O'zbekistonda 714 dan ortiq (800 mln. dollardan ortiq ustav fondiga ega) qo'shma va sof Rossiya kapitaliga asoslangan korxonalar faoliyat olib boradi.

O'zbekiston va Rossiya o'rtasida 2014–2019-yillarga mo'ljallangan gumanitar sohada hamkorlik dasturi amalga oshirilmoqda. Jumladan, Toshkentda M. V. Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universitetining, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, I. M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti filiallari faoliyat ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, qishloq xo'jaligi, avtomobil va temiryo'l mashinasozligi sohalarida hamkorlik jadal sur'atlarda rivojlanmoqda.

Asosiy tushunchalar

Gradualizm — bir iqtisodiy tizimdan ikkinchisiga keskin o'zgarishlarsiz, bosqichma-bosqich o'tish qonuniyatlarini o'rganuvchi ilmiy oqim.

«Yangi ruslar» — Rossiyada 1990-yillarda davlat korxonalarining xususiylashtirilishi orqali katta boylikka ega bo'lgan ijtimoiy qatlam.

Yangi asbob-uskunalar — besh yilgacha foydalanilgan asbob-uskunalar.

Qayta kreditlash — eski kreditlar bo'yicha qarzlarni qaytarish uchun yangi kreditlardan foydalanish.

RTS indeksi — Rossiyada 50 ta yuqori kapitallashish darajasiga ega kompaniya qimmatbaho qog'ozlari asosida hisoblanadigan fond indeksi.

Iqtisodiyotning «qizib ketishi» — iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash natijasida davlat xarajatlarining ratsional chegaradan o'tib ketishi, yuqori inflyatsiya darajasi, xorijiy kapital va importning jadal sur'atlarda o'sishi, malakali ishchilar yetishmasligi, sanoat mahsulotlari narxlarining keskin o'sishi.

1 Эксперт, №4, 2012. С. 80.

Nazorat savollari

1. Rossiya iqtisodiyotiga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
2. Rossiya iqtisodiyotining tarkibi qanday?
3. Rossiya iqtisodiy islohotlari gradualizm yoki «falajli davolash» modellarining qaysi biriga taalluqli?
4. Rossiyaning JST ga a'zo bo'lishi mamlakat iqtisodiyotining qaysi tarmoqlariga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin?
5. Rossiya tashqi savdosining tarkibi qanday ko'rinishga ega?
6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Rossiya iqtisodiyotiga ta'sirini baholang.
7. Rossiya hukumatining jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi choralar dasturining ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?
8. O'zbekiston va Rossiya iqtisodiy aloqalarining holati va tarkibiga baho bering.

15-BOB. O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING JAHON XO'JALIGIDAGI O'RNI. O'ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLARNING CHUQURLASHUVI

15.1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning «o'zbek modeli»: mohiyati, prinsiplari va bosqichlari

Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash, samarali tashqi savdo va investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo'jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritildi.

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqeyi muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz Prezidenti I. Karimov tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlarning maqsadi va vazifalari, ularni amalga oshirish yo'llarining aniq hamda to'g'ri ko'rsatib berilganligi bosh maqsad yo'lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo'lishiga imkon yaratdi.

Mustaqil davlatimiz iqtisodiyotini isloh qilish hamda yangilashdan asosiy maqsad respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirishdan iborat, deb belgilandi.

O'zbekistonda ushbu vazifalardan ko'zlangan maqsad mamlakat aholisi uchun yashash va faoliyat ko'rsatishga zarur sharoitlar yaratish, ularning ma'naviy, axloqiy yetukligiga erishish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan so'ng o'zining mustaqil rivojlanish yo'lini tanladi va iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirishga kirishdi. Bu jarayonda qisqa davr mobaynida shunday rivojlanish yo'li uchun poydevor yaratildi. Bunga ko'ra bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyili Respublikamiz Prezidenti tomonidan taklif qilindi.

Taraqqiyotning «o'zbek modeli» quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanishi.
2. Davlat bosh islohotchi, iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori.

3. Qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning baravarligi va hammaning qonunga bo'ysunishi.
4. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalashning ustuvorligi.
5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich va izchil ravishda o'tish, ya'ni islohotlarni inqilobiy sakrashlarsiz amalga oshirish.

Hozirgi kunning eng muhim vazifasi mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida yuz berayotgan islohotlarni yanada yangi pog'onaga ko'tarishdan iboratdir.

Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlaganlaridek, «... ayni paytda biz o'z vaqtida tanlab olgan iqtisodiy taraqqiyot modelining naqadar to'g'ri ekanini va amalda o'zini to'la oqlaganini hayotning o'zi yana va yana tasdiqlab bermoqda»[1].

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillarida MDH dagi boshqa ko'plab mamlakatlardan farqli ravishda, ishlab chiqarish va aholi turmush darajasining keskin pasayib, davlatning ichki va tashqi qarzlari haddan ziyod oshib ketishiga yo'l qo'yilmaslikka erishdi. 1991–1995-yillarda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning pasayishi, MDH davlatlari o'rtasida eng past ko'rsatkich — 18,8 %ni tashkil etdi. Holbuki, ushbu ko'rsatkich Rossiyada — 53 %, Ukrainada — 52 %, Belarusda — 54,6 %, Qozog'istonda esa 75,4 %ga teng bo'ldi.

O'zbekiston iqtisodiyoti 1997–2003-yillarda yiliga o'rtacha 3,8–5,2 % iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan rivojlandi. Qulay investitsiya muhitini yaratish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlarining natijasi sifatida mamlakatimiz iqtisodiyoti 2005-yildan e'tiboran yiliga 7–9 %darajasidagi yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini namoyish qila boshladi (15.1.1-diagramma).

15.1.1-diagramma.

O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot hajmining o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan foiz hisobida)



	1997–2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014*
	4,5	7,7	7	7,3	9,5	9	8,1	8,5	8,3	8,2	8	8,1

* prognoz

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1 Каримов И. А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халкимиз фаровонлигини оширишга хизмат килади. — Т.: «Ўзбекистон», 2011.4-б.

Xarid qobiliyati pariteti (XQP) bo'yicha YaIM 2013-yilda 1990-yilga nisbatan 5,8 barobar, ya'ni 27,1 milliard AQSh dollaridan 156,8 milliard AQSh dollarigacha oshdi (15.1.2-diagramma).

15.1.2-diagramma.
O'zbekistonda YaIM ning o'sish sur'ati va xarid qobiliyati pariteti bo'yicha hajmining o'zgarishi, 1990–2013-yy.



	1990-y.	2000-y.	2013-y.
YaIM, mlrd. Doll. (XQP bo'yicha)	27,1	35,3	156,3
YaIM ning o'sish sura'ti XQP bo'yicha (1990-yilga nisbatan foizda)	100	130	576,8

Manba: Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011–2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: статистик тўплам. — Т.: «Ўзбекистон», 2011.15-б.

Qulay investitsiya muhitining yaratilishi, investitsiyalar oqimining kuchayishi nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish, balki iqtisodiyot tarkibida muhim sifat o'zgarishlarining amalga oshirilishini ta'minladi.

Mamlakatimizda 1994-yilning 1-iyulidan boshlab milliy valyutaning muomalaga kiritilishi, mustaqil budjet-soliq siyosatining amalga oshirilishi, narxlarni erkinlashtirish jarayonining nihoyasiga yetkazilishi va shuningdek, to'lov intizomini mustahkamlash bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar iste'mol narxlari inflyatsiyasini o'rtacha yiliga 7–8 %ga tushirish imkonini berdi, bu esa qulay investitsiya muhitini yaxshilash va investitsiyalarni rag'batlantirishdagi muhim omillardan biri bo'ldi. Qulay investitsiya muhitining yaratilishi, investitsiyalar oqimining kuchayishi asosida iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish va iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarning amalga oshirilishini ta'minladi.

Ma'lumki, bizga sobiq sovet tizimidan bir tomonlama rivojlangan, faqat xomashyo yetishtirishga yo'naltirilgan, paxta yakkahokimligi halokatli darajaga chiqqan, ishlab chiqarish va sotsial infratuzilmasi o'ta qoloq, aholi jon boshiga iste'mol ko'rsatkichi eng past bo'lgan iqtisodiyot meros bo'lib qolgan edi. Shuni e'tiborga oladigan bo'lsak, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish respublikamiz uchun muhim strategik ahamiyatga ega bo'ldi.

XX asrning 90-yillarining birinchi yarmida sobiq Ittifoq respublikalarida xo'jalik aloqalarining buzilishi natijasida aksariyat sanoat korxonalari faoliyatining to'xtab qolishi va ularning bankrotga uchrashi xomashyo va butlovchi qismlarga bo'lgan buyurtmalarining katta qismidan mahrum bo'lgan O'zbekiston sanoat korxonalarining faoliyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu holat sanoat ishlab chiqarishining yalpi ichki mahsulotdagi ulushining vaqtincha kamayishiga olib keldi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar alohida e'tiborga loyiqdir. Xususan, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish bo'yicha amalga oshirilgan siyosati natijasida 1990–2013-yillarda qishloq xo'jaligining mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 33,4 %dan 17,6 %ga kamayib, sanoatning ulushi 17,6 %dan 24,2 %ga o'sganligini ko'rsatish mumkin.

Yuqorida keltirilgan raqamlar iqtisodiyotimizning barqaror sur'atlar bilan rivojlanayotgani va mamlakatimizda ro'y berayotgan ulkan ijobiy o'zgarishlardan dalolat beradi.

O'tish davrining murakkab sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash maqsadida iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari, xususan, neft, gaz, oltin qazib olish, rangli metallurgiya, kimyo va neft-kimyo sanoatini jadal rivojlantirish uchun davlat barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi. Natijada chuqur sifat o'zgarishlari ro'y berdi va O'zbekiston sanoatining tarmoq tarkibi diversifikatsiyalashdi va mutanosiblashdi. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va mavjud boy xomashyo, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish asosida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan chuqur qayta ishlash sanoati tarmoqlarini yaratish maqsad qilib qo'yilgan.

15.2. O'zbekiston iqtisodiyotining tarkibi va jahon iqtisodiyotidagi o'rni

Mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar alohida e'tiborga loyiqdir.

Ma'lumki, bizga sobiq sovet tizimidan bir tomonlama rivojlangan, faqat xomashyo yetishtirishga yo'naltirilgan, paxta yakkahokimligi halokatli darajaga chiqqan, ishlab chiqarish va sotsial infratuzilmasi o'ta qoloq, aholi jon boshiga iste'mol ko'rsatkichi eng past bo'lgan iqtisodiyot meros bo'lib qolgan edi. Shuni e'tiborga oladigan bo'lsak, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish respublikamiz uchun muhim strategik ahamiyatga ega bo'ldi.

XX asr 90-yillarining birinchi yarmida sobiq Ittifoq respublikalaridagi aksariyat sanoat korxonalari faoliyatining to'xtab qolishi va ularning bankrotga uchrashi xomashyo va butlovchi qismlarga bo'lgan buyurtmalarining kattagina qismidan mahrum bo'lgan O'zbekiston sanoat korxonalarining faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bunday vaziyat tarkibiy qayta qurishlar, sanoatni diversifikatsiya qilish va eksport bozorlarini yangitdan belgilab olishni talab etadigan davr mobaynida sanoat ishlab chiqarishining yalpi ichki mahsulotdagi ulushining vaqtincha kamayishiga olib keldi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini sanoat asosida tashkil etish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha muhim investitsion dasturlar ishlab chiqildi.

1990–2013-yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar mamlakatimizda sanoatning avtomobilsozlik, neft va gaz-kimyo, temiryo'l mashinasozligi kabi yangi tarmoqlarning yaratilishi 2013-yilga kelib sanoat mahsulotlari umumiy hajmining o'sishi hamda YaIM tarkibida sanoat ulushining 24 %ga yetishini ta'minladi (15.2.1-jadval).

15.2.1-jadval
Yalpi ichki mahsulotning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibi (foiz hisobida)

	1990-y.	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2012-y.	2013-y.
Jami	100	100	100	100	100	100
Sanoat	17,6	14,2	21,2	23,9	24,0	24,2
Qishloq xo'jaligi	33,4	30,1	26,3	18,0	17,5	17,6
Qurilish	5,8	6,0	4,8	6,5	5,9	6,0
Transport va aloqa	5,2	7,7	10,5	11,5	11,9	12,0
Savdo	4,5	10,8	8,8	9,2	8,6	8,5
Boshqalar	22,2	18,7	17,7	21,7	24,4	23,8
Sof soliqlar*	11,3	12,5	10,6	9,2	7,7	8,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi materiallari asosida tuzilgan.

1990–2013-yillarda sanoat va xizmatlar sohasining barqaror o'sishi tufayli qishloq xo'jaligining mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 33,4 %dan 17,6 %ga tushdi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha milliy iqtisodiyotimiz qishloq xo'jaligining YaIM tarkibidagi ulushi 10 %dan oshmaydigan, dunyoning jadal rivojlanayotgan mamlakatlariga yaqinlashib bormoqda.

Milliy iqtisodiyot tarkibida yuz berayotgan sifat o'zgarishlarning yana bir muhim jihati — xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishidir.

Mustaqillik yillarida hizmatlar tarkibida deyarli yangi bo'lgan zamonaviy bank tizimi, audit, sug'urta, lizing, konsalting, mobil va videotelefon xizmatlari, Internet kabi xizmat ko'rsatish sohalari paydo bo'ldi. Agar xizmatlar ulushi 1990-yili yalpi ichki mahsulotda 33,8 %ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2000-yilda — 45 %, 2013-yilga kelib esa 45,2 %ga yetdi.

O'tish davrining murakkab sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash maqsadida iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari, xususan, neft, gaz, oltin qazib olish, rangli metallurgiya, kimyo va neft-kimyo sanoatini jadal rivojlantirish uchun davlat barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi. Natijada chuqur sifat o'zgarishlari ro'y berdi va O'zbekiston sanoatining tarmoq tarkibi diversifikatsiyalashdi va mutanosiblashdi.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va mavjud boy xomashyo, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish asosida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan chuqur qayta ishlash sanoati tarmoqlarini yaratish maqsad qilib qo'yilgan.

15.3. O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarining tarkibi va rivojlanish dinamikasi

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalarini erkinlashtirish borasida chuqur islohotlar amalga oshirilishi natijasida tashqi savdoning geografik va tovar tarkibida jiddiy ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekiston bugungi kunda 45 dan ortiq mamlakatlar bilan ikki tomonlama savdo aloqalariga ega. Mamlakat tashqi savdo aylanmasi 1990-yildagi 0,8 mlrd. dollardan 2013-yilda 28,9 mlrd. dollar hajmiga yetdi, ya'ni 36,1 martaga oshdi. Ayni vaqtda tovarlar va xizmatlar eksporti 24,3 martaga, import 38,3 martaga ortib, tashqi savdo balansida 0,07 mlrd. dollarlik saldodan 1,3 mlrd. dollarlik ijobiy saldoga erishildi (15.3.1-diagramma).

15.3.1-diagramma

O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi hajmining o'sishi, mlrd. doll.



	1990-y				2000-y				2010-y				2013-y			
Tashqi savdo aylanmasi	0,8				6,2				21,8				28,9			
Eksport		0,44				3,3				13				15,1		
Import			0,36				2,9				8,8				13,8	
Saldo				0,08				0,4				4,2				1,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistikasi qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Bu esa ishonchli to'lov balansi va iqtisodiyotimiz barqarorligining muhim ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilmoqda.

«So'nggi yillarda eksport tarkibida raqobatdosh tayyor mahsulotlar ulushi barqaror sur'atlar bilan o'sib borayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. 2013-yilda umumiy eksport hajmining 72 foizdan ortig'i tayyor tovarlar hissasiga to'g'ri kelgani iqtisodiyotimiz tarkibini diversifikatsiya qilinayotganining yaqqol dalolati, desam, xato bo'lmaydi.

Mahsulot eksport qiladigan korxonalarni qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlarning amalga oshirilgani eksport faoliyatiga 450 dan ziyod yangi korxonani jalb etish imkonini berdi. Bu borada Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida barcha hududlarda o'z filiallariga ega bo'lgan Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining tashkil etilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jamg'armaning asosiy vazifasi mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksport qilishda zarur huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatishdan iborat. Jamg'armaning o'tgan qisqa davrdagi faoliyati davomida 153 ta tadbirkorlik subyektiga umumiy qiymati 56 million dollardan ziyod bo'lgan eksport shartnomalarini tuzishda yordam ko'rsatildi»[1].

Tashqi savdo tarkibida chuqur ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, keyingi yillar mobaynida eksport tarkibida raqobatdosh tayyor mahsulotlar salmog'ining barqaror o'sish tendensiyasi va xomashyo yetkazib beruvchi tarmoqlar mahsulotlari ulushining kamayib borayotgani yaqqol kuzatilmoqda.

Eksport va import tarkibi tubdan o'zgardi. O'zbekiston mustaqillikkacha bo'lgan davrdagi chetga xomashyo chiqaradigan va tayyor mahsulotlar, asosan, iste'mol tovarlarini olib kiradigan mamlakatdan bugungi kunda tobora qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlarni eksport qiladigan va ko'proq ishlab chiqarishni texnik, texnologik modernizatsiya qilish uchun mo'ljallangan yuqori texnologiyalar asosidagi uskunalarni import qiladigan mamlakatga aylanib bormoqda.

1 Каримов И. А. 2014 йил юкори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оклаган ислоҳотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади. — Т.: «Ўзбекистон», 2014.7–8 б.

15.3.1-jadval
O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosining tovar tarkibi (foiz hisobida)

	1990-y.	2000-y.	2010-y.	2013-y.
Eksport — jami	**100**	**100**	**100**	**100**
Paxta tolasi	59,7	27,5	11,3	7,7
Oziq-ovqat mahsulotlari	3,9	5,4	9,7	9,8
Kimyoviy mahsulot va undan tayyorlangan mahsulotlar	2,3	2,9	5,1	4,0
Energiya va neft mahsulotlari	17,1	10,3	24,8	31,1
Qora va rangli metallar	4,6	6,6	6,8	6,3
Mashina va uskunalar	1.7	3,4	5,5	5,5
Xizmatlar	1,3	13,7	9,1	16,2
Boshqalar	9,4	30,2	27,7	19,4
Import — jami	**100**	**100**	**100**	**100**
Mashina va uskunalar	12,1	35,4	44,1	44,1
Kimyoviy mahsulot va undan tayyorlangan mahsulotlar	9,7	13,6	14,3	14,3
Energiya va neft mahsulotlari	3,1	3,8	6,0	7,3
Qora va rangli metallar	10,2	8,6	8,4	7,9
Oziq-ovqat mahsulotlari	48,9	12,3	10,9	9,7
Xizmatlar	1,5	8,5	4,7	5,8
Boshqalar	14,5	17,8	11,6	10,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistikasi qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Eksportning tovar tarkibini diversifikatsiya qilish natijasida mamlakatimiz paxta yakkahokimligi oqibati bo'lgan paxta tolasi eksportiga qaramlikdan xalos bo'ldi. Uning eksport tarkibidagi ulushi keskin kamayib, 1990-yildagi 59,7 %dan 2013-yilda 7,7 %ga tushdi. 1990-yilda eksportning umumiy hajmida xomashyo hisoblanmaydigan tovarlar ulushi 28 %dan kamroq bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ushbu ko'rsatkich 72 %dan ziyoddir.

Mamlakatimiz iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning jadal sur'atlarda rivojlanishi natijasida import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi 4,5 barobar qisqardi. Masalan, oxirgi 15-yilda bug'doy importi nafaqat to'xtatildi, balki O'zbekiston o'z bug'doyi va g'allasidan tayyorlangan unni eksport qila boshladi. Natijada import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 1990–2013-yillarda 48,9 %dan 9,7 %ga qadar qisqardi. Mashina va uskunalarning import tarkibidagi ulushi 1990-yildagi 12,1 %dan 2013-yilda 44,1 %ga yetdi.

Tashqi savdo geografiyasi tarkibida ham diversifikatsiya jarayonlari sodir bo'ldi. Tashqi savdoda sobiq Ittifoq respublikalariga nisbatan uzoq xorij mamlakatlarining ulushi orta boshladi. Jumladan, 1990–2013-yillarda O'zbekiston eksportining tarkibida uzoq xorij mamlakatlarining ulushi 37,7 %dan 52,6 %gacha, import tarkibida esa 42,6 %dan 62,6 %gacha ortdi.

Mustaqillik yillarida mamlakat iqtisodiyotiga sarflanayotgan investitsiyalar hajmi barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'ldi. Jumladan, «O'zbekistonda investorlar uchun, aytish mumkinki, ko'p jihatdan beqiyos, o'ta qulay investitsion muhit,

imtiyoz va preferensiyalar tizimi yaratilgan, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi ham yildan yilga ortib borayotgani ham buning yorqin dalilidir»[1].

Istiqlol yillarida mamlakatimiz iqtisodiyotida dollar hisobida 162 milliarddan ortiq kapital mablag' o'zlashtirilgan bo'lib, buning 56 milliard dollaridan ziyodi xorijiy investitsiyalardir. Faqatgina 2013-yilning o'zida kapital investitsiyalar hajmi dollar hisobida qariyb 14 milliard yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 25 foizni tashkil etdi[2].

Xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay biznes muhiti, keng huquqiy kafolat va imtiyozlar tizimi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi mamlakatimiz iqtisodiyotiga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini tubdan ko'paytirish imkonini berdi. Natijada 2013-yilda o'zlashtirilgan umumiy kapital qo'yilmalar hajmining 3 milliard dollardan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi. Shuning 72 foizdan ziyodi yoki 2 milliard 200 million dollari to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalardir[3]. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etish, ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash, zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan va yuksak samarali texnologiyalarni joriy etishda zarur imtiyozlarga ega bo'lgan maxsus industrial zonalar tashkil etilmoqda.

Mamlakatimizda yangidan shakllanayotgan yirik xalqaro logistika markazlaridan biri Navoiy aeroporti hududidagi intermodal logistika markazidir. Ushbu aeroportning afzalliklari shundan iboratki, uning Yevropa va Osiyoni tutashtiradigan havo yo'llarining chorrahasida o'ta qulay mintaqada joylashgani (aeroportdan 2000 kilometr uzoqlikdagi yon-atrofda 150 million aholiga ega bo'lgan 40 ta shahar mavjud), unga juda yaqin masofadan xalqaro avtomobil va temiryo'llari tarmoqlarining o'tishi qo'shni davlatlar, shuningdek, Rossiya, Yevropa va Xitoy bilan zarur aloqalarni ta'minlaydi. Bularning barchasi Navoiy aeroporti mintaqaviy va qit'alararo tabiiy logistika markazi sifatida noyob mavqega ega ekanidan dalolat beradi.

Jumladan, yuklar Janubi-Sharqiy Osiyodan Yevropaga Dubay orqali emas, balki Navoiy orqali tashilsa, masofa 1000 kilometrga, vaqt esa 1,5 soatga qisqaradi va har bir samolyotdan 15 tonna yoqilg'i tejab qolinadi. Yana bir ijobiy holat — bu «Navoiy» *ElIZ* ning Yevropani Xitoy bilan bog'laydigan qisqa xalqaro «Ye40» avtomagistraliga va Markaziy Osiyo, MDH, Janubi-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq, Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan bog'laydigan temiryo'llarga yaqinligidir. Yuklarni avtomobillarda Navoiy orqali Xitoy — Yevropa yo'nalishi bo'yicha tashish, Rossiya–Xitoy yo'nalishiga qaraganda masofaning 1000 kilometrga qisqarishiga va har bir avtomobildan 800 dollargacha transport xarajatlarining tejalishiga olib keladi[4].

Hozirgi kunda Navoiy aeroporti orqali Frankfurt, Seul, Bryussel, Milan, Dubay, Bangkok, Dehli, Dakka va Mumbay kabi dunyoning yirik shaharlariga parvozlar amalga oshirilmoqda.

Yuksak samarali, zamonaviy xorij asbob-uskunalari va texnikasi, texnologik tarmoqlar va modullar, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobidan yuqori texnologiyalarga asoslangan, jahon bozorlarida raqobatdosh mahsulotlarni keng

1 Каримов И. А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараккиётини юксалтириш, халкимиз фаровонлигини оширишга хизмат килади. — Т.: «Ўзбекистон», 2011 й. 29-б.

2 Каримов И. А. Амалга ошираётган ислохотларимизни янада чукурлаштириш ва фукаролик жамияти куриш ёруғ келажагимизнинг асосий омилидир. — Т.: «Ўзбекистон», 2013.9-б.

3 Karimov I. A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. /Xalq so'zi, 18.01.2014-y.

4 Салимова Г. СИЭЗ «Навои»: Уникальность. Развитие. Беспрецедентность. / Биржа, 24.10.09.

ko'lamda ishlab chiqarish «Navoiy» EIIZ hududida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining asosiy yo'nalishi etib belgilandi.

Bu hududdagi ishlab chiqarish faoliyatining istiqbolli yo'nalishlari — kimyo va neftgazkimyo, zamonaviy qurilish materiallari sanoati, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik, oziq-ovqat sanoati, dori-darmon va tibbiyot mahsulotlari ishlab chiqarish sohalari hisoblanadi.

«Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi tashkil etilganidan buyon uning hududida umumiy qiymati 100 million dollardan ziyod bo'lgan 19 ta investitsiya loyihasi bo'yicha ishlab chiqarish korxonalari ishga tushirildi. Jumladan, yuksak texnologiyalar asosida modem va televizorlar uchun pristavkalar, elektr energiyani elektron hisoblagichlar, yuqori kuchlanishga chidamli kabellar, issiqlik va suv isitish qozonlari, mobil va statsionar telefon apparatlari, tayyor dori vositalari va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 2013-yilda maxsus zonadagi korxonalar tomonidan qiymati 100 milliard so'mdan ziyod mahsulot ishlab chiqarildi va bu boradagi o'sish sur'ati 2012-yilga nisbatan 25,8 foizni tashkil etdi.

«Angren» maxsus industrial zonasi hududida qisqa muddatda umumiy qiymati qariyb 44 million dollar bo'lgan 5 ta loyiha asosida energiyani tejaydigan diodli yorug'lik lampalar, turli kattalikdagi mis quvurlar, ko'mir briketlari kabi yuksak texnologiyalar asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, shakar ishlab chiqarish bo'yicha yangi zavod va boshqa korxonalar tashkil etildi. Ayni shu yo'nalishda to'plangan tajribani hisobga olib, o'tgan yilning mart oyida Jizzax viloyatida «Jizzax» maxsus industrial zonasi tashkil etilgani sizlarga yaxshi ma'lum. Sirdaryo viloyatida bu zonaning filiali faoliyat ko'rsatishi ko'zda tutilgan. Bugungi kunda «Jizzax» maxsus industrial zonasi hududida transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. O'tgan yilning o'zida mazkur zona hududida Xitoy kampaniyalari ishtirokida 100 ming dona mobil telefon ishlab chiqarish, shuningdek, chorva mahsulotlarini qayta ishlash va ozuqa tayyorlash bo'yicha umumiy qiymati qariyb 6 million dollar bo'lgan dastlabki 3 ta loyiha amalga oshirildi[1].

Yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan yuksak texnologiyalar asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda jahondagi yirik va mashhur AQSh ning «Jeneral Motors», «Teksako», Germaniyaning «MAN», «Daymler Bens», «Klaas», Buyuk Britaniyaning «BAT», Ispaniyaning «Maksam», Yaponiyaning «Isuzu», «Itochu», Malayziyaning «Petronas», Koreyaning «Korean Eyr», «CNOC», «LG», Xitoyning «SNPC», Rossiyaning «Lukoyl», «Gazprom» kabi kompaniyalari, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki singari yirik xalqaro moliya tashkilotlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va qator arab davlatlarining investitsiya banklari mamlakatimizning asosiy hamkorlari bo'lmoqda.

Investitsiya va sanoat sohasidagi faol siyosat natijasi sifatida mustaqillik yillarida yurtimizda yengil va yuk avtomobillari, avtobuslar ishlab chiqaradigan yangi avtomobil zavodlari tashkil etildi. Jahondagi yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi, Qo'ng'irot soda zavodi, o'nlab to'qimachilik majmualari barpo etildi.

Respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish nafaqat xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda yangi, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, balki

1 Каримов И. А. 2014 йил юкори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оклаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади. — Т.: «Ўзбекистон», 2014.15-b.

yangi zamonaviy texnika, dastgoh va uskunalar, texnologiya va nou-xaularni joriy etish, shu asosda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning yuqori sifatini ta'minlashga qaratilgan.

15.4. O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan «Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da bayon etilgan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishning strategik yo'nalishlari mamlakatimiz iqtisodiyotini yaqin yillar ichida rivojlantirishning asosiy prognoz ko'rsatkichlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda chuqur o'ylangan va puxta tahlillar asosida 2011–2015-yillarga mo'ljallab ishlab chiqilgan, bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan to'rtta strategik dasturni amalga oshirish boshlandi. Ularda sanoat, infratuzilma, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirish, moliya-bank tizimini yanada isloh etish va uning barqarorligini oshirish, shuningdek, mamlakatimizda qulay investitsiya muhiti va uni baholashning xalqaro mezonlarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

2011–2015-yillardagi eng muhim vazifa — makroiqtisodiy barqarorlik va izchil yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, uning sifat ko'rsatkichlarini, iqtisodiyot tarmoqlarini yanada diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiya etish, texnik va texnologik yangilash, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulot hamda xizmatlarning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatdoshligini oshirish hisobidan yaxshilashdan iborat.

2011–2015-yillarda yalpi ichki mahsulotning yiliga 8 %dan yuqori barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, hajmining 1,5 barobar, xarid qobiliyati pariteti bo'yicha esa 1,6 barobar o'sishiga erishish ko'zda tutilmoqda. Bunda iqtisodiy o'sish barqarorligi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mutanosibligi, past inflyatsiya ko'rsatkichlari va milliy valyuta kursining barqarorligi orqali ta'minlanadi.

Kelgusi yillarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ichki talabning oshib borishiga jiddiy e'tibor beriladi. Chunki jahon iqtisodiyoti va mahsulotlar bozorlaridagi noqulay tovarlar konyunkturasi sharoitida bunday yondashuv iqtisodiyotni izchil rivojlantirishni barqarorlashtiruvchi va rag'batlantiruvchi omili sifatida muhim o'rin tutadi.

2011–2015-yillarga mo'ljallangan mamlakatni rivojlantirish dasturi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan.

1. 2011–2015-yillarga mo'ljallangan islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'lamini kengaytirish choralari dasturi.
2. 2011–2015-yillarga mo'ljallangan infratuzilmani, transport va kommunikatsion qurilishni jadal rivojlantirish dasturi.
3. Moliya-bank tizimini yanada isloh etish va barqarorligini oshirishning 2011–2015-yillarga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari dasturi.
4. O'zbekiston Respublikasi sanoatining 2011–2015-yillarga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari dasturi.

«2011–2015-yillardagi eng muhim vazifa — makroiqtisodiy barqarorlik va izchil yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, uning sifat ko'rsatkichlarini, iqtisodiyot tarmoqlarini yanada diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiya etish, texnik va texnologik yangilash, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulot

hamda xizmatlarning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatdoshligini oshirish hisobidan yaxshilashdan iborat»[1].

O'zbekiston Respublikasi sanoatining 2011–2015-yillarga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari dasturini amalga oshirish maqsadida sanoatda umumiy qiymati 47,3 milliard dollarga teng bo'lgan 119 ta yirik investitsion loyihani amalga oshirish mo'ljallangan.

Ushbu dasturga muvofiq sanoat mahsulotini ishlab chiqarishning yillik o'sish sur'ati 9–12 foizni tashkil etadi, sanoatning YalM dagi ulushi 2010-yildagi 24 foizdan 2015-yilda 28 foizga yetadi. Sanoat mahsuloti tarkibida jiddiy ijobiy tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'ladi va qayta ishlash sanoatining yalpi sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 41 foizdan 49 foizga yetadi.

Yuqoridagi amalga oshirilgan chora-tadbirlar tufayli eksport qilinayotgan sanoat mahsulotlarining umumiy eksport hajmidagi ulushi 2010-yildagi 51,1 foizdan 2015-yilda 71,8 foizga yetadi (4.3.1-jadval).

15.4.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida sanoat rivojlanishining 2011–2015-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari

	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.	2014-y.	2015-y.
Sanoatning YalM dagi salmog'i (foiz hisobida)	23,9	24,1	24,8	25,8	26,8	28,0
Tayyor mahsulotning sanoat mahsulotlari umumiy hajmidagi salmog'i, foizda	50,6	51,7	53,6	56,2	58,7	61,2
Sanoatga kiritiladigan investitsiyalar hajmi, million AQSh dollari	2668,9	3207,9	3923,9	4891,1	6118,9	7531,6
Sanoat mahsuloti eksportining sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmidagi salmog'i, foizda	38,0	42,3	46,1	51,8	58,0	63,2
Umumiy eksport tarkibida sanoat mahsuloti eksportining ulushi, foizda	51,1	61,7	62,5	65,3	69,7	71,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 15-dekabrdagi «2011–2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi PQ-1442-sonli qarori.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va uni yanada diversifikatsiya qilish sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2010-yildagi 24 foizdan 2015-yilda 28 foizga, qurilishning ulushini esa — 6,4 foizdan 7,6 foizga oshirish imkonini beradi. Natijada 2011–2015-yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,3 barobar ortgani holda, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 17,5 foizdan 13,5 foizga tushadi[2].

Xususan, avtobus va yuk avtomobillari ishlab chiqarishning prognoz ko'rsatkichlari 2012-yildan boshlab o'sganini ko'rish mumkin.

Yaqin va uzoq istiqbolda innovatsiya sig'imi yuqori va yuksak texnologik sanoat mahsulotlarini (yengil va yuk avtomobillari, muzlatkichlar, televizorlar, energiya tejaydigan lampalar va boshqalar) ishlab chiqarish keskin o'sib boradi (4.3.2-jadval).

1 Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011–2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари. Стат. тўплам. — Т.: Ўзбекистон, 2011. — 119-б.

2 Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011–2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари. Стат. тўплам. — Т.: Ўзбекистон, 2011. — 120-б.

15.4.2-jadval

Asosiy turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish prognozi

Sanoat mahsulotlari turlari	O'lchov birligi	2012-y.	2013-y.	2014-y. (prognoz)	2015-y. (prognoz)
Yengil avtomobillar	ming dona	235,5	246,0	250,0	260,0
Avtobus va yuk avtomobillari	ming dona	3,7	4,7	3,1	3,2
Kuchli tok kabellari	ming km	13,6	10,2	14,0	14,5
Muzlatkichlar	ming dona	17,8	60,3	95,0	110,0
Televizorlar	ming dona	26,7	16,6	109,0	112,5
Energiya tejaydigan lampalar	ming dona	2007,6	3670,3	28700,0	28870,0
Kaliy o'g'itlari	ming tonna	125,3	84,6	300,0	450,0
Kalsiylangan soda	ming tonna	92,0	96,0	100,0	100,0
Qurilish oynasi	ming kv. m.	13051,4	14371,5	12530,0	13000,0
Keramik plitalar	ming kv. m.	4350,0	5600,0	05600,0	5800,0
Paxtadan ip-kalava	ming tonna	140,6	171,3	435,2	524,0
Tayyor gazmollar	mln kv. m.	56,4	77,7	268,2	304,0
Trikotaj buyumlar	mln dona	64,6	89,0	162,3	241,3
Paypoqlar	mln juft	3,2	3,4	42,1	48,0

Manba: Prognoz ko'rsatkichlari 2011–2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi dastur asosida tuzilgan.

2011–2015-yillarda tarkibiy o'zgarishlarni iqtisodiyotning soha va tarmoqlarini diversifikatsiya va modernizatsiya qilishni izchil davom ettirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, shuningdek, transport, muhandislik, kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish jarayonlarini yanada chuqurlash-tirishga qaratilgan faol investitsiya siyosati olib boriladi.

Ushbu maqsadlar uchun 2011–2015-yillarda oxirgi 5-yil mobaynida o'zlashtirilgan investitsiyalarga qaraganda 2 barobar ko'p, jami 77,4 mlrd. dollar miqdoridagi investitsiyalarni yo'naltirish mo'ljallanmoqda. Asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 24 %dan kam bo'lmasligi tarkibiy o'zgartirishlarni jadal amalga oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishni ta'minlaydi[1].

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning asosiy hajmi ichki resurslarni safarbar qilish hisobidan amalga oshiriladi. Kelgusi yillarda ushbu ko'rsatkich yalpi kapital qo'yilmalar hajmining 76 % ini tashkil etadi.

Bu mablag'lar, avvalo, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni amalga oshirayotgan korxonalarning o'z mablag'larini ko'paytirishi, soliq yukini yanada kamaytirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va aholining tadbirkorlik faoliyatidan oladigan daromadlarini oshirish hisobidan hosil bo'ladi.

Strategik muhim, birinchi navbatda, infratuzilmani shakllantirish, ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishga ichki resurslarni jalb etishda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi alohida o'rin tutadi. Jamg'arma faoliyat boshlaganidan buyon o'tgan qisqa vaqt mobaynida 15 milliard dollardan ziyod miqdordagi aktivlarga ega bo'lgan qudratli moliya institutiga aylandi. Jamg'arma

1 O'sha manba

o'z mablag'lari bilan umumiy qiymati 29 milliard dollardan ziyod 86 ta strategik ahamiyatga molik investitsiya loyihasini hamkorlikda moliyalashtirishda ishtirok etmoqda. Faqat 2013-yilning o'zida Jamg'arma mablag'lari ishtirokida qiymati 780 million dollardan ortiq bo'lgan 33 ta o'ta muhim loyiha amalga oshirildi[1].

2011–2015-yillarda yoqilg'i-energetika tarmog'ini, mashinasozlik va avtomobilsozlikni rivojlantirish, elektr energetika sohasida energiya ishlab chiqarish quvvatlarining samaradorligini oshirish va diversifikatsiya qilish, metallurgiya sanoatini kompleks modernizatsiya etish, kimyo sanoatini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, transport va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan 4,7 mlrd. dollardan ziyod mablag' yo'naltiriladi.

Mazkur jamg'armaning eng muhim vazifalaridan biri — strategik investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish maqsadida yirik xorijiy investor va sheriklarni jalb etishdir. Masalan, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi va Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida amalga oshirilayotgan, umumiy qiymati 1,28 mlrd. dollarga teng bo'lgan Tollimarjon issiqlik elektr stansiyasida ikkita bug'-gaz moslamasini qurish loyihasi shular jumlasidandir.

Kelgusi yillardagi ustuvor yo'nalishlardan biri — mamlakatimizda, eng avvlo, jalb qilinayotgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, xorijiy investorlar uchun ishonchli kafolatlar yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat.

Bu vazifani amalga oshirish orqali 2011–2015-yillarda 13 mlrd. dollardan ziyod yoki o'tgan besh yildagiga nisbatan 1,7 barobar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini ta'minlaydi. Ushbu mablag'lar eng ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan va xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash hamda raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladigan yangi sanoat korxonalarini tashkil etish bo'yicha xorijiy investorlar ishtirokidagi 320 tadan ortiq yirik investitsiya loyihasini amalga oshirishga yo'naltiriladi.

2011–2015-yillarda jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 18,6 mlrd. dollarni tashkil etadi yoki o'tgan besh yildagiga nisbatan 2 barobar ko'p bo'ladi. Ularning 75 %dan ortig'ini to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etadi. Bu borada qarz mablag'lari uzoq muddatli asosda faqat ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish, iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, shuningdek, xorijiy moliyaviy institutlarning kredit liniyalarini mamlakatimiz tijorat banklari orqali qayta moliyalashtirish yo'li bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etiladi.

O'zbekiston 20-yillik o'tish davrida o'rta daromadli mamlakatlar guruhining quyi segmentidan joy olishga muvaffaq bo'ldi. Yangi bosqichda mamlakat taraqqiyotining asosiy vazifasi 2030-yilga qadar o'rta daromadli mamlakatlar guruhining yuqori segmenti darajasiga erishishdir.

1 Каримов И. А. 2014 йил юкори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оклаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади. — Т.: «Ўзбекистон», 2014.13–14-b.

Asosiy tushunchalar

Investitsiyalar — foyda olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatbaho qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklar.

Investitsiya siyosati — investitsiya faoliyatini jonlantirish, iqtisodiyotni yuksaltirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ijtimoiy muammolarni hal qilish maqsadida iqtisodiy subyektlar uchun qulay xo'jalik yuritish sharoitlarini yaratishga qaratilgan maqsadli tadbirlar majmuyi.

Investitsiya dasturi — iqtisodiyotga sarflanayotgan kapital qo'yilmalarning ustuvor yo'nalishlari va ulardan samarali foydalanishni belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy va xo'jalik qarorlarining yig'indisi.

Investitsiya muhiti — kapital qo'yilmalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisi.

Erkin iqtisodiy zonalar — shunday geografik hududki, ularda mamlakatda qabul qilingan normal xo'jalik faoliyati tartibiga qaraganda imtiyozli soliq to'lash tartibi joriy etiladi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar — asosiy fondlarni yaratish, takror ishlab chiqarish va sotib olishga sarflangan biryo'la xarajatlar.

Asosiy fondlar — bir necha takror ishlab chiqarish siklida qatnashib, o'z qiymatini tayyor mahsulot qiymatiga asta-sekinlik bilan o'tkazib boruvchi ishlab chiqarish vositalari.

Investitsiyalarning texnologik tarkibi — biron-bir obyektga sarflanayotgan kapital qo'yilmalarning xarajatlar tarkibi va ularning umumiy smeta qiymatidagi ulushi. Texnologik tarkibi kapital qo'yilmalarning qancha qismi qurilish-montaj ishlari, mashina va asbob-uskunalarni sotib olish, loyiha-tadqiqot ishlari va boshqa xarajatlarga yo'naltirilganligini anglatadi.

Investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi — kapital qo'yilmalarning asosiy ishlab chiqarish fondlarini takror ishlab chiqarish shakllari bo'yicha taqsimlanishi va ular o'rtasidagi nisbat. Ushbu tarkib kapital qo'yilmalarning qancha qismi yangi qurilish, amaldagi ishlab chiqarishni ta'mirlash va texnik qayta qurollantirish, ishlab chiqarishni kengaytirish, modernizatsiyalashga yo'naltirilganligini ifoda etadi.

Investitsiyalarning tarmoq tarkibi — kapital qo'yilmalarning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi.

Investitsiyalarning hududiy tarkibi — kapital qo'yilmalarning mamlakat hududlari bo'yicha taqsimlanishi va ular o'rtasidagi nisbat.

Xorijiy investitsiyali korxonalar — aksiyalari (ulushlari, paylarining) yoki ustav jamg'armasining kamida o'ttiz foizini xorijiy investitsiyalar tashkil etadigan korxonalar.

Nazorat savollari

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning «o'zbek modeli»ning mohiyati, prinsiplari va bosqichlarini tushuntirib bering.
2. Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyotining tarkibida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
3. O'zbekiston iqtisodiyotining jahon xo'jaligidagi o'rniga baho bering.

4. O‘zbekistonda iqtisodiyotini modernizatsiyalash va tarkibiy o‘zgartirishlarning ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat?
5. O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish istiqbollariga baho bering.
6. O‘zbekiston tashqi savdosi tarkibida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi va uni diversifikatsiyalash yo‘nalishlarini tushuntirib bering.
7. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan investitsiya siyosati mazmuni va uni joriy etish dastaklari nimalardan iborat?
8. O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalashda va tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar qanday o‘rin tutadi?
9. O‘zbekiston iqtisodiyotini 2011–2015-yillarda rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari qanday ko‘rinishda bo‘ladi?
10. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning strategik maqsadlari va unga erishish vositalari.

II QISM

XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR

V BO‘LIM.
XALQARO SAVDO

16-BOB. XALQARO MEHNAT TAQSIMOTI

16.1. Xalqaro mehnat taqsimotining mohiyati

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mohiyatini ochib beruvchi muhim tushunchalardan biri xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) hisoblanadi. Dunyo mamlakatlari u yoki bu darajada XMT ga jalb etilgan bo‘lib, XMT ning chuqurlashuvi fan-texnika taraqqiyoti ta’sirida rivojlanayotgan ishlab chiqarish kuchlariga bevosita bog‘liq. XMT da qatnashish mamlakatlarga qo‘shimcha iqtisodiy samara beradi va o‘z ehtiyojlarini kam xarajatlar bilan to‘liqroq qondirish imkonini yaratadi.

Mehnat taqsimoti — bu tarixan belgilangan ijtimoiy mehnat tizimidir. U jamiyatning rivojlanish jarayonidagi faoliyatining sifat jihatdan tabaqalashuvi natijasida shakllanadi. Mehnat taqsimoti turli shakllarda bo‘ladi va ushbu kursda XMT, ya’ni alohida mamlakatlarning (yoki mazkur mamlakatlarga tegishli alohida ishlab chiqarish tarmoqlarining) xalqaro ayirboshlash uchun muayyan turdagi tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi o‘rganiladi.

Xalqaro mehnat taqsimoti mohiyati ishlab chiqarish jarayonining mehnat faoliyati turli shakllarining ixtisoslashuvi va ularning kooperatsiyalashuvida, o‘zaro hamkorligida namoyon bo‘ladi. Mehnat taqsimotini ajratish jarayoni sifatida emas, balki jahon miqyosida mehnatni birlashtirish yo‘li sifatida ham ko‘rish mumkin.

Xalqaro mehnat taqsimoti davlatlar o‘rtasida mehnatning ijtimoiy-hududiy taqsimotining darajasi hisoblanadi. U alohida bir davlatlar ishlab chiqarishlarining ixtisoslashuviga asoslanadi.

Jahon xo‘jaligini rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda xarajatlarni kamaytirishga intilish zarur. Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi jarayonidagi asosiy narsa, ushbu jarayonning har bir ishtirokchisi o‘zining XMT dagi ishtirokidan iqtisodiy foyda, manfaat qidirishi va topishidir.

Har qanday mamlakatning xalqaro almashuv jarayonida xalqaro mehnat taqsimotining ustunliklarini amalga oshirishi — birinchidan, eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning tashqi va ichki bozor narxlaridagi farqni ajratish; ikkinchidan, arzonroq bo‘lgan importdan foydalanib, milliy ishlab chiqarishdan voz kechgan holda ichki xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

XMT kapitalizmning manufaktura davrida paydo bo‘lgan bo‘lib (XVII — XVIII asrlar), sanoat to‘ntarishigacha tabiiy ravishda (tabiiy-iqlimiy, geografik sharoitlar, xomashyo zaxiralari va energiya manbalari — XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmi) kechgan. Keyinchalik mamlakatlarning boshqa iqtisodiy omillar — mehnat, kapital, tadbirkorlik qobiliyati, bilim-ko‘nikmalar bilan turli darajada

ta'minlanganligi sababli ixtisoslashuv chuqurlashdi. Hozirda ushbu omillar mamlakatlar tomonidan jahon bozori uchun qaysi tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishni belgilab beradi.

XMT nazariyasi burjuaziya siyosiy iqtisodi klassiklari A. Smit va D. Rikardolar asarlarida asoslandi va rivojlantirildi. A. Smit XMT ni tahlil qilar ekan, «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari» kitobida (1776-y.) savdo va tadbirkorlik erkinligining zarurligini isbotlaydi. Uning fikricha, savdo erkinligini turli yo'llar bilan cheklash alohida mintaqalar va davlatlar o'rtasida mehnat taqsimotining chuqurlashuviga xalaqit beradi.

Savdo yo'lidagi to'siqlarning yo'qotilishi hamda xalqaro ayirboshlash miqyosining kengayishi milliy iqtisodiyotlarning ixtisoslashuvi va ularning o'zaro bog'liqligini oshirishga, umumjahon xo'jaligining paydo bo'lishiga olib kelishi kerak. A. Smit keyinchalik juda mashhur bo'lib ketgan erkin savdo shiorini olg'a surdi (laisser-faire).

A. Smit g'oyalari keyinchalik ingliz iqtisodchilari — D. Rikardo, R. Torrens va J. S. Millarning ilmiy ishlarida rivojlantirildi.

Klassiklarning xalqaro mehnat taqsimoti to'g'risidagi ilmiy qarashlaridagi asosiy yutuqlari, deb ishlab chiqarishning nisbiy xarajatlari nazariyasi tan olingan. Ushbu nazariya xalqaro savdo haqidagi iqtisodiy ta'limotning «klassik» asosi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning nisbiy xarajatlari nazariyasi asosida mamlakatlar o'rtasida ishlab chiqarish sharoitlarida farq mavjudligi haqidagi g'oya yotadi. Bunga ko'ra har qanday mamlakatda turli xil tabiiy va iqlimiy sharoitlarda barcha turdagi tovarlarni ishlab chiqarishni tashkil etish mumkin, deb hisoblanadi. Masalan, Shotlandiyada uzum yetishtirish mumkin. Lekin uning narxi juda baland, undan olinadigan vino esa sifati pastligi uchun kam iste'mol qilingan bo'lardi. U yoki bu tovar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qiyosiy taqqoslash, talab bo'lgan barcha tovarlarni ishlab chiqarishdan ko'ra eng kamxarajat talab qiladigan ma'lum bir tovar ishlab chiqarish foydaliroq degan xulosaga olib keladi. Ushbu tovarga ixtisoslashish tashqi bozorda ayirboshlash yo'li bilan boshqa barcha tovarlarni olish imkonini beradi.

Nisbiy xarajatlar nazariyasi biron-bir tovar ishlab chiqarishda bir mamlakatning boshqa mamlakatdan absolyut ustunligi mavjudligidagina emas, balki bunday ustunlik mavjud bo'lmagan holatda ham ixtisoslashuv foydali ekanligini isbotlaydi.

Agar xalqaro xarajatlarga nisbatan kamxarajat bilan tovar ishlab chiqarishning iloji bo'lmagan hollarda ham ba'zi tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari o'rtacha xarajatlar darajasidan past bo'ladi. Boshqa tovarlarga nisbatan foydaliroq bo'lgan mazkur tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashish zarur. Natijada shu holatdagi ixtisoslashish ham iqtisodiy samara beradi.

Shu bilan birga teskari holat ham nazarda tutilgan. Mamlakat bir necha tovarlar bo'yicha ustunlikka ega bo'lgan hollarda, mazkur ustunlik maksimal bo'lgan tovarlarnigina ishlab chiqarishga ixtisoslashish zarur.

Iqtisodiy nazariya klassiklarining g'oyalari E. Xeksher, P. Samuelson, B. Olin, V. Leontev va boshqa hozirgi zamon iqtisodchilari tomonidan rivojlantirildi.

Nisbiy ustunlik nazariyasining keyingi rivojlanish bosqichlarida birmuncha mavhumlashtirilgan (absraktlashgan) modeli yuzaga kelgan. Bu modelning kamchiliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- u erkin raqobat prinsiplarini absolyutlashtiradi;
- u faqat muayyan juft tovarlar va mamlakatlarnigina ko'rib chiqadi;
- unda tovar tovarga to'g'ridan to'g'ri ayirboshlanishi ko'zda tutiladi;

- model ishlab chiqarish miqyosi va transport xarajatlarining ta'sirini e'tiborga olmaydi.

Ushbu modelda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mehnat va kapitalning xalqaro harakati, iqtisodiyotga davlatning aralashuvi, xalqaro korporatsiyalarning ishlab chiqarishdagi ixtisoslashuvi va boshqa shunga o'xshash omillari ham e'tiborga olinmaydi.

Xalqaro mehnat taqsimotining mohiyati ishlab chiqarish jarayoni, mehnat faoliyati shakllarining ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi, o'zaro hamkorligida namoyon bo'ladi. Mehnat taqsimoti faqat ajratish jarayoni sifatida emas, balki jahon miqyosida mehnatni birlashtirish yo'li sifatida chiqadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti mamlakatlar o'rtasida mehnatning ijtimoiy-hududiy taqsimoti darajasi hisoblanadi. U alohida mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashuviga asoslanadi.

XMT jahon xo'jaligida kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirishda borgan sari muhim rol o'ynamoqda. XMT quyidagi vazifalarni bajarmoqda:

- ushbu jarayonlarning o'zaro aloqasini ta'minlaydi;
- xalqaro tarmoq va mintaqaviy-tarmoq nisbatlarini shakllantiradi.

16.2. Mamlakatlarning XMT da qatnashishlariga ta'sir qiluvchi omillar va uning rivojlanish ko'rsatkichlari

Mamlakatlarning XMT da qatnashishlariga nima turtki bo'ladi?

XMT rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. *Mamlakat ichki bozorining hajmi.* Rivojlangan bozorlarga ega yirik mamlakatlarda zaruriy ishlab chiqarish omillari va iste'mol tovarlarini topish imkoniyati yuqori bo'ladi. Demak, bu mamlakatlarning xalqaro ixtisoslashuv va tovar ayirboshlashda qatnashish ehtiyoji kam bo'ladi. Shu bilan birga rivojlangan bozor talabi importni kengaytirishni talab etadi. Bu — eksportga yo'naltirilgan ixtisoslashuvni kengaytirish evaziga qoplanadi.
2. *Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi.* Mamlakat iqtisodiy salohiyati qanchalik kam bo'lsa, uning XMT da qatnashish zaruriyati shunchalik yuqori bo'ladi.
3. *Mamlakatning tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi.* Mamlakatning yuqori darajada monoresurslar bilan ta'minlanganligi (masalan, neft), jumladan, foydali qazilma boyliklari bilan kam darajada ta'minlanganligi ham uning XMT da faol qatnashish zaruriyatini keltirib chiqaradi.
4. *Mamlakat iqtisodiyoti tarkibida yetakchi sanoat tarmoqlarining ulushi* (energetika, qazib olish sanoati, metallurgiya va b.). Asosiy tarmoqlar ulushi qancha yuqori bo'lsa, odatda, mamlakat XMT tizimiga shuncha kam jalb etilgan bo'ladi.

Shuni qayd etib o'tish lozimki, yuqorida keltirilgan barcha omillar namoyon bo'lishiga ko'ra o'zgarmas emas. Ularning ta'siri u yoki bu darajada kamayishi mumkin. Masalan, mahalliy mahsulotning xalqaro raqobatbardoshligining o'zgarishi, eksportning cheklanishi shular jumlasidandir.

XMT ning rivojlanish jarayonidagi asosiy xususiyat — ushbu jarayonning har bir ishtirokchisi o'zining XMT dagi ishtirokidan iqtisodiy foyda, naf qidirishi va topishidir.

XMT ning rivojlanish tendensiyalari iqtisodchilarning kelajakda bu jarayon yanada chuqurlashib boradi, deb xulosa chiqarishlari uchun asos bo'ladi. Uning asosida tovarlar va xizmatlar ayirboshlashning miqyosi jadal sur'atlar bilan o'sib boradi.

Har qanday davlat xalqaro ayirboshlov jarayonida XMT ning ustunliklaridan foydalanar ekan: birinchidan, eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning tashqi va ichki bozor narxlari o'rtasidagi farqdan yutishi; ikkinchidan, ichki xarajatlarni kamaytirish maqsadida arzonroq bo'lgan importdan foydalanish evaziga milliy ishlab chiqarishdan voz kechishi mumkin.

Jahon xo'jaligini tizim sifatida ko'rib chiqqanda XMT ni bu tizimni tashkil qilgan birlashtiruvchi asos deb tasdiqlash mumkin.

16.2.1-jadval
Xalqaro mehnat taqsimoti sur'atlarining koeffitsiyentlari

	1971–1980-yy.	1981–1990-yy.	1991–2000-yy.
Jahon	1,08	1,21	1,08
Rivojlangan mamlakatlar	1,11	1,31	1,15
Rivojlanayotgan mamlakatlar	0,99	1,03	0,80

Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatda ishlab chiqarish tashqi iste'molchilarga, ichki talab esa importga yo'naltirilgan bo'ladi, deb taxmin qilinmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ichki bozorning nisbatan tez, ammo ekstensiv tarzda kengayishi kutilmoqda.

16.3. Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi

XMT ichki tarkibga va rivojlanish usullariga ega. XMT ning asosiy ajralmas xususiyatlari ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi hisoblanadi (16.3.1-rasm).

16.3.1-rasm.
Xalqaro mehnat taqsimotining shakllari



Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi. Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi ikki yo'nalish bo'yicha rivojlanadi — ishlab chiqarish va hududiy.

O'z navbatida, ishlab chiqarish yo'nalishi:

- tarmoqlararo ixtisoslashuv;
- tarmoqlar ichra ixtisoslashuv;
- alohida korxonalar ixtisoslashuviga bo'linadi.

Ishlab chiqarishning xalqaro hududiy ixtisoslashuvi muayyan tovarlar va ularning qismlarining jahon bozori uchun ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini o'z ichiga oladi:

- alohida mamlakat;
- mamlakatlar guruhi;
- mintaqalar.

Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvining asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- predmetli (tayyor mahsulot ishlab chiqarish) ixtisoslashuv;
- detalli (mahsulot qismlari va komponentlarini ishlab chiqarish) ixtisoslashuv;
- texnologik yoki bosqichli (ya'ni, alohida texnologik jarayonlarni amalga oshirish. Masalan, yig'ish, bo'yash va h. k.) ixtisoslashuv.

Jahon xo'jalik aloqalarida tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashuv keng tarqalgan.

Tayyor mahsulot ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi XMT ning dinamik shaklidir. 1950–60-yillarda ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi boshlang'ich sohalarda (avtomobilsozlik, aviasozlik, plastmassa, ehtiyot qismlar, radioapparaturalar va boshqalar ishlab chiqarish) oldingi o'rinda edi. 1970–80-yillarda esa tarmoqlar ichra ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi (masalan, teri va rezina poyabzallar) ajralib turadi.

XXI asr boshlarida jahon xo'jaligida asbob-uskunalar majmuasini ishlab chiqarish va ishlab chiqarish korxonalarini «tayyor» holda topshirish bo'yicha ixtisoslashuv rivojlana boshladi.

Detalli ixtisoslashuv — bu alohida detallar, butlovchi qismlar, agregatlar va ularni keyinchalik ushbu qismlarni yig'uvchi, tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarga yetkazib berishga ixtisoslashuvdir.

Turli mamlakatlarga tegishli korxonalarning tayyor mahsulot qismlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvlari zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq. Ishlab chiqarishning texnologik tarkibidagi murakkabliklar tayyor mahsulotni ishlab chiqarishda qo'llaniladigan detallar va butlovchi qismlarning ko'payishiga olib keldi. Masalan, yengil avtomobilda 20 mingtagacha, po'lat quyuvchi stanoklarda 100 mingtagacha, elektrovozlarda esa 250 mingtagacha detallar va butlovchi qismlar mavjud.

Bunday ixtisoslashuvga Shvetsiyada ishlab chiqarilgan «Volvo» rusumli avtomobilni misol sifatida keltirish mumkin. O'zbekistonlik iste'molchi Toshkentda shu markadagi avtomobilni sotib olar ekan shved mahsulotining uchdan biriga ega bo'ladi. Shvetsiyadagi avtomobil kompaniyasi butlovchi qismlarning 60 %dan ortiqrog'ini xorijdan keltiradi.

Texnologik ixtisoslashuv mamlakatning tayyor mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liq muayyan operatsiyaga ixtisoslashuvini anglatadi (ya'ni muayyan texnologik jarayon, masalan, yig'ish, bo'yash, tayyorlash va h. k.).

Xalqaro mehnat taqsimotining boshqa bir shakli — xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasidir. Uning obyektiv asosi bo'lib, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining o'sib borayotgan darajasi hamda mamlakat ichida yoki tashqarisida ro'y

berishidan qat'i nazar, mustaqil korxonalar o'rtasidagi barqaror ishlab chiqarish aloqalari jarayoni hisoblanadi.

Ishlab chiqarish kooperatsiyasi ma'lum bir munosabatlar tizimi sifatida faoliyatning sohasi va hamkorlikning usuli hisoblanadi.

Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi o'zining rivojlangan shakllarida hamkorlikning turli sohalarini qamrab oladi.

1. Ishlab chiqarish-texnologik hamkorlik. Ular: a) litsenziyalar berish va mulkchilik huquqlaridan foydalanish; b) loyiha-konstruktorlik hujjatlarini, texnologik jarayonlarni, mahsulotning texnik darajasi va sifatini, qurilish va montaj ishlari, kooperatsiyalashgan korxonalarni zamonaviylashtirishni ishlab chiqish va moslashtirish; d) ishlab chiqarishni boshqarish, standartlashtirish, unifikatsiyalash, sertifikatsiyalashni takomillashtirish, ishlab chiqarish dasturlarini taqsimlash.
2. Kooperativ mahsulotni sotish bilan bog'liq bo'lgan savdo-iqtisodiy jarayonlar.
3. Sotilgan texnikaga xizmat ko'rsatish.

Kooperatsiya aloqalarini o'rnatishda foydalaniladigan quyidagi uch usul alohida ko'rsatib o'tilishi lozim:

- hamkorlikdagi dasturlarni amalga oshirish;
- shartnoma asosida ixtisoslashish;
- qo'shma korxonalar tashkil qilish.

Hamkorlikdagi dasturlarni amalga oshirish, o'z navbatida, ikki shaklda amalga oshadi: pudratli ishlab chiqarish kooperatsiyasi va hamkorlikdagi ishlab chiqarish.

Shartnoma asosida ixtisoslashish ishlab chiqarish dasturlarini ishlab chiqarish kooperatsiyasi ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanishini nazarda tutadi.

Qo'shma korxonalar — bu integratsiyalashgan kooperatsiyadir.

Xalqaro ishlab chiqarishning kooperatsiyalashuvi yuqori texnologik tarmoqlar, jumladan mashinasozlikda keng tarqalgan bo'lib, mashinasozlik korxonalari yagona fabrikaning alohida sexlari kabi turli mamlakatlarda yagona reja va o'zaro kelishilgan sur'atlarda ishlashadi. Bunday kooperatsiyalashuvni mashina va transport vositalarining umumiy eksportidagi detallar hamda qo'shimcha qismlar ulushi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida kuzatish mumkin. Misol uchun, ushbu ko'rsatkich 1995-yilda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) mamlakatlarida 30 %ni, TMK larning filiallari faoliyat yuritayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich yanada yuqori: Tayvanda — 36,3 %, Gonkongda — 46,2 %, Barbadosda — 61,6 %, Nikaraguada — 81,6 %ga teng bo'ldi.

16.4. XMT ning zamonaviy G'arb nazariyalari

XMT ni modernizatsiya qilish sohasidagi G'arb tadqiqotlarini shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin:

- «o'zaro bog'liqlik» konsepsiyasi va uning turli ko'rinishlari;
- XMT ning mavjud modellarini qayta qurish bo'yicha aniq tavsiyalar va rejalar.

XX asrning 70-yillari o'rtalarida yaratilgan «o'zaro bog'liqlik» konsepsiyasida ilgari surilgan g'oyalar eng keng tarqalgan. Ular mehnat taqsimotiga oid yangi va optimal nazariyalarning asosi bo'lib qoldi. Ushbu g'oyalar ba'zi sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan rasmiy doktrina sifatida qabul qilindi.

«O'zaro bog'liqlik» konsepsiyasi vakillaridan biri — gollandiyalik iqtisodchi K. Nuvenxuze o'z fikrlarini tasdiqlashda, avvalo, barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan ekologik omillarga murojaat qiladi. K. Nuvenxuze ularga atrof-muhitning barqaror emasligi va yerdagi tabiiy resurslarning cheklanganligini kiritadi.

Uning fikricha, rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan xomashyo bo'yicha, rivojlanayotgan mamlakatlar esa rivojlangan mamlakatlarga nisbatan texnika, texnologiya va h.k.lar bo'yicha qaram. Demak, ular o'rtasida o'zaro bog'liqlik va «o'zaro tazyiq» mavjud. K. Nuvenxuze xalqaro mehnat taqsimotini yuqoridagilardan kelib chiqqan holda qurish kerak, deb hisoblaydi. Bu nazariya boshqa mamlakatlarda haqqoniy tanqidga uchradi.

Yana bir iqtisodchi R. Kuper (AQSh) ham o'zaro bog'liqlik masalasiga murojaat qiladi va uni turli yo'nalishlar bo'yicha ko'rib chiqadi. Uning fikricha, o'zaro bog'liqlikning to'rt turi mavjud:

1. Tarkibiy — mamlakatlar bir-birlariga nisbatan qanchalik ochiq va o'zaro bog'liq bo'lsa, bir mamlakat iqtisodiyotida ro'y berayotgan o'zgarish ikkinchi mamlakat iqtisodiyotida ham o'z aksini topadi.
2. Iqtisodiy siyosat sohasidagi maqsadlar borasidagi o'zaro bog'liqlik.
3. Iqtisodiy rivojlanishning tashqi omillari borasidagi o'zaro bog'liqlik.
4. Siyosiy o'zaro bog'liqlik.

Ba'zi jihatlariga ko'ra mazkur nazariya ijobiy xususiyatga ega va mamlakatlarning jahon xo'jaligi tizimi doirasida o'zaro bog'liqlik tendensiyalarining kuchayayotganligini aniq ko'rsatib beradi.

«O'zaro bog'liqlik» konsepsiyalari umumiy xususiyatga ega. Ular boshqa iqtisodiy nazariyalar guruhi, ya'ni xalqaro mehnat taqsimotini zamonaviylashtirish nazariyalari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro mehnat taqsimotini zamonaviylashtirishning asosiy g'oyasi rivojlanayotgan mamlakatlarning proteksionizm siyosatidan voz kechishlari va iqtisodiyotga xorijiy kapitalni keng miqyosda jalb etishlari lozimligini ilgari suradi.

Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar xuddi shunday yo'l tutdilar. Ular «ochiq eshiklar», «ochiq iqtisodiyot» siyosatini e'lon qilishdi, ko'plab qo'shma korxonalar, erkin tadbirkorlik iqtisodiy zonalari tashkil etishdi va h.k. Bu, jumladan, Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi «yangi industrial mmalakatlar»da keng yoyildi. Shu bilan birga, ular proteksionizm g'oyalaridan ham to'liq voz kechishmadi.

G'arb iqtisodchilari va siyosatchilarining «Janub» proteksionizmini yumshatishga qaratilgan chaqiriqlariga nisbatan «janubliklar» ham rivojlangan «Shimol»dan shunga o'xshash turli preferensiyalar talab qilishmoqda.

G'arb iqtisodchilari nuqtayi nazariga ko'ra yangi va zamonaviy xalqaro mehnat taqsimoti g'oyalarining amaliy mohiyati nimada? Ushbu g'oyalarni asosiy mazmuni rivojlanayotgan mamlakatlarni industriya siyosatida yangi sohalarga yo'naltirish hisoblanadi. Ularga, birinchi navbatda, sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar ehtiyojini qondirish uchun mo'ljallangan mehnat, hamda material sig'imkorligi yuqori hamda standartlashtirilgan tovarlarni ishlab chiqarish va eksport qilishga ixtisoslashuv taklif etilmoqda.

Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar esa yuqori malakali ishchi kuchi talab qilinadigan va fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot sohalariga ixtisoslashishlari lozim.

Bu nazariya amaliyotda asta-sekin amalga oshirilmoqda. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarga jalb etilayotgan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar ko'rinishidagi xorijiy kapitalning umumiy hajmida qayta ishlash sanoatiga yo'naltirilgan kapital ulushi ortib bormoqda. Shu bilan birga «zararli» ishlab chiqarishning rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chish jarayoni ro'y bermoqda.

Tarmoqli ixtisoslashuv quyidagi uch bosqichli sxema bo'yicha amalga oshmoqda:

- rivojlangan mamlakatlar, asosan, nisbatan malakali mehnat va zamonaviy texnologiyalar talab qiluvchi tovarlar ishlab chiqarishmoqda;
- rivojlanayotgan mamlakatlarning ba'zilari (kam rivojlanganlari) mehnat sig'imkorligi yuqori mahsulotlarni ishlab chiqarish va jahon bozoriga xomashyo yetkazib berishga ixtisoslashmoqda;
- sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar kapital sig'imkorligi yuqori bo'lgan texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishni kuchaytirishga intilmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimotining zamonaviy konsepsiyalari va uni zamonaviylashtirish borasidagi rejalarni tahlil etish, shuningek, mazkur konsepsiyalarni amaliyotga joriy etish jahon ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining hozirgi darajasida sanoat jihatdan taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida yangi turdagi xalqaro ixtisoslashish hamda kooperatsiyalashuvning vujudga kelayotgani va rivojlanayotgan davlatlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining kuchayayotganini ko'rsatmoqda.

Asosiy tushunchalar

Mehnat taqsimoti — tarixan belgilangan ijtimoiy mehnat tizimi bo'lib, u jamiyatning rivojlanish jarayonidagi faoliyatning sifat jihatdan tabaqalashuvi natijasida shakllanadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti — bu davlatlar o'rtasida mehnatning ijtimoiy-hududiy taqsimlanishi bo'lib, u alohida davlatlar ishlab chiqarishlarining ixtisoslashuviga asoslanadi.

Xalqaro ixtisoslashuv — mamlakatning ma'lum bir tovarni ishlab chiqarishga o'z salohiyatini konsentratsiyalashuvi.

Xalqaro kooperatsiyalashuv — mamlakatlarning oldindan o'zaro kelishilgan holda ishlab chiqarishga xalqaro ixtisoslashuvi.

Hamkorlikdagi dasturlarni amalga oshirish — pudratli ishlab chiqarish kooperatsiyasi va hamkorlikdagi ishlab chiqarish.

Shartnoma asosida ixtisoslashish — ishlab chiqarish dasturlarini ishlab chiqarish kooperatsiyasi ishtirokchilari orasida taqsimlanishini nazarda tutadi.

Qo'shma korxonalar — integratsiyalashgan kooperatsiya.

Nazorat savollari

1. Xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuvning rivojlanishi milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka qanday ta'sir o'tkazadi?
2. Ishlab chiqarish omillaridan biri hisoblangan yer bilan bog'liq kooperatsiya iqtisodiy mazmunga egami?
3. Jahon xo'jaligi tizimida xalqaro mehnat taqsimoti qanday o'rin egallaydi?
4. Qaysi omillar xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuviga ta'sir ko'rsatadi?
5. Xalqaro mehnat taqsimoti chuqurlashuvining zamonaviy xususiyatlariga misollar keltiring.
6. Xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv o'rtasidagi farq nimadan iborat?
7. Milliy iqtisodiyotning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish darajasini belgilab beruvchi asosiy omillarni sanab o'ting. Ushbu omillar ta'sirini tushuntirib bering.

17-BOB. XALQARO SAVDO NAZARIYALARI

17.1. Merkantilizm va erkin savdo g'oyasi

Xalqaro savdoga oid nazariyalar o'z tarixiga ega. Bu boradagi ilk iqtisodiy ta'limot XVII asrdayoq yaratilgan. O'rta asrlarda ro'y bergan Yevropadagi ulkan o'zgarishlar, jumladan, yangi qit'alarning kashf etilishi, mustamlakalardagi oltin va boshqa boyliklarni egallab olishga intilish o'z-o'zini ta'minlashni targ'ib etuvchi feodalizm nazariyasi doirasidan chiqib ketgan yangi xo'jalik tizimi doirasida tovarlar rolini va davlatlarning xalqaro savdoga bo'lgan talabini asoslab bera oladigan yangi iqtisodiy nazariyaga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Shunday nazariyalardan biri merkantilizm ta'limotidir. Merkantilizm maktabi XVI–XVII asrlarda faoliyat ko'rsatgan. Uning eng yirik vakillari ingliz iqtisodchilari Tomas Man (1571–1641) va Uilyam Staffordlar (1554–1612) hisoblanishadi.

Merkantilistlar o'z nazariyalarida faqat cheklangan miqdordagi boylikka ega bo'lgan statik qarashlarni qo'llab-quvvatlaganlar. Shu sababdan biron-bir mamlakat boyligining ko'payishi faqatgina boshqa mamlakatning qashshoqlashishi evaziga amalga oshishi mumkin. Demak, boylikning ko'payishi qayta taqsimot evaziga amalga oshar ekan, har bir mamlakat mustahkam iqtisodiyotga va boshqa davlatlar ustidan hukmronlikni ta'minlab bera oladigan armiya, harbiy va savdo flotidan iborat kuchli davlat qurilmasiga ega bo'lishi zarur deb hisoblashgan.

Merkantilistlar iqtisodiyotni ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va harbiy koloniyalar sektoriga bo'lishgan. Savdogarlar iqtisodiyotning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishida eng muhim guruh, deb hisoblangan, mehnat esa ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida baholangan. Mamlakatning boyligi uning ixtiyorida bo'lgan oltin va kumush bilan belgilanligi sababli tashqi savdo maktabi mamlakat milliy iqtisodiyotini mustahkamlashi uchun quyidagilarga amal qilish lozim, deb hisoblashgan:

- tashqi savdoda musbat saldoni ta'minlash — eksportning importdan katta bo'lishi mamlakatning oltin zaxirasini boshqa mamlakatlarning oltin manbalari hisobiga o'sishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, ichki xarajatlar, ishlab chiqarish va bandlikning oshishiga olib keladi;
- eksportni oshirish va importni kamaytirishga qaratilgan tashqi savdo siyosatini yuritish — tariflar, kvotalar va boshqa dastaklar yordamida savdo balansining musbat savdo saldosini ta'minlash;
- xomashyoning olib chiqilishini qattiq cheklash yoki ta'qiqlash va mamlakatda mavjud bo'lmagan xomashyo importidan boj undirmaslik, chunki bunday chora-tadbirlar mamlakat oltin zaxirasining ko'payishi va tayyor mahsulotlarni past narxlar bo'yicha eksport qilish imkonini yaratadi;
- mustamlakalarning metropoliyadan boshqa davlatlar bilan har qanday savdo aloqalarini ta'qiqlash va mustamlakalarni xomashyo ta'minotchisiga aylantirish.

Merkantilistlar g'oyasiga binoan iqtisodiy tizimda to'liq bandlikka erishib bo'lmaydi. Shu sababli xorijdan keladigan qo'shimcha oltin qo'shimcha ish joylarning yaratilishiga, ishsizlik darajasining pasayishi va ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishiga olib keladi.

Merkantilistlar xalqaro savdo nazariyasi rivojlanishiga jiddiy ulush qo'shdilar. Ular xalqaro savdoning mamlakat iqtisodiy o'sishidagi o'rnini birinchi bo'lib chuqur tahlil qildilar va uning rivojlanishining muhim modellaridan birini ishlab chiqdilar.

Ular birinchi bo'lib zamonaviy iqtisodiyotda to'lov balansi, deb ataladigan tushunchani ta'rifladilar.

Merkantilistlar g'oyasining kamchiligi — bu ularni bir mamlakat boyishi boshqa mamlakatlarning qashshoqlashishi hisobiga amalga oshadi deb hisoblashganidir. Bunday g'oyaga amal qilish jahon iqtisodiyotida iqtisodiy disproporsiyalarga va iqtisodiy vaziyatning keskinlashuviga olib keldi. Metropoliyalarning mustamlakalar hisobidan boyishi ularda haddan ziyod oltin massasining to'planishiga va shu orqali giperinflyatsiyaga olib keldi.

Merkantilistlarning g'oyalari xalqaro iqtisodiyotdagi keyingi maktablari g'oyalariga ilmiy yo'nalish berdi. Merkantilistlar g'oyalari bir yarim asr maboynida keng qo'llanilgan. Buning natijasida XVIII asrda xalqaro savdo aloqalarida keskinliklarning kuchayishi holatlari kuzatilgan.

«Erkin savdo» nazariyasi. Merkantilistlarni keskin tanqid qilgan iqtisodchilardan biri Adam Smitdir (1723–1790). A. Smit mamlakatning boyligi u ega bo'lgan oltin miqdoriga emas, balki uning ishlab chiqarish imkoniyatlariga bog'liqligini ko'rsatib berdi. Shuning uchun har qanday davlatning bosh vazifasi mamlakat ega bo'lgan oltin miqdorini oshirish emas, balki xalqaro mehnat taqsimotida o'ziga xos munosib o'rin egallashdan iboratdir. Shuningdek, A. Smit g'oyalariga binoan ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash kerak. Ushbu siyosat «Lessa fer»[1] nomini oldi.

A. Smit qarashlariga muvofiq:

- davlat tashqi savdoga aralashishi kerak emas va mamlakat erkin savdo rejimiga rioya qilishi lozim;
- mamlakatlar ishlab chiqarishda afzallikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishlari kerak va bu tovarlarni boshqa mamlakatlar afzallikka ega bo'lgan tovarlar bilan ayirboshlashi kerak;
- tashqi savdo milliy bozorlarni boshqa mamlakatlar hisobiga kengaytirish orqali mehnat unumdorligining o'sishini ta'minlaydi;
- eksport mamlakat iqtisodiyoti uchun ijobiy omil hisoblanadi, chunki u ichki bozorda sotilmagan ortiqcha mahsulotlarni xorijga sotish imkonini beradi;
- eksport subsidiyalari ichki soliqlar hisobidan moliyalashtiriladi va ichki narxlarning oshishiga olib keladi. Shuning uchun ularni bekor qilishi kerak.

17.2. Mutlaq va nisbiy afzallik nazariyalari

A. Smit iqtisodiy nazariyaga birinchi bo'lib «mutlaq afzallik» tushunchasini kiritdi.

Mutlaq afzallik — mamlakatlar mutlaq afzallikka ega bo'lgan (tannarxi pastroq bo'lgan) tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi va ularni eksport qilishadi, boshqa tovarlarni (boshqa mamlakatlar mutlaq afzallikka ega tovarlarni) esa import qilishadi.

Bu nazariyani tushuntirish uchun «ikki mamlakat — ikki xil tovar» modelidan foydalanamiz. Faraz qilaylik, ikkita mamlakat (Buyuk Britaniya va Portugaliya) o'zaro savdo aloqalarini o'rnatishmoqchi. Bu mamlakatlar faqat ikki xil tovar (mato va vino) ishlab chiqarishadi. Bu tovarlarni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan mehnat resurslarining me'yorlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

1 Lesse fer — fransuzcha «laissez-faire», ya'ni davlatning iqtisodiyotiga aralashmaslik va raqobat erkinligi siyosati.

17.2.1-jadval
Mamlakatlarning bir birlik tovar ishlab chiqarish uchun sarflaydigan ish vaqti

	Buyuk Britaniya	Portugaliya
Vino (1 l)	4 soat	3 soat
Mato (1 m^2)	2 soat	3 soat

Jadval ma'lumotlaridan Buyuk Britaniyaning mato ishlab chiqarishda mutlaq afzallikka ega ekanligi ko'rinib turibdi. Chunki Buyuk Britaniyada 1 m^2 mato ishlab chiqarish uchun 2 soat sarflansa, Portugaliyada 3 soat saflash kerak. Demak, bu mahsulotning Buyuk Britaniyadagi tannarxi Portugaliyadagiga nisbatan arzonroq bo'ladi. O'z navbatida, Portugaliya vino ishlab chiqarishda mutlaq afzallikka ega. Chunki bu mamlakatda 1 l. vino ishlab chiqarish uchun Buyuk Britaniyaga nisbatan 1 soat kamroq vaqt sarflanadi. Demak, A. Smitning «mutlaq afzallik» nazariyasiga binoan Buyuk Britaniya mato ishlab chiqarishga ixtisoslashishi va uni eksport qilishi kerak. O'z navbatida, Portugaliya vino ishlab chiqarishga ixtisoslashadi va Buyuk Britaniya bu mahsulotni Portugaliyadan import qiladi.

A. Smitning «mutlaq afzallik» nazariyasi uzoq yillar davomida ko'plab mamlakatlarning tashqi savdo siyosati strategiyasining asosini tashkil qildi va bu mamlakatlar erkin savdo siyosatini yuritishdi.

Ammo «mutlaq afzallik» nazariyasida bir qator kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan. Xususan, bu model mutlaq afzallikka ega bo'lmagan mamlakatning xalqaro savdodagi ishtirokini tushuntirib bera olmaydi. Faraz qilaylik, Buyuk Britaniya va Portugaliya o'rtasidagi savdoda mato va vinoni ishlab chiqarish bo'yicha mutlaq ustunlik Buyuk Britaniyaga tegishli bo'lsin. Bu tovarlarni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan mehnat resurslarining me'yorlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

17.2.2-jadval
Mamlakatlarning bir birlik tovar ishlab chiqarish uchun saflaydigan ish vaqti

	Buyuk Britaniya	Portugaliya
Vino (1l)	2 soat	3 soat
Mato (1m^2)	2 soat	6 soat

Bunday sharoitda mutlaq afzallikka ega bo'lmagan mamlakatda ham xalqaro savdoda ishtirok etishdan foyda olishini ingliz iqtisodchisi D. Rikardo birinchilardan bo'lib isbotlab bergan. David Rikardo (1772–1823) mamlakatning xalqaro savdoda ishtirok etishidan oladigan foydasi muqobil narx bilan belgilanishini isbotlagan.

Muqobil narx — bu bir birlik tovarning ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatning ikkinchi tovarni ishlab chiqarishga zarur bo'lgan xarajat orqali ifodalanishidir. Bizning misolimizda 1 l vinoning Buyuk Britaniya uchun muqobil narxi 2 soat/2 soat=1 ga teng bo'lsa, Portugaliyada 3 soat/6 soat=0,5 ga teng. Bu esa vino ishlab chiqarish Portugaliyada Buyuk Britaniyaga nisbatan arzonroq bo'lishini aks ettiradi. Shu sababli mutlaq afzallikka ega bo'lmagan Portugaliya Buyuk Britaniya bilan savdo aloqalariga kirishsa, vino ishlab chiqarishga ixtisoslashadi va uni eksport qilib, o'rniga matoni import qiladi.

Nisbiy afzallik — agar mamlakat boshqa mamlakatga nisbatan kam xarajatlar bilan ishlab chiqarish mumkin bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashsa,

o'zaro savdo ikkala mamlakat uchun ham foydali bo'ladi. Bunda ishlab chiqarish bo'yicha mutlaq afzallik bo'lishi shart emas.

17.3. Xeksher-Olin nazariyasi. V. Leontyev paradoksi

A. Smit, D. Rikardo va Dj. S. Mill nazariyalarida xalqaro savdoda mamlakatning o'rnini aniqlash uchun faqat bitta ishlab chiqarish omili bor deb faraz qilingan. Bu nazariyalarda mamlakatning xalqaro savdoda egallashi mumkin bo'lgan o'rni ulardagi mehnat unumdorligi bilan belgilangan. Shu sababli bu olimlarning ishlarini davom ettirganlar xalqaro savdoni bir nechta ishlab chiqarish omillari mavjudligida tahlil qilishga harakat qilishgan.

Shved iqtisodchilari E. Xeksher va B. Olin o'z tahlillarida ishlab chiqarishning ikki omilini — kapital va mehnat omilini ko'rib chiqdilar. Ularning ta'kidlashicha, ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik darajasiga ko'ra mamlakatlarni quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Mehnat omiliga boy mamlakatlar — bu mamlakatlarda mehnat resurslari ko'p va arzon bo'ladi. Ularga misol qilib Xitoy va O'zbekiston kabi mamlakatlarni keltirish mumkin.
2. Kapital omiliga boy mamlakatlar — bu mamlakatlarda kapital katta hajmlarda jamlangan bo'ladi, ammo mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi pastroq bo'ladi. Shu sababli bu mamlakatlarda real ish haqi darajasi yuqori bo'ladi va mehnat resurslarining kapital bilan ta'minlanganlik darajasi yuqori bo'ladi. Ularga misol tariqasida AQSh va Germaniya kabi mamlakatlarni keltirish mumkin.

Bundan tashqari, tovarlarini ham ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Mehnat sig'imkorligi yuqori bo'lgan tovarlar — bu turdagi tovarlarni ishlab chiqarishda kapitaldan ko'ra mehnat resurslari ko'proq talab qilinadi. Bu turdagi tovarlarga misol qilib qishloq xo'jalik mahsulotlarini keltirish mumkin.
2. Kapital sig'imkorligi yuqori bo'lgan tovarlar — bu turdagi tovarlarni ishlab chiqarishda mehnat resurslaridan ko'ra kapital ko'proq talab qilinadi. Bu turdagi tovarlarga misol sifatida qayta ishlash sanoati mahsulotlarini keltirish mumkin.

Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi — mamlakat qaysi ishlab chiqarish omili bilan nisbatan yaxshi ta'minlangan bo'lsa, shu omilni nisbatan ko'proq talab qiluvchi tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashishi va uni eksport qilishi kerak.

Demak, Xeksher-Olin nazariyasiga binoan AQSh bilan Xitoy o'zaro savdo aloqalariga kirishsa, AQSh kapital omiliga boy mamlakat sifatida qayta ishlash sanoati mahsulotlarini eksport qiladi va Xitoydan mehnat sig'imkorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini import qiladi.

Ushbu nazariya XX asrda ko'plab mamlakatlarning tashqi savdo siyosatining asosini tashkil qilishiga qaramasdan unda ko'plab kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Xususan, Xeksher-Olin nazariyasida mamlakatlarning vaqt o'tishi bilan ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlanganligi ham o'zgarishi inobatga olinmagan. Bundan tashqari, bir ishlab chiqarish omilining o'rniga boshqasini qo'llash mumkinligi va shu sababli kapitalga boy mamlakatlar ham mehnat sig'imkorligi yuqori bo'lgan tovarlarni eksport qilishi mumkinligi inobatga olinmagan.

Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi o'zining barcha kamchiliklariga qaramay, hozirgi kunga qadar xalqaro savdoning rivojlanishini tushuntirib beruvchi eng ilg'or nazariyalardan biri sanaladi. Ushbu nazariya ko'p marotaba katta

hajmdagi statistik ma'lumotlar asosida turli mamlakatlarga taalluqli tovar va ishlab chiqarish omillari bo'yicha empirik sinovlardan o'tdi. Ushbu sinovlardan eng mashhurini AQSh da 1953-yilda V. Leontyev o'tkazdi.

V. Leontyev bir qancha empirik sinovlar o'tkazish yo'li bilan Xeksher-Olin tomonidan ishlab chiqilgan nazariyaning shartlari amaliyotda qo'llanilmasligini isbotladi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSh ni boshqa mamlakatlar bilan qiyosiy taqqoslanganda, o'rtacha ish haqi darajasi eng yuqori mamlakat va kapitalga boy davlatlardan sanalardi. Shu sababli mamlakat Xeksher-Olin nazariyasiga muvofiq, kapital sig'imkorligi yuqori mahsulotlarni eksport qilishi lozim edi. V. Leontyev ushbu gipotezani tekshirish maqsadida 1 mln. dollarlik eksport va shuncha miqdordagi import mahsulotlariga raqobatbardosh tovarlarni ishlab chiqarish uchun qancha kapital va ishchi kuchi sarf etilishini hisoblab chiqdi. U har bir ishlab chiqarish sohasi bo'yicha tovar birligi uchun sarf etiladigan kapital va mehnatni hisobladi. Bunda u faqatgina avtomashina kabi tayyor mahsulotlar bilan chegaralanib qolmay, balki yarimtayyor mahsulotlar (rezina, po'lat, oyna kabilar) uchun ketadigan kapital va ishchi kuchini ham hisoblab chiqdi.

So'ngra AQSh ning 1947-yildagi eksport tarkibidan kelib chiqqan holda 1 mln. dollarlik eksport tovarlarini ishlab chiqarishga ketadigan kapital va mehnatning o'zaro nisbatini aniqladi. AQSh ning o'sha yildagi importi tarkibidan mamlakatda ishlab chiqarilmaydigan tovarlarni ayirib tashladi va bevosita import mahsulotlarning o'rnini bosa oladigan Amerika tovarlarini ishlab chiqarish uchun sarf etiladigan kapital va mehnat nisbatini hisoblab chiqdi. Aslida u Amerika importi birligiga sarf etiladigan kapital va mehnat *(K/L) im* hamda eksport birligiga sarf etiladigan kapital va mehnat *(K/L) x* nisbatini solishtirdi.

«Leontyev statistikasi» nomini olgan ushbu nisbatga muvofiq, agar mamlakatda kapital va mehnat sarfi nisbati $\frac{(K/L)im}{(K/L)x} < 1$ bo'lsa, mamlakat kapitalga boy hisoblanadi.

Agar bu nisbat $\frac{(K/L)im}{(K/L)x} > 1$ bo'lsa, mamlakatda mehnat resurslari ko'p hisoblanadi. Leontyev Xeksher-Olin nazariyasiga muvofiq Amerika eksport tovarlari importning o'rnini bosa oladigan tovarlarga qaraganda ko'proq kapital talab etilishini kutgan edi. Ammo kutilgan natija aksincha bo'lib chiqdi: Amerika importining kapital sig'imkorligi eksportga nisbatan 30 %ga yuqori ekan, demak, AQSh kutilganidek kapitalga boy mamlakat emas, balki aksincha, mehnatga boy mamlakat ekanligi kelib chiqmoqda, bu amaldagi tasavvurga umuman to'g'ri kelmadi.

Leontyev statistik ma'lumotlarga Ikkinchi jahon urushi o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lishi mumkin deb hisoblab, 1951-yilda ushbu hisob-kitobni yana takrorladi. Amerika importi bu safar ham eksportga qaraganda kapital sig'imkorligi yuqori ekanligini ko'rsatdi (bu safar 6 %ga xolos).

Leontyevning davomchilari 1962-yilda ushbu hisob-kitobni takrorladilar. Ammo yana kutilgan natija olinmadi. Bu safargi hisob-kitoblarga muvofiq AQSh importining kapital sig'imkorligi 27 %ga eksportning kapital sig'imkorligidan yuqori chiqdi.

Leontyev modeli boshqa mamlakatlar uchun ham qo'llanildi. Ammo natija doimo Xeksher-Olin nazariyasini inkor etardi. Misol uchun, 1950-yillarda mehnat

resurslariga boy, deb hisoblangan Yaponiya kapital sig'imkorligi yuqori bo'lgan tovarlarni eksport qilgan ekan.

Leontyev modeli asosida amalga oshirilgan hisob-kitoblar Xeksher-Olin nazariyasini inkor etganligi uchun ushbu tadqiqotlar natijasi iqtisodchi olimlar tomonidan «Leontyev paradoksi» deb nomlandi.

Leontyev paradoksi — Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi amaliyotda o'z tasdig'ini topmagan: mehnat resursiga boy mamlakatlar kapital sig'imkorligi yuqori bo'lgan tovarlarni eksport qiladi, kapitalga boy mamlakatlar esa mehnat sig'imkorligi yuqori bo'lgan tovarlarni eksport qiladi.

Keyinchalik Leontyev paradoksi atrofida qizg'in tortishuvlar boshlanib ketdi. Tortishuvlar Xeksher-Olin nazariyasining to'g'riligini isbotlashga qaratildi:

- Ishchi kuchini malakali va malakasiz ishchilar guruhiga bo'lish hamda har bir guruhning eksport tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlaridagi ulushini hisoblash zarur. Amerikalik olim D. Kising 1966-yilda e'lon qilgan tadqiqotlarida ishchi kuchini malakasiga ko'ra 8 xil kategoriyaga bo'ladi. Shu orqali AQSh da yuqori malakali ishchilarning ortiqchaligi va malakasiz ishchilarning esa yetishmasligini isbotladi. Shuning uchun AQSh yuqori malakali ishchilar mehnatini talab etuvchi mahsulotlarni eksport qiladi. Malakali kadrlarni tayyorlashga ketadigan xarajatlarni kapital sarflar sifatida baholash mumkin deydi. Bu esa malakali ishchilar yordamida ishlab chiqarilgan tovarlarning kapital sig'imkorligi yuqori deb hisoblashga asos bo'ladi.
- AQSh importida qazib chiqarish sanoati mahsulotlarining ulushi yuqoridir. Bu mahsulotlarni qazib chiqarish katta miqdordagi kapital xarajatlarni talab qiladi. O'z navbatida, bu mahsulotlardan eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarda keng foydalaniladi va shu sababli AQSh ning eksport tarmoqlarida ham kapital sig'imkorligi yuqori bo'ladi, deb hisoblash mumkin. Amerikalik olim Dj. Xartigen V. Leontyev hisob-kitoblarini o'sha davr uchun takrorladi va kapital ko'p talab qiluvchi xomashyoga bog'liq tarmoqlarni e'tiborga olmadi. Natijada paradoks yo'qoldi va Xeksher-Olin nazariyasi o'z isbotini topdi.
- V. Leontyev o'z tadqiqotlarida AQSh hukumatining ichki tarmoqlarni tashqi raqobatdan himoya qilishga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosatini e'tiborga olmagan. 1971-yilda amerikalik olim R. Beldvi tomonidan amalga oshirilgan qayta hisob-kitoblarda tashqi savdo siyosati xususiyatlari inobatga olingan va V. Leontyev paradoksining samarasini 5 %ga qisqartirishga erishilgan.
- V. Leontyev tadqiqotlarida AQSh aholisining didi inobatga olinmagan. Amerikaliklar kapital sig'imkorligi yuqori bo'lgan tovarlarni xush ko'rishadi va o'zlarida ko'p bo'lishiga qaramasdan xorijdan bunday tovarlarni sotib olishadi. Aholi didining xalqaro savdoga ta'siri Xeksher-Olin nazariyasida o'rganilmagan va shu sababli bunday sharoitda xalqaro savdoni boshqa modellar orqali o'rganish zarur.
- ba'zi tovarlarni ishlab chiqarishda omillarning bir-birining o'rnini bosish darajasi yuqori bo'ladi. Bunday sharoitda bitta tovarni ishlab chiqarish kapitalga boy mamlakatlarda ko'proq kapital talab qilishiga, mehnat resurslariga boy mamlakatlarda esa ko'proq mehnat resurslarini talab qilishiga olib keladi. Masalan, AQSh da sholi yetishtirish ilg'or texnologiya yordamida amalga oshirilganligi bois, bu tovar AQSh da kapital sig'imkorligi yuqori tovarlar guruhiga kiradi, Vyetnamda esa sholi ishlab chiqarish, asosan, mehnat resurslaridan foydalanishga asoslanganligi uchun sholi yuqori mehnat sig'imkorligiga ega bo'ladi. Chunki, Vyetnamda sholi, asosan, arzon qo'l mehnati yordamida yetishtiriladi.

17.4. Xalqaro savdoning yangi va o'ta yangi nazariyalari

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro savdo nazariyalarini ishlab chiqish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirila boshlandi:

1. **Klassik maktab nazariyalarini rivojlantirishga va kengaytirishga yo'naltirilgan nazariyalar.** Bu nazariyalarga misol qilib P. Samuelson va R. Djonslarning «maxsus ishlab chiqarish omillari» nazariyasini keltirish mumkin.
2. **Klassik maktab nazariyalarini inkor etmagan holda xalqaro savdoning bu nazariyalarda o'rganilmagan jihatlarini tahlil qilishga yo'naltirilgan nazariyalar.** Bu nazariyalarga misol qilib S. Linderning «kesishuvchan talab» nazariyasini keltirish mumkin.
3. **Klassik maktab nazariyalarini inkor etuvchi va xalqaro savdoning yangi asoslarini topishga yo'naltirilgan nazariyalar.** Bu nazariyalarga misol qilib «miqyos samarasi» nazariyasini, «xalqaro savdoning dinamik modeli» nazariyasini va B. Balassaning «tarmoq ichidagi savdo» nazariyasini keltirish mumkin.

P. Samuelson va R. Djons o'zlarining «Maxsus ishlab chiqarish omillari» nazariyalarida Xeksher-Olin nazariyasini rivojlantirish va kengaytirishga harakat qilishgan. Xeksher-Olin nazariyasida ishlab chiqarish omillarining faqat ikki xil turi — kapital va mehnat inobatga olingan bo'lsa, «Maxsus ishlab chiqarish omillari» nazariyasida ushbu omillar soni uchtaga yetkazildi, bular kapital, mehnat va yer omillaridir. Bundan tashqari, Samuelson-Djons nazariyasida ishlab chiqarish omillarini ikki guruhga bo'lish taklif etiladi:

1. **Ishlab chiqarishning maxsus omillari** — muayyan tarmoqlarda keng qo'llaniluvchi va boshqa tarmoqlarda esa deyarli qo'llanilmaydigan ishlab chiqarish omillari. Ushbu omillar faqat bir tarmoqqa tegishli bo'lganligi uchun tarmoqlararo ko'chib yurmaydi. Misol uchun, kapital sanoat tarmoqlarida keng qo'llaniladi, qishloq xo'jaligida esa uning ahamiyati yuqori emas. Chunki qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish omillarining revers samarasi yuqori bo'lganligi kapital o'rniga mehnat resurslaridan keng foydalanish imkoniyatini beradi. Boshqa tarafdan yuqori unumdorlikka ega bo'lgan yer qishloq xo'jaligi uchun maxsus omil bo'ladi. Chunki sanoatda yerning unumdorlik darajasi hech qanday ahamiyat kasb qilmaydi.
2. **Harakatchan omil** — hamma tarmoqlarda keng qo'llaniluvchi va shu sababli tarmoqlararo erkin harakatlanuvchi ishlab chiqarish omili. Bu omilga misol qilib mehnat resurslarini keltirish mumkin. Misol uchun, agar ishchi kuchi sanoat korxonasida o'z ish joyini yo'qotib qo'ysa, u qishloq xo'jaligiga borib ishlashi mumkin va aksincha. Bunday holatlar jahon xo'jaligida ko'p kuzatiladi. Ishchilarning qishloq xo'jaligidan sanoat tarmoqlariga o'tishi natijasida jahon xo'jaligida urbanizatsiya jarayoni rivojlanib kelmoqda.

Maxsus ishlab chiqarish omillari nazariyasi — xalqaro savdo rivojlanishining obyektiv asosini ichki nisbiy narxlarni bir-biridan farq qilishi tashkil etsa, bu holatning asosiy sababi mamlakatlarning maxsus ishlab chiqarish omillari bilan turlicha ta'minlanganligidan iboratdir. Mamlakatning xalqaro savdoda ishtirok etishi natijasida eksport tarmoqlari uchun maxsus bo'lgan omillar rivojlanadi, import bilan raqobatlashuvchi tarmoq uchun maxsus bo'lgan omil kamayadi.

Xalqaro savdo turli xil ishlab chiqarish omillariga turlicha ta'sir ko'rsatishi — bu omil egalarini turmush farovonligini xalqaro savdoga bog'liq ekanligini anglatadi. Shu sababli ko'plab iqtisodchi olimlar xalqaro savdoning aholi daromadiga ta'sirini o'rganishgan. Bu boradagi asosiy nazariyalarga quyidagilar kiradi:

1. **Xeksher-Olin-Samuelson nazariyasi** — xalqaro savdo mamlakatlarda gomogen ishlab chiqarish omillarining mutlaq va nisbiy narxlarining muvozanatlashuviga olib keladi. Bu esa gomogen ishlab chiqarish omillari egalarining daromadlarining barqarorlashuvini anglatadi.
2. **Samuelson-Djons nazariyasi** — mamlakatning xalqaro savdoda ishtirok etish natijasida eksport tarmoqlari uchun maxsus bo'lgan omil egalarining daromadi ko'payadi va import bilan raqobatlashuvchi tarmoq uchun maxsus bo'lgan omil egalarining daromadi kamayadi.
3. **Stolper-Samuelson nazariyasi** — xalqaro savdo ta'sirida narxi o'sadigan tovarni ishlab chiqarishda nisbatan intensiv foydalaniladigan omilning narxi ham o'sadi va aksincha, narxi pasaygan tovarni ishlab chiqarishda nisbatan intensiv foydalaniladigan omilning narxi pasayadi.

Demak, xalqaro savdo mamlakatlarning yalpi daromadiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan birga ayrim omil egalarining turmush farovonligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin ekan. Shu sababli mamlakatning xalqaro savdoda ishtirok etishdan olishi mumkin bo'lgan foyda — bu mamlakatning xalqaro savdo aloqalarida egallagan o'rniga bog'liq ekan.

Boshqa tarafdan mamlakatning xalqaro savdoda raqobatbardosh bo'lishi uning ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarish omillari taklifining o'zgarishi mamlakatning iqtisodiy holatiga qanday ta'sir ko'rsatishi ko'p jihatdan T. Ribchinskiy tomonidan o'rganilgan.

T. Ribchinskiy nazariyasiga muvofiq, ishlab chiqarish omillaridan notekis foydalanish turli oqibatlarga olib keladi. Mazkur omillardan birining ustun darajada ishlab chiqarishga qo'llanilishi ushbu omildan doimiy ravishda foydalaniladigan iqtisodiy sektor ulushining ortishiga olib keladi. Bu esa barqaror jahon narxlari sharoitida boshqa sektorlarda tovar ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga sabab bo'ladi. Chunki, arzon ishlab chiqarish omilidan intensiv ravishda foydalanilayotgan sektor tomon boshqa sektorlardan barcha harakatchan ishlab chiqarish omillarining oqib o'tishi yuz beradi. Ingliz iqtisodchisi T. Ribchinskiy 1955-yilda mazkur qonuniyatga asoslanib o'z nazariyasini yaratdi.

T. Ribchinskiy nazariyasi — barqaror narxlar va iqtisodiyotda faqat ikkita sektorning mavjudligi sharoitida ishlab chiqarish omillaridan birining taklifining ko'payishi ushbu omildan intensiv foydalaniladigan tarmoqlarda ishlab chiqarishning hajmini va bu tarmoq korxonalari oladigan daromadning ko'payishiga olib keladi, boshqa sektorda esa ishlab chiqarish hajmining va olinadigan daromadning kamayishiga olib keladi.

T. Ribchinkiy nazariyasiga muvofiq, yangi qazilma boyliklarning topilishi (neft va gaz) boshqa tarmoqlarning (qayta ishlash sanoati) rivojlanishini pasaytirib qo'yishi mumkin. Aksincha, tashqi savdo jadal sur'atlarda rivojlanayotgan iqtisodiyotda ishchi kuchi malakasining ortib borishi va faol kapital qo'yilmalar xomashyo qazib olishning qisqarishiga va uning importga bog'liqligining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Bu nazariya amaliyotda ham o'z tasdig'ini topdi. T. Ribchinskiy tomonidan aniqlangan tamoyillar AQSh iqtisodiy rivojlanish jarayonida va tashqi iqtisodiy aloqalarning tarmoq tarkibida namoyon bo'ldi. AQSh mineral xomashyoning netto-eksportyoridan netto-importyoriga aylandi. Ribchinskiy nazariyasining amaliyotda Kanada, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Norvegiya kabi davlatlarda mineral xomashyo resurslarini (gaz, neft) qidirish qayta ishlash sanoati va bu tarmoqqa tegishli mahsulotlarni eksport qilishning qisqarishi evaziga rivojlanganligi bilan o'z tasdig'ini topgan.

Gollandiyaning deindustriallashuvi, ya'ni «golland kasalligi» nomini olgan hodisa Ribchinkiy nazariyasiga yana bir misol bo'ladi. Bu muammo Shimoliy dengizda Gollandiya tomonidan tabiiy gaz konlarining faol o'zlashtirilishi bilan bog'liq edi. Tabiiy gazni o'zlashtirishning oshib borishi ishchi kuchini eksportga yo'naltirilgan qayta ishlash sanoati tamoqlaridan neft va gazni qazib olish tarmog'iga ko'chishiga, oqib o'tishiga olib keldi. Shu sababli Gollandiyaning sanoat mahsulotlari eksporti keskin qisqardi. Bu vaziyatni Ribchinskiy nazariyasini qo'llash orqali oldindan aniqlash va uning oldini olish mumkin bo'lgandi. Ammo Gollandiya hukumatining samarasiz tarmoq siyosatini olib borishi natijasida qayta ishlash sanoatida ishlab chiqarish hajmi qisqardi.

Shunday qilib xalqaro savdo bilan ijobiy va salbiy oqibatlar ham bog'liq bo'lishi mumkin. Bu esa tashqi savdo siyosatida ikki tendensiyaning mavjudligini tushuntirib beradi, bular erkin savdo va protensionizmdir.

Bir qator iqtisodchi olimlar mamlakatning xalqaro savdoda tutgan o'rnini texnologik taraqqiyot orqali tushuntirishga harakat qilishdi. Ular orasida M. Pozner va R. Vernonlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Amerikalik iqtisodchi Maykl Pozner 1961-yilda xalqaro savdoni texnologik taraqqiyot bilan bog'liqligini ochib berishga harakat qildi. Bu olim tomonidan texnologik uzilish modeli ishlab chiqildi.

M. Poznerning «texnologik uzilish» modeliga muvofiq mamlakatning yangi texnologiyani yaratishi unga ushbu texnologiya asosida tovar ishlab chiqarishda va bu tovarni jahon bozorida sotishda vaqtinchalik monopoliyaga ega bo'ladi. Bu esa, mamlakat boshqa ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganligida ustunlikka ega bo'lmasa ham jahon bozorida yetakchi eksportyorga aylanishi mumkinligini anglatadi.

M. Poznerning ushbu modeli boshqa amerikalik iqtisodchi R. Vernon tomonidan rivojlantirildi. 1966-yilda R. Vernonning «mahsulotning hayotiylik sikli» modeliga bag'ishlangan maqolasi chop etildi.

«Mahsulotning hayotiylik sikli» nazariyasi — yangi tovarning kashf qilinishi ma'lum vaqt davomida ixtirochi mamlakatga jahon tovarlar bozorida yetakchilik qilish imkoniyatini beradi, ammo keyinchalik mahsulot hayotiylik siklida bir bosqichdan boshqa bosqichga o'tgani kabi bu tovarni ishlab chiqarishdagi ustunlik ham bir davlatdan ikkinchisiga o'tadi.

Mahsulotning hayotiylik sikli beshta bosqichdan (vujudga kelish, o'sish, to'yinish, pasayish va ichki ishlab chiqarishdan voz kechish) iborat siklni bosib o'tadi va ular bir-biri bilan uzviy bog'liq. Mazkur nazariya xalqaro savdoni mahsulotning hayotiylik sikli bosqichlari asosida yo'lga qo'yish lozimligini tushuntiradi.

R. Vernon nazariyasiga muvofiq ba'zi bir mahsulotlar besh bosqichdan iborat siklni bosib o'tadi va ularni ishlab chiqarish joyi sikl bosqichlariga bog'liq ravishda o'zgaradi. Bu bosqichlarni ketma-ketlikda ko'rib chiqamiz:

Birinchi bosqich. Vujudga kelish. Bu bosqichda yangi tovar yaratiladi va bu tovarni dastlabki ishlab chiqarish boshlanadi. Birinchi bosqichda yangi tovar faqat shu mamlakatning o'zida sotiladi. Yangi mahsulot, odatda, unga talab va unga mos bozor bo'lgandagina ishlab chiqiladi. Bu bosqichda tovar dastavval kam miqdorda ichki bozorga chiqariladi. Keyinchalik tovarning sifati ichki iste'molchilar talabiga javob beradigan darajaga yetkaziladi.

Yangi tovar loyihasini ishlab chiqish va u asosida texnika, texnologiya yaratish katta miqdordagi kapitalni talab qiladi. Shu sababli yangi tovarlar, asosan, kapitalga boy, taraqqiy etgan mamlakatlarda yaratiladi.

Ikkinchi bosqich. O'sish. Bu bosqichda mahsulot mukammal ko'rinishga keltiriladi va uni katta hajmda ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Keyinchalik mahsulotni xorijga eksport qilish boshlanadi. Ikkinchi bosqichda yangi tovarni eksport qilish bo'yicha mamlakat jahon bozorida monopoliyaga ega bo'ladi. Chunki boshqa mamlakatlarda bu tovarning o'rnini bosuvchi tovarlar hali ishlab chiqarilmaydi.

Uchinchi bosqich. To'yinish. Yangi tovarni ishlab chiqarish texnologiyasi mukammal ko'rinishga ketiriladi va tovarning narxini pasaytirish maqsadida uni ishlab chiqarishning bir qismi boshqa mamlakatlarga o'tkaziladi. Arzonroq ishchi kuchidan foydalanish hisobiga tovarning tannarxi pasayadi va korxona yuqori daromad olishni davom ettiradi.

Uchinchi bosqichda yangi tovarni ishlab chiqarishning bir qismi mehnat resurslariga boy mamlakatga o'tkaziladi. Shu tariqa mahsulotni ishlab chiqarish bir mamlakatdan boshqa mamlakatga uzatilishi jarayoni boshlanadi.

To'rtinchi bosqich. Pasayish. Bu bosqichda tovarning narxi ko'p jihatdan arzon tabiiy resurslar va mehnat resurslari bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Shu sababli nisbatan arzonroq mehnat resurslariga ega bo'lgan mamlakat yangi tovarni ishlab chiqarish jarayonini to'liq o'z qo'liga oladi. Bu bosqichga kelib yuqorida ko'rsatilgan sabablar ta'sirida yangi tovarni ishlab chiqargan mamlakat bu mahsulotni import qilishni boshlaydi.

Beshinchi bosqich. Ichki ishlab chiqarishdan voz kechish. Oldingi bosqichda boshlangan jarayon rivojlanib boradi va yangilikni amalga oshirgan mamlakatda bu tovarni ishlab chiqarish to'xtatiladi. Chunki arzon xomashyoga, ishchi kuchiga ega bo'lmagan mamlakat korxonalari bozorda o'z raqobatbardoshligini yo'qotib qo'yishadi va o'z salohiyatlarini yangi tovarlarni ishlab chiqishga yo'naltirishadi. Bu bosqichga kelib yangi tovarni ishlab chiqarishni taraqqiy etgan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga uzatish to'liq nihoyasiga yetkaziladi va taraqqiy etgan mamlakatlar bu tovarni to'liq xorijdan import qiladi.

Xalqaro savdo nazariyalariga bag'ishlangan ayrim nazariyalar klassik maktabning xalqaro savdo konsepsiyasini to'liq rad etishadi. Bu nazariyalar tarkibidagi miqyos samarasi, tarmoq ichidagi savdo, monopol raqobat sharoitidagi savdo kabi nazariyalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Xalqaro savdoning miqyos samarasi modeli. Umumiy iqtisodiy nazariyadan ma'lumki, ishlab chiqarish miqyosi kengayib borgani sari tovarning tannarxi pasayib boradi.

Miqyos samarasi orqali ishlab chiqarish omillari bilan bir xil yoki deyarli bir xil ta'minlangan mamlakatlar o'rtasidagi savdo tushuntiriladi. Miqyos samarasi orqali texnologik jihatdan bir-biriga yaqin, hatto bir xil tovar ishlab chiqaradigan mamlakatlar o'rtasidagi savdoni ham tushuntirish mumkin.

Miqyos samarasi — ishlab chiqarishning shunday rivojlanishiki, bunda omillar sarfining bir birlikka o'sishi ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining bir birlikdan ko'proq miqdorga o'sishiga olib keladi va buni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

17.4.1-jadval
Miqyos samarasi

Mehnat (soat)	4	6	8	10
Tovar (dona)	1	3	5	7
Tovarning tannarxi (soat/dona)	4,00	2,00	1,60	1,43

Miqyos samarasining vujudga kelish sabablari ko'p, ammo ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- ixtisoslashuv darajasining o'sishi — ishlab chiqarish miqyosining o'sishi ishchilarning belgilangan operatsiyalarni bajarishga ixtisoslashuvining o'sishiga olib keladi;
- ishlab chiqarishning yaxlitligi — ishlab chiqarish miqyosining o'sishi sharoitida ishlab chiqarishga bilvosita bog'liq bo'lgan bo'limlarning hajmi deyarli o'zgarmasdan qoladi. Boshqaruv apparati, buxgalteriya va shu kabi boshqa bo'limlarning oylik fondi o'zgarmasligi hisobiga mahsulotning tannarxi pasayadi;
- texnologik iqtisod — ishlab chiqarish miqyosining o'sishi sharoitida texnologik jarayonlarni mukammallashtirishga, marketing va reklama ishlarini olib borishga qilinadigan xarajatlarning mahsulot tannarxidagi ulushi pasayadi.

Miqyos samarasi mamlakatdagi tarmoq va korxonalarning raqobat bozoridagi xatti-harakati hamda faoliyat yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda tashqi va ichki miqyos samaralariga ajraladi.

Tashqi miqyos samarasi — butun tarmoqda ishlab chiqarish miqyosining o'sishi natijasida firma doirasida tovar birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarning kamayishi.

Ichki miqyos samarasi — firma doirasida ishlab chiqarish miqyosini kengaytirish orqali tovar birligiga sarflanadigan xarajatlarning kamayishi.

Tashqi miqyos samarasi shuni nazarda tutadiki, har bir firmaning hajmi o'zgarmagan holda bir xil tovar ishlab chiqaradigan firmalar soni ortadi. Odatda, ushbu holatda firma bozorda yetarli darajada raqobatbardoshligini saqlab qoladi, bu esa shu model asosidagi savdo qonuniyatlarini xalqaro savdoning klassik nazariyalariga yaqinlashtiradi, ya'ni eksportyorlar o'zlari ta'sir ko'rsata olmaydigan bozordagi narxda xohlagan miqdorda tovar sotishlari mumkin.

Ichki miqyos samarasi esa ishlab chiqarish miqdori o'zgarmagan holda tovar ishlab chiqaruvchi firmalar soni kamaygan holatni nazarda tutadi. Ushbu vaziyat aksariyat hollarda nosog'lom raqobatni keltirib chiqaradi, ya'ni ishlab chiqaruvchilar o'z tovarlari narxiga ta'sir ko'rsata oladilar va tovar narxini pasaytirish orqali sotish hajmini orttirishlari mumkin. Ichki miqyos samarasining ekstremal holati sof monopoliya hisoblanadi.

Monopolistik raqobat sharoitida savdo. Ma'lumki, xalqaro savdoda sof mukammal raqobat kam uchrashi sababi jahon xomashyo va tovarlar bozorining bo'linib olinganligi va xalqaro bozorlarda o'ziga xos oligopoliya va monopoliyalarning vujudga kelganligidir. Monopolistik raqobat asosidagi savdo nazariyasining rivojlanishiga amerikalik iqtisodchi Pol Krugman katta hissa qo'shdi.

17.4.1-rasm.
Monopolistik raqobat sharoitida savdo



Agar X — ma'lum firmaning sotish hajmi, S — tarmoqdagi umumiy sotish hajmi, n — tarmoqdagi firmalar soni, b — firmaning o'z tovari narxiga bog'liq ravishda bozordagi ulushini ko'rsatuvchi talab o'zgaruvchisi, R — mazkur firma tovari narxi, R^* — raqobatchi tovarlarning o'rtacha narxi bo'lsa,

$$X=S[(1/n)-bx(P-P)^*] \quad (1)$$ bo'ladi.

Agar firma o'z tovarlarini o'rta narxdan yuqori narx bo'yicha sotsa ($R>R^*$), uning bozordagi ulushi (S/n) pasayadi ($X<(S/n)$). Agar firma o'z tovarlarini o'rtacha narxdan past narxda sotsa ($R<R^*$), uning bozor ulushi ko'payadi ($X>(S/n)$).

Monopolistik raqobatning xalqaro savdoga ta'sirini aniqlash uchun, eng avvalo, firmalar soni va ularning tovarlari narxi o'rtasidagi uchta asosiy o'zaro bog'liqliklarni aniqlash zarur:

- firmalar soni qanchalik ko'p bo'lsa, har bir firma ishlab chiqaradigan tovar hajmi shuncha kam bo'ladi, o'rtacha xarajatlar ortib boradi;
- firmalar soni qanchalik ko'p bo'lsa, raqobat darajasi yuqori bo'ladi va tovar narxi pasayadi;
- agar narx o'rtacha narxdan yuqori bo'lsa, bozordagi firmalar soni ortadi va aksincha.

Monopolistik raqobat modelida dastlabki ikki bog'liqlik muhim hisoblanadi. Xalqaro savdo tovar sotish bozorlari sig'imini oshiradi. Firmalar soni va bir firmaga to'g'ri keladigan o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi chiziqli tenglama bilan ifodalanadi:

$$C^* = (F/X) + c, \quad (2)$$

$$C^* = n(F/S) + c, \quad (2a)$$

Bu yerda: C^* — o'rtacha xarajatlar, F — doimiy xarajatlar, c — firmaning chegaraviy xarajatlari.

Formuladan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish hajmi, o'z navbatida, sotish hajmi ortib borgan sari firmaning o'rtacha xarajatlari kamayib boradi, chunki doimiy xarajatlar yanada ko'proq tovarlar soniga bo'linadi. Bozor muvozanatda bo'lgan sharoitda har bir firma tovarining narxi bir xil bo'ladi, $R=R^*$. Ushbu holatda 1-formula $X=S/n$ ga keladi. X qiymatini ikkinchi formulaga qo'ysak, 2a-formula kelib chiqadi. Bu formuladan ko'rinib turibdiki, tarmoqda firmalar soni qanchalik ko'p bo'lsa, o'rtacha xarajatlar shunchalik ortib boradi. Firmalar soni o'zgarmagan holda sotish hajmining ortishi o'rtacha xarajatlarning qisqarishiga olib keladi.

Tarmoq ichidagi savdo va tarmoqlararo savdoning farqlari. Tarmoq ichidagi savdo — bu mamlakatlar o'rtasida bir tarmoqning differensiyalashgan mahsulotlari bilan savdo qilishidir.

Tarmoqlararo savdo — mamlakatlarning turli tarmoqlarni gomogen mahsulotlari bilan savdo qilishidir.

Tarmoq ichidagi savdo, asosan, differensiyalashgan tovarlar bilan amalga oshadi, ba'zi vaziyatlarda gomogen tovarlar bilan ham amalga oshishi mumkin. Bunga sabab sifatida transport xarajatlarini qisqartirish va mavsumdagi farq bo'lishi mumkin. Birinchi va ikkinchi mamlakatlarda bir tovarni ishlab chiqaruvchilar (S,

S') va iste'molchilar (*D i D'*) geografik jihatdan rasmdagidek joylashgan. *SD'* masofa *D'S'* masofadan sezilarli darajada qisqa bo'lganligi sababli ikkinchi mamlakat uchun tovarni o'z ishlab chiqaruvchisidan sotib olgandan ko'ra xorijdan import qilish foydaliroq bo'ladi.

Shimoliy va janubiy yarimsharda yil fasllari turli vaqtga to'g'ri keladi, ya'ni Braziliya o'zining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'im vaqtida AQSh ga eksport qiladi va AQSh da yig'im vaqtida AQSh dan sotib oladi.

17.4.2.-rasm.
Tarmoq ichidagi savdo



Differensiyalashgan tovarlar bilan tarmoq ichidagi savdo sabablari quyidagilar:

- Iste'molchilarning istak va xohishlari har xil.
- Kesishuvchi talab.
- Miqyos samarasi.

Kesishuvchi talab nazariyasi. Kesishuvchi talab nazariyasi shvedsiyalik iqtisodchi Staffan Linder tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariya xalqaro savdoni talab tomonidan tushuntiruvchi kamdan-kam nazariyalarning biridir. Bu nazariyaga ko'ra mamlakat eksporti importyor mamlakatdagi talabga bog'liq.

Kamdan-kam tovarlar faqat eksport uchun ishlab chiqariladi. Tovarlarning aksariyat qismi ichki bozorda sotiladi, ichki iste'mol to'liq qondirilgandan keyingina bu tovar eksport qilinadi. Bu tovarni xorijiy mamlakatlarga sotishda uni bu mamlakatdagi talab tarkibi o'z mamlakatidagi talabga o'xshash bo'lgan mamlakatni tanlash maqsadga muvofiq. Ikki mamlakatda talab tarkibining bir xil bo'lishi mamlakatlar aholisining daromad darajasiga bog'liq bo'ladi. Chunki daromad qanchalik yuqori bo'lsa sifatli tovarga bo'lgan talab shunchalik ortib boradi.

Kesishuvchi talab nazariyasi — bu turli mamlakatlardagi iste'molchilarning daromadlari va istak-xohishlari deyarli bir xil bo'lganligi sababli har bir mamlakat uchun ishlab chiqarishda va ichki bozorda yaxshiroq tajriba to'plangan tovarlarni eksport qilish oson bo'lishidir.

Nazariyaning grafik ko'rinishi quyidagicha: faraz qilaylik, ikki mamlakat mavjud, birinchi mamlakatda daromad darajasi *A* dan *S* gacha, bu daromad darajasida ushbu mamlakatda sotiladigan tovarlar sifati *A'* dan *S'* gacha. Ikkinchi mamlakatda esa daromad darajasi *V* dan *D* gacha, bu daromad darajasida ushbu mamlakatda sotiladigan tovarlar sifati *V'* dan *D'* gacha. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo sifati *V'* dan *S'* gacha bo'lgan tovarlar bilan amalga oshadi. Chunki bu oraliqda ikki mamlakatdagi iste'molchilarning talabi kesishadi.

17.4.3.-rasm.
Kesishuvchi talab



Firmaning tashqi savdo faoliyati nazariyasi. Ushbu nazariyada tahlil obyekti sifatida mamlakat emas, balki xalqaro firma ko'rib chiqiladi. Buning sababi tashqi savdo operatsiyalarining katta qismi firma ichidagi aylanmasidan iboratligidir. Bugungi kunda jahon tovar va xizmatlar savdosining 70 %, sotilayotgan litsenziya va patentlarning 80–90 %, kapital eksportining 40 % firma ichidagi aloqalarga to'g'ri keladi.

Firma ichidagi savdo jahon bozorida sotish uchun mo'ljallangan tayyor mahsulotni yig'ishda qo'llaniladigan yarimfabrikatlar va qo'shimcha ehtiyot qismlarni ayirboshlashga asoslanadi. Tashqi savdo statistikasi tashqi savdo yirik TMKlar joylashgan mamlakatlar o'rtasida jadal sur'atlar bilan o'sayotganligini tasdiqlaydi.

Mamlakatlarning raqobatbardoshlik nazariyasi. Bu nazariyaning asoschisi amerikalik iqtisodchi olim M. Porterdir. XX asr 80-yillarining oxirida bu olim jahon eksportining 50 % to'g'ri keluvchi 10 ta mamlakatdagi 100 ga yaqin tarmoqlarni o'rganib chiqdi. Bu izlanishlar natijasida M. Porter o'ziga xos nazariya yaratdi. Bu nazariyaga binoan mamlakat firmalari faoliyat olib boruvchi raqobatbardosh muhitni iqtisodiyotning 4 ta muhim ko'rsatkichi shakllantiradi:

- ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik;
- talab ko'rsatkichlari;
- yaqin va xizmat ko'rsatuvchi (yordam beruvchi) tarmoqlar;
- raqobat muhiti va firma strategiyasi.

Ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik — ishlab chiqarish omillarini mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatishini o'rganib borish jarayonida, M. Porter odatdagi ishlab chiqarish omillari (mehnat, yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati) bilan birga ilmiy-texnik va bozor tarkibining axborot bilan ta'minlanganlik darajasi; transport, sog'liqni saqlash va aloqa tizimlarining holatini ham ishlab chiqarish omili sifatida ko'rib chiqqan. M. Porter boshqa iqtisodchilardan farqli ravishda, mamlakat ishlab chiqarish omillarining ko'pini meros sifatida emas, balki o'zining ishlab chiqarishni kengaytirib borishi jarayonining natijasi sifatida qo'lga kiritadi, deb hisoblaydi. Misol uchun, yer taqchilligi sababli Yaponiya ko'p joy egallamaydigan texnologik jarayonlarni kashf etdi.

M. Porter fikriga ko'ra, raqobatbardoshlik — bu mamlakatning shart-sharoiti bilan firmalari strategiyasining mutanosibligi natijasidir. Firma xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lishi uchun mamlakatda shart-sharoit bor bo'lishi mumkin, ammo firma bu shart-sharoitdan to'g'ri foydalanishni bilishi kerak, ya'ni ko'p narsa firmaning strategiyasiga bog'liq.

Talab ko'rsatkichlari — bunga, birinchi navbatda, talabning sig'imkorligi, uning rivojlanish yo'nalishi, talabning tovarlar turiga ko'ra tabaqalanishi, iste'molchilarning tovar va xizmat sifatiga talabchanligi kiradi. Tovarlar xalqaro savdoga chiqishdan oldin ichki bozorda, mahalliy iste'molchilar sinovidan o'tishi kerak. Misol uchun, Yapon firmalari energiyani tejaydigan kichik konditsionerlarni oldin faqat ichki iste'molchilar uchun ishlab chiqargan va keyinchalik bu konditsionerlar xalqaro bozorga chiqqan.

Yaqin va yordam beruvchi (xizmat ko'rsatuvchi) tarmoqlar — eksportyor firmalarni kerakli materiallar — yarimfabrikatlar, qo'shimcha qismlar va axborot bilan ta'minlovchi qardosh va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlarning yuqori rivojlanishga egaligi eksportyor firmaning xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi. Misol uchun, zargarlik mahsulotlari ishlab chiqaradigan Italiya firmalari rivojlanmoqda, buning asosida qimmatbaho toshlar va metallarga ishlov beruvchi texnika ishlab chiqarish bo'yicha Italiya dunyoda yetakchi mamlakat ekanligi yotadi.

Raqobat muhiti va firma strategiyasi. M. Porter bitta milliy firma qo'lida ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvini ijobiy natijaga olib kelishini inkor etadi, ayniqsa, bu firma davlat himoyasida bo'lsa. Odatda, bu firmalar past darajadagi samaradorlik va mehnat unumdorligiga ega bo'lishadi. Ichki bozordagi kuchli raqobat milliy firmani tashqi bozorga yo'l qidirishga majbur etadi.

Ichki bozordagi raqobat kurashida toblangan firma o'z tajribasini raqobat yanada kuchliroq bo'lgan xalqaro bozorda qo'llaydi. Ichki kurash qanchalik og'ir kechgan bo'lsa, ushbu firmaning xalqaro bozorda muvaffaqiyatga erishish imkoniyati shunchalik katta bo'ladi.

M. Porter raqobat global ko'rinishda bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Firma o'z tovarini faqat ichki bozorda emas, balki butun jahon bo'ylab sotishga harakat qilishi kerak. Bunda firmaning strategiyasi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shu bilan birga bitta universal strategiyani keltirish mumkin emas. Misol uchun, mebel va oyoq-kiyim ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi bo'lgan Italiya firmalari qat'iy boshqaruv tizimiga ega emas. Optika va mashina ishlab chiqarishda dunyoda yetakchilik qiluvchi Germaniya firmalari odatiy markazlashgan, qat'iy boshqaruv tizimiga ega.

Mamlakatni xalqaro miqyosda raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy to'rtta ko'rsatkichdan tashqari boshqa omillar ham bor. Bu omillar qatorida M. Porter tasodifiy hodisalarni ham keltiradi. Tasodifiy hodisalar hukumat va firmalar faoliyatiga unchalik bog'liq bo'lmagan hodisalardir. Ular mamlakatning raqobatbardoshligini

oshirishi va pasaytirishi mumkin. Tasodifiy hodisalarga yangi kashfiyotlar, yirik texnologik siljishlar, resurslar narxlarining keskin o'zgarishi, jahon moliya bozorlaridagi keskin o'zgarishlar, urushlar va boshqalarni kiritish mumkin.

Umuman olganda, xalqaro savdoning nazariy asoslari merkantilistlar maktabidan boshlab yangi keynschilar maktabiga qadar rivojlanib kelgan. Bu nazariyalar turli xil yondashuvlarga asoslangan va ularning bir qismi o'zaro bog'liqlikda, birbirini to'ldirib kelsa, boshqalari qarshi yo'nalishda rivojlangan.

Merkantilistlar birinchi bo'lib xalqaro savdoning o'ziga xos modelini taklif etdilar. Ular mamlakatning boyligi mamlakatda mavjud bulgan oltin va kumush miqdori bilan bog'liq deb hisobladilar. Merkantilistlar tovarlarni mamlakatga olib kirishga nisbatan ularni chetga ko'proq olib chiqish, eksportni ko'paytirish va importni qisqartirish uchun tashqi savdoni tartibga solish, chetga xomashyo chiqarishni keskin chegaralash yoki ta'qiqlash, xomashyolarni chetdan bojlarsiz import qilishga ruxsat berish, koloniyalarning metropoliyadan tashqari barcha boshqa mamlakatlar bilan har qanday savdosini ta'qiqlash kerak deb takidlaydilar.

Adam Smit tomonidan ishlab chiqilgan mutlaq ustunlik nazariyasiga muvofiq, mamlakatlar o'zlari eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqaradigan tovarlarni eksport qiladilar va boshqa mamlakatlarda eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqariladigan ustunlikka ega bulgan tovarlarni import qiladilar.

Klassik siyosiy iqtisod asoschilaridan biri D. Rikardo tovar oqimlari harakatiga dalil sifatida nisbiy ustunlikning miqdoriy nazariyasini taklif etdi. Albatta, nisbiy ustunlik nazariyasi mavhum va juda soddalashtirilgan tabiatga ega hamda xalqaro savdoga bevosita ta'sir ko'rsatadigan bir qator hodisalarni e'tiborga olmaydi. Nazariyaning cheklanganligi uning yaratilishida qilingan farazlar bilan bog'liq.

Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasiga ko'ra, omillar sig'imkorligi ma'lum bir tovarni yaratish uchun ishlab chiqarish omillari nisbiy sarfini, omillar ko'pligi mamlakatning ishlab chiqarish omillari bilan nisbiy ta'minlanganligini belgilab beradi. Turli mamlakatlarda tovarlar nisbiy narxidagi farq, o'z navbatida, ular o'rtasidagi savdo ularning ishlab chiqarish omillari bilan bir xil ta'minlanmaganligi bilan tushuntiriladi.

Xalqaro savdoning standart modeli xalqaro savdoda umumiy muvozanat modeli hisoblanadi va mamlakat ichida tovarga bo'lgan talab hamda tovar taklifini shu tovarga bo'lgan xorijiy talab va taklifni o'zaro bog'laydi. Bu model turli miqdordagi tovarlarni eksport qilishga xohish uyg'onishi uchun mamlakat qancha miqdorda boshqa bir tovarlarni import qilishi kerakligini ifodalovchi o'zaro talab tushunchasiga asoslangan. Ushbu model xalqaro savdoning barcha asosiy parametrlarini va u bilan bog'liq bo'lgan milliy iqtisodiyotning parametrlarini o'rganish imkonini beradi.

Xalqaro savdoda ishtirok etuvchi har qanday mamlakat uchun eksport va import narxlarining o'zgarishi aholi real daromadining o'zgarishini anglatadi. Tovar narxi oshganda, bu tovar eksport qilinayotgan bo'lsa, mamlakatning real daromadi oshadi, agar bu tovar import qilinayotgan bo'lsa, aksincha, real daromad kamayadi.

Ma'lum bir tovarning eksport va import narxlarining nisbati yoki eksport hamda import narxlari indekslari nisbati orqali aniqlanuvchi mamlakat eksport va import narxlarining nisbati savdo sharti, deb ataladi. Uning o'sishi natijasida mamlakat boyligi ortadi, pasayishi natijasida esa boylik kamayadi. Taklifning ortishi (iqtisodiy o'sish) va talabning ortishi (daromadning qayta taqsimlanishi) savdo shartiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

XX asrda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi eksport-import operatsiyalarining sifatiy xususiyatlarini e'tiborga oluvchi yangi tamoyillar

paydo bo'ldi; keyingi yillarda bir kator amerikalik iqtisodchilar tomonidan tovar ayirboshlashning turli omillarini hisobga oluvchi «tovarning hayotiy sikli», «xalqaro raqobat» va boshqa modellar ishlab chiqildi.

Asosiy tushunchalar

Mutlaq ustunlik nazariyasi — mamlakatlar mutlaq ustunlik sharoitida kam xarajatlar bilan ishlab chiqarilgan tovarlarni eksport qilishadi va boshqa mamlakatlarda mutlaq ustunlik sharoitida kam xarajatlar bilan ishlab chiqarilgan tovarlarni import qilishadi.

Muqobil narx — bir birlik tovarni ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatning ikkinchi tovarni ishlab chiqarishga zarur xarajat orqali ifodalanishi.

Nisbiy ustunlik nazariyasi — agar mamlakat boshqa mamlakatga nisbatan kam xarajatlar bilan ishlab chiqarish mumkin bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashsa, o'zaro savdo ikkala mamlakat uchun ham foydali bo'ladi. Bunda ishlab chiqarish bo'yicha mutlaq ustunlik bo'lishi shart emas.

Foydali savdo — bu xalqaro savdoning har bir ishtirokchisi olishi mumkin bo'lgan iqtisodiy samara bo'lib, unga ega bo'lish uchun mamlakat o'zi nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi kerak.

O'zaro (yoki teskari) talab nazariyasi — import qilinadigan tovar narxi bu tovarning importini to'lash uchun eksport qilinishi kerak bo'lgan tovarning narxi orqali aniqlanadi, shuning uchun o'zaro savdoda yakuniy nisbiy narx har bir mamlakatdagi ichki talab bilan aniqlanadi.

Ishlab chiqarish omillaridan foydalanishning intensivligi ko'rsatkichi — ma'lum bir tovarni ishlab chiqarish uchun sarflangan bitta ishlab chiqarish omilini ikkinchi ishlab chiqarish omiliga nisbati.

Ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi — mamlakat ega bo'lgan ishlab chiqarish omillarining bir-biriga nisbati.

Xeksher-Olin nazariyasi — mamlakat qaysi ishlab chiqarish omili bilan nisbatan yaxshi ta'minlangan bo'lsa, shu omilni nisbatan ko'proq talab qiluvchi tovar ishlab chiqarishiga ixtisoslashishi va uni eksport qilishi kerak.

Ishlab chiqarish omillari bahosining tenglashuvi nazariyasi (Xeksher-Olin-Samuelson nazariyasi) — xalqaro savdo bu savdoda ishtirok etuvchi mamlakatlardagi gomogen ishlab chiqarish omillarining mutlaq va nisbiy narxining tenglashishiga olib keladi.

Leontyev paradoksi — Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasining amaliyotda o'z tasdig'ini topmaganligini isbotlagan empirik sinov natijasi: mehnat resurslariga boy mamlakatlar kapital sig'imkorligi yuqori mahsulotlarni eksport qiladi, kapital resurslariga boy mamlakatlar esa mehnat sig'imkorligi yuqori mahsulotlarni eksport qiladi.

Maxsus omil — muayyan tarmoqqa tegishli va tarmoqlar o'rtasida harakatlanmaydigan ishlab chiqarish omili.

Harakatchan (yoki mobil) omil — tarmoqlar o'rtasida erkin harakatlanadigan ishlab chiqarish omili.

Mehnat unumdorligining chegara miqdori — qo'shimcha bir birlik ishchi kuchidan foydalanish natijasida yalpi daromadning o'sish miqdori.

Samuelson-Jons nazariyasi — xalqaro savdoda ishtirok etish natijasida eksport tarmoqlari uchun spetsifik bo'lgan omil egalarining daromadi va import bilan raqobatlashuvchi tarmoq uchun spetsifik bo'lgan omil egalarining daromadi kamayadi.

Stolper-Samuelson nazariyasi — xalqaro savdo narxi o'sayotgan tovarni ishlab chiqarishda nisbatan intensiv foydalaniladigan omil narxining o'sishiga va aksincha, narxi pasayayotgan tovarni ishlab chiqarishda nisbatan intensiv foydalaniladigan omil narxining pasayishiga olib keladi.

T. Ribchinskiy nazariyasi — barqaror narxlar va iqtisodiyotda faqat ikkita sektorning mavjudligi sharoitida ishlab chiqarish omillaridan birining taklifining ko'payishi ushbu omildan intensiv foydalaniladigan tarmoqlarda ishlab chiqarishning hajmini va bu tarmoq korxonalari oladigan daromadning ko'payishiga olib keladi, boshqa sektorda esa ishlab chiqarish hajmining va olinadigan daromadning kamayishiga olib keladi.

«Miqyos samarasi» nazariyasi — ishlab chiqarishning muayyan texnologik va tashkiliy xususiyatlari sababli mahsulot miqdorining ortishi natijasida bir birlik tovar ishlab chiqarishga sarflanayotgan o'rtacha xarajatning kamayishini ifoda etadi.

Mahsulotning hayotiylik sikli nazariyasi — yangi tovarning ishlab chiqarilishi bir davlatdan ikkinchi davlatga mahsulotning hayotiylik bosqichiga muvofiq ravishda ko'chib o'tadi.

Nazorat savollari

1. Merkantilizm nazariyasining mazmunini yoritib va uning cheklanganligi nimadan iborat?
2. Mamlakatlarning ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish darajasini tushuntiring.
3. Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasining kuchli va kuchsiz tomonlari nimadan iborat?
4. V. Leontyev paradoksini tushuntirib bering.
5. Xeksher-Olin nazariyasiga muvofiq mamlakatlarning ixtisoslashuvi jarayoni qaysi omillarga tayanishi zarur?
6. Stolper-Samuelson nazariyasi mazmuni nimadan iborat?
7. «Miqyos samarasi» nazariyasida ishlab chiqarish xarajatlari qanday qilib pasaytiriladi?
8. Mahsulotning hayotiylik sikli nazariyasida mahsulotning hayotiylik sikli nechta bosqichga bo'linadi va qaysi bosqichda savdo manfaatli hisoblanadi?
9. M. Porterning raqobatbardoshlik nazariyasiga muvofiq mamlakatning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?

18-BOB. XALQARO SAVDO: TARKIBI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

18.1. Xalqaro savdoning rivojlanish bosqichlari va xususiyatlari

Jahon xo'jaligi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri — bu xalqaro iqtisodiy munosabatlarning intensiv rivojlanib borishi hisoblanadi. Bu mamlakatlar, mamlakatlar guruhi, alohida firma va korxonalar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi tobora chuqurlashuvi bilan izohlanadi. Ushbu holatni xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, xo'jalik hayotining globallashuvi, milliy iqtisodiyot ochiqligining kuchayishi, mamlakatlarning iqtisodiy integratsiyalashuvi va hududiy xalqaro iqtisodiy aloqalar strategiyasining chuqurlashib borayotganligida ko'rish mumkin.

18.1.1-rasm.
Xalqaro savdoning rivojlanish asoslari



Eksport imkoniyatlari — ichki iste'molga yo'naltirilmagan ishlab chiqarish imkoniyatlari.
Eksportga ishlab chiqarish — mahsulotni milliy xujalikdan tashqarida yuqori baxolarda sotish imkoniyati.
Import imkoniyati — import asosida ishlab chiqarish xarajatlarini pasayishi va ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini to'ldirish.
Riskni taqsimlash — milliy xo'jalik tashqarisida tadbirkorlik faolligi natijasida ishlab chiqarishni bog'liqlik riskini qisqarishi.

Xalqaro savdo o'zining rivojlanish bosqichlariga ega bo'lib, har bir bosqich o'z tarixiy xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- tashqi savdo aloqalarining lokal darajada shakllanish bosqichi — (VI–XIII asrlar) O'rta yer dengizidan Sharqqa tomon xalqaro savdo yo'llarining vujudga kelishi;
- tashqi savdo aloqalarining mintaqaviy darajada shakllanish bosqichi — (XII–XV asrlar) tashqi savdo aloqalarining O'rta yer, Boltiq va Shimoliy dengizlarida konsentratsiyalashuvi;
- tashqi savdo aloqalari globallashuvining boshlanish bosqichi — (XV–XVII asrlar) Buyuk geografiya kashfiyotlari tufayli xalqaro savdo yo'llarining Atlantika, Hind va Tinch okeanlariga ko'chishi;
- tashqi savdo aloqalarining intensivlashuv bosqichi — (XVIII–XIX asrlar) sanoat to'ntarishi, G'arbiy Yevropa va AQSh iqtisodiyotining sanoatlashtirish jarayoni bilan bog'liq;
- tashqi savdo aloqalarining militarizatsiyalashuv bosqichi — (XIX oxiri — XX asr boshi) Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari bilan bog'liq;
- integratsion bloklar va birlashmalarning tashqi savdo munosabatlariga faol ta'sir etish bosqichi — (XX asrning o'rtasi va ikkinchi qismi);
- tashqi savdo aloqalari globallashuv jarayonlarining zamonaviy bosqichining shakllanishi va jahon bozorining vujudga kelishi.

18.1.2-rasm.
Xalqaro savdoning tovar tarkibi



Xalqaro savdoning zamonaviy xususiyatlari:
- ilm-fan va texnika taraqqiyoti ta'sirida mahsulot hamda xizmatlar savdosi hajmining keskin ortishi;
- xalqaro savdo rivojlanayotgan mamlakatlar salmog'ining qisqarishi;
- fan va texnika taraqqiyoti ta'sirida jahon eksportining tovar tarkibidagi fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan mahsulot va xizmatlar ulushining ortishi;
- tashqi savdo aylanmasining jon boshiga baholangan qiymatining notekis taqsimlanishi;
- yangi tarmoq va ishlab chiqarishning vujudga kelishi;
- qator mamlakatlarning ayrim mahsulotlar importiga bog'liqligining ortishi;
- tashqi bozorda ortiqcha mahsulotni sotishdan turli mamlakat korxonalari o'rtasidagi hamkorlik aloqalari asosida avvaldan kelishilgan holda mahsulotni yetkazib berish shakliga o'tilishi.

Xalqaro savdoning tovar tarkibi — xalqaro savdoning tarkibini aniqlovchi tovar mutanosibliklari majmuyi va aloqalaridan iborat bo'lib, maqsadi inson ehtiyojlariga moslashtirish nuqtayi nazaridan xalqaro savdo sohasida tovarlarni tabaqalashtirish hisoblanadi.

Xalqaro savdoning hududiy tarkibi — bu xalqaro savdoning hududiy tarkibini aniqlovchi mutanosibliklar va aloqalar majmuyi bo'lib, ushbu tarkib xalqaro savdoning quyidagi xususiyatlari va rivojlanish yo'nalishlarini ajratish imkonini beradi:
- alohida mamlakatlarning savdo oqimlarini ajratish;
- bir guruh mamlakatlar o'rtasidagi savdo oqimlarini ajratish;
- mintaqalar o'rtasidagi savdo oqimlarini ajratish;

- xalqaro savdoning aksariyat ulushi oqimlarining rivojlangan mamlakatlar guruhida yig'ilganligi;
- jahonning yirik savdo imperiyalari bo'lib AQSh, Germaniya va Yaponiya hisoblanadi;
- AQSh eksportining faollashuvi;
- Yaponiya eksportining o'sishi (birinchi navbatda, boshqa Osiyo mamlakatlariga);
- Janubiy Osiyo mamlakatlarida xalqaro savdoning faol rivojlanishi (ko'proq Pokiston va Hindiston hisobiga);
- Sharqiy Osiyo va qisman Lotin Amerikasi mamlakatlari xalqaro savdosining ustun darajada rivojlanishi (Yaponiyadan tashqari);
- Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari tashqi savdosining sekin rivojlanishi.

Xalqaro savdoning zamonaviy hududiy tarkibidagi o'zgarishlar tendensiyasi quyidagilar orqali ifodalandi:

- xalqaro savdoda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ulushining saqlanib qolishi;
- xalqaro savdo asosiy qismining rivojlangan mamlakatlar guruhi ichida mujassamlashuvi;
- rivojlanayotgan mamlakatlar ulushining ortishi;
- rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar o'rtasida savdo aloqalari hajmining ortishi;
- o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining xalqaro savdodagi pozitsiyasining zaifligi (rivojlangan mamlakatlar tashqi savdo aylanmasida 3,5 %, rivojlanayotgan mamlakatlar tashqi savdo aylanmasida 2,5 %).

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda zamonaviy xalqaro savdoning rivojlanish omillari quyidagilardan iborat:

- milliy iqtisodiyotlarning ochiqligi;
- milliy iqtisodiyotlar ishlab chiqarish salohiyatining o'sishi;
- xalqaro savdoning hududiy va tovar tarkibining o'zgarishi;
- xalqaro savdo mexanizmlarining murakkablashuvi;
- xizmatlar sohasining rivojlanishi;
- intellektual va ilmiy-texnik faoliyatning moddiylashgan va moddiylashmagan shaklida rivojlanishi.

18.2. Jahon savdosining tarkibi va uning o'zgarish tendensiyalari

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro savdo jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi. 1950–1998-yillarda jahon eksporti 16 martaga ortdi. G'arb mutaxassislarining fikricha, 1950 va 1970-yillar oralig'ini xalqaro savdoning rivojlanishidagi «oltin asr» deb atash mumkin. Mana shu davr oralig'ida jahon eksportining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 7 %ni tashkil etadi. O'tgan asrning 70-yillariga kelib jahon eksportining o'sish sur'ati 5 %ga qadar, 80-yillarda esa yanada pasaya boshladi. XX asr 80-yillarining oxiriga kelib jahon eksportining o'sish sur'ati jadallasha boshladi. Masalan, 1988-yilda xalqaro savdoning o'sish sur'ati 8,5 %gacha ortgani holda 90-yillarda jahon eksportining o'sish sur'atida yana pasayish kuzatildi, 90-yillarning o'rtalaridan boshlab esa barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, o'rtacha 7 %ni tashkil etgan[1].

1 Пузакова Е. П. Мировая экономика и международные экономические отношения. — Ростов-на-Дону.: Феникс, 2004. С. 218.

Tahlillar, jahon ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati 2005–2013-yillarda o'rtacha 2,0 %ni, jahon tovarlar eksporti hajmining o'sish sur'ati esa 3,5 %ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda. 2013-yilda bu ko'rsatkich mos ravishda 2,0 va 2,5 %ga teng bo'ldi (18.2.1-jadval).

18.2.1-jadval
Jahon ishlab chiqarish va savdosi hajmining o'zgarishi, foiz hisobida

	2005–2013-yy.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.
Jahon tovarlar eksporti	**3,5**	**2,5**	**-12,0**	**14,0**	**5,5**	**2,5**	**2,5**
shu jumladan:							
Qishloq xo'jalik mahsulotlari	3,5	2,5	-2,5	7,5	6,0	2,0	3,0
Qazib chiqarish va yoqilg'i mahsulotlari	1,5	1,0	-5,5	5,5	2,0	2,5	0,5
Sanoat mahsulotlari	4,0	2,5	-15,0	18,0	7,0	2,5	3,0
Jahon tovarlar ishlab chiqarish	**2,0**	**1,0**	**-2,5**	**4,0**	**3,0**	**2,5**	**2,0**
shu jumladan:							
Qishloq xo'jalik mahsulotlari	2,5	3,5	0,5	0,0	2,0	1,5	5,5
Qazib chiqarish va yoqilg'i mahsulotlari	1,0	1,5	-1,5	2,0	1,5	2,5	0,5
Sanoat mahsulotlari	2,5	0,0	-4,0	5,5	4,0	2,5	1,5
Jahon yalpi milliy mahsuloti	2,0	1,5	-2,5	3,5	2,5	2,0	2,0

Manba: International Trade Statistics 2011. WTO. Geneva, 2011. P. 19.; International Trade Statistics 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 21.

Xalqaro savdoning barqaror o'sish sur'atiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi[1]:

- xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi, ishlab chiqarish va kapitallar harakatining baynalmilallashuvi;
- asosiy kapitalning yangilanishi, yangi iqtisodiy tarmoqlarning yaratilishi va JST tadbirlari yordamida xalqaro savdoning erkinlashtirilishi;
- xalqaro savdoning erkinlashuvi, mamlakatlarning import bojlari va miqdoriy cheklovlarni bekor qilishga o'tishlari;
- transmilliy korporatsiyalarning jahon bozorlaridagi faoliyatining faollashuvi;
- iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi:
- regional to'siqlarning bekor qilinishi, umumiy bozor, erkin savdo zonalarining shakllanishi;
- sobiq kolonial mamlakatlarning mustaqillikka erishishi. Tashqi bozorlarga yo'naltirilgan iqtisodiy modelga ega «yangi industrial mamlakatlar»ning ajralib chiqishi;
- o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining bozor iqtisodiyotiga o'tishi va iqtisodiyotlari ochiqligining chuqurlashuvi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan omillar xalqaro savdoning quyidagi zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini belgilab beradi.

1 International Trade Statistics 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 24.; UNCTAD Handbook of Statistics 2014 p. 8, 332.

Birinchidan, xalqaro savdoning rivojlanish dinamikasi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qadar yuqori o'sish sur'atlari bilan tavsiflanadi. Tahlillar ko'rsatishicha, 1948-yildan 2013-yilga qadar jahon tovarlar eksporti 346 mlrd. dollardan 18,3 trln. dollargacha, ya'ni 53 martaga ortgan va uning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 7–8 %ni tashkil etgan.

Ikkinchidan, mamlakatlar tashqi savdosi iqtisodiy rivojlanishga nisbatan jadal sur'atlar bilan rivojlangan. Masalan, AQSh yalpi ichki mahsuloti 1980–2013-yillarda 5,9 barabor o'sgan bo'lsa, uning eksporti — 7,0, importi esa 9,1 martaga ortgan.

Uchinchidan, dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida eksport va import kvotalarining ortishi yuz berdi. Agar 1978–1987-yillarda jahon sanoat mahsulotining 13,8 % eksport qilingan bo'lsa, 2013-yilda ushbu ko'rsatkich 64,7 %ni tashkil etdi.

To'rtinchidan, xalqaro savdoning geografik tarkibi mamlakatlarning hududiy yoki tashkiliy belgilari bo'yicha rivojlanmoqda. Xalqaro savdoda yetakchi mavqe AQSh, Yevropa Ittifoqi va Yaponiyaga tegishli bo'lib, ular hissasiga 2013-yilda jahon tovarlar eksportining 45,7 % kelgan.

Beshinchidan, xalqaro savdodagi asosiy savdo munosabatlari sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar o'rtasida yuz beradi. Bu ko'rsatkich umumiy savdoning 61 %ni tashkil etadi.

Oltinchidan, xalqaro savdoning tovar tarkibi ham o'ziga xos rivojlanish xususiyatlariga ega:

- xalqaro tovar aylanmasiga tortilayotgan tovarlar oqimi chuqur diversifikatsiyaga ega. Jumladan, Germaniya 180 ta eksport pozitsiyasiga, Buyuk Britaniya va Fransiya — 175 ta, Yaponiya 160 tadan ortiq pozitsiyaga ega;
- ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida xalqaro savdoda tayyor mahsulotlar ulushi ortib bormoqda. Bu ko'rsatkich 2013-yilda jahon tovarlar savdosining taxminan 64,7 %ga teng bo'ldi;
- xalqaro savdoda xomashyo va mineral yoqilg'ilarning ulushi qisqarib bormoqda. Ushbu ko'rsatkich 1937-yilda 38,6 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda 21,8 %ga teng bo'ldi;
- jahon savdosida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi qisqarish tendensiyasiga ega bo'lib, bu ko'rsatkich 1937-yilda 22,8 %ga, 2013-yilda esa 9,5 %ga teng bo'ldi;
- 1974–1975-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozidan keyin jahon eksportining tovar tarkibida to'qimachilik va kiyim-kechaklar ulushi orta boshladi. 2013-yilda ushbu tovarlarning jahon tovarlar savdosidagi ulushi 4,2 %ni tashkil etdi. Bu sohada rivojlanayotgan mamlakatlar ulushi keskin ko'payib bordi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tashqi savdo notekis rivojlana boshladi. Mazkur holat jahon bozorida mamlakatlar iqtisodiy o'rnining o'zgarishi bilan izohlanadi. Xususan, AQSh ning jahon bozoridagi roli pasayib bormoqda. Agar AQSh ning jahon savdosidagi ulushi 1948-yilda jahon tovarlar eksportining 21,7 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilga kelib bu ko'rsatkich 8,6 %ga teng bo'ldi. Germaniya ulushi esa bu davr oralig'ida amerika ko'rsatkichiga tenglashdi. Germaniya bilan bir qatorda G'arbiy Yevropa mamlakatlarining ham jahon eksportidagi ulushi ortib bordi va 90-yillarda G'arbiy Yevropa xalqaro savdoning asosiy markazlaridan biriga aylandi. Jumladan, Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning jahon tovarlar savdosidagi ulushi 2013-yilda 15,1 %ni tashkil etdi.

Tahlillar, 1948–2013-yillarda jahon tovarlar eksportida Osiyo mamlakatlari, jumladan yangi industrial mamlakatlar va Xitoy ulushining ortib borganligini ko'rsatmoqda. Jumladan, bu davrda Osiyo mamlakatlarining jahon tovarlar eksportidagi ulushi 14,0 %dan 31,5 %gacha, Xitoyning ulushi esa 0,9 %dan 12,1 %gacha o'sdi (18.2.2-jadval).

18.2.2-jadval
Jahon tovarlar eksportining geografik tarkibi, 1948–2013 yy.

	1948-y.	1953-y.	1963-y.	1973-y.	1983-y.	1993-y.	2003-y.	2013-y.
Qiymati, mlrd. doll								
Jami eksport	**59**	**84**	**157**	**579**	**1838**	**3684**	**7380**	**18301**
Ulushi jamiga nisbatan foiz hisobida								
Jami eksport	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
Shimoliy Amerika	**28,1**	**24,8**	**19,9**	**17,3**	**16,8**	**18,0**	**15,8**	**13,2**
AQSh	21,7	18,8	14,9	12,3	11,2	12,6	9,8	8,6
Janubiy va Markaziy Amerika	**11,3**	**9,7**	**6,4**	**4,3**	**4,4**	**3,0**	**3,0**	**4,0**
Braziliya	2,0	1,3	0,9	1,1	1,2	1,0	1,0	1,3
Yevropa	**35,1**	**39,4**	**47,8**	**50,9**	**43,5**	**45,4**	**45,9**	**36,3**
Yel*	-	-	24,5	37,0	31,3	37,4	42,3	33,2
Germaniya	1,4	5,3	9,3	11,7	9,2	10,3	10,2	7,9
Fransiya	3,4	4,8	5,2	6,3	5,2	6,0	5,3	3,2
Italiya	1,8	1,8	3,2	3,8	4,0	4,6	4,1	2,8
Buyuk Britaniya	11,3	9,0	7,8	5,1	5,0	4,9	4,1	3,0
MDH	**-**	**-**	**-**	**-**	**-**	**1,5**	**2,6**	**4,3**
Afrika	**7,3**	**6,5**	**5,7**	**4,8**	**4,5**	**2,5**	**2,4**	**3,3**
Yaqin Sharq	**2,0**	**2,7**	**3,2**	**4,1**	**6,8**	**3,5**	**4,1**	**7,4**
Osiyo	**14,0**	**13,4**	**12,5**	**14,9**	**19,1**	**26,1**	**26,2**	**31,5**
Xitoy	0,9	1,2	1,3	1,0	1,2	2,5	5,9	12,1
Yaponiya	0,4	1,5	3,5	6,4	8,0	9,9	6,4	3,9
JST ga a'zo mamlakatlar	63,4	69,6	75,0	84,1	78,4	89,3	94,3	97,1

* 1963-yilda 6 ta, 1973-yilda 10 ta, 1983-yilda 12 ta, 1993-yilda 25 ta, 2010-yilda 27 ta, 2013-yilda 28 ta mamlakat.
**1948–1983-yillarda Germaniya Federativ Respublikasi ma'lumotlari.
Manba: International Trade Statistics 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 24

O'tgan asrning 80-yillarida Yaponiya mashina va asbob-uskunalar eksporti bo'yicha jahonda birinchi o'ringa chiqib oldi. Yaponiya yengil va yuk avtomobillari, uy-ro'zg'or buyumlari eksporti bo'yicha qolgan mamlakatlarni ortda qoldirdi. Ammo yapon eksportining uchdan biri AQSh ga to'g'ri keladi. Yaponiyaning AQSh bilan savdo defitsiti 90-yillarda 50–60 mlrd. dollarni tashkil etgan. AQSh ning xalqaro savdodagi ulushining qisqarib borishi Amerika ishlab chiqarish tarmoqlari raqobatbardoshligining pasayishi bilan bog'liq.

Mutaxassislarning fikricha, XXI asr boshlarida AQSh va Osiyo mamlakatlari xalqaro savdoda eng raqobatdardosh mamlakatlar hisoblanishadi. 2030-yilga borib AQSh, Yaponiya va Xitoy eng raqobatbardosh mamlakatlar sifatida e'tirof etilishi mumkin. Bunday uzoq muddatli istiqbolli prognozlar bo'yicha keyingi o'rinlarni Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya, Malayziya va Shveysariya egallashi mumkin.

Jahon savdosining hozirgi vaqtdagi holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, xalqaro savdo hajmi keyingi o'n yilliklarda jadal sur'atlar bilan rivojlanib va tarkibi takomillashib bormoqda. Jahon savdosida rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyotidagi mamlakatlar faol ishtirok etib, har bir mamlakat o'z ishtirokiga qarab iqtisodiy manfaatga ega bo'lmoqda. Lekin rivojlangan mamlakatlar tomonidan tashqi savdo aloqalariga muhim e'tibor qaratilishi va mamlakatlarning yuqori

iqtisodiy salohiyatgaegaligi, bugungi kunda jahon savdosining istiqboldagi strategiyasini belgilab bermoqda.

18.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining xalqaro savdoga ta'siri

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida 2009-yilda xalqaro savdoning yillik o'sish sur'ati 70-yil davomidagi eng quyi darajasigacha pasaydi. 2009-yilda xalqaro savdo hajmi 12 %ga qisqardi. Xalqaro savdoning 2009-yilda pasayishi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan bashorat qilingan edi. Ammo bu bashoratlardan hech birida pasayish sur'atlari bunday keskin tendensiyaga ega bo'lishi kutilmagan edi. Xususan, Jahon savdo tashkiloti tomonidan xalqaro savdoning hajmi 10 %ga qisqarishi taxmin qilingan edi.

18.3.1-rasm.
Xalqaro tovarlar savdosining yilik o'sish sur'atlaring o'zgarishi



Manba: JST sekretariati.

Iqtisodchi olimlar xalqaro savdoning bunday keskin qisqarishini qator sabablar bilan asoslab berishga harakat qilishmoqda. Bu sabablarning hammasi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bilan bog'liq. Xususan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi jahon aholisining turmush darajasini yomonlashtirdi. Bu esa inqiroz sharoitida uy xo'jaliklari va firmalarning iste'molini pasaytirdi. Ayniqsa uzoq muddatli istemol tovarlari (avtomobillarga, maishiy texnika va h.k.ga) va investitsion tovarlarga (sanoat texnikasiga) talab keskin pasaydi. Chunki bu tovarlar savdosi boshqa tovarlarga qaraganda kredit bozori holatiga ko'proq bog'liq hisoblanadi.

Uzoq muddatli iste'mol tovarlariga va investitsion tovarlarga bo'lgan talabning pasayishi o'z navbatida ushbu tovarlarni ishlab chiqarishda xomashyo yoki yarimfabrikat bo'ladigan tovarlarga talabning susayishiga olib keldi. Xususan, 2009-yilda po'lat va temirga bo'lgan jahon bozori talabi keskin qisqardi. O'z navbatida temir va po'lat kabi xomashyo tovarlariga jahon bozorida talabning pasayishi ko'plab mamlakatlar qurilish tarmog'idagi ishlab chiqarish hajmining qisqarishi bilan ham bog'liqdir. AQSh, Buyuk Britaniya, Irlandiya va Ispaniya kabi mamlakatlarda inqirozdan oldin qurilish tarmog'i jadal sur'atlar bilan rivojlanib kelgan. Bu holat o'sha davrda temir va po'lat kabi tovarlarga jahon bozorida yuqori talabni shakllantirgan. Ammo inqiroz sharoitida bu korrellyatsion bog'liqlik salbiy oqibatga olib keldi.

Boshqa tarafdan olganda, jahon YaIM va xalqaro savdoning tovar tarkibi bir-biridan farq qiladi. Misol uchun, uzoq muddatli iste'mol tovarlari va investitsion tovarlarning jahon YaIM dagi ulushi oz bo'lsa-da, ushbu tovarlarning xalqaro savdosidagi ulushi nisbatan katta hisoblanadi. Natijada bu tovarlarga jahon bozoridagi talabning qisqarishi xalqaro savdoga jahon YaIM ga qaraganda ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Xalqaro kooperatsion aloqalarning yomonlashuvi ham xalqaro savdo statistikasining yomonlashuviga olib keldi. Gap shundaki, xalqaro kooperatsiya doirasida ayrim tovarlar yakuniy holatiga yetgunga qadar mamlakatlar chegaralarini bir necha marta kesib o'tishadi. Xalqaro savdo statistikasida esa ushbu tovarlar reeksporti va reimporti mos ravishda eksport va importga qo'shilardi. Natijada, xalqaro savdo statistikasining ko'rsatkichlari o'sib borardi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bunday tovarlarning xalqaro harakatining kamayishi xalqaro savdo statistikasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Shuningdek, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi jahon bozorida ko'plab tovarlarning narxining pasayishiga olib keldi. Xususan, neftning va boshqa bazis tarmoq tovarlarining narxlarining keskin pasayishi hisobiga xalqaro savdoning joriy narxlardagi qiymati (AQSh doll. dagi qiymati) 23 %ga pasaydi.

Natijada 2009-yilda jahonning deyarli hamma mamlakatlarida va mintaqalarida tashqi savdoning qisqarishi kuzatildi. Quyidagi 18.3.1-jadvalda jahonda va uning mintaqalarida YaIM ning va tovarlar tashqi savdosining yillik o'sish sur'atlari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

18.3.1-jadval

2007–2009-yillarda xalqaro jahon yalpi ichki mahsuloti va xalqaro tovarlar savdosining yillik o'sish sur'atlari (2005-yil narxlarida)

	YaIM			Eksport			Import		
	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.
Jahon	3,8	1,6	-2,3	6,4	2,1	-12,2	6,1	2,2	-12,9
Shimoliy Amerika	2,2	0,5	-2,7	4,8	2,1	-14,4	2,0	-2,4	-16,3
AQSh	2,1	0,4	-2,4	6,7	5,8	-13,9	1,1	-3,7	-16,6
Janubiy va Markaziy Amerika	6,4	5,0	-0,8	3,3	0,8	-5,7	17,6	13,3	-16,3
Yevropa	2,9	0,8	-4,0	4,2	0,0	-14,4	4,4	-0,6	-14,5
Yevropa Ittifoqi (27)	2,8	0,7	-4,2	4,0	-0,1	-14,8	4,1	-0,8	-14,5
MDH	8,3	5,3	-7,1	7,5	2,2	-9,5	19,9	16,3	-20,2
Afrika	5,8	4,7	1,6	4,8	0,7	-5,6	13,8	14,0	-5,6
Osiyo	6,0	2,7	0,1	11,7	5,5	-11,1	8,2	4,7	-7,9
Xitoy	13,0	9,0	8,5	19,8	8,6	-10,5	13,8	3,8	2,8
Yaponiya	2,3	-1,2	-5,0	9,4	2,3	-24,9	1,3	-1,3	-12,8
Hindiston	9,4	7,3	5,4	14,4	14,4	-6,2	18,7	17,3	-4,4
Yangi industrial mamlakatlar	5,6	1,6	-0,8	9,0	4,9	-5,9	5,3	3,5	-11,4

Manba: International Trade Statistics, WTO: 2010 press releases, 26 march. 2010-yil ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Jadval ma'lumotlari tahlili asosida jahon YaIM va xalqaro savdo o'rtasida to'g'ri proporsional bog'liqlik borligini aytish mumkin. Xususan, jahon YAMM 2009-yilda (2005-yil narxlari bo'yicha) 2,3 %ga pasaygani holda xalqaro tovarlar savdosi 12,2 %ga pasaydi. Dunyo mamlakatlarida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga

qarshi kurash dasturlarining muvaffaqqiyatli amalga oshirilishi natijasida 2010-yilda xalqaro savdo yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'ldi.

Tahlillar ko'rsatishicha, jahon eksporti hajmi 2013-yilda FOB narxlarida 18,3 trln. dollarni tashkil etdi va 1980-yilga nisbatan 31,0 martaga oshdi. Ushbu davr ichida jahon eksportining geografik tarkibida jiddiy o'zgarishlar yuz bergan. Misol uchun, rivojlangan mamlakatlar ulushi 1980-yilda 66,3 %ni tashkil etgani holda 2013-yilga kelib 51,1 %ga teng bo'ldi. Rivojlanayotgan mamlakatlar ulushi esa 1980–2013-yillar ichida 30,0 %dan 44,7 %ga qadar ortdi.

Xalqaro savdoning geografik tarkibini tahlil qilish xalqaro tovarlar eksportida Yevropa mintaqasi, xususan, YeI yetakchilik qilayotganligini tasdiqlaydi. 2013-yilda Yevropada tovarlar eksporti 6,7 trln. dollarni tashkil qildi. YeI da Germaniya eng yirik eksportyor mamlakat hisoblanadi. Germaniya eksporti 2008–2009-yillarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siri oqibatida 22 %ga qisqarib, jahon tovarlar eksportidagi ulushi 7,9 %ga qadar qisqardi. Natijada, Germaniya jahonning yetakchi eksportyor mamlakatlari ro'yxatida Xitoy va AQSh dan keyingi uchinchi o'ringa tushib qoldi. Jahonning yetakchi eksportyor mamlakatlari ro'yxatida birinchi o'rinni egallagan Xitoyda tovarlar eksporti 2013-yilda 2012-yilga 7 %ga o'sib, 2209 mlrd. dollarni tashkil qildi va jahon tovarlar eksporti tarkibidagi ulushi 11,7 %ga teng bo'ldi (18.3.2-jadval).

18.3.2-jadval

Jahon savdosida tovarlar eksporti va importi bo'yicha yetakchilik qiluvchi mamlakatlar, 2013-y. (mlrd. doll.)

		Qiymati, mlrd. doll.	Jahondagi ulushi, %	Yillik o'sish sur'ati, %
Eksport				
1.	Xitoy	2209	11,7	8
2.	AQSh	1580	8,4	2
3.	Germaniya	1453	7,7	3
4.	Yaponiya	715	3,8	-10
5.	Niderlandiya	672	3,6	3
Import				
1.	AQSh	2329	12,3	0
2.	Xitoy	1950	10,3	7
3.	Germaniya	1189	6,3	2
4.	Yaponiya	833	4,4	-6
5.	Fransiya	681	3,6	1

Manba: International Trade Statistics 2014. WTO, 2014. P. 26.

Jahonning yetakchi importyor mamlakatlari ro'yxatida birinchi o'rinni egallagan AQSh da tovarlar importi 2013-yilda 2329 mlrd. dollarni tashkil qildi va o't-gan yilga nisbatan o'zgarishsiz qoldi. Jahon tovarlar importida Xitoyning ulushi 10,3 %ga teng bo'ldi va yuqori o'sish sur'atiga ega.

2009–2013-yillarda xalqaro savdoda erishilgan ijobiy natijalardan biri bu Jahon savdo tashkilotiga a'zo mamlakatlar tomonidan inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish maqsadida tashqi savdo siyosatida yangi cheklovlardan, proteksionizm usullaridan foydalanishiga yo'l qo'yilmaganligidan iborat. JST 2010-yildan boshlab bunday milliy cheklovlarni pasaytirishga erishdi. Ammo ko'plab mamlakatlarda ishsizlikning yuqori darajasining saqlanib

qolishi, eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarni himoyalash maqsadida mamlakatlar tomonidan proteksionistik siyosatni qo'llashga ehtiyojini oshirmoqda.

18.4. O'zbekiston tashqi savdosining tarkibi va rivojlanish omillari

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo munosabatlarini erkinlashtirish borasida chuqur islohotlar amalga oshirilishi natijasida tashqi savdoning geografik va tovar tarkibida jiddiy ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekiston bugungi kunda 45 dan ortiq mamlakatlar bilan ikki tomonlama savdo aloqalariga ega. Tashqi savdo aylanmasi 1991-yildagi 2,1 mlrd. dollardan 2013-yilda 28,9 mlrd. doll. hajmiga yetdi, ya'ni 36,1 martaga oshdi. Ayni tashqi savdo balansida — 0,7 mlrd. dollarlik salbiy saldodan 1,3 mlrd. dollarlik ijobiy saldoga erishildi. Bu esa ishonchli to'lov balansi va iqtisodiyotimiz barqarorligining muhim ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilmoqda.

Tashqi savdo tarkibida chuqur ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, keyingi yillar mobaynida eksport tarkibida raqobatdosh tayyor mahsulotlar salmog'ining barqaror o'sish tendensiyasi va xomashyo yetkazib beruvchi tarmoqlar mahsulotlari ulushining kamayib borayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Tahlillar ko'rsatishicha, 1990–2013-yillar davomida ekport va importni diversifikatsiya qilish, uning tarkibini takomillashtirish borasidagi choratadbirlar natijasida mamlakatimiz eksportining tovar tarkibida ijobiy siljishlar ro'y berdi.

Bu ko'rsatkichlarning barchasi, avvalo, eksport tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan raqobatdosh tayyor mahsulotlar ulushining izchil oshishi, birinchi navbatda, iqtisodiyotimizning o'sib borayotgan salohiyati va imkoniyatlaridan dalolat beradi. Jumladan, mamlakat eksportining tarkibida paxta tolasi va energiya resurslarining ulushi 1990-yilda 59,7 %ga teng bo'lgani holda ushbu ko'rsatkich 2013-yilga kelib 7,7 %ga qadar qisqardi. Mashina va uskunalar, xizmatlar ulushi esa mos ravishda 1,7 % va 1,3 %dan 5,5 % va 16,2 %ga qadar oshdi (18.4.1-jadval).

18.4.1-jadval
O'zbekiston eksportining tovar tarkibi, jamiga nisbatan foizda

	1990-y.	2000-y.	2010-y.	2013-y.
Eksport — jami	**100**	**100**	**100**	**100**
Paxta tolasi	59,7	27,5	11,3	7,7
Oziq-ovqat mahsulotlari	3,9	5,4	9,7	9,8
Kimyoviy mahsulot va undan tayyorlangan mahsulotlar	2,3	2,9	5,1	4,0
Energiya va neft mahsulotlari	17,1	10,3	24,8	31,1
Qora va rangli metallar	4,6	6,6	6,8	6,3
Mashina va uskunalar	1,7	3,4	5,5	5,5
Xizmatlar	1,3	13,7	9,1	16,2
Boshqalar	9,4	30,2	27,7	19,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1990–2013-yillarda respublikamiz importi tarkibida ham ijobiy siljishlar ro'y berdi. Mamlakatni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish tadbirlarining keng miqyosda amalga oshirilishini ta'minlash jami import hajmida mashina va uskunalar importi ulushining jadal o'sishiga olib keldi. Importning tovar tarkibida mashina va asbob-usunalarning ulushi 1990-yildagi 12,1 %dan 2013-yilda 44,1 %ga ortdi. Shu bilan birga bunday holat eksportimizning xomashyo resurslari narxi tez-tez o'zgarib turadigan jahon bozori ta'siriga bog'liqligini kamaytirishda muhim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi (18.4.2-jadval).

18.4.2-jadval

O'zbekiston importining tovar tarkibi, jamiga nisbatan foizda

	1990-y.	2000-y.	2010-y.	2013-y.
Import — jami	**100**	**100**	**100**	**100**
Mashina va uskunalar	12,1	35,4	44,1	44,1
Kimyoviy mahsulot va undan tayyorlangan mahsulotlar	9,7	13,6	14,3	14,3
Energiya va neft mahsulotlari	3,1	3,8	6,0	7,3
Qora va rangli metallar	10,2	8,6	8,4	7,9
Oziq-ovqat mahsulotlari	48,9	12,3	10,9	9,7
Xizmatlar	1,5	8,5	4,7	5,8
Boshqalar	14,5	17,8	11,6	10,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Tashqi savdo aylanmasi, xususan, eksportning geografik tarkibida MDH mamlakatlarining ulushi 2013-yil yakunlariga ko'ra 43,4 %ni tashkil etdi. 2013-yilda mamlaktimiz korxonalari eksportining 37,8 % Rossiya Federatsiyasi, 12,3 % Qozog'iston, 3,0 % Ukraina hissasiga to'g'ri keldi.

Jami eksport tarkibida uzoq xorij davlatlariga qilingan eksportning ulushi 2013-yilda 56,6 %ni tashkil etdi (18.4.1-diagramma).

18.4.1-diagramma

O'zbekiston eksportining geografik tarkibi, jamiga nisbatan foiz hisobida



	1990-y.	2000-y.	2010-y.	2013-y.
■ MDH mamlakatlari	37,7	64,1	54,8	43,4
■ Uzoq xorij mamlakatlari	62,3	35,9	45,2	56,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bu mamlakatlar bo'yicha mamlakatimiz eksportining diversifikatsiyalashuv darajasi nisbatan yuqori bo'lmoqda. Jumladan, 2013-yil ma'lumotlariga ko'ra, faqat Xitoy (10,8 %), Turkiya (6,3 %), Eron (2,4 %), BAA (1,2 %), Fransiya (1,2 %), mamlakatlariga eksport hajmining mamlakatimiz eksportidagi ulushi 1,0 %dan ko'proqni tashkil etadi.

Eksport diversifikatsiyasi, ya'ni xorijga sotilayotgan tovarlar va xizmatlar nomenklaturasining kengayishi, mahsulotlarimiz eksport qilinayotgan mamlakatlar geografiyasining kengayishi eksport hajmining barqaror bo'lishini ta'minlaydi, milliy iqtisodiyotning tashqi bozordagi salbiy o'zgarishlarga ta'sirchanligi darajasini pasaytiradi.

Keyingi vaqtda jahon bozorida narxi keskin tushib ketgan xomashyo resurslarini eksport qilish amaliyotidan imkon qadar tezroq qutilib, tayyor raqobatbardosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar yetkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini yanada kengaytirishimiz kerak[1].

Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan yana bir yo'nalish — mamlakatimizdagi mahsulot eksport qiladigan korxonalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, eksport salohiyatini mustahkamlash bo'yicha qabul qilingan amaliy choralar muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ma'lumki, 2009-yilda mamlakatimizda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratishga alohida e'tibor qaratilgan edi. Xususan:

- aylanma mablag'larini to'ldirish uchun korxonalarga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 70 %dan ortiq bo'lmagan stavkalarda 12 oygacha bo'lgan muddatga imtiyozli kreditlar berish;
- tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarni byudjetga barcha turdagi soliq va to'lovlardan, qo'shilgan qiymat solig'i bundan mustasno, ozod qilish muddatini 2012-yilgacha uzaytirish;
- banklar kreditlari bo'yicha to'lov muddati o'tgan va joriy qarzlar miqdorini qayta ko'rib chiqish, byudjetga to'lanadigan to'lovlarning penyasidan kechish va boshqa muhim imtiyoz hamda preferensiyalar berish shular jumlasidandir (18.4.1-rasm).

Jumladan, birgina 2009-yil mobaynida eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash va ularning barqaror faoliyatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar qatorida tijorat banklari tomonidan aylanma mablag'larni to'ldirish uchun 233,5 mlrd. so'mlik imtiyozli kreditlar ajratilganligi, 105,8 mlrd. so'm miqdorida byudjet oldidagi va yetkazib berilgan elektr energiyasi, tabiiy gaz va kommunal xizmatlar qarzlarini to'lash muddatlarining keyinga surilganligi, barcha turdagi energiya manbalari va asosiy kommunal xizmatlar uchun narxlar o'sishi o'rtacha 7,7 %, ya'ni past darajada saqlab qolinganligini ta'kidlash mumkin. Bu esa jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mahsulotni eksport qilish bo'yicha yuzaga kelgan vaqtinchalik qiyinchiliklarga qaramasdan, eksport qiluvchi korxonalarda ishlab chiqarish pasayishining oldini olish imkonini berdi.

Eksport tarkibida bir yoki bir necha tovarlar ulushining sezilarli darajada ortib ketishi bu tovarlar narxi pasaygan yoki ularga tashqi talab qisqargan holatlarda eksportchi korxonalarni og'ir ahvolga solib qo'yishi mumkin. Buning natijasida eksport

1 Каримов И. А. Асосий вазифамиз — ватанимиз тараккиёти ва халкимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. — Т.: Ўзбекистон, 2010.64-б.

hajmining qisqarishi valyuta tushumlarining kamayishi, tashqi savdo balansining yomonlashuvi va korxonalar moliyaviy ahvolining tanglikka yuz tutishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, eksport umumiy hajmining kam sonli davlatlarga bog'lanib qolishi ham qaltis holat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek, tayyor raqobatbardosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar yetkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini yanada kengaytirish vazifasini amalga oshirish eksport hajmini barqaror o'stirish, tashqi bozordagi o'zgarishlar ta'sirida uning hajmi keskin kamayishi xavfini bartaraf etish imkonini beradi[1].

18.4.1-rasm.



18.4.2-rasm.



1 O'sha manba.

Eksport qilinayotgan tovarlarni diversifikatsiya qilish, ularni import qiluvchi mamlakatlar geografiyasini kengaytirish bu mamlakatlardan biri yoki bir guruhining iqtisodiyotida muammolar ro'y berganda ham eksport hajmining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi.

O'tgan yillar mobaynida eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotimizning eksport salohiyatini yuksaltirish, tashqi savdo tarkibida ijobiy siljishlarga erishish, uning hajmini barqaror o'stirish imkonini bermoqda.

Asosiy tushunchalar

Xalqaro savdoning ko'lami — tovar va xizmatlar xalqaro savdosining miqdoriy jihatlari.

Xalqaro savdoning tarkibi — xalqaro savdoni aniqlovchi hududiy mutanosibliklar majmuyi va aloqalari.

Xalqaro savdoning tovar tarkibi — xalqaro savdoni aniqlovchi tovar mutanosibliklar majmuyi va aloqalari.

Xalqaro savdoning hududiy tarkibi — bu xalqaro savdoning hududiy tarkibini aniqlovchi mutanosibliklar va aloqalar majmuyi.

Xomashyo tovarlari — qishloq va o'rmon xo'jaligi, baliqchilik va ov mahsulotlari, qayta ishlash uchun katta sarf-xarajat talab etmaydigan qazilma boyliklar.

Yarimtayyor mahsulot — yakunlovchi qayta ishlashni talab etadigan mahsulotlar.

Tayyor mahsulotlar — tugallangan tayyor mahsulotlar.

Qisqa muddatda foydalanuvchi tayyor sanoat mahsulotlari — 1-yil va undan qisqa davrda ishlatiladigan tovarlar.

Uzoq muddatda ishlatiladigan tovarlar — 1-yildan uzoq ishlatiladigan tovarlar.

Qisqa muddatda ishlatiladigan iste'mol tovarlari (nooziq-ovqat) — 1-yil va undan qisqa davrda ishlatiladigan tovarlar.

O'rta muddatda iste'mol qilinadigan tovarlar — nisbatan kichik qiymatga ega bo'lgan 1-yildan 3-yilgacha ishlatish muddatiga ega tovarlar.

Xalqaro savdo siyosati — jahon savdosini tartibga solishga yo'naltirilgan xalqaro tashkilot va hududiy ittifoqlar faoliyati.

Nazorat savollari

1. Xalqaro savdoning rivojlanish bosqichlariga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
2. Jahon savdosi qanday tarkibga va rivojlanish tendensiyalariga ega?
3. Jahon savdosining tovar tarkibi qanday ko'rinishga ega va xalqaro tovarlar savdosi qanday guruhlanadi?
4. Xalqaro savdoning hududiy tarkibidagi o'zgarishlar tendensiyasiga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
5. Xalqaro savdoning barqaror o'sish sur'atiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?
6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining xalqaro savdoga ta'sirini baholang.
7. Xalqaro savdoning zamonaviy tarkibi va rivojlanish istiqbollariga baho bering.
8. O'zbekiston tashqi savdosining tarkibi va rivojlanish omillari nimalardan iborat?
9. Tashqi savdo tarkibini diversifikatsiyalashning zarurligi va ustuvor yo'nalishlari.

19-BOB. JAHON SAVDO TASHKILOTI (JST) VA XALQARO SAVDO

19.1. Tarif va savdo bo'yicha bosh kelishuv (GATT): tashkil topishi va faoliyat ko'rsatish prinsiplari

Xalqaro savdoni umumiy norma va qoidalar orqali tartibga solishga bo'lgan obyektiv ehtiyoj XX asrning 30-yillarida milliy hukumatlarning proteksionistik tashqi savdo siyosati faoliyati tufayli xalqaro savdo imkoniyatlarini keskin to'sib qo'ygan vaqtlarda sezila boshlagan edi. O'sha davrda xalqaro savdoning asosini ikki tomonlama savdo shartnomalari tashkil qilgan. Ushbu shartnomalarning kamchiligi, ular ikki tomon o'rtasidagi tovarlar savdosining qisqagina ro'yxatini qamrab olishdan iborat. Ikki tomonlama shartnomani imzolash natijalari esa kutilmagan natijalarga olib kelishi mumkin edi. Jumladan, shartnomalardan o'z tomonidan hech qanday imtiyoz bermagan uchinchi mamlakat ishlab chiqaruvchilari manfaat ko'rishardi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng savdo strategiyasining global muvofiqlashtirishni ta'minlashga yo'naltirilgan xalqaro savdo tashkilotlarini yaratish uchun harakatlar boshlandi. Bu harakatdan hammadan ko'ra xalqaro savdodagi ulushi 40 % atrofida bo'lgan AQSh manfaatdor edi, tashqi savdodagi normal holatlarning buzilishidan, xususan, ular jiddiy zarar ko'rar edi.

Xalqaro savdo tashkilotini yaratish bo'yicha munozaralar ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSh va Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi keskin tortishuvlar sharoitida bo'lib o'tdi. Bu tortishuvlar, xususan, ishtirokchi davlatlar beradigan ovozlar miqdori bilan ham bog'liq edi. «Bir mamlakat — bir ovoz» tamoyilini yoqlovchi yevropacha yondashuvga teskari ravishda AQSh ko'proq ovozga ega bo'lish g'oyasini ko'tarib chiqdi. Amerikaliklar ovozlar soni mamlakatning xalqaro savdodagi ulushiga proporsional tarzda olinishi lozim, deb hisoblashardi. Lekin ular o'z fikrlari himoyasini saqlab qola olmadilar.

Xalqaro savdo tashkilotini tashkil etish to'g'risidagi shartnomaning tarif masalalariga bag'ishlangan bo'limini tashkil qilish bo'yicha maxsus munazaralar Jenevada bo'lib o'tdi. Natijada 1948-yil 30-iyunda tarif va savdo masalalari bo'yicha vaqtinchalik shartnoma — GATT (General of Trade and Tariff) 23 mamlakat tomonidan imzolandi. Shu sababli 1948-yil 30 iyun GATT tashkil topgan kun deb e'tirof etiladi.

1947-yil 21-noyabrda Gavanada BMT ning savdo va bandlik bo'yicha konferensiyasi ochildi. Bu konferensiyada rasman 56 ta mamlakat ishtirok etgan bo'lib, ular Xalqaro savdo tashkiloti (XST) nizomini muhokama qilishdi.

1948-yil 24-martda esa ushbu mamlakatlarning aksariyat qismi XST nizomini imzoladi, ammo bu hujjatning milliy qonunchilik organlari tomonidan ratifikatsiya qilinishi ancha qiyin kechdi. Deyarli hamma mamlakatlar nizomning AQSh kongressi tomonidan ratifikatsiya qilinishini kutishdi. Ammo 1950-yilning dekabr oyida AQSh kongressi 3 marta XST nizomini qaytargandan keyin AQSh prezidenti apparati bu hujjatni boshqa ratifikatsiya qilishga harakat qilmasligini e'lon qildi. Bu holat XST tashkil qilinmasligiga va GATT kelishuvining 1994-yil oxiriga qadar xalqaro savdo to'siqlari xalqaro darajada tartibga soluvchi yagona dastakka aylanishiga olib keldi.

19.2. GATT/JST doirasida amalga oshirilgan muzokaralar evolyutsiyasi

GATT doirasida tashkil etilgan xalqaro konferensiyalar «raundlar» deb nomlangan va ularning birinchi beshtasida muzokaralar, asosan, bojxona bojlarini pasaytirishga bag'ishlangan. GATT ning keyingi raundlarida bojxona bojlarini pasaytirish bilan

birgalikda boshqa masalalar ham o'rganilgan. Masalan, 1964–1967-yillardagi Kennedi raundida dempingga qarshi choralar muhokama qilingan. 1973–1979-yillarda 102 ta mamlakat ishtirokida bo'lib o'tgan Tokio raundi notarif to'siqlar bilan kurashishga bag'ishlangan. Ushbu o'tkazilgan raund natijasida 9 ta sanoat mahsulotlarining jahon bozoridagi bojxona bojlari 1/3 qismga, jumladan, sanoat mahsulotlaridan undiriladigan bojxona bojining o'rtacha stavkasi 4,7 %gacha pasaydi. Tokio raundi jarayonida qator masalalar hal etilmadi. Jumladan, qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosi, tashqi savdodagi himoya choralari bo'yicha kelishuvlar qabul qilinmadi. Ko'pchilik hollarda qabul qilingan kodekslarni yetakchi taraqqiy etgan mamlakatlar imzolashdi. Yuqoridagi sabablarga ko'ra hal qilinmagan masalalar Urugvay raundiga qoldirildi.

Quyidagi 19.2.1-jadvalda GATT raundlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

GATT doirasida bo'lib o'tgan sakkizinchi Urugvay raundi davomiyligi va ishtirokchilari soni jihatidan avvalgi raundlardan katta bo'ldi. Urugvay raundi 1986–1994-yillarda bo'lib o'tdi va unda 123 ta mamlakat qatnashdi. Urugvay raundida xalqaro xizmatlar savdosi, intellektual mulk huquqiga amal qilish, savdodagi nizolarni hal etish qoidalari, azo mamlakatlar tashqi savdo siyosati to'g'risida axborot berish, qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosi kabi masalalar muhokama qilindi.

GATT da ko'plab qarorlar qabul qilinishi AQSh, Yel, Kanada va Yaponiyadan iborat «kvarro guruhi»ning o'zaro kelishib olishiga ustun darajada bog'liq edi. 1993-yilda kvarro guruhi qishloq xo'jalik mahsulotlarining savdosi bo'yicha yagona qarorga kelganini e'lon qildi. Ushbu sababga ko'ra Urugvay raundi 1994-yil 15-aprelda Marokashda o'z nihoyasiga yetdi.

19.2.1-jadval
GATT/JST doirasida amalga oshirilgan raundlar evolyutsiyasi

Yillar	Joyi va nomlanishi	Mavzusi	Mamlakatlar soni
1947	Jeneva	Tariflar	23
1949	Annesi	Tariflar	13
1951	Torku	Tariflar	38
1956	Jeneva	Tariflar	26
1960–1961	Jeneva (Diplon raundi)	Tariflar	26
1964–1967	Jeneva (Tokio raundi)	Tariflar va antidempingga qarshi chora-tadbirlar	62
1973–1979	Jeneva (Kennedi raundi)	Tariflar, tashqi savdoni notarif tartibga solish chora-tadbirlari va tor doiradagi kelishuvlar	102
1986–1994	Jeneva (Urugvay raundi)	Tariflar, notarif chora-tadbirlar, xizmatlar savdosi, savdo kelishmovchiliklarini tartibga solish, intellektual mulk, Jahon savdo tashkilotini (JST) tashkil etish va atrof-muhit muhofazasi	123
2001	Doxa (Qatar raundi)	Atrof-muhit muhofazasi	
2003	Kankun (Meksika) Doxa raundining davomi	Atrof-muhit muhofazasi	

Urugvay raundida erishilgan muhim yutuqlardan biri — JST ni tuzish to'g'risidagi kelishuvning qabul qilinishi bo'ldi. JST 1995-yil 1-yanvardan mustaqil xalqaro tashkilot sifatida o'z faoliyatini boshladi. 2011-yil dekabriga kelib JST a'zolari

soni 157 ta bo'lib, 26 ta davlat kuzatuvchi maqomiga ega. A'zo bo'lgan mamlakatlar hissasiga Jahon savdo aylanmasining 97 % to'g'ri keldi va 14,85 trln. dollarga teng bo'ldi[1].

Xalqaro savdoning hamma ishtirokchilari uchun yagona qoidalar va joriy qilingan yangi me'yorlarni nazarda tutuvchi savdo tashkilotining tashkil qilinilishi xalqaro savdo to'siqlarini bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

JST quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- kelushuvlarni joriy etish va nazorat qilish;
- o'zaro muzokaralarni olib borish uchun forumlarni tashkil qilish;
- savdo nizolarini hal qilish;
- turli mamlakatlarning savdo siyosatini amalga oshirish to'g'risida axborot berish;
- global iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda mamlakatlar faoliyatini muvofiqlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik yordam berish.

Xalqaro savdoni erkinlashtirish va adolatliligini ta'minlash JST ning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

19.2.1-rasm.
GATT/JST ning maqsadi va vazifalari



1 www.wto.org

JST o'z faoliyatini quyidagi tamoyillar asosida olib boradi:

- mumkin qadar qulaylik berish rejimi — a'zo mamlakatlarning har biri boshqa a'zolarga nisbatan savdo sheriklari sifatida teng sharoitlarni qo'llaydi. Agar biror-bir mamlakat o'zga savdo sherigiga imkoniyat bersa, u holda xuddi shunday rejim JST ning boshqa a'zo mamlakatlariga ham qo'llanishi shart;
- kamsitishsiz savdo — mamlakat savdo sheriklari, xorijiy tovarlar va xizmatlar savdosi sohasida shaxslar o'rtasida diskriminatsiya o'tkazmasligi kerak;
- savdo to'siqlarini bartaraf etish — muzokaralar o'tkazish orqali mavjud savdo to'siqlarini asta-sekin bartaraf etish;
- bashorat etiladigan savdo — xorijiy investorlar, kompaniya va hukumatlar savdo to'siqlari asossiz joriy etilmasligiga ishonch hosil qilishlari shart va bozorni erkinlashtirish majburiyatlari JST ga «bog'lanadi»;
- raqobatbardoshlikni takomillashtirish — JST qoidalari eksportni subsidiyalash va demping kabi xalqaro savdodagi «adolatsiz» faoliyatlarga to'sqinlik qiladi;
- rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yetarli darajada qulay shart-sharoitlar yaratish — rivojlanayotgan mamlakatlarga o'tish davri va maxsus rejimlarni taqdim etish ko'zda tutiladi.

JST o'z faoliyatini yuritishning dastlabki yillarida quyidagi yo'nalish bo'yicha ishlar olib bordi.

Birinchidan, JST da yangi muzokaralar raundiga tayyorgarlik ko'rish boshlandi. JST savdo vazirlarining birinchi muzokarasi 1996-yilda Singapurda bo'lib o'tdi va unda 4 ta yangi ishchi guruhlari tashkil etildi. Ushbu muzokaralar «Singapur savollari» deb nomlangan savdo va investitsiyalash, savdo va raqobat siyosati, davlat xarajatlari ta'siri va savdo jarayonini soddalashtirish kabi masalalarni hal etishga bag'ishlandi.

Ikkinchidan, JST ning GATT tomonidan farqlanuvchi yangi qabul qilingan qoidalarning amaliyotda qo'llanilishini baholash lozim edi.

Uchinchidan, JST ning xalqaro iqtisodiy tashkilot sifatida jahon xo'jaligi tomonidan tan olinishi muhim ahamiyat kasb etgan edi.

Zamonaviy xalqaro savdo tizimini rivojlantirishning muhim bosqichi JST ning Qatarda o'tkazilgan to'rtinchi konferensiyasida boshlangan edi. Ushbu konferensiya 2001-yilning 9-noyabridan 13-noyabrgacha Doha shahrida bo'lib o'tdi va «Doha raundi» degan nom oldi. Doha konferensiyasining maqsadi xalqaro savdoga oid masalalarni qayta ko'rib chiqib ularni yangi kelushuvlar asosida tasdiqlashdan iborat bo'lgan. Hamma muzokoralar 2005-yilning 1-yanvar kunigacha yakunlashishi kerak edi. Doha raundining asosiy natijasi sifatida JST savdo vazirlarining beshinchi konferensiyasi bo'lishi kerak edi. JST savdo vazirlarining beshinchi konferensiyasi 2003-yilda Meksikada — Kankun shahrida bo'lib o'tdi va unda ma'lum kelishuvlarga kelishilmadi. Aksariyat mamlakatlar uchun Kankundagi kelishmovchiliklar Sietl shahrida bo'lib o'tgan nizolarga qaraganda ancha jiddiy bo'ldi. Birinchidan, 1999-yilda Meksikadagi konferensiyaga to'sqinlik qilgan asosiy sabab antiglobalistlarning harakatlari bo'lgan holda, 2003-yilda ushbu holat kuzatilmadi. Ikkinchidan ushbu konferensiyadan aksariyat mamlakatlar jiddiy qarorlar qabul qilishni kutishgan edi. Doha deklaratsiyasi rivojlanayotgan mamlakatlarning manfaatlarini hisobga olgan holda qabul qilingan. Ularga texnik yordam berish nazarda tutilgan edi. JST ning navbatdagi konferensiyalarida rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik yordam berishni amalga oshirish borasida vazirlar konferensiyasi yagona qaror qabul qilishga to'sqinlik qilayotgan quyidagi sabablar mavjud edi.

Birinchidan, Doha raundidagi muzokaralarda ko'pchilikning fikricha, asosan, taraqqiy etgan mamlakatlarning manfaatlari hisobga olingan edi. Bu kamchiliklar

«Singapur savollari»da ham kuzatilib, unda rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan qo'shimcha talablar qo'yilgan edi. Konferensiyada ishchi kuchi migratsiyasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun hal qilinishi lozim bo'lgan muammo hisoblanganligi uchun rivojlangan mamlakatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi.

Ikkinchidan, Doha konferensiyasida rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan avval qabul qilingan qarorlarning amaliyotga joriy etilishi moddiy jihatdan cho'zilib ketdi va noroziliklar keltirib chiqardi. Shuningdek, texnik to'siqlar, sanitariya va fitosanitariya choralari borasida shartnomalar matniga o'zgartirishlar kiritilmagan edi.

19.3. JST ga a'zo bo'lish bosqichlari

JST ga a'zo bo'lish jarayoni uzoq va murakkab jarayon bo'lib, to'rt bosqichdan iborat (19.3.1-jadval).

19.3.1-jadval
JST ga a'zo bo'lish bosqichlari

Bosqichlari	Talablar
Tayyorgarlik bosqichi	Mamlakatlardan JST doirasidagi kelishuvlarga taalluqli savdo va iqtisodiy masalalar mazmuni ochib berilishi talab etiladi. Ushbu ma'lumotlar «Tashqi iqtisodiy rejim to'g'risidagi Memorandum» shaklida taqdim etilishi zarur
Muzakoralar bosqichi	Ishchi guruhi va a'zolikka da'vogar mamlakatlar o'rtasida ikki tomonlama muzokaralar boshlanadi. Bu muzokaralar tarif stavkalari, bozorlarga kirish bo'yicha aniq majburiyatlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga tegishli bo'lib, JST doirasidagi kelishuvlarga taalluqlidir.
A'zolik shartlarini loyihalashtirish bosqichi	Ishchi guruhi ikki tomonlama muzokaralarni tugatgandan so'ng a'zolik shartlarini shakllantiradi. Ushbu shartlar «A'zolik to'g'risidagi Protokol» va a'zo bo'layotgan mamlakat imzo qo'yishi lozim bo'lgan ro'yxatda aks ettiriladi.
Qaror qabul qilish bosqichi	Hisobot, protokol va majburiyatlar ro'yxati JST Bosh Kengashi yoki Vazirlar konferensiyasiga taqdim etiladi. Agar JST a'zolarining uchdan ikki qismiga teng ovoz to'plansa, mamlakat JST ga a'zo bo'ladi.

Birinchi bosqichda JST ga qo'shilishni xohlovchi davlatlarning hukumat boshliqlari JST da kuzatuvchilik huquqini beruvchi ariza beradi. Bunda hukumat JST ga yuboruvchi o'z memorandumida mamlakatning savdo va iqtisodiy siyosatini to'liq qamrab olgan jihatlarni taqdim etadi. Bu memorandum qo'shilish to'g'risidagi so'rovlarni to'liq o'rganish uchun asos bo'ladi. Shundan so'ng JST ga ariza beruvchi davlatlar bo'yicha ishchi guruh tuziladi.

Ikkinchi bosqichda ishchi guruh yig'ilishlarida ariza bergan hukumat tovar va xizmatlar savdosiga nisbatan o'z huquq va majburiyatlarini aniqlab olish maqsadida qiziquvchi a'zo mamlakatlar hukumatlari bilan ikki va ko'p tomonlama muzokaralar olib boradi. Muzokaralar natijasida JST ga kirayotgan davlat tovarlar va xizmatlar savdosi bo'yicha bajarishi lozim bo'lgan va o'zgartirilmaydigan aniq tariflar beradi.

Uchinchi bosqichda ariza beruvchi davlatning savdo rejimini o'rganish va bozorga kirishga imkon beruvchi muzokaralar tuzish bilan ishchi guruh asosiy qo'shilish shartlarini ishlab chiqadi. Ushbu shartlar «A'zolik to'g'risidagi Protokol» va a'zo bo'layotgan mamlakat imzo qo'yishi lozim bo'lgan ro'yxatda aks ettiriladi. Yig'ilish natijasiga ko'ra JST ga kirayotgan davlat to'g'risida qaror tayyorlaydi va bu hujjatlar Bosh kengash yoki Vazirlar konferensiyasida tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

To'rtinchi bosqich qaror qabul qilish bosqichi hisoblanib, hisobot, protokol va majburiyatlar ro'yxati JST Bosh Kengashi yoki Vazirlar konferensiyasiga taqdim

etiladi. Qo'shilish to'g'risidagi qaror JST a'zolarining 2/3 qismi ovoz bergan taqdirda imzolangan hisoblanadi. JST ga a'zo bo'lgan davlat Urugvay raundi qamrab olgan bitimlarni qabul qilishi va amalga oshirishi kerak bo'ladi.

MDH mamlakatlaridan Qirg'iziston, Moldova, Gruziya, Armaniston, Ukraina, Rossiya va Tojikiston JST ning a'zolari hisoblanadi. MDH mamlakatlarining JST ga a'zo bo'lish tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, 2011-yil noyabrda Rossiya va JST o'rtasida davom etayotgan 18 yillik muzokaralar tugadi.

Rossiya va JST. Rossiya 2012-yilning sentyabridan JST ning to'laqonli a'zosiga aylandi va-yiliga tashkilotning yangi a'zosi sifatida 3,5 mln. shveysariya franki (3,1 mln. dollar) miqdorida a'zolik badali to'lab boradi. Rossiyaning JST ga a'zoligi xorijiy bozorlarda Rossiya kompaniyalariga nisbatan kamsitishlardan xoli bo'lish imkonini beradi. Rossiya iqtisodiy rivojlanish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, faqat shu sababga ko'ra rossiyalik tadbirkorlar yiliga 2 mlrd. dollar yo'qotishadi. JST ga a'zo bo'lish savdo to'siqlarining pasayishi, xalqaro savdo qoidalarini ishlab chiqishda qatnashish imkonini yaratadi. Shu bilan birga Rossiya ham boshqa a'zo mamlakatlarga o'z bozorlarini ochib berishi kerak bo'ladi. Xususan, 2020-yilga borib Rossiyada import bojlarining o'rtacha stavkasi 10,3 %dan 7,1 %gacha, shu jumladan qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun 15,6 %dan 11,2 %gacha, sanoat tovarlari uchun esa 9,4 %dan, 6,4 %gacha pasaytiriladi[1].

Rossiya JST ga a'zo bo'lgandan boshlab tashkilotning barcha qoidalariga rioya qilishi zarur bo'ladi. Shunga qaramasdan, Rossiya uchun temiryo'l tariflarini birxillashtirish, milliy avtomobilsozlik sanoatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'tish davri belgilangan. Rossiyaning JST ga a'zo bo'lishi mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Rossiya sanoati import qilinayotgan asbob-uskunalarga o'rnatilgan bojxona bojlarining pasayishidan foyda ko'radi. Misol uchun, FSK asbob-uskunalarning 70 %ni, «Rusgidro» esa 20 %ni olib kiradi.

Xorijiy bozorlarga kirib borishdagi savdo to'siqlarning kamayishi, bojlarning pasayishi tufayli eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar, jumladan, yuqori texnologik tarmoqlar, o'g'itlar ishlab chiqarish foyda ko'rishi mumkin. Chunki bu kompaniyalar xorij bozorlarida uzoq vaqtdan beri faoliyat olib boradi.

Ba'zi mutaxassislarning fikricha, metallurgiya sanoati ham savdoning erkinlashuvidan foyda ko'radi. Sababi YeI bozorlariga kirib borish uchun Rossiyaning qora metall ishlab chiqaruvchilari aylanma yo'llardan foydalanadi. Rossiya ishlab chiqaruvchilari yarimfabrikatlarni yetkazib berish uchun oldiniga yirik prokat quvvatlarini sotib olishga majbur bo'lishadi. JST esa metallurgiya sanoati mahsulotlarini to'g'ridan to'g'ri Yevropa mamlakatlariga sotish imkoniyatini yaratadi. Rangli metallurgiya sanoati esa eksport bojlarining 10 %dan 5 %ga qadar pasayishidan foyda ko'radi.

Rossiyaning qishloq xo'jalik mashinasozligi va avtomobilsozlik tarmoqlari JST ga a'zo bo'lishdan katta zarar ko'rishi mumkin. Qishloq xo'jalik mashinasozligi mahsulotlariga nisbatan import bojlari stavkasining 5 %gacha pasaytirilishi natijasida qishloq xo'jalik texnikasi importi ortadi. Rossiyaga olib kirilayotgan yangi va eski avtomobillarga nisbatan qo'llaniladigan import bojlarining pasaytirilishi yangi avtomobillar importining 25–35 %ga, eski avtomobillar importining esa 5–10 baravar o'sishiga olib kelishi natijasida milliy avtokorxonalar ko'radigan zarar 16 mlrd. dollardan oshib ketishi mumkin[2].

Rossiyaning JST ga a'zo bo'lishidan eng katta zarar qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lishi kutilmoqda. Jumladan, cho'chqachilik va chorvachilik (sut yetishtirish) sohasida 2020-yilgacha cho'chqa go'shtiga nisbatan qo'llanilayotgan 15,5 %li boj

1 Товкайло М., Лютова М. Наконец-то ВТО. //Ведомости, 30.12.2011.

2 Овчинников Р., Полякова Ю. Вступление в ВТО должно снизить цены. //Известия, 19.12.2011.

stavkalari kvota doirasida 0 ga tenglashtiriladi, sutga nisbatan qo'llanilayotgan stavkalar esa 25 %dan 15 %ga qadar pasaytiriladi. JST ga a'zo bo'lgandan boshlab qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash uchun ajratiladigan mablag' miqdori 9 mlrd. dollarga tenglashadi va bosqichma-bosqich 4,4 mlrd. dollargacha qisqartiriladi. Shu bilan birga qishloq xo'jaligi bilan bog'liq kutilayotgan zararlar Rossiyaning fermerlarni 4,4 mlrd. dollar miqdorida qo'llab-quvvatlash huquqini saqlab qolganligi, dempingga qarshi chora-tadbirlar va subsidiyalar yordamida bartaraf etilishi mumkin.

Rossiya quvur ishlab chiqaruvchilari ham JST ga a'zo bo'lish tufayli zarar ko'rishi mumkin. Rossiya, Ukraina va Xitoy o'rtasidagi kelishuvlar hozircha quvur importini cheklash imkonini beradi. JST ga a'zo bo'lish esa quvur importiga nisbatan qo'llaniladigan o'rtacha boj stavkalarini 3 baravar, ya'ni 5 %gacha pasaytirishni taqozo etadi va raqobatning kuchayishiga olib keladi. Mutaxassislar fikricha, Rossiyaning quvur ishlab chiqaruvchi kompaniyalari ko'radigan zarar 5 mlrd. dollarni tashkil etishi mumkin.

Rossiya keyingi besh yil davomida ko'psonli tovarlar bo'yicha eksport bojlarini bekor qilishi lozim bo'ladi. Neft, neft mahsulotlari, gaz, o'rmon mahsulotlari, qora va rangli metallar, temiryo'l lokomotivlari, teri va teri mahsulotlari bundan istisno. Rossiya xizmatlar bozorining 116 ta sektori (30 ta sektor bo'yicha hech qanday cheklovlar bo'lmaydi) bo'yicha xorijliklarni kiritish majburiyatini oldi.

Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, Rossiyaning JST ga a'zo bo'lishi mamlakat YaIM ning qo'shimcha 3,3 %ga, iste'molning 7,2 %ga, eksportning 13,2 %ga qo'shimcha o'sishiga olib kelishi bilan birga byudjetga tushadigan import bojlarining 33,4 %ga qisqarishiga olib kelishi mumkin[1].

19.4. O'zbekiston va JST munosabatlari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga va jahon xo'jaligiga chuqurroq integratsiyalashib borishga intilmoqda. Hozirgi kunda jahondagi iqtisodiy munosabatlarda globallashuv jarayoni tobora kuchayib bormoqda. Bu borada Prezidentimizning «... tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi. Barchamiz bir haqiqatni anglab yetishimiz lozim — O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi»[2] degan so'zlarini esga olish muhimdir. Shuningdek, dunyoning yirik, jadal iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini kengaytirish, «... eksport qilinadigan mahsulotlarimiz tarkibini va umuman, tashqi savdo aylanmasini yanada diversifikatsiya qilish dolzarb masala bo'lib qolmoqda»[3].

O'zbekiston 1994-yilning iyunidan GATT/JST da kuzatuvchi maqomiga ega. 1994-yil dekabr oyida O'zbekiston hukumati tomonidan GATT/JST ga teng huquqli a'zo bo'lish to'g'risida ariza topshirildi va 1995-yilning yanvarida O'zbekistonning JST ga kirishi jarayoni bo'yicha ishchi guruhi tashkil qilindi. 1998-yilning sentyabr oyida O'zbekiston tashqi savdosi bo'yicha memorandum JST da rasmiy ravishda tanishtirildi.

1 Овчинников Р., Полякова Ю. Вступление в ВТО должно снизить цены. //Известия, 19.12.2011.

2 Каримов И. А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. — Т.: «Ўзбекистон», 2009.11-б.

3 Каримов И. А. Асосий вазифамиз — Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. — Т.: «Ўзбекистон», 2010.64-б.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 14-dekabrdagi 520-sonli qarori bilan JST bilan ishlovchi Vazirliklararo komissiya tarkibi tasdiqlandi. Vazirliklararo komissiya tarkibida quyidagi 7 ta ishchi guruhi tashkil qilindi:

- sanitariya va fitosanitariya chora-tadbirlari, savdoning texnik to'siqlari masalalari bo'yicha ma'lumotlar tayyorlash;
- qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash va eksport subsidiyalari bo'yicha ma'lumotlar tayyorlash;
- savdo xizmatlariga ta'sir ko'rsatuvchi siyosiy chora-tadbirlar bo'yicha ma'lumotlar tayyorlash;
- intellektual mulk huquqining savdo jihatlari bo'yicha JST bitimi doirasida ma'lumotlar tayyorlash;
- xizmatlar sohasida tarif chegirmalari va majburiyatlari bo'yicha takliflar tayyorlash;
- O'zbekistondagi mavjud qonun xujjatlarini JST talablariga muvofiq keladigan holatga keltirish;
- O'zbekistonning JST ga a'zo bo'lishining iqtisodiyot sohalariga ta'sirini baholash bo'yicha tadqiqotlar olib borish.

O'zbekistonning JST ga a'zo bo'lishi bo'yicha ishchi guruhning birinchi yig'ilishi 2002-yil 17-iyulda Jeneva shahrida bo'lib o'tdi. O'zbekiston tashqi savdosi bo'yicha memorandumning har bir moddasini o'rganib chiqish yig'ilishning asosiy mavzusi bo'ldi.

Ikkinchi yig'ilish 2004-yil 29-iyunda Jenevada bo'lib o'tdi. Yig'ilishda O'zbekiston tashqi savdosi bo'yicha memorandumi va O'zbekistonning a'zo mamlakatlar savollariga javoblari muhokama qilindi. O'zbekiston 38 ta asosiy savdo hamkorlari bilan muzokaralar olib borishi kerak.

Uchinchi yig'ilish 2005-yilning oktyabr oyida Jeneva shahrida bo'lib o'tdi.

O'zbekistonning JST ga kirishining afzalliklari:

- xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyatlarining kengayishi;
- JST ga a'zo mamlakatlar olgan majburiyatlar tufayli barqaror tashqi savdo muhitining qaror topishi;
- JST tomonidan subsidiyalar, demping kabi taqiqlangan usullardan himoyalanish maqsadida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoniyatining yaratilishi;
- tashqi savdo hajmining ortishi va iste'molchilar ehtiyojining samarali qondirilishi;
- tashqi savdo nizolarini samarali hal etish imkoniyati;
- ko'ptomonlama savdo tizimiga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lish.

Shu bilan birga O'zbekistonning JST ga kirishida kutilayotgan asosiy xarajatlar quyidagilardan iborat:

- nisbatan kuchli bo'lmagan proteksionizm sharoitida raqobatbardosh bo'lmagan korxonalarning ishlab chiqarish hajmi ishchilar soni va byudjetga soliq ajratmalarini qisqartirishi mumkin;
- raqobatbardosh bo'lmagan korxonalarda ishlab chiqarish hajmining qisqarishi hisobiga vaqtinchalik ishsiz qolishi mumkin bo'lgan aholi qatlamini ijtimoiy himoyalash maqsadlari uchun davlat xarajatlarining ortishi;
- tovar va xizmatlarni standartlash va sertifikatsiyalash, xalqaro andozalar bo'yicha bojxona amaliyotlarini joriy qilish, tartibga solishning sanitariya choralari, intellektual mulk huquqi himoyasini yaxshilash kabi JST ga a'zo bo'lish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni byudjetdan moliyalashtirish.

JST talablariga muvofiq, qishloq xo'jaligini ichki qo'llab-quvvatlash va eksport subsidiyalari darajasini aniqlash uchun bazaviy davrni aniqlash talab etiladi. Unga ko'ra oxirgi uch yil bazaviy davr sifatida qabul qilinishi lozim.

O'zbekistonda bu davr sifatida 1997–1999-yillar qabul qilinishi ko'zda tutilgan. Chunki bu davrda qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash darajasi quyidagicha bo'lgan:

- 1997-yil — 9,2 %;
- 1998-yil — 23,9 %;
- 1999-yil — 11,9 %.

Qishloq xo'jaligi bo'yicha Kelishuvlar doirasida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ushbu sohadagi minimal stavkalar 10 % atrofida bo'lishi ko'zda tutilgan.

O'zbekistonning JST a'zolari bilan qishloq xo'jaligi bo'yicha muzakoralar jarayoni oziq-ovqat mahsulotlari eksportidan manfaatdor va qat'iy pozitsiyaga ega, JST ga a'zo bo'layotgan mamlakatlar uchun maksimal erkin savdo rejimini yaratishni ko'zda tutuvchi mamlakatlar bilan kelishishda murakkablashadi. Bu borada nisbatan qat'iy pozitsiyaga ega mamlakatlarga Kern guruhi[1] mamlakatlari kiradi.

19.5. O'zbekiston tashqi savdosini erkinlashtirish yo'llari

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosining tarkibini takomillashtirish va erkinlashtirish borasida izchil islohotlar olib borildi. Ushbu islohotlarni bir necha bosqichlarga bo'lishimiz mumkin. Tahlillar ko'rsatishicha, islohotlarning dastlabki bosqichida tashqi savdoni tartibga solishning insititutsional va huquqiy bazasi yaratilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda tashqi savdoni tartibga solishning xalqaro amaliyotiga mos keladigan dastaklari joriy qilindi, eksportga yo'naltirilgan tashqi savdo siyosati olib borildi, tashqi savdoni bosqichma-bosqich erkinlashtirish natijasida milliy valyutaning joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyalashuviga erishildi. Bu o'z navbatida eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun kuchli rag'batlantirish omili bo'ldi (19.5.1-jadval).

19.5.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosini erkinlashtirish bosqichlari

Birinchi bosqich — 1991–1994-yy.	Import o'rnini qoplash siyosatining yuritilishi. Tashqi savdoni tartibga solishning insititutsional va huquqiy bazasi yaratildi. Tashqi savdo siyosatida notarif usullar yetakchilik qildi.
Ikkinchi bosqich — 1995–1997-yy.	Tashqi savdoni tartibga solishning xalqaro amaliyotiga mos keladigan dastaklari joriy qilindi. Bu davr miqdoriy cheklovlarning qisqarishi hamda keng miqyosda eksport va import bojlarini faol qo'llash davri hisoblanadi.
Uchinchi bosqich — 1977–1999-yy.	Bu davr tashqi savdoni erkinlashtirishni chuqurlashtirish, tarif va notarif usullarni soddalashtirish, mamlakat eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan savdo siyosatining yuritilishi, eksport bojlarining bekor qilinishi, eksportga yo'naltirilgan siyosatning olib borilishi bilan izohlanadi.
To'rtinchi bosqich — 2000–2003-yy.	Tashqi savdo va valyuta bozorini erkinlashtirishga qaratilgan yangi davr hisoblanadi. 2002-yilning 1-iyulidan boshlab import tarifining uch pog'onali stavkalari (0;10;30) joriy etildi.
Beshinchi bosqich — 2003-yildan hozirga qadar	O'zbekiston tashqi savdosini erkinlashtirish bosqichi. Tashqi savdoni bosqichma-bosqich erkinlashtirish natijasida milliy valyutaning joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyalashuviga erishildi. Bu, o'z navbatida, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun kuchli rag'batlantirish bo'ldi.

1 Kern guruhi (Cairns Group) — 1986-yilda JST ga a'zo, eksportida qishloq xo'jalik mahsulotlari ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlar tomonidan tashkil etilgan. Ushbu guruhga quyidagi 19 ta davlat kiradi: Kanada, JAR, Pokiston, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Indoneziya, Malayziya, Tailand, Filippin, Argentina, Boliviya, Braziliya, Gvatemala, Kolumbiya, Kosta-Rika, Paragvay, Peru, Urugvay, Chili.

Respublikamiz eksporti va importining tovar hamda geografik tarkibini takomillashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish qator vazifalarning amalga oshirilishini taqozo etadi.

Xorijiy davlatlarda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yoki ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin bo'lgan mahsulotlarga talabni o'rganish, bunday tovarlar bozorlariga kirib borish va raqobat qilish strategiyasini ishlab chiqish eksport qilinayotgan tovarlar sonini va mamlakatlar geografiyasini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jahon bozorlarida korxonalarimiz mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlashda quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi:

- eksport qiluvchi korxonalarga mahsulot tayyorlash va sotish xarajatlarini kamaytirishda ko'maklashish;
- ularni tashqi bozor konyunkturasidagi o'zgarishlar, istiqbolli bozorlar, raqobatchilar to'g'risida olib borilgan tadqiqotlar natijalari bilan tanishtirish;
- transport-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish;
- yangi transport yo'laklarini ochish orqali transport xarajatlarini kamaytirish va h.k.

Xulosa qilib aytish mumkinki, eksport hajmini oshirish, uning tarkibini takomillashtirish, umuman, tashqi savdo aylanmasini diversifikatsiya qilish iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilishida sifat o'zgarishlariga erishish, uning raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi turmush farovonligini yanada ko'tarish maqsadlariga xizmat qiladi.

Asosiy tushunchalar

GATT — dunyoning yetakchi mamlakatlari tomonidan xalqaro savdodagi cheklovlarni pasaytirish bo'yicha tuzilgan ko'ptomonlama hukumatlararo kelishuv.

GATS — xizmatlar savdosi bo'yicha ko'ptomonlama hukumatlararo kelishuv.

JST — xalqaro tovarlar va xizmatlar savdosi sohasida mamlakatlarning huquq hamda majburiyatlarini belgilab beruvchi ko'p tomonlama savdo kelishuvi, yirik xalqaro savdo tashkiloti.

Kvarro guruhi — GATT doirasida qarorlar qabul qilishda AQSh, YeI, Kanada va Yaponiyadan iborat guruhning o'zaro kelishib olishi.

Kern guruhi — 1986-yilda JST ga a'zo, eksportida qishloq xo'jalik mahsulotlari ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlar tomonidan tashkil etilgan guruh.

Nazorat savollari

1. Tarif va savdo bo'yicha bosh kelishuvni (GATT) tashkil etish zaruriyati nimada?
2. GATT/JST doirasida amalga oshirilgan muzokaralarda asosiy e'tibor qaysi masalalarni hal etishga qaratilgan?
3. JST ga a'zo bo'lish necha bosqichdan iborat?
4. O'zbekiston va JST munosabatlari qaysi bosqichda?
5. O'zbekiston tashqi savdosini erkinlashtirishning ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?
6. O'zbekistonning JST ga a'zo bo'lishidan qanday afzalliklar va zararlar bo'lishi kutiladi?

20-BOB. TASHQI SAVDONI TARTIBGA SOLISHNING TARIF METODLARI

20.1. Tashqi savdoni tartibga solish zarurati va tashqi savdo siyosati

Tashqi savdo siyosati davlat tashqi iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish va tashqi raqobatdan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishga ko'maklashuvchi choratadbirlar yig'indisidir.

Tashqi savdo siyosati quyidagi ikki yo'nalishni o'z ichiga oladi:

- eksport siyosati;
- import siyosati.

Eksport siyosati eksportga yo'naltirilgan rivojlanish modeli doirasida rivojlanadi. Import siyosatining turlaridan biri import o'rnini qoplash siyosati hisoblanib, bu siyosat ko'pchilik mamlakatlar iqtisodiyotining sanoatlashishida katta rol o'ynagan.

Tashqi savdo siyosatining asosida mumkin qadar qulaylik yaratish rejimi yotadi. Tashqi savdo siyosati milliy, ikki tomonlama, hududiy, xalqaro darajalarda amalga oshiriladi. Qayd etib o'tilgan har bir daraja o'z xususiyatlariga ega.

Davlatning tashqi savdoga aralashish miqyosiga va tartibga solish darajasiga qarab tashqi savdo siyosati proteksionistik va erkin savdo xarakteriga ega bo'ladi (20.1.1-rasm).

20.1.1-rasm.
Tashqi savdo siyosatining turlari



Erkin savdo munosabatlari, talab va taklif asosida rivojlanadigan erkin savdo davlatning eng kam aralashuvi siyosatini aks ettiradi.

Proteksionizm — tarif va notarif instrumentlarni qo'llash yo'li bilan ikki bozorni xorijiy raqobatchilardan himoya qilish davlat siyosatidir. Qaysi siyosat afzal, degan savol iqtisodchilarning doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. Milliy sanoat rivojlanishiga imkon beruvchi proteksionizm afzalmi yoki milliy ishlab chiqarish ustuvorliklarini xalqaro ustuvorliklar bilan qiyosiy taqqoslash imkonini beruvchi savdo erkinligimi?

Tarixning turli davrlarida tashqi savdo amaliyoti goh u tomonga, goh bu tomonga qayishib kelgan, to'g'ri, u hech qachan ekstremal shakllardan birontasini qabul qilmagan. XX asrning 50–60-yillarida xalqaro iqtisodiyot uchun proteksionizmdan tashqi savdoni yanada liberallashtirish tomonga qaytish xos bo'lgan bo'lsa,

70-yillarning boshidan teskari tamoyil ko'zga tashlandi — mamlakatlar o'z ichki bozorlarini tarif va notarif to'siqlar yordamida xorijiy raqobatdan himoya qilishni boshladilar.

Zamonaviy proteksionizm nisbatan tor sohalarda — qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, kiyim-kechak va po'lat tarmoqlarida mujassamlashgan.

Proteksionistik tamoyillar rivojlanishining quyidagi shakllarini ajratish mumkin (20.1.2-rasm):

- selektiv proteksionizm — ayrim mamlakatlar yoki tovarlar guruhiga nisbatan qo'llaniladi;
- tarmoq proteksionizmi — muayyan tarmoqlarni, avvalo agrar proteksionizm doirasida qishloq xo'jaligini himoyalaydi;
- jamoaviy proteksionizm — mamlakatlar birlashmalari tomonidan ushbu birlashmaga kirmaydigan mamlakatlarga nisbatan qo'llaniladi;
- yashirin proteksionizm — ichki iqtisodiy siyosat usullari yordamida amalga oshiriladi.

20.1.2-rasm.



Savdo siyosati doirasida iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy, tashkiliy, huquqiy va boshqa masalalar uzviy bog'lanib ketadi. Xalqaro iqtisodiyot, asosan, savdo siyosati choralarini qo'llashning iqtisodiy shart-sharoitlarini va oqibatlarini o'rganib, huquqiy va tashkiliy masalalarni ixtisoslashgan fan tarmoqlari, chunonchi, xalqaro savdo huquqi, xalqaro marketing kabilarning ko'rib chiqishi uchun qoldiradi.

Xalqaro savdoning davlat boshqaruvi instrumentlari o'z xususiyatiga ko'ra tarif — bojxona tarifini qo'llashga asoslangan va notarif — boshqa barcha usullarga bo'linadi. Boshqaruvning notarif usullari miqdoriy va yashirin proteksionizm usullariga bo'linadi. Savdo siyosatining alohida instrumentlari ko'pincha importni cheklash yoki eksportni rag'batlantirish zarurati tug'ilganda qo'llaniladi. Savdo siyosati dastaklarining tasnifi 20.1.1-jadvalda aks etgan.

Davlatning xalqaro savdo sahasidagi asosiy vazifasi — mamlakat eksportyorlariga o'z mahsulotlarini iloji baricha ko'proq miqdorda xorijga eksport qilishda yordam berish, ularning tovarlarini tashqi bozorda yanada raqobatbardosh qilishdir. Mamlakat ichkarisida xorijiy tovarlarga talabni kuchaytirish, importni cheklash ham uning vazifasiga kiradi.

20.1.1-jadval
Tashqi savdo siyosati dastaklarining guruhlanishi

Usullari		Savdo siyosatining dastaklari	Ustun darajada tartibga solish sohasi	
Tarif		Bojxona bojlari		Import
		Tarif kvotasi		Import
Notarif	Miqdoriy	Kvotalash		Import
		Litsenziyalash	Eksport	Import
		«Eksportni ixtiyoriy cheklash»	Eksport	
	Yashirin	Davlat xaridlari		Import
		Mahalliy komponentlarni ushlab turish talabi		Import
		Texnik to'siqlar		Import
		Soliqlar va yig'imlar		Import
	Moliyaviy	Subsidiyalar	Eksport	
		Kreditlash	Eksport	
		Demping	Eksport	

Manba: Киреев А. П. Международная экономика. В 2 ч. Ч. I. Международная микроэкономика: движение товаров и факторов производства. Учебное пособие для вузов. — М.: Междунар. отношения, 2000. С. 200.

Dunyoning turli mamlakatlari o'z savdo siyosatlarini amalga oshirish uchun turli dastaklardan foydalanadilar. Notarif cheklashlarning o'rtacha darajasiga, odatda, u yoki bu cheklashga oid import yoki eksportning qiymat ulushi sifatida qaraladi. Bunda ularning natija berish darajasiga tuzatish kiritiladi. Masalan, zaruriy hujjatlar taqdim etilganda hokimiyat organlari tomonidan beriladigan eksport uchun avtomatik litsenziya, shubhasiz, belgilangan miqdordan ortiq tovarlarni eksport qilishni ta'qiqlovchi eksport kvotasiga nisbatan ancha kam darajada eksportni chegaralaydi. Tovarlarni eksport va import qilishga oid turli cheklashlar, tanlab litsenziyalash yuqori darajada samarali miqdoriy cheklovlar sanaladi. Avtomatik litsenziyalash, moslanuvchan kvotalar kam samara beruvchi cheklovlarga kiradi.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakat xalqaro savdo siyosatining u yoki bu dastaklarini qo'llash haqida qaror qabul qilar ekan, odatda, ularning birgalikda ta'sir ko'rsatishi va joriy vaziyatga ta'sirini, davlat ichkarisida va undan tashqarida kutilayotgan istiqbollarni baholaydi.

20.2. Bojxona tarifining turlari va hisoblash usullari

Tashqi savdoni tartibga solishda hukumat tarif va notarif dastaklarni qo'llaydi va ushbu dastaklarning amaliy qo'llanilishini davlat yoki jamoat tashkilotlari

ta'minlaydi. Tariflar bojxona tariflariga asoslangan dastaklar bo'lsa, notarif dastaklar qolgan hamma dastaklarni o'z ichiga oladi.

Savdo siyosatining asosiy dastagi — bu bojxona tarifidir. Bojxona tarifiga turli xil ta'riflar berilgan, ammo fikrimizcha, ular orasida eng to'g'risi quyidagicha: «bojxona tarifi — bu mahsulot bojxona chegarasidan olib o'tilayotganda to'lanishi kerak bo'lgan bojxona bojlari haqidagi umumiy ma'lumotdir».

Bojxona boji mahsulotni import yoki eksport qilganda bojxona xodimlari tomonidan undiriladigan majburiy to'lovdir. Bojxona boji quyidagi vazifalarni bajaradi:

- fiskal — davlat byudjetiga kelib tushuvchi tushumlardan biri bojxona bojidir;
- proteksionistik (himoya vazifasi) — importni cheklash orqali milliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy raqobatdan himoya qiladi;
- balanslovchi — ayrim sabablarga ko'ra ichki narxi jahon narxidan past bo'lgan mahsulotlarni xorijga oqib chiqib ketilishini cheklaydi.

Bojxona bojlarini turli mezonlar bo'yicha quyidagicha guruhlash mumkin (20.2.1-rasm):

20.2.1-rasm.
Bojxona bojlarining guruhlanishi



1. Undirish usuliga ko'ra:

- advolor — mahsulotni bojxona qiymatidan foiz shaklida hisoblanuvchi va undiriluvchi boj;

- spetsifik — mahsulotning har bir o'lchov birligidan belgilangan miqdorda undiriladigan boj;
- kombinatsiyalashgan — advolor va spetsifik uzviy ravishda birgalikda qo'llaniluvchi boj.

2. Undirish obyektiga ko'ra:
- import — import qilinuvchi mahsulotlardan undiriluvchi boj;
- eksport — eksport tovarlaridan undiriladi;
- tranzit — bojxona hududini kesib o'tuvchi tovarlardan undiriladi.

3. Xarakteriga ko'ra:
- davriy — davriy mahsulotlar (asosan, qishloq xo'jalik mahsulotlari)ning xalqaro savdosini tartibga solishning joriy dastagi bo'lgan bojlar;
- dempingga qarshi — mamlakat hududiga o'zining haqiqiy narxidan past narxda tovar olib kirilishi natijasida milliy ishlab chiqaruvchilarga zarar yetkazilsa, bu mahsulot importidan undiriladigan boj;
- kompensatsion — import qilinadigan mahsulotni ishlab chiqarishda bevosita yoki bilvosita subsidiyalar qo'llanilgan bo'lsa va buning natijasida milliy ishlab chiqaruvchilarga zarar keltirilayotgan bo'lsa, qo'llaniladigan boj.

4. Kelib chiqishiga ko'ra:
- avtonom — davlat boshqa davlatlar bilan kelishib o'tirmasdan joriy qilingan bir tomonlama bojlar;
- konvension — ikki yoki ko'p tomonlama kelishuv asosida joriy qilinuvchi bojlar;
- preferensial — sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlardan import qilinadigan tovarlardan undiriladigan chegirmali bojlar.

5. Stavka turiga ko'ra:
- doimiy — shart-sharoit o'zgarsa ham o'zgarmasdan turadigan boj;
- o'zgaruvchan — hukumat tomonidan belgilab qo'yilgan hollarda o'zgarib turuvchi bojdir.

6. Hisoblash usuliga ko'ra:
- nominal — bojxona tarifida ko'rsatilgan boj stavkalari. Bu stavkalar mamlakat bojxona himoyasi to'g'risida faqat umumiy ma'lumotlarni berishi mumkin;
- real — qism va detallardan undiriluvchi bojxona bojlarini hisobga olgan holda yakuniy tovarlardan undiriluvchi haqiqiy boj. Bu boj tarif eskalatsiyasini aks etiradi.

Har qanday davlat tarif siyosatini qo'llar ekan tariflarni yagona tizimga birlashtiradi. Bojxona organi olib borilayotgan bojxona siyosati doirasida boj to'lamasdan olib chiqilishi (yoki olib kirilishi) mumkin bo'lgan yoki boj undirilishi lozim bo'lgan tovarlarni aniqlashtiradi. Boj stavkalari tovar turiga qarab o'zgarib boradi.

Bojxona tariflari yuridik va jismoniy shaxslar uchun o'rnatiladi, boj undirish prinsiplari turlicha bo'ladi. Jismoniy shaxslar shaxsiy ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan yoki boj olinmaydigan minimum chegarasida tovarlarni boj to'lamasdan olib chiqish huquqiga ega. Odatda, davlat tovarlarni boj to'lamasdan olib chiqib ketishning chegarasini (qiymatli ekvivalentini) belgilab beradi. Bundan tashqari, ba'zi tovarlar bo'yicha olib chiqish va olib kirishning chegaraviy me'yorlari o'rnatiladi. O'zbekistonda shaxsiy ehtiyojlar uchun boj to'lamasdan 2 litrgacha spirtli ichimliklar, 1000 donagacha tamaki mahsulotlari, 30 metrgacha sintetik matolar, 5 kilogrammgacha go'sht, 5 tagacha teri mahsulotlari va hokazolarni boj to'lamasdan olib chiqish va olib kirish mumkin. Olib o'tilayotgan tovarlar hajmi bu me'yorlardan oshganda jismoniy shaxs eksport yoki import bojlarini to'laydi.

Boshqa mamlakatlarda tovarlarni boj to'lamasdan olib o'tish me'yorlari, ayniqsa, spirtli va tamaki mahsulotlari uchun birmuncha kam o'rnatilgan. Masalan, Fransiya,

Germaniya, Yaponiya, AQSh va Ukrainada boj to'lamasdan 200 dona sigareta olib kirish mumkin.

Aktiv bojxona siyosatini olib borishdan maqsad ichki bozorni import tovarlari bilan to'ldirish yoki muayyan tovarlarning ichki bozorlarga kirib kelishining oldini olishdan iborat. Agar davlat xorij tovarlarining ichki bozorlarga kirib kelishini mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar bilan raqobat qilishini xohlamasa, unda bu tovarlarning olib kirilishi butunlay taqiqlanadi yoki ularga nisbatan yuqori tariflar joriy etiladi. Masalan, Yaponiya va Buyuk Britaniyada bojxona tariflari 0 dan 30–40 %gacha o'zgarib turadi. Mamlakatda ishlab chiqarilmaydigan xomashyo va tovarlarga nisbatan 0 stavkali, tayyor mahsulotlar, ayniqsa, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqariladigan turdosh mahsulotlarga nisbatan eng yuqori stavkali tariflar o'rnatiladi. Hatto, eng taraqqiy etgan mamlakatlar ham ichki bozorlarini tariflar yordamida himoya qiladi. Yuqori bojxona tariflari mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yuqori xarajatlarni qoplash vazifasini o'taydi.

20.3. Bojxona tariflarini qo'llashning jahon tajribasi

Tariflar G'arbiy Yevropa mamlakatlarida XVII asrdan boshlab joriy etilgan.

Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar tomonidan importga nisbatan qo'llaniladigan tarif stavkalari past darajada bo'lsa-da, ba'zi turdagi tovarlar bo'yicha bojxona stavkalari yuqoriligicha qolmoqda. Ko'pchilik iste'mol, qishloq xo'jalik va mehnat sig'imkorligi yuqori tovarlarga nisbatan joriy qilingan tarif stavkalari umumiy tarif stavkalaridan 10–20 baravar yuqoridir. Misol uchun, AQSh da kiyim-kechak va poyabzal importiga nisbatan joriy etilgan tarif stavkalari 11 %dan 48 %gacha yetishi mumkin. 2001-yilda kiyim-kechak va poyabzal importi AQSh umumiy importining 6,5 %ni tashkil etgan bo'lsa-da, mazkur tovarlardan undirilgan tariflar tariflardan tushadigan daromadlarning deyarli yarmini tashkil etgan va 20 mlrd. dollarga teng bo'lgan. Xuddi shunday holat boshqa sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida ham kuzatiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqida go'sht mahsuloti importiga nisbatan joriy etilgan tariflar 236 %ni, don mahsulotlariga nisbatan 180 %ni, sport oyoq kiyimlariga nisbatan esa 17 %ni tashkil etadi.

20.3.1-jadval

AQSh da avtomobillar va poyabzal importiga joriy etilgan tariflardan keladigan daromadlar

	Qiymat	Tariflardan keladigan daromadlar
Avtomobillar	110	1,60
Poyabzal	15	1,63

Manba: www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/2002/09/smith.htm. The Truth About Industrial Country Tariffs. //Finance and Development, Volume 39, Number 3 September 2002.

Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar olib borayotgan tarif siyosati asosan qishloq xo'jalik mahsulotlari va mehnat sig'imkorligi yuqori tovarlarni eksport qiluvchi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur tarif siyosati doirasida yig'ilgan import bojlari summasi turli mamlakatlardan kirib kelayotgan importning umumiy qiymatiga nisbatan

yirik summani tashkil etadi va ularning foizdagi ifodasi turli mamlakatlar bo'yicha o'zgarib turadi. Masalan, 2001-yilda AQSh ga Bangladeshdan import qilinadigan tovarlar qiymati 2,4 mlrd. dollarni, ulardan undiriladigan bojlar summasi esa 331 mln. dollarni tashkil etgan. Taqqoslash uchun quyidagi misolni keltirish mumkin. Fransiyadan AQSh ga 2001-yilda 30 mlrd. dollarlik tovar eksport qilingan bo'lib, ulardan undirilgan bojlar summasi esa 330 mln. dollarni tashkil etgan (20.3.2-jadval).

20.3.2-jadval
AQSh da importdan undiriladigan tariflarning qiyosiy jadvali

	Import (mlrd. doll.)	Undirilgan tariflar (mln. doll.)	YalM ning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi ulushi (doll.)
Bangladesh	2,4	331	370
Fransiya	30,0	330	24170

Manba: The Truth About Industrial Country Tariffs. //Finance and Development, September 2002.

Shu tariqa qishloq xo'jalik mahsulotlari va xomashyo eksportidan yengil sanoat mahsulotlari eksportiga o'tayotgan Bangladesh kabi kambag'al mamlakatlar sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar tomonidan joriy etilayotgan va o'rnatilgan yuqori tariflarga duch kelishmoqda. Kiyim-kechak va poyabzalga joriy etiladigan maxsus tariflar sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlardagi iste'molchilar xaridiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Mazkur tariflar kamdaromadli aholi guruhlari uchun soliq yuki hisoblanadi. Masalan, AQSh da oila boshlig'i bir kishidan iborat oilalarda o'rtacha yillik daromad 25095 dollarni tashkil etadi va shundan 1851 dollari kiyim-kechak va poyabzal sotib olishga sarflanadi. Hisob-kitoblar ko'rsatishicha, kiyim-kechak va poyabzalga sarflangan mablag'ning 307 dollari import bojlari sifatida undirib olinadi. Oila boshlig'i ikki kishidan iborat oilalarda o'rtacha yillik daromad 66913 dollarni tashkil etadi va import bojlari sifatida to'laydigan to'lovlar esa 470 dollarga yoki umumiy daromadning 0,7 %ga teng bo'ladi.

20.3.3-jadval
AQSh da oilalar tomonidan import tarifi uchun sarflaydigan xarajatlari

	Xarajatlar (doll.)	Tarif stavkalari, %	Tariflarga xarajatlar (doll.)
Oziq-ovqat (uyda)	1005	1–13	14
Kiyim-kechak	1440	5–30	212
Poyabzal	411	10–30	68
Boshqa tovarlar	67	0–11	8

Manba: The Truth About Industrial Country Tariffs. //Finance and Development, Volume 39, Number 3 September 2002.

Yuqorida qayd etilgan iste'mol tovarlari uchun joriy etilgan tarif stavkalari qimmatbaho buyumlarga nisbatan qo'llaniladigan tarif stavkalariga qaraganda yuqoriroqdir. AQSh da ipakdan qilingan ko'ylakka nisbatan joriy etilgan tarif 1,9 %ni tashkil etgan holda, paxtadan to'qilgan ko'ylakka nisbatan 20 %, sintetik toladan to'qilgan ko'ylakka nisbatan esa 32,5 %ni tashkil etadi (20.3.4-jadval).

20.3.4-jadval
AQSh da turli xil materiallardan tayyorlangan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan tariflar

	Kostyumlar	Ko'ylaklar
Ipak	1,9	1,9
Jun	12,0	14,3
Paxta	11,3	20,0
Sintetika	29,0	32,5

Manba: The Truth About Industrial Country Tariffs. //Finance and Development, Volume 39, Number 3 September 2002.

Shu tariqa bunday tariflar to'qimachilik mahsulotlaridan boshqa mahsulotlarga nisbatan ham qo'llaniladi. Diskriminatsion tariflarning yana bir turi tarif eskalatsiyasi deb ataladi. Mazkur tarif tovarning qayta ishlanganlik darajasiga qarab mutanosib ravishda ortib boraveradi. Tarif eskalatsiyasidan sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan keng miqyosda foydalanishadi. 20.3.5-jadvalda sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar tomonidan qo'llaniladigan tarif eskalatsiyasiga oid misollar keltirilgan.

20.3.5-jadval
Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar tomonidan qo'llaniladigan tarif eskalatsiyasi (tovar bahosiga nisbatan foizda)

Tovar nomi	AQSh	Buyuk Britaniya	Yevropa Ittifoqi	Shvetsiya	Yaponiya
Teri xomashyosi	1,1	5,4	0,0	0,0	0,0
Teri	9,6	14,9	7,3	7,0	19,9
Teri mahsulotlari	15,5	18,7	14,7	12,2	23,6
Poyabzal	16,6	24,0	19,9	14,0	29,5
Jun xomashyosi	11,4	0,0	0,0	0,0	0,0
Ip-kalava	23,0	10,0	5,7	5,8	10,0
Matolar	50,1	17,5	16,0	12,8	20,0
Kiyim-kechak	22,1	20,0	20,5	14,0	22,0
Paxta xomashyosi	6,2	0,0	0,0	0,0	0,0
Ip-kalava	13,1	7,5	10,0	10,0	5,6
Matolar	17,5	19,7	15,0	13,1	10,5
Kiyim-kechak	26,6	25,0	18,5	14,6	21,0
Temir rudasi	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Cho'yan	1,8	3,3	4,0	0,0	10,0
Po'lat	10,6	11,1	6,9	3,8	13,0
Prokat	7,1	9,5	7,2	5,2	15,4

Manba: The Truth About Industrial Country Tariffs. //Finance and Development, Volume 39, Number 3 September 2002.

20.3.5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar quyidagi misollar bilan to'ldirilishi mumkin. Masalan, Yaponiyada kakao xomashyosiga 0 stavkali, kakao kukuniga 30 %, tayyor mahsulot shokaladga esa 35 %li tariflar joriy etiladi. Angliya jut xomashyosiga nisbatan tariflar joriy etmaydi, ammo jut kalavasiga 15 %li va jutdan

yasalgan mahsulotlarga esa tovar qiymatiga nisbatan 20 %li tarif joriy etiladi. Tabiiyki, import tariflari tovarning qayta ishlanganlik darajasiga qarab mutanosib ravishda ortib borar ekan, soliqqa tortish og'irligi tovarning barcha komponentlariga emas, birinchi navbatda, qayta ishlash natijasida yaratilgan qo'shilgan qiymatga to'g'ri keladi. Shuning uchun sanoatlashgan eksportga nisbatan joriy etilgan protektsionistik to'siqlar nominal tarif stavkalaridan birmuncha yuqori bo'ladi.

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, taraqqiy etgan mamlakatlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar qishloq xo'jalik va sanoat mahsulotlari eksportiga nisbatan qo'llanilayotgan tariflar kamlik qilsa, ularga notarif xarakterdagi to'siqlar ham joriy etiladi.

G'arb mamlakatlarida rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan amalga oshirilayotgan eksport tovarlarga nisbatan notarif to'siqlarni qo'llashning yetti yuzdan ortiq hollari kuzatilgan. Ularga miqdoriy cheklashlar, litsenziyalash va boshqa turdagi to'siqlarni kiritish mumkin. Notarif to'siqlarni qo'llash bo'yicha yetakchi mamlakatlar qatoriga Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya va Shveysariyani kiritish mumkin.

Tashqi savdoni tartibga solish bilan bog'liq muammolarni hal etishda qaysi usullardan ko'proq samarali foydalanish mumkin degan savolni asoslab berish lozim. Tahlillar ko'rsatishicha, jahon amaliyotida erkin savdo g'oyasiga xalqaro tashkilotlarning ustavlarida va xalqaro iqtisodiy munosabatlarga bag'ishlangan darsliklardagina amal qilishadi.

Hozirgi vaqtda tariflarni qo'llash borasida muammolarning vujudga kelishining sababi tarif to'siqlaridan foydalanishda qat'iy nazorat o'rnatilishi hisoblanadi. Mana shunday xalqaro tashkilotlardan biri JST dir. JST ga qadar faoliyat yuritilgan Tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (GATT) doirasida asosiy masala o'zaro savdo munosabatlarida tarif to'siqlarini kamaytirishga qaratilgan edi.

GATT faoliyatidagi asosiy vazifa bojxona bojlarini qisqartirish yoki bekor qilish hisoblangan. 1945–1947-yillarda sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda bojxona bojlarining o'rtacha ko'rsatkichi 40–60 %ni, ba'zi mahsulotlar bo'yicha esa 70–90 %ni (kimyo mahsulotlari) tashkil etgan. 80-yillarga kelib bojxona tariflari 3–5 %gacha pasaydi.

GATT qoidalari to'la kuchga kirgan vaqtdan boshlab sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda import bojlari 3/4 barobarga qisqartirildi. Jumladan, «Tokio raundi» muzokaralaridan so'ng, bu ko'rsatkich 4,7 %ni tashkil etdi. Bojxona bojlarini kamaytirish masalasi hozirga qadar muhim muammo bo'lib qolmoqda. GATT ning «Urugvay raundi»ning hal qiluvchi paketida qatnashuvchi mamlakatlarda bojxona bojlarini uchdan bir qismgacha pasaytirishga erishildi. Qog'oz va qog'oz mahsulotlari, pivo, ba'zi spirtli ichimliklar, qurilish jihozlari, ofis mebellari, o'yinchoqlar, farmatsevtika mahsulotlari bojxona bojlaridan ozod qilindi. Shu tariqa importning 40 %dan ortig'i bojxona bojlaridan ozod qilindi. Bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirildi va 1998-yil 1-yanvardan boshlab GATT ga a'zo bo'lgan mamlakatlarda bojxona to'lovlari stavkasi o'rtacha 3 %ni tashkil etdi.

GATT/JST asosida a'zo mamlakatlarning importga tariflarini cheklash majburiyati yotadi. Asosiy talab shuki, a'zo mamlakatlar bu tashkilotga kirish chog'ida tariflarni o'zlariga majburiyat qilib olgan yoki ko'ptomonlama muzokara raundlarida o'zaro kelishilgan darajadan oshirmaslik majburiyatini olishlari lozim. Ushbu tarif darajalari «tarif majburiyatlari» deb ataladi. «Urugvay raundi»ning asosiy yutug'i shundaki, unda ko'pchilik a'zo mamlakatlar tomonidan o'zlaridagi amalda mavjud barcha tariflarni qisqartirish majburiyatlarini olishdi.

20.3.6-jadval
Mamlakat byudjetiga tariflardan kelib tushadigan tushumlar

T/r	Mamlakat	Byudjet hajmiga nisbatan foizda
1.	Gana	40,9
2.	Fil suyagi qirg'og'i	40,73
3.	Pokiston	30,94
4.	Malayziya	28,23
5.	Hindiston	24,07
6.	Venesuela	18,0
7.	Koreya	14,01
8.	Argentina	13,31
9.	Rossiya	12,0
10.	Kolumbiya	11,58
11.	Kanada	5,26
12.	Avstraliya	5,19
13.	Braziliya	4,22
14.	Meksika	2,73
15.	AQSh	1,56
16.	Italiya	0,21
17.	Fransiya	0,03
18.	Germaniya	0,02
19.	Buyuk Britaniya	0,01

Manba: Михайлушкин А. И., Шимко П. Д.. Международная экономика. Учебник. — М.: «Высшая школа», 2002. С. 114.

Iqtisodiyotda hukumat tomonidan qo'llanilgan proteksionistik qadamlar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarga qisqa hamda uzoq muddatli istiqbolda davlatning o'ziga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Bunday siyosatning ichki bozor uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi milliy kompaniyalarga ta'sirini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

20.3.1-rasm yordamida import bojining kichik iqtisodiyot (milliy narx jahon narxiga ta'sir ko'rsata olmaydigan iqtisodiyot)ga ta'sirini baholashimiz mumkin. Savdo boshlanmasdan avval, mamlakatda 100 ta tovar ishlab chiqarilyapti va iste'mol qilinyapti, muvozanat narxi 8 dollarga teng (talab va taklif chiziqlari E nuqtada kesishgan). Agar tovarning jahon narxi ichki narxdan past bo'lsa, mamlakatga jahon narxida (5 dollar) 120 ta tovar kirib keladi, ichki narx jahon narxi darajasigacha tushib ketadi. Buning natijasida milliy ishlab chiqaruvchilar faqat 40 ta tovar taklif qiladi, iste'mol esa 160 taga yetadi. Milliy ishlab chiqaruvchilarni himoyalash maqsadida hukumat 2 dollar miqdorida bojxona boji joriy qilsa, eksportyorlar o'z tovarini 7 dollardan sotishga majbur bo'ladi va ichki bozordagi narx ko'tariladi. Buning natijasida ichki ishlab chiqarish 80 ta tovarni tashkil qiladi, import esa 40 tagacha qisqaradi. Iste'molchilar jami 120 ta tovar sotib oladi. Bojxona boji o'rnatilishi natijasida milliy ishlab chiqaruvchilar a trapetsiyaning yuzasiga teng bo'lgan qo'shimcha foyda ko'radi. S to'g'ri to'rtburchakning yuzasiga teng bo'lgan summa bojxona boji sifatida davlat byudjetiga tushadi.

20.3.1-rasm.
Import bojining milliy iqtisodiyotga ta'siri



Boshqacha qilib aytganda, milliy kompaniyalarning ichki bozor uchun ishlab chiqargan mahsulotlari bojxona solig'idan ozod bo'lganligi sababli uning narxi import qilinayotgan ana shunday tovardan sezilarli darajada past bo'lishi mumkin, bunday sharoitda xo'jalik yurituvchi subyektlar yangi texnologiyalar, xomashyo va materiallarni tejash hisobiga xarajatlarini kamaytirish zaruriyatiga ehtiyoj sezishmaydi. Amalda import o'rnini qoplashga yo'naltirilgan sohalardagi milliy firmalar o'z tovarlarini import tarifiga yaqin narxlarda sotadi, natijada qo'shimcha foyda ko'radi. Milliy kompaniyalar daromadlarining o'sishi va milliy ishlab chiqarishning kengayishi sabablaridan biri ana shundan iborat.

Tarifning katta mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri. Katta mamlakat uchun import tarifi faqat ichki ishlab chiqarishni himoyalash vositasi bo'lib qolmasdan, tashqi bozor bilan savdo shartini yaxshilab olish vositasi hamdir. Darhaqiqat, katta mamlakat importni qisqartirsa, bu tovarning asosiy xaridori bo'lganligi sababli eksportyor mamlakat ushbu tovar narxini pasaytirishga majbur bo'ladi. Eksport tovarlari narxi o'zgarmagan holda import tovarlar narxining pasayishi importyor mamlakat uchun savdo shartining yaxshilanishiga olib keladi va katta iqtisodiyotli mamlakat import bojini joriy qilishdan sof foyda ko'rmasligi mumkin.

20.3.2-rasm.
Tarifning katta mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri



Katta mamlakat hukumati ichki ishlab chiqaruvchilarni xorijiy raqobatdan himoya qilish maqsadida importga boj joriy qildi. Boj o'rnatilishi natijasida tovarning jahon narxi tushadi. Lekin bu tovarning ichki narxi boj miqdoriga (t) P_w dan P_{w+t} ga mos ravishda ko'tariladi. Jami taklif chizig'i yuqoriga — yangi S_{d+w+t} darajaga suriladi. Taklifning yangi darajasida ichki talab va jami taklif G nuqtada muvozanatga keladi. Natijada ichki ishlab chiqarish Q_1Q_2 gacha ortib, ichki talab Q_5Q_4 gacha kamayadi, import esa Q_1Q_5 dan Q_2Q_4 gacha qisqaradi.

Import tarifi joriy qilinishi natijasida iste'molchilarning zarari $a+b+c+d$ ga teng bo'ldi. Kichik mamlakatda bo'lgani kabi import bojining ta'sirini ikkiga ajratish mumkin: qayta taqsimlanish samarasi va yo'qotish samarasi.

Katta mamlakat misolida daromad samarasi ichki daromad va savdo sharti samarasiga ajraladi. Ichki daromad samarasi daromadning ichki iste'molchilardan, savdo sharti samarasi esa daromadning xorijiy ishlab chiqaruvchilardan davlat byudjeti foydasiga qayta taqsimlanishini bildiradi.

Tarif kvotasi. Import boji ichki qarama-qarshilikka ega. Ya'ni ishlab chiqaruvchilar, bir tarafdan, xalqaro raqobatdan qutulish maqsadida import bojidan manfaatdor bo'lsa, ikkinchi tomondan, ish vaqtidan tashqari vaqtda iste'molchi sifatida import tarifiga qarshidirlar. Bu ziddiyat qisman tarif kvotasini joriy qilish orqali hal etiladi.

Tarif kvotasi — o'zgaruvchan bojxona boji ko'rinishi bo'lib, boj stavkasi miqdori import qilinadigan tovar hajmiga bog'liq bo'ladi: ma'lum chegaradagi importga pastroq miqdordagi boj, bu chegaradan oshib ketganda yuqoriroq boj o'rnatiladi.

20.3.3-rasm.
Tarif kvotasi



Faraz qilaylik, ichki talab (D_d), ichki taklif (S_d) va jahon taklifi (S_w) chiziqlar bilan ifodalangan. Savdo boshlanmasdan oldin tovar narxi 540 dollarga teng. Erkin savdo sharoitida tovar narxi 400 dollarga tushadi. Bu narxda mamlakat 5 birlik tovar ishlab chiqaradi va 40 birlik tovar iste'mol qiladi. Binobarin, 35 birlik tovar import qiladi. Ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida dastlabki 5 birlik tovar importga 10 foizli, undan ortig'iga 20 foizli import boji joriy qilinadi. Ilgari mamlakat sezilarli darajada ko'proq tovar import qilganligi bois, tovarning ichki narxini 480 dollargacha ko'taruvchi ikki qavatli tarif yuzaga keladi. Natijada ichki ishlab chiqarish 15 birlikka yetadi, iste'mol 30 taga, import 15 taga kamayadi. Chegaraviy samara a ga teng bo'ladi, to'g'ridan to'g'ri iqtisodiy zarar tarifdagi bo'lgani kabi b+d ga teng bo'ladi.

Daromad segmenti s bir necha segmentchalarga bo'linadi. Dastlabki 5 birlik tovarga 10 foizli, ya'ni 40 dollarga teng boj joriy qilingan, 200 doll. ($s_1 = 5 \times \$40 = \$200$) miqdoridagi foyda byudjetga tushadi. Keyingi 10 birlik tovarga 80 dollarlik boj o'rnatilgan, demak, 800 dollar ($s_2+s_3 = 10 \times \$80 = \$800$) ham byudjetga tushadi. s_4($s_4 = 5 \times \$80 - 5 \times \$40 = \$200$) segment esa mahalliy kompaniyalarning ko'zda tutilmagan foydasidir. Ya'ni bu kompaniyalar tovarni 440 dollardan sotib olib 480 dollardan sotish imkoniyatiga ega bo'ladi. Agar eksportyorlar tovar narxini 480 dollarga oshirishsa, xorijliklar ko'zda tutilmagan daromadga ega bo'ladi.

Eksport tarifi. Eksport bojlari eksport tovarlari mamlakat chegarasidan chiqib ketayotganda olinadigan majburiy to'lovdir.

20.3.4-rasm.
Eksport tarifi



Faraz qilaylik, hukumat eksportni boj orqali cheklamoqchi. Kichik mamlakat misolida tahlil qiladigan bo'lsak, eksport bojining joriy qilinishi jahon narxiga ta'sir ko'rsatmaydi. Binobarin, savdo sharti o'zgarmaydi. Tovar eksportining foydaliligi pasayadi va ishlab chiqaruvchilar tovarlarning bir qismini ichki bozorga qaytarishadi, natijada bu tovarning ichki narxi boj miqdorida P_w dan P_{w+t} ga tushadi. Jami talab chizig'i eksport tarifi miqdorida pastga ko'chadi S_{d+w+t}. Talabning yangi darajasida ichki taklif va jami talab muvozanatiga G da erishiladi, bu vaziyatda eksport tarifi yordamida ichki iste'mol Q_1Q_2 ga ortadi, ichki taklif Q_5Q_4 ga kamayadi.

Eksport miqdori esa Q_5Q_1 dan Q_4Q_2 ga qisqaradi. Demak, eksport tarifi joriy qilinishi natijasida ichki iste'mol ortdi, ichki taklif va eksport miqdori qisqardi.

Eksport tarifi o'rnatilishi natijasida iste'molchilar a segment miqdorida foyda ko'rishdi. Davlat eksport boji yordamida s ga teng miqdordagi foydani ishlab chiqaruvchilardan o'z foydasiga qayta taqsimlaydi. *b+d* segmentlari ishlab chiqaruvchilarning sof yo'qotishlaridir. Umuman olganda, eksport tarifi o'rnatilganda ham import boji joriy qilinganida qayta taqsimlash va yo'qotish samaralari yuzaga keladi.

20.4. Tarifli boshqaruvning afzalligi va kamchiliklari

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi cheklashlar siyosatini keng ko'lamda va faol amalga oshirish davlatga qisqa muddatda muvaffaqiyat olib kelishi mumkin. Ushbu yutuqlarga milliy korxonalarda ishlab chiqarish hajmini oshirish, boj, soliq, yig'imlar hisobiga byudjet daromadini ko'paytirish, iqtisodiy xavfsizlik va mudofaa qobiliyatini ta'minlash orqali erishish mumkin.

Amalda esa bu taktik ustunliklar strategik, uzoq muddatli istiqboldan kelib chiqqan holda, qarama-qarshi tomonga o'zgaradi. Davlatning tarif miqdoriga ko'paytirilgan import miqdoriga teng iqtisodiy yutug'i iste'molchilar tomonidan davlat foydasiga to'laydigan transfert to'lovi hisoblanadi. Albatta, mablag'larning bir qismi ijtimoiy ehtiyojlar (oyliklarni oshirish, nafaqalar to'lash)ga sarflanishi mumkin,

biroq transfertlarning aksariyat qismi byurokratik o'zboshimchalik va mablag'larni davlat tashkilotlari orqali o'tishi bilan bog'liq xarajatlar tufayli qaytarib berilmaydi.

Shuningdek, boshqa mamlakatlarning proteksionistik javob tadbirlarini ham e'tiborga olish lozim. Bu tadbirlar tufayli tovar aylanmasi hajmi kamayadi, ish joylari qisqaradi, natijada qator kompaniyalarning mahsulotlari milliy bozordan arzonroq va sifatsizroq tovar ishlab chiqaruvchi foydasiga siqib chiqariladi.

Iste'molchilarning aksariyat qismi «belbog'larini mahkam boylab olishlari» kerak bo'ladi, chunki oddiy odamlarning daromadlari ishlab chiqaruvchilar foydasiga qayta taqsimlanadi, zero, bojxona tarifi joriy etilishidan avvalgi va keyingi ichki narxlardagi farq iste'molchilar zimmasiga tushadi. Faqat importning o'rnini qoplash sohasidagi kompaniyalarning aksiyalariga ega bo'lgan uncha katta bo'lmagan ayrim guruhlarga kiruvchi iste'molchilar olib kirish bojlaridan daromad olishi mumkin. Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida proteksionistik siyosatni amalga oshirish narxning yuqoriligi sababli ichki iste'molning kamayishiga, soliq bazasining qisqarishiga va umuman, jamiyat uchun sof yo'qotishlarga olib keladi.

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, proteksionistik siyosat bosqichma-bosqich totalitar rejimlar tomonidan ma'muriy-buyruqbozlik tizimida cheklangan makon va zamonda amalga oshirilgan.

Proteksionizmning salbiy xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Aholi turmush darajasi xarajatlar ulushining ortib ketishi tufayli pasayishi. Import bojlari kiritilganidan keyin xaridorlar ichki bozorga olib kirilgan tovarlar uchun yanada yuqoriroq haq to'lashga majbur bo'lishadi. Bu investitsiyalarga aylanishi mumkin bo'lgan aholi jamg'armalarining kamayishiga olib keladi.
- Aksariyat mamlakatlar tomonidan tarif cheklashlarining joriy etilishining zanjir reaksiyasi bilan bog'liq xalqaro ko'paytiruvchi samarasi vujudga kelishi.
- Milliy iqtisodiyotda samarasiz sohalar va korxonalarning saqlanib qolishi. Turli imtiyozlar berilishi natijasida ishlab chiqaruvchilarda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga rag'bat bo'lmaydi.
- Iqtisodiy sohada korrupsiya va egallagan mansab, lavozimidan foydalanishning ko'rinishlari keng tarqaladi. Milliy iqtisodiyotning «yopiqligi», odatda, TIF ning kriminallashuvi uchun ozuqa muhitini yaratadi.

Hukumatning TIF ni tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini joriy etishga majbur etuvchi omillar tarkibida quyidagilarni ajratish mumkin:

- iqtisodiyotning yangidan shakllanayotgan sohalarini qudratli xorijiy kompaniyalar raqobatidan himoyalash;
- davlat ko'magisiz tuzilmani qayta qurishning iloji bo'lmagan jahon bozorida raqobatbardosh bo'lmagan «eski» sohalarni qo'llab-quvvatlash;
- kamsituvchi savdo siyosati amalga oshirayotgan mamlakatlar yoki kompaniyalarga javob tariqasida demping va xorijiy raqobatning boshqa notarif usullari bilan kurashish;
- jahon bozor konyunkturasidagi tebranishlarning milliy iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirish. Bu omil xomashyo va tabiiy resurslar eksport qiluvchi mamlakatlar uchun dolzarb hisoblanadi;
- byudjetning daromad qismini shakllantirish, ko'paytirish — o'tish davri iqtisodiyoti va rivojlangan mamlakatlarda aksariyat hollarda proteksionistik siyosatning tarkibiy unsurlari bo'lgan bojxona bojlari va boshqa egri soliqlar hisobiga amalga oshiriladi.

Tarif usullarini qo'llash tarafdorlarining fikricha, tariflarning iqtisodiyotga ijobiy ta'siri quyidagicha bo'ladi:

- tariflar yosh tarmoqlarni himoya qilishga xizmat qiladi;
- davlat byudjetining daromad manbayi sifatida foydalaniladi;
- mamlakat ichkarisida daromadni qayta taqsimlash faollashadi;
- arzon xorijiy ishchi kuchini jalb etish imkoniyati yaxshilanadi;
- mamlakatning xomashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashuvining oldi olinadi.

Tarif usullarini qo'llashga qarshi bo'lganlarning fikricha, tariflarning iqtisodiyotga salbiy ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- tariflar tashqi savdoni cheklash, dunyo ishlab chiqarishi hajmining qisqarishi sabab bo'ladi;
- mamlakatlar o'rtasida tovarlarning optimal taqsimotiga to'sqinlik qiladi;
- iste'molchiga soliq yukining ortishiga olib keladi;
- importga belgilangan tariflar eksport hajmining qisqarishiga ta'sir qiladi;
- tariflarning belgilanishi mamlakatdagi ishsizlik darajasining oshishiga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, proteksionizm tashqi savdo operatsiyalariga turli-tuman cheklashlarni joriy etuvchi davlatga vaqtinchalik, taktik yutuq keltirsa-da, strategik, uzoq muddatli strategiyada istiqbolsiz siyosat hisoblanadi. Bu siyosat XX asr tajribasidan ma'lumki, aholi turmush darajasi va farovonligining pasayishiga olib keladi. Shunday bo'lsa-da, iqtisodiy erkinlashtirish kursini saqlagan holda proteksionizmning ayrim unsurlaridan oqilona foydalanish ma'lum vaqt mobaynida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Asosiy tushunchalar

Tashqi savdo siyosati — milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish va tashqi raqobatdan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishga, qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisi.

Erkin savdo siyosati — tashqi savdodagi to'siqlarni minimallashtirish siyosati.

Proteksionizm — tarif va notarif instrumentlarni qo'llash yo'li bilan ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoya qilishning davlat siyosati.

Tarif eskalatsiyasi — tovarlardan undiriladigan import bojining mahsulot qayta ishlanganlik darajasining chuqurlashuviga mos ravishda ortib borishidir.

Bojxona boji — bojxona organlari tomonidan tovarlar import va eksport qilinayotganda undiriladigan hamda eksport-importning sharti hisoblangan majburiy to'lov.

Optimal tarif stavkasi — iqtisodiy farovonlik va milliy mahsulotlarning raqobatdoshligini maksimal ta'minlab beradigan tarif darajasi.

Nazorat savollari

1. Tashqi savdoni tartibga solishning zaruriyati nimadan iborat?
2. Tashqi savdo siyosati nima va uning qanday shakllari mavjud?
3. Tashqi savdo siyosatining yo'nalishlari va dastaklari nimalardan iborat?
4. Bojxona boji nima va u qanday mezonlar bo'yicha guruhlanadi?
5. Bojxona boji qanday vazifalarni bajaradi?
6. Rivojlangan mamlakatlar tomonidan qo'llaniladigan yuqori tarif stavkalari rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
7. Tariflarning katta mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri qanday samaralarni yuzaga keltiradi?
8. Tarifli tartibga solishning afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?

21-BOB. TASHQI SAVDONI TARTIBGA SOLISHNING NOTARIF METODLARI

21.1. Notarif metodlarning guruhlanishi

Davlat tashqi savdoni tartibga solishda tarif metodlari bilan bir qatorda notarif metodlardan ham keng foydalanadi. Ularning ko'pchiligi bojxona tariflaridan farqli ravishda miqdoriy jihatdan o'lchanmaydi va shuning uchun statistikada yaqqol aks ettirilmaydi. Notarif metodlarning ushbu xususiyati hukumatlarga tashqi savdo siyosati sohasida o'z maqsadlariga erishishda ulardan aralash foydalanishga imkon yaratadi.

Notarif usullar — tovar ayirboshlashga ta'sir qilish dastaklarini, ya'ni mamlakatga olib kiriladigan yoki chetga chiqariladigan mahsulot hajmi va nomenklaturasini cheklashni bildiradi. Notarif usullar miqdoriy, moliyaviy, yashirin va noiqtisodiy usullarga ajratiladi. Ular ustun darajada rivojlanayotgan va hukumat tomonidan proteksionistik iqtisodiy siyosatni talab qiluvchi, bozor tuzilmalari shakllanayotgan o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlariga xosdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tashqi savdo davlat tomonidan tartibga solish tarif va notarif usullar kombinatsiyasi yordamida amalga oshiriladi. XXI asr boshlarida tarif usullarining mavqeyi pasayib bormoqda. Ushbu holat Jahon savdo tashkiloti tomonidan a'zo mamlakatlar oldiga qo'yilgan strategik vazifa — ular o'rtasidagi o'zaro tovar savdosida tarif cheklashlarini bosqichma-bosqich bartaraf etish vazifasi bilan bog'liq.

21.1.1-jadval

Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar tomonidan qo'llaniladigan notarif to'siqlar (tovar bahosiga nisbatan foizda)

Mamlakatlar	Kvotalar	Litsenziyalar	Boshqa turdagi notarif to'siqlar	Jami
Avstriya	12	9	5	26
Belgiya va Lyuksemburg	–	51	–	51
Kanada	3	–	2	5
Daniya	10	31	–	27
Germaniya	37	5	2	45
Finlyandiya	20	26	–	46
Fransiya	–	–	96	96
Irlandiya	13	15	–	28
Italiya	8	46	5	74
Yaponiya	120	–	3	123
AQSh	6	–	–	6
Norvegiya	3	62	19	81
Shveysariya	10	12	16	38
Shvetsiya	2	3	6	11

Manba: www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/2002/09/smith.htm.

Jahon amaliyotida notarif usullarga kvotalash, litsenziyalash, eksportni subsidiyalash, demping, kartel bitimlar va mamlakatlar o'rtasida tovar oqimlari yo'lida texnik to'siqlarni yaratish kabi usullar kiritiladi.

Davlatning tashqi savdo sohasidagi asosiy vazifasi — eksportyorlarga o'z mahsulotlarini iloji boricha ko'proq miqdorda chetga eksport qilishlarida yordam berib, ularning tovarlarini tashqi bozorda yanada raqobatbardosh qilishda qo'llab-quvvatlashdan iborat. Mamlakat ichki bozorida xorijiy tovarlarga talabni kamaytirib, importni cheklash ham uning vazifasiga kiradi. Notarif cheklashlarning o'rtacha darajasiga, odatda, u yoki bu cheklashga oid import yoki eksportning qiymat ulushi sifatida qaraladi. Bunda ularning natija berish darajasiga tuzatish kiritiladi. Masalan, zaruriy hujjatlar taqdim etilganda mutasaddi hokimiyat organlari tomonidan beriladigan eksport uchun avtomatik litsenziya, shubhasiz, belgilangan miqdordan ortiq tovarlarni eksport qilishni taqiqlovchi eksport kvotasiga qaraganda ancha kam darajada eksportni chegaralaydi. Tovarlarni eksport va import qilishga oid turli cheklashlar, selektiv litsenziyalash yuqori darajadagi samarali miqdoriy cheklovlar sanaladi. Avtomatik litsenziyalash, moslanuvchan kvotalar nisbatan kam samarali cheklovlarga kiradi.

Bir so'z bilan aytganda, tashqi savdo siyosatining u yoki bu dastaklarini qo'llash haqidagi qaror qabul qilar ekan, mamlakat hukumati, odatda, ularning birgalikda ta'sir ko'rsatishi va joriy vaziyatga ta'sirini, davlat ichkarisida va undan tashqarida kutilayotgan istiqbollarni baholaydi.

Notarif usullarning saqlanib qolishi quyidagi sabablarga bog'liq:

- aksariyat notarif cheklovlar xalqaro shartnomalar orqali tartibga solinmaydi va ularni qo'llash milliy hukumatlar tashabbusi bilan amalga oshiriladi;
- notarif cheklovlar tovarlar narxining darhol oshib ketishiga olib kelmaydi va iste'molchiga soliq yuki bo'lib tushmaydi.

21.2. Miqdoriy cheklovlar

Tashqi savdoni miqdoriy jihatdan cheklash — bu davlat tomonidan savdo aylanmasining notarif metodlarini qo'llagan holda tartibga solishning ma'muriy metodidir. Davlat mazkur usul yordamida eksport yoki importga ruxsat berilgan tovarlarning miqdori va nomenklaturasini belgilaydi. Miqdoriy cheklovlar bir mamlakat hukumatining qarori yoki ma'lum tovarlar savdosini muvofiqlashtiruvchi xalqaro savdo kelishuvlari asosida qo'llanilishi mumkin.

Tashqi savdoni miqdoriy jihatdan cheklash usullari quyidagilardan iborat:

- kvotalash/kontingentlashtirish;
- litsenziyalash;
- «eksportni ixtiyoriy cheklash».

Kvotalash yoki kontingentlash. Umuman, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishda qo'llaniladigan notarif usullarning 50 dan ortiq turi mavjud. Ularning tarkibida eng keng tarqalgani kvotalardir. Agar tarif usullar aniq bir tovar guruhi bo'yicha eksport yoki import hajmi masalasini ochiq qoldirsa, kvotalar olib kiriladigan yoki olib chiqiladigan mahsulotning qiymat yoki miqdoriy hajmini to'g'ridan to'g'ri cheklash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Kvotalash — bu tovarlar eksporti yoki importini muayyan vaqt ichida ma'lum miqdor yoki summa bilan miqdoriy jihatdan cheklashdir. Kvotalash mavsumiy ko'rinishda yoki xarakterda bo'lsa kontingentlash shakliga kiradi.

Ular o'z yo'nalishiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi.

Eksport kvotasi — xalqaro barqarorlashuv shartnomasiga muvofiq muayyan tovarlarning umumiy eksportdagi ulushini belgilash. OPEK yoki biron-bir milliy hukumat tomonidan mamlakat ichki bozorida defitsit tovarlarning chetga chiqib ketishining oldini olishda qo'llaniladi (masalan, Rossiya neft eksportida).

Import kvotasi — milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni himoyalash, savdo balansini muvozanatlashga erishish, ichki bozorda talab va taklifni tartibga solish hamda boshqa mamlakatlar tomonidan diskrinimatsiya (kamsitish) savdo siyosati qo'llanilganda javob tariqasida qo'llaniladi. Masalan, AQSh Yangi Zelandiyadan import qilinadigan sut va qaymoq hajmini 5,7 mln. litr, Niderlandiyadan import qilinadigan muzqaymoq hajmini 104 ming kg., Shveysariyadan keladigan pishloq hajmini 3.4 mln. kg. qilib belgilagan[1].

Global kvotalar. Bu tovarlarning qaysi mamlakatga eksport yoki import qilinishidan qat'i nazar, eksport va importga nisbatan dunyo miqyosida belgilanadi.

Individual kvotalar. Global kvota doirasida tovarni eksport yoki import qiladigan har bir mamlakatga nisbatan belgilanadi.

Import kvotalarini joriy qilishda davlat milliy ishlab chiqaruvchilarga xorijiy raqobat ta'sirini kamaytirishga intiladi. Bunday kvotalarning harakat mexanizmi import tariflaridan foydalangandagi holatni eslatadi, ya'ni import tovarlar taklifi cheklanganda ichki narxlar jahon narxiga nisbatan o'sib boradi. Biroq, tarifdan farqli ravishda, import kvotalari xorijiy raqobatning ichki narxlarga ta'sir qilishiga yo'l qo'ymaydi. Bu usul importdan keladigan foydani ko'paytiradi va mamlakat to'lov balansini muvozanatga keltirish jarayonini osonlashtiradi. Xalqaro bitimlar orqali qat'iy belgilanadigan tarif stavkalari o'rnatilgan vaziyatda mamlakat yuqoridagi masalani hal eta olmaydi. JST eksport-import operatsiyalariga nisbatan miqdoriy cheklashlar joriy qilishga ruxsat beradi.

O'z navbatida, eksport kvotasi milliy ishlab chiqaruvchilarni yetarli tabiiy resurslar bilan ta'minlash, jahon bozoridagi eksport baholarini oshirish va harbiy-strategik maqsadlarga erishish kabi maqsadlarga qaratilgan bo'ladi.

Eksport kvotalari import kvotalari singari mamlakat hukumati tomonidan bir tomonlama tartibda yoki manfaatdor tomon bilan xalqaro kelishuv asosida joriy etilishi mumkin. Ular global yoki ma'lum davrda amal qiluvchi mavsumiy ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Litsenziyalash. Kvotalash jarayoni (boshqacha qilib aytganda, kontingentlash), odatda, litsenziyalash, ya'ni maxsus ro'yxatga kiritilgan resurslar va mahsulotlar bilan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan davlat tashkilotlari (vazirliklar va mahkamalar) ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Aksariyat mamlakatlarda tashqi iqtisodiy faoliyatni litsenziyalash jarayoni xalqaro huquqiy aktlarga asoslanadi va ularning eng muhimi 1947-yilda imzolangan Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuv (GATT) hisoblanadi. Keyinchalik GATT doirasida ba'zi bir boshqa shartnomalar imzolangan.

Litsenziyalash — mutasaddi davlat organlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatga ruxsat berish orqali eksport yoki import qilinayotgan tovarlarni muayyan vaqt ichida ma'lum bir miqdorda eksport yoki import qilishga ruxsat berish. Litsenziyalash kvotalash jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish shakli hisoblanadi.

Jahon amaliyotida litsenziyalar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi.

Bir marotabalik litsenziya. Davlat tomonidan biron-bir firmaga bitta tashqi savdo shartnomasini amalga oshirish uchun bir yilgacha muddatda tovarni olib kirish yoki olib chiqish to'g'risidagi yozma ruxsatnoma.

Bosh litsenziya — bir yil mobaynida cheklanmagan hajmda tovarni import yoki eksport qilish uchun beriladigan ruxsatnoma.

---

1 Киреев А. П. Международная экономика. В 2 ч. Ч. I. Международная микроэкономика: движение товаров и факторов производства. Учебное пособие для вузов. — М.: Междунар. отношения, 2000. С. 234.

Global litsenziya ma'lum vaqt ichida dunyoning xohlagan mamlakatiga cheklanmagan miqdorda yoki qiymatda tovarni olib kirish yoki olib chiqib ketish to'g'risidagi yozma ruxsatnoma.

Avtomatik litsenziya eksportyor yoki importyor buyurtmasiga muvofiq davlat tomonidan darhol beriladigan yozma ruxsatnoma.

Litsenziyalarni taqsimlash mexanizmlari:

- auksion;
- konkurs asosida litsenziyalarni sotish (optimal variant). AQSh da auksionlar, odatda, videomagnitofonlar, qand, avtomobillarning importi litsenziyalarini taqsimlashda ishlatiladi;
- «yaqqol afzallik tizimi» — davlat tomonidan ma'lum firmaga o'tgan davrda qilingan import hajmiga proporsional tarzda yoki milliy importyorlarning talabi tarkibiga proporsional tarzda litsenziya berish shakli. AQSh da bu litsenziya turi neftni import qilishda ishlatiladi;
- bahodan tashqari asosda litsenziyalarni taqsimlash. Davlat tomonidan tovarlar importi va eksportini eng samarali shaklda amalga oshiradigan firmalarga berishda ishlatiladi.

Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar o'rtasida eksport-import operatsiyalarini litsenziyalash tovar aylanmasi umumiy hajmining 5–6 %darajasiga yetadi (Fransiya kvotalash va litsenziyalash bo'yicha o'ziga xos «peshqadam» hisoblanadi).

Litsenziyalashni talab etadigan tovarlar ro'yxatiga, birinchi navbatda, eksportga mo'ljallangan kvotalanadigan mahsulotlar, shuningdek, ba'zi bir maxsus guruhdagi tovarlar: strategik ahamiyatga ega tovar va resurslar, dori-darmonlar, bolalar assortimenti tovarlari va boshqalar kiradi.

«Eksportni ixtiyoriy cheklash». Mutaxassislarning fikricha, eksport kvotalarining muhim turlaridan biri «eksportni ixtiyoriy cheklash» hisoblanadi. Hukumat tomonidan odatda yirik importyor davlatning siyosiy tayziqi ostida eksportni ixtiyoriy cheklash joriy qilinadi.

«Eksportni ixtiyoriy cheklash» — rasmiy davlatlararo yoki tovar eksportiga norasmiy kvota belgilash to'g'risida savdodagi hamkor tomonidan savdoni cheklash yoki eksportni kengaytirmaslik to'g'risidagi majburiyatga asoslangan eksportni miqdor jihatidan cheklash.

Bunday amaliyot AQSh va YeI da Yaponiya tovarlari (avtomobillar, elektronika, po'lat)ga nisbatan keng qo'llaniladi. Hozirga qadar jahonda bunday turdagi 100 dan ortiq bitimlar imzolangan va XXI asr boshlaridan boshlab JST o'z oldiga «eksportni ixtiyoriy cheklash»ni umuman bekor qilish vazifasini qo'ymoqda.

Shuningdek, xalqaro savdoda iqtisodiy sanksiyalar keng qo'llaniladi. Bu sanksiyalar qatoriga embargo ham kiradi. Bu usul bir mamlakat yoki mamlakatlar guruhi bilan savdo operatsiyalarini butunlay taqiqlashni bildiradi. Odatda, siyosiy maqsadlarni ko'zlagan holda embargoni joriy qilish butun nomenklaturadagi yoki alohida guruhdagi tovarlar eksporti yoki importini cheklashni nazarda tutadi. XX asrda savdoni tartibga solishning bunday usuliga BMT qaroriga ko'ra embargo siyosati Iroqqa, qisman sobiq Yugoslaviya, Livan, Eron va ba'zi boshqa mamlakatlarga nisbatan amalga oshirilgan.

21.3. Savdo siyosatining moliyaviy metodlari

Tashqi savdoni tartibga solishning notarif usullari tarkibidagi keyingi yirik guruh moliyaviy usullar hisoblanadi va ular o'z navbatida quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- subsidiyalar;

- eksport kreditlari;
- demping.

Subsidiyalar — milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va importni bilvosita kamsitishga qaratilgan davlat byudjetidan ajratiladigan pulli to'lovlar. Subsidiyalar import tovarlar bilan raqobatga kirishayotgan va eksport uchun mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqaruvchilarga berilishi mumkin. Birinchi holatda u ichki subsidiya deb, ikkinchi holatda esa eksport subsidiyasi, deb ataladi.

Ichki va eksport subsidiyalarining farqlanishi jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy oqibatlar turlicha ahamiyatga ega. Ularga alohida to'xtalib o'tamiz.

21.3.1-rasm.
Ichki subsidiyalar



Ichki subsidiyalar. Erkin savdo sharoitida milliy ishlab chiqarish hajmi Q_1 ni, ichki iste'mol hajmi Q_3 ni, import Q_3-Q_1 ni tashkil etadi.

Subsidiya ajratilgandan keyin ichki ishlab chiqarish hajmi Q_2 gacha ortadi, iste'mol esa Q_3 holatida qoladi, chunki iste'molchilar tovarni avvalgidek jahon narxida xarid qilishadi. Import hajmi esa Q_3-Q_2, ya'ni ichki ishlab chiqarish hajmining qo'shimcha ortishi miqdoriga mos Q_2-Q_1 ravishda kamayadi.

Milliy ishlab chiqaruvchilar har bir mahsulotning jahon bahosidan subsidiya miqdorida foyda oladi ($S=P_S-P_W$). Hukumat xarajatlari 1-va 2-figuralarni tashkil etadi.

Subsidiyalarning bir qismi (1-figura) mazkur tovarlarni ishlab chiqargan korxonalar hisobiga qayta taqsimlanadi. Qolgan qismi (2-figura) esa mamlakat iqtisodiyotining sof yo'qotishi hisoblanadi. Chunki, subsidiya natijasida samarasiz ishlayotgan milliy ishlab chiqaruvchilar o'z tovarlarini sotish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Ichki subsidiyalarning afzallik tomoni shundaki, ular tarif va kvotalarni qo'llash orqali importni miqdoriy jihatdan cheklashdagi kabi samaraga ega bo'ladi. Bunda ichki narxlarning o'zgarishi yuz bermaydi va subsidiya ta'sirida tashqi raqobatdan himoyalanayotgan tovarlarning ishlab chiqarish samaradorligi ortadi.

21.3.2-rasm.
Eksport subsidiyasi



Eksport subsidiyasi. Erkin savdo sharoitida importyor mamlakat iste'molchilari Q_1 hajmdagi tovarni jahon narxida $P_W$da xarid qilishadi. Agar eksportyor mamlakat o'z ishlab chiqaruvchilariga eksport subsidiyasini ajratsa, ishlab chiqaruvchilar eksportga chiqarilayotgan tovar bahosini subsidiya miqdoriga mos ravishda pasaytira olishadi. Natijada tovar taklifi S_W dan S'_W gacha, eksport hajmi esa Q_2 qadar ortadi.

Eksport subsidiyasini qo'llashdan maqsad eksport bahosining pasayishi natijasida yomonlashgan mamlakat savdo sharoitini sotilayotgan tovarlar hajmini oshirish orqali yaxshilash va subsidiyalar ko'rinishidagi xarajatlarni qoplashdan iborat.

GATT/JST qoidalariga muvofiq, a'zo mamlakatlar o'rtasidagi savdoda bevosita eksport subsidiyalaridan foydalanish ta'qiqlangan. Yevropa Ittifoqi doirasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga bevosita eksport subsidiyalari berish bundan mustasno. Yuqorida ko'rsatilgan qoidalarning buzilishi import qilayotgan mamlakatga kompensatsiyalovchi import bojlari olish orqali javob choralar ko'rishga asos bo'ladi. Bu bojlar JST arbitrajida bahs hal etilgunga qadar saqlanadi.

Eksport subsidiyalarining miqdori rivojlangan mamlakatlar qayta ishlash sanoati eksportining 1 %dan oshmaydi, biroq ayrim tovar guruhlari uchun, ayniqsa, rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlarida ushbu me'yor juda yuqori bo'lishi mumkin.

XVF ma'lumotlariga ko'ra, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatlar jahon bozoridagi raqobatbardoshligini saqlab qolishlari uchun subsidiyalardan keng foydalanishgan. Bu holat ayniqsa iqtisodiyotda davlatning roli yuqori bo'lgan mamlakatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda subsidiyalardan nisbatan kam foydalaniladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qadar rivojlangan mamlakatlarda byudjet subsidiyalarining YalM dagi ulushi o'rtacha 1,3 %ga teng bo'lgan. Ayniqsa, makroiqtisodiy

o'sishning liberal modelidan foydalanuvchi mamlakatlarda subsidiyalarning YaIM dagi ulushi yuqori emas. Misol uchun, 2010-yilda byudjet subsidiyalarining YaIM dagi ulushi AQSh da — 0,4 %, Buyuk Britaniyada — 0,7 %, Yaponiyada 0,6 %ga teng bo'ldi. Bu holat birinchi o'rinda ushbu mamlakatlarda davlat korxonalarining kam sonli ekanligi bilan bog'liq. Rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida esa ushbu ko'rsatkich nisbatan yuqori bo'lib, davlatning iqtisodiyotdagi roli bilan bog'liq. Misol uchun, 2010-yilda byudjet subsidiyalarining YaIM dagi ulushi Rossiyada 4 %ni, Vengriyada 1,4 %ni, Bolgariyada 1,3 %ni, Slovakiyada esa 2,4 %ni tashkil etdi[1].

Yuqorida keltirilgan mamlakatlar tarkibida Rossiya alohida ajralib turishiga qaramasdan mamlakatda subsidiyalarga doimo katta e'tibor berilmagan. Misol uchun, 2006-yilda subsidiyalarning Rossiya YaIM dagi ulushi bor-yo'g'i 1,7 %ga teng bo'lgan. Rossiyada korxonalarga ajratilayotgan subsidiyalar ulushining YaIM ga nisabatan 4,7 %ga qadar ortishi 2007-yilda 7 ta davlat korxonasining tashkil qilinishi bilan bog'liq. Rossiya hukumatining jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi chora-tadbirlar natijasida esa subsidiyalarning davlat byudjetidagi o'rni yanada ortdi. Xususan, 2009-yilda byudjet subsidiyalarining Rossiya YaIM dagi ulushi 5,4 %ga yetdi[2].

Subsidiyalar yordamida korxonalarni himoya qilish va eksportni rag'batlantirishning salbiy oqibatlari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- korxonalarning subsidiyalardan foydalanishga ko'nikib qolishi faoliyat samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga rag'batlantirmaydi;
- subsidiyalarning davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilishi aholi zimmasiga tushadigan soliq yukining ortishini bildiradi;
- eksport subsidiyalarining qo'llanilishi ichki bozorda mazkur tovarlarning kamomadi va narxlarning oshishiga olib keladi;
- subsidiyalarning qo'llanilishi savdo urushlarining avj olishiga shart-sharoit yaratadi.

Eksport kreditlari tashqi savdo siyosatining moliyaviy usuli bo'lib, milliy firmalarning eksport salohiyatini rivojlantirishni davlat tomondan moliyaviy rag'batlantirishni nazarda tutadi.

Eksport kreditlari quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- milliy eksportyorlarga subsidiyalashgan kreditlar berish — davlat banklari tomonidan bozor stavkasidan past stavkalarda kreditlar ajratish;
- kredit bergan mamlakat tovarini sotib olish sharti bilan xorijiy importyorlarga davlat kreditlarini berish;
- milliy eksportyorlarni eksport risklaridan sug'urtalash.

Eksport kreditlari qisqa, o'rta va uzoq muddatli bo'lishi mumkin.

Eksport kreditlari bo'yicha eng yirik uyushmalardan biri IHTT doirasida eksportni kreditlash bo'yicha hukumat va agentliklar vakillaridan iborat guruh — Eksport krediti guruhi hisoblandi. Bu guruh ikki yil va undan ortiq muddatga berilgan eksport kreditlarini tartibga soladi. Ikkinchi yirik tashkilot kreditlar va investitsiyalarni sug'urtalash bo'yicha xalqaro ittifoq — Bern ittifoqi hisoblanadi.

Ba'zi hollarda eksport kreditlari boshqa davlatlarga tashqi yordam berish shakli sifatida talqin etiladi.

1 Махонин А. Отлучить от казны. // Ведомости, 26.12.2011. С. 1.
2 O'sha manba. C. 3.

Demping — tovarni tashqi bozorga mamlakatda mavjud normal bahoga qaraganda past baholarda eksportga chiqarish. Tashqi savdo amaliyotida dempingning quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

- sporadik demping — tashqi bozorga ortiqcha tovar zaxiralarini past baholarda epizodik sotish;
- oldindan o'ylangan yoki ataylab qilingan demping — bozordagi raqibni siqib chiqarish va keyinchalik monopol baho o'rnatish maqsadida eksport baholarini vaqtinchalik pasaytirish;
- doimiy demping — doimiy ravishda tovarlarning eksport bahosini normal bahoga nisbatan past baholarda sotish;
- teskari demping — tovarlar eksport bahosining mamlakat ichki bozoridagi baholarga nisbatan oshib ketishi.
- o'zaro demping — ikkita mamlakatning bir xil tovarlar bo'yicha past baholarda o'zaro savdoga kirishishi.

Dempingdan, eng avvalo, davriy pasayishlar va ichki talab kamayganda, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish davrida foydalaniladi. Masalan, XX asrning 30-yillarida shunga o'xshash hodisa Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan import qilinuvchi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida kuzatildi, 70-yillarda AQSh va Yevropa Ittifoqi tomonidan Yaponiyaga nisbatan dempingdan foydalanish ayblovi ilgari surildi.

Vaqtinchalik va doimiy dempingga qarshi importyor mamlakatlar JST moddalariga asoslangan holda importga qarshi import bojlarini joriy etish huquqiga ega bo'lganligi sababli keyingi yillarda yashirin demping keng tarqalmoqda. Bu eksportyor va importyorlar o'rtasida importyorlar tomonidan o'z milliy bozorida tovarlarni eksportyor yetkazib bergan narxdan past baholarda sotish haqida yashirin kelishuvni nazarda tutadi. Yashirin demping yirik TMK lar tomonidan firma ichida qo'llaniladigan butlovchi qismlarning transferti amaliyotida keng tarqalgan (masalan, yapon TMK lari ichida).

21.4. Savdo siyosatining yashirin metodlari

Tashqi savdoni tartibga solishning miqdoriy cheklash usullari bilan bir qatorda yashirin proteksionizm usullari ham muhim ahamiyatga ega. Ba'zi hisob-kitoblarga qaraganda yashirin proteksionizmning bir necha yuz xil turlari mavjud. Davlat ular yordamida eksport yoki importni bir tomonlama cheklashi mumkin. Yashirin proteksionizm turlari:

- texnik to'siqlar (milliy standartlarga rioya qilish, import qilinayotgan mahsulotlarning sifat sertifakatini talab qilish, tovarlarni maxsus upakovkalash va markalash, sanitariya-epidemiologiya qoidalariga rioya qilish);
- ichki soliqlar va yig'imlar — mazkur usul import qilinayotgan tovarlarning ichki bahosini oshirishga qaratilgan bo'lib, shu orqali import qilinayotgan tovarning raqobatbardoshligini tushirishga qaratilgan (qo'shilgan qiymat solig'i, savdo solig'i, aksiz solig'i, bojxonada rasmiylashtirish uchun yig'imlar, port solig'i, registratsiya solig'i va b.);
- davlat xaridi doirasidagi siyosat — davlat organlari va korxonalaridan ma'lum tovarlarni qimmat bo'lishiga qaramasdan faqat milliy firmalardan sotib olishga yo'naltirilgan siyosat;
- mahalliy komponentlarni ushlab turish talabi — ichki bozorga mo'ljallangan tovarlarning ma'lum bir qismini mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqargan bo'lishi kerak.

Yashirin proteksionizm usullari mohiyati jihatdan markaziy hukumat va hatto mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tashqi savdo yo'liga bojxona tabiatiga ega bo'lmagan turli to'siqlarni o'rnatishini anglatadi. Yashirin proteksionizm usullarining ko'pchiligi xalqaro savdo muvofiqlashtirilgan tamoyillarini buzishning yaqqol namunasidir. Alohida mamlakat import yoki eksportni bir tomonlama chegaralashida foydalanadigan yashirin proteksionizm usullarining yuzdan oshiq turi mavjud.

Texnik to'siqlar — bu yashirin proteksionizm usuli bo'lib, milliy texnik, ma'muriy me'yorlar va qoidalar shunday ishlab chiqiladiki, ular tovarlarni tashqaridan olib kirishga to'sqinlik qiladi. Texnik xarakterdagi to'siqlarning eng keng tarqalganlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- milliy standartlarga rioya etishning talab qilinishi;
- import mahsulotning sifati haqida sertifikat olinishining talab qilinishi;
- maxsus qadoqlash va markirovkalashning talab qilinishi;
- ma'lum sanitariya va gigiyena qoidalariga rioya etishning talab qilinishi;
- atrof-muhitni himoyalash bo'yicha tadbirlar o'tkazishning talab qilinishi;
- murakkablashtirilgan bojxona rasmiyatchiliklariga rioya etinishining talab qilinishi;
- iste'molchilar huquqlarini himoyalash to'g'risidagi qonunlarga rioya etishning talab qilinishi va hokazolar.

Ichki soliqlar va yig'imlar — bu yashirin proteksionizm usuli bo'lib, ular import tovarning ichki narxini ko'tarishga va bu orqali uning ichki bozordagi raqobatbardoshligini pasaytirishga yo'naltirilgan. Ular markaziy hukumat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan joriy qilinishi mumkin. Import tovarlardan olinadigan soliqlar to'g'ri soliqlar (qo'shimcha qiymat solig'i, aksiz solig'i, sotishdan olinadigan soliq) yoki egri soliqlar (bojxonada rasmiylashtirish uchun yig'imlar, registratsiya uchun va boshqa rasmiyatchiliklar uchun yig'imlar, port yig'imlari) ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Davlat xaridlari doirasida siyosat — bu yashirin proteksionizm usuli bo'lib, unga ko'ra davlat organlari va korxonalardan faqat milliy ishlab chiqaruvchilar tovarlarini (bu tovarlar import tovarlardan qimmat bo'lsa ham) sotib olish talab qilinadi.

Mahalliy komponentlarning tovar tarkibida bo'lishligiga talablar — bu davlat siyosatining yashirin usuli bo'lib, unga ko'ra ichki bozorda sotiladigan pirovard tovarda milliy ishlab chiqaruvchilarning ulushi qonuniy ravishda belgilab qo'yiladi.

Savdo siyosatining yashirin usullarining ko'pchiligini va oqibatlarini miqdoran baholash juda qiyin. Quyida mahalliy komponentlarning tovar tarkibida bo'lishligiga talablar misolida yashirin usullarning iqtisodiy samarasini ko'rib chiqamiz (21.4.1-rasm).

Faraz qilaylik, mamlakatda tovar taklifi S_d, tovarga talab esa D_d ni tashkil qiladi. Erkin savdo sharoitida $1P$ narxda xorijdan tovar taklifi $1S$ ni tashkil qiladi. Ushbu mamlakatda ishlab chiqarish tannarxi xorijga nisbatan yuqori bo'lganligi sababli mahalliy tovarlar taklif qilinadigan narx ham yuqori. Agar mahalliy ishlab chiqaruvchilar va xorijdan taklif qilinayotgan tovarlar miqdorini har bir narx uchun qo'shib chiqsak, ushbu mamlakat bozorida ana shu tovarning jami taklif to'g'ri chizig'iga — $2S$ ega bo'lamiz. Ichki talab jami talab bilan A nuqtada muvozanatga keladi. Bu muvozanat nuqtada $1R$ narxda $6Q$ ta tovar sotiladi, bu tovarlarning $Q1$ tasi ichki ishlab chiqaruvchilar, $5Q$ tasi xorijliklar tomonidan sotiladi (21.4.1a-rasm).

21.4.1-rasm.
Mahalliy komponentlarning tovar tarkibida bo'lishligi talablari



Hukumat mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishga qaror qiladi va mahalliy komponentlarning tovar tarkibida bo'lish talablarini joriy qiladi. Cheklovlarga duch kelmaslik uchun xorijiy kompaniyalar o'z ishlab chiqarishini shu mamlakat hududiga ko'chirib o'tkazadi, bu esa ularning ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga olib keladi. Xarajatlar oshishi natijasida tovar qimmatlashadi xorijdan taklif chizig'i S_1 dan S_3 ga ko'chib o'tadi. Buning natijasida jami taklif chizig'i ham S_2 dan S_4 ga ko'chib o'tadi va V nuqtada muvozanatga keladi. Natijada tovar narxi P_2 gacha oshadi va sotish hajmi Q_4 gacha kamayadi. Sotilgan tovarlarni Q_2 tasi mahalliy ishlab chiqaruvchilar, Q_3 tasi esa mamlakatga ishlab chiqarishni ko'chirib o'tkazgan xorijliklar tomonidan ishlab chiqariladi.

Xorijga nisbatan qimmatroq mahalliy komponentlarni sotib olish talabiga muvofiq ishlab chiqarish xarajatlari oshib ketdi va narx P_1 dan P_2 ga ko'tarildi, iste'molchilarning zarari esa $a+b+c+d+e$ ga teng bo'ldi. Bu yerda: a segment — chegaraviy samara (mahalliy ishlab chiqaruvchilarga qayta taqsimlanadigan summa), b segment — himoyalash samarasi (mahalliy ishlab chiqarishning xorijiy ishlab chiqarishga nisbatan samarasizligi sababli yo'qotishlar) d segment — iste'mol samarasi (narx oshishi natijasida iste'mol miqdoridagi yo'qotishlar). Ikki segmentning yig'indisi $s+e$ daromad samarasi (xorijiy ishlab chiqaruvchilarning narx ko'tarilishi natijasida olgan qo'shimcha daromadi)ni ifodalaydi, bu yerda: s segment bu mamlakatda joylashgan xorijiy ishlab chiqaruvchilarga tegadi, e segment esa ishlab chiqarish xarajatlarining ortishini ifodalaydi. Mamlakatning jami iqtisodiy zarari $b+e+d$ ni tashkil qiladi.

21.5. Tartibga solishning noiqtisodiy metodlari

Tashqi savdoni tartibga solishning notarif dastaklari tarkibida huquqiy dastaklar muhim o'rin egallagan. Ularni, odatda, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda noiqtisodiy dastaklar, deb nomlashadi. Bu dastaklar ikki va ko'p tomonlama kelishuvlarda o'z aksini topadi.

Savdo kelishuvlari, dengizda suzish va savdo sulhi — bu davlatlararo shartnomalarning bir turi bo'lib, ikki tomonlama savdoning tamoyillarini va rejimini o'rnatadi. O'zaro savdoda mamlakatlar bir-biriga nisbatan qulay shart-sharoit yaratib berish uchun va neytral suvlardan, hududdan kelishilgan holda foydalanish uchun ikki tomonlama kelishuvlar imzolashga harakat qilishadi. Bunday kelishuvlar, odatda, ijro hokimiyatlari tomonidan tuziladi va keyinchalik mamlakatlarning qonun chiqarish organlari tomonidan ratifikatsiyalanadi. Shuningdek, ikki tomonlama kelishuvlar, odatda, 5–10-yilga tuziladi va muntazam ravishda qayta ko'rib chiqiladi.

Davlatlararo kelishuvlarda mamlakatlar bir-biriga nisbatan quyidagi huquqiy rejimlardan birini qo'llashga kelishib olishadi:

1. **Milliy rejim** — mamlakat o'zining yuridik va jismoniy shaxslariga yaratib beradigan shart-sharoitdan, rejimdan hamkor mamlakat rezidentlariga ham foydalanishga ruxsat berishini nazarda tutuvchi rejim. Misol uchun, mamlakatlarni importyorlardan undiradigan aksiz solig'i va QQS stavkasi ichki ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan soliq stavkalaridan yuqori bo'ladi. Agar mamlakatlar o'zaro savdoda milliy rejimni qo'llashga kelishib olishsa, bu soliq stavkalari ichki va xorijiy subyektlar uchun bir xil bo'ladi.
2. **Mumkin qadar qulaylik yaratish rejimi** — bir mamlakat tomonidan uchinchi mamlakat (savdo kelishuvida aks ettirilmagan mamlakat)ga yaratgan qulay shart-sharoitlarni, afzallik va imtiyozlarni o'z hamkor mamlakatiga ham taqdim etishini nazarda tutuvchi huquqiy rejim. Ammo bu rejimda quyidagi hollarda berilgan imtiyozlar inobatga olinmaydi:

- qo'shni mamlakatlarga taqdim etilgan imtiyozlar;
- bir integratsion guruh ichida taqdim etilgan imtiyozlar;
- BMT ning 1971-yilda qabul qilgan Umumiy preferensiyalar tizimi doirasida berilgan imtiyozlar.

Bu rejimga ega bo'lish bugungi kunda katta ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, JST ga a'zo bo'lish uchun mamalkat bu tashkilotga kiruvchi boshqa mamlakatlarning har biri bilan «mumkin qadar qulaylik yaratish» rejimini taqdim etish bo'yicha kelishuv imzolashi shart.

Hozirda jahon bozorining turli segmentlarida xalqaro savdo muammolarini muvofiqlashtiruvchi ko'plab xalqaro tashkilotlar, uyushmalar, kengashlar faoliyat yuritmoqdalar, ko'p tomonlama xalqaro bitimlar imzolangan.

Masalan, ayrim xomashyo tovarlari xalqaro savdosini tartibga solish maqsadida ko'p tomonlama bitimlar imzolangan va importyor davlatlar va eksportyorlar ishtirokida xalqaro tashkilotlar tashkil qilingan: kakao (Kakao bo'yicha xalqaro tashkilot — International Cocoa Organisation), kofe (Kofe bo'yicha xalqaro tashkilot — International Coffee Organisation — ICO), tabiiy kauchuk (Tabiiy kauchuk bo'yicha xalqaro tashkilot — International Natural Rubber Organisation — INRO), shakar bo'yicha (Shakar bo'yicha xalqaro tashkilot — International Sugar Organisation — ISO).

Neftni eksport qiluvchi mamlakatlar OPEK faoliyatida ask etadi. Undan tashqari, davlatlararo uyushmalar yoki xalqaro kengashlar faoliyat yuritmoqdalar va mis, boksit, temir rudasi, simob, volfram, qalay, kumush, fosfatlar, tropik turdagi yog'ochlar, teri, don, kokos mahsulotlari, jut, paxta, qora murch, choy, banan, yeryong'oq, sitrus, go'sht va urug'li yog'lar bo'yicha xalqaro konsultativ tashkilotlar.

BMT doirasida jahon savdosi BMT ning Savdo va rivojlanish Konferensiyasi (UNCTAD) va BMT ning Xalqaro savdo huquqi bo'yicha Komissiyasi (UNCITRAL) tomonidan tartibga solinadi.

Asosiy tushunchalar

Notarif usullar — tovar ayirboshlashga ta'sir qilish dastaklarini, ya'ni olib kiriladigan yoki olib chiqiladigan mahsulot hajmi va nomenklaturasini cheklashni bildiradi.

Xalqaro savdoni miqdoriy jihatdan cheklash — davlat tomonidan savdo aylanmasi notarif metodlarini qo'llagan holda tartibga solishning ma'muriy metodi.

Kvotalash — tovarlar eksporti yoki importini muayyan vaqt mobaynida ma'lum miqdor yoki summa bilan miqdoriy jihatdan cheklash.

Litsenziyalash — davlat organlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatga ruxsat berish orqali eksport yoki import qilinayotgan tovarlarni muayyan vaqt mobaynida ma'lum bir miqdorda eksport yoki import qilishga ruxsat berish.

«Eksportni ixtiyoriy cheklash» — rasmiy davlatlararo yoki tovar eksportiga norasmiy kvota belgilash to'g'risida savdodagi hamkor tomonidan savdoni cheklash yoki eksportni kengaytirmaslik to'g'risidagi majburiyatiga asoslangan eksportni miqdor jihatidan cheklash.

Subsidiyalar — milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va importni bilvosita kamsitishga qaratilgan davlat byudjetidan ajratiladigan pulli to'lovlar.

Eksportni kreditlash — tashqi savdoning notarif moliyaviy metodi bo'lib, davlat tomonidan milliy firmalar eksportini rivojlantirish uchun moliyaviy rag'batlantirishni ko'zda tutadi.

Demping — savdo siyosatining moliyaviy metodi bo'lib, tovarni tashqi bozorga mamlakatda mavjud normal bahoga qaraganda past baholarda eksportga chiqarish.

Sporadik demping — tashqi bozorga ortiqcha tovar zaxiralarini past baholarda epizodik sotish.

Oldindan o'ylangan yoki ataylab qilingan demping — bozordagi raqibni siqib chiqarish va keyinchalik monopol baho o'rnatish maqsadida eksport baholarini vaqtinchalik pasaytirish.

Doimiy demping — doimiy ravishda tovarlarning eksport bahosini normal bahoga nisbatan past baholarda sotish.

Teskari demping — tovarlar eksport bahosining mamlakat ichki bozoridagi baholarga nisbatan oshib ketishi.

O'zaro demping — ikkita mamlakatning bir xil tovarlar bo'yicha past baholarda o'zaro savdoga kirishishi.

Texnik to'siqlar — yashirin proteksionizm usuli bo'lib, milliy texnik, ma'muriy me'yorlar va qoidalar shunday ishlab chiqiladiki, ular tovarlarni xorijdan mamlakat ichki bozoriga olib kirishga to'sqinlik qiladi.

Ichki soliqlar va yig'imlar — bu yashirin proteksionizm usuli bo'lib, ular import tovarning ichki narxini ko'tarishga va bu orqali uning ichki bozordagi raqobatbardoshligini pasaytirishgan yo'naltirilgan.

Davlat xaridlari doirasida siyosat — bu yashirin proteksionizm usuli bo'lib, unga ko'ra davlat organlari va korxonalardan faqat milliy ishlab chiqaruvchilar tovarlarini (bu tovarlar import tovarlardan qimmat bo'lsa ham) sotib olish talab qilinadi.

Mahalliy komponentlarning tovar tarkibida bo'lishligiga talablar — bu davlat siyosatining yashirin usuli bo'lib, unga ko'ra ichki bozorda sotiladigan pirovard tovarda milliy ishlab chiqaruvchilarning ulushi qonuniy ravishda belgilab qo'yiladi.

Eng qulay savdo rejimni yaratish — bu xalqaro savdo shartnomalarda qat'iy belgilangan shart bo'lib, shartnoma tuzuvchi shartnomalarning bir-biriga barcha huquq, afzallik va imtiyozlarni taqdim etish ko'zda tutilgan hamda bu mamlakatlar ularda foydalanilishi mumkin yoki uchinchi davlat foydalana oladi.

Milliy rejim — mamlakat o'zining yuridik va jismoniy shaxslariga yaratib beradigan qulaylikdan kam bo'lmagan rejimni taqdim etadigan davlatlararo iqtisodiy aloqalar rejimi.

Mumkin qadar qulaylik yaratish rejimi — bir mamlakat tomonidan uchinchi mamlakatga (savdo kelishuvida aks ettirilmagan mamlakatga) yaratgan qulay shart-sharoitlarni, afzallik va imtiyozlarni o'z hamkor mamlakatiga ham taqdim etishini nazarda tutuvchi huquqiy rejim.

Nazorat savollari

1. Tashqi savdoni tartibga solishning notarif metodlari nima va uning qanday turlari mavjud?
2. Notarif usullarning saqlanib qolishining asosiy sabablari nimada?
3. Tashqi savdoni miqdoriy jihatdan cheklashning qanday usullari mavjud?
4. Kvotalash bilan kontingentlashtirish o'rtasida qanday farq mavjud?
5. Litsenziyalash nima va u qanday usullar yordamida tarqatiladi?
6. Savdo siyosatining moliyaviy metodlariga qaysi usullar kiradi?
7. Ichki va eksport subsidiyalarining milliy iqtisodiyotga ta'siri qanday?
8. Savdo siyosatining yashirin metodlari qanday usullardan iborat?
9. Dunyo amaliyotida tashqi savdoni tartibga solishning yashirin usullari nima uchun keng tarqalgan?
10. Tartibga solishning noiqtisodiy metodlari nima va ular qanday tartibda joriy etiladi?

VI BO‘LIM. XALQARO TOVARLAR, XIZMATLAR VA INTELLEKTUAL MULK SAVDOSI

22-BOB. JAHON TAYYOR MAHSULOTLAR BOZORI

22.1. Jahon bozori konyunkturasi va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar

Xalqaro savdo qatnashchilarini, birinchi navbatda, tovar bozorlari konyunkturasi qiziqtiradi. Tovarlar bozorining turli-tumanligi ularni guruhlashtirishni taqozo etadi. Ushbu bozorlar hududiy qamroviga ko‘ra quyidagilarga ajratiladi:

- ichki bozor — bu barcha ishlab chiqarilgan va sotishga mo‘ljallangan mahsulotlarni ichki bozorda sotishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar sohasi;
- milliy bozor — bu muyyan mamlakat bozori bo‘lib, uning bir qismi xalqaro ayriboshlash (mahsulot va xizmatlar eksporti va importi) bilan bog‘liq;
- xalqaro bozor — bu xorijiy bozorlar bilan bog‘liq va xorijiy xaridor hamda sotuvchiga yo‘naltirilgan milliy bozorlar segmentining yaxlitligi;
- jahon bozori — bu jahonning barcha mamlakatlar bozorlarini umumlashtiruvchi sintetik tushuncha.

Bundan tashqari, jahon tovarlar bozori ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar xarakteriga ko‘ra yopiq, ochiq, preferensial bozorlarga bo‘linadi.

Jahon bozorini tizimli yondashuv asosida tahlil qilganda uning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- jahon bozorining shakllanishiga makroiqtisodiy subyektlarni samarali xalqaro ayriboshlashni amalga oshirish maqsadida milliy chegaralardan chiqishlari sabab bo‘lgan;
- tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati jahon bozori konyunkturasida o‘z aksini topadi;
- jahon bozori ishlab chiqarish omillarining samaradorligi yuqori bo‘lgan sohalarga yo‘naltirish orqali ulardan foydalanishni optimallashtiradi.
- jahon bozori mahsulotlar bo‘yicha o‘ziga xos filtr vazifasini bajarib, xalqaro sifat andozalari va xalqaro raqobatning qat’iy talablariga mos kelmagan mahsulotlarni xalqaro ayriboshlashdan chiqarib yuboradi.

Ammo xalqaro savdoda har qanday mahsulot ham ishtirok eta olmaydi. Ya’ni mahsulotlarni ikki guruhga: savdo qilinadigan va savdo qilinmaydigan mahsulotlarga bo‘lish mumkin. Savdo qilinadigan mahsulotlar deganda xorijiy bozorlarda ayirboshlanadigan raqobatdosh mahsulotlar tushuniladi va aksincha, savdo qilinmaydigan mahsulotlar deganda ishlab chiqarilgan mamlakat bozorida sotilib, xalqaro ayirboshlashda ishtirok etmaydigan mahsulotlar tushuniladi. Savdo qilinmaydigan mahsulotlarga quyidagilar kiradi:

- ulgurji va chakana savdo, restoran va mehmonxonalar;
- transport, saqlash, aloqa va moliyaviy vositachilik;

- kommunal xizmatlar va qurilish;
- mudofaa va majburiy ijtimoiy xizmatlar;
- ta'lim, sog'liqni saqlash va jamoat ishlari;
- boshqa kommunal, ijtimoiy va xususiy xizmatlar.

Savdo qilinadigan mahsulotlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

- qishloq xo'jalik, ovchilik, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik mahsulotlari;
- qazib chiqarish sanoati mahsulotlari;
- qayta ishlash sanoati mahsulotlari;

Quyidagi 22.1.1-rasmda savdo qilinadigan mahsulotlarni tashqi savdo operatsiyasi turiga ko'ra guruhlanishi keltirilgan.

22.1.1-rasm.
Savdo qilinadigan mahsulotlarning guruhlanishi



Jahon bozorining holati, konyunkturasi va u bilan bog'liq narxlar xalqaro savdo qatnashchilarining doimiy diqqat markazida bo'ladi. Keng ma'noda konyunktura, deganda muayyan davriy va geografik miqyosda qator omillar ta'sirida vujudga keladigan bozorning aniq holati tushuniladi. Konyunkturaga ta'sir qiluvchi omillar, narxlar darajasi, ularning o'tgan davrda, hozirda va kelajakda o'zgarish dinamikasiga asoslangan jahon bozori konyunkturasining rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash uchun murakkab tahliliy va istiqbolli tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Jahon bozori konyunkturasi turli darajalarda farqlanadi:

- umumiqtisodiy konyunktura (mamlakatlar iqtisodiyoti yoki jahon xo'jaligi);
- jahon bozorining alohida segmentlari va tarmoq konyunkturasi;
- ayrim mahsulot va xizmatlar konyunkturasi (u yoki bu tovar va xizmatlarning milliy yoki jahon bozori).

Vaqt mezonlari bo'yicha jahon bozori konyunkturasi uchga bo'linadi:

- joriy konyunktura;
- qisqa va o'rta muddatli konyunktura;
- uzoq muddatli konyunktura.

Jahon tovarlar bozorini tizimlashtirish uchun turli xalqaro guruhlashlardan foydalanish mumkin. Bu guruhlash tarkibida BMT ning xalqaro tarmoqlar guruhlashlari muhim o'rin egallaydi. Statistik maqsadlarda bu tasniflagichda mashina va asbob-uskunalar, xomashyo va yoqilg'i, qishloq va o'rmon xo'jaligi mahsulotlari ajratib ko'rsatiladi. O'z navbatida ushbu guruhlar boshqa quyi guruhlarga bo'linadi,

sababi-statistikada muayyan tartib va izchillik talab etiladi. Ammo aniq belgilangan bozorlarni o'rganishda tovarlarning tasniflanishi va e'tiborga olinishi kerak bo'lgan ko'rsatkichlar tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib aniqlanadi. Misol uchun, non va non mahsulotlari bozorini chuqur tahlil qilish uchun bug'doy bozorida mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlarini tadqiq etish zarur bo'ladi.

Jahon bozori konyunkturasini tahlil qilishda bozorlarni iste'mol va investitsion tovarlarga bo'lish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu bozorlar narxlarning shakllanish xususiyatlari va iqtisodiy sikllarga bog'liqlik darajasi bilan bir-biridan ajralib turadi.

Shuningdek, fan sig'imkorligi yuqori tovarlar bozori ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. IHTT tasnifiga muvofiq fan sig'imkorligi yuqori tovarlarga quyidagi to'rtta tarmoqqa tegishli tovarlar kiradi: aerokosmos, farmatsevtika, kompyuter va ofis jihozlari ishlab chiqarish, kommunikatsiyaning elektron vositalari.

Fan sig'imkorligi yuqori tovarlar ro'yxati milliy guruhlashlarda yanada kattaroq bo'lishi mumkin. Masalan, AQSh da ularga biotexnologiya, yangi materiallar, atom reaktorlari, qurol-yarog'larning alohida turlari ham kiritiladi.

Jahon bozori konyunkturasining holatiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar quyidagi 22.1.2-rasmda guruhlangan.

22.1.2-rasm.
Jahon bozori konyunkturasiga ta'sir etuvchi omillar



Bozor konyunkturasining o'zgarishi iqtisodiy rivojlanishning siklik xususiyati bilan bevosita bog'liqdir. Bunda bozor konyunkturasining uzun sikllari (to'lqinlar) ajratiladi. Bunday sikllar Kondratyev sikllari deb nomlanib, taniqlik iqtisodchi olim N. D. Kondratyev ilmiy-tadqiqotlari bilan bog'liq.

22.2. Tayyor mahsulotlar bozorida narxlarning shakllanish xususiyatlari

Qayta ishlash sanoati mahsulotlarining jahon narxlari asosida yirik ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning eksport bahosi yotadi. Ushbu narxlar to'liq xarajatlar yoki to'g'ridan to'g'ri xarajatlar usuli orqali aniqlanadi.

To'liq xarajatlar usuli — bu usul asosida bahoning aniqlanishi ishlab chiqarishning to'liq xarajatlari, kutilayotgan daromad, mahsulotning to'liq sotilishi va ishlab chiqarish quvvatining 75–85 % ishlatilishini hisobga olish yotadi.

To'g'ridan to'g'ri xarajatlar usuli — barcha xarajatlar ustama va bevosita xarajatlarga bo'linib, asosan o'zgaruvchan xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Alohida shartnomalar asosida — yetkazib beriluvchi ma'lum bir tovar turi va xizmat narxlari aynan shu xildagi tovar turi va xizmat narxlarining jahon bozoridagi darajasidan farq qilishi mumkin. Bu holat tovarning o'ziga xos sifat belgilari, tovarni yuklash va to'lovi, yuklangan turkumning (partiyasi) hajmi, har ikki tomon munosabatlarining xarakteri bilan bog'liq holda tuzilgan shartnomaning o'ziga xos talablari bilan izohlanadi.

Xalqaro savdoda narxlar turlarining ko'pligi tayyor mahsulotlar bozori shart-sharoitlarining har xil ekanligini aks ettiradi, mana shunday sharoitda oldi-sotdi aktlari tuziladi. Kuzatuvlar jahon narxining o'zgarib turish tendensiyasi ana shu shart-sharoitlarga ham bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Tovarlarning o'zgaruvchan narxini aniqlash tovar sifatining doimiyligini, bir xil sharoitdagi yuklash va to'lovlarni taqqoslab ko'rishni talab qiladi. Shuning uchun tovarning tashqi savdo narxini asoslash, aniqlash va kelishib olishda kelishuvning o'ziga xos tomonlarini belgilab beruvchi tabiati haqida aniq tushuncha, tasavvurga ega bo'lish kerak.

Misol uchun, texnologik-mashina mahsulotlari, murakkab texnik tovarlar savdosini olib ko'raylik, bu savdo ishlab chiqaruvchi — sotuvchi va iste'molchi — xaridorning bevosita ishtirokida o'tkazilib, tovarni yetkazib berishning barcha shart-sharoitlari kelishib olinadi.

Xalqaro savdo sohasida qo'llaniladigan jahon narxlari turlarining ko'pchiligiga qarab quyidagicha turkumlash mumkin. Oldi-sotdi bo'yicha konkret operatsiyalar o'tkazishni hisobga olgan holda:

- **shartnomaviy narx** — sotuvchi va xaridor o'rtasida kelishilgan va shartnomada ko'rsatilgan aniq baho. Odatda, u yetkazib beruvchi taklif etgan bahodan past bo'lib, tijorat siri sifatida hech qayerda oshkor etilmaydi;
- **ma'lumot beruvchi narxlar** — maxsus nashrlarda, byulletenlarda, davriy adabiyotlarda, kompyuter ma'lumot kanallarida e'lon qilinadigan sotuvchi bahosi bo'lib, qoidaga ko'ra, ular ancha balandroq va kamharakatchan bo'ladi. Mazkur tovar bozorda yuzaga kelgan umumiy dinamika va tendensiyani ifodalaydi;
- **birja narxlari** — birja orqali sotiladigan tovarlar bahosini aks ettiradi. Ushbu tovarlar tarkibiga, asosan, xomashyo tovarlari va yarimfabrikatlar kiradi. Birja savdosiga qo'yilgan tovar bozordagi konyunkturani o'zida ifodalaydi, ko'p hollarda noiqtisodiy omillar ta'siriga tushib qoladi; kelishuv chog'ida tovarning birja kotirovkasini, tovarni yetkazib berishni, to'lovni va boshqalarni o'zida ifoda ettirmaydi, kotirovka bahosi maxsus byulletenlarda bosib chiqariladi. Alohida tovarlar turlarining kotirovka narxlari ko'pincha ayrim birjalarda shakllangan narx darajasi va dinamikasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;
- **auksion narxlar** — tovarning savdo jarayonida vujudga kelgan bahosi bo'lib, ma'lum bir davrdagi talab bilan taklifni aks ettiruvchi va tovarning real bahosidir. Auksionlarda, asosan, san'at asarlari, mo'yna, hayvonlar kabi o'ziga xos tovarlar sotiladi;
- **tashqi savdoning statistik narxlari** — milliy va xalqaro statistik ma'lumotnomalarda bosilgan hisob-kitob narxlari, bu ma'lumotlar ma'lum bir tovar bo'yicha aniq bahoni aks ettirmaydi. Ushbu narxlar faqat mamlakatlar va jahon savdosining rivojlanish dinamikasi va tendensiyasini tahlil qilish, statistik hisob-kitoblar uchun xizmat qiladi.

Jahon bozorida narxlar vujudga kelish xususiyatlariga qarab «erkin bozor» va «yopiq bozor» narxlariga bo'linadi. «Erkin bozor» bahosi raqobat sharoitida yuzaga keladi va talab bilan taklif nisbatini aks ettiradi. «Yopiq bozor» bahosi tovarlarni sotish uchun ma'lum bir joyda tashkil etilgan, auksion savdolarga oid baholar hisoblanadi. «Yopiq bozor» bahosi sotuvchi va xaridor o'rtasidagi o'ziga xos munosabat bo'lib, mazkur tovarga talab va taklif obyektlarining ta'siri kam bo'ladi.

Bu baholar firmalarda ichki savdo, iqtisodiy guruhlarning mintaqaviy va maxsus preferensial kelishuvlar bahosidir.

Kelishuvda belgilangan xizmat turiga qarab bahoning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

- erkin konvertatsiyalanadigan valyutada to'lanadigan savdo bitimlari narxi;
- erkin konvertatsiyalanmaydigan valyutada to'lanadigan savdo bitimlar narxi;
- kliring kelishuvlar bo'yicha shakllangan narx;
- nosavdo operatsiyalar bo'yicha shakllangan narx;
- transfert narx (firma ichida).

Tovar va xizmatlarni olib kirish-olib chiqilishiga qarab narxlar eksport narxlariga (FAS va FOB shartlari asosida belgalangan narxlar) va import narxlariga (CIF shartlari asosida belgalangan narxlar) bo'linadi. FAS va FOB eksport narxlari bo'yicha eksport qiluvchi firma import qiluvchiga tovar narxiga transport xarajatlarini o'z ichiga olgan narxda sotadi. Bunda tovarni kema bortiga (FAS) yetkazib berish yoki yuklash xarajatlarini qo'shib hisoblab, kema bortiga chiqarib berish ko'zda tutiladi. CIF import narxlari — FOB narxidan tashqari yukni eksport qiluvchi yoki import qiluvchining mamlakat chegarasigacha transportda yetkazib berish va sug'urta xarajatlarini o'z ichiga oladi.

Kelishuvlarni o'rnatish qoidalari quyidagilardan iborat:

- shartnoma narxi tomonlar kelishuvi asosida belgilanadi. Qoidaga ko'ra shartnoma narxi turli davlat hukumatlari o'rtasidagi shartnoma va kelishuvlar asosida aniqlanadi;
- birja kotirovkalari, auksion savdolari narxi;
- yirik firmalarning taklif narxlari va amaldagi bitimlar narxi;
- xalqaro bitimlarda ishtirok etuvchi mamlakatlarning ichki ulgurji narxlari, bu narxlar eksport va importning bojxona bojidan, soliqlari hajmidan farq qiladi.

Eksport qiluvchi mamlakatning eksport narxi, asosiy xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar narxlari, G'arbiy Yevropadagi yirik bozorlarning import narxi jahon narxi bo'la olishi mumkin:

- alyuminiy bo'yicha — Kanadaning eksport narxi;
- yog'och-taxta materiallari bo'yicha — Shveysariya narxi;
- kauchuk bo'yicha — Singapur birjasining narxi;
- mo'yna bo'yicha — Nyu-York, London va boshqa auksionlar narxlari.

Amaliyotda jahon bozorida o'z tovarining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida turli chegirmalar qo'llaniladi. Chegirmalar qo'llanilganda o'rnatilgan summa olib tashlangan bazis narx — jahon narxi hisoblanadi.

Amaliyotda quyidagi chegirmalardan foydalaniladi:

- tovarning naqd pulga sotib olingandagi miqdori;
- preyskurant bahosidan umumiy chegirmalar (asosan kichik hajmli tovarlar uchun belgilanadi);
- dilerlik chegirmalari;
- maxsus chegirmalar (idoralarning imtiyozga ega kategoriyalari uchun).

Chegirma o'lchovining har biri konkret holatda alohida aniqlanadi va qoida bo'yicha birinchi taklif etilgan bahosidan 2–10 % atrofida bo'ladi. Aniq sharoitlarda chegirma miqdori birinchi taklif narxining 20–30 %ga yetishi mumkin.

Jahon narxi darajasi va o'zgarib turish tezligi quyidagi omillar ta'sirida belgilanadi:

- qiymat omili — ijtimoiy zarur mehnat sarflarining o'zgarishi;
- konyunktura omili — talab va taklif nisbatining o'zgarishi bilan bog'liq;
- davlat tomonidan tartibga solib turish omili — davlatning xalqaro savdo sohasida olib boradigan iqtisodiy siyosati;

- valyuta-moliya omili — valyuta bozorining holati;
- siyosiy omil — harbiy-siyosiy vaziyat.

XX asrning ikkinchi yarmida mamlakatlar, dunyo xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning iqtisodiy-siyosiy rivojlanishining o'ziga xosligi jahon bozorida narxlarning shakllanishida o'z ifodasini topdi.

Bu davrda jahon narxlarining shakllanish xususiyatlari:

- XX asrning ikkinchi yarmida eksport narxlari o'sishi dinamikasida ko'tarilish tendensiyasi kuzatildi, ayniqsa, xomashyo guruhidagi yonilg'i narxi ko'tarildi, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarida unchalik katta ko'tarilish bo'lmadi;
- narxlarning birinchi marta katta ko'tarilishi Ikkinchi jahon urushi bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, ikkinchisi 1970-yil o'rtalarida bo'lib o'tgan energetika inqirozi natijasida ro'y berdi;
- XX asrning 50–60-yillari jahon eksportining barcha tovarlarining indeks narxi o'rtacha ko'tarilishi bilan tavsiflanadi;
- XX asrning 80–90-yillarida oziq-ovqat mahsulotlari, xomashyolarning ba'zi bir turlari, yonilg'i, tayyor mahsulotlar narxi pasaydi.

22.3. Jahon qayta ishlash sanoati mahsulotlari bozorining rivojlanish tendensiyalari

Qayta ishlash sanoati ko'p tarmoqli bo'lib, o'zida 300 dan ortiq tarmoq va quyi tarmoqlarni birlashtiradi. Qayta ishlash sanoati tarmoqlari quyidagi guruhlarga ajratiladi: 1) konstruksion materiallar va kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish; 2) mashinasozlik va metallni qayta ishlash; 3) yengil sanoat; 4) oziq-ovqat sanoati. XX asrda jahon bozorida bo'lib o'tgan o'zgarishlar tarkibida qazib chiqaruvchi tarmoqlar ulushining qisqarishi va qayta ishlash tarmoqlari ulushining ortishini ajratib ko'rsatish mumkin. Agar 1970-yillarda ularning nisbati 13/87 bo'lgan bo'lsa, 2000-yillarning boshiga kelib bu nisbat 8/92 ga o'zgardi. Bundan tashqari, ushbu davr mobaynida aksariyat taraqqiy etgan mamlakatlarda qazib chiqarish tarmoqlarining YaIM dagi ulushi qisqardi. Ammo rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida qazib chiqarish tarmoqlarining ulushi ortib borgan. XXI asr boshida rivojlangan mamlakatlarda ushbu soha ulushi 2 %ni tashkil etgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda mazkur ko'rsatkich 14 %dan ortdi. Shuningdek, bu davrda yana jahon bozorida moddiy resurslar sig'imkorligi yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushi qisqardi.

Iqtisodiy muhitdagi doimiy tarzda yuz beradigan o'zgarishlar ta'sirida jahon iqtisodiyotida qayta ishlangan mahsulotlarni ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Fan-texnika taraqqiyoti mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatining keskin rivojlanishiga ta'sir etdi. Misol uchun, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatining jahon bozoridagi ulushi 1975-yilda 37 %ni tashkil etgani holda 2004-yilda 55 %ga teng bo'ldi. Shuningdek, qayta ishlangan mahsulotlarning geografik tarkibi keskin farqlanib, aksariyat ulush (76 %) rivojlangan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Ammo Xitoy iqtisodiyoti rivojlanishining natijasida rivojlanayotgan mamlakatlar ulushi ortib bormoqda va 1990–2000-yillarda ushbu mamlakatlar ulushi 1,5 %dan 7,1 %gacha ortdi.

1990–2008-yillarda jahon sanoat mahsulotlari savdosida tarmoq ichidagi ixtisoslashuvning rivojlanib borishi kuzatilgan. X. Eskeyt, N. Lindenberg va S. Mirudolar tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko'ra, 1990–2008-yillarda AQSh va Sharqiy Osiyo mamlakatlarining uchinchi mamlakatlarga yo'naltirilgan tayyor mahsulotlar eksporti yiliga 7,1 %ga o'sgan holda, oraliq yoki yarimfabrikat mahsulotlar eksporti esa yiliga o'rtacha 10,2 %ga o'sgan. Qayta ishlash sanoatida esa, ushbu

ko‘rsatkichlar mos ravishda 6,6 va 10,7 %ni tashkil qilgan. Bu esa transmilliy vertikal integratsiyalashgan ishlab chiqarish tuzilmalarining rivojlanganligini aks ettiradi. Ya’ni, bu davrda sanoat tarmog‘ida tarmoq ichidagi ixtisoslashuv jadal sur’atlar bilan rivojlanib borgan. Mahsulot ishlab chiqarishning bir qismini boshqa mamlakatlarga uzatish orqali tarmoq ichidagi integratsiyaning rivojlanishiga quyidagilar sabab bo‘ldi:

- tashqi savdoning erkinlashuvi, jumladan transport va aloqa xarajatlarini kamaytirish natijasida tashqi savdo xarajatlarining pasayishi;
- tovarni o‘z vaqtida va shikast yetkazmasdan yetkazib berishni ta’minlovchi infratuzilma va logistika xizmatlarining rivojlanishi;
- xalqaro mehnat taqsimotini samarali tashkil etish imkonini beruvchi axborot texnologiyalarning mukammallashuvi.

Jahon tayyor mahsulotlar bozori ko‘ptarmoqli bo‘lib, uning tarmoq tarkibida mashinasozlik, ofis va telekommunikatsiya uskunalari, avtomobilsozlik, to‘qimachilik va oziq-ovqat tarmoqlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu tarmoqlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga va rivojlanish dinamikasiga ega.

Jahon mashina va uskunalar bozori keng diversifikatsiyalashgan. Bu bozor tovar nomenklaturasidan shaxsiy kompyuterlar, uyali telefonlar, sun’iy yo‘ldoshlar, katta laynerlar kabi tovarlar ham joy olgan.

Mashina va uskunalar bozori XXI asr boshida global bozorga aylandi va uning istiqbolda rivojlanishi ko‘p jihatdan innovatsiyalardan samarali foydalanishga bog‘liq bo‘lmoqda. Shu sababli, bu bozorga kiruvchi tovarlarning tannarxida innovatsiyalarga sarflangan xarajatlar katta ulushga ega.

Mashina va uskunalar jahon bozorida umumiy narx XXI asr bo‘sag‘asida o‘sib borish tendensiyasiga ega bo‘ldi. Ushbu holatning asosiy sabablari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- tovar diversifikatsiyalashuvi darajasining o‘sganligi;
- tovar sifatini oshirish uchun ko‘proq xarajatlar qilinishi;
- tadqiqotlarga yo‘naltirilgan xarajatlarning oshganligi;
- inflyatsiya jarayonlari.

Tahlillar ko‘rsatishicha, alohida tovarlar guruhi bo‘yicha narxlar dinamikasi umumiy tendensiyaga ega emas. Uzoq davr davomida sanoat tarmoqlarining ommaviy tovarlariga narxlar pasayib borgan bo‘lsa, nostandart tovarlarning narxi oshib borgan. Sanoat tarmoqlarida miqyos samarasidan foydalanish orqali narxlar pasaytirilgan bo‘lsa, davlatning alohida tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari, harbiy buyurtmalar, yirik loyihalarda davlatning ishtirok etishi kabilar ayrim tovarlar bozorida narxning oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Ommaviy standart mahsulotlarning narxi o‘rtacha xarajatlar va daromadning o‘rtacha me’yori asosida shakllanadi. Bu ko‘rsatkichlar uchun tez-tez tebranib turish xosdir.

Mashinasozlik tarmoqlari tarkibida ofis va telekommunikatsiya uskunalari o‘ziga xos muhim o‘rin egalaydi. Bu tarmoqda jahon eksporti XX asrning 90-yillari davomida katta sur’atlar bilan o‘sib borgan bo‘lsa, XXI asrga kelib, bu tarmoq eksportining o‘sish sur’atlari bir muncha pasaydi va 2005–2013-yillarda bu ko‘rsatkich yiliga o‘rtacha 5 %ni tashkil qildi. Shuningdek, 1990–2013-yillarda mashinasozlik tarmog‘i geografik tarkibida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. 2013-yilda Xitoy, YeI-28, Gonkong, AQSh, Singapur, Koreya Respublikasi, Yaponiya kabi mamlakatlar ofis va telekommunikatsiya uskunalari eksporti bo‘yicha jahonda yetakchilik qilishgan. 2005–2013-yillarda Xitoyda bu mahsulotlar eksporti yiliga 13 %ga o‘sib borgan. Bu davrda YeI-28, Koreya Respublikasida ofis va telekommunikatsiya uskunalari eksporti yiliga 3 %ga o‘sgan bo‘lsa, Singapur va Yaponiyada bu mahsulotlar eksporti yiliga 1–3 %ga qisqarib borgan. Natijada 2013-yilda ofis va telekommunikatsiya uskunalarining yetakchi eksportyorlari o‘rtasida Xitoy 1-o‘ringa chiqib

oldi. Xitoyning jahon ofis va telekommunikatsiya uskunalari eksportidagi ulushi 1990–2013-yillarda 1,0 %dan 33,9 %gacha o'sgan bo'lsa, bu bozorning yetakchi eksportyori bo'lgan AQSh ning ulushi 17,3 %dan 8,0 %gacha qisqardi. O'z navbatida jahon ofis va telekommunikatsiya uskunalari eksportida YeI-28 Yaponiyadan oshib, jahon eksportyorlari ro'yxatida 2-o'rinni egaladi (22.3.1-jadval).

22.3.1-jadval

Jahon mashinasozlik mahsulotlari eksportining geografik tarkibi, % hisobida

Mamlakat	Ofis va telekommunikatsiya jihozlari			Mamlakat	Avtomobil va uning ehtiyot qismlari		
	1990-y.	2000-y.	2013-y.		1990-y.	2000-y.	2013-y.
Xitoy	1,0	4,5	33,9	YeI-27	-	49,8	48,7
YeI-28	-	29,3	19,6	Yaponiya	20,8	15,3	13,3
Yaponiya	22,5	11,2	4,0	AQSh	10,2	11,7	10,0
AQSh	17,3	15,9	8,0	Meksika	1,4	5,3	6,2
Singapur	6,4	7,7	7,3	Koreya Respublikasi	0,7	2,6	5,5
Koreya Respublikasi	4,8	6,0	5,1	Kanada	8,9	10,5	4,5
Taypey	4,7	6,0	5,1	Xitoy	0,1	0,3	3,4
Malayziya	2,7	5,4	3,6	Tailand	0,0	0,4	1,9
Meksika	1,5	3,5	3,6	Turkiya	0,0	0,3	1,2

Manba: International Trade Statistics 2014. WTO. Geneva, 2014. p. 89, 102.

Avtomobil va uning ehtiyot qismlari bozorining geografik tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. 2000-yilda bu turdagi mahsulotlar eksportida YeI-28, Yaponiya, AQSh yetakchilik qilgan. Bu mamlakatlarning jahon eksportidagi ulushi YeI ichki savdosini inobatga olmaganda 72 %ni tashkil qilgan. Agar YeI dagi ichki savdo ham inobatga olinsa ushbu ko'rsatkich 92,5 %ga teng bo'lgan. 2000–2013-yillarda YeI ning yangi a'zolarida avtomobilsozlikning rivojlanishi YeI ni bu turdagi mahsulotlar eksporti bo'yicha jahonda birinchi o'ringa olib chiqdi. Bu davr davomida Yaponiya va AQSh ning jahon avtomobil eksportidagi ulushi qisqardi, ammo ular jahonda bu tarmoqdagi o'z o'rinlarini (mos ravishda 2- va 3-o'rinlarni) saqlab qolishdi. 2000-yilda avtomobil eksporti bo'yicha jahonda to'rtinchi o'rin egallagan Kanadaning jahon eksportidagi ulushi ikki baravar qisqardi va hozirda bu mamlakat jahon avtomobil va uning ehtiyot qismlari eksportida oltinchi o'rinni egallamoqda. Jahon avtomobil va uning ehtiyot qismlari eksportida Meksika, Koreya Respublikasi va Xitoyning ulushi ham jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

Jahon kiyim-kechak bozorida ham bir qator o'zgarishlar bo'ldi. Eng keskin o'zgarish Xitoyning kiyim-kechak eksportida bo'ldi. Bu mamlakatning jahon kiyim-kechak eksportidagi ulushi 2000-yilda 18,3 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2013-yilda bu ko'rsatkich 38,6 %ga yetdi. Bu holat ustun darajada Xitoyning JST ga a'zo bo'lishi bilan bog'liq. Chunki, bu a'zolik Xitoyga ko'plab mamlakatlarning ichki bozorlariga erkin kirib borish va bu sohadagi nisbiy afzalliklardan keng va samarali foydalanish imkonini yaratdi. Natijada 2013-yilda Xitoyning kiyim-kechak eksporti 177 mlrd. dollarga yetdi. Bundan tashqari, Xitoyning jahon kiyim-kechak bozoridagi muvaffaqiyatlari uning iqtisodiyotida to'qimachlik tarmog'ining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. 2013-yilda Xitoyda to'qimachilik mahsulotlari eksporti 107 mlrd. dollarga yetdi va bu mamlakatning jahon to'qimachimik mahsulotlari eksportidagi ulushi 34,8 %ga teng bo'ldi.

Bangladeshning ham jahon kiyim-kechak eksportidagi ulushi sezilarli o'sdi. Bu mamlakatning jahon kiyim-kechak eksportidagi ulushi 2000-yilda 2,6 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2013-yilda bu ko'rsatkich 5,1 %ga yetdi. Natijada, bu mamlakat jahonning yetakchi kiyim-kechak eksportyorlari ro'yxatida 3-o'ringa chiqdi. Ammo Bangladesh, Xitoydan farqli ravishda, to'qimachilik mahsulotlarini, asosan, import qiladi. Jumladan, 2013-yilda Bangladesh deyarli 6 mlrd. dollarga teng to'qimachilik mahsulotlarini import qildi va jahonning yetakchi to'qimachilik importyorlari orasida 9-o'rinni egalladi (22.3.2-jadval).

22.3.2-jadval

Jahon to'qimachilik va kiyim-kechak eksportining geografik tarkibi dinamikasi, %

Mamlakat	To'qimachlik mahsulotlari			Mamlakat	Kiyim-kechak		
	1990-y.	2000-y.	2013-y.		1990-y.	2000-y.	2013-y.
Xitoy	6,9	10,4	34,8	Xitoy	8,9	18,3	38,6
Yel-28	-	36,6	23,6	Yel-28	-	28,5	25,6
Hindiston	2,1	3,6	6,2	Bangla-desh	0,6	2,6	5,1
AQSh	4,8	7,1	4,6	Vyetnam	-	0,9	3,7
Turkiya	1,4	2,4	4,0	Turkiya	3,1	3,3	3,3
Koreya Respublikasi	5,8	8,2	3,9	Hindiston	2,3	3,0	3,2
Tayvan (Xitoy)	5,9	7,7	3,3	Indoneziya	1,5	2,4	1,7
Pokiston	2,6	2,9	3,1	AQSh	2,4	4,4	1,3
Yaponiya	5,6	4,5	2,2				

Manba: International Trade Statistics 2014. WTO. Geneva, 2014. p. 106, 110.

Tahlillar ko'rsatishicha, 1990–2013-yillarda jahon kiyim-kechak bozorida Vyetnam va Bangladeshning ulushi keskin oshdi. 1990-yilda bu mamlakatlarning jahon kiyim-kechak bozoridagi ulushi mos ravishda 0,0 va 0,6 %ga teng bo'lgan bo'lsa, 2013-yilda bu ko'rsatkichlar 3,7 va 5,1 %ga yetdi. Bu mamlaktlarning jahon to'qimachilik mahsulotlari eksportidagi ulushi ham o'sgan. 2013-yilda Hindistonda to'qimachilik mahsulotlari eksporti 19 mlrd. dollarga yetdi va bu mamlakatning jahon to'qimachilik mahsulotlari eksportidagi ulushi 1990-yildagi 2,3 %dan 2013-yilda 3,2 %gacha o'sdi. Turkiya va Hindistonning jahon to'qimachilik mahsulotlari eksportidagi ulushi esa, mos ravishda 1990-yildagi 1,4 % va 2,1 %dan 2013-yilda 4,0 % va 6,2 %gacha o'sdi.

Xulosa qilib aytganda, jahon tayyor mahsulotlar eksportida Xitoyning ulushini o'sib bormoqda. Bir qator tovarlar bo'yicha sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning jahon eksportidagi ulushi esa aksincha qisqarib bormoqda.

Asosiy tushunchalar

Ichki bozor — barcha ishlab chiqarilgan va sotishga mo'ljallangan mahsulotlarni ichki bozorda sotishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar sohasi.

Milliy bozor — muayyan mamlakat bozori bo'lib, uning bir qismi xalqaro ayriboshlash (mahsulot va xizmatlar eksporti va importi) bilan bog'liq.

Xalqaro bozor — xorijiy bozorlar bilan bog'liq va xorijiy xaridor hamda sotuvchiga yo'naltirilgan milliy bozorlar segmentining yaxlitligi.

Jahon bozori — jahonning barcha mamlakatlar bozorlarini umumlashtiruvchi sintetik tushuncha.

Savdo qilinadigan mahsulotlar — xorijiy bozorlarda ayirboshlanadigan mahsulotlar.

Savdo qilinmaydigan mahsulotlar — ishlab chiqarilgan mamlakat bozorida sotilib, xalqaro ayirboshlashda ishtirok etmaydigan mahsulotlar.

Jahon bozori konyunkturasi — muayyan davriy va geografik miqyosda qator omillar ta'sirida vujudga keladigan bozorning aniq holati.

Nazorat savollari

1. Jahon bozoriga qanday omillar ta'sir etadi va ular qanday guruhlarga ajratiladi?
2. Jahon bozori konyunkturasi nima va unga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Tayyor mahsulotlar bozorida narxlarning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar tizimi nimalardan iborat?
4. Xalqaro savdoda qo'llaniladigan narxlarning qanday turlari mavjud?
5. Jahon qayta ishlash sanoati mahsulotlari bozori holatini baholang va rivojlanish tendensiyalarini aniqlang.
6. Qayta ishlash sanoatining tarmoq tarkibini aniqlang va tarmoqlarni guruhlang.
7. Jahon qayta ishlash sanoati mahsulotlari bozorining geografik tarkibi qanday ko'rinish va rivojlanish tendensiyalariga ega?
8. Jahon kiyim-kechak bozori tarkibini va rivojlanish tendensiyalarini aniqlang.

23-BOB. JAHON XOMASHYO VA OZIQ-OVQATLAR BOZORI

23.1. Jahon xomashyo bozorlarining rivojlanish xususiyatlari

Jahon xo'jaligining rivojlanishida tabiiy resurslar bilan bog'liq bo'lgan muammolar muhim rol o'ynaydi. Ushbu muammolar milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish, moliya-valyuta va tashqi iqtisodiy faoliyat kabi sohalariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jahon xo'jaligida ishlab chiqarish sohalarining ko'payishi xomashyo resurslari iste'molining ortib borishiga sabab bo'ladi. Jahon iqtisodiyotida xomashyo mahsulotlari iste'molining o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- jahondagi tovar ishlab chiqarish darajasi — tovar ishlab chiqarishning o'sishi xomashyoga bo'lgan talabning o'sishiga olib keladi;
- ilmiy-texnika taraqqiyoti — ilmiy-texnika taraqqiyoti pirovard mahsulot birligiga to'g'ri keladigan harajatlar darajasining pasayishi va tarkibining o'zgarishiga olib keladi.

Iqtisodiy rivojlanishda tabiiy foydali qazilma boyliklarning sanoat zaxiralari muhim ahamiyatga ega. Sanoat zaxiralari deganda mavjud narxlar va texnikaviy bilimlar darajasida o'zlashtirish uchun samarali, sifatli va yaxshi o'rganilgan tabiiy foydali qazilma boyliklar zaxiralari tushuniladi. Bunday resurslar miqdori jahon xo'jaligida nisbatan cheklangan.

Har qanday tovar ishlab chiqarishning moddiy asosini xomashyo tashkil etadi. Mahsulotlar tarkibida xomashyoning ulushi mahsulot turiga qarab o'zgarib turadi. Masalan, ushbu ko'rsatkich mashinasozlikda 10–12 %gacha, asosiy kimyoviy sintez mahsulotlarida esa 80–90 %gacha yetadi.

Tabiiy xomashyo resurslari aksariyat mamlakatlar iqtisodiyoti uchun jiddiy ahamiyatga ega bo'lib, mamlakat boyligi va daromad keltiruvchi manbalardan biridir.

Tabiiy resurslar quyidagi mezonlarga ko'ra guruhlanadi:

- tabiiy muhitga bog'liqligi;
- tugallanishi;
- foydalanish yo'nalishi;
- fizik holati.

Resurslar tabiiy muhitga bog'liqligiga ko'ra esa quyidagilarga bo'linadi:

- litosfera (foydali qazilmalar, yer va tuproq resurslari);
- gidrosfera (muzliklar, suvlar, quruqlik va dunyo okeani);
- atmosfera (shamol, iqlimiy va rekreatsion);
- biosfera (flora va fauna).

Qazib chiqarish tarmoqlari jahon milliy mahsulotining 11 %ni tashkil etadi. Ushbu soha hissasiga sanoat ishlab chiqarishining 1/3 qismi to'g'ri keladi. Mineral resurslar ko'plab davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi va foyda olishida muhim rol o'ynaydi.

Xomashyo iste'moli dinamikasini quyidagi omillar belgilaydi:

- moddiy ishlab chiqarish darajasining o'sishi xomashyoga bo'lgan talabning o'sishiga olib keladi;
- ilmiy-texnik taraqqiyoti tayyor mahsulot ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlarning kamayishi va tarkibining o'zgarishiga olib keladi.

Jahon yalpi iste'molining o'sishi cheklangan resurslardan foydalanish muammosini keltirib chiqaradi. Resurslarning cheklanganligi, yer kurrasi va okeanda qancha mavjudligi ularga xos xususiyat hisoblanadi. Nazariy jihatdan mineral resurslar uzoq vaqt intensiv ishlatish oqibatida tugashi mumkin. Ammo yer kurrasida mavjud aksariyat resurslarning umumiy hajmi iste'mol qilinayotganidan minglab, millionlab marta ko'pdir. Misol uchun, 1990-yilda sanoat zaxiralarining o'rtacha yillik iste'molga nisbati temir rudasi bo'ycha 250 yilni, nikel bo'yicha — 76, alyuminiy bo'yicha — 280, kumush bo'yicha — 60, ko'mir, tabiiy gaz va neft bo'yicha — mos ravishda 400, 71 va 45 yilni tashkil etgan. Qazib chiqarish hajmining ortishi natijasida xomashyo zaxiralari miqdori kamayib bormoqda. Shu bilan birga sanoat uchun ishlatiladigan xomashyodan samarali, tejamkorlik bilan foydalanish va yangi konlarni qidirib topish resurslarni ko'paytiradi. XVF ma'lumotlariga ko'ra 2007–2013-yillarda neft va tabiiy gazning aniqlangan zaxiralari o'rtacha 1,2 martaga oshgan (23.1.1-jadval).

23.1.1-jadval

Jahon yoqilg'i zaxiralarini aniqlash, qazib chiqarish va iste'mol qilish

	2007-y.	2013-y.
Aniqlangan zaxiralar		
Neft, mlrd. barrel	1,399	1,688
Tabiiy gaz, trln. kub. metr	161	186
Ko'mir, mln. tonna	...	89,531
Qazib chiqarish		
Neft, bir kunda ming barrel	82,383	86,808
Tabiiy gaz, mln. kub. metr	2,963	3,370
Ko'mir, mln. tonna	6,593	7,896
Iste'mol		
Neft, bir kunda ming barrel	86,754	91,331
Tabiiy gaz, mln. kub. metr	2,954	3,348
Ko'mir, neft ekvivalentida mln. tonna	3,204	3,827

Manba: World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. October 2014. IMF, 2014. P. 27.

Tabiiy resurslarning zaxiralari jahonda mintaqa va mamlakatlar o'rtasida notekis taqsimlangan. Rivojlangan mamlakatlar hissasiga yoqilg'i bo'lmagan resurslar zaxirasining taxminan 36 %, neftning 5 % va qayta ishlab chiqarish sanoatining 80 % to'g'ri keladi. Tahlillar 2013-yilda jahonda aniqlangan neft zaxiralarining miqdori 1,688 mln. barrelni tashkil etgani, jami zaxiralarning 18,2 % Eron, 16,8 % Rossiya, 13,3 % Qatar, 9,4 % Turkmaniston, 5,0 % AQSh ga to'g'ri kelganligini ko'rsatmoqda (23.1.2-jadval).

23.1.2-jadval

Neft, tabiiy gaz, ko'mirning aniqlangan zaxiralari, qazib chiqarish va iste'molining geografik tarkibi

	2007-y.	2013-y.
Aniqlangan zaxiralar (jahon zaxiralariga nisbatan foiz hisobida)		
Eron	17,4	18,2
Rossiya	18,9	16,8
Qatar	15,8	13,3
Turkmaniston	1,5	9,4
AQSh	4,2	5,0
Qazib chiqarish (jahon qazib chiqarish hajmiga nisbatan foiz hisobida)		
AQSh	18,4	20,4
Rossiya	20,0	16,8
Eron	4,2	4,9
Qatar	2,1	4,7
Kanada	6,2	4,6
Iste'mol (jahon iste'moliga nisbatan foiz hisobida)		
AQSh	22,1	22,0
Rossiya	14,3	12,4
Eron	4,3	4,8
Xitoy	2,4	4,8
Yaponiya	3,1	3,5

Manba: World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. October 2014. IMF, 2014. P. 27.

Rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga esa yoqilg'i bo'lmagan mineral resurslarning 50 %dan ortig'i, neft va gaz zaxiralaring 80 %dan ko'prog'i va qayta ishlash sanoati mahsulotlarining 30 % to'g'ri keladi. Sanoatbop fosfat zaxiralarining 90 %, kobaltning 88 %, mis va nikel zaxiralarining yarmidan ko'pi rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli hisoblanadi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSh ning asosiy muammolaridan biri bu neft mahsulotlariga bo'lgan talab, ehtiyojlarini qondirishdir. G'arbiy Yevropa mamlakatlarining neft mahsulotlariga bo'lgan talabi qazib chiqariladigan neft miqdoridan 2,5 barobar, AQSh da esa 1,9 barobar ortiq bo'lib, Yaponiyada neftga bo'lgan talabning deyarli 100 % import hisobidan qoplanadi. Yel da neft va neft mahsulotlari importining yarmidan ortig'i OPEK mamlakatlari (31,2 %) va Rossiya (24,0 %) hissasiga to'g'ri keladi (23.1.3-jadval).

23.1.3-jadval
Yel neft va neft mahsulotlari importining geografik tarkibi, 2000–2010-yy.

	2000-y.	2005-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.
OPEK mamlakatlari	39,3	32,3	30,9	30,5	31,2
Rossiya	15,5	21,0	20,0	23,2	24,0
Ozarbayjon	0,6	0,7	2,2	2,4	2,6
Qozog'iston	1,5	3,0	3,1	3,0	3,6
Norvegiya	10,5	8,6	6,8	7,3	6,0
Lotin Amerikasi mamlakatlari	2,2	2,5	2,7	2,6	2,5
Afrika va Karib havzasi mamlakatlari	6,5	6,1	8,3	7,7	7,1
Boshqalar	23,9	25,8	26,0	23,3	23,0
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Manba: Кондратьев Д. Перспективы евро для России: плюсы и минусы. //Экономист, №12, 2011. С. 72.

Tahlillar jahon xomashyo bozori uchun xos quyidagi xususiyatlarni ajratish imkonini beradi:

- mineral xomashyoning xalqaro savdoda muhim kategoriyalaridan biri ekanligi — jahon tovar eksportining 13 % mineral xomashyo hissasiga to'g'ri keladi, mineral xomashyo tarkibining 75 %ni esa yoqilg'i materiallari tashkil etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan mineral xomashyo yetkazib berishda neftning ulushi ortib bormoqda;
- xomashyo resurslarining aksariyati rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda zarur bo'ladigan mablag'larning asosiy manbayi ekanligi — bu holat o'z navbatida milliy iqtisodiyotlarningi xomashyo eksportiga bog'lanib qolishiga olib keladi;
- jahon xomashyo bozori ijtimoiy tarkibida muomala sohasining muhim o'ringa egaligi — tabiiy resurslardan foydalanishda xalqaro kompaniyalar faol ishtirok etadi va ularning aksariyat qismi tabiiy resurslarni qazib chiqarish va sotishga ixtisoslashgan;
- mineral xomashyo narxini belgilanishda renta munosabatlarining muhim ahamiyatga egaligi — ushbu xarajatlarning hajmiga ta'sir etuvchi omillar sifatida qazib chiqarishning tog', geologik shart-sharoitlari, ruda tarkibida foydali xomashyo miqdori va joylashgan o'rni muhim hisoblanadi. Uzoq muddatli rejalashtirish asosida foydali birikmalarga boy bo'lmagan konlarni o'zlashtirish doimo xarajatlarning muntazam ortib ketishiga olib kelmaydi;

- qazib chiqarishning ochiq usulida quvvatli texnikalardan samarali foydalanishning muhimligi — ushbu usul joriy xarajatlarni sezilarli darajada qisqartiradi, zaxirasi kam ruda konlarini tadqiq etish ularning iqtisodiy jihatdan nafliligini orttiradi;
- tabiiy xomashyo resurslari narxlarining o'zgaruvchanligi (23.1.4-jadval).

23.1.4-jadval
Mineral xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'zgarishi

	1996–2005-yy.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.
Neft	6,4	20,5	10,7	36,4	-36,3	27,9	31,6	1,0	-0,9
Yoqilg'idan tashqari birlamchi sektor mahsulotlari	4,6	23,1	13,9	7,9	-15,8	26,5	17,9	-10,0	-1,2
shu jumladan:									
Oziq-ovqat	4,6	10,2	14,8	24,5	-14,8	11,9	19,9	-2,4	1,1
Ichimliklar	6,0	8,4	13,8	23,3	1,6	14,1	16,6	-18,6	-11,9
Qishloq xo'jalik xomashyosi	3,4	8,7	5,0	-0,7	-17,1	33,2	22,7	-12,7	1,6
Metallar	5,2	56,2	17,4	-7,8	-19,2	48,2	13,5	-16,8	-4,3

Manba: World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. October 2014. IMF, 2014. P. 197.

Tabiiy xomashyo resurslari narxlarini o'sib borish tendensiyasiga renta munosabatlari bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tog'-kon sanoatida ishlab chiqaruvchilar narxi, odatda, faoliyat yuritayotgan konlarda mahsulot tannarxi eng yuqori bo'lgan korxonalar bilan belgilanadi. Bu holat boshqa ishlab chiqaruvchilarga ham renta olish imkonini beradi.

23.2. Jahon oziq-ovqat bozorining tarkibi va rivojlanish xususiyatlari

Xo'jalik faoliyatining globallashuvi hamda xalqaro mehnat taqsimotining tobora chuqurlashib borishi barcha turdagi tovarlar xalqaro savdosini jadal sur'atlarda rivojlantirmoqda. Shu bilan birga xalqaro miqyosda qishloq xo'jaligi xomashyosi va oziq-ovqat mahsulotlari savdosi tayyor sanoat mahsulotlari savdosiga qaraganda past sur'atlarda rivojlanmoqda. Shu bois jahon tovar aylanmasida agrar mahsulotlar ulushi asta-sekin pasayib bormoqda va 2010-yilda uning jahon eksportidagi ulushi 9,2 %ni tashkil etdi. Ushu holat ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida agrar soha eksportining past sur'atlarda o'sayotganini aks ettirsa-da, amalda eksport va import hajmi natura va qiymat ko'rsatkichlarida oshib bormoqda.

Jahonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish manbalari va omillari quyidagilardan iborat:

1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining dastlabki sharti yer resurslaridir. Shimoliy Amerika va Avstraliya yirik yer resurslariga ega (tegishlicha kishi boshiga 23,6 va 15,5 ga to'g'ri keladi). Rivojlanayotgan mamlakatlarning birontasi Shimoliy Amerika va Avstraliyadagidek katta yer resurslariga ega emas. Faqat Lotin Amerikasida har bir kishi hisobiga qishloq xo'jalik yerlarining nisbatan yuqori

ko'rsatkichlari qayd etilgan — 1,5 ga. Rivojlanayotgan mamlakatlarda umumiy hisobda har bir kishiga 0,67 gektar, jahon bo'yicha esa — 0,82 ga qishloq xo'jalik yerlari to'g'ri keladi.

Yer resurslari tarkibida ishlov beriladigan yer maydonlari (sug'oriladigan, haydaladigan yerlar) hajmi muhim ahamiyatga ega. So'nggi o'n yillarda ishlov beriladigan yer maydonlari hajmi ko'rsatkichini jahon miqyosida aholi sonining o'sishiga nisbatan pastligi tufayli aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yer maydoni 0,23 gektargacha kamaydi. Ushbu ko'rsatkichning qisqarishi Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Afrikaning Sahroyi Kabiridan janubda joylashgan mamlakatlar va rivojlangan mamlakatlarda yuz berdi. Bunday sharoitlarda mahsulot ishlab chiqarishning ko'payishi ishlab chiqarishni intensivlashuvi hisobiga ta'minlandi.

2. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirishning muhim omili qishloq xo'jaligida kimyoviy usullardan foydalanish bo'ldi. Kimyoviy o'g'itlarni, zararkunandalar va begona o'tlar bilan kurashish vositalarini qo'llash asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi umumiy o'sishining 40 foizini ta'minladi. Agar 1973-yilda butun dunyoda 1 gektar haydaladigan yerlar va ko'p yillik ekinlarga 60 kg o'g'itlar solingan bo'lsa, 2000–2002-yillarda — 99 kg o'g'itlar ishlatildi. Mineral o'g'itlarning eng yirik dozalari Uzoq Sharq va Yevropa mamlakatlarida qo'llaniladi. Rivojlangan mamlakatlarda ekologik harakat ta'sirida mineral o'g'itlardan foydalanish miqdori har bir gektarda 132 dan 121 kg gacha kamaydi. Mineral o'g'itlar Afrika mamlakatlarida oz miqdorlarda — 1 ga ishlov beriladigan yerlar va ko'p yillik o'simliklarga 13,2 kg. qo'llaniladi.

3. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishning muhim manbasi qishloq xo'jalik yerlarini sug'orish hisoblanadi. Misol uchun, 2000–2002-yillarda jahonda ishlov beriladigan yerlarning 19,7 % sug'oriladigan yerlarni tashkil etgani holda (1980-yilda — 17,7 %) ular yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining taxminan 40 %ni ta'minladi. Yerlarni sug'orishning yuqori ko'rsatkichlari Janubiy Osiyo (41,2 %), Sharqiy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlarida (38,4 %) qayd etilgan. Tropik Afrika mamlakatlarida esa ishlov beriladigan yerlarning boryo'g'i 4,2 % sug'oriladigan yerlar hissasiga to'g'ri keladi.

4. Ilmiy tadqiqotlar, birinchi galda donli ekinlar va yem-xashak ekinlarining (soyali dukkaklilar, makkajo'xori, pomidor, raps) yuqori hosildor gibridlari va genetik yangi navlarini yaratish yo'nalishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensifikatsiyalashga salmoqli hissa qo'shdi. Transgen ekinlar maydonlari 18 ta mamlakatda 2,8 mln. gektardan 67,7 mln. gektargacha ko'paydi. Transgen mahsulotlarni ishlab chiqarishning asosiy ulushi AQSh (43 %), Argentina (14 %), Braziliya, Xitoy va Janubiy Afrika Respublikasiga to'g'ri keladi. Dehqonchilikda ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarining qo'llanilishi donli ekinlar hosildorligining 33 %dan ortiq o'sishiga olib keldi. Donli ekinlar hosildorligi o'rtacha har gektaridan 3,1 tonnani tashkil qildi.

Jahonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Masalan, 1990–2002-yillarda oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi 1,3 baravar ortdi va aholining o'sishi sur'atlariga tenglashdi. Jahonda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi, ishlab chiqarishdagi qulay tarkibiy o'zgarishlar boshqa ijobiy tendensiyalar uchun zamin yaratdi, jumladan, so'nggi yarim asr davomida asosiy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishi qiymati pasaydi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat ekinlari ulushining ortishi va texnik ekinlar ulushining pasayishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Oziq-ovqat ekinlari tarkibida insonning ovqatlanishi uchun eng muhimi don mahsulotlari bo'lib qolmoqda. Tahlillar ko'rsatishicha, g'alla ekinlari hisobiga jahon

aholisi o'zining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarining 50 %ga yaqinini qondiriladi. Ushbu nisbat tobora chorvachilik mahsuloti (17 %) foydasiga o'zgarib bormoqda. 1 kg go'shtni intensiv ishlab chiqarish uchun o'rtacha 4–5 kg ozuqa talab qilinsa, uning 50 %ni don tashkil qiladi.

Jahon oziq-ovqat ishlab chiqarishida asosiy o'rinni agrosanoat majmuasi tashkil etadi. Agrosanoat majmuasi yirik tarmoqlararo majmua bo'lib, qishloq xo'jaligi xomashyosini yetishtirish va qayta ishlash, jamiyat ehtiyojlari va aholi talabiga muvofiq tayyor mahsulotni ishlab chiqarish va sotishga yo'naltirilgan turli tarmoqlarni birlashtiradi.

Agrosanoat majmuasiga qishloq xo'jaligi mashinasozligi, agrar sektor mahsulotini qayta ishlash, qishloq xo'jalik, savdo, transport korxonalari kiradi va ular oziq-ovqat mahsulotlari, qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash natijasida olinadigan sanoat mahsulotlarini yaratish va taqsimlash jarayoniga bevosita yoki bilvosita jalb qilingandir. Taxminiy baholarga qaraganda, agrosanoat majmuasining jahon YaMM idagi ulushi 20–25 %ni tashkil etadi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarilishida mashinalar, asbob-uskunalar va kimyoviy o'g'itlardan foydalanish hajmining kengayishi, shuningdek xomashyoni qayta ishlashning chuqurlashuvi va xizmatlar sohasi korxonalari (savdo, transport va jamoat ovqatlanishi) sonining ko'payishi hisobiga yanada ortib bormoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotining muayyan qismi sanoat iste'moliga yo'naltiriladi. Sof texnik ekinlar — paxta, kanop, natural kauchuk, tamakilardan tashqari, sanoatda qayta ishlashga oziq-ovqat sektori mahsulotining bir qismi yo'naltirildi, jumladan, bevosita qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ayrim sohalari bo'lmish yem-xashak, o'g'itlar ishlab chiqarishga xos. Masalan, go'sht vaznini 1 kg ga oshirish uchun 4–5 kg aralash yem-xashak kerak, uni tayyorlash uchun esa soya, makkaxo'jori, ozuqa doni va boshqa ingrediyentlar talab etiladi. Dengiz balig'i o'g'itlar olish uchun yoki ozuqaviy qo'shimchalar sifatida qo'llanilishi mumkin, 1 kg krevetkalarni yetishtirish uchun esa 5 kg gacha baliq sarflash kerak bo'ladi. Hayvon proteinlari — go'sht, dengiz mahsulotlariga bo'lgan talabning o'sishi yem-xashak ekinlari ishlab chiqarishni tegishlicha ko'paytirishni talab qiladi.

Dunyo mamlakatlarini aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash darajasiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy eksportyorlari (AQSh, Kanada, Avstraliya, JAR, Tailand va Yevropa Ittifoqining ayrim mamlakatlari).
2. Oziq-ovqat mahsulotlarini faol eksport qiluvchi kichik mamlakatlar (Vengriya, Finlyandiya).
3. Oziq-ovqat mahsulotlari yetishmasligi mavjud va ularni sotib olish imkoniga ega mamlakatlar (Yaponiya).
4. Oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini zo'rg'a ta'minlovchi mamlakatlar (Hindiston, Xitoy, Janubiy Amerika mamlakatlari).
5. Oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasi global oziq-ovqat holatiga ta'sir ko'rsatmaydigan mamlakatlar (Papua-Yangi Gvineya, Islandiya).
6. Oziq-ovqat yetishmasligi tufayli o'zini o'zi ta'minlash maqsadida suv va yer resurslarini o'zlashtirayotgan mamlakatlar (Misr, Indoneziya, Pokiston, Filippin).
7. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash darajasi muntazam ravishda yomonlashayotgan mamlakatlar (Afrikaning Saxroyi Kabiridan janubda joylashgan mamlakatlar).
8. Aholi soni resurs imkoniyatlaridan jadal sur'atlarda rivojlanayotgani tufayli oziq-ovqat inqirozi yuzaga kelayotgan mamlakatlar (Gaiti, Nepal, Salvador).

2005–2013-yillarda jahon oziq-ovqat bozorlarida oziq-ovqat mahsulotlari eksporti yiliga o'rtacha 10 %ga ortib borgani holda 2013-yilda 1 trln. 457 mlrd. dollarni tashkil etdi (23.2.1-jadval).

23.2.1-jadval.
Jahonda oziq-ovqat mahsulotlari eksportining o'zgarishi

	Hajmi, mlrd. doll.	Jahon eksportidagi ulushi, %		O'tgan yillarga nisbatan o'zgarish, %		
	2013-y.	2005-y.	2013-y.	2005–2013-yy.	2012-y.	2013-y.
Jahon bo'yicha	1457	100,0	100,0	10	1	6
shu jumladan:						
Yevropa	466	39,7	32,0	7	-3	8
Osiyo	172	9,8	11,8	12	3	2
Shimoliy Amerika	87	6,7	6,0	8	5	4
Janubiy va Markaziy Amerika	60	2,3	4,1	18	6	20
Afrika	51	1,7	1,2	5	-12	4

Manba: International trade statistics 2014. World Trade Organization. Switzerland, 2014. P. 121.

Oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo'jalik xomashyosi, jumladan, ularni ishlab chiqarish va qayta ishlash uchun zarur mahsulotlar savdosiga jahonning deyarli barcha mamlakatlari jalb qilingan. So'nggi yillarda dunyoda ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlari va ularni ishlab chiqarish uchun zarur xomashyoning kamida to'rtdan bir qismi xalqaro biznes kanallariga kelib tushadi.

Mavjud statistika ma'lumotlari tahlili ko'rsatishicha, jahon oziq-ovqat mahsulotlari savdosining katta qismi mintaqalar doirasida amalga oshiriladi. Ushbu holat transport xarajatlarini tejash nuqtayi nazaridan amalga oshiriladi. Masalan, 2013-yilda Yevropa oziq-ovqat mahsulotlari eksportining 76,4 % Yevropa mintaqasi ichki savdosi hissasiga to'g'ri keldi.

Tahlillar ko'rsatishicha, Osiyo va Afrika qit'alari aholini oziq-ovqat mahsulotlari, birinchi galda bug'doy va go'sht bilan ta'minlashda ancha yuqori taqchillikka ega mintaqalar hisoblanadi. Shuningdek, Yevropa qit'asining jahon bozoriga asosiy oziq-ovqat mahsulotlari turlarini yetkazib berishdagi roli keskin oshib borayotganini kuzatish mumkin, vaholanki XX asr o'rtalarigacha Yevropa oziq-ovqat mahsulotlarini import qiluvchi yirik mintaqa hisoblangan.

Shu bilan birgalikda XX asrda jahon oziq-ovqat mahsulotlari bozorida yetakchi o'rin egallagan Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliyaning tutgan mavqeyi pasaydi. Ushbu holat ustun darajada YeI ning yagona qishloq xo'jalik siyosatini amalga oshirishdagi muvaffaqiyatlari bilan belgilanadi.

Jahon oziq-ovqat mahsulotlari bozorida YeI-28, AQSh, Braziliya, Xitoy, Kanada, Argentina yirik oziq-ovqat eksporyorlari hisoblanadi. Tahlillar, rivojlangan mamlakatlar jami eksportida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 8–9 %ni tashkil etgani holda rivojlanayotgan mamlakatlarda (Xitoydan tashqari) ushbu ko'rsatkichning 12–50 %gacha ekanligini ko'rsatmoqda. Bu holat rivojlangan mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi (23.2.2-jadval).

23.2.2-jadval
Jahonda oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qiluvchi yirik mamlakatlar

	Hajmi, mlrd. doll.			Jami eksportdagi ulushi, %	
	1990-y.	2000-y.	2013-y.	2000-y.	2013-y.
Yel-28	...	189,4	566,0	44,0	38,9
AQSh	42,4	54,3	142,0	12,6	9,7
Braziliya	8,7	12,8	82,0	3,0	5,6
Xitoy	7,9	13,6	60,0	3,1	4,1
Kanada	...	...	47	4,1	3,2
Argentina	7,0	11,5	33,7	2,7	2,8

Manba: International Trade Statistics 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 73.

Jahon oziq-ovqat mahsulotlari bozorida Yel-28 (569,0 mlrd. doll.), AQSh (123,0 mlrd. doll.), Xitoy (99,0 mlrd. doll.), Yaponiya (72,0 mlrd. doll.), Rossiya (42,0 mlrd. doll.), Kanada (34,0 mlrd. doll.) kabi mamlakatlar yirik oziq-ovqat importyorlari hisoblanadi (23.2.3-jadval).

Ta'kidlash joizki, Yaponiya, Meksika, Braziliya, Koreya Respublikasi va Rossiyadan tashqari boshqa barcha qayd etilgan mamlakatlar bir vaqtning o'zida oziq-ovqat mahsulotlarining yirik eksportyorlari va importyorlari hisoblanadi. Ushbu holat tovarlar assortimenti, diversifikatsiyalashuvi darajasining yuqoriligidan dalolat beradi va bu tendensiya ko'proq yuqori daromadli mamlakatlarga xos hisoblanadi.

23.2.3-jadval
Jahonda oziq-ovqat mahsulotlarini import qiluvchi yirik mamlakatlar

	Hajmi, mlrd. doll.			Jami tovarlar importidagi ulushi, %	
	1990-y.	2000-y.	2013-y.	2000-y.	2013-y.
Yel-28	...	200,0	569,0	43,5	36,9
AQSh	30,1	51,2	123,0	11,1	8,0
Xitoy	4,6	9,0	99,0	2,0	6,4
Yaponiya	34,2	48,6	72	10,5	4,6
Rossiya	...	8,3	42	1,5	2,7
Kanada	7,1	12,0	34	2,6	2,2

Manba: International Trade Statistics 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 74.

XX asr boshlarida jahon oziq-ovqat mahsulotlari savdosidagi nizoli masala xalqaro savdoda turli tarif va notarif cheklovlarni bekor qilish orqali uni yanada erkinlashtirilishi hisoblanadi. 1995-yilda JST doirasida ishlab chiqilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari bo'yicha shartnoma umuman savdoning erkinlashtrilishi, mahsulot ishlab chiqarish va eksportning davlat tomonidan subsidiyalanishini qisqartirish, rivojlangan mamlakatlar oziq-ovqat mahsulotlari bozoriga rivojlanayotgan mamlakatlardan mahsulot yetkazib berishni soddalashtirishni nazarda tutgan bo'lsa-da, uning shartlari muntazam ravishda bajarilmasdan kelinmoqda.

23.3. Jahon oziq-ovqat inqirozi va uni hal etish yo'llari

2007–2008-yillarda boshlangan qishloq xo'jalik mahsulotlari va oziq-ovqat tovarlarining narxining keskin o'sib borishi tendensiyasi davom etmoqda. FAO ma'lumotlariga ko'ra ushbu davrda 55 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxi keskin o'sdi. Jumladan, 2010-yilda oziq-ovqat mahsulotlari narxi 24,3 %ga va 2011-yilda esa 11 %ga, jumladan rivojlanayotgan mamlakatlarda 20 %gacha oshdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari narxlari, asosan, rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy o'sish natijasida aholi tarkibida o'rta sinfning shakllanishi tufayli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib ketishi, bioyoqilg'i ishlab chiqarish hajmining ko'payshi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi asosiy mamlakatlardagi tabiiy iqlimning noqulay kelishi bilan bog'liq omillar ta'sirida sodir bo'ldi.

Jahon oziq-ovqat inqirozi — Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarning surunkali iqtisodiy qoloqligi oqibatidir. Jumladan, FAO ma'lumotlariga ko'ra 2012–2014-yillarda 805 mln. kishi, jahon aholisining 10 tasidan 1 tasi to'yib ovqatlanmaydi va jahonda har yili 10030 mln. kishi ochlikdan vafot etgan[1].

Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining keskin oshib ketishi. BMT, Jahon banki, XVF, Jahon oziq-ovqat dasturi va Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) 2008-yil martida jahon hamjamiyatiga oziq-ovqat inqirozi xavf solayotganini rasman e'lon qildi. 2008-yilning 1 aprelida oziq-ovqat inqirozi jahonning 39 ta mamlakatini qamrab oldi. 2009-yildan boshlab jahondagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari keskin oshib ketdi (deyarli 40 %). 2010-yilning dekabrida esa oziq-ovqat mahsulotlarining narxi navbatdagi rekord darajada qimmatlashdi.

Tizimli-iqtisodiy sabablar. BMT ekspertlari va jahonning yetakchi mutaxassislari g'alla, guruch narxlarining nazoratsiz o'sib borishi va buning oqibatida sodir bo'ladigan inqirozning yagona sababi — bozor iqtisodiyotining qiymatli (pullik) neoklassik paradigmasiga bog'liq bo'lib jahon bozor iqtisodiyoti qiymat ko'rsatkichlariga asoslanib, ishlab chiqariladigan tovarlarning moddiy-ashyoviy nomenklaturasini hisobga olmaydi degan g'oyaga asoslanadi. Bu paradigma negizida quyidagi to'rtta eski postulatlar yotadi:

- hamma narsani pul hal qiladi;
- iqtisodiyotning haqiqiy motivatsiyasi foyda olish;
- xizmatlar sohasini sun'iy oshirish hisobiga mahsulot ishlab chiqarishsiz foyda olish;
- pul bo'lsa zarur iste'mol tovarlarini sotib olish mumkin.

Tor texnokrat-pragmatiklar egosentrizmi: texnika va texnologiyalarning qudratini mutlaqlashtirish. Texnokratlarning mazkur guruhi XX asrning oxirgi choragida ilmiy-texnik revolyutsiya dunyoning yirik korporatsiyalari, mamlakatlar va xalqlarning texnologik xulq-atvori uslubini belgilab berdi. Industrial ishlab chiqarishdagi texnik yutuqlar, aviakosmik va chuqur suvosti texnikasining jadal rivojlanishi texnikaning qudratli ekanligi va tabiat qonuniyatlariga qarshi borib bo'ysundira olishiga texnokratlarni ishontirdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'sishining aniq iqtisodiy sabablari. Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlariga talabning keskin oshishi, jahon bug'doy zaxirasi miqdorining so'nggi 30-yil ichida kritik darajagacha

1 Food and Nutrition in Numbers 2014. Food and Agriculture Organization of the United Nations, Rome, 2014. p. 12, 12.

kamayib ketishi, davlat daromadlarining bir qismini jahon bozorida neft narxining oshib ketgani tufayli energiya resurslarini sotib olishga sarflanishi, transport xizmatlari qiymatining ortishi, proteksionizm siyosati asosida «qo'shnini honavayron qilish» tamoyili bo'yicha guruch yetishtiradigan mamlakatlarning o'zaro savdo urushlari, jahonning ayrim mamlakatlari tomonidan bug'doy, guruch, makkajo'hori, kartoshka, soya, qand lavlagi va palma yog'idan bioyonilg'i ishlab chiqarish uchun foydalanilishi.

Ekologik-iqlimiy sabablar. Bu yerda gap so'nggi 50-yil ichida insoniyatning antropogen-texnogen faoliyati natijasida ekologik muvozanatning buzilishi haqida boradi. Ushbu sababga ko'ra, so'nggi yillarda sayyoramizda noqulay iqlimiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Oqibatda 2007-yilda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari — Xitoy, Vyetnam, Bangladesh, Indoneziya, Filippinda guruch hosili qisman nobud bo'ldi.

FAO prognozlariga ko'ra jahonda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish uchun zarur bo'ladigan ishlab chiqarish hajmini muntazam ravishda oshirib borish zarur. Jumladan, 2020-yilda oziq-ovqatga bo'lgan qo'shimcha talabni qondirish uchun 88,9 mln. tonna bug'doy, 89,2 mln. tonna sholi, 107,5 mln. tonna makkajo'xori, 36,7 mln. tonna go'sht va go'sht mahsulotlari, 89,5 mln. tonna sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish zarur bo'ladi (23.3.1-jadval).

So'nggi o'n yilliklar ichida dunyoda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. 1990–2000-yillarda zaruriy oziq-ovqat mahsulotlarining eng kam miqdorini ham olmayotgan aholi ulushi 13 %ga qisqardi. Shunga qaramasdan, 2008-yildagi oziq-ovqat inqirozi natijasida to'yib ovqatlanmayotganlar soni ortib 2010-yilda 926 million kishini yoki rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining 16 %ni tashkil etdi. Har yili rivojlanayotgan mamlakatlarda 20 mln. bola oriq tug'ilib, to'yib ovqatlanmaslik 5 mln. bolaning o'limiga sabab bo'ladi va tirik qolganlari esa turli kasalliklarga chalinadi.

23.3.1-jadval

Oziq-ovqatga bo'lgan o'sib borayotgan qo'shimcha talabni qondirish uchun zarur bo'ladigan ishlab chiqarish hajmi, mln. tonna

	2008-yildagi ishlab chiqarish hajmi	2020-yilda talabni qondirish uchun zarur bo'ladigan ishlab chiqarish	2020-yilda ishlab chiqarish hajmini qo'shimcha oshirish zarurligi
Bug'doy	683,4	772,3	88,9
Guruch	685,8	775,1	89,2
Makkajo'hori	826,2	933,7	107,5
Go'sht va go'sht mahsulotlari	282,1	318,8	36,7
Sut va sut mahsulotlari	687,7	772,2	89,5

Manba: Ведомости, №214 (2980), 14.11.2011. С. 17.

Tahlillar ko'rsatishicha, jahonda to'yib ovqatlanmayotganlar soni 201–2014-yillarda 1990–1992-yillarga nisbatan 18,7 %dan 11,3 %ga, ya'ni 1,0 mlrd. kishidan 805,3 mln. kishigacha qisqargan. Qashshoqlarning mutlaq ko'pchiligi Osiyo (18,8 %) va Afrikada (20,5 %) yashaydi (23.3.2-jadval).

23.3.2-jadval
Jahonda to'yib ovqatlanmaydigan aholi ulushi, foiz hisobida

Mintaqalar	1990–1992-yy.	2012–2014-yy.
Jahon bo'yicha	18,7	11,3
Rivojlanayotgan mamlakatlar	23,4	13,5
Afrika mamlakatlari	27,7	20,5
Osiyo–Tinch okeani mamlakatlari	39,4	18,8
Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari	15,3	6,1
Rivojlangan mamlakatlar	5,0 dan kam	5,0 dan kam

Manba: Food and Nutrition in Numbers 2014. Food and Agriculture Organization of the United Nations, Rome, 2014. p. 12, 56.

Jahon oziq-ovqat inqirozi dunyo mamlakatlari oldida oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni hal etish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi birinchi bor 1974-yilda Jahon oziq-ovqat sammitida taklif qilingan bo'lib, «oziq-ovqat iste'molining barqaror o'sishini ta'minlash hamda ishlab chiqarish hajmi va narxlarning o'zgarishlarini qoplash uchun asosiy oziq-ovqatlarning dunyoda yetarli jamg'armalari doimo mavjudligini» anglatadi. [1] Keyingi yillarda oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi va to'yimliligi hamda shaxsiy xohishlarni ham inobatga olish maqsadida oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi kengaytirildi. Oziq-ovqat xavfsizligi sohasida mavjud zamonaviy adabiyotda 200 dan ortiq tushunchalar va 450 ko'rsatkichlar mavjud.

2001-yilda oziq-ovqat xavfsizligi g'oyasiga jismoniy va iqtisodiy imkoniyatdan tashqari ijtimoiy imkoniyat tushunchasi ham qo'shildi. Hozirgi FAO belgilagan tushuncha mazkur qo'shimcha jihatni quyidagicha aks ettiradi: «barcha kishilar o'z ovqatlanish ehtiyojlari va shaxsiy xohishlariga binoan faol va sog'lom hayotni ta'minlash uchun yetarli miqdorda xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo'lish uchun jismoniy, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarga egaligi oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanganligini bildiradi». [2]

Oziq-ovqat xavfsizligi barcha odamlarning faol, sog'lom turmushini ta'minlash uchun yetarli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarining doimo mavjudligi sifatida belgilanadi. Xavfsizlik asosini oziq-ovqat mahsulotlarining yetarliligi, kishilar tomonidan ularni jismoniy va iqtisodiy jihatdan sotib olish uchun to'lov qobiliyati tashkil qiladi.

Oziq-ovqat xavfsizligi turli jahon, mintaqa, milliy, mahalliy va uy xo'jaliklari darajalarida belgilanadi.

Jahon oziq-ovqat xavfsizligi shuni nazarda tutadiki, butun dunyo yaxlit tizim sifatida o'sib borayotgan aholi ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli miqdorda oziq-ovqatlarni ta'minlashi lozim. Bunda savdo jarayonida to'siq bo'lmasligi, narxlar barqaror darajada ushlab turilishi va shu tariqa mamlakatlar ehtiyojiga qarab import hisobiga o'z talablarini qondira olishi darkor. Buning uchun ishlab chiqarishning

1 United Nations. 1975. Report of the World Food Conference, Rome 5–16 November, 1974. New York.
2 FAO. 2002. The State of Food Insecurity in the World 2001. Rome.

keskin pasayib ketishi yoki narxlarning keskin oshib ketishidan himoyalanish uchun zarur zaxiralarni ta'minlash tizimini yaratish zarur.

FAO tomonidan ishlab chiqilgan jahon oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat: [1]

- jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun g'alla zaxiralarining aholi iste'moliga nisbati 17–18 %ga teng bo'lishi zarur;
- jamg'armalarning beshta asosiy eksportyorlarga bo'lgan talablar ko'rsatkichi;
- beshta asosiy eksportyorlardagi zaxiralarning o'z ichki iste'moli va eksportga nisbati;
- uchta asosiy importyorlarda donli ekinlar hosili (Xitoy, Hindiston va MDH);
- kam daromadli va oziq-ovqat tanqis bo'lgan mamlakatlarda donli ekinlarning yetishtirilishi;
- Xitoy va Hindistondan boshqa kamdaromadli va oziq-ovqat tanqis bo'lgan mamlakatlarda yetishtirilgan mahsulot.

Oziq-ovqat xavfsizligi barcha mamlakatlardagi mavjud zaxiralar hisobiga iste'molni ta'minlashi mumkin bo'lgan kunlar miqdori bilan o'lchanadi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ishonchli ta'minlashning minimal darajasi o'tgan hosildan olingan, dunyo oziq-ovqat iste'molining 17 %ni tashkil qiluvchi va taxminan ikki oy davomida oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli bo'lgan jahon zaxiralaridir. Faqatgina 1970–1990-yillarda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ishonchli ta'minlashning minimal darajasi 40 kungacha qisqargan. Chunonchi, 1995-yilda don zaxiralari jahon iste'molining 14 %gacha tushib ketdi, bu esa donli mahsulotlar narxining jiddiy o'sishiga olib keldi. Hisob-kitoblarga qaraganda, dunyo miqyosida oziq-ovqat mahsulotlari aholi iste'molini qondirish uchun yetarli miqdorda ishlab chiqarilmoqda.

Ochlik va to'yib ovqatlanmaslik bo'yicha umumiy vaziyatning ijobiy o'zgarishi jahonning aksariyat mintaqalarida iqtisodiy holatning yaxshilangani bilan bog'liq. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha jiddiy siljish Xitoy, Hindistonda erishildi, jumladan ushbu mamlakatlarda to'yib ovqatlanmaydigan aholi ulushi 21 %dan 16 %gacha qisqardi. To'yib ovqatlanmayotgan aholining mutlaq va nisbiy soni qisqargan bo'lsa-da, doimo och yuradigan odamlar yoki to'yib ovqatlanmaydigan odamlarning umumiy soni kattaligicha saqlanib qolmoqda.

23.4. O'zbekistonda oziq-ovqat ishlab chiqarishning rivojlanish tendensiyalari

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi. Mazkur strategiya qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, paxta yakkahokimligiga barham berish, mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari, birinchi navbatda g'alla bilan ta'minlash, oziq-ovqat mustaqilligiga erishish vazifasini hal etishga qaratildi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarining mamlakat YaIM dagi ulushi 1990-yildagi 33,4 %dan 2010-yilda 17,5 %gacha, paxta xomashyosining ulushi 15,9 %dan 1,9 %gacha tushdi, don, sabzovatlar, meva yetishtirish ulushi esa mutanosib ravishda 1,4, 1,3 va 0,7 %dan 2,0, 2,3 va 1,1 %gacha ortdi (23.4.1-jadval).

1 Measurements: A Technical Review. New York and Rome: UNICEF and IFAD.

23.4.1-jadval
YalM da qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining o'zgarishi, %

	1990-y.	2000-y.	2010-y.
Yalpi mahsulot, jami	33,4	30,1	17,5
Paxta xomashyosi	15,9	3,6	1,9
Don	1,4	3,4	2,0
Kartoshka	0,3	0,8	1,4
Sabzavotlar	1,3	2,4	2,3
Poliz mahsulotlari	0,5	0,3	0,3
Meva	0,7	0,9	1,1
Uzum	0,8	0.8	0,9

Manba: Manba: Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011–2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: статистик тўплам. — Т.: «Ўзбекистон», 2011. 42-б.

Agrar sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida jiddiy ijobiy o'zgarishlarga erishish qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi, oziq-ovqat yetishtirish va chorva mahsuldorligining oshishi uchun zamin tayyorladi. Qishloq xo'jaligini isloh etish borasida aniq maqsadga qaratilgan ishlar natijasida quyidagi yutuqlarga erishildi:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yalpi hajmida, asosan, dehqon xo'jaliklarida qoramollar sonining oshishi hisobidan chorva mahsulotlarining ulushi 1990-yildagi 36,6 %dan 2012-yilda 41,9 %ga yetdi, bu esa go'sht ishlab chiqarish hajmining 789,1 ming tonnadan 1672,9 ming tonnaga (2,1 barobar ko'p), sutning 3034,2 ming tonnadan 7310,9 ming tonnaga (2,4 barobar), tuxumning 1231,8 million donadan 3873,7 million donaga (3,1 barobar) ko'payishiga samarali ta'sir ko'rsatdi;
- paxta xomashyosining yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlaridagi ulushi qisqarib, 47,7 %dan 11,1 %ga tushdi, dehqonchilik va chorvachilikning boshqa mahsulotlari ulushining o'sishi, asosan, ularning hosildorlik va mahsuldorlik darajasining oshishi hisobidan ta'minlandi;
- g'alla maydonlarini kengaytirish va hosildorligini oshirish natijasida boshoqli don yetishtirish hajmi 1990-yilgi 2038,2 ming tonnadan 2012-yilda 7519,5 ming tonnaga yetdi;
- kartoshka — 6,1 barobar, poliz mahsulotlari — 1,4 barobar, meva — 3,1 barobar, uzum — 1,6 barobar ortdi;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga ixtisoslashgan zamonaviy minitexnologiyalar bilan jihozlangan korxonalar tashkil etildi. Natijada meva-sabzavot va go'sht-sut mahsulotlarini qayta ishlash hajmi 2000-yilga nisbatan 3 barobar oshdi.

Bug'doy, sabzovotlar, dukkaklilar va poliz ekinlarini yetishtirish hajmining jiddiy ko'payishi O'zbekistonda oziq-ovqat bilan ta'minlanganlik darajasini yaxshilash imkonini berdi (23.4.2-jadval).

23.4.2-jadval
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

	O'lchov birligi	1990-y.	2000-y.	2010-y.	2012-y.
Yalpi mahsulot, jami	mlrd. so'm	...	1387,2	15810,7	24370,3
shu jumladan:					
Paxta xomashyosi	ming t.	5057,7	3002,4	3442,8	3460,1
Don	ming t.	2038,2	4101,4	7504,3	7519,5
Kartoshka	ming t.	336,4	731,1	1694,8	2057,1
Sabzavot	ming t.	2842,5	2644,7	6346,5	7767,4
Poliz	ming t.	1000,0	451,4	1182,4	1418,4
Meva	ming t.	660,4	790,9	1710,3	2052,8
Uzum	ming t.	744,7	624,2	987,3	1206,0
Go'sht (tirik vaznda)	ming t.	789,1	841,8	1461,4	1672,9
Sut	ming t.	3034,2	3632,5	6169,0	7310,9
Tuxum	mln. dona	1231,8	1254,4	3061,2	3873,7
Jun	ming t.	25,8	15,8	26,5	31,1

Manba: Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011–2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: статистик тўплам. — Т.: «Ўзбекистон», 2011.47-б.; Ўзбекистон Республикаи йиллик статистик тўплами. — Т., 2013.226–250-бетлар.

1991–2012-yillarda O'zbekistonda donli ekinlar yetishtirishdagi keskin o'zgarish hosildorlikni oshirish va ekin maydonlarini kengaytirish hisobiga sodir bo'ldi. Sobiq Ittifoq inqirozidan keyin don mustaqilligini ta'minlashga yo'naltirilgan agrar siyosatning amalga oshirilishi ushbu yuksalishga zamin yaratdi. Bug'doy yetakchi oziq-ovqat ekiniga aylandi. Bug'doy ekish uchun ajratilgan maydonlar 1991-yildan 2012-yilgacha 196 %gacha ko'paydi — (488 ming. ga dan qariyib 1,6 mln. ga cha). Ekin maydonlarining kengayishi va hosildorlikning 242 %ga ortishi asosida bug'doy yetishtirishni 83 %ga o'sishi ta'minlandi. 2012-yilda bug'doy barcha donli ekinlar yalpi mahsulotining 87,9 %ni tashkil etdi.

Bug'doy yetishtirish ko'payganligi tufayli 2003-yilga kelib O'zbekiston ichki iste'molida don importi koeffitsiyenti keskin kamaydi. 1992-yilda O'zbekiston ichki iste'molida don importi koeffitsiyenti 82,2 %ni tashkil etgani holda ushbu koeffitsiyent 2003-yilga kelib 4,5 %ga teng bo'ldi. O'zbekistonda don mustaqilligiga erishish siyosati don yetishtirishni samarali tarzda ko'paytirish imkonini berdi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va aholi daromadlarini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida aholi sonining 38,2 %ga o'sishi bilan bir vaqtda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi oziq-ovqat iste'moli go'sht va go'sht mahsulotlari (22,6 %), sut va sut mahsulotlari (30,6 %), tuxum (42,3 %), poliz mahsulotlari (2,2 marta), kartoshka (1,5 marta), mevalar (3,6 marta), shakar (1,4 marta) mahsulotlari bo'yicha sezilarli darajada ortdi (23.4.1-diagramma).

23.4.1-diagramma
O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli, aholi jon boshiga, kg.



	Go'sht va go'sht mahsulotlari	Sut mahsulotlari	Tuxum (dona)	Poliz mahsulotlari	Kartoshka	O'simlik moyi va boshqa yog'lar	Qand	Mevalar
1990-y	31	183	97	107	29	12	12	23
2010-y	38	239	138	238	45	13	17	83

Manba: Муродов Ч., Саатова Х., Ильина Д. Обеспечение продовольственной безопасности: суть и значение осуществляемых мер по повышению эффективности сельскохозяйственного производства. //Экономический вестник Узбекистана, №4, 2011. С. 72.

Jahon oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorlari tahlili ko'rsatishicha, istiqbolda oziq-ovqat iste'moli ortib, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bilan bog'liq muammolar chuqurlashib boradi. Ushbu sharoitda O'zbekiston aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdan tashqari mintaqada oziq-ovqat mahsulotlari eksportyoriga aylanishi mumkin.

Asosiy tushunchalar

Sanoat zaxiralari — mavjud narxlar va texnikaviy bilimlar darajasida o'zlashtirish uchun samarali, sifatli va yaxshi o'rganilgan tabiiy foydali qazilma boyliklar zaxiralari.

Agrosanoat majmuasi — qishloq xo'jaligi xomashyosini yetishtirish, qayta ishlash, jamiyat ehtiyojlari, aholi talabiga muvofiq tayyor mahsulotni ishlab chiqarish va sotishga yo'naltirilgan turli tarmoqlarni birlashtiruvchi yirik tarmoqlararo majmua.

Sof texnik ekinlar — sanoatda qayta ishlanadigan, bevosita qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ayrim sohalari hisoblangan yem-xashak, o'g'itlar ishlab chiqarish bilan bog'liq ekinlar.

Jahon oziq-ovqat inqirozi — bioyoqilg'i ishlab chiqarish hajmining ko'payishi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi asosiy mamlakatlardagi tabiiy iqlimning noqulay kelishi sababli oziq-ovqat narxlarining keskin o'sib ketishi sababli Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmasligi.

Oziq-ovqat xavfsizligi — oziq-ovqat iste'molining barqaror o'sishini ta'minlash hamda ishlab chiqarish hajmi va narxlarning o'zgarishlarini qoplash uchun asosiy oziq-ovqat zaxiralarining doimo mavjudligi.

Jahon oziq-ovqat xavfsizligi — butun dunyo yaxlit tizim sifatida o'sib borayotgan aholi ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash imkoniyatlarining mavjudligi.

Ijtimoiy imkoniyat — barcha kishilar o'z ovqatlanish ehtiyojlari va shaxsiy xohishlariga binoan faol va sog'lom hayotni ta'minlash uchun yetarli miqdorda xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo'lish uchun jismoniy, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarga egaligi.

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ishonchli ta'minlashning minimal darajasi — o'tgan yilgi hosildan olingan, dunyo oziq-ovqat iste'molining 17 %ni tashkil qiluvchi va taxminan ikki oy davomida oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli bo'lgan jahon zaxiralari.

Nazorat uchun savollar

1. Jahon xo'jaligining rivojlanishida tabiiy xomashyo resurslari qanday ahamiyatga ega?
2. Jahon iqtisodiyotida xomashyo mahsulotlari iste'molining o'zgarishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Jahon xomashyo bozorlari uchun qanday xususiyatlar xos?
4. Jahon oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish manbalari va omillari nimalardan iborat?
5. Jahondagi oziq-ovqat mahsulotlari eksport va import qiluvchi mamlakatlarga qanday mamlakatlar kiradi?
6. Dunyo mamlakatlari aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash darajasiga ko'ra qanday guruhlarga ajratiladi?
7. Jahon oziq-ovqat mahsulotlari bozorining tarkibiga baho bering.
8. Jahon oziq-ovqat inqirozining sabablari nimalardan iborat?
9. Oziq-ovqat xavfsizligi nima va u qanday ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi?
10. O'zbekistonda oziq-ovqat ishlab chiqarishning rivojlanish tendensiyalariga baho bering.

24-BOB. XALQARO XIZMATLAR SAVDOSI

24.1. Xalqaro xizmatlar: mohiyati, turlari va guruhlanishi

Jahon xo'jaligidagi milliy iqtisodiyotlarning XXI asr bo'sag'asidagi xususiyati shundaki, uning tarkibida xizmatlar sohasining ulushi barqaror sur'atlarda o'sib bormoqda. Xizmatlar sohasining pirovard natijasi tovarlar ko'rinishida emas, balki buyumlashgan noyob iste'mol qiymatlari — xizmatlar hisoblanadi.

XX asrning 80-yillaridayoq jahon yalpi ichki mahsulotining 64 % xizmatlardan iborat bo'lishiga qaramasdan uzoq davr mobaynida xizmatlar xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanida chuqur o'rganilmagan. Shu munosabat bilan xizmatlar tushunchasi ta'rifida iqtisodiy adabiyotda yakdillik bilan umumqabul qilingan ilmiy yondashuvlar yo'q.

Xalqaro xizmatlar savdosi sohasini o'rganishdagi birinchi vazifa xizmatlarga ta'rif berish va uning iqtisodiy faoliyatning boshqa turlaridan farqlarini aniqlab olish zarur.

Xizmatlar — ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi kelishuv munosabatlari asosida boshqa shaxslarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan (mehnat qonuniy munosabatlari asosidagi faoliyatdan tashqari) faoliyat hisoblanadi.

24.1.1-rasm.
Xalqaro xizmatlar savdosining xususiyatlari va usullari



Xizmatlar — bu jamiyat, uy xo'jaligi a'zolari, turli korxonalar, birlashmalar, tashkilotlarning ehtiyojlarini qondiruvchi moddiy-ashyoviy shaklga ega bo'lmagan iqtisodiy faoliyatdir. Xususan, 1993-yildagi milliy hisoblar tizimida xizmatlar tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: «xizmatlar egalik huquqi qo'llaniluvchi moddiy obyektlar shaklini qabul qila olmaydi. Xizmatlar realizatsiyasi ularni ishlab chiqarish jarayonidan ajralmasdir. Xizmatlar iste'molchilar buyurtmasiga, asosan, ishlab chiqaruvchilar tomonidan ko'rsatiluvchi va odatda, shu xizmatlarni iste'mol qiluvchi birliklar holatining o'zgarishiga olib keluvchi turli faoliyatlar hisoblanadi. Xizmatlarning ishlab chiqarilishi tugatilgan vaqt — bu xizmatlarni iste'molchilarga taqdim qilinishi vaqti bilan mos keladi»[1].

Xizmatlar sohasi rivojlanishining fundamental asosi hisoblanuvchi moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishi va xizmatlar sohasida xalqaro mehnat taqsimoti xizmatlar turlari ko'payishiga olib keldi.

1 Руководство по статистике международной торговле услугами. ООН: Нью-Йорк. 2004. С. 8.

Xizmatlar qator xususiyatlariga ko'ra, xizmatlarni yetkazib beruvchi va iste'molchi o'rtasidagi bevosita munosabatlar o'rnatilishiga ko'ra tovarlardan farq qiladi.

Xizmatlar o'ziga xos mehnat mahsuli bo'lib, moddiy shaklga ega emas, lekin ba'zi xizmatlar moddiy ne'mat shakliga ega bo'lishi mumkin: masalan, kompyuter dasturlari uchun magnit tashuvchilar, qog'ozda bosib chiqarilgan turli xil hujjatlashtirish shaklida. Ammo Internetning rivojlanishi va keng tarqalishi xizmatlar uchun moddiy qobiqdan foydalanish zaruriyatini kamaytirmoqda; uning iste'mol qiymati jonli mehnatning foydali ta'sirida ifodalanadi. Transport kompaniyalari, qurilish firmalari, aloqa korxonalari, axborot agentliklari va hokazo xizmatlar shular jumlasidandir. Ularning mehnati nomoddiy shakldagi aniq mahsulotni ishlab chiqarib, bu mahsulot oldi-sotdi obyekti, iste'mol predmeti va h. k. ko'rinishda bo'lishi mumkin. Shu tarzda xizmat mehnatning o'ziga xos mahsuli sifatida moddiy tovar shaklida emas, balki ma'lum bir funksiyalarni bajaruvchi mehnatning o'zi sifatida namoyon bo'ladi. Xizmatlar tovarlardan farqli o'laroq, asosan bir vaqtda ishlab chiqariladi, iste'mol qilinadi va saqlashga moyil emas. Shu tufayli xorijda xizmatlarning bevosita ishlab chiqaruvchilarining mavjud bo'lishi yoki xizmatlar ishlab chiqarilayotgan mamlakatda xorijiy iste'molchilarning mavjud bo'lishi talab qilinadi. Xizmatlarni kapital sig'imkor va fan sig'imkor bo'lishi, sanoat xususiyatiga ega bo'lishi yoki shaxsiy ehtiyojlarni qondirishi, maxsus malaka talab qilmaydigan yoki ijrochining yuqori malakasini talab qilishi mumkin. Lekin xizmatlarning hamma turi tovarlarga qaraganda xalqaro ayirboshlashda ishtirok etishga yaroqli emas, (masalan, kommunal xizmatlar). Xizmatlar sohasi qoidaga ko'ra moddiy ishlab chiqarish sohasiga qaraganda davlat tomonidan xorijiy raqobatdan yuqori darajada himoya qilinadi. Tovarlar va xizmatlarning bir-biridan farqli jihatlari jadvalda aks ettirilgan (24.1.1-jadval).

24.1.1-jadval
Tovar va xizmatlar farqi

Tovarlar	Xizmatlar
Sezilarli	Sezilmaydigan
Ko'rinuvchi	Ko'rinmas
Saqlashga moyil	Saqlashga moyil emas
Tovarlar savdosi har doim ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmaydi	Xizmatlar savdosi odatda ishlab chiqarish bilan bog'liq
Tovarlar eksporti xorijga qayta olib kirish majburiyatisiz tovarlarni bojxona hududidan olib chiqishni anglatadi	Xizmatlar eksporti norezidentga, agar u mamlakatning bojxona hududida bo'lsa ham xizmat ko'rsatishni anglatadi

Ko'pgina xizmatlarning sezilmas va ko'rinmasligi tufayli ularning savdosini ba'zida ko'rinmas (invisible) eksport va import deb atashadi. Tovarlardan farqli ravishda xizmatlarni ishlab chiqarish ularning eksporti bilan bir shartnoma doirasida birlashtirilgan bo'ladi, sotuvchi va sotib oluvchining bevosita uchrashuvini talab qiladi. Ammo bu holda ko'pgina istisnolar mavjud. Masalan, ba'zi xizmatlar seziluvchan (maslahatchining bosib chiqarilgan dokladi yoki disketadagi kompyuter dasturi), ko'rish imkoniga ega (teatr tomoshasi yoki soch turmagi), saqlashga moyil (telefon avtootvetchik xizmati) va doimo sotuvchi va xaridorning to'g'ridan to'g'ri aloqasini talab qilmaydi (bankda debitorlik kartochkasi bo'yicha avtomat ravishda pul berish).

Xalqaro tovarlar savdosi va xizmatlar savdosi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Tovarlarni xorijga yetkazib berishda bozorlarni tahlil qilishdan boshlab tovarlar transportirovkasigacha bo'lgan ko'pgina xizmatlar ko'rsatiladi. Xalqaro aylanmaga

kelib tushuvchi ko'pgina xizmatlar turlari tovarlar eksporti va importi tarkibiga kiritiladi. Shu bilan birga xizmatlar savdosi an'anaviy tovarlar savdosiga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Xalqaro xizmatlar savdosi tovarlar savdosi bilan qiyosiy taqqoslanganda quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- chegarada emas balki mamlakat ichida ichki qonunchilikka mos ravishda tartibga solinadi. Xizmatning chegara bilan kesishganlik haqidagi faktning mavjud yoki mavjud emasligi xizmat eksporti mezoni bo'la olmaydi;
- xizmatlar saqlashga moyil emas, ular bir vaqtda ishlab chiqariladi va iste'mol qilinadi. Shu tufayli ko'pgina xizmatlar turlari ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri shartnomalarga asoslanadi;
- xizmatlarni ishlab chiqarish va realizatsiyasi moddiy ishlab chiqarish, savdoga qaraganda davlat himoyasiga ega. Ko'pgina mamlakatlarda transport, aloqa, moliyaviy va sug'urta xizmatlari, ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash butunlay yoki qisman davlat mulki tarkibida va uning qat'iy nazorati ostida bo'ladi;
- xalqaro xizmatlar savdosi tovarlar savdosi bilan chambarchas aloqada va unga kuchli ta'sir qiladi. Masalan, xizmatlar sohasining katta hajmda texnik xizmatni, axborot va maslahat xizmatlarini talab qiluvchi fan sig'imkorligi yuqori tovarlar savdosiga ta'siri katta;
- xizmatlarning hamma turi tovarlarga nisbatan savdo predmeti bo'la olmaydi. Asosan, ichki iste'molga kelib tushuvchi xizmatlar xalqaro xo'jalik aylanmasi tarkibiga kiritilmaydi.

Xalqaro xizmatlarning guruhlanishi. XXI asr boshlarida xizmatlarning jahon iqtisodiyotida va xalqaro savdodagi o'rni birinchi navbatda ilmiy texnika inqilobi, xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi, ko'pgina jahon mamlakatlarida aholi daromadlarining va xarid qobiliyatining oshishi natijasida jadal o'sib bormoqda. Jahon bozorida savdo qilinuvchi xizmatlar tarkibi turlicha bo'lib, ularning soni 600 dan ortiq. Shu bois ularni tasniflash, ma'lum bir guruhlarga ajratish xalqaro miqyosda muzokaralar olib borish, xizmat turlari va xizmatlar savdosi to'siqlari haqida ma'lumotlar bazasini yaratish, xalqaro xizmatlar savdosi bo'yicha statistika hisobini olib borish kabi masalalarni hal qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Hozirda ko'pgina xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon savdo tashkiloti, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Birlashgan millatlar tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevrostat tomonidan xizmatlar klassifikatori ishlab chiqilgan.

Xizmatlar xalqaro ayirboshlash nuqtayi nazaridan ikki guruhga ajratiladi:

- savdo qilinmaydigan xizmatlar — ular ishlab chiqarilgan mamlakatda iste'mol qilinadi, ya'ni ishlab chiqaruvchi va iste'molchi bir mamlakat rezidenti hisoblanadi. Bunday xizmatlarga kommunal va maishiy xizmatlar kiradi.
- savdo qilinadigan xizmatlar — ular bir mamlakat rezidenti tomonidan ishlab chiqariladi va boshqa mamlakat rezidenti tomonidan iste'mol qilinadi. Bu xizmatlarga turizm, transport, bank xizmatlari va boshqalar kiradi.

Jahon banki guruhi xizmatlarni ishlab chiqarish omillari nuqtayi nazaridan quyidagi guruhlarga ajratadi:

- omilli xizmatlar (factor services) — ishlab chiqarish omillari, asosan kapital va ishchi kuchining xalqaro harakati natijasida paydo bo'luvchi xizmatlardir.
- omil bo'lmagan xizmatlar (non-factor services) — ularga transport, turizm va boshqa nomoliyaviy xizmatlar kiradi[1].

1 Кокушкина И. В., Воронин М. С. Международная торговля и мировые рынки. — СПб.: «Техническая книга», 2007. С. 257.

Bu taqsimot, asosan, omilsiz xizmatlarga e'tiborini qaratgan Jahon savdo tashkiloti doirasida xalqaro xizmatlar savdosini tartibga solish muammolarini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xizmat ko'rsatish ko'p hollarda tovarlar savdosi bilan bir vaqtda yoxud u yoki bu mamlakatga investitsiyani amalga oshirish orqali sodir bo'ladi. Shuning uchun iste'molchilarga xizmatlarni yetkazib berish uslublariga ko'ra xizmatlar quyidagilarga bo'linadi:

- investitsiya bilan bog'liq xizmatlar — bank, mehmonxona va mutaxassis xizmatlari;
- savdo bilan bog'liq xizmatlar — transport, sug'urta xizmatlari;
- bir vaqtning o'zida investitsiya va savdo bilan bog'liq xizmatlar — aloqa, qurilish, kompyuter va axborot xizmatlari, shaxsiy, madaniy va rekreatsiya xizmatlari.

XX asrning 90-yillarida Urugvay raundi doirasida JST tarkibiga kiruvchi Xizmatlar savdosi bo'yicha Bosh bitim qabul qilindi. 1991-yilda JST sekretariati a'zo mamlakatlar yig'ilishidan keyin GATS doirasida «Bo'limlar bo'yicha xizmatlar tasniflanishi ro'yxati (GNS/W/120)» ni ishlab chiqdi. Bu ro'yxatda xizmatlar sohasini tartibga soladigan normativ hujjatlarga muvofiq keluvchi bo'limlar va bo'limostilar keltirilgan bo'lib, uning yordamida mamlakatlar normativ hujjatlarni hisobga olgan holda majburiyatlarini muhokama qilishlari va o'z zimmalariga olishlari mumkin. Shu tufayli GNS/W/120 ro'yxati statistik tasniflagich sifatida emas, balki muzokaralar olib borish uchun ishchi hujjat sifatida qaralishi kerak.

JST tomonidan ishlab chiqilgan GNS/W/120 ro'yxati 12 ta asosiy guruhga taqsimlangan 160 dan ortiq xizmat turlarini o'z ichiga oladi:

1. Ish xizmatlari (46).
2. Aloqa xizmatlari (25).
3. Qurilish va injenerlik xizmatlari (5).
4. Distribyutorlik xizmatlari (5).
5. Ta'lim sohasidagi xizmatlar (5).
6. Atrof-muhitni saqlash xizmatlari (4).
7. Moliyaviy xizmatlar (17).
8. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot xizmatlari (4).
9. Turizm va sayohat xizmatlari (4).
10. Dam olish, madaniyat va sport sohasi xizmatlari (5).
11. Transport xizmatlari (33).
12. Boshqa xizmatlar[1].

XVF tomonidan To'lov balansi bo'yicha qo'llanmaning 5-nashri ishlab chiqilgan bo'lib, unda rezident va norezident o'rtasidagi xizmatlar savdosini hisobga olish va tasniflash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

XVF tasnifiga ko'ra xizmatlar 11 ta tarkibiy qismlarga ajratiladi:

1. Transport xizmatlari.
2. Sayohatlar.
3. Aloqa xizmatlari.
4. Qurilish xizmatlari.
5. Sug'urta xizmatlari.
6. Moliya xizmatlari.
7. Kompyuter va axborot xizmatlari.
8. Royalti va litsenziya to'lovlari.

1 Руководство по статистике международной торговли услугами. ООН: Нью-Йорк. 2004. С. 14.

9. Boshqa ish xizmatlari.
10. Shaxsiy, madaniy va rekreatsiya xizmatlari.
11. Hukumat xizmatlari[1].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) hamda Yevrostat[2] tomonidan taklif qilingan qo'shma tasnif XVF tasnifi bilan chambarchas bog'liq. U to'lov balansida aks etadigan xizmatlar savdosi bo'yicha operatsiyalar uchun XVF tasnifining kengaytirilgan shakli sifatida ta'riflanishi mumkin. U rezident va norezident o'rtasidagi xizmatlar bilan bog'liq barcha operatsiyalarni qamrab oladi. Bu tasnifning asosiy kategoriyalari qurilish xizmatlarini hisobga olishdan tashqari XVF tasnifining 11 ta asosiy kategoriyalari bilan mos keladi. Qo'shma tasnif xorijda va mamlakat ichida qurilish bo'yicha ma'lumotlarni olishni ko'zda tutadi. Bu ma'lumotlar qurilish xizmatlarini ko'rsatish doirasida olingan tovar va xizmatlarni o'z ichiga oladi, XVF tasnifi esa tovar va xizmatlarni xarid qilish xarajatlarini boshqa ish xizmatlari yoki boshqa xizmatlar moddalari bo'yicha hisobga olishni maslahat beradi. Bu istisnoni hisobga olmaganda qo'shma tasnif asosida taqdim qilingan ma'lumotlar XVF talablariga javob beradi.

Qo'shma tasnif GNS/W/120 moddalarini, jumladan, moliyaviy va telekommunikatsiya xizmatlarini hisobga olishda birinchi urinish hisoblanadi hamda Yevropa Hamjamiyati doirasida yagona xizmatlar bozorini tashkil qilishning statistika natijalarini, xususan, moliyaviy xizmatlar, telekommunikatsiya va transport xizmatlari, turizm xizmatlari va audiovizual xizmatlar bilan bog'liq ko'rsatmalarni aks ettiradi[3].

BMT ning «Xalqaro xizmatlar statistikasi bo'yicha qo'llanmasi»da To'lov balansida aks etuvchi xizmatlarning kengaytirilgan tasnifi (TBXKK) tavsiya qilingan bo'lib, u Qo'shma tasnifning kengaytirilgan varianti hisoblanadi. TBXKK ga ko'ra xizmatlar 11 ta katta guruhga ajratiladi, bu guruhlar XVF tasnifi bilan mos keladi[4].

Yuqorida sanab o'tilgan tasniflar bir qarashda bir-biriga o'xshash ko'rinsa ham ular o'rtasida farqlar mavjud. Birinchidan, GNS/W/120 tasnifi tarkibiga davlat xizmatlari kiritilmagan. Ikkinchidan, GNS/W/120 da xizmatlar sifatida ko'riladigan operatsiyalar XVF tasnifida tovarlar sifatida hisobga olinadi, bu xorijga ta'mirlash uchun yuborilgan ko'pgina tovarlarning kelgusida qayta ishlash bilan bog'liq xizmatlariga taalluqlidir. Uchinchidan, XVF tasnifining ba'zi tarkibiy qismlari, jumladan, sayohatlar tovarlar bilan operatsiyalarni o'z ichiga oladi. To'rtinchidan, XVF tasnifiga royalti va litsenziya to'lovlari kiritilgan. GNS/W/120 ga esa franchayzing to'lovlaridan tashqari bu tarkibiy qism kiritilmagan.

GNS/W/120 tarkibiga ulgurji va chakana savdo shaklidagi distribyutorlik xizmatlari kiritilgan. XVF tasnifi va TBXKK da bu xizmatlar aniqlanmagan. MST da ulgurji va chakana savdo korxonalari tovarlarni sotib olib, qayta ishlashsiz yoki eng kam miqdorda qayta ishlab qayta sotuvchi subyektlar sifatida ta'riflanadi. Ular tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarga saqlash, namoyishni tashkil qilish va qulay joyga tovarlar assortimentini yetkazib berish xizmatlarini ko'rsatadilar. Bunday xizmatlar, xorijda tovarlarni qayta sotish xizmatidan tashqari, XVF tasnifida sanab o'tilgan xizmatlar bilan bog'liq xalqaro operatsiyalar tarkibiga kirmaydi.

Transport xizmatlariga bir mamlakat rezidenti tomonidan boshqa mamlakat rezidenti uchun amalga oshiriladigan barcha transport xizmat ko'rsatish shakllari

1 Руководство по статистике международной торговле услугами. ООН: Нью-Йорк. 2004. С. 19.
2 Organization for Economic Co-operation and Development and Eurostat. OECD Statistics on International Trade in Services (Brussels/Luxembourg and Paris, 2000), appendix 1: http://www.oecd.org/std/TISclass.pdf.
3 Руководство по статистике международной торговли услугами. БМТ: Нью — Йорк. 2004. С. 17.
4 O'sha manba. C. 21.

kiradi, ular tarkibiga yo'lovchilarni tashish, tovarlarni tashish (fraxt), ijara (charterli tashish), u bilan bog'liq yordamchi xizmatlar kiradi. Transport xizmatlari tarkibiga ba'zi o'zaro bog'langan quyidagi faoliyatlar kiritilmaydi: tashqi savdo yuklarini sug'urta qilish (sug'urta xizmatlari tarkibiga kiradi); yuk tashuvchi norezidentlar tomonidan xarid qilinuvchi tovarlar va transport uskunasini ta'mirlash (xizmat sifatida emas, tovar sifatida hisobga olinadi); temiryo'llarni, dengiz portlaridagi va aeroportlardagi qurilmalarni ta'mirlash (qurilish xizmatlari tarkibiga kiritiladi).

TBXKK va XVF tasnifida transport turi va xizmat shakli bo'yicha tasnifni amalga oshirish tavsiya qilinadi. Agar XVF tasnifi transportning uchta shaklini ajratishni tavsiya qilsa, TBXKK da transportning quyidagi sakkizta shakli ajratiladi: dengiz, havo transporti, temiryo'l, avtomobil yo'llari, ichki suv transporti, quvur orqali transportirovka qilish va boshqa yordamchi transport xizmatlari. TBXKK da XVF xizmatlar shakllari tasnifi tavsiya qilinadi — yo'lovchilarni tashish, yuk tashish va boshqa yordamchi xizmatlar.

TBXKK da sayohatlarni hisobga olishda sayohatlarning o'zini emas, balki sayohatga chiqqan yo'lovchilarni xarid qilgan tovar va xizmatlariga qarab hisobga olishni tavsiya qiladi. XVF tasnifida sayohatlarni ish bilan bog'liq va shaxsiy sayohatlarga bo'lish tavsiya qilinsa, TBXKK ushbu tarkibiy qismlarni yanada aniq xizmat turlariga ajratishni tavsiya qiladi.

TBXKK da XVF tasnifining aloqa xizmatlari tarkibini ikkita qismga bo'lishni tavsiya qiladi:

- pochta va kuryerlik xizmatlari;
- telekommunikatsiya xizmatlari.

TBXKK da XVF tasnifidan farqli ravishda kompyuter va axborot xizmatlari uch guruhga ajratiladi: kompyuter xizmatlari, axborot agentliklari xizmatlari va axborot berish bo'yicha boshqa xizmatlar.

Royalti va litsenziya to'lovlari. TBXKK da XVF tasnifidagi ushbu tarkibiy qismni franshiza va o'xshash huquqlar; boshqa royalti va litsenziya to'lovlariga ajratiladi. Franshiza va o'xshash huquqlar tarkibiga ro'yxatga olingan tovar belgilaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan franchayzing yig'imlari hamda royalti ko'rinishida kelib tushuvchi xalqaro to'lovlar va tushumlar kiradi. Boshqa royalti va litsenziya to'lovlariga qonun asosida nomoddiy, ishlab chiqarilmagan, nomoliyaviy aktivlardan hamda egalik huquqlaridan foydalanganlik uchun xalqaro to'lovlar va tushumlari kiradi (masalan, qo'lyozmalar, kompyuter dasturlari, kinematografiya mahsulotlari va ovoz yozuvlari). Bunga aktiv va huquqlarni to'g'ridan to'g'ri sotishdan tushgan to'lovlar va tushumlar kirmaydi (XVF tasnifiga ko'ra bu operatsiyalar xizmatlar sifatida emas, balki kapital bilan operatsiyalar ko'rinishida hisobga olinadi). Shuningdek, chegaralangan muddat davomida amal qiluvchi audiovizual mahsulotlarni ijaraga berish huquqi hisobga olinmaydi, audiovizual bilan bog'liq xizmatlar tarkibiga kiritiladi.

24.2. Xalqaro xizmatlar bozori: tarkibi, omillari va rivojlanish tamoyillari

Xalqaro xizmatlar savdosinining muhim tomoni shundaki, aksariyat hollarda xizmatlar bozorida xaridor bilan sotuvchi o'zaro aloqaga kirishishi zarur bo'ladi. Faqat shu holatdagina xizmatning xalqaro oldi-sotdisi amalga oshadi. Xalqaro xizmatlar savdosini amalga oshirishning qator usullari mavjud:

1. Transchegara savdo (cross-border trade) — sotuvchi va xaridor chegarani kesib o'tmaydi, balki faqat xizmat chegarani kesib o'tadigan vaziyat. Xizmatlar

savdosining ushbu usuli xalqaro savdoda tovarlar savdosiga yaqinlashtirilgan. Masalan, xorijdan telefon yoki faks orqali yuridik maslahat ko'rsatish yoki xorijiy o'quv tashkilotining korrespondentlik o'quv dasturida ishtirok etish.

2. Xorijda iste'mol qilish (consumption abroad) — bir mamlakat iste'molchisi boshqa mamlakat hududida xizmat sotib oladi va iste'mol qiladi. Bu holatda tovarlar savdosi bilan qiyosiy taqqoslangandagi farq shundaki, xizmatlar va xizmatlar sotuvchisi chegaradan o'tmaydi, uni xizmatlar iste'molchisi kesib o'tadi. Masalan, o'qishga yoki davolanishga xorijga ketish.

3. Xizmat ko'rsatuvchi mamlakatda sotuvchining hozir bo'lishi (commercial presence, yoki — right of establishment) — xizmat ko'rsatuvchi firma chegarani kesib o'tadi va boshqa mamlakat hududida xizmat ko'rsatishni amalga oshirish uchun vakillik yoki qiz firma ochadi. Xizmatning o'zi va uning iste'molchisi bu holatda chegarani kesib o'tmaydi.

4. Xizmat ko'rsatuvchi jismoniy shaxsning hozir bo'lishi (presence of natural persons providing services) — xizmat iste'molchisi joylashgan mamlakatga chegaradan kesib o'tuvchi odamlarning bevosita faoliyati bilan bog'liq. Masalan, bir mamlakatda o'z vakilligini ochish uchun xorijiy bank personali yoki chet ellik arxitektorning xorijdan kelishi[1].

Xalqaro xizmatlar savdosi xalqaro tovarlar savdosidan mutlaq ko'rsatkichlar bo'yicha ortda qolmoqda. Ushbu holatning sabablari quyidagilardan iborat:

- xizmatlarning aksariyat qismi mamlakatlar ichki bozorida sotilmoqda;
- xalqaro xizmatlar savdosining o'sib borishi texnik ta'minotning rivojlanishini talab qilmoqda;
- xalqaro savdoning erkinlashuvi, asosan, xalqaro tovarlar savdosi sohasida amalga oshmoqda. GATT/JST faoliyatidagi erkinliklar birinchi o'rinda xalqaro tovarlar savdosiga tegishlidir.

Ba'zi iqtisodchilarning fikriga ko'ra, to'lov balansining «xizmatlar» moddasi quyidagi sabablarga muvofiq jahon xizmatlar savdosining hajmini to'liq aks ettira olmaydi:

- ko'pchilik hollarda xizmatlar tovarlar savdosi bilan birga amalga oshirilganligi bois ularning qiymati tovarlar narxiga qo'shilib ketadi;
- ba'zi hollarda xizmatlar qiymatini aniqlash mumkin emas (masalan, kasalni dorilar yordamida davolash);
- xorijiy ishchilarning o'z vatanlariga jo'natayotgan ish haqlarini pul o'tkazmasi shaklida hisoblashning qiyinligi;
- agar bank va sug'urta operatsiyalari bo'yicha daromadlar shu mamlakatda qayta reinvestitsiya qilinsa ular statistik hisobga kiritilmaydi;
- TMK ning firma ichidagi savdo operatsiyalari jarayonida xizmatlar qiymatini aniqlash mumkin emas.

XX asr ikkinchi yarmi — XXI asr boshlarida xizmatlar sohasining jadal sur'atlarda o'sishi qator omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, bu davrda jahon iqtisodiyoti barqaror sur'atlarda rivojlandi va aholining turmush darajasi o'sdi. Ikkinchidan, rivojlangan mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, ishlab chiqarishning tarkibi murakkablashib, bozorlar tovarlar bilan to'yinib borgani sari xizmatlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Uchinchidan, ma'lum tovarlar guruhiga yangi iste'mol xususiyatlari qo'shildi (masalan, Internet bilan ta'minlangan mobil telefonlar) va bu holat xizmatlar sohasining rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi.

1 Дюмулен И. И. Международная торговля услугами. — М.: ЗАО Издательство «Экономика», 2003. С. 83.

Ilmiy-texnik rivojlanish sharoitida xizmatlar bozori rivojlanishining muhim omili bo'lib xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi hisoblanadi. Xalqaro xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarga, shuningdek, quyidagilar kiradi:

- korxonalarda ilgari amalga oshirilgan xizmatlarning transformatsiyalashuvi — firmalar va jismoniy shaxslar ilgari o'zlari amalga oshirgan xizmatlardan foydalanish uchun endilikda mutaxassislar yollamoqdalar. Ishlab chiqarish xizmatlari mustaqil sohaga ajraldi. Korxonaning shtat tarkibida yuqori malakali mutaxassislarga ega bo'lgandan ko'ra dasturiy ta'minot, loyihaviy-konstruktorlik ishlanmalar, bozorni o'rganish, yuridik xizmat ko'rsatish va boshqa xizmatlarga ixtisoslashgan firmalarga buyurtma berish foydaliroq bo'lib qoldi;
- Internet texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat ko'rsatish imkoniyatlarining kengayishi — aksariyat xizmatlarni ko'rsatishda ta'minotchi va iste'molchining bir joyda mavjud bo'lishi talab qilinmaydi. Masalan, uzoq masofalarga telekommunikatsiya yordamida moliyaviy xizmatlar ko'rsatiladi. Axborot olish tezligi va axborot sohasidagi xizmatlar iqtisodiyotning har qanday sohasida raqobatbardoshlikni oshirishning yetakchi omiliga aylandi;
- xizmatlarning muhim sektorlarida raqobatsiz bozorlardan raqobat mavjud bozorlarga transformatsiyalashish — temiryo'l transporti, elektr energiya, telekommunikatsiya uzatish, an'anaviy telefon liniyalarining o'rnini bosuvchi uyali aloqaning rivojlanishi;
- xizmatlarning aksariyat tarmoqlarida (masalan, moliya sohasida) TMKlarning paydo bo'lishi — yirik firmalar o'z faoliyat geografiyasini kengaytirish va ichki korporatsiya oqimlarini yengillashtirish uchun boshqa mamlakatlar bozoriga to'sqinlik qiluvchi to'siqlarni olib tashlash yoki kamaytirishda manfaatdor bo'ladilar.

Jahon xizmatlar bozorining rivojlanish tendensiyalari:

- fraxt (kira haqi) va boshqa transport xizmatlari ulushining pasayishi (xalqaro savdoda xomashyo ulushining qisqarishi bilan bog'liq);
- xizmatlar eksportida safarlar ulushining ortishi (transport vositalarining takomillashuvi, turizm infrastrukturasining rivojlanishi bilan bog'liq);
- «alohida xususiy xizmatlar» ulushining ortib borishi (moliya, sug'urta, auditor, maslahat va boshqa xizmatlar kiradi).

Xizmatlar sohasining rivojlanishi asosida quyidagi omillar yotadi:

- asosan an'anaviy xizmatlarga ehtiyojlar va talablarning ortishi;
- xizmatlar savdosini erkinlashtirish;
- iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan xizmatlarni mustaqil sohaga aylantirish;
- davlat xizmatlarini xususiylashtirish;
- xizmatlar savdosining tovarlar savdosiga bog'liqligi[1].

Xizmatlarga ehtiyojlar va talabning oshishi faqatgina daromadlarning ko'payishi va urf-odatlarning o'zgarishi bilan bog'liq emas. Aholi tarkibidagi o'zgarishlar muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki xizmatlar ehtiyojining katta qismini yoshlar va qariyalar tashkil qiladi. Aholi turmush darajasi sifatini oshirish maqsadi joriy daromad darajasini saqlaganda xizmatlar iste'molining oshishiga va noan'anaviy xizmatlarga iste'molchilar e'tiborining qaratilishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, noan'anaviy xizmatlar rivojlanishiga texnologik innovatsiyalar yordam beradi. O'z navbatida, iste'molchilar tomonidan xizmatlar sifatiga nisbatan talabchanligining oshishi kompaniyalarda an'anaviy va noan'anaviy xizmatlar sifatini yaxshilash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

1 Научные публикации. Банковский вестник. Красавік 2007. С. 14.

Xizmatlar rivojlanishida savdoni erkinlashtirish muhim o'rin tutadi. 1993-yilda xalqaro savdo kelishuvlarining Urugvay raundi doirasida xizmatlar savdosi bo'yicha bosh bitim (GATS — General Agreement on Trade in Services) imzolandi. U 1995-yilda JST ga aylangan 1947-yildagi Tarif va savdo bo'yicha bosh bitimdan (GATT — General Agreement on Tariffs and Trade) keyin ikkinchi yirik savdo kelishuvi hisoblanadi. GATS tovarlar savdosida to'siqlarni kamaytirishni ko'zda tutadi. Bu esa xizmatlar eksportyorlari va importyorlari imkoniyatlarini kengaytiradi va shu soha rivojlanishini rag'batlantiradi. GATS da moliyaviy xizmatlar savdosiga, xususan, sug'urta, bank faoliyati, brokerlar va moliyaviy bozordagi boshqa vositachilar xizmatlariga valyuta va qimmatli qog'ozlar savdosiga katta urg'u beradi. Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra erkinlashtirish natijasida rivojlanayotgan mamlakatlar xizmatlar savdosidan daromadlar 2005–2015-yillar mobaynida 6 trln. AQSh dollari darajasiga yetib, tovarlar savdosini erkinlashtirishdan olingan daromadlar 4 baravar yuqori bo'ladi.

Xizmatlar savdosini erkinlashtirish ta'minotchilar tomonidan raqobatning kuchayishiga olib kelib, ko'p tomonlama ta'sirga ega bo'ladi. Xizmat yoki tovar sotuvchisi tomonidan raqobat kurashida qo'shimcha xizmatlarni sotib olish hisobiga ushbu savdo holatini mustahkamlash zaruriyati paydo bo'ladi. Bunday qo'shimcha xizmatlarga reklama, marketing, sug'urta, buxgalteriya va konsalting xizmatlari, biznes rejalarini ishlab chiqish, investitsiyalash, kreditlash, axborot xizmatlari va boshqalar kiradi.

Tarmoqdan alohida xizmat turlarining ajralishi (autsorsing — outsourcing) ixtisoslashishning rivojlanishi bilan bog'liq tarzda amalga oshadi. Qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishi natijasida investitsiya brokerlik kompaniyalari paydo bo'lishi, ssuda kapitaliga talabning oshishi oqibatida kredit byurolarining shakllanishi, pensiya fondlarining paydo bo'lishi — bularning barchasi bank institutlaridan nobank tashkilotlarining ajralib chiqishi to'g'risida xabar beradi.

Xizmatlar sohasi rivojlanishiga, an'anaviy davlat tarmoqlarini xususiylashtirish ham yordam beradi. Xususiylashtirish ta'siri erkinlashtirish ta'siri bilan o'xshash. Ta'lim, sog'liqni saqlash, telekommunikatsiya, aloqa, transport bilan birgalikda qamoqxonalar va koloniyalar xizmatini ta'minlash kabi sohalar xususiy sektorga aylanadi.

Tovarlar savdosining xizmatlar bilan chambarchas bog'liqligi tovarlar savdosining oshishi xizmatlar sohasi rivojlanishini rag'batlantirishga olib keladi. Masalan, tovarlar eksporti eksport ishlab chiqarishni kreditlash, eksport tavakkalchiligini sug'urtalash bilan bog'liq. Ba'zi tovarlar sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatishni talab qiladi, masalan, avtomobillar savdosi ixtisoslashgan servis markazlarda xizmat ko'rsatish bilan amalga oshiriladi. Tovarlarning xizmatlarga texnologik qaramligi maxsus uskunani o'rnatish bo'yicha yoki dastur ta'minotchisi bilan birgalikda kompyuter xarid qilish bo'yicha xizmat sotib olish zaruriyatini belgilaydi. Bu aloqalar natijasida ishlab chiqarish va tovarlar savdosining o'sishi xizmatlar sohasining rivojlanishiga olib keladi.

Jahon savdosi tarkibida xalqaro xizmatlar savdosi salmoqli ulushga ega bo'lib, 2013-yilda uning umumiy qiymati 9,1 trln. dollarni tashkil qildi. Xalqaro xizmatlar eksporti jadal o'sish sur'atlariga ega bo'lib, 2013-yilda 4,7 trln. dollarni tashkil etdi va 2012-yilga nisbatan 6 %ga o'sdi. 2008-yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi natijasida jahon xizmatlar savdosi 2009-yilda pasayish sur'atiga ega bo'ldi. Jumladan, 2009-yilda transport xizmatlari eksporti 23 %ga, turizm 9 %ga, boshqa tijorat xizmatlari esa 8 %ga qisqardi (24.2.1-diagramma).

24.2.1-diagramma
Xalqaro xizmatlar savdosining rivojlanish dinamikasi, 1990–2010-yy.



Manba: International trade statistics 2011. World Trade Organization. Switzerland, 2011. P. 145.

Xalqaro xizmatlar savdosi tarkibi murakkabdir. Xalqaro xizmatlar savdosida turizm va transport sohalari ko'proq ahamiyatga ega. Hozirgi kunda qiymat jihatdan ularning xalqaro xizmatlar savdosidagi ulushining yuqori bo'lish bilan birgalikda xizmatlar eksportining umumiy hajmidagi ulushining kamayishi kuzatilmoqda. Xususan, jami eksport qilinuvchi xizmatlar hajmi 1975-yildagi 155 mlrd. dollardan 2013-yilda 4,7 trln. dollargacha, ya'ni 30,3 martaga oshdi. Jami xizmatlar eksporti hajmida transport xizmatlari ulushi 2000-yildagi 23,2 %dan 2013-yilda 19,5 %ga kamayib, 905 mlrd. dollarga teng bo'ldi. Jami xizmatlar importida transport xizmatlarining ulushi 2000–2013-yillarda deyarli o'zgarmagan (o'rtacha 27,3 %) va 2013-yilda 1165 mlrd. dollarni tashkil etdi. Jami xizmatlar eksporti va importining umumiy tarkibida turizm xizmatlarining ulushi tahlil etilayotgan davrda 32,0 va 30,1 %dan mos ravishda 25,5 va 24,5 %ga qadar qisqargan. Boshqa tijorat xizmatlarining ulushi esa jami xizmatlar eksporti va importining umumiy tarkibida 2000-yilda mos ravishda 44,8 va 41,2 %ni tashkil etgani holda 2013-yilga kelib 54,9 va 47,6 %ga qadar o'sdi (24.2.1-jadval).

24.2.1-jadval
Jahon xizmatlar savdosi tarkibining o'zgarishi

	Hajmi, mlrd. doll.	Tarkibi, %				
	2013-y.	2000-y.	2005-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.
Eksport						
Jami	4645	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Transport	905	23,2	22,6	20,5	20,2	19,5
Turizm	1185	32,0	27,9	24,8	25,1	25,5
Boshqa tijorat xizmatlari	2550	44,8	49,3	54,5	54,5	54,9
Import						
Jami	4380	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Transport	1165	28,6	28,6	27,4	27,3	26,6
Turizm	1070	30,1	27,4	23,4	23,9	24,5
Boshqa tijorat xizmatlari	2085	41,2	44,0	48,0	47,5	47,6

Manba: International trade statistics 2013. World Trade Organization. Switzerland, 2013. P. 121.

Xalqaro xizmatlar savdosi tarkibida boshqa tijorat xizmatlarining rivojlanishi katta hajmlarda va jadal sur'atlarda amalga oshmoqda. Moliyaviy xizmatlar xalqaro kommunikatsiya, pochta va kuryerlik aloqasi, kompyuter axborotlari va axborot ayirboshlash xizmatlari, qurilish xizmatlari, royalti va litsenziya to'lovlari, mutaxassis, texnik, madaniy-sog'lomlashtirish va boshqa tijorat xizmatlarining hajmi 2000-yildagi 44,8 %dan 2013-yilda 54,9 %gacha oshdi. 2013-yilda ushbu turdagi xizmatlar savdosining umumiy hajmi 4,7 trln. dollarni tashkil etdi. Boshqa tijorat xizmatlari eksportining tarkibi esa quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi: kommunikatsiya xizmatlari (4,6 %), konstruksiya (4,4 %), sug'urta xizmatlari (4,0 %), moliya xizmatlari (12,3 %), kompyuter va axborot xizmatlari (11,0 %), royalti va litsenziya to'lovlari (11,9 %), boshqa biznes xizmatlari (46,2 %), madaniyat va dam olish sohasida agishaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar (1,5 %)[1].

Jahon «boshqa tijorat xizmatlari» eksportining geografik tarkibida rivojlangan mamlakatlar yuqori ulushga ega. Misol uchun, 2013-yilda ushbu turdagi xizmatlar eksportida Yel-28 ning hissasi 47,1 %ga teng bo'ldi. Amalga oshirilgan tahlillar 2005–2013-yillarda jahon «boshqa tijorat xizmatlari» eksportining geografik tarkibida o'zgarishlar yuz berganligini ko'rsatmoqda. Jumladan, bu davrda Yel-28 mamlakatlarining ulushi 50,3 %dan 47,1 %ga qadar qisqargani holda Janubiy va Markaziy Amerika mamlakatlarining ulushi mos ravishda 1,8 dan 2,5 %gacha o'sgan (24.2.2-jadval).

Xizmat shakllari xalqaro savdoga turli darajada jalb qilinganligi bilan tavsiflanadi. Xizmatlarga moliyaviy kredit faoliyati ham tegishli bo'lib, u kapitallar mujassamlashuvi qo'shilib ketishi va yirik bank markazlari shakllanishida o'z aksini topadi. Ba'zi iqtisodchilar fikricha, iqtisodiyotning globallashuv jarayoni ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishiga, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyasiga,

1 International trade statistics 2013. World Trade Organization. Switzerland, 2013. P. 128–140.

transchegara moliyaviy operatsiyalarning kengayishiga asoslanadi. Ushbu operatsiyalar ta'sirida ichki va jahon moliyaviy bozorlari o'rtasida to'siqlar sekin-asta olib tashlanmoqda.

24.2.2-jadval

Jahon «boshqa tijorat xizmatlari» eksporti geografik tarkibining o'zgarishi, 2005–2013-yy.

	2013-y. mlrd. doll.	Ulushi, %		O'tgan yillarga nisbatan o'zgarishi, %			
		2005-y.	2013-y.	2005–2013-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.
Jami	2550	100,0	100,0	9	14	2	6
shu jumladan:							
Shimoliy Amerika	457	19,2	17,9	8	11	3	4
Janubiy va Markaziy Amerika	63	1,8	2,5	14	28	9	-1
Yevropa	1301	54,4	51,0	9	14	-1	7
Yel-28	1201	50,3	47,1	9	14	-1	7
MDH	47	1,1	1,8	14	21	12	14
Afrika	24	1,0	0,9	9	5	7	2
Yaqin Sharq	48	2,0	1,9	9	15	16	6
Osiyo	611	24,6	24,0	12	13	8	7

Manba: International trade statistics 2014. World Trade Organization. Switzerland, 2014. P. 126.

Moliyaviy bitimlarning imzolanishini tezlashtirish maqsadida Jahon moliyaviy markazlari hisoblanuvchi Nyu-York, Toronta, London, Parij, Frankfurt, Amsterdam, Syurix, Tokio, Singapur, Syangan va boshqa shaharlarda 20 dan ortiq kompyuter markazlari tashkil qilingan.

Rivojlanayotgan mamlakatlar jahon moliyaviy xizmatlar aylanmasida o'z ulushlarini barqaror sur'atlarda oshirib bormoqdalar. Ushbu holat Singapur, Xitoy, Janubiy Koreya, Tailand, Braziliya va Turkiya misolida yaqqol kuzatilmoqda. Sug'urta xizmatlari eksportida Meksika, Singapur, Tayvan va Janubiy Afrika Respublikasi salmoqli o'rinlarni egallaydi. Bagam va Antil orollari, Gonkong, Singapur va boshqalar «moliyaviy gavanlar» deb nomlanadi. Shuningdek, moliyaviy xizmatlar sohasining ITTKI, tijorat tadqiqoti, Internet orqali elektron savdoning rivojlanishi, telekommunikatsiya sohalari, koinotdagi tijorat faoliyati, shu jumladan tijorat maqsadlarida koinotga apparatlarini uchirish kabi tarmoqlari istiqbolli hisoblanadi.

Telekommunikatsiya tarmog'i rivojlanishi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- mobil telekommunikatsiya segmentining jadal o'sishi;
- Internetning rivojlanishi, narxlarning pasayishi va raqobatning kuchayishi.

Xalqaro xizmatlar savdosining geografik tarkibi keskin o'zgarib bormoqda. Xalqaro xizmatlar savdosi, birinchi navbatda, rivojlangan mamlakatlar o'rtasida amalga oshmoqda. XXI asr boshlarida yangi industrial va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro xizmatlar savdosidagi faoliyatining rivojlanishi rivojlangan mamlakatlarning xalqaro xizmatlar savdosidagi ulushining pasayishiga olib kelmoqda.

Xizmatlar savdosi geografik jihatdan chuqur tabaqalashganligi bilan ajralib turadi. Eksport qilinuvchi xizmatlarning 75 % rivojlangan mamlakatlar, 24 % rivojlanayotgan mamlakatlar, 1 % esa xalqaro tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi. Jahon

amaliyoti ko'rsatishicha, xizmatlar iqtisodiyoti rivojlangan va geografik afzallikka ega mamlakatlar tomonidan eksport qilinadi.

Rivojlangan mamlakatlar jahon xizmatlar bozorida bir vaqtda asosiy ta'minotchi va iste'molchi hisoblanadi. Jumladan, Yel-27 va AQSh xizmatlarning asosiy eksportyorlari sifatida jahon xizmatlar hajmining mos ravishda 42,5 va 14,0 %ni ta'minlaydilar. Ushbu mamlakatlar kompaniyalari uchun xorijiy filiallarda xizmatlar ishlab chiqarish katta ahamiyat kasb etadi.

Jahon xizmatlar eksportida rivojlanayotgan mamlakatlarning egallagan o'rni ularning iqtisodiy rivojlanish darajasi va xorijiy kapitalning jalb qilinishiga mutanosib ravishda mustahkamlanib borgan. Ushbu holat Osiyoning Singapur, Xitoy, Koreya Respublikasi kabi mamlakatlari uchun xosdir. Turli mamlakatlar ko'rsatilayotgan xizmatlarning shakli va xususiyatlari bo'yicha ajralib turadilar. Masalan, Shveysariya firmalari bank ishida, savdoda, moddiy texnika ta'minotini tashkil qilishda, konsalting va ta'lim xizmatlarida raqobatbardosh hisoblanadi. Angliya firmalari sug'urtalashda, kimoshdi savdosida, pul operatsiyalarini boshqarishda va maslahat xizmatlarini ko'rsatishda mustahkam o'rinni egallaydi. Singapur korxonalari kema ta'mirlashda, aviakompaniyalarga, portlarga va terminallarga xizmat ko'rsatishda yuqori o'rin tutadi. Amerika firmalari esa qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalarda, mehmonxona xo'jaligini boshqarishda, buxgalteriya hisobida va reklamada yetakchi hisoblanadi. Jahon xizmatlar bozorida yillik yuqori qo'shimcha o'sishni ta'minlayotgan muvaffaqiyatli kompaniyalar tarkibidan McDonald's va Servicemaster (AQSh), Saatchi & Saatchi i Hawley Group (Buyuk Britaniya), Adia (Shveysariya), International Servic System (Daniya) va boshqalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

24.3. Xalqaro transport va turizm xizmatlari

Xizmatlarning bir qismi xalqaro savdoda qatnashmaydi. Faqat mamlakat ichida sotiladi va sotib olinadi. Xalqaro xizmatlar ichida transport xizmatlari muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro transport xizmatlari deyilganda bir mamlakat rezidentining ikkinchi mamlakat rezidentiga barcha turdagi transport vositalari bo'yicha ko'rsatadigan xizmatlari tushuniladi.

Tahliliy maqsadlar yo'lida transportning dengiz (asosan, tashqi savdo yuklarini tashishda), havo (asosan yuk va odamlarni mamlakatlararo tashishda) va boshqa turlari ajratiladi.

Transport xarajatlarining xalqaro savdoga ta'siri quyidagicha:

- transport xarajatlari mamlakatning savdo sharoitining yomonlashuvi, ixtisoslashuv darajasi va tashqi savdo hajmining qisqarishiga olib keladi;
- transport xarajatlari Xeksher-Olin-Samuelson teoremasiga muvofiq ishlab chiqarish omillari bahosining mamlakatlararo barqarorlashuviga to'sqinlik qiladi;
- transport xarajatlari hududiy mehnat taqsimotiga — korxonalar va tarmoqlarni hududiy joylashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- transport xarajatlarining o'zaro savdoga kirishayotgan mamlakatlar o'rtasida taqsimlanishi talab va taklif elastikligiga bog'liq; importyor mamlakatda talab elastikligi qanchalik kam bo'lsa, transport xarajatlari shuncha yuqori bo'ladi; eksportyor mamlakatda taklif elastikligi qanchalik kam bo'lsa, transport xarajatlari shuncha yuqori bo'ladi.

Hududiy mehnat taqsimoti nuqtayi nazaridan tarmoqlarning quyidagi turlari farqlanadi:

- Resurslar asosida ishlovchi tarmoqlar — xomashyoni tashish xarajatlari tayyor mahsulotni tashish xarajatlaridan qimmatga tushadigan tarmoqlar. Ularga,

asosan, qazib chiqarish tarmoqlari (tog'-kon, alyuminiy va kimyo sanoati) kiradi. Bu tarmoqlar tabiiy resurslarga yaqin joylarda barpo etiladi.

- Bozorga yo'naltirilgan tarmoqlar — tayyor mahsulotni tashish xarajatlari xomashyoni tashish xarajatlaridan qimmatga tushadigan tarmoqlar. Ularga, asosan, qayta ishlovchi tarmoqlar kiritiladi.
- Erkin yo'naltirilgan tarmoqlar — resurslar va bozorlarga yo'naltirilmagan hududiy harakatchan tarmoqlar hisoblanib, odatda, ularga qimmat turuvchi, ammo yengil tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar kiradi. Mazkur tarmoqlarni joylashtirishda asosiy e'tibor transport xarajatlariga emas, balki ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirishga qaratiladi.

Jahon transport xizmatlari eksportining tarkibida rivojlangan mamlakatlar yetakchi mavqega ega. Jumladan, 2013-yilda jahon transport xizmatlari eksportining tarkibida YeI-28 mamlakatlarining ulushi 43,4 %ni, AQSh ning ulushi esa 9,2 %ni tashkil etgan. 2005–2013-yillarda ushbu tarkibda Xitoyning ulushi 2,7 %dan 4,2 %gacha ortgan (24.3.1-jadval).

24.3.1-jadval

Jahon transport xizmatlari eksportining geografik tarkibidagi, 2005–2013-yy.

	2013-y. mlrd. doll.	Ulushi, %		O'tgan yillarga nisbatan o'zgarishi, %			
		2005-y.	2013-y.	2005–2013-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.
Jami	905	100,0	100,0	6	9	1	2
shu jumladan:							
Shimoliy Amerika	100	11,1	11,0	6	11	3	4
AQSh	86,5	5,9	9,2	6	11	4	4
Janubiy va Markaziy Amerika	30	2,9	3,3	8	16	1	3
Yevropa	433	50,9	47,8	5	10	-3	5
YeI-28	394	46,2	43,4	5	9	-3	5
MDH	41	3,1	4,5	5	9	-3	5
Afrika	27	2,6	3,0	8	7	8	2
Yaqin Sharq	28	2,7	3,1	8	18	6	-3
Osiyo	248	26,7	27,4	6	5	5	-3
Singapur	44,1	3,4	4,9	11	8	3	2
Yaponiya	39,6	6,3	4,4	1	-1	5	-2
Xitoy	37,6	2,7	4,2	12	4	9	-3
Janubiy Koreya	36,6	4,2	4,0	5	-5	12	-12

Manba: International trade statistics 2014. World Trade Organization. Switzerland, 2014. P. 122, 123.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos shakllaridan biri xalqaro safarlar hisoblanadi va ular milliy schyotlar tizimida turizm deb ataladi. Ularning o'ziga xosligi shundaki, iste'molchi xorijga, xizmat ko'rsatuvchiga qarab harakatlanadi va norezident sifatida tovarlar (xizmatlar) sotib oladi.

Xalqaro safarlar — sayohatchilar tomonidan xorijda sotib olinadigan tovarlar va xizmatlar yig'indisi (sayohatchi xorijda bir yildan kam muddatda bo'lsa va norezident hisoblansa).

Sayohatchi — o'zi rezident hisoblanmaydigan mamlakatda bir yildan kam muddatda bo'lgan, boshqa mamlakatning davlat tashkiloti xizmatchisi yoki oila a'zosi bo'lmagan va rezident uchun yollanib ishlamayotganlar kiradi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda sayohatchi borgan mamlakatida 24 soatdan ortiq vaqt bo'lsa turist hisoblanadi.

Agar sayohatchilar xorijda 24 soatdan kam vaqt bo'lishsa ekskursant hisoblanishadi. Ekskursantlar Yevropaning kichik mamlakatlari statistikasida sayohatchilarning alohida kategoriyasi sifatida ajratib ko'rsatiladi. Chunki, ko'plab xorijliklar bu mamlakatlarga yarim kun yoki bir kunga kelib ketishadi.

24.3.2-jadval
Xalqaro safarlarning guruhlanishi

	O'z ichiga oladi	O'z ichiga olmaydi
Xizmat safarlari	Xizmat bo'yicha xorijda bo'lgan sayohatchi tomonidan amalga oshiriladigan shaxsiy xarajatlar: kema va samolyot ekipajlari, hukumat organlari, xalqaro tashkilotlar, xususiy firmalarning xizmatchilari, mavsumiy ishchilar	Sayohatchi tomonidan jo'natayotgan tashkilot nomidan va hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar
Shaxsiy safarlar	Shaxsiy ishlar bo'yicha (turizm) xorijda bo'lgan sayohatchi tomonidan amalga oshiriladigan barcha xarajatlar: dam olish, sport bilan shug'ullanish, qarindoshlarnikiga borish, o'qish, davolanish, diniy ehtiyojlarni qondirish.	Sayohatchilarni xorijga va orqaga tashish (mazkur xizmatlar xalqaro yo'lovchi transporti xizmatlariga kiradi)

Sayohatlar xalqaro xizmatlar savdosida muhim o'rin tutadi. Turizm, transport, mehmonxona xo'jaligi, ko'ngilochar sanoat, sport, reklama, umumiy ovqatlanishni qamrab oluvchi butun bir tarmoqlar majmuasiga aylandi. Aholi daromadlarining oshishi, transport vositalari va mehmonxona xo'jaligining takomillashuvi, havo trasnporti orqali tashishning arzonlashishi, valyuta olib chiqish cheklovlarining zaiflashishi va chegarada rasmiylashtirishning soddalashishi natijasida turizmning xalqaro xizmatlar eksportidagi ulushi ortib bordi.

Umumjahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra jahonda turistlar soni va turizm sohasidan keladigan daromad miqdori yil sayin ortib bormoqda. Jumladan, 2000–2013-yillarda turistlar soni 682 mln. kishidan 1 mlrd. 87 mln. kishiga qadar, turizmdan keladigan daromad miqdori esa 476 mlrd. dollardan 1 trln. 159 mlrd. dollarga qadar ortgan (24.3.1-diagramma).

24.3.1-diagramma
Jahonda turistlar soni va turizmdan keladigan daromadlarning o'zgarishi



	2000-y	2005-y	2010-y	2011-y	2012-y	2013-y
Turistlar soni, mln. kishi	682	802	952	996	1035	1087
Turizmdan olingan daromad, mlrd. doll.	476	681	931	1042	1078	1159

Manba: UNTWO NEWS. Magazine of the Tourism Organization, Year XXIII, Issue 1/2014. p. 3. www.untwo.org.

Tahlillar turizm xizmatlari 2013-yilda jami xizmatlar eksportining 25,5 %ni (1185 mlrd. doll.), jami xizmatlar importining esa 24,5 %ni (1070 mlrd. doll.) tashkil qilganligini ko'rsatmoqda. Xalqaro turizm jahon moliya-iqtisodiy inqirozi ta'sirida 2009-yilda 2008-yilga nisbatan 9 %ga qisqardi. Jahon turizm xizmatlari eksportining tarkibida Yel-28 ning ulushi yuqori bo'lishiga qaramasdan 2005–2013-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Misol uchun, ushbu davrda Yel-28 ning jahon turizm eksporti tarkibidagi ulushi mos ravishda 43,2 %dan 34,1 %ga qadar qisqardi. Yaqin Sharqdagi notinch vaziyat va Yevropadagi inqiroz holatining davom etayotganligi sababli Osiyo mamlakatlarining xalqaro turistik xizmatlar eksportidagi ulushi keskin oshib 2013-yilda 30,0 %ni tashkil etdi. (24.3.3-jadval).

24.3.3-jadval

Jahon turizm xizmatlari eksportining geografik tarkibi, 2005–2013-yy.

	2013-y. mlrd. doll.	Ulushi, %		O'tgan yillarga nisbatan o'zgarishi, %			
		2005-y.	2013-y.	2005–2013-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.
Jami	1185	100,0	100,0	7	12	7	4
shu jumladan:							
Shimoliy Amerika	204	18,8	17,3	6	9	8	7
AQSh	172,6	15,2	14,6	6	11	9	7
Janubiy va Markaziy Amerika	51	4,4	4,4	6	10	6	4
Yevropa	459	48,0	38,8	4	12	-3	8
Yel-28	403	43,0	34,1	4	12	-3	8
MDH	26	1,6	2,2	12	28	10	9
Afrika	39	4,1	3,3	4	-3	6	-10
Yaqin Sharq	48	3,3	4,0	9	-8	2	8
Osiyo	356	19,8	30,0	12	18	10	9
Xitoy	51,6	4,2	4,4	7	6	3	3
Tayland	42,1	1,4	3,6	20	35	24	24
Gonkong	38,9	1,5	3,3	18	28	16	18
Avstraliya	31,0	2,4	2,6	8	10	2	-3

Manba: International trade statistics 2014. World Trade Organization. Switzerland, 2014. P. 124.

2013-yilda jahon turizm xizmatlarining birinchi o'nlikka kiruvchi eksportyorlari Yel-23 (403,0 mlrd. doll.), AQSh (172,6 mlrd. doll.), Makao (51,8 mlrd. doll.), Xitoy (51,6 mlrd. doll.), Tailand (42,1 mlrd. doll.), Gonkong (38,9 mlrd. doll.), Avstraliya (31,0 mlrd. doll.), Turkiya (28,0 mlrd. doll.), Malayziya (21,5 mlrd. doll.) va Singapur (19,1 mlrd. doll.) hisoblanadi. Asosiy importyorlar esa Yel-28 (116,4 mlrd. doll.), Xitoy (128,7 mlrd. doll.), AQSh (95,9 mlrd. doll.), Rossiya (53,5 mlrd. doll.), Kanada (35,2 mlrd. doll.), Avstraliya (26,6 mlrd. doll.), Braziliya (25,1 mlrd. doll.), Singapur (24,6 mlrd. doll.), Yaponiya (21,9 mlrd. doll.) va Janubiy Koreya (21,7 mlrd. doll.)[1].

Yevropa mamlakatlaridagi iqtisodiy holatning beqarorligi turistlarni, asosan, jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlaridan, jumladan, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Yaponiya va boshqa mamlakatlardan jalb qilishga katta e'tibor berildi.

1 International trade statistics 2011. World Trade Organization. Switzerland, 2011. P. 125.

24.4. Xalqaro xizmatlar savdosini tartibga solish usullari va yo'llari

Jahon xizmatlar savdosi hozirgi kunda 40 dan ortiq xalqaro tashkilotlar, shu jumladan Jahon savdo tashkiloti (JST), Savdo va rivojlanish bo'yicha BMT konferensiyasi (YuNKTAD), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Ilm-fan, madaniyat va ta'lim bo'yicha BMT tashkiloti (YuNESKO), Jahon intellektual mulk tashkiloti (VOIS) tomonidan tartibga solinadi. Shuningdek, xalqaro xizmatlar savdosi bir necha xalqaro aktlar, xususan, Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlari bo'yicha kelishuv (General Agreement on Trade Related Aspects of Intellectual Property Rights, TRIPS — TRIPS) hamda Investitsiya choralarining savdo jihatlari bo'yicha kelishuv (The Agreement on Trade Related Investment Measures, TRIMS — TRIMS) (xizmatlar sohasini xorijiy investitsiyalashga bog'liq tomonlarini) tomonidan tartibga solinadi. [1]

Xalqaro xizmatlar savdosini tartibga soluvchi asosiy xalqaro hujjat bu Xizmatlar savdosi bo'yicha bosh shartnomadir (*GATS). GATS GATT ning* Urugvay raundida qabul qilingan va JST ni tashkil etish to'g'risidagi shartnomaning asosiy ilovalaridan biri hisoblanadi.

GATS birinchilardan bo'lib xalqaro savdoni amalga oshirishning sog'lom raqobat va kelishilgan qoidalariga asoslangan mexanizmini yaratdi. GATS 6 ta bo'limga birlashtirilgan 35 ta modda va ilovadan iborat.

GATS da xalqaro xizmatlar savdosining quyidagi jihatlari ko'rib chiqiladi:

- qo'llanish sohasi va mazmuni, umumiy majburiyatlar va qoidalar (mumkin qadar qulaylik rejimi, oshkoralik, rivojlanayotgan mamlakatlarda qatnashish xususiyatlari, iqtisodiy integratsiyani hisobga olish, ichki tartibga solish, himoya choralarini qo'llash imkoniyati, umumiy istisnolar, subsidiyalar va b.);
- maxsus majburiyatlar (bozorga ruxsat, milliy rejim, qo'shimcha majburiyatlar);
- bosqichma-bosqich erkinlashtirish (maxsus majburiyatlar bo'yicha kelishuvlar, maxsus majbauriyatlar ro'yxati va ularning o'zgarishi);
- institutsional majburiyatlar (konsultatsiyalar, nizolarni tartibga solish va qarorlarni bajarish, Xizmatlar savdosi bo'yicha Kengash);
- ilovalar. Ilovalarda moliya xizmatlari batafsil ko'rib chiqiladi, ularning tasnifi beriladi, GATS ning umumiy majburiyatlari va qoidalaridan chiqarib tashlash imkoniyatlari.

GATS da quyidagi ikki turdagi majburiyatlar ko'zda tutiladi:

- umumiy — mamlakatlar tomonidan so'zsiz qabul qilinadi;
- maxsus — u yoki bu mamlakat xizmatlar bozoriga kirib borishning aniq shartlari bilan bog'liq majburiyatlar.

Umumiy majburiyatlar — bu mumkin qadar qulaylik rejimi bo'lib, bu rejim a'zo mamlakatlarning milliy xizmatlar bozoriga kirishida teng huquqlilikni ta'minlaydi. Shu bilan birga bu rejim milliy xizmatlar bozoriga kirish usullariga nisbatan cheklovlar o'rnatmaydi.

GATS ushbu rejimning majburiyligini belgilash bilan birga, istisno holatlarini ham tan oladi. Mamlakatning xalqaro iqtisodiy integratsion birlashma doirasida hamkor mamlakatlarga nisbatan o'rnatadigan maxsus imtiyozlar tizimi mumkin qadar qulaylik rejimidan istisno holatlarga kiradi.

GATS ning asosiy qoidalari ko'p jihatdan GATT ni eslatadi:

- milliy rejim — xizmatlarning xorijiy ta'minotchilari va xizmatlarning o'zi milliy xizmat ishlab chiqaruvchilar foydalanadigan rejimdan foydalanishlari zarur;

1 Сидорова Е. Ю. Международная торговля. — М.: «Экзамен», 2006. С. 116.

- mumkin qadar qulaylik berish rejimi — hammaga bir xil rejimni va bitim ishtirokchilari o'rtasida kamsitishlar mavjud bo'lmasligini ko'zda tutadi;
- oshkoralik — xizmatlar savdosini tartibga solish bilan bog'liq hamma ma'lumotlar, qonunlar, ma'muriy qoidalar va farmonlar nashr qilinishi kerak;
- xizmatlar savdosi doirasida muzokaralar olib borish orqali sekin-asta liberallashtirish — bu soha to'siqlarining bir qismi Urugvay raundida kamaytirilgan, qolgan qismini kelgusi muzokaralarda kamaytirish maqsad qilib olingan;
- GATT va GATS ga umumiy bo'lgan JST ning munozaralarni tartibga solish tizimi yordamida munozara va ixtilofli vaziyatlarni hal qilish.

Jahon xizmatlar bozorining turli segmentlarida xizmatlar savdosini tartibga solish ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Xalqaro fuqaro aviatsiyasi — *(ICAO), Jahon turizm tashkiloti (WTO), Xalqaro dengiz tashkiloti (IMO) shular jumlasidandir.*

Xizmatlarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlarini ikki guruhga bo'lish mumkin:

- xizmatlarning ichki bozorga kirib kelishini tartibga solish;
- milliy rejim bilan bog'liq cheklovlar.

Xalqaro xizmatlar savdosini davlat tomonidan tartibga solish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bojxona nazoratining turli xil shakllari;
- xorijiy korxonalarning xizmatlar sohasidagi faoliyatiga qo'yiladigan cheklovlar;
- xizmatlar bahosini nazorat qilish;
- mamlakatda amal qiluvchi standartlar tizimidan foydalanish;
- xizmatlarning alohida turlarini litsenziyalash.

Xizmatlar oqimini tartibga solish dastaklari tovarlar savdosini tartibga solish bilan bir xildir. Mazkur o'xshashlik ko'pchilik xizmatlar savdosining tovarlar savdosi bilan birga amalga oshirilish imkonini beradi.

Tovarlar va xizmatlar savdosi o'rtasidagi farq esa ba'zi xizmatlarning tovarlar savdosi bilan emas, balki kapitallar harakati bilan bog'liq ekanligidan kelib chiqadi. Shuning uchun xizmatlar savdosini tartibga solish usullari bir-biridan farq qiladi.

Xizmatlarning ichki bozorga kirib kelishini tartibga solish bilan bog'liq chora-tadbirlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Xizmatlar savdosiga oid cheklovlar. Masalan, milliy qonunchilikda import qilinayotgan barcha yuklar faqat mahalliy sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta qilinishi lozim, deb belgilanishi mumkin.
2. Import qilinayotgan xorijiy xizmatlarga nisbatan miqdoriy kvota belgilash. Masalan, xorijiy kinofilmlarni ko'rsatishni miqdoran cheklash.
3. Xizmat ko'rsatuvchilar harakatiga nisbatan cheklovlar. Masalan, vrachlar davolash uchun ruxsat olgunlariga qadar testlardan o'tishlari va tegishli litsenziyalarni qo'lga kiritishlari lozim.
4. Xizmatlarni iste'mol etuvchilar harakatiga cheklovlar. Masalan, turistlarga beriladigan vizalarni miqdoran cheklash.

24.5. O'zbekistonda turizmning rivojlanish istiqbollari

Turizm — ko'pgina mamlakatlarda yuqori daromadli soha hisoblanadi. O'zbekiston turizmni rivojlantirishda katta salohiyatga ega. O'zbekistonda turizm — dam olish xizmatlarini rivojlantirish uchun noyob shifobaxsh manbalar va arxetektura yodgorliklari mavjud. O'zbekistondagi barqaror iqtisodiy va siyosiy vaziyat xorijdan

qo'shimcha turistlarni jalb etish mamlakatimizdagi ko'rsatilgan turizm xizmati qiymatining o'sishiga olib keldi.

Mamlakatimizning turizm sektori xorijiy va mahalliy investorlarni infratuzilma loyihalarini rivojlantirishga jalb etadi. Investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilish obyektlari va mavjud obyektlarni qayta ta'mirlashga yo'naltirilmoqda. Hozirda O'zbekistonda 10 dan ortiq xorijiy investorlar ishtirokidagi mehmonxonalar faoliyat yuritmoqda. 2009-yilda mamlakatning turli hududlarida 20 dan ortiq o'rta va kichik mehmonxonalar qurildi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 700 dan ortiq turistik firmalar faoliyat ko'rsatadi va 240 ta mehmonxona majmualari, shu jumladan, 5, 4 va 3 yulduzli 120 ta mehmonxonalar mehmon qabul qilishadi. 2010-yilning oxirida umumiy sig'imi 2100 ta joy tashkil qiluvchi 56 ta mehmonxonalar ishga tushirildi. Shuningdek, O'zbekistonda turistlar uchun 100 dan ortiq kemping va dam olish uylari mavjud, 800 dan ortiq yo'nalishlar ishlab chiqilgan va amal qilayotgan bo'lib, ular orqali 600 dan ortiq ekskursiyalar tashkil qilingan.

Respublikamizda qabul qilingan inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturi turizm tarmog'ining jonlanishiga yordam berdi. Xususan, oxirgi ikki yil ichida turizm litsenziyasiga ega korxonalar soni bir yarim barobar oshdi va hozirgi kunda 700 tadan ortiq turfirmalar mavjud. Bunday chora-tadbirlar mamlakatdagi turistik korxonalar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning hajmi oshishiga imkon berdi. Har yili O'zbekistonga 1 millionga yaqin xorijiy turistlar tashrif buyuradi. Xususan, 60 % sayohatchilar Yevropa Ittifoqidan, 25 % turistlar Osiyo va Amerika mamlakatlaridan, atigi 15 % turistlar Rossiya va boshqa MDH mamlakatlaridan kelishadi.

O'zbekistonga 2013-yilda dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlaridan 2 mln. kishidan ortiq turistlar tashrif buyurishdi va ushbu ko'rsatkich 2012-yilga nisbatan 43 %ga o'sdi. 2013-yilda turizm xizmatlari eksporti miqdori 615 mln. dollarni tashkil etdi, turizm sohasida 200 mingdan ortiq kishi band, ushbu sohaning mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2 %dan oshadi.

O'zbekiston hukumati statistikaga o'zgartirish kiritish maqsadida mamlakatga rossiyalik turistlar oqimini oshirishni muhim vazifalardan biri qilib belgiladi. Shu bilan birga O'zbekistonga asosiy turistlar oqimini ta'minlovchi Yevropa mamlakatlaridan kelayotgan turistlar sonining kamayishi qisman bir necha Osiyo mamlakatlaridan turistlar hajmining oshishi bilan qoplandi. Yaponiya, Hindiston, Xitoy, Koreya Respublikasi O'zbekiston uchun turistlar oqimini ta'minlovchi mamlakatlarga aylanishdi.

Hozirgi vaqtda xorijiy turistlar O'zbekistonning, asosan, beshta shahriga tashrif buyurishyapti. Bular — Buxoro, Samarqand, Xiva yodgorliklari, Toshkentning zamonaviy arxetekturasi, Jizzaxning tarixiy yodgorliklari, Zarafshon vodiylari, Farg'ona va Chirchiq vodiy-vohalaridir. Bu turizm obyektlarining har biri o'zbek xalqining ko'p asrlik madaniy tarixidir. Hozirda O'zbekistonda 7 mingdan ortiq tarixiy yodgorliklar mavjud.

Ko'pgina tarixiy diqqatga sazovor joylarni, qadimiy yodgorliklarni hisobga olganda bu turizm sohasidagi mamlakat salohiyati juda katta. Ammo shu bilan birga mamlakatda zaruriy moliyaviy resurslar va yetarlicha rivojlangan turizm infratuzilmasi mavjud emas. Shuning uchun bu sohaga xorijiy kapitalning oqib kelishi iqtisodiy manfaat kasb etadi. Bu sohadagi hamkorlik o'z natijalarini bermoqda: Toshkentda va Samarqand shaharlarida xalqaro kompaniyalarning kapitali hisobiga yangi mehmonxonalar qurilib, eskilarini qayta ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston mehmonxonalarida o'rtacha xodimlar soni Yevropa mamlakatlaridagi mehmonxonalarga qaraganda 2–3 barobar ko'p. Masalan, Skandinaviyada har

100 ta xonaga 44 ta xodim, Angliyada 90 ta, umuman, kontinentda esa 60–70 ta xodim ishlaydi. O'zbekiston va rivojlangan mamlakatlar bo'yicha bir mehmonxona ishchisiga to'g'ri keluvchi daromadlar haqidagi ma'lumotlarni solishtirish qiyin hisoblanadi. Masalan, Yevropada bu ko'rsatkich yiliga xona xizmatini ko'rsatishda 90 ming AQSh dollarini, umumiy ovqatlanish korxonalari bo'yicha 42 ming AQSh dollarini, telefon xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha 120 ming, qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish bo'yicha 60–70 ming AQSh dollarini tashkil qiladi. Bu ko'rsatkichlar mehmonxona xo'jaligining mehmonlar bilan to'lishi o'rtacha yillik 65,9 % va o'rtacha mehmonxonada turish tarifi 77,5 AQSh dollari ekanligini hisobga olgan holda keltirilgan.[1]

O'zbekiston turizm tarmog'i oldiga quyidagi ustuvor vazifalar qo'yilgan: birinchi navbatida, milliy mehmonxona standartlarini ishlab chiqish, joylashtirish vositalarini tasniflash, turizm qonunchiligini kelgusida takomillashtirish va turizm statistikasining yangi uslublarini joriy qilish, turistik rasmiyatchilikni soddalashtirish va erkinlashtirish, Turizmni rivojlantirish fondini tashkil qilish, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish hamda kadrlarni tayyorlash muammolarini hal qilish.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodchilarining fikricha, jahon xo'jaligida turizm sohasini rivojlantirishning markazlashgan, bozor va monetar iqtisodiy modellari amal qiladi.

Turizm sohasini rivojlantirishning bozor modeli xususiy egalikdagi ishlab chiqarish vositalari taklifiga va talabning o'zgarish tuzilmasiga tayanadi. Bu modeldagi bozor munosabatlari elementlari turli xil turizm xizmatlarining oldi-sotdi jarayonida keng qo'llaniladi.

Turizm sohasida bozor iqtisodiyotini monetar tartibga solish konsepsiyasi tarif narxlarini va investitsiyalarni tartibga solishni ko'zda tutadi. Moliyaviy-kredit mexanizmini tartibga solish orqali turizmning rivojlanish samaradorligi ta'minlanadi. Monetar uslub yordamida turizm rivojlanishining birinchi sharti xo'jalik yuritish sohasida o'zini o'zi tartibga soluvchi bozor iqtisodiyotining amal qilishi hisoblanadi.

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning monetar iqtisodiy modelini yaratishdagi birinchi qadam sifatida turizmni rivojlantirishning markazlashgan modeli natijasi sifatida «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi tashkil qilindi.

Biz turizm monetar modelining Turkiya rivojlanish uslubidan foydalanishimiz zarur, unda turli yo'nalishlarning milliy xususiyatlaridan keng foydalaniladi. Masalan, Turkiyada fransuzlar, nemislar, arablar, afrikaliklar va boshqalar uchun turizm markazlari mavjud. Milliy yo'nalishlar rivojlanishining ustunligi shu millatga uning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olib yuqori darajada qulaylik yaratish hisoblanadi.

Turizmni rivojlantirish turk modelining keyingi o'ziga xos xususiyati — bu ixtisoslashgan yo'nalishlar bo'yicha, ya'ni nafaqat turistlar tilini bilish, balki milliy xususiyatlarni, urf-odatlarni bilish bo'yicha kadrlarni tayyorlashdir. Masalan, Angliyada faqat Germaniya turistlariga xizmat ko'rsatuvchi 50 dan ortiq firmalar mavjud. Bu firmalarning barcha ishchilari ularning tillarini, milliy xususiyatlarini va ehtiyojlarini bilishadi. Turizmni rivojlantirish turk modelining yengillashtirilgan shakli, turizm shakllari, ya'ni ekskursiya, savdo, ish, toqqa chiqish, oilaviy, shaxsiy sayohatlar va boshqalar bo'yicha ixtisoslashgan firmalarni tashkil qilish hisoblanadi.

Respublikamizda bunday ixtisoslashuv zamonaviy talablarga javob bermaydi, ya'ni firmalar turizmning barcha shakllari bilan shug'ullanishadi.

Turizmni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri Samarqand, Buxoro va Xiva turizm obyektlarini reklama qilish hisoblanadi. Bu bilan «O'zbekturizm»

1 www.rhd.uz.

MK qoshidagi maxsus fond shug'ullanishi zarur. Kuchli reklamasiz O'zbekistonga turistlarni jalb qilish mumkin emas.

«O'zbekturizm» MK ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda davlat turistik kompaniyasi xizmatlaridan foydalanuvchi bitta turistga xususiy firma xizmatlaridan foydalanuvchi 45 ta turist to'g'ri keladi.

Respublikada turizm rivojlanishining monetar tartibga solish konsepsiyasini amalga oshirish faqat turizm sohasida o'zgarishlarni ta'minlovchi bir qancha moliyaviy-kredit mexanizmlaridan foydalanish mavjud bo'lgan holda bo'lishi mumkin.

Turizm firmalari iqtisodiyotini tartibga solishning monetar modeli talablariga javob beruvchi o'ziga xos turistik firmalarni soliqqa tortish tizimini ishlab chiqish zarur. Amal qiluvchi soliqqa tortish tizimi turistlarga turli xil xizmat ko'rsatishni rag'batlantirmaydi. Shuning uchun yuqori darajada xizmat ko'rsatuvchi mehmonxonalarni, kempinglarni va boshqa turizm mehmonxona obyektlarini qurish uchun turizm sohasidagi xorijiy kapital va texnologiyalardan foydalanishning maqsadli kompleks dasturini ishlab chiqish zarur. Xorijiy kapital yordamida ekskursiya uchun tarixiy, arxetektura obyektlarini qayta ta'mirlash kerak.

Xalqaro turizmni rivojlantirishning monetar konsepsiyasini amalga oshirishning birinchi bosqichi O'zbekistonga xorijiy turizmni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini yaratish hisoblanadi. Bu turizm va ekskursiyalar bo'yicha qo'shma korxonalarni tashkil qilish, turizm sanoatining xorijiy kreditidan va texnologiyalaridan foydalanishni talab qiladi.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak:

- mamlakat oliy o'quv yurtlarida, ayniqsa, turizmni tashkil qilish va iqtisodiyoti bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash;
- turizm bo'yicha turli mulk shakllarini va turizm xizmatlarining bozor infratuzilmasini yaratish uchun turizm bo'yicha 50 % mulkni xususiylashtirish;
- turizm xizmatlariga erkin kelishilgan tarif va narxlarni joriy qilish, turli xizmatlar ko'rsatilishi miqdori va sifatini tartibga solish imkonini beradi va ishchilarni moddiy manfaatdor qiladi.

Asosiy tushunchalar

Xizmatlar — ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi kelishuv munosabatlari asosida boshqa shaxslarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan (mehnat qonuniy munosabatlari asosidagi faoliyatdan tashqari) faoliyat.

Xizmatlar — bu jamiyat, uy xo'jaligi a'zolari, turli korxonalar, birlashmalar, tashkilotlarning ehtiyojlarini qondiruvchi moddiy-ashyoviy shaklga ega bo'lmagan iqtisodiy faoliyat.

Savdo qilinmaydigan xizmatlar — ishlab chiqaruvchi va iste'molchi bir mamlakat rezidenti hisoblangan va ishlab chiqarilgan mamlakatda iste'mol qilinadigan xizmatlar.

Savdo qilinadigan xizmatlar — bir mamlakat rezidenti tomonidan ishlab chiqariladigan va boshqa mamlakat rezidenti tomonidan iste'mol qilinadigan xizmatlar.

Omilli xizmatlar — ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati natijasida yuzaga keluvchi xizmatlar.

Omil bo'lmagan xizmatlar — ularga transport, turizm va boshqa nomoliyaviy xizmatlar kiradi.

Xalqaro transport xizmatlari — bir mamlakat rezidentining ikkinchi mamlakat rezidentiga barcha turdagi transport vositalari bo'yicha ko'rsatadigan xizmatlari.

Resurslar asosida ishlovchi tarmoqlar — xomashyoni tashish xarajatlari tayyor mahsulotni tashish xarajatlaridan qimmatga tushadigan tarmoqlar.

Bozorga yo'naltirilgan tarmoqlar — tayyor mahsulotni tashish xarajatlari xomashyoni tashish xarajatlaridan qimmatga tushadigan tarmoqlar.

Erkin yo'naltirilgan tarmoqlar — resurslar va bozorlarga yo'naltirilmagan hududiy harakatchan tarmoqlar hisoblanib, odatda, ularga qimmat turuvchi, ammo yengil tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar kiradi.

Xalqaro safarlar — sayohatchilar tomonidan xorijda sotib olinadigan tovarlar va xizmatlar yig'indisi.

Sayohatchi — o'zi rezident hisoblanmaydigan mamlakatda bir yildan kam muddatda bo'lgan, boshqa mamlakatning davlat tashkiloti xizmatchisi yoki oila a'zosi bo'lmagan va rezident uchun yollanib ishlamaganlar kiradi.

Umumiy majburiyatlar — mumkin qadar qulaylik rejimi bo'lib, bu rejim a'zo mamlakatlarning milliy xizmatlar bozoriga kirishida teng huquqlilikni ta'minlaydi.

Maxsus majburiyatlar — u yoki bu mamlakat xizmatlar bozoriga kirib borishning aniq shartlari bilan bog'liq majburiyat.

Nazorat savollari

1. Xalqaro xizmatlar deganda nimani tushunasiz?
2. Xalqaro xizmatlarning qanday turlari mavjud?
3. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar xizmatlarni qaysi mezonlar asosida guruhlaydi?
4. Xalqaro xizmatlar bozorining rivojlanishiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?
5. Xalqaro xizmatlar bozorining rivojlanish tamoyillariga baho bering.
6. Xalqaro transport xizmatlarining xizmatlar bozoridagi o'rni va tarkibi qanday?
7. Turizm xizmatlarining xalqaro xizmatlar bozoridagi o'rniga baho bering.
8. Xalqaro xizmatlar savdosi qanday usullar yordamida tartibga solinadi?
9. O'zbekistonda turizmning holati va rivojlanish istiqbollariga baho bering.

25-BOB. INTELLEKTUAL MULK SAVDOSI

25.1. Intellektual mulk tushunchasi

Bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonida inson salohiyati, tafakkuri mahsuli sifatida intellektual mulk obyektlarining o'rni va vazifasi muhim ahamiyatga ega. Intellekt lotincha so'zdan olingan bo'lib, «aql», «tafakkur», «anglash» ma'nolarini bildiradi. Intellektual mulk obyektlari ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim omillaridan biri bo'lib, ulardan tijorat maqsadida foydalanish samaradorligi sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida o'z isbotini topgan.

XVIII–XIX asrlarda «Intellektual mulk» atamasi huquqshunoslar va iqtisodiy nazariya soha vakillari o'rtasida epizodik tarzda qo'llanilgan bo'lsa, XX asr o'rtalariga kelib keng qo'llanila boshlandi.

Intellektual mulk – berilgan mahsulotlardan foydalanish, almashtirish va yaratish munosabatlarini boshqaruvchi, huquqiy asosda amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat mahsulotiga egalik qilishdir.

Intellektual mulk ijodiy faoliyat natijasi sifatida yangi obyektlarning vujudga kelishi va huquq doirasining kengayishiga olib keldi. Masalan, XX asrning oxirgi o'n yilligida integral mikrosxemalar topologiyasi huquqi paydo bo'ldi.

Intellektual mulk institutining shakllanishi o'ziga xos tarixga ega. Birinchi patent 1421-yil Florensiyada berilgan. Ixtiro uchun beriladigan patent haqidagi ilk qonun 1623-yil Angliyada qabul qilingan «Monopoliyaning o'rni haqida»gi qonun hisoblanadi. Ixtiro uchun egalik huquqining o'rnatilishi 1790-yildagi AQSh Federal va 1791-yilda Fransiyadagi Patent qonunlari bilan bog'liqdir. XIX asrning o'rtalarida patent qonunlari Yevropaning aksariyat davlatlarida qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 164-moddasi mulk huquqini shaxsning o'ziga qarashli bo'lgan mol-mulkka o'z ixtiyori bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, o'zining mulk huquqini har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqi sifatida belgilaydi. Ushbu kodeksning 169-moddasida intellektual mulk obyektlari shaxsning mulki bo'lishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti hujjatlariga muvofiq quyidagilar intellektual mulk sifatida ajratiladi:

- Mualliflik huquqi. Mualliflik huquqi adabiyot, san'at va ilmiy asarlarni yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi. Mualliflik huquqi asosida qaysidir obyektiv shaklda mavjud bo'lgan ijodiy faoliyatning asl natijasini bildiruvchi «asar» tushunchasi yotadi. Aynan shu obyektiv shakl mualliflik huquqida muhofaza qilish predmetidir. Mualliflik huquqi faktlarga, ochishlarga, prinsiplarga, konsepsiyalarga, usullarga, tizimlarga, jarayonlarga, uslublarga va g'oyalarga nisbatan joriy etilmaydi.
- Turdosh huquq. Mualliflik huquqini berish uchun ijodi yetarli bo'lmagan faoliyatlar uchun mualliflik huquqi namunasi bo'yicha XIX asr boshi — XX asr ikkinchi yarmida yaratilgan alohida huquqlar guruhidir. Turdosh huquqlar tuzilishi mamlakatlarda turlicha bo'ladi. Keng tarqalganlari sifatida musiqachi-ijrochi, fonogramma tayyorlovchi va efirga uzatishni tashkillashtiruvchilarni ko'rsatishimiz mumkin.
- Patent huquqi — ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellarga patent berish yo'li bilan himoya qilish tartibini belgilaydigan huquqiy normalar tizimi.
- Sanoat namunalari sifatida sanoat yoki kasanachilikda ishlab chiqarilgan mahsulotni yangi va asl tasviriy-konstruktorlik tashqi ko'rinishini aniqlaydigan yechimni himoya qilishi mumkin.
- Tovar belgilari. Intellektual mulk obyektlari guruhini yagona huquqiy marketing belgilarini himoya qilish institutiga birlashtirish mumkin bo'lgan huquq bo'lib, quyidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi: tovar belgisi, xizmat belgilari, firma nomlari, tovar kelib chiqqan joy nomlari.
- Oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau) — bu ixtiyoriy ko'rinishdagi ma'lumot bo'lib, tijorat siri darajasida muhofaza qilinadi va oldi-sotdi yoki raqobatchi ustidan g'alaba qozonish uchun foydalaniladigan predmeti bo'lishi mumkin.
- Seleksiya yutuqlari — yangi o'simlik navi yoki hayvon turlarini yaratish, ushbu yangiliklarni muhofaza qilish huquqi.

Har bir intellektual mulk obyekti muhofaza qilinadi. Muhofaza Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT), mualliflik huquqlarini himoya qilish Bern Konvensiyasi, Sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha Parij konvensiyasi, Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish uchun Madrid bitimi, Patent kooperatsiyasi to'g'risida shartnoma (RST), Tovar belgilariga oid qonunlar to'g'risida shartnoma (TLT), Patent huquqi to'g'risida shartnoma, O'simliklar yangi navlarini himoya qilishga oid xalqaro konvensiya (UPOV), Patent tadbirlari maqsadlari uchun mikroorganizmlarni deponentlashtirishni xalqaro e'tirof etish to'g'risidagi Budapesht shartnomasi,

Belgilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun tovar va xizmatlarning xalqaro tasnifi to'g'risidagi Nitssa bitimi, Xalqaro patent tasnifi to'g'risidagi Strasburg bitimi, Sanoat namunalarining xalqaro tasnifini ta'sis etish to'g'risida Lokarno bitimi va boshqa xalqaro bitim hamda shartnomalar orqali bajariladi. Intellektual mulk savdosida ko'p tomonlama shartnomalar yuqorida keltirilgan bitim va shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Shu bilan bir qatorda intellektual mulkni himoya qilish hujjatlarining quyidagi turlari mavjud:

- Patent — patent egasining ixtiro, sanoat namunasi, foydali model, seleksiya kashfiyotiga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etishga bo'lgan mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjat.
- Tovar belgisiga guvohnoma — guvohnomada ko'rsatilgan tovarlarga nisbatan tovar belgisi egasining mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjat.
- Tovar kelib chiqqan joy nomlariga guvohnoma — guvohnomada ko'rsatilgan tovarlarga nisbatan tovar kelib chiqqan joy nomlaridan foydalanishga oid guvohnoma egasining huquqini tasdiqlovchi hujjat.
- EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasiga guvohnoma — ro'yxatdan o'tkazilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasiga bo'lgan mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjat.
- Topologiyani ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida guvohnoma huquq egasining topologiyadan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqini tasdiqlaydi.

25.2. Intellektual mulk savdosining tartibga solinishi

Intellektual mulk obyektlaridan tijorat maqsadlarida foydalanish bu jarayonni huquqiy tartibga solish va muhofaza qilishni talab etadi. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlardan tijorat maqsadlarida foydalanish hajmi, miqyosi yiliga yuzlab milliard dollarni tashkil etadi.

Tahlillar ko'rsatishicha, jahon savdosining 5–7 %gacha bo'lgan qismi qalbaki va o'g'irlangan mahsulotlardan iborat bo'lmoqda. Yevropa Ittifoqi komissiyasining hisob-kitobiga ko'ra, ushbu mahsulotlarning qiymati 200 mlrd. yevrodan 300 mlrd. yevroga yetadi va o'rtacha 200 ming ishchi o'rni yo'qotiladi (25.2.1-jadval).

25.2.1-jadval

Xalqaro tashkilotlar tomonidan qalbaki va o'g'irlangan mahsulotlar ulushining baholanishi

TASHKILOT	BAHO
Umumjahon bojxona tashkiloti	Jahon savdosining 5 %ga yaqin qismi qalbaki mahsulotlardan iborat
Yevropa Ittifoqi komissiyasi	Jahon savdosining 5–7 %gacha bo'lgan qismi qalbaki mahsulotlardan iborat bo'lib, ularning qiymati yiliga 200–300 mlrd. yevrogacha yetadi va 200 ming ishchi o'rni yo'qotiladi
Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti	Jahon savdosining 5 %ga yaqin qismi qalbaki mahsulotlardan iborat

Manba: http://europa.eu.int/comm/internal_market/en/intprop/indprop/922.htm.

Intellektual mulk savdosi xalqaro konvensiyalar, bitimlar, kelishuvlar va shartnomalar asosida xalqaro tashkilotlar tomonidan tartibga solinadi. Ushbu tizim samarali tashkil etilganligi sababli intellektual mulk obyektlari savdosidan katta miqdorda daromad olinmoqda, g'oyalar, ishlanmalar va shaxsiy mulkiy huquqlar rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida katta ulushga ega bo'lmoqda.

Intellektual mulk savdosi quyidagi ko'ptomonlama shartnomalar orqali tartibga solinadi:

1. Sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha Parij konvensiyasi — 1883-yil 20 martda Parijda imzolangan. 1900 (Bryussel), 1911 (Vashington), 1925 (Gaaga), 1958 (Lissabon), 1967 (Stokgolm) yillarda qayta ko'rib chiqilgan va 1979-yil 2-oktyabrda o'zgartirishlar kiritilgan yangi nashri e'lon qilingan. Parij konvensiyasining asosiy maqsadi intellektual mulk hisoblangan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, firma nomlari, kelib chiqish joy nomlarini himoya qilish hisoblanadi.
2. Fan, adabiyot va san'at asarlarini himoya qilish Bern Konvensiyasi — 1886-yil 9-sentyabrda imzolangan. Konvensiya universal huquqiy hujjat sifatida mualliflik huquqini himoya qiladi.
3. Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish uchun Madrid bitimi ham intellektual mulk ko'rinishlarini himoya qiladi va 1891-yil 14-aprelda imzolangan hamda 1900-yil 14-dekabr Bryusselda, 1911-yil 2-iyun Vashingtonda, 1925-yil 6-noyabr Gaagada, 1958-yil 31-oktyabr Lissabonda, 1967-yil 14-iyul Stokgolmda qayta ko'rilgan. Bu bitim imzolagan davlatda belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish uchun Maxsus ittifoq tuziladi. Bu ittifoq mamlakatda BMIT bilan kelishilgan holda belgilarni ro'yxatdan o'tkazadi.
4. Patent kooperatsiyasi to'g'risida shartnoma (RST) 1970-yil 19-iyunda Vashingtonda imzolangan. 1979, 1984, 2001-yillarda qayta ko'rib chiqilgan va o'zgartirishlar kiritilgan.
5. Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish uchun tovar va xizmatlarni xalqaro tasnifi to'g'risidagi Nitssa bitimi — 1957-yil 15-iyunda Nitssada imzolangan. 1967-yil Stokgolmda va 1977-yil Jenevada qayta ko'rib chiqilgan.
6. Tovar belgilariga oid qonunlar to'g'risidagi shartnoma (TLT) — 1994-yil 27-oktyabrda Jenevada imzolangan.
7. Xalqaro patent tasnifi to'g'risidagi Strasburg bitimi — 1971-yil 24-mart Strasburgda imzolangan. Ushbu bitim yaratilayotgan ixtirolarni tasniflash va ularga patent berish bo'yicha huquqlarni himoya qiladi.

Qayd etib o'tilgan bitim va konvensiyalar bilan bir qatorda Patent huquqi to'g'risida shartnoma, O'simliklarning yangi navlarini himoya qilishga oid xalqaro konvensiya (UPOV), Patent tadbirlari maqsadlari uchun mikroorganizmlarni deponentlashtirishni xalqaro e'tirof etish to'g'risidagi Budapesht shartnomasi, Sanoat namunalarining xalqaro tasnifini ta'sis etish to'g'risida Lokarno bitimi, Audiovizual asarlarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi shartnoma, Olimpiya belgilarini himoya qilish Vashington shartnomasi va boshqalar.

Xalqaro texnologiyalarni, jumladan, intellektual mulklarni uzatishda uch tashkilot — JST, BIMT va BMT taraqqiyot dasturi tahlil qilish va tartibga solishni amalga oshiradi, ularning birinchi ikkitasi, asosan, texnologiyalarni uzatishning xalqaro bitimlari borasida, uchinchisi xalqaro texnik hamkorlikni ko'ptomonlama moliyaviy kanali sifatida ishtirok etadi.

Intellektual mulk savdosining huquqiy jihatdan bog'liq JST bitimi (TRIPS) 1995-yil kuchga kirgan intellektual mulkni tartibga solish bo'yicha eng maqbul xalqaro-huquqiy hujjat bo'ldi. JST bitimlari kabi uni bu bitim intellektual mulkning

xorij huquqlari munosabatlarida milliy tartibda qo'llanilishini ko'zda tutgan. U kopirayt, tijorat markalari va belgilari, geografik nomlar va sanoat dizaynlari masalalari bilan shug'ullanadi. Bitim intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha JST a'zolarining minimal majburiyatlarining standartlarini aniqlashni, JST tizimi orqali intellektual mulkni muhofaza qilish huquqi mexanizmini va shu sohadagi nizolarni hal etish tartibini, himoya qilish predmetini va minimal davomiyligini amalga oshiradi. JST ga a'zo mamlakatlarga Sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha Parij, Fan, adabiyot va san'at asarlarini himoya qilish bo'yicha Bern konvensiyalarida qo'yiladigan minimal standartlar rioya qilishlari kerak.

Intellektual mulkni dunyoda rivojlantirish va uni himoyalash bilan 1967-yilda tashkil etilgan hamda 1974-yilda BMT ning ixtisoslashtirilgan idorasi maqomiga ega bo'lgan Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) shug'ullanadi. BIMT ga 188 ta mamlakat a'zo bo'lib, tashkilotning shtab kvartirasi Jenevada joylashgan. BIMT yangi imzolangan xalqaro bitimlarni va milliy qonunchilikni modernizatsiyalashni qo'llab-quvvatlash, davlatlararo tashkiliy hamkorlikni tashkillashtirish, ixtirolar, belgilar va sanoat namunalarini xalqaro himoyalashni yengillashtirish uchun rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik yordam va xizmatlarni taqdim etish kabi vazifalarni bajaradi. BIMT qoshida arbitraj va dallollik markazlari mavjud. 1999-yildan boshlab Internet tarmog'ida keng tarqalgan tipik domen nomlaridan (. com,. net,. org) foydalanish va ro'yxatdan o'tkazish vaqtida vujudga kelgan nizolarni hal etish xizmatlarini ko'rsatmoqda. BIMT intellektual mulk sohalarini to'liq qamrab olgan 21 ta bitim yordamida boshqaradi. Ushbu bitimlarga Sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha Parij konvensiyasi (1883), Fan, adabiyot va san'at asarlarini himoya qilish bo'yicha Bern konvensiyasi (1886), Kelib chiqish joy nomlari va ularni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha Lissabon bitimi (1958), Sanoat namunalarini deponentlashtirishni xalqaro e'tirof etish to'g'risidagi Gaaga bitimlarini (1934) kiritish mumkin.

Misol tariqasida, BIMT ning texnik boshqaruvida Bern konvensiyasi doirasida fonogramma ishlab chiqaruvchilarni fonogrammaning tartibsiz tarqalishidan himoya qiluvchi shartnoma mavjud. BIMT ni Bern va Parij konvensiyalarini imzolagan mamlakatlardan tashkil topgan Bosh assambleya boshqarib, u tomonidan saylangan bosh direktor va 68 mamlakat vakillaridan iborat yo'naltirish qo'mitasidan iborat bo'ladi.

2000-yilda BIMT rivojlanishda intellektual mulkning ahamiyatini tushuntirish maqsadida Xalqaro intellektual mulk kunini ta'sis etdi. BIMT Bosh direktori Frensis Garrining ta'kidlashicha, «2009-yilda Xalqaro intellektual mulk kunida Butunjahon intellektual mulk tashkiloti o'z diqqat-e'tiborini barqaror intellektual mulk tizimining sof texnologiyalarini yaratish, tarqatish va qo'llashni rag'batlantirishga; yaratilish vaqtidan chiqitga chiqqunga qadar atrof-muhitga ijobiy ta'sir qiluvchi mahsulot yaratishga yo'naltirilgan ekologik dizaynga ko'maklashishga; iste'molchilarga axborot tanlovini amalga oshirish va kompaniyalarga raqobat afzalliklarini taqdim etishga yordam beradigan yashil brendingga qo'shadigan hissasiga qaratmoqda»[1]. Ya'ni, 2009-yilda ustuvorlik yashil innovatsiyalarga berilgan.

BMT Taraqqiyot dasturi — (UNDP) 1965-yilda tashkil etilgan bo'lib, texnik yordamni rivojlantirish uchun ko'ptomonlama shartnomalarni moliyalashtirish manbayi hisoblanadi. Taxminan har yili 1 mlrd. dollar miqdorida bo'lgan mablag'ni BMT ga a'zo davlatlar o'z ixtiyorlari bilan taqdim etishadi. BMT Taraqqiyot dasturining asosiy vazifasi rivojlanayotgan davlatlarga inson kapitalini

1 www.patent.uz/istoriya_uz.

rivojlantirishda, kambag'allikka qarshi kurashda, atrof-muhitni yaxshilashda, bo'sh ish joylari bilan ta'minlashda, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda amaliy yordam ko'rsatishdan iborat. Dunyo bo'ylab 132 ta idorasi va 30 dan ortiq xalqaro va hududiy tashkilotlar ekspertizasidan foydalanib, BMT Taraqqiyot dasturi ma'lum bir mamlakatlarga texnologiyani uzatish va moslashtirishda, kambag'allikni yo'qotishda, tabiiy resurlarga ishlov berish, rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi hamkorlik, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda, OITS ga qarshi kurashda texnik yordam ko'rsatadi.

25.3. Jahonda intellektual mulk savdosining rivojlanish tendensiyalari

Bugungi kunda intellektual faoliyat, innovatsiya, tajriba natijalari alohida o'rin tutmoqda. Intellektual faoliyat ishlab chiqarishning, iqtisodiyotning bir me'yorda va jadal rivojlanishining muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib qolmoqda. Jahon bozorining yangi sektori — intellektual mulk bozori, borgan sari savdo aylanmalarida yangi obyektlarni o'zida mujassamlashtirib, barqaror sur'atlarda rivojlanib bormoqda, Intellektual mulk jahon iqtisodiy o'sishining eng chuqur jarayonlariga intensiv ta'sir qilib, jahon mehnat bozorining yangi yo'nalishlarini tashkil topishiga imkon bermoqda.

Jahon iqtisodiyotida o'zining salmoqli o'rniga ega bo'lgan Yevropa davlatlari hamdo'stligi — Yevropa Hamkorligi ham intellektual mulkka bo'lgan e'tiborini kuchaytirmoqda. Yevropa o'z mavqeyini jahon bozorida baland narxlar bilan saqlab qolishining sababi, ultrazamonaviy ekologik texnologiyalardan foydalanib quyosh batareyalari, dizaynli sumkalar, kamamber pishloqlarining sifati, tovar belgilari, yaxshi g'oyalarni sifatli tovarlarda yuzaga chiqarishidan iborat[1].

Bu borada AQSh, Osiyo davlatlarida intellektual mulk yaratish, texnologiyalarni uzatish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Buni XX asrning 90-yillardagi ba'zi mamlakatlar erishgan iqtisodiy rivojlanishida ko'rishimiz mumkin. Bilimlarning jadal rivojlanishi intellektual mulkka nisbatan siyosatning o'zgarishiga va intellektual aktivlarni boshqarishning yangi amaliyoti qo'llanilishiga olib keldi. Bu o'zgarishlar yangi yuqori texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq edi.

Ba'zi rivojlangan mamlakatlar «chet eldagi intellektual mulk huquqi munosabatlarida qaroqchilik yo'lini qo'llashga o'tishgan» bir vaqtda, intellektual mulk rivojlanish ahamiyatining va 90-yillar boshida global savdoning yangi xarakteriga intellektual mulk savdosi huquqi siyosati o'rtasidagi aloqa o'rnatildi. Bu borada Urugvay raundida TRIPS orqali intellektual mulk savdosida ko'ptomonlama shartnomalar huquqlari belgilandi. Butun dunyo firmalari, jumladan, Yaponiya, AQSh va Yevropa davlatlariga xos bo'lgan o'zining ixtirolarini patentlashga moyillik tug'ildi. Masalan, Yaponiyaga birinchi million patentlarini berish uchun 95 yil, keyingi millioninchi patent uchun 15 yil vaqt kerak bo'ldi.

Jahonda patent talabnomalarining soni jadal sur'atlarda ortib bormoqda. BIMT ma'lumotlariga ko'ra 2013-yilda 9,5 mln. patent amalda bo'lib, ularning 26 % AQSh (2,4 mln.), 19 % Yaponiya hissasiga to'g'ri keladi.

Jumladan, 1995–2013-yillarda ushbu talabnomalar soni 2,6 martaga ortib, 2 mln. 567 mingtani tashkil etdi va qo'shimcha yillik o'sish sur'atlari o'rtacha 8,5 %ga teng (25.3.1-jadval).

1 Barroso, J. M. D. Counting the Cost of Counterfeits: Fakes Cost More: Speech at the Global Anti-Counterfeit Summit, Brussels, 10 March 2008.

25.3.1-jadval
Jahonda patent talabnomalari sonining o'zgarishi

Yillar	Talabnomalar soni	O'tgan yillarga nisbatan o'sish sur'ati, %
1995	1047400	-
2000	1377400	8,6
2005	1702900	8,2
2010	1996800	7,3
2011	2157900	8,1
2012	2356500	9,2
2013	2567900	9,0

Manba: WIPO statistics database, October 2014. www.wipo.int

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham patentlarni berish talablari o'sib bormoqda. Tahlillar, 2003–2013-yillarda patent talabnomalari sonida yuqori daromadli mamlakatlar ulushi 85,7 %dan 60,35 gacha qisqargani holda, o'rta yuqori daromadli mamlakatlar ulushi 11,9 %dan 36,4 %gacha, o'rta quyi daromadli mamlakatlar ulushi esa 1,9 %dan 2,9 %ga qadar ortganligini ko'rsatmoqda (25.3.2-jadval).

25.3.2-jadval
Patent talabnomalarining umumiy soni va rezidentlarning geografik tarkibi

	Talabnomalar soni		Rezidentlar ulushi, %		Jahondagi ulushi, %	
	2003	2013	2003	2013	2003	2013
Jahon bo'yicha, jami	1490300	2567900	62,5	66,5	100,0	100,0
Yuqori daromadli mamlakatlar	1276800	1548900	66,1	61,0	85,7	60,3
O'rta yuqori daromadli mamlakatlar	177700	933900	40,3	79,0	11,9	36,4
O'rta quyi daromadli mamlakatlar	28600	74500	29,0	23,2	1,9	2,9
Past daromadli mamlakatlar	7200	10600	87,5	84,0	0,5	0,4

Manba: WIPO statistics database, October 2014. www.wipo.int

BIMT bajarayotgan ma'muriy vazifalarning Patent kooperatsiyasi to'g'risidagi shartnoma asosida tushgan patent miqdori xalqaro patentlar talabining umumiy soni bilan mos tushadi. 250000 ta talabnomalar olish uchun 18 yil va shu sonni ikki baravarga ko'paytirish uchun atigi 4 yil vaqt kerak bo'lgan (25.3.1-rasm).

25.3.1-rasm.
Patent kooperatsiyasi to'g'risidagi shartnoma asosida berilgan talabnomalar o'sish dinamikasi



Manba: WIPO statistics database, October 2014. www.wipo.int

Butunjahon intellektual mulk tashkilotining bergan ma'lumotlariga ko'ra, 2013-yilda xalqaro miqyosda xalqaro patent talabnomalari 2567900 taga yetib, birinchi beshlik mamlakatlarini Xitoy, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya Yevropa Patent tashkiloti tashkil etdi. Masalan, 2013-yilda Xitoy 825,1 ming, AQSh 571,6 ming, Yaponiya 328,4 ming, Janubiy Koreya 204,6 ming ixtiroga patent berib, ularni fuqarolik muomalasiga kiritdi[1].

25.3.3-jadval
Patent talabnomalari soni bo'yicha birinchi beshlik mamlakatlari

Yillar	Xitoy	AQSh	Yaponiya	Janubiy Koreya	Yevropa Patent tashkiloti
1990	10137	171163	360704	25820	60754
2000	51906	295895	419543	102010	100692
2010	391177	490226	344598	170101	150961
2011	526412	503582	342610	178924	142793
2012	652777	542815	342796	188915	148560
2013	825136	571612	328436	204589	147987

Manba: WIPO statistics database, October 2014. www.wipo.int

Jahonda inttellektual mulk huquqlarini ro'yxatdan o'tkazish faollashib bormoqda. Jumladan 2013-yilda o'sish sur'atlari patentlar bo'yicha 9 %ni, tovar belgilari

1 www.wipo.int/pressroom/ru/articles/2008/article_006.html

bo'yicha 6,4 %ni, sanoat namunalari bo'yicha 2,5 %ni va o'simlik navlari bo'yicha 6,3 %ni tashkil etdi. Talabnoma berganlardan 1,7 mln. kishi mamlakat rezidentlari, 0,9 mln. kishi esa norezidentlar hisoblanishadi.

Talabnomalarning 7,6 % kompyuter texnologiyalari, 7,2 % elektrotexnik asbob-uskunalar, 4,7 % o'lchash asboblari, 4,5 % raqamli aloqa, 4,3 % tibbiy asbob-uskunalar sohasiga to'g'ri keldi.

Patent tizimi texnik va tadbirkorlik raqobatini keltirib chiqaradi. Patent egasi o'zining ixtirosini batafsil yoritib berishi zarur, bu esa ma'lum vaqtda ushbu ixtirodan foydalanish imkoniyatini beradi. Natijada patent egasi va uning raqobatchilari ixtironi takomillashtirishga yoki yangi kashfiyotlar qilishga harakat qilishadi. Masalan, 1896-yil Sakashi Toyota Yevropada foydalanilgan oldingi mashinalarga o'xshash mexanik tikuv mashinasining takomillashtirilgan ko'rinishiga patent oladi. O'ttiz yildan so'ng Sakashi avtomatlashtirilgan tikuv mashinasini yaratishga muvaffaq bo'ladi. Bu ixtironi to'ldiruvchi hamda takomillashtiruvchi yana ko'p patentlar olinadi va nihoyat 1924-yili bozorda G tipidagi Toyota avtomatlashtirilgan tikuv mashinalari chiqadi. Sakashining o'g'li Kishiro Toyota avtomatlashtirilgan tikuv mashinalarini sotish uchun «Dlatt Brazers» kompaniyasi bilan shartnoma tuzadi. «Dlatt Brazers» kompaniyasi Toyotaga 100000 funt sterling to'lab, evaziga avtomatlashtirilgan tikuv mashinalarini ishlab chiqarish va Yaponiya, AQSh, Xitoy davlatlaridan boshqalariga sotish huquqini oladi. Bu ilmiy tadqiqotlar va ishlab chiqarish uchun investitsiyani olib kirish uchun katta kapitalni ta'minladi. Toyota 100000 funt sterlingni kompaniya avtomobillarini ishlab chiqarish uchun birinchi kapitaliga va tadqiqotlarni moliyalashtirishga qaratdi. Bugungi kunga kelib esa Toyota kompaniyasi dunyoning avtomobilsozlik sohasida yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda[1].

Patent axborotlari texnologiyalarni uzatishni osonlashtiradi va investitsiyalar oqimini jadallashtiradi. Patent ma'lumotlar bazasi yordamida litsenziyalash va hamkorlar topishga yordam beradi. Bir tadqiqot natijasiga ko'ra AQSh ning 67 % kompaniyalari o'zlari ishlata olmaydigan texnologik aktivlarga (umumiy hajmi 115 mlrd. dan 1 trillion AQSh dollarga baholanadi) egadirlar. 100 mlrd. AQSh dollari atrofidagi summa harakatsiz innovatsiyalar uchun Intellektual mulk kompaniyalari papkalarida muzlatilgan holda saqlanadi. Intellektual mulk, ilmiy tadqiqot va qayta ishlash uchun davlat tomonidan moliyalashtiriladigan universitetlar, ilmiy tekshirish markazlari o'rtasida juda muhim bog'lanish bor. Bu borada bir tashkilot davlat tomonidan ajratilgan moliyaviy mablag'lar orqali ixtirolarga patent yoki litsenziya olishlari mumkin. Bu esa tashkilotning litsenziya yordamida daromad olishi va bu daromaddan unumli foydalanib, yangi tadqiqotlar olib borishi uchun imkoniyat yaratadi. Masalan, AQSh da 80-yillarga kelib hukumat tomonidan federal byudjetdan moliyalashtirilgan universitetlarga va kichik tashkilotlarga ixtirolari uchun egalik qilish, ixtirolarni sotish jarayonida bevosita qatnashish to'g'risida qonun qabul qilindi. Bu universitetlar va sanoat korxonalari o'rtasida texnologiyalarni uzatish sur'atini jadallashtirib yubordi.

Quyidagi keltirilgan statistik ma'lumotda (25.3.2-rasm) mualliflik huquqlari bilan himoya qilinadigan tarmoqlar haqida tasavvur shakllanadi. Misol uchun, 2001-yilda AQSh mualliflik huquqlari bilan himoya qilinadigan asosiy sanoat tarmoqlari mamlakat iqtisodiyotiga umumiy hajmda 791,2 mlrd. dollar miqdorda hissa qo'shdi, bu esa YaIM ga nisbatan 7,7 %ni tashkil qildi.

1 Ищи Т. Промышленные инновации в Японии и роль систем: конкретное исследование на примере Тойота. Сент-Луис, Миссури, 2000. С. 26.

25.3.2-rasm.
Mualliflik huquqlari himoya qilinadigan sanoat tarmoqlarining YalM dagi ulushi, foiz hisobida



Manba: www.wipo.int/pressroom/ru/articles/2008/article_006.html

Tovar belgilari franchazinning asosiy elementlaridan hisoblanadi. Franshiz xalqaro assotsiatsiyasi bergan ma'lumotlariga qaraganda, AQSh ulgurji savdosining uchdan bir qismini, jumladan, «Makdonolds», «Koka-kola», «Djeneral motors» va «Re-maks» tovar belgilari tashkil qiladi. Aksariyat mamlakatlarda tovar belgisi va franshizani birgalikda qo'llab samarali modeldan foydalanishadi.

25.4. O'zbekistonda intellektual mulk savdosi huquqiy-institutsional asoslarini takomillashtirish

Mustaqillik yillaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi G'arb mamlakatlarida qabul qilingan qonunchilikka mos keluvchi intellektual mulk huquqini himoya qilish siyosatini olib borishga harakat qilmoqda. Mazkur sohaga oid ellikdan ortiq qonuniy hujjatlar qabul qilingan.

O'zbekiston 1991-yilning 25-dekabridan e'tiboran Butunjahon intellektual mulk tashkilotining (BIMT) a'zosi bo'ldi. Shu bilan birga O'zbekiston Xalqaro bitimlar va Konvensiyalar qatnashchisidir. Jumladan, Bern Konvensiyasi — mualliflik huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan asosiy xalqaro shartnomalardan biridir. 2006-yilda yangi tahrirda qabul qilingan «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi Qonun xalqaro huquq normalariga to'la moslashtirildi. Bu esa mamlakatimizda davlat va hukumatimiz tomonidan mualliflik huquqi himoyasi samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotganining yaqqol ifodasidir. O'zbekiston Bern Konvensiyasiga (2005) a'zo bo'lganidan va tegishli Qonun (2006) qabul qilinganidan keyin Mualliflik huquqini himoya qilish agentligi faoliyatida qator ijobiy o'zgarishlar yuz berdi.

O'zbekistonda fan-texnika sohasidagi intellektual mulk obyektlarining salmog'i ortib bormoqda. 1992–2012-yillarda Davlat Patent idorasiga 112 mingdan ortiq intellektual mulk obyektlariga talabnomalar topshirildi, 40 mingga yaqin intellektual mulk obyektlari ro'yxatga olindi. Jumladan, 2012-yilda intellektual mulk obyektlariga jami 6465 ta talabnoma topshirildi, bu o'tgan yilga nisbatan 5,2 %ga oshgan. Intellektual mulk obyektlarining Davlat reyestrlarida 2052 ta intellektual mulk

obyekti ro'yxatga olindi, bu esa 2011-yil ko'rsatkichidan 9,5 % kam. Madrid bitimi Bayonnomasi bo'yicha 1933 ta tovar belgisiga huquqiy muhofaza berildi.

O'zbekistonda intellektual mulkni huquqiy muhofaza qilish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, ularni amalga oshirish mexanizmlari yangidan ishlab chiqilgan «O'zbekiston Respublikasida intellektual mulkni huquqiy muhofaza qilish tizimini rivojlantirishning 2010–2015-yillarga mo'ljallangan Konsepsiyasi»da o'z ifodasini topdi.

O'zbekiston qonunchiligi intellektual mulk huquqi bilan bog'liq barcha jarayonlarni to'liq qamrab oladi. Masalan, Fuqarolik kodeksi (6 bo'lim, 60 bob) va O'zbekiston Respublikasining «Mualliflik huquqi va aralash huquqlar to'g'risida»gi Qonunida intellektual mulk huquqi bilan bog'liq alohida holatlar ham ko'rib chiqilgan. O'zbekiston Respublikasining «Mualliflik huquqi va aralash huquqlar to'g'risida»gi Qonunining 88-moddasiga muvofiq mualliflik huquqi muallif vafot etgandan keyin 50 yilgacha amalda bo'ladi va bu «Adabiy va badiiy asarlarni himoyalash to'g'risida»gi Bern Konvensiyasining 7.1-moddasiga mos keladi.

O'zbekistonda intellektual mulk huquqini himoya qilish borasidagi milliy qonunchilik bosqichma-bosqich ravishda Jahon savdo tashkiloti me'yorlari va talablariga moslashtirib borilmoqda. Xususan, yangi tahrirdagi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi, Fuqarolik kodeksi, «Mualliflik va aralash huquqlar to'g'risida»gi, «EHM va ma'lumotlar bazasi uchun dasturlarni huquqiy himoyalash to'g'risida»gi qonunlarga tuzatishlar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk sohasidagi qonunchiligi intellektual mulkka oid quyidagi kategoriyalarni belgilab beradi:

- Mualliflik huquqi (muhofaza obyekti: ilm-fan, adabiy va badiiy asarlar, EHM va ma'lumotlar bazasi uchun dasturlar) va aralash huquq (fonogrammalardan foydalanish).
- Kashfiyotlar, sanoat namunalari.
- Seleksiya yutuqlari.
- Yopiq (ochilmagan) axborotlar.
- Firma nomi, tovar belgisi, tovarning kelib chiqishi.

Mualliflik huquqi va aralash huquqlarning asosiy sohalari matbuot, dam olish (audio, video, kino) sohalari, kompyuter dasturlari hisoblanadi. Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi hisoblanmish ilm-fan, adabiy va badiiy asarlar hamda ularni aks ettirish usullariga (Fuqarolik kodeksining 1041-moddasi) nisbatan joriy etiladi. Kashfiyotlarga nisbatan beriladigan patentdan farqli ravishda mualliflik huquqi yangilikning o'zini emas, balki yangilikni namoyish etish usulini muhofaza etadi.

Aralash huquqlar mualliflik huquqi bilan bog'liq bo'lib, fonogrammalar ishlab chiquvchilar, ijrochilar va targ'ibot tashkilotlariga nisbatan qo'llaniladigan huquqlardir.

Firma nomi, tovar belgisi kabi vositalar sanoatning barcha sohalarida qo'llaniladi. Tovar belgisi va firma nomi ishlab chiqaruvchilarni individuallashtirish uchun xizmat qiladi. Ular belgilar yoki simvollar ko'rinishida bo'lib, ishlab chiqaruvchilar tomonidan tovarlar va xizmatlarni identifikatsiyalash uchun qayd etiladi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq savdo belgisi egasiga tovarlardan foydalanishda tijorat maqsadlarida iste'molchilarni aldashning oldini olish imkonini beradi. Tovar belgisidan yuridik shaxs keyinchalik muddatini uzaytirish imkoniyati saqlangan holda o'n yilgacha foydalanishi, firma nomini yuridik shaxs faoliyati tugaguncha saqlab qolishi mumkin. Tovar belgilari bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan belgilar soni 2012-yilda 1353 tani tashkil etgan. 2006–2012-yillarda jami 7532 ta tovar belgilari ro'yxatga olingan bo'lib, shundan 2972 tasi chet ellik talabnoma beruvchilar nomiga ro'yxatga olingan (25.4.1-jadval).

25.4.1-jadval
O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgilari soni

Ko‘rsatkichlar	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	Jami
Ro‘yxatga olingan belgilar,	1727	1488	1381	1583	1353	7532
shu jumladan:						
milliy talabnoma beruvchilar nomiga	991	840	852	1048	829	4560
xorijiy talabnoma beruvchilar nomiga	736	648	529	535	524	2972

Manba: Йиллик ҳисобот 2012. Ўзбекистон Республикаси Интеллектуал мулк агентлиги. — Т., 2013.29-бет.

Xorijiy talabnoma beruvchilar nomiga ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgilarining eng ko‘p qismi AQSh (160) milliy talabnoma beruvchilariga to‘g‘ri keladi. 2012-yilda xorijiy mamlakatlarning subyektlari nomiga ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgilarining 38,7 %ni tashkil qildi.

Tovarning kelib chiqishi yoki uning geografik nomi, asosan, vino, spirtli ichimliklar, pishloq va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlariga taalluqlidir. Tovarning kelib chiqishi yoki uning geografik nomi tovarning qaysi hududda ishlab chiqarilganligi, yetishtirilganligi yoki mazkur hududning tabiiy sharoitlari va boshqa geografik omillariga ishoradir.

Kashfiyotlar, asosan, kimyoviy vositalar, dori-darmonlar, elektronika, sanoat mahsulotlariga tegishli bo‘lib, ular davlat organi — O‘zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi tomonidan patentlanadi. Patentlar kashfiyot egasiga kashfiyotdan 20 yil mobaynida foydalanish, ishlab chiqarish yoki sotish bo‘yicha to‘liq huquqni beradi. Patent olish uchun kashfiyot yangilik talablariga javob berishi kerak. Kashfiyot sifatida qurilmalar, vositalar, o‘simlik va jonivorlarning yangi turlari, shuningdek, ilgari ma’lum bo‘lgan qurilma, vosita va usullarning yangi turlari qabul qilinishi mumkin. Ilmiy nazariyalar va matematik metodlar, xo‘jalikni boshqarish va tashkil etish metodlari, shartli belgilar, qoidalar, algoritmlar va kompyuter dasturlari («Kashfiyotlar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risidagi» Qonunning 5-moddasi) kashfiyot sifatida qabul qilinmasligi mumkin. O‘zbekistonda 2012-yilda 510 ta ixtiro ro‘yxatdan o‘tkazilgan (25.4.2-jadval).

25.4.2-jadval
O‘zbekistonda 2008–2012-yillarda ro‘yxatdan o‘tkazilgan ixtirolar sonining o‘zgarishi

Ko‘rsatkichlar	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	Jami
Topshirilgan talabnomalar, jami	448	412	632	556	510	2559
ulardan:						
milliy talabnoma beruvchilardan	262	238	370	282	257	1409
xorijiy talabnoma beruvchilardan	186	174	262	274	253	1150
shu jumladan RST protsedurasi bo‘yicha	165	151	242	257	239	1054

Manba: Йиллик ҳисобот 2012. Ўзбекистон Республикаси Интеллектуал мулк агентлиги. — Т., 2013.18-бет.

Foydali modellar, asosan, sanoatda mexanikani qo‘llash sohasida qo‘llaniladi. Ularga ishlab chiqarish vositalari va iste’mol predmetlari konstruksiyasi, ularning

tarkibiy qismlari kiradi. Shu tariqa huquqiy himoya mexanika sohasida modellar va dizaynlarning funksional jihatlariga taalluqli bo'ladi. 2008–2012-yillarda O'zbekistonda 446 ta foydali modellar ro'yxatdan o'tkazilgan. 2012-yilda ro'yxatdan o'tkazilgan foydali modellarning umumiy miqdori o'tgan yilga nisbatan 5,4 %ga ko'paydi va 97 tani tashkil etdi, ulardan 96,9 % milliy talabnoma beruvchilar nomiga ro'yxatdan o'tkazildi, qolgan 3,1 % xorijiy talabnoma beruvchilar hissasini tashkil etdi (25.4.3-jadval).

25.4.3-jadval
O'zbekistonda ro'yxatdan o'tkazilgan foydali modellar sonining o'zgarishi

Ko'rsatkichlar	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	Jami
Ro'yxatga o'tkazilgan foydali modellar, jami	105	74	78	92	97	446
ulardan:						
milliy talabnoma beruvchilar nomiga	100	68	74	85	94	421
xorijiy talabnoma beruvchilar nomiga	5	6	4	7	3	25

Manba: O'sha manba. 21-b.

Sanoat namunalarida tovarning estetik jihatlari muhim rol o'ynagan holda, foydali modellarda qurilmalarning aniq konfiguratsiyasiga jiddiy e'tibor beriladi. Tahlillar ko'rsatishicha, O'zbekistonda 2008–2012-yillarda 434 ta sanoat namunalari ro'yxatdan o'tkazilgan.

Hisobot yilida ro'yxatdan o'tkazilgan sanoat namunalarining soni o'tgan yildagiga nisbatan deyarli 28,2 %ga ortdi va 91 tani tashkil etdi. Milliy talabnoma beruvchilar hissasiga ro'yxatdan o'tkazilgan jami sanoat namunalarining 85,5 % to'g'ri keladiki, bu 2011-yilga nisbatan 12,1 %ga ortiq, xorijiy talabnoma beruvchilar hissasiga esa 2012-yilda ro'yxatdan o'tkazilgan sanoat namunalarining 14,5 % to'g'ri keldi (25.4.4-jadval).

25.4.4-jadval
O'zbekistonda ro'yxatga olingan sanoat namunalari sonining o'zgarishi.

Ko'rsatkichlar	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	Jami
Ro'yxatga olingan sanoat namunalari, jami	67	71	91	95	110	434
shu jumladan:						
milliy talabnoma beruvchilar nomiga	44	48	74	78	94	338
xorijiy talabnoma beruvchilar nomiga	23	23	17	17	16	96

Manba: Йиллик ҳисобот 2012. Ўзбекистон Республикаси Интеллектуал мулк агентлиги. — Т., 2013. 25-бет.

Tijorat sirlari sanoatning barcha sohalariga tegishlidir. Konfidensial xususiyatga ega mijozlar ro'yxati yoki retseptlarga taalluqli tijorat axborotlari korxonalar uchun eng qimmatli kapital bo'lishi mumkin. Bu sharoitda bevosita huquq himoya o'rnida bilvosita axborotlar xususiyati va uning tijorat qiymatiga bog'liq himoya turi mavjud bo'ladi. Tijorat sirlari patentlardan farqli axborotlar fosh bo'lgunga qadar himoya qilinadi.

Seleksiya yutuqlari, asosan, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatiga taalluqli bo'lib, ularni himoya qilish muddati ro'yxatdan o'tgan vaqtdan boshlab 20 yilni tashkil etadi. Jumladan, 2012-yillarda O'zbekistonda 12 ta seleksiya yutuqlari ro'yxatdan o'tkazilgan.

TRIPS kelishuvi intellektual mulkning foydali modellar va seleksion yutuqlardan tashqari barcha kategoriyalari bo'yicha himoyaning minimal standartlarini belgilab qo'ygan.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston intellektual mulk huquqini himoya qilish sohasida muhim xalqaro kelishuvlar ishtirokchisi hisoblanadi. Bu sohadagi qonunchilikni takomillashtirish va xalqaro huquq me'yorlariga muvofiqlashtirish borasida muntazam, izchillik bilan ishlar olib borilmoqda.

Asosiy tushunchalar

Intellektual mulk – berilgan mahsulotlardan foydalanish, almashtirish va yaratish munosabatlarni boshqaruvchi, huquqiy asosda amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat mahsulotiga egalik.

Mualliflik huquqi – adabiyot, san'at va ilmiy asarlarni yaratish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi.

Turdosh huquq – mualliflik huquqini berish uchun ijodi yetarli bo'lmagan faoliyatlar uchun mualliflik huquqi namunasi bo'yicha XIX asr boshi XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan alohida huquqlar guruhi.

Patent huquqi — ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellarga patent berish yo'li bilan muhofaza tartibini belgilaydigan huquqiy normalar tizimi.

Sanoat namunalari – sanoat yoki kasanachilikda ishlab chiqarilgan mahsulotning yangi va asl tasviriy-konstruktorlik tashqi ko'rinishi.

Tovar belgilari – intellektual mulk obyektlari guruhining yagona huquqiy marketing belgilarini muhofaza qilish institutiga birlashtirish mumkin bo'lgan huquq bo'lib, quyidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi: tovar belgisi, xizmat belgilari, firma nomlari, tovar kelib chiqqan joy nomlari.

Oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau) — bu ixtiyoriy ko'rinishdagi ma'lumot bo'lib, tijorat siri darajasida muhofaza qilinadi va oldi-sotdi yoki raqobatchi ustidan g'alaba qozonish uchun foydalaniladigan predmeti bo'lishi mumkin.

Seleksiya yutuqlari — yangi o'simlik navi yoki hayvon turlarini yaratish, uning bu yangiliklarni muhofaza qilish huquqi.

Patent — patent egasining ixtiro, sanoat namunasi, foydali model, seleksiya kashfiyotiga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etishga bo'lgan mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Tovar belgisiga guvohnoma — guvohnomada ko'rsatilgan tovarlarga nisbatan tovar belgisi egasining mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Tovar kelib chiqqan joy nomlariga guvohnoma — guvohnomada ko'rsatilgan tovarlarga nisbatan tovar kelib chiqqan joy nomlaridan foydalanishga oid guvohnoma egasining huquqini tasdiqlovchi hujjat.

EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasiga guvohnoma — ro'yxatdan o'tkazilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasiga bo'lgan mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Topologiyani ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida guvohnoma — huquq egasining topologiyadan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqini tasdiqlaydi.

Nazorat savollari

1. Intellektual mulk nima?
2. Intellektual mulk obyektlariga nimalar kiradi?
3. Intellektual mulk savdosi qanday tartibga solinadi?
4. Intellektual mulkni himoya qilishning qanday xalqaro tashkilotlarini bilasiz?
5. Jahon intellektual mulk savdosining holatini baholang va rivojlanish tendensiyalarini aniqlang.
6. O'zbekistonning intellektual mulkni himoya qilishning xalqaro tashkilotlarga integratsiyalashuvini baholang.
7. O'zbekistonda intellektual mulkni himoya qilishning holatini baholang va rivojlanish tendensiyalarini aniqlang.

VII BO'LIM.
ISHLAB CHIQARISH OMILLARINING XALQARO HARAKATI

26-BOB. XALQARO KAPITAL MIGRATSIYASI

26.1. Xalqaro kapital migratsiyasi: sabablari, omillari va ko'rsatkichlari

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda kapitalni davlatlararo taqsimlash iqtisodiy o'sishning faol omili bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyot baynalminallashgan sari kapital faoliyati milliy doiradan xalqaro miqyosga chiqadi va mamlakatlararo kapital eksporti yuz beradi. Jahon xo'jaligi rivojlanishining dastlabki bosqichlarida kapital sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlardan qoloq mamlakatlar tomon yo'naltirilgan edi. Jahon xo'jalik tizimi aloqalari rivojlangan sari kapital harakati umumjahon doirasida yuz berib, uning oqimi har tomonlama, to'xtovsiz bo'ladi va pullik jamg'armalarning investitsiyalarga aylanishi kapitalning xalqaro miqyosdagi harakatini bildiradi.

Iqtisodiy adabiyotda xalqaro kapital migratsiyasining mohiyatini ochib beruvchi ikki xil yondashuv mavjud bo'lib, ular orasidagi farq quyidagi sabablar orqali ochib beriladi:

- bozor va uni tashkil etuvchi xo'jalik aloqalarining rivojlanishi;
- ushbu aloqalarning milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va takomillashuvi bilan bog'liq rolining o'zgarishi.

Birinchi yondashuv tarafdorlari uchun xalqaro kapital migratsiyasi — bu ishlab chiqarish omillaridan birining harakatidir. Bunda alohida tovar va xizmatlar boshqa mamlakatlardagi ishlab chiqarishning iqtisodiy afzalligi tufayli o'sha mamlakatlar tomon oqib o'tadi. Bozorning alohida mamlakatlar milliy xususiyatlarini hisobga oluvchi universal qimmati bu yondashuv tarafdorlarining diqqat markazida turadi.

Ikkinchi yondashuv tarafdorlarining fikricha, xalqaro kapital migratsiyasi ortiqcha ishlab chiqarish, moliya resurslarining foyda olish maqsadida xorijga uzluksiz joylashtirilishidan iborat. Bu yerda bozor subyekt sifatida emas, balki milliy, hududiy va xalqaro miqyosda muayyan maqsadga erishish vositasi, obyekti sifatida namoyon bo'ladi.

XXI asr boshida iqtisodiyotning globallashuvi omillaridan biri kapitalning mamlakatlar o'rtasida harakatlanishining barqaror sur'atlarda o'sishi hisoblanadi. Tovar ishlab chiqarishning muhim omillaridan hisoblangan kapitalning xalqaro harakati milliy iqtisodiyot chegaralaridan chiqib, boshqa mamlakatlarga ko'chadi.

Xalqaro kapital migratsiyasi jahon xo'jaligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki u mamlakatlarning tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalarining mustahkamlanishiga olib keladi, ularning tashqi savdo aylanmalarini oshiradi, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi, ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytiradi, ishlab chiqarilayotgan tovarlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini, importyor mamlakatlar texnik salohiyatini o'stiradi va mamlakatdagi bandlikni oshiradi.

Kapital migratsiyasining sabablari quyidagilardan iborat:
- kapitalning foiz stavkasi bilan belgilanadigan turli chegaraviy unumdorligi;
- firmalarning o'z faoliyatini xalqaro diversifikatsiyalashtirishga intilishlari;
- tovarlarni import qilishga xalal beradigan va xorijiy ta'minotchilarni bozorga kirish uchun kapital olib kirishga undaydigan boj to'siqlarining mavjudligi;
- barqaror siyosiy vaziyat va qulay investitsiyaviy muhit.

Kapital migratsiyasi jarayonlariga quyidagi omillar ta'sir qiladi:
- ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining saqlab turilishi;
- jahon iqtisodiyoti va alohida mamlakatlar iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlar;
- ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyasining chuqurlashuvi;
- jahon iqtisodiyotining transmilliylashishi;
- ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi va integratsiyaviy jarayonlarning rivojlanishi;
- bozorlarning o'ta to'yinishi ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini cheklaydi;
- rivojlangan mamlakatlardagi sotuvchilar o'rtasidagi keskin raqobat;
- milliy bozorning yirik moliya-sanoat guruhlari tomonidan monopollashtirilishi;
- harakatdagi texnologiyalarni takomillashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi;
- sanoati rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlarini, bandlik darajasini, ilg'or sanoat tarmoqlarining rivojlanishini saqlab turish uchun salmoqli hajmda kapitallarni jalb qilishga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosati;
- xalqaro tashkilotlar tomonidan xalqaro investitsiyaviy bo'shliqni erkinlashtirish siyosatining yuritilishi, investitsiyaviy sheriklikning universal me'yorlarini ishlab chiqish;
- mamlakatlar o'rtasida daromadlar va kapitalning ikki yoqlama soliqqa tortilishiga yo'l qo'ymaslik haqidagi xalqaro kelishuvlar, ular savdo-sotiqning rivojlanishi va investitsiyalarning jalb qilinishiga ko'maklashadi.

Xorijiy investitsiyalar jahon iqtisodiyoti va xalqaro biznesga quyidagi tarzda jiddiy ta'sir ko'rsatadi:
- kapital ekspansiyasi milliy xo'jalik hayotini baynalmilallashtirish missiyasini bajaradi;
- kapital ekspansiyasi yangi texnolgiyalar va «nou-xau»larni butun dunyoga tarqatib, jahon bozorlarining diversifikatsiyasini yanada chuqurlashtiradi, tegishlicha, jahon ishlab chiqarishi xalqaro bozorining umumiy samaradorlik darajasini, uning raqobatbardoshligini oshiradi;
- kapital ekspansiyasi va uning jahon iqtisodiyotining daromadli o'sish nuqtalariga ko'chib o'tishi uzoq istiqbolda ishlab chiqarish shart-sharoitlarini tenglashtirish, milliy narxlarning jahon narxlariga yaqinlashishi, ish haqi va foiz stavkalarida milliy farqlarning yo'qolishi tendensiyasini yuzaga keltiradi;
- o'zi uchun bevosita yoki uchinchi mamlakatlar bozorlariga chiqish uchun tramplin sifatida barqaror bozorni ta'minlash;
- xalqaro korporatsiyalarning turli mamlakatlarda o'z «ichki bozor»larining u yoki bu tarmoqlarini yaratishi natijasida ishlab chiqarish va kapitalning baynalmilallashuvi jarayoni bilan to'ldiriladi;
- o'z manfaatlarini mintaqaviy va yuqoriroq xalqaro darajadagi davlatlararo munosabatlarga kiritish;
- sherik mamlakatlarning ichki ishlari va davlatlararo munosabatlariga aralashmaslik, tenglik, o'zaro manfaatlarni hisobga olish, investitsiyalarni qabul qiluvchi

mamlakatlar milliy an'analari va madaniy qadriyatlarini, mehnatkashlar huquqlarini hurmat qilish bo'yicha umume'tirof etilgan tamoyillarga rioya qilgan holda xalqaro hamkorlikning muhim omili sifatida xalqaro investitsiyalarni e'tirof etish.

Mamlakatning xalqaro kapital migratsiyasidagi ishtirok etish darajasi qator ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Birinchi guruh ko'rsatkichlariga quyidagi mutlaq ko'rsatkichlar kiradi: kapital eksporti va importining hajmi, kapital eksporti-importi qoldig'i, mamlakatdagi xorijiy kapitalli korxonalar soni, ulardagi bandlar soni va h. k. Kapital eksporti-importi qoldig'idan kelib chiqib, jahon mamlakatlari kapital eksport qiladigan (Yaponiya, Shveysariya), kapital import qiladigan (AQSh, Buyuk Britaniya) hamda eksport va import hajmi taxminan bir xil bo'lgan mamlakatlarga (Germaniya, Fransiya) ajratiladi.

Boshqa guruh ko'rsatkichlar nisbiy ko'rsatkichlar bo'lib, ular xalqaro kapitallar migratsiyasining markazlari va mamlakatning kapital importi-eksportiga bog'liqligini aks ettiradi:

1) kapital importi koeffitsiyenti — xorijiy kapitalning mamlakat YaIM dagi ulushini ko'rsatadi:

$$K_{imp} = \frac{XK}{YaIM} \cdot 100,$$

bu yerda: K_{imp} — *kapital importi koeffitsiyenti;*
XK — xorijiy kapital hajmi;
YaIM — yalpi ichki mahsulot.

Yevropa mamlakatlarida ushbu koeffitsiyentning eng yuqori darajasi Belgiya va Lyuksemburgda kuzatiladi.

2) kapital eksporti koeffitsiyenti — eksport qilinadigan kapitalning YaIM dagi ulushini aks ettiradi:

$$K_{eksp} = \frac{XK}{YaIM} \cdot 100,$$

bu yerda: K_{eksp} — *kapital eksporti koeffitsiyenti;*
XK — xorijiy kapital hajmi;
YaIM — yalpi ichki mahsulot.

Yevropa mamlakatlarida ushbu ko'rsatkichning maksimal miqdori Niderlandiyada qayd etilgan.

3) xorijiy kapitalning mamlakat kapital qo'yilmalariga bo'lgan ichki ehtiyojidagi ulushini aks ettiruvchi kapital:

$$K_{eh} = \frac{XK}{D/(K)} \cdot 100,$$

bu yerda: K_{eh} — *ehtiyoj koeffitsiyenti;*
XK — xorijiy kapital;
D/(K) — mamlakatda kapitalga bo'lgan talab.

AQSh da barcha kapitalga bo'lgan ichki ehtiyojlarning 33 foizi xorijiy kapital hisobiga qondiriladi;

4) boshqa nisbiy ko'rsatkichlar: xorijiy yoki aralash kompaniyalarning milliy ishlab chiqarishdagi ulushi, kapital eksporti/importining oldingi davrga nisbatan o'sish sur'atlari, mamlakat aholisi jon boshiga to'g'ri keladigan xorijiy investitsiyalar summasi.

26.2. Xalqaro kapital migratsiyasining shakllari va ularning guruhlanishi

Xalqaro kapital migratsiyasining turli shakllari mavjud bo'lib, amaliyotda ular qator mezonlar bo'yicha tasniflanadi (26.2.1-rasm).

Xalqaro amaliyotda davlat kapitali ko'proq ssuda shaklida, xususiy va uzoq muddatli kapital esa — tadbirkorlik shaklida namoyon bo'ladi.

Kelib chiqish manbalariga ko'ra xalqaro kapital — bu davlat mablag'lari yoki xususiy kapital ko'rinishida bo'ladi. Davlat kapitali banklar ichida rasmiy kapital deb ham ataladi. U davlat byudjetidan xorijga chiqariladigan yoki u yerdan yo bevosita hukumatlar qarori bilan, yoki hukumatlararo tashkilotlar qarori bilan qabul qilinadigan mablag'lardir.

26.2.1-rasm.
Xalqaro kapital migratsiyasining shakllari



Shakllariga ko'ra — bu davlat qarzlari, ssudalar, grantlar (sovg'alar), yordam ko'rinishida bo'lib, ularning xalqaro harakati hukumatlararo kelishuvlar bilan belgilanadi. Xalqaro tashkilotlarning kreditlari va boshqa mablag'lari ham shular qatoriga kiradi. Biroq har qanday hollarda ham bu soliq to'lovchilarning oluvchiga turli yo'llar bilan yetib boradigan pullari hisoblanadi.

Xususiy kapital — bu xususiy shaxslar tomonidan xorijga joylashtiriladigan yoki xorijdan qabul qilinadigan nodavlat manbalar mablag'laridan iborat. Ular tarkibiga

investitsiyalar, savdo kreditlari, banklararo kreditlash kiradi. Ular davlat byudjeti bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi, biroq hukumat ularning ko'chib yurishini kuzatib turadi va o'z vakolatlari doirasida ularni nazorat qilib, boshqarishi mumkin.

Xalqaro kapital migratsiyasining shakllari tadbirkorlik va ssuda kapitali ko'rinishida bo'ladi.

Kapitalning tadbirkorlik shaklidagi migratsiyasi uchun quyidagi uchta majburiy belgilar xos bo'ladi:

- xorijda ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish yoki unda ishtirok etish;
- xorijiy kapital qo'yilmalarining uzoq muddatliligi;
- xorijiy korxonaga yoki uning bir qismiga mulkchilik huquqiga ega bo'lish.

Yuqorida qayd etib o'tilgan xususiyatlar va ishtirok etish maqsadlarining qanchalik amalga oshishiga bog'liq holda tadbirkorlik kapitalini chetga chiqarishning ikki turi ajratiladi: to'g'ridan to'g'ri va portfel investitsiyalar (PI).

TTXI — bu xorijiy kapitalning uzoq muddatli kiritilishi bo'lib, investor tashkil qilayotgan firma aksiyalari yoki aksioner kapitaliga to'la ega bo'lish yoki kamida 10 % xo'jalik faoliyatining ta'sirchan nazorat qilinishini ta'minlaydi.

XVJ, IRHT (Iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik tashkiloti) hamda BMT milliy schyotlari tizimidagi ta'riflarga muvofiq, TTXI tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- kompaniyalarning o'z kapitalini xorijga chiqarishi;
- to'g'ri investor xorijiy korxonadan olgan foydasini uning foydasiga qayta moliyalashtirishi;
- kapitalning bosh firma va uning xorijiy korxonalari o'rtasida ichki korporativ o'tkazmalari.

Iqtisodiy adabiyotda to'g'ri investitsiyalarning tor va keng ma'nodagi ta'riflari ajratiladi.

TTXI ning tor ma'nodagi ta'rifi IHTT tomonidan berilgan bo'lib, bu yo'nalishning bazaviy metodologiyasi kapital harakatini erkinlashtirish Kodeksida bayon etilgan: mustahkam iqtisodiy munosabatlarni o'rnatish hamda korxona ustidan nazorat huquqini qo'lga kiritish maqsadida kapital va resurslarning transchegaraviy harakati qamrab olinadi. Bunday yondashuv asosida investor sifatida mazkur mamlakatning norezidentlari va xorijlik rezidentlar maydonga chiqishlari mumkin. Har ikkala toifalar uchun to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar shakllanishining quyidagi yo'nalishlari mavjud:

- 100 %li xorijiy mulkchilikka asoslangan korxona, shu'ba kompaniyasi yoki bo'linmasini tashkil etish yoki kengaytirish;
- mavjud korxonani to'liq mulkchilikka sotib olish;
- yangi yoki harakatdagi korxonada ishtirok etish;
- 5 yil va undan ko'p muddatga qarz berish.

TTXI ning keng ta'rifi Jahon banki tomonidan berilgan va «MIGA»ni (Ko'p tomonlama investitsion sug'urtalash agentligi) ta'sis etish haqidagi kelishuvda ilk bor tilga olingan; u shuningdek, ikki taraflama kafolatli kelishuvlar uchun ham xosdir. Bunday yondashuvda to'g'ri xorijiy investitsiyalarga kapital (yoki resurslar) ning harakatlanishi shakllarigina emas, balki aktivlarning (assets) boshqa turlari ham kiritiladi: har xil turdagi mulk va mulkiy huquqlar, aksiyador bo'lmagan turdagi investitsiyalar (subbitimlar, boshqaruv kelishuvlari, franchayzing, litsenzion bitimlar, mahsulot taqsimoti va h.k.lar) ham kiradi.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalash shakllari va usullariga tegishli turlicha talqinlarning berilishi jiddiy muammolarni keltirib chiqardi (masalan, NAFTA va ASEAN ta'riflari shular jumlasidandir) va amaliy muammolarni hal qilishda qator variantlar — opsiyalarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu — xalqaro

investitsiyalash masalalari bo'yicha muzokaralardagi, iqtisodiy diplomatiyadagi munozarali muammolardan biridir.

Portfel investitsiyalar — bu kapitalni xorijiy korxonalar qimmatli qog'ozlariga (korxona ustav kapitalining 10 %dan kam qismini) kiritish shaklida olib chiqib ketish bo'lib, investorlarga ular faoliyatini bevosita nazorat qilish imkonini bermaydi.

Ushbu turdagi tadbirkorlik kapitalini olib chiqib ketishning o'ziga xos belgilari 26.2.1-jadvalda yaqqol namoyish etilgan.

26.2.1-jadval

To'g'ridan to'g'ri va portfel investitsiyalar o'rtasidagi o'ziga xos farqlar

Belgilar	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar	Portfel investitsiyalar
Olib chiqishning asosiy maqsadi	Xorijiy firmani nazorat qilish	Yuqori foyda olish
Maqsadga erishish yo'llari	Xorijda ishlab chiqarishni tashkil qilish va yuritish	Xorijiy qimmatli qog'oztarni sotib olish
Maqsadga erishish usullari	a) xorijiy firmaga to'liq egalik qilish	Xorijiy firma aksiyadorlik kapitalining kamida 25 foizini sotib olish (AQSh, Yaponiya va Germaniyada — 10 %)
	b) aksiyalar nazorat paketini sotib olish (XVF ustaviga ko'ra kompaniya aksiyadorlik kapitalining 25 foizidan kam bo'lmasligi kerak)	
Daromad shakllari	Tadbirkorlik foydasi, dividendlar	Dividendlar, foizlar

Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi jarayonida portfelli investitsiyalar ulushining ortishi tabiiy holdir. Bu ikkita holat bilan izohlanadi:

- jahonda moliya bozorlarining jadal rivojlanishi;
- portfel investitsiyalarning yuqori likvidliligi bilan bog'liq afzalliklar.

Portfel investitsiyalar ancha yuqori likvidlilikka ega bo'lib, harakatchan hisoblanadi. Ularni riskli zonadan boylik orttirish yengilroq bo'lgan muhitga ko'chirish qiyin emas. Portfel investitsiyalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va professional bilimlarni oshirish uchun katta mehnat talab etmaydi.

Kapitalni olib chiqishning tadbirkorlik shakli ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita aloqadorligi tufayli ko'pincha «ikkinchi iqtisodiyot» deb ataladi.

Boshqa shakl — ssuda kapitalining harakati milliy ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita aloqaga ega bo'lmasdan qabul qiluvchi mamlakatdagi takror ishlab chiqarish jarayoniga bilvosita tarzda ta'sir qilishi mumkin. **Kapitalning ssuda shaklidagi migratsiyasi deganda kapitalning barcha xalqaro harakatlanishi tushunilib, quyidagi turdagi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar bundan mustasno:**

- davlat va xususiy zayomlar;
- boshqa mamlakatlarning obligatsiyalari, xorijiy kompaniyaning veksellari va trattini sotib olish;
- qarzlar bo'yicha to'lovlar;
- banklararo depozitlar;
- rivojlanishga rasmiy yordam.

Xalqaro valyuta fondi yana bir guruh — **«boshqa investitsiyalar»** guruhini ajratadi. Bu guruh investitsiyalar, asosan, xalqaro zayomlar va bank depozitlaridan tashkil topadi. Ular ba'zida portfel, ba'zida to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar tarkibida bo'lishi mumkin.

Bayon qilingan sxemada zamonaviy investitsiya amaliyotiga zid bo'lgan ikkita holat mavjud.

Birinchidan, u mutlaqo mantiqqa mos keladi va valyuta-kredit munosabatlari pozitsiyasida ishlay oladi. Biroq savdo-iqtisodiy aloqalaridan investitsiyalarga bog'liq turli operatsiyalar kelib chiqadi. Ular tarkibida turli-tuman servis, marketing, boshqaruv, texnologik va boshqa operatsiyalarga berilgan tasnifga mos tushmaydigan investitsiyaviy huquqlarni yuzaga keltiradi. Ular xorijiy investorga mulkchilik huquqini berishni ko'zda tutmaydi, biroq muntazam daromad olish huquqini beradi (royalti, rentals va h.k.).

Ikkinchidan, bayon qilingan sxemada barcha shakllar bir ma'noli bo'lib, bir chiziqqa tortilgandek tuyuladi. Biroq ilgari olingan va taqsimlangan foydaning qayta taqsimlanishi emas, balki haqiqiy ishlab chiqarishni boshqarish nuqtayi nazaridan investitsiyalarning qanday shakllari muhimroq, degan masala dolzarb hisoblanadi.

Demak, kapitalning har bir guruhi yana quyi guruhlarga ajralib ketadi va ularni shartli ravishda eksport va import, deb hisoblash mumkin (26.2.2-jadval).

26.2.2-jadval
Xalqaro kapitalning funksional bo'linishi

Guruhlar	Quyi guruhlar	Kapital harakati
TTXI	Xorijda	Rezident va norezident o'rtasida uzoq muddatli o'zaro iqtisodiy manfaatning vujudga kelishiga olib keluvchi kapital harakati
	Mamlakat ichida	
Portfel investitsiyalar	Aktivlar	Qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bilan bog'liq kapital harakati
	Passivlar	
Boshqa investitsiyalar	Aktivlar	Davlatlararo kreditlar va bank depozitlari bilan bog'liq kapital harakati
	Passivlar	
Zaxira aktivlar	Monetar oltin	To'lov balansi qoldig'ini qoplash uchun foydalanish mumkin bo'lgan aktivlar bilan bog'liq kapital harakati
	Qarz olishning maxsus qoidasi (SDR)	
	XVFning zaxira pozitsiyasi	
	Xorijiy valyuta	

Xalqaro kapital migratsiyasi va uning har bir guruh doirasidagi miqyosi jahondagi barcha mamlakatlarning konsolidatsiyalashgan to'lov balansi ma'lumotlari, investitsion pozitsiyalari asosida taxminan aniqlanadi.

26.3. Xalqaro kapital migratsiyasining tarkibi va rivojlanish tendensiyalari

Xalqaro kompaniyalarning paydo bo'lishiga qadar barcha xorijiy investitsiyalar portfel investitsiyalar shaklida bo'lgan. TTXI XX asrning 20-yillaridan boshlab rivojlana boshladi, ammo bu davrda portfel investitsiyalar hajmi to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar hajmiga nisbatan ikki barobar ko'p edi.

TTXI ning aniq moliya-sanoat guruhlari, xalqaro firmalar, TMK faoliyati orqali amalga oshirilishi ularga muayyan ustunlik beradi. TTXI ni boshqarish portfel investitsiyalarga qaraganda oson bo'lib, ularning «o'yin qoidalari» aniqroqdir. Ushbu holat bozor iqtisodiyotini tartibga solishda muhim ahamiyatga ega.

TTXI ga taalluqli ilk misollar XVII asrga borib taqaladi va Ost-Indiya ingliz kompaniyasi faoliyati bilan bog'liqdir. Ikkinchi jahon urushigacha investitsiyalarning asosiy hajmi Yevropa va Amerika o'rtasida harakatlangan. 1918–1938-yillarda

Amerikaning «Ford» va «Djeneral motors» kompaniyalari Yevropa, Lotin Amerikasi va Osiyoda birinchi filiallarini ochishgan[1].

Tahliliy ma'lumotlarga qaraganda TTXI oqimi bir necha o'n yilliklar mobaynida jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. 1914-yildan Ikkinchi jahon urushi oxirigacha bo'lgan muddatda xorijiy investitsiyalar hajmi 30 %ga ko'paygan holda, keyingi 10 yil mobaynida ikki barobar o'sgan. XX asrning 60-yillarining o'rtalaridan boshlab keyingi 25 yil mobaynida esa ushbu ko'rsatkich 4 marotabaga oshgan.

Ilk bor TTXI to'g'risidagi statistik ma'lumotlar 1970-yillarda paydo bo'lgan va 13 mlrd. dollarni tashkil etgani holda ularning 60 % AQSh, 91 % esa G7 guruhi hissasiga to'g'ri kelgan[2]. TTXI ning o'rtacha yillik hajmi 1980–2013-yillarda 44,5 mlrd. dollardan 1,4 trln. dollargacha yetdi. YuNKTAD prognozlariga ko'ra 2015-yilda 1,7 trln. dollar va 2016-yilda 1,8 trln. dollar bo'lishi kutilmoqda[3].

XXI asr boshlarida TTXI jahonda rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonining harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. TTXI ning global oqimi hajmi 2011-yilda 2008–2009-yillardagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi[4] va hozirgi suveren qarzlar krizislarining davom etayotgan salbiy oqibatlariga qaramasdan 2005–2007-yillar darajasidan oshib, 2010-yilga nisbatan 16 %ga o'sdi. 2013-yilda esa TTXI ning global oqimi 2012-yilga nisbatan 9,0 %ga o'sib 1,5 trln. dollarni tashkil etdi (26.3.1-diagramma).

26.3.1-diagramma
TTXI ning global oqimi ko'rsatkichlari (mlrd. doll.)



	2005–2007-yillarda o'rtacha ko'rsatkich	2007-y	2008-y	2009-y	2010-y	2012-y	2013-y
	1473	1971	1744	1198	1309	1300	1450

Manba: Доклад о мировых инвестициях, 2011 год: Способы организации международного производства, не связанные с участием в капитале, и развитие. Обзор. ЮНКТАД. Нью-Йорк и Женева, 2011. С. 15.: World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. New York and Geneva, 2014. P. 14.

1 Ивасенко А. Г., Никонова Я. И. Иностранные инвестиции. — М.: КНОРУС, 2011. С. 16.

2 Киреев А. П. Международная экономика. В 2 ч. Ч. I. Международная микроэкономика: движение товаров и факторов производства. Учебное пособие для вузов. — М.: Международное отношения, 2000. С. 301.

3 Ливенцев Н. Н., Костюнина Г. М. Международное движение капитала (Инвестиционная политиказарубежных стран): учебник. — М.: Экономист, 2004. С. 33.; World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. New York and Geneva, 2014. P. 9.

4 2008-yilda 2007-yilga nisbatan TTXI ni jalb etish va chetga chiqarish hajmi jahon bo'yicha tegishlicha 14,2 va 13,1 %ga qisqargan. Ushbu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda ham salbiy tendentsiyaga ega bo'lib, mutanosib ravishda 29,2 va 16,7 %ni tashkil etgan.

So'nggi qirq yil ichida TTXI hajmining barqaror sur'atlarda o'sishi natijasida ularning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi sakkiz baravarga oshdi va hozirda 34,3 %ni tashkil etadi. Hozirda TTXI ichki investitsiyalar va tashqi savdoga qaraganda jadalroq sur'atlarda rivojlanmoqda. TTXI jahon xo'jaligi globallashuvining asosiy omiliga aylandi. TTXI faollashuvining sabablari va harakatlantiruvchi kuchlari quyidagilardan iborat:

- TTXI yordamida milliy bozorlarda monopolistik foyda olishning mumkinligi;
- tashqi savdoga nisbatan qo'shimcha foyda olish imkoniyati;
- TMK ning TTXI ning eltuvchilari sifatida maydonga chiqishi;
- TTXI ga nisbatan rivojlanayotgan mamlakatlar ehtiyojining keskin o'sishi;
- retsipiyent-mamlakatlarda TTXI ni jalb qilishni rag'batlantiruvchi mexanizmlarining shakllanishi.

Jahonning aksariyat mamlakatlari amalda xorijiy investitsiyalarni eksport va import qiluvchilar hisoblanishadi. Chunki, TTXI, asosan, TMK orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun TTXI ning tarkibini xorijiy kapitalni jalb qiluvchi va kapitalni chetga chiqaruvchi mamlakatlarga guruhlagan holda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

TTXI oqimining yo'nalishlari mamalakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq holda belgilanadi. TTXI ni, asosan, jalb etuvchi va chiqaruvchi mamlakatlar sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar hisoblanishadi va ularning hissasiga TTXI yillik oqimining 80 % to'g'ri keladi. Bundan tashqari, jamg'arilgan TTXI ning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi miqdori bo'yicha ham rivojlangan mamlakatlar yetakchi mavqega ega. Misol uchun, 2013-yilda Rossiyada ushbu ko'rsatkich 500 dollarga teng bo'lgani holda, Buyuk Britaniya va AQSh da mos ravishda 25,0 va 15,6 ming dollarga teng bo'ldi (26.3.2-diagramma).

26.3.2-diagramma

Jahonning ayrim mamlakatlarida jamg'arilgan TTXI ning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi miqdori, ming doll.



Manba: Ведомости, 23.12.2011.: World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. New York and Geneva, 2014.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida 2008-yilda 2007-yilga nisbatan TTXI ni jalb etish va chetga chiqarish hajmi jahon bo'yicha tegishlicha 14,2 va 13,1 %ga qisqargan. Ushbu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda ham salbiy tendensiyaga ega bo'lib, mutanosib ravishda 29,2 va 16,7 %ni tashkil etgan. Bu davrda rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida TTXI ni jalb etish va olib chiqish hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

Xalqaro kapitallar harakatidagi jiddiy o'zgarishlar AQSh dagi ipoteka krediti inqirozi ta'sirida moliya bozorlaridagi shart-sharoitlarning yomonlashuvi va inflyatsiya ehtimolining kuchayishiga olib keldi.

AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Fransiya kabi mamlakatlar xalqaro bozordagi asosiy investorlar bo'lib, TTXI taklifini shakllantiradigan mamlakatlar hisoblanadilar. Shunga qaramasdan oxirgi yillarda rivojlangan mamlakatlarning TTXI ning global oqimidagi ulushi qisqarib bormoqda. Jumladan, 1980–2013-yillarda xorijga chiqarilgan jami TTXI ning 94,5 %, jalb etilayotgan TTXI ning 86,1 % rivojlangan mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2013-yilga kelib mos ravishda 60,8 va 39,0 %ni tashkil etdi.

Tahlillar ko'rsatishicha, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti AQSh va Yevropa bank tizimi bilan bevosita uzviy bog'lanmaganligi bois inqirozdan jiddiy zarar ko'rmadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari ilk marotaba TTXI global oqimining yarmidan ortig'ini jalb etishdi. Ushbu mamlakatlardan TTXI olib chiqish ilk marotaba rekord hajmga yetdi va ularning aksariyat qismi Janub mamlakatlariga yo'naltirilmoqda.

Tahlillar ko'rsatishicha, jahon iqtisodiyotida 2010-yildan rivojlanayotgan mamlakatlar TTXI larni jalb qilish hajmining yarmidan ortig'ini o'zlashtirdilar. TMK lar esa bu mamlakatlarda loyihalarni investitsiyalash va mahsulot bozorlarini o'zgartirishda faol qatnashmoqdalar. Rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari ilk bor 2010-yilda global TTXI oqimining yarmidan ortig'ini o'zlashtirdilar.

2013-yilda TTXI ni chetga chiqarish hajmida rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari hissasi 39,2 %ga to'g'ri keldi (26.3.1-jadval).

26.3.1-jadval

TTXI oqimining geografik tarkibi (jamiga nisbatan foiz hisobida)

Yillar	Jami	TTXI ni jalb etish			TTXI ni chetga chiqarish		
		Rivojlangan mamlakatlar	Rivojlanayotgan mamlakatlar	Janubi-Sharqiy Yevropa va MDH	Rivojlangan mamlakatlar	Rivojlanayotgan mamlakatlar	Janubi-Sharqiy Yevropa va MDH
1980	100,0	86,1	13,9	0,0	94,5	5,5	0,0
1990	100,0	83,2	16,8	0,0	93,3	4,7	0,0
2000	100,0	80,8	18,8	0,4	87,8	11,9	0,3
2010	100,0	49,4	45,6	5,0	67,4	28,7	3,9
2011	100,0	48,2	42,6	5,6	71,0	24,7	4,3
2012	100,0	38,9	54,8	6,3	63,3	32,7	4,0
2013	100,0	39,0	53,6	7,4	60,8	32,2	7,0

Manba: Доклад о мировых инвестициях, 2007 год: Транснациональные корпорации, добывающая промышленность и развитие. Обзор. ЮНКТАД. Нью-Йорк и Женева, 2007. С. 10; World Investment Report 2010: Investing in a Low-carbon Economy. UNCTAD. -New York and Geneva, 2010. P. 31; Доклад о мировых инвестициях, 2011 год: Способы организации международного производства, не связанные с участием в капитале, и развитие. Обзор. ЮНКТАД. Нью-Йорк и Женева, 2011. С. 19.: World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. New York and Geneva, 2014. P. 23.

2013-yilda jahondagi eng yirik 20 ta investorlar tarkibiga o'nta rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari kirdi. Shu bilan birga rivojlangan, jumladan, Yevropa mamlakatlarining investitsion faolligi pasayish tendensiyasiga egaligi kuzatilmoqda. Yuqoridagi holatga qaramasdan, ular hissasiga hozirga qadar eng yuqori ko'rsatkich hisoblangan 2007-yilga nisbatan jami tashqi investitsiyalarning yarmi to'g'ri kelmoqda.

Tahlillar ko'rsatishicha, an'anaviy ravishda rivojlanayotgan mamlakatlar TTXI ni jalb etuvchilar hisoblanishadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa rivojlangan mamlakatlar TTXI ning katta qismini o'z iqtisodiyotlariga jalb etish tendensiyalari kuzatilmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar tarkibida TTXI uchun qulay investitsiya muhitini yaratgan mamlakat Xitoy hisoblanadi. Masalan, 2013-yilda mamlakat hissasiga jami jalb etilgan TTXI ning 8,3 % (123,9 mlrd. doll.), 2012-yilda esa 9,1 % to'g'ri kelgan. Xitoy iqtisodiyotiga TTXI XX asrning 80-yillaridan yuqori sur'atlarda kirib kela boshlagan. 1980-yilda Xitoy iqtisodiyotida jamg'arilgan TTXI 1 mlrd. dollarni, 10 yildan keyin 21 mlrd. dollarni, yana 10 yildan keyin esa 193 mlrd. dollarni tashkil etgan. Oxirgi yillarda ushbu ko'rsatkich 1,5 martaga ortgan va hozirda 293 mlrd. dollarga teng deb baholanmoqda[1].

Tahlillar ko'rsatishicha, Xitoy va Hindiston mamlakatlari iqtisodiyotining iqtisodiy o'sish sur'atlari ko'proq ichki omillarga tayanadi. Jumladan, YalM da TTXI ning ulushi (valyutaning xarid qobiliyati bo'yicha) Hindistonda 0,3 %dan, Xitoyda esa 1 %dan oshmaydi. Ikkala mamlakatda ham ichki talabning YalM ning qo'shimcha o'sish sur'atlaridagi hissasi 90 %dan kam emas[2]. Shu bilan birga Xitoy hukumatining inqirozga qarshi kurash dasturlarida asosiy e'tibor 800 mln. kishi qishloqlarda yashovchi aholining ichki talabini kengaytirishga qaratilgan. Ushbu vazifa ko'chmas mulk, avtomobillar va iste'mol kreditlari bozorini har tomonlama rivojlantirish yordamida hal etilishi rejalashtirilgan.

Hindiston iqtisodiyotining jadal sur'atlarda o'sishi xorijiy investorlar ishonchining ortishi va kirib kelayotgan TTXI miqdorining ko'payishiga olib keldi. Aholi daromadlarining muntazam o'sib borishi mahsulotlarni sotish bozorlarini izlayotgan investorlar uchun mamlakatning investitsion imkoniyatlarini oshirdi. Jumladan, mamlakatga Walt-Mart, General Motors, IBM, Toyota, Nissan kabi yirik investorlar kirib keldi. Jumladan, Hindiston iqtisodiyotiga 2013-yilda 28,1 mlrd. dollar TTXI jalb etilgan.

Braziliya Lotin Amerikasidagi eng yirik TTXI ni jalb etuvchi mamlakat hisoblanadi va 2013-yilda 64,0 mlrd. dollar miqdorida TTXI kiritilgan.

Rossiya o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari tarkibida eng yirik TTXI ni jalb etuvchi mamlakat sanaladi. Jumladan, mamlakatga 2000-yildan 2013-yilga qadar har yili o'rtacha 41,2 mlrd. dollar investitsiya kirib kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2013-yilda 79,3 mlrd. dollarga teng bo'lgan.

Retsipiyent-mamlakatlarning umumiy soni muttasil oshib bormoqda. TTXI ni jalb qiluvchi mamlakatlar qatoriga Malayziya, Meksika, Hindiston, Chili, Indoneziya qo'shildi. Mazkur mamlakatlarda iqtisodiy o'sish, sanoat ishlab chiqarish va texnologik taraqqiyot xorijiy kapitaldan unumli foydalanish bilan uzviy bog'liqdir.

1 Швандар К. В. Прямые иностранные инвестиции в странах BRIC. //Банковское дело, №02, 2008. С. 46–47.

2 Мельянцев В. Экономический рост Китая и Индии: динамика, пропорции и последствия. //Мировая экономика и международные отношения, №9, 2007. С. 19–20.

TTXI ning tarmoq tarkibi XX asrdan boshlab quyidagicha bosqichma-bosqich o'zgarib bordi.

Tarkibiy o'zgarishlarning birinchi bosqichi XX asrning birinchi yarmini qamrab oldi va TTXI asosan tabiiy resurslarni o'zlashtirishga qaratildi.

Ikkinchi bosqich XX asrning 50–80-yillarini qamrab oladi. Ushbu davrda korporatsiyalar o'z strategiyalarini xomashyoni oddiy qayta ishlashdan tayyor mahsulotni ishlab chiqarishga yo'naltira boshladilar. Xitoy TTXI ni ushbu yo'nalishda joylashtirishning namunasi bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda Xitoy jahon tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishning muhim markaziga aylanib bormoqda.

Uchinchi bosqich XX asrning 90-yillaridan hozirga qadar davom etmoqda. Bu davrda yirik xorijiy kapital retsipiyent-mamlakatlar bozorlarida banklar, sug'urta kompaniyalari, transport firmalari va boshqa kompaniyalarning servis xizmatlari sifatida joylashtirila boshlandi. Prognozlarga qaraganda yaqin kelajakda servis xizmatlarini ko'rsatish hajmi sanoat va birlamchi sektorning ishlab chiqarish hajmiga qaraganda jadal sur'atlarda rivojlanishi kutilmoqda. TTXI ni jadal sur'atlarda jalb qilish yo'liga o'tgan Hindiston servis xizmatlari bozorini barqaror sur'atlarda o'zlashtirib bormoqda.

26.4. Xalqaro kapital migratsiyasini tartibga solish usullari

Jahon amaliyotida xalqaro kapital harakatini tartibga solishning milliy va xalqaro usullari qo'llanilmoqda (26.4.1-rasm).

TTXI ni xalqaro darajada tartibga solishning asosiy shakli xalqaro investitsion shartnomalar hisoblanadi. Xalqaro investitsion shartnomalarning mohiyati shundaki, ular ikki va ko'p tomonlama milliy davlatlarning investitsiya siyosatlarini muvofiqlashtirish va xalqaro investitsiyalar sohasida tartibga solishning umumiy qoidalarini ishlab chiqishdan iborat.

Xalqaro investitsion shartnomalar qatnashchilar tarkibiga ko'ra ikki tomonlama, mintaqaviy va ko'p tomonlama bo'lishi mumkin[1].

Ikki tomonlama investitsion shartnoma ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida investitsiyalarni amalga oshirish maqsadida tuziladigan maxsus shartnomadir.

Mintaqaviy investitsion shartnoma — bir mintaqaviy guruhga kiruvchi mamlakatlar hukumatlari o'rtasida investitsiyalarni amalga oshirish xususida imzolanadigan maxsus shartnoma. Mintaqaviy shartnomalarning predmeti bo'lib investitsion rejimni o'rnatish, investorlarga kafolatlar berish, investitsion nizolarni tartibga solish, mintaqa ichida kapital, texnologiya, malakali ishchi kuchining harakati uchun qulay erkinlikni ta'minlash hisoblanadi.

Ko'p tomonlama investitsion shartnomalar manfaatdor mamlakatlarning investitsion hamkorlikda qatnashishi va a'zolarni keng miqyosda qamrab olishni ko'zda tutadi.

Xalqaro investitsion shartnomalar qatnashchilari sifatida milliy hukumatlar va Jahon savdo tashkiloti (JST), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) kabi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar qatnashishi mumkin.

Tahlillar ko'rsatishicha, faqat 2010-yilda 187 ta yangi xalqaro investitsion shartnomalar tuzilgan bo'lib, yilning oxiriga kelib jami shartnomalar soni 6092 tani tashkil etdi[2].

1 Андрианов А. Ю., Валдайцев С. В., Воробъев П. В. Инвестиции: учебник. М.: Проспект, 2007. С. 575

2 Доклад о мировых инвестициях, 2011 год: Способы организации международного производства, не связанные с участием в капитале, и развитие. Обзор. ЮНКТАД. Нью-Йорк и Женева, 2011. С. 31.

26.4.1-rasm.
Xalqaro kapital migratsiyasini tartibga solish



Xalqaro investitsion shartnomalarning amal qilishida ikki tomonlama investitsion shartnomalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ilk investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risidagi ikki tomonlama investitsion shartnoma 1959-yilda qabul qilingan bo'lsa, 1980-yillarda ularning soni 385 taga yetdi, 1990-yillarda esa 5 baravarga oshdi. Bu davrda ikki tomonlama investitsion shartnomalar qatnashchilari hisoblangan mamlakatlar soni 173 tani tashkil etgani holda, asosiy shartnomalar rivojlanayotgan hamda o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari o'rtasida tuzildi va ularning soni 63 tadan 833 tagacha ortdi[1]. Oxirgi o'n yillikda ikki tomonlama investi-

1 Ивасенко А. Г., Никонова Я. И. Иностранные инвестиции. — М.: КНОРУС, 2011. С. 184.

tsion shartnomalarni tuzish jarayoni jadallashdi. Misol uchun, hozirda Yevropa Ittifoqi va unga a'zo bo'lmagan mamlakatlar o'rtasida 1300 dan ortiq ikki tomonlama investitsion shartnomalar mavjud[1].

TTXI sohasidagi ikki tomonlama investitsion shartnomalarning asosiy elementlari quyidagilardan iborat[2]:

- tomonlarning investitsiya sohasidagi o'zaro munosabatlari prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiya;
- TTXI aniqlashning umumiy qoidalari;
- Ikki tomonlama hamkorlik shakllari;
- Shartnomalarni amalga oshirish bosqichlari;
- Investitsiyalarni himoyalash mexanizmlari.

Jahon xo'jaligida ko'ptomonlama shartnomalar asosida investitsiyalarni kafolatlash qoidalari bilan investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik (MAGI) shug'ullanadi va quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

- xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash. Bunda investor risklarni sug'urtalaydi. Odatda, sug'urta summasi investitsiya summasining 1 %gacha miqdorini tashkil etadi. Milliy sug'urta agentliklari va kompaniyalari faqat o'zlarining to'g'ridan to'g'ri investorlarini sug'urtalaydilar;
- investitsiya nizolarini hal etish. Buni kapitalni qabul qiluvchi yoki chetga chiqaruvchi mamlakatning milliy qonunchiligi yoki xalqaro huquq qoidalari asosida amalga oshirish mumkin;
- ikki yoqlama soliqqa tortishning oldini olish. Agar korporatsiya bir nechta mamlakatda ish yuritayotgan bo'lsa, ushbu mamlakatlar uning foydasini soliqqa tortishga harakat qiladi. Ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish haqidagi kelishuvga asosan xorijiy korporatsiyalar kapitalni qabul qiluvchi mamlakatda soliqning o'z mamlakatida to'lanmagan qismidangina soliq to'laydi;
- ma'muriy va diplomatik qo'llab-quvvatlash. Odatda, kapital chiqaruvchi mamlakatlar o'z investorlarini qo'llab-quvvatlaydilar. Bu mamlakatlar investitsiya kiritilayotgan mamlakat bilan o'z investorlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish haqida muzokaralar olib boradilar. Jahonning aksariyat mamlakatlarida investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha milliy agentliklar tashkil etilgan. 1995-yildan boshlab investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha Umumjahon assotsiatsiyasi faoliyat yuritadi va uning tarkibida 100 ta a'zo mamlakat mavjud.

Xalqaro kapitallar harakati jarayonining muhim xususiyatlaridan biri mazkur jarayonga davlatning faol aralashuvidir. Bunda davlat quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- tartibga solish;
- nazorat qilish;
- rag'batlantirish.

Jahon amaliyotida xalqaro kapitallar harakatini davlat tomonidan tartibga solishda muayyan ziddiyatlar mavjud. Jumladan, mamlakatlar, bir tomondan, xalqaro kapital harakati yo'lidagi mavjud cheklovlarni bartaraf etishga harakat qilishsa, boshqa tomondan, xalqaro kapital harakatini cheklash choralarini ko'rishadi.

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, mamlakatdan kapitalning chetga chiqib ketishi xorijiy kapitalning kirib kelishiga qaraganda kamroq darajada tartibga solinadi.

1 Доклад о мировых инвестициях, 2011 год: Способы организации международного производства, не связанные с участием в капитале, и развитие. Обзор. ЮНКТАД. Нью-Йорк и Женева, 2011. С. 31.

2 Андрианов А. Ю., Валдайцев С. В., Воробьев П. В. Инвестиции: учебник. — М.: Проспект, 2007. С. 563.

Xalqaro kapital harakatini davlat tomonidan tartibga solishda milliy qonunlar, qarorlar va ma'muriy cheklovlar asosiy o'rin egallaydi. Shunisi e'tiborliki, ko'pchilik sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlarda (masalan, AQSh, Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya) xorijiy investitsiyalarni tartibga solish bo'yicha maxsus qonunlar yoki kodekslar qabul qilinmagan. Biroq boshqa mamlakatlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ulardan foydalanishga oid maxsus milliy qonunlar qabul qilingan va amal qilmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish vazifalarini hal qilishda milliy qonunchilikka xorijiy investorlar uchun qulay milliy rejimni shakllantirish haqidagi nizomlar kiritiladi. Milliy rejimda norezidentlar uchun xo'jalik faoliyatini yuritish borasidagi shart-sharoitlar rezidentlar uchun yaratilgan shart-sharoitlardan yomon bo'lmasligi kerak. Ushbu qoida muhim ahamiyatga ega. Milliy rejim — xo'jalik yuritish faoliyatining minimal sharoitlari bo'lib, ushbu minimum xorijiy investorlar uchun yomonlashib, pasayib ketmasligi kerak.

Jahon amaliyotida xorijiy investitsiyalar harakatini amalga oshirish ko'pincha qo'shimcha iqtisodiy, siyosiy va tijorat risklari bilan bog'liq. Shuning uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi ayrim mamlakatlarning milliy qonunchiligida xorijiy investorlarga nisbatan qo'shimcha imtiyozlar qo'llaniladi. Turli mamlakatlarda qo'llaniladigan qo'shimcha imtiyozlar tarkibida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- qayta investitsiyalashga nisbatan imtiyozli soliq rejimini taqdim etish;
- shartnoma asosida investitsiya loyihalariga jalb qilinadigan xorijiy mutaxassislarning ish haqi va boshqa mukofot to'lovlarini soliqqa tortishning imtiyozli rejimini yaratish;
- xorijiy investorlarning eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarishlarini rivojlantirish uchun import ko'rinishida olib kirayotgan mol-mulk, asbob-uskuna va texnologiyalarini bojxona to'lovlaridan ozod qilish.

Shuningdek, agar xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakat qonunchiligi milliy investorlar uchun salbiy tomonga o'zgarsa, odatda, xorijiy investitsiyali korxonalar uchun bu o'zgarishlar bo'yicha muddati kechiktirilishi ko'zda tutiladi.

Jahonda aksariyat hollarda, xorijiy investorlar uchun imtiyozli rejim xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga maksimal darajada intilayotgan rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari tomonidan yaratiladi. Shu bilan birga xalqaro investitsiya jarayonining asosiy ishtirokchilari sifatida investitsiya faoliyatini kengaytirishga va barcha uchun yagona investitsiya rejimini yaratishga intilayotgan rivojlangan mamlakatlar hisoblanadi. Boshqacha aytganda, jahonning yetakchi rivojlangan mamlakatlari umumiy, bir xil tamoyillar asosida ishlaydigan yagona investitsiya rejimini shakllantirish tarafdorlaridir.

Davlat tomonidan TTXI ni qo'llab-quvvatlashning asosiy shakllari tarkibidan quyidagilarni ajratish mumkin:

Davlat kafolatlarini berish. Investitsiya kafolatlari to'g'risidagi qoidalar milliy hukumatlar tomonidan qabul qilinadi. Shu bilan birga ular ikki tomonlama va bir nechta mamlakatlar ishtirok etadigan mintaqaviy ko'p tomonlama kelishuvlarda ham mavjud bo'ladi. Ikki tomonlama kelishuvlarda, asosan, quyidagi qoidalar qayd etiladi:

- xorijiy investorlar uchun milliy rejim;
- xorijiy investorlarni himoya qilish (milliylashtirishdan, kapital, foyda va dividendlarning repatriatsiyasidan);
- nizolarni hal qilish tartibi;
- siyosiy risklar bilan bog'liq zararlardan sug'urtalash.

Jumladan, 2013-yilda o'zining tartibga solish rejimlariga o'zgartishlar kiritgan mamlakatlar soni 59 tani tashkil etdi. Boshqarish rejimlaridagi o'zgarishlar tarkibida

TTXI uchun qulaylik tug'diruvchi rejimlar ulushi 2005-yilda 82,6 %ni, TTXI uchun noqulaylik yaratuvchi rejimlar ulushi esa 17,4 %ni tashkil etgani holda ushbu ko'rsatkich 2013-yilda mos ravishda 73,6 % va 26,4 %ni tashkil etgan (26.4.1-jadval).

26.4.1-jadval

TTXI ni tartibga solishning milliy rejimlaridagi o'zgarishlar dinamikasi, 2000–2013-yy.

	2005-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.
O'zining tartibga solish rejimlariga o'zgartishlar kiritgan mamlakatlar	77	57	44	54	59
Boshqarish rejimlaridagi o'zgarishlar soni	144	112	67	86	87
TTXI uchun qulayroq o'zgarishlar soni	119	75	52	61	61
TTXI uchun noqulay o'zgarishlar soni	25	36	15	20	23

Manba: World Investment Report 2012: Towards a New Generation of Investment Policies. UNCTAD. Geneva, 2012. P. 76.154; World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. New York and Geneva, 2014. P. 106.

Ushbu holat milliy boshqaruv rejimlari qo'llayotgan mamlakatlarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida proteksionistik tendensiyalarning kuchayotganligidan dalolat beradi. Misol uchun, 2011-yilda dunyoning aksariyat mamlakatlari milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish maqsadida ushbu sohani erkinlashtirishni davom ettirishdi. Shunga qaramasdan sanoat siyosati bilan bog'liq yangidan-yangi tartibga soluvchi va cheklovchi choratadbirlar qabul qilindi. Ushbu tadbirlar avvalo xorijiy investorlarning bozorlarga kirib kelishi (masalan, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika) bilan bog'liq siyosatni o'zgartirishga, investitsiyalarni milliylashtirish va olib qo'yishga nisbatan talablar, qazib olish tarmoqlari hamda TTXI chetga chiqarishga nisbatan tanqidiy yondashuvlarga qaratildi.

2011–2013-yillarda qator mamlakatlar TTXI chetga chiqarish tartibini qiyinlashtirdi. Ushbu mamlakatlarda ichki ishsizlik darajasining yuqoriligi bilan bog'liq holda TTXI ni chetga chiqarish ishchi kuchi eksportini oshiradi va milliy sanoat bazasining kuchsizlanishiga olib kelishi mumkinligi degan xavotir mavjud. Bu sohada olib borilayotgan siyosatning yana bir yo'nalishi barqaror valyuta kursini qo'llab-quvvatlash va to'lov balansini yaxshilash choralarini qamrab oladi. Qabul qilingan qarorlar TTXI ni chetga chiqarishni cheklash va xorijiy investitsiyalarni repatriatsiya qilish uchun rag'batlarni yaratishga yo'naltirilgandir.

Ushbu holat milliy boshqaruv rejimlari qo'llayotgan mamlakatlarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida proteksionistik tendensiyalarning kuchayotganligidan dalolat beradi.

26.5. O'zbekiston xalqaro kapitallar migratsiyasi jarayonida

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni jadallashtirishga yo'naltirilgan faol siyosat olib borilmoqda. Milliy valyutaning joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyasining ta'minlanishi hamda islohotlarni amalga oshirish strategiyasi O'zbekistonda iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va xorijiy kapital ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay asosni shakllantiradi.

Respublikamizda xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar va imtiyozlarning keng qamrovli tizimi shakllantirilgan. Bu tizim «Xorijiy investitsiyalar to'g'risida»gi, «Investitsion faoliyat to'g'risida»gi, «Xorijiy investorlar huquqlarini himoya

qilish kafolati va choralari to'g'risida»gi va «Qimmatli qog'ozlar bozorida xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida» gi qonunlarga asoslangan. Ushbu qonunlar xorijiy investorlarning teng huquqli va adolatli shart-sharoitda faoliyat olib borishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari va preferensiyalarni o'z ichiga oluvchi qo'shimcha chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investorlar faoliyati 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan «Xorijiy investorlarning huquqlari kafolatlari va himoyalash choralari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan kafolatlanadi.

Xorijiy investorlar huquqlarini kafolatlashda davlat mas'ul organ hisoblanadi[1]. Xususan, Adliya vazirligiga xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyali korxonalarga nisbatan nazorat qilish organlari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralarining investorlar huquqlarini buzuvchi qarorlarini to'xtatib qo'yish, tegishli davlat va boshqaruv organlariga bunday qarorlarni bekor qilish borasida takliflar kiritish huquqi berilgan. Bunday yondashuv xorijiy investorlar faoliyati bilan bog'liq munosabatlarda qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda keng qo'llanilayotgan yana bir rag'batlantiruvchi chora shundan iboratki, agar mamlakatdagi keyingi qonun hujjatlari investitsiyalash shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, unda xorijiy investorlarga nisbatan investitsiyalash sanasida amal qilgan qonun hujjatlarini investitsiyalash vaqtdan boshlab ma'lum bir muddatga qo'llash kafolatlanadi. Ushbu chora O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham o'z aksini topgan bo'lib, xorijiy investorlarga investitsiyalash sanasida amal qilgan qonun hujjatlarini investitsiyalash vaqtidan boshlab o'n yil mobaynida qo'llash kafolati beriladi. Xorijiy investor o'z xohishiga ko'ra yangi qonun hujjatlarining investitsiyalash shart-sharoitlarini yaxshilaydigan qoidalarini qo'llash huquqiga egadir[2].

Xorijiy investorning O'zbekiston Respublikasida olgan daromadlari uning xohishiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hududida reinvestitsiya qilinishi yoki boshqa har qanday usulda ishlatilishi mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasiga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularni repatriatsiya qilish, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish munosabati bilan olingan huquqlardan foydalanish cheklovlarsiz amalga oshiriladi[3]. Ushbu qulaylik milliy valyutamizning erkin konvertatsiyalanish imkoniyati joriy operatsiyalar bilan cheklangan sharoitda xorijiy investorlar faoliyatini rag'batlantiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Umuman, xorijiy investorlarga beriladigan asosiy kafolatlarning to'liq bo'lmagan ro'yxati quyidagilardan iborat:

1. O'zbekiston Respublikasidagi xorijiy investitsiyalar natsionalizatsiya va rekvizitsiya qilinmaydi.
2. Xorijiy investorlarga faoliyati natijasida olingan foyda va boshqa mablag'larni hech bir cheklovlarsiz chet el valyutasida xorijga o'tkazish kafolatlanadi. Shuningdek, import bo'yicha olib kirilayotgan xomashyo, butlovchi buyumlar va zamonaviy texnologiyalardan olingan tushumni chet el valyutasiga ayirboshlash ta'minlanadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 2 maydagi «To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 58-sonli qarori.

2 O'zbekiston Respublikasining «Xorijiy investorlarning huquqlari kafolatlari va himoyalash choralari to'g'risida»gi Qonuni, 1998-yil.

3 O'zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi Qonuni, 2003-yil.

3. Chet ellik jismoniy va yuridik shaxslarga davlat mulkini xususiylashtirish jarayonida, shu jumladan ko'chmas mulk oldi-sotdisida erkin qatnashishi kafolatlanadi.
4. Xorijiy investitsiyali korxonalar o'zlari ishlab chiqargan mahsulotni litsenziyasiz eksport qilish, o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun mahsulotni import qilish va qo'shma korxonalarning ustav fondiga hissa qo'shish uchun boj to'lamasdan mulk olib kirishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Soliq va Bojxona kodekslari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari orqali xorijiy investorlar uchun imtiyozlarning keng tizimi yaratilgan.

Bundan tashqari, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat olib borayotgan va xorijdan to'g'ridan to'g'ri xususiy investitsiyalarni jalb qilgan korxonalar asosiy faoliyatidan daromad solig'i, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va yagona soliqni to'lashdan 7 yilgacha ozod qilinadi[1].

Xorijiy investorlar va xalqaro moliya institutlarini O'zbekistonda yaratilgan qulay investitsiya muhiti hamda mamlakat iqtisodiyotiga investitsiya sarflashning potensial imkoniyatlari to'g'risida keng xabardor qilishni tashkil etish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash uchun xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini aniq-puxta muvofiqlashtirishni ta'minlash maqsadida 2008-yil 24-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-927-sonli Qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorda «Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish va o'zlashtirish tartibi to'g'risidagi Nizom» va «Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish jarayonida loyihalar tashabbuskorlari va davlat organlarining o'zaro hamkorlik qilish» sxemasi berilgan bo'lib, unda xorijiy investorlar faoliyatini boshqarish, ularga ko'mak berish tizimi ko'rsatib berilgan. Prezident qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish bo'yicha qarorlarni ko'rib chiqish, muhokama etish va qabul qilishda, har yilgi Investitsiya dasturlarini, shuningdek, tarmoqlar va mamlakat mintaqalarini rivojlantirishning o'rta muddatli dasturlarini tayyorlashda yetakchi bo'g'in hisoblanadi, uning zimmasiga mazkur masalalarni hal etishda idoraviy mansubligidan qat'i nazar, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish mas'uliyati yuklanadi.

Xorijiy investitsiyalarni o'tish iqtisodiyoti mamlakatlar iqtisodiyotiga keng miqyosda jalb etish o'tish davrining strategik va joriy vazifalarini hal etish zaruriyati bilan bog'liq. Ushbu vazifalar ichida eng muhimlari — iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish, mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, yuqori texnologik raqobatbardosh tarmoqlarni yaratish, ilg'or xorij texnologiyasi nou-xau va boshqaruv tajribalarini jalb etishdir.

O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimining jadal sur'atlarda o'sishini quyidagi omillar belgilab bermoqda:

1) *mamlakatdagi investitsiya muhitining barqarorligi.* Yirik investitsion loyihalar uzoq muddatga mo'ljallab amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi. Yuqoridagi sabablarga ko'ra investorlarga, birinchi navbatda, xorijiy investorlarga biznes olib borish uchun qulay investitsiya muhiti, ishonch kerak;

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi 3594-sonli Qarori.

2) *valyuta kursini tartibga solishdagi ijobiy o'zgarishlar.* Milliy valyutaning diversifikatsiyalashuvi, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarga xorijiy tovar ishlab chiqaruvchilar va import qilinadigan tovarlarga nisbatan raqobat kurashida ma'lum afzallikni beradi;
3) 2008-yilga qadar jahon tovar bozorlaridagi ijobiy holatlar va milliy eksport tarkibidagi asosiy tovarlarga (oltin, mis, paxta) qulay narx konyunkturasi yirik milliy eksportyorlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirdi va o'zining investitsion dasturlarini moliyalashtirishning faollashtirilishiga, kengayishiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, o'zaro bog'liq tarmoqlar mahsulotiga talabning o'sishiga sababchi bo'ldi va multiplikator samarasini harakatga keltirdi;
4) davlat moliyasi va davlat qarziga xizmat ko'rsatish holatining mo'tadillashuvi, budjet taqchilligini bartaraf etishga va 2005-yildan boshlab budjet profitsitiga chiqish imkonini berdi.

Investitsiya jarayonlarini faollashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tufayli 2000–2012-yillarda iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada ortdi. O'tgan yilda iqtisodiyotimizga 11 milliard 700 million dollar miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi yoki bu boradagi ko'rsatkich 2011-yilga nisbatan 14 foizga o'sdi. Jami investitsiyalarning 22 foizdan yoki 2 milliard 500 million dollardan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ularning 79 foizdan ko'prog'i to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalardir[1].

26.5.1-jadval

O'zbekistonda 2000–2012-yillarda investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi (foiz hisobida)

Ko'rsatkichlar	2000-y.	2005-y.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2012-y.
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Ichki	76,7	78,3	81,5	75,5	70,0	67,6	70,9	78,3
Tashqi	23,3	21,7	18,5	24,5	30,0	32,4	29,1	21,7
shu jumladan:								
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar	3,4	14,9	13,4	20,6	24,9	27,8	25,3	17,2
Hukumat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar	19,9	6,8	5,1	3,9	5,1	4,6	3,8	4,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Iqtisodiyotga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarning tarmoq tarkibida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichida iqtisodiyotga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalar tarkibida sanoat ulushi yetakchi o'rinni saqlab qolmoqda. Jumladan, 2012-yilda iqtisodiyotga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalar tarkibida neft-gaz tarmog'ining ulushi — 55,5 %ni, aloqa sohasining ulushi — 7,4 %ni, energetika sohasining ulushi — 4,9 %ni tashkil etdi. Jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar geografik tarkibida iqtisodiy aloqalar jadal rivojlanayotgan, yirik qo'shma investitsion loyihalar amalga oshirilayotgan Xitoy — 35,7 %, Rossiya — 26,8 %, Koreya Respublikasi — 3,3 % kabi mamlakatlar ulushi yuqori hisoblanadi (26.5.1-diagramma).

1 Karimov I. A. Bosh maqsadimiz — keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. — Toshkent: O'zbekiston, 2013.7-b.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning hududiy tarkibida nomutanosibliklar, tadbirkorlarning yetarli darajada iqtisodiy bilimga ega emasligi, iqtisodiy tahlillarning yo'qligi, mahalliy idora vakillarining muzokaralar o'tkazish ko'nikmalariga ega emasligi, xorijiy sarmoyali korxonalarni zaruriy infratuzilma bilan ta'minlashga yuzaki qarash hollari mavjud.

26.5.1-diagramma.

Davlat investitsiya dasturi doirasida jalb etilgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning geografik va tarmoq tarkibi, 2012-y.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

26.5.2-jadval

To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar mintaqaviy tarkibining o‘zgarishi, 2000–2012-yy.

	2000-y.	2005-y.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.
Respublika — jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1,7	5,1	6,1	4,3	1,6	2,7	1,4	2,8	15,2
viloyatlar:									
Andijon	1,1	3,7	2,5	1,5	3,4	0,3	1,7	1,3	2,5
Buxoro	2,3	4,1	3,8	30,7	11,7	46,9	30,8	43,0	19,5
Jizzax	3,4	0,7	1,9	0,7	1,1	0,5	0,7	0,9	0,6
Qashqadaryo	25,0	7,9	17,7	17,9	**31,7**	20,2	11,5	10,1	17,1
Navoiy	5,8	7,8	0,8	9,0	2,9	0,5	9,9	2,9	8,7
Namangan	0,9	1,9	1,7	1,0	2,6	0,5	0,8	0,6	1,4
Samarqand	3,4	5,2	4,0	2,0	2,2	1,3	0,9	1,4	2,4
Surxondaryo	1,0	1,6	1,7	2,4	5,0	1,5	1,4	1,4	1,1
Sirdaryo	0,9	1,4	2,3	1,0	0,6	0,8	0,9	0,6	2,8
Toshkent	8,7	8,1	6,3	3,6	3,4	4,0	5,7	9,1	7,5
Farg‘ona	4,5	2,4	3,1	2,5	4,9	3,3	3,5	4,3	3,5
Xorazm	1,5	1,4	4,6	1,7	0,8	0,3	0,9	1,5	2,7
Toshkent sh.	**39,8**	**45,7**	**43,7**	21,7	28,1	15,8	28,8	20,0	15,1
Taqsimlanmagan mablag‘lar	0,0	3,0	-0,2	0,0	0,0	1,4	1,1	0,1	0,0

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Investitsiyalarni taqsimlashda qulay joylashuvga ega, infratuzilmasi rivojlangan industrial mintaqalar — Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Navoiy viloyati hamda ustuvor, strategik ahamiyatga ega loyihalar moliyalashtirilayotgan Buxoro viloyati, Qashqadaryo viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hissasi yuqori bo‘lgani holda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisos-lashgan Jizzax, Surxondaryo viloyatlarining ulushi oz hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat investitsiya dasturiga muvofiq 2015-yilda iqtisodiyotga 156 ta investitsiya loyihalari bo‘yicha 3,534 mlrd. dollar miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb etilishi rejalashtirilgan. Jami jalb etilishi ko‘zda tutilgan mablag‘larning 72,2 % ini (80 ta loyiha) to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, 27,8 %ni (76 ta loyiha) hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar tashkil etadi[1].

Xorijiy investitsiyalarning o‘sishida xalqaro moliya institutlari qarzlari doirasida import aloqalarni qayd etish tartibining soddalashtirilishi, sanoat korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta ta’minlash, soliq yukining pasaytirilishi, mahsulot taqsimlash to‘g‘risidagi bitimning qo‘llanishi, shuningdek, xorijiy investorlar bilan investitsiya shartnomalarini tuzish yo‘li orqali alohida imtiyozlar, preferensiyalar taqdim qilish asosiy omil bo‘ldi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida donor mamlakatlar bilan istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash borasida birgalikdagi ishlar jadallashdi. Bunda, birinchi navbatda, asosiy e’tibor mintaqalararo hamkorlik loyihalarini amalga oshirish, kommunal tarmoqda islohotlarni

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi Investitsiya dasturi to‘g‘risida»gi 17.11.2014-y. PQ-2264-sonli Qarori.

chuqurlashtirish, ekin yer maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash, kadrlar tayyorlashning milliy ta'lim dasturini amalga oshirishga ko'maklashish, tibbiyot muassasalarini yuqori texnologiyadagi uskunalar bilan jihozlash, moliyaviy tashkilotlarning samaradorligini oshirish kabilarga qaratildi. Xususan, dunyoning qator davlatlari, birinchi navbatda, bugungi kunda bizda asosiy hamkor sifatida qaraluvchi, iqtisodiy aloqalar jadal rivojlana-yotgan, qo'shma investitsion loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilayotgan yoki ko'zda tutilayotgan Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi va boshqa mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalari barqaror sur'atlarda rivojlanmoqda.

Respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish nafaqat xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda yangi, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, balki yangi zamonaviy texnika, dastgoh va uskunalar, texnologiya va nou-xaularni joriy etish, shu asosda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning yuqori sifatini ta'minlashga qaratilgan.

Asosiy tushunchalar

Xalqaro kapitallar migratsiyasi — jahon iqtisodiyotining turli mamlakatlari o'rtasida egalariga qo'shimcha daromad keltiruvchi kapitalning qarama-qarshi harakati.

Kapitalning chetga chiqib ketishi — kapitalning bir qismini milliy aylanmadan ajratib olish va uni tegishli shakllarda xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotiga o't-kazish jarayoni.

Xususiy kapital — xususiy shaxslar tomonidan xorijga joylashtiriladigan yoki xorijdan qabul qilinadigan nodavlat manbalar mablag'lari.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) — xorijiy kapitalning uzoq muddatli kiritilishi bo'lib, investor tashkil qilayotgan firma aksiyalari yoki aksioner kapitaliga to'la ega bo'lish yoki kamida 10 foizi xo'jalik faoliyatining ta'sirchan nazorat qilinishini ta'minlaydi.

Portfel investitsiyalar — kapitalni xorijiy korxonalar qimmatli qog'ozlariga (korxona ustav kapitalining 10 %dan kam qismini) kiritish shaklida olib chiqib ketish bo'lib, investorlarga ular faoliyatini bevosita nazorat qilish imkonini bermaydi.

Moliyaviy investitsiyalar — mulkka egalik qilish va mulkdan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlar orqali qo'yilmalar kiritish.

Xalqaro birlashish va qo'shib olishlar — kompaniyalarning xalqaro bozorlarda aksiyalarning yirik paketi yoki korxonani to'liq sotib olishlari jarayoni. Bu usul kompaniyalarning bozordagi ulushining ortishiga, kapitallashish darajasining o'sishiga olib keladi.

Milliy rejim — xo'jalik yuritish faoliyatining minimal sharoitlari bo'lib, xorijiy investorlar uchun yomonlashib ketmasligi kerak.

Xalqaro investitsion shartnoma — ikki va ko'p tomonlama milliy davlatlarning investitsiya siyosatlarini muvofiqlashtirish hamda xalqaro investitsiyalar sohasida tartibga solishning umumiy qoidalarini ishlab chiqishga qaratilgan shartnoma.

Ikki tomonlama investitsion shartnoma — ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida investitsiyalarni amalga oshirish maqsadida tuziladigan maxsus shartnoma.

Mintaqaviy investitsion shartnoma — bir mintaqaviy guruhga kiruvchi mamlakatlar hukumatlari o'rtasida investitsiyalarni amalga oshirish xususida imzolanadigan maxsus shartnoma.

Ko'p tomonlama investitsion shartnomalar — manfaatdor mamlakatlarning investitsion hamkorlikda qatnashishi va a'zolarni keng miqyosda qamrab olishini ko'zda tutuvchi shartnoma.

Xalqaro investitsiya siyosati — xalqaro investitsiya oqimlari harakatini erkinlashtirishga qaratilgan xalqaro tartibga solish chora-tadbirlari tizimi.

Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha xalqaro agentlik (IKXA) — 1988-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning vazifasi xorijiy investorlarni notijorat xarakterdagi risklar bilan bog'liq yo'qotishlardan kafolatlash orqali a'zo mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida investitsiyalar oqimini oshirishga ko'maklashish.

Investitsion da'volarni tartibga solish bo'yicha xalqaro markaz (IDTSXM) — 1966-yilda tashkil topgan bo'lib, maqsadi xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi a'zo mamlakatlar hukumatlari, davlat organlari bilan xorijiy investorlar o'rtasida vujudga keluvchi kelishmovchiliklarni tartibga solish, kelishtirish, arbitraj sudlarida ishni ko'rib chiqish mexanizmlarini yaratish orqali xalqaro investitsiya faoliyatiga ko'maklashish.

Investitsion marketing xizmatlari departamenti (IMXD) — agentlikka a'zo bo'lgan rivojlanayotgan va o'tish mamlakatlari iqtisodiyotiga yo'naltirilayotgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi. IMXD ning maqsadi — rivojlanayotgan mamlakatlarga iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va kambag'allikka qarshi kurashish uchun jalb etilayotgan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar oqimining barqarorligini ta'minlashga yordamlashish.

Xorijiy investorlarga maslahat berish agentligi — Umumjahon bankining bo'linmasi bo'lib, a'zo mamlakatlar hukumatlarini xorijiy investitsiyalar masalalari bo'yicha konfidensial maslahatlar bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan tashkilot.

Xorijiy investitsiyalarni axborot bilan ta'minlash va ko'maklashish «O'zinfoinvest» agentligi — 2007-yilda tashkil etilgan bo'lib, maqsadi xorijiy ishbilarmon doiralarni respublikamizdagi mavjud investitsiya muhiti haqida atroflicha axborot bilan ta'minlash, ularga loyihalarni amalga oshirishda har tomonlama ko'maklashishdan iborat.

O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi — 2006-yilda tashkil etilgan bo'lib, maqsadi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim, yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlash bo'yicha investitsion loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashish.

Nazorat savollari

1. Xalqaro kapital migratsiyasining sabablari nimalardan iborat?
2. Xalqaro kapital migratsiyasi holati qanday ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi?
3. Xalqaro kapital migratsiyasining qanday shakllari mavjud?
4. To'g'ridan to'g'ri va portfel investitsiyalarning farqi nimadan iborat?
5. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning keskin o'sishining sabablarini ko'rsating.
6. Xalqaro kapital migratsiyasini tartibga solish zaruriyati nimalardan iborat?
7. Xalqaro kapital migratsiyasi harakatini tartibga soluvchi qanday moliyaviy tashkilotlarni bilasiz?
8. Xorijiy investitsiyalar harakatini tartibga soluvchi qanday mintaqaviy moliyaviy tashkilotlarni bilasiz?
9. O'zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning institutsional asoslari nimalardan iborat?
10. O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar qanday tarkibga ega?

27-BOB. XALQARO KORPORATSIYALAR XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR SUBYEKTI SIFATIDA

27.1. Xalqaro korporatsiyalarning vujudga kelish sabablari, funksiyalari va guruhlanishi

Barqaror sur'atlarda rivojlanayotgan transmilliylashuv jarayoni zamonaviy jahon iqtisodiyotining muhim xususiyati hisoblanadi. Ushbu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi xalqaro korporatsiyalardir. Xalqaro korporatsiyalar savdo, investitsiyalash va zamonaviy texnologiyalarni eltuvchilar sifatida jahon iqtisodiyotining muhim subyektlariga aylanishdi.

Xalqaro iqtisodiy globallashuvning asosiy harakatlantiruvchi kuchi xalqaro korporatsiyalar hisoblanadi. Xalqaro korporatsiyalar ichki korporativ mehnat taqsimotini an'anaviy mehnat taqsimotining xalqaro darajasiga olib chiqishgan. Jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayoni shtab-kvartirasi qabul qiluvchi mamlakatdan tashqarida bo'lgan firmalar tomonidan nazorat qilinadigan va boshqariladigan xalqaro ishlab chiqarishga bevosita bog'liq. Xalqaro korporatsiyalarning umumiy nazoratida bo'lgan ushbu faoliyat jahon YaMM ishlab chiqarish hajmining taxminan 25 foizini tashkil qiladi. Ushbu ishlab chiqarishning 1/3 qismi qabul qiluvchi mamlakatlarda joylashgan.

Jahon iqtisodiyoti amaliyoti ko'rsatishicha, ishlab chiqarishning integratsiyalashuv jarayoni xalqaro korporatsiyalarni tashkil qilish modellariga tayanadi.

27.1.1-rasm.



Xalqaro korporatsiyalarning vujudga kelishi TTXI bilan bog'liqdir. Jahon amaliyotida TMK ga turli mamlakatlarda TTXI ni amalga oshiradigan yirik korporatsiyaning tarkibiy-tashkiliy shakli sifatida qaraladi. Xorijiy korxonaning tashkil etilishi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalash faoliyati natijasi bo'lib, unda investor-norezident kapitalning 50 %dan kam bo'lgan qismiga egalik qiladi. Shu'ba firmada uning ulushi 50 %dan oshadi, xorijiy filial esa to'liq unga tegishli bo'ladi.

Iqtisodiy adabiyotda xalqaro korporatsiyalarning ikki xil shakli farqlanadi: transmilliy va ko'pmillatli korporatsiyalar (27.1.1-rasm).

G'arb iqtisodiy adabiyotida xalqaro monopolistik uyushmalarning ko'pmillatli, xalqaro, transmilliy va global kabi turlari farqlanadi.

Rossiyalik iqtisodchilar TMK — bu xorijiy aktivlarga ega bo'lgan milliy monopoliyalardir, degan tavsif beradilar. Ularning ishlab chiqarish va savdo-sotiq faoliyati milliy davlat chegarasidan chiqib ketadi. AQSh da korporatsiya deb hissadorlik

jamiyatlariga aytiladi. Zamonaviy TMK ning ko'pchiligi Amerika kompaniyalarining ekspansiyasi tufayli vujudga kelganligi sababli, bu atama jahon mamlakatlari iqtisodiyotiga kirib keldi.

TMK ning huquqiy rejimi tashkil topgan filiallar va shu'ba korxonalar orqali turli davlatlarda faoliyat yuritishni nazarda tutadi. Bu kompaniyalar nisbatan mustaqil bo'lgan ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlarni sotish, ilmiy-tadqiqot, iste'molchilarga xizmat ko'rsatish xizmatlariga egadirlar. Umuman, ular yagona ishlab chiqarish-sotish majmuyini tashkil etib, bu majmuada hissadorlik kapitalga faqat ta'sischi davlat egalik qiladi. Shuningdek, filial va shu'ba korxonalar aralash korxonalar bo'lishi va ularda milliy kapital ustunlik qilishi ham mumkin.

Ko'pmillatli korporatsiyalar — ishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqot ishlari asosida bir necha davlat milliy korporatsiyalarini birlashtiruvchi xalqaro korporatsiyalar. Bunga 1907-yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan Buyuk Britaniya–Niderlandiyaning «Royal-Datch Shell» konsernini misol sifatida keltirish mumkin. Ushbu kompaniyaning hozirgi kundagi kapitali 60:40 nisbatda taqsimlangan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) TMK bo'yicha komissiyasi xalqaro kompaniyaga quyidagicha tavsif beradi:

- yuridik shakli va faoliyat sohasidan qat'i nazar, ikki yoki undan ortiq mamlakatlarda xo'jalik subyektlariga ega bo'lgan;
- bitta boshqaruv markazi orqali umumiy strategiyani amalga oshirish va muvofiqlashtirilgan siyosat yuritishga imkon beruvchi qarorlar qabul qilish tizimi doirasida ish olib boradigan;
- mulkchilik orqali bir-biriga bog'langan alohida xo'jalik subyekti sifatida, bunda xo'jalik subyektlaridan bittasi yoki undan ko'prog'i boshqalarining faoliyatiga bilimlar, resurslar va mas'uliyatni boshqalar bilan birgalikda foydalanish orqali jiddiy ta'sir ko'rsata oladi.

Jahon amaliyotida xalqaro korporatsiyalar deyilganda jahon tovar va ishlab chiqarish omillari bozorlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatuvchi yirik kompaniyalar tushuniladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- yillik sotish hajmi 1 mlrd. dollardan kam bo'lmasligi;
- umumiy moliyaviy aylanma mablag'larining beshdan bir qismidan uchdan bir qismigacha xorijdagi operatsiyalar ulushiga to'g'ri kelishi;
- xorijdagi aktivlar ulushi 25 %dan kam bo'lmasligi;
- kamida oltita mamlakatda filiallarga ega bo'lishligi.

Shunday qilib, xalqaro korporatsiyalarning asosiy xususiyati to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish jarayonidir.

XIX asr oxirida vujudga kelgan xalqaro korporatsiyalar evolyutsion rivojlanishning uzun yo'lini bosib o'tdi, bu jarayonda ularning shakllari va faoliyat sohalari ustuvorliklari, ichki korporativ tuzilma va strategiya o'zgarib bordi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida korporativ birlashmalarning o'zaro tashkiliy-xo'jalik aloqalari asosida transmilliy moliya-sanoat guruhlarini (MSG) barpo etishning turli shakllari mavjud.

MSG jahon iqtisodiyotini xalqaro ishlab chiqarishga aylantirib, barcha yo'nalishlar bo'yicha ilmiy-texnika taraqqiyotining jadal rivojlanishini ta'minladi. Ular tarkibiga mahsulotning texnik darajasi va sifati, ishlab chiqarish samaradorligi, menejment shakllarining takomillashuvi, korxonalarni boshqarish kabi yo'nalishlarni kiritish mumkin. MSG o'nlab mamlakatlarda o'z shu'ba korxonalari va filiallari orqali ishlab chiqiladigan yagona ilmiy-ishlab chiqarish hamda moliya strategiyasi bo'yicha faoliyat olib boradilar. MSG ulkan ilmiy-ishlab chiqarish va bozor salohiyatiga ega bo'lib, jahon iqtisodiyotining barqaror sur'atlarda rivojlanishini ta'minlaydi.

TMK tarixan qisqa vaqt ichida «yangi industrial mamlakatlar»ning jadal sur'atlarda rivojlanishida muhim omil bo'ldi. Xalqaro korporatsiyalar shakllangan davrdan boshlab o'z rivojlanish strategiyalariga ega bo'lib, quyidagi belgilar ular uchun xosdir:

- ishlab chiqarishni xorijiy xomashyo bilan ta'minlash;
- xorijiy bozorlarda o'z filiallari yordamida mustahkam o'rin egallash;
- ishlab chiqarishni xarajatlar nisbatan past bo'lgan mamlakatlarda joylashtirish;
- ishlab chiqarish, savdo va moliya faoliyatini diversifikatsiyalash.

Xalqaro korporatsiyalar faoliyat olib borayotgan mamlakatlarda umumiy tartibdagi va multimilliylashtirish bilan bog'liq raqobat afzalliklarini qo'lga kiritish usullaridan foydalanishadi (27.1.1-jadval).

27.1.1-jadval

Xalqaro korporatsiyalar tomonidan raqobat afzalliklarini qo'lga kiritish usullari

Afzallik	Tavsif
I. Umumiy tartibdagi raqobatning afzalliklari	
O'z texnologiyasiga ega bo'lish	Nou-xau yoki firmaga tegishli mahsulotni ishlab chiqarish, jarayon yoki boshqaruv texnologiyasi, uni boshqa firmalar faqat ITTKI yoki uning egasidan olishi mumkin
Markaga yoki savdo belgisiga asoslangan «gudvill»	Sifat, xizmatlar va boshqalarga nisbatan tajriba asosida orttirilgan obro'-e'tibor
Ishlab chiqarish ko'lamlari bo'yicha iqtisod qilish	Katta ko'lamlarda ishlab chiqarish mahsulot birligi qiymatini pasaytiradi
Ishlab chiqarish diapazoni bo'yicha iqtisod qilish	Bir nechta ishlab chiqarish turlari «bir tom ostida» birlashishi hisobiga xarajatlar kamaydi
Xaridlar ko'lamlari bo'yicha iqtisod	Xaridlarni katta hajmlarda amalga oshirish hisobiga xomashyo va yarimtayyor mahsulotlar qiymatining kamayishi
• moliyalashtirishda	Yirik firmalar uchun ancha past stavkalarda moliyalashtirishdan foydalanish
• sotuvlarda	Xomashyo va mahsulotni katta partiyalarda yuklash mahsulot birligini tashish qiymatini pasaytiradi
• reklamada	Bir nechta bozorlardagi sotuvlar reklamaning muayyan «bozorlararo» ixtisoslashishiga imkon beradi
Davlatning homiyligi	Davlat boshqaruvi ostida bozorga erkin yoki preferensial tarzda qo'llab-quvvatlash orqali kirish
Xodimlar menejmenti	Band bo'lganlarning guruhli faoliyatini rag'batlantirish va mehnat unumdorligini maqbullashtirish ko'nikmalari
II. *Multimilliylashtirish bilan bog'liq raqobat afzalliklari*	
Marketingning multimilliy imkoniyatlari	Bir nechta mamlakatlardagi bozorlarni o'rganish, bilish va ulardan foydalanish
Multimilliy ta'minot manbalari	Bir nechta mamlakatlardagi xomashyo, yarimtayyor mahsulotlardan erkin foydalanish, bu yagona manbaga nisbatan xarajatlarni ancha pasaytiradi
Multimilliy diversifikatsiya	Bir nechta mamlakatlarda operatsiyalar olib borish «mamlakat qaltisligi»ni va biznes qaltisligini pasaytiradi
Bir nechta mamlakatlarning menejmentdagi tajribasi	Bir nechta mamlakatlar tajribasi asosida shakllangan operatsiyalarni boshqarish ko'nikmalari raqobatchilar oldida nisbiy afzalliklarni beradi
Aglomeratsiya bo'yicha iqtisod	Boshqa firmalar bilan hududiy ishlab chiqarish kooperatsiyasi natijasida aglomeratsiya bo'yicha iqtisod qilish

Manba: Вахабов А. В. Модели развития финансово-промышленных групп в мировой экономике и возможности его использования в Узбекистане. // «Молия-саноат гуруҳларини ташкил этиш бўйича халқаро тажриба ва Ўзбекистонда корпоратив бошқарувни такомиллаштириш муаммолари» мавзуидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. — М.: МГЭИ, 2008.18-б.

TMK ning mahsulotni bir vaqtning o'zida bir nechta mamlakatlardagi filiallarida ishlab chiqarish sabablarini aniqlash uchun uning hududiy jihatini ajratib ko'rsatish zarur. Hududiy jihat korporatsiyaning arzon xomashyo va ish kuchidan foydalanish, mahsulotni tashish va saqlash xarajatlarini qisqartirish, bojxona va soliq to'siqlarini chetlab o'tishga intilishi bilan bog'liq. Internatsional jihat esa bir nechta mamlakatlarda o'z filiallariga ega korporatsiya o'z nisbiy ustunligidan foydalanishi bilan bog'liq hisoblanadi. Iqtisodiy mustaqil bir necha korporatsiyadan ko'ra, mahsulotni bitta korporatsiya tomonidan qator mamlakatlarda ishlab chiqarish afzalroqdir. Shuningdek, TMK soliqlarni qisqartirish maqsadida hisobotni boshqarishi va unga tegishli bo'lgan texnologiya ustidan nazoratni o'rnatishi mumkin. Ushbu imkoniyat to'liq nazorat qilinadigan filiallar yordamida amalga oshiriladi.

TMK lar quyidagi xususiyatlari bilan boshqa kompaniyalardan farqlanadi:

1) xalqaro mehnat taqsimotining faol ishtirokchilari ekanligi;
2) xalqaro ishlab chiqarish majmualarini yaratib, qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'lishi;
3) global ishlab chiqarish kuchlari va resurslaridan foydalanishi;
4) ommaviy iste'molchilar uchun ishlashi;
5) kapitalni bazaviy mamlakatda yuz berayotgan jarayonlarga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshirishi;
6) yuqori texnologiyali va fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan tarmoqlarda faoliyat olib borishi. Ushbu tarmoqlar rivojlanishi katta hajmdagi kapital qo'yilmalar va yuqori malakali mutaxassislarni talab etadi.

Shu bilan birga TMK ning rivojlanishi quyidagi qarama-qarshi tendensiyalarga ega:

- ular o'rtasida raqobatning keskinlashuvi;
- o'zaro hamkorlik munosabatlarining o'rnatilishi.

TMK o'rtasidagi o'zaro hamkorlik munosabatlari quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

1) xalqaro kooperatsiya — dastlab, rivojlanayotgan mamlakatlarning qazib chiqarish va qayta ishlash tarmoqlarida namoyon bo'lgan bo'lsa, keyinchalik yuqori texnologiyalarni talab qiluvchi, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari keng qo'llaniladigan sohalarda amalga oshirila boshlandi;
2) strategik alyanslar — jahon bozoridagi global iqtisodiy masalalarni birgalikda hal etish maqsadida tuziladigan firmalararo ittifoq bo'lib, ushbu ittifoq mazkur firmalarning boshqa sohalarda raqobatlashuviga to'sqinlik qilmaydi. Strategik alyanslar texnologik tadqiqotlarni olib borish, qo'shma ishlab chiqarishni amalga oshirish va mahsulotni sotishda hamkorlik qilish maqsadida barpo etiladi;
3) strategik oilalar — o'zaro raqobatda bo'lgan korporatsiyalarning xalqaro bozorlarda bir-birini to'ldiruvchi strategiyani amalga oshirish maqsadidagi birlashuvidir;
4) strategik tizimlar — turli tarmoqlardagi (ishlab chiqarish korxonalari, savdo firmalari, banklar) korxonalarning uzoq muddatli hamkorligiga asoslangan birlashma bo'lib, maqsadi axborotlar, personal va texnologiyalar almashishdan iboratdir;
5) xalqaro birlashish va qo'shib olishlar. Xalqaro raqobatning kuchayib borishi natijasida XX asrning 80-yillaridan boshlab TMK ishtirokida firmalarning birlashish va qo'shib olish jarayoni kuchaydi. Ushbu holatning asosiy sababi sanoat tarmoqlarida to'liq quvvat bilan ishlamayotgan korxonalarning ko'payishi, TMK daromadining pasayishi, moliya sohasidagi o'zgarishlar oqibatida moliyalashtirishning yangi manbalari va vositalarining vujudga kelishi hisoblanadi.

Jumladan, 2013-yilda transchegaraviy birlashgan va qo'shib olingan kompaniyalarning qiymati 349 mlrd. dollarni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich jahon moliya inqirozining ta'sirida 2009-yilda (250 mlrd. doll.) 2008-yilga (707 mlrd. doll.) nisbatan 47,9 %ga qisqargan[1]. Ushbu jarayon, asosan, bank, sug'urta, farmatsevtika va telekommunikatsiya sohalarida yuz bermoqda;

6) TMK ning xalqaro qo'shilishi deganda korporatsiyalarning qimmatbaho qog'ozlarni sherikchilik asosida boshqarishi tushuniladi. Xalqaro qo'shilib ketishlar, asosan, avtomobilsozlik tarmog'ida yuz beradi.

XX asrning 50-yillaridan boshlab TMK jahon bozorlarini egallash uchun faol harakat boshladilar. Ushbu jarayonning rivojlanishiga xalqaro iqtisodiy aloqalarning erkinlashuvi, yangi mustaqil mamlakatlarning vujudga kelishi, jahon iste'mol bozorida talabning o'sishi kabi omillar jiddiy ta'sir ko'rsatdi. TMK ning hajmi va sonining jadal sur'atlar bilan o'sishi ularning jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi salmog'i va ahamiyatining keskin oshishiga olib keldi.

27.2. Transmilliy korporatsiyalarning rivojlanish ko'rsatkichlari

TMK jahon xo'jaligining muhim ishtirokchilariga aylanib bormoqda. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari bevosita TMK faoliyatiga bog'liq. Ushbu mamlakatlar eksportida milliy korporatsiyalar va ularning xorijdagi filiallari o'rtasidagi savdo aloqalari ulushi yuqori ko'rsatkichga ega. Masalan, XX asrning 80-yillarida firma ichidagi savdo ulushi AQSh eksportining 14–20 %ni, Yaponiya eksportining 23–28 %ni va GFR eksportining 24–28 %ni tashkil etgan.

YuNKTAD ma'lumotlariga ko'ra, 2008-yilda 82000 ta TMK qayd etilgan bo'lib, filiallarining soni 810000 tani tashkil etgan. TMK jahon iqtisodiyotining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. TMK filiallari orqali amalga oshirilgan eksportning hajmi dunyo eksportining 1/3 qismini tashkil etadi va ularda 70,7 mln. kishi ishlaydi. Ushbu ko'rsatkich Germaniya iqtisodiyotida band bo'lganlar sonidan ikki baravar ko'p.

Xalqaro ishlab chiqarish deganda, TMK ning xorijiy filiallari tomonidan sotilgan mahsulot tushuniladi. Ushbu sotuvlarning aksariyat qismini filiallar ishlab chiqaradi va ular bosh korporatsiyalar ishlab chiqargan mahsulotlarni qayta sotish bilan shug'ullanadilar. 1990-yilda TMK ning xorijiy filiallaridagi sotish hajmi 4,7 trln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2013-yilga kelib 34,5 trln. dollarga teng bo'lgan.

Xalqaro ishlab chiqarishning asosini TTXI tashkil etadi. Agar 1990-yilda TMK tomonidan chetga chiqarilgan TTXI ning umumiy hajmi 2,1 trln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 26,3 trln. dollarga teng bo'lgan. TMK tomonidan mamlakatlar iqtisodiyotiga chetga chiqarilgan TTXI dan olingan daromadlar hajmi esa mutanosib ravishda 126 mlrd. dollardan 1,6 trln. dollargacha ortgan (27.2.1-jadval).

2006–2008-yillarda birinchi 100 ta TMK ning jami xorijiy aktivlar miqdori, sotish hajmi va ishchilar sonidagi ulushi mos ravishda 9, 16 va 11 %ni tashkil etgan. Ushbu TMK ning jahon YaIM dagi ulushi 2008-yilda 4 %ga teng bo'lgan va mazkur ko'rsatkich 2000-yildan buyon o'zgarmay kelmoqda (27.2.2-jadval).

1 Доклад о мировых инвестициях, 2011 год: Способы организации международного производства, не связанные с участием в капитале, и развитие. Обзор. ЮНКТАД. Нью-Йорк и Женева, 2011. С. 7.; World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. UNCTAD. — New York and Geneva, 2014. P. 14.

27.2.1-jadval
TMK rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Joriy baholardagi qiymati, mlrd. doll.				2013-yilda 1990-yilga nisbatan, marta hisobida
	1990-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.	
Chetga chiqarilgan TTXI ning umumiy hajmi	2088	21913	23916	26313	12,6
Chetga chiqarilgan TTXIdan olingan daromad	126	1550	1509	1622	12,9
Transchegaraviy birlashish va qo'shib olishlar soni	111	556	332	349	3,1
Xorijiy filiallardagi sotish hajmi	4723	28516	31532	34508	7,3
Xorijiy filiallarning yalpi mahsuloti	881	6262	7089	7492	8,5
Xorijiy filiallardagi jami aktivlar hajmi	3893	83754	89568	96625	24,8
Xorijiy filiallardagi eksport hajmi	1498	7463	7532	7721	5,2
Xorijiy filiallardagi ishlovchi ishchilar soni (ming kishi)	20625	63416	67155	70726	3,4

Manba: World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. UNCTAD. — New York and Geneva, 2014. P. 14.

27.2.2-jadval
100 ta TMK rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2008-yilda 2006-yilga nisbatan o'zgarish, % hisobida
Aktivlar hajmi, mlrd. doll				
Jami	9239	10702	10687	115,6
Shu jumladan, xorijda	5245	6116	6094	116,2
Xorijdagi aktivlarning jami aktivlardagi ulushi, %	57	57	57	100,0
Sotish hajmi, mlrd. doll				
Jami	7088	8078	8518	120,2
Shu jumladan, xorijda	4078	4936	5208	127,7
Xorijdagi sotish hajmining jami sotish hajmidagi ulushi, %	58	61	61	105,2
Ishchilar soni, ming kishi				
Jami	15388	14870	15302	99,4
Shu jumladan, xorijda	8582	8440	8898	103,7
Xorijdagi ishchilar sonining jami ishchilar sonidagi ulushi, %	56	57	58	103,6

Manba: World Investment Report 2009: Transnational Corporations, Agricultural Prodaction and Development. - New York and Geneva, 2009.

XXI asr boshlarida jahon iqtisodiyotida transmilliylashish jarayoni chuqurlashib bormoqda. U yoki bu kompaniyaning xorijdagi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga jalb etilganlik darajasi transmilliylashuv indeksi (TMI) orqali aniqlanadi. U kompaniyaning xorijdagi va o'z mamlakatidagi xo'jalik faoliyatining ko'rsatkichlarini qiyosiy taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. YuNKTAD ushbu ko'rsatkichni kompaniyaning jami aktivlarida xorijiy aktivlarning ulushi, jami sotish hajmida xorijdagi sotuv hajmining ulushi, jami xodimlar sonida xorijdagi xodimlar sonining ulushi ko'rsatkichlarining yig'indisi sifatida baholaydi.

1998-yilda jahondagi 100 ta yetakchi TMK da TMI o'rtacha — 53,9 %, 2006-yilda — 64,2 %, 2007-yilda esa 62,4 %ni tashkil etgan. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich ancha yuqori bo'lib, shu jumladan Yevropa Ittifoqi — 27 (YeI-27) mamlakatlarida 66,4 %ga teng.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda TMK TMIga nisbatan pastroq bo'lsa-da, ularning tarkibida ham yuqori transmilliylashuv indeksiga ega TMK mavjud. Masalan, 2008-yilda Gonkong/Xitoy "Hutchison Whampoa Ltd. " kompaniyasining TMIsi 82,8 %ga teng bo'lgan.

27.2.3-jadval

Jahondagi 100 ta TMK ning transmilliylashuv indeksi bo'yicha geografik tarkibi

Hudud	TMI		TMK soni
	2006-y.	2007-y.	
Dunyo bo'yicha o'rtacha	**61,6**	**62,4**	**100**
AQSh	57,8	57,1	20
Yaponiya	52,1	53,9	10
Yel-27	64,2	66,4	57
shu jumladan:			
Fransiya	63,8	63,6	14
Germaniya	54,8	56,5	13
Buyuk Britaniya	72,8	47,1	15

Manba: World Investment Report 2009: Transnational Corporations, Agricultural Prodaction and Development. -New York and Geneva, 2009.

TMI ning tarmoq tarkibida telekommunikatsiya (70,3 %), oziq-ovqat, tamaki sanoati (68,1 %) va farmatsevtika sanoati (63,6 %) korporatsiyalari yetakchilik qilishadi. Masalan, telekommunikatsiya sohasiga ixtisoslashgan «Vodafone Group Plc» kompaniyasining (Buyuk Britaniya) TMI darajasi — 88,6 %ga teng.

27.2.4-jadval

Jahondagi 100 ta TMK ning transmilliylashuv indeksi bo'yicha tarmoq tarkibi

	Dunyodagi birinchi 100 ta TMK		Rivojlangan mamlakatlardagi birinchi 100 ta TMK	
	2007-y.	TMI	2007-y.	TMI
Mashinasozlik	13	56,0	3	39,3
Yoqilg'i energetika	10	56,2	9	24,0
Elektr va elektronika mahsulotlari	9	57,7	19	59,9
Oziq-ovqat, tamaki	9	68,1	7	60,5
Farmatsevtika	9	63,6	1	50,4
Kommunal xizmatlar	8	55,5	2	41,6
Telekommunikatsiya	8	70,3	7	47,7
Jami	100	62,4	100	54,4

Manba: World Investment Report 2009: Transnational Corporations, Agricultural Prodaction and Development. -New York and Geneva, 2009.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi xalqaro moliya bozorlariga ta'sir o'tkazib, ko'pchilik mamlakatlarda likvidlik muammosini keltirib chiqardi. Inqirozning mikro-makro oqibatlari TMK ning xorijga kapital chiqarish imkoniyatlariga sezilarli ta'sir o'tkazgani yo'q. TMK aksariyat tarmoqlarda investitsiyalarni moliyalashtirish bo'yicha yuqori likvidlikka ega bo'lganliklari sababli, inqiroz ularning yuqori foyda normasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmadi. AQSh iqtisodiyotidagi pasayishning makroiqtisodiy darajada rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti va jahon moliya bozorlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi tufayli ushbu mamlakatlarda investitsiya oqimining qisqarishi kutilmoqda. Boshqa tomondan esa bu jarayonga rivojlanayotgan mamlakatlardagi barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

TMK ning faoliyatini tahlil etishning muhim yo'nalishi «FT 500» reytingi hisoblanadi. Masalan, «FT 500» reytingiga ko'ra, 2014-yilda 500 ta TMK ning 202 tasi AQSh ga tegishli bo'lib, TMK ning kapitallashuv darajasida ularning ulushi 23,4 %ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich bo'yicha Xitoy, Gonkong va Braziliya birinchi o'nlikdan o'rin olishgan (27.2.5-jadval).

27.2.5-jadval

«FT 500» reytingiga kiruvchi TMK ning kapitallashuv darajasi, 2014-y.

O'rni	Mamlakat	Kompaniyalar soni	Kapitallashish darajasi, mlrd. doll.	Ulushi, % hisobida
1	AQSh	202	14214,20	23,4
2	Buyuk Britaniya	32	2120,5	3,5
3	Yaponiya	34	1524,5	2,5
4	Fransiya	28	1493,5	2,5
5	Xitoy	18	1408,10	2,3
6	Germaniya	20	1279	2,1
7	Shveysariya	13	1180	1,9
8	Kanada	23	904,8	1,5
9	Gonkong	14	838,4	1,4
10	Braziliya	10	534,5	0,9
Boshqa mamlakatlar		106	35224,1	58
Jami		500	60721,6	100

Manba: www.vedomosti.ru

«FT 500» reytingiga ko'ra jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi TMK faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Tahlillar ko'rsatishicha, TMK ning kapitallashuv darajasi[1] 2003-yildan 2008-yilgacha 12,6 mlrd. dollardan 26,8 mlrd. dollargacha oshgan, ammo moliyaviy inqiroz natijasida bu ko'rsatkich 2010-yilda 8,7 mlrd. dollargacha pasayib ketdi. 100 mlrd. dollardan ortiq qiymatga ega kompaniyalar soni ham bu davrda 21 tadan 62 tagacha o'sgan va inqiroz tufayli 2010-yilga kelib 51 taga tushib qolgan. Jahonda moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qarshi faol choralarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi natijasida TMK ning kapitallashuv darajasi orta boshladi. Jumladan, 2013-yilga kelib 100 mlrd. dollardan ortiq qiymatga ega kompaniyalar soni 68 tani tashkil etdi va ularning kapitallashuv darajasi 12 trln. dollarga teng bo'ldi (27.2.1-diagramma).

1 Kompaniyalar kapitallashish (aksiyalar sonini uning bahosiga ko'paytirish) darajasi bo'yicha amalga oshirilgan ro'yxatga aksiyalarining kamida 15 % erkin muomalada bo'lgan kompaniyalar kiritiladi.

27.2.1-diagramma

«FT 500» reytingiga kiruvchi TMK ning kapitallashuv darajasi va qiymati 100 mlrd. doll. dan ortiq qiymatga ega kompaniyalar sonining o'zgarishi



	2003-y	2004-y	2005-y	2006-y	2007-y	2008-y	2009-y	2010-y	2013-y
TMK ning kapitallashish darajasi, trln. doll.	12,6	17,1	19	22,4	26,2	26,8	15,6	8,7	12
100 mlrd. dollardan ortiq qiymatga ega kompaniyalar soni	21	27	31	40	53	62	26	51	68

Manba: www.vedomosti.ru

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi TMB faoliyatiga jiddiy ta'sir etish natijasida va ularning aksiyalari narxi 2007-yildan boshlab pasaya boshladi. TMB dan farqli neft va gaz sohasida faoliyat yurituvchi TMK ning kapitallashish darajasi WTI markali neft narxining eng yuqori darajaga chiqishi tufayli osha boshladi. Ammo «FT 500» reytingi ma'lumotlariga ko'ra investorlarning inqirozdan qo'rqib ketishlari natijasida aksiyalarni sotib yuborishlari 2009-yilning I kvartalida neft va gaz sohasidagi TMK kapitallashish darajasining 38,4 % (2,4 trln. dollar)ga pasayishiga olib keldi. Shunga qaramasdan, bu TMK reytingda transmilliy banklar (TMB) ortda qoldirib, birinchi o'rinni egallashga muvaffaq bo'lishdi.

«FT 500» reytingida neft va gaz sohasidagi TMK soni bittaga oshib, 44 tani tashkil etgan bo'lsa, TMB soni 15 taga qisqarib, 56 taga tenglashdi. Bank sektorining kapitallashish darajasi ikki baravarga qisqarib, 1,937 trln. dollarni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich 1999-yilga nisbatan 1,98 trln. dollarga, TMB soni esa 65 taga teng bo'lgan. 2009-yilda «FT 500» ro'yxatiga milliylashtirilgan Belgiya-Niderlandiya banki «Fortis» (2008-yilda 133-o'rinni egallagan), Buyuk Britaniyaning «HBOS» (2008-yilda 200-o'rin) banki («Lloyds TSB» banki tomonidan sotib olingan) va «VTB» (2008-yilda 200-o'rin) banklari kirmay qoldi.

27.2.6-jadval
«FT 500» reytingidagi o'zarishlar

Kompaniyalar	Mamlakatlar	2008-yildagi o'rni	2009-yildagi o'rni	O'zgarish
Reytingi ortgan kompaniyalar				
Schering Plough	AQSh	394	103	291
Newmont Mining	AQSh	483	208	275
Union Fenosa	Ispaniya	460	203	257
Chubu Electric Power	Yaponiya	491	285	206
Thomson Reuters	Kanada/Britaniya	428	223	205
MasterCard	AQSh	494	299	195
CITIC Securities	Xitoy	369	174	195
Shin-Etsu Chemical	Yaponiya	412	219	193
CLP Holdings	Gonkong	480	298	182
Amazon. com	AQSh	301	126	175
Reytingi pasaygan kompaniyalar				
ING	Niderlandiya	77	442	–365
Citigroup	AQSh	53	358	–305
Norilskiy nikel	Rossiya	141	430	–289
Sberbank	Rossiya	91	374	–283
Anglo Platinum	JAR	246	422	–176
Volvo	Janubiy Koreya	278	446	–168
Deutsche Post	Germaniya	228	387	–159
Barclays	Buyuk Britaniya	119	277	–158
American Express	AQSh	155	313	–158
Sun Life Financial	Kanada	344	499	–155

Manba: www.vedomosti.ru

Shuningdek, maxsus moliyaviy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan kompaniyalarning kapitallashish darajasi ham 48,3 % (335,16 mlrd. doll.)ga pasaygan. Jumladan, «Lehman Brothers» investitsiya banki bankrotga uchradi, «Bank of America» kompaniyasini «Merrill Lynch» kompaniyasi sotib oldi, «Fannie Mae» ipoteka agentligini esa AQSh hukumati qutqarib qoldi. «FT 500» reytingidagi eng katta yo'qotish «AIG» sug'urta kompaniyasining 2008-yil sentyabrda milliylashtirilishi hisoblanadi. Bu kompaniya 2007-yilda reytingda 51-o'rinni egallagan va qiymati 109,09 mlrd. dollarni tashkil etgan.

«FT 500» reytingidagi yetakchilar «ExxonMobil» va «PetroChina» kompaniyalar hisoblanishadi. Rossiyaning «Gazprom» kompaniyasi 2008-yilda 300 mlrd. dollarlik kapitallashish darajasi bilan ro'yxatda 4-o'rinni egallagan bo'lsa, 2009-yilga kelib 36-o'ringa tushib ketdi (91,5 mlrd. doll.). Rossiya kompaniyalarining soni 13 tadan 6 taga qisqargan va o'zgarishlarning deyarli barchasi xomashyo sektoriga taalluqlidir: to'rtta neft va gaz sohasi kompaniyalari, «Norilsk nikel» kompaniyasi va Sberbank. «Norilsk nikel» va «Sberbank» reytingda eng ko'p o'rin yo'qotgan (tegishlicha — 289 va — 283 punktgacha) kompaniyalar hisoblanishadi. «Novatek», «MTS», «Vimpelkom», «Severstal» va «NLMK» kompaniyalari global ro'yxatni tark etishdi.

Global ro'yxatda Xitoy kompaniyalarining soni 25 tadan 27 tagacha, jahondagi ulushi esa 7,3 %dan 7,4 %ga ortgan. «Industrial & Commercial Bank of China»

jahondagi eng yirik bank, «China Mobile» kompaniyasi esa eng yirik texnologik kompaniya bo'lib qolmoqda.

Agar 1999-yilda jahonning eng yirik 10 ta TMK ro'yxatida bironta Xitoy kompaniyasi mavjud bo'lmagani holda, 2010-yilga kelib ularning soni uchtani tashkil etgan (27.2.7-jadval).

27.2.7-jadval
Jahonning 10 ta TMK ro'yxati

1999-y.			2010-y.		
Kompaniyalar	**Mamlakatlar**	**Kapitallashish darajasi, mlrd. doll.**	**Kompaniyalar**	**Mamlakatlar**	**Kapitallashish darajasi, mlrd. doll.**
1. Microsoft	AQSh	602,4	1. Exxon Mobil	AQSh	417,2
2. General Electric	AQSh	507,2	2. PetroChina	Xitoy	326,2
3. NTT DoCo-Mo	Yaponiya	368,4	3. Apple	AQSh	321,1
4. Cisco Systems	AQSh	366,5	4. Industrial & Commercial Bank of China	Xitoy	251,1
5. Wall Mart Stores	AQSh	307,9	5. Petrobras	Braziliya	247,4
6. Exxon Mobil	AQSh	278,9	6. BHP Billiton	Avstraliya / Buyuk Britaniya	247,1
7. Intel	AQSh	275,0	7. China Construction Bank	Xitoy	232,6
8. Nippon Telegraph & Telephone	Yaponiya	272,6	8. Royal Dutch Shell	Buyuk Britaniya	228,1
9. Lucent	AQSh	235,1	9. Chevron	AQSh	215,8
10. Nokia	Finlyandiya	208,2	10. Microsoft	AQSh	213,3

Manba: Овчаренко М. Америка сдулась /Ведомости, №242 (2512), 22.12.2009.

Xitoy kompaniyalari kapitallashish darajasi bo'yicha Buyuk Britaniyani ortda qoldirdi.

«FT 500» reytingining tarmoq tarkibi tahlillari ko'rsatishicha, chakana savdo kompaniyalari 15-o'rindan 9-o'ringa, elektroenergetika xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalar 8-o'rindan 6-o'ringa ko'tarilgan, ularning jami kapitallashishdagi ulushi mos ravishda 2,2 %dan 3,6 %gacha va 3,3 %dan 4,2 %gacha ortgan. Tog'-kon sanoati va metallurgiya tarmoqlari kompaniyalari ro'yxatda o'z o'rinlarini yo'qotishgan. Jumladan, tog'-kon sanoati kompaniyalari 6-o'rindan 10-o'ringa, metallurgiya tarmog'i kompaniyalari esa 13-o'rindan 19-o'ringa tushib, ularning kapitallashish darajasi mos ravishda 943,9 mlrd. dollardan 436,9 mlrd. dollarga va 641,6 mlrd. dollardan 262,3 mlrd. dollargacha qisqargan. Birinchi o'nlikni yuqori texnologik tarmoqlar — kompyuterlar ishlab chiqaruvchi, dasturiy ta'minot ishlab chiquvchi va aloqa kompaniyalari tashkil etishdi.

TMK faoliyatida ITTKI xarajatlari alohida o'rin tutadi va korporatsiyalarning jahon yuqori texnologik mahsulotlar bozorida innovatsion yetakchilikni ushlab turish imkonini beradi. Tahlillar ko'rsatishicha, birinchi 1000 talikka kiruvchi

TMK ning ITTKI xarajatlari 2010-yilda 550 mlrd. dollarni tashkil etib, 2009-yilga nisbatan 9,3 %ga o'sdi. Jumladan, Roche Holding, Pfizer, Novartis kabi TMK tomonidan ITTKI sarflangan mablag'lar hajmi 2010-yilda 9 mlrd. dollardan yuqori bo'lgan (27.2.8-jadval).

27.2.8-jadval
ITTKI xarajatlari innovatsion reytingi yuqori TMK ro'yxati

Kompaniya	ITTKI xarajatlari, mlrd. doll.	2009–2010-yillarda o'zgarish, %	Tushumlarda ITTKt ulushi, %	Kompaniya	ITTKI xarajatlari, mlrd. doll.	Reytingdagi o'rni	Tushumlarda ITTKI ulushi, %
Roche Holding	9,7	1,5	21,1	Aplle	1,8	70	2,7
Pfizer	9,4	20,0	13,9	Google	3,8	34	12,8
Novartis	9,1	21,4	17,9	ZM	1,4	86	5,4
Microsoft	8,7	-3,3	14,0	GE	4,0	32	2,6
Merck	8,6	53,0	18,7	Microsoft	8,7	4	14,0
Toyota	8,5	0,7	3,9	IBM	6,0	15	6,0
Samsung	7,9	23,2	5,9	Samsung	7,9	7	5,9
Nokia	7,8	-0,8	13,8	P&G	2,0	61	2,5
General Motors	7,0	16,0	5,1	Toyota	8,6	6	3,9
Johnson& Johnson	6,8	-2,0	11,1	Facebook	-	-	-
Gazprom	0,8	-16,0	0,7				

Manba: Милов Г. Инновации без денег. /Ведомости, 26.11.2011. С. 12.

2010-yilda jahon iqtisodiyotining iste'mol va «boshqa» sektorlaridan tashqari barcha tarmoqlarida ITTKI xarajatlari oshgan. Jumladan, kompyuterlar va elektronika sektoriga jami ITTKI xarajatlarining 28 % to'g'ri keladi.

Demak, zamonaviy TMK ning afzalliklari texnologik, boshqaruv personalining yuqori malakasi va kapital resurslarining ulkan hajmlari bilan belgilanadi. Bu afzalliklarning mavjudligi TMK uchun xorijda o'z filiallarini ochishlarini rag'batlantiradi. Jahon iqtisodiyotining erkinlashuvi va globallashuvi ushbu jarayonni jadallashtiradi.

27.3. Transmilliy banklar faoliyatining rivojlanish yo'nalishlari

Transmilliy korporatsiyalarning xalqaro biznesdagi asosiy hamkorlari transmilliy banklar (TMB) hisoblanadi. TMB rivojlangan mamlakatlarda transmilliy korporatsiyalar bilan bir qatorda uzoq va murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tishdi.

TMB deganda jahon ssuda kapitali va moliya-kredit xizmatlari bozorida faol qatnashish imkonini beruvchi kapitalga ega yirik banklar tushuniladi. TMB transmilliy kompaniyalar singari o'z faoliyatlarida qarorlar qabul qiluvchi yagona markazga ega, ko'psonli filiallar, bo'limlar va vakolatxonalar tarmog'ini shakllantirish, rivojlantirishga harakat qilishadi.

Transmilliy banklarning rivojlanishi bir necha bosqichlarga bo'linadi.

Birinchi bosqich — XIX asrning oxiri XX asrning boshlaridan boshlab birinchi jahon urushigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqich — Birinchi jahon urushining oxiridan Ikkinchi jahon urushiga qadar davrni qamrab oladi. Jahon urushlari davrida xalqaro moliyaviy faoliyat sekinlashgan va qisqargan.

Uchinchi bosqich — Ikkinchi jahon urushidan XX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davr. Bu davrda urushdan keyingi iqtisodiyotni tiklash, mustamlakachilik tizimining barbod bo'lishi va rivojlanayotgan mamlakatlar bilan yangi iqtisodiy munosabatlarning o'rnatilishi yangi xalqaro bank tarkibining shakllanishini taqozo etgan.

To'rtinchi bosqich — XX asrning 80–90-yillarini o'z ichiga oladi. Bu bosqichda jahonda TMK jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Bu esa TMK ga moliyaviy xizmat ko'rsatish va jahon moliya bozorlarida o'sib borayotgan talabni qondirish uchun keng tarmoqli transmilliy banklarga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirdi.

Transmilliy banklarning rivojlanishidagi beshinchi bosqich XXI asrning boshidan boshlanadi. Hozirda Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Osiyo va Yevroosiyoda hududiy integratsiya jarayonlari kuchayib bormoqda. TMK va TMB faoliyati ta'sirida jahon xo'jalik aloqalarining globallashuv jarayoni chuqurlashib bormoqda. Bunday sharoitda TMK va boshqa xalqaro biznes qatnashchilarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash uchun katta hajmdagi kapital to'plashi zarur bo'ladi.

XXI asrning boshlariga kelib jahonda uchta asosiy moliyaviy hududlar (AQSh, G'arbiy Yevropa va Yaponiya) shakllandi va ularda jahonning eng yirik transmilliy banklari faoliyat olib boradi. Qayd etib o'tilgan hududlarda quyidagi moliyaviy markazlar paydo bo'ldi:

- AQSh da — Nyu-York;
- G'arbiy Yevropada — London (Buyuk Britaniya), Parij (Fransiya), Syurix (Shveysariya), Lyuksemburg, Frankfurt (Germaniya);
- Yaponiyada — Tokio.

Bundan tashqari xalqaro darajada tan olingan moliyaviy markazlar ham mavjud: Chikago (AQSh), Bazel (Shveysariya), Amsterdam (Niderlandiya), Vena (Avstriya), Gonkong (Xitoy), Tayvan, Singapur, Seul (Koreya Respublikasi), Sidney (Avstraliya), Keyptaun (JAR), San-Paulo (Braziliya), Ar-Riyod (Saudiya Arabistoni) va boshqalar.

XXI asrning boshlariga kelib jahonda yigirmaga yaqin yirik moliyaviy markazlar shakllandi hamda ularda rivojlangan mamlakatlarning mingdan ortiq filiallar va bo'limlarga ega transmilliy banklari faoliyat olib boradi. Mazkur banklar xalqaro biznesni moliyalashtirishning asosiy manbalari bo'lib xizmat qilishadi.

Davriy iqtisodiy nashrlarda jahonning yirik TMB ro'yxati e'lon qilib boriladi (jahon va Yevropaning 50, 100, 500 yoki 1000 ta banklari va h. k.). Quyida «FT 500» reytingi bo'yicha aktivlar hajmining kamayib borish tartibida 10 ta TMB ro'yxati keltirilgan (27.3.1-jadval).

XXI asr boshida yuqorida sanab o'tilgan hududiy moliyaviy markazlardan tashkil topgan jahon moliya bozori mingdan ortiq TMB faoliyatini qamrab oldi. Birinchi ellikta TMB ning kelib chiqish mamlakatlari geografiyasi tahlil qilinsa, ular orasida 2008-yilda AQSh va Buyuk Britaniya TMB i son jihatdan yetakchilik qilgani holda 2014-yilda yetakchilik Xitoyga TMB iga tegishli bo'ldi. TMB ning jami aktivlari 2014-yilda 60,7 trln. dollarni tashkil etgan bo'lib, uning tarkibida eng yuqori Xitoy TMB ga tegishli — 15,2 %. Tahlillar ko'rsatishicha, 2008–2014-yillarda birinchi elliktalik TMB ro'yxatida Belgiya, Niderlandiya, Irlandiya kabi rivojlangan mamlakatlar o'rniga BRIC mamlakatlari kirib keldi. Jumladan, 2014-yilda BRICS mamlakatlari TMBning ro'yxatdagi soni 11 tani tashkil etib, umumiy aktivlar hajmidagi ulushi 23,8 %ga teng bo'ldi (27.3.2-jadval).

27.3.1-jadval

10 ta TMB ning jami aktivlar hajmining kamayib borishi bo'yicha guruhlanishi, 2014-y.

T/r	TMB	Mamlakatlar	Aktivlar hajmi, trln. doll.	Xodimlar soni, ming kishi	Kapitallashuv darajasi, mlrd. doll.
1.	Wells Fargo	AQSh	1527,0	264,9	261,2
2.	JP Morgan Chase	AQSh	2415,7	251,2	229,9
3.	Industrial & Commercial Bank of China	Xitoy	3120,1	441,9	200,2
4.	HSBC	Buyuk Britaniya	2663,9	254,1	191,3
5.	Bank of America	AQSh	2102,3	242,0	181,1
6.	China Construction Bank	Xitoy	2531,3	368, 4	174,5
7.	Citigroup	AQSh	1880,4	251,0	144,6
8.	Agricultural Bank of China	Xitoy	2393,1	441,9	141,7
9.	Bank of China	Xitoy	2288,0	305,7	118,6
10.	Commonwealth Bank of Australia	Avstraliya	688,3	45,0	115,7

Manba: http://www.ft.com/reports/ft-500–2011

27.3.2-jadval

Jahonning eng yirik 50 ta transmilliy banklari tarkibining o'zgarishi, 2008–2014-yillar.

Mamlakatlar	2008-y.			Mamlakatlar	2014-y.		
	TMB soni	Aktivlar hajmi, mlrd. doll.	ulushi, %		TMB soni	Aktivlar hajmi, mlrd. doll.	Ulushi, %
AQSh	8	7689,8	14,3	Xitoy	8	13109,0	21,6
Buyuk Britaniya	6	10308,7	19,2	AQSh	6	8609,7	14,2
Fransiya	5	8709,6	16,2	Buyuk Britaniya	5	8592,3	14,2
Germaniya	4	5426,5	10,1	Kanada	5	3254,4	5,4
Shveysariya	4	3602,3	6,7	Avstraliya	4	2742,2	4,5
Shvetsiya	3	1285,4	2,4	Fransiya	3	6256,0	10,3
Yaponiya	3	4167,2	7,7	Yaponiya	3	5941,3	9,8
Italiya	3	2955,3	5,5	Ispaniya	3	2745,7	4,5
Belgiya	3	1572,5	2,9	Shveysariya	2	2098,4	3,5
Niderlandiya	3	3270,1	6,1	Italiya	2	1999,3	3,3
Kanada	3	1319	2,5	Shvetsiya	2	1252,5	2,1
Ispaniya	2	2277,9	4,2	Braziliya	2	776,4	1,3
Daniya	1	680,1	1,2	Germaniya	1	2203,8	3,6
Irlandiya	1	277,7	0,5	Rossiya	1	553,2	0,9
Norvegiya	1	263,6	0,5	Sigapur	1	318,1	0,5
Jami	50	53805,7	100,0	Gonkong	1	147,5	0,2
				Qatar	1	121,8	0,2
				Jami	50	60721,6	100

Manba: http://www.ft.com/reports/ft-500–2011

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi jahon bank sanoatining rivojlanishiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, 2009–2010-yillarda Buyuk Britaniya banklarining aktivlari 5,3 %ga (700 mlrd. doll.), AQSh bank aktivlari 2,8 %ga (340 mlrd. doll.) yevro zonasi mamlakatlari bank aktivlari esa 250 mlrd. dollarga qisqardi. Rivojlangan mamlakatlar bank tizimidagi keskin o'zgarishlar quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- G'arbiy Yevropa va AQSh TMBi tomonidan «yomon aktiv»larni keng miqyosda hisobdan chiqarishi (27.3.3-jadval). 2010-yilning oxirida TMB tomonidan hisobdan chiqarilgan aktivlar miqdori 1,5 trln. dollarni tashkil etib, ularning 2/3 qismi muammoli kreditlar bo'yicha ko'rilgan zararlar, 1/3 qismi esa qimmatbaho qog'ozlar va hosila moliya dastaklari bo'yicha zararlardan iborat;
- rivojlangan mamlakatlarda banklar faoliyatining sustlashuvi natijasida 2009–2010-yillarda jahonning yirik TMB ning xalqaro talablari miqdori 800 mlrd. dollarga qisqardi;
- qarz oluvchilar, jumladan, aholi to'lov qobiliyatining pasayishi natijasida rivojlangan mamlakatlar kredit bozorlari konyunkturasining yomonlashuvi. Xususan, AQSh da 2009–2010-yillarda muammoli qarzdorlik darajasi ikki baravarga oshdi va 5,5 %ni tashkil etdi;
- xalqaro va milliy qarz bozorlarining qisqarishi. Misol uchun, 2010-yilda yevro zona hududi mamlakatlarida banklarning qarz majburiyatlari miqdori 175 mlrd. dollargacha (inqirozgacha 350–400 mlrd. doll.) qisqardi.

27.3.3-jadval

Jahonning yirik zararga va hisobdan chiqarilgan qarzlarga ega banklari, mlrd. doll.

	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2007–2010-yy.
Citigroup	29,1	63,4	30,7	24,0	147,2
Bank of America	12,1	29,2	35,5	27,6	104,4
Lloyds	6,8	28,9	36,1	10,3	82,1
HSBC	19,3	30,3	26,4	-	76,0
RBS	7,0	23,5	21,3	11,5	63,3
JP Morgan Chase	4,5	10,2	29,5	18,6	62,8
UBS	-	50,6	1,8	0,1	52,5
Well Fargo	3,5	8,7	18,2	13,8	44,2
Barclays	7,0	16,5	12,7	6,9	43,1
Santander	4,8	8,3	13,2	10,8	37,1
BNP Paribas	2,4	8,0	11,4	5,1	26,9
UnitCredit	3,5	5,1	11,3	7,0	26,9
Morgan Stanley	10,3	10,1	2,4	0,2	23,0
Commerzbank	3,9	13,3	4,5	0,6	22,3
Deutsche Bank	4,0	11,2	4,9	1,2	21,3

Manba: Плисецкий Д. Е. Ключевые тенденции развития национальных и международных финансовых рынков в 2009–2011 гг. //Бизнес и банки, №16, апрель 2011. С. 1.

Transmilliy banklarning xalqaro faoliyati quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- TMB — moliyaviy resurs egalari hamda investorlar o'rtasidagi asosiy va yirik vositachilar ekanligi;
- TMB — moliyaviy resurslarning egalaridan qarz oluvchilarga qarab harakatlanish shakllarini belgilovchi va kanallarini taqsimlovchilar hisoblanishi;
- TMB — xalqaro moliya bozorlarida qaytarishlilik, muddatlilik va foizlar to'lash shartlarida erkin pul mablag'larini jalb etish hamda joylashtirish, xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi universal moliya tashkilotlari sanalishi;
- TMB — yirik hajmdagi investitsiya mablag'larining kelib chiqishi va taqdim etilishi nuqtayi nazaridan ishonchli manba ekanliklari.

Zamonaviy TMB milliy banklardan xorijda keng tarmoqli filiallariga egaligi bilan ajralib turadi. Bu esa ularga TMK va yirik investorlarning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini tezkorlik bilan qondirish imkonini beradi.

27.4. O'zbekistonda transmilliy korporatsiyalar faoliyati

Respublikamiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash, korxonalarni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollantirish, fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish yirik hajmda investitsiyalarni talab qiladi. Mazkur masalani ijobiy hal qilish maqsadida MSG ni tuzish lozim. MSG da moliya kapitali bilan sanoat kapitali birlashib, investitsiya jarayonlarining faollashishiga va milliy iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashadi.

Jahon amaliyotiga ko'ra, MSG ni tashkil etish qator afzalliklarga ega:

- investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun moliya kapitali bilan sanoat kapitali birlashadi va natijada moliya resurslarining aylanishi tezlashadi;
- milliy kompaniyalarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi oshadi;
- guruh a'zolarining o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun qulay imkoniyat yaratiladi, bu iqtisodiyotda debitorlik va kreditorlik qarzdorlikni qisqartiradi;
- yangi texnika va texnologiyalarni yaratish uchun moliya resurslarni jamlash imkoniyati tug'iladi;
- guruh a'zolarining depozitlari, hisob-varaqlari va boshqa aktivlari konsentratsiyalashuvi natijasida tijorat banklarining resurs bazasi kengayadi;
- guruh a'zolari bo'lmish moliya institutlari korxonalarning va aksincha, korxonalar moliya institutlarining boshqaruvida ishtirok etib, korporativ boshqaruvning sifati oshadi;
- guruh a'zolari bo'lmish qarzdorlar boshqaruvidga ishtirok etishi tufayli tijorat banklarining ularni kreditlashlarida risk darajasi pasayadi va hokazo.

O'tish iqtisodiyoti sharoitida MSG ning paydo bo'lish sabablari quyidagilardan iborat:

- texnologik va kooperatsion aloqalarni o'rnatish zaruriyatining mavjudligi;
- iqtisodiyotning mezodarajasida barqarorlashtiruvchi subyektni yaratish zaruriyati;
- kapitalning konsertatsiyalashuvini xalqaro tajribasidan bank tizimi va xususiylashtirish jarayonida foydalanish zaruriyati.

Rossiyada moliya-sanoat guruhlari reyestriga 35 ta moliya-sanoat guruhlari kiritilgan, jumladan, «Uralskiye zavodi» (Ijevsk), «Sokol» (Voronej), «Nijegorodskiye avtomobili» (Nijniy Novgorod), «Magnitogorskaya stal» (Magnitogorsk) va boshqalar. Mazkur guruhlar quyidagi miqdoriy ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi:

- ishchilar soni bo'yicha: 10000 kishigacha — 30 %, 10000 dan 100000 kishigacha — 59 %, 100000 kishidan yuqori — 11 %.
- konsolidatsiyalashgan kapital hajmi bo'yicha: 1,0 mln. rublgacha — 44 %, 1 mln. rubldan 10 mln. rublgacha — 42 %, 10 mln. rubldan 50 mln. rublgacha — 14 %.
- tarmoqlar soni bo'yicha: 3 tagacha — 51 %, 3 tadan 5 tagacha — 30 %, 5 tadan yuqori — 19 % [1].

O'zbekistonda sanoat va moliya kapitalining integratsiyalashuvini kengaytirish shakli sifatida bank MSG ni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bank MSG tarkibiga quyidagi korxona va tashkilotlarni jalb etish zarur:

- bank aksioneri hisoblangan korxona va tashkilotlar;
- aksiyalar paketining asosiy qismi bank ixtiyorida bo'lgan korxona va tashkilotlar;
- o'z moliyaviy holatini barqarorlashtirish uchun investitsiya qo'yilmalariga muhtoj korxona va tashkilotlar.

Tijorat banklari ishtirokida MSG ni tashkil etish va u orqali banklar bozorida raqobatni yanada rivojlantirish jahon amaliyotida tez o'sib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti jarayonida moliya-sanoat guruhlarini tashkil etish rivojlangan davlatlarda keng tarqalib borgan. Jumladan, AQSh MSG faoliyatining asosiy qismi birinchi guruh banklarning ustuvorligi asosida boshqariladi. AQSh dagi 122 ta yirik korporatsiyalarning 25,2 % hal qiluvchi ovozi banklar tomonidan beriladi, bu yerda sug'urta tashkilotlarining ulushi 4,3 %ni tashkil qiladi[2]. AQSh da korporatsiyalarning faoliyatini boshqarish, maslahatlar berish va siyosatini olib borish banklar tomonidan amalga oshiriladi. Banklar orqali tashkil etilgan mamlakatlardagi moliya-sanoat tashkilotlarining boshlang'ich bosqichida moliyaviy resurslarga talab juda yuqori bo'lgan. Bundan tashqari, sanoatda ishlab chiqarish rentabelligi yuqori bo'lmagan va ular mustaqil rivojlana olmagan. Bu esa mamlakatda sanoat tashkilotlarining moliya-kredit tizimiga talab yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Sanoat tashkilotlarining qo'shimcha kapitali yetarli bo'lmagani uchun aksiyalarini emissiya qila olmagan. Mamlakatda fond bozorining rivojlanish darajasi past bo'lishi, qo'shimcha mablag'larni jalb qilish imkonini bermagan. Rossiyada bugungi kunda MSG soni 100 dan ortiq bo'lib, ularning 90 tasi haqiqiy ro'yxatga olingan bo'lsa, qolgan qismini transmilliy korxonalar tashkil qiladi. Rossiyada MSG ning kredit qo'yilmalari 2007-yilda 2006-yilga nisbatan 2,5 %ga oshgan[3]. Ammo Rossiyada MSG ning faoliyati to'liq rivojlangan, deb aytish qiyin. Chunki, birinchidan, MSG ni birlashtirgan korxonalar aksiyasi guruh a'zolari o'rtasida taqsimlanmagan yoki ma'lum bir ulushga egalik huquqi berilmagan, ikkinchidan, tashkil etilgan guruhlar iqtisodiyotning ma'lum bir yo'nalishi bilan chegaralanib qolgan, uchinchidan, guruhlarni boshqarish chegarasi kichik bo'lib, guruh rahbari salohiyati a'zolari tarkibida sezilmay qolmoqda. Rossiyada tashkil etilayotgan MSG ni to'rt toifaga ajratish mumkin. Konseptual, qonun chiqaruvchi, umumiqtisodiy va tashkiliy tizimli. Konseptual asosda tashkil etilgan MSG davlat tomonidan nazorat qilinadi.

Ikkinchi guruh MSG ni tashkil etish va mustahkamlashga qaratilgan, umumiqtisodiy MSG ishlab chiqarish, investitsiya va moliya bilan bog'liq bo'lib, banklarning bevosita ishtirokini ta'minlaydi. Mamlakatdagi banklar salohiyatining yuqori emasligi, bu jarayonlarga ishtirok etishini chegaralab qo'ygan. Bu esa real sektorga

1 Нешитой А. С. Инвестиции: учебник. 7-е изд. — М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и Ко». 2008. С. 382.

2 Молия-саноат гуруҳларини ташкил этиш бўйича халкаро тажриба ва Ўзбекистонда корпоратив бошкарувни такомиллаштириш муаммолари. Халкаро илмий-амалий конференция материаллари. — М.: МГЭИ, 2008.145-б.

3 O'sha manba.

investitsiyalarni jalb etish imkonini bermaydi. Rossiyada qonunlarning tez-tez o'zgartirilishi MSG ning faoliyatiga keskin ta'sir qilmoqda. MSG faoliyati alohida qonun yoki mustahkam dalolatnomalar bilan muhofaza qilinmagan. MDH davlatlarida hamkorlikda MSG ni tashkil etishning eng asosiy muammosi ham ushbu davlatlarda MSG ni tashkil etishdagi huquqiy tamoyillarning turlichaligidadir.

Respublikamizda moliya-sanoat guruhlarini tashkil etish imkoniyatlarini tahlil etadigan bo'lsak, yirik sanoat korxonalari atrofida kichik guruhlarni birlashtirish hozirgi kunda qo'yilgan maqsadga erishish imkonini beradimi? Albatta, MSG ni yirik sanoat korxonasida birlashtirish uchun uning imkoniyatlari qolgan guruh a'zolariga nisbatan yuqori bo'lishni taqozo etadi. Buning uchun turli sohalarda faoliyat olib borayotgan korxonalar aksiyalariga egalik huquqini qo'lga kiritishi va shu asosda savdo uylarini tashkil etishi, o'zining bankiga ega bo'lishi zarur bo'ladi. Bu asosda tashkil etilgan MSG respublikamiz iqtisodiyotida monopollashuv jarayonini yuzaga keltirsa-da, ichki muhitda raqobatning keskin kuchayishiga olib keladi.

Chunki, ichki guruh a'zolarining bevosita o'z mahsuloti sifatini oshirishi va eksportbop mahsulotlarni boshqa davlatlarga joylashtirish imkonini kengaytirish uchun kurash olib borishiga zarurat tug'diradi. Respublikamizda yirik strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarning davlat tomonidan boshqarilishi bu jarayonning ma'lum ma'noda iqtisodiy inqiroz xavfsizligini ta'minlash imkonini beradi.

Ikkinchi usul, ya'ni yirik banklar atrofida muhim sanoat korxonalarini birlashtirish.

Respublikamizda banklar orqali MSG ni tashkil etish banklar xizmatlari bozoriga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi. Yirik banklarning o'z atrofida sanoat korxonalarini birlashtirishi banklar o'rtasida monopollashuv darajasining ortishiga olib kelishi mumkin. Ammo, shu bilan birga, u jahon banklari bilan raqobatlashuv jarayonini vujudga keltiradi. Bu esa banklar orqali iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish imkonini oshiradi. Biroq yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, banklarning sanoat korxonalarini birlashtirgan holda MSG ni tashkil etish uchun kapitallari va yirik sanoat guruhlaridagi aksiyalar ulushi yuqori emas. Bu esa banklarning yirik sanoat guruhlari oldida nazorat qilish imkonini chegaralab qo'yadi. Respublikamizda MSG bosqichma-bosqich yirik sanoat korxonalari orqali tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa banklar xizmatlari bozorida banklar o'rtasidagi raqobatning kuchayishiga va ularning kredit qo'yilmalarini iqtisodiyotning muhim yo'nalishlariga joylashtirish imkonini oshiradi.

Shu bilan birga, respublikamizda MSG ni tashkil etishda quyidagi muammolar mavjud:

- tijorat banklarining resurs bazasi chegaralangan bo'lib, bu ularning tashkil etiladigan guruh korxonalariga investitsiya qilish imkoniyatini kamaytiradi;
- tijorat banklari kapitallashuv darajasi nisbatan pastroq bo'lib, ushbu holat ularning guruh tashkil etish uchun investitsion faoliyatini chegaralaydi;
- respublikamizdagi ko'pchilik korxonalarda asosiy vositalarning eskirishi darajasi yuqori bo'lib, ularni yangilash uchun yirik hajmda investitsiyalar zarur. Bunday hajmdagi investitsiyalarni tijorat banklari birdaniga moliyalashtirish imkoniyatiga ega emas;
- mamlakatimizda yirik banklar soni kam bo'lib, ular ishtirokida MSG tashkil etilsa, bank xizmatlari bozorida raqobat pasayishi mumkin va hokazo.

O'zbekistonda MSG ning shakllanishi va amal qilishini ta'minlovchi shart-sharoitlarni tashkil etish bo'yicha takliflar quyidagilardan iborat:

1. O'zbekistonda MSG faoliyatini tashkil etish uchun MSG ni yaratish va amal qilishini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat sifatida O'zbekiston Respublikasining «Moliya-sanoat guruhlari to'g'risida»gi Qonunini qabul qilish zarur.

2. MSG ning rivojlanish konsepsiyasi ularni yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqaruvchi, to'lov qobiliyatiga ega, tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardosh tarmoqlarda yaratishni ko'zda tutishi lozim.
3. MSG qatnashchilarining tarkibi, tashkiliy-huquqiy shakli korxonalarning moliyaviy va ilmiy-tadqiqot salohiyati, takror ishlab chiqarish bosqichlarini to'liq qamrab olishini e'tiborga olgan holda turli-tuman bo'lishi zarur.
4. MSG aksioner jamiyatlar shaklida ta'sis etilishi lozim.
5. MSG tarkibiga kiruvchi tijorat banklarining to'laqonli faoliyat yuritishlari uchun ularga MSG qatnashchilarining aksiyalarini sotib olish huquqi berilishi zarur.
6. MSG ni monopoliyaga qarshi cheklovlarni e'tiborga olgan holda tashkil etilishi kerak.

Asosiy tushunchalar

Xalqaro korporatsiyalar — jahon tovar va ishlab chiqarish omillari bozorlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatuvchi yirik kompaniyalar.

Transmilliy korporatsiyalar (TMK) — bosh kompaniya bir mamlakat kapitaliga tegishli bo'lib, filiallari esa dunyo bo'ylab tarqalib ketgan kompaniyalar.

Ko'pmillatli korporatsiyalar (KMK) — bosh kompaniya ikki va undan ortiq mamlakat kapitaliga tegishli bo'lib, xorijiy bo'limlari turli mamlakatlarda joylashgan korporatsiyalar.

Strategik alyanslar — jahon bozoridagi global iqtisodiy masalalarni birgalikda hal etish maqsadida tuziladigan firmalararo ittifoq bo'lib, ushbu ittifoq mazkur firmalarning boshqa sohalarda raqobatlashuviga to'sqinlik qilmaydi.

Strategik oilalar — o'zaro raqobatda bo'lgan korporatsiyalarning xalqaro bozorlarda bir-birini to'ldiruvchi strategiyani amalga oshirish maqsadidagi birlashuvi.

Strategik tizimlar — turli tarmoqlardagi (ishlab chiqarish korxonalari, savdo firmalari, banklar) korxonalarning uzoq muddatli hamkorligiga asoslangan birlashma bo'lib, maqsadi axborotlar, personal va texnologiyalar almashishdan iborat.

Transmilliylashuv indeksi (TMI) — TMK ning xorijdagi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga jalb etilganlik darajasi.

Transmilliy banklar (TMB) — jahon ssuda kapitali va moliya-kredit xizmatlari bozorida faol qatnashish imkonini beruvchi kapitalga ega yirik banklar.

Moliya-sanoat guruhlari (MSG) — o'zaro tashkiliy-xo'jalik aloqalari asosida tashkil etilgan korporativ birlashmalar.

Nazorat savollari

1. TMK tushunchasiga tarif bering.
2. TMK o'rtasidagi o'zaro hamkorlik munosabatlari qanday shakllarda namoyon bo'ladi?
3. Xalqaro birlashish va qo'shib olishlar deganda nimani tushunasiz?
4. Transmilliylashuv indeksi nima va u qanday hisoblanadi?
5. TMK faoliyati rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga qanday ta'sir o'tkazadi?
6. TMB nima va ular qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
7. TMK faoliyatiga baho beruvchi qanday xalqaro reytinglarni bilasiz?
8. MSG ning shakllanishi qanday bosqichlardan iborat?
9. O'zbekistonda MSG ni tashkil etish zaruriyati va xususiyatlari nimalardan iborat?

28-BOB. XALQARO ISHCHI KUCHI MIGRATSIYASI

28.1. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining nazariy asoslari

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimining muhim elementi hisoblangan ishchi kuchi migratsiyasi uzoq yillar davomida iqtisodiy tadqiqotlar obyekti bo'lib kelmoqda. Migratsiya so'zi lotincha «migratio» so'zidan olingan bo'lib, «ko'chib yurish» ma'nosini bildiradi. Umuman olganda aholi migratsiyasini ichki va tashqi migratsiyaga, tashqi migratsiyani esa migratsiya maqsadidan kelib chiqqan holda turlarga bo'lish mumkin. Ularning orasida iqtisodiy migratsiya yetakchi o'rinni egallaydi.

Aholi migratsiyasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning ilk vakillaridan biri ingliz olimi Ye. Ravensteyn hisoblanadi. 1885 va 1899-yillarda Londonda nashr etilgan ilmiy asarlarida «migratsiya qonunlari»ni ishlab chiqqan va migratsiyaning yo'nalishlari hamda davomiyligi o'rtasidagi oltita asosiy bog'liqlik mavjudligini aniqlagan:

- ikki geografik punkt o'rtasidagi migratsiya oqimining davomiyligi mazkur punktlar orasidagi masofaga teskari proporsional;
- uzoq masofaga ketayotgan migrantlar savdo va sanoat jihatdan taraqqiy etgan yirik shaharlarga intilishadi:
- migratsiya bosqichli jarayon hisoblanib, u avval geografik jihatdan yaqin shaharlar tomon, keyin esa jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan shaharlar tomon yuz beradi:
- har qanday migratsion oqim teskari oqimni yuzaga keltiradi;
- texnologik taraqqiyot va kommunikatsiyaning rivojlanishi aholi migratsiyasini kuchaytiradi;
- migratsiya rivojlanishining asosiy omili iqtisodiy omil hisoblanadi.

Xalqaro migratsiya muammosini 1960-yillarning oxiridan boshlab iqtisodiy o'sishning modeli sifatida nazariy jihatdan o'rganish faollashdi. Uning asosiy g'oyasi ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi ishlab chiqarishning bir omili bo'lib, iqtisodiy o'sishga ta'sir qilishi va uni keltirib chiqaruvchi sababi sifatida davlatlararo ish haqi miqdoridagi farqning mavjudligi ko'rsatildi. Neoklassiklar har bir odam o'z mehnatining cheklangan mahsulini olib, iste'mol qilishini, immigrantni qabul qiluvchi mamlakatning esa farovonligi oshishiga olib kelishi va emigratsiya qilayotgan mamlakatning esa iqtisodiy rivojlanishi avvalgidek qolishi yoki har holda yomonlashmasligini aytishadi. Neokeynschilar esa ishchi kuchini eksport qilish natijasida, ayniqsa «aqlning oqib o'tishi» mamlakat iqtisodiy holatining yomonlashuviga olib kelishi mumkinligini ta'kidlashadi.

Bundan tashqari, ishchi kuchining xalqaro migratsiyasini ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakatlanishi shakli sifatida ko'rib chiqish mumkin. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi iqtisodiy va noiqtisodiy sabablarga ko'ra yuz beradi.

Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasining iqtisodiy sabablarini tadqiq etish uchun xalqaro kapitallar migratsiyasini tahlil etishda qo'llaniladigan usullardan foydalanish mumkin. Faraz qilaylik, ishchi kuchi xalqaro migratsiyasining asosiy sababi rivojlangan mamlakatlarda o'rtacha ish haqi miqdori o'rtasidagi farq hisoblanadi. Masalan, faqat ikki mamlakat mavjud. Birinchi mamlakat LA hajmda mehnat resurslariga ega, ikkinchi mamlakat esa AL^1 hajmdagi mehnat resurslariga ega (28.1.1-rasm).

28.1.1-rasm.
Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining iqtisodiy sabablari



Ikkala mamlakatning mehnat resurslari hajmi birgalikda LL^1 ni tashkil etadi. S_1 va S_2 to'g'ri chiziqlar ishchi kuchidan foydalanib yaratilgan mahsulot hajmi qiymatining o'sishini ifoda etadi. Agar ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi mavjud bo'lmasa, unda birinchi mamlakat o'zidagi mavjud mehnat resurslaridan foydalangan holda LC hajmdagi o'rtacha ish haqini ta'minlab beradi. Shu tariqa ikkinchi mamlakat ham L^1D hajmdagi o'rtacha ish haqini ta'minlab beradi.

Birinchi mamlakat mehnat resurslari yaratgan mahsulot hajmi $a+b+c+d+e+f$ ni, ikkinchi mamlakatda yaratilgan mahsulot hajmi esa $i+j+k$ ni tashkil etadi. $LC < L^1D$ tengsizlik esa birinchi mamlakatda ishchi kuchi qiymatining ikkinchi mamlakatga qaraganda pastroq ekanligini ko'rsatadi.

Agar ikkala mamlakat ham ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi yo'lidagi to'siqlarni olib tashlasa, birinchi mamlakat mehnat resurslarining AB qismi ikkinchi mamlakatga ko'chib o'tadi. Natijada ikkala mamlakatda ham ish haqi BR darajada balanslashadi.

Bir tomondan birinchi mamlakatda qolgan va ikkinchi mamlakatga ko'chib o'tgan mehnat resurslari yaratgan mahsulot hajmi $a+b+c+d+e+f+h$ ni, shundan $a+b+c+d$ qismi ushbu mamlakat mehnat resurslari tomonidan, $e+f+h$ qismi esa ikkinchi mamlakatga ko'chib kelgan chet ellik migrantlar tomonidan yaratiladi. Bunda ikkinchi mamlakatga ko'chib kelgan ishchilardan foydalanib yaratilgan mahsulot avvalgi hajmidan h segmentga ko'proq bo'ladi. Ishchilarning daromadi $a+b+d+e+f+h$ ni tashkil etib, ishlab chiqarishning qolgan omillarining daromadliligi s segmentga kamayadi.

Ikkinchi tomondan esa, birinchi mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ishchi kuchining oqib o'tishi ikki mamlakatda ish haqining LD dan LF gacha

kamayishiga olib keladi. Ammo ham o'zidagi ishchi kuchidan ham xorijdan kelgan ishchi kuchidan foydalanish evaziga ikki mamlakatning ichki mahsulotining hajmi $i+j+k$ dan $i+j+k+g+h+e+f$ gacha ortishiga sabab bo'ladi. To'g'ri $h+e+f$ segmentlar xorijiy ishchilar tomonidan yaratilgan mahsulot hisoblanadi va uning katta qismi daromad solig'ini ayirib tashlangandan keyin birinchi mamlakat ishchilariga ish haqi ko'rinishida berilishi lozim. Natijada ichki ishlab chiqarish hajmining sof o'sishi faqat s segmentdan iborat. Ikki mamlakatda o'rtacha ish haqining pasayishi natijasida bu mamlakat ishchilarining daromadi $i+k$ dan k gacha qisqaradi. Ishlab chiqarishning boshqa omillarining daromadliligi esa i dan $i+g+j$ gacha ortadi.

Jahon miqyosi nuqtayi nazaridan ishchi kuchining bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishi natijasida ishlab chiqarishning umumiy hajmi $(a+b+c+d+e+f) + (k+i+j)$ dan $(a+b+c+d+) + (e+f+g+h+i+j+k)$ ga qadar ortadi.

Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi natijasida xorijga alohida xususiyatga ega bo'lgan tovar — ishchi kuchi ko'chib o'tadi. Uning boshqa tovarlardan asosiy farqi shundaki, u boshqa tovarlarni ishlab chiqarishda asosiy omil sifatida qatnashadi.

Shunday qilib, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi deganda mehnatga layoqatli aholining bir davlatdan ikkinchi davlatga iqtisodiy va boshqa sabablarga ko'ra bir yildan ortiq muddatga ko'chib o'tishi tushuniladi. Ishchi kuchi migratsiyasi tufayli turli mamlakatlardagi ish haqi darajasi o'rtasidagi farqlar qisqaradi. Ishchi kuchi migratsiyasi natijasida jahon ishlab chiqarish hajmi mehnat resurslarini mintaqalar bo'yicha qayta taqsimlash va ulardan samarali foydalanish evaziga ko'payadi.

28.2. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining mohiyati, omillari, sabablari va turlari

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi quyidagi sabablarga ko'ra sodir bo'ladi:

- mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasining turlichaligi;
- ish haqi miqdori o'rtasida milliy farqlarning mavjudligi;
- ishsizlikning mavjudligi;
- kapitalning xalqaro harakati va transmilliy korporatsiyalar faoliyati.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi bilan bog'liq asosiy tushunchalar:

Immigratsiya — mehnatga layoqatli aholining mamlakat hududiga boshqa mamlakatlardan ko'chib kelishi.

Emigratsiya — mehnatga layoqatli aholining mamlakat hududidan boshqa mamlakatlarga ko'chib ketishi.

Migratsion qoldiq — immigratsiya va emigratsiya miqdori o'rtasidagi farq.

«Aqlning oqib o'tishi» — yuqori malakali mutaxassislarning mamlakatlararo migratsiyasi.

Reemigratsiya — emigrantlarning vatanlariga doimiy yashash uchun qaytib kelishlari.

Jahon mehnat bozoridagi vaziyat boshqa barcha bozorlar kabi talab va taklif asosida aniqlanadi hamda qator omillar bilan belgilanadi. Bu omillar shartli ravishda iqtisodiy, demografik, siyosiy omillarga bo'linib, ular o'zaro bog'langan. Bular orasida iqtisodiy omillar eng muhim sanaladi. Chunki, qolgan barcha omillar pirovardida iqtisodiy muammolarga aylanadi yoki iqtisodiy oqibatlarga olib keladi.

Iqtisodiy omillar deganda har bir davlat iqtisodiy tizimining mustahkamligi, uning o'sish darajasi va rivojlanish ko'lami tushuniladi. Dunyoning turli mintaqalarida iqtisodiy imkoniyatlar, mehnat sharoitlari va ish haqi miqdori o'rtasida yuzaga kelgan sezilarli farq ishchi kuchining mamlakatlararo ko'chib yurishiga sabab bo'luvchi muhim omil hisoblanadi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining jadal sur'atlarda rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillardan biri demografik omildir. Jumladan, hozirgi vaqtda G'arbiy Yevropada aholining qarib borishi muammosi mavjud. Ushbu hududda 2004-yilda aholining har oltinchisi 65 yoshda bo'lgan bo'lsa, 2020-yilda har beshinchisi, 2050-yilda esa har to'rtinchisi, balki har uchinchisi shu yoshda bo'ladi va ularning jami aholi sonidagi ulushi esa 50 %dan ortib ketadi. Shuningdek, Yel aholisining 30–45 % 55–64 yoshda mehnat bozoridan chiqib ketmoqda, 65–69 yoshli aholining ichida esa 10 % igina ishlamoqda, bu esa iqtisodiy faol aholining qisqarib borishiga aylanmoqda[1].

Natijada 65 yoshdagi aholi bilan mehnatga layoqatli aholining o'zaro nisbati 1995-yil 1/3 dan 2050-yilda 1/2 ga ko'tarilib ketadi. Bu siljish ishchi kuchining mehnat resurslariga nisbatan kamomadi sezilishini keskin kuchaytiradi.

BMT prognoziga binoan, 2000–2050-yillarda rivojlangan mamlakatlarda aholining sonini, jumladan, uning iqtisodiy faol qismini saqlab turish uchun jiddiy kompensatorlik nettoimmigratsiya kerak bo'ladi. 2050-yilda 2000-yildagi aholi sonini saqlab qolish uchun har yili 949 ming chet elliklar qabul qilish kerak, iqtisodiy faol aholini saqlab qolish uchun esa 1,4 mln. iqtisodiy faol va nofaol aholining o'rtasidagi tafovutning oldini olish uchun 12,7 mln. kishi talab etiladi. Oxirgi holatda 50-yil ichida migrantlarning oqimi 700 mln. kishini tashkil etsa, ularning mahalliy aholi tarkibidagi salmog'i 3/4 qismini tashkil etadi. FRG uchun misol tariqasida, bu ko'rsatkich yiliga 1 mln. aholiga 44,8 ming kishini, AQSh uchun esa 43,2 ming, Yaponiya uchun 82,6 ming kishini tashkil etgan bo'lardi (28.2.1-jadval).

28.2.1-jadval

2000–2050-yillarda kompensatorlik immigratsiyaning prognozi, yiliga har 1 mln. aholiga ming kishi

	Oldingi yillar immigratsiya trendining ekstrapolyatsiyasi	Mehnatga layoqatli aholi (15–64 yosh) sonini saqlab turish uchun zarur bo'ladigan immigratsiya	65 yoshdan katta va 15–64 yoshdagi aholi sonining o'zaro nisbatini saqlab turish uchun zarur bo'ladigan immigratsiya
Germaniya	2,5	6,0	44,8
Fransiya	0,1	1,8	30,4
Italiya	0,1	6,5	39,8
AQSh	2,7	1,3	43,2
Yaponiya	0	5,1	82,6
Rossiya	0,3	2,1	20,3

Manba: Кокшаров А. Европа на игле миграции. //«Эксперт», №37 (343), 7.10.2002. С. 30.

Aholining turli sabablarga ko'ra bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib yurishi dunyo mamlakatlarini ishchi kuchini eksport qiluvchi yoki import qiluvchi mamlakatlarga ajratish imkonini beradi (28.2.2-jadval).

1 Кокшаров А. Европа на игле миграции. //«Эксперт», №37 (343), 7.10.2002. С. 21.

28.2.2-jadval
Ishchi kuchini eksport va import qiluvchi mamlakatlarga qo'yiladigan talablar

Mamlakat ishchi kuchini import qiluvchi mamlakat deb ataladi, agar:	Mamlakat ishchi kuchi donori hisoblanadi agar:
1) mamlakat aholisida chet ellik shaxslar soni 2 %dan kam bo'lmagan va kamida 200000 kishini tashkil etsa;	1) aholining 2 %dan ko'prog'i chet elda bo'lsa yoki ularning soni kamida 200000 odamni tashkil etsa;
2) mamlakatning iqtisodiy faol aholisida chet ellik shaxslar 1 %dan kam bo'lmasa;	2) iqtisodiy faol aholining kamida 1 % (yoki 100 minga yaqini) chet elda bo'lsa
3) mamlakatdan chiqib ketuvchi pul o'tkazmalari YaMMning 2 %dan ortsa (agar migrantlar statistikasi chet elliklar o'rtasida o'tkazilsa) yoki YaMM ning 1 %ni tashkil etsa (agar statistika mamlakat fuqarolari va mamlakat ichida fuqaroligi bo'lmagan vaqtinchalik migrantlar o'rtasida o'tkazilsa)	3) chet elda ishlayotgan migrantlarning pul o'tkazmalari YaMM ning 1 %dan ko'proq bo'lsa

Manba: Иванюк И. В. Международная трудовая миграция: Учебное пособие. — М.: ТЕИС, 2005. С. 92.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining sabablari, yo'nalishlari, qonunga muvofiqligi va tashkil etish shakllariga qarab quyidagi turlarga bo'linadi (28.2.1-rasm):

28.2.1-rasm.
Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining shakllari



1) ma'lum hudud va hududlararo mehnatga layoqatli aholining harakati:
a) ichki migratsiya — bir mamlakat/ hudud /rayon miqyosida ishchi kuchining harakatlanishi. U milliy qonunlar, Mehnat kodeksi orqali boshqariladi va tartibga solinadi. Tashqi mehnat migratsiyasi esa milliy qonunchilik me'yorlari, BMT standartlari, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)ning ko'rsatma va tavsiyanomalariga muvofiq keluvchi davlatlararo kelishuvlar asosida boshqariladi.
b) tashqi migratsiya — bir mamlakat/hudud/rayon hududidan ikkinchi bir mamlakat/hudud/rayonga ishchi kuchining ko'chishi. U xalqaro iqtisodiy aloqalarda muhim o'rin tutib, avvalo, ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlarda ishsizlik sonini qisqartiradi, xorijiy valyutaning kelib tushishini ta'minlaydi. Bu esa mazkur mamlakat milliy daromadining o'sishiga ta'sir etadi. Hozirgi xalqaro iqtisodiy aloqalarda ayrim ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlar uchun bu soha valyuta tushumlarining asosiy manbalaridan biri bo'lib qoldi;
2) migratsiyaning vaqti — migrantning borib va qaytib kelishi orasidagi muddatga ko'ra:
- qaytib keladigan (vaqtinchalik);
- qaytib kelmaydigan (doimiy);
- mavsumiy (ma'lum mavsumdagina);
- mayatnikli (ertalab mamlakatdan chiqib ketadi, ish vaqti tugagach, yana vataniga qaytadi).

3) migratsiyaning shartli sabablariga ko'ra:
- ixtiyoriy;
- majburiy.

4) migratsiyaning tashkil etilishiga ko'ra:
- migrant tomonidan mustaqil tashkil etilgan;
- maxsus tashkil etilgan.

5) mamlakat qonunchiligiga muvofiq:
- rasmiy;
- norasmiy.

Shunday qilib, halqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida globalizatsiya harakatlantiruvchi kuchlari va uning natijalari tarkibida chegaradan o'tuvchi millionlab aholining harakatlanishi muhim o'rinni egallaydi. Yaxshi ish va yuqori ish haqini qidirish yo'lida siyosiy yoki boshqa sabablar tufayli odamlar o'z vatanini vaqtincha yoki umuman tashlab emigratsiya qilishadi. Bunda mamlakatning ko'proq aholisi chet elga vaqtincha pul ishlab topishga ketadi. Ko'p sonli chet el personali elchixonalar, turli xil xorijiy vakolatxonalar va firmalarda ishlashadi. Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi so'nggi o'n yilliklarda kuchaya borib, o'z yo'nalishlarini o'zgartirib, turli shakl va ko'rinishlarda dunyo bo'ylab keng yoyilmoqda hamda jahon xo'jaligi taraqqiyotiga, jahon mehnat bozoriga faol jalb etilgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, siyosiy va madaniy-diniy vaziyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlar uchun bu holatning ijobiy tomonlari bilan birga muammolari ham mavjud:

1. Ishchi kuchini eksport qilish natijasida qo'shimcha valyuta daromadlari paydo bo'ladi. Turkiya, Yugosloviya, Misr, Pokiston kabi mamlakatlarda ishchi kuchi migratsiyasidan milliardlab dollar kelib tushmoqdaki, bu — mamlakatlar oldida turgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish imkonini beradi. Ayni vaqtda bu usulda xorijiy valyuta topib, iqtisodiy rivojlanishni takomillashtirish zararli bo'lib qolishi mumkin, chunki mamlakat iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar hal qilinmay qolishi mumkin.

2. Iqtisodiy konyunktura yaxshi bo'lmaganda va ishsizlar soni o'sganda ishchi kuchi migratsiyasi bandlik muammosini ma'lum darajada hal qilib beradi. Biroq hozirda emigratsiya, odatda, mamlakat mehnat resurslarining faqat 1–2 %ni qamrab olmoqda. Bu past ko'rsatkich bo'lib, ishsizlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsata olmaydi.
3. XMT tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlar emigrantlar faoliyatining yangi turlariga jiddiy tayyorgarlik ko'radilar va yangi tarmoqlarni rivojlantirishga faol kirishadilar. Aksariyat mamlakatlarning migrantlari o'z vatanlariga qaytib kelgandan keyin ishlab chiqarishning yangi usullarini joriy etganlar. Biroq ko'pchilik migrantlar o'z vatanlariga qaytmasdan, borgan joylarida qolib ketadilar. Ba'zi hollarda malakali migrantlar o'z mamlakatlariga qaytganlaridan keyin mahalliy ishchilarga qaraganda pastroq unvonga ega bo'ladilar va xorijda orttirgan tajriba, yutuqlarini amaliyotga qo'llay olmaydilar. Ishchi kuchini jo'natayotgan va qabul qilayotgan mamlakatlar o'rtasida texnologiya, sanoat tarkibi va ish joylarini tashkil etish o'rtasida farqlarning mavjudligi o'z vatanlariga qaytayotgan migrantlar uchun qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.
4. IHTT mutaxassislari fikricha, immigrantlar aholining qarishi jarayonini yumshatishga yordam beradi. Fransiya, Germaniya, Shvetsiya kabi mamlakatlarga ko'chib kelgan xorijiy oilalarda tug'ilayotganlar ulushi mamlakatda tug'ilayotganlarning 10 %ni, Shveysariyada 24 %ni, Lyuksemburgda esa 38 %ni tashkil etadi. Natijada aholi qarishining umumiy sur'atlari sekinlashsa-da, bu statistika mahalliy aholining tug'ilishi va o'lishi nisbatiga umuman ta'sir etmaydi.
5. Emigratsiya natijasida ishchi kuchining taqchilligi kelib chiqsa ham, bu ijobiy texnologik o'zgarishlarni, ishchi kuchidan samarali foydalanishni keltirib chiqarishi mumkin.
6. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining milliy iqtisodiyot taraqqiyotidagi muhim omillaridan biri — bu migrantlarning pulli jo'natmalaridir.
7. Bundan tashqari, emigrantlarning o'z vatanlariga to'plangan tajriba va malakalarini oshirib qaytishlari natijasida, mamlakat bepul qo'shimcha malakali mutaxassislarga ega bo'ladi.

Migratsiya ishchi kuchining eksporti va import qiluvchi mamlakatlarga ta'sir etuvchi ijobiy va salbiy oqibatlarini qisqacha qilib quyidagi jadvalda aks ettirish mumkin:

Qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyoti uchun ishchi kuchi migratsiyasi quyidagi ijobiy holatlarga olib kelishi mumkin:

- iqtisodiyotda yuqori mobillikka ega bo'lgan xorijlik ishchilar oqimi tufayli tarkibiy, hududiy va boshqa o'zgarishlar sodir bo'ladi;
- immigrantlar millatning yosharishiga ko'maklashadi, chunki emigratsiya qilgan aholi, odatda, mehnatga layoqatli yoshdagilardan iborat bo'ladi;
- jalb qilinuvchi ishchi va mutaxassislarni o'qitish, o'rgatish, malakasini oshirishga ketadigan xarajatlar qisqaradi;
- immigrantlar ichki bozor sig'imini kengaytiradi, ular hisobidan to'plangan pul esa iqtisodiyotni rivojlantirishga sarflanadi;
- migrantlarning banklar hisobida saqlanayotgan vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari jalb qiluvchi mamlakat iqtisodiyotini moliyalashtirishga ishlatilishi mumkin;
- immigrantlar demografik vaziyatni yaxshilaydi, jumladan, bu holat tub aholisi qarib borayotgan G'arbiy Yevropaning sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlariga xosdir;

- chet el ishchilari inqiroz va ishsizlik vaqtida ma'lum bir amortizator o'rnini egallaydi, chunki ular birinchi navbatda ishdan bo'shatiladi, pensiya, tibbiy sug'urta bilan ta'minlanmagan ijtimoiy dasturlarning amalga oshirilishida hisobga olinmaydilar.

Shu bilan birga ishchi kuchini qabul qilishning salbiy tomonlari ham mavjud. Ko'pincha, immigrantlarning iqtisodiy samarasi salbiy qilib ta'riflanadi, chunki ular ishchi kuchi o'rnini qisqartirib, mahalliy aholi tarkibida ishsizlik darajasini oshiradi. Ularga jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy beqarorlik (mahalliy ishchi da'vogarlik qilayotgan ish joyining xorijlik ishchi tomonidan egallanishi), millatlararo kelishmovchilik va boshqalarni kiritish mumkin.

Ishchi kuchini import qiluvchi mamlakatlar duch kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar quyidagilardan iborat:

- immigrantlarni ijtimoiy himoyalash bilan bog'liq qo'shimcha muammolar;
- milliy valyutaning xorijga pul o'tkazmasi sifatida chiqib ketishi;
- o'rgatilgan mutaxassis-immigrantlarning o'z vataniga qaytishi tufayli yo'qotilishlar.

28.2.3-jadval

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari

	Ijobiy	Salbiy
Ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakat	1. Ishchilar tomonidan yangi malakaviy ko'nikmalarning egallanishi	1. Malakali ishchi kuchini yo'qotish
	2. To'lov balansi kamomadining qisqarishi	2. Tovarlar bilan bir qatorda ishchi kuchi bo'yicha xalqaro talabga bog'liqlikning kuchayishi
	3. Ichki mehnat bozoridagi talab va taklifning muvozanatga kelishi	3. Iste'mol uchun mo'ljallangan ishlab chiqarish resurslarini o'zlashtirish uchun sarflanayotgan kapitalning boshqa sohalarga yo'naltirilishi
	4. Ishlab chiqarishni tarkiban va texnologik jihatdan qayta qurish	4. Inflyatsiya darajasining oshishi
Ishchi kuchini import qiluvchi mamlakat	1. Hududiy tarkibiy siljishlarning jadal tezlashuvi	1. Mehnatni tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishning sekinlashuvi
	2. Mahalliy ishchi-xodimlarning vertikal harakatchanligiga ko'maklashish	2. Ichki mehnat bozoridagi holatning murakkablashishi
	3. Ishchi kuchi sonining qisqarishi bilan bog'liq holda umumiy ishchi kuchi qiymatining pasayishi	3. Xorijiy ishsizlar va ularning oilalariga sarflanadigan xarajatlarning oshishi
	4. Xorijiy ishchilarning jamg'arishga bo'lgan moyilligi tufayli narxlar o'sishining to'xtatilishi	
	5. Yosh, malakali ishchilarni tanlab olish orqali ishchi kuchi sifatining oshirilishi.	

28.3. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining tarkibi va dinamikasi

Ishchi kuchining ommaviy ravishda ko'chib yurishi va xalqaro mehnat bozori jahon takror ishlab chiqarish jarayoniga jiddiy ta'sir o'tkazadi. Bu jarayon ishchi kuchini miqdoriy va sifat jihatdan tavsiflash imkonini beradi. Hozirgi vaqtda odamlar bir mamlakatda tug'ilishlari, maktabgacha bo'lgan tarbiyani boshqa malakatda olishlari, uchinchi mamlakatda o'qishlari, to'rtinchi mamlakatda esa ishlashlari mumkin.

Tahlillarning ko'rsatishicha, 2013-yilda jahonda 231,5 mln. kishi o'z tug'ilgan mamlakatlaridan tashqarida yashamoqdalar va ushbu ko'rsatkich dunyo aholisining 3,2 % ini tashkil etadi (28.3.1-jadval).

28.3.1-jadval
Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining global oqimi, 2013-yil

	Mln. kishi	Jami aholiga nisbatan, foizda	O'zgarishi, foizda	
	2013-y.		1990–2000-yy.	2000–2013-yy.
Dunyo bo'yicha	231,5	3,2	1,2	2,2
Rivojlangan mamlakatlar	135,6	10,8	2,3	2,1
Rivojlanayotgan mamlakatlar	95,9	1,6	-0,1	2,3

Manba: «Migration and Remittance Flows: Recent Trends and Outlook, 2013–2016. Migration and Development Brief. October 2, 2013» ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Xalqaro migrantlarning 16,3 millioni qochoqlardan iborat bo'lib, qolgan 93 % esa iqtisodiy sabablarga ko'ra boshqa mamlakatlarda yashashmoqda. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra yaqin kelajakda iqtisodiy migrantlar soni ortib borishi kutilmoqda. Jumladan, ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlarda 15 yoshdan 39 yoshgacha bo'lganlar sonining 570 million kishiga ko'payishi, ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatlarda esa aksincha, ularning soni 216 million kishigacha qisqarishi bashorat qilinmoqda[1].

Hozirgi paytda migratsiya oqimining geografik yo'nalishlari bo'yicha quyidagi markazlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

AQSh, Kanada va Avstraliya. Ushbu mehnat bozorining o'ziga xos xususiyati shundaki, avvalo, ilmiy-texnik xodimlar, yuqori malakali mutaxassislar ishga qabul qilinadi. Yevropa va dunyoning boshqa mamlakatlaridan turli sohalar bo'yicha yuqori kasbiy malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni yollashi bilan boshqa mehnat bozorlaridan ajralib turadi. Shuning uchun ham AQSh da Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan olimlarning 33 %ni immigrant mutaxassislar tashkil etadi.

AQSh xorijdan bir vaqtning o'zida yuqori malakali va malakasiz ishchi kuchini jalb qiladi. Har yili bu mamlakatga boshqa mamlakatlarni qo'shib hisoblagandagidan ham ko'proq miqdorda ishchi kuchi oqib keladi. Xususan, 2013-yilda AQSh da 46,0 mln. immigrant istiqomat qilgan va bu ko'rsatkich jahondagi jami immigrantlarning 19,8 %ni tashkil etadi. Boshqa mamlakatlarda immigrantlar soni AQSh ga nisbatan kamida 3,5 martaga kam (28.3.1-diagramma).

1 Migration and Remittances Factbook 2011. Second edition. The World Bank — Washington, 2010. P. 12.

28.3.1-diagramma
Jahondagi ayrim mamlakatlarda immigrantlar soni (2013-yil, mln. kishi)



Manba: «Migration and Development Brief 13. November 8, 2010.; Migration and Remittance Flows: Recent Trends and Outlook, 2013–2016. Migration and Development Brief. October 2, 2013» ma'lumotlari asosida tuzilgan.

AQSh ga norasmiy kelayotgan past malakali ishchilarning aksariyat qismi yaqin Lotin Amerikasi mamlakatlari — Meksika, Karib havzasi mamlakatlaridan kirib keladi. AQSh ga yuqori malakali ishchi kuchi esa dunyoning deyarli barcha mamlakatlaridan keladi (G'arbiy Yevropa, Lotin Amerikasi, Rossiya, Hindiston va h. k.). Jumladan, 2013-yilda Meksikadan AQSh ga 13,0 mln. kishi ish qidirib kelgan. Bu ko'rsatkich boshqa mamlakatlar o'rtasidagi migratsiya oqimidan uch baravar yuqoridir (28.3.2-jadval).

28.3.2-jadval
Jahon mamlakatlarida migratsiyaning asosiy yo'nalishlari (mln. kishi)

Janubga	2013-y.	Shimolga	2013-y.
Bangladesh-Hindiston	3,2	Meksika-AQSh	13,0
Hindiston-BAA	2,9	Rossiya-Ukraina	3,5
Rossiya-Qozog'iston	2,4	Ukraina-Rossiya	2,9
Afg'oniston-Pokiston	2,3	Qozog'iston-Rossiya	2,5
Afg'oniston-Eron	2,3	Xitoy-AQSh	2,2
Xitoy-Gonkong	2,3	Hindiston-AQSh	2,1
Falastin-Iordaniya	2,1	Filippin-AQSh	2,0

Manba: http://www.un.org/en/ga/68/meetings/migration/pdf

Xalqaro ishchi kuchini jalb etuvchi ikkinchi yirik markaz **G'arbiy Yevropa hisoblanadi.**

G'arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlari, jumladan, YeI ga a'zo mamlakatlar Janubiy Yevropaning nisbatan kam taraqqiy etgan mamlakatlaridan (Portugaliya, Malta, Ispaniya), Shimoliy Afrikaning arab mamlakatlari va Yaqin Sharq mamlakatlaridan, Sharqiy Yevropa va sobiq SSSR respublikalaridan ishchi kuchini jalb etadi. Afrika mamlakatlari — G'arbiy Yevropaning sobiq mustamlakalaridan kelayotgan ishchilar salmog'i ishchi kuchini jalb etuvchi mamlakatlar bilan til, tarixiy shakllangan an'analar va boshqa aloqalarning umumiyligi sababli yuqoridir. G'arbiy Yevropa mamlakatlariga o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab yiliga jahonning turli mintaqalaridan 6 milliondan 12 milliongacha xorijiy ishchi jalb etilgan.

Natijada xorijiy ishchilarning iqtisodiyotda band bo'lganlar sonidagi ulushi ortib bormoqda. Jumladan, 2007-yilda bu ko'rsatkich 2,4 %dan (Finlyandiya) 66,6 %gacha (Lyuksemburg) teng bo'lgan (28.3.3-diagramma). Yevropa mamlakatlari xorijiy ishchilarning 18–25 yoshgacha bo'lgan qismiga alohida e'tibor bermoqda. Shuning uchun keyingi yillarda xorijiy ishchilarning orasida yoshlarning soni Fransiyada — 40 %, Gollandiyada — 41 %, Lyuksemburgda — 44 %, Belgiyada — 41,8 %, Germaniyada — 38 %ni tashkil etmoqda. Yevropada xorijiy ishchilarni tilga o'rgatish, malakasini oshirish qisqa muddatda hal etilmoqda va xorijiy ishchilarni jalb etishdagi mavjud rasmiyatchiliklar soddalashtirilmoqda. Natijada Yevropaning sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlari arzon ishchi kuchidan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqib, iqtisodiy rivojlanishda jahon xo'jaligida yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda.

28.3.2-diagramma

2007-yilda G'arbiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotida band bo'lganlar tarkibida xorijiy ishchilarning ulushi, %



Manba: http://demoscope.ru/weekly/2010/0431/tema03.php

Shuningdek, G'arbiy Yevropa integratsiyasi doirasida umumiy mehnat bozorining yaratilishi natijasida bu mamlakatlar o'rtasida ishchi kuchining erkin ko'chib yurishi ta'minlangan.

Xalqaro mehnat bozorining asosiy markazlaridan yana biri **Yaqin Sharqdagi** neft qazib chiqaruvchi va uni qayta ishlovchi arab mamlakatlari hisoblanadi. Neft qazib oluvchi bu mamlakatlar mehnati og'ir, past ish haqi to'lanadigan ishlarga xorijiy ishchilarni jalb etishadi. Bu ishchilar asosan qo'shni arab mamlakatlaridan, jumladan, Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Koreya, Filippindan kelishadi. Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Qatar, Baxrayn, Quvayt va Omon ishchilarining yarmidan ortig'ini xorijiy ishchilar tashkil etadi. Jumladan, iqtisodiyotda band bo'lganlarning tarkibida xorijiy ishchilar ulushi BAAda — 90 %, Quvaytda — 70 %, Saudiya Arabistoni va Baxraynda — 40 %, Omonda — 34 %ni tashkil etmoqda. Saudiya Arabistonining o'zidagina Pokiston, Hindiston, Indoneziya va Misrlik bo'lgan 7,3 mln. xorijiy ishchilar har yili o'z vatanlariga 17 mlrd. dollari miqdorida pul mablag'larini yubormoqdalar.

Boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar. XX asrning 90-yillarida yangi voqelik vujudga kelib, rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ishchi kuchi migratsiyasining sur'atlari jadallasha boshladi. Odatda, ishchi kuchi harakati iqtisodiy islohotlar jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan mamlakatlar tomon yo'naladi. Lotin Amerikasida mavsumiy ishchilar Argentina va Meksikaning yig'uv korxonalarida ishlash uchun borishadi. Afrikaning Sahroyi Kabiri janubidagi mamlakatlarga immigrantlar oqimining yarmidan ortig'i to'g'ri keladi. 1991-yilda Fors ko'rfazidagi urushdan keyin 1 mln. ga yaqin misrlik Iroqni, 800 ming yamanlik Saudiya Arabistonini va 500 mingga yaqin falastinlik, iordaniyalik ishchilar Quvaytni tark etishdi. Ularning o'rniga esa hindistonlik va misrlik ishchilar kelishdi[1].

Yangi industrial mamlakatlar. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy jihatdan jadal rivojlanishi vaqtinchalik ishga yollanuvchi ishchilarning oqimini tezlashtirdi. Bu holat Janubiy Koreya va Malayziya misolida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Agar ishchi kuchini jalb etuvchi markazlarni kuzatadigan bo'lsak, unda yiliga 25 mingdan ortiq ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatlarning deyarli barchasi iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlar ekanini kuzatish mumkin (aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YalM hajmi 6900 dollardan ortiq). Ishchi kuchini ommaviy ravishda eksport qiluvchi mamlakatlar orasida Meksika va Osiyo mamlakatlari yetakchilik qilishadi.

Taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, XX asrning 90-yillari o'rtalarida mamlakatlar o'rtasidagi migratsion qoldiq 1 mln. kishini tashkil etgan. Ya'ni ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatlarga xorijga chiqib ketganlarga qaraganda o'rtacha bir million kishi ko'proq kelgan. Taxminlarga ko'ra, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyingi yaqin yillarda jahon iqtisodiyotida ro'y beradigan iqtisodiy barqarorlik migratsion qoldiqning qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Demak, ishchi kuchining asosiy markazlari hisoblanmish AQSh, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlarida mehnat bozorlarining holati 2012–2015-yillarda qator omillar ta'sirida rivojlanadi. Ularning asosiylari — bu mehnatga layoqatli aholi sur'atlarining sekinlashuvi, iqtisodiy faol aholi tarkibida yoshi katta aholining ko'payishi kabilar hisoblanadi.

1 Киреев А. П. Международная экономика. В 2 ч. Ч. I. Международная экономика: движение товаров и факторов производства: учеб. пособие для вузов. — М.: Междунар. Отношения, 2000. С. 329.

IHTT mamlakatlarida XXI asrning birinchi o'n yilligida mehnatga layoqatli aholining ulushi sezilarli darajada pasayishi kutilmoqda. Bu tendensiya Yevropa mamlakatlarida (0,5–0,2 %gacha) yaqqol ko'zga tashlanadi. Italiya, Avstriya, Finlyandiya, Gretsiya va Ispaniyada esa bu ko'rsatkich teskari tendensiyaga ham ega bo'lishi mumkin (0,1–0,4 %gacha).

Yuqoridagi sabablarga ko'ra rivojlangan mamlakatlar ishchi kuchini faol jalb etuvchi markazlar sifatida xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi jarayonida yetakchi o'rinlarini saqlab qolishadi.

Rossiya. Bugungi kunda ko'pchilik mutaxassislar Rossiya iqtisodiyotida 2020-yillarda iqtisodiy o'sish uchun real mehnat unumdorligi ortishi bilan birgalikda migratsiya hisobiga mehnat resurslarini ko'paytirishsiz mo'ljallangan ko'rsatkichga erishish mumkin emasligini ta'kidlamoqdalar. Ko'pgina mintaqalarda mahalliy bozor ishchi kuchining nisbiy taqchilligini sezmoqda. 2015-yilga kelib mamlakat ishchi kuchi miqdori 8 mln. ga qisqaradi, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 18–19 mln. kishiga yetadi (28.3.4-diagramma).

28.3.3-diagramma

Rossiya aholisi va mehnatga layoqatli aholi sonining o'zgarishi, 1990–2007-yillar va 2008–2025-yillarga prognoz



Manba: Тюрюканова Е, Россия будет все сильнее зависеть от труда мигрантов. //Демоскоп Weekly, №315–3161.20.12.2008.

Mehnatga layoqatli aholining maksimal qisqarishi 2009–2017-yillarga to'g'ri keladi. Bu guruhda aholining o'rtacha yillik kamayishi 1 milliondan ortmaydi. XXI asrning birinchi choragida mehnatga layoqatli yoshga yetadigan aholi tug'ilib bo'lgan, shuning uchun ham ular bu guruhdagi yetishmovchilikni to'ldira olishmaydi. Rossiyaning mehnatga layoqatli aholisi sonini qisman o'limni qisqartirish, bandlikning keyingi yosh chegaralarini oshirish maqsadida aholi sog'lig'ini yaxshilash yo'li bilan saqlab qolish mumkin. Shu bilan bir qatorda mazkur choralar tezkor natijani bera olmay, faqat nisbiy samara berishi mumkin.

Rossiya, asosan, ishchi kuchini Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqalaridan jalb qiladi. Rossiyada 2010-yilda 1246,9 ming kishi MDH mamlakatlaridan va 392 ming kishi boshqa mamlakatlardan kelib ishlagan. 2010-yilda mamlakatda

ishlayotgan xorijlik ishchilar ulushi qazib chiqarish va qayta ishlash sanoati tarmoqlarida 15,5 %ni, qishloq xo'jaligida 9,1 %ni, transport va aloqa tarmog'ida 4,3 %ni tashkil etdi[1].

Keyingi yillarda ishchi kuchi Markaziy Osiyodan tabiiy resurslarga boy Qozog'istonga ham ketmoqda.

28.4. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi va pul o'tkazmalari

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining muhim omillaridan biri — bu migrantlarning pul o'tkazmalaridir. Pul o'tkazmalari rivojlanayotgan mamlakatlar to'lov balansining «qulay» moddasi hisoblanadi. Mazkur o'tkazmalar o'z mazmuniga ko'ra, tashqi qarz yoki to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar bo'yicha foizlar to'lanishi lozim bo'lmagan xorijiy pullar hisoblanadi. Ular yordamida rivojlanayotgan mamlakatlar to'lov balansida vujudga keladigan defitsitni qoplashlari mumkin.

To'lov balansi statistikasida migrantlarning pul o'tkazmalari deyilganda migrantlar tomonidan o'z mamlakatlari rezidentlariga yuborayotgan tovarlar va moliyaviy mablag'lar tushuniladi.

Agar migrant qabul qiluvchi mamlakat rezidenti (o'zining immigratsiya maqomidan qat'i nazar, ushbu mamlakatda bir yil yoki undan ortiq vaqt yashayotgan bo'lsa) hisoblansa, uning o'z vataniga yuborayotgan xususiy transfertlari (natura yoki pul shaklida) ishchilarning pul o'tkazmalari, deb ataladi.

Agar migrant qabul qiluvchi mamlakatda bir yildan kam muddat yashayotgan bo'lsa, uning barcha daromadlari yollanib ishlovchilarning ish haqi, deb baholanadi. Ushbu to'lovlarga vaqtincha, mavsumiy ishlovchilar va chegara hududlarda yashovchilarning barcha turdagi ish haqi va nafaqalari kiradi.

Bundan tashqari, migrantlar tomonidan amalga oshiriladigan transfertlar ham hisobga olinadi. Odatda, migrantlar bu transfertlarni bir yil muddat ichida yashash joyini o'zgartirayotganida amalga oshiradilar va ular pullik transfertlarining sof qiymatini (moliyaviy va nomoliyaviy aktivlar) ifoda etadi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2008-yilda jahon bo'yicha pul o'tkazmalarining umumiy hajmi 443 mlrd. dollarni tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2003-yilga nisbatan taxminan ikki baravar yuqoridir. Ammo jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida emigrantlar tomonidan jo'natilayotgan mablag'lar hajmi 2009-yilda 2008-yilga nisbatan 6,1 %ga qisqarib, 416 mlrd. dollarni tashkil etgan. Jahon banki mutaxassislarining dastlabki hisob-kitoblariga ko'ra, bu o'tkazmalar hajmi 2013-yilda 414 mlrd. dollarga teng bo'lgan va keyingi yillarda o'sib borish tendensiyasiga ega bo'ladi[2].

Pul o'tkazmalari rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim tashqi moliyalashtirish manbalaridan biriga aylandi. Aksariyat mamlakatlarda oxirgi o'n yillikda pul o'tkazmalari oqimi xususiy kapital va rasmiy taqdim etiladigan iqtisodiy yordam hajmidan oshib ketgan. Pul o'tkazmalari ba'zi mamlakatlar uchun xorijiy valyuta tushumlari va mamlakatda kambag'allikni pasaytirishning muhim manbayi hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu mablag'lar jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida, jumladan, 2009-yilda pul o'tkazmalari hajmi 5,5 %ga qisqarganini holda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 40 %ga, xususiy qarzdorlik va qimmatbaho qog'ozlar portfeli hajmi esa 80 %ga qisqargan.

1 Щербакова Е. В 2010 году в России легально трудилось 1641 тысяча иностранных работников. // Демоскоп Weekly, №315–3161.20.12.2008.

2 Migration and Remittances Factbook 2011. Second edition. The World Bank — Washington, 2010. P. 17.; Migration and Remittance Flows: Recent Trends and Outlook, 2013–2016. Migration and Development Brief. October ma'lumotlari asosida tuzilgan 2,2013.

Pul o'tkazmalarining to'rtdan uch qismi rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltirilgan bo'lib, pul o'tkazmalarining umumiy hajmida transfertlar ulushi ortib bormoqda. Agar 1990-yilda transfertlarning ulushi 45 %ni tashkil etgani holda, 2000-yillarning boshida bu ko'rsatkich 60 %dan oshgan, 2009-yilda esa 73,8 %ga teng bo'lgan. Transfertlarning rivojlanayotgan mamlakatlarning pul o'tkazmalarining umumiy hajmidagi ulushi ham ortib bormoqda. Jumladan, bu ko'rsatkich 1990-yilda 7,8 %ga teng bo'lgani holda, 2008-yilda 22,8 %ni, 2009-yilda esa 20,8 %ni tashkil etgan.

Tahlillar ko'rsatishicha, 2013-yilda rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan mehnat migratsiyasi tufayli olingan pul o'tkazmalari hajmi 541,9 mlrd. dollarni tashkil etgan va ushbu ko'rsatkich jami pul o'tkazmalarining 69,1 %ni tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda 2013-yilda pul o'tkazmalarining hajmi 2012-yilga nisbatan 5,8 %ga o'sdi va 40,6 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Pul o'tkazmalarini qabul qiluvchi yetakchi mamlakatlar Hindiston, Xitoy, Filippin va Meksikadir (28.4.1-diagramma).

28.4.1-diagramma
Pul o'tkazmalarini qabul qiluvchi yetakchi mamlakatlar, mlrd. dollar



Manba: «Migration and Development Brief 13. November 8, 2010.; Migration and Remittance Flows: Recent Trends and Outlook, 2013–2016. Migration and Development Brief. October 2, 2013» ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2010–2013-yillarda rivojlanayotgan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida «migradollar»larning ulushi o'rtacha 2,0 %ni tashkil etgani holda, bu ko'rsatkich ba'zi mamlakatlarda juda yuqori darajani tashkil etmoqda va o'sib borish tendensiyasiga ega. Jumladan, 2013-yilda «migradollar»larning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi Tojikistonda — 48 %ni (2010-yilda 35 %), Qirg'izistonda — 31 %ni (2010-yilda 15,4 %), Lesotoda 25,0 %ni, Moldovada — 24 %ni (2010-yilda (23,1 %) tashkil etgan (28.4.2-diagramma).

28.4.2-dagramma
Pul o'tkazmalarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi, foiz hisobida



Manba: «Migration and Development Brief 13. November 8, 2010.; Migration and Remittance Flows: Recent Trends and Outlook, 2013–2016. Migration and Development Brief. October 2, 2013» ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shu bilan bir qatorda pul o'tkazmalarini qabul qiluvchi mamlakatlarning birinchi o'nligida Fransiya (22,8), Germaniya (15,0), Belgiya (10,6), Ispaniya (10,1) kabi sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlari joylashgan. Ushbu mamlakatlarga pul o'tkazmalari, asosan, Yevropaning boshqa rivojlangan mamlakatlaridan kirib keladi va pul o'tkazmalarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi katta emas. Jumladan, bu ko'rsatkich Germaniyada bor-yo'g'i — 0,3 %ga, Belgiyada esa 2,2 %ga teng.

Pul o'tkazmalarini jo'natuvchi mamlakatlar guruhi ichida AQSh yetakchilik qiladi. 2013-yilda AQSh dan boshqa mamlakatlarga 51,1 mlrd. dollar pul o'tkazmalari amalga oshirilgan. Keyingi o'rinlarni Saudiya Arabistoni (29,5), Rossiya (31,6), Shveysariya (28,6), Germaniya (15,4), Italiya (10,7), Lyuksemburg (11,0), Ispaniya (10,5), va boshqa mamlakatlar egallashadi.

Jo'natilayotgan pul o'tkazmalarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 20 %gacha bo'lgan mamlakatlarga Lyuksemburg (20 %) va Livan (17 %), 6 %dan 10 %gacha bo'lgan mamlakatlarga Omon, Quvayt, Baxrayn va Saudiya Arabistoni, 5 %gacha bo'lgan mamlakatlarga boshqa mamlakatlar kiradi. Rivojlangan mamlakatlardan Shveysariya (4 %) va Isroilni (2 %) ajratib ko'rsatish mumkin.

Odatda, yirik miqdordagi pul o'tkazmalarini o'tkazish (savdo, investitsiya yoki iqtisodiy yordam maqsadlari uchun) jarayonida tranzaksiya xarajatlari

muammo tug'dirmaydi. Ushbu xarajatlarning asosiy pul o'tkazmalari hajmidagi ulushi yuqori bo'lmaydi va xalqaro banklar o'z xizmatlarini raqobat narxlarida taqdim etishadi. Kam miqdordagi, masalan, 200 dollargacha bo'lgan pul o'tkazmalarida komission yig'imlarning ulushi 10–15 foizgacha bo'lishi mumkin (28.4.1-jadval).

28.4.1-jadval
Pul o'tkazmalarini o'tkazishdagi tranzaksiya xarajatlari (o'tkazilgan summaga nisbatan foiz hisobida)

	Yirik pul o'tkazuvchi operatorlar	Banklar	Boshqa pul o'tkazuvchi operatorlar	«Xavala» tizimi
Belgiya — Nigeriya	12	6	9,8	–
Belgiya — Senegal	10	–	6,4	–
Gonkong — Filippin	4,5	–	–	–
Yangi Zelandiya — Tonga (300 doll.)	12	3	8,8	–
Rossiya — Ukraina	4	3	2,5	1–2
Janubiy Afrika — Mozambik	–	1	–	–
Saudiya Arabistoni — Pokiston	3,6	0,4	–	–
BAA — Hindiston	5,5	5,2	2,3	1–2
Buyuk Britaniya — Hindiston	11	6	–	–
Buyuk Britaniya — Filippin	–	0,4–5,0	–	–
AQSh — Kolumbiya	–	17	10	–
AQSh — Meksika	5	3	4,7	–
AQSh — Filippin	1,2–2,0	0,4–1,8	–	–

Manba: Дилип Р. Денежные переводы мигрантов — живительный источник развития. //Финансы & развитие, Декабрь 2005. С. 43.

Xalqaro mutaxassislar fikricha, pul o'tkazmalarining umumiy hajmini aniqlash uchun rasmiy pul o'tkazmalari hajmini 50 %ga ko'paytirish tavsiya etiladi.

Nazariy jihatdan ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlar daromadi emigrantlarning xorijdan jo'natadigan pul o'tkazmalari bilangina cheklanib qolmaydi. Ularga firmalarning xorijda ishga qabul qilishlari, emigrantlarning o'z vatanlariga investitsiya olib kirishlari, qayta malaka oshirish xarajatlarining qisqarishiga solinadigan soliqlar va emigrantlar uchun boshqa mamlakatlar tomonidan amalga oshirilayotgan turli ijtimoiy xarajatlar kabi mamlakat to'lov balansiga ijobiy ta'sir etuvchi daromad turlari ham kiradi. Bundan tashqari ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakat xorijda tajriba orttirib qaytgan yuqori malakali kadrlarga ham ega bo'ladi.

28.5. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solish usullari

Jahon iqtisodiyotida ishchi kuchining xalqaro harakatchanligi faollashgan sari migratsiya jarayonlarini tartibga solish zaruriyati dolzarb bo'la boshladi. Dunyo davlatlararo migratsiya bo'yicha yuridik normalar va qonun-qoidalarga muhtoj. Ular bir tomondan, inson haq-huquqlarini himoya etishga qaratilgan, ikkinchi tomondan esa, migrantlarni qabul qiluvchi va jo'natuvchi mamlakatlarning manfaatlarini himoya qilishi kerak.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi jarayonini tartibga solishni ikki turga bo'lishimiz mumkin:

- ishchi kuchining xalqaro migratsiyasini xalqaro tashkilotlar yordamida tartibga solish.
- davlat tomonidan tashqi migratsiyani turli usullar orqali tartibga solish.

Tashqi mehnat migratsiyasini tashkil etishda, tajribalar va axborotlar bilan ayirboshlashda, bu jarayonni tartibli va rejali amalga oshirishni taminlashda migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotlarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Bu tashkilotlar tarkibida XMT alohida o'rin tutadi.

XMT 1919-yilda tashkil etilgan bo'lib, hozirda uning tarkibida 71 ta a'zo mamlakatlar bor va bu mamlakatlarda dunyo aholisining 98 % yashaydi. Har bir a'zo mamlakatdan XMT ga hukumat, mehnatkashlar va tadbirkorlarning vakillari kiradi. XMT ga a'zo mamlakatlar XMT Nizomini bajarishlari shart. XMT faoliyatining maqsadi aholi turmush darajasini oshirishga erishish, irqi, dini va jinsidan qat'i nazar, insonlarning ma'naviy rivojlanishini ta'minlashga imkon beradigan shart-sharoitlarni shakllantirishga ko'maklashishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tashkilot o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi (28.5.1-rasm).

28.5.1-rasm.
Xalqaro mehnat tashkilotining vazifalari



Bu tashkilot a'zo mamlakatlardagi (35 ta a'zo) o'z bo'limlari orqali bo'lajak muhojirlar uchun til o'rganish kurslarini tashkil etadi. Ushbu yo'nalishda XMT ham o'z ishini faollashtirib, mehnat me'yorlari bo'yicha 1919–1990-yillar davomida 174 ta Konvensiya va 181 ta tavsiyalar qabul qildi. Ularda ishchi kuchining mamlakatlararo ko'chib yurishini huquqiy jihatdan tartibga solish ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, 1949-yilda qabul qilingan muhojir — mehnatkashlar to'g'risidagi konvensiyada XMT ga a'zo bo'lgan davlatlarga muhojirlarni ishga qabul qilishda, ish haqi to'lashda va ularning kamsitishlariga yo'l qo'ymaslik majburiyatlarini yuklovchi qator qoidalar o'rin olgan:

- XMT ning 1958-yilda qabul qilingan ijtimoiy mehnat va bandlik sohasida huquqlarni cheklashga qarshi Konvensiya;
- XMT ning 1962-yilda qabul qilingan ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadlari va me'yorlari to'g'risidagi bitim. Bu bitimda Xalqaro mehnat tashkilotiga azo bo'lgan davlatlarda muhojir-mehnatkashlar manfaatlari talab qilinadigan qoidalar qayd etilgan, ya'ni muhojirlar ham tub aholi qatori mavjud ijtimoiy muhofaza imtiyozlaridan foydalanishlari, ularning oilalari esa ish haqidan pul jo'natmalarini olish huquqiga ega bo'lishlari belgilab qo'yilgan.
- XMT ning 1975-yilda qabul qilingan muhojir-mehnatkashlar to'g'risidagi Konvensiyasi. Bu hujjat migratsiya sohasida suiiste'molliklarni, muhojirlarni yashirin yo'llar bilan olib kelish va qonunsiz ishga yollashga qarshi qaratilgan choratadbirlarni belgilab beradi hamda muhojirlarni mehnat, bandlik, ijtimoiy ta'minot, kasaba uyushmalariga birlashish va madaniy huquqlari sohasida himoya qilishning ba'zi choralarini ko'zda tutadi.

XMT ga a'zo bo'lgan va uning asosiy hujjatlariga imzo chekkan mamlakatlar, qayd etilgan hujjatlarda qabul qilingan tartib-qoidalarga amal qilishlari va milliy mehnat qonunchiliklarini ularga muvofiq o'zgartirishlari lozim.

Demak, xalqaro mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solish ishchi kuchini qabul qiluvchi va ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlarning milliy qonunchiligi asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari ishchi kuchi xalqaro migratsiyasi xalqaro tashkilotlar va davlatlararo kelishuvlar tomonidan ham tartibga solinadi.

Davlatning migratsiya jarayonlaridagi ishtiroki tarixdan ma'lum. XIII–XIX asrlardayoq ishchi kuchining erkin ko'chib yurishini cheklash bo'yicha to'siqlar mavjud bo'lgan. Hozirda ishchi kuchining erkin harakati qator huquqiy, ma'muriy, madaniy, til, ijtimoiy va boshqa dastaklar yordamida tartibga solinadi (28.5.2-rasm).

Ishchi kuchi migratsiyasidagi huquqiy va ma'muriy to'siqlarni davlatning o'zi o'rnatishi yoki ularni bartaraf etishi mumkin. Agar XX asrning o'rtalarigacha ishchi kuchi harakatini mamlakatlararo tartibga solish, asosan, manfaatdor davlatlarning ikki tomonlama shartnomalari asosida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik, mehnat sohasida mamlakatlararo aloqalarning murakkablashuvi, jahon mehnat bozorida faoliyat ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Jumladan, 1953-yilda IHTT mamlakatlari, 1957-yilda esa Yevropa Hamjamiyatiga kiruvchi mamlakatlar ham ishchi kuchining erkin harakatini quvvatlab chiqdilar.

Shunga qaramasdan, ko'pchilik mamlakatlar tashqi savdoni erkinlashtirish yo'lidan borayotgan bo'lsalar-da, xalqaro migratsiyani cheklovchi chora-tadbirlarni amalga oshirishmoqda. Biz yuqorida ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi natijasida yuzaga keladigan ijobiy iqtisodiy samarani ko'rib o'tgan edik. Ijobiy iqtisodiy samara bilan birga salbiy samara ham olish mumkin. Shulardan biri rivojlangan mamlakatlar byudjetiga immigrantlar tomonidan solinadigan yuk hisoblanadi. Bu, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarning kam taraqqiy etgan mamlakatlar bilan

yaqin chegarada bo'lishlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, AQSh, Meksika va Karib havzasi mamlakatlari, Fransiya va G'arb mamlakatlari, Germaniya va Turkiya. Bunday yaqinlik immigrantlarning nafaqat qonuniy, balki noqonuniy oqimini ham kuchaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, moliyaviy xarajatlarni talab etadi. Hisob-kitoblarga ko'ra AQSh da 4 mln. ga yaqin, G'arbiy Yevropada esa 3 mln. ga yaqin noqonuniy immigrantlar doimiy yashashadi.

28.5.2-rasm.
Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solish xususiyatlari



Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi natijasida yuzaga keladigan muammolar ishchi kuchi migratsiyasini davlat tomonidan va davlatlararo tartibga solish tizimining yaratilishiga olib keldi.

Ishchi kuchini qabul qiluvchi ko'pchilik mamlakatlar immigratsiyani tartibga solishda selektiv yondashuvni ma'qul ko'rishadi. Bu yondashuvning mazmuni shundan iboratki, bunda davlat o'ziga kerakli ishchilarning mamlakatga kirib kelishiga to'sqinlik qilmaydi, qolganlarning mamlakatga kirib kelishi taqiqlanadi. Ishchilarning u yoki bu mamlakatga kirib kelishi mamlakatdan mamlakatga qarab o'zgarib turadi. Odatda, immigrantlar quyidagi kategoriyalarga bo'linadi:

- og'ir mehnat talab qiluvchi, zararli, iflos va past malaka talab etadigan hamda kam ish haqi to'lanadigan ishlarni bajaruvchi ishchilar (qurilish ishlari, mavsumiy ishlar va b.);
- yangi va istiqbolli tarmoqlar uchun mutaxassislar (dasturlovchilar, tor mutaxassislikka ixtisoslashgan muhandislar, bank xizmatchilari va b.);
- noyob mutaxassislik vakillari (olmosga ishlov beruvchilar, san'at asarlarini tiklovchilar, noan'anaviy davolash usullari bilan shug'ullanuvchilar);
- ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatga kapital kirituvchi va yangi ishchi o'rinlarini yaratuvchi yirik biznesmenlar.

Mehnat migratsiyasi bilan ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatlarning davlat idoralari mavjud milliy dasturlar, ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlar doirasida shug'ullanishadi. Odatda, immigratsiya muammolarini hal etishda kamida uchta davlat idorasi ishtirok etadi: Tashqi ishlar, Adliya va Mehnat vazirliklari.

Ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatlarning ko'pchiligida immigratsiyaning huquqiy asoslari ko'psonli qonunlar va qonuniy aktlar ko'rinishida bo'ladi. Immigratsion qonunchilikning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat.

Kasbiy malaka. Ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatlarning qonunchiligida mutaxassislik bo'yicha bilim darajasi va staji borasida qat'iy talablar mavjud. Ta'lim borasida minimal o'rta maktabni yoki kasb-hunar kollejini tugatganlik diplomi talab etiladi. Mehnat staji borasida kamida 3–5 yil va tavsiyanoma talab etilishi mumkin.

Ishchilarning shaxsiga oid cheklovlar. Ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatlar immigrantlarning sog'lig'iga oid qat'iy talablar qo'yishadi. Mamlakatga narkomanlar, ruhiy kasal odamlar, SPID virusi bilan kasallanganlar qo'yilmaydi. Immigrantlar sog'liqlari to'g'risida qabul qiluvchi mamlakat konsulxonasi tomonidan tasdiqlangan ma'lumotnoma taqdim etishlari yoki maxsus tibbiy ko'rikdan o'tishlari lozim. Immigrantlarning yoshi borasidagi cheklovlar ular ishlashi lozim bo'lgan tarmoqlarning xususiyatidan kelib chiqib o'rnatiladi. Odatda, bu chegara 20–40 yoshgacha tebranib turadi. Eng jiddiy qonuniy talab siyosiy va ijtimoiy yo'nalishlardagi immigrantlar uchun joriy etiladi. Qonunchilikda ko'pincha oldin sudlangan, terroristik va fashistik tashkilotlarga a'zo bo'lganlar uchun taqiqlashlar joriy etiladi.

Miqdoriy cheklash. Ishchi kuchini qabul qiluvchi ko'pchilik mamlakatlarda immigrantlarni qabul qilishda miqdoriy cheklashlar joriy etiladi, ya'ni ularning maksimal soni belgilab qo'yiladi. Miqdoriy cheklashlar iqtisodiyot miqyosida — mehnat resurlariga nisbatan xorijiy ishchilarning maksimal ulushini belgilash; alohida tarmoqlar miqyosida — ushbu tarmoqda band bo'lgan ishchilarga nisbatan xorijiy ishchilar ulushini belgilash; alohida korxona miqyosida — korxona ishchilariga nisbatan xorijiy ishchilar ulushini belgilash yoki yil davomida mamlakatga kirib kelayotganlarning umumiy sonini belgilab qo'yish orqali amalga oshirilishi mumkin. Misol uchun, Ispaniyada vaqtinchalik ishlarga jalb etiladigan xorijliklar soni 2008–2009-yillarda 15,7 mingdan 901 kishigacha, Rossiyada xorijiy ishchilarni qabul qilish 2009-yilda 4 mln. kishiga, 2010-yilda 1,9 mln. kishiga, 2011-yilda 1,7 mln. kishiga qisqartirilgan[1].

Ishchi kuchini import qilishni davlat tomonidan tartibga solishning miqdoriy cheklash usuli tegishli qonunlar orqali amalga oshiriladi va huquqiy organlar tomonidan nazorat qilinadi.

1 Цапенко И. Экономический цикл и международная миграция населения. //Мировая экономика и международные отношения, №8, 2011. С. 38.

Iqtisodiy tartibga solish. Bu usul immigrantlarning sonini qisqartirishni ta'minlovchi ma'lum moliyaviy cheklovlarni joriy etadi. Yuridik shaxslar, ya'ni ba'zi mamlakatlarning firmalari xorijiy ishchilarni ma'lum bir aylanmaga erishganidan keyin yoki davlat byudjetiga ma'lum to'lovlarni amalga oshirgandan keyingina yollashlari mumkin. Bir qator mamlakatlarning qonunchiligi immigratsiyani rasmiylashtirish uchun va mahalliy korxonaga ishga joylashish uchun immigrantlarning ma'lum to'lovlarni amalga oshirishlarini talab etadi. Imtiyozlar korporatsiyaning rahbar xodimlari uchun joriy etiladi. Chunki, ular korporatsiya nomidan bitimlar tuzishi, mahalliy fuqarolar mehnatidan foydalanishlari mumkin.

Vaqtli cheklovlar. Ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatlarning ko'pchiligi mamlakatga kirib kelgan xorijiy ishchilarning mamlakatda bo'lishlarining maksimal muddatini belgilab qo'yishadi. Muddat tugagandan keyin ular mamlakatni tark etishlari yoki davlatning tegishli mutasaddi organlaridan muddatlarini uzaytirishlari kerak bo'ladi. Mamlakatda talaba yoki stajyor maqomiga ega shaxslar mamlakatda qolishlarini uzaytirishlari uchun ruxsat berilmaydi. Ular albatta mamlakatni tark etishlari va ma'lum bir muddatdan so'ng yana shu mamlakatga kelishlari mumkin.

Geografik imtiyozlar. Immigrantlarni qabul qiluvchi har bir mamlakat immigratsiyaning geografik va milliy tarkibini belgilaydi. Bu usul, odatda, ma'lum mamlakatdan kirib kelayotganlar sonini miqdoriy kvotalash orqali amalga oshiriladi. Ba'zan, inson huquqlarini buzish hollari yuz berayotir degan ayblardan qochish maqsadida hukumat geografik imtiyozlar doirasida lotereyalar o'tkazadi. Masalan, AQSh da DV-1 dasturi asosida immigrantlik vizasi uchun lotereya o'tkaziladi. Immigratsiyani hisobga olish statistikasi ma'lumotlari asosida AQSh ga ko'plab ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlar belgilab olinadi. Keyin maxsus formula yordamida har bir mamlakatga lotereya asosida kvota o'rnatiladi. Oldingi besh yil davomida bu mamlakatdan qanchalik ko'p immigrant kelgan bo'lsa, bu mamlakatga nisbatan shuncha kam o'rin ajratiladi. Misol uchun, 1996-yilda 55 ming immigrant vizasi uchun lotereya o'tkazilgan. Shundan 20200 viza Afrika mamlakatlariga, 6837 viza Osiyo mamlakatlariga (Xitoy, Tayvan, Hindiston, Fillipin, Vyetnam va Janubiy Koreyadan tashqari), Yevropaga 24549 viza (Buyuk Britaniyadan tashqari), Shimoliy Amerikaga 8 viza, Okeaniyaga 817 viza, Janubiy Amerika, Markaziy Amerika va Karib havzasiga 2589 viza (Meksika, Yamayka, Salvador va Dominikan respublikasidan tashqari) to'g'ri keldi[1].

Ta'qiqlar. Xorijiy ishchi kuchini yollash bo'yicha ochiq va yashirin ta'qiqlar xorijliklar shug'ullanishi mumkin bo'lmagan kasblar to'g'risidagi qonunlarda keltiriladi. Ochiq ta'qiqlar xorijiy ishchilar ishlashi mumkin bo'lmagan tarmoqlar yoki ixtisosliklar bo'yicha sanab o'tiladi. Yashirin ta'qiqlar, aksincha, faqat mahalliy aholi ishlashi mumkin bo'lgan tarmoqlar ixtisosliklarini sanab o'tadi va bu yo'nalishda xorijliklarning ishlashiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat tomonidan ishchi kuchini qabul qilishni chegaralash va ta'qiqlash orqali tartibga solish usullarini ko'rib chiqdik. Shu bilan bir qatorda mamlakatdan immigrantlarni chiqarib yuborish borasida reemigratsiyani rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar qo'llaniladi. Buning sababi kasaba uyushmalarining hukumatga o'tkazadigan ta'siri hisoblanadi. Natijada G'arb mamlakatlari XX asrning 70-yillaridan boshlab immigrantlarni o'z vatanlariga qaytarib yuborishni rag'batlantiruvchi faol choralarni amalga oshira boshlashdi. Reemigratsiya borasida davlat tomonidan amalga oshiriladigan an'anaviy choralarga quyidagilar kiradi:

1 Киреев А. П. Международная экономика. В 2 ч. Ч. I. Международная экономика: движение товаров и факторов производства: учеб. пособие для вузов. — М.: Междунар. Отношения, 2000. С. 336.

Reemigratsiyani rag'batlantiruvchi dasturlar. Bu dasturlarga noqonuniy ravishda kirib kelgan immigrantlarni mamlakatdan majburiy chiqarib yuborishdan tortib vatanlariga qaytishni xohlaydigan immitrantlarga moddiy yordam berish bilan bog'liq choralar kiradi. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida (Germaniya, Fransiya, Niderlandiya) immigrantlarning ko'ngilli ravishda ishdan bo'shashlari va o'z vatanlariga qaytishlari vaqtida turli xil to'lovlardan iborat rag'batlantiruvchi dasturlar qabul qilingan. Ba'zi hollarda immigrant mamlakatni tark etish istagini bildirib ariza bergan zahoti yordam puli to'lansa, ba'zi hollarda esa u amalda mamlakatni tark etgandan keyin to'lanadi. Immigrantning bu yordam pulini olishi uning mazkur mamlakatga qaytib kelish huquqidan mahrum etadi. Yordam uchun ajratiladigan to'lovlar xorijiy ishchilarni yollab ishlatuvchi korxonalar tomonidan pensiya fondi yoki ijtimoiy sug'urta fondlariga to'laydigan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Bu usuldagi moliyalashtirish byudjetning xarajatlar qismiga ortiqcha yuk bo'lib tushmasa-da, amalda byudjetning xarajatlar qismi immigrantlarni davlat tomonidan elektron hisobga olish va yordam puli to'lashi oqibatida ko'payib ketadi. Natijada reemigratsiya dasturlarining samaradorligi pastligicha qolmoqda.

Immigrantlarni kasbiy tayyorlash dasturlari. Immigrantlarning o'z mamlakatlariga qaytishlarini rag'batlantiruvchi omil sifatida ba'zi mamlakatlar (Fransiya, Germaniya, Shveysariya) ularni kasbiy tayyorlash dasturlarini ishlab chiqishadi. Mantiqan bu dasturlar immigrantlarning ma'lum kasbiy tayyorgarlikdan o'tganlaridan so'ng vatanlariga qaytishlariga turtki bo'lishi kerak. Chunki xorijda malaka oshirib, biron-bir kasbga o'rgangan immigrantlar o'z vatanlarida yuqori haq to'lanadigan ishga joylashishlariga umid qilishlari mumkin. Ammo bunday dasturlarda qatnashishga immigrantlar tomonidan qiziqish kam bo'lib, ular dastur doirasida olgan kasbiy malakalarini o'z vatanlarida shunga yarasha ish topishlarida yordam berishiga ishonishmaydi. Shuning uchun immigrantlar kam haq to'lansa-da, rivojlangan mamlakatdagi mavjud ish joylarini saqlab qolishga harakat qilishadi.

Ommaviy emigratsiya qiluvchi mamlakatlarga iqtisodiy yordam berish dasturlari. Rivojlangan mamlakatlar ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlar bilan ishchilarning pul o'tkazmalarini investitsiyalash va davlatga yangi ishchi o'rinlarini yaratish maqsadida korxonalar qurish orqali rivojlanayotgan mamlakatlarda reemigrantlar uchun ish joylarini yaratishga yordam berish to'g'risida kelishuvlar tuzishadi.

Bunday korxonalar kooperativlar, qo'shma korxonalar, aksioner jamiyatlari shaklida bo'ladi. Bu dasturlar ayniqsa Germaniya va Turkiya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bir qator hollarda nemislar puliga qurilgan yangi turk kompaniyalari nafaqat reemigrantlarni jalb qilish markazlari bo'lib qoldi, balki Turkiyadan Germaniyaga yo'nalgan emigrantlarning yangi oqimini to'xtatib qoldi.

Ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatlar tomonidan amalga oshirilgan faol chora-tadbirlarning aksariyati bu mamlakatlarning o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishish imkonini bermadi. Dasturlar natijasida o'z vatanlariga qayta boshlagan immigrantlar oqimi dasturlarni moliyalashtirish tugashi bilan kamaya boshladi. Bu dasturlar samaradorligining muhim sabablaridan biri — ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlarning emigratsiya oqimini qisqartirishni xohlamaganliklaridadir.

Emigratsiya siyosati. Emigratsiya siyosatining maqsadi ishsizlikni kamaytirish, ishlayotgan emigrantlarning eksport-import operatsiyalarini balanslashtirish uchun ishlatilayotgan moliyaviy mablag'lari kirib kelishiga ko'maklashishi, emigrantlarga xorijda munosib hayot sharoitlari bilan ta'minlanishi, emigrantlarning o'z

vatanlariga qaytib kelishi ularning xorijda egallagan kasblari, to'plagan tajribalasi va malakalari bilan mos kelishi kerak.

XXI asr boshlarida xalqaro migratsiya jarayonida eksportyor mamlakatlar faolligining kuchayayotganligini ushbu mamalkatlar tomonidan emigratsiya siyosatining quyidagi shakllarini amaliyotda samarali qo'llayotganlari bilan izohlash mumkin.

Emigratsiya miqyosi va emigrantlarning sifat ko'rsatkichlarini tartibga solish orqali eksportyor mamlakat manfaatlarini himoyalashga qaratilgan siyosat. Aksariyat mamlakatlarning emigratsiya siyosati o'z fuqarolarining erkin harakatlanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, boshqalari yuqori malakali mutaxassislar masalasi va demografik holat yomonlashganda chegaralangan emigratsiya siyosatini olib borishadi.

Mamlakat iqtisodiyotini resurslar bilan ta'minlash maqsadida ishlayotgan migrantlarning valyuta mablag'larini jalb etishga yo'naltirilgan siyosat. Ushbu maqsadda milliy banklarda emigrantlar uchun qulay foiz stavkalarida schyotlar ochiladi, ularga o'zlarining moliyaviy vositalarini tovar va ishlab chiqarish vositalarini sotib olish uchun foydalanishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi, ba'zi bir davlatlar tomonidan esa ishlayotgan migrantlarning o'z mamlakatlariga olingan ish haqining katta qismini yuborishlari majburiy qilib belgilangan.

Xorijda ishlash uchun ishchi kuchini yollash bo'yicha iqtisodiy-ijtimoiy kafolatlar bilan ta'minlay oladigan shartnomalar va ikkiyoqlama kelishuvlardan foydalanish yo'li orqali emigrantlarning haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan siyosat. Mehnat migratsiyasi bo'yicha xalqaro kelishuvlar shartlarining bajarilishini, migrantlarning mamlakat ichida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bahsli muammolarini hal qilish va ularning huquqlariga amal qilinishini nazorat qilish maqsadida muassasalar, fondlar, vakilliklar, maxsus kishilarni tashkil etish yo'li bilan shu masalani hal etish.

Ishlayotgan migrantlarning haq-huquqlari va davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan siyosat. Ushbu masalani hal etishning birgina yo'li xorijda ishlash uchun fuqarolarni yollash faoliyatini davlat tomonidan majburiy litsenziyalashdir. Litsenziyalashning maqsadi — kerakli ma'lumot, ishlash tajribasi, ishonchli xalqaro aloqalariga ega va faoliyatining natijalariga moddiy va huquqiy javobgarlikni ola biladigan tashkilotlargagina xorijda ishlashni tashkil etish vositachiligini amalga oshirish huquqini berish.

Eksportyor va importyor mamlakatlarning manfaatlarini o'zaro himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlarni o'tkazish. Gap, xususan, migratsiya, norasmiy harakatlanishlar masshtabini ushlab turish, migrantlarning o'z vatanlariga qaytishini rag'batlantirish siyosatini o'tkazish to'g'risida boradi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi jahon iqtisodiyotida mehnat resurslarini qaytadan taqsimlaydi. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi assimetriya bilan ajralib turadi, mamlakatlarning iqtisodiy manfaatlarini to'qnashtiradi va xalqaro migratsiyani tartibga solishni dolzarb mavzuga aylantiradi. Faqatgina shu yo'l bilan xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining salbiy oqibatlarini kamaytirish va ushbu obyektiv jarayonni global taraqqiyot manbasiga aylantirish mumkin.

28.6. O'zbekiston xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi jarayonida

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga integratsiyalashuvi jahon mehnat bozorida faol qatnashishni taqozo etadi. O'zbekiston XMT a'zosi bo'lib, tashqi mehnat migratsiyasi sohasida davlat siyosatini ishlab chiqishda bu tashkilot

qabul qilgan hujjatlarga amal qilmoqda. Xususan, respublikamizda «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Mazkur qonunda O'zbekiston fuqarolarini chet ellarda o'z kasbi bo'yicha shug'ullanish huquqi, mamlakat tashqarisida ularni huquq va manfaatlarini himoya qilish, ishga joylashtirishni tartibga solish va bu jarayonni muvofiqlashtirish borasida davlatning javobgarligi mustahkamlab qo'yilgan.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari xorijiy davlatlarda o'z kasblari bo'yicha mehnat faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 14-iyuldagi «Ishchi kuchlarini olib kelish va tashqariga olib chiqish masalalarini tartibga solish to'g'risida»gi, 2003-yil 12-noyabrdagi 505-sonli «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining mehnat faoliyatini tashkillashtirishni mukammallashtirish to'g'risida»gi, 2007-yil 15-maydagi 97-sonli «Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet ellarga ketayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini hisobga olishni takomillashtirish to'g'risida»gi qarorlariga va shu qarorlar bilan tasdiqlangan Nizomga asosan amalga oshirmoqdalar.

O'zbekiston migratsion maqomiga ko'ra eksport-import qiluvchi mamlakat hisoblanadi va tashqi migratsiya bo'yicha manfiy qoldiqqa ega. O'zbekiston aholisi jami migratsiyasining 2–3 % va tashqi migratsiyasi oqimlarining 10–15 % uzoq xorijga to'g'ri keladi. O'zbekistonning migratsiya aloqalari doirasiga AQSh, Isroil, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar kirmoqda. O'zbekiston barcha MDH mamlakatlari bilan salbiy migratsiya qoldig'iga ega. Jumladan, tashqi migratsiyaning 70 %ga yaqini Rossiya, 12–13 % Qozog'iston hissasiga to'g'ri keladi[1].

O'zbekistonning jahon xo'jaligiga jadal sur'atlarda integratsiyalashuvi, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarning kengayishi tashqi migratsiya geografik yo'nalishining uzoq xorij mamlakatlari tomon o'zgarishiga olib kelmoqda. Ushbu ijobiy siljishlar 90-yillarda boshlangan bo'lib, xalqaro migratsiya oqimida tadbirkorlar, bank xizmatchilari, biznes bilan shug'ullanuvchilar ko'payib bordi.

O'zbekiston mehnat migratsiyasi bo'yicha qator mamlakatlar bilan bitimlar imzolagan. Jumladan, 1994-yil iyulda O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston o'rtasida «Migratsiya sohasida hamkorlik to'g'risida» Memorandum, 1995-yilda Koreya Respublikasi, 2007-yilda Rossiya bilan ikki tomonlama kelishuvlar imzolandi. Chunonchi, Koreya kichik va o'rta biznes Federatsiyasi, Koreya Qurilish assotsiatsiyasi bilan o'qitish, ishga joylashtirish sohasidagi hamkorlik to'g'risida Kelishuvlar imzolanganidan so'ng xorijliklarning sanoat tajribasi tizimi bo'yicha Koreya Respublikasida 1995–2008-yillarda 24 mingdan ortiq fuqarorlar ishga joylashdilar[2].

O'zbekiston Respublikasining xorij mamlakatlariga ishchi kuchini eksport qilishi tufayli:

- ishchi kuchi eksporti tufayli respublika milliy daromadiga xorijdan mablag' kelib qo'shiladi. Bu daromad hisobiga yangi ish joylarini barpo etish, ishsizlarni himoya qilish uchun zarur bo'lgan mablag'larga ega bo'lish mumkin;
- xorijda ishlab kelgan fuqarolarimiz o'zlari bilan birga eng zamonaviy bilimlarni, ishlab chiqarishdagi ilg'or tajribalarni, zamonaviy texnologiyani va yangi texnikani boshqarishni o'rganib qaytadilar;
- fuqarolar xorij korxonalarida mavjud bo'lgan mehnatni tashkil etish, mehnat intizomi, ishlab chiqarish jarayonini boshqarish, unumli mehnat qilish, zamonaviy bilimlarni egallaydilar;

1 Расулова Д. В. Ишчи кучи миграцияси ривожланишининг назарий асослари. — Т.: Молия, 2010.98-б.
2 O'sha manba. 137-b.

- mamlakatimizni o'z mehnatsevarliklari bilan jahonga tanitadilar, chet tillarni o'rganadilar, mehnat qilish va malaka oshirish usullarini o'rganib keladilar.

O'zbekiston xalqaro migratsiya aloqalarining istiqbolda yanada rivojlanishidan manfaatdor. Mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, tashqi bozorlarda mahsulotlar raqobatbardoshligini yuksaltirish xalqaro hamkorlikni mustahkamlaydi va xalqaro mehnat migratsiyasining faollashuviga olib keladi.

Asosiy tushunchalar

Ichki migratsiya — ishchi kuchining bir mamlakat/ hudud /rayon miqyosida xarakatlanishi.

Tashqi migratsiya — ishchi kuchining bir mamlakat hududidan ikkinchi bir mamlakat hududiga ko'chishi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi — mehnatga layoqatli aholining bir mamlakatdan boshqa mamlakatga iqtisodiy va boshqa sabablarga ko'ra bir yildan ortiq muddatga ko'chib o'tishi.

Immigratsiya — mehnatga layoqatli aholining mamlakat hududiga boshqa mamlakatlardan ko'chib kelishi.

Emigratsiya — mehnatga layoqatli aholining mamlakat hududidan ko'chib ketishi.

Migratsion qoldiq — immigratsiya va emigratsiya o'rtasidagi farq.

«Aqlning oqib o'tishi» — yuqori malakali mutaxassislarning mamlakatlararo migratsiyasi.

Reemigratsiya — emigrantlarning vatanlariga doimiy yashash uchun qaytib kelishlari.

Migrantlarning pul o'tkazmalari — migrantlar tomonidan o'z mamlakatlari rezidentlariga yuborayotgan tovarlar va moliyaviy mablag'lar.

Ishchilarning pul o'tkazmalari — qabul qiluvchi mamlakat rezidenti (o'zining immigratsiya maqomidan qat'i nazar, ushbu mamlakatda bir yil yoki undan ortiq vaqt yashayotgan bo'lsa) hisoblangan migrantning o'z vataniga yuborayotgan xususiy transfertlari (natura yoki pul shaklida).

Yollanib ishlovchilarning ish haqi — qabul qiluvchi mamlakatda bir yildan kam muddat yashayotgan migrantning barcha daromadlari.

Transfertlar — migrantlar tomonidan amalga oshiriladigan pullik transfertlarning sof qiymati (moliyaviy va nomoliyaviy aktivlar).

Davlatning migratsiya siyosati — ishchi kuchi eksporti/importini tartibga solishga qaratilgan davlat siyosati.

Nazorat savollari

1. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi nima va u qaysi sabablarga ko'ra yuz beradi?
2. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining qanday turlari mavjud?
4. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining zamonaviy tarkibi va dinamikasini aniqlang.
5. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi va pul o'tkazmalari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiling.
6. Xalqaro pul o'tkazmalarining geografik tarkibi qanday o'zgarishlarga uchramoqda?
7. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi xalqaro darajada qaysi tashkilotlar tomonidan tartibga solinadi?

8. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solishning qanday usullari mavjud?
9. Immigratsiya siyosati va uni amalga oshirish dastaklari nimalardan iborat?
10. Emigratsiya siyosati nima va qanday xususiyatlarga ega?

29-BOB. TEXNOLOGIYALARNI XALQARO UZATISH

29.1. Texnik taraqqiyotning xalqaro savdoga ta'siri nazariyalari

Texnologiyani ishlab chiqarishning alohida omili sifatida o'rganish, aniqrog'i, texnologiya tushunchasi xususida iqtisodiy adabiyotda yagona yondashuv yo'q.

Agar texnologiyaga ishlab chiqarishning mustaqil omili sifatida qaraladigan bo'lsa, u bir tomondan, o'zi yordamida ishlab chiqarilgan tovarlar savdosi shartlarining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi, ikkinchi tomondan esa, xalqaro savdo predmeti hisoblanadi. Texnologiyaning xalqaro harakati ikki shaklda amalga oshadi: sof (litsenziya, patent, «nau-xau» savdosi) va texnologik sig'imkorligi yuqori tovarlar savdosi ko'rinishida. Shu nuqtayi nazardan texnologiyaga quyidagicha ta'rif berish mumkin: texnologiya — bu amaliy maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladigan ilmiy metodlardir. Texnologiya tushunchasi mahsulotlar, jarayonlar va boshqaruv texnologiyasi guruhlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Texnologiyani xalqaro uzatish — tijorat yoki beg'araz asosda ilmiy-texnika yutuqlarining davlatlararo harakatidan iborat.

Xalqaro iqtisodiyotda quyidagilar texnologiyani eltuvchilar sifatida qabul qilingan:

- tovarlar — yuqori texnologiyali tovarlar savdosi;
- kapital — kapital sig'imkorligi yuqori texnologik tovarlar savdosi;
- mehnat — yuqori malakali ilmiy-texnika kadrlarning xalqaro migratsiyasi;
- yer — qazib chiqarish uchun yangi ilmiy texnika yutuqlaridan foydalanilgan tabiiy boyliklar savdosi.

Texnologiyani nazariy jihatdan asoslashda mikrodarajada yondashuv mavjud bo'lib, bu — korxona, firma miqyosida texnologiyalardan foydalanish nuqtayi nazaridan texnologiyaga baho berishdir. Unga muvofiq texnologiya xomashyoni qayta ishlashda materiallarga ishlov berishdagi usul yoki vosita. Texnologiya — texnik vositalarni mos tarzda mahsulot ishlab chiqarish uchun qo'llash usuli. Bir turdagi texnologiyadan foydalanilganda korxonalarning ba'zilari foyda olsa, boshqalari undan zarar ko'rishi mumkin.

Texnologiyalarni guruhlashda firmalarda hozirda qo'llanilayotgan zamonaviy D. Vudvord va D. Tompson usullaridan foydalaniladi.

D. Vudvord tasnifi bo'yicha texnologiyalar quyidagilarga bo'linadi:

1. Mayda seriyali yoki individual ishlab chiqarish texnologiyalari. Bunda faqat bitta mahsulot yoki bir xildagi mahsulotlarning kichik seriyasi ishlab chiqariladi. Mazkur mahsulotlar oldindan aniqlangan xaridor uchun va uning ixtisoslashuviga mos ravishda ishlab chiqariladi. Masalan, kompyuterlar, tijorat maqsadida foydalaniladigan BOING samolyotlari, harbiy reaktiv samolyotlar.
2. Ommaviy yoki yirik seriyali ishlab chiqarishda qo'llaniladigan texnologiyalar. Yirik seriyali mahsulotlar bu bir xil turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishdir. Mazkur ishlab chiqarish standartlashtirilgan detallarni qo'llash, konveyer asosida yig'ish kabi usullar bilan xarakterlanadi.
3. Uzluksiz ishlab chiqarish bilan bog'liq texnologiyalar. Bunda avtomatlashgan texnik jihozlardan foydalaniladi. Texnologiyalar kunbo'yi to'liq ishlab, katta hajmdagi mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

D. Tompson tasnifi bo'yicha texnologiyalar quyidagilarga bo'linadi:

1. Ko'p bo'g'inli texnologiyalar. Mazkur texnologiyalar ketma-ket bajarilishi lozim bo'lgan o'zaro bog'liq vazifalar seriyasidan iborat. Masalan, avtomobillarni yig'ish muayyan bir tartibda bajariladi.
2. Vositachi texnologiyalar. Bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan guruhlar to'qnashuvi va ish yuzasidan harakatlarining kelishtirilishi bilan xarakterlanadi.
3. Intensiv texnologiyalar. Maxsus ko'nikma va xizmatlar qo'llash bilan xarakterlanadi. Masalan, filmlar montaji.

Ushbu tasniflar o'xshash, faqat birinchisi — firmalardagi ishlab chiqarish bo'yicha, ikkinchisi esa — umuman iqtisodiyotning barcha ishlab chiqarish yo'nalishlarida hisobga olingan.

Texnologiya rivojlanishining asosida texnik taraqqiyot yotadi. Texnik taraqqiyotning ko'plab ta'riflari va tahliliy uslublari mavjud. Texnik taraqqiyotning ma'lum darajada ommabop bo'lgan modelini ingliz iqtisodchisi Jon Xiks ishlab chiqqan. J. Xiksning fikricha texnik taraqqiyot uch guruhga bo'linadi: neytral, mehnat omilini tejovchi va kapitalni tejovchi.

Neytral texnik taraqqiyot — bir vaqtning o'zida mehnat va kapital omillari unumdorligining ortishini ta'minlovchi texnologiyaga asoslangan taraqqiyot. Mazkur texnik taraqqiyot natijasida tovar ishlab chiqarishga sarflanadigan mehnat va kapital qisqartiriladi.

Mehnat omilini tejovchi texnik taraqqiyot — kapital unumdorligining mehnat unumdorligiga nisbatan yuqoriroq samara berishiga asoslangan taraqqiyot. Mazkur texnik taraqqiyot natijasida tovarni ishlab chiqarishga sarflanadigan kapital miqdori nisbatan oshadi, mehnat sarfi esa kapitalning o'zgarmas nisbiy bahosi asosida qisqaradi. Bunda tovarlarni ishlab chiqarishga sarflanishi kerak bo'lgan mehnat va kapitalning umumiy miqdori qisqaradi, ammo kapitalning roli nisbatan yuqori bo'ladi. Mazkur texnik taraqqiyot iqtisodiyotda mehnat bilan bir vaqtning o'zida kapitalni tejashi bilan foydali hisoblanadi.

Kapital omilini tejovchi texnik taraqqiyot — mehnat unumdorligining kapital unumdorligiga nisbatan yuqoriroq samara berishiga asoslangan taraqqiyot.

Savdo aloqalarining mavjud emasligi sharoitida har qanday texnik taraqqiyot mamlakat farovonligini oshirish uchun xizmat qiladi. Texnik taraqqiyot natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarish hajmi oshadi. Texnik taraqqiyotning xalqaro savdoga ta'siri uning talab (iste'mol) va taklifga (ishlab chiqarish) qanday ta'sir etishiga bog'liq.

Texnik taraqqiyot natijasida ishlab chiqarish hajmining ortishi xalqaro savdoga neytral, ijobiy va salbiy ta'sir etishi mumkin. Texnik taraqqiyotning xalqaro savdoga neytral ta'siri savdo hajmining ishlab chiqarish hajmi bilan bir xil sur'atlarda ortishi bilan bog'liq. Texnik taraqqiyotning xalqaro savdoga ijobiy ta'siri savdo hajmining o'sish sur'atlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlaridan oshib ketganda yuz beradi. Bu ta'sir, odatda, o'zgarmas nisbiy baholar sharoitida import o'rnini qoplovchi tovarlarga nisbatan eksport tovarlarni ishlab chiqarish hajmining ortishini bildiradi. Texnik taraqqiyotning xalqaro savdoga salbiy ta'siri ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari savdo hajmining o'sish sur'atlaridan oshib ketganda yuz beradi. Bu ta'sir odatda, o'zgarmas nisbiy baholar sharoitida import o'rnini qoplovchi tovarlar hajmining eksport tovarlarni ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ortishini bildiradi.

Xalqaro savdoda tovarlarning hayotiylik sikli talay mamlakatlarning texnologik yangi tovarlarni ishlab chiqarishga va eksport qilishga moslashayotganida, boshqa mamlakatlarning allaqachon taniqli bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarayotganidan kelib chiqadi. Qator yuqori kapitalga va malakali ishchilarga ega rivojlangan

mamlakatlar texnologik yangi vositalarga ko'proq kapital jalb qilish orqali yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda qiyosiy dinamik (o'zgaruvchanlik) mulkni boshqa mamlakatlardan olish arafasida turibdilar.

Tovarning hayotiylik sikli mahsulotning yaratilishi, o'sishi, yetuklik va tushish fazalari davomiyligining turli shakllardagi uyg'unligini ifoda etadi (29.1.1-rasm).

29.1.1-rasm.
Tovarning hayotiylik sikli fazalari



Tovarning hayotiylik sikli nazariyasi quyidagi holatlardan kelib chiqadi: ba'zi mamlakatlar yangi texnologiyalar asosida tovarlarni ishlab chiqarish va eksport qilishga ixtisoslashadi, boshqalari esa bozorda allaqachon tanilgan tovarlar ishlab chiqaradi. Bu o'rinda tovarning beshta hayotiylik sikli farqlanadi.

Birinchi bosqich yangi mahsulot ishlab chiqarish bosqichi, deb nomlanadi. Yangi mahsulot o'zi ishlab chiqarilgan mamlakatdagina ishlab chiqariladi va iste'mol qilinadi. Odatda, ishlab chiqarish unchalik katta bo'lmagan hajmda amalga oshiriladi va ichki bozordagina sotiladi. Tovar sifati ishlab chiqaruvchi tomonidan bozor talabiga javob beradigan darajaga yetkaziladi.

Ikkinchi bosqich mahsulotning o'sish bosqichi deyiladi. Tovar mukammallashtiriladi, ichki bozorda unga bo'lgan talab oshadi va uni chetga eksport qilish

boshlanadi. Xorijiy raqobat hali yo'q, mamlakat ushbu tovarni ishlab chiqarish va sotishda vaqtincha monopol mavqega ega bo'ladi.

Uchinchi bosqich tovarning yetuklik bosqichi deyiladi. Tovar texnologiyasi shu darajada ishlatilganki, uni keyinchalik faqat ixtiro qilingan mamlakatda ishlab chiqarish noo'rin hisoblanadi. Standartlashgan ishlab chiqarishning bir qismini ishchi kuchi arzon bo'lgan mamlakatlarga ko'chirish samaraliroq hisoblanadi. Boshqa mamlakatlar bu mahsulotni, kashfiyot egasidan olgan litsenziya asosida, o'zining ichki bozori uchun ishlab chiqara boshlaydi.

To'rtinchi bosqich tovar ishlab chiqarishning pasayishi, deb nomlanadi. Ancha arzon ishchi kuchidan imitator (yangi texnologiyani uzlashtiruvchi) mamlakat tovarni nafaqat o'z ichki bozoriga taklif qiladi, balki uni kashfiyot egasi bo'lgan mamlakatga uning mahalliy ishlab chiqaruvchilarini siqib chiqargan holda sotadi. Ixtiro egasi bo'lgan mamlakatda ichki ishlab chiqarish hajmi jadal sur'atlar bilan pasayib ketadi va eksport to'xtatiladi.

Beshinchi bosqich — tovar ichki ishlab chiqarilishining butunlay to'xtash bosqichi. Bu bosqichda yangi texnologiyani o'zlashtiruvchi mamlakatlar ixtiro egasi bo'lgan mamlakatlardan shu darajada oshib ketadiki, natijada ixtiro egasi hisoblangan mamlakat yangi texnologiya litsenzitsiyasini sotib, ichki ishlab chiqarishini butunlay to'xtatib, ichki bozorni xorijdan import qilish hisobiga to'ldirishga majbur bo'ladi. Yangi texnologiya ixtiro qilingan mamlakat hali xorijiy mamlakatlarga ma'lum bo'lmagan yangi turdagi tovar ishlab chiqarishni tashkil etadi.

Innovatsion faoliyatdagi eng muhim masala — yangi texnologiyalarning u yoki bu mamlakat iqtisodiy o'sishiga qo'shgan ulushini aniqlashdir. Texnologik rivojlanish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik neoklassik o'sish modellaridan biri bo'lgan ekzogen texnik rivojlanish modeli orqali isbotlangan. Bu haqda yanada aniq xulosalarni Massachuset texnologiya instituti professori, Nobel mukofoti sovrindori Robert Solou keltirib o'tadi. R. Solou birinchi bo'lib iqtisodiy o'sishning muhim omili kapital emas, balki texnologik rivojlanish ekanligini asoslab berdi. Uning 1909–1957-yillarni qamrab olgan statistik ma'lumotlar asosidagi hisob-kitoblari iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ishchi kuchining ko'payishi va kapital iste'molining ortishi muhim bo'lganligini, ammo ular hal qiluvchi omil emasligini ko'rsatdi. Shuningdek, R. Solou texnologik rivojlanish natijasida qishloq xo'jaligining xususiy sektorida mahsulot ishlab chiqarish 60–70 %ga va mehnat unumdorligi esa 90 %ga o'sganligini keltirib o'tadi.

Nobel mukofoti laureati Yan Tinbergenning AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiyaga oid 1870–1914-yillarni qamrab oluvchi hisob-kitoblari yuqoridagi mamlakatlarning iqtisodiy o'sishida texnik rivojlanishning ulushi — mehnat va kapital kabi omillarga nisbatan sezilarli darajada oz ekanligini ko'rsatdi. Bundan kelib chiqib AQSh bir qator real sektor tarmoqlarida ekstensiv rivojlanishdan intensiv rivojlanish yo'liga o'ta boshladi. Keyinchalik rivojlanishning bu modeli boshqa mamlakatlarga ham tarqala boshladi.

29.2. Texnologiyalarni xalqaro uzatish shakllari va mexanizmlari

Xalqaro texnologik ayirboshlashga inson faoliyatining quyidagi to'rt sohasi keng jalb qilinadi:

- ilm-fan (tabiatni anglashning nazariy qonuniyatlari);
- texnik (tabiatni o'zlashtirish tajribasi);
- ishlab chiqarish (moddiy ne'matlarni yaratish);
- boshqarish (ishlab chiqarish va boshqa masalalarni hal etish bilan bog'liq faoliyat).

Texnologiyani xalqaro uzatish huquqiy himoya bilan kafolatlangan. Jahonning ko'pchilik mamlakatlarida yangi texnologiyalar qator huquqiy dastaklar yordamida himoyalanadi.

Patent — hukumatning mutasaddi organlari tomonidan ixtirochiga beriladigan guvohnoma bo'lib, u ixtirodan foydalanishda monopol huquqni beradi. Patentning amal qilish muddati 15–20 yil bo'lib, u berilgan mamlakat hududida amal qiladi. Patentdan foydalanish huquqini saqlash uchun katta miqdordagi patent to'lovini to'lash talab etiladi.

Litsenziya — texnologiya egasi (litsenziar) tomonidan manfaatdor tomonga (litsenziatga) patent bilan himoyalangan yoki himoyalanmagan texnologiyadan muayyan muddat va ma'lum to'lov evaziga foydalanish uchun beriladigan ruxsatnoma.

Kopirayt (taqdim etish huquqi) — adabiy, audio- va videoasar muallifining o'z ishini ko'rsatish va taqdim etish huquqi.

Tovar belgisi — muayyan tashkilot belgisi bo'lib, undan tovar ishlab chiqaruvchini individuallashtirish uchun foydalaniladi. Tovar belgisidan egasining rasmiy ruxsatisiz boshqa tashkilotlar tomonidan foydalanish man etiladi. Ko'pchilik hollarda tovar belgisi rasm, grafik tasvir, harflar abbreviaturasi, korporatsiya tashkilotchisi yoki egasining ismi shaklida bo'lishi mumkin. Agar tovar eksport qilinsa, tovar belgisi importyor mamlakatda ro'yxatdan o'tishi zarur.

Texnologiyalarni xalqaro uzatish quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

Patent shartnomasi — xalqaro savdo bitimi bo'lib, unga muvofiq patent egasi ixtirodan foydalanish huquqini xaridorga beradi. Odatda, tor doirada ixtisoslashgan kichik firmalar ixtironi ishlab chiqarishga joriy etish imkoniyatiga ega bo'lmaganliklari sababli patentni yirik korporatsiyalarga sotadilar.

Litsenziya shartnomasi — xalqaro savdo bitimi bo'lib, unga muvofiq kashfiyot egasi texnologiyaga bo'lgan egalik huquqini xaridorga muayyan chegara va shartlarda foydalanish uchun beradi.

«Nou-xau» — muayyan yutuqqa erishish imkonini beruvchi texnik tajriba va ishlab chiqarish sirlarini taqdim etish. Ular texnologik, iqtisodiy, ma'muriy va moliyaviy xarakterga ega bo'ladi. «Nou-xau»da oldi-sotdi predmeti bo'lib tijorat ahamiyatiga ega bo'lgan patentlanmagan ixtirolar xizmat qiladi.

Injiniring — xarid qilingan yoki ijaraga olingan mashina va uskunalarni o'rnatish hamda ishlatish uchun zarur bo'lgan texnologik bilimlarni taqdim etish. Injiniring loyihalarning texnik-iqtisodiy asosnomasini tayyorlash, maslahatlar berish, nazorat qilish, loyihalashtirish, tajriba o'tkazish, kafolat davri va kafolat davridan so'ng servis xizmat ko'rsatish kabi kompleks tadbirlarni qamrab oladi.

Xalqaro texnologiyani uzatish uch bosqichda amalga oshiriladi:

- texnologiyani tanlash va sotib olish;
- sotib olingan texnologiyani o'zlashtirish va unga moslashish;
- fan-texnika chegarasida joylashgan texnologiyani takomillashtirish.

Xalqaro texnologiyani uzatishning quyidagi kanallari mavjud:

- tashqi savdo — texnologiyani mashina — uskunalar bilan birgalikda qo'shib uzatish;
- ichki firma kanali — yangi texnologiyani transmilliy korporatsiyalarning filiallari va «qiz» korxonalariga yetkazib berish;
- firmalararo kanal.

Xalqaro texnologiyalar uzatishning asosiy shakllaridan biri litsenzion savdo bo'lib, u litsenzion shartnoma asosida amalga oshiriladi. Litsenzion shartnomada

litsenziya turi (patentli va patentsiz), texnologiyadan foydalanish huquqi, xarakteri va chegarasi (oddiy, istisnolik, to'liq), ishlab chiqarish sohasi va territorial foydalanish chegarasi belgilanadi.

Patentli litsenziya — patentdan foydalanish huquqini «nou-xau»siz taqdim etilganligini tasdiqlovchi hujjat.

Patentsiz litsenziya — ixtironing patentsiz «nou-xau»dan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Istisnosiz litsenziya — litsenziyalarga shu texnologiya ushbu hududda joylashgan boshqa litsenzialarga ham taqdim etish huquqini qoldiruvchi litsenziya.

Istisnoli litsenziya — litsenziatning texnologiyadan foydalanish monopol huquqini mavjudligini hamda litsenziarni ushbu hududda patentlangan texnologiyalar va «nou-xau»lardan mustaqil foydalanish va ularni sotishni rad etilganini nazarda tutuvchi litsenziya.

To'liq litsenziya — shartnoma amal qilishi davrida litsenziarning patent yoki «nou-xau»dan to'liq foydalanish huquqini va litsenziarning ulardan mustaqil foydalanishdan voz kechishini belgilovchi litsenziya.

Litsenzion to'lov — litsenziat tomonidan shartnoma predmetidan foydalanganligi evaziga litsenzialarga to'lanadigan taqdirlov.

Litsenzion taqdirlash hajmi texnologiya narxi ko'rinishida namoyon bo'ladi va litsenziat foydasining bir qismini tashkil etadi. Texnologik jihatdan afzallik yuqori foyda olishni ta'minlaydi. Texnologiyani sotish jarayonida litsenzia yuqori foyda olish huquqini muayyan ulush evaziga sotgan bo'ladi. Foydaning mazkur ulushi litsenzion mukofot bo'lib, uning quyidagi turlari mavjud.

Royalti — shartnomaning amal qilish muddati davrida xaridor daromadidan litsenziyadan foydalanishda oladigan foydasi hajmidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan ajratmalar. Ko'pchilik hollarda royatli litsenziat tomonidan kelishilgan vaqt mobaynida (har yili, har kvartal, har oy) qat'iy belgilangan foiz stavkasi ko'rinishida amalga oshiriladi. Royalti stavkalari, asosan, 3–5 %ni tashkil etadi.

Xalqaro amaliyotda qabul qilingan usul bo'yicha royalti stavkasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$C_R = \sum_{i=1}^{T} V_i \cdot Z_i \cdot R_i,$$

bu yerda: C_R — litsenziya narxi;

V_i — bir yildagi mahsulotning ishlab chiqarilishi yoki sotilishining kutilayotgan hajmi;

Z_i — i-yilda mahsulot birligining narxi;

T — litsenzion kelishuvning amal qilish muddati (yillarda);

R_i — i-yilda royalti stavkasi.

Royalti stavkasi yillar bo'yicha o'zgarib borishi hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi va boshqa omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Bunda har bir yilga alohida maxsus hisoblash dasturi ishlab chiqilishi mumkin va uning umumiy summasi litsenziyaning umumiy narxini ko'rsatadi.

Agar royalti foydaning bir qismi sifatida hisoblansa, quyidagi formuladan foydalanish mumkin;

$$C_R = \sum_{i=1}^{T} B_i \cdot R_i,$$

bu yerda: B_i — litsenziar foydasi.

Litsenziat tomonidan texnologiyalarni yaratish litsenzion shartnomalarda narxlarni belgilashga ta'sir etuvchi muhim omillardan biridir. Texnologiyalarni yaratish ehtimoli qanchalik yuqori bo'lsa, litsenziar tomonidan olinadigan mablag' shunchalik kam bo'ladi. Nazariy jihatdan litsenziat o'zi texnologiya yaratish uchun zarur xarajatlar hajmiga teng bo'lgan mablag'da litsenziya uchun pul to'lashi mumkin.

Litsenziya to'lovlari hajmiga texnologiyalarning hayotiylik muddati va uni uzatish davrida o'z hayot siklining qaysi bosqichida ekanligi; litsenziatga belgilanuvchi cheklovlar xarakteri va soni; uzatilayotgan axborotning huquqiy himoyasi darajasi (uchinchi shaxsda patentlarning mavjudligi uzatilayotgan texnologiyaning qiymatini oshiradi) ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan omillarni baholash qiyinligi, aniq emasligi va yuqori riskligi litsenzion muzokaralarni uzoq muddatli va ko'pxarajat talab etuvchi jarayonga aylantiradi.

Pausha to'lovi — shartnomada qayd etilgan bir marta to'lanadigan to'lov bo'lib, litsenziyadan foydalanish vaqti bilan bog'liq bo'lmay, ekspert baholash asosida oldindan belgilanadi. Bu turdagi to'lovlar, asosan, kompleks asbob-uskunalar yetkazilib berilganda va texnologiya qiymati asbob-uskunalar qiymatiga kiritilganda, litsenziat texnologiyadan foydalanish ustidan nazoratdan xoli bo'lishni xohlagan vaqtda, muttasil amalga oshiriladigan to'lovlarning xorijga o'tkazilishi xavfi tug'ilganda amalga oshiriladi.

Foydada qatnashish — litsenziya predmetidan foydalanish evaziga olingan litsenziat foydasining bir qismini litsenziarga ajratish. Ko'pchilik hollarda litsenziarning litsenziat foydasida qatnashishi 30 %ni (istisnoli litsenziya berilganda) va 10 %ni (istisnosiz litsenziya berilganda) tashkil etadi.

Mulkda qatnashish — litsenziat tomonidan litsenziarga litsenziyadan foydalanganlik uchun o'z korxonalari aksiyalarining bir qismini berishi. Bu to'lov turi TMK lar tomonidan ko'p foydalaniladi. Chunki ular o'z texnologiyalarini ishlatuvchi xorijiy korxonalar mulki ustidan nazorat o'rnatishni xohlaydilar.

Yuqoridagilardan tashqari xalqaro texnologiyani uzatishda muhim shartnoma shaklidan biri — **franchayzingdir.** U inglizchadan ustunlik deb tarjima qilinadi va kommersiya konsepsiyasi shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi. Franchayzingning quyidagi shakllari farqlanadi.

Ishlab chiqarish franchayzingi — muayyan mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasiga ega bo'lgan firmaning mijoz firmaga mazkur mahsulotni muayyan hududda tayyorlash va sotish huquqini beradi.

Tovar franchayzingi — firmaning boshqa firmaga muayyan hududda yetakchi firmaning savdo markasidan foydalanish huquqini beradi.

Xalqaro texnologiyani uzatishning muhim shakllaridan biri **xalqaro texnik hamkorlik** yoki **texnik yordamdir.**

Xalqaro texnik hamkorlik dasturlari rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlariga bozor iqtisodiyoti asoslarini yaratish uchun beriladigan yordam hisoblanadi. Xalqaro texnik hamkorlik dasturlari xalqaro tashkilotlar tomonidan va ikki tomonlama shartnomalar asosida amalga oshirilishi mumkin. Texnik hamkorlik texnik yordam olayotgan mamlakatning texnologik rivojlanish darajasini oshirishga

yo'naltiriladi. Texnik yordamni boshqa xalqaro yordamlardan ajrata bilish kerak. Chunki, boshqa turdagi iqtisodiy yordamlar rivojlangan mamlakatlar tomonidan Osiyo va Afrikaning kambag'al mamlakatlariga oziq-ovqat, ichimlik suvi, yoqilg'i va boshqalar bilan bog'liq muammolarini hal etish uchun byudjetdan moliyalashtiriluvchi mablag'lar shaklida bo'ladi.

Xalqaro texnik hamkorlik — mamlakatlarga qaytarib olish sharti bilan yoki beg'araz asosda texnologik jarayonlar, mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish to'g'risida yordam ko'rsatish. Bu turdagi hamkorlik ishlab chiqarishning har qanday sohasida amalga oshirilishi mumkin. Iqtisodiyot sohasida texnik hamkorlik, asosan, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, statistika, pul va byudjet siyosati, hududlarni rivojlantirish, loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslash kabi yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Texnik yordamning quyidagi tashkiliy turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Texnologik grantlar — rivojlangan mamlakatlar tomonidan texnologiyalar, texnologik sig'imkorligi yuqori tovarlar yoki moliyaviy mablag'larni ilg'or texnologiyalarni sotib olish, personallarni o'qitish va qayta tayyorlash uchun beg'araz uzatishdir. Grantlar donorlar tomonidan texnik yordam loyihalari doirasida texnologiyalar va asbob-uskunalarni yetkazib berish, mutaxassislarni jo'natish va kadrlarni qayta o'qitishni ko'zda tutadi.

Texnik yordamni moliyalashtirish — texnik yordam olayotgan tomonning shartnomaga muvofiq tashkiliy vazifalarni bajarishi bilan birgalikda mazkur loyihani moliyalashtirishda ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Odatda, texnik yordam olayotgan tomonning loyihani moliyalashtirishdagi ulushi kam bo'lsa-da, texnik hamkorlikning bu turidan foydalanish hukumatning texnik yordamdan mamlakatda samarali foydalanishdan manfaatdor ekanligidan dalolat beradi.

Texnik yordam mexanizmlari. Loyihada qatnashayotgan mamlakatlar soniga qarab ikki va ko'p tomonlama texnik yordam turlari bir-biridan farqlanadi.

Ikki tomonlama texnik hamkorlik — donor mamlakat bilan texnik yordam olayotgan mamlakat hukumatlari o'rtasidagi kelishuv bo'yicha amalga oshiriladi.

Ko'p tomonlama texnik hamkorlik — texnik yordam oluvchi mamlakatga bir necha mamlakatlar tomonidan qo'shma loyihalar shaklida texnik yordam ko'rsatish.

BMT ning Taraqqiyot dasturi (UNDP) rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik yordam ko'rsatishni boshlagan birinchi xalqaro tashkilot hisoblanadi. XVF, Jahon banki, IHTT va boshqa xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ham muntazam texnik yordam dasturlarini amalga oshiradilar.

29.3. Xalqaro texnologiyalar bozorining rivojlanish tamoyillari

Xalqaro texnologiyalar bozorini tarkibi va rivojlanish xususiyatlariga ko'ra quyidagi segmentlarga bo'lish mumkin: patentlar va litsenziyalar bozori, fan sig'imkorligi yuqori texnologik mahsulotlar bozori, yuqori texnologik kapitallar bozori va yuqori malakali ilmiy-texnik mutaxassislar bozori.

Texnologik bozorlarning segmentlarida yuz berayotgan savdo munosabatlarining hajmi to'g'risidagi tahlillarga muvofiq XX asrning oxirlariga kelib litsenziyalar bozoridagi oldi-sotdi hajmi 30 mlrd. dollarni, fan sig'imkorligi yuqori texnologik mahsulotlar bozoridagi o'rtacha yillik ko'rsatkich 2,3 trln. dollarni, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar tarkibida yuqori texnologik kapitallar ulushi taxminan 10–20 %ni tashkil etadi. Bashoratlarga muvofiq yuqori texnologik mahsulotlar bozoridagi talab 2015-yilga borib 3,5–4 trln. dollarni tashkil etishi kutilmoqda.

Texnologiyalar bozorining tarmoq tarkibi mamlakatlarning ilmiy-texnik rivojlanish maqsadiga bog'liq ravishda o'zgarib boradi. XX asrning 40–50-yillarida harbiy-texnika tarmoqlari ustuvor darajada rivojlangan bo'lsa, 60–80-yillarga kelib bu maqsad iqtisodiy o'sishni ta'minlash va alohida tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirish vazifalari bilan bog'liq bo'lgan. 90-yillardan boshlab esa ilmiy-texnik rivojlanish sohasidagi siyosatning ustuvorliklari informatsion xizmatlar, tibbiyot, ekologiya va aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan sohalarga qaratildi. Shuning uchun zamonaviy jahon texnologiyalar bozorining tarmoq tarkibini quyidagicha belgilash mumkin: elektrotexnika, elektronika, kimyo, farmatsevtika, aloqa vositalarini ishlab chiqarish, asbobsozlik, aviakosmik uskunalar, avtomobilsozlik va boshqalar.

Jahon texnologiyalar bozorining quyidagi rivojlanish tendensiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- jahon texnologiyalar bozorining jadal rivojlanayotgan bozorlardan biri sifatida tovarlar va kapitallar bozoriga nisbatan yuqori sur'atlarda rivojlanishi;
- jahon texnologiyalar bozorining milliy bozorlarga nisbatan yuqori darajada rivojlanganligi bilan ajralib turishi. Mazkur jarayonda xalqaro korporatsiyalar yetakchi rol o'ynaydi;
- jahon texnologiyalar bozorining ikki pog'onali tarkibga egaligi:
  a) yuqori texnologiyalar, asosan, sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar o'rtasida aylanadi;
  b) o'rta va quyi texnologiyalar rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari bozorlari uchun yangi texnologiya hisoblanishi mumkin. Shu sababli mazkur texnologiyalar yuqoridagi mamlakatlar o'rtasida ayirboshlash predmeti bo'lib hisoblanadi;
- jahon texnologiyalar bozori texnologik resurslarning kam sonli rivojlangan mamlakatlarda konsentratsiyalashganligi bilan tavsiflanadi (AQSh — 40 %, Yaponiya — 30 %, Germaniya — 13 %);
- jahon texnologiyalar bozoridagi asosiy raqobatchi mamlakatlar AQSh va Yaponiya hisoblanadi;
- jahon texnologiyalar bozorida monopollashuv darajasining jahon tovarlar bozoridan ham yuqoriligi. 90-yillarda transmilliy korporatsiyalar ulushi jahon sanoat ishlab chiqarishining 1/3 qismini, tashqi savdoning 1/2 qismini tashkil etgan holda, ushbu ko'rsatkich texnologiyalar bozorining 80 %ni tashkil etadi;
- XX asrning 80-yillaridan boshlab jahon texnologiyalar bozorida transmilliy korporatsiyalarning yetakchilik mavqeyi firmalararo hamkorlik aloqalarida namoyon bo'la boshladi. Mazkur jarayonning yaqqol ifodasini avtomobilsozlik sohasidagi yetakchi mamlakatlar hamkorligini aks ettiruvchi quyidagi jadval orqali kuzatish mumkin (29.3.1-jadval).

Firmalararo hamkorlik venchur kelishuvi, hamkorlikdagi tadqiqotlar, texnologiyalarni ayirboshlash, bevosita kapital qo'yilmalar, texnologiyalarni bir tomonlama uzatish kabi sohalarni o'z ichiga oladi.

- «Yangi iqtisodiyot»ning shakllanishi va rivojlanishi murakkab texnologik mahsulotlar xalqaro savdosining jadallashuvi va jahon bozorlaridagi raqobat kurashining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro savdo tarkibi sezilarli darajada o'zgardi: jahon eksportida tayyor mahsulotlar ulushi ikki baravarga oshgan bo'lsa, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va oziq-ovqatlar ishlab chiqarish 2,4 baravarga, mineral xomashyo va yoqilg'i 3,3 baravarga qisqargan.

29.3.1-jadval
Avtomobil sanoatida xalqaro hamkorlik aloqalarining rivojlanishi

Firma	Hamkorlar
Rover	Xonda, Ford, Folksvagen, Kraysler, Jeneral motors, Suzuki
BMV	Rover — 80 %, Dayxatsu
Ford	Mazda — 25 %, KIA — 10 %, Folksvagen, Kraysler, Jeneral motors, Suzuki, Fiat, Reno, Nissan
Mersedes-Bens	BMV, Mitsubisi, Porshe, Folksvagen
Xonda	Rover — 20 %, Kraysler, DEU, Jeneral motors, Mersedes, Pejo, Mitsubisi
Mazda	KIA — 80 %, Nissan, Isuzu, Fiat, Mersedes, Mitsubisi, Pejo, Porshe, Suzuki
KIA	Dayxastu, Ford, Mazda, Reno
Jeneral motors	Saab — 50 %, Suzuki — 2,5 %, Isuzu — 37,5 %, Kraysler, Fiat, Ford, Mitsubisi, Mazda, Pejo, Volvo
Isuzu	Jeneral motors, DEU, Mitsubisi, Mazda, Pejo, Volvo
Volvo	Reno — 20 %, DEU, Jeneral motors, Isuzu, Mitsubisi, Pejo
Folksvagen	Audi, Seat, Shkoda, Porshe, Mersedes, Rover, Suzuki, Toyota, Nissan, Volvo, Ford
Porshe	Mersedes, Folksvagen
DEU	Jeneral motors, Xonda, Suzuki, Volvo, Nissan
Pejo-Sitroyen	Suzuki, Xonda, Reno, Isuzu, Nissan, Rover, Kraysler, Fiat, Dayxastu, Volvo
Toyota	Dayxastu — 14,7 %, Jeneral motors, Folksvagen, Nissan, Ford, Reno
Mitsubisi	Mazda, Suzuki, Jeneral motors, Mersedes, Kraysler, Xonda, Isuzu
Fiat	Pejo, Kraysler, Ford, Nissan, Mazda, Jeneral motors
Nissan	DEU, Ford, Mazda, Fiat, Jeneral motors, Toyota
Kraysler	Fiat, Ford, Jeneral motors, Xonda, Mitsibusi, Pejo

Manba: Пузакова Е. П. *Мировая экономика и международные экономические отношения.* — Ростов-на-Дону.: Феникс, 2004.

JST ma'lumotlariga ko'ra 2013-yilda tayyor mahsulotlarning jahon eksportidagi ulushi 41,4 %ni tashkil etdi. Mazkur o'zgarish, asosan, mashina, asbob-uskunalar va transport vositalari hisobiga sodir bo'ldi.

«Yuqori texnologiyalar» atamasi ilgari ITTKI xarajatlari yuqori sanoat tarmoqlariga nisbatan qo'llanilgan bo'lsa, hozirda bu atama kengroq talqin etiladi. Yuqori texnologiyalar zamonaviy iqtisodiyot tarmoqlarining texnologik bazasi sifatida amal qiladi. Shuning uchun yuqori texnologik tarmoqlarga, odatda, mashinasozlikning quyidagi tarmoqlari kiritiladi — elektron hisoblash texnikasini ishlab chiqarish, aviatsiya va aerokosmik texnika, sanoat robotlari va ishlab chiqarishni kompleks avtomatlashtirish vositalari, radioaloqa vositalari, radiolokatsiya va radionavigatsiya, murakkab uy-ro'zg'or buyumlari, asbobsozlik. Mazkur tarmoqlarga farmatsevtika sanoati, kimyo va atom sanoati kabilar kiradi.

Yuqori texnologik mahsulotlar bozorida iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar yetakchi mavqega ega. Jumladan, 2013-yilda aviatsiya va aerokosmik texnika mahsulotlari (Germaniya — 24,5 %), elektron hisoblash texnikasi (AQSh — 18,1 %, Buyuk Britaniya — 5,3 %), telekommunikatsiya mahsulotlari (AQSh — 7,5 %), tibbiyot va farmatsevtika sanoati mahsulotlari (Belgiya — 11,9 %), maxsus sanoat asbob-uskunalari (Yaponiya — 15,4 %, Germaniya — 14,5 %, Italiya — 7,0 %) eksportida rivojlangan mamlakatlar yetakchilik mavqega ega bo'lishgan. Bu sohaning ba'zi yo'nalishlarida (masalan, optika

asbob-uskunalari) Xitoy (36,6 %) va Janubiy Koreya (24,7 %) rivojlangan mamlakatlarga raqobatchilik qilmoqda[1].

29.3.2-jadval
Jahon qayta ishlash sanoati mahsulotlari eksporti tarkibining o'zgarishi (jamiga nisbatan foiz hisobida)

Tovarlar	1990-y.	2000-y.	2010-y.	2013-y.
Qayta ishlash sanoati mahsulotlari, jami	100	100	100	100
Qora metallar	4,4	3,1	4,2	3,8
Kimyo mahsulotlari	12,3	12,4	17,1	16,9
Boshqa yarimfabrikatlar	11,1	9,7	9,4	9,7
Mashina, asbob-uskunalar va transport vositalari	50,8	55,4	51,0	50,1
shundan:				
• avtomobilsozlik mahsulotlari	13,3	12,3	17,0	14,8
• ofis va telekommunikatsion asbob-uskunalar	12,5	20,3	16,1	11,4
• boshqa turdagi mashina va transport vositalari	25,0	22,8	17,9	23,9
To'qimachilik mahsulotlari	4,4	3,3	2,5	2,6
Kiyim-kechak	4,5	4,3	3,5	3,9
Boshqa turdagi iste'mol tovarlari	12,5	11,8	12,3	13,0

Manba: International Trade Statistics. WTO 2014. Geneva, 2014-yil ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Jahon yuqori texnologiyalar harakati bilan bog'liq xizmatlar savdosida ham mamlakatlar o'rni taxminan yuqori texnologik mahsulotlar bozoridagi kabi ko'rinishga ega. JST ma'lumotlariga ko'ra, 2013-yilda jahon royalti va litsenzion to'lovlarning 43,1 % AQSh, 34,3 % Yel-28 va 11,1 % Yaponiya hissasiga to'g'ri kelgan (29.3.3-jadval).

29.3.3-jadval
Jahon royalti va litsenzion to'lovlari tarkibi

	Hajmi, mlrd. doll.	Jahon xizmatlar eksportidagi ulushi, %		O'tgan yillarga nisbatan o'zgarish, %		
	2013-y.	2005-y.	2013-y.	2005–2013-yy.	2012-y.	2013-y.
Jahon bo'yicha	310	100	100	9	1	6
shu jumladan:						
Yevropa	130,0	36,5	42,0	11	-3	9
Yel-28	108,0	...	34,3	11	-6	4
Osiyo	42	14,0	13,6	8	8	0
Yaponiya	31,6	...	11,1	13	4	...
Shimoliy Amerika	134,0	48,4	43,2	7	3	5
AQSh	127,8	...	43,1	8	3	3
Janubiy va Markaziy Amerika	1,0	0,4	0,4	8	1	-2
Afrika	0	0	0,2	0,1	7	26

Manba: International Trade Statistics 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 136.

1 UNCTAD Handbook of Statistics 2014. New York and Geneva, 2014. P. 155, 171.

Yuqori texnologik mahsulotlar bozorida yetakchilik qilayotgan mamlakatlar tajribasi texnologik yetakchilik bilan bog'liq qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi:

Birinchi qonuniyat — ilm-fan va innovatsion yangiliklarning mamlakat raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash instrumenti va zamonaviy bilimlarga asoslangan yangi tipdagi jamiyatning bazaviy elementi sifatida baholanishi. Innovatsion tizim faoliyatini ta'minlash rivojlangan mamlakatlarning yuqori texnologik mahsulotlar bilan savdo qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa yalpi ichki mahsulotning 1,6 %dan (Kanada) 3,7 %gacha (Shvetsiya). yangi bilimlar va texnologiyalarni yaratish uchun katta hajmdagi mablag'lar sarflashni taqozo etadi.

Ikkinchi qonuniyat — korporativ tadqiqotlar va ishlanmalarning muhim iqtisodiy ahamiyatga egaligi. Kompaniyalarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining rivojlanishi ilmiy yangiliklar va yangi texnik imkoniyatlarni yaratadi. XX asrning oxirlarida rivojlangan mamlakatlarda innovatsion rivojlanishga sarflangan umummilliy xarajatlarning aksariyat qismi tadbirkorlik sektori tomonidan moliyalashtirilgan. Bu ko'rsatkich Fransiyada — 61, Buyuk Britaniyada — 65, Germaniyada — 68, Yaponiyada — 72, AQSh da — 74, Shvetsiyada — 75 %ni tashkil etgan.

Korporativ tadqiqotlar, asosan, yuqori texnologik tarmoqlarda olib boriladi. XX asrning 90-yillarida AQSh da innovatsion rivojlanish xarajatlari hajmi bo'yicha xizmatlar sohasi, asosan, informatsion texnologiyalar (23 %), avtomobilsozlik (11 %) va aerokosmik sanoat (10 %), Yevropa Ittifoqida elektrotexnika (15 %), avtomobilsozlik (13 %) va xizmatlar (11 %), Yaponida elektronika (18 %dan yuqori) va elektrotexnika (11 %) sohalari yetakchi mavqega ega bo'ldi.

Uchinchi qonuniyat — zamonaviy bilimlarni jamg'arish — kumulyativ jarayon hisoblanadi. Ilm-fan va maorifga sarflanayotgan mablag'lar barqaror va uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lsagina samara beradi. Mazkur sohani moliyalashtirish biron bosqichda to'xtab qolsa, uni keyinchalik ko'paytirish o'zini oqlamaydi. Davlatning ilmiy-texnik siyosatini moliyalashtirishdagi asosiy manba byudjet mablag'lari hisoblanadi. Mazkur manbadan ilmiy xarajatlar 1/5 dan 1/2 qismigacha moliyalashtiriladi. Tahlillar ko'rsatishcha, AQSh va Yaponiyada ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik xarajatlari YaIM ga nisbatan o'rtacha 3,0 %ni moliyalashtiradi (29.3.4-jadval).

29.3.4-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda ITTKI xarajatlarining moliyaviy ta'minoti, YaIM ga nisbatan foiz hisobida

Yillar	AQSh	Yaponiya	Germaniya	Fransiya	Buyuk Britaniya	Italiya	Kanada
1985	22,8	2,6	2,7	2,3	2,3	1,1	1,4
1990	2,7	2,9	2,8	2,4	2,2	1,3	1,5
1995	2,6	2,7	2,5	2,4	2,2	1,3	1,5
2000	2,8	2,9	2,7	2,4	2,3	1,7	1,6
2015	3,0	3,0	2,9	2,6	2,5	2,3	1,9

Manba: Иванова Н. Инновационная сфера: контуры будущего. //Мировая экономика и международные отношения, №8, 2000. С. 54.

XX asr oxiriga kelib jahon texnologik bozorlarining rivojlanish darajasi va dinamikasi mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatini belgilab beruvchi asosiy omil innovatsion sohaning ilmiy ishlab chiqarishga asoslangan tarmoqlari hamda kompaniyalari ekanligi yaqqol namoyon bo'la boshladi. Texnik taraqqiyot rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishning miqyosi va tarkibinigina o'zgartirib qolmay, balki aholi turmush darajasi, kishilarning o'zaro va tashqi dunyoga bo'lgan munosabatlariga ham sezilarli ta'sir o'tkazdi.

29.4. Xalqaro texnologiyalar savdosini tartibga solish usullari

Jahon bozorida texnologiyalar harakatini tartibga solish zaruriyati jahon xo'jaligining globallashuv jarayoni bilan bog'liq. Xalqaro texnologiyalar savdosini tartibga solish xalqaro va milliy darajada amalga oshiriladi. Ixtirolar, yangi sanoat mahsulotlari va tovar belgilari bilan bog'liq huquqlarni himoya qilish xalqaro tartibga solish predmeti hisoblanadi. Bu sohadagi asosiy kelishuv Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij Konvensiyasi hujjatlarida aks ettirilgan.

Parij Konvensiyasi o'z oldiga ixtirolar, yangi sanoat mahsulotlari, tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish masalalari bo'yicha imtiyozlar berishni maqsad qilib qo'ygan.

Konvensiyaning asosiy qoidalari quyidagilar:

- milliy rejim;
- konvension huquqlarga ustuvorlik berish;
- patent orqali berilgan huquqlarning buzilish holatlarining oldini olish.

Milliy rejim a'zo mamlakatlarning fuqarolari va firmalariga ham mulk huquqini himoya qilish imkonini beradi. Shuningdek, Parij ittifoqiga a'zo bo'lmagan mamlakatlar fuqarolariga ham himoya ta'minlanadi.

Konvension huquqlarga ustuvorlik berish a'zo mamlakat tomonidan berilgan ariza asosida bir yil davomida mavjud ustuvorlikdan foydalanish imkonini beradi. Konvension huquqlarga ustuvorlik berish ixtirolarni mazkur mamlakatda ham patentlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Patent orqali berilgan huquqlarning buzilish holatlarining oldini olish qoidasiga muvofiq patent egasi mazkur ixtirodan foydalanish yoki boshqalarga ixtironi qo'llashni man etishi mumkin.

Xalqaro texnologiyalar savdosini tartibga solish bilan shug'ullanuvchi navbatdagi tashkilot Yevropa patent tashkiloti hisoblanadi (European Patent Organization, YePT). YePT 1973-yilda imzolangan va 1977-yilda ratifikatsiya qilingan Yevropa patentlarini berish to'g'risidagi Konvensiya asosida tashkil etilgan. Yevropa patent tashkiloti Germaniyaning Myunxen shahrida, bo'limlari Gaagada (Gollandiya) va byurosi Vena (Avstriya) va Berlinda (Germaniya) joylashgan.

YePTning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Yevropa patentlarini berish;
- Yevropa davlatlari o'rtasida ixtirolarni himoya qilish sohasida hamkorlikni kengaytirish;
- patentlarni berishning yagona tartibini joriy etish orqali patent himoyasini kuchaytirish.

YePT quyidagi tarkibga ega: Yevropa patent muassasasi; Ma'muriy kengash.

YePT o'zaro kelishayotgan davlatlarning badallari va o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Patentni rasmiylashtirish jarayoni uch bosqichdan iborat:

1) Gaaga, Berlin: ariza berish, uni tekshirish, patentni izlash, ariza va patent natijalarini e'lon qilish;

2) Myunxen: ekspertiza — patentni berish yoki rad etish;
3) Myunxen: uchinchi tomonning patent berishga qarshilik bildirishi, norozilik xatini berish, uni tekshirish va oxirgi qarorni chiqarish.

YePT Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. YePT rivojlanayotgan mamlakatlarda patent tizimini shakllantirish va takomillashtirish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatadi.

Jahon intellektual mulk tashkiloti (World Intellectual Property Organization, WIPO) 1970-yilda tashkil etilgan. WIPO BMT ning ixtisoslashgan tashkilotlari tizimiga kiradi. Shtab kvartirasi Jenevada (Shveysariya) joylashgan. Intellektual mulk quyidagi ikki sohani qamrab oladi:

- sanoat mulki — asosan, ixtirolar, tovar belgilari, sanoat namunalari va modellariga taalluqli;
- mualliflik huquqi — asosan, adabiy, badiiy, musiqiy, fotografiya, kinematografiya va audiovizual asarlarga tegishli.

WIPO turli sohalarda tashkil etilgan ittifoqlar va shartnomalarni boshqarish bilan shug'ullanadi.

Sanoat mulkini muhofaza etish sohasida:

Sanoat mulkini muhofaza etish bo'yicha Parij Konvensiyasi, 1883;

Madrid kelishuvi (tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi manbalar to'g'risidagi ma'lumotlarning yolg'onligiga qarshi kurash haqida), 1883;

Madrid ittifoqi (tovar belgilarini xalqaro ro'xatdan o'tkazish), 1891;

Gaaga ittifoqi (sanoat namunalari yoki modellarini xalqaro jamg'arish), 1925;

Nitssa ittifoqi (tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish uchun tovarlar va xizmatlarni xalqaro tasnif), 1957;

Lissabon ittifoqi (tovarlarning kelib chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlarni himoya qilish va ularni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish), 1958;

Lokarn ittifoqi (sanoat namunalari yoki modellarini xalqaro tasnif), 1968;

Patent kooperatsiyasi to'g'risidagi shartnoma (ixtirolar bo'yicha ariza berish va ekspertizadan o'tkazish), 1970;

Xalqaro patent tasnifi ittifoqi, 1971;

Vena ittifoqi (tovar belgilarini xalqaro ro'yxatdan o'tkazish), 1973;

Budapesht ittifoqi (mikroorganizmlarni patentlash uchun xalqaro tan olish jarayoni), 1977;

Nayrobi shartnomasi (olimpiya simvollarini himoyalash to'g'risida), 1981.

Mualliflik huquqi va u bilan bog'liq sohalarda:

Bern ittifoqi (adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi), 1886;

Rim Konvensiyasi (artistlar, fonogramma ishlab chiqaruvchilar va radio eshittirishlarini olib boruvchi tashkilotlar huquqlarini himoyalash to'g'risida), 1961;

Jeneva Konvensiyasi (fonogrammalar ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoyalash to'g'risida), 1971;

Bryussel Konvensiyasi (sun'iy yo'ldoshlar orqali uzatiladigan dasturlarni tarqatish to'g'risida), 1974.

Boshqa sohalarda:

Filmlarni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida shartnoma (audiovizual asarlarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida), 1989.

WIPO ning vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlatlararo va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik vositasida dunyoda intellektual mulk huquqini muhofaza etish;

- ittifoqlar o'rtasida intellektual mulk sohasida ma'muriy hamkorlikni kengaytirish;
- intellektual mulk sohasida milliy qonunchilikni takomillashtirish borasida yangi xalqaro shartnomalar tuzish;
- rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik yordam ko'rsatish;
- axborotlar yig'ish, tarqatish va boshqalar.

WIPO ga Parij, Bern ittifoqlariga, BMT, MAGATE ning ixtisoslashgan muassasalaridan biriga a'zo bo'lgan har qanday davlat a'zo bo'lishi mumkin.

Yangi texnologiyalarni yaratishdan maqsad mazkur texnologiya asosida yaratilgan mahsulot bilan jahon bozoriga kirib borish va raqobatchilarni sindirish hisoblanadi. Xalqaro texnologiyalarni uzatishda boshqa ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati yo'lidagi singari to'siqlar mavjud. Jahon bozoridagi raqobat kurashida texnologiya muhim ahamiyatga egaligi tufayli har bir mamlakat yangi texnologiyani mamlakatdan tashqariga chiqarishni taqiqlashi yoki chegaralashi mumkin. Ko'pchilik mamlakatlar esa xorijiy raqobatni cheklash va ish o'rinlarini saqlab qolish maqsadida texnologiyalar importini cheklaydi. Shuningdek, milliy texnik standartlar ham xorijiy texnologiya bilan mos kelmasligi mumkin.

Xalqaro texnologiyalarni uzatishni davlat tomonidan tartibga solish yoki nazorat qilishning quyidagi sabablari mavjud.

Texnologik ustunlikni saqlab qolishga intilish. Ilg'or texnologiyani mamlakatdan olib chiqib ketishni davlat tomonidan cheklash siyosati texnologik ustunlik nazariyasiga asoslanadi. U yoki bu sohada texnologik ustunlikka ega mamlakat boshqa mamlakatlar oldida texnologik sig'imkorligi yuqori mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha ustunlikka ega bo'ladi. Ammo texnologik ustunlik doimiy iqtisodiy ustunlikni ta'minlab bera olmaydi. Texnologik ustunlik kutilgan daromadni ta'minlab berar ekan ishchi kuchi, patentlar va litsenziyalarni saqlab turish, kashfiyotlarni xorijda patentlash uchun katta xarajatlarni talab etadi. Texnologik ustunlikka intilmayotgan mamlakatlar esa tayyor texnologiyani yoki yangi texnologiya yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotni qalbakilashtirishi mumkin.

Milliy xavfsizlikni ta'minlash. Xalqaro texnologiyalarni uzatishni davlat tomonidan nazorat qilishdan ko'zlangan yana bir maqsad qurol-yarog' ishlab chiqarish bilan bog'liq va «ikki tomonlama» mo'ljallangan yuqori texnologiyalarning bir-biriga nisbatan dushmanlik siyosatini olib borayotgan mamlakatlarga yetib borishining oldini olish hisoblanadi. Misol sifatida, NATO doirasida XX asr 80-yillarining oxiriga qadar amalda bo'lgan texnologiyalarni sobiq sotsialistik mamlakatlarga eksport qilishni nazorat qiluvchi Koordinatsion qo'mitasi (KOKOM) faoliyatini keltirish mumkin.

Xalqaro shartnomalarda belgilangan shartlarga rioya etish. Ko'p tomonlama kelishuvlarda ishtirok etayotgan mamlakatlar kimyoviy, biologik, bakteriologik qurollarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan texnologiyalar savdosi bo'yicha davlat nazorat tizimini joriy etishadi. Bu turdagi qurollarni ishlab chiqarish umuman ta'qiqlangan yoki bu faoliyat xalqaro miqyosda qattiq nazorat qilinadi. Xalqaro kelishuvlarga muvofiq tinchlik yo'liga xizmat qiluvchi materiallar, asbob-uskunalar yaratish uchun qo'llanuvchi, ammo ommaviy qirg'in qurollarini ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin bo'lgan texnologiyalar va ilmiy-texnik axborotlarni chetga chiqarish davlat tomonidan nazorat qilinadi.

Xalqaro texnologiyalarni uzatishni tartibga solish mexanizmlari. Davlat tomonidan texnologiyalarni olib kirish va chetga chiqarishni tartibga solish eksportni nazorat qiluvchi organlar, bojxona usullari va chegara nazoratida amalga

oshiriladi. Ko'pchilik mamlakatlarda texnologiyalarni uzatishni bilvosita tartibga solish patentlar va savdo belgilarini davlat tomonidan ro'yxatga olish tizimi orqali olib boriladi. Ba'zi hollarda texnologik sig'imkorligi yuqori tovarlarni eksport qilish huquqini olishda hukumatning maxsus ruxsatnomasi talab etiladi. Xalqaro texnologiyalarni uzatishni tartibga soluvchi qonunchilikning buzilishi davlat ahamiyatiga molik jinoyat deb baholanadi va qonunbuzarlar jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ko'pchilik mamlakatlarda bu holat sodir etilganda xorijiy rezidentga nisbatan qat'iy choralar ko'riladi (jinoiy javobgarlikka tortiladi).

Xorijiy texnologiyalarni import qiluvchi mamlakatlar texnologiyalarni olib kirishning qonuniyligini nazorat qiladi va jamiyat uchun xavfli texnologiya turlarining kirib kelishini ta'qiqlaydi. Ko'pincha mamlakatning umumiy texnologik rivojlanish darajasi ilg'or texnologiyalarning mamlakatga kirib kelishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Mamlakatlar o'rtasidagi ijtimoiy-madaniy va aholining ma'lumotliligi borasidagi farqlarning mavjudligi kam taraqqiy etgan mamlakatlardagi ishchilarning yangi texnologiyalarni egallash va ishlab chiqarishda qo'llash imkonini bermaydi. Bu esa texnologiyalarning xalqaro harakati yo'lida jiddiy to'sqinlik qilishi mumkin. Odatda, qurol-yarog', kimyoviy mahsulotlar, narkotiklar, spirtli ichimlik ishlab chiqarish bilan bog'liq texnologiyalarni mamlakatga olib kirish davlat tomonidan nazorat qilinadi.

Asosiy tushunchalar

Texnologiyani xalqaro uzatish — tijorat yoki beg'araz asosda ilmiy-texnika yutuqlarining davlatlararo harakati.

Neytral texnik taraqqiyot — bir vaqtning o'zida mehnat va kapital omillari unumdorligining ortishini ta'minlovchi texnologiyaga asoslangan taraqqiyot.

Mehnat omilini tejovchi texnik taraqqiyot — kapital unumdorligining mehnat unumdorligiga nisbatan yuqoriroq samara berishiga asoslangan taraqqiyot.

Kapital omilini tejovchi texnik taraqqiyot — mehnat unumdorligining kapital unumdorligiga nisbatan yuqoriroq samara berishiga asoslangan taraqqiyot.

Patent — hukumatning mutasaddi organlari tomonidan ixtirochiga beriladigan guvohnoma bo'lib, u ixtirodan foydalanishda monopol huquqni beradi.

Litsenziya — texnologiya egasi (litsenziar) tomonidan manfaatdor tomonga (litsenziatga) patent bilan himoyalangan yoki himoyalanmagan texnologiyadan muayyan muddat va to'lov evaziga foydalanish uchun beriladigan ruxsatnoma.

Kopirayt (taqdim etish huquqi) — adabiy, audio- va videoasar muallifining o'z ishini ko'rsatish va taqdim etish huquqi.

Tovar belgisi — muayyan tashkilot belgisi bo'lib, undan tovar ishlab chiqaruvchini individuallashtirish uchun foydalaniladi.

Patent shartnomasi — xalqaro savdo bitimi bo'lib, unga muvofiq patent egasi ixtirodan foydalanish huquqini xaridorga beradi.

Litsenziya shartnomasi — xalqaro savdo bitimi bo'lib, unga muvofiq kashfiyot egasi texnologiyaga bo'lgan egalik huquqini xaridorga muayyan chegara va shartlarda foydalanish uchun beradi.

«Nou-xau» — muayyan yutuqqa erishish imkonini beruvchi texnik tajriba va ishlab chiqarish sirlarini taqdim etish.

Injiniring — xarid qilingan yoki ijaraga olingan mashina va uskunalarni montaj qilish hamda ishlatish uchun zarur bo'lgan texnologik bilimlarni taqdim etish.

Patentli litsenziya — patentdan foydalanish huquqining «nou-xau»siz taqdim etilganligini tasdiqlovchi hujjat.

Patentsiz litsenziya — ixtironing patentsiz «nou-xau»dan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Istisnosiz litsenziya — litsenziyalarga ushbu texnologiya ushbu hududda joylashgan boshqa litsenziatlarga taqdim etish huquqini qoldiruvchi litsenziya.

Istisnoli litsenziya — litsenziatning texnologiyadan foydalanish monopol huquqi mavjudligini va litsenziarning ushbu hududda patentlangan texnologiyalar, «nou-xau»lardan mustaqil foydalanish va ularni sotishni rad etganini nazarda tutuvchi litsenziya.

To'liq litsenziya — shartnoma amal qilishi davrida litsenziarning patent yoki «nou-xau»dan to'liq foydalanish huquqini va litsenziarning ulardan mustaqil foydalanishdan voz kechishini belgilovchi litsenziya.

Litsenzion to'lov — litsenziat tomonidan shartnoma predmetidan foydalanganligi evaziga litsenziarlarga to'lanadigan to'lov.

Royalti — shartnomaning amal qilish muddati davrida xaridor daromadidan litsenziyadan foydalanishda oladigan foydasi hajmidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan ajratmalar.

Pausha to'lovi — shartnomada qayd etilgan bir marta to'lanadigan to'lov bo'lib, litsenziyadan foydalanish vaqti bilan bog'liq bo'lmay, ekspert baholash asosida oldindan belgilanadi.

Foydada qatnashish — litsenziya predmetidan foydalanish evaziga olingan litsenziat foydasining bir qismini litsenziarga ajratish.

Mulkda qatnashish — litsenziat tomonidan litsenziarga litsenziyadan foydalanganlik uchun o'z korxonalari aksiyalarining bir qismini berishi.

Ishlab chiqarish franchayzingi — muayyan mahsulotni tayyorlash texnologiyasiga ega bo'lgan firmaning mijoz firmaga mazkur mahsulotni muayyan hududda tayyorlash va sotish huquqini beradi.

Tovar franchayzingi — firmaning boshqa firmaga muayyan hududda yetakchi firmaning savdo markasidan foydalanish huquqini beradi.

Xalqaro texnik hamkorlik — mamlakatlarga qaytarib olish sharti bilan yoki beg'araz asosda texnologik jarayonlar, mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish to'g'risida yordam ko'rsatishdir.

Texnologik grantlar — rivojlangan mamlakatlar tomonidan texnologiyalar, texnologik sig'imkorligi yuqori tovarlar yoki moliyaviy mablag'larni ilg'or texnologiyalarni sotib olish, personallarni o'qitish va qayta tayyorlash uchun beg'araz uzatish.

Texnik yordamni moliyalashtirish — texnik yordam olayotgan tomonning shartnomaga muvofiq tashkiliy vazifalarni bajarishi bilan birgalikda mazkur loyihani moliyalashtirishda ishtirok etishini nazarda tutadi.

Texnik yordam mexanizmlari. Loyihada qatnashayotgan mamlakatlar soniga qarab ikki va ko'p tomonlama texnik yordam turlari bir-biridan farqlanadi.

Ikki tomonlama texnik hamkorlik — donor mamlakat bilan texnik yordam olayotgan mamlakat hukumatlari o'rtasidagi kelishuv bo'yicha amalga oshiriladi.

Ko'p tomonlama texnik hamkorlik — texnik yordam oluvchi mamlakatga bir necha mamlakatlar tomonidan qo'shma loyihalar shaklida texnik yordam ko'rsatish.

Nazorat savollari

1. Qaysi hollarda texnologiya ishlab chiqarish omili sanalishi mumkin?
2. Texnologiyalarni xalqaro uzatish nima va u qanday shakllarda amalga oshiriladi?
3. Texnik taraqqiyotning neytral, mehnatni tejovchi va kapitalni tejovchi turlarining farqlari nimalardan iborat?

4. Iqtisodiy o'sish va texnologik rivojlanish o'rtasida qanday o'zaro bog'liqliklar mavjud?
5. Texnologiyalaring huquqiy himoya qilish mexnizmlari qanday va ular qanday shakllarda xalqaro uzatiladi?
6. Litsenzion kelishuvlarning iqtisodiy shartlari nimalarda aks etadi?
7. Xalqaro texnik yordamning qanday shakllari mavjud?
8. Xalqaro texnologiyalar bozorining rivojlanish tamoyillarini aniqlang.
9. Jahon texnologiyalar bozorining rivojlanishi qanday xususiyatlarga ega?
10. Yuqori texnologik mahsulotlar bozorida texnologik jihatdan yetakchilik qilayotgan mamlakatlar bilan bog'liq qonuniyatlarni aniqlang.
11. Texnologiyalar savdosini xalqaro tartibga solish bilan shug'ullanuvchi qaysi xalqaro tashkilotlarni bilasiz?
12. Texnologiyalarni uzatishni davlat tomonidan tartibga solish zaruriyati va sabablari nimadan iborat?
13. Texnologiyalarni xalqaro uzatishni tartibga solish dastaklari va amal qilish mexanizmini tushuntirib bering.

VIII BO‘LIM.
OCHIQ IQTISODIYOT

30-BOB. TO‘LOV BALANSI, TASHQI QARZ VA OLTIN-VALYUTA ZAXIRALARI

30.1. To‘lov balansi

To‘lov balansi — bu mamlakatning ma’lum bir vaqt mobaynida (oy, kvartal yoki yil) boshqa mamlakatlar bilan olib borgan iqtisodiy operatsiyalarini o‘zida aks ettiruvchi statistik tizim. Albatta, bu ta’rifda institutsional birliklar o‘rtasida haqiqatda amalga oshirilgan operatsiyalar tushuniladi. To‘lov balansida mamlakatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi harakati, diplomatik va boshqa vakolatxonalarni ushlab turish, turizm, xalqaro forumlar, madaniy aloqalar, sport musobaqalari bilan bog‘liq to‘lovlar aks ettiriladi.

30.1.1-rasm.
TO‘LOV BALANSI

To‘lov balansi — bu milliy va jahon xo‘jaligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar xarakteri, tarkibi va miqyosini muayyan muddat uchun qiymat shaklida umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar tizimi.

Elementlari

- mamlakat va qolgan mamlakatlar o‘rtasidagi tovarlar, xizmatlar va daromadlar bilan bog‘liq operatsiyalarni aks ettirish;
- mamlakatga tegishli mulkchilikning almashishi va monetar oltin, qarz berishning maxsus qoidasi (SDR) hamda boshqa mamlakatlarga nisbatan moliyaviy talab va majburiyatlardagi boshqa o‘zgarishlarni aks ettirish;
- bir tomonlama o‘tkazmalar va qoplovchi (o‘zaro to‘lovlar amalga oshirilmaganligi bois buxgalteriya nuqtai nazaridan balanslashtirish ma’nosida muhim bo‘lgan) yozuvlarni aks ettirish.

Muammolar

- hisobga olinishi lozim bo‘lgan mamlakat iqtisodiy hududini aniqlash;
- rezident va norezidentlarni aniqlash;
- xalqaro operatsiyalarni aniqlash;
- xalqaro operatsiyalarni amalga oshirish narxini hisobga olish;
- xalqaro operatsiyalarni amalga oshirish vaqtini qayd etish.

To'lov balansi tushunchasi ilk marotaba 1767-yili merkantilizm maktabi vakillaridan biri Dj. Styuart tomonidan qo'llanilgan. To'lov balansi birinchi marta 1923-yili AQSh Savdo vazirligi tomonidan nashr etilgan. Ushbu balansda barcha operatsiyalar uch guruhga bo'lingan bo'lib, ular joriy va kapital operatsiyalar, oltin va kumush bilan bog'liq operatsiyalarni qamrab olgan.

To'lov balansi XVF ning to'lov balansini tuzish bo'yicha 1993-yilda ishlab chiqilgan Uslubiy yo'riqnomasining 5-nashri talablariga muvofiq statistik hisobot shaklida tuziladi. 2000-yilda XVF bu yo'riqnomaga qo'shimcha ravishda «Moliyaviy hosilalar»ni nashr etdi.

Ushbu yo'riqnomaga muvofiq to'lov balansida mamlakatning faqat to'lov va tushumlarigina emas, balki mamlakatdan chetga chiqarilgan va mamlakatga xorijdan olib kirilgan tovarlar, xizmatlar, kapital aks ettiriladi. Agar mamlakatga olib kirilgan tovar uchun to'lovlar to'lov balansi tuzilgan vaqtda (oy, kvartal, yil) amalga oshirilmasa, yetkazib berilgan tovar qiymati mamlakatning pulli majburiyati hisoblanadi. Bu to'lovlar boshqa vaqtda amalga oshiriladi. Shu tariqa to'lov balansida nafaqat haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar va tushumlar, balki kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan xalqaro majburiyatlar va talablar ham aks etadi.

Statistik to'lov balansidan (muayyan vaqt oralig'i uchun tuzilgan) tashqari muayyan sana uchun tuzilgan to'lov balansi ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu to'lov balansi mamlakatning muayyan sanada to'lanishi lozim bo'lgan pulli majburiyatlari va talablari o'rtasidagi nisbatni aks ettiradi. U xorijiy valyutaga bo'lgan haqiqiy talab va taklifni belgilaydi hamda valyuta kursining shakllanishida asosiy omil hisoblanadi. Muayyan sanaga tuzilgan to'lov balansi bozor iqtisodiyoti sharoitida tuzilishi mumkin emas.

XVF to'lov balansini tahliliy va statistik variantlarda nashr etadi. Ular bir-biridan moddalarining joylashuvi bo'yicha farq qiladi. Standart to'lov balansi tahliliy variantga qaraganda to'liqroqdir.

Tahliliy variantdagi to'lov balansi quyidagi tarkibga ega.

A. Joriy schyot — joriy operatsiyalar balansi. Bu schyot savdo balansini o'z ichiga olib, unda FOB narxlarida hisoblangan eksport/import hajmi, tashqi savdo bilan bog'liq xizmatlar balansi, turizm bo'yicha to'lovlar, shaxslarning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan pul o'tkazmalari hamda investitsiyalari bo'yicha daromadlarini aks ettiradi.

B. Kapital schyot — kapital bilan bog'liq operatsiyalar schyoti. Bu schyotda kapital transfertlar — asosiy fondlar yoki asosiy fondlarni sotib olish va kapital qurilish uchun mo'ljallangan mablag'lar harakati aks ettiriladi.

D. Moliya schyoti — moliya dastaklari bilan operatsiyalar schyoti. Unda to'g'ridan to'g'ri, portfel investitsiyalar, moliyaviy derivativlar, boshqa turdagi (naqd xorijiy valyuta, joriy schyotlardagi qoldiqlar va depozitlar, ssuda va zaymlar, muddati o'tib ketgan qarzdorlik va b.) investitsiyalar aks ettiriladi.

E. Sof xatoliklar va yo'qotishlar. Ushbu moddaga boshqa operatsiyalar va bitimlar bo'limi bo'yicha bir tomonlama aks ettirilgan ekvivalentlar kiritiladi.

F. Rezerv aktivlar. Bu bo'limda zaxiralarning o'zgarishi, XVF kreditlari va qarzlaridan foydalanish hamda favqulodda moliyalashtirish (tashqi qarzni restrukturizatsiyalash) to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

To'lov balansining yiriklashtirilgan sxemasini quyidagi 30.1.1-jadvalda ko'rish mumkin.

30.1.1-jadval
To'lov balansining yiriklashtirilgan sxemasi

Schyot nomi	Kredit (xorijiy valyuta tushumi)	Debet (xorijiy valyutani sarflash)	Saldo
Savdo balansi	Tovarlar eksportidan keladigan tushumlar	Tovarlar importi uchun xarajatlar	Tushumlar minus xarajatlar
Xizmatlar balansi	Xizmatlar eksportidan keladigan tushumlar	Xizmatlar importi uchun xarajatlar	Tushumlar minus xarajatlar
O'tkazmalar balansi	Xorijdan olingan o'tkazmalar	Xorijga to'langan o't-kazmalar	Xorijdan olingan va xorijga to'langan o'tkazmalar o'rtasidagi farq
Joriy operatsiyalar (1+2+3)	Joriy operatsiyalar schyoti bo'yicha jami tushumlar	Joriy operatsiyalar schyoti bo'yicha jami to'lovlar	Joriy operatsiyalar schyoti bo'yicha jami tushumlar va to'lovlar o'rtasidagi farq
Kapital va moliyaviy dastaklar bilan operatsiyalar	Kapital importi	Kapital eksporti	Kapital eksporti va importi o'rtasidagi farq
Markaziy bankning valyuta zaxiralari		Mamlakat valyuta zaxiralarining ko'payishi	Valyuta zaxiralarining o'zgarishi

Manba: Баранов А. О. Платежный баланс России: от кризиса до кризиса. //ЭКО, №11, 2011. С. 109.

To'lov balansi ikki yoqlama yozuv usuli bo'yicha tuziladi. Ikki yoqlama yozuvda rezident va norezidentlar o'rtasidagi har bir bitim debet (xarajat) va kredit (tushum) bo'yicha ikki yoqlama aks ettiriladi:

	Kredit	Debet	Saldo (kredit-debet)
1 modda			
...			
N modda			

Har bir modda bo'yicha to'lovlar va tushumlar (yoki aktivlar va passivlar) ko'rsatiladi. Beg'araz asosda taqdim etilayotgan tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlarni ikki marta aks ettirish uchun alohida «transfertlar» moddasi joriy etilgan.

To'lov balansini tuzishda ikki yoqlama yozish doimo amalga oshavermaydi. Ba'zi hollarda bitimlarning moliyalashtirish manbayi noma'lum bo'lsa, ba'zida operatsiyani ro'yxatdan o'tkazish imkoni yo'qligi sabab qayta yozishning iloji bo'lmaydi. Barcha kredit va debetli yozuvlarning tengligini ta'minlash maqsadida «Xatoliklar va yo'qotishlar» moddasi joriy etilgan bo'lib, unda bir tomonlama aks ettirilgan bitimlar teskari belgi bilan aks ettiriladi. «Xatoliklar va yo'qotishlar» moddasi xalqaro qisqa muddatli kapitallar harakati, avvalo xususiy shaxslar o'rtasidagi amalda ro'xatga olish qiyin bo'lgan operatsiyalarni aks ettiradi.

Mamlakat to'lov balansi, agar xorijdan keladigan tushumlar uning to'lovlaridan ko'p bo'lsa — aktiv (ijobiy), agar xorijga to'lanayotgan to'lovlar uning tushumlaridan ko'p bo'lsa — passiv (salbiy) bo'ladi. Nazariy jihatdan joriy operatsiyalar balansining kamomadi kapitallar va kreditlar harakati (kapital va moliyaviy dastaklar bilan bog'liq operatsiyalar) balansining qoldig'i hisobidan qoplanadi. Kapitallar va kreditlar harakati balansi o'zgarmagan holda esa mamlakat zaxiralarida

o'zgarishlar ro'y beradi. Ushbu holat xorijiy valyutaga bo'lgan talab yuqori bo'lganda yuz beradi. Xorijiy valyutaga bo'lgan talab va taklif valyuta bozorida shakllanadi va Markaziy bank milliy valyuta kursining birdan o'zgarishiga yo'l qo'ymaslik uchun xorijiy valyutani sotishi yoki sotib olishi mumkin. Bu esa mamlakat valyuta zaxiralarining o'zgarishiga olib keladi.

To'lov balansi mamlakatning xalqaro iqtisodiy, jumladan, valyuta va kredit munosabatlari orqali jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi darajasini bildiradi. Shuning uchun to'lov balansida aks ettirilgan operatsiyalar hajmi mamlakat xalqaro xo'jalik aloqalarining rivojlanish darajasi, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, tashqi savdo, valyuta rejimi, nosavdo munosabatlarning erkinlashish darajasini ko'rsatadi.

To'lov balansi mamlakat valyuta-moliya holatini tahlil qilish va tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish asosi hisoblanadi. Ba'zi hollarda noqulay to'lov balansi ayrim mamlakatlar va mamlakatlar guruhlari o'rtasida kelishmovchiliklar keltirib chiqaradi. To'lov balansining muntazam taqchillikka ega bo'lishi aksariyat mamlakatlarda valyuta kursining pasayishi va oltin-valyuta zaxiralari hajmining qisqarishiga olib keladi. Natijada mamlakatlarning hukumatlari va Markaziy banklari to'lov balansi taqchilligini moliyalashtirish uchun valyutada kreditlar jalb etishga yoki to'lov balansi kamomadini qisqartirishga qaratilgan valyuta siyosatini amalga oshirishga majbur bo'lishadi.

To'lov balansiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning notekisligi;
- xalqaro raqobat;
- siklik tebranishlar;
- davlatning xorijiy xarajatlarining o'sishi;
- harbiy xarajatlarning ortishi;
- xalqaro moliyaviy o'zaro bog'liqlikning kuchayishi.

To'lov balansi barqarorligining muhim omili eksportning, pirovardida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi hisoblanadi.

Milliy valyutasi zaxira valyuta hisoblangan mamlakatlarda to'lov balansining muntazam taqchilligi jiddiy muammo hisoblanmaydi. Chunki bu mamlakatlarning xo'jalik subyektlari tashqi iqtisodiy faoliyatidagi xalqaro hisob-kitoblarning katta qismini milliy valyutada amalga oshirishadi.

Mutaxassislar 2000-yillarda global iqtisodiy vaziyatning inqirozga uchrashiga olib kelgan nomutanosibliklar qatoriga dunyoning yirik hududlari va mamlakatlari to'lov balansi muvozanatining buzilishini sabab qilib ko'rsatishadi. Inqirozdan oldingi o'n yillik AQSh to'lov balansi joriy operatsiyalar schyoti taqchilligining ortishi, Sharqiy Osiyo va neft eksport qiluvchi mamlakatlar to'lov balanslari joriy operatsiyalar schetida ijobiy qoldiqning jadal sur'atlar bilan o'sishi bilan tavsiflanadi. AQSh tashqi tovar savdosidagi kamomad 2006-yilga qadar barqaror o'sish tendensiyasiga ega va bu holat xomashyo, birinchi navbatda, yoqilg'i narxining oshishi bilan izohlanadi. Xitoy tovarlar savdosining ijobiy qoldig'i 2004-yildan 2013-yilga qadar 8,1 martaga ortdi (30.1.2-jadval).

2008–2009-yillardagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi jahon savdosining yirik ishtirokchilari to'lov balansining muvozanatining buzilishiga olib keldi (30.1.3-jadval).

Jahon savdosi hajmining qisqarishi oldingi o'n yillikda shakllangan disproporsiyani yumshatishga sabab bo'ldi. Jumladan, 2009-yilda AQSh eksporti 18 %ga va importi 26 %ga qisqardi.

Joriy operatsiyalar schyotining ijobiy qoldig'i ichki jamg'armalar hajmi ichki investitsiyalar hajmidan ortiq mamlakatlarda kuzatildi (30.1.4-jadval).

30.1.2-jadval

AQSh, Yevro zonasi, Xitoy va Yaponiya tovarlar savdosi, 2004–2013-yy.

	2004-y.	2005-y.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2013-y.
AQSh, mlrd. doll								
Eksport	819,9	909,0	1035,9	1160,4	1304,9	1068,5	1278,3	1579,6
Import	1485,5	1692,8	1875,3	1983,6	2139,5	1575,4	1969,2	2329,1
Qoldiq	–665,6	–783,8	–839,5	–823,2	–834,7	–506,9	–690,9	–749,5
Xitoy, mlrd. doll.								
Eksport	593,3	762,0	969,0	1220,5	1430,7	1201,7	1570,5	2209,0
Import	561,2	660,0	791,5	956,1	1132,6	1005,6	1394,6	1950,0
Qoldiq	32,1	102,0	177,5	264,4	298,1	196,1	175,9	259,0

Manba: Соколов В. Тенденции развития мировой товарной торговли в 1990–2008 гг. //Мировая экономика и международные отношения, 2011, №2, С. 45; Trade Profiles 2014. WTO. 2014. P. 43, 193.

30.1.3-jadval

Jahon savdosida katta ulushga ega mamlakatlar to'lov balansining joriy operatsiyalar schyoti qoldig'i dinamikasi, YalM ga nisbatan foiz hisobida

	2005-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.	2105-y.	2019-y.
AQSh	–5,9	–3,0	–3,0	–2,9	–2,4	–2,6	–2,8
Yevrozona	0,4	0,1	0,1	1,4	2,4	1,9	1,8
Xitoy	7,2	4,0	1,9	2,6	1,9	2,0	3,0
Yaponiya	3,6	2,8	2,1	1,0	0,7	1,1	1,4

Manba: Соколов В. Тенденции развития мировой товарной торговли в 1990-2008 гг. //Мировая экономика и международные отношения, №2, 2011. С. 45.: World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. October 2014. P. 208, 210.

30.1.4-jadval

AQSh va Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlarida jamg'armalar va investitsiyalar, YalM ga nisbatan foiz hisobida

	2000–07-yy.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.	2016–19-yy.
AQSh						
Jamg'armalar	18,4	15,1	15,7	16,3	17,0	19,0
Investitsiyalar	22,5	18,4	18,5	19,2	19,3	21,8
Sof kreditlash	-4,7	-3,0	-3,0	-2,8	-2,4	-2,8
Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari						
Jamg'armalar	37,5	44,6	43,3	43,4	43,3	43,1
Investitsiyalar	34,2	42,0	42,3	42,4	42,3	41,7
Sof kreditlash	3,5	2,6	0,9	1,0	1,1	1,4

Manba: World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. October 2014. P. 208, 210.

Ushbu mamlakatlar ortiqcha jamg'armalarni xorijga investitsiya qilishadi va mutanosib ravishda ular xalqaro mehnat taqsimoti tarkibida sanoat mahsulotlari yoki xomashyo yetkazib beruvchilar sifatida qatnashadilar. Joriy operatsiyalar schyotidagi defitsit mavjud mamlakatlarga ichki jamg'armalar hajmi ichki investitsiyalar hajmidan kam mamlakatlar kiradi va investitsiyalar xorijiy kapitalni jalb

etish hisobiga amalga oshiriladi. Bu mamlakatlarda disbalanslarni barqaror o'zgartirish jamg'armalar va investitsiyalar o'rtasidagi nisbatni o'zgartirish mumkin bo'lgandagina amalga oshiriladi. Joriy operatsiyalar schyotining ijobiy qoldig'iga ega mamlakatlarda jamg'armalar darajasining pasayishi ichki iste'molning ortishini taqozo etadi. Aksincha, joriy operatsiyalar schyoti taqchillikka ega mamlakatlarda nomutanosiblikni yumshatish jamg'armalarni ko'paytirish va iste'molni chegaralashni taqozo etadi.

XVF ma'lumotlariga ko'ra, AQSh ning Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan savdosidagi nomutanosiblikni kamaytirishni faqat mamlakatda jamg'armalar darajasini oshirish va Sharqiy Osiyo mamlakatlari, jumladan, Xitoyda jamg'armalar hajmini pasaytirish orqaligina amalga oshirish mumkin.

30.2. Tashqi qarz

Iqtisodiyotga tashqi resurslarni jalb etish xalqaro amaliyotda normal holat hisoblanadi. Tashqi moliyaviy resurslar, odatda, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning qo'shimcha manbayi vazifasini bajaradi. Tashqaridan qarz olish davlat va xususiy sektor tomonidan amalga oshiriladi. Ko'pchilik mamlakatlar uchun tashqi qarz byudjet kamomadi va davlat qarzini moliyalashtirish vositasi hisoblanadi. AQSh dunyoda davlat qarzini tashqi resurslar hisobidan moliyalashtirish darajasi bo'yicha yetakchi mamlakat sanaladi. Aksariyat rivojlangan mamlakatlar yirik hajmda tashqi qarzga ega bo'lib, ular AQSh g'aznachilik qarz dastaklari shaklida boshqa mamlakatlarning markaziy banklari tomonidan sotib olingan.

XVF 2003-yilda tashqi qarz statistikasi bo'yicha yo'riqnoma nashr etdi[1]. Ushbu yo'riqnomada yalpi tashqi qarzga quyidagicha ta'rif berilgan: «Yalpi tashqi qarz — bu bir mamlakat rezidentining norezidentlarga nisbatan qabul qilgan asosiy summa va foizlar ko'rinishidagi shartlar bilan bog'liq bo'lmagan joriy haqiqatda so'ndirilmagan, shuningdek mamlakat rezidentlarining norezidentlarga nisbatan kelajakda, muayyan muddatda so'ndirilishi lozim bo'lgan majburiyatlari hajmidir».

Mamlakatning yalpi tashqi qarzi davlat va xususiy sektor (rasmiy va xususiy) qarzlarini o'z ichiga oladi. Davlatning tashqi qarzi quyidagilardan iborat:

- davlat va uning vakolatli organlari tomonidan olingan kreditlar va qarzlar;
- davlat va uning vakolatli organlari tomonidan xalqaro kapital bozorlariga chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlar;
- davlat va uning vakolatli organlari qabul qilgan kafolatlar hamda boshqa bilvosita majburiyatlar. Bu holat uchinchi tomon majburiyatlari bo'yicha mas'uliyatni taqozo etadi.

Tashqi qarzdorlik va tashqi qarz qarz oluvchi mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy holatiga teskari ta'sir ko'rsatadi. Ular bir tomondan qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilishni rag'batlantirsa, ikkinchi tomondan tashqi qarzlarning ko'payishi moliyaviy inqirozni keltirib chiqarishi mumkin.

Davlatning tashqi qarzi uning xalqaro iqtisodiy, shu jumladan, kredit munosabatlari milliy va jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qarz muddatini qaytarishning o'tib ketishi tashqi qarz muammosini chuqurlashtiradi va qarz oluvchining reytingini pasaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, tashqi kreditorlar va investorlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, tashqaridan jalb etilayotgan moliyaviy resurslarning qimmatlashuviga olib keladi. Yuqori darajada muddati o'tib ketgan tashqi qarzdorlikka ega mamlakatlar uchun xalqaro moliya bozorlariga yo'l

1 External Debt Statistics: Guide for Compliers and Users (The Guide). IMF. 2003. P. 7.

yopiladi. Ushbu mamlakatlar uchun tashqi resurslarning asosiy manbayi sifatida xalqaro moliya tashkilotlarining kreditlari xizmat qiladi. Tahlillar ko'rsatishicha, 2013-yilda muddati o'tib ketgan qarzdorlikka ega mamlakatlar yoki qarzlari 2005-yildan 2013-yilgacha qayta rasmiylashtirilgan mamlakatlar soni 29 tani, yuqori darajada qarzdorlikka ega kambag'al mamlakatlar soni esa 38 tani tashkil etgan (30.2.1-jadval).

30.2.1-jadval

Tahliliy guruhlarning dunyo yalpi ichki mahsuloti, tovarlar va xizmatlar eksporti hamda aholi sonidagi ulushi, 2013-yil (jamiga nisbatan foiz hisobida)

	Mamlakatlar soni	YalM		Tovarlar va xizmatlar eksporti		Aholi	
		Rivojlangan mamlakatlar	Dunyo	Rivojlangan mamlakatlar	Dunyo	Rivojlangan mamlakatlar	Dunyo
Tashqi moliyalashtirish manbalari bo'yicha							
Sof debitor mamlakatlar	123	48,4	27,3	39,6	15,3	62,7	53,5
Shu jumladan rasmiy moliyalashtirish	26	3,1	1,8	1,8	0,7	8,5	7,2
Qarzga xizmat ko'rsatish holati bo'yicha sof debitor mamlakatlar							
Muddati o'tib ketgan qarzdorlikka ega mamlakatlar yoki qarzlari 2009-yildan 2013-yilgacha qayta rasmiylashtirilgan mamlakatlar	29	5,1	2,9	3,1	1,2	7,5	6,4
Boshqa sof debitor mamlakatlar	94	43,3	24,4	36,5	14,2	55,2	47,1
Boshqa guruhlar							
Yuqori qarzdorlikka ega kambag'al mamlakatlar	38	2,3	1,3	1,9	0,7	11,0	9,4

Manba: World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. October 2014. IMF, 2014. P. 167.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar, valyuta va soliq rejimlarining erkinlashuvi tashqi qarzning shakllanishidagi muhim omillardan hisoblanadi. Bojxona tariflarining pasaytirilishi, joriy operatsiyalar bo'yicha valyuta cheklovlarining bekor qilinishi xalqaro savdo hajmining ortishiga ko'maklashadi. Xalqaro savdo hajmi dunyo mamlakatlari tomonidan xalqaro kapital harakati bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha valyuta cheklovlarining bekor qilinishi tufayli ham ortadi, chunki investitsion va iste'mol tovarlarining bir qismi kredit berish orqali to'lovlarni kechiktirish yo'li bilan sotiladi.

Shunisi xarakterliki, dunyoning ko'plab mamlakatlarida xorijiy valyutadagi zaxiralarning tarkibini tashqi qarzning tarkibiga mos ravishda shakllantirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Chunonchi, Braziliyada xalqaro zaxiralar uchta valyutada — AQSh dollari, yevro va Yaponiya iyenasida shakllantirilgan. Chunki mamlakatning tashqi qarzi mazkur uch valyutadagi qarzdan iborat. Janubiy Koreyada xalqaro zaxiralarning investitsion tarkibi tashqi qarzning valyutaviy tarkibiga va joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha to'lovlarning qaysi valyutalarda amalga oshirilayotganligiga mos ravishda shakllantirilmokda. Chexiyada esa rasmiy valyuta zaxiralari AQSh dollari va yevroda shakllantirilgan. Uni shakllantirishda e'tiborga olinadigan muhim omillardan biri tashqi qarzning valyutaviy tarkibi hisoblanadi[1].

Tashqi qarzning shakllanishida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning erkinlashuvi, valyuta va soliq rejimlarining jahon standartlariga muvofiqlashuvi muhim o'rin egallaydi. Bojxona bojlarining pasaytirilishi va joriy operatsiyalar bo'yicha valyuta cheklovlarining bekor qilinishi xalqaro savdoning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Kapital operatsiyalari bo'yicha valyuta cheklovlarining bekor qilinishi esa xalqaro savdoning yanada rivojlanishiga olib keladi. Chunki bunday cheklovlarning bekor qilinishi investitsion tovarlarni va ayrim iste'mol tovarlarni kreditga sotish imkonini beradi. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda kapital harakati operatsiyalari bo'yicha valyuta cheklovlari 1980–1990-yillarda to'liq bekor qilingan. Joriy operatsiyalar bo'yicha valyuta cheklovlarini bekor qilgan mamlakatlar soni 1990-yillar boshida 67 taga yetgan bo'lsa, XXI asrning boshiga kelib, bu mamlakatlarning soni 148 taga yetdi. Bu islohotlar importyorlarga tovar va xizmatlar importi bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun milliy valyutani erkin konvertatsiyalash imkonini berdi, bu esa milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatdi va ularni mahsulotlar tannarxini pasaytirishga, ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga majbur qildi.

Joriy operatsiyalar bo'yicha valyuta cheklovlarini bekor qilishda XVF muhim o'ringa ega. Chunki XVF nizomiga binoan bu tashkilotga a'zo mamlakatlar joriy operatsiyalar bo'yicha valyuta cheklovlarining bekor qilish majburiyatini o'z zimmalariga olishadi. Joriy operatsiyalar bo'yicha to'siqlarni olib tashlagan mamlakatlar esa, bu jarayonni yanada rivojlantirish uchun kapital operatsiyalar bo'yicha ham to'siqlarni bekor qilishga o'tishadi. Bu xalqaro moliyaviy munosabatlarning yanada erkinlashishiga olib keladi.

Xalqaro kapital migratsiyasining mamlakatlar tomonidan erkinlashtirilishi tashqi qarz miqdorida o'z aksini topadi. Tashqi qarzlar qarzdorlik passivlarining asosiy qismini tashkil qiladi. XVF ma'lumotlariga ko'ra 2006–2013-yillarda tashqi qarzi yuqori 10 ta mamlakatning qarzlar miqdori 5,8 trln. dollardan 11,6 trln. dollargacha oshgan. AQSh tashqi qarz miqdori (5,7 trln. doll.) bo'yicha ro'yxatda birinchi o'rinni egallasa-da tashqi qarzning YaIM ga nisbatan ulushi (34 %) ko'rsatkichi bo'yicha ro'yxatda yettinchi o'rinni egallaydi. Tashqi qarzning mamlakat YaIM dagi ulushi bo'yicha Ispaniya yetakchilik qiladi va ushbu ko'rsatkich 103,1 %ni tashkil etadi (30.2.2-jadval).

1 Фаненко М. Международная ликвидность и диверсификация официальных резервных активов. // Мировая экономика и международные отношения, №6, 2007. С. 56.

30.2.2-jadval

Dunyoning yirik tashqi qarzga ega mamlakatlari (sof xoroijiy aktivlar va passivlar)

Mamlakatlar	2006-y.			Mamlakatlar	2013-y.		
	Mlrd. doll.	YaIM ga nisbatan, %	Jahon YaIM ga nisbatan, %		Mlrd. doll.	YaIM ga nisbatan, %	Jahon YaIM ga nisbatan, %
AQSh	-1973	-14,2	-3,9	AQSh	-5698	-34,0	-7,6
Ispaniya	-862	-69,7	-1,7	Ispaniya	-1400	-103,1	-1,9
Buyuk Britaniya	-762	-30,6	-1,5	Braziliya	-750	-33,4	-1,0
Avstraliya	-462	-59,2	-0,9	Italiya	-739	-35,6	-1,0
Italiya	-453	-24,1	-0,9	Avstraliya	-746	-49,6	-1,0
Braziliya	-349	-32,1	-0,7	Fransiya	-578	-20,6	-0,8
Meksika	-346	-35,8	-0,7	Hindiston	-479	-25,5	-0,6
Gretsiya	-237	-90,4	-0,5	Meksika	-445	-35,3	-0,6
Turkiya	-206	-39,0	-0,4	Turkiya	-409	-49,8	-0,5
Hindiston	-178	-18,8	-0,4	Polsha	-380	-73,5	-0,5
Jami	-5829		-11,6	Jami	-11624		-15,6

Manba: World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. October 2014. IMF, 2014. P. 130.

Tashqi qarzning shakllanishiga jahon iqtisodiyotining holati ham ta'sir ko'rsatadi. Jahon iqtisodiyotida o'sish kuzatilganida (1970-yillarning o'rtalaridan 1980-yillarning ikkinchi yarmigacha) kapital taklifi va bunga mos ravishda tashqi moliyalashtirish ham o'sib borgan. Jahon iqtisodiyotida pasayish kuzatilganida (1980-yillarning boshidan 1990-yillarning oxirigacha) kapitalning rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamakatlariga harakati keskin qisqardi.

Kreditor mamlakatlar uchun kreditlar olish eksportni qo'llab-quvvatlashning eng muhim usullaridan biridir. Taraqqiy etgan mamlakatlar tashqi resurslardan byudjet kamomadini va davlat qarzini moliyalashtirish uchun foydalanishadi. Ammo bu mamlakatlarda davlat qarzlarini moliyalashtirishning boshqa muqobil manbalari ham bor. Rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlaridagi vaziyat taraqqiy etgan mamlakatlardan keskin farq qiladi. Bu mamlakatlar tashqi moliya manbalaridan foydalanishda katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar daromadining beqarorligini va moliyaviy zaxiralarining cheklanganligini inobatga olsak, ularda tashqi qarzlarning o'sishi milliy iqtisodiyotning barqarorligiga ziyon yetkazishi va siyosiy vaziyatning beqarorlashuviga olib kelishi mumkin.

Zaxira valyutalarini emissiya qiluvchi mamlakatlar (AQSh, YeI, Yaponiya) o'z defitsitlarini tashqi resurslar hisobidan moliyalashtirishlari mumkin. Bu mamlakatlarning g'aznachilik veksellari va boshqa qarzdorlik qimmatli qog'ozlari boshqa mamlakatlarning Markaziy banklari va norezidentlari tomonidan sotib olinadi. Misol uchun, AQSh o'z g'aznachilik veksellarini norezidentlarga sotish orqali nafaqat AQSh davlat byudjeti kamomadini norezidentlar hisobidan moliyalashtirishga erishadi, balki shu bilan birga dollarni jahon iqtisodiyotida erkin muomalada bo'lishiga shart-sharoit yaratadi.

Tashqi qarz inqirozi. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzi muhim o'rin egalaydi. Bu mamlakatlarda tashqi qarzning tez o'sib borishi 1973–1974-yillarda bo'lib

o'tgan neft inqirozi bilan bog'liq. Neft narxining keskin o'sib borishi bu mamlakatlarda to'lov balansini moliyalashtirishning tashqi manbalariga bo'lgan ehtiyojning oshishiga olib keldi. Neft dollarlarning katta qismi G'arb tijorat banklarida saqlanadi. Bu banklar esa katta foyda olish maqsadida, tez o'sib borayotgan mamlakatlarga kreditlar berishgan edi. Shu sababli Lotin Amerikasi mamlakatlarida va boshqa mamlakatlarda tashqi qarz katta sur'atlar bilan o'sib bordi. Ammo bu mamlakatlar tashqi qarzdan, asosan, joriy iste'molni va samaradorligi past investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun foydalandi.

1979-yildagi ikkinchi neft inqirozi AQSh pul siyosatining o'zgarishiga olib keldi. Dastavval, AQSh va keyinchalik boshqa rivojlangan mamlakatlar kreditlar bo'yicha foiz stavkalarni oshirishdi. Bundan tashqari, asosan rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan eksport qilinadigan xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarining jahon bozoridagi narxi 1981–1982-yillarda keskin tushib ketdi. Shu bilan birga AQSh dollarining jahonda qadri oshishi rivojlanayotgan mamlakatlar tashqi qarzlar qiymatining oshishiga olib keldi. 1981-yilda rivojlanayotgan mamlakatlar o'z defitsitlarini moliyalashtirish uchun qo'shimcha 24,6 mlrd. dollar miqdorida tashqi qarz olishdi.

Natijada, 1982-yilning avgustida bir qator mamlakatlar o'zlarini defolt deb e'lon qilishdi. Dastavval, Meksika o'z tashqi qarzlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshira olmasligini e'lon qildi. Keyinchalik Argentina, Braziliya va Chili o'zlarining defolt holatidaligini tan olishdi. Oxir-oqibat bu inqiroz Janubiy Osiyoga ham (ayniqsa, Filippin orollariga), Afrikaga ham, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlariga ham (ayniqsa, Polsha va Yugoslaviyaga) kuchli salbiy ta'sir ko'rsatdi. Lotin Amerikasining 3 ta yirik mamlakatining to'liq defolt bo'lishi AQSh dagi bir qator yirik banklarning bankrot bo'lishiga va shu orqali xalqaro moliyaviy munosabatlarning beqarorlashuviga olib keldi.

1980-yillarning boshida rivojlanayotgan mamlakatlardan kapitalning qochishi tendensiyasini kuzatish mumkin. Bu holat qisqa vaqt ichida rivojlanayotgan mamlakatlarni kapital netto-importyorlaridan netto-eksportyorlariga aylantirdi.

Inqiroz ta'sirini yumshatish uchun xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan moliyaviy yordamlar taqdim etildi va rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzi restrukturizatsiyalandi. Natijada 2008-yilgacha rivojlanayotgan mamlakatlar tashqi qarzining o'sish sur'atlari pasayib bordi. Misol uchun, 2007-yilda rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining tashqi qarzi 4135 mlrd. dollarga tenglashib, o'rtacha yillik o'sish sur'ati 1998-yildan boshlab 3,7 %ga teng bo'ldi. Tashqi qarzlarning yarmidan ko'prog'ini rasmiy kreditlar tashkil qiladi. Ushbu umumiy summaning geografik tarkibi quyidagicha: Osiyo — 1016 mlrd. doll., Lotin Amerikasi — 824 mlrd. doll., Markaziy Sharqiy Yevropa — 1976 mlrd. doll., MDH — 671 mlrd. doll., Yaqin Sharq — 389 mlrd. doll., Afrika — 824 mlrd. doll.

Tashqi qarz tarkibida jiddiy o'zgarishlar bo'lmoqda. Bu o'zgarishlar, birinchi navbatda, obligatsiyalarning norezidentlarga sotilishi bilan bog'liqdir. 1990-yillarda norezidentlarga sotilgan obligatsiyalar yiliga o'rtacha 23 %ga o'sgan, tijorat kreditlarida bu ko'rsatkich 2 %dan oshmagan. Bundan tashqari, qimmat kreditlarning qisqarishi kuzatilgan. Ammo bugungi kunda tashqi qarz muammosining og'irlashuvi birinchi o'rinda rivojlanayotgan mamlakatlardan kapitalning katta hajmida chiqib ketishi sabab bo'lmoqda.

Tashqi qarzni tartibga solish. Tashqi qarzning muntazam o'sib borishi natijasida bu qarzlar bo'yicha mamlakatlar joriy to'lovlarni amalga oshira olmasligi mumkin. Davlat tashqi qarzini va uning to'lov qobilyatini tahlil qilish uchun bir qator ko'rsatkichlar tizimi qo'llaniladi:

- tashqi qarzda qisqa muddatli qarzlarning ulushi;

- tashqi qarzning eksportga va YaIM ga nisbati;
- tashqi qarzga xizmat ko'rsatishning eksportga nisbati;
- rasmiy zaxiralarning tashqi qarzga nisbati.

Jahon banki ma'lumotlariga binoan 1997–2007-yilda rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida bu ko'rsatkichlar ijobiy tarafga o'zgarib borgan, ya'ni bu mamlakatlarda tashqi qarz yuki yengillashgan. Faqat qisqa muddatli qarzlarning tashqi qarzdagi ulushi deyarli kamaymagan va 2007-yilda bu ko'rsatkich 24 %ni tashkil qildi.

Davlat tashqi qarzining o'zgarishi uning to'lov qobiliyati, iqtisodiy va moliyaviy barqarorligi bilan bevosita bog'liq. Tashqi qarz qiymati va uni to'lash qobiliyati mamlakatning xalqaro kapital bozori dastaklaridan foydalanish imkoniyatini belgilaydi. Bu borada nufuzli xalqaro reyting agentliklari mamlakatning tashqi qarz ko'rsatkichlari bilan birgalikda hukumat tomonidan xalqaro iqtisodiy, valyuta, kredit munosabatlari sohasida qabul qabul qiladigan qarorlarini ham kuzatib borishadi va mamlakatlar reytingiga tegishli o'zgarishlar kiritishadi. Shu sababli hukumatlar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun tashqi qarz ko'rsatkichlarini belgilangan me'yorlardan oshib ketmasligini ta'minlashga harakat qilishadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar, jumladan, AQSh uchun davlat qarzining oshishi va bu qarzni moliyalashtirishda norezidentlar ulushining o'sishi mamlakat milliy valyutasining xalqaro iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tashqi qarzni davlat yoki xususiy sektor hisobidan o'sib borishi va belgilangan me'yorlardan oshib ketishi aksariyat mamlakatlarda tashqi qarzga xizmat ko'rsatish jarayonining murakkablashishiga olib keladi. To'lovlarning kechiktirilishi esa yangi qarzlarni olish imkoniyatini kamaytiradi. Xorijiy kreditorlar xalqaro sudga murojat etish orqali davlatning iqtisodiy hududidan tashqarida bo'lgan mulkini musodara qilishlari mumkin.

Tashqi qarzlar bo'yicha to'lovlarning kechiktirilishi qarzdor mamlakatlarni kreditorlar bilan muzokara olib borishga majbur qiladi. Ayrim hollarda kreditor qarz bo'yicha to'lovlarni kechiktirishi mumkin va ushbu operatsiya prolongatsiya deb nomlanadi.

Rasmiy tashqi qarzlarning katta qismi Parij klubiga a'zo mamlakatlarda mujassamlashgan. Xususiy sektor tashqi qarzlari katta bo'lgan mamlakatlar esa London klubiga a'zo bo'lishadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar tashqi qarzini keng miqyosda tartibga solish birinchi marta 1980-yillarda amalga oshirilgan. Tashqi qarz muammosini tartibga solish davlatlarning, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning siyosati obyektiga aylandi. O'z maqsadlaridan kelib chiqgan holda kreditorlar tashqi qarz muammosini xalqaro forumlarga olib chiqishni boshlashgan. Bunday forumlar Parij va London klublari faoliyati doirasida tashkil qilinadi. Parij va London klublarining asosiy maqsadi rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari tomonidan kechiktirilgan tashqi qarzlar bo'yicha kreditorlarning umumiy strategiyasini ishlab chiqish va kreditorlar faoliyatini tartibga solishdan iborat. Mamlakatlarning ushbu klublar bilan kelishuvlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tashqi qarz restrukturizatsiyasi;
- qarzning bir qismini obligatsiyalarga almashtirish;
- qarzning bir qismidan voz kechish.

Parij klubiga a'zo bo'lmagan mamlakatlarning kredit munosabatlari ikki tomonlama muzokaralar orqali tartibga solinadi.

Parij va London klublarining tashkil qilinishi rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining tashqi qarz muammosini yengillashishiga olib keldi. Chunki tashqi qarz muammosini hal etish jarayoni tartibli, tizimli ko'rinishga keltirildi va qarzdor mamlakatlar o'zlarining tashqi kredit munosabatlarini barqarorlashtirish imkoniga ega bo'lishdi.

Parij klubi va boshqa xalqaro moliya institutlari tomonidan qabul qilingan choratadbirlar rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari tashqi qarzining kamayishiga olib keldi.

30.3. Oltin-valyuta zaxiralari

Mamlakatlarning hukumatlari va Markaziy banklari ixtiyorida turuvchi yuqori likvidli moliyaviy aktivlar zaxira aktivlar (oltin-valyuta zaxiralari) deb ataladi. Oltin-valyuta zaxiralari milliy valyuta kursini qo'llab-quvvatlash, moliyaviy barqarorlik va mamlakat to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida zarurdir. Oltin-valyuta zaxiralari tarkibiga monetar oltin, XVF dagi rezerv pozitsiya, SDR va valyuta zaxiralari kiradi. Hozirda dunyoning aksariyat mamlakatlari oltin-valyuta zaxiralari tarkibida valyuta zaxiralari ustuvorlik qiladi va uning ulushi o'rtacha 95 %ni tashkil etadi. Zaxira valyutalarga Markaziy bankda korrespondent schyotlarga va xorijiy banklarda depozitlarga joylashtirilgan xorijiy valyutalardagi mablag'lar hamda xorijiy emitentlarning qimmatbaho qog'ozlariga investitsiyalangan mablag'lar kiradi.

Davlat oltin-valyuta zaxiralari xalqaro moliya tashkilotlari zaxira aktivlari bilan birga jahon oltin-valyuta zaxiralarini tashkil etadi.

Davlatning oltin-valyuta zaxiralari quyidagi ikki vazifani bajarish uchun xizmat qiladi:

- mamlakatning tashqi to'lov qobiliyatini ta'minlash;
- milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlash.

Moliya bozorlarining globallashuvi sharoitida xalqaro kapital harakati bilan bog'liq operatsiyalarning jadal sur'atlarda o'sishi kuzatilmoqda. Natijada dunyo mamlakatlarida nodavlat sektorning tashqi qarzini to'lash uchun zarur bo'ladigan xorijiy valyutaga bo'lgan talabni qondirish Markaziy banklar valyuta zaxiralarining muhim vazifasiga aylanib borayapti. Bu holat, avvalo, rezidentlari xorijiy valyutada kredit va qarzlar olayotgan mamlakatlarga taalluqlidir.

Jahon iqtisodiyotida zaxira valyutalarni emissiya qiluvchi mamlakatlar — zaxira markazlari alohida o'ringa ega. Ushbu mamlakatlarning milliy valyutalari xalqaro pul, jumladan, xalqaro kredit va zaxira markazi vazifasini bajaradi, ularning Markaziy banklari esa valyuta bozorlaridagi operatsiyalarga tez-tez aralashib turishadi. Shuning uchun yetakchi rivojlangan mamlakatlarning Markaziy banklari va hukumatlari o'z valyutalari kursini barqaror ushlab turish uchun yirik valyuta zaxiralariga ehtiyoj sezmaydi.

Tahlillar ko'rsatishicha, xalqaro valyuta operatsiyalarining tarkibida AQSh dollari yuqori salmoqni egallaydi. Bu AQSh ning dunyoda eng yirik iqtisodiyotga ega bo'lganligi bilan izohlanadi. Ikkinchi o'rinda yevro turadi va bu holat YeI ning katta iqtisodiy salohiyatra ega ekanligi bilan belgilanadi. Funt sterling va iyenaning xalqaro zaxiralar tarkibida kichik salmoqqa ega ekanligi ushbu valyutalarning xalqaro hisobkitoblarda keng qo'llanilmayotganligi bilan izohlanadi. Misol uchun, 2010-yilda xalqaro valyuta zaxiralarining 95,5 % AQSh dollari, yevro, yapon iyeni va funt sterlingda shakllantirilgan. Shuningdek, AQSh dollarining xalqaro valyuta zaxiralari tarkibidagi salmog'i 2010-yilda 2000-yilga nisbatan 9,5 %ga pasaygan. Ayni paytda yevro va funt sterlingning salmog'i mazkur davrda mos ravishda 7,9 va 1,3 %ga oshgani holda, yapon iyenasining salmog'i 1,2 %ga pasaygan (30.3.1-jadval).

30.3.1-jadval
Dunyo miqyosida xalqaro valyuta zaxiralarining tarkibi

Valyutalar	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2013-y.	2013-yilda 2000-yilga nisbatan o'zgarish, ±
AQSh dollari	71,1	66,9	61,5	61,2	-9,9
Yevro	18,3	24,1	26,2	24,4	+6,1
Yapon iyenasi	5,0	3,1	3,8	3,9	-1,1
Funt sterling	2,7	3,6	4,0	4,0	+1,3
Shveysariya franki	0,3	0,1	0,1	0,2	-0,2
Boshqa valyutalar	1,5	1,7	4,4	6,2	+4,7

Manba: Кондратов Д. Перспективы евро для России: плюсы и минусы. //Экономист, №12, 2011. С. 61.; www.data.imf.org.

Markaziy banklar tomonidan oltin-valyuta zaxiralarni jamg'arish jahon moliya bozorlarining rivojlanishidagi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu aktivlarni jamg'arish bir tekisda sodir bo'lmayapti va Osiyo mamlakatlarida moliyaviy resurslarning konsentratsiyalashuvi darajasining o'sishi bilan amalga oshmoqda. Osiyo mintaqasining 10 mamlakati hissasiga (Xitoy[1], Yaponiya, Tayvan, Hindiston, Koreya Respublikasi, Gonkong, Singapur, Tailand, Malayziya, Indoneziya) jahon oltin-valyuta zaxiralarining uchdan ikki qismi to'g'ri keladi (30.3.2-jadval).

30.3.2-jadval
Oltin-valyuta zaxiralari hajmi bo'yicha yetakchi mamlakatlar

	Oltin-valyuta zaxiralari hajmi, yil boshiga nisbatan mlrd. doll			
	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2013-y.
Xitoy	158,3	615,5	2346,2	3950
Yaponiya	288,1	835,2	1023,6	1288
Rossiya	9,1	121,5	425,9	398,9
Tayvan	106,9	242,5	348,0	421,5
Koreya Respublikasi	74,0	199,0	270,8	354,8
Hindiston	33,2	127,2	266,2	288
Gonkong (Syangan)	96,2	123,5	256,2	318,9
Braziliya	35,5	52,5	235,5	375
Singapur	77,0	112,6	188,9	264
Jazoir	4,8	43,5	149,3	...

Manba: Малышев П. Особенности управления резервными активами в странах Азии. //Мировая экономика и международные отношения, №3, 2011. С. 29.; www.data.imf.org.

Tahlillar ko'rsatishicha, Osiyo mintaqasi mamlakatlari oltin-valyuta zaxiralarni faol jamg'arishni 1997–1998-yillardagi moliyaviy inqirozdan keyin boshlashgan. Bu inqirozdan keyin tashqi iqtisodiy barqarorlik va inqiroz holatlarida mamlakatning to'lov qobiliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan strategik moliyaviy rezervlarni shakllantirish siyosati olib borildi.

1 Xitoyning oltin-valyuta zaxiralari to'g'risidagi ma'lumotlar Tayvan provinsiyasi, Makao va Gonkong (Syangan) ma'muriy rayonlarni hisobga olmagan holda berilgan.

Osiyo mamlakatlarida oltin-valyuta zaxiralar hajmining o'sib borishi bilan bog'liq fundamental sabablarni tushuntirib berishda, bu mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati qanchalik yuqori bo'lishiga qaramasdan, xorijiy kapital uchun yopiqligini e'tiborga olish muhim. XX asrning 90-yillaridan boshlab savdo operatsiyalari va moliyaviy aktivlar bilan operatsiyalar bo'yicha cheklovlar bosqichma-bosqich bartaraf etildi. Ushbu chora-tadbirlar, bir tomondan, tovarlar va xizmatlar eksportining o'sishiga, ikkinchi tomondan esa, rivojlangan mamlakatlardan to'g'ridan to'g'ri va portfel investitsiyalarning faol kirib kelishini ta'minladi. Natijada oxirgi o'n yillikda Osiyoning aksariyat mamlakatlarida to'lov balansining barqaror profitsiti kuzatildi va ichki bozorlarda xorijiy valyuta, avvalo AQSh dollarining taklifi oshdi. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida ushbu mamlakatlarning Markaziy banklari valyuta intervensiyasini amalga oshirishga majbur bo'lishdi. Bu esa mamlakat valyuta zaxiralarining jadal sur'atlarda o'sishiga olib keldi.

Mamlakat oltin-valyuta zaxiralari hajmining ortishidagi asosiy omil valyuta zaxiralari hajmining o'sishi bilan bog'liq bo'lib, 2000–2009-yillar mobaynida Xitoyning valyuta zaxiralari hajmi 15 baravarga oshgan.

Mamlakatlarning oltin-valyuta zaxiralari bajaradigan vazifaga o'xshash tarzda jahon oltin-valyuta zaxiralari jahon iqtisodiyoti, xalqaro iqtisodiy munosabatlar va jahon valyuta tizimining barqarorligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Jahon valyuta zaxiralari xalqaro savdo va iqtisodiy munosabatlarning boshqa shakllariga xizmat ko'rsatish uchun yetarli miqdorda bo'lishi zarur. Bu zaxiralar xalqaro valyuta likvidligining muhim omili hisoblanadi. Xalqaro valyuta likvidligi deganda mamlakatning o'z tashqi majburiyatlarini valyuta cheklovlariga murojaat etmasdan, kreditorlar uchun maqbul to'lov vositalarida to'lay olish qobiliyati tushuniladi.

Xalqaro valyuta likvidligining holati quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- jahon valyuta zaxiralari hajmi;
- tashqi to'lov majburiyatlari hajmi.

Jahon oltin-valyuta zaxiralari hajmining yillik import qiymatiga nisbati xalqaro valyuta likvidligi ko'rsatkichi hisoblanadi. Mamlakatlarning xalqaro likvidlik ko'rsatkichi esa mos ravishda milliy oltin-valyuta zaxiralari hajmining mamlakat yillik importi qiymati nisbatiga tengdir. Misol uchun, Rossiyada xalqaro likvidlik ko'rsatkichining minimal darajasi uch oylik import qiymatiga teng deb qabul qilingan.

Xalqaro valyuta likvidlik ko'rsatkichi XVF tomonidan barcha mamlakatlar joriy operatsiyalar bo'yicha valyuta cheklovlarini qo'llayotgan va kamsonli mamlakatlar (AQSh va Shveysariya) milliy valyutaning erkin konvertatsiyaga ega vaqtda qabul qilingan.

Tahlillar rivojlanayotgan mamlakatlar guruhida Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarida xalqaro valyuta likvidligi ko'rsatkichi yuqori ekanligini ko'rsatmoqda (30.3.3-jadval).

Oltin-valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish. Valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish deganda tarixan bir vaqtning o'zida bir nechta yetakchi va barqaror valyutalarda zaxiralar tashkil qilish tushuniladi. Shuningdek, valyuta zaxiralarining tarkibini beqaror valyutalarni sotish va ularning o'rniga barqaror valyutalarni sotib olish yo'li bilan yangilash operatsiyalariga valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish deyiladi. Chunki valyuta zaxiralarining tarkibini oldi-sotdi operatsiyalari orqali yangilash valyuta zaxiralarining diversifikatsiya darajasini oshiradi va valyuta zaxiralarining riskka uchrash xavfini pasaytirishga xizmat qiladi.

30.3.3-jadval

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xalqaro valyuta likvidligi ko'rsatkichi, oltin-valyuta zaxiralarining yillik importga nisbati

	2005-y.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.
Rivojlanayotgan mamlakatlar	67,2	75,5	86,9	80,0	109,1	102,4
shu jumladan:						
MShYe mamlakatlari	36,1	37,8	37,5	30,5	49,6	48,0
MDH mamlakatlari	76,6	100,9	115,4	81,1	118,0	106,1
Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari	81,7	89,5	107,1	106,3	145,0	131,2
Xitoy	115,5	125,4	148,0	158,2	217,2	190,0
Hindiston	72,8	75,5	95,1	71,3	73,8	66,4
Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari	43,4	44,8	53,9	49,8	70,4	65,2
Braziliya	54,4	70,7	113,8	87,6	135,9	117,7
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari	90,0	104,3	113,6	104,5	115,8	118,9
Afrika Saxroyi Kabiridan janubda joylashgan mamlakatlar	31,4	39,8	41,3	35,0	39,6	40,2

Manba: Перспективы развития мировой экономики. Замедление роста, увеличение рисков. Обзор. Сентябрь 2011. МВФ. Вашингтон, 2011-yil ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Oltin-valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilishda valyutaviy svop operatsiyalari muhim urin tutadi. Buning sababi shundaki, valyutaviy svopda bir yil davomida valyutalar spot sharti bo'yicha sotiladi, forvard sharti bo'yicha sotib olinadi. Natijada xorijiy valyutalardagi zaxiralar tarkibi sezilarli darajada o'zgaradi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida likvidlilik muammolarini yumshatish maqsadida 2008-yilning 29-oktyabrida AQSh Federal zaxira tizimi tomonidan Braziliya, Koreya Respublikasi, Meksika va Singapur Markaziy banklari bilan o'zaro svop kelishuvlari yo'lga qo'yildi. Mazkur svop bitimlari bozor munosabatlari shakllanayotgan to'rt mamlakatda valyuta kursining barqarorligini ta'minlash va likvidlilikni oshirish maqsadlarida svop liniyalari bo'yicha 30 mlrd. dollar miqdoridagi mablag'larning ajratilishini ko'zda tutadi.

Demak, bundan ko'rinadiki, MDH mamlakatlari Markaziy banklari tomonidan o'zaro svop kelishuvlari mexanizmining shakllantirilishi mintaqada milliy valyutalar almashuv kursi barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa, mintaqadagi valyuta bozorlarida barqarorlik va likvidlilikni ta'minlash nuqtayi nazaridan ijobiy holdir.

30.4. To'lov balansi va iqtisodiy siyosat

To'lov balansi azaldan davlat tomonidan tartibga soluvchi obyektlardan biri bo'lib hisoblanadi.

30.4.1-rasm.
To'lov balansini davlat tomonidan tartibga solish

To'lov balansini tartibga solish — davlatning to'lov balansini ijobiy o'zgartirish yoki qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga qaratilgan maqsadli faoliyatidir

Asosi	• iqtisodiy rivojlanish omillarini hisobga olish — dunyo mamlakatlarining notekis iqtisodiy rivojlanishga egaligi, fan va texnika yutuqlarini o'zlashtirishning turli sur'atlari, *milliy* iqtisodiyotlar tomonidan globallashuv yutuqlaridan foydalanish qobiliyati, iqtisodiyotning siklik rivojlanishi va xalqaro savdo sohasidagi o'zgarishlar; • valyuta-moliya omillarini hisobga olish — jahon valyuta tizimining holati, milliy valyuta kurslarining tebranishi, valyuta va moliya risklarining mavjudligi, kapitalning oqib ketishi; • xorijiy mamlakatlar tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlar bilan bog'liq turli-tuman iqtisodiy va siyosiy maqsadlarni hisobga olish; • favqulodda hodisalarni hisobga olish — hosilning bo'lmasligi, tabiiy ofatlar, qurg'oqchilik, texnogen ofatlar.
Asosiy xususiyati	To'lov balansini tartibga solish qisqa va uzoq muddatli xarakterga ega bo'lishi mumkin

Birinchidan, to'lov balansiga notenglik xos bo'lib, u uzoq vaqt yirik taqchillikka, ba'zi mamlakatlarda esa haddan tashqari katta ijobiy qoldiqqa ega bo'lishi mumkin. Xalqaro hisob-kitoblar nomuvofiqligi valyuta kursi dinamikasiga, kapitallar migratsiyasiga, iqtisodiyot holatiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, AQSh joriy hisob-kitoblaridagi taqchillikni qoplash uchun o'z valyutasida emissiya qiladi va boshqa mamlakatlarga inflyatsiyani eksport qiladi, xalqaro aylanmasida dollar ortiqchaligi vujudga kelishi natijasida Bretton-Vuds jahon valyuta tizimi ishdan chiqqan.

Ikkinchidan, XX asrning 30-yillarida oltin standartidan voz kechilganidan keyin to'lov balansi shartlarini tartibga solishning stixiyali mexanizmi juda sust ishlardi. Shuning uchun to'lov balansida mutanosiblikni ta'minlash masalasi asosiy o'rinni egallaydi.

To'lov balansi taqchilligi quyidagi sabablar tufayli yuzaga keladi:

- ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi va giperinflyatsiya;

- harbiy xarajatlarning ko'payishi;
- Markaziy bank valyuta zaxiralarining kamligi;
- davlat pul-kredit siyosatining beqarorligi, chetdan kredit va investitsiyalar oqimining cheklanganligi;
- mamlakat milliy valyutasining beqarorligi va unga ishonchning yo'qligi;
- milliy tovarlarning jahon bozorida yo'qligi yoki kamligi, sifati pastligi;
- mehnat unumdorligining pastligi va hokazolar.

Mamlakat to'lov balansining surunkali taqchilligini bartaraf qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- mamlakatda mahalliy ishlab chiqarishni va mehnat unumdorligini oshirish;
- chetga tovar va xizmatlar ko'rsatish hajmi hamda usullarini ko'paytirish;
- importga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish va eksport salohiyatini oshirish;
- proteksionizm siyosatini joriy qilish;
- milliy valyuta barqarorligini o'rnatish.

Quyidagilar to'lov balansini tartibga solishning moddiy asoslari bo'lib hisoblanadi:

- davlat mulki, shu jumladan rasmiy oltin-valyuta zaxiralari;
- milliy daromadning o'sib borishi (salmog'i 40–50 %gacha);
- kapitallar eksporti, kreditlar, garant, zayomchi sifatida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatning bevosita ishtiroki;
- normativ aktlar va davlat nazorat organlari yordami bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni muvofiqlashtirish va boshqalar.

To'lov balansini tartibga solishda mamlakatlar turli choralar ko'rishlari mumkin. Odatda, to'lov balansini muvofiqlashtirishning ichki va tashqi omillari mavjud. Xalqaro hisob-kitoblarda aktiv qoldig'iga ega bo'lgan davlatlar «O'z-o'zini tartibga solish»: inflyatsiyani qisqartirish, deflyatsion siyosat o'tkazish, eksportni rag'batlantirish, tovarlar importini qisqartirish va boshqa usullarni qo'llash mumkin. Bu kabi talablarni Ikkinchi jahon urushidan keyin AQSh surunkali to'lov balansi defitsiti bo'lgan G'arbiy Yevropa mamlakatlariga e'lon qilgan. To'lov balansi taqchil bo'lgan davlatlar, odatda, o'z sheriklaridan (ya'ni aktiv qoldiqqa ega bo'lgan mamlakatlardan) bojxona va boshqa xil cheklashlarni zaiflashtirishni, kapital chiqarishni kengaytirishlarini keskin talab qiladilar. 60-yillarga va 80-yillarning birinchi yarmiga kelib vaziyat o'zgaradi; G'arbiy Yevropa mamlakatlari, birinchi navbatda, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati yuqorida zikr etilgan talablar bilan AQSh ga o'z munosabat va maslahatlarini berdilar. Shunday qilib, 70-yillarda AQSh vakillari sobiq GFR va Yaponiyaning iqtisodiy o'sishini va Amerika tovarlarining importini rag'batlantirishga chaqirdilar. To'lov balansini davlat tomonidan tartibga solish bu — jami iqtisodiy, shu jumladan valyuta, moliya, pul-kredit, ya'ni to'lov balansi asosiy moddalarini shakllantirish, mavjud taqchillikni qoplash sohasidagi davlat tadbirlaridir. To'lov balansini tartibga solish usullari orasida mamlakatning xalqaro hisob-kitoblardagi valyuta iqtisodiy holatiga qarab rag'batlantirishga qaratilgan yoki cheklanishga yo'naltirilgan uslublari sohasida farqlar mavjud.

To'lov balansida taqchillik mavjud mamlakatlar tomonidan quyidagi tadbirlar, ya'ni eksportni rag'batlantirish, tovarlar importini ushlab turish, xorijiy kapitallarni jalb qilish, kapitalning mamlakatdan chiqishini cheklash maqsadidagi tadbirlar o'tkaziladi.

To'lov balansini boshqarishning defliyatsion siyosat, devalvatsiya, valyutaviy cheklashlar, valyuta kursining o'zgarishi, moliya, pul-kredit siyosatini barqarorlashtirish va boshqa to'lov balansini barqarorlashtirishga yordam beruvchi maxsus choralar mavjud.

1. *Deflyatsion siyosat.* Bu siyosat ichki talabni qisqartirishga, ustuvor ravishda fuqarolarga yo'naltirilgan byudjet xarajatlarini, narxlar va ish haqlarini muzlatishga yo'naltirilgandir. Bu siyosatning muhim instrumentlari bo'lib:

- byudjet defitsitini kamaytirish;
- Markaziy bankning diskont siyosati (foiz stavkalarining o'zgarishi);
- kredit cheklashlar;
- pul massasi o'sish chegaralarini o'rnatish xizmat qiladi.

Iqtisodiy turg'unlik davrida, ishsizlikning katta armiyasi va foydalanilmagan ishlab chiqarish quvvatlari zaxiralari mavjud sharoitda deflyatsiya siyosati bandlik hamda ishlab chiqarishning kelajakda yanada pasayishiga olib keladi. Agar kompensatsiya qiluvchi choralar ko'rilmasa, bu — ishlovchilarning turmush darajasini pasaytirish va ijtimoiy beqarorlik keltirib chiqarish xavfi bilan bog'liq.

2. *Devalvatsiya.* Tovarlar eksportini rag'batlantirishga va ular importini ushlab turishga yo'naltirilgan bo'lib milliy valyuta kursini tushirish bilan bog'liq chora-tadbirlar yig'indisidir. Devalvatsiyaning to'lov balansini tartibga solishdagi o'rni uni amalga oshirishdagi aniq shart-sharoitlar va kuzatiladigan umumiqtisodiy va moliyaviy siyosatga bog'liq. Devalvatsiya mamlakat raqobatbardosh tovarlar, eksport salohiyatiga ega bo'lsa va jahon bozori konyunkturasida yaxshi vaziyat bo'lsa, tovarlar eksportini rag'batlantiradi. Devalvatsiyaning importni ushlab turishga ta'siri xususida devalvatsiya ishlab chiqarish jarayoni va mamlakat jahon miqyosida baynalmilallashuvi sharoitida aksariyat hollarda keskin tovarlar kirib kelishini qisqartira olmaydi. Shuningdek, hamma mamlakatlar ham importning o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish siyosatini izchil amalga oshira olmaydilar. Import qimmatlashib, devalvatsiya milliy ishlab chiqarishning o'sishi, mamlakatda narxlarning oshishi, keyinchalik tashqi bozorlarda qo'lga kiritilgan raqobatbardoshlik afzalliklarining yo'qolishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun devalvatsiya mamlakatga vaqtinchalik nisbiy afzalliklar bersa ham, lekin aksariyat hollarda to'lov balansi taqchilligini yo'qotishga sabab bo'la olmaydi. Kerakli samarani olish uchun devalvatsiya o'lchov jihatidan yetarli bo'lishi shart. Aksincha, u valyuta bozoridagi chayqovchilikning kuchayishiga olib keladi, chunki valyuta kursini qayta ko'rib chiqish imkonini saqlab qoladi. Shuningdek, haddan tashqari devalvatsiya boshqa valyutalar kursining zanjirsimon pasayish reaksiyasini keltirib chiqarishi mumkin va bu holda o'z valyutasini devalvatsiya qilgan davlat raqobatdosh afzalliklardan judo bo'ladi, o'zi mo'ljallangan afzalliklarni yo'qotadi. Ba'zi davlatlar vaqti-vaqti bilan valyuta kurslarining ko'pligini amalda sinaydilar, ba'zi vaqtda ikki valyuta bozori shaklida berkitilgan devalvatsiya sifatida suzib yuruvchi valyuta kurslarining amalda qo'llanishi to'lov balansini muvofiqlashtirishga olib keladi. Keskin sakrovchi devalvatsiya to'xtatilishi bilan ma'lum darajada xalqaro hisob-kitoblardagi kapitallarga bo'lgan chayqovchilik bosimi yo'qotiladi, biroq suzib yuruvchi kurslar tizimida eksport qilinadigan va import qilinadigan tovarlarning bozor narxini pasaytirishga bo'lgan ularning ta'siri kamayadi. Shuning uchun devalvatsiya samarali bo'lganligi uchun ko'p davlatlar, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar eksport va importga tabaqalashgan bojlarni va subsidiyalarni qo'llaydilar.

3. *Valyutaviy cheklashlar.* Eksportyorlarning xorijiy valyutadagi tushumlarini bloklash, importyorlarga xorijiy valyuta sotilishini litsenziyalash, vakolatli banklarda valyuta operatsiyalarini birlashtirish, tovar importini ushlab turish, kapital eksport qilishni cheklash yo'li bilan to'lov balansi taqchilligini bartaraf qilish mumkin.

To'lov balanslari o'z tabiatiga ko'ra doimiy aktiv va passiv bo'la olmasa ham, ularning o'zgarishi valyuta kursi va kapital oqimi, xususan «issiq pullar»

oqimining beqarorligini kuchaytiradi. Bu o'z navbatida pul muomalasiga, oxir-oqibatda iqtisodiyotga salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun xalqaro hisob-kitoblarning muvozanatini tiklash maqsadi davlat tomonidan tashkiliy ishlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Xalqaro hisob-kitoblarni muvozanatlashtirish masalasi davlatning muhim iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiradi (iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inflyatsiya va ishsizlikka qarshi kurash bilan birgalikda). To'lov balansini davlat tomonidan boshqarish — to'lov balansining asosiy moddalarini shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy, shu jumladan valyuta, moliya, pul-kredit chora-tadbirlari bilan birgalikda xalqaro hisob-kitoblarning valyuta-iqtisodiy holatiga muvofiq tashqi iqtisodiy operatsiyalarni rag'batlantiruvchi yoki chegaralovchi usullarga bo'linadi.

To'lov balanslarini xalqaro usullarda boshqarishga quyidagilar kiradi:

- eksport kreditlari shartlarini kelishish;
- ikki tomonlama davlat kreditlari, svop kelishuviga muvofiq Markaziy banklarning milliy valyutadagi qisqa muddatli kreditlari;
- xalqaro valyuta-kredit hamda moliya tashkilotlarining kreditlari va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida to'lov balansining holati ko'p jihatdan tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining xatti-harakatlari bilan belgilanadi. Shu sababli mamlakat to'lov balansining bo'limlari o'rtasidagi muvozanat tez-tez buzilib turadi. Bu holat ayniqsa savdo balansida ko'p kuzatiladi. Misol uchun, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya va O'zbekiston kabi mamlakatlarda, odatda, tovarlar eksporti ularning importidan katta bo'lib, bu mamlakatlarda savdo balansi ijobiy qoldiqqa ega. AQSh, Misr va Marokash kabi boshqa mamlakatlarda tovarlar importi eksportidan katta bo'ladi. To'lov balansining, shu jumladan savdo balansining salbiy qoldiqqa ega bo'lishi mamalkatlardan bir qator chora-tadbirlarni qo'llashni talab qiladi. Chunki savdo balansidagi salbiy saldo ko'p yillar davomida saqlanib turishi mamlakatning moliyaviy holatini beqarorlashtiradi.

To'lov balansini davlat tomonidan tartibga solishning turli xil shakllari va usullari mavjud bo'lib, ularni ta'sir ko'rsatish muddatidan kelib chiqqan holda qisqa va uzoq muddatli dastaklarga bo'lish mumkin (30.4.2-rasm).

Qisqa vaqt ichida to'lov balansiga ta'sir ko'rsatishning eng muhim dastaklaridan biri — bu milliy valyutani devalvatsiya qilishdir. Milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan qadrining pasayishi eksportning xorijiy iste'molchilar uchun arzonlashishiga va importning ichki iste'molchilar uchun qimmatlashishiga olib keladi. Misol uchun, O'zbekiston A tovarni 100 dollardan import qiladi va ayirboshlov kursi 1700 so'm/doll. bo'lgan sharoitda ichki bozorda 170000 so'mdan sotadi. Faraz qilaylik, O'zbekiston milliy valyutasi kursi devalvatsiya qilindi va 2000 so'm/doll. ga tenglashtirildi. Bunday holatda 100 dollardan import qilingan A tovar ichki bozorda 200000 so'mdan sotiladi, bu esa tovarga bo'lgan talabning qisqarishiga olib keladi.

Milliy valyutani devalvatsiya qilish orqali to'lov balansini tartibga solishdan oldin eksportga va importga bo'lgan talablarning elastiklik darajalarini tahlil qilish kerak. Ushbu talablarning elastiklik darajalarining yig'indisi birdan kichkina bo'lsa, devalvatsiya orqali to'lov balansini tartibga solish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Bundan tashqari, bir qator mamlakatlar bir vaqtda valyuta devalvatsiyasidan foydalanishsa, bu ularning to'lov balanslariga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi, ammo jahon valyuta tizimining beqarorlashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli XVF nizomining 4-moddasiga binoan XVF a'zolariga valyuta kursini o'zgartirish orqali xalqaro savdoda raqobatbardoshliklarini oshirishlari man qilingan.

30.4.2-rasm.
To'lov balansini tartibga solish dastaklari

To'lov balansini tartibga solish dastaklari — to'lov balansi holatiga ta'sir etuvchi qisqa va uzoq muddatli vositalar tizimidir

Qisqa muddatli dastaklar	• ichki talabni qisqartirishga qaratilgan deflyatsiya siyosati; • milliy valyuta kursini pasaytirish, eksportni rag'batlantirish va importni cheklashga ko'maklashuvchi devalvatsiya; • eksportyorlarning xorijiy valyutadagi tushumlarini reglamentlash shaklidagi valyuta cheklovlari, importyorlarga xorijiy valyutani sotishni litsenziyalash, ushbu dastaklar tovarlar importi va kapital eksportini cheklash yo'li orqali to'lov balansining defitsitini barataraf etishga ko'maklashadi; • maxsus moliyalashtirish. Bu dastaklar eksportyorlarga nisbatan byudjet subsidiyalarini ko'zda tutadi.
Uzoq muddatli dastaklar	• eksportyorlarning tovarlarni olib chiqish va maqsadli kreditlar yordamida tashqi bozorlarni o'zlashtirishlari bilan bog'liq uzoq muddatli manfaatlari, iqtisodiy va siyosiy risklardan sug'urtalash, asosiy kapital amortizatsiyasi uchun imtiyozli rejim joriy etish; • investitsiyalarni uzoq muddat rag'batlantirish; • milliy jamg'armalar darajasi.

To'lov balansini qisqa muddatda tartibga solish uchun mamlakatlar tashqi savdoni tartibga solishning tarif va notarif dastaklaridan foydalanishlari mumkin. Import bojlarini oshirish va tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda qo'shimcha talablarni joriy qilish orqali importni kamaytirish mumkin. Ammo Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo mamlakatlarda tarif va notarif dastaklardan foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Misol uchun, JST qoidalariga binoan subsidiyalardan va dempingdan foydalanish man etilgan.

Shuningdek, mamlakatlar joriy operatsiyalar hisobiga kiruvchi «ko'rinmas» operatsiyalarga ta'sir ko'rsatish dastaklaridan ham foydalanishlari mumkin. «Ko'rinmas» operatsiyalar to'lov balansining xizmatlar eksporti/importi hisobida va daromadlar harakati hisobida aks ettiriladi. Bu operatsiyalarga ta'sir ko'rsatish maqsadida mamlakatlar ko'p hollarda valyuta cheklovlaridan foydalanishadi. Valyuta cheklovlariga misol qilib mamlakatdan jismoniy shaxslar tomonidan olib chiqilishi mumkin bo'lgan xorijiy valyuta miqdorining cheklanganligini keltirish mumkin. Bundan tashqari, mamlakatlar turizmdan kelib tushadigan tushumlarni ko'paytirishga ham harakat qilishadi. Mamlakatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish orqali to'lov balans saldosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo jahon iqtisodiyotida pasayish kuzatilganda xalqaro turizm ham qisqarib boradi. Shu sababli jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatlar o'z to'lov balans saldolarini turistlarni ko'proq jalb qilish hisobiga ijobiy tarafga o'zgartirishlari kam kuzatilgan.

To'lov balansini uzoq muddatli tartibga solish ichki talabni qisqartirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish bilan bog'liq. Buning uchun hukumat davlat byudjeti kamomadini kamaytiradi, foiz stavkani o'zgartiradi va pul massasini qisqartiradi. Shu bilan birga hukumat xorijiy kapital importini ko'paytirishga va kapital eksportini qisqartirishga ham harakat qiladi. Ammo xalqaro amaliyot ko'rsatishicha, kapitalni mamlakatdan olib chiqishni ma'muriy usullar bilan cheklash, odatda, kutilgan natijaga olib kelmagan. Ayrim holatlarda to'lov balansi kamomadini moliyalashtirish uchun XVF kabi xalqaro tashkilotlardan qarz olish mumkin.

Globalizatsiya sharoitida to'lov balansini davlatlararo tartibga solishning ahamiyati oshib bormoqda. To'lov balansini davlatlararo tartibga solish XX asrning 70-yillaridagi neft inqirozi sharoitida shakllangan va zamonaviy moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida bu usuldan foydalanish yuqori samaradorlikka egadir. Misol uchun, Yevropa Ittifoqida qarzdorlik inqiroziga uchragan mamlakatlarga boshqa mamlakatlar tomonidan moliyaviy yordam berilmoqda. Bundan tashqari, kliring ittifoqini tashkil qilish ham to'lov balansini davlatlararo tartibga solishning samarali shakllaridan biridir.

To'lov balansini tartibga solish usulining samaradorligi bu usulning qo'llanilish shart-sharoitiga bog'liq. Jahon tajribasi ko'rsatishicha, to'lov balansi bilan bog'liq muammolarni samarali hal etish uchun yuqorida keltirilgan usullar bilan birga mamlakatda samarali tarkibiy siyosat amalga oshirilishi kerak ekan. Chunki tarkibiy o'zgarishlarning samarali amalga oshirilishi mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini yuksaltiradi.

Asosiy tushunchalar

To'lov balansi — mamlakatning muayyan davriy vaqt uchun tashqi dunyo bilan moliyaviy bitimlarining natijalarini hisoblash.

Xalqaro valyuta zaxiralari — boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hisob-kitob qilish uchun foydalanish mumkin bo'lgan oltin, erkin konvertatsiyalanadigan valyuta va boshqa aktivlar.

Oltin-valyuta zaxiralari — mamlakatlar hukumatlari va markaziy banklari ixtiyorida turuvchi yuqori likvidli moliyaviy aktivlar.

Zaxira markazlari — jahon iqtisodiyotida zaxira valyutalarni emissiya qiluvchi mamlakatlar.

Xalqaro valyuta likvidligi — mamlakatning o'z tashqi majburiyatlarini valyuta cheklovlariga murojaat etmasdan, kreditorlar uchun maqbul to'lov vositalarida to'lay olish qobiliyati.

Xalqaro valyuta likvidligi ko'rsatkichi — jahon oltin-valyuta zaxiralari hajmining yillik import qiymatiga nisbati.

Valyuta zaxiralarini diversifikatsiyalash — bir vaqtning o'zida bir nechta yetakchi va barqaror valyutalarda zaxiralar tashkil qilish.

Yalpi tashqi qarz — bir mamlakat rezidentining norezidentlarga nisbatan qabul qilgan asosiy summa va foizlar ko'rinishidagi shartlar bilan bog'liq bo'lmagan joriy, haqiqatda to'lanmagan, shuningdek mamlakat rezidentlarining norezidentlarga nisbatan kelajakda, muayyan muddatda to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlari hajmi.

Prolongatsiya — kreditor tomonidan qarz bo'yicha to'lovlarni kechiktirishi bilan bog'liq operatsiya.

Parij klubi — rasmiy tashqi qarzlarni tartibga solish bilan shug'ullanuvchi klub.

London klubi — xususiy sektor tashqi qarzlarini tartibga solish bilan shug'ullanuvchi klub.

To'lov balansini tartibga solish — davlatning to'lov balansini ijobiy o'zgartirish yoki qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga qaratilgan maqsadli faoliyati.

To'lov balansini tartibga solish dastaklari — to'lov balansi holatiga ta'sir etuvchi qisqa va uzoq muddatli vositalar tizimi.

Nazorat savollari

1. To'lov balansi nima maqsadda tuziladi?
2. To'lov balansi va hisob-kitob balansining farqlarini sanang.
3. To'lov balansi operatsiyalari xususiyatiga ko'ra necha turga bo'linadi?
4. To'lov balansi moddalarini sanab o'ting.
5. Joriy operatsiyalar balansida nimalar aks ettiriladi?
6. Qanday holda to'lov balansi ijobiy hisoblanadi?
7. To'lov balansi taqchilligini qanday bartaraf etish yo'llarini bilasiz?
8. Tashqi qarz inqirozi va uni tartibga solish usullari nimalardan iborat?
9. To'lov balansini davlat tomonidan tartibga solish zaruriyati nimadan iborat?
10. To'lov balansini tartibga solishning qanday usullari mavjud?

31-BOB. XALQARO VALYUTA MUNOSABATLARI

31.1. Valyuta munosabatlari tushunchasi va valyuta tizimi

Valyuta — jahon bozorida, davlatlar o'rtasida pul vazifalarini bajaruvchi davlatlarning milliy pul birliklari. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari «dollari», Buyuk Britaniya «funt sterlingi», Kanada «dollari», Yapon «iyenasi» va boshqa shu kabilar.

Muayyan bir davlatning milliy puli — uning milliy valyutasi bo'ladi. Shu davlat uchun boshqa davlatlarning milliy pul birliklari esa — xorijiy valyutalardir. Masalan, AQSh «dollari», Buyuk Britaniya «funt sterlingi», Kanada «dollari», Yaponiya «iyenasi», Turkiya «lira»si va shu kabi erkin muomalada yuradigan valyutalar O'zbekiston Respublikasida xorijiy valyuta bo'ladi, o'z navbatida, O'zbekiston «so'm»i ushbu davlatlar uchun xorijiy valyuta bo'lib hisoblanadi.

Xorijiy valyuta bilan deviz tushunchasi bog'liqdir. Deviz — bu xorijiy valyutadagi har qanday vosita.

Valyutalar jahon bozorida o'zlarining muomalada bo'lish xususiyatlariga ko'ra erkin muomalada yuradigan, muomalasi qisman yoki butunlay cheklangan, yopiq valyutalarga bo'linadi. Ba'zi bir davlatlarning milliy pul birliklarini mazkur davlatlarda valyuta munosabatlari borasida mavjud va harakatda bo'lgan qonun-qoidalariga, asosan, xorijga chiqishi hamda u yerda muomalada bo'lishi chegaralanadi.

Xalqaro valyuta munosabatlari moddiy ishlab chiqarish jarayoni, ya'ni birlamchi ishlab chiqarish, taqsimot, almashuv va iste'mol jarayonlariga aloqador bo'lgan xalqaro iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro valyuta munosabatlari — valyutalarning jahon xo'jaligidagi harakati natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuasi.

Xalqaro valyuta munosabatlari takror ishlab chiqarishga nisbatan ikkilamchi hisoblanadi, chunki ishlab chiqarilgan tovarlarni eksport-import qilish natijasida xalqaro valyuta munosabatlari yuzaga keladi. Tarixan, xalqaro savdoning yuzaga kelishi xalqaro valyuta munosabatlarini yuzaga keltirgan birlamchi omil bo'ldi. Ammo xalqaro valyuta munosabatlari takror ishlab chiqarish jarayonining har

bir bosqichiga — ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'molga bevosita faol ta'sir ko'rsatadi.

Valyuta munosabatlari va takror ishlab chiqarish o'rtasida bevosita (to'g'ridan to'g'ri hamda teskari) aloqalar mavjud. Ularning obyektiv asosi bo'lib tovarlar, kapitallar, xizmatlar bilan xalqaro almashuvni vujudga keltiruvchi ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni hisoblanadi.

Valyuta munosabatlarining shakllanishi, o'zgartirilishi yoki tugatilishining huquqiy asoslari bo'lib xalqaro kelishuvlar va ichki davlat qonun-qoidalari hisoblanadi.

Valyuta munosabatlari nisbatan mustaqil munosabatlar bo'lgan holda to'lov balansi, valyuta kursi, hisob-kitob operatsiyalari orqali jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Valyuta munosabatlarining asosiy ishtirokchilari sifatida xalqaro moliyaviy tashkilotlar, mamlakatlar, mamlakatlarning rezident va norezident shaxslari maydonga chiqadi.

Rezident shaxs — muayyan davlat hududida yashayotgan va shu davlat fuqarosi bo'lgan hamda mazkur davlat hududida faoliyat ko'rsatayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Norezident shaxs — muayyan davlat hududida yashab faoliyat ko'rsatayotgan, biroq shu davlat fuqarosi bo'lmagan yuridik yoki jismoniy shaxs. Masalan, elchixonalar, vakolatxonalar, chet el firma va korxonalarning bo'linmalari shular jumlasidandir.

Xalqaro valyuta munosabatlarini yuzaga keltiruvchi asoslar quyidagilardir:

- tovarlar eksporti va importining mavjudligi;
- xizmatlar eksporti va importining mavjudligi;
- xalqaro kreditlarning jahon aylanmasidagi harakati;
- kapitallarning jahon aylanmasidagi harakati;
- notijorat to'lovlarning mavjudligi (xorijiy davlatlarda savdo va diplomatik vakolatxonalarni ochish va saqlash, xorijiy davlatlarning hududida harbiy qismlar saqlash, turizm, sport, madaniy tadbirlar bilan bog'liq bo'lgan xorijiy valyutadagi to'lovlar).

Valyuta tizimi deb, xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilishning davlat-huquqiy shakliga aytiladi. Valyuta munosabatlarini tashkil qilishning davlat shakli deyilishiga sabab shuki, **milliy valyuta tizimi** har bir mamlakatda davlat tomonidan tashkil etiladi va tartibga solinadi. **Jahon valyuta tizimi** esa, davlatlararo kelishuvlarga, asosan, tashkil topadi. Valyuta munosabatlarini tashkil qilishning huquqiy shakli deyilishining boisi shundaki, valyuta tizimi bo'yicha qabul qilingan qonunlar, xalqaro qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlarning talablarini bajarish xalqaro munosabatlarning barcha subyektlari uchun majburiydir. Masalan, Yamaykada qabul qilingan to'rtinchi jahon valyuta tizimining talabiga asosan, oltindan davlatlar o'rtasida to'lov vositasi sifatida foydalanish taqiqlandi.

Valyuta tizimining uch asosiy turi mavjud:

1. Milliy valyuta tizimi.
2. Mintaqaviy valyuta tizimi.
3. Jahon valyuta tizimi.

Milliy valyuta tizimi — bir mamlakat hududida xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilishning davlat-huquqiy shakli. Milliy valyuta tizimi mintaqaviy va jahon valyuta tizimlarining yuzaga kelishi uchun asos vazifasini o'taydi. Milliy valyuta tizimining rivojlanganligi mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi.

Mintaqaviy valyuta tizimi ma'lum bir mintaqada joylashgan davlatlarning hukumatlari o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan shakllanadi. Lekin shuni alohida ta'kidlash joizki, mintaqaviy valyuta tizimi bilan jahon valyuta tizimi o'rtasidagi chegarani aniqlash juda mushkul. Buning sababi shundaki, ayrim mintaqaviy valyuta tizimlari allaqachon jahon valyuta tizimi talablari darajasida faoliyat ko'rsatmoqda.

Jahon valyuta tizimi — bu davlatlar o'rtasidagi xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilishning davlat-huquqiy shakli bo'lib, davlatlararo kelishuvlar asosida yuzaga keladi.

Milliy valyuta tizimi quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- milliy valyuta;
- milliy valyutaning almashinish sharti;
- milliy valyutaning pariteti;
- milliy valyuta kursining rejimi;
- mamlakatda valyutaviy cheklashlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi;
- mamlakatning xalqaro valyutaviy likvidliligini milliy miqyosda tartibga solish;
- xalqaro kredit muomala vositalaridan foydalanish tartibini belgilash;
- mamlakatning xalqaro hisob-kitoblarini amalga oshirish tartibini belgilash;
- milliy valyuta bozori va oltin bozorining rejimi.

31.2. Jahon valyuta tizimi va uning asosiy elementlari

Jahon valyuta tizimi, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, xalqaro valyuta munosabatlarini davlatlar o'rtasida tashkil qilish shaklidir.

Jahon valyuta tizimi o'zining rivojlanishida to'rt bosqichni bosib o'tdi va ular quyidagi xalqaro valyuta tizimlarini o'zida mujassamlashtiradi:

1. Parij valyuta tizimi.
2. Genuez valyuta tizimi.
3. Bretton-vuds valyuta tizimi.
4. Yamayka valyuta tizimi.

Birinchi jahon valyuta tizimi 1867-yilda Parij da bo'lib o'tgan davlatlararo kelishuv natijasida tashkil topdi. Ushbu tizimda oltin-moneta standarti, ya'ni davlatlar o'rtasidagi aloqalarda to'lov vositasi sifatida faqat oltindan foydalanish joriy etildi.

Birinchi jahon urushi davrida yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz natijasida birinchi jahon valyuta tizimi barham topdi va uning o'rniga **ikkinchi jahon valyuta tizimi** yuzaga keldi. Mazkur tizim **1922-yilda Italiyaning Genuya** shahrida bo'lib o'tgan davlatlararo kelishuvning natijasi bo'ldi. **Uchinchi jahon valyuta tizimida** oltin-deviz standarti joriy qilindi. Buning ma'nosi shuki, davlatlararo munosabatlarda oltin bilan birga 30 ta mamlakatning milliy valyutalari xalqaro to'lov vositasi sifatida e'tirof etildi. Ammo haqiqatda Angliyaning funt sterlingi va oltin xalqaro to'lov vositasiga aylandi.

Buning sababi shundaki, birinchidan, Birinchi jahon urushi oqibatida funt sterling Yevropadagi boshqa valyutalarga nisbatan oz miqdorda qadrsizlandi, ikkinchidan, XX asrning 20-yillariga kelib jahon savdosining 60 foizdan ortiq qismi Angliya banklari tomonidan funt sterlingda moliyalashtirilar edi, uchinchidan, Angliya ochiq iqtisodiyotga ega bo'lib, shu sababli, Angliya bilan savdo-sotiq qilish oson edi, o'z navbatida, Angliyadan tovar sotib olish uchun boshqa davlatlarga funt sterling kerak edi, uni topish uchun esa, Angliyaga tovar sotish zarur edi.

31.2.1-rasm.
Jahon valuta tizimlari evolyutsiyasi



1944-yilning 22-iyunida AQSh ning Bretton-Vuds shahrida uchinchi jahon valyuta tizimi ga asos solindi. Mazkur tizimda erishilgan muhim natijalar quyidagilardan iborat:

- AQSh dollari va Angliya funt sterlingiga rasman jahonning zaxira valyutalari degan maqom berildi;
- milliy valyuta kursining oltin paritetdan tebranish chegarasi manfiy 1 %dan musbat 1 %gacha bo'lgan oraliq sifatida belgilab qo'yildi;
- AQSh dollaridagi zaxiralarni oltinga almashtirish qat'iy belgilangan bahoda amalga oshirildi, ya'ni 1 unsiya oltin 35 dollarga almashtiriladigan bo'ldi;
- XVF davlatlararo valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi organ sifatida tashkil etildi.

XX asrning 70-yillarida AQSh dollari kursining keskin tebrana boshlaganligi dollardan zaxira valyuta sifatida foydalanayotgan davlatlarning noroziligiga sabab bo'ldi. Natijada, AQSh dollaridan qochish tendensiyasi paydo bo'ldi. Bundan tashqari, dollarning oltinga almashtirilishi natijasida AQSh oltin zaxiralari miqdorining keskin kamayishi yuz berdi. Yuqorida qayd etilgan sabablar AQSh dollarining gegemonligiga asoslangan uchinchi jahon valyuta tizimining yemirilishiga va to'rtinchi jahon valyuta tizimining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, AQSh ning Vyetnamda olib borgan uzoq yillik urushi natijasida Davlat byudjetining defitsiti miqdori keskin o'sdi. Bu esa, dollar kursining keskin tebranishi uchun jiddiy asos bo'ldi.

To'rtinchi jahon valyuta tizimi Yamayka davlatining Kingston shahrida, 1976-yilning yanvar oyida bo'lib o'tgan davlatlararo kelishuv natijasida yuzaga keldi va **1978-yilning aprelida ratifikatsiya qilindi.**

To'rtinchi jahon valyuta tizimining muhim natijalari quyidagilardan iborat:

- oltinni demonetizatsiya qilish rasman tugallandi;
- qat'iy belgilangan kurslar rejimi bekor qilindi;
- oltin-deviz standarti SDR standarti bilan almashtirildi;
- XVFning valyuta munosabatlarini erkinlashtirishga ko'maklashishini kuchaytirish belgilandi.

Jahon valyuta tizimining elementlari:

- zaxira valyutalar, xalqaro hisob birliklari — zaxira valyutalar sifatida AQSh dollari, yevro, Buyuk Britaniya funt sterlingi va Yaponiya iyenasi tan olinadi. Xalqaro hisob birligi sifatida SDRni ko'rsatish mumkin. SDR valyuta savatida 2006–2010-yillarda AQSh dollarining ulushi 44,0 %ni, yevroning ulushi 34,0 %ni, funt sterlingning ulushi 11,0 %ni, iyenaning ulushi esa 11,0 %ni tashkil etgani holda, ushbu tarkib 2011–2015-yillarda 41,9, 37,4, 11,3 va 9,4 nisabatda bo'lishi kutilmoqda (31.2.1-jadval);
- valyutalarni o'zaro konvertatsiyalash shartlari — faqat ichki konvertatsiyaga ega bo'lgan valyutalar, ichki va tashqi konvertatsiyaga ega bo'lgan valyutalar;
- valyuta paritetlarining umumlashtirilgan rejimlari — valyuta paritetlari milliy valyutalarning xarid qobiliyatini yetakchi valyutalardan birining to'lov qobiliyatiga nisbatan hisoblash keng qo'llanmoqda;
- valyuta kursi rejimlarini tartibga solish — qat'iy belgilangan kurslar rejimi barham topdi va davlatlarga erkin suzish rejimidan foydalanish tavsiya etildi;
- valyutaviy cheklashlarni davlatlararo tartibga solish — XVF joriy operatsiyalar bo'yicha valyutaviy cheklashlarini olib tashlashni talab qiladi;
- xalqaro valyutaviy likvidlikni davlatlararo tartibga solish — xalqaro valyutaviy likvidligi past bo'lgan davlatlarga XVF imtiyozli kreditlar bermadi va ularga texnik yordam ko'rsatadi;
- xalqaro kredit muomala vositalaridan foydalanishning umumlashtirilgan tartibi — xalqaro kredit muomala vositalaridan foydalanishning umumlashtirilgan tartibi xalqaro Jeneva konvensiyalari, akkreditiv va inkasso bo'yicha umumlashtirilgan qoidalarda o'z ifodasini topgan;
- xalqaro hisob-kitob shakllarini umumlashtirish — xalqaro hisob-kitob shakllari ikki yirik guruhga bo'linadi: sof to'lovlar va hujjatlashtirilgan to'lovlar;
- xalqaro valyuta va oltin bozorlarining rejimi — xalqaro valyuta va oltin bozorlari valyutaviy cheklashlar mavjud bo'lmagan davlatlarda joylashgan va ularda erkin savdo amalga oshiriladi;
- valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlar — XVF, Jahon banki guruhi, Xalqaro hisob-kitoblar banki bu sohada nufuzli xalqaro tashkilotlar hisoblanadi.

31.2.1-jadval
SDR valyuta savati tarkibida milliy valyutalar ulushi

Valyutalar	2006–2010-yy.	2011–2015-yy.
AQSh dollari	44	41,9
Yevro	34	37,4
Funt sterling	11	11,3
Yapon iyenasi	11	9,4

Manba: Красавина Л. Н. Тенденции развития международных валютных отношений в условиях глобализации мировой экономики. //Деньги и кредит, №11, 2011. С. 20.

Jahon valyuta tizimida oltin uzoq vaqt mobaynida muhim o'rin egallab kelgan. Zamonaviy jahon valyuta tizimining asosiy xususiyatlaridan biri — bu oltinning to'liq demonitarizatsiyasidir. Shunga qaramasdan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida oltin xalqaro valyuta bozorlariga va valyuta tizimlariga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yamayka jahon valyuta tizimida oltinni demonetizatsiya qilish jarayoni nihoyasiga yetkazildi. Buning ma'nosi shuki, oltindan xalqaro to'lov vositasi sifatida to'g'ridan to'g'ri foydalanish taqiqlandi. Oltinni jahon oltin bozorlarida sotish va undan tushgan valyuta tushumi hisobidan majburiyatlarni bajarishga ruxsat berildi. Ammo bu bilan oltinga bo'lgan talab yo'qolmadi. Oltin o'zining noyob metall sifatidagi, jozibador jamg'arma vositasi sifatidagi ahamiyatini saqlab qoldi. Oltin ijtimoiy boylikni moddiylashtirish vositasi bo'lib qolaverdi, jumladan, iqtisodiy inqirozlar sharoitida oltinga bo'lgan talab kuchayadi va oltin juda yirik miqdorda sotib olinadi. Oltinning xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi ahamiyatini tavsiflovchi muhim jihatlardan yana biri — uning xalqaro kreditlar uchun yuqori likvidli garov obyekti ekanligidir. Bundan tashqari, oltin markaziy banklarning asosiy aktivlaridan biri hisoblanadi va muomaladagi pul massasini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi.

Tahlillar, yetakchi rivojlangan mamlakatlarda oltinning rasmiy mamlakat oltin-valyuta zaxiralaridagi ulushi 70 %dan kam emasligini ko'rsatmoqda (31.2.2-jadval).

31.2.2-jadval
Jahonning ayrim mamlakatlarida oltin zaxiralari, 2011-yil

Mamlakat	Oltin zaxiralar hajmi, tonna	Mamlakat rasmiy oltin-valyuta zaxiralaridagi ulushi, %
AQSh	8133,5	75,4
Germaniya	3401	72,7
Italiya	2451,8	72,4
Fransiya	2435,4	68,2
Xitoy	1054,1	1,6
Shveysariya	1040,1	17,3
Rossiya	841,1	8,2
Yaponiya	765,2	3,5
Jami	30707,1	...

Manba: Красавина Л.Н. Тенденции развития международных валютных отношений в условиях глобализации мировой экономики. //Деньги и кредит, №11, 2011. С. 19

2000–2011-yillarda oltin bahosining tebranish darajasi sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Bu esa, oltindan xalqaro valyuta munosabatlarida foydalanishda sezilarli muammolarni keltirib chiqardi. Masalan, oltindan xalqaro kredit berishda garov sifatida foydalanilganda, oltinni sotishdan olingan tushum uning bahosi tushib ketishi natijasida, kreditni va unga hisoblangan foizni qoplashga yetmasligi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, **oltinni demonetizatsiya qilish jarayoni** tugallangan bo'lsa-da, oltin xalqaro valyuta munosabatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda va o'zining ijtimoiy boylikni moddiylashtirish obyekti sifatidagi jozibadorligini saqlab qoldi.

31.3. Valyuta operatsiyalari va ularning asosiy turlari

Valyuta operatsiyalari deganda, xorijiy valyutalar va valyutaviy qimmatliklar bilan amalga oshiriladigan oldi-sotdi operatsiyalari tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi Qonuniga ko'ra, quyidagilar **valyutaviy qimmatlik** hisoblanadi:

- quyma oltin;
- chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar;
- chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari.

Valyuta operatsiyalarining uch asosiy turi mavjud:

- spot operatsiyalari;
- muddatli valyuta operatsiyalari;
- svop operatsiyalari.

Spot operatsiyasi — spot bitimi tuzilgandan keyingi ikki ish kuni mobaynida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyasi. Shanba, yakshanba kunlari, bayram kunlari va bitim tuzilgan kun bu ikki kunlik muddatga kirmaydi.

Spot operatsiyalari **spot kurslar** asosida amalga oshiriladi. Spot-kurs spot bitimi tuzilayotgan vaqtda belgilab qo'yiladigan kurs bo'lib, ikki ish kuni mobaynida o'zgarmasdan qoladi. Jahon valyuta bozorlarida amalga oshirilayotgan spot operatsiyalarining 90 foizga yaqin qismi beshta valyutada — AQSh dollari, yevro, Yaponiya iyeni, Angliya funt sterlingi va Shveysariya frankida amalga oshiriladi.

Yetakchi valyutalardan faqat funt sterling egri kotirovkaga, qolgan valyutalar to'g'ri kotirovkaga ega.

Agar milliy valyutaning kursi aniqlanayotganda bir birlik sifatida milliy valyutaning o'zi olinsa, bu **egri kotirovka** deyiladi. Agar milliy valyutaning kursi aniqlanayotganda bir birlik sifatida xorijiy valyuta olinsa, bu **to'g'ri kotirovka** deyiladi.

Valyuta operatsiyalarining ikkinchi turi — bu **muddatli valyuta operatsiyalari** hisoblanadi. O'z navbatida, **muddatli valyuta operatsiyalarining uch shakli** mavjud:

- forvard operatsiyalari;
- valyuta opsionlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar;
- valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Forvard operatsiyalari valyuta zaxiralarini valyuta riskidan himoya qilish maqsadida qo'llaniladi. Forvard shartnomalari tijorat banki bilan eksportyor o'rtasida, tijorat banki bilan tijorat banki o'rtasida tuziladi.

Forvard operatsiyalari deganda, ma'lum bir valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish yoki sotish tushuniladi. Forvard shartnomalari tuzishning quyidagi standart muddatlari mavjud:

- 1 hafta;
- 1, 2, 3, 6, 9, 12 oy.

Forvard operatsiyalari **forvard kurslari** asosida amalga oshiriladi. Forvard kursi — bu forvard shartnomasi imzolanayotganda belgilab qo'yiladigan kurs bo'lib, u shartnoma ijrosiga qadar o'zgarmasdan qoladi.

Forvard shartnomasi quyidagi ikki formula orqali aniqlanadi:

$$\text{Forvard kursi} = \text{Spot kurs} + \text{Ustama} \quad (1)$$

$$\text{Forvard kursi} = \text{Spot kurs} - \text{Diskont} \quad (2)$$

Spot kurs tijorat banklarida doimo mavjud bo'ladigan kurs hisoblanadi. Shu sababli, forvard kursini aniqlash uchun ustama yoki diskontni aniqlash kifoya.

Ustama va diskont yagona formula asosida aniqlanadi:

$$U/D = (SK \times FSo'F \times FShM\,(\text{kunlarda})) \times ((360 \times 100) = (BVFS \times FShM\,(\text{kunlarda})),$$

bu yerda: *U/D* — ustama yoki diskont;
SK — spot kurs;
FSo'F — foiz stavkalari o'rtasidagi farq;
FShM — forvard shartnomasining muddati;
BVFS — bitim valyutasi bo'yicha foiz stavkasi.

Foiz stavkalari o'rtasidagi farq aniqlanayotganda baholovchi valyuta bo'yicha depozitlarning foiz stavkasi olinadi, bitim valyutasi bo'yicha esa, kreditlarning foiz stavkasi olinadi. Keyin ular o'rtasidagi farq aniqlanadi.

Agar bitim valyutasi bo'yicha kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan katta bo'lsa, u holda, olingan natija **diskont** deyiladi. Agar bitim valyutasi bo'yicha kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan past bo'lsa, u holda, olingan natija **ustama** deyiladi. **Ustama va diskontning o'lchov birligi «pips» deb ataladi.**

Valyuta opsionlari qimmatli qog'ozlar bo'lib, ma'lum bir valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish yoki sotish huquqini beradi. Valyuta opsionlari, forvard shartnomalaridan farqli ravishda, o'z egasiga majburiyat yuklamaydi, faqat huquq beradi. Shu sababli, valyuta opsionlari valyuta zaxiralarini valyuta riskidan to'liq himoya qilish imkonini beradigan moliyaviy instrument hisoblanadi.

Valyuta opsionlarining ikki turi mavjud:

- koll opsionlar;
- put opsionlar.

Koll opsionlar valyutalarni sotib olish huquqini beradi. **Put opsionlar** esa, valyutalarni sotish huquqini beradi.

Valyuta opsionlarining ikkita standarti mavjud:

1. Yevropa standarti.
2. Amerika standarti.

Yevropa standartida opsion egasi valyuta opsionidan faqat opsion muddati tugagandan keyingina foydalanish huquqiga ega.

Amerika standartida opsion egasi valyuta opsionidan opsion shartnomasi muddatining istalgan vaqtida foydalanish huquqiga ega.

Valyuta fyuchersi — shunday shartnomaki, ma'lum bir valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish yoki sotish huquqini beradi.

Valyuta fyucherslari bo'yicha hisob-kitoblar kliring palatasi orqali amalga oshiriladi. Kliring palatasi ishtirokchi banklardan avans to'lovlarini o'tkazishni talab qiladi. Bundan maqsad — fyucherslar bo'yicha amalga oshiriladigan hisob-kitoblarning uzluksizligini ta'minlash. Valyuta fyucherslari bo'yicha hisob-kitoblar standart muddatlarda amalga oshiriladi. Masalan, G'arbiy Yevropada valyuta fyucherslari bo'yicha hisob-kitoblar bir yilda 4 marta, ya'ni mart, iyun, sentyabr, dekabr oylarining har ikkinchi payshanbasida amalga oshiriladi.

Valyuta fyucherslari standart summalarga yoziladi. Masalan, 25 ming funt sterling, 100 ming dollar, 12,5 mln. Yaponiya iyeni.

Valyuta operatsiyalarining uchinchi turi **svop operatsiyalaridir.**

Svop operatsiyasi — ma'lum bir valyutani spot sharti bo'yicha sotish va uni forvard sharti bo'yicha sotib olish yoki valyutani forvard sharti bo'yicha sotish va uni spot sharti bo'yicha sotib olish.

Svop operatsiyalari valyuta zaxiralarini valyuta riskidan ishonchli tarzda himoya qiladi, lekin katta daromad keltirmaydi. Chunki svop operatsiyalarida har doim bir-biriga mazmunan teskari bo'lgan ikkita operatsiya mavjud bo'ladi.

Tijorat banklari faoliyatida valyuta riski muammosining muhim muammolardan biri bo'lib qolayotganligining uch asosiy sababi mavjud.

Birinchidan, xalqaro valyuta savdosining asosiy obyektlari bo'lgan yetakchi valyutalarning erkin suzib yuruvchi kurs rejimida ekanligi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, har kuni jahon valyuta bozorlarida turli valyutalarda 4 trln. dollardan ortiq miqdorda operatsiyalar amalga oshiriladi. Shuning 40 %dan ortiq qismi faqat AQSh dollarida amalga oshiriladi. Dollardan keyingi o'rinlarda yevro va Yaponiya iyenasi turadi. Har uchala valyuta erkin suzib yuruvchi kurs rejimidadir. Bu esa ularning almashuv kursining keskin tebranish xavfini oshiradi. Masalan, 2002–2003-yillarda AQSh dollari SDRga nisbatan 16 %ga, yevroga nisbatan — 30 %, shveysariya frankiga nisbatan — 26 %, yapon iyenasiga nisbatan — 19 %ga qadrsizlandi. 2004-yilning 13-yanvarida 1 yevro 1,2720 AQSh dollariga teng bo'ldi. Bu esa, 2000-yilning 26-oktyabrdagi kursga nisbatan 55 %ga yuqori. Demak, shu davr mobaynida AQSh dollari yevroga nisbatan 55 %ga qadrsizlandi.

Ikkinchidan, valyuta operatsiyalari daromadlilik darajasining yuqori ekanligi. Banklar yuqori foyda olish maqsadida tobora yuqori riskli operatsiyalar bilan shug'ullanmoqda. Valyutalarning oldi-sotdi operatsiyalarining 90 %ga yaqini spot sharti bo'yicha amalga oshiriladi. Bu esa risk darajasi yuqori bo'lgan operatsiya turidir.

Uchinchidan, tijorat banklarining o'z mijozlari bilan amalga oshiradigan muddatli valyuta operatsiyalari hajmining uzluksiz o'sib borayotganligi. Tijorat banklari valyuta riskining darajasi qisqa va uzun valyuta pozitsiyalarining miqdori bilan belgilanadi.

Agar bank ma'lum bir valyutada qisqa pozitsiyaga ega bo'lsa, bu valyuta kursining oshishi natijasida bank zarar ko'radi, agar ushbu valyutaning almashuv kursi pasaysa, bank foyda ko'radi.

Agar bank ma'lum bir valyuta turi bo'yicha uzun pozitsiyaga ega bo'lsa, bu valyutaning kursi oshishi natijasida bank foyda ko'radi, kursning pasayishi natijasida esa, zarar ko'radi. Shu sababli, har bir tijorat bankida uzun va qisqa valyuta pozitsiyalari miqdorini muvofiqlashtirish masalalariga katta e'tibor beriladi.

Agar bank ma'lum bir valyuta turi bo'yicha uzun pozitsiyaga ega bo'lsa, bu valyutaning kursi oshishi natijasida bank foyda ko'radi, kursning pasayishi natijasida esa, zarar ko'radi.

Xalqaro andozalarga muvofiq, har bir tijorat bankida bitta valyuta bo'yicha ochiq pozitsiyalarning miqdori bank kapitalining 5 %dan ortiq bo'lmasligi lozim. Barcha valyutalar bo'yicha bu ko'rsatkichning maksimal darajasi 20 %ni tashkil etadi.

31.4. O'zbekistonda valyuta munosabatlari

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri iqtisodiyotni, jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish hisoblanadi. Bu masalaning yechilishi bosh maqsad qilib qo'yilgan iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli o'tkazishda birinchi darajali ahamiyatga ega. Chunki amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlardan ko'zda tutilgan maqsad mamlakat aholisining turmush darajasini yaxshilash edi. Bu mavjud resurslarni taqsimlash va ulardan samarali foydalanish, mamlakatning eksport imkoniyatlarini oshirish, jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar oqimini kuchaytirish uchun rag'batlantirish, jahon iqtisodiy integratsiyasini tezlashtirish bilan bog'liq bo'lgan juda katta jarayon hisoblanadi.

1996-yillar oxirlarida O'zbekistonda iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini qayta qurishni jadallashtirish maqsadida xorijiy valyutani cheklash tartibi joriy etildi. Bu tadbirning amalga oshirilishi import hajmi va tarkibini nazorat qilish imkonini berdi, natijada umumiy import hajmida investitsiya tovarlarining ulushi oshdi.

Valyuta tartibini cheklashdan ko'zlangan asosiy maqsad milliy valyutaning ayirboshlash kursini oshirish va valyuta bozorida uning boshqa valyutalar bilan parallel ravishda muomalada bo'lishini ta'minlash edi. Lekin bunday siyosat muayyan shart-sharoitlardagina qisqa muddatli ijobiy samara berishi mumkin. Masalan, valyutani cheklashning asosiy shartlarida biri — valyutani ayirboshlash kursidan eksport egiluvchanligi koeffitsiyentining past bo'lishidir. Buni eksport hajmida xomashyo, birinchi navbatda, qishloq xo'jalik mahsulotlari ulushi asosiy qismini tashkil etganligi bilan izohlash mumkin edi. Bunday vaziyatda chet el valyutasining ma'muriy yo'l bilan taqsimlanishi import hajmiga va tarkibiga ta'sir etadi. Qisqa va uzoq muddatli istiqbolda valyuta kursiga nisbatan eksport egiluvchanligi albatta o'zib ketadi. Yuqori ayirboshlov kursi esa eksportni qisqartirishga olib keldi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy o'sish sur'atiga va investitsiya resurslar importiga salbiy ta'sir etadi.

90-yillarning oxirlarida iqtisodiyotda ro'y bergan o'zgarishlar so'mni devalvatsiya qilish va valyuta bozorini erkinlashtirishni taqozo etdi. Valyuta bozorini erkinlashtirish quyidagilarga asoslanadi:

- eksport hajmini ko'paytirish va eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni kengaytirish;
- narxlar nisbiyligi tarkibini takomillashtirish;
- parallel valyuta bozorini, import qiluvchilarning foyda bermayotgan rentalarini bartaraf etish yoki salmoqli qisqartirishni amalga oshirish;
- makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash;
- chet el investitsiyalar oqimini ko'paytirish;
- moliyaviy siyosatni mustahkamlash.

Chet el valyuta bozorini liberallashtirish jarayoni 2000-yilning may oyidan boshlandi. 2000-yilning may oyidan boshlab amalda va turli xil valyuta operatsiyalarini o'tkazishda qo'llanib kelingan birja va birjadan tashqari ayirboshlash kurslari unifikatsiyalashtirildi. Bunday chora birja kursi so'mning devalvatsiyasini birjadan tashqari darajaga yetkazishga asoslangan edi. Hamma operatsiyalar uchun MB ning yagona kursi ishlatila boshladi.

2000-yil 1-iyulga kelib chet el valyuta bozori birja va birjadan tashqari bozorlarga bo'lindi. So'mning konvertatsiyasi, ya'ni chet el valyutasiga almashtirish

operatsiyalari birjadan tashqari bozorda o'tkazila boshlandi. Ilgari bunday operatsiyalar O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasida o'tkazilardi.

Birjadan tashqari valyuta bozorida so'mning kursi devalvatsiya qilindi, parallel bozordagi almashinuv kursi darajasida qayd etildi. Chet el valyutalarini birjadan tashqari valyuta bozorida sotish quyidagi operatsiyalar bo'yicha amalga oshirilgan:

- davlat tomonidan kafolatlanmagan chet el kreditlarini, chet el valyutasidagi vakolatli bank kreditlarini, shuningdek, davlat tomonidan kafolatlangan kreditlarni;
- MB litsenziyaga ega bo'lgan korxonalarning import iste'mol tovarlarining realizatsiya qilinishi natijasida tushgan pulning so'mdagi konvertatsiyasi;
- ishlab chiqarish texnikasi uchun belgilangan mahsulotlar, tovarlar, xizmatlar importi;
- investitsiya loyihasi asosida ishlab chiqarilgan asbob-uskunalar va yangi texnologiyalar importi;
- lizing beruvchilar mablag'larini tiklash;
- divident va daromadlarning ma'lum qismi reportatsiyasi;
- ayirboshlash shoxobchalari orqali mavjud chet el valyutalarini sotish;
- vakolatli banklar orqali banklararo bitim tuzish.

Shu bilan birga, O'zbekistonda eksport hajmini oshirish va chet el valyuta tushumini ko'paytirishni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil iyundagi Farmoniga, asosan, tadbirkorlar o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlari eksportidan kelgan daromadning soliqqa tortilishdan ozod qilinganligi, shuningdek, ishlab chiqargan tovarlarida eksport ulushi 25 %dan 50 %gacha bo'lgan taqdirda soliq stavkasi 50 foizga kamaytirilganligi, eksport hajmi 50 foiz va undan oshib ketganda esa mol-mulk solig'i olinmasligi kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga asosiy turtki bo'ldi.

1999–2001-yillarda ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida so'm kursini ayirboshlashda ma'lum darajada devalvatsiya bo'ldi (MB kursi 5 marta, birjadan tashqari bozorda 3,5 marta). Shu davr ichida iste'mol baholari 26 marta, YaMM esa 3 marta oshdi. Bu — so'mning haqiqiy ayirboshlash kursi pasayganini va mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligi oshganini ko'rsatadi. Markaziy bank va parallel bozorning almashtirish kurslarini tenglashtirish va milliy valyutani mustahkamlash yo'lida ko'rilgan chora-tadbirlar yetarli bo'lmadi. Bu — 2002-yilning birinchi yarim yilligi uchun iqtisodiy va moliyaviy siyosat sohasida Memorandum ishlab chiqilishiga va XVF tomonidan imzolanishiga sabab bo'ldi. Bu Memorandumda tashqi iqtisodiy faoliyatni va valyuta rejimini erkinlashtirish, joriy operatsiyalarda milliy valyutaning konvertatsiyasini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish masalalari ko'rib chiqildi. Bu sohada qo'yilgan navbatdagi qadam O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Valyuta bozorini yanada erkinlashtirish va ayirboshlash kurslarini unifikatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2003-yil 11-iyunda qabul qilgan qarori bo'ldi. Bu qarorning qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 12-iyuldagi «Birjadan tashqari valyuta bozorini yanada rivojlantirish tadbirlari to'g'risida»gi qarori o'z kuchini yo'qotdi. Yangi qabul qilingan qarordan ko'zda tutilgan eng asosiy maqsad — ichki valyuta bozorida almashinuv kurslarini unifikatsiyalash batamom oxiriga yetkazildi.

Keyingi yillarda naqd chet el valyutasi bilan operatsiyalar o'tkaziladigan bozorlarni erkinlashtirish, valyuta almashtirish operatsiyalarini kengaytirish yuzasidan qator ishlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda O'zbekiston territoriyasida mingdan ortiq ayirboshlash shoxobchalari va 26 ta vakolatli banklar faoliyat ko'rsatib turibdi. Jismoniy shaxslar — rezidentlar tomonidan naqd chet el valyutalarining sotilishi

bilan birga vakolatli banklar obro'li chet el banklari va chet el moliya institutlari tomonidan chiqarilgan emitetli yo'l cheklarini sotish yo'lga qo'yigan.

Yuqorida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida joriy xalqaro operatsiyalarda qatnashtiriladigan O'zbekiston Respublikasining Milliy valyutasining konvertatsiyasi ta'minlandi. Hozirgi vaqtda ushbu tamoyillarni yuridik jihatdan mustahkamlash haqida gap borar ekan, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'rsatilgan tamoyillar XVF nizomining VIII moddasi talablariga to'la-to'kis mos kelishini aytib o'tish lozim.

Asosiy tushunchalar

Jahon valyuta tizimi — turli mamlakatlar o'rtasidagi valyuta-kredit munosabatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi tizim.

Oltin standart — pulning asosiy shakli oltin hisoblangan o'zaro aloqalar amaliyoti.

Erkin konvertatsiyalanadigan valyuta — har qanday xorijiy valyutaga erkin va cheklanmagan miqdorda ayirboshlanadigan valyuta.

Qisman konvertatsiyalanadigan valyuta — xorijiy valyutalarning ma'lum bir qismigagina ayirboshlanadigan, xorijiy valyutani sotib olishda va sotishda cheklashlar mavjud bo'lgan valyuta.

Konvertatsiyalanmaydigan valyuta — xorijiy valyutalarga ayirboshlanmaydigan va ichki to'lov aylanmasiga xizmat qiladigan valyuta.

SDR (SDR) — Xalqaro valyuta fondining shartli maxsus pul birligi.

Valyuta kursi — bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligidagi bahosi.

Kotirovkalash — valyuta kursini o'rnatish.

To'g'ri kotirovkalash — xorijiy valyuta birligiga to'g'ri keladigan milliy valyuta miqdorini o'rnatish.

Teskari kotirovkalash — milliy valyuta birligiga to'g'ri keladigan xorijiy valyuta miqdorini o'rnatish.

Devalvatsiya — milliy valyuta kursining kamaytirilishiga qaratilgan tadbir.

Revalvatsiya — milliy valyuta kursini oshirishga qaratilgan tadbir.

Nominal valyuta kursi — bir birlik milliy valyutaga to'g'ri keladigan xorijiy valyutaning qiymati.

Real valyuta kursi — milliy tovar birligiga hamda xizmatlarga to'g'ri keladigan xorijiy tovar va xizmatlar qiymati.

Valyuta operatsiyalari — xorijiy valyutaning oldi-sotdisi bo'yicha operatsiyalar.

Nazorat savollari

1. Jahon valyuta tizimi shakllanishining asosiy shart-sharoitlarini ayting.
2. Oltin standartga asoslangan milliy valyuta tizimi xususiyatlari nimadan iborat?
3. Bretton-Vuds valyuta tizimining xususiyatlari nimadan iborat?
4. Hozirgi zamon jahon valyuta tizimining xususiyatlari qanday?
5. Jahon valyuta tizimining qaysi belgilarini ajratish mumkin?
6. Qaysi valyutalar zaxira valyuta sifatida qo'llaniladi?
7. Valyutaning konvertatsiyalanishi nima va u qanday ko'rinishlarda mavjud bo'ladi?
8. Valyuta kursi va kotirovka deganda nimalar tushuniladi?
9. Valyuta devalvatsiyasi nima va u valyutaning oddiy qardrsizlanishidan qanday farqlanadi?
10. Valyuta bozori deganda nima tushuniladi va u qanday funksiyalarni bajaradi?
11. Muddatli valyuta operatsiyalariga nimalar kiradi?

32-BOB. XALQARO VALYUTA-KREDIT VA MOLIYA BOZORLARI

32.1. Jahon moliya bozorining mohiyati va funksiyalari

Keng ma'noda jahon moliya bozori — mamlakatlar o'rtasida kapital resurslarini jamlash va taqsimlashni ta'minlab beruvchi bozor munosabatlari yig'indisi. Umuman, bu tushuncha xalqaro moliyaviy shartnomalarning mazmunini tashkil qiluvchi ishtirokchilar manfaatlarining o'zaro ta'sirini anglatadi.

Tor ma'noda jahon moliya bozori — bu fond bozori, ya'ni qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalar amalga oshiriladigan bozordir.

Jahon moliya bozorini turli mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin. Jahon moliya bozori unda amalga oshiriladigan operatsiyalar obyektiga ko'ra quyidagi segmentlarga ajratiladi:

- valyuta bozori;
- ssuda kapitallari bozori;
- fond va sug'urta bozori;
- oltin bozori.

32.1.1-jadval
Jahon valyuta, kredit va moliya bozorlari: ishtirokchilari va tarkibi

Milliy ishtirokchilar	Bozorlarning tarkibi	Xalqaro ishtirokchilar
Korporatsiyalar	Valyuta bozorlari, shu jumladan yevrovalyutalar bozori	Xalqaro korporatsiyalar, TMK
Banklar va maxsus moliya-kredit institutlari, shu jumladan sug'urta kompaniyalari	Ssuda kapitallari bozori:	Xalqaro banklar, TMB Maxsus moliya-kredit institutlari, shu jumladan sug'urta kompaniyalari
	a) pul bozori;	
	b) kapitallar bozori;	
	d) yevrobozor.	
Fond va tovar birjalari	Moliya bozorlari	Yirik fond va tovar birjalari
	Sug'urta bozorlari	Davlat
Davlat	Oltin bozori	Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari

Manba: Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: Учебник / Под ред. Л. Н. Красавиной. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Финансы и статистика, 2002. С. 332.

Jahon moliya bozorining segmentlari o'zaro bog'liq bo'lib, ular o'rtasida doimiy ravishda moliyaviy resurslarning oqib o'tishi sodir bo'ladi.

Jahon moliya bozorlari tashkiliy jihatdan quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Rasmiy tashkil etilgan yopiq moliya bozorlari. Ushbu bozorlarga kirish imkoniyati cheklangan.
2. Norasmiy tashkil etilgan ochiq moliya bozorlari. Ushbu bozorlarga kirish imkoniyati cheklanmagan.
3. Birlamchi bozor. Bu bozorda yangi chiqarilgan moliyaviy aktivlar savdosi amalga oshiriladi.
4. Ikkilamchi bozor. Bu bozorda mavjud moliyaviy aktivlar savdosi amalga oshiriladi.
5. Doimiy bozor. Bu bozorlarda operatsiyalar maxsus xonalarda, uskunalarda va informatsion texnologiyalar yordamida xohlagan vaqtda amalga oshiriladi va doimiy bo'lmagan bozorlar, masalan, kimoshdi savdolar (auksionlar) o'tkaziladi.

Miqyosiga ko'ra moliyaviy bozorlar: milliy; hududiy va jahon bozorlariga bo'linadi.

Jahon moliya bozori jahon bozorining raqobatchi subyektlari o'rtasida tovarlar, xizmatlar va kapitallarning harakatini ta'minlab beradi. Bundan tashqari moliya bozorlari konyunkturaning holati to'g'risida menejerlarga zarur qarorlarni qabul qilishda yordam beruvchi turli signallarni beradi.

Moliyaviy resurslar quyidagi kanallar bo'yicha harakatlanadi:

- tovarlar (maxsus tovar — oltinni ham hisobga olgan holda) va xizmatlar savdosini amalga oshirishdagi valyuta-kredit va hisob-kitob xizmatlari;
- asosiy va aylanma kapitallarga xorijiy investitsiyalar;
- kredit operatsiyalari;
- valyuta operatsiyalari;
- qimmatbaho qog'ozlar va hosilaviy moliyaviy dastaklar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar;
- rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam hamda xalqaro tashkilotlarga a'zolik badali shaklida milliy daromadning davlat byudjeti orqali qayta taqsimlanishi va boshqalar.

Jahon moliya bozori turli milliy moliya bozorlari asosida yuzaga kelgan bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'langan.

Jahon moliya bozorining tarkibini o'rganish va tahlil etish jahon moliya bozorining mohiyatini tizimli o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Jahon moliya bozorining tarkibini savdo qilinadigan moliyaviy dastaklar, boshqaruv va nazorat imkoniyatlari, moliyaviy operatsiyalar amalga oshiriladigan joy va institutsionallik kabi omillar asosida o'rganish mumkin.

Institutsional nuqtayi nazardan esa jahon moliya bozorining tarkibi unda ishtirok etish xarakteri, maqsadi va investorlarning turiga ko'ra tahlil etiladi.

Savdo qilinadigan moliyaviy dastaklarga asosan jahon moliya bozorining tarkibi valyuta, kredit, investitsiyalar, sug'urta va fond bozorlariga bo'linadi. Ushbu segmentlarning yagona jahon moliya bozoriga birlashtirilishiga sabab ularda amalga oshiriladigan operatsiyalarning barchasi moliyaviy resurslar oqimini yuzaga keltirishi bilan bog'liq. Jahon moliya bozorining barcha segmentlari moliyaviy resurslarning erkin harakatini ta'minlab berishga xizmat qiladi.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida jahon moliya bozori jadal sur'atlarda rivojlanib, savdo operatsiyalarida turli yangi moliyaviy dastaklar paydo bo'ldi. Ushbu moliyaviy dastaklar tarkibiga derivativlarni kiritish mumkin. Derivativlar biror-bir moliyaviy dastakning hosilaviy shakli hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, bir tomondan derivativlarning paydo bo'lishi valyuta va qimmatbaho qog'ozlarning kurslari bo'yicha yuzaga keladigan risklarning oldini olish hamda risklarni qayta taqsimlash imkoniyatini bergan bo'lsa, boshqa tomondan derivativlar jahon moliya bozorida spekulyativ savdolar hajmining ortib ketishiga sabab bo'ldi. Valyutalar va qimmatbaho qog'ozlar kurslari bo'yicha yuzaga keladigan risklarning oldini olish imkoniyatining yuzaga kelishi tovar va xizmatlar bozorining rivojlanishiga, bu esa jahon iqtisodiyotining real sektori rivojlanishiga olib keldi. Spekulyativ savdolar jahon moliya bozorlarida kunlik savdo hajmining ortib ketishi, bozorga qo'shimcha spekulyativ resurslarning kirib kelishi, «iqtisodiyotda sovun pufagi»ning paydo bo'lishi va 1994, 1997–1998, 2002, 2008-yillarda xalqaro moliyaviy inqirozlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. 2008-yilning ikkinchi yarmidan boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bugungi kunda jahon moliya tizimini butunlay tang holatga keltirib qo'ydi.

Boshqaruv va nazorat imkoniyatlariga ko'ra jahon moliya bozorlari birja, boshqariladigan bozorlar va birjadan tashqari boshqarilmaydigan bozorlarga bo'linadi. Jahon moliya bozorida amalga oshirilayotgan operatsiyalarning taxminan 10–12 %nazorat ostida, boshqa operatsiyalar esa nazoratsiz amalga oshiriladi.

Jahon moliya bozorining tarkibini o'rganishda moliyaviy operatsiyalar amalga oshiriladigan joyni e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega. Ushbu mezonga asosan jahon moliya bozorida quyidagi ikki segmentni ajratish mumkin:

1. Xalqaro moliya markazlari (London, Nyu-York, Tokio, Frankfurt-na-Mayne, Syurix, Singapur, Gonkong);
2. Offshor[1] hududlar (Men orollari, Kipr, Kayman va boshqalar).

Jahon moliya bozori institutsional nuqtayi nazardan bu bozorda faoliyat ko'rsatadigan barcha subyektlar majmuyidir (32.1.1-rasm).

32.1.1-rasm.
Jahon moliya bozorining asosiy subyektlari



Jahon moliya bozori subyektlari **operatsiyalarda ishtirok etish xarakteriga ko'ra** bevosita va bilvosita ishtirokchilarga ajratiladi. Birja (boshqariladigan) jahon moliya bozorlarida bevosita ishtirokchilar guruhiga o'z hisobidan, mijozlar hisobi va topshiriqnomalariga ko'ra operatsiyalarni amalga oshiruvchi brokerlar, maklerlar kiradi. Birjaning a'zosi bo'lmagan mijozlar brokerlarga murojaat qilishadi va ular o'z navbatida bilvosita ishtirokchilar guruhiga kiradi. Birjadan tashqari (boshqarilmaydigan) bozorlarda bevosita ishtirokchilar guruhiga yirik marketmeykerlardan[2] tashqari barcha ishtirokchilar bilvosita ishtirokchilar guruhiga kiradi.

1 Offshor — kredit tashkilotlari (milliy va xorijiy) norezidentlar bilan chet el valyutasida operatsiyalarni amalga oshiruvchi jahon moliya markazi. Ssuda kapitallarining ichki bozori rezidentlarning hisob-raqamlarini norezidentlar hisob-raqamlaridan ajratish yo'li bilan tashqi (xalqaro) bozordan ajratib qo'yiladi hamda norezidentlarga soliq imtiyozlari, valyuta nazoratidan ozod qilish va boshqa shu kabi imtiyozlar beriladi.

2 Doimiy ravishda valyutalarni olish va sotish kurslari kotirovkalarini hamda shu kotirovkalar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiruvchi moliya tashkilotlari.

Jahon moliya bozori ishtirokchilari **ishtirok etish maqsadiga ko'ra** xedjerlar va spekulyantlarga bo'linadi. Spekulyantlar o'z navbatida treyderlar va arbitrajlarga ajratiladi. Xedjerlar — valyuta kurslarining kelgusida salbiy tomonga o'zgarishidan ko'riladigan moliyaviy zararning oldini olish bilan shug'ullanuvchi ishtirokchilardir. Spekulyantlar — moliyaviy instrumentlarning kurslaridagi farq hisobiga foyda olishni ko'zlagan ishtirokchilar. Treyderlar — moliyaviy instrumentlarning kurslari o'zgarishidan foydalangan holda bir yoki bir nechta shartnomalar asosida foyda olishni ko'zlagan jahon moliya bozori ishtirokchilari. Bunday operatsiyalar moliyaviy resursning kursi oshishi kutilayotgan sharoitda sotib olish va ko'zlangan nuqtada sotish, moliyaviy resursning kursi tushishi kutilayotgan sharoitda esa uni sotish va ko'zlangan nuqtada sotib olish kabi shartnomalar bilan amalga oshiriladi. Treyderlar bozorning likvidligini oshiradi. Arbitrajchilar — bir vaqtning o'zida turli bozorlarda, turli narxlar asosida moliyaviy resursni sotib olish va sotish orqali foyda ko'radigan jahon moliya bozori ishtirokchilari. Arbitrajchi moliyaviy dastaklarni yuqori narx bo'lgan bozorda sotadi va narxi past bo'lgan bozorda esa sotib oladi. Narxlardagi farq esa uning foydasi hisoblanadi. Arbitrajchi o'zining faoliyati orqali turli moliyaviy bozorlardagi narxlar va kurslarning tenglashishiga, shu bilan birga jahon moliya bozorining turli segmentlaridagi o'zaro bog'liq moliyaviy dastaklarning paritet nisbatlaridagi daromadliligini tiklashga turtki beradi.

Jahon moliya bozori **investorlar turiga ko'ra** xususiy va institutsional ishtirokchilarga ajratiladi. Xususiy investorlar — moliyaviy instrumentlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslardan iborat. Keyingi guruh investorlari — institutsional investorlar yoki jamoaviy investitsiyalash bilan shug'ullanuvchi moliya institutlari guruhi hisoblanadi. Oxirgi 20 yil davomida investitsion faoliyatda tijorat banklari, pensiya fondlari, sug'urta, investitsion va moliya kompaniyalari, jamg'arma banklari, o'zaro jamg'arma kompaniyalari va boshqa moliya-kredit institutlari, xalqaro moliya institutlarining roli oshib bormoqda.

Jahon moliya markazlari xalqaro moliyaviy resurslar oqimlarining bir joyga jamlanishi va eng foydali tarmoqlarga taqsimlanishini ta'minlab beradigan markazlar hisoblanadi. Tarixan ular milliy bozorlar, keyinchalik esa jahon valyuta, kredit, fond, oltin bozorlari asosida tashkil topgan. Shuning uchun jahon moliya markazlari tarkibida jahon moliya bozorining barcha segmentlari mavjud.

32.2. Jahon moliya bozorining tarkibi va rivojlanish xususiyatlari

Jahon moliya bozorining shakllanishi milliy ssuda kapitalining xalqaro operatsiyalar orqali baynalmilallashuvi tufayli yuz berdi. Bu jarayon XX asrning 60-yillariga to'g'ri keladi. Bungacha deyarli 40 yil davomida 1929–1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi, Ikkinchi jahon urushi, valyuta cheklovlari, bozor, depozitlar bo'yicha stavkalar va boshqalar qattiq nazorat ostida bo'lganligi uchun moliya bozori deyarli faoliyat ko'rsatmas edi. Buyuk depressiya davridan boshlab pul bozorlari qattiq nazorat qilina boshladi. Masalan, AQSh da banklar depozitlari bo'yicha foiz to'lovlari 1 %dan 2,5 %gacha chegaralab qo'yilgan edi. Bunda kreditlar bo'yicha bozor stavkalari ancha yuqori bo'lib, kapitallarni xorijiy banklarga qo'yilishiga undardi.

Jahon moliya bozori rivojlanishining obyektiv sababi xo'jalik aloqalarining xalqaro darajaga ko'tarilishi va milliy moliya bozorlarining xalqaro operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatlarining cheklanganligi hisoblanadi. Jahon valyuta, kredit, qimmatli qog'ozlar va oltin bozorlari rivojlanishiga asosiy turtki raqobat muhiti bo'lgan. Aynan raqobat muhiti moliyaviy resurslarning xalqaro oqimi hajmini, valyuta-moliya va to'lov shartlarini nazorat qilib, qayta taqsimlab beradi.

Lekin shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, raqobat muhiti har doim ham kutilgan natijani beravermaydi. Shuning uchun bozor nazorati hukumat va hukumatlararo nazorat tizimlari bilan birlashadi. Hukumatlar va xalqaro tashkilotlar jahon moliya bozorini nazorat qilishlaridan ko'zlangan maqsad bu sohada inqiroz holatlari yuzaga kelishining oldini olishdan iborat.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, xomashyo manbalari, foydali investitsiyalar, yangi bozorlarga bo'lgan raqobat kurashining rivojlanishi jadal sur'atlar bilan moliyaviy resurslarning bir mamlakatdan boshqasiga oqib o'tishiga, bunday resurslar milliy xarakterining tobora yo'qolib borishiga olib keldi. Milliy moliya bozorlari o'zlarining nisbiy mustaqilligini saqlab qolishgan bo'lsa-da, lekin jahon moliya bozorlari bilan chambarchas bog'lanib bormoqda. Jahon moliya bozorlarining barqaror sur'atlarda o'sishi tufayli keng imkoniyatlarning mavjudligi va tobora mobillashib borishi xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi muhim sohalardan biriga aylandi.

Ma'lumki, bugungi kunda jahon iqtisodiyoti chuqur tizimli inqiroz sharoitida bo'lib, fond va bank tizimining inqirozga uchrashi tufayli iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga ta'sir ko'rsatdi.

Jahon xo'jaligining moliyaviy sektoriga ko'rsatayotgan ta'siri inqirozning milliy iqtisodiyotga ta'sirini minimallashtirish maqsadida markaziy banklar tomonidan moliya bozorini doimiy ravishda kuzatib, tahlil qilib borishini talab etmoqda.

Global moliya bozori xalqaro masshtabda kapitallarning harakatini ta'minlab berishi bilan jahon iqtisodiyotining muhim elementi bo'lib xizmat qiladi. XX asrning 60-yillarida jahon moliya bozorining vujudga kelishi ssuda kapitallari bozori xalqaro operatsiyalarining baynalmilallashuvi asosida ro'y berdi. Bu davrga qadar bir qator sabablar — 1929–1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi, Ikkinchi jahon urushi, mavjud valyuta cheklovlari va bozorning qattiq nazorat etilishi tufayli xalqaro savdo faol bo'lmay, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar va moliyaviy operatsiyalar deyarli yo'q edi.

Bretton-Vudsda shakllantirilgan institutlarga (XVF va Jahon banki) kapitallar oqimini xalqaro miqyosda kengaytirish va jadallashtirish orqali jahon savdosi rivojlanishiga turtki berish maqsadida asos solingan edi. Jahon banki to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar tanqisligini to'ldirib turishi, Xalqaro valyuta fondi esa savdodagi disbalansni bartaraf etish uchun moliyaviy kreditlarga bo'lgan talabni qondirishi kerak edi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda asta-sekin tashqi savdo va valyuta cheklovlarini bekor qilish siyosati olib borildi. Jahon moliya bozoridagi operatsiyalarga davlatning aralashuv shakli hamda darajasi har bir mamlakatning valyuta-kredit tizimi va iqtisodiyotining holatidan kelib chiqqan holda o'zgarib turar edi. Integratsion jarayonlar yagona foiz stavkalari tizimining shakllanishi va muomaladagi valyutalar doirasining qisqarishiga olib keldi. Yirik milliy kompaniyalar va banklarning transmilliylashuvi sodir bo'ldi. Aynan shular qo'shimcha daromad olish maqsadida bo'sh turgan aktivlarni xorijdagi ishlab chiqarish va moliya strukturalarini investitsiyalashga turtki berib zarurat tug'ilganda jahon moliya bozoridan qo'shimcha kapital qarzga olinar edi.

Yuqori axborot texnologiyalarining rivojlanishi turli moliya bozorlarining birbirlariga bog'liqligi hamda ularning barchasining AQSh iqtisodiyoti va moliyasiga bog'liqligini kuchaytirib yubordi.

O'ziga xos rivojlanish sur'atlariga ega bo'lgan integratsiyalashgan global moliya bozori shakllandi. Uning ichida kapitallarning doimiy harakati ro'y berib, qisqa muddatli qo'yilmalar o'rta va uzoq muddatli kreditlarga aylandi, qimmatli qog'ozlar emissiyasi o'rnini oddiy bank zayomlari egalladi. Qimmatli qog'ozlar bozori

hajmi astronomik ko'rsatkichlarda hisoblanadigan darajada spekulyativ kengayishi va kapital qo'yilmalari hajmining ko'payishi yuz berdi.

Ishlab chiqarish xarajatlari rivojlanayotgan mamlakatlardagi arzon ishchi kuchi va resurslar hisobiga tovarlarning tannarxiga minimal darajada ta'sir ko'rsata boshladi. Moliya bozorlari tobora iqtisodiy reallikdan farqlanib borib, valyutalar va qimmatli qog'ozlarning narxlari ramziy ravishda sun'iy yaratilgan narxlar asosida shakllandi.

Moliya bozorida noaniqlikning yuzaga kelishi, xususan, valyuta va qimmatli qog'ozlarning kurslaridagi noaniqlik risklarni boshqarish mexanizmlarining rivojlanishiga turtki berdi. An'anaviy moliyaviy dastaklar yangi turdagi qimmatli qog'ozlar va majburiyatlar — boshqa qimmatli qog'ozlarning hosilasi hisoblangan derivativlar bilan to'ldirildi. Derivativlar valyutalar, aksiyalar va boshqa aktivlarning kurslari o'zgarishi hisobiga o'ynash imkoniyatini ochib berdi. Ushbu bozorning xususiyati shundan iboratki, moliyaviy operatsiyalar olib boradigan ayrim ishtirokchilarning risklarini qayta taqsimlash va pasaytirish orqali uning faoliyati umumiy tizimli riskning oshib ketishiga olib keladi. Derivativlar bilan olib boriladigan tranzaksiyalar, amalda, huquqiy boshqaruv tizimiga bo'ysunmas ekan, bu holat keng miqyosdagi spekulyativ operatsiyalarga yo'l ochib, moliya, valyuta-moliya sohasining real iqtisodiyotdan ajralib chiqishi jarayonini jadallashtiradi.

Bu ajralish ular o'rtasidagi aloqaning susayganligini bildirmaydi. Aksincha, bog'liqlik darajasi kengaydi, lekin oldindan aytib bo'lmaydigan xarakterga ega bo'lib bordi. Moliyaviy operatsiyalar sohasida kapitalni akkumulyatsiya qilish darajasi tobora o'sib bordi, natijada bunday akkumulyatsiya oqibatida to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning spekulyativ aktivlarga aylanishi yuz berdi. Shunday qilib jahon moliyaviy-iqtisodiyot dunyosida «Sovun pufagi» deb nomlangan fenomen yuzaga keldi.

Katta hajmdagi kapitallarning nazoratsiz harakati, asosan, qisqa muddatli portfel investitsiyalar shaklida yuz beradi va ularning moliyaviy spekulyatsiyalar sohasida konsentratsiyalanishi butun moliya bozori tizimining beqarorlashuviga olib keladi. Buning oqibatlarini biz davriy ravishda yuzaga keladigan valyuta-moliya inqirozlarida ko'rishimiz mumkin.

XXI asr boshlarida sodir bo'layotgan voqealar global tendensiyalar bilan bog'liq bo'lgan inqirozlarning tizimli xarakterga ega ekanligini tasdiqladi. 2008-yilning ikkinchi yarmidan boshlab, butun xalqaro moliya bozori tizimini larzaga keltirgan jarayonlar muomaladagi qimmatli qog'ozlar va pul massasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik juda beqaror ekanligini ko'rsatib berdi.

O'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan va bu inqirozning kelgusidagi qaytarilishining oldini olib bo'lmaydigan quyidagi muammolarni sanab o'tish mumkin:

- hosilaviy qimmatli qog'ozlar bozori bilan bog'liq bo'lgan muammolar;
- milliy valyuta tizimlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar;
- jahon qarzdorlik inqirozi bilan bog'liq bo'lgan muammolar;
- tovar va xizmatlar bozorining ochiqlik darajasi bilan bog'liq bo'lgan muammolar.

Jahon moliya bozorini boshqaruvchi mavjud dastaklar yetarli emas va amalda inqirozdan chiqishga yordam beradigan yoki kelgusida ro'y berishi mumkin bo'lgan inqirozlarni oldindan aytib bera oladigan aniq retsept mavjud emas. Muammoni hal qilish uchun butun jahon bo'yicha iqtisodiy va siyosiy jihatdan yuqori darajadagi integratsiya bo'lishi kerak. Lekin, amalda jahon bozorida raqobatlashuvchi Shimoliy Amerika, G'arbiy Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo hududlari bo'yicha xalqaro hududiy iqtisodiy bloklarning vujudga kelishi yuz bermoqda.

Bloklarni shakllantirish jahondagi iqtisodiy holatning beqarorlashuviga qarshi o'ziga xos himoya reaksiyasi hisoblanadi. Shu bilan birga Xitoy va Hindiston singari mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati ortib, ularning yaqin kelajakda hududiy bloklar bilan tenglashtiriladigan iqtisodiy tizimlarga aylanishi kutilmoqda.

XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib jahon moliya bozori miqyosi juda katta hajmga ega bo'ldi. Xalqaro hisob-kitoblar Banki va XVF ma'lumotlariga ko'ra, muomalaga kiritilgan xalqaro obligatsiyalarning qiymati 2,3 trln. dollarni, butun mamlakatlarning tashqi qarz majburiyatlari esa 3,2 trln. dollarni tashkil qilar ekan. 70-yillarning oxirida yuzaga kelgan hosilaviy moliyaviy dastaklar bozori jadal sur'atlar bilan rivojlanib kelmoqda. Ulardan eng muhimlari hisoblangan foiz svoplari va opsionlari hamda zayomlar bo'yicha valyuta svoplarining umumiy qiymati 40 trln. dollardan oshib ketgan. Bu esa, biznesning naqd puldagi operatsiyalarning muddatli operatsiyalarga va real sohadagi operatsiyalarning moliyaviy sohadagi operatsiyalarga ko'chib o'tishini ko'rsatadi.

Jahon moliya bozorining zamonaviy tarkibi kredit resurslari operatsiyalarining oxirgi ishtirokchilari — kreditor va qarzdor — turli mamlakatlarning rezidentlari bo'yicha qayta taqsimlashni taqozo etar edi. Institutsional nuqtayi nazardan bozor ishtirokchilari — bu xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida ssuda kapitallarining harakatini ta'minlab beruvchi kredit-moliya tashkilotlaridir. XXI asr boshlarida kapitallarning iste'molchilari (asosiy qarz oluvchilari) hisoblangan korporatsiyalar va banklarning kapital tarkibida qarz dastaklarining ulushi oshib ketdi. Qarz oluvchilarning jahon moliya bozoriga kirishi ancha soddalashtirildi, operatsiyalar olib borishga kam xarajatlar talab etilar va axborot berish masalasida talablar soddalashtirilgan edi. Bir vaqtning o'zida yirik qarzlarni hukumatlar olardi. Lekin ular o'zlarining statusiga ko'ra jahon moliya bozoriga to'g'ridan to'g'ri murojaat qila olmaydilar va bu masala aksiyadorlik jamiyatlari orqali amalga oshirilar edi.

Moliyaviy bozorlardagi oxirgi o'n yillikning muhim tendensiyalaridan biri — jamoa investitsiyalash bo'yicha institutsional investorlaring yoki moliyaviy institutlarning miqdoriy va sifat o'sishi sodir bo'lishi hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalari, pensiya va paychilik fondlari, investitsion kompaniyalarning roli o'sib borib, investitsiyalar uzoq muddatli xarakterga ega bo'lgan fond boyliklariga qaratilishi jarayoni ro'y berdi.

Valyuta zaxiralarining intensiv ravishda jamlanishi jahon moliya bozorida markaziy banklarning investor sifatidagi o'rni va ahamiyatining oshishiga olib keldi. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, Markaziy banklar mamlakatning moliyaviy resurslarini samarali boshqaradi va valyuta intervensiyasini yuritadi. Har bir markaziy bank o'zining investitsion siyosatini olib boradi. Hozirda moliyaviy dastaklar doirasi juda keng, o'z navbatida, markaziy banklarning invetitsion portfeli differensiatsiyalashmoqda.

Hosilaviy moliyaviy dastaklar bilan savdo dinamik ravishda o'sib bordi. Bu esa tez o'zgaruvchi xalqaro iqtisodiy munosabatlar sharoitida moliya bozorining rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan yangi turdagi dastaklarning jadal sur'atlarda paydo bo'lishiga olib keldi.

Global moliya tizimining hosilaviy moliyaviy dastaklar bozori jahon moliyaviy-iqtisodiy tizimini izdan chiqaruvchi manba bo'lib qoldi.

Jahon moliya bozorining rivojlanishidagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qadar quyidagi tendensiyalarni ajratish mumkin[1]:

1 Фролова Е. В. Мировой финансовый рынок: до и после кризиса. //ЭКО, №6, 2010. С. 163–164.

Birinchidan, 1995–2005-yillarda aksiya va obligatsiya bozorlari jadal sur'atlarda rivojlandi, bank depozitlari ulushi esa qisqarib bordi. Ushbu tendensiya 2006-yilga qadar davom etdi, ammo bank depozitlari odingi uch yilga nisbatan mutlaq qiymati bo'yicha o'rtacha ikki barobarga oshgan va depozitlar hajmining o'sishi, asosan, AQSh ga to'g'ri kelgan. AQSh da aholi uy-joy qurilishining jadal sur'atlarda rivojlanishi sababli aksiyalardan tushgan tushumlarni qurilishga sarflashdi. Inqiroz esa vaziyatni sezilarli darajada o'zgartirdi va bank depozitlarining istiqboldagi o'sishi Xitoy iqtisodiyotining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib qoldi. Chunki bu mamlakatda depozitlar — jamg'arishning asosiy manbayi hisoblanadi.

Ikkinchidan, jahon moliya bozorining «moliyaviy chuqurligi» ortdi. «Moliyaviy chuqurlik» tushunchasi makroiqtisodiyotda 1980-yillarda Jahon banki tomonidan iqtisodiy o'sish sur'atlari va iqtisodiyotning pul resurslari bilan to'yinganligi, moliya, pul-kredit tizimlarining murakkabligi va keng tarmoqliligi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalash uchun joriy etilgan. Makrodarajada bu ko'rsatkich moliyaviy bozorning kapitallashish darajasi (qarz yukining monetizatsiya darajasi)ning yalpi ichki mahsulotga nisbati orqali topiladi. Mikrodarajada esa kompaniyaning bozordagi kapitallashish darajasining kompaniya kapitaliga nisbati sifatida baholanadi.

Jahon moliya bozorining «moliyaviy chuqurligi» ko'rsatkichi 2006-yilda 345 %ga teng bo'lgani holda 2007-yilda 359 %ga yetdi va asosan aksiya, obligatsiyalar bozori, ba'zi hollarda davlat qarzining ortishi yoki aktivlar bozorini noto'g'ri baholash hisobidan yuz berdi. Moliya bozorining «chuqurligi» ularning likvidligini oshirdi, qarz oluvchilar uchun kredit olish imkoniyatlarini yaxshiladi, moliyaviy aktivlarni[1] samarali baholashga yordam berdi va iqtisodiy o'sishni jadallashtirdi. Davlat qarzlaridan tashqari barcha turdagi aktivlar hajmi ortib bordi. Jumladan, 1990-yilda moliyaviy aktivlar hajmi 33 ta mamlakatda YaIM hajmidan oshib ketgan bo'lsa, 2006-yilga kelib ularning soni 72 taga yetdi.

Uchinchidan, xorijiy investitsiyalar miqyosi hajmi ortdi va bu holat moliya bozorlarining bir-biriga bog'liqligini yanada kuchaytirdi. Axborot olish tezligi, yangi texnologiya va kommunikatsiyalar global banklar hamda moliyaviy vositachilarni vujudga keltirdi. Ko'plab mamlakatlar xorijiy kapital harakati yo'lidagi to'siqlarni kamaytirdi, xorijiy investorlar uchun ichki bozorlarni ochib, o'z fuqarolari va kompaniyalariga xorijga kapital chiqarish uchun ruxsat berishdi.

To'rtinchidan, investorlar o'z mamlakatlarining ichki bozorlariga qaraganda tashqi bozorlarga ko'proq kapital sarflay boshlashdi. Tahlillar ko'rsatishicha, xorijiy investorlar 1990-yilda jahon korporativ obligatsiyalarining 7 %ga egalik qilgan bo'lsalar, 2007-yilda bu ko'rsatkich 21 %ga yetdi.

Beshinchidan, xorijiy qarzlar va kreditlar hajmi jadal sur'atlarda ko'paydi. 2002–2006-yillarda xorijiy qarzlar va kreditlar hajmi 4 baravarga oshib, jahon moliya bozorining yirik segmentiga aylandi. 2006-yilda xorijiy obligatsiyalarga kapital qo'yish hajmi 2,5 trln. dollarni tashkil etib, ushbu bozorning ikkinchi segmentiga aylandi. Investorlar davlat obligatsiyalariga emas, balki korporatsiyalarning obligatsiyalariga mablag' sarflay boshlashdi. Natijada davlat obligatsiyalari ulushi obligatsiyalar bozorining uchdan bir qismigacha qisqarib, korporativ obilagsiyalar ulushi ikki baravarga ortdi. Xorijiy aksiyalarga investitsiyalar 2006-yilda 926 trln. dollarni tashkil etib, moliya bozorining 11 %ni tashkil etdi.

Jahon moliya bozorining geografik tarkibida rivojlangan mamlakatlar yetakchi mavqega ega. AQSh qimmatli qog'ozlar bozori jahondagi eng yirik bozor

1 Moliyaviy aktivlar — jahon moliya bozori aktivlarining bir qismi bo'lib, o'zida bank depozitlari va qimmatli qog'ozlar kabi moliyaviy resurslarni ifoda etadi.

hisoblanadi. Yevrozona, Buyuk Britaniya va Yaponiya bozorlari keyingi o'rinlarni egallaydi va ularning bu bozordagi ulushi ortib bormoqda (32.2.1-rasm).

32.2.1-rasm.
Obligatsion va aksioner kapitalning dunyo mamlakatlari bo'yicha taqsimlanishi, 2009-y. jamiga nisbatan foiz hisobida



Manba: Фролова Е. В. Мировой финансовый рынок: до и после кризиса. //ЭКО, №6, 2010. С. 163–164.

Tahlillar ko'rsatishicha, 2006-yilda AQSh da moliyaviy aktivlar miqdori 56,1 trln. dollarni, Buyuk Britaniya va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida esa 53,2 trln. dollarni tashkil etdi. Bunda Yevropa mamlakatlari aktivlari o'sishining 75 % aksiya va obligatsiyalar bozoriga to'g'ri keladi (Buyuk Britaniyada, asosan, aksiyalar, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida obligatsiyalar hisobiga). Yevropa bozorlaridagi moliyaviy chuqurlik ko'rsatkichi AQSh ga nisbatan ikki baravar tezlikda ortib borib, 2007-yilda yevroda hisoblanadigan obligatsiyalar hajmi dollardagi obligatsiyalar hajmidan oshib ketdi (840 mlrd. yevro — 814 mlrd. dollar).

Jahon moliya bozorining inqirozgacha bo'lgan davridagi rivojlanishida rivojlanayotgan mamlakatlarning o'rni katta. Rivojlanayotgan mamlakatlar moliyaviy aktivlari 2006-yilda 5,3 trln. dollarga o'sdi va hajmi 23,6 trln. dollarga tenglashdi. 2007-yilda esa rivojlanayotgan mamlakatlar moliya bozori 35 %ga o'sdi, asosiy investitsiyalar Xitoy va Rossiya iqtisodiyotiga jalb etildi. Xitoy moliya bozori hajmi jihatdan jahonda AQSh va Yaponiyadan keyin uchinchi o'rinni egalladi.

32.3. Jahon moliyaviy inqirozining vujudga kelish sabablari va undan chiqish yo'llari

Yuqorida qayd etilgan sabablar ta'sirida vujudga kelgan joriy moliyaviy inqiroz va retsessiya jahon moliya bozorida deyarli o'ttiz yil moboynida davom etayotgan o'sish sur'atlarining to'xtatishiga olib keldi. Tahlillar ko'rsatishicha, 2008-yilda jahon moliyaviy aktivlari 16 trln. dollarga (8 %) qisqardi va 178 trln. dollarni tashkil etdi. Dunyoning barcha yirik mamlakatlarida moliyaviy aktivlarning qisqarishi yuz berdi, jumladan, eng katta pasayish Sharqiy Yevropa mamlakatlari (64 %), Rossiya (40 %), Hindiston (23 %), Xitoyda (17 %) yuz berdi. Mutlaq ko'rsatkichlar bo'yicha eng katta yo'qotish AQSh ga tegishli bo'lib, 2007–2008-yillarda mamlakat moliyaviy aktivlari 5,5 trln. dollarga kamaydi (32.3.1-jadval).

32.3.1-jadval

Dunyoning ayrim mamlakatlarida moliyaviy aktivlarning o'zgarishi, 2007–2008-yy.

Mamlakat	Hajmi, trln. doll.	O'zgarish, %	Mamlakat	Hajmi, trln. doll.	O'zgarish, %
AQSh	–5,5	–9	Lotin Amerikasi mamlakatlari	–0,2	–6
Yevrozona mamlakatlari	–1,6	4	Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari	–0,4	–9
Yaponi	–2,4	–8	Rossiya	–0,8	–40
Xitoy	–2,4	–17	Hindiston	–0,6	–23
Buyuk Britaniya	0,6	8	Sharqiy Yevropa mamlakatlari	–2,8	–64

Manba: Фролова Е.В. Мировой финансовый рынок: до и после кризиса. //ЭКО. №6, 2010. С.166.

«Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indekslari va aksiyalarining bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi»[1].

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, ipoteka inqirozi — aysbergning faqatgina tepa qismi, xolos. Muammolarning asosiy manbayi bo'lib ipoteka obligatsiyalarini chiqarish bilan shug'ullanuvchi yirik moliya institutlari faoliyati hisoblanadi.

1 Каримов И. А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инкирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. — Т.: «Ўзбекистон», 2009, 4-б.

Shunday qilib, ekspertlarning hisob-kitobiga ko'ra 2005-yildan boshlab to 2008-yilning birinchi yarmi yakunlarigacha Amerika banklari 200 mlrd. dollar miqdorida ipoteka kreditlari berishgan. Shu bilan birga bu yillar davomida «Leman Brazers», «Goldmen Saks» va boshqa banklar fond bozorlariga ipoteka kreditlari shartnomalariga asoslangan, umumiy qiymati 8 trln. dollarga teng bo'lgan daromadli obligatsiyalar joylashtirildi. Shunday qilib, sotilgan ipoteka obligatsiyalari hajmi berilgan kreditlar qiymatidan bir necha o'n barobarga oshib ketdi. Bu masala yuzasidan tahlilchilar turlicha fikr bildirishadi. Bundan kelib chiqib, sotilgan obligatsiyalar to'liq ta'minlanmagan yoki qisman ta'minlangan, degan xulosaga kelish mumkin. Bunda moliya bozori ishtirokchilari yuzaga kelgan derivativlarni sotib olish uchun zarur bo'lgan erkin pul massasiga ega emas edi. Amalda moliyaviy institutlar ko'p milliardlik obligatsiyalarni o'zlarining aktivlariga qo'shgan holda oddiygina o'zaro ayirboshlashar edi. Bank aktivlarining rekord darajada o'sishi yuqori bo'g'inlardagi menejerlarga katta mukofotlar to'lashni taqozo etar edi.

2007-yilda AQSh da olingan kreditlarni qaytarmaslik inqirozi yuzaga keldi. Bu jarayonda jismoniy shaxslar yetarli resurslarga ega bo'lmagan holda bank kreditlarini to'lashni kechiktirishar yoki umuman to'lamas edilar. Bu holat Amerika hukumatining moliyaviy zaiflashishiga olib keldi. 2007-yilning o'zidayoq Amerika aholisi, hatto eng kichik foizlarni ham to'lash qobiliyatiga ega emas edi, chunki bank kreditlari hisobiga iste'molni qo'llab-quvvatlash fondi resurslari deyarli tugatilgan edi.

Bozorda bu xabarning paydo bo'lishi natijasida ipoteka obligatsiyalarini sotish juda qiyin bo'lib qoldi. Natijada trillionlab aktivlarga ega bo'lgan dunyo banklarida joriy to'lovlarni amalga oshirish uchun real resurslarning yetishmovchiligi yuz bera boshladi. Bank sektorini inqiroz qamrab oldi; kompaniyalar tomonidan ko'rilgan zararlar to'g'risidagi ma'lumotlarning tarqalishi butun dunyo fond bozorlarida muvozanatsizliklarning yuzaga kelishiga olib keldi.

Butun dunyo bo'yicha iqtisodiy holat yomonlashdi: eng yirik transmilliy institutlarning to'lov resurslaridagi kamomad milliy bozorlarni ham inqiroz bilan kasallantirdi. Likvidlik inqirozi butun iqtisodiyotga, xizmat ko'rsatishdan to ishlab chiqarishgacha bo'lgan har bir tarmoqqa ta'sir ko'rsatdi.

Dunyo moliyaviy hamjamiyati tomonidan ko'rilgan jiddiy choralarga qaramasdan dunyoning yirik mamlakatlari iqtisodiyoti retsessiya holatiga tusha boshladilar[1]. Buning tasdig'i sifatida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Yaponiya hukumati 2008-yilning 17 noyabrida YaIM ning 2008-yilning uchinchi choragida 0,1 %ga qisqarganligini rasmiy e'lon qildi. Bu holat Yaponiya iqtisodiyotining 2001-yildan boshlab birinchi marta texnik retsessiya holatiga tushganligidan dalolat beradi.

Yevropa Ittifoqida 2008-yilning uchinchi choragida iqtisodiy o'sish oldingiga nisbatan ancha sust bordi. Shu yilning ikkinchi choragi bilan solishtirganda uchinchi chorakda Yevropa Ittifoqining barcha mamlakatlarida YaIM 0,2 %ga qisqargan. Bu ham Yevropa Ittifoqida retsessiya holatining boshlanganligidan dalolat beradi. Chunki ikkinchi chorakda ham YaIM 0,2 %ga qisqargan edi.

Jahon iqtisodiyotining moliya tuzimi juda og'ir holatga tushib qoldi, chunki spekulyativ kapitalning o'sib boruvchi massasini hech narsa ta'minlab bermas edi. Bu holatda muvozanatning buzilishiga sabab foydaga intilish, investitsion kapitalning bir bozordan boshqasiga tez ko'chib o'tishi hisoblanadi.

1 РосБизнесКонсалтинг. Economics & Markets. WEEKLY. 24 ноября 2008. С. 1.

Dunyoning fond bozorlaridagi aksiyalar kursining keskin pasayishi kompaniyalarning past rentabelligi va yetakchi banklarning katta zararlari to'g'risidagi ma'lumotlarning tarqalishi oqibatida yuzaga keldi. Aksiyalar narxlari keskin tushib ketdi, bozorda zararlari yoki daromadliligi to'g'risida ma'lumot umuman bo'lmagan ayrim kompaniyalarning ham qimmatbaho qog'ozlari narxlari pasayib ketdi. Fond bozorlari muvozanatsizlik chizig'iga tushib qolishdi va bu holat tovar bozorlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

2007-yil davomida deyarli barcha jahon bozorlarida o'sish kuzatildi. Dunyodagi eng yirik hisoblangan AQSh aksiyalar bozori 2007-yilning oxiriga kelib ipoteka inqirozi tufayli izdan chiqa boshladi. Faol o'sish nemis fond bozorida kuzatildi: DAX indeksi 22 %li eng yaxshi ko'rsatkich berdi. Britaniya aksiyalari 3,8 %ga, fransuz aksiyalari 1,3 %ga o'sdi. Rossiya fond bozori ham shu yili yaxshi rivojlandi, jumladan, elektroenergetika kompaniyalarida ahvol juda yaxshi edi. Lekin jahon iqtisodiyotida tobora muvozanatsizlik holatlari belgilari kuzatila boshladi.

AQSh da inqirozning birinchi belgilari paydo bo'lganidan keyin deyarli bir yil vaqt o'tdi. 2008-yilning oxiriga kelib bu jarayon Amerika eng faol va eng og'ir fazaga kirdi, ya'ni AQSh fond bozorlarida keskin pasayish kuzatildi, eng yirik investitsion banklar inqirozga uchradi, «Fani Mey» va «Freddi Mak» milliylashtirildi. 2008-yilning oxiri va 2009-yilning boshlarida Yevropa va Rossiyaga inqiroz kirib bordi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, ayrim analitiklar, bu inqirozdan Yevropa hududi mamlakatlari va Rossiya faqat foyda ko'radi deb hisoblashar edi.

2008-yilda korporatsiyalar o'sib borayotgan qiyinchiliklar tufayli o'zlarining zararlarini berkitishar yoki foydalarini oshirib ko'rsatishardi. Fond bozorlaridagi noaniqliklar butun jahon iqtisodiyotidagi yashirin muammolar bilan aralashib, bu muammolarning natijalarini prognozlash qiyinlashib bori.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 2000-yillarda berilgan iste'mol kreditlarning foizlaridan kelgan mablag'lar ko'pgina hollarda banklarning inflyatsiya natijasida ko'radigan zararlarini qoplab bera olmasdi. Juda past foizlar asosida (3 %gacha) aholini kreditlash kapitallarning global miqyosda jamg'arilishiga olib keldi. Bozorlarning imkoniyatlari darajasi juda pasaygani holatda jahon iqtisodiyotida og'ir, murakkab ahvol yuzaga keldi. Korporatsiyalar ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida katta mablag'lar sarf qilishar, lekin ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni sotish qiyinlashib borar edi. Shimoliy Amerika va Yevropada talabning tushib ketishi sharoitida katta ichki bozorlarga ega bo'lgan mamlakatlar, xususan Rossiya, Braziliya, Xitoy va Hindistonning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati o'sdi. Bu mamlakatlarda inqiroz boshlanganidan keyin ham ancha vaqtgacha iqtisodiy o'sish kuzatildi. AQSh dagi iqtisodiy faollik pasayish davrida bu mamlakatlar spekulyativ kapitallarni o'ziga jalb qiluvchi markazlarga aylandi.

2008-yilda jahon moliya tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatgan qo'shimcha omillardan biri — bu inflyatsiyaning kuchayishi, xususan, oziq-ovqat va yoqilg'iga narxlarning o'sib ketishi hisoblanadi. Sodir bo'lgan xalqaro inflyatsiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u global tarzda ro'y berdi. Bu inflyatsiya dunyoning barcha mamlakatlariga turli darajada ta'sir ko'rsatib, barcha pul birliklarining xarid qobiliyatini pasaytirib yubordi.

Inflyatsiyaning yuzaga kelishiga sabab global xo'jalikda tovar va pul massasining balansi buzilishi hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida pul massasi oshib ketdi, sanoat mahsulotlarining hajmi esa deyarli o'zgarmay qoldi. Bunda inqirozning ilk

bosqichlaridanoq tovarlarning narxlari tushib ketdi. Natijada ishchilarning ish haqlari hajmining pasayib ketishi kuzatilib, ularning xarid qobiliyati qisqarib bordi. Iste'mol hajmi asta-sekin tushib, talab esa faqat birlamchi ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan edi.

2008–2009-yillarda bu jarayon uzluksiz ravishda davom etib keldi. 2010-yilda esa birmuncha yaxshilanish holati kuzatildi. Lekin inqiroz jarayoni hali-hamon davom etmoqda. Ayrim tahlilchilarning fikricha, bu jarayon savdo inqirozining yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, murakkab iqtisodiy holatni yanada yomonlashtirishi mumkin. Chunki 2008-yildan 2009-yilning oxirigacha sanoat ishlab chiqarishi to'liq quvvaat bilan ishlamadi, ishsizlar soni ortib bordi. Xususan, hozirga qadar ishsizlik masalasi ko'pgina mamlakatlarda juda og'ir muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari va yoqilg'i narxlari, yalpi iste'mol hajmining qisqarishi jarayonida tushib bordi. Yaxshi agrar sharoitlarga ega bo'lgan mamlakatlar (xususan, Ukraina, Vengriya va Bolqon yarimorolining boshqa mamlakatlari) va neft eksport qiladigan mamlakat (Rossiya)ning global inqirozdan samarali foydalanish bo'yicha qilgan prognozlari noto'g'ri chiqdi. Neft narxi 2008-yilning sentyabr oyining boshlarigacha yuqori darajada bo'lib, sentyabr oyining ikkinchi yarmidan boshlab asta-sekinlik bilan tushib bordi. Bu esa birdaniga katta qarzlarga ega bo'lgan xomashyo korporatsiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Inflyatsiya bilan bog'liq bo'lgan umumjahon muammosini hal qilishga mamlakatlarning kelishilmagan holda olib borgan siyosati to'sqinlik qildi. Milliy rivojlanishni ta'minlash maqsadida pul-kredit siyosatini yumshatishga harakat qilayotgan hukumatlar, o'z navbatida, inflyatsiyani kuchayitirishga zamin yaratib berishdi va natijada bu dunyo iqtisodiyoti bo'yicha iqtisodiy faollik muhitining yomonlashishiga sabab bo'ldi.

Bundan tashqari, likvidlik inqirozining oldini olish maqsadida rivojlangan mamlakatlarning hukumatlari va markaziy banklari tomonidan iqtisodiyotga katta hajmdagi moliyaviy resurslar kiritildi. Lekin bunday strategiya nisbatan qisqa muddat davomida moliyaviy muvozanatni ta'minlashga ko'mak bersa-da, uzoq muddatda baribir pul massasining qadrsizlanishiga olib kelardi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, inflyatsiya global inqirozning bir ko'rinishi bo'lib, bunda jahon qimmatli qog'ozlari, ko'chmas mulklar (birinchi navbatda, AQSh da aholini ommaviy kreditlash jarayonining to'xtatilishi tufayli iste'mol hajmining tushib ketishi oqibatida) asosiy qismining narxlari tushib ketishi ro'y berdi. Pullarning tobora tovar bilan ta'minlanganlik darajasi tushib borib, inqirozning tarqalishini tezlashtirib yubordi.

Ishlab chiqarish hajmining tushib ketishi pul va tovar massasi o'rtasidagi muvozanatli bog'liqlikning buzilishiga ta'sir ko'rsatdi. Global xo'jalik stagflyatsiya holatiga tushib qoldi. Jahon moliya bozorlaridagi ommaviy pasayishlar dunyo hamjamiyati oldiga yangi muammolarni keltirib chiqarishda davom etdi. Ko'pgina mamlakatlar o'zlarining moliyaviy zaxiralarini AQSh dollaridan yevroga, yuanga o'zgartira boshlashdi. Bu esa ayrim tahlilchilarning fikricha, rivojlanayotgan mamlakatlarda inflyatsiyaning kuchayishiga, bu mamlakatlarning moliyaviy holatining yanada yomonlashishiga olib kelishi mumkin ekan.

AQSh va boshqa mamlakatlarning hukumatlari pullarning global ravishda qadrsizlanishiga tayyor emas edilar va aholi daromadlarining inflyatsion kamayishiga javobgarlikdan bosh tortishar edi. Inflyatsiyaga qarshi olib borilgan chora-tadbirlar inflyatsiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan asosiy omillarga ta'sir ko'rsatmadi. Natijada inflyatsiya bartaraf etilmay qolmoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, inqirozning yuzaga kelishini oldindan aytish mumkin edi. Amalga oshirilgan ko'pgina ishlar: ipoteka kreditlarini berish jarayonining liberalligi, ularni sekyuritizatsiya qilish bozori hajmining oshib borishi, investorlar tomonidan risklar darajasini baholashda yo'l qo'yilgan xatolar, reyting agentliklari tomonidan yolg'on reytinglarning berilishi inqiroz boshlanishiga olib keldi.

Shu o'rinda aytish joizki, inqirozning yuzaga kelish sabablarini oldindan ko'ra bilish yoki uning yuzaga kelish ehtimolini prognozlash imkoniyati bo'lgani bilan, aynan qachon yuzaga kelishi va miqyosi qanday bo'lishini oldindan aytib bo'lmaydi.

Har bir yangi yuzaga kelgan inqirozning ssenariysi deyarli oldingi inqirozlarni takrorlamaydi. Moliya bozorlarining holatini kuzatish bilan shug'ullanuvchi markaziy banklar va boshqa nazorat organlari inqirozga qarshi kurashishda ko'pincha ilgari ro'y bergan inqirozlarning yuzaga kelish sabablariga qarshi kurashadilar, chunki yangi yuzaga kelgan inqirozga qarshi kurashishga tayyor bo'lmaydilar.

Bugungi kundagi inqiroz, birinchi navbatda, bank va kredit sohasiga, keyin esa korxonalarga ta'sir ko'rsatadi hamda, asosan, kreditlash tizimi bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bugungi kunda moliya bozorlarini, jahon iqtisodiyotida ro'y beradigan munosabatlarni nazorat qilishda hukumatlar asosiy rolni o'ynashi kerakligi moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda hukumat bosh islohotchi sifatida ishtirok etishi lozimligi yaqqol ko'zga tashlanib qoldi.

32.4. O'zbekistonning xalqaro moliya munosabatlarga integratsiyalashuvi

O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvida uning hududiy va global darajadagi raqobatbardoshligi bo'yicha qiyosiy ustunligi, tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va uni amalga oshirish bilan ko'p jihatdan bog'liq. Amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar bo'yicha qizg'in munozaralarning mavjudligiga qaramasdan, tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda, hukumat mamlakatning geografik, ishlab chiqarish va texnologik, mehnat resurslaridan foydalanish samarasini inobatga olmoqda. Xalqaro mehnat taqsimotining kuchayishi xalqaro moliyaviy munosabatlar ishtirokchilaridan yuqori darajadagi raqobatbardoshlikni talab etadi.

Shu jihatdan jahon xo'jaligida O'zbekiston qo'shni MDH mamlakatlaridan o'zining quyidagi xalqaro ustuvorliklari bilan ajralib turadi:

- qadimiy boy madaniyat, tarixiy va diniy yodgorliklar xalqaro turizm sonoatini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlarni yuzaga keltiradi;
- qulay tabiiy iqlim va tabiiy boyliklar — ishlab chiqarish, qurilish va qishloq xo'jaligi sohasida raqobatbardosh muhitni shakllantiradi;
- «Buyuk ipak yo'li»da joylashganligi xalqaro integratsiyada Yevropa bilan Osiyoni bog'lovchi «ko'prik» vazifasini bajarishga yetarlicha imkoniyatni vujudga keltiradi;
- O'zbekiston Respublikasi yetarli darajada malakali mutaxassislar bilan ta'minlangan. Zamonaviy texnologiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini barpo qilish bu sohadagi imkoniyatlarni kengaytiradi;
- mamlakat hukumati tomonidan ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish va eksportni rag'batlantirish siyosatining yuritilishi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtirokida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni inobatga olib, 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 633-XP sonli «O'zbekiston Respublikasini Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlikka a'zo bo'lishi to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

XVF va Jahon banki kabi tashkilotlar bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi nafaqat respublikaning jahon bozoriga integratsiyasini tezlashtirdi, balki amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash samarasini oshirdi.

Xalqaro moliya institutlari bilan aloqalarning salmoqli qismi xalqaro kreditlar va qarzlar masalasi bilan bog'liq. Ushbu munosabatlarni amalga oshirishning huquqiy asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi, «Tashqi qarzdorlik to'g'risida»gi qonunlari va boshqa me'yoriy aktlar ishlab chiqildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida olingan kreditlar va qarzlar, asosan, qisqa muddatli bo'lib, ichki bozorni iste'mol tovarlar bilan to'ldirishga qaratilgan bo'lsa, keyingi yillarda hukumat mazkur qarzlarni jalb qilish sohasini tarkibiy jihatdan qayta o'zgartirish bo'yicha ma'lum ishlarni olib bormoqda.

Olinadigan qarzlar va jalb qilinadigan uzoq muddatli kreditlarning asosiy yo'nalishlari sifatida eksport salohiyatini kengaytirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish sohalari tanlandi. Mineral xomashyo resurslarini, shu jumladan neft va gazni ishlab chiqarish va qayta ishlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, mashinasozlikni rivojlantirish, telekommunikatsiya sohasini zamonaviylashtirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish — xorijiy investitsiyalar jalb qilinadigan ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralmoqda.

Xorijiy investitsiyalar miqyosining keskin ortishi va sifat darajasi amalga oshirilayotgan davlat investitsiya dasturi haqida ma'lumot beradi. Uning maqsadi — milliy va xorijiy investorlarning investitsion faoliyatini optimal darajada huquqiy tartibga solishdan iborat.

Xorijiy kapital oqimini rag'batlantirish, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga xizmat ko'rsatuvchi moliya-valyuta infratuzilmasini tashkil etishga bog'liq.

Moliya-valyuta infratuzilmasi xo'jalik subyektlari bilan jahon pul-kapital bozori o'rtasidagi aloqalarni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu infratuzilmalarni tashkil etish, quyidagi yo'nalishlarni qamrab oldi:

- bank tizimini takomillashtirish;
- ichki sug'urta xizmatlari sohasini rivojlantirish;
- ichki valyuta bozori faoliyatini yaxshilash;
- lizing xizmatlari bozorini rivojlantirish;
- audit va maslahat xizmatlari bozorini rivojlantirish;
- milliy tovarlarni xalqaro bozorlar tomon harakatini tashkil etish va h. k.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamkorligi va iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari belgilandi, u mamlakatni xalqaro bozorga qo'shilishining asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi tabiiy resurslarga boy, sanoat va qishloq xo'jaligida yetarli darajada rivojlangan ayrim ishlab chiqarish tarmoqlariga ega. Misol uchun, O'zbekiston tabiiy gaz qazib olishda dunyoda 9-o'rinda, oltin qazish chiqarishda 7-o'rinda, oltingugurt kislotasi va mineral o'g'itlar ishlab chiqarishda va pilla yetishtirishda 7-o'rinda turadi.

Yuqoridagi tabiiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda respublikaning xalqaro moliya munosabatlari va jahon xo'jaligiga integratsiyasi majmuyi aniq belgilangan maqsadlar hamda ularni amalga oshirishga qaratilgan asosiy tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Birinchidan, respublika milliy iqgisodiyotining kuchli eksport bo'g'inini tashkil etuvchi va uning jahon bozorida munosib o'rinni egallashini ta'minlovchi bo'g'inlarni aniqlash;

Ikkichidan, iqtisodiyotning eksport sohasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash usulidan keng foydalanish.

Bu usullar quyidagilardan iborat:

- eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun imtiyozli foizlar bo'yicha uzoq muddatli kreditlar ajratish, mo'ljallangan investitsiyalarni sug'urtalash;
- eksportyorlarga milliy ishlab chiqarish va uning xorijiy raqobatchilari ishlab chiqarishi xarajatlari o'rtasidagi farqni qoplash;
- davlat tomonidan respublikaga ilg'or texnologiyalar, tajribalar va bilimlarning kirib kelishi uchun subsidiyalar ajratish;
- eksport va importni litsenziyalash yoki chetga mol chiqarishga va chetdan uni olib kelishga ruxsatnomalar berish;
- ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi, xorijdan keltirilgan xomashyo va materiallar, asbob-uskunalar hamda jihozlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va boshqalar.

Shu bilan birga xalqaro moliya sohasidagi siyosat milliy valyutani mustahkamlash va uni boshqa valyutalarga erkin almashuvini ta'minlashni, ichki narxlarni jahon bozori narxlariga yaqinlashtirish maqsadida baholar islohotini tugallashni, tashqi iqtisodiy faoliyatning me'yoriy-huquqiy asoslarini xalqaro talablar darajasiga yetkazishni nazarda tutadi.

O'zbekiston uchun bu sohadagi asosiy strategik maqsadlar quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy tizimi integratsiyasiga qo'shilib borishini ta'minlash;
- eksport potensialini rivojlantirish;
- import va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish;
- investitsiya siyosatini takomillashtirish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;
- eksport mahsulotlari ishlab chiqarish zonalari va erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat infratuzilmasini rivojlantirish.

Mamlakatning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining muhim tarkibiy qismi — davlatlarning turli xalqaro mintaqaviy birlashmalari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston mintaqaviy xalqaro tashkilotlar, chunonchi, Yevropa Ittifoqi, YeXHT, NATO, EKO, OIK va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda. Bular orasida Yevropa Ittifoqi alohida o'rin tutadi. 1996-yilda Yevropa Ittifoqi bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda bir qancha muhim ishlar amalga oshirildi.

Asosiy tushunchalar

Jahon moliya bozori — mamlakatlar o'rtasida kapital resurslarini jamlash va taqsimlashni ta'minlab beruvchi bozor munosabatlari yig'indisi.

Xalqaro ssuda kapitali bozori — bo'sh turgan pul kapitallarning to'planishi va mamlakatlar o'rtasida qayta taqsimlanishi bo'yicha munosabatlar majmuasi.

Pul bozori — xalqaro savdoga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq qisqa muddatli operatsiyalar bozori.

Kapitallar bozori — uzoq muddatli operatsiyalar bozori.

Derivativlar — biror-bir moliyaviy dastakning hosilaviy shakli hisoblanadi.

Offshor — kredit tashkilotlari (milliy va xorijiy) norezidentlar bilan chet el valyutasida operatsiyalarni amalga oshiruvchi jahon moliya markazi.

Xedjerlar — valyuta kurslarining kelgusida salbiy tomonga o'zgarishidan ko'riladigan moliyaviy zararning oldini olish bilan shug'ullanuvchi ishtirokchilar.

Spekulyantlar — moliyaviy instrumentlarning kurslaridagi farq hisobiga foyda olishni ko'zlagan ishtirokchilar.

Treyderlar — moliyaviy instrumentlarning kurslari o'zgarishidan foydalangan holda bir yoki bir nechta shartnomalar asosida foyda olishni ko'zlagan jahon moliya bozori ishtirokchilari.

Arbitrajchilar — bir vaqtning o'zida turli bozorlarda, turli narxlar asosida moliyaviy resursni sotib olish va sotish orqali foyda ko'radigan jahon moliya bozori ishtirokchilari.

Xususiy investorlar — moliyaviy instrumentlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar.

Institutsional investorlar — jamoaviy investitsiyalash bilan shug'ullanuvchi moliya institutlari guruhi.

«Moliyaviy chuqurlik» — iqtisodiy o'sish sur'atlari va iqtisodiyotning pul resurslari bilan to'yinganligi, moliya, pul-kredit tizimlarining murakkabligi va keng tarmoqliligi o'rtasidagi bog'liqlik.

Makrodarajada «moliyaviy chuqurlik» — moliyaviy bozor kapitallashish darajasining (qarz yukining monetizatsiya darajasi) yalpi ichki mahsulotga nisbati.

Mikrodarajada «moliyaviy chuqurlik» — kompaniyaning bozordagi kapitallashish darajasining kompaniya kapitaliga nisbati.

Nazorat savollari

1. Jahon moliya bozori nima va u operatsiyalar obyektiga ko'ra qanday segmentlarga ajratiladi?
2. Jahon bozorlari tashkiliy jihatdan qanday turlarga ajratiladi?
3. Jahon moliya bozorining institutsional tarkibi qanday?
4. Jahon moliya bozorining ishtirokchilari qaysi mezonlarga ko'ra guruhlanadi?
5. Jahon moliya bozorining tarkibi qanday va rivojlanish xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining vujudga kelish sabablari nimalardan iborat?
7. Xalqaro ssuda kapitali bozori deganda nima tushuniladi. U o'z ichiga qaysi bozorlarni oladi?
8. O'zbekistonning xalqaro moliya munosabatlariga integratsiyalashuv xususiyatlari nimalardan iborat?

33-BOB. XALQARO IQTISODIY TASHKILOTLAR

33.1. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar: mohiyati, zaruriyati, funksiyalari va guruhlanishi

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar — bu xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida hamkorlikdagi qarorlarni ishlab chiqish, tartibga solish, birxillashtirish (unifikatsiyalash) maqsadida xalqaro kelishuvlar asosida tashkil etilgan tashkilotlardir.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar Ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro iqtisodiy munosabatlarni davlatlararo tartibga solishning obyektiv zaruriyati sifatida yuzaga kelgan.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni davlatlararo tartibga solish — bu turli mamlakatlar tomonidan jahon xo'jalik aloqalari sohasida ixtiyoriy ravishda qabul qilinadigan umumiy majburiyat va qoidalar yig'indisidan iborat.

Bu zaruriyatning shakllanish shart-sharoitlari quyidagilardan iborat:

- bojxona tariflarini pasaytirish orqali xalqaro savdoni erkinlashtirish;
- jahon mustamlaka tizimining parchalanishi va mustaqil bo'lgan mamlakatlarning rivojlanishini ta'minlash;
- XX asrning 70–80-yillaridagi neft eksport qiluvchi mamlakatlar siyosati tufayli sodir bo'lgan xomashyo va energetika inqirozlari, rivojlanayotgan mamlakatlardagi tarkibiy inqirozlar;
- jahon iqtisodiyotining globallashuvi, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va aloqalarning chuqurlashuvi, milliy iqtisodiy tizimlarning jahon xo'jaligida ro'y berayotgan o'zgarishlarga moslashishi;
- transmilliy korporatsiyalar rolining ortishi;
- xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining intensiv rivojlanishi;
- jahon sotsialistik tizimining parchalanishi;
- global muammolarning chuqurlashishi.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatining asosini a'zo bo'lgan mamlakatlarning fikr-mulohazalarini oshkor qilish, bir-biri bilan kelishtirish, bu asosdagi vaziyatlarni bir maqsadga aylantirish, shuningdek, kelib chiqqan vazifalarni aniqlashtirib, ularni hal etish, chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat. Tashkilotlarning asosiy faoliyati muhokama, qaror qabul qilish va ularni amalga oshirish, ijrosini nazorat kabilarni o'z ichiga oladi. Yuqoridagilardan xalqaro tashkilotlarning quyidagi vazifalari kelib chiqadi: tartibga solish, nazorat qilish, amalga oshirish.

Tartibga solish vazifasi (eng asosiysi) qaror qabul qilishdan, a'zo mamlakatlar faoliyatini, maqsadini aniqlashdan iborat. Xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyasi bevosita xalqaro huquq me'yorlariga zid kelmaydigan, lekin huquqni amalga oshiruvchi jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi. Xalqaro huquqning ko'pgina qoida va me'yorlari dastlab rezolyutsiyalarda ifodalangan edi. Ularga xalqaro muammolarni tasdiqlash va aniqlash yo'li bilan xalqaro hayotga tatbiq etish xos: tashkilotlar aniq vaziyatlarga normalarni tatbiq etib, ularning mohiyatini ochib beradi. Nazorat qilish vazifasi mamlakatlarning xalqaro huquq normalariga, rezolyutsiyalarga bo'lgan munosabatini nazorat qilishdan iborat. Shu maqsadda tashkilotlar tegishli axborotnomani yig'ib, uni tekshirib, muhokama qilishga va rezolyutsiyalarda o'z fikr-mulohazalarini bildirishga haqlidirlar. Ko'p holatlarda mamlakatlar ma'lum bir miqyosga doir bajarilayotgan vazifalari haqida doimiy ravishda ma'ruzalar topshirishlari shart.

33.1.1-rasm.
Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning funksiyalari



Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning operativ vazifalari tashkilotlarning o'z maqsadlariga xususiy mablag'lari hisobiga erishishdan iborat. Ko'pgina holatlarda tashkilotlarning aniq bir maqsadga yetishishida mustaqil a'zo mamlakatlardan foydalaniladi. Shu bilan birga bevosita faoliyatning ahamiyati o'sib bormoqda. Tashkilotlar iqtisodiy, ilmiy-texnik va konsultatsion yordam ko'rsatadilar.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni turli mezonlar asosida tasniflash mumkin.

1. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyat yo'nalishlari bo'yicha universal va ixtisoslashgan tashkilotlarga bo'linadi.

Universal xalqaro tashkilotlar barcha mamlakatlarning ishtirok etishi uchun mo'ljallangan. Universal xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga BMT ning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (EKOSOS), JST, IHTT, Osiyo–Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (ATES), Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN), BMT ning Yevropa iqtisodiy komissiyasi, Xalqaro savdo palatasi va boshqalar kiradi.

Ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlarga faoliyat sohasi tor iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishga ixtisoslashgan quyidagi tashkilotlar kiradi: YuNIDO, FAO, VOIS, MAGATE, XMT.

Xalqaro tashkilotlar tashkiliy belgilariga qarab bo'linadi:

- BMT tizimidagi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar;
- BMT tizimiga kirmaydigan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar;
- Mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlar.

Xalqaro tashkilotlar xalqaro tartibga solish doirasiga qarab ham tasniflanadi:

33.1.2-rasm.
Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning guruhlanishi



1. Jahon iqtisodiyotining iqtisodiy va sanoat tarmoqlarini tartibga soluvchi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar (BMT ning sanoatni rivojlantirish — YuNIDO, Umumjahon turizm tashkiloti, Umumjahon Dengiz tashkiloti va boshqalar).
2. Jahon savdosini tartibga soluvchi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar (Umumjahon savdo tashkiloti, BMT ning savdo va taraqqiyot konferensiyasi — YuNKTAD, xomashyo va oziq-ovqat maqsulotlarini ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi mamlakatlarning xalqaro tashkiloti);
3. Xalqaro moliya-kredit va valyuta tashkilotlari (Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki institutlari);
4. Tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar (TMK bo'yicha BMT komissiyasi);
5. Jahon xo'jalik aloqalarini rivojlantirishga yordam beruvchi nodavlat xalqaro birlashma va tashkilotlar (savdo palatalari, tadbirkorlarning xalqaro ittifoqlari, tarmoq federatsiyalari).

Xalqaro tashkilotlar a'zolari faqat mustaqil davlatlar bo'la oladi. Mamlakatlarning bir qismi xalqaro tashkilot a'zosi bo'la olmaydi. Tashkilotning hamma a'zolari teng ishtirok etadilar va uning faoliyati uchun javobgardirlar. Ular tashkilot byudjetiga a'zolik to'lovlari o'tkazishadi va bu to'lovlar miqdori har xil bo'ladi. Masalan, BMT harajatlarini moliyalashtirishda AQSh ga — 25 %, Yaponiyaga — 19,9 %, Germaniyaga — 9,8 %, Fransiyaga — 6,5 %, Italiyaga — 5,4 %, Buyuk Britaniyaga — 5,1 %, Ispaniyaga — 2,6 %, qolgan mamlakatlar hisobiga — 25,7 % to'g'ri keladi.

Xalqaro tashkilotlarda kuzatuvchi mavqeyi mavjud. U tashkilot organiga kirmagan mamlakatlar uchun beriladi. BMT ning Bosh Assambleyasining ko'pgina sessiyalarida Shveysariya kuzatuvchi sifatida ishtirok etgan. BMT ning ko'pgina a'zolari Xavfsizlik Ittifoqi majlislariga o'z kuzatuvchilarini yo'llaydilar. BMT ning bir qator milliy-ozodlik harakatlariga ham kuzatuvchi mavqeyi berildi.

BMT organlariga maxsus uyushmalar va mintaqaviy tashkilotlar ham o'z kuzatuvchilarini yuboradilar. Ular asosiy majlislarda ishtirok etish va hujjatlarni olish huquqiga egadirlar.

33.2. BMT ning ixtisoslashgan iqtisodiy va moliya tashkilotlari

BMT ning shtab-kvartirasi Nyu-Yorkda joylashgan bo'lib, uning tarkibida 190 dan ortiq a'zo mamlakat mavjud. BMT nizomining 1-moddasida tashkilot faoliyatining asosiy maqsadlari ichida, «iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xarakterdagi xalqaro muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik qilish» maqsadi yetakchi o'rinda turadi.

BMT iqtisodiy sohada quyidagi to'rtta yo'nalish bo'yicha faoliyat olib boradi:

- global muammolarni hal etish;
- davlatlarning iqtisodiy hamkorligiga ko'maklashish;
- mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishidagi inqirozlardan chiqishiga yordam berish;
- mintaqaviy rivojlanishni rag'batlantirish.

Yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlarning har biri BMT muassasalarining faoliyatidagi axborot, texnika-maslahat va moliya sohasida hamkorliklarni o'z ichiga oladi. BMT bosh va yordamchi organlari, shuningdek, 18 ta ixtisoslashgan institut va bir qator avtonom tuzilmalar bo'limlari Bosh Assambleya (BA), Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS), Sekretariat hisoblanadi.

Bosh Assambleya har yili sessiyalar o'tkazadi (sentyabr, dekabr) va jahon iqtisodiyotidagi asosiy masalalar umumiy majlislar hamda maxsus ikkinchi qo'mita doirasida muhokama qilinadi.

33.2.1-rasm.
Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT): maqsadi, prinsiplari va tarkibi



EKOSOS 1946-yilda tashkil etilgan bo'lib, 54 mamlakat uning a'zolari sanaladi va a'zolarning uchdan bir qismi (Buyuk Britaniya, Xitoy, Rossiya, AQSh va Fransiyadan tashqari) uch yil muddatga qayta sanaladi. Yuqoridagi beshta davlat urush va tinchlik masalalari bilan shug'allanuvchi Xavfsizlik kengashida bo'lgani kabi doimiy ravishda EKOSOS tarkibiga kiradi. Kengash, odatda, bir yilda ikki marta (ijtimoiy-huquqiy va gumanitar, iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha) sessiya o't-kazadi. XIM muammolari bo'yicha qarorlar va tavsiyalar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan barcha tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish mas'uliyati ham EKOSOS zimmasiga yuklatilgan. Hozirda EKOSOS oltita doimiy qo'mita, yettita funksional va beshta hududiy komissiyalarni ta'sis etgan. Bulardan tashqari 18 ta ixtisoslashgan muassasa, Jahon oziq-ovqat dasturi va YuNKTAD/UST Xalqaro savdo markazi ham EKOSOS patronaji ostida faoliyat olib boradi. BMT ning iqtisodiy organlari tizimida uchinchi bo'g'in sifatida Sekretariat faoliyat olib boradi. Sekretariat bir necha bo'limlardan (iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha Departament) tarkib topgan bo'lib, ma'muriy-ijrochi tuzilma sifatida ish olib boradi.

Jahon xo'jaligi muammolarini hal qilishda BMT ning savdo va taraqqiyot bo'yicha Anjumani (YuNKTAD) va BMT ning sanoat taraqqiyoti bo'yicha tashkiloti (YuNIDO) to'g'risida alohida to'xtalib o'tish lozim.

1964-yilning oxirida BMT ning Bosh Assambleyasi xalqaro savdo bo'yicha hamkorlikka ko'maklashish uchun YuNKTAD ni ta'sis etish haqida qaror qabul qildi. Anjumanning oliy organlari to'rt yilda bir o'tkaziladigan sessiya va-yilda ikki marta to'planadigan Kengash hisoblanadi. Kengash nazorati ostida doimiy qo'mitalar, vaqtinchalik ishchi guruhlari va Sekretariat faoliyat ko'rsatadi. YuNKTAD ga 186 ta davlat a'zo bo'lib, uning shtab-kvartirasi Jenevada joylashgan. YuNKTAD o'tkazgan hukumatlararo maslahatlar natijasida bir qator muhim savdo bitimlari imzolandi, xomashyo tovarlari savdosi sohasidagi holatlarni o'rganish uchun ekspert guruhlari tashkil etildi. Anjuman Yevropa va Amerika bozorlarida rivojlanayotgan mamlakatlarning mahsulotlari uchun maxsus imtiyozlar berish rejimini quvvatlash yo'nalishida faoliyat ko'rsatmoqda.

1967-yilda tashkil etilgan YuNIDO 166 ta davlatni birlashtirgan bo'lib, uning shtab-kvartirasi Vena shahrida joylashgan. Bu tashkilotning bosh vazifasi Osiyo, Afrika, Janubiy Amerika va Okeaniyadagi qashshoq va rivojlanmagan kambag'al mamlakatlar guruhini iqtisodiy qoloqlikdan olib chiqish jarayonini rag'batlantirish maqsadida BMT doirasida sanoat rivojlanishini muvofiqlashtirishdan iborat. YuNIDO ning oliy organi ikki yilda bir marta chaqiriladigan Bosh Anjuman sanaladi. Boshqaruv tuzilmalari esa sanoat taraqqiyoti bo'yicha kengash va byudjet masalalari bo'yicha qo'mita hisoblanadi. YuNIDO faoliyati hukumatlar va xususiy tarmoq bilan hamkorlik asosida qurilgan. Tashkilot investitsiyalar, texnik va sanoat hamkorligi masalalari bo'yicha forumlar o'tkazadi. Xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirishga, rivojlanayotgan mamlakatlarga yuqori texnologiyalar yetkazib berishga ko'maklashadi. Bu masalalarni amalga oshirishda YuNIDOning Sanoat va texnologik axborotlar banki (STAB) samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Moliyalashtirishdagi muammolar, byurokratizm va qarorlarning bajarilishini nazorat qilishning kuchsizligiga qaramasdan, zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida BMT tizimidagi iqtisodiy tashkilotlarning ahamiyati ortib bormoqda. BMT ning ixtisoslashgan muassasalari rolining kuchayib borishida xalqaro mehnat taqsimoti tuzilmasining murakkablashuvi, axborot-texnologik ayirboshlashning yangi kanallarining vujudga kelishi jahon xo'jalik hayotining jadallashuvi va insoniyat oldida turgan jiddiy global muammolarni hal etishda muhim rol o'ynamoqda.

Xalqaro moliya tashkilotlari. Jahon moliyaviy resurslar bozorini barqarorlashtirish va xalqaro kapital harakatini rag'batlantirish maqsadida ko'psonli xalqaro va hududiy moliya-kredit institutlari tashkil etilgan (33.2.2-rasm).

33.2.2-rasm.
Xalqaro moliya tashkilotlarining vazifalari va shakllari

Xalqaro moliya tashkilotlari — faoliyat doirasi va xususiyati, a'zolar tarkibi, vazifalaridan kelib chiqadigan ixtisoslashgan hukumatlararo tashkilotlar	
Tashkil etish asoslari	• jahon xo'jalik aloqalari globallashuvining kuchayishi; • valyuta-moliya munosabatlarini davlatlararo tartibga solishning rivojlanishi; • jahon valyuta tizimi beqarorligi, xalqaro hisob-kitoblar va xalqaro kreditlash muammolarini birgalikda hal etish zaruriyati.
Asosiy vazifalari	• jahon hamjamiyatining xalqaro valyuta-moliya munosabatlarini barqarorlashtirish maqsadidagi sa'y-harakatlarini birlashtirish; • davlatlararo valyuta, valyuta hisob-kitobi va valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solishni amalga oshirish; • jahon valyuta, hisob-kitob va kredit siyosati strategiyasini va amalga oshirish taktikasini ishlab chiqish.
Asosiy shakllari	• Xalqaro valyuta fondi. • Umumjahon banki guruhi. • Xalqaro hisob-kitoblar banki. • Mintaqaviy rivojlanish banklari. • Xalqaro kreditorlar klublari.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ichida xalqaro moliya tashkilotlari alohida o'ringa ega. Ushbu guruhga quyidagi tashkilotlar kiradi: XVF, Umumjahon banki guruhi, Xalqaro hisob-kitoblar banki, Yevropa ta'mirlash va taraqqiyot banki, Yevropa investitsiya banki, Osiyo taraqqiyot banki, Afrika taraqqiyot banki, Arab valyuta fondi, Islom taraqqiyot banki, Amerikalararo taraqqiyot banki, Qora dengiz savdo va taraqqiyot banki, Yevroosiyo taraqqiyot banki, Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi va boshqalar.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) 1945-yilda tashkil etilgan va unga 187 ta mamlakat a'zo. XVFning maqsadi a'zo-mamlakatlar valyuta-moliya siyosatini muvofiqlashtirish, to'lov balansini tartibga solish va valyuta kursining barqarorligini qo'llab-quvvatlash uchun qarz berish hisoblanadi. Buning uchun fond to'lov balansida qiyinchiliklar sezayotgan o'z a'zolarini moliyalashtiradi, ularning xo'jalik yuritish usullarini yaxshilashga qaratilgan texnik yordam ko'rsatadi.

Oxirgi o'n yilda XVF ning moliyaviy vositachi va yirik kreditor sifatidagi roli oshdi. Qarzlar a'zo mamlakatlar badallaridan tashkil topgan umumiy resurslar hisobidan hamda SDR[1] shartli birliklaridagi maxsus hisobdan berilishi mumkin (33.2.1-jadval).

1 SDR — XX asrning 70-yillaridan boshlab xalqaro rezerv to'lov manbalari va qiymat o'lchovi sifatida oltin o'rniga chiqarilgan shartli jamoa xalqaro valyuta birligi bo'lib, 2014-yil 30-aprelda 1 SDR=0,64529 AQSh dollariga teng bo'ldi.

33.2.1-jadval
XVF ning qarz olish to'g'risidagi Bosh shartnoma ishtirokchilari, mln. SDR

Qatnashchilar	Dastlabki holati (1962–1983-yy.)	Hozirgi holat (1983–2008-yy.)
Shved Riskbanki	79	383
Belgiya	143	595
Niderlandiya	244	850
Kanada	165	893
Shveysariya milliy banki	–	1020
Italiya	235	1105
Fransiya	395	1700
Buyuk Britaniya	565	1700
Yaponiya	1161	2125
Nemis Bundesbanki	1476	2380
AQSh	1883	4250
Jami	6344	17000
Saudiya Arabistoni (assotsiatsiyalashgan kredit shartnomasi)		1,500

Manba: www.imf.org

XVF xalqaro valyuta tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida quyidagi mexanizmlar bo'yicha qarz beradi:

1. **Qarz olish to'g'risidagi bosh shartnoma.** Ushbu shartnoma 1962-yilda qabul qilingan bo'lib, unda 11 ta ishtirokchi qatnashadi.
2. **Qarzlar to'g'risidagi yangi shartnoma.** Ushbu shartnoma 1997-yilda qabul qilingan bo'lib, unda 25 ta davlat va muassasalar ishtirok etadi.

XVF a'zo mamlakatlarning moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun turli qoidalar yoki «mexanizmlar» doirasida kreditlar beradi.

Kreditlarni berish va qaytarish to'lov balansi muammosining xususiyatlari hamda holatlariga bog'liq tarzda farqlanadi (33.2.2-jadval).

33.2.2-jadval
XVF kreditlash shartlari (2008-yil 1-yanvar holatiga)

Kreditlash mexanizmi yoki siyosati	To'lov shartlari	Muddati (yil hisobida)		
		Eng uzoq muddat	Kutilayotgan muddat	Davriylik
«Stend-bay» krediti	Asosiy stavka + marja	3,25–5	2,25–4	Har kvartalda
Kengaytirilgan kreditlash	Asosiy stavka + marja	4,5–0	4,5–7	Har yarim yilda
Qoplovchi moliyalash	Asosiy stavka	3,25–5	2,25–4	Har kvartalda
Favqulodda yordam	Asosiy stavka	3,25–5	–	–
Qo'shimcha zaxiralarni qoplash	Asosiy stavka + marja	2,5–3	2–2,5	Har yarim yilda
Kambag'allikka qarshi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash	Yillik 0,5 %	5,5–10	–	–

Manba: www.imf.org

«Stend-bay» kreditlar. XVF kreditlash siyosatining asosini tashkil etadi (33.2.3-jadval).

33.2.3-jadval
«Stend-bay» krediti to'g'risidagi shartnomaga muvofiq berilgan kreditlar, mln. SDR (2010-yil 7-yanvar holatiga)

A'zo mamlakatlar	Taqdim etilgan sana	Qaytarish sanasi	Kredit miqdori	To'langan qismi
Angola	23.11.09	22.02.12	859	630
Armaniston	03.06.09	07.05.11	534	232
Belarus	01.12.09	04.11.10	2270	438
Bosniya	07.08.09	30.06.12	1015	832
Kosta-Rika	04.11.09	07.10.10	492	492
Dominika Respublikasi	11.09.09	03.08.12	1095	895
El-Salvador	16.01.09	31.03.10	514	514
Gabon	05.07.07	05.06.10	77	77
Gruziya	15.09.08	14.06.11	747	365
Gvatemala	22.04.09	21.10.10	631	631
Vengriya	11.06.08	10.05.10	10538	2901
Islandiya	19.11.08	31.05.11	1400	735
Latviya	23.12.08	22.03.11	1522	808
Maldiv orollari	12.04.09	12.03.12	49	45
Mongoliya	04.01.09	10.01.10	153	46
Pokiston	24.11.08	30.12.10	7236	3067
Ruminiya	05.04.09	05.03.11	11443	5355
Serbiya Respublikasi	16.01.09	15.04.11	2619	1598
Shri-Lanka	24.07.09	23.03.11	1654	1240
Ukraina	11.05.08	11.04.10	11	4
Jami			**55845**	**24899**

Manba: www.imf.org

«Stend-bay» krediti to'g'risidagi shartnomaga, asosan, a'zo mamlakatlar to'lov balansida qisqa muddatli muammolarni bartaraf etish uchun, odatda, 12–18 oyga belgilangan miqdorda kredit olish huquqiga ega.

- **Kengaytirilgan kreditlash mexanizmi.** XVF kengaytirilgan kreditlash mexanizmi bo'yicha a'zo mamlakatlar belgilangan miqdorda kredit olish huquqiga ega bo'lib, odatda, uch-to'rt yilga beriladi. Ushbu mexanizm asosida ajratilgan mablag'lar a'zo mamlakatlarda to'lov balansi holatiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tuzilmaviy xususiyatga ega muammolarni bartaraf etishga yo'naltiriladi.
- **Kambag'allikka qarshi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash mexanizmi.** 1999-yil noyabrida joriy etilgan bo'lib, dastlab amal qilgan tuzilmani qayta qurishni kengaytirilgan moliyalashning davomi hisoblanadi (33.2.4-jadval).

33.2.4-jadval

Kambag'allikka qarshi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash dasturi bo'yicha ajratilgan kreditlar, mln. SDR (2010-yil 7-yanvar holatiga)

A'zo mamlakatlar	Taqdim etilgan sana	Qaytarish sanasi	Kredit miqdori	To'langan qismi
Afg'oniston	26.06.06	31.03.10	81	11
Burkina Faso	23.04.07	22.04.10	48	1
Burundi	07.07.08	07.06.11	46	26
Markaziy Afrika Respublikasi	22.12.06	30.06.10	70	9
Komoros	21.09.09	20.09.12	14	9
Kongo Demokratik Respublikasi	12.11.09	12.10.12	346	297
Kongo Respublikasi	12.08.08	12.07.11	8	5
Kot d'Ivuar	27.03.09	26.03.12	374	179
Djibuti	17.09.08	16.09.11	13	7
Gambiya Respublikasi	21.02.07	20.02.10	20	2
Gana	15.07.09	14.07.12	387	320
Grenada	17.04.06	16.04.10	16	2
Gvineya	21.12.07	20.12.10	70	45
Gaiti	20.11.06	31.01.10	115	8
Liberiya	14.03.08	31.03.11	239	13
Mali	28.05.08	27.05.11	28	8
Nikaragua	10.05.07	10.04.10	78	24
Nigeriya	06.02.08	06.01.11	23	13
San Tome	03.02.09	03.01.12	3	2
Serra-Leone	05.10.06	05.09.10	52	7
Tojikiston	21.04.09	20.04.12	78	52
Togo	21.04.08	20.04.11	84	26
Zambiya	06.04.08	06.03.11	220	55
Jami			**2414**	**1122**

Manba: www.imf.org

- **Qoplovchi moliyalash** 1963-yilda joriy etilgan bo'lib, jahon bozorlarida tovar xomashyo narxining o'zgarishi natijasida eksport tushumi kamomadi vujudga kelgan yoki oziq-ovqat importi qiymatining o'sishiga duch kelgan mamlakatlarga taqdim etiladi.
- **Favqulodda yordam.** Bu tartib favquloddagi holatlar tufayli to'lov balansida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishda a'zo mamlakatlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 1962-yilda joriy etilgan. 1995-yilda a'zo mamlakatlarda harbiy mojarolar tufayli ularning institutsional va ma'muriy salohiyatiga putur yetkazilgani sababli mazkur tartibni qo'llash miqyosi yanada kengaytirilmoqda. XVF kreditlash tizimi quyidagi shartlarni o'z ichiga oladi:
- XVF yordam berish agentligi yoki rivojlanish banki hisoblanmaydi;
- XVF kreditlari belgilangan siyosatga asoslanadi: qarz oluvchi mamlakat to'lov balansi muammosini bartaraf etishga qaratilgan siyosatni qabul qilishi lozim;
- XVF kreditlari bo'yicha to'lovlar moliyalash mexanizmi shakllaridan kelib chiqib, har olti yoki to'rt oyda amalga oshiriladi;

- XVF mamlakatdan olingan qarzni birinchi navbatda to'lashni talab etadi. Qarz olgan mamlakat XVF ning to'lov balansini moliyalash ehtiyojiga ega boshqa mamlakatlarni kreditlay olishi uchun belgilangan tartib bo'yicha qaytarib borishi lozim;
- XVF dan kredit olgan mamlakat standart, imtiyozsiz moliyalash mexanizmlar doirasida bozor shartlari asosida foizlarni, komissiya haqlari va majburiyat bo'yicha yig'imlarni to'lab boradi;
- moliyaviy mablag'lardan foydalanish bo'yicha kafolatni kuchaytirish maqsadida XVF 2000-yil mart oyida markaziy banklar tomonidan rioya etiladigan oltin valyuta zaxiralarini baholash talabini joriy etgan;
- aksariyat hollarda XVF mamlakatni tashqi moliyalash bo'yicha ehtiyojlarining bir qismini qondiradi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini tartibga soluvchi bosh davlatlararo tashkilot bo'lgan XVF ning tashkiliy tizimi va faoliyatini takomillashtirishni taqozo etmoqda. XVF ning kredit berish mexanizmi «Vashington konsensusi»ga asoslangan bo'lib, kredit olmoqchi bo'lgan mamlakatlardan korxonalarni xususiylashtirish, bozor talablari asosida narx belgilashni erkinlashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etardi. Yuqoridagi tartibga solish siyosati asosida an'anaviy monetar nazariyasi yotar edi. Ushbu uslublar xalqaro moliya bozorini tartibga solish o'rniga fond a'zolari o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirdi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab XVF tavsiyalarining asosini «neortodoksal, institutsional» konsepsiyasi tashkil eta boshladi. Ushbu monetarizm konsepsiyasiga, asosan, xalqaro moliya bozorini tartibga solish sxemalarida ustuvor o'rinni kredit va banklar tashkil etadi. XVF tomonidan qo'llanilayotgan yangi monetar siyosatga muvofiq xalqaro moliya bozorini tartibga solishda asosiy urg'u kredit fondlari taklifiga berila boshlandi. XVF tavsiyalari universal xarakterga ega bo'lib, 2002-yildan boshlab institutsional monetarizm tavsiyalari berila boshlandi va valyuta kurslarini tartibga solishning kapital oqimlari harakatidagi turli cheklovlarni bekor qilgan holda valyutalarning suzib yuruvchi kursiga ustuvorlik berish siyosati ishlab chiqildi.

2004-yildan boshlab XVF ning globallashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish strategiyasi va o'rni qayta ko'rib chiqila boshlandi. Natijada XVF faoliyatining an'anaviy yo'nalishlariga jahon moliya arxitekturasining asosini tashkil etadigan turli standart va kodekslarni ishlab chiqish, jahon mamlakatlaridagi moliya sektorlarini baholash va monitoring o'tkazish, terrorizmni moliyalashtirish va jinoyat yo'li bilan topilgan pullarni yuvishga qarshi kurashlar qo'shildi. 2007-yilda XVF ning boshqaruv direktori Dominik Stross-Kan fondning o'rta muddatga bag'ishlangan strategiyasini e'lon qildi. Yaqin 5 yilga mo'ljallangan fond strategiyasining yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- jahon moliya bozorini nazorat qilish (monitoring) samaradorligini oshirishni global va ayrim mamlakatlar darajasida amalga oshirish;
- rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi krizislarning oldini olish va sodir bo'lgan taqdirda undan chiqishga bag'ishlangan aniq takliflar tizimini ishlab chiqish;
- XVF ning kam daromadli mamlakatlarda kambag'allik darajasini ikki marta qisqartirishga qaratilgan faoliyati samaradorligini oshirish;
- XVF ning ichki tashkiliy faoliyatini isloh qilish.

XVF faoliyatining samaradorligini oshirish va legitimligini ta'minlash maqsadida ustun darajada o'rta hajmdagi Yevropa mamlakatlaridan iborat bo'lgan rivojlangan mamlakatlar kvotalarini katta oltin-valyuta zaxiralariga ega bo'lgan yirik, barqaror sur'atlarda rivojlanayotgan, shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari foydasiga qayta taqsimlash lozim. 25 ta rivojlangan mamlakatning XVFdagi kvotalarining ulushi 60 %dan ortiq bo'lib, shu jumladan AQSh — 17,7 %, Yaponiya — 6,6 %, Germaniya — 6,1 %, Buyuk Britaniya — 4,5 %, Fransiya — 4,5 %, Xitoy — 4,0 %, Italiya — 3,3 %, Kanada — 2,9 %, Rossiya — 2,5 % ulushga ega. XVFda eng muhim masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun 85 % ovoz olish zarur bo'lgani uchun AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari fond ustidan nazorat o'rnatgan[1].

2009-yil oktyabr oyida Istanbul shahrida XVF va Umumjahon bankining yillik Sammiti majlisida 2011-yilning yanvariga qadar XVF kvotalarining 5 %ni barqaror sur'atlarda rivojlanayotgan mamlakatlar foydasiga jahon iqtisodiyotida tutgan o'rniga muvofiq ravishda qayta taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilindi[2]:

- jahon moliyasi arxitekturasining mustahkamlanishiga qaratilgan makroiqtisodiy institutlarni yaratish;
- XVF ning o'rta muddatli byudjetini qayta ko'rib chiqish.

2009-yil 2-aprelda London shahrida G20 mamlakat rahbarlari Sammitida qabul qilingan «Xalqaro moliya institutlari orqali resurslarni berish deklaratsiyasi» qaroriga muvofiq XVF va boshqa xalqaro moliya institutlariga krizisga qarshi choratadbirlar dasturlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida zudlik bilan 850 mlrd. dollardan iborat mablag' jamlandi.

XVF aksionerlari o'rtasida 250 mlrd. SDR joylashtirilib, uning 100 mlrd. dollar ekvivalentiga teng qismi bevosita bozor munosabatlari rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltirildi. Ko'p tomonlama rivojlanish banklariga kam daromadli mamlakatlarga kredit berish maqsadida 100 mlrd. dollar ajratildi. Osiyo taraqqiyot bankining moliya resurslari 200 %ga, Amerikalararo taraqqiyot, Afrika taraqqiyot va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banklari moliya resurslari oshirildi[3].

XVF faoliyatini isloh qilish va uning ustav kapitalini 250 mlrd. dollardan 750 mlrd. dollarga yetkazish vazifasi qo'yildi. XVF ni turli shaklda moliyalashtirishda G20 davlatlarning faol qatnashuvi ko'zda tutilgan. Moliyaviy barqarorlik forumini (MBF) «Moliyaviy barqarorlik kengashiga» (MBK) aylantirish to'g'risida qaror qabul qilindi. MBK tarkibi va vakolati kengaytirildi. MBK jahon moliya tizimining kuchsiz tomonlarini aniqlash, moliyaviy barqarorlik boshqaruv organlari o'rtasidagi koordinatsiyalashuvni ta'minlash va axborotlarni ayirboshlash, standartlarni ishlab chiquvchi institutlar faoliyatini monitoring qilishdan iborat.

Shunday qilib, XVF ni isloh qilish yaqin besh yil ichida umumlashgan holda quyidagi to'rt yo'nalishda olib boriladi:

- birinchidan, XVF mandatini qayta ko'rib chiqib, unga qator makroiqtisodiy siyosat va global barqarorlashuvga ta'sir etuvchi moliyaviy sektorga oid choralar kiritildi;

1 International Monetary Fund. IMF Financial Operations (Washington, October 2014). P. 145–148.
2 Стамбульские решения будут в центре внимания в будущем году. // ББВ, 13.10.2009. №80 (1189).
3 Минин Б. В., Таранкова Л. Г. Деятельность «Группы 20» по преодолению мирового финансового кризиса. // Деньги и кредит, №5, 2009. С. 35.

- ikkinchidan, XVF ning resurs bazasi yetarli bo'lmaganligi uchun ko'p sonli mamlakatlarga kredit berish talabidan kelib chiqqan holda, uning moliyalashtirish dastaklarini takomillashtirish;
- uchinchidan, XVF tomonidan 20 talik mamlakatlar amalga oshirayotgan siyosatni o'zaro baholashda yordam berish orqali ko'p tomonlama nazoratning yangi turini amalga oshirish;
- to'rtinchidan, 20 talik mamlakatlar guruhi bilan kelishilgan XVF kvotalarini barqaror sur'atlarda rivojlanayotgan mamlakatlar foydasiga qayta taqsimlash orqali fondning boshqarish tizimini takomillashtirish.

Umumjahon banki guruhi. Umumjahon banki guruhiga Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (XTA), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik (MIGA) va Investitsion nizolarni tartibga solishning xalqaro markazi (ICSID) kiradi. XTTB va XTA Jahon bankini tashkil etadi.

XTTB — Umumjahon banki guruhining asosiy tashkiloti bo'lib, o'rta va kam daromadli, to'lov qobiliyatiga ega mamlakatlar hukumatlariga kredit beradi. XTTB 1944-yilda tashkil etilgan va hozirda a'zo mamlakatlar soni 187 tani tashkil etadi.

XTTB ning maqsadi — a'zo mamlakatlar iqtisodiyotini qayta qurishga va rivojlanishiga kapital qo'yilmalar berish, xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish orqali qo'llab-quvvatlash, to'lov balansi muvozanatini ta'minlashga qaratilgan qarz berishdan iborat.

2013-moliya yilida XTTB ning zaxiralarga aylantirilgan yangi kredit resurslari 92 ta operatsiyalar bo'yicha 15,2 mlrd. dollarni tashkil etdi. Ushbu mablag'lar miqdori inqirozgacha bo'lgan 2005–2008-yillar miqdoridan (13,5 mlrd. dollar) oshdi. XTTB kreditlari davlat boshqaruvi va sud-huquq sohasi ((4,4 mlrd. dollar), transport (2,6 mlrd. dollar), sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlar (1,8 mlrd. dollar) moliya sektori (1,6 mlrd. dollar) ga yo'naltirildi[1].

XTTB, odatda, 5-yillik imtiyozli davr bilan 20 yilgacha muddatda uzoq muddatli kreditlarni beradi. Bankning resurs bazasi ikki manbadan shakllanadi. Shu jumladan asosiy qismi jahon moliya bozorlarida turli xil qarz majburiyatlarini joylashtirishdan shakllanadi.

XTTB a'zo mamlakatlarga hukumat kafolati asosida qarz beradi. Qarzni odatda 10–15 yil muddatga 5 yil imtiyozli davr bilan ajratiladi. XTTB ning foiz stavkasi har 6 oyda o'zgaradi va o'rtacha 7 % atrofida belgilanadi. XTTB ustaviga muvofiq aholi jon boshiga 5055 dollargacha YalM to'g'ri keladigan mamlakatlargina bankdan qarz olish huquqiga ega. Yirik taraqqiy etgan mamlakatlar, xususan, bankning 5 ta eng yirik aksionerlari qarz olishi mumkin emas.

Jahon banki qariyb 70-yillik faoliyati mobaynida 140 ta mamlakatda qiymati 300 mlrd. dollarga teng 6 mingdan ortiq loyihalarni moliyalashtirishda ishtirok etdi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Umumjahon banki guruhi o'z faoliyati samaradorligini oshirish, rivojlanayotgan mamlakatlar ishonchini mustahkamlash maqsadida keng miqyosli islohotlar dasturini amalga oshirmoqda. Umumjahon banki guruhi mutaxassislari fikricha, bank tizimidagi islohotlar rivojlanish sohasidagi faoliyati samaradorligini oshirish, mas'uliyatni kuchaytirish va boshqaruvni takomillashtirish, sarflanayotgan investitsiyalar samaradorligini oshirishga qaratilgan.

1 Бедность 2030 Процветание. Годовой отчет 2013. Всемирный банк. Вашингтон, 2013. С. 48.

XXI asr siyosiy iqtisodi jahonda rivojlanayotgan mamlakatlar o'rnining barqaror ortib borishini hisobga olgan holda yangi iqtisodiy tartibni ishlab chiqishni talab etadi. 2009-yil oktyabrda Istanbul shahrida bo'lib o'tgan Umumjahon banki guruhining yillik Sammitida aksioner mamlakatlar Jahon bankida rivojlanayotgan mamlakatlar ovoz berish kvotasini minimum 47 %ga va yaqin kelajakda 50 %ga yetkazish to'g'risidagi islohotlar rejasini ma'qulladi[1].

Umumjahon banki guruhi aksionerlari 2010-yil aprelda oxirgi 20-yil ichida birinchi marta Bank kapitalini 86 mlrd. dollarga oshirish taklifini qo'llab-quvvatladi. Qo'shimcha moliyalashtirish yangi ish o'rinlarini yaratish, infratuzilma, kichik va o'rta biznes korxonalari, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishga sarflanadi. Ushbu yig'ilishda Jahon bankida rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining ovoz berish kvotasi 3,13 %ga oshirilib, 47,19 %ga, Xalqaro moliya korporatsiyasida esa bu ko'rsatkich 6,07 %ga oshirilib, 39,48 %ga yetkazildi.

XTA — 1960-yilda tashkil etilgan bo'lib, unga a'zo mamlakatlar soni 170 tani tashkil etadi. XTA uzoq muddatga foizsiz, kredit ko'rinishida va bozor shartlari bo'yicha qarz olish imkoniga ega bo'lmagan dunyoning eng past daromadli 79 ta mamlakatlariga grantlar beradi. XTA kredit operatsiyalarini donor mamlakatga badallari, XTTB ning sof foydasini o'tkazish, XMK ning grantlari va uyushma tomonidan ajratgan kreditlaridan keladigan tushumlar hisobiga moliyalashtirdi.

XTA ning maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarga imtiyozli kreditlar berishdan iborat. XTA ning zaxiralarga aylantirilgan moliya resurslari 2013-moliya yilida 16,3 mlrd. dollarni, shundan kreditlar — 13,8 mlrd. dollar, grantlar — 2,5 mlrd. dollar va kafolatlar — 60 mln. dollarni tashkil etdi[2].

XTA kreditlari 10 yillik imtiyozli davrni kamrab olgan holda 35–40 yilga beriladi. Kreditlar hajmi SDR da aks ettiriladi, lekin moliyalashtirish loyiha xarajatlari amalga oshiriladigan valyutada beriladi. Olingan qarz bo'yicha foiz hisoblanmaydi, ammo kredit bo'yicha xizmat ko'rsatishdan kreditning 0,75 % miqdorida komissiya haqi olinadi. Jahon hamjamiyati XTA ni kam rivojlangan mamlakatlarga yordam beruvchi eng samarali tashkil etilgan moliya instituti sifatida tan oladi.

XTA ga a'zolik XTTB ga kirgan barcha mamlakatlar uchun ochiq hisoblanadi. XTAda moliyalash hususiyatidan kelib chiqib, a'zolari ikki guruhga bo'linadi.

Birinchi guruhga Rossiya, AQSh, Kanada, G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika va Quvayt kiradi. Ularning a'zolik badallari erkin almashinadigan valyutada to'lanadi.

Ikkinchi guruh rivojlanayotgan mamlakatlardan tashkil topgan bo'lib, ular badalning faqat 10 %ni erkin almashadigan valyutada, qolgan 90 %ni o'z valyutalarida to'laydilar. Ikkinchi guruh ishtirokchilarining badallari faqat hukumat bilan maxsus shartnomaga muvofiq loyihalarni moliyalashtirishda foydalanilishi mumkin.

XMK — rivojlanayotgan mamlakatlar xususiy sektorini qo'llab-quvvatlash maqsadida 1956-yilda tashkil etilgan. A'zo mamlakatlar soni 182 tani tashkil etadi. Zaxiraga aylantirilgan resurslar portfeli 34,4 mlrd. dollarni va sinditsiyalashgan kreditlari 8 mlrd. dollarni tashkil qiladi. 2013-moliya yilida 103 mamlakatda

1 Стамбульские решения будут в центре внимания в будущем году. // ББВ, 13.10.2009. № 80. (1189).

2 Бедность 2030 Процветание. Годовой отчет 2013. Всемирный банк. Вашингтон, 2013. С. 48.

612 ta yangi loyiha bo'yicha zaxiralashgan mablag'lar hajmi 18,349 mlrd. dollarni tashkil etdi[1].

XMK ning asosiy vazifasi bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda xususiy investor va moliya institutlariga kapitalni samarali joylashtirishga ko'maklashishda vositachilik qilish hisoblanadi. XMK bozor holatiga yaqin shartlar bo'yicha 12 yil imtiyozli davr bilan 3 yildan 15 yilgacha qarz beradi. Qariyb 80 % passivlari moliya bozorlaridan jalb etiladi, qolgan 20 % esa XTTB dan qarzga olinadi. Odatda, XMK boshqa investorlar ishtirokidagi loyihalarni moliyalashtiradi, uning ulushi 25–35 %ni tashkil qiladi. Birgalikdagi moliyalashtirish XMK faoliyatining o'ziga xos jihati bo'lib, qarz berishdan tashqari, xususiy korxonalar kapitaliga ham pul qo'yishni amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

MIGA — 1988-yilda a'zo mamlakatlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan. Hozirda agentlikka 175 ta mamlakat a'zo bo'lib, 1990–2011-moliya yillarida jami ajratilgan kafolatlari hajmi 23,8 mlrd. dollarga teng. Agentlik tomonidan 2011-moliya yilida 38 ta loyiha bo'yicha 2,1 mlrd. dollar miqdorida kafolatlar berilgan (33.2.5-jadval).

33.2.5-jadval
MIGAning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari, mlrd. doll.

	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	1990–2011-yy.
Qo'llab-quvvatlangan loyihalar soni	29	24	26	19	38	651
Shundan:						
Yangi loyihalar	26	23	20	16	35	-
Oldingi yillar qo'llab-quvvatlangan loyihalar	3	1	6	3	3	-
Taqdim etilgan kafolatlar soni	45	38	30	28	50	1030
Yangi kafolatlarning yalpi qiymati, mlrd. doll.	1,4	2,1	1,4	1,5	2,1	23,8

Manba: MIGA, Годовой отчет, 2011. Вашингтон, 2011. С. 2.

Ushbu agentlik rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltirilgan TTXI ni rag'batlantirish maqsadida siyosiy risklardan sug'urtalash yoki kafolatlash xizmatlarini taklif etadi.

ICSID — 1966-yilda tashkil etilgan bo'lib, maqsadi xorijiy investorlar va investitsiyalarni jalb etuvchi mamlakatlar o'rtasida yuzaga kelgan xalqaro investitsion nizolarni arbitraj ko'rib chiqish va tartibga solish mexanizmini ta'minlab berishdan iborat. Bundan tashqari, bu markaz xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi qonunchilik aktlari va xalqaro nizolarni arbitraj tartibga solish sohasida tadqiqot ishlarini olib boradi. Hozirda markazga 157 ta mamlakat a'zo va faoliyati mobaynida 300 dan ortiq, jumladan, 2011-moliyaviy yilda 32 ta arbitraj o'tkazildi.

33.3. Xalqaro mintaqaviy moliya tashkilotlari

Xorijiy investitsiyalarni xalqaro miqyosda tartibga solishda mintaqaviy moliya institutlari ham muhim rol o'ynaydi (33.3.1-rasm).

1 The Power of Partnerships. IFC Annual Report 2013. VVashington, 2013. P. 28.

33.3.1-rasm.
Mintaqaviy rivojlanish banklari



Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) — 1991-yilda tashkil topgan va unga 56 ta mamlakat a'zo. YeTTB Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlariga bozor iqtisodiyotiga o'tish bo'yicha islohotlarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan.

YeTTB tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar soni 1991–2012-yillarda 3644 taga (2012-yilda 393 ta) yetdi. 1991–2012-yillarda amalga oshirilgan loyihalarning umumiy qiymati 235,4 mlrd. yevroni, 2012-yildagi loyihalar qiymati esa 24,8 mlrd. yevroni tashkil etdi[1].

YeTTB ning asosiy faoliyat doirasi quyidagilardan iborat:

- infratuzilmani rivojlantirish;
- turli xususiy va xususiylashtirilgan korxonalarning loyihalarini moliyalashtirish va kreditlash. Bunda resurslarning 60 % xususiy sektorga, 40 %davlat sektoriga mo'ljallangan;
- xususiy kapital qo'yilmalarga kafolatlar berish;
- iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini qayta qurish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;
- aniq loyihalarga maslahat-texnik yordam berish.

Xususiy sektorning rivojlanishi, xususiylashtirish jarayoni, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, moliya muassasalari hamda sanoat sektorini tashkil etish va mustahkamlash, kichik biznesning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan loyiha va dasturlar YeTTB uchun ustuvor hisoblanadi. Bank xususiy va xususiylashtirilgan korxonalar taklifi, homiylar salohiyati yuqori bo'lishi va biznes rejalarining ishonchli bo'lishini talab qiladi.

Boshqa rivojlanish banklaridan farqli ravishda YeTTB siyosiy tuzilmalarni kreditlashda ishtirok etmaydi va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash hamda loyihaviy moliyalashga ixtisoslashgan.

1 Финансовый отчет за 2012 год. www.ebrd.com/financialreport.

Bank beradigan kreditining eng kam miqdori 5,0 mln. yevroni tashkil etadi. Foiz stavkalari asosiy bozor stavkasi (odatda, LIBOR) va marjadan tashkil topadi. Kreditlar bo'yicha foiz suzib yuruvchi (svop operatsiyalarini qo'llagan holda) yoki qat'iy stavkalarda belgilanadi. Marja miqdori kredit shartlaridan kelib chiqadi.

YeTTB tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar soni 2005–2010-yillarda 267 tadan 386 tagacha ortgan. 2010-yilda YeTTB tomonidan amalga oshirilgan loyihalarning umumiy qiymati 22,0 mlrd. yevroni tashkil etgan (33.3.1-jadval).

33.3.1-jadval
YeTTB tomonidan amalga oshirilgan loyihalar dinamikasi

	2005-y.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.
Loyihalar soni	276	301	353	302	311	386
Loyihalarning umumiy qiymati, mlrd. yevro	9,8	12,0	13,8	12,9	18,1	22,0
YeTTB tomonidan ajratilgan mablag'lar, mlrd. yevro	4,3	5,0	5,6	5,1	7,9	9,1
YeTTB tomonidan jalb qilingan mablag'lar, mlrd. yevro	5,9	7,7	8,6	8,4	10,3	13,2

Manba: YeTTB hisobotlari va ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2010-yilda YeTTB tomonidan ajratilgan mablag'larning 34 % moliya sektoriga, 25 % korporativ sektorga, 20 % infratuzilma sohasiga va 21 % energetika sohasiga yo'naltirilgan.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) — 1966-yilda tashkil topgan va unga 67 ta mamlakat (48 ta hududiy va 19 ta hududdan tashqari mamlakatlar) a'zo. OTB ga a'zolik BMT ning Osiyo va Tinch okeani bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha komissiyasidagi barcha mamlakatlar va Osiyo mintaqasidagi boshqa mamlakatlari (agar ular BMT yoki uning ixtisoslashgan agentliklariga a'zo bo'lsalar) uchun ochiq. A'zolikda mavjud bunday keng imkoniyatlar OTB da Osiyo mintaqasidan tashqari mamlakatlar ulushining ortishiga olib keldi, ularga bank aksiyalarining qariyb 37 % va ovozlarining 35,0 % to'g'ri keladi.

Yaponiya, AQSh, Xitoy, Hindiston, Avstraliya, Indoneziya, Kanada, Janubiy Koreya OTBning yirik aksiyadorlari (aksiyalar paketi 5 %dan ko'p bo'lgan) hisoblanadi. Xitoy, Hindiston, Pokiston, Indoneziya, Bangladesh kabi mamlakatlar asosiy qarz oluvchi mamlakatlar sanaladi.

OTB ning maqsadi Osiyo qit'asidagi rivojlanayotgan mamlakatlarga iqtisodiy rivojlanishda ko'maklashish, hududiy hamkorlikni rag'batlantirish, a'zo mamlakatlarga texnik yordam ko'rsatish va ularning iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtirishdan iborat.

OTB transport va kommunikatsiya, energetik loyihalar, qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslar, moliya, ijtimoiy infratuzilma sohalarini moliyalashtiradi.

OTB da Osiyo rivojlanish fondi (20,5 mlrd. doll.) va Maxsus texnik yordam fondi (721,7 mln. doll.) mavjud[1]. 1988-yilda Bank va Yaponiya hukumati o'rtasida Texnik yordam ko'rsatish bo'yicha Yaponiya maxsus fondi tashkil etildi.

OTB rivojlanayotgan mamlakatlarga quyidagi fondlar hisobidan kreditlar beradi:

1) oddiy fond hisobidan tijorat shartlari asosida 25 yil muddatga (barcha kreditlarning qariyb 2/3 qismi);

1 http://www.adb.org/About/members.asp

2) Osiyo rivojlanish maxsus fondi hisobidan imtiyozli 1–3 % stavkalar bo'yicha kambag'al mamlakatlarga 40 yilgacha muddatga.

Boshqa rivojlanish banklari kabi OTB da ham kreditlashda balansni ta'minlash maqsadida davlat sektoriga berilgan kreditlar jami loyihalarining 20 %dan oshmaydi.

OTB faoliyatining xususiyati shundan iboratki, u o'z kreditlarining 30 %ni imtiyozli shartlarda maxsus fonddan beradi. Bank bu mablag'larni Yevropa bozorlariga yo'naltirib, ularni rivojlanayotgan mamlakatlarga 25–40 yilga mo'ljallangan uzoq muddatli kreditlarga aylantiradi. Bunda bank imtiyozli foiz stavkalarini ko'zda tutadi. Kreditlar, shuningdek, tijorat shartlarida yoki yuqori bozor foiz stavkasi bo'yicha 10–25 yil muddatga oddiy jamg'armalardan ham beriladi.

Tahlillar ko'rsatishicha, 1967–2010-yillarda OTB tomonidan berilgan kreditlar va moliyalashtirilgan investitsion loyihalar soni 2328 tani tashkil etdi. Jumladan, bank loyihalari soni 2010-yilda 106 tani tashkil etib, berilgan kreditlar va investitsion loyihalarni moliyalashtirish miqdori 11 mlrd. 462 mln. dollarga teng bo'ldi. Ushbu holat, OTB ning mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi rolining oshib borayotganligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, OTB tomonidan berilayotgan kreditlarning aksariyat qismini investitsion kreditlar tashkil qiladi. Bu esa OTB ning tijorat banklaridan farqlantiruvchi muhim jihat hisoblanadi. Chunki tijorat banklarida uzoq muddatli resurslar taqchilligi mavjud bo'lganligi tufayli ular tomonidan berilgan kreditlarning asosiy qismini qisqa muddatli kreditlar tashkil etadi. Shuning uchun OTB ning investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi roli tobora oshib bormoqda.

OTB tomonidan 1967–2010-yillarda berilgan kreditlarning aksariyat qismi energetika, transport va kommunikatsiyani rivojlantirish maqsadlariga berilgan kreditlar hissasiga to'g'ri keldi. Bu davrda ushbu sohalarga berilgan kreditlarning miqdori 74,1 mlrd. dollarni, jami kreditlarga nisbatan esa 45 %ni tashkil qildi (33.3.2-jadval).

1967–2010-yillarda OTB tomonidan jami 362 ta loyiha bo'yicha 6,21 mlrd. dollarga teng grantlar va, davlat kafolatlari asosida 61 ta loyihani moliyalashtirish uchun 9,2 mlrd. dollar miqdorida kreditlar berildi.

33.3.2-jadval

OTB kreditlarining iqtisodiyot sektorlari bo'yicha taqsimlanishi

Sektor	2010-y.		1967–2010-yy.		
	Loyihalar soni	Miqdori, mlrd. doll	Loiyhalar soni	Miqdori, mlrd. doll.	Ulushi, %
Qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslar	11	0,6	523	19,6	12
Ta'lim	1	0,07	146	6,2	4
Energetika	20	2,5	356	33,0	20
Moliya tizimi	12	1,3	268	20,3	12
Ijtimoiy infratuzilma	2	0,2	68	3,8	2
Sanoat va savdo	-	-	107	4,6	3
Davlat sektori	11	0,9	84	14,0	8
Transport va kommunikatsiya	27	3,8	416	41,1	25
Suv ta'minoti, infratuzilma va xizmatlar	9	0,6	245	14,1	8
Boshqalar	13	1,6	115	10,4	6
Jami	**106**	**11,57**	**2328**	**167,1**	**100,0**

Manba: OTB hisobotlari va ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Islom taraqqiyot banki (ITB) — 1974-yilda tashkil topgan. Unga islom diniga e'tiqod qiluvchi 35 ta mamlakat, ya'ni Islom anjumanining deyarli barcha a'zolari kiradi. Nizom kapitalining miqdori OTB dan 5 marta kam (33.4.3-jadval).

33.4.3-jadval
ITB faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2008-yil	
	Islom dinori	AQSh dollari
Loyihalarining umumiy qiymati, mlrd.	1,9	3,1
Texnik yordam, mlrd.	22,7	36,2
Savdoni moliyalash, mlrd.	1,7	2,6
Maxsus yordam, mln.	13,0	20,1
A'zo mamlakatlar soni	56	
Xodimlar soni, kishi	1014	

Manba: Islom taraqqiyot banki hisobotlari va ma'lumotlari asosida hisoblangan.

ITB ning maqsadi a'zo mamlakatlarning rivojlanish loyihalarini, tashqi savdoni kreditlash va savdo, sanoat kompaniyalari kapitallarini investitsiyalashdan iborat.

1976–2008-yillar davomida ITB tomonidan 56,9 mlrd. dollar qiymatidagi 6103 ta loyiha moliyalashtirilgan. 2008-yilda bank tomonidan loyihalarni moliyalashtirish, texnik ko'mak berish, savdoni moliyalash kabi yo'nalishlar bo'yicha 399 ta loyihaga 5,7 mlrd. dollar mablag' yo'naltirilgan.

2008-yilda ITB tomonidan moliyalashtirilgan loyihalarning 35,8 %davlat sektoriga, 30,9 % transport va aloqa tizimiga, 12,5 % sanoat va tabiiy resurslar sektoriga, 11,3 % qishloq xo'jaligi tarmog'iga, 5,8 % ijtimoiy sohaga va 3,8 % moliyaviy xizmatlarga to'g'ri kelgan.

33.4. O'zbekiston va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar

O'zbekistonda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishda yirik xalqaro va mintaqaviy moliya institutlari, jumladan XVF, Jahon banki, OTB va ITB bilan yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha o'zaro hamkorlik aloqalarini kengaytirib borishga katta ahamiyat berilmoqa.

O'zbekiston va XVF. O'zbekiston 1992-yil 21-sentyabrda XVFga a'zo bo'lgan. Hozirda O'zbekiston 2003-yil oktyabrdan XVF ning VIII moddasiga muvofiq milliy valyutani joriy operatsiyalar bo'yicha erkin konvertatsiyalash majburiyatlariga ega.

O'zbekistonning a'zoligi 2010-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 275,6 mln. SDR miqdoridagi kvotasi bilan belgilanadi. O'zbekistonning XVF bilan oxirgi moliyaviy shartnomasi 1995-yil 18-dekabrda 124,7 mln. SDR miqdorida «stend-bay» kreditini olish to'g'risida tuzilgan. Hozirgi kunda O'zbekiston XVF oldida hech qanday moliyaviy majburiyatlarga ega emas.

O'zbekiston va Umumjahon banki guruhi. O'zbekiston Umumjahon bankiga 1992-yilda a'zo bo'lgan. 1992–2013-yillar mobaynida Umumjahon banki guruhi tomonidan O'zbekistonda 27 ta loyiha va 30 ta grant amalga oshirildi[1] (33.4.1-jadval).

1 Кредит Всемирного банка для улучшения водоснабжения Сырдаринской области //Банковские ведомости, №12–13 (723–724), 24.03.2010.

33.4.1-jadval
Jahon bankining O'zbekistonda amalga oshirgan yirik loyihalari, mln. doll

Loyiha nomi	Loyiha hajmi
Salomatlik-2	39,48
Drenaj, irrigatsiya va tuproq hosildorligini oshirish	74,55
Buxoro va Samarqand shaharlarida ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	40,0
Qishloq xo'jalik korxonalarini qo'llab-quvvatlash	36,14
Farg'ona vodiysida suv resurslarini boshqarish	65,54

Manba: Umumjahon banki guruhi hisobotlari va ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu bank tomonidan ajratilayotgan kreditlar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, jumladan, xususiylashtirish, moliya sektorini rivojlantirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilashga yo'naltirildi.

2008–2010-yillarda XTTB ning O'zbekistonga nisbatan ishlab chiqqan strategiyasida sog'liqni saqlash, melioratsiya, sug'orish infratuzilmalari, ijtimoiy himoya, kommunal xizmatlar sifatini oshirish, atrof-muhit himoyasiga yo'naltirilgan umumiy qiymati yiliga 90–100 mln. dollardan iborat uchta loyihani amalga oshirildi. Bu loyihalarni kreditlash Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi mablag'lari hisobidan 40 yil muddatga (shundan 10 yili imtiyozli davr) yillik 0,75 % stavkada amalga oshiriladi[1].

O'zbekiston va YeTTB. O'zbekiston 1992-yildan YeTTB ga a'zo. YeTTB O'zbekistonda xususiy sektorni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashni amalga oshiruvchi eng yirik investorlardan biri hisoblanadi. YeTTB 1992-yildan to hozirgi vaqtga qadar iqtisodiyotning turli sohalarida 1,5 mlrd. yevro miqdorida 56 ta loyihani moliyalashtirdi[2].

YeTTB tomonidan amalga oshirilgan yirik kreditlar iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan.

O'zbekiston va OTB. O'zbekiston OTB ga 1995-yilda a'zo bo'lgan, 2010-yilda bankning mintaqaviy a'zolari ro'xatida 15-o'rinni, yirik aksionerlar ro'yxatida esa 21-o'rinni egallaydi. O'zbekiston OTB ning 0,765 % aksiyasiga va 0,910 % ovoziga ega[3].

OTB va O'zbekiston o'rtasidagi samarali ikki tomonlama hamkorlik natijasida OTB tomonidan umumiy qiymati 8,6 mlrd. dollarga teng 35 ta qo'shma loyiha ma'qullandi. Ushbu loyihalarni moliyalashtirishda OTB ning ulushi 3,8 mlrd. dollarni tashkil qildi. OTB 1995-yildan 2010-yilga qadar O'zbekistonga 35 ta loyiha uchun umumiy summasi 1,9 mlrd. dollardan ortiq kreditlar ajratdi. Shuningdek, bu davrda OTB O'zbekistonga 40,75 mln. dollar miqdorida texnik yordam ko'rsatdi[4].

Tahlillar ko'rsatishicha, 1996-yildan 2006-yilgacha kreditlar OTB bank kapitalining oddiy resurslari hisobidan berilgan. Bu esa kreditlarni imtiyozli shartlar asosida jalb etish imkoni bo'lmaganligini ko'rsatadi. 2006-yildan boshlab, OTB O'zbekistonga imtiyozli kreditlar bo'yicha kredit berishni boshladi. Aksariyat kreditlar infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek,

1 Новая стратегия Всемирного банка для Узбекистана. // Банковские ведомости, № 28.16.07.2008.
2 Абдуллаев Р., Асташев А. ЕБРР расширяет финасирование частного сектора в Узбекистане. //ББВ, №102 (1211), 24.12.2009.
3 http://www.adb.org/Documents/Translations/Russian/Factsheets/UZB-Fact-Sheet-RU.pdf
4 http://www.adb.org/Documents/Translations/Russian/Factsheets/UZB-Fact-Sheet-RU.pdf

moliya, transport va kommunikatsiya sohalariga ham katta e'tibor qaratilayotganini ko'rishimiz mumkin (33.4.2-jadval).

33.4.2-jadval

OTBning O'zbekistonda yirik investitsion loyihalar uchun ajratayotgan kreditlarining tarmoq tarkibi (2010-yilning 31-dekabr holatiga)

	Loyihalar soni	Kreditlar hajmi, mln. doll.	Jamiga nisbatan foizda
Qishloq xo'jaligi va tabiiy resrurslar	8	345,4	17,8
Ta'lim	8	290,5	14,9
Moliya	3	420,0	21,6
Energetika	2	70,0	3,6
Sog'liqni saqlash, ovqatlanish va ijtimoiy himoya	1	40,0	2,1
Sanoat va savdo	1	50,0	2,6
Davlat sektorini boshqarish	1	20,7	1,1
Transport va aloqa	5	380,3	19,5
Suv ta'minoti va sanitariya	6	329,0	16,9
Jami	**35**	**1945,9**	**100,0**

Manba: http://www.adb.org/Documents/Translations/Russian/Factsheets/UZB-Fact-Sheet-RU.pdf

Shunisi muhimki, 2008-yilda OTB Kengashi 2008–2020-yillarga mo'ljallangan hamkorlikni rivojlantirishning uzoq muddatli Strategiyasi — «Strategiya-2020» Dasturini ma'qulladi. OTB ning O'zbekistondagi faoliyati mazkur Strategiya va Dasturga asoslanadi. OTB ning bu Strategiyasi ustuvor sohalar sifatida qishloq xo'jaligi, xususiy sektor, transport kommunikatsiyalari va bojxona tizimi, umumiy ta'lim, maktabgacha tarbiya tarmoqlarida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirishni ko'zda tutadi.

OTB va O'zbekiston o'rtasida 2011–2015-yillarda infratuzilma, transport va kommutsikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish dasturi doirasida Maroqand — Qarshi uchastkasida temiryo'llarni elektrlashtirish uchun 100 mln. dollarlik; qishloq joylarda tasdiqlangan namunaviy loyihalar asosida uy-joy, muhandislik kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurish dasturi doirasida qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirish bo'yicha qiymati 200 mln. dollarlik; Andijon shahrida suv ta'minoti va sanitariya xizmatlarini yaxshilash, jumladan, kanalizatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, Jizzax viloyatining Zafarobod va Arnasoy tumanlarida, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Xorazm viloyatining qishloq aholi punktlarida suv ta'minotini yaxshilash uchun 58 mln. dollarlik; elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish, jumladan, elektr energiyasini nazorat qilish va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish uchun 150 mln. dollarlik zayom bitimlari imzolandi[1].

Bundan tashqari OTB va O'zbekiston Respublikasi hukumati o'rtasida Quyosh energiyasi bo'yicha qo'shma xalqaro ilmiy tadqiqot institutini tashkil etish to'g'risida Memorandum imzolandi. Ushbu hujjatda OTB tomonidan quyosh energetikasini rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish uchun 200 mln. dollar ajratish ko'zda tutilgan.

1 Халқ сўзи, 17.02.2012.

Islom taraqqiyot banki (ITB). O'zbekiston ITB ga 2003-yil 3-sentyabrda a'zo bo'lgan bo'lib, ushbu bank tomonidan 2003–2009-yillar mobaynida umumiy qiymati 150 mln. dollarga teng moliyaviy xizmatlar ko'rsatildi.

33.4.3-jadval
ITB ning O'zbekistondagi kredit liniyalari

Loyiha nomi	Hajmi, mln. doll.	Loyihaning huquqiy asosi
O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki		
ITB ning ikkinchi moliya liniyasi	20,0	ITB bilan hamkorlik Dasturi 2007–2009-yy.
O'zsanoatqurilishbanki		
ITB ning global moliya liniyasi	1,0	2007-yil 7-sentyabrda imzolangan Global shartnoma
Ipoteka banki		
ITB ning global moliya liniyasi	3,0	2007-yil 3-iyulda imzolangan Global shartnoma

Bundan tashqari, ITB O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, O'zsanoatqurilishbanki va Ipoteka banki orqali 2007–2009-yillarda ITB bilan hamkorlik dasturlari doirasida umumiy qiymati 24,0 mln. dollarlik kredit liniyalarini amalga oshirdi.

Asosiy tushunchalar

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni davlatlararo tartibga solish — turli mamlakatlar tomonidan jahon xo'jalik aloqalari sohasida ixtiyoriy ravishda qabul qilinadigan umumiy majburiyat va qoidalar yig'indisi.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar — bu xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida hamkorlikdagi qarorlarni ishlab chiqish, tartibga solish, birxillashtirish (unifikatsiyalash) maqsadida xalqaro kelishuvlar asosida tashkil etilgan tashkilotlar.

Xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari — jahon valyuta tizimini rivojlantirish va mustahkamlash, jahon moliyaviy resurslar bozorini barqarorlashtirish va kapital aylanishini rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan tashkilotlar.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) — 1945-yilda tashkil etilgan bo'lib, maqsadi a'zo mamlakatlar valyuta-moliya siyosatini muvofiqlashtirish, to'lov balansini tartibga solish va valyuta kursini barqarorlashtirish uchun qarz berish hisoblanadi.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) — 1946-yilda tashkil etilgan bo'lib, maqsadi a'zo mamlakatlar iqtisodiyotini qayta qurishga va rivojlanishiga kapital qo'yilmalar berish, xususiy xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish orqali ko'maklashish, to'lov balansi muvozanatini ta'minlashga qaratilgan qarz berishdan iborat.

Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (XTA) — 1960-yilda tashkil etilgan bo'lib, uzoq muddatga foizsiz, kredit ko'rinishida va bozor shartlari bo'yicha qarz olish imkoniga ega bo'lmagan dunyoning eng past daromadli mamlakatlariga grantlar beradi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) — rivojlanayotgan mamlakatlar xususiy sektorini qo'llab-quvvatlash maqsadida 1956-yilda tashkil etilgan xalqaro tashkilot.

Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik (MIGA) — 1988-yilda a'zo mamlakatlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan tashkilot.

Investitsion nizolarni tartibga solishning xalqaro markazi (ICSID) — 1966-yilda tashkil etilgan bo'lib, maqsadi xorijiy investorlar va investitsiyalarni jalb etuvchi mamlakatlar o'rtasida yuzaga kelgan xalqaro investitsion nizolarni arbitraj ko'rib chiqish va tartibga solish mexanizmini ta'minlab berishdan iborat.

Xorijiy investorlarga maslahat berish agentligi — Umumjahon bankining bo'linmasi bo'lib, a'zo mamlakatlar hukumatlarini xorijiy investitsiyalar masalalari bo'yicha konfidensial maslahatlar bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan tashkilot.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) — 1991-yilda tashkil topgan. YeTTB Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlariga bozor iqtisodiyotiga o'tishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda yordam berish maqsadida tuzilgan.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) — 1966-yilda tashkil topgan bo'lib, maqsadi qit'aning rivojlanayotgan mamlakatlariga iqtisodiy rivojlanishda ko'maklashish, hududiy hamkorlikni rag'batlantirish, a'zomamlakatlarga texnik yordam ko'rsatish va ularning iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtirishdan iborat.

Islom taraqqiyot banki (ITB) — 1975-yilda tashkil topgan bo'lib, maqsadi a'zomamlakatlarning rivojlanish loyihalarini, tashqi savdoni kreditlash va savdo hamda sanoat kompaniyalari kapitallarini investitsiyalashdan iborat.

Nazorat savollari

1. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni tashkil etishning zaruriyati nimada va ular qanday funksiyalarni bajarishadi?
2. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar qaysi mezonlar bo'yicha guruhlanadi?
3. Xalqaro moliya tashkilotlarining maqsadi va vazifalarini sanab o'ting.
4. XVF ning maqsadi nima va qanday vazifalarni bajaradi?
5. Umumjahon banki guruhi nechta tashkilotdan iborat va ular qanday vazifalarni bajaradi?
6. Xalqaro mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlarga qaysi tashkilotlar kiradi va ularning vazifalari nimalardan iborat?
7. YeTTB qachon tashkil etilgan va vazifalari nimalardan iborat?
8. OTB nima maqsadda tashkil etilgan va qanday vazifalarni bajaradi?
9. ITB boshqa xalqaro mintaqaviy moliya institutlaridan nimasi bilan farq qiladi va vazifalari nimalardan iborat?
10. O'zbekiston va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni baholang.

34-BOB. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA

34.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya: zarurati, mazmuni va rivojlanish omillari

Jahon xo'jaligida o'zaro bir-biri bilan bog'liq quyidagi ikki tendensiya harakat qilmoqda:

- jahon xo'jaligi yaxlitligining shakllanish jarayoni — globallashuv;
- mintaqaviy iqtisodiy integratsiya.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya (XII) atamasi XX asrning 30-yillarida nemis va shved iqtisodchilarining asarlarida birinchi marta ishlatilgan. Integratsiya so'zi lotin tilida «integratio» so'zidan olingan bo'lib, «qo'shilib ketish», «birlashish», «qismlarning bir butunlikka aylanishi» deb tarjima qilinadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya deganda milliy xo'jaliklar o'rtasida chuqur barqaror o'zaro aloqalar va mehnat taqsimoti asosida ishlab chiqarishning yuqori darajadagi baynalmilallashuvi tushunilib, u qator mamlakatlar takror ishlab chiqarish tarkibining asta-sekin qo'shilib ketishiga olib keladi.

Hozirgi vaqtda mutaxassislar o'rtasida integratsiya jarayonlariga nisbatan yagona nuqtayi nazar yo'q. Iqtisodchilarning bir guruhi integratsiya jarayonida mamlakatlar o'rtasida yangi tovar oqimlarini shakllantirish hisobiga «resurslarning cheklanganligi» omilini bartaraf etishni eng muhim holat deb biladilar va bu alohida olingan bir mamlakat ichida bir-biriga o'xshash qimmatroq tovarlar ishlab chiqarishni bartaraf etish yoki ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlariga sarflanadigan mablag'larni tejash imkonini beradigan texnologik o'zaro almashuvlarni kengaytirishga imkon tug'diradi, deb hisoblaydilar.

Olimlarning boshqa guruhi ustunlik qiluvchi shart-sharoitlar sifatida tashqi iqtisodiy omillar, masalan, kollektiv mudofaa qobiliyatini oshirishni ilgari suradilar. Uchinchi guruh olimlar esa, integratsion guruhlar tuzilishi — bu ularning a'zolariga ishlab chiqarishning birdek o'sishi, ijtimoiy barqarorlik va shakliy maqsadlarga oson, tezroq erishish imkonini beradi, deb hisoblashadi. Integratsiyaga nisbatan hamma nazariy yondashuvlarni umumlashtirib, shuni ta'kidlash joizki, integratsiya-mintaqaviy miqyosda sifat jihatidan yangi iqtisodiy muhitni shakllantirish yo'li bilan milliy xo'jalik komplekslarining yaqinlashuvi va bir-biriga kirib borishini ifodalaydi.

Jahon iqtisodiyotida integratsiya jarayonlari har bir davlat uchun faqat «o'z ishlab chiqarishiga» ega bo'lish samara bermaydigan bo'lib qoladigan vaziyatni keltirib chiqaradi.

Demak, XII — milliy iqtisodiyotlarning turli sohalardagi hamkorlik shakli bo'lib, hamkor mamlakatlar iqtisodiyotining texnik, texnologik va iqtisodiy jihatdan uzoq muddatli bog'liqligining chuqurlashuvi bilan ajralib turadi.

XIInng maqsadi istiqbolda tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining erkin harakatlanishiga to'siq bo'layotgan cheklovlarni bartaraf etish hisoblanadi.

Ishlab chiqarish, ilmiy-texnik hamkorlik va ayirboshlash predmeti hisoblangan tovarlar, xizmatlar, pul va mehnat resurslari XII obyektlari hisoblansa, xalqaro ishlab chiqarish, ilmiy-texnik hamkorlik va ayirboshlashni amalga oshiruvchi iqtisodiy tomonlar XII subyektlari hisoblanadi.

Integratsion tuzilmalarni ishlab chiqarishning integratsiyalashishida erishilgan darajasiga qarab ajratish lozim. Bunda integratsiyalashish rasmiy va real xususiyatga ega bo'lishi mumkinligini hisobga olish zarur. Rasmiy integatsiyalashuv ishlab chiqarishni xalqaro darajada umumlashtirishdan iborat bo'lib, uning asosida mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar xalqaro mehnat taqsimoti asosida tashkil etiladi.

Real iqtisodiy integratsiya esa ishlab chiqarishning ishtirokchi mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari pariteti asosida xalqaro umumlashtirishdan iborat bo'ladi.

Iqtisodiy integratsiya, o'z navbatida, ishtirokchi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarining yaxshilanishi uchun sharoit yaratadi. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, integratsiyadan ichki bozori kichik, resurslarga boy bo'lmagan, jahon YaMM ida kam ulushga ega bo'lgan mamlakatlar ko'proq samara oladi.

Tahlillar ko'rsatishicha, XII quyidagi obyektiv omillar va sabablarga asoslanadi:

- xo'jalik hayoti baynalmilallashuvining o'sib borishi;
- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- umumjahon ilmiy-texnika taraqqiyotining o'ziga xosligi;
- milliy iqtisodiyotlar ochiqligi darajasining ortishi;
- integratsiyalashayotgan mamlakatlarda daromadlarning ortishi;
- yangi savdo oqimlarining paydo bo'lishi;
- ishlab chiqarish xarajatlari, tovarlar va xizmatlar narxining pasayishi tufayli iqtisodiy farovonlikning o'sishi;
- integratsion birlashmaga a'zo mamlakatlarning uchinchi mamlakatlarga nisbatan iqtisodiy pozitsiyasining mustahkamlanishi;
- mintaqada siyosiy hamkorlikning rivojlanishi va integratsion birlashmaga a'zo mamlakatlarning uchinchi mamlakatlarga nisbatan siyosiy poziyatsiyasining mustahkamlanishi.

34.1.1-rasm.
Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, maqsadi va bosqichlari



Ushbu omillarning barchasi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lib, integratsiya mamlakatlar o'rtasidagi (xalqaro mehnat taqsimoti asosida) barqaror iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi va qayta ishlab chiqarishning milliy xo'jalik doirasidan chetga chiqishi jarayonidir.

34.2. Iqtisodiy integratsiya shakllanishi shart-sharoitlari va rivojlanish bosqichlari

Iqtisodiy integratsiya shakllanishining shart-sharoitlari quyidagilardan iborat:

- integratsiyalashayotgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi va bozor munosabatlaridagi yetukligi darajasining yaqinligi. Aksariyat hollarda mamlakatlararo

integratsiya sanoat jihatdan taraqqiy etgan yoki rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida rivojlanadi;

- integratsiyalashayotgan mamlakatlarning geografik yaqinligi, aksariyat hollarda umumiy chegara va tarixan shakllangan iqtisodiy aloqalarning mavjudligi. Dunyodagi integratsion birlashmalarning aksariyati geografik jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan, chegaradosh, transport aloqalariga ega bo'lgan, ko'pincha bir tilda so'zlashadigan qo'shni mamlakatlardan boshlangan;
- integratsiyalashayotgan mamlakatlar oldida turgan iqtisodiy va boshqa muammolarning umumiyligi. Iqtisodiy integratsiya mamlakatlar oldida mavjud bo'lgan aniq muammolar to'plamini hal qilishga qaratiladi;
- ustunlikni namoyish qilish samarasi. Integratsion birlashmalarni tuzgan mamlakatlarda odatda ijobiy iqtisodiy o'zgarishlar (iqtisodiy o'sish sur'atlarining tezlashuvi, inflyatsiyaning pasayishi, ish bilan bandlikning o'sishi va shakllar) sodir bo'ladi va bu hol, shubhasiz, o'zgarishlarni kuzatib borayotgan boshqa mamlakatlarga muayyan ruhiy ta'sir ko'rsatadi;
- «domino samarasi». Mintaqa mamlakatlarining ko'pchiligi integratsion birlashmaga a'zo bo'lgach, birlashma doirasidan chetda qolgan mamlakatlar ayrim iqtisodiy muammolarga duch kelishadi. Bu muammolar mazkur guruhga kiruvchi mamlakatlar iqtisodiy aloqalarining uzviyligi bilan bog'liq. Bu ko'pincha integratsiya doirasidan tashqarida qolishdan qo'rqib, integratsiya doirasidan chetdan qolgan mamlakatlar bilan savdoni qisqartirishga ham olib keladi.

Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan va rivojlanayotgan ko'plab integratsion birlashmalar aslida o'z oldiga bir-biriga o'xshash quyidagi vazifalarni qo'yadilar:

1. Keng ko'lamli iqtisodiyot afzalliklaridan foydalanish. Keng ko'lamli iqtisodiyot nazariyasi asosida bozorlar hajmini kengaytirish, transaksion xarajatlarni kamaytirish va boshqa qator afzalliklardan foydalanish. Bu, o'z navbatida, katta hajmdagi bozorlarga katta ishtiyoq bilan kirib keladigan to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalarini jalb qilishga bevosita imkon beradi.
2. Qulay tashqi siyosiy muhitni yaratish. Aksariyat integratsion birlashmalarning muhim maqsadi ularda ishtirok etuvchi mamlakatlarning siyosiy, harbiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa noiqtisodiy sohalarda bir-birini tushunishi hamda hamkorligini mustahkamlashdir.
3. Savdo siyosatidagi vazifalarni hal qilish. Mintaqaviy integratsiya, ko'pincha, GATT/JST doirasida ishtirok etayotgan mamlakatlarning muzokarasi nuqtayi nazaridan olib qaraladi. Mamlakatlar bloki nomidan kelishilgan holdagi bayonot ancha jiddiy hisoblanadi va savdo siyosati sohasida kutilgan natijalarni beradi.
4. Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishga ko'maklashish. O'z milliy iqtisodiyotini integratsiya jarayonlariga qo'shar ekanlar, rivojlanganroq davlatlar ham o'sha mamlakatlardagi to'laqonli va katta hajmli bozorlarni yaratish hamda ulardagi bozor islohotlarining rivojlanishidan manfaatdor bo'ladi. YeI ning u yoki bu shakliga qo'shila turib, ko'plab G'arbiy Yevropa mamlakatlari shu maqsadlarni ko'zlagan edi.
5. Milliy sanoatning yosh sohalarini qo'llab-quvvatlash. Hatto, integratsion birlashmalar uchinchi mamlakatlarga nisbatan kamsituvchi choralarni nazarda tutmaganlarida ham, ular faoliyati uchun kengroq mintaqaviy bozor ochiladigan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash usuli sifatida qaraladi.

Tarixan integratsion jarayonlar o'z rivojlanish bosqichlariga ega. Ularning har biri uning rivojlanishining ma'lum darajaga yetganligini ifoda etadi. Integratsion guruhlar tipologiyasining asoslari ishtirokchi mamlakatlar milliy iqtisodiyotining makro va mikro darajada o'zaro yaqinlashishi hamda bir-biriga iqtisodiy jihatdan qanchalik chuqur kirib borishini baholashda namoyon bo'ladi (34.2.1-jadval).

34.2.1-jadval

Integratsiya jarayonlarining shakllari va bosqichlari

Integratsiya bosqichlari	Tavsifi				
	Savdoda cheklovlarni bekor qilish	Umumiy tashqi savdo cheklovlari	Ishlab chiqarish omillarining erkin harakati	Muvofiqlashtirilgan fiskal siyosat	Yagona makrosiyosat va uni amalga oshirishning umumiy tashkilotlari
Erkin savdo zonasi	x				
Bojxona ittifoqi	x	x			
Umumiy bozor	x	x	x		
Iqtisodiy va valyuta ittifoqi	x	x	x	x	
To'liq integratsiya	x	x	x	x	x

XII nazariyasida amerikalik iqtisodchi B. Balassa iqtisodiy integratsiyaning quyidagi beshta shaklini ajratadi.

Erkin savdo zonasi — mamlakatlarning o'zaro savdoda bojxona bojlari va miqdoriy cheklovlarni bekor qilish maqsadidagi birlashuvi. Ishtirokchi mamlakatlar bu bosqichda o'zaro savdo to'siqlarini bekor qiladi, lekin uchinchi mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarda to'la erkinlikni saqlab qoladilar (masalan, bojxona bojlarini yoxud boshqa cheklashlarni bekor qilish yoki yangiliklarni kiritish va savdo-iqtisodiy shartnomalar, bitimlar tuzish huquqlari). Buning oqibatida mamlakatlar o'rtasida chegaralarni kesib o'tayotgan tovarlarning kelib chiqishini nazorat qiladigan va tegishlicha uchinchi mamlakatlardan imtiyozli ravishda tovarlarni olib kirishga to'sqinlik qiladigan bojxona chegaralari hamda postlari saqlanib qoladi. Erkin savdo hududlari a'zo mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb etilish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi. Erkin savdo hududlarining salbiy tomonlariga keladigan bo'lsak, ular ichki bozor raqobatining kuchayishi bilan belgilanadi, chunki bu milliy ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta'sir etishi va bankrotlik xavfini kuchaytirishi mumkin. Bu bosqichda millatlararo tartibga soluvchi tashkilotlarni tashkil etish ko'zda tutilmaydi. Bu esa, o'z navbatida, birgalikda qarorlar qabul qilish jarayonlarini sekinlashtiradi.

Bojxona ittifoqi — o'zaro savdoda to'siqlar bekor qilingan va a'zo bo'lmagan mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona tariflari asosida umumiy tashqi savdo siyosati olib borayotgan mamlakatlar guruhi. Integratsiyaning bu bosqichida davlatlar faqat o'zaro to'siqlarni bartaraf etibgina qolmay, balki tashqi savdo to'siqlarining yagona tizimini va uchinchi mamlakatlarga nisbatan bojxona bojlarining yagona

tizimini tashkil qiladilar. Bunda ishtirokchi mamlakatlar chegaralari bilan belgilangan yagona bojxona makoni vujudga keladi.

Umumiy bozor — a'zo mamlakatlar o'rtasida tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi va kapitalning erkin harakatini ta'minlashga erishishga harakat qilayotgan mamlakatlar guruhi. Bu bosqichda mamlakatlar o'z milliy chegaralari orqali nafaqat tovarlar, balki barcha ishlab chiqarish omillari — kapital, ishchi kuchi, texnologiya va ma'lumotlarni erkin harakati haqida kelishadilar. Bojxona ittifoqini umumiy bozorga aylantirish jarayoni faqat savdoni emas, balki iqtisodiy siyosatning boshqa sohalarini ham qamrab oluvchi qonuniy me'yorlarni uyg'unlashtirish masalalarini hal etish bilan bog'liq. Shuning uchun ham ichki bojxona to'siqlari va boshqa cheklashlarni bartaraf etish orqali uchinchi mamlakatlar bilan savdoda umumiy tamoyillarni ishlab chiqish zarur, natijada milliy chegaralar orqali tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining har qanday to'siqlarsiz o'tishiga shart-sharoit yaratiladi. Umumiy bozorni shakllantirishda ijtimoiy fondlarni yaratish zaruriyati tug'iladi. Bundan tashqari, millatlararo muvofiqlashtiruvchi tashkilotlarning tuzilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa Ittifoqi tajribasidan ma'lumki, bunday tashkilotlarni tashkil etmasdan turib milliy qonunchilik me'yorlarini soddalashtirish va integratsion birlashma ishtirokchilarining umumiy qarorlarining bajarilishini nazorat qilish tizimini joriy etish mumkin emas. Bunda ishtirokchi mamlakatlar chegaralari bilan belgilangan yagona bojxona makoni vujudga keladi.

Iqtisodiy va valyuta ittifoqi — ishlab chiqarish omillarining erkin harakati ta'minlangan, ijtimoiy-iqtisodiy, jumladan, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, energetika, valyuta-moliya sohalarida yagona siyosat amalga oshirilayotgan, umumiy valyuta muomalaga kiritilgan mamlakatlar guruhi.

To'liq integratsiya — yagona iqtisodiy, valyuta va siyosiy ittifoqning shakllanishi, jumladan, tashqi siyosat, qonunchilik va ichki ishlar sohasida umumiy siyosatning amalga oshirilishi, yagona fuqarolikning joriy etilishi. To'liq integratsiya sharoitida milliy darajadan ustun turadigan tartibga soluvchi institutlar shakllantiriladi. Bu esa, o'z navbatida, har bir a'zo mamlakat va ittifoq imkoniyatlarini o'zaro manfaatli asosda birlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Shunday qilib, XII o'zaro iqtisodiy hamkorlikning quyi shaklidan nisbatan yuqori shakliga qarab bosqichma-bosqich harakatlanish jarayonini aks ettiradi.

Iqtisodiy integratsiyaga kirishayotgan mamlakatlar quyidagi afzalliklarga ega bo'ladi:

- milliy bozorlarning birlashishi mamlakatlar ichki bozori hajmining kengayishiga olib keladi, bu esa, o'z navbatida, umumiy yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishini rag'batlantiradi;
- aholi xarid qobiliyatining o'sishi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha daromadlarning o'sishi va tovarlar narxining pasayishiga olib keladi;
- ishlab chiqarishning samaradorligi va raqobatbardoshligi ortadi;
- ishlab chiqarish ixtisoslashuv darajasining chuqurlashuvi natijasida yuzaga keladigan «miqyos samarasi»ning ortishi;
- a'zo mamlakatlarning raqobat afzalliklarini hisobga olgan holda ishlab chiqarishning nisbatan samarali tarkibini shakllantirish;
- bozorlarni birlashtirish, ishlab chiqarish taomillarining erkin harakatini ta'minlash, mehnat unumdorligi va daromadlarni oshirish hisobiga investitsiya jozibadorligini oshirish;
- iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish.

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, aksariyat mamlakatlar bir yoki bir nechta integratsion birlashmalar a'zosi hisoblanadi. Dunyodagi 170 dan ortiq

integratsion birlashmalarning 84 % erkin savdo zonasi hisoblanadi. Ushbu holat JST doirasida ko'p tomonlama kelishuvlar darajasida savdo va investitsiyalarni erkinlashtirish jarayonlarining qiyin kechayotganligi bilan bog'liq. 1990-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab turli mintaqalardagi mamlakatlarni jalb etgan holda mintaqalararo erkin savdo zonalarini tashkil etish jarayoni kuchaydi va dunyoning asosiy mintaqalarini qamrab olgan yirik integratsion birlashmalar paydo bo'ldi (34.2.2-jadval).

34.2.2-jadval

Ayrim iqtisodiy integratsion birlashmalarning asosiy ko'rsatkichlari (2012-y.)

	Maydoni, mln. kv. km	Aholisi, mln. kishi	YalM (XQP), trln. dollar	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YalM (XQP), ming dollar	A'zo mamlakatlar soni
Yel	4,3	507,1	17,4	34,3	28
NAFTA	21,8	470,0	19,4	41,3	3
ASEAN	4,5	609,4	3,1	5,1	10
Bojxona Ittifoiq (Rossiya, Belarus, Qozog'iston)	20,0	170,0	3,6	14,7	3

Manba: «World Development Report. Risk and Opportunity Managing Risk for Development. 2014. WorldBank. 2014. P. 293–298» ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Xalqaro iqtisodiy integratsion birlashmalar ichidagi aloqalarning rivojlanganlik darajasini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkich a'zo mamlakatlarning o'zaro savdo ko'rsatkichi hisoblanadi. Misol uchun, integratsiyaning yuqori bosqichiga erishgan YeI da bu ko'rsatkich 2013-yilda 62,0 %ga teng bo'ldi (34.2.3-jadval).

34.2.3-jadval

Jahondagi yetakchi integratsion birlashmalarda o'zaro savdoda tovarlar eksporti (jamiga nisbatan foiz hisobida)

	1990-y.	1995-y.	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2013-y.
Yil	–	–	67,5	68,0	65,3	62,0
NAFTA	42,6	46,0	55,6	55,8	32,3	49,2
MERKO-SUR	8,9	20,5	21,0	12,9	15,7	15,2
ASEAN	20,1	25,5	24,0	24,9	24,6	26,2

Manba: Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник. /под ред. Проф. А. С. Булатова, проф. Н. Н. Ливенцева. — М.: Магистр, 2010. С. 167; International Trade Statistics 2011. WTO. Geneva, 2011; International Trade Statistics 2014. WTO. Geneva, 2014-yil ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jahon tajribasi, XII milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligiga qo'shilishini rag'batlantirishda samarali vosita, barqaror iqtisodiy o'sish, aholi daromadlarini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish, iqtisodiyotda tarkibiy siljishlarni amalga oshirish,

ishlab chiqarish, investitsiyalarni boshqarish va sifatini oshirishni ta'minlash imkoniyati ekanligini ko'rsatmoqda.

34.3. G'arbiy Yevropada integratsiya jarayonlarining rivojlanishi

Yevropa Ittifoqi (YeI)ning shakllanishi va rivojlanishi xalqaro iqtisodiy integratsiyaning yaqqol namunasi hisoblanadi. G'arbiy Yevropa integratsiyasi obyektiv iqtisodiy jarayonlar bilan birgalikda V. Gyugo, I. Kant kabi Yevropa siyosiy va jamoat arboblari, mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan yagona Yevropa g'oyalari bilan sug'orilgan edi. YeI ning tashkil topishi va rivojlanishining zamonaviy tarixi 1951-yildan boshlanadi. 1951-yilda Fransiya, Germaniya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg davlatlari tomonidan Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi (YeKPB) to'g'risidagi Parij shartnomasi imzolandi. Bu G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasining o'ziga xos ibtidosi edi. Umumiy ko'mir va po'lat bozorining muvaffaqiyatli va tezda shakllanishi 1957-yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YeIH) va Yevropa atom energiyasi hamjamiyatini (Yevratom) tashkil etish to'g'risidagi Rim shartnomalarining imzolanishiga olib keldi. Shu tariqa yuqoridagi olti mamlakat hududida YeKPB, YeIH va Yevratom integratsiya birlashmalari tashkil etildi. YeIH esa asosiy iqtisodiy integratsiya birlashmasiga aylandi.

1957-yildagi Rim shartnomasining maqsadi umumiy tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchi bozorini yaratish, aholi turmush darajasini oshirish, milliy iqtisodiyotlarning rivojlanish darajasini yaqinlashtirishdan iborat edi. Bu maqsadga erishishning dastaklari sifatida bojxona ittifoqini shakllantirish, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, ijtimoiy sohalarda umumiy siyosat olib borish, millatlararo institutsional tarkibni barpo etish kabilar belgilab olindi.

G'arbiy Yevropa integratsiyasining rivojlanishi 50-yillarning oxiridan hozirgi vaqtga qadar notekis va nisbatan ziddiyatli kechdi. Shunga qaramasdan YeIH ni tashkil etishda qo'yilgan maqsad va vazifalar yetarlicha izchil va muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasi rivojlanishi jarayonini shartli ravishda to'rt bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich (50-yillarning oxiri 70-yillar o'rtasi) hamjamiyat faoliyatidagi «oltin asr» hisoblanadi. Ushbu bosqich bojxona ittifoqining muddatidan ilgari shakllantirlishi, yagona agrar bozorning muvaffaqiyatli rivojlantirilishi, YeI ga uchta yangi mamlakatlar — Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiyaning a'zo bo'lib kirishi bilan tavsiflanadi.

Ko'pincha «Umumiy bozor» deb ataladigan YeIH ni tashkil etishning aniq maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- a'zo mamlakatlar o'rtasidagi savdoda barcha cheklashlarni asta-sekin bartaraf etish;
- uchinchi mamlakatlar bilan tashqi savdoda umumiy bojxona tarifini belgilash;
- «insonlar, kapitallar, xizmatlar»ning erkin xarakat qilishi uchun cheklashlarni bekor qilish;
- transport va qishloq xo'jaligi sohasida yagona, umumiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- valyuta ittifoqini tashkil etish;
- soliq tizimini birxillashtirish (unifikatsiyalash);
- qonunchilikni yaqinlashtirish;
- kelishilgan iqtisodiy siyosat tamoyillarini ishlab chiqish.

YeIH a'zo mamlakatlarda tovarlar, kapital, xizmatlar va ishchi kuchi harakatini erkinlashtirish, umumiy bozorni tashkil etish vazifasini birinchi darajali maqsad qilib qo'ydi. Shu maqsadda bojxona ittifoqi tashkil etildi va quyidagi vazifalar hal etildi:

- a'zo mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdodagi savdo cheklovlari bekor qilindi;
- uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona tarifi belgilandi;
- kapital, kreditlar harakati, pul o'tkazmalari, xizmatlar ko'rsatish erkinligiga erishildi;
- ish kuchining erkin migratsiyasi va yashash joyini erkin tanlash imkoniyati ta'minlandi.

Yuqorida qayd etilgan choralar YeIH mamlakatlarida sanoat integratsiyasining jadallashuviga ko'maklashdi. Shu bilan bir vaqtda kompensatsiya yig'imlari va qishloq xo'jaligi jamg'armasi orqali moliyalashtirish, umumiy proteksionizmni qo'llash shaklida agrar integratsiyani amalga oshirishga urinib ko'rildi. YeIH ning agrar siyosati a'zo mamlakatlarning aksariyat qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun birdek minimal narxlar belgilanishini kafolatlovchi narxlarning yagona tizimiga asoslanadi.

Umumiy bozorning shakllantirilishi milliy monopoliyalarning transmilliy monopoliyalarga aylanishi jarayonini tezlashtirdi va ularning hamkor mamlakatlar iqisodiyotiga kirib borishiga ko'maklashdi. YeIH ning rivojlanishi a'zo mamlakatlarning yakkalanib qolgan milliy xo'jaliklaridan tashqi bozorga yo'naltirilgan ochiq turdagi iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirdi.

Ikkinchi bosqich 1960-yillarni o'z ichiga oladi va YeIH ning barqaror, jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan ajralib turadi. 1968-yilda yuqorida qayd etilgan uchta integratsiya birlashmalarining ma'muriy boshqaruvi va byudjeti Yevropa hamjamiyati (YeH) nomi ostida birlashtirildi hamda bojxona ittifoqi amal qila boshladi.

Ikkinchi bosqich (1970-yillar va 1980-yillarning birinchi yarmi) 1970-yillarning birinchi yarmida va 1980-yillarning boshida ro'y bergan iqtisodiy inqirozlar tufayli «Yevropessimizm» degan nomni oldi. Bu davrda YeH Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya va Gretsiyaning qabul qilinishi natijasida 10 ta mamlakatga kengaydi. 1979-yildan boshlab esa shartli hisob-kitob valyutasi EKYu ga asoslangan Yevropa valyuta tizimi (YeVT) amal qila boshladi.

Uchinchi bosqich (80-yillar ikkinchi yarmi — 90-yillar boshi) — hamjamiyat tarkibining yanada kengayish bosqichi bo'ldi. 1986-yilda Yel ga Ispaniya va Portugaliyaning qo'shilishi ilgari mavjud bo'lgan mamlakatlararo nomutanosibliklarning keskinlashuviga olib keldi. Shu bilan birga bu davr Yagona Yevropa Akti (YaEA) qabul qilinishi tufayli G'arbiy Yevropa integratsiyasi rivojlanishining yanada kuchayishi bilan tavsiflanadi.

To'rtinchi bosqichda (XX asrning 90-yillari o'rtasi — XXI asr boshi) YaEA ga muvofiq 1993-yil 1-yanvardan boshlab hamjamiyat chegaralari doirasida ishlab chiqarish omillarining erkin harakat qilishi joriy etildi. Amalda hamjamiyat doirasida yagona iqtisodiy makon paydo bo'ldi va bu holat Yel iqtisodiy integratsiyasining sifat jihatdan yangi boqichga kirganligini anglatar edi.

Maastrixt shartnomasi asosida (1992-yil fevral) 1994-yil 1-yanvardan boshlab YeIH a'zolari soni 15 taga yetdi va hamjamiyat Yel ga aylantirildi. Yel doirasida to'liq yagona ichki bozor shakllantirildi. Navbatdagi muddatga integratsiya hamkorligi maqsadlari e'lon qilindi. Ular yagona valyuta — yevro emissiyasi huquqi bilan yagona Yevropa banki, ichki chegaralarsiz yagona G'arbiy Yevropa makoni barpo etishni o'z ichiga olar edi.

Maastrixt bitimlari G'arbiy Yevropa integratsiyasining rivojlanishida sifat jihatdan yangi bosqich hisoblanadi va ushbu bosqichda mamlakatlar iqtisodiyotini mikrodarajada bir-biriga yaqinlashtirish vazifasi qo'yildi.

Maastrixt bitimlari YeI oldiga quyidagilarni hal etish vazifasini qo'ydi:

- yagona valyuta ittifoqini shakllantirish va uni boshqarish;
- yagona iqtisodiy siyosat, jumladan, yagona byudjetni muvofiqlashtirish, nazorat qilish;
- erkin raqobatga asoslangan yagona bozorni shakllantirish va himoya qilish;
- boy va qashshoq mintaqalar o'rtasida tenglikka intilish va mablag'larni qayta taqsimlash;
- qonunchilik va tartib-qoidani qo'llab-quvvatlash;
- fuqarolarning huquqlarini e'tirof etish va rivojlantirish;
- uchinchi mamlakatlarga nisbatan kelishib yuritiladigan savdo, umumiy iqtisodiy siyosatni olib borish.

«Yagona», muvofiqlashtirilgan umumiy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishni taqozo etuvchi mazkur qoidalarni ro'yobga chiqarish uchun esa ijroiya — muvofiqlashtirish vazifalari yuklatilgan xalqaro davlat tashkilotlariga ehtiyoj tug'ildi.

YeI rivojlanish tarixi davomida olti marta kengaygan bo'lib, 2004-yildan boshlab kengayish, asosan, Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari hisobiga yuz berdi (34.3.1-jadval).

Hozirgi vaqtda 28 mamlakatdan iborat bo'lgan YeI AQSh va Yaponiya bilan birga jahondagi asosiy ishlab chiqaruvchi va iste'molchi xalqaro markazlardan biri hisoblanadi. Misol uchun, 2013-yilda YeI hududida 502,1 mln. kishi istiqomat qilgan. Tahlillar ko'rsatishicha, 2013-yilda jahon tovarlar va xizmatlar eksportining 24,8 foizi Yevro zonasi hissasiga to'g'ri kelgan. YeI hududida 507,1 mln. kishi istiqomat qiladi. YeI mamlakatlarida xarid qobiliyati pariteti bo'yicha hisoblangan aholi jon boshiga ishlab chiqariladigan yillik yalpi milliy mahsulot miqdori o'rtacha 34,3 ming dollarni tashkil etadi. YeI ga tovarlar eksportida o'zaro savdoning ulushi yuqori bo'lib, 2013-yilda bu ko'rsatkich 62,0 %ni tashkil etdi (34.3.2-jadval).

34.3.1-jadval

Yevropa Ittifoqining kengayishi

Ta'sischi mamlakatlar (1957-y. 25 mart)	Birinchi kengayish 1973-y.	Ikkinchi kengayish 1981-y.	Uchinchi kengayish 1986-y.	To'rtinchi kengayish 1995-y.	Beshinchi kengayish 2004-y.	Oltinchi kengayish 2007-y.	Oltinchi kengayish 2008-y.
Belgiya	Buyuk Britaniya	Gretsiya	Ispaniya	Avstriya	Vengriya	Bolgariya	Xorvatiya
Fransiya	Daniya		Portugaliya	Finlyandiya	Kipr	Ruminiya	
Germaniya	Irlandiya			Shvetsiya	Malta		
Italiya					Latviya		
Lyuksemburg					Litva		
Niderlandiya					Polsha		
					Slovakiya		
					Sloveniya		
					Chexiya		
					Estoniya		

34.3.2-jadval
Yel tovar eksportining geografik tarkibi va o'zgarishi

	Qiymati, mlrd. doll. 2013-y.	Tarkibi, jamiga nisbatan, %da		O'zgarishi, %da	
		2005-y.	2013-y.	2012-y.	2013-y.
Jami	6076,5	100,0	10,0	-5	5
Yevropa	4206,1	73,5	69,2	-7	5
shu jumladan:					
Yel-28	3769,5	68,0	62,0	-7	3
Osiyo	603,5	7,5	9,9	0	4
Shimoliy Amerika	457,5	8,8	7,5	3	2
MDH	226,6	2,5	3,7	5	3
Afrika	201,6	2,6	3,3	3	5
Yaqin Sharq	177,2	2,7	2,9	-1	12
Janubiy va Markaziy Amerika	118,5	1,3	2,0	3	4

Manba: International Trade Statistics 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 32.

Yel milliy hukumat organlaridan yuqori turuvchi davlatlararo muvofiqlashtiruvchi institutlarga egaligi bilan ajralib turadi. Yel ning ma'muriy boshqaruvi Yel Kengashi (hukumatlar va vazirlar darajasida amal qiladi), Yevropa Parlamenti (Yel qonunlari va byudjetini tasdiqlaydi), Yevropa Komissiyasi (Yel ning doimiy ijro organi hisoblanadi) va Yevropa sudidan iborat.

Yel ning yagona byudjeti 2000-yildan boshlab har yetti yil uchun belgilanadi. Yel byudjetining daromad qismi bojxona bojlari, tovarlar importidan turli yig'imlar, QQS dan ajratlmalardan tashkil topsa-da, asosiy daromad manbayi a'zo mamlakatlar YalM ning 1,24 %ga teng ajratmalardan iborat.

Yel byudjeti xarajatlar qismining hajmi va ulushi istiqbol uchun belgilangan maqsad hamda vazifalardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Oxirgi bir necha o'n yillikda Yel byudjetining katta qismi agrar siyosatni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Jumladan hozirda amalda bo'lgan byudjetning 35 %ga yaqin qismi agrar siyosatni moliyalashtirishga, 10 % esa qishloq xo'jaligi va atrof-muhit muhofazasiga, 38 % mintaqaviy siyosatni amalga oshirish uchun sarfalanadi.

Yel ning moliya institutlari Yevropa investitsiya banki (YelB), Yevropa investitsiya fondi (YelF) va Yevropa Markaziy bankidan (YeMB) iborat.

G'arbiy Yevropada iqtisodiy integratsiya jarayonlari faqat Yel hududi bilan cheklanib qolmaydi (34.3.1-rasm).

Ushbu hududda 60-yillardan boshlab Yevropa erkin savdo uyushmasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. **Yevropa erkin savdo uyushmasi (YeESU)** Yel dan farqli ravishda milliy manfaatlardan ustun turuvchi funksiyalar va davlatlararo muvofiqlashtiruvchi institutlarga ega emas. YeESU iqtisodiy hamkorlikni asosiy maqsad qilib qo'ydi va birinchi navbatda, savdoning erkinlashishi va bojxona to'siqlarini bartaraf etishga ko'maklashdi. YeESU a'zolari (80-yillarda ular yettita, 90-yillar o'rtasida to'rtta — Norvegiya, Islandiya, Lixtenshteyn, Shveysariya) uchinchi mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy bitimlarga ixtiyoriy qo'shiladilar, YeESU qatnashchilaridan har biri bu mamlakatlarga nisbatan istalgan bojxona tariflarini belgilashga haqlidir. YeESU a'zolari o'rtasidagi savdoda bojsiz, erkin savdo rejimi faqat sanoat tovarlariga nisbatan amal qiladi, chunki YeESU konvensiyasining amal qilishi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga joriy etilmaydi.

34.3.1-rasm.
G'arbiy Yevropada integratsiya jarayonlari



Umuman, yagona iqtisodiy makon bojxona ittifoqi hisoblanmaydi. Yel va YeESU tuzilmasi doirasida a'zo mamlakatlar yagona savdo siyosati va uchinchi mamlakatlarga nisbatan umumiy bojxona tariflariga ega emas. YeESU a'zolari iqtisodiy rivojlanish darajasining yuqoriligi va o'zaro iqtisodiy aloqalariga qaramay to'laqonli integratsiya guruhiga aylanmadi. Amalda YeESU YeIH va Yel ning yangi a'zolari uchun o'ziga xos «tayyorgarlik sinfi» bo'ldi.

BENILYuKS — 1960-yilda Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg o'rtasida imzolangan iqtisodiy ittifoq. Ushbu ittifoqda tovarlar, xizmatlar, kapital va insonlarning erkin harakati ta'minlangan bo'lib, uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona savdo va iqtisodiy siyosat olib boriladi.

Markaziy Yevropa erkin savdo uyushmasi (MEESA) — 1993-yilda Vengriya, Polsha, Slovakiya, Chexiya, Sloveniya tomonidan imzolangan erkin savdo uyushmasi. Keyinchalik bu mamlakatlar Yel ga a'zo bo'lganlaridan keyin MEESA dan chiqib ketishdi. Hozirda Albaniya, Bosniya va Gersegovina, Xorvatiya, Makedoniya, Moldova, Serbiya, Kosovo va Chernogoriya MSEEA a'zolari hisoblanadi.

Bundan tashqari, Yel tomonidan Afrika, Karib havzasi, Osiyo–Tinch okeani (AKHOT) mamlakatlari (69 ta) uchun Lome konvensiyasiga muvofiq tovarlarni boj to'lmasdan olib kirish bo'yicha imtiyozlar, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlari (Jazoir, Marokash, Tunis, Misr, Iordaniya, Livan, Suriya) uchun Yel ga sanoat va an'anaviy qishloq xo'jalik mahsulotlarini erkin olib kirish huquqi bo'yicha imtiyozlar belgilangan.

34.4. Amerika qit'asida integratsiya jarayonlarining rivojlanish xususiyatlari

Jahon xo'jaligida amal qilayotgan integratsion markazlardan biri Shimoliy Amerika hududi hisoblanadi. 1992-yilda AQSh, Kanada va Meksika o'rtasida Shimoliy

Amerika Erkin savdo assotsiatsiyasini (North American Free Trade Area — NAFTA) tashkil etish to'g'risidagi shartnoma imzolandi va u 1994-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kirdi.

34.4.1-rasm.
Shimoliy Amerika iqtisodiy integratsiyasining hamkorlik yo'nalishlari



Mazkur integratsion blok hududida 473,6 mln. kishi istiqomat qiladi va qudratli iqtisodiy salohiyatga ega. NAFTA ga a'zo mamlakatlar tomonidan yillik tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmi 1992-yilda 7 trln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 20,3 trln. dollarga teng bo'ldi (34.4.1-jadval).

34.4.1-jadval
NAFTA ga a'zo mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari

	Aholi, mln. kishi		YalM mlrd. doll. XQP bo'yicha		Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YalM hajmi, doll. XQP bo'yicha		Eksport, mlrd. doll.		Import, mlrd. doll.	
	1992	2013	1992	2013	1992	2013	1992	2013	1992	2013
Kanada	27,4	35,2	493,6	1519,1	20710	43208	150,5	536,5	153,7	579,1
Meksika	89,5	122,3	329,0	2014,0	3470	16463	42,8	399,8	52,7	419,8
AQSh	255,0	316,1	5920,2	16800,0	23240	53143	640,5	2241,6	670,1	2760,6

Manba: Trade Profiles 2014. WTO. Geneva, 2014-yil ma'lumotlari asosida tuzilgan.

NAFTA ga a'zo mamlakatlar tomonidan imzolangan shartnomaning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi (bu vazifalarning ayrimlariga erishish uchun 10 yil, ayrimlari uchun 15 yil rejalashtirilgan edi):

- erkin savdo zonasini shakllantirish asosida a'zo mamlakatlar o'rtasida o'zaro savdo va investitsiyalarni rag'batlantirish (10 yil ichida bojxona qoidalari uyg'unlashtirildi, shakar, paxta, sut mahsulotlaridan tashqari barcha mahsulotlar bo'yicha miqdoriy cheklovlar va bojxona bojlari bekor qilindi);
- kompaniyalar uchun kelishilgan tadbirkorlik faoliyati ishlab chiqish (o'zaro investitsiyalarda ko'psonli cheklovlar bekor qilindi);
- mintaqada halol raqobatni ta'minlash (havo transporti, telefon aloqasi va ayrim telekommunikatsiya xizmatlaridan tashqari xizmatlar savdosi, jumladan moliya, bank xizmatlari savdosi erkinlashtirildi);
- Intellekutal mulk huquqini himoya qilishga ko'maklashish (ushbu huquqlarni himoya qilish bo'yicha umumiy siyosat olib boriladi);
- O'zaro iqtisodiy hamkorlikni rag'batlantirish (nizolarni hal etish mexanizmi yaratilgan).

NAFTA ning amal qilishidagi muhim ijobiy natijalardan biri samarali savdoni tashkil etish hisoblanadi.

34.4.2-jadval
NAFTA tovarlar savdosi tarkibi

	2013-y.		O'zgarishi, %	
	Qiymati, mlrd. doll.	Ulushi, %	2012-y.	2013-y.
Eksport				
Jami	2418	100,0	4	2
NAFTA	1189	49,2	4	3
Boshqa mintaqalar	1229	50,8	3	1
Import				
Jami	3194	100,0	3	0
NAFTA	1094	34,3	4	2
Boshqa mintaqalar	2100	65,7	3	-1

Manba: International Trade Statistics 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 38.

Rivojlanayotgan mamlakatlar va Lotin Amerikasi integratsiya guruhlari o'rtasida Janubiy Amerika umumiy bozori yoki MERKOSUR (Mercado Comun de Cono del Sur — MERCOSUR) jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. MERKOSUR 1991-yilda Argentina, Braziliya, Paragvay va Urugvay tomonidan tashkil etilgan bo'lib, 2006-yilda unga Venesuela ham qo'shildi. Bundan tashqari MERKOSUR da Boliviya, Kolumbiya, Peru, Chili Ekvador assotsiatsiyalashgan a'zo sifatida qatnashadilar. Meksika esa kuzatuvchi maqomiga ega. MERKOSUR ning strategik maqsadi mintaqada umumiy bozorni shakllantirish (Bojxona ittifoqi esa o'tish bosqichi rolini o'taydi) hisoblanadi.

1995-yilda Bojxona ittifoqi tashkil etilganligiga qaramasdan hozirgacha notarif cheklovlar saqlanib qolishi, dempingga qarshi choralar olib borilishi, tovarning kelib chiqish mamlakatining farqlanishi tovarlar savdosi va tranzitiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari 2001-yildan Argentinadagi iqtisodiy inqiroz va Braziliyadagi milliy valyuta devalvatsiyasi tufayli MERKOSUR doirasida o'zaro savdoda bojlar joriy etildi.

34.4.3-jadval
MERKOSUR mamlakatlari tovar eksporti

	2013-y.		O'zgarishi, %	
	Qiymati, mlrd. doll.	Ulushi, %	2012-y.	2013-y.
Eksport				
Jami	342	100,0	-5	1
MERKOSUR	52	15,2	-11	6
Boshqa mintaqalar	290	84,8	-4	0
Import				
Jami	348	100,0	-3	7
MERKOSUR	49	14,1	-11	3
Boshqa mintaqalar	299	85,9	-1	8

Manba: International Trade Statistics 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 39.

MERKOSUR ning vujudga kelishi o'zaro savdo hajmining keskin ko'payishiga, boshqa mintaqaviy savdo guruhlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik miqyosining o'sishiga olib keldi. O'zaro investitsiya faolligi sezilarli ravishda o'sdi, xorijdan jalb etilgan investitsiyalar hajmi o'smoqda. MERKOSUR ning muvaffaqiyatli faoliyati mintaqada siyosiy barqarorlikni ta'minlashga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. G'arbiy Yevropa integratsiyasidan farqli ravishda, Janubiy Amerika birlashmasi iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha bo'lgan mamlakatlar ham yagona tashkilotda faoliyat ko'rsatishdangina emas, balki muvaffaqiyatli hamkorlik qilishidan dalolat beradi.

34.5. Osiyo–Tinch okeani mintaqasida integratsion jarayonlarning xususiyatlari

Osiyo–Tinch okeani mintaqasi jahon xo'jaligidagi integratsion jarayonlarning uchinchi yirik markazi hisoblanadi. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (Association of South East Asian Nations — ASEAN) 1967-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning tarkibiga Bruney, Vyetnam, Indoneziya, Kambodja, Laos, Malayziya, Myanma, Singapur, Tailand va Filippin kiradi.

ASEANning asosiy maqsadi 1967-yilda Bangkok deklaratsiyasida belgilangan quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan: Janubi-Sharqiy Osiyoda harbiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, bojxona ittifoqini shakllantirish, mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga ko'maklashish. 1992-yilda Singapur Sammitida keyingi 15 yil ichida Erkin savdo zonasini (ASEAN Free Trade Agreement — AFTA) tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi (34.5.1-rasm).

Osiyo–Tinch okeani mintaqasida 1989-yildan boshlab hukumatlararo iqtisodiy tashkilot Osiyo–Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati (Asia Pacific Economic Cooperation — APEC) faoliyat olib boradi. APEC 1989-yilda Avstraliyaning taklifi bilan Tinch okeani havzasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan bo'lib, dastlab unga AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Singapur, Malayziya, Tailand, Filippin, Indoneziya va Bruney kirgan. Keyinchalik APEC tarkibiga Xitoy, Gonkong, Tayvan, Vyetnam, Papua–Yangi Gvineya, Meksika, Chili, Peru va Rossiya qo'shildi.

34.5.1-rasm.
ASEAN doirasida xalqaro iqtisodiy integratsiya



Ushbu guruh doirasida o'zaro hamkorlikning muvaffaqiyati ASEAN qatnashchilari bo'lgan mamlakatlarning barqaror iqtisodiy o'sishi, ular rivojlanishini qiyosiy taqqoslash mumkinligi, yaxshi yo'lga qo'yilgan uzoq, tarixiy an'analarga ega bo'lgan o'zaro savdo aloqalarining mavjudligi, hamkorlik shakllarining tartibga solinishi bilan mustahkam bog'liqdir. ASEAN rejalarida 2000-yilgacha bo'lgan muddatda qatnashchi mamlakatlarning bojxona bojlarini 38 ming turdagi tovarlar bo'yicha o'rtacha 5 %ga pasaytirish rejasi mavjud edi va 2002-yilda erkin savdo zonasi barpo etish to'g'risida qaror qabul qilingan edi.

34.5.1-jadval
ASEAN mamlakatlari tovarlar savdosi

	2013-yil		O'zgarishi, %	
	Qiymati, mlrd. dollar	Ulushi, %	2012-yil	2013-yil
Eksport				
Jami	1273	100,0	1	2
ASEAN	334	26,2	4	3
Boshqa mintaqalar	939	73,8	0	1
Import				
Jami	1246	100,0	6	2
ASEAN	280	22,5	4	0
Boshqa mintaqalar	966	77,5	7	2

Manba: International Trade Statistics 2014. WTO. Geneva, 2014. P. 41.

APEC ko'pincha «APEC Forumi» deb ataladi, chunki bu tashkilot maslahat berish maqomiga ega. Forumning faoliyat maqsadi 1991-yilda Seul deklaratsiyasida belgilangan bo'lib quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a'zo mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish;
- a'zo mamlakatlarning yuqori darajada iqtisodiy o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda ko'ptomonlama savdo tizimini mustahkamlash;
- savdo va investitsiya sohalarini erkinlashtirish.

1996-yilda APEC a'zolari 2010–2020-yillarda erkin savdo zonasini tashkil etish to'g'risida kelishib oldilar. Osiyo–Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati rasman maslahat maqomiga ega, biroq uning ishchi organlari doirasida savdo, investitsiya va moliya faoliyatini yuritishning minqtakaviy qoidalari belgilanadi, u yoki bu sohalarda hamkorlik masalalari bo'yicha tarmoq vazirlari va ekspertlarning uchrashuvlari o'tkaziladi.

1993-yilda Osiyo–Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati mamlakatlari hukumatlari rahbarlarining birinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi (Sietl, AQSh). Uchrashuv davomida mintaqada rivojlanayotgan integratsiya jarayonlaridan kutilayotgan foyda olishning taqsimlanishi yuzasidan jiddiy tafovutlar borligi aniqlandi. Ekspertlarning fikricha, Osiyo–Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatida savdoni erkinlashtirish a'zo mamlakatlarning real daromadlarining 2 %ga o'sishiga olib kelishi kerak. Biroq kutilayotgan foydani birinchi navbatda yuqori raqobatbardosh mamlakatlar oladilar.

Ko'pchilik mutaxassislar Osiyo–Tinch okeani mintaqasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlariga baho berar ekanlar, uning rivojlanishining o'ziga xos shart-sharoitga egaligi va o'ziga xosligini ko'rsatdilar. Osiyo–Tinch okeani mintaqasi integratsiya jarayonining muhim xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

Birinchidan, Osiyo–Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi tashkilotidagi integratsiya jarayoni davlatlararo hamkorlik uchun negiz yaratuvchi transmilliy korporatsiyalarning yetakchilik roli sharoitida yuz bermoqda.

Ikkinchidan, integratsiya jarayoni iqtisodiy rivojlanishi darajasi jiddiy ravishda farqlanuvchi madaniy va ijtimoiy-siyosiy tizimlari turlicha bo'lgan mamlakatlarni qamrab oladi. Osiyo–Tinch okeani iqtisodiy hamkorligining noyobligi shundaki, unda XX asrning ikki buyuk iqtisodiy davlati — AQSh, Yaponiya va XXI asrning iqtisodiy giganti — Xitoy iqtisodiyoti birlashadi.

Uchinchidan, Osiyo–Tinch okeani mintaqasi ko'lamidagi integratsiya submintaqaviy ittifoqlarni (ASEAN, NAFTA, Janubiy Tinch okeani forumi va boshqalar) o'z ichiga oladi.

To'rtinchidan, ATES va Osiyo–Tinch okeani mintaqasida Tinch okeani «ochiq» regionalizmi mafkurasi mintaqaviy integratsiyani iqtisodiy globalizm elementi sifatida qaraydi. Bunda jahon iqtisodiyoti evolyutsiyasi mintaqaviy iqtisodiy ittifoqlarning asta-sekin birlashishi va o'zaro bir-biriga qo'shilish jarayoni sifatida qaraladi. «Ochiq regionalizm» konsepsiyasi, shuningdek, Tinch okeani mintaqasi ichida tovarlar, investitsiyalar, ish kuchi harakati, cheklanishi olib tashlanishini ham nazarda tutadi, proteksionizmdan voz kechish bo'yicha majburiyatlar qabul qilinadi, ichki mintaqaviy iqtisodiy aloqalar rag'batlantiriladi. Umuman olganda, Osiyo–Tinch okeani mintaqasida integratsiya munosabatlari rivojlanishining yetukligi hali yuqori darajada emas. Jumladan, ASEAN tizimidagi savdo zonasi iqtisodiy integratsiya rivojlanishining birinchi bosqichiga, ya'ni savdo tariflari va boshqa notarif cheklashlar olib tashlanadigan erkin savdo zonasiga kiritish mumkin. Osiyo–Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatiga nisbati hozircha erkin savdo zonasi sifatida emas, balki «ochiq iqtisodiy uyushma» sifatida munosabatda bo'lish mumkin.

Ushbu tashkilot doirasida Osiyo–Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatini va integratsiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari yaqin yillarda uch variantda ko'rib chiqiladi.

Birinchi variant — Osiyo–Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatini rivojlantirish Bagordagi (1994-yil Indoneziya) kengashda qabul qilingan ssenariy bo'yicha amalga oshiriladi. Unga muvofiq erkin savdo zonasi tashkil etiladi va 2020-yilda (sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun 2010-yilgacha) investitsiyalar harakati sohasi erkinlashtiriladi. Bojxona tariflarini pasaytirish GATT/JST doirasida erishilgan bitimlarga muvofiq yuz beradi.

Ikkinchi variant — mutaxassislarning fikricha, eng ehtimoli yuqori variant Osiyo–Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati uchun mintaqada savdo muammolarini muhokama qilish forumi rolini mustahkamlaydi. Bu holda mavjud kelishuvlarni bajarishning ijrosi munosabati bilan nizolar kelib chiqishi shubhasizdir. Ushbu holatlar tashkilotning kuchsizlanishiga olib keladi. Bunday sharoitlarda boshqa integratsiyalashgan mintaqaviy guruhlarning roli oshadi, chunki submintaqalarda va Osiyo–Tinch okeani mintaqasi guruhdaridagi ayrim mamlakatlarning integratsiyalashuv darajasi nisbatan yuqori bo'lib, mintaqada integratsiya jarayonlari jadal rivojlanishining o'ziga xos yacheykalari bo'lishi mumkin. Jumladan, «o'sish uchburchagi» — Janubiy Xitoy iqtisodiy zonasi (Xitoy, Gonkong, Tayvan), «o'sish oltin uchburchagi» (Indoneziya, Malayziya, Singapur), Yapon dengizi havzasi mamlakatlari iqtisodiy zonasi, Hindi-Xitoy iqtisodiy zonasi mavjud.

Uchinchi variant — AQSh va YeI da proteksionistik kayfiyatlar ustunlik qilishini istisno etmaydi, bu jahon savdosining jadal sur'atlarda erkinlashishiga to'sqinlik qilishi va Osiyo–Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatida integratsiya jarayonlari miqyosini Osiyo mamlakatlari bilan cheklashi mumkin.

34.6. O'zbekistonning integratsion tashkilotlardagi ishtiroki

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, siyosiy va iqtisodiy sohada ulkan yutuqlarga erishdi. Respublikamizning jahon hamjamiyatida faol ishtirok etishi va O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko'ptomonlama iqtisodiy siyosat yuritishi davlatimizning jahon xo'jaligida tutgan o'rnini mustahkamlashning muhim shartidir.

O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy integratsiyalashuvi milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, millatlar va elatlarning yaqinlashuviga, aholining turmush darajasini oshirishga yordam beradi.

XXI asr boshlarida jahon xo'jaligidagi har qanday mamlakat iqtisodiy integratsiyasiz barqaror sur'atlarda rivojlana olmaydi. Iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi siyosati milliy iqtisodiyotning yuksak darajada va jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kirishiga qaratilgan. Iqtisodiy integratsiya iqtisodiyotga bevosita quyidagi natijalarga erish imkoniyatini beradi: tovarlar, kapitallar, xizmatlar erkin harakat qiladi; raqobat kuchayadi; ishlab chiqarish kuchlari rivojlanadi; ishlab chiqarish samaradorligi ortadi; sifatli va arzon tovarlar ishlab chiqariladi; iste'molchilarning talabi ortib boradi; taklif qilinadigan tovarlar nomenklaturasi ko'payadi; bozorlarning rivojlangan shakllari paydo bo'ladi va umumiy bozorlar tashkil qilinadi; ishsizlik darajasi pasayadi; milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasidagi farqlar yo'qolib boradi; yangi kuchli umumiy iqtisodiyot shakllanadi; milliy iqtisodiyot rivojlanib boradi; eng muhimi aholining turmush darajasi o'sadi va sifati yaxshilanadi.

Yuqoridagi maqsad va vazifalarga erishish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo, MDH davlatlari, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishi kerak.

O'zbekiston jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashib borar ekan, uning xalqaro iqtisodiy aloqalari uzoq va yaqin xorijiy mamlakatlar bilan taraqqiy etib bormoqda.

O'zbekistoning MDH va Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti kabi integratsiya uyushmalarida ishtirok etishi mamlakatimizning dunyo miqyosidagi obro'-e'tiborini yanada oshiradi.

O'zbekiston sobiq Ittifoq respublikalari bilan aloqalarga katta, ustuvor ahamiyat berib, MDH tuzish g'oyasini qo'llab-quvvatladi. Bunday hamkorlikka hamdo'stlik mamlakatlarining hududiy yaqinligi va iqtisodiy jihatdan bog'liqligi, nafaqat bog'liqligi, balki chuqur tarixiy, madaniy va ma'naviy aloqalar, katta tarixiy davr mobaynida xalqlarimizning taqdiri mushtarakligi ham asos bo'lmoqda.

Hamdo'stlik birlashmasi maqsadlari quyidagilardan iborat:

- demokratik huquqiy davlatlar tuzish, ular o'rtasidagi munosabatlar davlat mustaqilligini hamda suveren tenglikni o'zaro tan olish va hurmatlash, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi, tenghuquqlilik va ichki ishlarga aralashmaslik, har qanday tazyiqlardan voz kechish, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, inson huquqlari va erkinliklarini, shu jumladan kichik millatlar huquqlarini hurmat qilish, majburiyatlarini va boshqa umumtan olingan xalqaro huquq tamoyillari va normalarini halol bajarish;
- bir-birlarining hududiy butunligi va mavjud chegaralarning buzilmasligini tan olish va hurmat qilish;
- chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan xalqlarning tub manfaatlarini hamda qo'shnichilik va o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash;
- fuqarolararo va millatlararo totuvlikni saqlash.

34.6.1-jadval

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsion birlashmalardagi ishtiroki

Integratsion birlashma	Tashkil etilgan va O'zbekiston a'zo bo'lgan vaqti		Tarkibi	Maqsadi va vazifalari
MDH	1991	1991	Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Gruziya*, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston, Ukraina	Hamdo'stlik doirasida erkin savdo hududini yaratish, savdo-iqtisodiy hamkorlik samaradorligini oshirish, tovarlarning erkin harakatlanishini ta'minlash.
Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT)	1964	1992	Afg'oniston, Eron, Pokiston, Turkiya, O'zbekiston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston	O'zaro savdoni kengaytirish; barqaror iqtisodiy o'sish va aholi turmush darajasini oshirish uchun sharoit yaratish; savdo to'siqlarini bekor qilishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyat; xalqaro forumlarda umumiy yondashuv orqali jahon savdosi hajmini oshirish.

Integratsion birlashma	Tashkil etilgan va O'zbekiston a'zo bo'lgan vaqti		Tarkibi	Maqsadi va vazifalari
Markaziy Osiyo hamdo'stligi (MOH), 2004-yildan YeOIH bilan birlashtirilgan	1994	1994	Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston	Suv, yoqilg'i resurslari va suv xo'jaligi obyektlaridan barcha mamlakatlarning manfaatlarini hisobga olgan holda oqilona foydalanish; mintaqaning umumiy transport infratuzilmasini yaratish; ishlab chiqarish kooperatsiyasi va savdo-iqtisodiy hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish; gumanitar sohada o'zaro hamkorlik va ekologik muammolarni birgalikda hal etish; xavfsizlikni ta'minlash masalalarida o'zaro hamkorlikni faollashtirish.
Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)	1996	2001	Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston	Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash. Yagona iqtisodiy bozorni yaratish.
Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati (YeOIH)	2000	2005	Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Belarus, Tojikiston, O'zbekiston*	Yagona iqtisodiy makonni shakllantirish. A'zo mamlakatlarda iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni kelishib olish; yagona transport tarkibi va transport bozorini yaratish; yagona bojxona tarifini joriy etish; milliy qonunchilikni uyg'unlashtirish.

Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining MDH ga a'zoligi unga bir qator muhim vazifalarni millat, iqtisodiyot manfaatlariga muvofiq hal etish imkonini beradi:

- ishlab chiqarishni, aholini zarur mahsulotlar bilan ta'minlashni qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutuvchi kooperativ xo'jalik aloqalarini rivojlantirish va takomillashtirish;
- MDH ning bir qator tovarlarini milliy bozorda, jumladan, an'anaviy mahsulotlarni sotish sohasida yetakchi mavqeni saqlash;
- sobiq ittifoqchi respublikalar ega bo'lgan xomashyo resurslaridan foydalanish;
- O'zbekistonning uchinchi mamlakatlarga eksport-import tovar oqimiga xizmat ko'rsatuvchi transport kommunikatsiyalaridan kafolatli va xatarsiz foydalanish.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi mexanizmini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari iqtisodiy erkinlashtirish, uni bozor tamoyillariga izchillik bilan o'tkazish, xo'jalik tuzilmasini qayta qurishdan iborat umumiy yo'l bilan belgilanadi.

MDH mamlakatlari O'zbekistonning asosiy savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. Ularning hissasiga respublika tashqi savdo umumiy hajmining 30 %dan ortig'i to'g'ri keladi. O'zbekiston va MDH mamlakatlari tovar ayirboshlash dinamikasi tenglik va o'zaro foydali tamoyillarga asoslangan, savdo-iqtisodiy munosabatlarning izchil rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Rossiya, Qozog'iston va Ukraina 2000–2010-yillarda O'zbekiston bilan yirik savdo aloqalarini olib borgan mamlakatlar hisoblanadilar.

Iqtisodiy munosabatlarning shakli va tarkibi MDH mamlakatlari bilan tubdan o'zgarib bormoqda. O'zbekistonning mavqeyi tobora mustahkamlanmoqda. O'zbekiston MDH ning aksariyat mamlakatlari bilan savdo-to'lov balansida ijobiy saldoga ega.

Rossiya O'zbekistonning eng muhim savdo hamkori hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasidan Rossiyaga, asosan, paxta tolasi, oziq-ovqat, mashina va uskunalar, yonilg'i mahsulotlari, kimyo mahsulotlari eksport qilinadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik qilish mintaqaning rivojlanishi va davlatlar iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov integratsiya haqida gapirar ekan, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanadi: «Biz integratsiya jarayonlari va bozor islohotlarini rivojlantirishga, Markaziy Osiyo mintaqasida umumiy bozorni shakllantirishga alohida ahamiyat beramiz.

Faqat o'zining tor milliy qobig'ida qolib ketmagan bozorgina xorijiy investitsiyalarning katta oqimini jalb qilib, mintaqa mamlakatlarining barqaror rivojlanishi va farovonligini ta'minlay oladi»[1].

O'zbekistonning mavqeyi mintaqada ahamiyatli bo'lishiga qaramay, ayrim geografik-siyosiy omillar mamlakatning strategik imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Mamlakat qolgan Markaziy Osiyo davlatlarining barchasi singari dengizga chiqish yo'liga ega emas jahon transport kommunikatsiyalariga erkin kira olmaydigan davlatlar bilan qurshab olingan. Ammo shular bilan bir qatorda suv resurslarining cheklanganligi, Farg'ona vodiysida aholining zichligi, qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi salmog'i katta ekanligi respublikamizda integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi 1992-yilda Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (IHT)ga a'zo bo'ldi. IHT Afg'oniston, Ozarbayjon, Eron, Qozog'iston, Pokiston, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston, O'zbekiston kabi davlatlarni birlashtiradi. 1992-yilda Texronda oliy darajadagi IHT uchrashuvi jarayonida e'lon qilingan axborotda IHT a'zolarining iqtisodiy rivojlanishi yo'lida ko'ptomonlama mintaqaviy hamkorlikni ko'zda tutuvchi maqsadlar va vazifalar e'lon qilindi.

Mintaqada gaz va neft o'tkazish tarmoqlarini rivojlantirish rejalari ishlab chiqildi va ma'qullandi. Bunda Turkmanistondan O'zbekiston va Qozog'iston orqali Xitoyga o'tadigan gaz quvurlarining ishga tushirilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. IHT a'zosi bo'lgan Markaziy Osiyodagi boshqa mamlakatlar ham bu gaz quvurlaridan foydalanishlari mumkin.

IHT a'zosi bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi savdoni yanada rivojlantirish maqsadida boshqa mintaqalardagi va jahon savdo amaliyotidagi tajribalarni hisobga olgan holda erkin savdo mintaqasi (EKOFTA) tuzishga asta-sekin o'tish ko'zda tutilmoqda. IHT mintaqasida joylashgan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda va ularning harakatlarini muvofiqlashtirishda tobora ko'proq rol o'ynamoqda.

2002-yil 10-iyunda Qozog'iston, Xitoy Xalq Respublikasi, Qirg'iziston, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston va O'zbekiston davlat boshliqlari tomonidan Shanxay hamkorlik Tashkilotining Xartiyasiga qo'l qo'yildi. O'zbekiston bu tashkilotga 2001-yilda a'zo bo'lgan edi. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lish O'zbekiston va tashkilot a'zolari uchun ikki tomonlama manfaatli hisoblanib, ishtirokchi mamlakatlar uchun O'zbekiston muhim strategik sherik bo'lib hisoblanadi. Chunki tarixiy «Buyuk ipak yo'li»ning qayta tiklanishida O'zbekistonning ishtiroki muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston uchun esa bu Yevropa va Osiyo–Tinch

1 И. А. Каримов «Бизнинг бош максадимиз жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир». — Т.: «Ўзбекистон», 2005.96-б.

okeani mintaqasiga chiqish uchun ishonchli yo'l hisoblanadi va ishtirokchi mamlakatlar bilan turli yo'nalishdagi aloqalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

O'zbekistonning turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarining rivojlantirilishi uning jahon xo'jaligi integratsiyasida samarali ishtirok etishini ta'minlaydi. Bunday xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik bozor iqtisodiyotiga o'tish muammolarini hal etishni, jumladan, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligini shakllantirishni yengillashtiradi. Ushbu holat xalqaro kreditlar olishda, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda, milliy mahsulotlarni jahon bozorlariga chiqarishda katta yordam beradi.

Asosiy tushunchalar

Xalqaro iqtisodiy integratsiya — milliy iqtisodiyotlarning yagona ishlab chiqarish jarayoniga qo'shilish jarayoni.

Erkin savdo zonasi — tarif va boshqa cheklovlarni bekor qilgan holda erkin savdo olib borish.

Bojxona ittifoqi — o'zaro savdoda to'siqlar bekor qilingan va a'zo bo'lmagan mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona tariflari asosida umumiy tashqi savdo siyosati olib borayotgan mamlakatlar guruhi.

Umumiy bozor — a'zo mamlaktalar o'rtasida tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi va kapitalning erkin harakatini ta'minlashga erishishga harakat qilayotgan mamlakatlar guruhi.

Iqtisodiy va valyuta ittifoqi — ishlab chiqarish omillarining erkin harakati ta'minlangan, ijtimoiy-iqtisodiy, jumladan, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, energetika, valyuta-moliya sohalarida yagona siyosat amalga oshirilayotgan, umumiy valyutani muomalaga kiritilgan mamlakatlar guruhi.

To'liq iqtisodiy integratsiya — yagona iqtisodiy siyosat yuritish, umumiy valyuta va milliy boshqaruvdan yuqori tashkilotlarni joriy etish.

BENILYUKS — 1960-yilda Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg o'rtasida imzolangan iqtisodiy ittifoq.

Markaziy Yevropa erkin savdo uyushmasi (MEESA) — 1993-yilda Vengriya, Polsha, Slovakiya, Chexiya, Sloveniya tomonidan imzolangan erkin savdo uyushmasi.

NAFTA — 1992-yilda AQSh, Kanada va Meksika o'rtasida tuzilgan Shimoliy Amerika Erkin savdo assotsiatsiyasi.

MERKOSUR — Janubiy Amerika umumiy bozori yoki Janubiy konus mamlakatlari umumiy bozori.

ASEAN — 1967-yilda Bruney, Vyetnam, Indoneziya, Kambodja, Laos, Malayziya, Myanma, Singapur, Tailand va Filippin tomonidan tashkil etilgan Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi.

APEC — 1989-yilda Avstraliyaning taklifi bilan Tinch okeani xavzasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan Osiyo–Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati.

Nazorat savollari

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya zaruriyati nimada va u qanday shart-sharoitlarga ega bo'lishi kerak?
2. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish omillari nimalardan iborat?

3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish bosqichlari va ularning vazifalarini tushuntirib bering.
4. Jahonda faoliyat olib borayotgan qaysi xalqaro iqtisodiy integratsiya birlashmalarini bilasiz va ularni rivojlanish jihatidan guruhlang.
5. YeI qachon tashkil etilgan va rivojlanish jihatdan integratsiyaning qaysi bosqichida turibdi?
6. Shimoliy Amerika mintaqasida qaysi iqtisodiy integratsion birlashma faoliyat ko'rsatmoqda va uni o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
7. Lotin Amerikasi mintaqasida qaysi integratsion birlashmalar mavjud va ular faoliyatining o'ziga xos jihatlarini tushuntirib bering.
8. Osiyo mintaqasi integratsiyasiga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
9. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiya birlashmalaridagi ishtirokini baholang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Rasmiy hujjatlar

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: O‘zbekiston, 2012.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida»gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida»gi Qonuni, 1996-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Xorijiy investorlarning huquqlari kafolatlari va himoyalash choralari to‘g‘risida»gi Qonuni, 1998-yil.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Chet ellik investorlar kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida»gi Qonuni, 1998-yil.
6. O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni, 1998-yil.
7. O‘zbekiston Respublikasining «Lizing to‘g‘risida»gi Qonuni, 1999-yil.
8. O‘zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog‘ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni, 2001-yil.
9. O‘zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida»gi Qonuni, 2003-yil.
10. O‘zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida»gi Qonuni, 2008-yil.
11. O‘zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida’gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni, 2009-yil.
12. O‘zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni, 2009-yil.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari va farmonlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 09.02.1998-y. PF-1924-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «To‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 11.04.2005-y. PF-3594-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 21.07.2005-y. PF-3631-sonli Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi 3594-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2007–2010-yillarda xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 20.07.2007-y. PQ-672-sonli Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 24.07.2008-y. PQ-927-sonli Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotning real sektori korxonalari moliyaviy barqarorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 18.11.2008-y. PF-4053-sonli Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘isida»gi 28.11.2008-y. PF-4058-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 24.07.2008-y. PQ-927-sonli Qarori.
10. Распоряжение Президента Республики Узбекистан «О мерах по реализации инвестиционных соглашений, подписанных по итогам международной конференции «Свободная индустриально-экономическая зона в Навои: новые инвестиционные возможности для корейских партнеров» от 25.03.2009 г. № Р-3147.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2010-yilgi Investitsiya dasturi to‘g‘risida»gi 28.10.2009-y. PQ-1213-sonli Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi Investitsiya dasturi to‘g‘risida»gi 17.11.2014-y. PQ-2264-sonli Qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi 2014-yil 4-dekabrdagi PQ-2270-sonli Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va tugatish tartibi to‘g‘risida»gi 336-sonli Qarori, 02.07.1997-y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 205-sonli Qarori, 02.05.2003-y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 2-maydagi «To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 58-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi kuch agregatlari ishlab chiqaradigan «Djeneral motors pauertreyn — O‘zbekiston» korxonasi qurilishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 279-sonli Qarori, 26.12.2008-y.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 23-apreldagi 120-son Qaroriga 2-ilova «Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida alohida soliq rejimini ta’minlash tartibi to‘g‘risida Nizom».
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida alohida bojxona rejimi hamda alohida soliq rejimini ta’minlash tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida»gi 23.04.2009-y. 120-sonli Qarori.
7. Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 9-apreldagi 105-son qaroriga 2-ilova «Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonasida joylashtirish uchun investorlarni tanlash tartibi to‘g‘risida Nizom».
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish uchun tijorat banklariga kredit liniyalarini ochish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 10.03.2009-y. 61-sonli Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2010-yilda O‘zbekiston Respublikasiga xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlar, donor mamlakatlarning beg‘araz texnik ko‘magi (grantlari) jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2010-yil 9-martdagi 40-son Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat Soliq qo‘mitasi va Iqtisodiyot vazirligining 2005-yil 3-avgustdagi 61, 2005–40, 60-son qarori bilan tasdiqlangan «To‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida Nizom».

II. Maxsus adabiyotlar

1. Каримов И. А. Бизнинг бош мақсадимиз — жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. — Т.: «Ўзбекистон», 2005. — 96 б.
2. Каримов И. А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. — Т.: «Ўзбекистон», 2007. — 48 б.
3. Каримов И. А. Демократик ҳуқуқий давлат, эркин иқтисодиёт талабларини тўлиқ жорий этиш, фуқаролик жамияти асосларини қуриш — фаровон ҳаётимиз гаровидир. — Т.: «Ўзбекистон», 2007. — 64 б.
4. Каримов И. А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш — бизнинг олий мақсадимиз. — Т.: «Ўзбекистон», 2008. — 48 б.
5. Каримов И. А. Инсон манфаатлари устуворлигини таъминлаш — барча ислоҳот ва ўзгаришларимизнинг бош мақсадидир. — Т.: «Ўзбекистон», 2008. — 64 б.
6. Каримов И. А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. — Т.: «Ўзбекистон», 2009.
7. Каримов И. А. Асосий вазифамиз — ватанимиз тараккиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. — Т.: «Ўзбекистон», 2010. — 80 б.
8. Каримов И. А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. — Т.: «Ўзбекистон», 2011.

9. Каримов И. А. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги боскичга кўтарадиган йил бўлади. – Т.: «Ўзбекистон», 2012. — 36 б.
10. Каримов И. А. Бош мақсадимиз — кенг кўламли ислоҳотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. — Т.: «Ўзбекистон», 2013. — 64 б.
11. Каримов И. А. 2014 йил юқори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислоҳотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади. — Т.: «Ўзбекистон», 2014. — 64 б.
12. Абдуллаев Р., Асташев А. ЕБРР расширяет финансирование частного сектора в Узбекистане. //БВВ, № 102 (1211). 24.12.2009.
13. Абдурасулова Дж. Республика Корея: промышленная политика в условиях глобализации. //Мировая экономика и международные отношения, № 5, 2009. с. 100–107.
14. АБР и Узбекистан готовиться к утверждению новых проектов. //БВВ, № 21 (1234), 23.03.2010.
15. Андрианов А. Ю., Валдайцев С. В., Воробъев П. В. Инвестиции: учебник. — М.: Проспект, 2007.
16. Аганбегян А. О месте экономики России в мире. //Вопросы экономики. № 5, 2011.
17. Александр С. Деньги от председателя, или финансовая стабилизация в Китае. //Центразия, 07.04.2003
18. Ананьев А. Противоречивость роли МВФ в современной мировой экономике. // Международная экономика, № 5, 2008.
19. Антюшина Н. Северная Европа: формула успеха (североевропейская модель в действии). //Экономист, № 7, 2014. с. 63–73.
20. Акиндинова Н., Кузьминов Я., Ясин Е. Российская экономика на повороте. //Вопросы экономики, № 6, 2014. с. 4–17.
21. Стамбульские решения будут в центре внимания в будущем году. // ББВ, 13.10.2009. № 80 (1189).
22. Минин Б. В., Таранкова Л. Г. Деятельность «Группы 20» по преодолению мирового финансового кризиса. // Деньги и кредит, № 5, 2009. С. 35.
23. Баранов А. О. Платежный баланс России: от кризиса до кризиса. //ЭКО, № 11, 2011. с. 109–120.
24. Бардацци Р., Грассини М. Европейский Союз в кризисе: что дальше? // ЭКО, № 12, 2011. с. 63–81.
25. Булатов А. Россия в международном движении капитала: сравнительный анализ. //Вопросы экономики, № 8, 2011. с. 66–76.
26. Бутрин Д., Нетреба П., Сапожков О. Обязательства длительного срока хранения. //Коммерсантъ, № 238, 20.12.2011.
27. Березина А. Структурные изменения в мировой экономике и смена технологических укладов. //Международная экономика, № 9, 2010. с. 26–34.
28. Бергер Я. Китайская модель развития. //Мировая экономика и международные отношения, № 9, 2009. с. 73–81.
29. БРИК — политическая реальность посткризисного мира? Новые возможности для России. Аналитические доклады. Выпуск 1(24) декабрь 2010. — М.: МГИМО-Университет, 2010.
30. Вахабов А. В., Худякова Н. К. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. I часть. — Т.: «Университет», 2006.

31. Вахабов А. В., Худякова Н. К. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. II часть. — Т.: «Университет», 2006.
32. Вахабов А. В. Ўзбекистон Республикаси ва Осиё тараққиёт банки ўртасидаги молия-кредит муносабатларини такомиллаштиришнинг долзарб масалалари. // Халқаро муносабатлар, № 2, 2010.
33. Вахабов А. В. Модели развития финансово-промышленных групп в мировой экономике и возможности его использования в Узбекистане. / «Молия-саноат гуруҳларини ташкил этиш бўйича халқаро тажриба ва Ўзбекистонда корпоратив бошқарувни такомиллаштириш муаммолари» мавзуидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. — М.: МГЭИ, 2008.
34. Вахабов А. В., Хажибакиев Ш. Х., Мўминов Н. Г. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. / и. ф. д., проф. А. В. Вахабовнинг умумий таҳрири остида. — Т.: «Молия», 2010. — 328 бет.
35. Вахабов А. В., Разыкова Г. Х., Хажибакиев Ш. Х. Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики / Под ред. д. э. н., проф. А. В. Вахабова — Т.: Молия, 2011. — 300 с.
36. Вахабов А. В., Разыкова Г. Х. Модернизация экономики. Учебное пособие. — Т.: Iqtisod-Moliya. 2014. — С. 200.
37. Васильев В. С. Мировой финансово-экономический кризис: фаза 3 (пирамиды долга). //США * Канада: экономика, политика и культура, № 3, 2011. с. 3–22.
38. Вашанов А. Распад СССР и его последствия для постсоветских республик. //Экономист, № 11, 2011. с. 79–86.
39. Визит Резидента АБР в преддверии 43-га Ежегодного заседания Совета директоров банка. // Деловой партнер, № 7(828), 18–24.02.2010.
40. Вишневская Н. Проблемы и перспективы рынка рабочей силы. // Мировая экономика и международные отношения, 2000.
41. ВТО: механизм взаимодействия национальных экономик. Угрозы и возможности в условиях выхода на международный рынок. /под ред. С. Ф. Сутырина. — М.: Эксмо, 2008. — 400 с.
42. Гаврилова А. В. Сравнительный анализ иммиграционных моделей США и Канады. //США и Канада: экономика, политика и культура, № 11, 2010. с. 116–126.
43. Гельбрас В. Тридцатилетие эпохи «реформ и открытости» в Китае. // Мировая экономика и международные отношения, № 6, 2009. с. 73–83.
44. Гельбрас В. Россия и Китай: неизбежность судьбоносных перемен. // Вопросы экономики, № 11, 2011. с. 109–121.
45. Гельбрас В. Россия и Китай в условиях глобального кризиса. //Мировая экономика и международные отношения, № 11, 2011. с. 63–71.
46. Григорьев Л., Иващенко А. Мировые дисбалансы сбережений и инвестиций. //Вопросы экономики, № 6, 2011. с. 4–19.
47. Грегори Н. Мэнкью. Макроэкономика. — М.: МГУ, 1994.
48. Груздев А. «Финансовые платформы» местных правительств и их роль в кредитном буме в Китае (2009–2011 гг.). //Вопросы экономики, № 11, 2011. с. 122–132.
49. Губайдуллина Ф. С. Иностранные инвестиции в мировой экономике: тенденции, структура, регулирование: учеб, пособие. Екатеринбург: У ГЭУ, 2002.
50. Гурова И. П. Мировая экономика. Учебник. — М.: Омега-Л., 2007.

51. Гусев К. Н. Иностранные инвестиции как фактор развития инноваций в России. //Банковское дело, № 4, 2011. с. 23–28.
52. Гладков И. С. Посткризисная эволюция международной торговли. // Международная экономика, № 7, 2014. с. 31–38.
53. Дементьев В. Догоняющее развитие через призму теории «длинноволновой» технологической динамики: аспект «окон возможностей» в кризисных условиях. //Российский экономический журнал, № 1–2, 2009. с. 34–48.
54. Давыдов А. Структурные изменения в американской экономике. // Мировая экономика и международные отношения, № 11, 2009. с. 35–47
55. Дилип Р. Денежные переводы мигрантов — живительный источник развития. //Финансы & развитие, Декабрь 2005.
56. Дюмулен И. И. Международная торговля услугами. — М.: ЗАО Издательство «Экономика», 2003.
57. Научные публикации. Банковский вестник. Красавік 2007.
58. Ермолов М. О. Деятельность международных институтов развития в России. //Бизнес и банки, № 42 (1071), 2011. с. 4–8.
59. Ерошкин А. М. Современные тенденции финансирования инноваций в ведущих зарубежных странах. //Экономический анализ: теория и практика, № 21(228), 2011.
60. Ершов А. Интеллектуальная собственность — золотой запас Узбекистана. 2007.
61. Зайцева Ю. Межрегиональная дифференциация в странах БРИК. //Мировая экономика и международные отношения, 2010, № 5, с. 44–51.
62. Ивасенко А. Г. Иностранные инвестиции: учебное пособие / А. Г. Ивасенко, Я. Н. Никонова. — М.: КНОРУС, 2011. — 272 с.
63. Иванова Н. Инновационная сфера: контуры будущего. //Мировая экономика и международные отношения, № 8, 2000.
64. Иванов Н., Гоффе Н., Монусова Г. Глобализация и бедность. Мировая экономика и международные отношения, № 9, 2010. с. 29–412.
65. Иванюк И. В. Международная трудовая миграция: Учебное пособие. — М.: ТЕИС, 2005.
66. Инаба Х., Цуцуми С. «Японское чудо» и советская экономическая реформа. — М.: «Шелковый путь», 1991. с. 67.
67. Иши Т. Промышленные инновации в Японии и роль систем: конкретное исследование на примере Тойота. Сент-Луис, Миссури, 2000.
68. Карчевский Л. Ответственность фирм: пример Японии. //Журнал экономической теории, № 2, 2009. с. 99–103.
69. Киреев А. П. Международная экономика. В 2 ч. Ч. I. Международная экономика: движение товаров и факторов производства: учеб. пособие для вузов. — М.: Междунар. Отношения, 2000. — 416 с.
70. Классенс С., Коуз М. Э. Что такое рецессия? //Финансы & развитие, № 3, 2009.
71. Клинов В. Г. Проблемы регулирования экономики США в исследованиях Пола Кругмана. //Вопросы экономики, № 8, 2009. с. 28.
72. Клинов В. Г. Особенности современной динамики мирового хозяйства. // Вопросы экономики, № 9, 2010. с. 78–92.

73. Клинов В. Г. Экономика России: итоги роста в контексте международных сопоставлений. //Международная экономика, № 7, 2010. с. 16–25.
74. Клинова М. «Возвращение» государства: «скорая помощь» в кризис или устойчивая тенденция? //Мировая экономика и международные отношения, № 5, 2010. с. 18–32.
75. Кондратьев В. Автопром: кризис и инновации. //Мировая экономика и международные отношения, 2011, № 3, с. 12–21.
76. Ковалев Е. Обострение мировой продовольственной ситуации. // Мировая экономика и международные отношения, № 9, 2009. с. 21–29.
77. Кондратов Д. Перспективы евро для России: плюсы и минусы. // Экономист, № 12, 2011. с. 57–74.
78. Козе М. А., Лунгани П., Терронес Е. М. За границами стадиона // Финансы & развитие, № 6, 2009.
79. Кокушкина И. В., Воронин М. С. Международная торговля и мировые рынки. — СПб.: «Техническая книга», 2007.
80. Красильников А. Эволюционные модели в теории экономического роста. //Вопросы экономики, № 1, 2007. с. 66–81.
81. Кредит Всемирного банка для улучшения водоснабжения Сырдаринской области //Банковские ведомости, № 12–13 (723–724), 24.03.2010.
82. Красавина Л. Н. Тенденции развития международных валютных отношений в условиях глобализации мировой экономики. //Деньги и кредит, № 11, 2011. с. 13–21.
83. Кузьмин Д. В. Глобализация и мировая валютная система. // Международная экономика, № 11, 2011. с. 13–27.
84. Куликов А. Г., Куликова Е. Г. Россия и Китай: пути модернизации // Деньги и кредит, № 5, 2011. с. 27–36.
85. Кириченко Э. В., Кулакова В. К. Результаты антикризисной политики США. //Международная экономика, № 11, 2011. с. 47–56.
86. Курманалиева Э. Международные потоки капитала в странах СНГ. // Международная экономика, № 10, 2011. с. 28–30.
87. Ливенцев, Н. Я., Костюнина, Г. М. Международное движение капитала. (Инвестиционная политика зарубежных стран): учебник. — М.: «Экономист», 2004. — 254 с.
88. Линецкий А. Ф. Внешнеэкономическая деятельность регионов России в постцентрализованной экономике. //Международная экономика, № 11, 2011. с. 77–81.
89. Ломакин В. К. Мировая экономика: учебник. /М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. — 671 с.
90. Лучко М. Л. Международная конкурентоспособность государств-реципиентов на мировом рынке прямых иностранных инвестиций. // Вестник Московского университета. Серия 6. Экономика, № 3, 2007.
91. Люкевич И. Н. Мировая денежная система: проблемы и новый финансовый порядок. //Международная экономика, № 11, 2010. с. 48–57.
92. Люкевич И. Н. Мировая денежная система как совокупность валютных регионов. //Международная экономика, № 10, 2011. с. 67–81.
93. Мау В. Экономическая политика 2010 года: в поисках инноваций. // Вопросы экономики, № 2, 2011. с. 4–22.

94. Малышев П. Особенности управления резервными активами в странах Азии. //Мировая экономика и международные отношения, 2011, № 3, с. 28–36.
95. Мансуров Р. Передовой опыт создания индустриальных парков в зарубежных странах и возможная адаптация некоторых их элементов концепций в Республике Узбекистан. //Иностранные инвестиции в Республике Узбекистан. 2010 г., № 1–2, с. 25–30.
96. Международные экономические отношения: учебник / под ред. Б. М. Смитиенко. — М.: ИНФРА-М, 2007.
97. Международные экономические отношения: учебник для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям /под ред. В. Е. Рыбалкина. — М.: ЮНИТИ-ДАТА, 2008. — 591 с.
98. Международный финансовый рынок: Учеб. пособие /Под ред. д. э. н., проф. В. А. Слепова, д. э. н., проф. Е. А. Звоновой. — М.: Магистр, 2007. С. 339.
99. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: Учебник / Под ред. Л. Н. Красавиной. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Финансы и статистика, 2002.
100. Мельянцев В. Экономический рост Китая и Индии: динамика, пропорции и последствия. //Мировая экономика и международные отношения, № 9, 2007.
101. Медовников Д. Одного азарта мало. //Эксперт, № 46, 2011. С. 61.
102. Мировая экономика и международный бизнес: учебник. Коллектив авторов. /Под общ. ред. В. В. Полякова и Р. К. Щенина. 5-е изд. — М.: КНОРУС, 2008.
103. Мировая экономика и международнке экономические отношения: учебник. /под ред. Проф. А. С. Булатова, проф. Н. Н. Ливенцева. — М.: Магистр, 2010. — 654 с.
104. Мировой опыт антикризисной политики: уроки для России. Под ред. акад. РАН ДА Дынкина. — М.: изд. ИМЭМО. 2009.
105. Михеев В., Луконин А., Сафронова Е. Дальше — без заветов. // Мировая экономика и международные отношения, № 12, 2011.
106. Михеев В. Китай: новые компоненты стратегии развития. // Мировая экономика и международные отношения, № 7, 2004
107. Михайлушкин А. И., Шимко П. Д.. Международная экономика. Учебник. — М.: «Высшая школа», 2002.
108. Модернизация России: условия, предпосылки, шансы. /Под редакцией В. Л. Иноземцева. Вып. 1. Стратегические проблемы модернизации. — М.: Центр исследований постиндустриального общества, 2009.
109. Московкин В. М., Тенг Делюкс, Бадер Эддин Альхадид. Развитие методологии оценки экономики знаний //Международная экономика, № 4, 2011. с. 59–75.
110. Мозис П. Китай в период мирового кризиса: бенефициар, жертва или виновник? //Вопросы экономики, № 9, 2010. с. 93–114.
111. Муродов Ч., Саатова Х., Ильина Д. Обеспечение продовольственной безопасности: суть и значение осуществляемых мер по повышению эффективности сельскохозяйственного производства. //Экономический вестник Узбекистана, № 4, 2011. с. 70–72.
112. Надырханов У. С. Прямые иностранные инвестиции в Узбекистане: опыт, проблемы, перспективы роста. — Т.: «Fan va texnologiya», 2011.184 с.

113. Надырханов У. С. Прямые иностранные инвестиции и их роль в экономическом развитии национальных государств. //Экономика и финансы, № 10, 2010. с. 57–59.
114. Нешитой А. С. Императив смены экономического курса. //Бизнес и банки, № 08 (1037) март 2011. с. 1–8.
115. Ниязов Ф. Узбекистан и Германия: перспективы экономического развития. //Бозор, пул ва кредит, № 8, 2011. с. 66–68.
116. Новая стратегия Всемирного банка для Узбекистана. // Банковские ведомости, № 28.16.07.2008.
117. Новоселова Л. КНР: инвестиции в преодоление кризиса (о концепции и направлениях реализации китайской антикризисной политики) // Российский экономический журнал, № 1–2, 2009. с. 61–73.
118. Новоселова Л. Сможет ли Китай стать локомотивом глобального экономического роста? //Российский экономический журнал, № 1, 2010. с. 66–77.
119. Новиков М. М. Необходимые объемы инвестиций и фондовый рынок как потенциальный источник финансирования будущего роста. // Международная экономика, № 11, 2009.
120. Оболенский В. Технологическое соперничество на мировом рынке. // Мировая экономика и международные отношения, № 7, 2003.
121. Основы торговой политики и правила ВТО. — М.: Междунар. отношения, 2006.
122. Овчинников Р., Полякова Ю. Вступление в ВТО должно снизить ценк. //Известия, 19.12.2011.
123. Петрикова Е. М. Платежный баланс стран БРИКС. //Вопросы статистики, № 1, 2012. с. 69–79.
124. Петров М., Плисецкий Д. Трансформация глобальных финансов. // Мировая экономика и международные отношения, № 7, 2010.
125. Плисецкий Д. Е. Ключевые тенденции развития национальных и международных финансовых рынков в 2009–2010 гг. //Бизнес и банки, № 16, 2011. с. 6–8.
126. Нешитой А. С. Инвестиции: учебник. 7-е изд. — М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и Ко», 2008.
127. Портер М. Международная конкуренция. — М.: Международные отношения, 1993.
128. Потапов М. Вступление КНР в ВТО: условия присоединения и последствия для китайской экономики// Внешнеэкономическая модель развития стран Восточной Азии. — М.: Международные отношения, 2004.
129. Проблемы привлечения иностранных инвестиций в Россию. /Бизнес и банки, № 35 (1064), сентябрь 2011.
130. Пузакова Е. П. Мировая экономика и международные экономические отношения. — Ростов-на-Дону.: Феникс, 2004.
131. Расулова Д. В. Ишчи кучи миграцияси ривожланишининг назарий асослари. — Т.: Молия, 2010.276 б.
132. Расулев А. Ф., Тростянский Д. В. Развитие инновационной деятельности национальной экономики в посткризисный период. // Экономика и финансы, № 1.2011.
133. Раковский С. Н. Китай в современном мире. //География, № 18, 2007.
134. Райская Н., Рощина Л., Сергиенко Я., Френкель А., Мальцева И., Баранов Э. Экономика в 2009–2011 гг. //Экономист, № 8, 2010. с. 18–54.

135. Ростоу В. Стадии экономического роста. — Нью-Йорк: Издательство «Фредерик Прегер», 1961.
136. Рудь Н. Механизмы государственной поддержки ПИИ в сферу высоких технологий. //Мировая экономика и международные отношения, № 8, 2008.
137. Рыбак О. Основные тенденции инвестиционной активности. // Экономист, № 12, 2002.
138. Салимова Г. СИЭЗ «Навои»: Уникальность. Развитие. Беспрецедентность. /Биржа, 24.10.09.
139. Савельева А. В. Традиционные и новые факторы нестабильности на мировом рынке продовольствия. //Международная экономика, № 11, 2011. с. 69–76.
140. Саркисянц А. Г. Проблемы привлечения иностранных инвестиций в Россию. //Бизнес и банки, № 35 (1064), 2011. с. 1–3.
141. Севастьянов С. Новые проекты Азиатско-Тихоокеанской интеграции. // Мировая экономика и международные отношения, № 1, 2011. с. 48–54.
142. Сидорова Е. А. Антикризисные программы в Германии и Великобритании. //Международная экономика, № 4, 2010.
143. Сидорова Е. Ю. Международная торговля. — М.: «Экзамен», 2006.
144. Сменковский В. Н. К проблеме ускорения экономического роста в России. //Деньги и кредит, № 1, 2012. с. 13–19.
145. Смирнов А. Китайская экономика: секреты восходящего мирового лидера. //Международная экономика, № 10, 2011. с. 31–41.
146. Смыслов Д. В. Глобальные дисбалансы м согласование национальных макроэкономических политик в рамках «Группы 20». //Деньги и кредит, № 8, 2011. с. 7–12.
147. Смыслов Д. В. Реформирование Международного валютного фонда: проблемы и решения. Регулятивные аспекты. //Деньги и кредит, № 1, 2012. с. 36–43.
148. Соколов В. В. Зона евро: современный этап. //Деньги и кредит, № 8, 2011. с. 46–52.
149. Соколов В. В. Тенденции развития мировой товарной торговли в 1990–2008 гг. //Мировая экономика и международные отношения, № 2, 2011. с. 36–47.
150. Спартак А. Современный регионализм. //Мировая экономика и международные отношения, № 1, 2011. с. 3–15.
151. Стиглиц Дж. Сравнение китайской и зарубежной экономических систем // Цзинцзисюз дунтай, № 5, 2001.
152. Стрельцова Я. Интеграция иммигрантов в условиях экономического кризиса (Европейский и российский опыт). //Мировая экономика и международные отношения, № 1, 2011. с. 55–68.
153. Стрелец И. Новая экономика: гипотеза или реальность? //Мировая экономика и международные отношения, № 3, 2008. с. 16–23.
154. Супян В. Б. США: уроки кризиса. // США * Канада: экономика, политика и культура, № 7, 2010. с. 3–18.
155. Самарцев В. В. Экономическая дипломатия КНР в Азиатском регионе. //Международная экономика, № 8, 2014. с. 25–41.
156. Сидоров А. А. Кризис конкурентоспособности еврозоны. // Международная экономика, № 3, 2014. с. 30–39.
157. Савойский А. Г. Второй цикл Группы БРИКС. //Международная экономика, № 7, 2014. с. 21–28.

158. Теперман В., Шевакина О. Мексика в поисках баланса внешнеэкономических связей. //Мировая экономика и международные отношения, № 9, 2007. с. 82–90.
159. Теперман В. А. Бразилия — «восходящий гигант» мировой экономики. //Международная экономика, № 8, 2011. с. 4–13.
160. Тулин Д. В. Трансграничное движение капиталов, инвестиционный климат и возможности увеличения инвестиций в российскую экономику. //Деньги и кредит, № 6, 2011. с. 3–13.
161. Тюрюканова Е. Россия будет все сильнее зависеть от труда мигрантов. //Демоскоп Weekly, № 315–3161.20.12.2008.
162. Трещенков Е. Европейская и евразийская модели интеграции: пределы соизмеримости. //Мировая экономика и международные отношения, № 5, 2014. с. 31–41.
163. Узбекистан 2009 в цифрах: действенность антикризисных решений // Экономическое обозрение, № 3, 2010.
164. Улашев И. О., Ашурова Н. Б. Свободная экономическая зона — путь к инновационному предпринимательству в регионе. //Экономика и финансы, № 11, 2010. с. 2–7.
165. Федяшева Г. Международные финансовые институты на рынке Узбекистана: инвестиции е приоритетные проекты //Биржа-Эксперт, № 3, 2009.
166. Федяшева Г. Развитие инновационного потенциала Узбекистана в условиях модернизации экономики//Рынок, деньги, кредит, № 08(171), 2011.
167. Фролова Е. В. Мировой финансовый рынок: до и после кризиса. //ЭКО. 2010 г., № 7, с. 160–171.
168. Фаненко М. Международная ликвидность и диверсификация официальных резервных активов. //Мировая экономика и международные отношения, № 6, 2007.
169. Хейфец Б. А. Мировой опыт успешных модернизаций. // Международная экономика, № 6, 2011. с. 21–28.
170. Ходжаев Р. Узбекистан: возможности для привлечения иностранных инвестиций есть. //БВВ, № 7 (733), 16.02.2008.
171. Хорошилов Е. Е. Финансовый сектор Канады и мировой экономический кризис. //США * Канада: экономика, политика и культура, № 8, 2010. с. 67–82.
172. Харланов А. Переход БРИК в БРИКС. //Международная экономика, № 1, 2014. с. 29–35.
173. Шапаров А. Е. Иммиграционная политика Канады: генезис и современное состояние. //США * Канада: экономика, политика и культура, № 7, 2010. с. 47–59.
174. Швандар К. В. Прямые иностранные инвестиции в странах BRIC. // Банковское дело, № 02, 2008. С. 46–48.
175. Шишков Ю. Уровень бедности в современном мире: методологические споры. // Мировая экономика и международные отношения, № 1, 2006.
176. Шишков Ю. Государство и догоняющее развитие. //Мировая экономика и международные отношения, № 6, 2011. с. 15–29.
177. Шумский Н. Содружество независимых государств: первые двадцать лет. //Вопросы экономики, № 12, 2011. с. 90–101.

178. Шуркалин А. К. Финасовая глобализация и мировой финасово-экономический кризис. //Международная экономика, № 11, 2011. с. 5–12.
179. Шейхова У. Д. Экономика Японии: современное состояние и тенденции развития. //Международная экономика, № 11, 2011. с. 28–46.
180. Щербакова Е. В 2010 году в России легально трудилось 1641 тысяча иностранных работников. //Демоскоп Weekly, № 315–3161.20.12.2008.
181. Шохаъзамий Ш. Ш. Методологические основы и приоритеты стратегического развития рынка ценных бумаг в Узбекистане. Автореферат на соискание уч. степ. д. э. н. — Т.: «HUMOYUNBEK-IS-TIQLOL MO'JIZASI», 2011.
182. Шлихтер А. Общественные блага в США: распределение и финансирование. //Мировая экономика и международные отношения, № 5, 2014. с. 42–52.
183. Юнусова Д. Всемирный банк и Узбекистан: сотрудничество укрепляется. //Рынок, деньги, кредит, № 19 (173), 2001. с. 35.
184. Цаголов Г. Великая китайская конвергенция. //Вопросы экономики, № 11, 2011. с. 133–141.
185. Цветков В. А. Причины, развитие и последствия экономического кризиса для России. // Международная экономика, № 3, 2010. с. 5–12.
186. Цапенко И. Экономический цикл и международная миграция населения. //Мировая экономика и международные отношения, № 8, 2011. с. 31–42.
187. Паньков В. Глобализация экономики. //Мировая экономика и международные отношения, 2011, № 1, с. 16–24.
188. Пискулев Ю. В. Международная торговля товарами и услугами (участники, структура, динамика, география). //Международная экономика, № 10, 2011. с. 56–66.
189. Петров М., Плисецкий Д. Трансформация глобальных финансов. // Мировая экономика и международные отношения, № 7, 2010. с. 3–22.
190. Покровская В. В. Характер современного развития мировой торговли и участие в ней России. // Международная экономика, № 10, 2010. с. 5–16.
191. Пылин А. Г. Кризис в странах СНГ на фоне глобального спада: механизмы и факторы распространения. Международная экономика, № 10, 2010. с. 62–69.
192. Доклад Стиглица. О реформе международной валютно-финансовой системы: уроки глобального кризиса. Доклад Комиссии финансовых экспертов ООН. — М.: Междунар. отношения. 2010. — 328 с.
193. Ўзбекистон — Япония: самарали ҳамкорликнинг 20 йили /Халқ сўзи. 26.01.12.
194. Яков Б. Инновационные перспективы Китая. //Отечественные записки, № 3 (42), 2008.; Кокшаров А. Внутреннее развитие через глобальную экспансию. //Эксперт, № 46 (540). 11.12.2006.
195. Ни Сяолинь. Расширять внутреннее потребление! //Китай, № 9 (47), 2009.
196. Энрю Берг и Энн Кригер. Что будет означать вступление в члены ВТО для Китая и его торговых партнеров? //Финансы и развитие, № 3, выпуск 39, 2002.
197. The Truth About Industrial Country Tariffs. //Finance and Development, Volume 39, Number 3 September 2002.

198. Стеркин Ф. Проще меняться, когда ты маленький. //Ведомости, 9.11.2011.
199. Лютова М., Трифанов А. Конец истории успеха. //Ведомости, 29.12.2011.
200. Интеллектуал мулк қонун ҳимоясида// Халқ сўзи. 24 январь 2008 йил.
201. Иноземцев В. Локомотивы роста. //Ведомости, 20.04.2009.
202. Овчаренко М. Америка сдулась /Ведомости, № 242 (2512), 22.12.2009
203. Баранов С. В., Скуфьина Т. П. Землетрясение 11.03.2011 вблизи Восточного побережья Японии: последствия для мировой экономики (по данным статистики). //Вопросы статистики, № 11, 2011. с. 64–71.
204. Оверченко М. Три угрозы мировой экономики. /Ведомости, 14.03.2011.
205. Минь Чжу. Появление новых задач. //Финансы и развитие, Июнь 2011.
206. Ведомости, № 214 (2980), 14.11.2011.
207. Милов Г. Инновации без денег. /Ведомости, 26.11.2011.
208. Махонин А. Отлучить от казны. // Ведомости, 26.12.2011.
209. Товкайло М., Лютова М. Наконец-то ВТО. //Ведомости, 30.12.2011.
210. Аутсорсингу ищут замену. //Коммерсантъ, 30.01.2012.
211. Кокшаров А. Европа на игле миграции. //«Эксперт», № 37 (343), 7.10.2002.

III. Xalqaro moliya institutlarining hisobotlari, statistik to'plamlar

1. Asian Development Bank. Annual report, 2007.
2. Asian Development Bank: Promoting Environmentally Sustainable growth in Asia and the Pacific. Annual report, 2013.
3. Bilateral Investment Treaties 1959–1999. UN, New York and Geneva, 2000.
4. Balance of Payments Statistics Yearbook. Parts 1&2. Washington, 1995.
5. Schumpeter J. Essay on Economic Topics N. Y. 1969.
6. Barroso, J. M. D. Counting the Cost of Counterfeits: Fakes Cost More: Speech at the Global Anti-Counterfeit Summit, Brussels, 10 March 2008.
7. Economic Report of the President. Washington. 2010.
8. ECB Convergence Report. May 2010.
9. External Debt Statistics: Guide for Compliers and Users (The Guide). IMF. 2003.
10. Economics & Markets. WEEKLY. 24 ноября 2008.
11. FAO. 2002. The State of Food Insecurity in the World 2001. Rome, 2014
12. Food and Nutrition in Numbers 2014. Rome, 2014. p. 249.
13. Global Employment Trends 2011: The challenge of a jobs recovery / International Labour Office. — Geneva: ILO, 2011.
14. Global Employment Trends 2014: Risk of a jobless recovery? / International Labour Office. — Geneva: ILO, 2014. p. 126
15. Global Economic Prospects 2014: Coping with policy normalization in high-income countries. Washington, 2014. p. 162.
16. Human Development Report 2014: Sustaining Human Progress: Reducing Vulnerabilities and Building Resilience. New York, 2014. p. 239.
17. International Monetary Fund, IMF Financial Operations (Washington, October 2014). P. 183.
18. International Investment Instruments: a Compendium. Vol. I–IX. UN, New York and Geneva, 2002

19. International Financial Statistics Yearbook/IMF.. Wash. 2000–2008.
20. Islamic development bank. Annual Report 1434H (2013) Sha'ban 1435H (June 2014). P. 85.
21. Migration and Remittances Factbook 2011. Second edition. The World Bank — Washington, 2011.
22. Measurements: A Technical Review. New York and Rome: UNICEF and IFAD.
23. Migration and Remittances Factbook 2011. Second edition. The World Bank — Washington, 2010.
24. Migration and Development Brief 13. November 8, 2010.
25. Migration and Development Brief 22. April 11, 2014
26. Report of the World Food Conference, Rome 5–16 November, 1974.
27. R&D Magazin. 2011 Global R&D Funding Forecast.
28. Services Profiles 2014. WTO. Geneva, 2014. p. 168.
29. The Global Competitiveness Report 2009–2010 World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2009. p. 492.
30. The Global Competitiveness Report 2014–2015. World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2014. p. 548.
31. Trade Profiles 2011. WTO. Geneva, 2011.
32. Trade Profiles 2014 WTO. Geneva, 2014. p. 202.
33. UNCTAD Handbook of Statistics 2010. New York and Geneva 2010.
34. UNCTAD Handbook of Statistics 2014. New York and Geneva 2014. p. 364.
35. World Investment Report 2000. UNCTAD. New York and Geneva, 2001.
36. Word Investment Report. 2004: Trend and Determinants. UNCTAD. New York and Geneva, 2004.
37. World Investment Report 2007: Transnational Corporations, Extractive Industries and Development. UNCTAD. New York and Geneva, 2007.
38. World Investment Report 2009: Transnational Corporations, Agricultural Production and Development. UNCTAD. New York and Geneva, 2009.
39. World Investment Report 2010: Investing in a Low-carbon Economy. UNCTAD, — New York and Geneva, 2010.
40. World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. UNCTAD, — New York and Geneva, 2014. p. 264.
41. World Economic Outlook: October 2001. IMF, 2001.
42. World Economic Outlook: September 2003. IMF, 2003
43. World Economic Outlook: Rebalancing Growth. April 2010.
44. World Economic Outlook: Slowing Growth, Rising Risks. September 2011. IMF, 2011.
45. World Economic Outlook: Legacies, Clouds, Uncertainties. Washington (October). IMF, 2014. p. 242.
46. World Development Report 2006. World Bank.
47. World development report 2011: Conflict, Security, and Development. The World Bank. Washington, 2011.
48. World development report 2012. Gender equality and development. The World Bank. Washington, 2013.
49. World Development Report 2014: Risk and Opportunity — Managing Risk for Development. Washington. 2014. p. 362.
50. World Tariff Profiles 2014. WTO. Geneva, 2014. p. 204.

51. Положение дел в связи с отсутствием продовольственной безопасности в мире, 2010. FAO, Рим, 2010. — 70 с.
52. Доклад о мировом развитии 2004. Улучшение инвестиционного климата в интересах всех слоев населения. Всемирный банк. — М.: 2005.
53. Доклад о мировом развитии. 2005. Как сделать инвестиционный климат благоприятным для всех / Пер. с англ. — М.: 2005.
54. Доклад о мировых инвестициях 2005 год. Транснациональные корпорации и интернационализация НИОКР. Нью-Йорк и Женева, 2005.
55. Доклад о мировых инвестициях 2007 год. Транснациональные корпорации, добывающая промышленность и развитие. Нью-Йорк и Женева, 2007.
56. Доклад о торговле и развитии, 2006 год. Глобальное пространство и национальная политика в целях развития. ООН Нью-Йорк и Женева, 2006.
57. Доклад о мировом развитии 2007. Развитие и новое поколение. Всемирный банк. — М.: 2007.
58. Доклад о развитии человека 2009. Преодоление барьеров: человеческая мобильность и развитие / Пер с анг.; ПРООН — М.: Издательство «Весь мир», 2009. — 232 с.
59. Доклад о развитии человека 2010. Реальное богатство народов: пути к развитию человека / Пер. с англ.; ПРООН. — М., Издательство «Весь Мир», 2010.
60. Доклад о человеческом развитии 2013. Возвышение Юга: человеческий прогресс в многообразном мире. — М. Изд. «Весь Мир», 2013.
61. Идрис К. Интелуктуальная собственность: мощный инструмент экономического роста. Обзор. 2003.
62. Международный валютный фонд. Годовой отчет 2009. Преодоление глобального кризиса. Вашингтон, 2010.
63. Практическое руководство по Уругвайскому раунду, выпущенное совместно Международным торговым центром ЮНКТАД/ВТО (МТЦ) и Секретариатом Содружества. Женева, 1995.
64. Деловая Япония, тома XIV-XV. Экономика и связи с Россией в 2007–09 гг. — М.: «ПОЛПРЕД Справочники», 2009. — 488 стр.
65. Мировой кризис и Япония / Рук. проекта Э. В. Молодякова. — М., АИРО-XXI. 2009. — 256 с.
66. Способы организации международного производства, не связанные с участием в капитале, и развитие. Обзор. ЮНКТАД. Нью-Йорк и Женева, 2011.
67. Перспективы развития мировой экономики. Замедление роста, увеличение рисков. Обзор. Сентябрь 2011. МВФ. Вашингтон, 2011
68. От плана к рынку. Отчет о мировом развитии — 1996. МБРР/Всемирный банк, 1996.
69. MIGA Годовой отчет 2011. Вашингтон, 2011.
70. ICSID Annual report, 2014. p. 38.
71. Руководство по статистике международной торговле услугами. ООН: Нью-Йорк. 2004.
72. Россия в цифрах. 2011: Крат. Стат. Сб. /Росстат. — М., 2011.
73. Россия в цифрах. 2014: Крат. стат. сб. /Росстат — М., 2014. — 558 с.
74. Основные тенденции и показатели экономического и социального развития Республики Узбекистан за годы независимости

(1990–2010 гг.) и прогноз на 2011–2015 гг. Стат. сб. — Т.: Узбекистан, 2011. — 136 с.
75. Альманах Узбекистан 2013. Статистический сборник. — Т., 2013, — 167 с.
76. Асосий йўналишлар ва фаолият натижалари. Йиллик ҳисобот, 2012. Ўзбекистон Республикаси Давлат патент идораси, 2013. — Т., 2013.101 б.
77. Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами, 2013. — Т.: «Хаёт нашр» МЧЖ, 2013.344 б.
78. Торговля в Узбекистана, 2013. Статистический сборник. — Т., 2013. — 120 с.
79. Узбекистан в цифрах, 2010. Статистический сборник. — Т., 2009. — 176 с.
80. Узбекистан в цифрах, 2013. Статистический сборник. — Т., 2013. — 186 с.

IV. Internet resurslari

1. www.unctad.org.
2. www.oecd.org.
3. www.doc.gov
4. www.itd.org
5. www.opic.gov
6. www.unctad.org/fdistatistics
7. http://www.adb.org
8. www.ft.com.
9. www.cisstat.org
10. www.recovery.gov/
11. www.oecd.org/std/TISclass.pdf.
12. www.e-forecasting.com/US Economic Forecasts.him.
13. European Commission
http://ec.europa.eu/economy Jjnance/euro/index_en.htm
14. http://www.cisstat.com/rus/Evrostatbooklet.pdf
15. http://www.oecd.org/document/25/0,3746,
en_2649_37443_47675097_1_1_1_37443,00.html
16. http://top.rbc.ru/economics/14/02/2012/637788.shtml
17. http://www.centrasia.ru/newsA.php?stк1049697540
18. http://geo.1september.ru/article.php?IDк200701906
19. htpp://www.uniastrum.ru
20. http://mirec.ru/index.php?option=com_content&task=view&id=101
21. http://www.chinawindow.ru/?/ru/news/kitaj_i_wto
22. www.economist.com
23. htpp://www.china.org.cn/russian/31516.htm
24. http://www.russian.xinhuanet.com/russian/2009–01/15/content_800925.htm
25. http://russian.sme.gov.cn/huanjing/gaikuang/20081105/033829.html
26. http://russian.china.org.cn/business/txt/2009–05/12/content_17765725.htm
27. http://www.uzinform.com/ru/news/20110929/09167.html
28. www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/2002/09/smith.htm.
29. www.rhd.uz
30. http://europa.eu.int/comm/internal_market/en/intprop/indprop/922.htm
31. www.patent.uz/istoriya_uz
32. www.patent.uz/uzb/stasi

33. http://www.ft.com/reports/ft-500–2011
34. www.wipo.int/pressroom/ru/articles/2008/article_006.html
35. www.vedomosti.ru
36. http://demoscope.ru/weekly/2010/0431/tema03.php
37. http://www.adb.org/About/members.asp
38. http://www.adb.org/Documents/Translations/Russian/Factsheets/UZB-Fact-Sheet-RU.pdf

Muharrir: U. Radjabova

Dizayn va verstka: A. Holmatov

Bosishga 02.07.2015-y. ruxsat etildi.
Bichimi: 70×100 1/16.
Ofset qogozi. "Times" garniturasi.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i: 36,50. Nashr tabog'i: 47,45
Adadi 500 nusxa.

Nashriyot litsenziyasi AI № 263 31.12.2014
Nashriyot uyi "Baktria press"
100000. Toshkent, Buyuk Ipak Yuli mavzesi 15-25.
Tel.: +998 (71) 233-23-84

Mega Basim bosmaxonasida chop etildi:
Baha Is Merkezi, Haramidere, Istanbul, Turkey.
www.mega.com.tr

ISBN 978-9943-4414-8-4

341.32.63
05.5
B x24

ISBN: 978-9943-4414-8-4